

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI TALABA VA O'QUVCHILARNI MA'NAVIY
YUKSALISHIGA KO'MAKLASHISH MARKAZI**

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TURKIYA "DIGITAL KINGDOM OF EDUCATION" TA'LIM MARKAZI

YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI TOSHKENT SHAHAR BOSHQARMASI

O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI TOSHKENT SHAHAR KENGASHI

NAVOIY VILOYATI LIDER YOSHLAR VA AYOLLAR MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULOTDA VAZIYATLAR
VAZIRLIGI AKADEMIYASI**

O'ZBEKISTON NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTI ASSOTSIATSIYASI

“TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR: OLIMLAR VA YOSHLAR NIGOHIDA”

**mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy
konferensiya to'plami**

2023-yil 13-aprel

“Ta'lim tizimidagi islohotlar: olimlar va yoshlar nigohida” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to'plami // Toshkent, 2023-yil 13-aprel. – 717 b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-avgustdagi “Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4433 sonli Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Talaba va o'quvchilarni ma'naviy yuksalishiga ko'maklashish markazi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Turkiya “Digital kingdom of education” ta'lim markazi, Yoshlar ishlari agentligi Toshkent shahar boshqarmasi, o'zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent shahar hududiy Kengashi, Navoiy viloyati Lider yoshlar va ayollar markazi, O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Favqulotda vaziyatlar vazirligi akademiyasi, O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi hamkorligida **“Ta'lim tizimidagi islohotlar: olimlar va yoshlar nigohida”** mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi o'tkazildi.

Mazkur konferensiya to'plamida ikki yuzta maqolalar jamlangan.

Tahrir hay'ati:

Qodirjon Abdurahimov – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Mansur Aytbayev – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Jamshid Yusubov – siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Kamoliddin Jabborov – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Serobjon Yuldashev - falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Baxtiyor Mamasoliyev – fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Surojbek Sultonov – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Jaloliddin Yusubov – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Umid Menglikulov – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Rasul Ro'zmetov – katta o'qituvchi;

Bekzod Ernazarov – katta o'qituvchi;

Sarvar Jumayev – o'qituvchi.

Tashkiliy qo'mita kotibi:

Gulbonu Kuvatova – Navoiy viloyati Lider yoshlar va ayollar markazi rahbari

Maqolalarning to'g'ri va aniqligiga mualliflar mas'uldir.

© Ta'lim tizimidagi islohotlar: olimlar va yoshlar nigohida

TENGLAMALARNI FUNKSIYA GRAFIGIDAN FOYDALANIB YECHISHDA GEOGEBRA DASTURINI QO'LLASH

Abdiyeva Shoira

Chirchiq davlat universiteti tayanch doktoranti

Umumiy o'rta ta'limning Matematika o'quv dasturida Matematika ta'limini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida matematika fanini o'qitishning yangi sifat bosqichiga ko'tarish, jumladan zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil etishning yangi ilmiy yo'nalishlari va tamoyillarini tadbiiq etish, Informatika va axborot texnologiyalari fani yordamida matematika fanini o'qitish jarayonining samaradorligini turli ko'rinishdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kompyuter texnikasidan foydalanish, matematikani o'qitish jarayoni samaradorligini va natijaviyligini ta'minlashda zamonaviy raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmani shakllantirishni nazarda tutadi.

Bizga ma'lumki, 10-sinf algebra kursida funksiyalar va tenglamalar mavzulari o'rgatiladi. Xususan, ratsional, ko'rsatkichli, logarifmik, trigonometrik tenglamalar mavzusini yoritishda funksiya grafigidan foydalanish, funksiyalar mavzusi bilan uzviylikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. O'quvchiga tenglamalarni yechishda nafaqat algebraik usullardan, balki funksiya grafigi orqali tushuntirish, mavzuni tushunishni osonlashtiradi, ma'lumotlarni yaxshiroq tartibga solish va tahlil qilish imkonini beradi. Bunda funksiya grafigini tasvirlashda Geogebra Graphic calculator, Desmos graphing calculator va shu kabi dasturlardan foydalanildi. Bu dasturlardan o'quvchilar mobil qurilmalar orqali ham foydalanib chizishlari mumkin.

Tenglamalarni funksiya grafigidan foydalanib, ildizini topishda 2 xil usuldan foydalanish mumkin:

1. Tenglamani ikkita funksiya ajratish va ularning grafigini chizib, kesishish nuqtalarining absissasini topish.

2. Tenglamaning bir tomonini 0 ga tenglab, ikkinchi tomonidagi funksiya grafigini tasvirlab, uning absissa ya'ni Ox o'qi bilan kesishish nuqtalarini topish.



Tenglamalarning bitta, ikkita yoki undan ko'p ildizlarga ega bo'lganda, ildizlari taqribiy qiymatga ega bo'lganda, ildizi mavjud bo'lmagan holatlarni tasvirini ko'rsatish orqali tenglama ildizi funksiya grafigida qanday joylashishini ko'rib tushunish imkonini beradi.

Quyida ko'rsatkichli tenglamalarni funksiya grafigi yordamida yechishni ko'rib chiqaylik.

Tenglama bitta ildizga ega bo'lganda, funksiya grafigiga qaraylik.

1-misol. $3^x \cdot 3 = 9$ tenglamani yeching.

$f(x) = 3^x \cdot 3$ va $g(x) = 9$ funksiya grafigini GeoGebra dasturida chizamiz. Grafikdan ko'rish mumkinki, funksiya grafiklari (1;9) nuqtada kesishadi. Demak, berilgan tenglama $x = 1$ ildizga ega.





Tenglama taqribiy ildizga ega bo'lgan holatni ko'raylik.

2-misol. $2^x = 3$ tenglamani yeching.



Tenglama $x = \log_2 3 \approx 1,585$ taqribiy ildizga ega. Funksiyani yuqorida keltirilgan kabi 2 xil holatda ham tasvirlash mumkin.

1) holatda tenglama ildizi $f(x) = 2^x$ va $g(x) = 3$ funksiyalarning kesishish nuqtasi bo'ladi.






2) holatda tenglama ildizi $h(x) = 2^x - 3$ funksiyaning Ox o'qi bilan kesishish nuqtasi bo'ladi. Aniqlik uchun tenglamaning $x = \log_2 3 = 1,585$ ildizini p funksiya sifatida ko'rsatish mumkin.




Tenglama ildizga ega bo'lmaganda funksiya grafigining tasvirini ko'raylik.



3-misol. $3^x = -3$ tenglamani yeching.

Bunda $f(x) = 3^x$ va $g(x) = -3$ funksiyalar kesishmaydi. Chunki $f(x) = 3^x$ funksiyaning qiymatlar sohasi $(0; +\infty)$ to'plamdan iborat, $g(x) = -3$ funksiyaning qiymatlar sohasi esa $\{-3\}$ to'plamdan iborat. Demak, yuqoridagi to'plamlar kesishmaydi. Tenglama ildizga ega emas.




Quyidagi tenglamada uchta funksiya qatnashgan va ularni alohida tasvirlab, tenglama ildizlarini funksiya grafigida ko'rish kutilgan natijani bermaydi. Bu holatda tenglamani butun bir funksiya sifatida tasvirlash tenglama ildizini aniq ko'rish imkonini beradi.

4-misol. $9 \cdot 16^x + 2 \cdot 12^x - 32 \cdot 9^x = 0$ tenglamani yeching.

Berilgan tenglama bitta haqiqiy ildizga ega, chunki grafik Ox o'qi bilan bitta $A(2;0)$ nuqtada kesishgan. Demak, tenglama yagona $x = 2$ ildizga ega.

GeoGebra Graphing Calculator



<input checked="" type="radio"/>	$f : y = 9 \cdot 16^x + 2 \cdot 12^x - 32 \cdot 9^x$
<input type="radio"/>	$A = \text{Intersect}(f, x\text{Axis}, (2, 0))$ $= (2, 0)$
<input type="checkbox"/>	Input...



Ko'rsatkichli tenglama 2 ta haqiqiy ildizga ega bo'lgan holni ko'rib chiqaylik.

5-misol. $4^x - 6 \cdot 2^x + 8 = 0$ tenglamani yeching.

Grafikdan ko'rinadiki tenglamaning ildizlari ikkita $A(1;0)$ va $B(2;0)$ nuqtada ya'ni Ox o'qi bilan kesishish nuqtalari bo'ladi. Demak, tenglama ildizlari $x_1 = 1$ va $x_2 = 2$.



Tenglamalarni yechishda funksiya grafigidan foydalanish, hayotda huddi xarita orqali manzilni topishga o'xshaydi, ya'ni biror shaxar yoki ko'chani uning nomini eshitib topgandan ko'ra, xarita orqali topib borish, manzil haqida aniqroq tasavvur qilish imkonini beradi. Shu bilan birga o'quvchining tenglamalar va funksiyalar haqidagi tasavvurini kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adilbek Zaitov va boshqalar. Algebra va analiz asoslari. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 192 b.

2. Назарян Д.С. , Закира И.А. Исследование функций в среде Geogebra // Проблемы и перспективы развития образования в России. 2015. №32 с.107-113

3. Разумова О.В. Интерактивная геометрическая система geogebra в школьной геометрии // Современная система образования: опыт прошлого, взгляд в будущее. 2012. №1. С.52-55.

SEVERAL SAMPLES FOR INCREASING VOCABULARY

Abdunazarova Adiba

3rd course student at CSPU Primary education faculty

Kurbanova Feruza

English teacher at CSPU

Oral vocabulary refers to words that children can understand or use while speaking and listening. Oral vocabulary is closely related to their reading vocabulary, which is the words that children can recognize and use in their reading or writing. Words all have: meaning, which can vary according to context; phonology – that is, sounds; morphology – that is, word parts; syntax, that is, the way in which words are arranged to form phrases or sentences; uses, which may be multiple, depending on context.

Children need to have a rich vocabulary that continually grows through language and literacy experiences, in order to comprehend and construct increasingly complex texts, and engage in oral language for a variety of social purposes. Focussing on vocabulary is useful for developing knowledge and skills in multiple aspects of language and literacy. This includes helping with decoding (phonemic awareness and phonics), comprehension and also fluency.

Learning vocabulary is a continual process of language and literacy development, which begins in the early years of life, and continues through schooling and beyond. Sinatra, Zygouris-Coe, and Dasinger note that: Knowledge of vocabulary meanings affects children’s abilities to understand and use words appropriately during the language acts of listening, speaking, reading, and writing. Such knowledge influences the complexities and nuances of children’s thinking, how they communicate in the oral and written language and how well they will understand printed texts.

It is crucial that children have explicit and robust instruction in vocabulary, to support their verbal and written communication. The explicit teaching of vocabulary allows students to access academic language and discourse and facilitates their comprehension of increasingly complex texts.

Vocabulary plays an important role in oral language development and early literacy. Paris identifies vocabulary as one of the unconstrained skills, meaning that it is a skill that we continue to develop over our life span. Konza notes the importance of explicit teaching of vocabulary to support students to become confident in a word's meaning and use in context so that it will become part of their own repertoire. Effective ways teaching of vocabulary involve the following main components:

- explicit teaching of appropriate vocabulary words;
- multiple exposures to same words in varying contexts (speaking/listening, reading, writing);
- working with a partner or small group to analyze words;
- story retelling using key vocabulary from texts;
- use of props or concrete objects to explain vocabulary;
- explicit discussion of comprehension together with vocabulary;
- ensuring vocabulary instruction is embedded across the curriculum.

There is a strong connection between a student's vocabulary and his or her reading ability. The same is true for a student's ability to listen, speak and write. In fact, we now recognize that each person actually has four vocabularies, one each for reading, listening, speaking, and writing. Obviously, there is much overlap, but students will always be able to recognize more words than they can produce.

In addition, giving students long lists of vocabulary words with little or no context is not an effective way to teach vocabulary; students must be actively involved in word study for it to mean anything to them. Simply put, if students do not use the words they are studying, those words will not become part of the students' "producing" vocabulary. To develop an effective vocabulary program, consider the following types of student-friendly activities:

Vocabulary-Building Activities. Previewing in Context. Select 5-6 words from a chapter or selection students are about to read. Have students turn to the page in which each word is located. Ask the students to read the word in context and try to figure out its meaning. Have students write down what they think each word means. Discuss possible meanings and arrive at a definition in this context.

Self-Collection

- Have students collect interesting words from different sources, preferably non-school sources.
- Have students identify each word and the context in which it is used.
- Next, have them analyze the word using its context, word parts, and dictionary definitions.

Language Families. Divide the class into eight groups, and have each group research one of the Indo-European language groups (Albanian, Armenian, Balto Slavic, and so on). Afterward, have each group present their findings to the class. (Let the groups choose how they want to present their findings.)

Prefix, Suffix, Root Study

- Assign students 3-4 word parts (prefixes, suffixes, roots) each week.
- Give students strategies for learning these word parts.
- Assign students one word part daily. As you take roll, have students write the word part, the definition, a sample word, and a sentence using the word.
- Then have them brainstorm for familiar words that will help them remember the meaning of each word part.
- Challenge them to combine the word parts they have studied into as many words as possible (perhaps in 5 minutes' time or as a challenge assignment for the next day). Special cards can be used for this purpose.
- Also challenge them to create "new" words using the word parts they have learned. To qualify, a new word should make sense and might be actually used.
- Ask students to share their new words; partners should try to guess what each one means.
- Have students reserve a section of their notebooks for word parts they come across in newspapers, magazines, and their other classes. *Special Note:* Thoughtful Learning's writing handbooks contain extensive lists of prefixes, suffices, and roots.

Word Sleuthing I. On a regular basis, present students with a list of five or six mostly familiar words that contain the same root, prefix, or suffix. (Make the last one or two more challenging than the other words.) Read the list of words out loud two or three times. Then have students define the word part that is common in all of the words. Ask them how they determined the meaning. Then, using the known word part, have the students define the challenge words. Again, ask them how they determined the meaning. Note: For extra credit, encourage students to provide some of these lists of words.

Word Sleuthing II. Provide students, on their own or in pairs, a word to investigate on the Internet. They should try to find as much as they can about the word, starting with its etymology. Instruct them to find information about the word from at least _____ sources (you determine the number) in addition to online dictionaries. After their research, have students present their findings to the class. (Let students choose how they want to present their findings.)

Word Contest. For an end-of-the-week activity, have students, on their own or in pairs, be ready with pen and paper. Then give them 3-5 minutes to list as many words as they can containing a particular prefix or root. (Suffixes may not work as well.) The winner is the individual or team listing the most words. (But make sure that each word is real.)

Reading is the primary way for students to build their vocabularies, so encourage them to read all sorts of print and online materials. Along with that, employ a variety of activities (like the ones above) to help students appreciate the richness of the language. The combination should produce positive results. All

these activities will boost the vocabulary of learners and other skills will simultaneously develop during the process. The most important point for learners is trying to work hard and make more practice.

References:

1. Beck I. L., Mc Keown, M. G., & Kucan L. Bringing words to life: Robust vocabulary instruction. New York: Guilford, 2002.
2. Hill S. Developing early literacy: assessment and teaching (2nd ed.). South Yarra, Vic. Eleanor Curtain Publishing, 2012.
3. Konza D. Understanding the process of reading: The big six. In J. Scull & B. Raban (Eds), Growing up literate: Australian literacy research for practice, 2016, (pp. 149-175). South Yarra, Vic.: Eleanor Curtain Publishing.
4. Larsen-Freeman D., & Celce-Murcia, M. The grammar book: Form, meaning, and use for English language teachers (3rd Ed.). Boston: National Geographic Learning, 2016.
5. Nation P. Learning vocabulary in another language. Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
6. Nation P. Teaching vocabulary. The Asian EFL Journal, 7(3), 2005, 47-54.
7. Paris S. Reinterpreting the development of reading skills. Reading Research Quarterly, 40 (2), 2005, 184-202.
8. Sinatra R, Zygoris-Coe, V & Dasinger Preventing a vocabulary lag: What lessons are learned from research, Reading & Writing Quarterly, 28(4), 2011, pp. 333-334.

**IQTISODIY O'SISHNING OMILLARI, KO'RSATKICHLARI
VA PROGNOZLASH FUNKSIYALARI**

Abdug'ayurova Xurshida

O'zbekiston Milliy Universiteti 1-bosqich magistratura talabasi

Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh omillar iqtisodiyotning miqdoriy o'sish layoqatini belgilab beradi, ular taklif omillari deb ham ataladi. Bu omillar quyidagilar:

1. Tabiiy resurslarning miqdori va sifati;
2. Ishchi kuchi resurslari miqdori va sifati;
3. Asosiy kapital (asosiy fondlar) ning hajmi va sifati;
4. Texnologiya va Fan – texnika taraqqiyoti.

Iqtisodiy o'sishga taqsimlash omillari ham ta'sir qiladi. Ishlab chiqarish potensialidan maqsadga muvofiq foydalanish uchun nafaqat resurslar iqtisodiy jarayonga to'liq jalb qilingan bo'lishi, balki juda samarali ishlatilishi zarur.

Resurslarning o'sib boruvchi hajmidan real foydalanish va ularni kerakli mahsulotning mutloq miqdorini oladigan qilib taqsimlash ham zaru bo'ladi.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi taklif va taqsimlash omillari o'zaro bog'liq va bir birini taqazo qiladi. Masalan, resurslar miqdorining o'sishi va sifatining yaxshilanishi, texnologiyani takomillashtirish iqtisodiy o'sish uchun imkoniyat yaratadi. To'liq bandlik va resurslarni samarali taqsimlash omillari ham o'z o'rniga ega bo'ladi bu muammoni tahlil qilishda asosiy e'tibor taklif omillariga qaratilishi zarur.

Mehnat unumdorligining o'sishga olib keluvchi omillarni to'laroq ko'rib chiqamiz.

Fan – texnika taraqqiyoti mehnat unumdorligi va iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Texnika taraqqiyoti o'z ichiga nafaqat ishlab chiqarishning butunlay yangi usullarini, balki boshqarish va ishlab chiqarish tashkil qilishning yangi shakllarini ham oladi. Umuman aytganda fan – texnika taraqqiyoti deyilganda pirovard mahsulot chiqarishni ko'paytirish maqsadida mavjud resurslarni yangicha uyg'unlashtirishni taqazo qiluvchi yangi usullarning topilishi ham tushuniladi. Amaliyot texnika taraqqiyoti va kapital qo'yilmalar (investitsiyalar mustahkam o'zaro bog'liq, texnika taraqqiyoti ko'pincha yangi mashina va uskunalarga investitsiyalar qo'yishga olib keladi.

Mehnat unumdorligining o'sishini aniqlab beruvchi asosiy omil har bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi asosiy kapital hajmi hisoblanadi. Ma'lum vaqt ichida kapitalning hajmi mutloq ko'payishi mumkin, ammo ishchi kuchi soni tezroq o'ssa, mehnat unumdorligi pasayadi, chunki har bir ishchining asosiy kapital bilan qurollanganlik darajasi kamayadi.

Ta'lim va malaka tayyorgarligi mehnat unumdorligini oshiradi va natijada ancha yuqorilanish haqiga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Inson kapitaliga investitsiyalar qo'yish mehnat unumdorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. O'z-o'zidan aniqki, ishchi kuchi sifatining eng oddiy ko'rsatkichi ta'lim darajasi hisoblanadi. Hozirgi davrda respublikamiz iqtisodiyotida band bo'lganlarning 80 foizga yaqini oliyva o'rta maxsus ta'limga ega.

Mahsulot o'sish sur'ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o'zgarishi o'rtasidagi nisbat iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv yo'llarini belgilab beradi.

Ekstensiv iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi tufayli erishiladi.

Intensiv iqtisodiy o'sish sharoitida mahsulot chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarini sifati jihatidan takomillashtirish: yanada progresivroq ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo'llash, ishchi kuchi malakasini oshirish, shuningdek mavjud ishlab chiqarish potensialidan yaxshiroq foydalanish yo'li bilan erishiladi.

Iqtisodiy o'sish 2 usul bilan aniqlanadi.

1-usul real YAIM ni (YAMM) o'tgan davrga nisbatan o'zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakatning umuiqtisodiy imkoniyatlari harakatini ifodalash uchun ishlatiladi.

2-usul real YAIM ni (YAMM) o'tgan davrga nisbatan aholi jon boshiga o'zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakat ijtimoiy rivojlanishi darajasini va harakatining sifat o'zgarishlarini ifodalash uchun foydalanadi. Iqtisodiy o'sish suratlari va qo'shimcha o'sish sur'atlari bir- biridan farqlanadi:

$$A) \text{ bazis o'sish sur'ati} = \frac{Y_i}{Y_0}$$

$$B) \text{ zanjirli o'sish sur'ati} = \frac{Y_i}{Y_{i-1}}$$

Qo'shimcha o'sish sur'atlari qo'yidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$A) \text{ bazis qo'shimcha o'sish sur'ati} = \frac{Y_i - Y_0}{Y_0}$$

$$B) \text{ zanjirli qo'shimcha o'sish sur'ati} = \frac{Y_0 - Y_{i-1}}{Y_{i-1}}$$

Bunda, Y_0 – bazis yildagi real YAIM

Y_i - shu yildagi real YAIM, Y_{i-1} - bundan avvalgi yildagi real YAIM

Ko'pchilik mamlakatlarning tarixiy tajribasida tasdiqlangan qonuniyat borki, unga ko'ra iqtisodiy o'sishning ko'lami va sur'atlari o'zaro teskari ishtanosiblikda o'zgaradi, ya'ni o'sish ko'lami miqdoran oshgan sari, uning sur'atlari pasayishi ga moyil bo'ladi. Iqtisodiy o'sishning nafaqat miqdoriy, balki sifat me'yori ham mavjud.

Prognozlashtirish uchun keng qo'llaniladigan modellardan biri bu omilli modellardir. Ya'ni bu modellarda, mahsulot ishlab chiqarish hajmi yoki uni absolyut ishlab chiqarish hajmining o'sishini bir yoki bir necha omillarga bog'liq ekanligini ko'rsatib beradi.

Iqtisodiy o'sishni omilli modellari mohiyati shundaki, u ishlab chiqarilgan mahsulotlarning hajmi va dinimikasi, ishlab chiqarish resurslarining hajmi va dinimikasini o'zaro bog'laydi. Agar iqtisodiy jarayon bir omil asosida tahlil qilinib prognozlashtirilsa unda bir omilli modeldan foydalaniladi, agar bujarayon bir necha omillar asosida tahlil qilinib prognozlashtirilsa unda ko'p omilli modeldan foydalaniladi.

Bir omilli iqtisodiy o'sish modellari nazariy tahlil va amaliy hisob kitoblar uchun qulay bo'lib hisoblanib, yalpi ishlab chiqarish hajmini o'zgarishini bitta omil orqali ifodalab beradi. SHuning bilan birga omilarning o'zgarishi va yalpi natijalarning o'zgarishini faqat bir omilga bog'lanadi. Bunday bir tomonlama yondashuv va chegaranganlik quyidagicha ifodalanilidi: qisqa muddatli iqtisodiy tahlil va prognozlashtirish uchun oddiy va ishonchli bo'lib hisoblanadi.

Ko'p ishlatiladigan ikki omilli model bu ishlab chiqarish funksiyasi bo'lib u quyidagicha ifodalaniladi:

$$Y_t = A_t X_{1t}^\alpha X_{2t}^\beta$$

Bu yerda:

(11.3.1)

X_{1t}^α ba X_{2t}^β - ikkita ishlab chiqarish omili, masalan ishlab chiqarish fondlari va ishchi kuchiga qilingan xarajatlar, ma'lum vaqt davomida o'zgaruvchi.

A va β parametrlari Y_t ishlabchiqarish hajmining o'zgarishi, X_{1t}^α ba X_{2t}^β va ishlab chiqarish omillari o'zgarishi bilan o'zaro aloqadorligi (elastikligi), X_{1t}^α omilining o'sishi Y_t ning " α " darajaga o'sishiga olib keladi (bu yerda $X_{2t}^\beta = \text{const.}$). X_{2t}^α omilining o'sishi Y_t ning " β " darajaga o'sishiga olib keladi (bu yerda $X_{1t}^\beta = \text{const.}$). $\alpha > 0$ va $\beta > 0$ shartlari bajarilishi kerak.

A_t parametri ikki omilli modelda ikki xil vazifasi bor, birinchidan, u omillarning hajmini Y_t mahsulot hajmiga olib keladi, bu parametr ishlab chiqarish jarayonida o'zgaruvchi omillarni, hisobga olimagan omillarni ifoda etadi.

$A + \beta$ munosabatining o'sishga ta'siri quyidagicha:

$\alpha + \beta > 1$ bo'lsa, agar ishlab chiqarish omillari " n " martaga ko'payishi, ishlab chiqarish hajmi " n " martaga ko'payadi. Bu intensiv o'sish bo'lib, agar $\alpha > \beta$ bo'lsa, mehnatni intensivligi (fondni jamg'aruvchi o'sish), agar $\alpha < \beta$ bo'lsa, bunda fond intensivli (mehnat jamg'aruvchi) o'sish bo'lib hisoblanadi.

$\alpha + \beta < 1$ bo'lsa, bunda ishlab chiqarish omillar xarajatiga nisbatan ishlab chiqarilgan mahsulotlarining o'sishi sekin bo'ladi. Bu o'z navbatida deintensivligiga olib keladi.

$\alpha + \beta = 1$ bo'lsa, bunda ishlab chiqarish hajmi, xarajat hajmi bilan o'zaro proporsional o'sishga olib keladi. Ularning umumiy iqtisodiy samaradorligi o'zgarmay qoladi, bu hol ishlab chiqarishni ekstensiv kengayishidir.

Iqtisodiy o'sishni tahlil qilish va prognozlashtirishda bir omilli modeldan fodalanishdan boshlash mumkin masalan: mahsulot hajmi-fondlar, mahsulot hajmi-ishchi kuchi. Bir omilli modelni tuzishda holatning haqiqatga yaqin holati yillar bo'yicha olinib, funksiyasi tuziladi. Omillar o'zgarish modeli orqali ilmiy-texnik taraqqiyotning iqtisodiy o'sishga ta'sirini va uni prognozlashtirishimiz mumkin: $Y_t = A_t X_{1t}^\alpha X_{2t}^\beta e^{\pi t}$. Bu yerda $e^{\pi t}$ -ilmiy-tarraqiyot omili; π -barcha ishlab chiqarishning yalpi iqtisodiy samaradorligini umumiyashtiruvchi ko'rsatgich.

Makroiqtisodiy ko'rsatgichlar va ishlab chiqarish omillari o'sishini prognozlash.

Tahlil qiligan modellardan ko'rinib turibdiki iqtisodiyotning kelajagini ifodalashimiz mumkin bo'ladi. Lekin, ba'zida modeldagi mavjud yoki mavjud bo'lmagan omillarni prognozlashtirishimiz kerak bo'ladi. Bu jarayonda o'zgaruvchilar dinamik qatori yordami vaqt funksiyasidan foydalaniladi.

Iqtisodiy o'sishni saqlab qolgan holda mavjud vaqtli funksiyalar ekstropolyasiya qilinadi va prognozlashtiriladi, so'ngra ishlabchiqarish yoki alohida omil baholanadi.

Ma'lum bir vaqt funksiyasini baholash uchun statistik baholash usullaridan foydalaniladi, bular: dispersiya σ^2 , variatson koeffitsent V , nazariy natijalarning amaliy natijalardan farqi $\sum t$, yoki mavjud holat dinamikasini, tuzilgan

funksiyadinamikasi bilan taqqoslash yo'llari bilan tekshiriladi. Bu farqlar 2 xil usulda aniqlanadi:

- 1) trend, ya'ni vaqt o'zgarishi bilan dinamik qatorning tezligi;
- 2) vaqtlararo o'zgarish orqali, u quyidagi formula orqali topiladi:

$$\frac{\sum \Delta^3 Y_t}{n-3} : \frac{\sum Y_t}{n} \quad \text{bu yerda : } \Delta Y_t = Y_{tn}^\Phi - Y_{t(n-1)}^\Phi.$$

Iqtisodiy o'sishni prognozlashtirish uchun quyidagi funksiyalardan keng foydalaniladi:

$$Y_t = a + bt - \text{chiziqli funksiya};$$

$$Y_t = at^b - \text{darajali funksiya};$$

$$Y_t = ab^t - \text{ko'rsatgichli funksiya};$$

$$Y_t = ab^{bt} - \text{eksponenta};$$

$$Y_t = a + bt + ct^2 - \text{parabola};$$

$$Y_t = a + bt + ct^2 + dt^3 - \text{uchinchi darajali ko'had funksiya};$$

Bu yerda a,b,c,d- funksiya parametrlari.

Yuqorida aytib o'tilgan funksiyalarning barchasini, u yoki bu o'sish chizig'iga yaqinlashuvchi o'zining sodda ishlab chiqarish dinamik modellari mavjud.

Hosil qilingan trend asosida ekstropolyasiyalash va kelajakni prognozlashtirish kutilayotgan natijalar aniqligini yuqoridagi funksiyalar aniqroq tasvirlaydi. Uzoq muddatda ekstropolyasiya foydalanish va ularning natijalari aniqlik darajasi pasayib boradi, chunki ishlab chiqarish sharoiti o'zgarib boradi. Bu statistik nuqtai nazardan dispersiyaning kattalashuvi, nazariy holatning real holatdan cheklanishiga olib keladi, bu bilan xatoliklari oshib, natijada vaqtli funksiyaning ishlamasligiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maxmudov N.M., Asqarova M.T., Umarov I.Yu., Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash. –Darslik. –T.: Iqtisodiyot, 2014. 249 b.
2. К.Р. Макконнел, С.Л. Брю “Экономикс” Москва, Инфра – М. 2003 г. 385 стр.
3. Н.М. Махмудов ва бошқалар “Ижтимоий – иқтисодий жараёнларни прогнозлаш” ўқув қўлланма, Т. “Иқтисодиёт” 2012 й. 88 бет.

SIYOSAT, SIYOSIY JARAYON VA SIYOSIY MUNOSABATLAR

Abdullayev Jahongir

O'zbekiston Milliy universiteti 3-kurs talabasi

“**Siyosat**” tushunchasi keng va tor ma'noda qullaniladi. Keng ma'noda qullaniladigan siyosat tushunchasi bir butun ijtimoiy hayotning obyektiv rivojlanish qonuniyatlarini o'zida aks ettiradi. Siyosat o'z ta'sir etish obyektiga ko'ra 2 ga: ichki va tashqi Siyosatga bo'linadi. Siyosat ijtimoiy hodisa sifatida

jamiyat hayoti sohalari: iqtisodiy, ijtimoiy, milliy, ilmiytexnikaviy, ekologiya, madaniyat, harbiy va b. Sohalarni qamrab oladi. Shu tarzda iqtisodiy S, ijtimoiy S, milliy S, demografik S, agrar S, texnikaviy S, ekologik S, madaniy S, kadrlar Si, harbiy Siyosat va b. Yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Siyosat subyektlari orqali ham ifodalanadi. Mac, davlat Si, partiyalar va jamoat birlashmalari va harakatlari va h. k. qamrab oladi.

Kishilar, mamlakatga kimlar va qanday rahbarlik qilayotganligi to'g'risida fikr yuritganda ko'pincha «siyosat» so'zini ishlatadilar. Biroq, aslida istalgan kishilar guruhi tomonidan qabul qilinayotgan mutlaqo barcha qarorlarning o'zi siyosat hisoblanadi. Shuningdek oz fikrlarini mulohaza qilib rejalashtirish ham bir siyosiy jarayon hisoblanadi. Siyosiy faoliyat sub'ektlari bilan bir qatorda uning ishtirokchilari ham mavjud bo'lib, bular ijtimoiy guruhlar, shaxslar, turli tashkilotlar va boshqalar bo'lishi mumkin. Siyosiy jarayon ishtirokchilari va sub'ektlari o'zlarining rol vazifalari va pozitsiyalarini amalga oshirish jarayonida o'zlarining „ahamiyati, siyosiy tizim elementlarini qayta ishlab chiqarish, rivojlantirish, o'zgartirish yoki yo'q qilish qobiliyatini“ ko'rsatishlari kerak. Bu yerdan siyosiy jarayon tufayli “siyosiy tizimda yuz beradigan, uning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini tavsiflovchi ham yuzaki, ham chuqur o'zgarishlar ko'zga tashlanadi”.

Siyosiy jarayonni amalga oshirish tartibini ifodalash uchun siyosiy jarayonni tushunish juda muhimdir. Yaxlit yagona jarayon to'rt bosqichga yoki bosqichlarga bo'linadi:

1. Siyosiy tizimni shakllantirish;
2. Komponentlarning ko'payishi va siyosiy tizim belgilari;
3. Siyosiy va boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi va qabul qilinishi;
4. Siyosiy tizim faoliyatini boshqarish.

Siyosiy jarayon **imonli** Turi an'anaviy mamlakatlar yoki modernizatsiya qilishning dastlabki bosqichida mamlakatlar uchun xosdir. Bunday siyosiy jarayonning bunday turida siyosiy o'zgarishlar texnologiyasi yo'q, ammo mafkura, protsedura emas, balki birlashtirilgan jamiyatning g'oyasi. Bunday holda, ko'p narsa mafkuraning mazmuniga, davlat qurilmasining ko'rsatilgan asosiy printsiplariga bog'liq.

Tashqi va ichki siyosiy jarayonlar.

Ko'rib chiqilayotgan hodisaning birinchi asosi tashqi siyosat yoki ichki siyosiy uchun navlarini tayinlashdir. Birinchi tur bilan bog'liq bo'lgan jarayon, alohida davlatda faoliyat yuritadigan vakolatxonalar va jamiyat muassasalari bilan bevosita bog'liq bo'lgan sub'ektlarning ishtirok etishini o'z ichiga oladi. Bular rasmiylarda har qanday pozitsiyaga ega bo'lgan odamlar, korxonalar rahbarlari, jamoat tuzilmalari, partiyalar, partiyalar yoki oddiy fuqarolar. Tashqi siyosat jarayoni shuni ko'rsatadiki, chet ellik sub'ektlar o'z yo'nalishiga ta'sir qiladi – davlatlar, xorijiy korporatsiyalar va muassasalar rahbarlari.

Hozirgi kunda mamlakatimizning konstitutsiyasining ozigartirilayotganini ham bir siyosiy jarayon deb olsak bo'ladi. Konstitutsiya davlat faoliyatida asosiy qomus deyiladi. U o'z nomi bilan asosiy qomus bo'larkan, yaxshi ma'noda qotib turadigan hujjat bo'lishi kerak. Konstitutsiya uzoq yillar o'zgarishsiz xizmat qiladigan hujjat. Unga kiritiladigan o'zgarishlarga esa uzoq yillar tayyorgarlik ko'rilishi va bunga jiddiy asos va dalillar bo'lishi kerak. Komissiya ishlab boshlaganiga shuncha payt o'tgan bo'lsa, bunga hali komissiya tomonidan yetarli dalil, sabablar keltirilmadi. Ha, ayrim moddalar o'zgarishi kerakdir, lekin bunga strategik katta asos berilganini ko'rmadim. Ammo boshqa tomondan olib qaraganda, konstitutsiya albatta o'zgarishi va undagi avtoritarizm, superprezidentlik ruhiyati o'zgarib, xalqqa tayanish orqali ishlashga o'tilishi kerak. Bizga 36 millionlik aholining qudratini ifoda qiluvchi konstitutsiya kerak.

Siyosiy munosabatlar.

Hozirgi kunga kelib insoniyat qanchalik ijtimoiy, milliy, siyosiy, irqiy, diniy va boshqa belgilardan kelib chiqqan xilma-xil to'siqlar bilan turli guruhlariga ajratib tashlangan bo'lmasin, xalqlarning turmush tarzlarining hammasi bitta sayyora-Yerda istiqomat qiladilar, hamma uchun bir umumiy bo'lgan muhitda hayot kechiradilar. Bunday muammolarni hal qilish ko'pchilik mamlakatlar va xalqlar oldida turgan vazifalarga aylanib bormoqda. Xalqaro siyosiy munosabatlarning rivojlanishi bu munosabatlarda kelib chiqadigan turli xildagi ziddiyatlarga va ularni hal qilishga bog'liqdir.

Hozirgi davrda xalqaro siyosiy munosabatlarda mavjud bo'lgan ziddiyatlar quyidagilardan iborat.

- 1) Xalqaro siyosiy munosabatlarda mavjud bo'lgan muammolar bilan ularni hal qilish imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlar;
- 2) Har bir mamlakatning milliy manfaatlari bilan ularning baynalminal manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatlar;
- 3) Xalqaro siyosiy munosabatlarda ishtirok qiluvchi sub'ektlarning manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatlar;
- 4) xalqaro siyosiy munosabatlarni tartibga solish bilan uning imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlar.

Xalqaro maydondagi hamkorlik ilg'or dunyo tajribasini o'rganish, xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish orqali O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalarni hal qilishga yordam berishi kerak, bu mamlakatda maksimal qulay amaliy va investitsion muhitni shakllantirishga o'z hissasini qo'shadi.

Bu borada Respublika tashqi siyosiy strategiyasi xorijiy mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni, ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etish, mahalliy eksport geografiasini kengaytirish sohasida yangi qirralarni ochdi.

Xulosa

Siyosiy jarayonlar va siyosiy munosabatlardagi ziddiyatlar yo'qolib ketmaydi, ular bu sohadagi muammolarning hal qilinishiga qarab yangidan paydo bo'laveradi va shu tariqa bu sohada rivojlanish, taraqqiyotga erishib borilaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Politologiya: O'quv qo'llanma / Otamurodov S., Ergashev I., Akramov Sh., Qodirov A. – T., 1999.
2. Politologiya: Ma'ruzalar matni/ Taqrizchilar V.S.Kim, J.Baxronov.-T., 2000. – 15-40.
3. Pugachev V.P., Solovyev A.I. Siyosatshunoslikka kirish: O'quv qo'llanma. T., 2004. – B.6482, 184-201.
4. Temur tuzuklari / Mas'ul muharrir B. Ahmedov. – T., 1991. – B. 3-16.
5. Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti. T., 2009 -B. 5-32.
6. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T., 2008. – B. 15-36.
7. O'zbekiston Respublikasining «Jamoat tashkilotlari to'g'risida»gi 1991 yil 15 – fevral qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. – T., 1991. - №4; 1992. №9.-363-m.; 1997.№4-5. 126-m.; 1998.-№3.-38-m.
8. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsiplari to'g'risi»gi 1996 yil 26 dekabr qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. –T., 1997. - №2. 9. O'zbekiston Respublikasining «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizasiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi Konstitusiyaviy qonuni // Halq so'zi. – 2007. – 12 aprel. - №71.
10. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T6.-T., 1998. –B. 31-261.
11. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. –T., 1996. –B. 370-404.
12. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T.8. 2000. -B. 479-488.

ЖАМИЯТДА ГЕНДЕР ТАЪЛИМ СТРАТЕГИЯЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ ИМКОНИАТЛАРИ

Абдуллаева Дилором
ЎЗМУ тадқиқотчиси

Демократик жамиятларда аёллар ва эркекларнинг шахсий манфаатлари, кўникмалари, мойилликларига ўзларига мос келадиган соҳаларда ўзини намоён қилиш, ўзини ўзи тасдиқлашда универсал ва ўзига хос қобилиятларини ривожлантириш имкониятлари устувор

йўналишлардан бири ҳисобланади. Шунингдек, аёл жинсига мансуб шахсларнинг ижтимоий, иқтисой, маънавий, сиёсий ва бошқа ҳуқуқлари мажмуи; аёлларнинг умумий инсон ҳуқуқларига мос ҳамда уларнинг ижтимоий ва оиладаги мақомини назарда тутадиган ўзига хос ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш ҳам муҳим ҳисобланади. Бу ҳуқуқлар 1948 йилда қабул қилинган Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясининг 16-моддасида эркак ва аёлнинг никоҳ масаласидаги тенглиги ҳақидаги қоида ўз аксини топди. ЎЗР ушбу декларацияни ратификация қилган ва Конституциямизнинг 18-моддасига биноан мамлакатимиз фуқаролари, жинсидан қатъи назар, қонун олдида тенгдир¹. Мамлакатимизда бу борада кўплаб ишлар амалга оширилмоқда, аёлларнинг қонуний ҳақ-ҳуқуқларини тўла-тўқис рўёбга чиқариш, уларнинг эркинликларини таъминлаш давлат ва жамиятнинг устувор вазифасига айланган². Шунингдек, гендер тенглиги инсоннинг асосий ҳуқуқлари тизимида киради. Бироқ инсон ҳуқуқлари кўпинча жинсий мансублик, жинсга асосланган зўравонлик, қуролли тўқнашувлар, қашшоқлик, репродуктив фаолият каби омиллар таъсирида поймол бўлиши кўзга ташланади. Таълим, иш билан таъминлаш ва сиёсий қарорларни қабул қилишда тўла ва тенг иштирок этишда тўсиқлар мавжуд³.

Замонавий аёл ўзининг таълимга бўлган талаблари ва эҳтиёжлари билан чекланиб қолмаслиги, доимий ривожланаётган фан ва таълимдан ташқарида бўлиши мумкин эмас. Муаммонинг мураккаблиги ва чуқурлиги шундаки, ҳозирги вақтда қабул қилинган таълим парадигмалари сезиларли даражада ўзгартирилиши ва таълим жараёни аёллик табиатини бузмаслиги ёки деформация қилмаслиги, аёлларга ўзини намоён қилиш ва ҳақиқий истеъдодини амалга ошириш шакллари кўрсата олиши балки унинг илдиз отишига, ривожланишига ҳисса қўшадиган тарзда олиб борилтиши керак.

Таълимда гендер тенглиги - инсон ҳуқуқлари ва аёллар ҳуқуқларини амалга оширишнинг энг муҳим шартларидан биридир. Таълим нафақат ҳар бир инсоннинг шахсий манфаати, балки ижтимоий ривожланишнинг ажралмас шартидир. Агар жамият ўз фуқароларининг интеллектуал ривожланиши учун имкониятларга эга бўлмаса, у самарали ривожлана олмайди ва таназзулга маҳкумдир. Бинобарин, давлат жамият манфаатларининг вакили сифатида жинси, ижтимоий мавқеи, яшаш жойи ва бошқа фарқларидан қатъи назар, барча фуқароларнинг муносиб таълим даражаси учун ҳуқуқий, ташкилий ва моддий кафолатларни таъминлашга мажбурдир⁴.

¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси-Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – 18-модда.

² Маънавият асосий тушунчалар луғати –Тошкент: Ғулом номидаги НМИУ, 2009. –Б.21

³ Холиқова М., Ишанханова Г., Пўлатова Ш. Гендер тенглиги: ғоядан қонунга қадар. –Тошкент: Akademnashr, 2021. –Б. 15

⁴ Ўзбекистон Республикаси таълим тўғрисидаги қонуни

Энг муҳим омил аёллар учун давлат ва хусусий соҳани эркин танлаш учун реал шароитларни яратиш ёки турли хил ҳаёт турларининг комбинацияси, бир томондан, гендер таълими ва таълим, шу жумладан мувозанатли инсоннинг ўзини ўзи англашининг маъноси, ижтимоий ва шахсий қадриятларини иккала соҳада ҳам, бошқа томондан уй меҳнатининг нуфузини ошириш ва болаларни тарбиялашда муваффақиятга эришиши учун ота-оналарни моддий ва маънавий жиҳатдан рағбатлантириш лозим.

Бироқ, айти пайтда ижтимоий жиҳатдан давлатнинг демографик сиёсати, ҳатто рағбатлантириш билан боғлиқ унумдорлик самарасиз. Бу шуни кўрсатадики, оналик капиталини таъминлашда ҳамма нарса хавфсиз эмас, жуда кўп чекловлар ва тўғридан-тўғри туғилишни огоҳлантирувчи таъсир ҳам чекланган. Бундан ташқари, чекловлар нафақат соф иқтисодий, балки қайсидир маънода рамзий маънога эга: давлат одамларга пулларни тўла тасарруф этиш эркинлигини бермайди, чунки у ўз фуқароларига ишонмайди.

Дарҳақиқат, таълим тизимида иккита муқобил ёндашув ишлаб чиқилган бўлиб, кўпчилик ўқитувчилар ижтимоий-маданий потенциални шакллантиришда гендер хусусиятларини ҳисобга олиш зарурлигига эътибор бермайдилар, иккинчи гендер - рол ёндашуви тарафдорлари эса биологик омилни мутлақлаштириш ва ўғил-қизларни аёлларнинг шахсий соҳасини таъминлаш стереотиплари асосида турли хил ҳаёт стратегияларига йўналтиришни ёқлайдилар.

Юқори синфларда профили таълимни режалаштираётганда, тадқиқотлар шуни кўрсатадики, йигитлар ахборот технологиялари, менежмент ва келажакда мартаба ўсиши ва юқори иш ҳақи билан боғлиқ бошқа фаолиятга йўналтирилган. Қизлар учун ижтимоий хизматлар ва қўллаб-қувватлаш функциялари (котиблик, болалар, қариялар ва беморларни парвариш қилиш) билан боғлиқ технологиялар бўйича тренинглар ташкил этилади. Дарсликлар ва ўқув қўлланмаларида жойлаштирилган матнлар ва расмлар орқали ўғил болалар ва қизлар аёллар ва эркаларнинг цивилизация, инсоният тарихи ва маданияти ривожига қўшган ҳиссаси, жамиятда аёллар ва эркаларнинг ўрни ҳақида асимметрик стереотипик маълумотларни ўрганадилар.

Феминистик тадқиқотчиларнинг фикрига кўра, патриархал мактаб аёлларнинг, айтиқса талаба қизларнинг ижодий чекловлари, касбий муваффақиятсизликларини шакллантириш, муваффақият кўрқуви ва қизлар ўртасида ижтимоий маҳрумлик ҳақидаги ғояларни тарғиб қилиш учун жавобгардир. Айти мактабда қизлар ижтимоий маъқеининг асоси сифатида оналик ҳақидаги сиёсий ғайриоддий афсоналарни эксплуатация қилиш орқали “репродуктив инстинкт” институционализацияси амалга оширилади.

Кейинчалик, бу аёлларнинг профессионал мартаба ёки турли сабабларга кўра, гўёки ўз вазифаларини бажармаганлиги сабабли турмушга чиқаслик, фарзанд кўрмаслик каби ҳолатларга олиб келиши мумкин. Анъанавий мактабда гендер эквивалентлиги, аёл субъективлиги ва ўзига хослигини ривожлантириш тамойиллари яхлит мазмундан маҳрум бўлган периферияга жойлаштирилган ва ўқув режалари, методлари ва дастурларини тузишда ҳисобга олинмайди.

Таълимдаги гендер муаммолари педагогикада гуманистик парадигманинг ўрнатилиши, жамиятнинг интеллектуал салоҳиятини сақлаш муҳимлигини англаш ва ролини тушуниш натижасида пайдо бўлди.

Университетда таълим амалда жинс вакилига, умуман талабага қаратилган бўлиб, у ўғил болаларда ҳам, қизларда ҳам шахс онгининг аниқ соддалаштирилган турини шакллантиради, чунки таълимнинг эркак табиати қабул қилинган стереотиплар, тайёр ижтимоий моделлар орқали амалга оширилади. Хулқ-атворнинг маълум бир маданий меъёрлари онгининг янги босқичга чиқишига тўсқинлик қилади, жинсидан қатъи назар, инсоннинг ўзини ўзи англашида чексиз имкониятларни очиб беради. Ўқишни тугатгандан сўнг эркаклар ва аёллар учун бошланғич лавозимларнинг тенглиги эркаклар тезроқ бажарадиган бир хил касбий мартабани таъминламайди, чунки улар анъанавий равишда оилавий ташвишларга, айниқса шаҳарларга камроқ боғлиқдирлар. Шунинг учун, бугун кўплаб университетларда аёлларни касбга тайёрлаш борасида махсус курслар жорий қилина бошланди. Бу борада талабаларни гендер педагогикасининг асослари билан таништириш, талабаларга хос гендер тадқиқотлари, талабаларнинг хабардорлигини ошириш, гендер муаммоларининг моҳияти, гендер онгини ривожлантириш, шахсий ва касбий ўзини ўзи англашга тўсқинлик қиладиган гендер рол стереотипларидан холи кўникмаларни шакллантириш мақсад қилинади. Бизнинг фикримизча, университет ўқитувчилари томонидан гендер мафкурасини ўзлаштириш ва қабул қилиш касбий қарашларни жинсий рол стереотипларидан озод қилишга ёрдам беради, жинсидан қатъи назар, талабаларнинг ҳақиқий мойилликлари ва қобилиятларига эътибор қаратишга ёрдам беради ва касбий таълимни турли хил ҳаётий вазиятларга яқинлаштиришга имкон беради.

Талабаларга йўналтирилган таълим - бу мутлақо янги йўналиш. У “қиймат”, “маъно”, “субъективлик”, “муаллифлик”, “ўзига хослик”, “диалог ойнаси”, “контекст”, “тушуниш” каби тушунчалар билан фаолият юритувчи гуманитар педагогика методологиясига асосланади⁵. Талабаларга йўналтирилган таълим таълимнинг кенгроқ кўриниши билан тавсифланади, “одам каби бўлиш, ўзини, инсоний қиёфасини, ўзига хос

⁵ Мартинова Т.Н. Олий таълимда гендер муаммолари//Асосий тадқиқот. - 2005. - № 1. -С.30.

индивидуаллигини, маънавиятини, ижодкорлигини топиш” каби мезонлар билан белгиланади. Шахсга йўналтирилган таълимда шахсни фаолиятда яхлит кўриб чиқиш, ривожланиш ва ривожлантириш назарда тутилади, ўқувчининг билиш ва объектив фаолият субъекти сифатида индивидуал хусусиятларини аниқлаш асосида ўз-ўзини ривожлантиришни назарда тутуди Асосийси - шахснинг маънавий дунёсини белгиловчи қадрият йўналишларининг гуманистик йўналтирилган тузилишини шакллантириш, билимларни ўзлаштириш жараёни интеллектуал, ахлоқий ва эстетик тажрибалар муҳитида амалга оширилишига қаратилади.

Хуллас, гендерга йўналтирилган таълимда тенглик ҳақида эмас, балки аёллик ва эркаклик хусусиятларини сақлаш ва ривожлантириш, аёл ва эркакнинг нозиклик, севги, иштирок этиш қобилияти, ҳамдардлик каби фазилатлари, қадриятларини жамиятда намоён бўлишини такомиллаштириш кўзда тутилади. Индивидуализм ва технократия авж олган даврда шахслараро ва ижтимоий муносабатларни инсонпарварлаштиришда аёлнинг экспрессив функцияси ва эркак жинсининг инструментал функциясига алоҳида эътибор қаратилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси-Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – 18-модда.
2. Маънавият асосий тушунчалар луғати –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2009.
3. Холиқова М., Ишанханова Г., Пўлатова Ш. Гендер тенглиги: ғоядан қонунга қадар. –Тошкент: Akademnashr, 2021.
4. Ўзбекистон Республикаси таълим тўғрисидаги қонуни
5. Мартинова Т.Н. Олий таълимда гендер муаммолари // Асосий тадқиқот. - 2005. - № 1.

JIZZAX VILOYATINING EKOTURISTIK SALOHİYATINI OSHIRISH YO'LLARI (ZOMIN EKOTURISTIK RAYONI MISOLIDA)

Abdullayeva Madina Uchqun qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti talabasi

Turdiyeva Gulnoza Mamanazar qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti o'qituvchisi (ilmiy rahbar)

Bugungi kundagi Globallashuv jarayonida rivojlanga va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida turizmning o'rni oshib bormoqda. Sababi turizmدا mavjud bo'lgan resurslar orqali kishilarga xizmat ko'rsatiladi. Buning uchun ortiqcha kuch yoki resurslar sarfi muhim ahamiyatga ega bo'lmaydi. Turizmni

jadal rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotiga daromad keltirish bilan birga , mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aloqa va kommunikatsiya vositalarini yanada yaxshilash, turistik zonalarda infratuzilmalarni , turistik obyektlar holatini yaxshilash kabi bir qator ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xatto Birlashgan Millatlar Tashkilotida ham har bir turistik yo'nalishni rivojlantirishga qaratilgan istiqbolli rejalar ishlab chiqiladi. Bunga misol BMT tomonidan 2002-yil Xalqaro Ekoturizm yili deb nomlanadi. Shu asosda UNWTO keng ko'lamli tadbirlarni amalga oshirdi, jumladan mintaqaviy konfrensiyalar va Butunjahon Ekoturizm sammitini tashkil etish hamda ekoturizmni rivojlantirish va bozorni o'rganish bo'yicha ko'rsatmalar va metodologiyalarni nashr ettirdi¹⁶. Bizning mamlakatimizda ham turizmga katta e'tibor qaratilib uning rivoji uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Prezidentlikka saylanganidan buyon O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga qaratilgan bir qancha Qaror va Farmonlari e'lon qilinmoqda. Misol uchun „O'zbekiston Respublikasida turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida“ gi Farmoni⁷ bunga yorqin misol bo'la oladi. Shu va shunga o'xshash Qarorlar va Farmonlar natijasi o'laroq yurtimizning barcha hududlarida turizmni jadal rivojlantirish borasida zarur chora tadbirlar amalga oshirilmoqda . O'zbekistonda turizmning ekoturizm, ziyorat turizmi, tog' turizmi, agro turizm, qumsash turizmi, arxeologik turizm, rekreatsion turizm kabi turizm turlari yil sayin rivijlanib bormoqda.

Serquyosh o'lkamizning tog'li hududlarida turizmning rekreatsion turizm, ekoturizm va tog' turizmi kabi turizm turlari yaxshi rivojlangan. Mahalliy aholi orasida „O'zbekiston Shveysariyasi“ deb ataladigan Jizzax viloyati Zomin tumanida yuqorida sanab o'tilgan uchala tur ham rivojlangan va bu hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan say harakatlar orqali yanada rivojlanmoqda. Maqolani o'qish jarayonida nima sababdan aynan Zomin tumani Shveysariyaga qiyoslanmoqda degan savol tug'ilishi mumkin. Sababi Zomin Pomir-Oloy tog'-tizmasiga kiruvchi Turkiston tog'-tizmasi hududida joylashgan⁸. Bu tog'-tizmasining Zomin tarkibiga kiruvchi qismida dunyo miqyosida takrorlanmas bo'lgan, shifobaxsh archa o'rmonlarining mavjudligi bois ham , yashillikka burkangan Zomin Shveysariyaga qiyoslanadi. Albatta bu keng maydonni egallagan tog'-archazor o'rmonini muhofaza etish hamda rekreatsiya qilish maqsadida Zomin Davlat qo'riqxonasi tashkil etilgan. Qo'riqxonada yashil o'rmonzordan tashqari Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar, qushlar va o'simliklar muhofaza etiladi.

1-jadval. Qo'rinxona tarkibidagi “Qizil kitob”ga kiritilgan hayvonlar soni⁹

Sudralib yuruvchilari turlari soni	37 ta
------------------------------------	-------

⁶ www.Unwto.org

⁷ www.lex.uz

⁸ Raxmatulla Xaitboyev "Eko turizm " darsligi (117/128/130-betlari) Toshkent-2018

⁹ Raxmatulla Xaitboyev "Eko turizm " darsligi (117/128/130-betlari) Toshkent-2018

Qush turlari soni	134 ta
Sut emizuvchilar turlari soni	37 ta

Zomin qo'riqxonasi tarkibida Zomin Milliy bog'i tashkil etilgan. Milliy bog'dan ekoturistik maqsadda foydalanilmoqda. Yuqorida ta'kidlagaidan qo'riqxonani egallagan keng archazorning shifobaxsh havosidan shifo topish, dam olish va xordiq chiqarish uchun zamonaviy va qulay sharoitlarga ega bo'lgan Zomin sanatoriyasi, Zomin sihatgohi va oromgohi ko'p yillardan buyon o'z faoliyatini yuritib kelmoqda. Rekretsiya, sog'lomlashtirish maqsadida tashrif buyurganlar salomatligini tiklash bilan bir qatorda Zominning turistik salohiyatidan ham bahramand bo'lishmoqda. Zomin sanatoriyasida zamonaviy davolash usuli bilan birga uning shifobaxsh havosidan bahramand bo'lganlar imkon qadar yana tashrif buyurishga harakat qilishadi va bu sanatoriyani boshqalarga ham tafsiya qilishadi. Shu bois ham bu sanatoriyaning doimiy mijozlari yil sayin ko'paymoqda. Tumanda sayyohlar oqimini yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-aprelda „Zomin turistik-rekreatsion zonasi va xalqaro umummavsumiy kurortini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida“ gi Farmoni¹⁰ hamda Vazirlar Mahkamasining „ Zomin turistik-rekreatsion zonasini faol tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida“gi Qarorlari¹¹ qavul qilindi.

Qabul qilingan qarorlar va farmonlar asosida tumanda ko'plab harakatlar amalga oshirilmoqda. Misol uchun, Suffa tekisligida 2ta to'rt qavatli va 1ta besh qavatli mehmonxonalar va 104ta mehmon uylari tashkil etilib mahalliy va xorijiy turistlarni qabul qilishga shay holatda ishga tushirildi. Zomin turistik rekreatsion zonasida ham jadal qurilish ishlari amalga oshirilmoqda. Hozirgi vaqtda esa uzunligi 2ming 640metr bo'lgan gonol tipidagi zamonaviy osma dor yo'li qurilishi ishlari ketmoqda¹². Bu projekt joriy yilning aprel oida topshirilishi va ishga tushirilishi kutilmoqda. Bu osma dor yo'lining qurilishi ham ko'plab mahalliy va xorijiy turistlarni jalb qiluvchi bir omil hisoblanadi. Sayyohlar va ekskursandlarni qabul qilish uchun barcha infratuzilmalarni yaxshilash bilan bir qatorda ularning xavfsizligini ham ta'minlash 1-o'rinni egallaydi. Sababi hech bir sayyoh xavfsizligi kafolatlanmagan davlatga sayohat qilishni xohlamaydi. Shu boisdan O'zbekiston Respublikasi Turizm to'g'risidagi Qonunning (yangi tahriri 18-iyul 2019-yil) 9-bobi Xavfsiz turizmga bag'ishlangan. Barcha turizm sohasidagi vakolatli davlat organlari ushbu qonunga rioya etishlari belgilab qo'yilgan. 2023-yilning yanvar oyida Numbeo taxliliy xizmati jiboyat darajasi bo'yicha davlatlar reytingini tuzib chiqdi. Taxlilda 142ta mamlakat ishtirok etgan. Mamlakatimiz jinoyatchilik va xavflilik darajasi bo'yicha 104-o'rinni egalladi¹³.

¹⁰ <https://lex.uz/docs/-5356600>


¹¹ <https://lex.uz/uz/docs/-5398836>

¹² www.uzA.uz

¹³ www.stat.uz

Unga ko'ra jinoyatchilik darajasi 33,5% ni xavfsizlik indeksi bo'yich 66,5% ni tashkil etdi. Ma'lumotlarga ko'ra MDH ga a'zo davlatlar orasida O'zbekiston xavfiroq sanaladi. 2022-yil davomida 5232,8ming nafar chet el fuqarolar turistik maqsadda tashrif buyurgan. Xuddi shu davrda tashrif buyurganlarning yosh bo'yicha statistikasi tuzib chiqilgan.

1-rasm. 2022-yilning yanvar-sentabr oylari davomida O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlar sonining yosh bo'yicha taqsimoti¹⁴.



Statistika ma'lumotlariga ko'ra: 18 yoshgacha bo'lganlar soni 723,2 ming nafar, 19-30 yoshgacha bo'lganlar 846,6 ming nafar, 31-55 yoshdagilar 2593,4 ming nafar, 56 yosh va undan katta bo'lganlar soni 1069,6 ming nafar kishini tashkil etgan. Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki yurtimizga keluvchi xalqaro turistlarning katta qismini 31 yoshdan 55 yoshgacha bo'lganlar tashkil etar ekan. Albatta bu ko'rsatkich ham yomon emas lekin biz yoshlar oqimini ham oshirishimiz kerak. Buning uchun yoshlarda qiziqish uyg'otuvchi tog' turizmi, erstremal turizm hamda sport turizmini yanada rivojlantirishimiz lozim. Tog' turizmi hozirgi kunda asosan Toshkent viloyatidagi Chimyon hamda Amirsoy tog' chang'i kurort zonasida ancha yaxshi rivojlangan. Endi esa yaqin kunlarda Zomin tumanida ochiladigan dor yo'llari, kurort zonasining ochilishi yoshlarda qiziqish paydo qilishi va ijobiy natija berishidan umid qilamiz.

Yuqoridagi ma'lumotlardan quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

-mamlakatimizda turizmning barcha turlarini rivojlantirishga doir keng ko'lamli islohatlar amalga oshirilmoqda,

-mavjud bo'lgan tabiiy imkoniyatlarimizdan maksimal darajada unumli foydalanishimiz kerakligini. Buni yuqoridagi Zomin tumanidagi tabiiy imkoniyatlardan foydalanish yo'llari, osma dorlarning qurilishi, umum mavsumiy tog'-chang'i kurortini tashkil etish orqali bilib olishimiz mumkin.

¹⁴ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

-ekoturizmni, tog'-chang'i turizmini rivojlantirish orqali mamlakatimizdagi mavsumiy turistik oqimiga barham berish mumkin. Ya'ni barchamizga ma'lumki hozirgi kunda Respublikamizga tashrif buyuruvchi sayyohlar asosan bahor va kuz oylarida kelishadi. Yuqoridagi ikkita turizmni turini rivojlantirish orqali esa turistlarni yoz, qish oylarida ham jalb etishimiz mumkin.

Mamlakatimizda ekoturizmni yanada rivojlantirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi :

ekoturizm bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash:

ekoturistik maskanlarda lager, oromgoh, sanatoriya kabi sog'lomlashtiruvchi maskanlar sonini ko'paytirish orqali narxlarga bevosita ta'sir ko'rsatish va sog'lom raqobatni vujudga keltirish;

mamlakatimizning tabiiy geografiyasidan kelib chiqqan holda yana qaysi hududlarda ekoturizmni rivojlantirish mumkinligini o'rganish;

ekoturistik zonalarni tashkil etishda o'ziga xos bo'lgan dizayn yoki uslublardan foydalanish. Ya'ni odatiylikdan qochib g'ayrioddiylikni qo'llash orqali mahalliy va xorijiy turistlarni yanada ko'proq jalb etish ;

Jannatmakon yurtimiz turizmning ko'plab sohalarini rivojlantirish va sayyohlar oqimini oshirish potensialiga ega bo'lgan mamlakat hisoblanadi. Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan harakatlarga qaramay O'zbekistonda turizmni yanada rivojlantirish , yangiliklar kiritish va mamlakatimizni turizm sohasi rivojlangan mamlakatlarga sirasiga kirgazish siz va biz kabi turizm bo'yicha yetishib chiqayotgan yangi kadrlarning qo'lida hisoblanadi. Bularni amalga oshirish bizning vazifamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 O'zbekiston Respublikasi Turizm to'g'risidagi Qonuni (yangi tahrir)

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-aprelda „ Zomin turistik-rekreatsion zonasi va xalqaro umum mavsumiy kurortini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida” gi Farmoni

3 Vazirlar Mahkamasining „ Zomin turistik-rekreatsion zonasini faol tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida”gi Qarori

4 Raxmatulla Xaitboyev "Ekoturizm " darsligi (117/128/130-betlari) Toshkent-2018

5. www.lex.uz

6. www.stat.uz

7. www.Unwto.org

8. www.uzA.uz

O'TKIR PANKREATITNING RIVOJIDA SITOKIN TIZIMINING O'RNI HAQIDA ZAMONAVIY TUSHUNCHALAR

Abdullaeva N.K., Azizov M.

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

O'tkir pankreatit (O'P) keng tarqalgan va murakkab klinik favqulodda holat bo'lib, u ortiqcha tizimli yallig'lanish reaksiyasiga javoban oshqozon osti bezining mahalliy shikastlanishi natijasida rivojlanadi. Engil O'P bilan og'rigan bemorlarning ko'pchiligida faqat peripankreatik yallig'lanish reaksiyalari mos keladigan past o'lim bilan kuzatiladi [1, 2]. Biroq, ba'zi bemorlarda oshqozon osti bezining nazoratsiz mahalliy yallig'lanishi tufayli og'ir o'tkir pankreatit rivojlanishi mumkin va og'ir o'tkir pankreatit bilan og'rigan bemorlarning 80 foizida tizimli yallig'lanish reaksiyasi (TYR) va ko'p a'zolar etishmovchiligi (AM) kabi asoratlar rivojlanadi. OPdan o'lim 20-30% ga yetishi mumkin [3, 4]. Ko'pgina tadqiqotlar O'P patogenezini tushuntirishga harakat qilgan bo'lsa-da, asosiy mexanizmlar noaniqligicha qolmoqda. An'anaga ko'ra, O'P oshqozon osti bezi asinar hujayralarida zimogenlarning muddatidan oldin faollashishi tufayli yuzaga keladi deb taxmin qilinadi [5], bu oshqozon osti bezi shikastlanishiga va umumiy yallig'lanish reaksiyasiga vositachilik qiladigan oshqozon osti bezi shikastlanishiga olib keladi. Haddan tashqari immunitet reaksiyasini keltirib chiqaradigan immunitet hujayralari in vivo, oshqozon osti bezi to'qimalariga infiltratsiya qiladi va O'P rivojlanishini tartibga soladi [6]. Natijada, O'Pning dastlabki bosqichlarida oshqozon osti bezi shikastlanishi va yallig'lanish reaksiyasini kamaytirish orqali O'P rivojlanishining oldini olish uchun samarali maqsadlarni aniqlash muhimdir.

Bir qator boshqa mualliflarning xulosalariga ko'ra, infeksiyalangan pankreatik nekrozda yuqori o'lim ko'rsatgichi ko'p organ etishmovchiligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu gemodinamik buzulishlardan keyin sodir bo'ladi [1,2]. O'tkir pankreatit polietologik kasallikdir. V.S. Saveliev va boshqalar . [3] pankreatit rivojlanishining sabablari orasida zarar yetkazuvchi omillarning uchta chambarchas bog'liq guruhini ajratib ko'rsatish mumkin: 1) mexanik (me'da osti bezi kanallari tizimi orqali oshqozon osti bezi sekretsiasini evakuatsiya qilishning buzilishi) ; 2) neyroxumoral (oshqozon osti bezi va jigarning innervatsiyasi va metabolik funktsiyalarining buzilishi); 3) toksik (har xil tabiatdagi ekzogen va endogen toksik metabolitlarning mavjudligi). V.V. Boyko va boshqalar . [4] oshqozon osti bezi asinar hujayralarining zararlanishining barcha sabablari shartli ravishda uch guruhga birlashtiriladi: 1) preatsinar omillar - ateroskleroz, angiit, portal gipertenziya, umumiy qon aylanishining buzilishi (gipoksiya, atsidoz) va boshqalar natijasida kelib chiqqan tomirlarning shikastlanishi; 2) asinar omillar (alkogol, oshqozon osti bezi shikastlanishi, metabolik kasalliklar, viruslar va boshqalar); 3) postsinar omillar (katta o'n ikki

barmoqli ichak papillasi funksiyasining buzilishi - MSD), xanjar toshlar, MSD ning tug'ma shikastlanishlari, umumiy o't yo'llari, oshqozon osti bezi yo'llari, halqali oshqozon osti bezi va boshqalar). Ko'pincha o'tkir pankreatit bir vaqtning o'zida bir nechta omillarning ta'siri natijasida rivojlanadi, shuning uchun bu bo'linish o'zboshimchalik bilan amalga oshiriladi [3,5,6].

Ilgari o'tkir pankreatit rivojlanishining asosiy etiologik omili hisoblangan jigardan tashqari o't yo'llarining kasalliklari, taxminan 45% hollarda [7,8]. Bugungi kunda 35-70% hollarda (o'rtacha 50%) yuzaga keladigan surunkali alkogolizm, shuningdek, ikkinchi o'rinda turadigan xolelitiyoz (safro pankreatit) kabi etiologik omilning ahamiyati sezilarli darajada oshdi.

Ba'zi hollarda o'tkir pankreatitning sababini aniqlash mumkin emas. Ammo adekvat davolash va kasallikning keyingi kursi natijalarini baholash uchun pankreatitning sababini aniqlash asosiy vazifalardan biridir [7,9,10].

Inson immuniteti bilan bog'liq kasalliklar patogeneza va yallig'lanish rivojlanishidagi rolini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu retseptorlar faollashganda, pleiotropik yadro transkripsiya omili (NF-kB) ta'sir qiladi. Buzilmagan hujayra sitoplazmasidagi NF-kB yadro omili inhibitirluvchi oqsillar bilan bog'lanib, faol bo'lmagan shaklda bo'ladi. Toll'ga o'xshash retseptorlarning signalizatsiya yo'llari faollashganda, inhibitor oqsillarning fosforillanishi va proteolizi sodir bo'ladi, bu yadro omilining yadroga o'tishi va DNKning ma'lum hududlari bilan bog'lanishiga imkon beradi. Shu bilan birga, stressga hujayra reaksiyasiga erta kiritilgan genlar, masalan, sitokinlar genlari, adezyon molekulari, oqsilning o'tkir fazasi va boshqalar faollashadi va bu moddalarning sintezi keskin ortadi [11-13].

Asinar hujayralarda faollashish va oshqozon osti bezi to'qimalarida mos keladigan oqsillarning tarkibi bir necha soat davomida keskin oshib borishi isbotlangan. Natijada, neytrofillar postkapillyar venular devori orqali lezyonga o'tadi. Shu bilan birga, oshqozon osti bezining leykotsitlar infiltratsiyasi darajasi SIRSning og'irligi va pankreatitning og'irligi bilan bog'liqdir [11,12,14,15].

IL-1b, TNF-a va FAT ning chiqarilishi tizimli qon aylanishida va jigar, o'pka, taloq va boshqa organlarning mikrotomirlari endoteliasida leykotsitlarni faollashtirishi mumkin. Bu yerda leykotsitlarning kechikishi, chegaralanganligi, migratsiyasi va faollashuvi ham sodir bo'lishi mumkin, yallig'lanish infiltratlar paydo bo'ladi va natijada to'qimalarning shikastlanish o'choqlari paydo bo'ladi, bu klinik jihatdan ko'p a'zolar yetishmovchiligigacha bo'lgan organlarning disfunktsiyasi bilan namoyon bo'ladi [6,13,15,16-19].

O'tkir pankreatitda kininlar, sitokinlar, kimokinlar, trombositlarni faollashtiruvchi omil, adezya molekulari va boshqa signalizatsiya molekularining ta'siri natijasida 2-3 kun ichida tizimli yallig'lanish reaksiyasi sindromi rivojlanadi, bu infeksiya mavjud bo'lganda sepsis sifatida namoyon bo'ladi. [3,14,20].

Infeksiyadan oldingi, shuningdek keyingi va kech (septik) fazalari o'rtasidagi o'ziga xos bog'liqlikdir. Pankreatik nekroz zonalari infeksiyalanganida, birinchi fazaga o'xshash yallig'lanishga qarshi va yallig'lanishga qarshi vositachilarning qayta faollashishi va ko'payishi sodir bo'ladi, ularning qo'zg'atuvchisi nekroz zonalarini kolonizatsiya qiluvchi mikroorganizmlarning toksinlari hisoblanadi. Kasallikning yuqumli bosqichida patologik reaksiyalarning shafqatsiz doirasi yaratiladi. Bu oshqozon osti bezi nekrozining turli infeksiyalangan shakllari va septik shok va ko'p a'zolar etishmovchiligi ko'rinishidagi tizimli yallig'lanish javobining shakllanishida sifat jihatidan yangi bosqichga aylanadi [13,16,18,20,21-24].

O'Pda tizimli yallig'lanish reaksiyasining rivojlanishi tananing shikastlanishiga tabiiy, ammo o'limga olib kelmaydigan reaksiyasi bo'lib, unga yallig'lanishga qarshi vositachilar tizimi (IL-2, -4, -10, -11, -) qarshi turadi. Eruvchan TNF retseptorlari va IL-1b retseptorlari antagonistlari, jigarda TNF neytrallanishini faollashtirish) - kompensatsion yallig'lanishga qarshi javob sindromi (kompensator yallig'lanishga qarshi javob sindromi - CARS). Balanslangan kursda CARS tizimli yallig'lanish reaksiyasini bostiradi. Shu bilan birga, haddan tashqari zo'ravonlik yoki uzoq davom etadigan kurs bilan, CARS surunkali yoki tarqalgan infeksiya, tiklanish jarayonining buzilishi, endotoksikozning kuchayishi va kech ko'p organ yetishmovchiligining shakllanishi bilan klinik jihatdan namoyon bo'ladigan chuqur immunosupressiya rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Birgalikda yiringli-septik jarayonning kech bosqichlarida halokatli natijani oldindan belgilab beradi [13,14,17,18,21].

Etiopatogenezi haqidagi zamonaviy g'oyalarga asoslanib, SIRS rivojlanishida sitokin tizimining, sitokinlarning roli va infeksiya mavjud bo'lganda - pankreatogen sepsis, ko'p a'zolar yetishmovchiligi va o'limga olib keladigan natijalar hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'tkir pankreatitni o'rganishda sezilarli yutuqlarga qaramay, ushbu kasallikning patogenezi to'liq tushunilmagan. Uning rivojlanishida immunitet mexanizmlarining asosiy o'rnini yegalagani isbotlangan, ammo - haddan tashqari immunitetli agressiyasi yoki immunosupressiya, immun javobning adaptiv yoki tug'ma mexanizmlari noaniqligicha qolmoqda.

O'tkir pankreatit patogenezida sitokinlar va boshqa past molekulyar og'irlikdagi yallig'lanish vositachilarining rolini yanada o'rganish ushbu kasallikning rivojlanishini tushunish, uning kechishi va oqibatlarini erta prognoz qilish, shuningdek, yangi usullarni ishlab chiqish kalitidir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Острый панкреатит: Пособие для врачей; Под ред. В.С. Савельева. – М.: НЦССХ им. А.Н. Бакулева РАМН, 2000. – 60 с.
2. Савельев В.С. Острый панкреатит как проблема urgentной хирургии и интенсивной терапии / В.С. Савельев, М.И. Филимонов, Б.Р. Гельфанд и др. // Consilium Medicum. – 2000. – Т. 9, №2. – С. 16.

3. Савельев В.С., Филимонов М.И., Бурневич С.З. Панкреонекрозы. – М.: МИА, 2008. – 264 с.
4. Бойко В.В. Острый панкреатит: патофизиология и лечение / В.В. Бойко, И.А. Криворучко, Р.С. Шевченко и др. – Харьков: Торнадо, 2002. – 288 с.
5. Beger H.G., Matsuno S., Cameron J.L. Diseases of the Pancreas. – Heidelberg: Springer-Verlag, 2008. – 949 p.
6. Paterniti I. Peroxisome proliferator-activated receptor β/δ agonist GW0742 ameliorates cerulein- and taurocholate-induced acute pancreatitis in mice / I. Paterniti, E. Mazzon, L. Riccardi et al. // *Surgery*. – 2012. – Vol. 152, №1. – P. 90-106.
7. Острый панкреатит: Руководство для врачей; Под. ред. проф. Э.В. Недашковского. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2009. – 272 с.
8. Аминов И.Х. Сравнительный анализ методов медикаментозной профилактики ЭРХПГ-индуцированного панкреатита / И.Х. Аминов, М.В. Чуркин, Е.Ю. Плотникова и др. // *Вестн. клуба панкреатологов*. – 2016. – №3 (32). – С. 49-56.
9. Полушин Ю.С. Острый послеоперационный панкреатит. – СПб: Фолиант, 2003. – 158 с.
10. Паскарь С.В. Роль миниинвазивных эндоскопических вмешательств в комплексном лечении острого билиарного панкреатита // *Актуальные проблемы хирургической гепатологии: Тез. докл. 17-го междунар. конгресса хирургов-гепатологов стран СНГ*. – Уфа, 2010. – С. 91-92.
11. Hac S. Influence of molecule CD 11b blockade on the course of acute ceruleine pancreatitis in rats / S. Hac, M. Dobosz, J. Kaczor et al. // *Exp. Mol. Pathol.* – 2004. – Vol. 77, №1. – P. 57-65.
12. Rahman, S.H., Menon Kr.V. Macrophage Migration Inhibitory Factor is an Early Marker of Pancreatic Necrosis in Acute Pancreatitis // *Offic. J. Int. Hepat. Pancreat. Biliar. Assoc.* – 2006. – Vol. 8 (Suppl. 2). – P. 164.
13. Rau, B. Biochemical Severity Stratification of Acute Pancreatitis: Pathophysiological Aspects and Clinical Implication / B. Rau, H. G. Beger, M. K. Schilling. // *Intensive care medicine: annual update 2004* / ed. J.-L. Vincent. – Berlin ; Heidelberg, 2004. – P. 499-518.
14. Иванов С.В. Лечение острого панкреатита и его осложнений / С.В. Иванов, О.И. Охотников, Г.А. Бондарев и др. – Курск: КГМУ, 2005. – 181 с.
15. Bhatnagar A., Wig J.D., Majumdar S. Immunological findings in acute and chronic pancreatitis // *ANZ J. Surg.* – 2003. – Vol. 73, №1-2. – P. 59-64.
16. Варганов М.В., Ситников В.А., Стяжкина С.Н. Иммуноориентированная терапия в комплексном лечении тяжелого острого панкреатита // *Анналы хир. гепатол. J.* – 2008. – Vol. 13, №3. – P. 216.

17. Горский В.А. Роль цитокинов в развитии острого панкреатита / В.А. Горский, В.А. Индароков, М.А. Агапов и др. // *Анналы хир. гепатол.* – 2009. – Vol. 14, №3. – P. 85-91.
18. Шабанов В.В. Роль цитокинов и других сигнальных молекул в патогенезе острого панкреатита // *Вестн. РАМН.* – 2003. – №9. – С. 44-47.
19. Cheng S., He S., Zhang J.S. The role of alveolar macrophage activation in rats with lung injury associated with acute necrotizing pancreatitis // *Zhonghua Wai Ke Za Zhi.* – 2002. – Vol. 40, №8. – P. 609-612.
20. Затевахин И.И. Панкреонекроз: диагностика, прогнозирование и лечение / И.И. Затевахин, М.Ш. Цициашвили, М.Д. Будурова и др. – М., 2007. – 223 с.
21. Агапов М.А., Горский В.А. Роль цитокинов в развитии острого панкреатита // *Анналы хир. гепатол.* – 2009. – Т. 14, №3. – С. 85-90.
22. Багненко С.Ф., Толстой А.Д. Острый панкреатит. Протоколы диагностики и лечения // *Анналы хир. гепатол.* – 2006. – Т. 11, №1. – С. 60-66.
23. Волков А.Н., Ворончихин В.В., Дербенев А.Г. Оптимизация комплексного консервативного лечения больных острым деструктивным панкреатитом в реактивной фазе, озонотерапией и иммунокоррекцией // *Анналы хир. гепатол.* – 2008. – Т. 13, №3. – С. 220.
24. Gullo L. Acute Pancreatitis in five European countries: etiology and mortality / L. Gullo, M. Migliory, A. Olah et al. // *Pancreas.* – 2002. – Vol. 24, №3. – P. 223-227.

INGLIZ TILINI O'QITISHDA MULTFILMLARDAN FOYDALANISH

Abdumutalipova Shahrizoda Hushnudjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

Bugungi kunda ingliz tili butun dunyo bo'ylab eng ko'p o'rganiladigan va so'zlashiladigan tillardan biridir. Bundan tashqari, ko'plab ilmiy kitoblar ingliz tilida yozilgan bo'lib, dunyoning ko'plab mamlakatlarida ingliz tilini o'rgatish zaruratga aylangan. Biroq, ko'p o'quvchilar o'rta maktablardagi ko'p yillik o'qishdan so'ng ingliz tilidan samarali foydalana olmaydi va erkin muloqot qila olmaydi. Ushbu muammoni hal qilish uchun ko'plab yechimlar mavjud. Ular orasida multfilmlarni tomosha qilish til o'rganishning eng samarali usuli hisoblanadi. Multfilm – ko'ngil ochish uchun atrofimizda ko'rayotgan narsalarning animatsiyasi yoki oddiy chizmasi bo'lgan kino yoki kichik video bo'lib, unda ko'plab rang-barang personajlar mavjud. Ular bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, quvonchga to'la va kayfiyat ko'taruvchi multimedia hisoblanadi. Ular odatda gazetalarda, komikslar (uzviy ketma-ketlikda bog'langan

rrasmlar seriyasi) va jurnallarda nashr etiladi yoki televizorda ko'rsatiladi. Ilgari, multfilmlar faqat bolalarga zavq va shavq bag'ishlashga qaratilgan edi. Biroq, bugungi kunda ular boshqa maqsadlarda, ayniqsa, ta'lim sohasida keng qo'llaniladi. O'qituvchilik kasbi sabr-toqatni talab qiladi. Sizning ongingizdagi barcha ma'lumotlarni boshqa birovning ongiga o'tkazish uchun juda ko'p kuch talab etiladi. Shuning uchun u ko'plab yangi usullar, innovatsion texnologiyalar va osonlashtiradigan g'oyalarni o'z ichiga oladi. Animatsion filmlar uzoq vaqtdan beri eng yaxshi yordamchi bo'lib kelgan. Ularning yordami bilan o'quvchilar osonroq tushunishlari va ko'proq tajriba orttirishlari mumkin. Ba'zan bunga multfilmlar yoki komikslar yordamida erishiladi. Multfilmlar bolalarni tarbiyalashda juda foydali ekanligi isbotlangan. Ular boshidanoq axloqiy qadriyatlarni berishgan. Multfilmlar e'tiborni jalb qilishi mumkin: bolalar dunyodagi eng beg'ubor hilqatdirlar, shuning uchun ular doimo hayotining har bir daqiqasidan zavq olishni xohlashadi. Ular, tabiiyki, qayerga bormasin, nima qilsa ham, ko'nglini ko'tarish istagi bo'ladi. Shuning uchun, aytish mumkinki, multfilmlar yoki komikslar o'yin-kulgi izlashda atrofdagi o'quvchilarning e'tiborini tortadigan birinchi narsadir. Buni nafaqat bolalarga, balki kattalaga ham tegishlidir. Multfilmlar yaxshiroq tushunishga ko'maklashadi: Biz bilmagan, tushunib bo'lmaydigan nazariy masalalar mavjud. Ularni tushuntirish uchun hayotiy misollar yoki amaliy tajribalar kerak bo'ladi. Multfilmlar omma oldida nutq so'zlashdan qo'rqishni kamaytiradi. O'qituvchi har bir qahramonni o'quvchilarga berishi va ularni rolini o'ynashi mumkin. Bu talabaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Talabalar butun sinf oldida nutq so'zlash yoki chiqish qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ularning nutq qobiliyatini oshiradi va bu qolgan talabalar uchun ham foydalidir, chunki ular hikoyani yaxshiroq tushunishadi. Bu hamma uchun qiziqarli mashg'ulot bo'ladi.

Multfilmlar ingliz tilini o'rganish uchun boshqa ko'rsatuvlar yoki filmlar kabi juda yaxshi, chunki bolalar uchun kontentdan ko'p narsalarni o'rgatishingiz mumkin. "**Dora**" ingliz tilini o'rganishga harakat qilayotgan har bir kishi uchun ajoyib multfilmidir. Chunki unda tomoshabindan o'rgatilayotgan narsalarni va ularning fikr-mulohazalarini so'raydi va syujetni oson va chalkashtirmasligi ham uning afzallik tomonlari bo'la oladi. Qahramonlar nutqi davomida yetarlicha pauzalar bo'ladi, ya'ni tomoshabin umuman anglay olmay qolmaydi. Multfilmlar bolalarga jamiyatdagi xulq-atvor qoidalari: kattalarni hurmat qilish va yaqin insonlarni qadrlashni o'rgatadi. Misol uchun, "**Beauty and the Beast**" multfilmini olaylik, bunda sohibjamol Bell otasini qutqarib qolish uchun maxluqqa asirga tushadi [1]. Shuningdek, "**Kun Fu Panda**" multfilmida yengilmas beshlik tinchlik vodiysi himoyasi uchun dushmanga birdamlikda kurashadi va bu jamoada birgalikda va hamjihatlikda ishlashga o'rgatadi. [2] va so'z boyligini boyitadi (bolaning chet tilida multfilm ko'rish jarayonida tilni o'rganishi mumkin). Qolaversa, ba'zi multfilmlarning asosiy g'oyasi dunyoni kashf etishga yordam berish va bolaning kreativligini oshirishga qaratilgan. Bunga misol qilib "**Cloudy**

with a chance of Meatballs” multfilmini olish mumkin. Bunda bosh qahramon odamlar yaxshi yashashi uchun turli xil kashfiyotlarni amalga oshiradi [3]. Kontseptsiya multfilmlari talabalarni o'z g'oyalari, jumladan, odatda qilishni istamaydigan g'oyalarni muhokama qilishga undaydi. Bu o'qituvchilarga ushbu g'oyalarga kirish imkonini beradi. Shuningdek, bu o'quvchilarga bir-birlarining g'oyalari o'rganish imkonini beradi, bu esa ularni o'z fikrlarini qayta ko'rib chiqishga undashi mumkin. **“Despicable me”** multfilmini bunga misol qilib olaylik, bunda bosh qahramon Stiv amaki uch bolakayni asrab oladi va ular uchun o'z odatlari vos kechadi hamda yaxshi tomonga o'zgaradi [4].

Multfilmlar bolalar tili va nutqini yaxshilash orqali ularga eshitmagan yangi so'zlarni tezroq o'rganishga, his-tuyg'ularini to'g'ri ifodalashga yordam beradi **“Nemo”** multfilmi bunga yorqin misol bo'la oladi [5]. Multfilmlar o'quvchilarga axloqiy tamoyillarni o'rgatishi mumkin: maktabda o'quvchilarni o'zini to'g'ri tutishga o'rgatish oson emas. Axloqiy qadriyatlar va yaxshi xulq jamiyatda muhimroqdir. Jumladan, **“Tangled”** multfilmi o'zida yuksak odob-axloq namunalarini aks ettiradi [6]. Multfilmlar ijodkorlikni oshirishi mumkin: multfilmlarni qayta-qayta tomosha qilgandan so'ng, ular o'zlarining multfilm qahramonlarini rivojlantiradilar. Xayoliy narsa haqida topshiriq berganingizda, ular ajoyib belgilarni chizishlari mumkin, siz albatta hayratda qolasiz. Multfilmlar so'z boyligini oshirishi mumkin. Multfilmlar bolalar ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalar animatsion videolarni tomosha qilganda, ular yangi noma'lum so'zlarni tinglaydilar, ular imo-ishoralarni yoki ovoz ohanglarini o'rganadilar va gaplarning tuzilishini o'rganadilar. Keyin ularga taqlid qila boshlaydilar. Ularning savollari kundan kunga ortib boradi va siz ularga javob berishingiz kerak bo'ladi. Subtitrli multfilmlarni tomosha qilish til o'rganishning yaxshi usuli hisoblanadi. Keyin siz ularni butunlay o'chirib qo'yish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Siz buni kundan-kunga, bosqichma-bosqich qilishingiz mumkin. Agar o'qituvchilar ma'lum bir multfilmni tanlashda qiynalsa, ularga tilni o'rganishga yordam beradigan ko'plab animatsiyalar mavjud. Misol uchun, hammaga tanish bo'lgan **“Frozen”** ya'ni **“Muzyurak”**[7], **“Ice age”** ya'ni **“Muzlik davri”**[8], **“Shrek”** [9], **“Rio”** [10] va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, multfilm ko'rishni yoqtirmaydigan bolalar yo'q. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarga o'tilayotgan mavzuga mos hamda qiziqarli multfilm olib kelsa, ular hech qachon afsuslanmaydilar. Bunday xulq-atvor shakllanganda o'quvchilarning mavzuga nisbatan zerikarli, keraksiz, qiyin degan qarashlari o'zgaradi. Ular darsda faolroq bo'lishadi. Ustozning har bir so'zini o'tkazib yuborishmaydi. Oxir-oqibat, natija ijobiy bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Beauty and the Beast” manba: <https://youtu.be/IGwZ8NRphDc>
2. “Kun Fu Panda” manba: <https://www.imdb.com/title/tt0441773/>
3. “Cloudy with a chance of Meatballs” manba: <https://tv.evoscinematix.xyz/movie/22794>

4. “Despicable me” manba: <https://www.imdb.com/title/tt1323594/>
5. “Nemo” manba: <https://www.imdb.com/title/tt0266543/>
6. “Tangled” manba: <https://www.imdb.com/title/tt0398286/>
7. “Frozen” manba: <https://www.imdb.com/title/tt2294629/>
8. “Ice age” manba: <https://www.imdb.com/title/tt0268380/>
9. “Shrek” manba: <https://www.imdb.com/title/tt0126029/>
10. “Rio” manba: <https://www.imdb.com/title/tt1436562/>

“АВЕСТО”ДА ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТ

Абдураимова Муқаддас Эргашовна

Тошкент Давлат Аграр университети доценти (илмий рахбар)

Хакимов Оятилло Комолжон ўғли

Тошкент Давлат Аграр университети талабаси

“Авесто” зардуштийлик динининг муқаддас китоби бўлиб, ҳозирги Ўзбекистон ҳудудида эрамиздан олдинги иккимингинчи йиллар ўрталарида яшаган қабилаларнинг диний ва дунёвий мафқураси, ижтимоий- сиёсий тузуми, ҳуқуқи ҳақида асосий манба сифатида қимматли маълумотларни беради. Шу сабабли “Авесто”ни ҳуқуқий манба сифатида ўрганиш мамлакатимизда ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамияти қуриш жараёнида ёшларда ҳуқуқий маданиятни шакллантиришга ёрдам бериши шубҳасиздир. Ушбу мақолада қадимий аждодларимизнинг ҳуқуқ ва бурчлари тўғрисида буюк маънавий меросимиз “Авесто”да илгари сурилган фикрлар ҳақида сўз юритилади.

Зардушт яшаган замон ибтидоий муносабатлар ўрнини синфий жамият, қадимий давлатчилик асослари эгаллаётган давр эди. Бу даврнинг шаклланиши учун кучли ғоявий мафкура зарур бўлиб, маҳаллий-қабилавий динлар жамият тараққиётининг янги босқичига тўсқинлик қилувчи кучга айланган эди. Бу мураккаб замонда ўлканинг турли қабилаларини бирлаштириш орқали илк бор буюк давлатчилик ғояси атрофида мужассамлаштириш зарурияти туғилди. Ана шундай заруриятни тушунган илғор кишилардан бири Зардушт эди. У кўп худолик тасаввурига, табиат ҳодисаларига сиғинишни инкор этиб, якка худоликни тарғиб қилди. Зардуштнинг бошқалардан фарқи шундаки у ўта истеъдодли шоир, илоҳиёт билимдони, файласуф олим эди. Ягона худога ишонишгина жамиятни янги тараққиёт босқичига кўтара олади, деб ҳисоблар эди.

Бу эса қадимги Суғд, Марв, Балх, Ҳирот, Парфия ва бошқа ўлкаларда марказлашган давлат тизими асосларининг яратилишига шароит туғдирди. Жумладан “Авесто”нинг “Вандидод” китобида олий тангри

яратган 16 та давлатга оид маълумотлар учрайди. Унда мамлакатнинг ҳудудий- маъмурий ва сиёсий- ҳуқуқий бошқарув тизими қандай ташкил этилганлиги баён этилган. Давлатни шоҳ-“кави” идора қилган, оилаларнинг бирлашмаси-“нмана”, оила жамоаси- “дмана”, катта оила жамоаси бошлиғи-“нма- напати”, уруғ жамоаси бошлиғи-“Вис”, катта қишлоқ оқсоқоли-“Виспати”, қабила бошлиғи-“зантупати”. Вилоят ҳокими- “дахиюпати”, бир неча вилоятларнинг ҳукмдори ва қабилаларнинг ҳарбий бошлиғи- “дахию-састир”лардан ташкил топган, қонун чиқарувчи Олий орган- оқсоқоллар Кенгаши- “варзанапти” деб юритилади. Давлат бошқаруви сиёсий- ҳуқуқий тамойиллар асосида амалга оширилган. Кохин олий судя вазифасини бажарган. Уни “Заратуштроэма” деб аташган.

“Авесто”да Яқин ва Ўрта Шарқ халқларининг ҳуқуқий қарашлари ўз ифодасини топган. Унда ҳуқуқий қоидалар тартибли тарзда берилмаган бўлса ҳам ўша даврнинг ҳуқуқий муносабатларини акс эттиради. Ҳозирги замон тасаввурларидан келиб чиққан ҳолда “Авесто”да жиноят ва жазо, фуқаролик, оила ва никоҳ, мулк, ер- сув билан боғлиқ масалаларни тартибга солувчи ҳуқуқий соҳаларни ажратиб кўрсатиш мумкин. Ахлоқий қоидалар сингари ҳуқуқий қоидалар ҳам “Авесто”да диний руҳ билан суғорилган. Улар ҳам худо томонидан ўрнатилган илоҳий қонунлар бўлиб, бош ҳакам сифатида худо Ахура Мазданинг ўзи кўрсатилган.

“Вандидод”нинг (“Девларга қарши қонун”)нинг 13,14- бобларида сувни тежаш, уни қадрлаш, ундан унумли фойдаланиш ҳақидаги қоидалар битилган. Унда ҳар куни экинни икки марта суғориш мумкинлиги, ҳар бир экин экувчи бир белкурак кенглик ва чуқурликдаги ариққа сиғадиган сув олишга ҳақли эканлиги, сувни тақсимлаш билан қоҳинлар шуғулланиши, сувни ифлослантиришни тақиқловчи қоидалар битилган. Бу қоидаларни бузганларга нисбатан мажбурий меҳнатга жалб қилиш жазоси белгиланган.

“Авесто”да ердан унумли фойдаланиш, уни ифлосланишдан сақлаш ҳақидаги қоидалар, уларга риоя қилмасликнинг ҳуқуқий оқибатларига алоҳида ўрин ажратилган. Одам ёки ит ўлигини ерга кўмиб, уни олти ойгача қазиб олмаган киши минг дарра, агар бир йилгача қазиб олмаса икки минг дарра билан уриш кўрсатилган. Табаррук манбада оилавий муносабатларни тартибга солишга қаратилган кўплаб қоидалар мавжуд.

“Авесто”да жамият бир бутун ижтимоий тузум сифатида тасвирланади ва бунда давлат муассасалари билан жамоат ташкилотлари баҳамжиҳат фаолият кўрсатишлари кераклиги таъкидланади.

Жамиятда эса шоҳ, бош вазир, вазирлар, бош мўбод(қоҳинлар сардори), кўшин бошлиқлари, сарбозлар, олимлар, мударрислар, табиблар, устоз, муаллимлар, воизлар, ҳунармандлар, деҳқонлар, чорвадорлар, раис, боғбонлар, мироб, котиб ва шу сингари ижтимоий табақалар бўлиши айтилади. Улар тавсифланиб, ҳуқуқ ва бурчлари батафсил баён этилган.

Таълим ва тарбия жараёнида устоз ва шогирд бурчи ҳамда маъсулияти Низом- қонунда белгиланган. Бунга кўра Устоз Ахура Мазда ўғитлари ва талабларини қандай бўлса шу мазмунда ўқувчига етказиши керак бўлган. Ўқувчилар илоҳий ва дунёвий Низом талабларини яхши ўзлаштириб олишлари зарур бўлган. Қизлар 7 ёшдан 15 ёшгача, ўғил болалар эса 7 ёшдан 17 ёшгача ўқиши мажбурий ҳисобланган. Кейин ихтиёрий равишда ўқишни давом эттириши мумкин.

“Авесто”да жинойтларни ҳуқуқий жиҳатдан тўғри баҳолашда, уларнинг объектив, яъни ҳаққоний томонини аниқлашга катта аҳамият берилган.

Зардуштийлик таълимотига кўра ёлғон гапириб гувоҳлик бериш, бировни алдаш гуноҳ, яъни жинойт ҳисобланган. Зардушт ўз таълимотидан сабоқ олгани йиғилган кишиларга буни қуйидагича тушунтирган. “Ҳамиша ҳақиқат ва ростликка амал қилсанг забардаст ва қудратли бўлғайсан” деб таъкидлайди.

“Авесто”да барча жинойтларга бериладиган жазоларнинг аниқ меъёрлари белгилаб қўйилган. Масалан, денгиз кучугини ўлдирганга белгиланган жазо билан чўпон итини ҳалок этганнинг жазосида ҳам, жаримасида ҳам жиддий фарқ бор. Ёки ҳовуздан ювилмаган кўзада сув олган билан буғдойзорни пайҳон қилган, дарахтнинг шоҳини синдирганга бериладиган жазолар ҳам ўзаро фарқ қилади. Кўриниб турибдики, гуноҳ учун бериладиган жазо тартиблари қатъий низомга, қонун тусига кирган бўлган. Муқаддас манбада қайд этилганидек, дарахтнинг бир шоҳини синдирган ҳам, нопок кўзани ҳовузга солган ҳам 25 қамчи калтакланиш билан жазоланган. Турмушга чиқиб зурриёт қолдириш кераклигини унутган балоғат ёшидаги қизлар қопга солиниб 50 қамчи калтакланган. Балоғатга етиб, уйланмай юрган йигитлар эса темир камар боғлаб юриши шарт бўлган.

Умумлаштириб айтганда тарихий қонун- қоидаларни ўзида мужассам этган бу китобда ҳозирги ҳуқуқшуносликнинг турли соҳаларига- жинойт ҳуқуқи, фуқаролик ҳуқуқи, оила- никоҳ ҳуқуқи, экология ҳуқуқи, аграр ҳуқуқига доир кўплаб қоидаларни учратиш мумкин. Албатта бу қоидалар ўша давр муҳити учун хос бўлган ва адолат тантанасига хизмат қилишга қаратилган сўзлардир. “Авесто”даги ҳуқуқий қарашларни бугунги ҳуқуққа кўчириб бўлмасада, ундаги кўпгина ғоялардан ёшларнинг ҳуқуқий маданиятини шакллантиришда фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Шунини ҳам айтиш керакки, ўша даврда жинойт учун одамларга оғир жисмоний жазоларнинг берилиши уларнинг жинойт содир этишларининг олдини олишга қаратилган усуллардан эди. Бугунги ҳуқуқ нормалари ва жазо чоралари жинойтни ахлоқан тузатиш ва тарбиялашга қаратилган. Президентимиз Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек, “биз демократик ислохотлар йўлидан ҳеч қачон ортга қайтмаймиз. Қанчалик қийин

бўлмасин, фақат олдинга- янги , юксак марралар сари бораверамиз”¹⁵. Зардуштийлик динининг муқаддас китоби “Авесто”да баён этилган инсонларнинг ҳуқуқ, бурч ва мажбуриятлари тўғрисидаги бебаҳо пандар ва фикрлар ҳозир ҳам долзарблигини сақлаб қолмоқда. Мамлакатимизда ҳуқуқий демократик давлат, фуқаролик жамияти қуриш жараёнида халқимизнинг бебаҳо маънавий мероси “Авесто”да илгари сурилган ҳуқуқий маданият соҳасидаги ибратли ғоялардан одамларни, хусусан ёшларни қонунларга ҳурмат руҳида тарбиялаш, уларнинг ҳуқуқий маданиятини оширишда фойдаланиш зарур деб ўйлаймиз.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т., Ўзбекистон, 2017.- Б.-27
2. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3- жилд, Т.: Ўзбекистон, 2019.-Б.-56.
3. Каримов И. А. Юксак маънавият- енгилмас куч. Т., Маънавият, 2008. - Б.-31-32.
4. Авесто. Тарихий- адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. Т., Шарқ, 2001.-Б.- 13,14,15,116-118, 121-122.
5. Бойс Мери. Зороастрийцы. Верования и обычаи. М., Наука, 1988. -С.-58-62.
6. Ҳ. Ҳамидий. Авестодан Шоҳномага. Т., Шарқ, 2007.- Б.-106.
7. Махмудова Г.Т. Авестонинг фалсафий моҳияти. Т., НОСИР, 2015. - С.-97.
8. Хўжамуродов И.Р. Авестода маънавият масаласи// Мулоқот, 1996 йил 1-сони, Б.-47-51.
9. Хўжамуродов И.Р. “Авесто”да эътиқод масаласи// Ўзбекистон Аграр фани хабарномаси. №1(51) сони, 2013 йил, Б.- 102-104.

¹⁵ Шавкат Мирзиёев. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3- жилд, Т.: Ўзбекистон, 2019. Б.-56.

DENOV TUMANIDA TARQALGAN AYRIM TUPROQLARNING GUMUS BILAN TA'MINLANISHI

Abduraxmonov Nodirjon Yulchiyevich

*Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutining ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari, b.f.d.prof.*

Berdiyev Dilmurod Xolmurodovich

*Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti
Qashqadaryo viloyati mintaqaviy bo'linmasining ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari*

Kirish. Tuproq unumdorligini aniqlovchi asosiy omillardan biri uni organik tarkibi (gumus)dir. Tuproqlarning gumus tarkibi uning rangiga, donadorligiga, g'ovakligiga, kimyoviy va biologik xossa-xususiyatlariga ta'sir qiladi, shuningdek tuproqlarning unumdorligi, donadorligi, ularning issiqlik tartiboti, tuproqqa ishlov berishda solishtirma qarshiligi, tuproqning yetilish muddati, yopishqoqligi va boshqalar tuproq tarkibidagi gumus miqdoriga bevosita bog'liqdir. Shu sababdan tuproq tarkibidagi gumus miqdorini aniqlash tuproqni o'g'itlash me'yorini belgilashda, tuproqning unumdorlik holatidan kelib chiqib hosilni taxmin qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholining o'sib borayotgan ehtiyojini qondirish uchun yerlardan oqilona foydalanish, ekinlar hosildorligini oshirish talab etiladi.[6] Tuproqlarning unumdorligi esa tarkibidagi chirindi miqdori bilan chamchars bog'liq.

Bugungi kunda ko'plab mamlakatlar qatori Respublikamizning turli tuproq-iqlim mintaqalarida shakllangan va rivojlangan tuproqlarning unumdorligini oshirish, ozuqa elementlari va gumus bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish hamda qishloq xo'jalik ekinlarining rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri o'rganilmoqda [1;2].

Tadqiqot obyekti va usullari. Surxondaryo viloyatining shimoliy tog' oldi va tog' osti hududlari bo'z tuproqlar mintaqasidan: Denov tumanining "A.Temur" SFU eskidan sug'oriladigan o'tloqi tuproqlari tanlab olingan.

Dala tuz-tekshiruv (solevaya syemka), qiyosiy-geografik, qiyosiy-geokimyoviy, laboratoriya-analitik uslublari, shuningdek olingan ma'lumotlarni ekspert-baholash usullari.

Tuproqning kimyoviy tahlillari qabul qilingan uslublar bo'yicha Ye.V.Arinushkina (1970) hamda O'zPITI (1963, 1977) qo'llanmalari asosida, gumus tarkibi – I.V.Tyurin sxemasida, Ponomareva va Plotnikova modifikatsiyasi (1975) bo'yicha bajarildi. Dala tajribalari O'z PITI (1978) taklif etgan usul bo'yicha olib borildi. Denov tumanida tarqalgan eskidan sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarning mexanik tarkibi N.A.Kachinskiyning pipetka usulida aniqlandi [3].

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Denov tumani A. Temur nomidagi SFU hududlarini shimoliy qismi, prolyuvial-lyossimon va uchlanchi davr yotqiziqlarida tashkil topgan, tog' oldi qiya tekisliklarida sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar, xo'jalikni allyuvial-prolyuvial yotqiziqlardan tashkil topgan Sangardak daryo yoyilmasining tashqi qismlarida sug'oriladigan o'tloqi, prolyuvial-allyuvial yotqiziqlaridan tashkil topgan Surxondaryoni III terrasasida sug'oriladigan bo'z-o'tloqi, botqoq va botqoq-o'tloqi tuproqlar va allyuvial yotqiziqlardan tashkil topgan Surxondaryoning I va II terrasalarida sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlar shakllangan bo'lib, yer osti suvlar 1-2 m atrofida joylashgan.

Sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda gumusli qatlamlar yaxshi ifodalangan. Sug'oriladigan o'tloqi tuproqlardagi gumus miqdori rivojlanish sharoitlari va o'tmishdosh tuproqlar holatiga bog'liq holda haydov qatlamida 0,848% dan 2,326% gacha oraliqda tebranib turadi.

Sug'oriladigan tuproqlarning unumdorlik holatini belgilovchi ko'rsatkichlar orasida eng avvalo tuproqlarning organik tarkibi (gumus)ni ko'rsatish lozim. Chunki gumus tuproq unumdorligini ta'minlovchi eng muhim qismidir. Unda o'simliklarning asosiy oziq elementlari (uglerod, azot, fosfor va boshqalar) bor. Gumus birikmalari va ularning tuproqda tarqalishi tuproq tipining muhim belgisi hisoblanadi [7]. (jadval).

Denov tumanidagi ayrim sug'oriladigan tuproqlarning gumus miqdori

Kesma №	Qatlam chuqurligi, sm	Gumus miqdori %	Ta`minlanganligi	Kesma №	Qatlam chuqurligi, sm	Gumus miqdori, %	Ta`minlanganligi
256	0-38	0,848	o`rtacha	261	0-34	1,944	yuqori
	38-50	0,455	past		34-51	1,528	oshirilgan
	50-100	0,275	juda past		51-70	0,859	o`rtacha
257	0-36	1,195	o`rtacha		70-98	0,760	o`rtacha
	36-50	1,034	o`rtacha		98-160	0,627	o`rtacha
	50-73	0,860	o`rtacha		262	0-33	1,374
	73-107	0,721	past	33-58		0,397	juda past
	107-147	0,667	past	58-78		0,793	o`rtacha
	147-190	0,496	past	78-110		-	-
258	0-26	0,896	o`rtacha	264	0-32	2,326	juda yuqori
	26-52	0,693	past		32-43	1,529	oshirilgan
	52-78	0,166	juda past		43-80	1,468	oshirilgan
	78-120	-	-		80-120	1,022	o`rtacha
260	0-28	0,851	o`rtacha		120-160	-	-
	28-40	0,682	past	266	0-27	1,152	o`rtacha
	40-47	0,399	juda past		27-43	0,870	o`rtacha
	47-63	0,299	juda past		43-100	0,333	juda past
					100-150	-	-

Xulosa. Tumanda tarqalgan biz keltirib o'tgan tuproq kesmalarida gumus miqdori turlicha miqdorlarda tarqalgan bo'lib, genetik qatlamlar bo'yicha yuqoridan pastga tomon kamayib borishi kuzatildi. Haydov qatlamida 0,845 foizdan 2,326 foizgacha, haydov osti qatlamida 0,259% dan 1,529 % gacha tebranib turgani holda, pastki qatlamlarida 1,468% dan 0,166% gacha kamayib borishi ma'lum bo'ldi. Tuproqlarning gumus bilan ta'minlanish tasnifiga ko'ra asosan o'rtacha ta'minlangan (256,257,258,260,266 kesmalar) bo'lib, oshirilgan (262 kesma), yuqori (261 kesma) va juda yuqori (264 kesma) ta'minlangan tuproqlar ham uchraydi.[8]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azimboyev S.A. O'zbekistonning janubiy qismi tuproqlari va ularni meliorativ holati. Toshkent, Fan, 1991
2. Axmedov R.A. Surxandarinskaya oblast/ V kn Rejim orosheniya i gidromodulnoye rayonirovaniye Uzbekskey SSR.-Tashkent. Uzbekistan.-1971.
3. Kachinskiy N.A., Metodi mexanicheskogo i mikroagregatnogo analiza pochvi, Izd. AN SSSR, M.-L., 1943.
4. Qo'ziyev R.Q., Abduraxmonov N.Y. Sug'oriladigan tuproqlarning evolyutsiyasi va unumdorligi. Monografiya, Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2015 y., 212 bet.
5. Kuziyev R.K., Abduraxmonov N.Yu. Tuproq unumdorligi va uni boshqarishning ilmiy asoslari. Monografiya, Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2017 y., 120 bet.
6. Sobirjon Arifjonovich Azimboyev, Dehqonchilik, tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari IQTISOD-MOLIYA nashriyoti, 2006.
7. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
8. J. Sattorov, S. Sidiqov, S. Abdullayev, A. Ergashev, Z. Xaidmuhamedova, Ya. Kulmurodova, U. Qosiraov, N. Akbarov AGROKIMYO darslik, Toshkent 2011.

TEMURIYLAR DAVLATININIG ILM-FAN VA MADANIYATGA QO'SHGAN HISSASI

Abdusalomov Rashid Amirovich

*FVV Akademiyasi "Boshqaruvni tashkil etish, nazorat
va huquqiy ta'minot" kafedrası boshlig'i (ilmiy rahbar)*

Abduazizov Azizbek Bahrom o'g'li

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi 4-kurs kursanti

Temuriylar davlatining asoschisi sohibqiron Amir Temur bo'lib, u 27 davlatni birlashtirib yagona markazlashgan davlat tuzadi hamda bu davlatning boshqaruvida ilm-fan, madaniyat va bunyodkorlik ishlariga alohida e'tibor qaratgan. Amir Temurning hukmronlik davrida ilm-fan va madaniyatga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Uning hukmronlik davrida ko'plab bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgan. Xususan, ko'plab me'moriy obidalar, ko'priklar, yo'llar, maqbaralar, masjidlar, kutubxonalar va bog'lar bunyod ettirgan. Amir Temur o'zining Temur tuzuklari asarida "Men qay bir joydan bir g'isht olsam, o'rniga o'n g'isht qo'ydim, bir daraxt kestirsam, o'rniga o'nta ko'chat ektirdim" deb ta'kidlagan. Sohibqiron Amir Temur so'zlarining dalili sifatida barpo ettirgan bino-inshootlarga Shohizinda, Bibixonim jome masjidi, Go'ri Amirni, u yaratgan bog'larga esa Bog'i Baland, Bog'i Behisht, Bog'i Davlatobod, Bog'i Dilkusho, Bog'i Nav, Bog'i Jahonnomo, Bog'i Chinor, Bog'i Shamol kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Amir Temur davrida to'qimachilik va kulolchilik ham yetuk darajada rivojlangan. Kulolchilik madaniyati va san'ati aynan shu davrga kelib, o'zining eng yetuk cho'qqisiga chiqqan. Sharqning barcha yetuk kulolchi ustalari aynan Movaraunnahrga yig'ilgan va shu yerda o'z ishlarini davom ettirganlar. Yetuk kulolchi ustalar o'zlarining san'atini boshqalarga ham o'rgatib, kulolchilik markazlarini tashkil etgan va yosh kulolchi ustalarni tayyorlagan. To'qimachilik sohasida ham bir qancha yuksalish va rivojlanish kuzatilgan. Jun va ipakdan turli xil gazlamalar to'qilgan. Shu davrga kelib to'qimachilik mahsulotlari savdodagi asosiy mahsulotga aylangan.

Amir Temur ilm-fan va madaniyat bilan bir qatorda ta'limga ham alohida e'tibor qaratilgan. Barcha bosib olgan davlatlarida o'zi farmon berib, turli xil madrasalar tashkil ettirgan va u yerga eng ilmiy yetuk insonlarni olib kelib yoshlarga bilim berish uchun ustoz etib tayinlagan. Ularni ta'lim berishini doimiy nazorat qilgan. Temuriylar davrida yosh bolalarni 4 yoshdan o'tganda ta'lim olishga madrasalarga ustozlar qo'lga topshirgan. U yerda yoshlar ham dunyoviy,

ham diniy bilimlarni chuqur egallaganlar. Mana shu ta'limga e'tibor sababli Temuriy shahzodalar ham o'ta zukko va ilmli bo'lib ulg'ayganlar.

Amir Temur vafot etgandan so'ng XV asr boshidan ichki nizolar, o'zaro kurashlar mamlakat ichki hayotiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmagan.

Davlat asta-sekin tanazzulga yuz tutib, turli xil ziddiyatli vaziyatlar paydo bo'lishni boshlagan. Bu esa ilm-fan va madaniy hayotga ham o'zining salbiy tasirini ko'rsatgan. Lekin keyinchalik Temuriylar hukmdorlaridan Shohruh Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Sulton Husayn Boyqarolarning hukmronlik davrlarida ichki osoyishtalik, madaniyat, ilm-fan va ma'rifatga e'tibor tufayli mamlakatdagi ilm-fan va madaniy hayotni yana qayta yuksalishiga sabab bo'lgan. Movarounnahr va Xuroson yana Sharqning ma'rifat va madaniyat markazi nomini qaytarib oldi. Aynan mana shu davrda Movarounnahr va Xurosondagi olimu-fuzalolar, shoirlar, hunarmandlar, me'morlar hamda naqqoshlar guruhleri to'plangan va madaniy markazlarni tashkil qilganlar.

Temuriylar ichida o'zining ma'rifatparvarligi va oqilligi bilan nom chiqargan Shohruh Mirzo davrida asriy ilm-fan, madaniyat an'analari qayta jonlangan. Shaharlar qaytadan qurila boshlangan, hamda Xirotdagi tashkil etilgan Kutobxona shaharning eng gavjum joyiga aylangan. Shohruh Mirzoning tashabbusi va homiyligi bilan tasviriy san'at, xattotlik san'ati ham yuksak darajada rivojlangan. Buning samarasi o'laroq Mirak Naqqosh boshchiligidagi sharq minatura san'ati ham o'z faoliyatini Shohruh tashkil qilgan ilmiy markazda boshlagan.

Temuriy hukmdorlari ichida ilm-fan va madaniyatga xomiylik qilgan va uning rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk olim va ma'rifatparvar hukmdor Mirzo Ulug'bekdir. Mirzo Ulug'bek o'ta zukko va juda ilmli, arab va fors tillarini yaxshi biladigan, tafsir va hadis ilmida ham bilimdon hukmdor bo'lgan. Mirzo Ulug'bek turli ilm-fan va madaniyat markazlarini hamda madrasalarni barpo ettirgan. Xususan 1417-yil Buxoroda, 1420-yil Samarqandda, 1433-yilda G'ijduvonda madrasalar qurdirgan va bu madrasalarda 100 dan ortiq o'quvchilar ta'lim olganlar. Uning say harakatlari bilan zamonasining 100 ga yaqin olimlari xususan, Taftazoniy, Mavlono Axmad, Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Koshiy, Muhammad Xafaviylar Samarqandda yig'ilgan va o'zlarining ilmiy izlanishlarini aynan shu yerda davom ettirganlar. Bunyodkorlik ishlarning davomi sifatida Mirzo Ulug'bek Samarqandda Go'ri Amiri maqbarasining qurilishini ohiriga yetkazgan. Bundan tashqari o'sha davrlar uchun noyob inshoot bo'lgan rasadxona qurdirgan. Rasadxona Samarqand yaqinidagi Obirahmat anxori bo'yida doira shaklida barpo etilgan. Uning aylanasi 47 metr, balandligi 31 metr bo'lgan. U yerga turli xil koinotni kuzatuvchi asbob-uskunalar joylashtirilgan bo'lib, ular koinotni kuzatib, undagi jismlarni o'rganishga moslashtirilgan. Rasadxona ichki qismi koinot, yer

kurrasi tasviri bilan bezalgan bo'lib, u xalq orasida Naqshi jahon deb nom olgan. Rasadxona qoshida 15 mingdan ortiq kitoblari bo'lgan ulkan kutubxonam ham tashkil etilgan. Naqshi jahonda 1018 ta yulduzni o'rni va xolati hamda xarakati o'rganilgan. Kuzatishlar natijasida Mirzo Ulug'bek o'zining "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asarini yozgan. Bu asar astranomiya sohasida o'sha davr uchun erishilgan ulkan yutuq bo'lgan. Mirzo Ulug'bek matematika fanini ham rivojlantirib, algebraik tenglamalarni yechilishi va bir darajali yoyni sinusini aniqlagan. Mirzo Ulug'bek yozgan buyuk asarlar keyinchalik astranomiya, matematika fanlarinig rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkunki, Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat, ma'rifat va me'morchilik yuksak darajada rivojlanishga va Movorounnahrni yana Sharqning ilm-fan va madaniyat markaziga aylanishiga muvofaq bo'lgan. Temuriy hukmdorlarining ilm-fanga homiyligi, ilm-fanni rivoji uchun qilgan say harakatlari va o'zlarining ham ilm-fan bilan shug'ullanishi sabab ilm-fan va madaniyat yuksak cho'qqiga erishadi. Hozirgi kunga qadar ular qoldirgan buyuk ilmiy merosdan nafaqat Sharqda balki butun dunyoda keng foydalanib kelinmoqda. Ularning ilmiy izlanish narijalari va yozib qoldirgan asarlari matematika, astranomiya, tasviriy san'at, adabiyot, va me'morchilikda asos bo'lib xizmat qilmoqda. Amir Temurning "Temur tuzuklari" asari xali-hamon butun dunoya harbiy strategik jihatdan o'rganilib, amlada tadbiiq qilinib kelinmoqda. Mirzo Ulug'bekning "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asaridagi u yaratgan jadvallardan foydalanib, hozirga qadar yulduzlarning joylashuvi va xarakati o'rganilmoqda. Bir so'z bilan aytganda ular o'zlarinig o'chmas ulkan ilmiy merosini bizga qoldirib ketgan va bu merosni biz doim asrashimiz hamda ulardan oqilona foydalanishimiz zarur.

Foydalanilga adabiyotlar:

1. A. Sagdullayev, B. Eshonov. O'zbekiston tarixi. 1-qism. Universitet, 1999.
2. B. Axmedov. Sohibqiron Temur (Hayoti va ijtimoiy siyosiy faoliyati). T., 1996.
3. I. Mo'minov. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va ro'li. T.: O'zbekiston "Fan", 2009.
4. Mirzo Ulug'bek to'rt ulus tarixi. T.: Cho'lpon, 1994.
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: O'zME nashriyoti, 2000-2002.

ИНГИЧКА ХУДУДИ МАЪДАНЛИ ГОРИЗОНТЛАРИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА УРАН МИНЕРАЛЛАШУВИ

Абдусаматова Дилафрўз, Якубова Гулҳаё

Ўзбекистон Миллий университети стажёр ўқитувчиси

Ингичка худудидан топилган уран минераллари эпигенетик, инфильтрацион (“қумтошли”) турига мансуб бўлиб, қатлам оксидланиш зонаси билан боғлиқ Марказий Қизилқум уран маъданли майдони бўр даврининг сувли қатламларида ривожланган. Хусусан, кўриб чиқиладиган худуд Киндиктепа ва Собирсой майдонлари маъданли горизонт ҳисобланади. Уран маъданлашуви Ингичка худуди Зирабулоқ антиклинал кўтарилишининг шарқий қисмида аниқланган маъданли зоналарни ўз ичига олади.

Киндиктепа горизонтининг қумтош-шағалли ва қумтошли ётқизиқларида, шунингдек, турон ярусининг собирсой горизонтларидаги қумтош-шағалли ётқизиқларида оксидланиш зонасидан нураш зоналари билан чегараланган жами тўртта маъданли зоналар аниқланган.

Маъданли зоналарни аниқлаш минераллашувнинг алоҳида мос келадиган маъданли горизонтларга аниқ чегараланиши ва маъданни назорат қилувчи элементларнинг мавжудлиги (биринчи навбатда, қатламларнинг оксидланиш зоналарини чеклаш чегаралари) билан аниқланди, бу эса минераллашувни бир бирига боғлаш имконини беради, шунингдек маъданлашувни ягона минераллашув зонасида алоҳида кесишмалар бўйича боғлаш имконини беради. Маъданли зоналарнинг узунлиги ишонч билан ўрганилган яроқсиз кесишмалар билан чегараланган (профил бўйлаб қудуқларни қалинлаштириш босқичига қадар – 50-25

K₂t₁^{3knd} Киндиктепа горизонти ва унинг геохимёвий асосланиши. Қалинлиги 10-25 м бўлган Киндиктепа горизонтини шартли равишда икки қисмга ажратиш мумкин. Пастки қисм – шўрланган денгиз ҳавзасига хос бўлган доломитлар, карбонат қумтошлари ва алевролитлар билан ифодаланади. Юқориги – горизонтнинг маъданли қисми сув ости, сув устидельтаси қумлари билан ифодаланади, шимолда қалинлиги 10-15 м бўлган континентал канал қумларига айланади.

Киндиктепа горизонтининг шаклланиши қуйи Турон охирида денгизнинг регрессияси, лагуналарининг пайдо бўлиши ва Киндиктепа асрининг охирида палеоўзанларнинг фаолиятининг бошланиши билан боғлиқ. Шағалли дағал донадор ётқизиқлар ўрнини кум, сўнгра гил ва алевролитлар билан, жанубий, жануби-шарқий йўналишда эса

ривожланаётган бир қанча тармоқларни ҳосил қилади. Қум ва қумтошлар йирик донадор материаллар, глина ва алевролит парчалари ва гранулалари аралашмаси билан майда донадор бўлиб, турли катталиқда шағал ва қумларига айланади.

Киндиктепа горизонтининг қуйи қисми ётқизиқларида локализацияланган №1-1 маъданли зонаси №7 - №55 профиллари оралиғида баҳоланди.

Минерализация параметрлари №9, №53 профиллар бўйлаб иккита кесишмада олинган ва ўрнатилган: маъдан кесишмаси қалинлиги 1,45 м бўлиб 0,032% миқдорида, 0,0458 метропроцент. Маъдан ётиш чуқурлиги 541-665м.

K₂t₂^{sb} Собирсой горизонти ва унинг геокимёвий асосланиши. Собирсой горизонти ҳақиқий элювиал зонанинг континентал шаклланиши қўпол донали қумтошлар, ноёб алевролит қатламлари бўлган гравелитлар, шағал ва тошли қумлар билан ифодаланади. Горизонт кесими иккита яхши намоён бўлган ритм билан ифодаланади. Пастки ритмнинг чўкиши бошланиши (қалинлиги 6-10 м) ҳақиқий қатламли зинанинг энг йирик донали чўкиндилари билан тавсифланади, улар участка бўйлаб майда тупроқ билан алмаштирилади. Юқори ритм (қалинлиги 4-8 м) шунга ўхшаш тузилишга эга, лекин анча майда донали, асосан ҳақиқий ўзан ётқизиқлари билан ифодаланади.

Пастки ритмнинг негизида майда тошли конгломератлар қатлами жойлашган. Тошларнинг таркиби кремний-кварц. Юмалоқлиги нотекис. Гил билан ўзаро цементлашган. Конгломератлар кетма-кет ўз ўрнини йирик донали кўндаланг қатламли қумларга, шағалтош линзалари бўлган қумтошларга ва ниҳоят, қумли алевролитлар бўшатади.

Собирсой горизонти қуйи ритми ёқизиқларида муайян жойлашган 2-1 маъданли зонаси, пласт оксидланиш зонаси чегараларининг нураш кенгайиши жанубда №5 ва шимолда №11 профиллар оралиғида баҳоланди. Зонада Р₁ тоифасида ҳам, С₁ ва С₂ тоифаларида ҳам майда минераллашган ётқизиқлар аниқланган.



Кесимда минераллашув тананинг «қанот» қисмлари билан ифодаланади. Маъданлашув параметрлари ўртача 2.00 м қалинликдаги 0.018% миқдорда, 0.35 метропроцент бўлган ҳар бир кесишмадан олинади. Маъданлашувнинг ётиш чуқурлиги 640-645 м.

Маъданларнинг литологик таркиби қуйидаги жинслардан: кумлар, гилли кумлар, шағалли-қумли жинслар, алевролитлар ва гиллардан иборат.

Минералогик таркибига кўра маъданли ётқизиқлар мос равишда маъдансиз жинслардан деярли фарқланмайди. Улардаги чақиқ материаллар умумий миқдори 81%дан (киндиктепа горизонтида) 82-93%

гача кузатилади. Чақиқ материаллар таркибини кварц (44-60%), дала шпати (15-18%) и майда жинслар (10-18%) ташкил этади. Слюдалар умуман мавжуд эмас. Аксессуар минераллар (0.02-0.1% жинсларнинг умумий ҳажмидан) турмалин, лейкоксен, ставролит, сфен ва бошқа минераллар кўринишида келади.

Шағал-қумли маъданлар таркибининг 5,3-14,2 % ни гил минераллари ташкил қилади. Собирсой горизонтининг гилли минераллар таркибида доимо каолинит (2.0-4.7%) ва аралаш қатламли ҳосилалар, монтморрилонит (0.7% гача) ва гидрослюда (0.3% гача) тарқоқ ҳолда учрайди. Киндиктепа горизонти маъданларидаги гилли материаллар таркибида доимо каолинит (5,0%), гидрослюда (3.8%) ва монтморрилонит-гидрослюда аралашмасининг аралаш қатламли ҳосилалари учрайди. Электрон-микроскопик изланишларда гил моддалари таркибида галлуазитнинг қувурсимон ажралишлари кузатилади **(1-а.б расм)**. Маъданларда аралаш қатламли ҳосилалар пайдо бўлишига, кўпроқ уларда қайта тикланиш характериға эга жараёнлар сабаб бўлган.



(1-а.б расм). а)Электрон микроскоп суспензия. 35000х катталаштирилган. б) Электрон микроскоп, суспензия. 22000х катталаштирилган. Собирсой(а) ва Киндиктепа (б) горизонтлари ётқизиқларида аралаш қатламли қатламлар, каолинит плиталар (а,б), гидрослюда плиталари (б) ва қувур шаклидаги чўзилган галлуазит кристаллари (а) булутсимон ажралишлари

Карбонатлар маъданларда 0.7-2.8% миқдорда мавжуд ва кальцит (киндиктепа горизонти маъданида 1.2% ва 1.4-2.0% собирсой горизонти маъданида) ҳамда доломит (0.2-0.7%) билан ифодаланади. Ундан ташқари, маъданларда пирит ва марказит (0.4-1.2% гача), ҳамда фосфорит

(киндиктепа горизонти 0.2% гача) учрайди.

Уранли минераллашиш маъданларда нисбатан бир меъёрда, сочмасимон ва доғсимон сочма тузилиш ҳосил қилган. Уранли минераллашиш йиғиндилари ўлчамлари 0.00005 мм дан 0.05 мм гача ўзгаради. Улар синиқ доналар ва аутиген минераллар сиртида қора кукунсимон ажралишлар ҳосил қилади ва камдан кам ҳолатларда гилсимон материални ўзига қабул қилади. 15000 маротаба катталаштирилиб электрон-микроскопик изланишлар вақтида маъданларда синиқ доналар сиртида уларнинг гилли ҳосиласида юпқа пўстсимон сизиб ҳосил бўлган колломорфли оксидлар ноёб глобуллар билан ажралиши кузатилади. Камдан кам ҳолларда коффинитнинг желудасимон ажралиши учрайди.

Уран минераллашувининг тақсимланиш шакли. Силикатли маъданлари (кварц, дала шпати ва жинслар парчаларидан таркиб топган чақиқ материал 80-90% ни ташкил этади) қуйидаги таркибдан иборат: Fe_{вал} – 1,6-1,9%, иккивалентли 0,5-1,1%, учвалентли – 0,04-0,1%, сульфидли – 0.4-1.2%, сорг. - <0.03-0.13% CO₂ - <0.20-1.23%.

Маъдан таркибида урандан ташқари (355-1029*10⁻⁴%) свинец (14-18%), селен (1-9)*10⁻⁴%, иттрий – (8.5-14)*10⁻⁵%, маргумуш– (14-26)*10⁻⁴%, ниобий – (9-14)*10⁻⁴% кузатилади, собирсой горизонти уранга бой маъдан ҳисобланиб, таркибида иттрий, маргумуш ва ниобийлар кўп миқдорда учрайди.

ХУЛОСА

Таҳлиллар натижаларидан кўриниб турибдики, минералогик таркиби жиҳатидан Киндиктепа ва Собирсой горизонтларининг кулранг майда ва нотекис донадор қумлари ва қумтош-шағалли қатламлари бир-бирига яқин жойлашган бўлиб, ўртача қуйидаги таркиби билан тавсифланади: кварц – 48-59 %, дала шпати – 11-21 %, тоғ жинслари бўлаклари – 6-19%. Ҳаммаси бўлиб, заррали моддалар 72-90% ни ташкил қилади. Слюда деярли йўқ. Фақатгина қумтошларда (0,06% гача) учрайди.

Умумий таркибнинг 0,05% ни ташкил этадиган минераллар орасида гранат, турмалин, ставролит, сфен ва бошқа аксессуарлар минераллари мавжуд.

Гилли минераллар жами 4-23% ни ташкил қилади, улар асосан Киндиктепа ётқизиқларида гидрослюда ва монтмориллонитлар қоришмаси билан каолинит (1,3-11,3) ва аралаш қатламли тузилмалар (2,1-11,9) билан ифодаланади. Аралаш қатламли шаклланишларнинг мавжудлиги тикланиш жараёнларининг намоён бўлишини кўрсатиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Отчёт о геологическом изучении недр (Временные общие требования к содержанию) от 21.12.2011г.
2. М.В. Шумилин, В.А. Викентьев, Подсчет запасов урановых месторождений.-М.: Недра, 1982. 206 с.
3. Каримов Х.К., Бобонаров. Н.С., Бровин К.Г. и др. «Учкудукский тип урановых месторождений Республики Узбекистан». Ташкент. «Фан». 1996г.
4. Авазов Р.Р., Нуртаев Б.Х. Вещественный состав пород и руд ураного месторождения Ингичка. –“Молодой ученый” журнал №24/2020г.
5. Инструкция по применению классификации запасов к месторождениям радиоактивных руд Ташкент, 2008г. (Государственный комитет Республики Узбекистан по геологии и мнеральным ресурсам).
6. Глушковская Д.И, Крылов О.Н, Газиев А.И. Отчёт Зиатдинской поисковой партии работам 1959г. Книга 1-Геологическое строение района. Книга 2-Результаты поисковых работ. Фонды ГП «Комплексная геолого-съёмочная поисковая экспедиция». Инв. № 1367.

DEVELOPING LISTENING SKILL IN PRIMARY EDUCATION

Abdikhamitova S.U.

3- course student at CSPU Primary education faculty

Kurbanova F.K.

English teacher at CSPU (scientific advisor)

INTRODUCTION: Young learners need to be engaged and have a reason for listening. Moreover, it isn't enough to pre-teach new vocabulary to have them recognize it in the track or just ask some questions to check comprehension. These kinds of tasks are not enough to motivate kids. Formation of basic listening skills for pupils in primary education, which for the success of training should improve during the entire period of mastering the material. Conducting a study of verbal activity, which serves as an effective tool for learning English. What's important to consider when creating tasks for developing listening skills of the YL

Materials should relate to their real life, experience and also interest. In addition, they should be manageable and graded (for example, vocabulary pre-teaching, pre-listening tasks, visuals, examples). The content itself must be interesting and appealing to young learners: be visually attractive. It should relate to their interests and be age appropriate. Moreover, it's good when materials are fun and gamified to make learning process enjoyable.

Young learners get information from their experience. Teachers are supposed to create real-life conditions in the classroom to help learners develop skills for understanding messages. The tasks must reflect learners' real life experience and the knowledge they acquire every day. What tasks can reflect their real life? For example, when they listen to game instructions or doing craft activities. They have a certain purpose therefore the tasks become meaningful for them.

Young learners are naturally curious, new things engage them. So it's quite important to create materials that can captivate and stimulate their imagination. They also learn through visuals, videos, games. They want to share what they learn with their friends. So their tasks should keep them involved while they are learning the language, they should raise and generate interest. Furthermore, it's great when tasks develop students' imagination and creativity.

MATERIALS AND DISCUSSION. The teacher should be a role model, good for children to clearly hear the sounds of words and ability to distinguish the differences between bed and bird, fit and feet, Hat and hurt etc. The sounds of words should be presented with statements, normally in a stream of speech. Children should be given enough time to hear from the sentences, before expected to produce response. The teacher's fluency is good from the initial point maintaining medium fast and not to be slow or too fast. However there are problems with second language learners, like in Zimbabwe where most of children speak English language as a second language because their pronunciation is always linked to their mastered first language. A child who speak chishona for example can always interfere the pronunciation to English being taught at school. If the sounds of the two languages do not match then the problems arise. English has 12 pure vowels and 8 diphthongs while chishona has only 5 vowels and consonants where sounds of letters like L and Q never exist in their language. Children of this calibre likely sounds words like seat /si't/, sit /sit/, firm /fě:m/, but /bût/ etc .

According to MacGregor second language speakers use sounds like their first language and hear those sounds as spoken by others. Children listen and do. So their behavior correspond to what they hear, for example if there is a chart with picture if you say out words children can point the picture matching the word said. Also the teacher can point the picture and children can say out the names of the pointed picture. When giving exercise the teacher should begin with pairs of words live-leave, cot -caught, and then more practice follow where more than two words are used like bed-bird-bud, hut -heart -hat. The children should be allowed to use sentences, recite jingles and rhymes of the sounds.

RESULTS: While teacher will be working on developing children's listening skills at school, there's plenty that parents can do at home to help. One of the most

important ways to do this is to break the negative cycle that often develops when a child is a poor listener. Frustrated with being ignored, we end up raising our voices, which effectively “rewards” their behavior with parents` attention. It's more productive to reward good behavior than to give attention to the bad, by giving your child praise when they do follow your instructions.

Spending time interacting with child is also essential. “The more songs and stories children are exposed to, the earlier they're likely to develop aural attention,” explains American psychologist Sue. “The more opportunities you take to sing, move to music and read to child, the better: learning songs and rhymes by heart is particularly powerful for developing auditory memory and listening to stories builds up listening stamina.”

Children's ability to listen depends on a healthy lifestyle overall. This includes a healthy diet, plenty of active, outdoor play, limited screen time, plenty of real-life interaction with both adults and children, and good sleeping habits, including a quiet, screen-free wind-down period before bedtime. “It's very important parents should talk to their children and demonstrate what effective listening involves by listening to them yourself,” adds Sue.

There are also specific activities you can do with your child to help them develop children's listening skills. These include:

Games like Simon Says and Traffic Lights, which help your child listen and follow instructions.

Listening walks, where you take time to stop and pay attention to the sounds you can hear.

Clapping a rhythm for your child to repeat.

Playing Chinese Whispers.

Describing a picture to your child, which they have to draw based on your description.

Playing What's That Sound? using household objects to make a noise (e.g. shaking a peppermill, deflating a balloon) and getting your child to guess what it is.

The way you talk to children matters if you want them to listen. Children generally struggle to multi-task, so rather than expecting them to follow a long sequence of instructions (“Can you brush your teeth, comb your hair, put your homework in your school bag and get your shoes on, please?”), break it down, giving them one or two at a time. It's also important to use your child's name to attract their attention, make eye contact, speak clearly and give them plenty of thinking time before expecting a response. These techniques are used to great effect by teachers in the classroom.

Although many children struggle to listen attentively at times, some children have particular difficulties. If you think child's listening is a problem, get their

hearing tested in case there's a medical issue. Some children, particularly those who have lots of colds and snuffles, have intermittent hearing loss which can affect listening skills. If people are still concerned, speak to child's teacher. If they have noticed problems too, the school's special educational needs coordinator (SENCO) might suggest an assessment with a speech and language therapist to see if your child would benefit from extra help.

Conclusion. The present teaching proposal placed emphasis on the process view of listening, changing the role of the learner-listener from someone passively receiving the listening input to an active participant in the act. Given that listening is a complex skill that needs to be developed consciously. In foreign language learning the listening skill has proved to be extremely essential for carrying out coherent and effective oral communication with other people.

References

1. K. F. Komiljanovna ASPECTS TO CONSIDER IN DEVELOPING INTERCULTURAL COMPETENCE Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10 (9), 152-155.
2. Burgess J. (1994). Ideational Frameworks in Integrated Language Learning System, 22(3), pp. 309-318.
3. Anderson A. & Lynch T. (1988). *Listening*. Oxford: Oxford University Press. 22(3), pp. 309-31
4. Brown, Gillian. *Listening to Spoken English*. London : Longman, 1990. Print.

RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM SOHASINI LOYIHALASH ASOSLARI

Azamov Sherzodjon Xusanboy o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Kirish: Jahonda umumiy o'rta ta'lim oluvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish, innovatsion maktabda rivojlantiruvchi ta'lim muhitini tashkil etish, elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish, interaktiv dasturiy vositalar, vizual modellar, multimediali elektron resurslar yaratish, tajribalarga asoslangan ta'limni (experiential-learning) joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kopengagen Deklaratsiyasida umumta'lim fanlaridan ta'lim xizmatlarini vizuallashtirish va ta'lim jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish orqali ta'lim sifatini va samaradorligini oshirish, tahliliy natijalarni umumlashtirish hamda xulosalash orqali innovatsion


maktabda rivojlantiruvchi ta'lim muhitini tashkil etish texnologiyasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili: Ta'limda loyihalash tushunchasi 80-yillarning oxirida faol joriy etila boshlandi va dastlab ta'lim sohasidagi tashkiliy-faoliyatli o'yinlarni ishlab chiqish va o'tkazish bilan bog'liq edi (N.G.Alekseev, Yu.V.Gromko, S.I.Krasnov G.P.Shedrovskiy va boshqalar). Ta'limda loyihalash tushunchasini yanada rivojlantirish Rossiya ta'lim akademiyasining Pedagogik innovatsiyalar instituti (N.G.Alekseev, O.S.Gazman, V.K.Zareskiy, S.I.Krasnov, A.V.Petrovskiy, N.N.Pavlov, V.I.Slobodchikov, I.S.Yamanskaya va boshqalar) ishi doirasida amalga oshirildi. Biz o'z tadqiqotimizda Pedagogik innovatsiyalar institutida amalga oshirilgan "loyihalash" tushunchasining zamonaviy ishlanmalariga tayanamiz. "Loyihalash - bu nima bo'lishi kerakligi haqidagi bashoratni va uni amalga oshirish jarayonlarini bir vaqtning o'zida joylashtirishni sintez qiladigan faoliyat. Birinchi daqiqa harakatning ideal xarakterini va uning kelajakda biror narsaning paydo bo'lishiga (shakllanishiga) qaratilganligini belgilaydi. Ikkinchisi - ideal bashorat va amalga oshirishning o'zaro bog'liq jarayonlarini qo'llash - bu faoliyat real, davom etayotgan jarayonlarga asoslanganligini va hozirgi vaziyatdan istalgan kelajak holatiga o'tish bilan bog'liqligini ko'rsatadi" (N.G.Alekseev, V.I.Slobodchikov) [1,2].

O'z taqdirini o'zi belgilash jarayonlari bilan bog'liq faoliyat yo'nalishini aniqlash ham muhim ahamiyatga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, o'z taqdirini o'zi belgilash pedagogik amaliyotni tashkil etish jarayonida qadriyatoi-mazmun va faoliyatli tarkibiy qismlarini muvofiqlashtirishning uzluksiz jarayoni sifatida qaraladi (S.I.Krasnov) [3].

Tahlillar va natijalar: Loyihalashga bo'lgan asosiy ehtiyoj "rivojlanish bosqichi"ni amalga oshirilishi kerak bo'lganda, yaxlit tizimni (uning alohida elementlari emas, balki butun tizim) bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi kerak bo'lganda paydo bo'ladi, chunki chinakam rivojlantiruvchi ta'lim faqat rivojlantiruvchi ta'lim tizimining o'zida amalga oshirilishi mumkin. Ta'limning yagona tizimidan soha tashkilotlariga o'tish o'z-o'zidan, evolyusion tarzda, tizim ichidagi alohida takomillashtirishlar hisobiga amalga oshirilmaydi (buning uchun vaqt va tayyor sharoit mavjud emas).

Sxema tarzida buni quyidagicha ko'rsatish mumkin:



1-rasm

1. Ta'lim tizimi - bu quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflangan haqiqiy, mavjud vaziyat:

a) "ta'lim tizimi"ning hozirgi holati ma'lum sabablarga ko'ra ta'limda ishlaydigan sub'ektlarga mos kelmaydi;


b) mavjud vaziyatdan qoniqmagan sub'ektlar orzu qilingan kelajak haqidagi tasavvurga ega;

c) sub'ektlarda kelajakdakerakli vaziyatni qurishga o'tishning aniq g'oyasi, texnologiyasi va vositalari yo'q. Qoniqarsiz vaziyatdan kelajakdaistalgan holatga to'g'ridan-to'g'ri o'tish mumkin emasligi amalda yoki ushbu sharoitlarda zarur o'tish vositalarining yo'qligi yoki mavjud bo'lgan ushbu shartlarni o'zgartirishning mumkin emasligi bilan bog'liq, mavjud vositalar istalgan natijaga erishishni ta'minlamaydi. Bu holat muammoli hisoblanadi. Va bu o'tishga to'sqinlik qiladigan shart-sharoitlarni aniqlashga va bu o'tishni amalga oshirish uchun yangi vositalarni ishlab chiqishga qaratilgan maxsus ish talab etiladi.

2. Ta'lim tizimi - orzu qilingan kelajak timsoli, yangi ta'lim timsolidir.

O'qlar an'anani bildiradi, tanlangan harakatning hozirgi holatdan kelajakda istalgan (talab qilingan) yo'nalishga o'tishini ko'rsatadi. Ushbu sxema (o'ta mavhum bo'lsa ham) tizimning 1-vaziyatdan 2-vaziyatga o'tishi loyihalash maqsadini belgilashga imkon beradi. Biroq bu maqsad hal qilinadigan vazifaga aylanishi uchun unga erishish mumkin bo'lgan shart-sharoitlar bo'lishi kerak. 1-vaziyatda bu shartlar mavjud emas, aks holda kerakli vaziyatga to'g'ridan-to'g'ri o'tish mumkin bo'ladi. 2-vaziyatda ham bu shartlar mavjud emas, chunki u faqat orzu qilingan, ammo belgilanmagan. Ushbu antinomiya chegarasidan tashqariga chiqish loyihalashda aniq amalga oshiriladi. Shunday qilib, loyihalash predmeti - bu butun ta'lim tizimining rivojlanish bosqichi, uning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi uchun shart-sharoitlarni (vositalarini, mexanizmlarini) yaratishdir [4].

1-vaziyatda ham, 2-vaziyatda ham o'tish uchun zarur shart-sharoitlar mavjud emasligi sababli, ushbu shartlar va vositalarni loyihalash mumkin bo'lgan maxsus vaziyatni (maxsus fikrlash sohasini) qurish kerak:



2-rasm. Loyihalash sohasi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ta'limdagi loyihalash loyihalashning ijtimoiy turiga kiradi va shuning uchun bu yerda uni amalga oshirishning madaniyati talab qilinadi. Loyihalash madaniyatining tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi: loyiha g'oyasini shakllantirish va umumiy g'oyaning tavsifi - konsepsiyasi, dasturlash, rejalashtirish; umumiylikni qurish, loyiha faoliyatini institutsionallashtirish; uning natijalarini baholash va tekshirish tartiblari - yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarini tahlil qilish. Ushbu tarkibiy qismlarning barchasi loyihalash texnologiyasining tarkibiy qismlaridir. Yuqorida yuqorida aytib o'tilganidek, loyihalash - ma'lum bir ideal xususiyatga ega bo'lgan faoliya va muayyan narsani amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatdir. Ushbu farq loyihalash texnologiyasi haqida umumiy tasavvurni shakllantirishga imkon beradi. Loyihalash texnologiyasi - bu harakatning sintezi bo'lib, unda aqliy faoliyat g'oyani va uni amaliy amalga oshirish natijalarini o'rganish natijalari birlashtiriladi.

Boshqacha qilib aytganda, agar aqliy faoliyat bir sohada (uni fikrlash faoliyatsohasi deb ataymiz), amaliy faoliyat esa boshqasida (faoliyat sohasi deylik) amalga oshiriladi, degan fikrdan foydalansak, loyihalash bir sohadan ikkinchisiga o'tish amalga oshiriladigan umumiy faoliyat sohasidir.

Loyihalashning aqliy faoliyat sohasi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- Muammoli vaziyat. E'tibor bering, muammolar va harakat yo'nalishini tuzatuvchi hujjat vaziyat tahlilini aks ettiruvchi tushunchadir.
- Ish jarayonida yengib o'tiladigan to'siq (vazifalar ierarxiyasi).
- Modellashtiriladigan o'tish, bu berilgan aniq sharoitlarda maqsadlar to'plami yoki boshqacha aytganda, vazifalar to'plami hisoblanadi. E'tibor bering, vazifalarning ierarxik tuzilishi - bu kerakli vaziyatga qarab harakatlanishni ta'minlaydigan harakatlar dasturidir.
- Resurslar va vaqt o'tishini hisobga olgan holda harakatlar dasturi sifatida taqdim etilgan kelajakdagi vaziyat aslida reja hisoblanadi.

Ushbu sohada bajariladigan ish turlari quyidagilardan iborat:

- konseptualashtirish;
- dasturlash;
- rejalashtirish.

Shunga ko'ra, konsepsiya, dastur va reja ushbu turdagi ishlarning asosiy mahsuloti bo'ladi. Faoliyat sohasi doirasida amalga oshiriladigan ishlar loyihalash jarayonining quyidagi asosiy elementlarini shakllantirishga qaratilgan:

- Kasbiy-vaziyatlar hamjamiyati. Bunday jamoaning faoliyati davomida umumiy ishtirokchilarning ongi haqida umumiy tasavvurlar shakllanadi. Faoliyat sohasi muloqot yoki fikr-muloqot operatsiyalari jarayonida shakllanadi.

- Faoliyat holati hamjamiyati. Bu ma'lum bir tarzda o'zaro bog'langan faoliyat holatlari to'plami, tafakkur sohasiga nisbatan o'zaro harakatlar tizimidir. Faoliyat holati hamjamiyati muayyan faoliyatni amalga oshirishni ta'minlaydigan kooperatsiyalar majmuini aks ettiradi. E'tibor bering, amaliy pedagogik faoliyat jarayonida biz ko'pincha faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lum holatlarning yo'qligini kuzatishimiz mumkin. Shunday qilib, faoliyat sohasida loyihalash zarur hamkorlikni o'rnatish va faoliyat guruhini shakllantirish bilan bog'liq.

- Ijtimoiy o'zaro munosabatlarning xususiyatlarini aks ettiruvchi institutsional tizim. Bu yerda markaziy jarayon yangi institut va umuman ijtimoiy-madaniy muhit o'rtasidagi muvofiqlikdir [5].

G'oyani amalga oshirish loyihalash jarayonining murakkab qismidir, chunki u birinchi navbatda original loyihalash g'oyasining tirik tashuvchilarini aniqlash bilan bog'liq. Amalga oshirish intellektual-irodaviy, axloqiy-pozitsion, tashkiliy, boshqaruv, kasbiy-faoliyat va boshqalar (bu resurslarsiz hech qanday moddiy va moliyaviy ta'minot ishni saqlab qolmasligini yodda tutish kerak) kabi maxsus turdagi resurslarni maqsadli shakllantirish bilan bog'liq.

Xulosa va takliflar: Amalga oshirishning birinchi bosqichi loyihani amalga oshiruvchilarning "hamkorligini" loyihalash bilan bog'liq. "Hamkorlik" - bu "hamma narsa - bir joyda": albatta, bitta xonada yoki tashkilotda emas, balki chegaralari asl loyihalash g'oyasi bilan belgilanadigan va o'rnatiladigan bitta tafakkur sohasida amalga oshiriladi. Hamkorlikni yaratish - bu loyihada ishtirok etayotgan har bir kishining kasbiy tafakkuri bilan maxsus ishlash, uning maqsadlari, qadriyatlarini, tasavvurlari, kasbiy holatlari bilan ishlashdir. Ushbu ishning mohiyati, birinchi navbatda, quyidagi fikrlarni aniqlash bilan bog'liq:

- mazmun loyahasiga mos tashuvchilar ("siz kimsiz?");
- ularning kasbiy faoliyati predmeti va usuli ("nima va qanday ish qilasiz?");
- loyiha doirasida o'z faoliyatini qayta dasturlash imkoniyati ("nima va qanday qilmoqchisiz?").

Shunday qilib, loyiha ishtirokchilarining hamkorligini shakllantirish ongni o'zgartirishning o'ziga xos turi, ongning yangi tashkil etilishini shakllantirishdir. Aynan shu yerda birinchi marta intellektual, mafkuraviy, irodaviy resurs shakllanadi, ularsiz loyiha "qog'oz"da qoladi.

Amalga oshirishning ikkinchi bosqichi loyiha g'oyasini ishlab chiqishda ishtirokchilarni va uni amalga oshirishga tayyor bo'lgan, ushbu g'oyaga xayrixoh bo'lgan "tuyg'alar"ni ham o'z ichiga olgan odamlar "hamjamiyat"ini tarbiyalash bilan bog'liq. Bunday jamoa simbiotik (hissiy-irodaviy) yoki klub (injiq-ta'bli) bo'lishi mumkin emas. Bunday jamoa, birinchi navbatda, o'z kasbiy faoliyatining egasi bo'lgan, o'z maqsadi va tuzilishi jihatidan hamma uchun "shaffof" bo'lgan ijobiy jamoa bo'lishi kerak. Faqat shu holda faoliyatli hamkorlik qilish mumkin, tashkiliy resursni rasmiylashtirish mumkin - ta'lim loyihasini amalga oshirish va ta'limning o'zini amaliy o'zgartirish kafolatini ta'minlash mumkin.

Uchinchi bosqich - refleksiv loyihalash va loyihani amalga oshirish natijalarini tekshirish va ularning asl g'oya va uning mujassamlanishining barcha oraliq bosqichlar bilan bog'liqligi. Bu holatda refleksiya o'z o'zini aniqlash bo'lsa (individual yoki jamoaviy sub'ektga) o'z xatti-harakatlarini tushunish (bu qanday amalga oshirildi? nima tufayli? nimaga olib keldi?), u holda ekspertiza - bu faoliyat natijalarining, oqibatlarining oldindan belgilangan mezonlar yoki allaqachon mavjud mezonlar bilan me'yoriy faoliyat yoki bir tizim bilan bog'liqligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Alekseev N.G. Refleksiya i evristika // *Sovremennye problemy psixologii myshleniya*. Biysk, 1995. C. 26-30.
2. Slobodchikov V.I. Osnovaniya i smysl innovatsionnoy deyatelnosti v obrazovanii // *Proektirovanie v obrazovanii: problemy, poiski, resheniya: sb. nauch. tr. / In-t pedagogich. innovatsiy RAO*. – M.: 1994. - 5-12 s.
3. Krasnov S.I., Malysheva N.V. Model innovatsionno-obrazovatel'nogo proekta «Shkoly mayevniki» v kontekste metodologii gumanitarnogo proektirovaniya // *Innovatsii v obrazovanii*. № 9. 2017. S. 100-120.
4. Burgin M.S. Pedagogikadagi innovatsiyalar va yangilik // *Sovet pedagogikasi*. - 1989. 12-son.
5. G'afforov. Ya. X. Maktab islohati va o'qitish metodlarini takomillashtirish. *Science and education. Scientific Journal*. 2020, 482.

KLEPTOMANIYA NIMA – BOLALARDAGI KLEPTOMANIYANI QANDAY ANIQLASH VA KLEPTOMANIYADAN QANDAY QUTULISH MUMKIN?

Ayitbayeva Nilufar O`marbek qizi

Ellikqal'a tumani 43-umumiy o`rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Ko`pchilikda psixologik buzilishlar bo`lishi mumkin. Ba`zida ular o`zlarining ruhiy va hissiy muvozanatning buzilganligini sezmaydilar. Birovning narsasini, hatto bemanilikni talab qilsa ham o`g`irlashga bo`lgan ishtiyoq kleptomanni faqat bitta sabab bilan ta`qib qiladi – ularni tortib olingan narsa emas, balki o`g`irlik jarayoni jalb qiladi. Ammo tashqaridan qaraganda hamma narsa kundalik ko`rinadi, lekin bu kleptomaniya nima ekanligini bilmaganlar uchun. Kichik turdagi jinoyatchilikni – kasallikdan o`g`irlikni ajratib ko`rsatish va bu kleptomaniya ekanligini, odamda bir qancha sabablarga ko`ra ruhiy buzilish ekanligini aniq ko`rsatish mumkin emas.

Kleptomaniya nima?

Deviant harakati qonunlar va me`yorlarga zid bo`lgan xatti-harakatlar majmuasidir, lekin umumiy ijtimoiy hodisadir. Kleptomaniya – ruhiy kasallik bo`lib, unda o`g`irlik uchun nazoratsiz istak mavjud bo`ladi. Bu alkogolizm, tashvish va boshqa ruhiy kasalliklar bilan birga bo`lishi mumkin. Ba`zan o`g`irlangan narsalar kleptomaniak uchun ahamiyatga ega emas va qonun bunday tashxisni har doim ham inobatga olmaydi va jinoyatchi qamoqqa olinishi mumkin.

Kimdir haqiqatdan ham o`g`irlik qilayotganini aniqlay olmaydi, kimdir ruhiy buzuqlik yoki undan oldin (biron –bir manfaatni ko`zlab) foyda olish uchun jiddiy jinoyatga qodir bo`lgan haqiqiy jinoyatchi. Bunday shaxslar ko`pchilikdan ajralib turmaydi, ular boshqalarga o`xshab ko`rinadi, o`zini tabiiy tutadi. Faqat kleptomaniya – bu o`z-o`zidan nazorat qilib bo`lmaydigan harakat asosida yuzaga keladi, o`g`ri esa rejalashtirilgan harakatlar asosida ish tutadi. Mana shu kasallikdan aziyat chekayotgan bemor bilan samimiy suhbat qilish lozim.

Kleptomaniak – bu kim?

Kleptomaniak kim ekanligini bilish va muammoni aniqlash uni jiddiy muammolarga olib borishini oldini olish mumkin. Kleptomaniak ruhiy holati buzilgan shaxs bo`lib, unda biror narsani o`g`irlash istagi bo`ladi. Ko`pincha o`g`irlangan narsalar kleptomaniaklar tomonidan tashlab yuboriladi yoki qaytarilmaydi – bu ular uchun muhim bo`lgan narsa emas, balki mukammal amaldan qoniqish hissi hisoblanadi. Kleptoman qanday bo`ladi degan tabiiy savol paydo bo`ladi, chunki bunday tashxisga ega odamni tanib olish har doim ham mumkin emas. Tashqi tomondan u boshqa odamlardan farq qilmaydi, ammo hissiy holatida o`zgarishlar – sezgirlik, his-tuyg`ularning haddan tashqari namoyon bo`lishi mumkin, ammo ular ba`zan surunkali charchoq uchun

qoldiriladi. Ushbu tashxis qo'yilgan bemorlar - bolalar, yetuk kishilar va nafaqaxo'rlar bo'lishi mumkin. Kleptomaniya aniqlanadigan yoshning aniq ta'rifi yo'q - u o'z-o'zidan so'nib qolishi yoki o'tkirlashishi mumkin.

Kleptomaniya sabablari

Olimlar "o'g'irlik" istagini keltirib chiqaradigan aniq sabablarni aniqlashda, kleptomaniyaning tabiatini, bu qanday qonunbuzarliklar ekanligini aniqlashda hali to'liq muvaffaqiyat qozonmagan. Ammo psixikaga bevosita ta'sir ko'rsatadigan mutaxassislar aniqlagan omillar mavjud. Shifokorlarning ko'pchiligi bu buzilish inson miyasidagi anormallikdan kelib chiqqan deb taxmin qilishadi. Neurotransmitter vazifasini serotonin bajaradi, bu bizning kayfiyatimizga, hissiy komponentimizga be'vosita ta'sir qiladi. Agar muvaffaqiyatsizlikka uchrasak hujayralararo aloqalar uziladi, hujayralar nobud bo'ladi, bu muvozanatni buzilishiga olib keladi, depressiya, tashvish, qo'rquv va undan ham jiddiy ruhiy patologiyalar rivojlanadi. Xuddi shu narsa kleptomaniak bilan ham sodir bo'ladi. Serotonin garmoni ishlab chiqarish darajasi pasayadi, ruhiy buzilishlar kuzatiladi, shuning uchun o'g'irlash, ya'ni, yaxshi kayfiyatni o'z qo'llari bilan yaratsih istagi paydo bo'ladi. Nega odam bu vaqtda o'zini baxtli his qiladi? O'g'irlik qilganda boshqa neurotransmitter - dopamin ishlab chiqarish ko'payib, odamlarga quvonch va zavq bag'ishlaydi. Kleptomaniak o'g'irlik vaqtida juda katta noqulaylik his qiladi, ularning ayblari vijdonini kemiradi.

Kleptomaniya bu ruhiy kasallik bo'lib, bu quyidagi omillar sababli kelib chiqishi mumkin:

Tanadagi serotonin miqdori kamayishi, bu ruhiy kasallikning rivojlanishiga olib keladi;

Bosh travmasi;

Homiladorlik;

Cheksiz miqdorda psixotrop preparatlarni qo'llash;

Bulimiya;

Demans;

Kleptomaniya nasl-nasabga bog'liqmi?

Kleptomaniak kim va hozirda ko'rib chiqilayotgan kasallik keyingi avlod merosiga ega bo'lish ehtimoli bormi? Kleptomaniya irqchilik bilan uzatiladimi yoki yo'q, bunga aniq javob yo'q. Ko'pgina olimlar aqliy nosog'lomlik avloddan avlodga butunlay yoki ba'zi bir xususiyatlarga o'tishi mumkinligi haqidagi fikrni ilgari suradi, shuning uchun kleptomaniya keyingi avlodlarda o'zini namoyon qilishi mumkin.

Kleptomaniyaning belgilari

"O'g'irlik" hujumi o'zini tinch ko'rsatmaydi. Har doim buzilishning ruhiy sababini ko'rsatadigan qo'shimcha belgilar mavjud bo'ladi. Gumonlarda adashmaslik uchun siz bir qator aniq belgilarga e'tabor qaratishingiz kerak:

Birovning narsasini o'zlashtirishga ichki qarshilik;
Mukammal o'g'irlikdan keyin ahloqiy, ruhiy qoniqish;
Yolg'iz "ish", kleptomaniak o'g'irlik qilganda hech qachon sherik qidirmaydi.
Hujumlar kamdan-kam uchraydi, faqat ma'lum psixologik stress, stressdan keyin;

Be'morlarda shizofreniya alomatlari yo'q.

Bolalarda kleptomaniya

Ko'pincha tibbiy amaliyotda, badavlat ota-onalarning bolalari o'g'irlik qila boshlagan holatlar ta'svirlanadi. Hammasi oz miqdordan boshlanadi, keyin hujumlar tez-tez uchraydi. Muammoni bilib, kattalar darhol vahima qo'zg'ashadi. Albatta, ota-onalarning sevimli farzandining "yomon odati" ni ehtiyotkorlik bilan yashirishadi, lekin shuni bilish kerakki, kleptomaniya bolalarda tez-tez uchraydigan kasallikdir. Vaziyatning chalkashligi va jiddiyligiga qaramay, ruhiy buzilish sabablarini aniqlash mantiqan to'g'ri keladi.

Bolalarda kleptomaniya sabablari

Mutaxassislar bolaning ruhiyati, uning o'zboshimchaliklari, ijtimoiy me'yorlari allaqachon 6 yoshdan shakllanganiga e'tibor qaratmoqdalar. Ammo ba'zi bolalar bu borada muammolarga duch kelishmoqda. Ular haddan tashqari qo'zg'aluvchanlik, giperaktivlik, istaklarga berilmaslik, bezovtalik bilan ajralib turadi. Darslarda ular o'zlarini bemalol tutadilar, bo'sunmaydilar. Ruhiy kasalliklar ma'lum bir anormalliklarning orqasida yotishi mumkin, ular orasida oligofreniya, shizopatiya va boshqalar mavjud. Shu sababli, o'z vaqtida tegishli choralarni ko'rish uchun ota-onalar uchun "kleptomaniya" tashxisi, bu qanday kasallik ekanligini oldindan bilish juda muhimdir.

Bolaning individual faolligi, bolaning tabiati haqida unutmang, unga faollik, chaqaloqning durtuselligi kiradi. Bunday hollarda, talab qilinmadigan bola kamdan-kam hollarda boshqa odamlarning narsalarini olganda, shifokorlar, odatda, kleptomaniyani aniqlamaydilar.

Shunday qilib, bolani o'g'irlikka nima undashi mumkin:

Noto'g'ri narsa qilish vasvasasi;

Kattalar e'tiborini jalb qilish. Bolalarga kam e'tibor beradigan oilalarda, bolalar ota-onalari ular bilan ko'proq vaqt o'tkazsalar, bolalar ularga yoki boshqa odamlarning narsalariga, zargarlik buyumlariga, pullarga moslashishlari mumkin;

O'zini tasdiqlash usuli. Shunday qilib, ular o'zlarini to'laqonli his qiladilar, biron-bir narsani yaratishga qodir, tezkorlikni namoyon etadilar;

Yomon kompaniya. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar, o'spirinlar o'g'irlik bilan shug'ullanadigan bolalar bilan bir guruhga tushib qolsalar;

Shuningdek, odatiy sabab bor – oilada pul yetishmasligi. Bola u noto'g'ri ish qilayotganini tushunadi, lekin boshqa bolalar ega bo'lgan narsaga ega bo'lish

istagi ustunlik qiladi. Vaqt o'tishi bilan muammo jiddiy huquqbuzarlik va jinoiy odatga aylanishi mumkin.

Bolalarda kleptomaniyani davolash

Bunday hollarda bola psixolog yordamiga muhtoj bo'ladi. Kleptomaniya bolaning aqliy qobiliyati buzilganligi sababli namoyon bo'ladi, shuning uchun davolanish uni tiklashga qaratilgan bo'ladi va ota-onalar bilan aloqa o'rnatish kerak. Qo'shimcha choralar sifatida quyidagilarni qo'llash mumkin:

Bola bilan yaqindan, ortiqcha dag`-dag`a va haqoratsiz suhbat;

Provokatsion harakatlarning yo'qligi – pulni, ko'zga ko'rinadigan qimmatli narsalarni qoldirish kerak emas;

Bolaning o'ziga va vazifalariga ega bo'lishi;

Bolani qo'shimcha darslarga jalb qilish, shunda bolada bunday narsalar haqida o'ylash uchun vaqt bo'lmaydi;

Toza havoda yurishni istisno qilmang.

Bolalarni davolashda dorilar ishlatilmaydi, chunki asosiy muammo oiladagi hissiy iqlimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.G`oziyev "Psixologiya" T. "O`qituvchi" nashriyoti 2003
2. E.G`oziyev "Tafakkur psixologiyasi" T.1999
3. Z.T.Nishonova "Yosh davrlari psixologiyasi" T. 2013
4. Grant JE, Odlaug, BL, Davis, AA & Kim, SW Kleptomaniyaning huquqiy oqibatlarini. Psixologik chorakda. 2009 yil.
5. Blog.wikium.ru

АНТОНИМИЯ КАК ЛЕКСИЧЕСКОЕ ЯВЛЕНИЕ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ

Айсина М.Ф.

*«Ташкентский государственный технический университет
Алмалыкский филиал. ТГТУ АФ»*

Понятие антонимии - одно из самых интересных лексических явлений. В основе антонимии лежит понятие противоположности, что отмечается многими учёными – лингвистами.

Антонимы представляют достаточно большую группу слов в лексике русского языка, так как она отражает существенную сторону лексико – семантических системных связей в словарном составе русского языка. В современном языкознании синонимию и антонимию рассматривают в качестве крайних, предельных случаев взаимозаменяемости и противопоставленности слов по содержанию. При этом, если для

синонимических отношений характерно семантическое сходство, то для антонимических - семантическое различие [3. 41]. Ахманова О.С. определяет антонимы как слова: «Слова, противопоставленные друг другу как коррелятивные (русск. брат - сестра), как обозначающие противоположно направленное действие (русск. уходить - приходиться) и т. и.» [2, 48].

Такое явление, как антонимия, обусловлено особенностью восприятия языковой личностью противоречивой действительности, которая складывается из единства и борьбы противоположностей. В связи с чем контрастные слова, как и обозначаемые ими понятия, не только противопоставлены, но и тесно связаны между собой. Поэтому важнейшей задачей при изучении антонимии является раскрытие понятия противоположности. В зависимости от конкретных условий контрастировать между собой могут самые различные предметы понятия и соответствующие им слова [5, 59].

Антонимические отношения представляют самый «сильный» тип парадигматических отношений, так как антонимы не существуют вне контекста друг друга и могут быть понятны только одновременно.

Несмотря на то, что антонимия является одним из важнейших лексических явлений в языке, до сих пор не существует общепринятого мнения относительно того, какие пары слов надо относить к антонимам и что составляет понятие «антонимия».

Ю.Д. Апресян считает, что основополагающими понятиями антонимии являются понятия «противоположность», «обратность», «противоречивость». Исследователь, рассматривая толкования указанных слов, приходит к следующему определению понятия противоположности. Антонимы, по мнению Ю.Д. Апресяна, могут обладать противоположными значениями, например, *длинный - короткий, широкий - узкий*, обратными *испарять - конденсировать; слепить - разлепить*, противоречащими *зрячий - слепой* значениями [1]. .

Учёными-лингвистами выделены различные типы антонимов. В зависимости от конкретных условий контрастировать между собой могут самые различные предметы, понятия и соответствующие им слова [4, 259]. Существует деление антонимов на основе деления противоположности на виды. Мы, вслед за Л.А. Новиковым, выделяем следующие виды антонимии.

Контрарная противоположность, которую выражают крайние симметричные члены упорядоченного множества (контрарные видовые понятия), между которыми существует промежуточное звено, «*молодой - (не старый, не молодой, пожилой) - старейший*» «*холодный - (не горячий,*

прохладный, теплый) - *горячий*» и т.д. Этот вид наиболее распространен и находится в основе антонимии слов, содержащих указание на качество.

Контрадикторная противоположность, которая отличается от контрарной тем, что между противопоставляемыми членами (видовыми понятиями), дополняющими здесь друг друга до единого целого (родового понятия) и являющимися по своей природе предельными, нет никакого среднего промежуточного звена: «живой» - «мертвый», «истинный» - «ложный», «вместе» - «врозь» и т.п.

Векторная противоположность, которая представляет собой противоположность разнонаправленных действий, движений, признаков: *входить* - *выходить*, *садиться* - *встать* и т.п.

Все виды противоположности, лежащие в основе соответствующих классов антонимов, обнаруживают общий признак антонимии - наличие предельного отрицания в толковании одного из членов антонимической пары: 1) *молодой* - *старый* (старый = «предельно немолодой»); 2) *истинный* - *ложный* (ложный - неистинный, полностью противоположный истинному).

С точки зрения соотношения языка и речи антонимы разделяют на:

1. Языковые (узусальные) - антонимы, существующие в системе языка, например, *богатый* - *бедный*.

2. Речевые (оказиональные) антонимы, возникающие и существующие в определенный момент в речи, в определенном контексте (*блеск* (здесь: в значении богатство) - *нищета*). Именно такие антонимы часто встречаются в художественных текстах, а также пословицах и поговорках. Полярность значений таких слов не закреплена в языке, их противопоставление носит индивидуально-авторский характер.

Писатель может выявить противоположные качества у различных понятий и на этом основании противопоставить их в речи: не *мать*, а *дочь*; *солнечный свет* - *лунный свет*; *один год* - *вся жизнь*. Однако слова, называющие подобные понятия, не являются антонимами, так как их противопоставление не воспроизводится в языке, оно оказионально.

Таким образом, важнейшим критерием выделения антонимии как языкового явления служат системные отношения слов в лексике. Системный подход в описании противоположных качеств различных предметов и понятий позволяет проникнуть в самую глубину этого явления, вскрыть его закономерности, объяснить особенности использования антонимов.

Список использованной литературы:

1. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. Синонимические средства языка - М.: Восточная литература РАН, 1995. — 472 с.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. - М.: Либроком, 2010. - 576 с.
3. Белянин, В. П. Психологическое литературоведение. Текст как отражение внутренних миров автора и читателя. // В. П. Белянин. - М.: 1 Генезис, 2009. - 320 с.
4. Новиков Л. А. Антонимия в русском языке.- М.: Мысль, 1993. - с. 259.
5. Норман. Б.Ю. Грамматика творящего. От замысла к высказыванию. // Б.Ю. Норман - М. Либроком, 2011. - 230 с.

**BOLALARDAGI QO'RQUVNI BARTARAF ETISHDA
ERTAK TERAPIYANING ROLI**

Akbarova Dinara Javoxir qizi

Farg'ona viloyati Beshariq tumani 2-maktab psixologi

Rivojlanib borayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni, komil insonlarni voyaga yetkazish masalasiga katta e'tibor berilmoqda. Istiqloq tufayli o'z taraqqiyot yo'lidan borayotgan respublikamiz yoshlarini yangicha ijtimoiy muhitga tayyorlash, davr ruxida tarbiyalash shu kunning dolzarb va ustuvor vazifalaridan biridir. Hozirgi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning taqdiri yoshlarning ma'naviy qiyofasiga, shaxsiy barkamolligiga bog'liq.

Bizga ma'lumki, psixologiya fanining mavzy bahsi inson ruhiyati, uning namoyon bo'lishi va rivojlanishini organuvchi sohadir. Psixologiya ongli sub'ekt – insonning ichki dunyosini organadi. Insonni ruhiyatini to'laroq tasavvur qilish uchun ruhiy jarayonlarning kechishi, ichki kechinmalarini (sezgilr, fikrlar, hissiyotlar) namoyon bolish qobiliyatlarini tushunish lozim.

Ma'lumki qo'rquv barcha hissiyotlar ichida eng xavflilaridan biri hisoblanadi. Bunga bag'ishlangan qator tadqiqotlar ushbu ahamiyatli hissiyotni tushunish uchun yetarlicha zamin yaratmoqda. Maktabgacha yoshdagi ba kichik maktab yoshidagi bolalardagi qo'quv va xavotirlanish muammosi bugungi kunda anchagina darajada dolzarb bo'lib kelmoqda. Bola hayotining ilk davridan barcha yangi , begona narsalardan qorqadi, shuningdek, notanish hayvonlardan cho'chidi. Bolalardagi shu kabi qo'rquvlarni bartaraf etish uchun o'ziga xos psixologik tarbiya vositasi bo'lgan ertaklar, ayniqsa, bolajonlarga juda qiziqarli va qadrlidir. Bola ertak orqali yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlikni bir –

biridan farqlashni o'rganadi. Eng muhimi ular ongidagi qo'rquv hissini engish, turli xavf va qiyinchiliklardan xavotirlanmaslik xususiyatlarini shakllantiradi.

Pedagog- psixolog ishida keng foydalaniladigan konsultativ - terapevtik faoliyatlarning yana bir turi ertak terapiyasi hisoblanadi. Ertak terapiyaning asosiy xususiyati metaforik va o'zgacha bayon etish uslubiga, tilga ega ekanligidir. Ertakda bayon etiladigan hodisaning haqiqati to'g'ridan-to'g'ri va tinglovchilar uchun tanish bolgan shaklda emas, balki o'zgacha namoyon boladi, Ertak sehri shu bilan belgilanadiki, u bir vaqtning o'zida ham onnga (u holda ertak yorqin xarakterdagi qahramonlariga ega bolgan muayyan syujet asosida ifodalanadi), ham shaxsning chuqur, yetarli darajada anglanilmagan qurilmalariga (qo'rquv, kechinma, kompleks, ehtiros) qaratilgan boladi.

Kattalar ko'pincha qo'rquv va moyilliklarini oshkor etishga qiynaladilar, ko'p bolalar esa o'z harakatlari, kechinmalari uchun aybdorlik va uyalish hissini sezadilar. Ertak bolalar uchun shunday himoya rnuhitini yaratib beradiki, u orqali bola o'zi va olam haqidagi biror-bir yangilikni o'z ichki dunyosining aralashuvidan qo'rqmagan holda bilib olish imkoniga ega boladi.

Ertakni eshitar ekan, bola o'zini qahramonlar bilan solishtiradi (u o'ziga o'xshash qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan qahramonlarni tanlab oladi). U o'z qo'rquv va kechinmalari orasida o'zini yolg'iz his etmaydi. Hamda eng asosiysi, ertak qahramonlari qiyinchiliklarni yengayotganini ko'rib, bolada muammolarni hal etish tajribasi va o'z kuchiga ishonch paydo boladi.

Shuningdek, o'ziga xos tarbiya vositasi bo'lgan ertaklar bolajonlar uchun juda qiziqarli va qadrlidir. Bilamizki, ertak inson fantaziyasi va ichki kechinmalari mahsuli sifatida dunyoga keladi. E'tiborli jihati, har doim ularda insonparvarlik, Vatanga muhabbat, rostgo'ylik, halollik tuyg'ulari ustuvor bo'ladi va har bir ertak yaxshilikning yomonlik ustidan qilgan g'alabasi bilan tugaydi. «...Shunday qilib ular murod-maqсадiga yetibdi» degan iboraning deyarli hamma ertak yakunida uchrashi fikrimizni tasdiqlaydi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, ertaklar bolaning dunyoqarashini kengaytirib, uning hayotga ongli munosabatini shakllantirar ekan. Bola ertak orqali yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlikni bir-biridan farqlashni o'rganadi. Bu tushuncha uning psixologiyasida bir umrga muhrlanib qoladi. Va bola voyaga yetganidan keyin ezgu ishlarga odatlanadi.

Ma'lumki, ertakni qiziqarli va maromiga yetkazib aytish va shu orqali bolaning e'tiborini jalb qilish ham bir san'at. Qolaversa, xalq og'zaki ijodining yorqin namunasi bo'lmish ertaklar faqat tarbiya vositasi emas, balki ota-ona va farzandni ruhan yaqinlashtiruvchi ko'prik hamdir. Shuning uchun ham mutaxassislar ota-onalarga farzandlariga ko'proq ertak aytib berishni ta'kidlashadi. Zero, bir narsani unutmaslik lozim, ertaklar hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan bo'lsa-da, ularda tabiiy ravishda hayot haqiqati aks etadi.

Qiziqarli syujet bilan boyitilgan bu hikoyalar bolaning ongli ravishda hayotni anglashiga yordam beradi.

Ertak qahromonlarining eng mushkul va xatarli vaziyatlarda ham xavflarni engib o'tishidan o'rnak olgan bola ma'nan va ruhan kuchlari bo'lib voyaga etadi. Avstraliyalik mashhur psixolog D. Berttning fikricha, "Bola – kichkina odamgina emas, balki alohida shaxs hamdir. U sehrli hikoya va ertaklar yordamida o'z orzu – umidlarining aksini topadi." deb, ta'kidlaydi. Darhaqiqat, kattalar tamonidan aytib yoki o'qib berilgan ertaklar bolalarda o'ziga bo'lgan dastlabki ishonch kurtaklarini, samimiylik, odob – axloqlilik, shuningdek, intellektual rivojlanishining asosini tashkil etuvchi psixologik omillardan biri hisoblanadi. Bolalar qanchalik ko'p o'zlarida ishonch ruhini shakllantira borishi jarayonida ular o'zlaridagi qo'quvni bartaraf eta boradi, albatta, bu kattalar ko'magida amalga oshiriladi.

Bolalar ertak tinglashi davomida ijobiy obrazli ertak qahramonlar xarakterini o'larida o'zlashtirishi ya'ni ularga imitatsiya (taqlid) qilish bilan birga, salbiy qahramonlarga nisbatan nafrat, ojiz qahramonlarga nisbatan saxiylik, hamdardlik, mehrlilik sifatlarini ham shakllantiradi.

Bugungi kunda bolardagi qo'quv va xavotirlanishni bartaraf etish uchun psixologlar terapevtik usullardan ya'ni artterapiyaning eng muhim turlaridan biri ertak terapiyadan unumli foydalanishni ota – onalar va tarbiyachilarga ham foydalanishni tavsiya sifatida bermoqdalar. Xususan, ertak terapiya sohasida turli darajadagi qo'quvlarni oldini olish va mavjudlarini psixokorreksiyalash uchun ertak qahramonlari holati va mo'jizalar yuz berishi natijasida ularning bu qiyinchiliklardan ozod bolishligini tasavvur qiluvchi ertak qahramonlarini yaratish orqali bartaraf etish mumkin. Aniqsa, o'zbek qalq ertaklarining aksariyati «Bir bor ekan, bir yo'q ekan», deb boshlanadi, eng asosiy voqealar «yo'l yuribdi mo'l yuribdi» dan keyingi vaziyatga to'g'ri keladi. «Qahramonlar taqdiri nima kechdi ekan?» degan savolga ertak yakunida albatta «murod maqsadiga yetibdi» tarzida javob olinadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, psixolog, tarbiyachilar va ota – onalarga bolalar uchun ertak aytib berishda quyidagi tavsiyalarga amal qilishlari maqsadga muvofiqdir:

ertak bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi;

ertak aytish jarayonida bolaning individual xususiyatlariga, ya'ni xarakteri, temperament, qiziqishlari va yo'nalganligiga mos bo'lishi;

ertakning mohiyati, albatta, yovuzlik ustidan yaxshilikning g'alaba qozonishi;

muammolarni hal etish tamoyillarining mavjudligi;

ertak aytish jarayonida paralingvistik (so'zga jilo beruvchi) usullardan foydalanish;

va nihoyat, ertak bolalardagi turli nuqsonlar, odatlar, qo'rquv kabi xususiyatlarni bartaraf etish maqsadiga yo'naltirilgan bo'lishi muvofiqdir.

Xylosa ornida, bizning xalqimizda kun kech bo'lgach, bolaga topishmoq va ertak aytib berish o'ziga xos an'anaga aylangan. Va bu an'ana asrlar davomida saqlanib kelmoqda. Chunki ertak bolaning aqliy salohiyatini, topqirligini o'stirish bilan birga, uning tunni tinch va osuda o'tkazishiga ham xizmat qilgan. Bir so'z bilan aytganda, ertaklar yosh avlodning sog'lom va barkamol voyaga yetishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENDUMNING MOHIYATI VA KONSTITUTSIYAMIZGA KIRITILAYOTGAN INSON HUQUQ VA ERKNLIK LARI, SUD-HUQUQ SOHASIDAGI ISLOHOTLAR

Akmalov Hamid

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti talabasi

Barchamizga ma'lum ayni kunlarda mamlakatimizda muhim siyosiy jarayon O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha referendum jarayonlari bo'lib o'tish arafasida. Ayni kunlarda butun mamlakatimiz hududida referendum haqida xalqimizga batafsil tushuntirish ishlarini amalga oshirish maqsadida targ'ibot tadbirlari amalga oshirilmoqda. Shaxsan o'zim ham Yuridik fakulteti talabasi va bo'lajak yurist sifatida o'z tengdoshlarimga referendum haqida ma'lumotlar berish maqsadida ushbu targ'ibot tadbirlarida ishtirok etyabman. Ushbu maqola orqali referendum haqida muhim ma'lumotlarni va Qomusimizga kiritilayotgan o'zgarishlar haqida tushuntirib o'tmoqchiman.

Referendum haqida gapirishdan avval uning o'zi nima ekanligi, saylovlardan farqi haqida to'xtalib o'tamiz. Referendum fuqarolarning davlat va jamiyat hayotidagi eng muhim masalalarni ovoz berish yo'li orqali hal etishdir. Referendum orqali Konstitutsiya, qonunlar qabul qilinishi, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi, takomillashtirilishi mumkin. Referendum saylov emas. Referendum ayrim jihatlari bilan saylovga o'xshashi mumkin, masalan komissiyalar, ovoz berish jarayoni. Biroq saylovlarda nomzodlarni muayyan lavozimga masalan, deputat, senator, Prezident sifatida saylash uchun ovoz beriladi. Referendumda esa nomzodlar bo'lmaydi, muayyan masalani qo'llab-quvvatlash yoki rad etish bo'yicha ovoz beriladi. Saylov natijalari majoritar tizim bo'yicha ham, proporsional tizim bo'yicha ham aniqlanishi mumkin bo'lsa, referendum natijalari faqat majoritarizm (mutlaq ko'pchilik ovozini hisoblash) tamoyillari asosidagina aniqlanishi mumkin.

O'zbekistonda referendum Konstitutsiya hamda 2001-yil 30-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining Referendumi to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi. Referendum O'zbekiston qonunlarini va boshqa qarorlarni qabul qilish maqsadlarida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir. Referendumda qabul qilingan qarorlar oliy yuridik kuchga ega bo'ladi va referendum O'zbekistonning butun hududida o'tkaziladi. Referendum o'tkaziladigan kungacha yoki referendum kunida 18 yoshga to'lgan har bir fuqaro referendumda teng asoslarda ishtirok etadi va har bir fuqaro bir ovozga ega bo'ladi. Referendumga doir barcha tadbirlarda siyosiy partiyalardan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, fuqarolar tashabbuskor guruhlaridan kuzatuvchilar, ommaviy axborot vositalarining vakillari, boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlardan kuzatuvchilar qatnashish huquqiga ega.

Referendumda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan, ro'yxat tuzilayotganda referendum uchastkasida doimiy yoki vaqtincha istiqomat qilayotgan O'zbekiston fuqarolari ovoz beruvchi fuqarolar ro'yxatiga kiritiladi. Ovoz beruvchi fuqarolarning ro'yxatlari ovoz berish kuniga 10 kun qolganda hamma tanishishi uchun taqdim qilinadi. Referendum o'tkazuvchi uchastka komissiyasi ro'yxat bilan tanishish joyi va vaqti to'g'risida fuqarolarni xabardor etadi. Ovoz beruvchi fuqarolarning ro'yxatlariga o'zgartishlar kiritish referendumga besh kun qolganida to'xtatiladi. Referendumda ovoz berish byulletenida referendumga qo'yilayotgan masalaning matni aniq aks ettiriladi va ovoz beruvchi xohish-irodasining variantlari "ha" yoki "yo'q" yoxud "rozi" yoki "qarshi" deb ko'rsatiladi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yangilanayotgan Konstitutsiya loyihasi muhokamasiga bag'ishlangan yalpi majlisida 30-aprel kuni bo'lib o'tadigan referendum byulletenida: "Siz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunini qabul qilasizmi?" deb yozilishi ma'lum qilindi.

Referendum jarayonlari bo'yicha talaba do'stlarimizdan "Biz 30-aprel kuni bo'lib o'tadigan referendumda qaysi saylov uchastkasida ovoz beramiz, doimiy yashash joyimizdanmi yoki hozirgi tahsil olayotgan shahrimizdanmi?" mazmunidagi savollar kelib tushmoqda. Ushbu savolga javob berib o'tadigan bo'lsam, talabalar o'zlari tahsil olayotgan oliy o'quv yurtlari tomonidan ovoz beruvchi fuqarolar ro'yxatga kiritiladi va shu hududda ovoz beradi. Demak, talabalar o'zlari doimiy yashaydigan hududlariga borib ovoz berishlari shart emas.

Ovoz berishda ishtirok etgan fuqarolarning yarmidan ko'prog'i yoqlab ovoz bergan bo'lsa, qaror referendumda qabul qilingan deb topiladi. Ro'yxatga kiritilgan fuqarolarning yarmidan kami referendumda ishtirok etgan bo'lsa, Markaziy saylov komissiyasi referendumni o'tmagan deb topadi. Markaziy saylov

komissiyasi referendum yakunlari bo'yicha qabul qilingan qarorni referendum o'tkazilgandan keyin ko'pi bilan 10 kunda Markaziy saylov komissiyasining rasmiy veb-saytida va rasmiy manbalarda e'lon qiladi.

Bosh Qomusimizda bo'layotgan o'zgarishlar haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, undagi moddalar 128tadan 155taga o'zgarimoqda, normalar soni esa 275tadan 434taga oshgan. Asosiy qonunning 65foiz matni yangilangan. Yangilanayotgan konstitutsiyamizda o'zgarishlar asosan quyidagi yo'nalishlarda aks etmoqda: inson huquq va erkinliklari sohasi; tadbirkorlik va xususiy mulk sohasi; axborot sohasi; ijtimoiy soha; tibbiyot va ekologiya sohalari; ilm-fan, ta'lim-tarbiya va yoshlar sohasi; sud-huquq sohalari. Konstitutsiyamizga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadida xalqimizdan ko'plab takliflar kelib tushdi. Kelib tushgan takliflar soni 222,715tani tashkil etgan bo'lib, ularning 25foizi loyihaga kiritilgan. Takliflar statistik tahlil etilganda 60foizi yoshlar tomonidan bildirilganligi ma'lum bo'di. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda yangilanayotgan Konstitutsiyamizda yoshlarga oid alohida bob va moddalar kiritilib, XIV bob "Oila, bolalar va yoshlar" deya nomlanmoqda. Bu esa mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan davlat siyosati darajasidagi e'tiborning yanada ortib borayotganligidan dalolatdir.

Yangilanayotgan Konstitutsiyamizga kiritilayotgan inson huquq va erkinliklari, sud-huquq sohasidagi o'zgarishlar haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, inson huquq va erkinliklari sohasida ko'plab normalar kiritilmoqda. Jumladan, yangi tahrirdagi konstitutsiyaning 25-moddasiga ko'ra O'zbekistonda o'lim jazosi ta'qiqlanadi. O'lim jazosi ta'qiqlanishining konstitutsiyaviy darajada belgilanishi insonni hayotdan mahrum etishga xatto davlat ham haqli emasligini kafolatlaydi. Bugungi kunda 106ta davlatda o'lim jazosi barcha jinoyatlar uchun bekor qilingan, ayrim davlatlar o'z tajribasida o'lim jazosini qonunlari bilan bekor qilsada, konstitutsiyada bo'lmaganligi bois uni jazo sifatida qayta tiklash holatlari ham kuzatilgan. Ushbu norma mamlakatimizda inson hayoti va qadri yuqori darajada himoya qilinishini yana bir bor tasdiqlaydi.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyaning 27-moddasida aybsizlik prezumpsiyasidan kelib chiqadigan muhim kafolat, shaxs sudning qarorisiz 48soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas. Shaxs ushlab turilgan vaqtdan e'tiboran 48soat o'tgunga qadar sudga ushlab turishning qonuniyligi va asosligi to'g'risida masalani hal qilish uchun olib borilishi kerak. Agar ushlab turishning qonuniyligi va asosligi sudga isbotlanmasa shaxs darhol ozod qilinishi kerak degan norma belgilanmoqda. Ushbu modda shaxs erkinligi va daxlsizlik huquqining konstitutsiyaviy kafolati sifatida xizmat qiladi. Ushbu norma mamlakatimiz konstitutsiyasida ham "Xabeas korpus" tizimi joriy etilayotganligini anglatadi. Yuqoridagi moddalardan guvohi bo'lganimizdek, mamlakatimizning yangi konstitutsiyasida ham sud-huquq sohasida inson huquq

va erkinliklarini ta'minlash qat'iy belgilanmoqda. Bu esa inson qadri tamoyilining yorqin dalilidir.

Yangilanayotgan konstitutsiyamizning 28-moddasida: "Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadi..." deb belgilab qo'yilmoqda. Ushbu normani kiritishda birinchi o'rinda xalqimizdan kelib tushgan takliflar va shu bilan birga xalqaro normalar ham hisobga olingan. Ya'ni, ushbu modda "Miranda qoidasi"ni o'zida aks ettirgan. Miranda qoidasining mazmuni shundan iboratki, jinoyatda gumon qilinib ushlangan shaxsga nisbatan tegishli idora xodimlari tomonidan bosim o'tkazilishini istisno qiladi. Bu esa inson, uning hayoti, huquq va erkinliklari – oliy qadriyat degan ezgu tamoyilni amaliyotda keng tadbiiq etishga imkoniyat beradi.

GLOBALLASHUV DAVRIDA MILLIY QADRIYATLAR TARG'IBOTI VA UNING AHAMIYATI

Akramova Gulrux Alixanovna

*Toshkent Oriental universiteti Ta'lim menejmenti mutaxassislik magistranti
Yunusobod tumani 98 sonli maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar
bo'yicha direktor o'rinbosari*

Bugungi kunda mamlakatimizda hamda butun dunyoda svilizasiyaning kuchayishi mahalliy to'qnashuvlar millatlar o'rtasida kelishmovchiliklar kuchayib bormoqda. Bu butun dunyoda dolzarb muammolardan bo'lib turibti. Albatta ushbu jarayonlarning kuchayishi har bir davlatning milliy o'zligini saqlab qolishga urinishlarni kuchaytirishga undaydi. Hozirda butun dunyoda millat o'zligini saqlab qolishga urinishlar ko'chayib bormoqda. Svilizatsiyalashuv jarayonlarida madaniyatlarining integrasiyasi qadriyatlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

"Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim"[1]. Qadriyat har bir xalqning o'tmishi, buguni va kelajagidir. Bu tushuncha har bir xalqning urf-odat, an'ana, tili, dini, milliy merosini ko'rsatib beradi. "Buyuk tarixda hych narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarda namoyon bo'ladi"[2].

Yurtimizda bir qator olimlar o'zlarining ilmiy maqolalarida qadriyatlarni to'rt turga bo'ladi ular:

Oilaviy qadriyatlar- har bir oila uchun ma'lum bir ma'naviyat turi (Masalan tug'ulgan kunni nishonlash)

Milliy qadriyat – millatning asrlar mobaynida yaratgan ma'naviy boyliklari, noyob tarixiy obidalarini avaylab-asrash, kelgusi avlodlarga yetkazish, rivojlantirish, hurmat bilan munosabatda bo'lish, hurfikrlilik, vijdon va din yerkinligini qaror toptirish, ma'naviy mulkni milliy qadriyat sifatida himoya qilish;

Jamoa qadriyati – ma'lum bir mahallada, qishloqda, mehnat jamoasida biron ijtimoiy hodisa (ommaviy tadbirlar, masalan, hashar) urf bo'lgan;

Umuminsoniy qadriyat – jahon xalqlari uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi, insoniyatning umumiy manfaatlariga mos keluvchi moddiy va madaniy hamda mezonlar majmuasi maqsad va intilishlarini o'zida ifoda etadi.[3]

Shunday ekan bugungi globallashuv va axborotlashuv davrida xar bir millat o'zligini saqlab qolishi va bu uchun bor imkoniyatlarini ishga solishi zarur. O'zbek xalqi asrlar davomida shakllangan va sayqallanib kelgan milliy o'ziga xosligi qadriyatlarida o'zbek xalqiga mos muomila madaniyati, mexr-oqibat, muravvat, andisha, or-nomus, odob-axloq kabi insoniy qadriyat va fazilatlarni ko'rsatib beradi.

Hozirda XXI asrda turli tahdidlarning kuchayishi xalqlarning o'zligini saqlab qolishda uning qadriyatlarini yoshlar orasida keng yoyish hamda targ'ib qilishga undaydi. Albatta bunday tahdidlar insonni tashvishga solmay qo'ymaydi. Shuning uchun soha vakillari orasida milliy va ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilishda zamonaviy va innovasion metodlardan foydalanish zarurdir. Albatta yoshlarning kelajakda kim ekanini teran anglashi hamda o'zligini unutmasligi uchun targ'ibot tashviqot ishlarini kuchaytirish zarurdir.

Bizningchi televideniya orqali ko'rsatilayotgan seriallarni nazoratga olish. Yoshlarni xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatadigan seriallarni namoyishini to'xtatish. Televideniya orqali namoyish etilayotgan seriallar orqali ham turli xil yangi urf-odatlarini xalqimiz orasida keng yoyilish xolatlar kelib chiqmoqda. (Masalan to'ylarda kelinni gulni yuqoriga otishi, barchani oldida kelin va kuyovni valisga tushishi vahokazo. Bu albatta o'zbek milliy metnalitetiga to'g'ri kelmaydi.) oilaviy qadriyatlarda qiz bolaning ibosi-hayosi yuqori o'rinda turgan. Ota-onaning oldida raqsga tushishi. Farzandlar otaning ko'ziga tik boqmagan. Bu o'zbek oilalariga xos qadriyatdir.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali namoyish etilyotgan taniqli shaxslarning turli xil ko'ngilsiz va axloqsiz videolarini chiqarishni nazoratga olish. Taniqli shaxslarni doim xalq kuzatgan va ularga taqlid ham qilishadi. Masalan ayol san'atkorlarimizni turli xil o'zbek qizi odob-axloqiga mos kelmaydigan so'zlarni

ishlatgan holda haqoratlarni videolar orqali ommaga oshkor qilish. Bu ham albatta axloqni buzlishiga kata ta'sir ko'rsatadi.

Oilada ota-onalarga farzandlarini diniy libos kiydirganda ularga avvalo bu kiyinish odoblarini to'g'ri tushuntirish kerak. Ayrim o'ranib olgan qizlarimiz orasida axloqsiz ishlarni amalga oshirib buni ijtimoiy tarmoqlarga yuklayotgani, xattoki o'rangan qiz sigareta chekkan holda o'zining bu videosini ijtimoiy tarmoqlarga joylamoqda. Bu qizlar bilan suhbat o'tkazilganda ularning ota-onalari xulqida og'ish bo'layotgani sababli shunday kiyinishga majbur qilganini aytishgan. Bunda farzandini diniy libos kiydirish bilan emas balki to'g'ri tushuntirish uni fikrini eshitib to'g'ri yo'l ko'rsatish maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Bunday noxush holatlar nafaqat diniy balki milliy qadriyatlarimizga ham zid holatdir.

Chegara bilmas internet tarmog'i orqali kirib kelayotgan "ommaviy madaniyat"ni targ'ib qiluvchi video roliklar tomosha qilishi natijasida yoshlarimiz tomonidan milliy madaniy meroslarimizga hurmatsizlik va jamiyatda yurish-turish qoidalarini buzganlik uchun intizomiy jazolarni kuchaytirish zarur. Bunday holatlar natijasida madaniy qadriyatlarimizga putur yetadi.

Albatta bunday salbiy holatlarni oldini olishda jahonda mashhur bo'lgan **to'rt qadam** modelini qo'llashni tavsiya qilaman. Bunda:

Birinchi qadam: Muammoni qo'yish. Targ'ibot orqali amalga oshiriladigan g'oyalar belgilab olinadi.

Ikkinchi qadam: Rejalashtirish va dasturlashtirish. Ushbu bosqichda strategiya ishlab chiqiladi. Dastlab ularni bu g'oyalarga munosabati o'rganiladi so'ng bartaraf etish yo'llari ko'rsatiladi.

Uchunchi qadam: Muloqotga kirishish. Bunda insonlar eng kop e'tiborini tortuvchi ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar qilish.

To'rtinchi qadam: Yakuniy xulosalar yasash.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak albatta yuqorida ko'rsatib o'tilgan salbiy holatlarni oldini olish va bunda imkoni bo'lsa taniqli mashhur yoshlar orasida ko'p e'tibor qaratilayotgan shaxslarni jalb qilish ular orqali o'z chiqishlarini va maqsadlarini amalga oshirish zarur.

Adabiyotlar:

1. Қадриятлар ва ижтимоий тараққиёт (илмий ишлар тўплами). –Т; “Ўзбекистон”, 1997. Б.198;

2. Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. “Ўзбекистон”, 2016.Б.146.

3. Тиллаева Г., Юсупов Қ., Бобоев Н., Халдибекова Ф., Юсупов А. Шахс маънавиятини шакллантириш омиллари ва воситалари. Т: “Фалсафа ва ҳуқуқ институти” 2009. Б.16.

OROL DENGIZINI QAYTA TIKLASH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN TADBIRLAR

Aldamurotova Aliya Marqabay qizi

Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

Kirish. Hozirgi kunda sayyoramizda inson faoliyatining salbiy ta'siri natijasida atrof muhitda sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Jumladan, iqlim o'zgarishlari, turli xildagi tabiiy ofatlar yer sayyorasining barcha kengliklarida sezilmoqda. Oqibatda o'rmon bilan qoplangan maydonlar qisqarmoqda, atmosfera, suv va litosfera ifloslanmoqda.

Tabiiy muhit holatining inson ta'sirida o'zgarishi, jonli va jonsiz komponentlarga kuchli antropogen ta'sir mahalliy, mintaqaviy va umumjahon ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Jumladan, shu kabi ta'sir natijasida mintaqadagi ekologik inqirozning eng xavfli nuqtasi hisoblangan "Orol muammosi" vujudga keldi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi haqida gap borganda albatta Orol dengizi ko'z oldimizga keladi. Oldingi yillarda Respublika faxriga aylangan Orol dengizi chekina boshladi. Orol dengizining qurib borishi birgina Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun emas, balki butun jahon muammosiga aylandi. Qoraqalpog'iston Respublikasi maydoni 166.6 ming km²ni tashkil qilsa, Orol dengizi Respublika hududining 27 km³ maydonini egallab turibdi.[1]

Orol boshqa katta suv havzalariga bog'lanmagan ichki dengiz hisoblanadi. Orolni tarixiga kelsak, Orolning paydo bo'lganiga taxminan 30 ming yil bo'ldi degan taxminlar mavjud. Ba'zi olim, professorlar taxmini va ilmiy izlanishlari natijasiga ko'ra 300-400 ming yil oldin paydo bo'lgan degan taxminlar ham ilgari surilgan. Mahalliy xalqning aytishi bo'yicha Amudaryo va Orol dengizi yilnomasi tuzildi. Unda O'rta Osiyodagi barcha Orol bilan bog'liq bo'lgan yillar bayon etilgan. Unga ko'ra:

*150-170 yillarda yer yuzasida turli tektonik jarayonlar yuzaga keldi. O'sha paytlarda Hind okeanidan Kaspiy dengizi ajralib ulkan ko'l hosil bo'ldi.

*22 ming yil oldin esa Amudaryo 3 ta yirik irmoqqa ajralgani va uni turli xalqlar turlicha nomlangani aytilgan.

*2-3 yil avval Amudaryoning Davdan va O'zboy irmoqlari qurib qoldi. Keyin esa uning suv sathi va hajmi ko'payib yana yangi irmoqlarni hosil qildi. Bu irmoqlar suvni endi orolga quya boshladi.

*25-27 yil muqaddam esa Amudaryo suvi shunchalik ko'paydiki o'sha paytlari Orol suv sathi 58-59 metrni tashkil qildi

*Eramizning 712-850 yillaridan oldin Arab dengizi deb yuritilgan Orolga "Orol dengizi" nomi berildi

*990-996 yillarda Amudaryo suvi nihoyatda toshib ketdi. Ba'zi hududlarni esa suv bosdi.

*Mo'g'illar davrida esa Orol sathi oldingi yillarga qaraganda pasaydi. Uning asosiy sababi qilib Amudaryoning suvi Kasbiy tomonga burilgani edi.

*1572 yillarga kelib yana Amudaryo suvi Orolga burildi

*XVI-XVII asrlarda dengiz va geomorfologiya olimlari ya'ni N.G.Brodskaya R.V.Nikolayeva V.P.Lgvov ilmiy izlanishlar olib bordi. Natijada oldingi yig'ilgan ma'lumotlarga qaraganda ancha farqli ma'lumotlar topildi

*1780-1978 yillar oralig'ida orol suvi sathi qurish alomatlari sezila boshladi

*1848 yillarda A.P.Butakov boshchiligida ilmiy ekspeditsiya tashkil etildi. Uning ekspeditsiyasida Orol xaritasi tuzildi hayvonot olami o'simliklari o'rganildi

*1886 yil Amudaryo floti tashkil etildi. O'sha paytlari Orol va Termiz o'rtasida suvdan savdo maqsadida narsalar tashilgan

*1958 yilda temiryo'l ishga tushirillishi bu savdo yo'lining qo'llanilmasligiga olib keldi.[2]

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov BMT Bosh assambelyasidagi nutqida: "Orol inqirozi – insoniyat tarixidagi eng yirik ekologik va gumanitar fojialardan biridir. Dengiz havzasida yashovchi millionlab insonlar uning ta'siri ostida qoldilar. Bir necha yillar mobaynida biz dunyodagi eng yirik yopiq suv havzalaridan birining yo'qolib ketishiga guvoh bo'ldik. Bir avlod ko'zi o'ngida butun bir dengizning yo'q bo'lib ketishi kabi hodisa hali sodir bo'lmagan"

XX-asrning 60 yillaridan Orol dengizi qurib boshladi. Orolning maydoni 52.5 km.kub.suvdan 1980 yilga kelib 10.5 km.kub.suv kamaydi.Orol dengizi asosan Mo'ynoq tumani va Qozog'iston respublikasining bir qismida joylashgan. Orol muammo hammani tashvishga sola boshladi. Bir vaqtlar hamma havas qiladigan shovqinli, ko'rkam, moviy, salobatli, ko'rishni orzu qiladigan orol yildan yilga qurib boshladi. Yirik adabiyotshunos va adib Pirmat Shermuhammedov Orolni shunday tasvirlaydi: "Ko'z oldingizdagi ufq bilan tutashib ketgan baxri a'zim. Uning shifobaxsh, o'rkach – o'rkach to'lqinlari, moviy kengliklarida o'ynab yurgan baliqlar ruhini ko'tarardi. Turna qator tizilagan paraxodlar, uzun – qisqa barjalar, yengil tebranadigan qayiqalar e'tiborni tortadi".

Orol dengizining bir qismi qo'shni Qozog'iston hududida ham joylashgan. Qozog'iston hududidagi qismida asosan baliqchilik sanoati asosiy hisoblangan. Qozog'istonda Orol qurishi natijasida 33 % yerlar sho'rlanish kuzatildi. Katta sho'rlanish natijasida kasalliklarlar soni keskin ortti. Bu muammoni yechish maqsadida Qozog'iston ekologiya hukumati bilan kelishilgan halda Jahon Bankidan 85 million dollar kredit olinadi. Keyin Orolning janubiy qismiga to'g'on quriladi. Natijada dengizni janubida qurish davom etmoqda lekin shimoliy qismida qurish anchagina to'xtadi. Shuning natijalarida 40 % joylar qayta tiklandi, lekin achinarlisi Qozog'iston hududidagi qismi qisman hayotga qaytgan bo'lsa,

O'zbekiston hududida esa kichik–kichik orolchalar paydo bo'la boshladi. O'zbekiston hududidagi 90 % hudud sahroga aylandi. Buning asosiy sababi deb asosan yangi paxta yerlarini suv bilan ta'minlashda Amudaryo va Sirdaryo suvlari o'sha hududlarga burilishi edi. Natijada Orol hududi hozirgi kunda Irlandiya hududiga tenglashdi. Bu fojia o'sha joyda yashovchi xalqqa katta zarar keltirdi. Xalqning sog' lig'ida ham o'zgarishlar kuzatildi. Odamlarda nafas yo'llarida va buyrak xastaliklari, sil ko'p tarqalgan. Ayollar va bolalarda kam qonlik, bolalar ichketishdan vafot etishlari ham kuzatildi. Bunga asosiy sabab qilib Oroidan uchayotgan tuz va qumlar deb ko'rsatishdi. Buni oldini olish maqsadida Orolning qurigan joylarida tuzlarni ushlab qolish uchun saksovullar ekildi. Qarib 3million gektar yerga saksovul ekildi. Ekilgan saksovullarning 25-26 %i yashab ketdi. Saksovul tuz uchishining oldini olishdagi eng yaxshi samarali vosita sifatida tanlandi. Saksovulning eng asosiy xususiyati har qanday joyga moslasha oladi, u sho'r va changga chidamli, bir tub saksovul o'z ildizi bilan 10 tonnagacha qum va tuzni tutib turadi. Saksovulzorlarning ko'payishi oldingiga nisbatan tuz va qumlarning uchishi kamaydi. Bu esa oldin yo'qolib ketgan giyohlar va o'simliklar qayta tiklanishiga sabab bo'ldi. Bu muammo barcha tashkilot va muassalarda keng muhokama qilindi. Oliy Majlis Senatining Orolbo'yi mintqasini rivojlantirish masalalari qo'mitasi raisi Boriy Alixonov aytishi bo'yicha bu hududda "Qizilqum" va "Qoraqum" o'rtasida maydoni 5 million gektarga teng yangi "Orolqum" sahrosi paydo bo'ldi degan edi. Orolbo'yi hududini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadbir ko'lamini nazar tashlasak misli ko'rilmagan natijaga erishildi. Bu hudud uchun 67 ta loyiha ishlab chiqildi. Bu hududga eng yaqin tuman Mo'ynoq shunchalik o'zgardiki ta'riflash qiyin. Mo'ynoq tumani qayta barpo etildi desak adashmagan bo'lamiz. U yerda turli sog'lomlashtirish markazlari ochildi, Orolni qutqarish uchun ilmiy hodimlar uchun hamma sharoitga ega binolar barpo qilindi, yoshlar uchun esa turli ko'rik tanlovlar uyishtirildi. Shuningdek "Kemalar qabristoni" deb tilga olinadigan maskan sayyoh va yosh qiziquvchilarning sevimli joyiga aylandi. Hozirgi kunlarda esa "My garden in the Aral Sea" ("Oroidagi bog'im") agro va ekoturizm loyihasi amalga oshirilmoqda.[3] Bundan tashqari Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sherikchilik asosida "Trast" jamg'armasi tashkil etildi. Bu jamg'arma ko'magi bilan 47 ta loyiha loyihalashtirildi. Hattoki bu muammo BMT tomonidan ham jiddiy e'tiborga olindi. 2017 yil sentabr oyida bo'lib o'tgan BMTning 72-sessiyasida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev bu muammo qanchalik ahamiyatli ekanligini ta'kidladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev nutqida: "Bugungi kunning eng o'tkir ekologik muammolaridan biri-Orol halokatiga yana bir bor e'tiboringizni qaratmoqchiman. Dengizning qurishi bilan to'liq oqibatlarni bartaraf etish xalqaro miqyosdagi sa'y-harakatlarni faol birlashtirishni taqozo etmoqda" degan edilar. BMTning Taraqqiyot dasturi ko'magida Orol hududidagi

qishloqlarda biznes loyihalarni qo'llab-quvvatlash ishlari tashkil etildi. Shu munosabat bilan 2020-yil "Yashil Orol dengizi" tashabbusini boshladi. Bu tashabus natijasida 100 gektar quruq dengiz tubiga saksovul ekildi. Bundan tashqari yashillikni qaytarish ishlarini Koreya agentligi (KOICA) moliyalashtirdi. Boriy Alixonovning aytishi bo'yicha "Orolni qayta tiklay olmaymiz buni iloji yo'q, lekin uni hozirgi zararlarini kamaytirishimiz mumkin" degan edi nutqida. Hozirgi kunda oldimizda turgan masala bu shu yerda xalq salomatligi barqaror saqlash hisoblanadi. Orolni chekinishi ham bir tomondan uning qurigan qismida ilmiy ishlar olib borishga imkon berdi. Bu ilmiy ish rahbari qilib Maxmud Allamuratov ish olib bordi.[4] Maxmud Allamuratovning ekologiyalik va qurigan qismda to'qoy va chorvachilik ishlarini rejalashtirdi va ayrim fermer xo'jaliklarida sinab ko'rishdi. Bu esa oldin baliqchilik bilan shug'illanib kelgan xalqning endilikda chorvachilikda ham o'zini sinab ko'rish uchun yaxshi imkoniyat bo'ldi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, agar bu muammolar barchasi faqat Orolbo'yi bilan cheklansa, masala unchalik chigallashmasdi. Taassufki, qurib borayotgan Orol ayni kunda juda katta hududga ta'sir o'tkazmoqda. Gap shundaki, Orol dengizi ustidan qudratli shamol oqimlari tez o'tayapti. Bu oqimlar endilikda dengizning ochilib qolgan tubida yotgan ming-ming tonna tuz, ximikatlar va zaharli changlardan iborat xavfli aralashmani osmonga ko'tarib chiqdi. Zaharli changlar atmosferaning yuqori qatlamlariga yetib borib, nafaqat butun Osiyo qit'asi hududiga, balki Yevropaga ham yetib bordi. Shubhasiz, yomg'ir va qor aralash yoqqan tuz yomg'irlari zaminga tushgach, barcha tiriklikni nobud qilmoqda. Yuqorida ta'kidlaganimizdek insoniyat va tabiyat o'rtasida aloqa buzildi va salbiy oqibatlarga olib keldi. Insoniyat uchun bu yaxshi tarbiya bo'lib qoldi. Inson o'z qonuniyatlarini tabiyatga o'tkazmasa, unda bu tabiyat ham deyarli o'zgarmaydi. Endilikda hamma birgalikda harakat qilishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mo'min Azizov. Orol dengizi qachon paydo bo'lgan? // <https://qashqadaryo.uz/oz/nview/orol-dengizi-qachon-paydo-b%D0%BE-lgan-01-05>
2. Abdurauf Qorjovov. Dunyoda misli ko'rilmagan ishlar. // <https://yuz.uz/uz/news/dunyoda-misli-korilmagan-ishlar>
3. Оролни йўқотиш даҳшатлари ва мисли кўрилмаган саксовулзорлаштириш ҳақида Борий Алихонов билан суҳбат. // <https://kun.uz/uz/news/2019/10/31/orolni-yoqotish-dahshatlari-va-misli-korilmagan-saksovulzorlashtirish-haqida-boriy-alixonov-bilan-suhbat?q=%2Fuz%2Fnews%2F2019%2F10%2F31%2Forolni-yoqotish-dahshatlari-va-misli-korilmagan-saksovulzorlashtirish-haqida-boriy-alixonov-bilan-suhbat>
4. <https://stan.kz/aral-tenizi-turaly-dereker/>

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ ИСЛОҲ ЭТИШ – ТАРАҚҚИЁТ ГАРОВИДИР

Алиев Тўлқин Тургунович

Тошкент молия институтининг ўқитувчиси

Ҳаммамизга аёнки, тараққиётнинг тамал тоши ҳам, мамлакатни қудратли, миллатни буюк қиладиган куч ҳам бу — илм-фан, таълим ва тарбиядир. Эртанги кунимиз, Ватанимизнинг ёруғ истиқболи, биринчи навбатда, таълим тизими ва фарзандларимизга бераётган тарбиямиз билан чамбарчас боғлиқ.

Шавкат Мирзиёев

Бугун янги Ўзбекистон жаҳон ҳамжамияти сафида ўз ўрнига эга бўлиб бормоқда. Мамлакатдаги ҳар бир соҳа замонга хос ва мос тарзда ривожлантирилиб, ҳар бир соҳада янгиланиш нафаси уфурмоқда. Ўзбекистон Республикасида олий таълимни тизимли ислоҳ қилишнинг устувор йўналишларини белгилаш, замонавий билим ва юксак маънавий-ахлоқий фазилатларга эга, мустақил фикрлайдиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, олий таълимни модернизация қилиш бугунги кунда учинчи ренессанс шаклланиш жараёнининг асосий эҳтиёжлардан бири ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони¹⁶, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 17 февралдаги “Фанлар академияси фаолияти, илмий-тадқиқот ишларини ташкил этиш, бошқариш ва молиялаштиришни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2789-сонли Қарори¹⁷, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги «Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-5847-сонли Фармони¹⁸, Ўзбекистон

¹⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сонли Фармонининг “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси”. Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлар тўплами, 2017 йил, 6-сон, 70-модда.

¹⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 17 февралдаги “Фанлар академияси фаолияти, илмий-тадқиқот **ishlarini** ташкил этиш, бошқариш ва молиялаштиришни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2789-сонли Қарори//“Халқ сўзи”, 2017 йил 18 февраль.

¹⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги «Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-5847-сонли Фармони//Lex.uz.

Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони¹⁹ асосан бугунги кунда Олий таълим соҳасида амалга оширилиши зарур бўлган масалалар, олий таълим тизимини ислоҳ қилиш, таълимда янги педагогик ва инновацион технологиялардан кенг фойдаланиш зарурлиги ва мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга ошириш белгилаб берилган.

Ҳаракатлар стратегияси даврида олий таълим тизимини ислоҳ қилишга оид қатор самарали ишлар амалга оширилди. Хорижий мамлакатлар билан қўшма таълим дастурлари доирасида 64 та янги касб бўйича мутахассислар тайёрлаш йўлга қўйилди. Олий таълим муассасалари сони 2016/2017 ўқув йилида **70 та**, 2021/2022 ўқув йилида эса **154 тани** ташкил қилди. Бугунги кунда олий ўқув муассасалари сони қарийб 2,5 баробар кўпайиб, **186 тага** етди. Уларнинг **31 таси** дунёдаги етакчи университет ва институтларнинг филиалларидир²⁰.

Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси ва Давлат дастурида олий таълим билан қамров даражасини 50 фоизга етказиш, таълим сифатини ошириш, 2026 йилга қадар 10 та салоҳиятли олий таълим муассасасини QS ва THE халқаро рейтингларига киришига мақсадли тайёрлаш ва қарийб 100 минг ўринли талабалар турар жойларини барпо этиш каби вазифалар белгилаб олинди. Олий таълим муассасаларида таълим олаётган талабалар сони 2016/2017 ўқув йилидаги **268,3** минг нафардан 2021/2022 ўқув йилида **808,4** минг нафарга етди. Ҳозирда олий ўқув юртларига қабул квотаси **3,5** баробар, олий таълим қамрови эса **9** фоиздан **38** фоизгача ошганини қайд этиш лозим. Шу билан бирга мазкур тизимда муаммо ва камчиликлар ҳам йўқ эмас, албатта. Хусусан, сўнгги 2 йил давомидаги коронавирус пандемияси олий таълим соҳасига ҳам салбий таъсир кўрсатди, мавжуд камчиликларни намоён қилди.

Мазкур муаммо ва камчиликларни босқичма-босқич ҳал этиш борасидаги қатор вазифалар Тараққиёт стратегиясида қатъий белгилаб олиниб, бугунга қадар тизимли ишлар амалга ошириб келинмоқда.

Хусусан, Давлат дастурининг 212–214-бандлар ижросини таъминлаш мақсадида 2022 йил 15 июнда Президентнинг «**Давлат олий таълим муассасаларига ўқишга қабул қилиш жараёнларини ташкил этиш**

¹⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони//Lex.uz

²⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947- сонли Фармонининг “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси”//Lex.uz

тўғрисида»ги қарори қабул қилинди. Унда, 2022/2023 ўқув йилидан бошлаб давлат олий таълим муассасаларида уларнинг имкониятларидан келиб чиққан ҳолда бакалаврият таълим йўналишлари бўйича масофавий таълим шакли жорий этилиши, давлат олий таълим муассасалари магистратурасига қабул бир йилда икки марта – август ва январь ойларида ташкил этилиши, давлат ОТМлар магистратурасига қўшимча қабул параметрлари асосида ўқишга қабул қилинган абитуриентларнинг тўлов-контракт суммаси бир талабага тўғри келадиган реал харажатлардан келиб чиқиб, ОТМ томонидан мустақил белгиланиши ҳамда 2023/2024 ўқув йилидан бошлаб давлат ОТМларга ўқишга қабул қилишнинг давлат буюртмаси параметрлари фақат давлат гранти бўйича тасдиқланиши белгиланди. Шунингдек, мамлакатга хорижий талабаларни жалб қилиш мақсадида давлат олий таълим муассасаларига чет эл фуқароси олий таълим муассасаси томонидан ўтказиладиган суҳбат натижасига кўра ўқишга қабул қилиниши қайд этилди.²¹

Қарорнинг эътиборли жиҳатларидан бири, Оила ва хотин-қизлар давлат қўмитасининг тавсияномасини олган, олий маълумотга эга бўлмаган хотин-қизлар учун 2022/2023 ўқув йилидан бошлаб бакалавриятнинг кундузги таълим шакли бўйича умумий белгиланган давлат гранти асосидаги қабул параметрларига қўшимча **2000** та давлат гранти ажратилиши бўлди. Бу, хотин-қизларнинг олий таълим билан қамровини ошириш, уларнинг давлат ва жамиятдаги фаоллигини кучайтириш, гендер тенгликни таъминлаш бўйича амалга оширилаётган ислохотларнинг мантиқий давоми бўлди. Бунда олий таълим муассасалари, техникум ва коллежлар, сиртқи ва кечки таълимда ўқиётган хотин-қизларнинг контракт пулларини тўлаш учун **7** йилга фоизсиз кредит бериш, давлат олий таълим муассасаларининг магистратура босқичида ўқиётган барча хотин-қизларнинг контракт тўловлари тўлиқ давлат бюджетидан қоплаб берилиши тартиби жорий қилинди.

Таъкидлаш жоизки, хорижий олий таълим муассасаларига бакалаврият учун – **50** нафар, магистратура учун – **10** нафар хотин-қизга ҳар ўқув йилида «Эл-юрт умиди» жамғармаси орқали қўшимча грантлар ажратилади. Энди ҳар йили ижтимоий эҳтиёжманд оила вакиллари, етим ёки ота-онасининг қарамоғидан маҳрум бўлган талаба хотин-қизларнинг таълим контрактлари маҳаллий бюджетдан тўлаб берилади, докторантура йўналишида хотин-қизлар учун **300** тадан мақсадли квота ажратилади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 15 июндаги Ф-60-сон

²¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони//Lex.uz

фармойишига мувофиқ 2022/2023 ўқув йили учун давлат ОТМга ўқишга қабул қилишнинг давлат буюртмаси параметрлари умумий квотаси **121 395** та этиб белгиланди. Жумладан, бакалавриятга **110707** (*шундан кундузги таълим шаклига – 77 477, сиртқи таълим шаклига – 26 095, кечки таълим шаклига – 3 725, масофавий таълим шаклига – 3 410 нафар*) ва магистратга **10 688** нафар ўрин ажратилди. Шу билан бирга, молиявий мустақиллик берилган **36** та давлат ОТМнинг тўлов-контракт бўйича **50** мингдан ортиқ абитуриент олиш бўйича қабул параметри кузатув кенгашлари қарори билан тасдиқланди. Натижада жорий ўқув йилида қабул параметри ўтган йилга нисбатан кескин ошди. Молиявий мустақиллик берилган олийгоҳлар томонидан магистратурага **2 904** нафар талаба қабул қилинди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти ташаббуси билан олий таълим ташкилотлари учун академик ва ташкилий, шунингдек, молиявий мустақилликнинг берилиши ҳамда Кенгашлар ваколатларининг кенгаяётгани таълим соҳасидаги давлат сиёсатини амалга ошириш, сифатли таълим хизматларини таъминлаш ва бу борада Президент ҳамда ҳукуматимиз белгилаб берган вазифаларни тўла-тўқис адо этиш орқали мамлакатимиз тараққиётини белгилаб берувчи салоҳиятли кадрлар тайёрлашга кенг имкониятлар яратади.

ҚИЗИЛОЛМАСОЙ МАЪДАНЛИ МАЙДОНИ УЗИЛМАЛИ СТРУКТУРАЛАРИ ВА УЛАРНИНГ МЕТАЛЛОГЕНИК АҲАМИЯТИ


Амиров Элёр Мансуриддин ўғли

Ҳ.М. Абдуллаев номидаги таянч докторанти (PhD)

Ҳакимов Шоҳруҳ Салоҳиддин ўғли

Тошкент Давлат Техника университети магистранти

Қизилолмасой маъданли майдони маъмурий жихатдан Тошкент вилояти Охонгарон туманида жойлашган. Маъданли майдон жанубий-ғарбда ва жанубда Қизилолмасой, жанубий-шарқда Гўшсой, шимолда Оқтурпак ёриқлари билан чегараланган тектоник блокда жойлашган (1-расм). Маъданли майдон шарқий чегараси шартли равишда Корабоғ сойи бўйлаб чегараланган. Ушбу блокдаги маъданли майдон ҳудуди 23 км².



Масштаб-1:200 000

1-расм. Шарқий Ўзбекистоннинг обзорли геологик харитаси. В.А.Арапова (1972й.), Г.А.Абдурахманова (1984й.), А.Е.Лебединск ва бош. (1991й.) материалларидан фойдаланган ҳолда В.В.Поморцев, Н.П.Зимакова ва бошқ. (2000й.) томонидан тузтилган.

Қизилолмасой маъданли майдони ва Қизилолма конининг структуравий асосини ташкил этувчи ҳар хил томонга йўналган турли тектоник ёриқлар туфайли иккита структуравий қават ва блокли структуранинг мавжудлиги билан тавсифланади [1].

Пастки структура қаватига гранитоидлар ва турли хил таркибдаги кўп сонли тоғ жинсларидан ташкил топган фундамент киради. Юқори структуравий қавати андезит-дацит формацяли вулқон жинслари билан тавсифланган. Уларнинг қалинлиги юқори блоklarдаги фундаментнинг чуқурлиги ва шунга мос равишда ривожланган вулканоген қопламанинг қалинлиги 600-650 м гача етади [2].

Қизилолмасой, Қорабоғ, Самарчук ва Гўшсой ер ёриқлари энг муҳим маъдан хосил қилувчи ҳисобланади. Айниқса Қизилолмасой, Қорабоғ, Самарчук ер ёриқлари асосий маъдан таналарини шакллантирувчи тектоник қурилмаларидир. Бу ер ёриқлари билан боғлиқ равишда Марказий, Междурече, Самарчук, Чумаук, Шимолий-Ғарбий, Туячавул, Қиррали участкаларида саноат аҳамиятига эга бўлган олтин-кумуш минераллашуви хосил бўлган [3]. Сўнгги йилларда Междурече участкаси ҳудудида қидирув ва баҳолаш ишлари давомида Гўшсой ёриғига сарҳадларида олтин-кумуш минераллашувининг саноат аҳамиятига эга бўлган маъдан таналари аниқланган.

Қуйида майдондаги маъдан таналари шаклланишида амалий аҳамият касб этган ер ёриқларининг қисқача тавсифи келтирилган:

Қизилолмасой ер ёриғи ҳудуддаги қалин бўлмаган алоҳида зона бўлиб, у катта чуқурликларга чўзилган. Ёриқнинг умумий йўналишига мос

келадиган (субпараллел йўналган) бир қатор йирик ёндош ёриқлар ва улар билан боғлиқ ҳолатда ривожланган гидротермал ўзгарган жинслар, кварц томирлари ҳамда кварцлашиш зоналари биргаликда кузатилади. Зонанинг узунлиги тахминан 8 км, қалинлиги эса 150-250 м га етади. Ер ёриғининг шимолга қараб ётиши шарқий қисмида $50-60^\circ$, шимолий-ғарбий қисмида эса нисбатдан тикроқ - $70-80^\circ$ бурчак остида кузатилади. Ер ёриғининг шарқий қисмида (Марказий ва Междурече участкаларида) маъданлашув зонасининг катта қалинлиги минераллашув участкаларининг мўрт бўлмиш порфиритлар ва уларнинг контакт қисмидаги сланецларнинг бурдаланиш даражаси ҳамда ушбу шароитда жадал кечган гидротермал жараёнларнинг кенг ривожланиши билан изоҳланади.

Ер ёриғининг шимолий-ғарбий қисмида сланецлар деярли йўқ, мустаҳкамлиги жиҳатидан бир хил бўлган порфиритлар ва гранитлар устунлик қилади. Бу ерда ер ёриқлари нисбатан кам бўлиб, мавжуд бўлган ёриқлар, бурдаланиш зоналари ва иккиламчи ўзгаришлар яхши ривожламаган.

Ер ёриқларининг бурилиш жойларида ёриқланиш зонаси шохсимон кўптармоқли кўринишга эга бўлиб унинг қалинлиги ошади. Деформация натижасида вужудга келувчи такрорий силжишлар ҳам структуранинг мураккаблашишига олиб келади. Маъдан ҳосил бўлиш босқичи тектоник фаолликнинг кучайиши билан боғлиқ бўлиб, турли босқичларда пайдо бўлган узилмали қурилмаларнинг фаоллиги жадаллашуви билан изоҳланади. Майдоннинг шарқий қисмида Қизилолмасой ер ёриғи чўзилиши бўйлаб қийшиқ кесилган ва ёш Гўшсой ёриғига тўқнашган.

Шимолий қисмидаги ётиш бурчаклари 20 дан 40° гача ўзгариб туради. Маъдандор структура бир қатор субпараллел ёриқлар (силжиш юзалари), кварц томирлари, кварцлашиш зоналари ва бошқа гидротермал ўзгаришлар, фельзит дайкалари ва эксплозив брекчияларнинг томирсимон таналари билан ягона маконда кузатилади. Ушбу қисмдаги ер ёриғининг қалинлиги $10-15$ м дан $80-90$ м гача етади. Ёрилиш зонасининг блокли тузилишини ташкил қилувчи фундамент ҳосилалари ва вулқон жинслари жойлашувига кўра Чумаук майдонидагига нисбатан бирмунча оддий тузилишга эга. Бу ерда ҳам тоғ жинсларининг бурдаланган қисмлари кварцлашув зоналари, кварц томирлари ва фельзит дайкаларининг тарқалиши билан боғлиқ ҳолда кузатилади (В.Д.Цой ва б., 2020). Майдоннинг ер юзасига яқин қисмларида ва ўрта сатҳларида Қорабоғ ер ёриғи вулканоген қопламанинг пастки ва устки жинслари ўртасида контакт бўлиб хизмат қилади ва маъдандор ҳисобланади.

Самарчук ер ёриғи Гўшсой ва Қорабоғ ер ёриқлари оралиғида жойлашган бўлиб, узунлиги $1,3$ км. Ушбу ёриқнинг майдон юзасида

кузатилган қисмининг чўзилиши субмеридионалдан шимолий-шарққача, чуқурликда эса субмеридионал йўналишга тўғри келади, ётиш бурчаклари 40-50° шимолий-ғарбга. Ер ёриғининг 300-400 м чуқурликдаги қисми гранитоидли фундамент билан андезит-дацит таркибли вулқон жинслари ўртасидаги қоплама чегара бўлиб хизмат қилади, чуқурроқ қисмида эса ёриқ фундамент жинслари бўйлаб давом этади [4]. Ер ёриғининг вертикал қирқимдаги силжиш амплитудаси камида 400-500 м га етади [4-5]. Ер ёриғи кучли кремнийланиш зонаси (“Олтинли” томир), фелзит дайкаси, эксплозив брекчиялари ва тоғ жинсларининг майдаланиши ва қамровчи тоғ жинсларининг метасоматик ўзгаришлари билан ифодаланади. Қалинлиги бир неча ўн см дан 15-20 м гача бўлган фелзит дайкаси “Олтинли” томирнинг ҳам юқори, ҳам пастки қисми билан чегараланган. Томир морфологияси ўзгарувчан, қалинлиги 2-3 м дан 25-30 м лентасимон тана бўлиб, чўзилиши бўйлаб кўпроқ букилишларга эга. Бурғилаш ишлари билан ўрганилган «Олтинли» томирнинг тарқалиш чуқурлиги ётиши бўйлаб 800-1000 м, чўзилиши 1200-1300 м гача етади.

Гўшсой ёриғи минтақавий қурилма бўлиб, маъдан конининг жанубий чегараси ҳисобланади ва муҳим маъдан қамровчи структура бўлиб хизмат қилади. Чўзилиш йўналиши - шимолий-шарққа, ётиш бурчаклари шимолга томон 45-60°. Ер ёриғининг генетик тури – ташланми (взброс) бўлиб, юқори блоки вертикал равишда 400-500 м гача кўтарилган. Қалинлиги 20-30 м гача бўлган ер ёриғи зонаси жинсларнинг интенсив бурдаланиши билан ифодаланади. Ер ёриғидаги тектоник гиллар қалинлиги 10-20 см дан 1-2 м гача етади. Междурече участкасида, қудуқларни бурғилаш маълумотларига кўра, кварцлашиш зонаси олтин-кумуш минераллашуви билан бойиган.

Хулоса. Қизилолмасой маъданли майдони ҳудудидаги Қизилолмасой, Самарчук, Гўшсой ер ёриқлари маъдан жойлашувида қулай структуравий муҳит ҳисобланади. Ушбу омилларнинг аҳамиятини маъданли майдондаги Междурече, Самарчук, Шимолий-Ғарбий, Туячавул участкаларида олиб борилган геология қидирув ишлари натижаларида яққол кўришимиз мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Амиров Э.М., Юсупов А.А., Мардиев И.О. “Ўрта Осиё геологиясини ўрганишнинг ҳозирги ҳолати ва истиқболлари” Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. Т.: 2021 йил 23 декабрь, Навоий шаҳри. № 1 том. – С.152-157.

2. Рахматиллаев И.М. “Деятельность Восточно-Кураминской ГРЭ и история месторождений”. Монография. Т. Ангрэн-2017.

3. Исламов Б.Ф. Факторы локализации золото-серебряного оруденения месторождения Кызылалмасай и критерии его глубинного прогноза (Юго-Западные отроги Чаткальских гор) / Диссертация на соискание учёной степени кандидата геол.-мин. наук. Т.: 2011.153 с.

4. Умаров А.З. Геохимия и минералогические особенности золоторудного месторождения Самарчук (Кызылалмасайское рудное поле, Узбекистан). Т. Ташкент – 2021.

5. Исламов Б.Ф., Исламов Ф.И. О перспективах глубоких горизонтов золотосеребряного месторождения Кызылалмасай (Узбекистан) // Геология и минеральные ресурсы. 2008. № 1. – С.19-25.

ОПИСАНИЕ НЕКОТОРЫХ ПРОСТРАНСТВ 2-ЛОКАЛЬНЫХ ЛИНЕЙНЫХ ОПЕРАТОРОВ ВЕКТОРНЫХ ПРОСТРАНСТВ МАЛЫХ РАЗМЕРНОСТЕЙ

Арзикулов Фарходжон Нематжонович

*Главный научный сотрудник математического
института им. В.И. Романовского АН РУз,*

Убайдуллаева Мафтуна Анваржон кизи

аспирант Наманганского государственного университета

Напомним, что для линейного отображения T , отображающего банахову алгебру A в банахову алгебру B , если для каждого a из A существует гомоморфизм $\Phi_a: A \rightarrow B$ такой, что выполняется условие $T(a) = \Phi_a(a)$, то T называется локальным гомоморфизмом.

Позже С. Ковальски и З. Слодковски [3] дают другую характеристику мультипликативных линейных функционалов в банаховых алгебрах. Они доказывают, что каждый 2-локальный гомоморфизм T , отображающий комплексную банахову алгебру A (вообще говоря, некоммутативную или унитарную) в поле комплексных чисел \mathbb{C} , является линейным и мультипликативным. Как следствие всякий (не обязательно линейный) 2-локальный гомоморфизм T , отображающий A в коммутативную \mathbb{C}^* -алгебру, является линейным и мультипликативным.

Аналогичное понятие было введено и изучено для описания дифференцирований в операторных алгебрах. А именно, понятие 2-локального дифференцирования было введено П. Шёмрлом в его статье [4] в 1997 г. П. Шемрл доказал, что 2-локальное дифференцирование в алгебре $B(H)$ всех ограниченных линейных операторов в

бесконечномерном сепарабельном гильбертовом пространстве H является дифференцированием.

После этого несколько работ были посвящены описанию 2-локальных отображений в различных типах колец, алгебр, банаховых алгебр и банаховых пространств.

В этой статье мы описали некоторые пространства 2-локальных линейных операторов в векторных пространствах малой размерности. Напомним, что 2-локальный линейный оператор определяется следующим образом: пусть задано векторное пространство A , и пусть $\Delta: A \rightarrow A$ – отображение, которое, вообще говоря, не обязательно является линейным. Тогда, если для каждой пары $x, y \in A$ элементов существует линейный оператор $T_{x,y}: A \rightarrow A$ такой, что $\Delta(x) = T_{x,y}(x)$, $\Delta(y) = T_{x,y}(y)$, то Δ называется 2-локальным линейным оператором.

Предположим, что \mathbf{R}^3 – трехмерное арифметическое векторное пространство, пусть $\{e_1, e_2, e_3\}$ – его базис. Предположим, что матрица произвольного линейного оператора, определяющего 2-локальный линейный оператор Δ_1 , имеет следующий вид:

$$\begin{aligned} L^1(x) &= \alpha x_1 e_1 + (\beta x_1 + 2\alpha x_3) e_3 = \begin{pmatrix} \widehat{\alpha x_1} \\ 0 \\ \beta x_1 + 2\alpha x_3 \end{pmatrix} \\ &= \begin{pmatrix} \alpha & 0 & \widehat{0} \\ 0 & 0 & 0 \\ \beta & 0 & 2\alpha \end{pmatrix} \begin{pmatrix} x_1 \\ x_2 \\ x_3 \end{pmatrix}, \end{aligned}$$

где $x = x_1 e_1 + x_2 e_2 + x_3 e_3$ и $\widehat{}$ – операция перехода из координат в элемент. Другими словами, для каждой пары $x, y \in A$ взятой из арифметического векторного пространства \mathbf{R}^3 , существует линейный оператор $L_{x,y}^1: A \rightarrow A$ указанного выше вида такой, что $\Delta(x) = L_{x,y}^1(x)$, $\Delta(y) = L_{x,y}^1(y)$. В этом случае множество всех 2-локальных линейных операторов, определенных таким образом, образует векторное пространство. Обозначим это векторное пространство через $L(L^1)$.

Аналогично рассмотрим 2-локальный линейный оператор Δ_2 , определенный с помощью линейных операторов с матрицей следующего вида:

$$\begin{aligned} L^2(x) &= \alpha x_3 e_1 + (\alpha x_2 + 2\beta x_3) e_2 + (\alpha x_1 + 2\beta x_2 + 3\eta x_3) e_3 = \\ &= \begin{pmatrix} \alpha x_3 \\ \alpha x_2 + 2\beta x_3 \\ \alpha x_1 + 2\beta x_2 + 3\eta x_3 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 0 & 0 & \alpha \\ 0 & \alpha & 2\beta \\ \alpha & 2\beta & 3\eta \end{pmatrix} \begin{pmatrix} x_1 \\ x_2 \\ x_3 \end{pmatrix}, \end{aligned}$$

где $x = x_1e_1 + x_2e_2 + x_3e_3$. Другими словами, для каждой пары $x, y \in A$ взятой из арифметического векторного пространства \mathbf{R}^3 , существует линейный оператор $L_{x,y}^2: A \rightarrow A$ приведенного выше вида такой, что $\Delta(x) = L_{x,y}^2(x)$, $\Delta(y) = L_{x,y}^2(y)$. В этом случае множество всех 2-локальных линейных операторов, определенных таким образом, образует векторное пространство. Обозначим это векторное пространство через $L(L^2)$. В статье доказана следующая теорема.

Теорема. Всякий 2-локальный линейный оператор, принадлежащий векторным пространствам $L(L^1)$ и $L(L^2)$, является линейным оператором.

Литература:

1. A. Gleason. A characterization of maximal ideals. J. Analyse Math. 19, 171-172 (1967).
2. J. Kahane, W. Zelazko. A characterization of maximal ideals in commutative Banach algebras. Studia Math. 29, 339-343 (1968).
3. S. Kowalski, Z. Slodkowski. A characterization of multiplicative linear functionals in Banach algebras. Studia Math. 67 (1980) 215-223
4. P. Shemrl. Local automorphisms and derivations on $B(H)$. Proc. Amer. Math. Soc. 125 (1997) 2677-2680.

РОЛЬ СЕМЬИ В СОЦИАЛИЗАЦИИ И АДАПТАЦИИ ДЕТЕЙ

Асанова Гузаль Мухарамовна

Преподаватель кафедры «Практическая психология» ТДПУ имени Низами

Актуальность. Обычно существует три типа семей: с одним родителем, нуклеарные и расширенные; каждая семья может по-разному знакомить ребенка с аспектами социализации. Главная роль семьи заключается в воспитании, формировании и руководстве детьми в обществе; поэтому ребенок, который не принадлежит ни к одной семье, может подвергнуться негативному процессу социализации. 5

По мнению социологов, динамичное окружение и семейная идентичность в сочетании с элементами социализации определяют социальное поведение индивида как в детстве, так и во взрослой жизни.

Семья - это фундаментальный институт, который помогает отдельному человеку или ребенку развиваться в приемлемого члена общества. Хотя каждый родитель в семье играет определенную роль в воспитании ребенка, во многих случаях мать инициирует процесс социализации ребенка.

Помимо того, что семья дает ребенку чувство принадлежности или идентичности, она прививает ему культуру, традиции, нормы, социальные роли и ценности. Процессы слушания, изучения языка и уважения к авторитетам начинаются на семейном уровне. Кроме того, роль семьи заключается в обеспечении достойных условий жизни для детей.

Все дети являются продуктом своего окружения; таким образом, чтобы привить ребенку позитивные социальные ценности, родители должны выбрать среду, свободную от любого негативного влияния. Злоупотребление наркотиками, преступная деятельность и аморальное поведение - вот некоторые из негативных аспектов, на которые окружающая среда может повлиять на растущего ребенка. Большинство детей учатся у своих друзей, сверстников, родителей, соседей и одноклассников.

Семья - это социальный институт, который гарантирует, что ребенок соответствует приемлемым стандартам общества. Социальные атрибуты, которые семья прививает ребенку, включают, среди прочего, личность, навыки/знания, социальную стабильность/порядок, передачу культуры, жизненные устремления и социальную дисциплину.

Элементов социализации, которые семья прививает ребенку, три. Первый аспект - это наследование физических особенностей и психологическое благополучие ребенка. Родители передают свои физические особенности своим детям, в то время как психологическое удовлетворение ребенка наступает, когда он или она вырастает.

Если ребенок переживает травмирующие события, такие как насилие или изнасилование, он или она испытывает психологическую нестабильность даже во взрослом возрасте. Во-вторых, окружающая среда является важнейшим элементом социализации, особенно для молодых звезд.

Дом, школа или учреждение, в котором живет ребенок, определяют моральное поведение ребенка. Ребенок, который подвергается физическим пыткам дома, может стать наркоманом, злоупотреблять алкоголем и/или заняться преступной деятельностью, такой как грабеж, или даже совершить самоубийство. Конечная концепция - это элемент культуры, посредством которого семья приобщает ребенка к определенным культурным атрибутам. В зависимости от сексуальной идентичности родители наделяют своих детей различными гендерными ролями.⁴

Кроме того, в каждой семье или сообществе существуют различные культурные обычаи, такие как инициация, дресс-код и другие формальности, которые семья передает своим детям, чтобы убедиться, что они вписываются в ближайшее общество. Таким образом, физическое и

психологическое наследование, окружающая среда и культура являются ключевыми элементами, которые семья прививает ребенку.

Список литературы:

1. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб: Питер, 2000
2. Маслоу А. Мотивация и личность. 3-е изд. /пер. с англ. – СПб.: Питер, 2008.-352 с.
3. Андреева, Г.М. Социальная психология: Учебник / Г.М. Андреева. - М.: Аспект-Пресс, 2016. - 363 с.

ORAL BRAND INDICATORS

Aslanova Aziza Faxriddinovna

*PhD researcher in The Journalism and mass communication
University of Uzbekistan*

Introduction. We live in a world filled with brand names. Brand names accompany our lives, they are firmly entrenched in everyday modern language. Consumers associate the brand name with product quality (Volkswagen) and other features, such as modern and aristocratic (Dior). As Alex Frankl, an independent developer of corporate names and brands for the world's largest companies points out, the success and growth of a brand depend not only on production efficiency but also on the popularity of brand names. The brand name is one of its most important verbal identifiers. J. Trout calls the name a hook, which helps the brand take its place in the minds of potential consumers. Sergei Starov emphasizes that a unique and attractive name helps the brand to arouse unique associations among customers and leave a positive impression on the brand. The role played by brand names is undeniable: For example, you want to set the table for a New Year's party or birthday. You went to the market to buy drinks. Even though there are quality drinks from it, you will buy Coca Cola and Fanta. The reason is that these brands have maintained their image at any party for years. Consumers have absorbed the names of these products into their minds.

J. It's hard not to agree with Trout, who points out that choosing a good name for a product isn't easy. So how is a brand name created? The naming process is done in several stages.

In the first stage, it is necessary to conduct comprehensive market research and analysis of manufactured goods marketed under this name. The next step is to set certain requirements for the most important communicator in the brand name.

S. Starov divides these requirements into meaningful and formal.⁴⁶ Thus, when assigning the same names, the problem may arise that the goods may be completely different in terms of purpose and that a single name may simply be inappropriate. In this case, it is better if each product from a particular manufacturer has a different name. Take the well-known Danone company, for example, whose history began with the production of a single yoghurt of the same name as the manufacturer itself. Today, Danon is not only the largest producer of dairy products (Danon, Activia, Danissimo) but also baby food and even mineral water. A shining example of a single name for its products is the American food company Heinz, which produces world-famous ketchup, children's biscuits and porridge under its name.

The official requirement for a brand name is compliance with linguistic (morphological, phonetic, lexical) and legal criteria (registration of the word as a company name, etc.). I would like to emphasize that naming in luxury fashion has its characteristics. Luxury fashion researcher Uche Okonkvo argues that the name is one of the most important elements of the fashion luxury brand concept.⁴⁷ What does a brand name need to be liked and

remembered by the consumer? Here I would like to refer to the opinion of Professor and Doctor of Philosophy G.L. In his opinion, the brand:

clear and wide,

short,

expressive,

sincere,

cheerful,

The form of the name must correspond to its content.

An important step in creating a brand name is to test it among your target audience. Such a test is performed after checking the problematic names and helps to determine whether the name corresponds to the functional characteristics of the product, whether the easy name is memorable and ease of reading and pronunciation, modernity. The test also shows what associations the new name will evoke in consumers. However, at the final stage, legal examination and legal protection of the new brand name will be carried out.

In our opinion, a brand name is one of the key components of its reputation. It is impossible to assume that the brand name is not so important. Today, you can find a large number of pronounced and sometimes funny names. When a consumer comes in contact with a brand, the first thing to do is pay attention to its name. One name sounds pleasant and easy, and the other sounds harsh and unpleasant. So the process of choosing an effective, successful brand name is really difficult and time-consuming. However, this process must be taken very seriously and responsibly.

The second most important identifier slogan after the brand name is the short expression, which conveys in a concise form the most important ideas specific to the brand's advertising campaign.

The artistic value of the slogan that lies in the use of technology in advertising is of great importance. For example, a brand with a brighter artistic solution and a more memorable slogan will be given a clear advantage over competing brands. A slogan of artistic significance is remembered as a good phrase and is included in everyday speech.

Let's take a closer look at the main ways to give artistic value to a slogan. Let's take a look at which ones are the most used.

Often slogans contain an artistic medium such as rhyme. Pete Barry assures us that rhyming slogans are brighter and more fun. For example, the motto of Velona's sweetness is: "I love Velona because she looks like fireworks!" which fully complies with the basic features. The colour of the surface of the dessert is, in fact, different colours, like fireworks, thereby creating a cheerful mood and a desire to taste the "fireworks".

Dictionary. The methodological connection of words also plays an important role in creating a slogan. You need to convey the most important marketing value of the product to the consumer using a minimal amount of words. Hence, the stylistic affiliation of the words plays an important role. Often the target audience is not homogeneous and the product may be targeted to a specific age group, such as adolescents. "Don't slow down Snickers" is the popular motto of the Snickers chocolate bar, which fully demonstrates the product's focus on people under the age of 25.

Play on words The slogan can sound bright and unusual, you can use many lexical methods to distinguish it from the slogans of competitive products: synonyms, antonyms, homonyms, repetitive and double words, as well as phraseological units and figurative words. For example, in a Pinkie dessert ad, a biscuit is described as "soft, plump." The adjective *dombok* is used for people. It is known that homonyms are words that have the same sound but different meanings. Thus, the motto of "Tonus" juice: "To be in good shape, you must have Tonus" is used at the same time as the literal meaning of the word "tone" and as the name of the same word. It can also be used effectively in the brand itself to create a bright impression. Example: One of the slogans of "Fanta": "New FANTASTIC bottle".

Pete Barry divides slogans into "five main types," according to which there are minor differences between them. The motto of the first round is "conclusion". One can consider the main function of such a slogan to generalize the main idea inherent in an advertising campaign. The next type of slogan - the slogan - is "explanation", which clearly explains it, explains the idea of the action. Without

such a slogan, the essence of an advertising campaign may be incomprehensible to the consumer. The motto is "offer" which directly refers to the superiority of the product, repeating it. It includes the main features of the product, such as its durability, speed, unique taste and so on

When speaking of slogans as one of the most important verbal communications, I would like to mention a concept such as 'storytelling' and try to define it as a verbal brand identifier along with slogans and other verbal means. Today, the concept of storytelling is known to all vendors. The title consists of two words: story - history and narration - talk. It later became clear that a powerful tool like storytelling could not leave marketing and advertising professionals indifferent. The Pantene shampoo is a shining example of this. Throughout the story, the necessary information about the brand is given. The question-answer method also works well. A good example of this is the advertisement of the "AutoAn" application and website. Some also use the song in advertising: they have used this style brilliantly in the advertising of the drug 'Qupen' and the dessert 'Strobar'.

Based on the above, we can conclude that storytelling is a strong verbal brand identifier. However, for storytelling to achieve tangible results, stories need to be interesting to the target audience, so reading them will give the consumer a desire to buy the product and stay true to it. There are a variety of verbal brand identifiers that can affect consumer creation, but it "represents an audiovisual image, which affects its particular importance as a corporate identification element, an image component, a brand attribute., A means of communication."

The main task of a brand manager is to create brand capital, and brand image by choosing a position and turning it into a means of communication. The first is market-oriented and the second is intra-company. that is, the brand manager must achieve common goals through both internal marketing tools (both organizational and communicative) and everyone understands the role of brand capital formation and, consequently, brand success in the marketplace. The formation of a brand image depends on each employee of the company. Thus, the internal role of the brand is the attitude of different audiences within the company (management, shareholders, financial and production services, in general, all staff) to the brand and its perception of it. The goal is to turn every employee of the company into a carrier of the brand idea.

One thing to keep in mind: if you set worldly goals, you can't create a famous brand. Let's say you're a graduate of an economic university with small start-up capital, even if you're still far from the most prestigious brands, but that's just ... Set a goal: to be the best and go for it no matter what. Perform brand management, promote the brand and get on the 'financial Olympus'! Only such a mood can give an effective result.

Reference

1. Frenkel A. Naming. How a word game becomes a business. - M: "Good Book", 2006.
2. Trout J., Rivkin S. New positioning. All about the world's # 1 business strategy. - SPb.: Peter, 2007.
3. Starov S.A. Verbal identifiers as external distinctive features of a brand. // Bulletin of St. Petersburg University. - Ser. 8. - Issue 4. - 2008.
4. Starov S.A. Brand Management: A Textbook. - SPb.: Higher School of Management, 2008.
5. Okonkwo W. Branding in luxury fashion: Mastery of creation and management. // U. Okonkwo; per. from English S. S. Gurinovich. - Minsk: Grevtsov Books, 2012.
6. Pavlova V.S. The communicative potential of the brand: Monograph. - Chita. ZabGU, 2012.

ЎҚУВ МАРКАЗЛАРИ ФАОЛИЯТИ БЎЙИЧА МУТАХАССИС БИЛАН СУЎБАТ ВА УНИНГ НАТИЖАЛАРИ ХУСУСИДА

Асамова Умида

Ўзбекистон Миллий Университети мустақил изланувчи

КИРИШ

Ўқув марказлари фаолияти охириги 10 йил ичида анча ривожланиб кетди. Юртимизда биринчи очилган ўқув марказлари ёшларни ва ўрта ёшдаги фуқароларни асосан ишчи касбларга тайёрлаган бўлса, ҳозирда ўқув марказлари аҳолига профессионал таълим турлари бўйича хизматларни тақдим этмоқда. Компьютер ва IT соҳаси, веб-дизайнерлик, бухгалтерия ва молия курслари, менеджерлик ва PR мутахассиси каби курслар фаолияти йўлга қўйилган. Айрим ҳолларда ёшлар ва ўрта ёшдаги фуқаролар олий таълим муассасаларида тополмаган билим ва амалиётни қидириб ўқув курсларига мурожаат этаётган бўлса, бошқа ҳолда янги мутахассисликни ўрганмоқчи бўлган фуқаролар касбий таълим бўйича ўқув марказларига мурожаат этмоқда. Ушбу мақола интервью шаклида ёзилган бўлиб, ўрганилаётган мавзу бўйича таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси мутахассиси фикрини ёритади. Мутахассис билан интервью социологик тадқиқот усулларида бири бўлмиш

чуқурлаштирилган интервью усулини қўллаш ёрдамида ўтказилди.²² Интервью бўйича олинган натижалар таҳлил этилди.²³

МЕТОДОЛОГИЯ

Мақола объективлик, изчиллик, ижтимоий воқеа ва ҳодисаларни хронологик асосда ўрганиш, манба ва даллиларга таяниш ва уларнинг ҳаққонийлигига асосланиш тамойиллари негизида ёзилди. Мақолада айрим манбаларни контент-таҳлили, ижтимоий таҳлил ва манбалар билан ишлаш методларига эътибор қаратилган. Унда оғзаки сўров усулидан ҳам кенг фойдаланилган.

АСОСИЙ ҚИСМ

Ассалому алайкум. Ўзингизни таништирамангиз. Қаерда ва ким бўлиб ишлайсиз?

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси Нодавлат таълим муассасалари фаолиятини лицензиялаш бўлими мутахассиси Шахбоз Жўраев.

Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси тўғрисида умумий маълумот айтиб ўтсангиз, илтимос.

таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 515-сон қарори асосида 2017 йилда ташкил этилган. Инспекцияда 7та бош бошқарма мавжуд. Уларнинг ичида 17та марказий аппаратдаги бўлимлар бор. Ҳар бир вилоятда 14та ҳудудий бўлимлар ҳам мавжуд. Олий таълим муассасаларида таълим сифатини назорат қилиш бўлимлари фаолият юритмоқда.

Сиз ишлаётган бўлим тўғрисида маълумот айтиб ўтсангиз.

нодавлат таълим муассасалари фаолиятини лицензиялаш бўлими нодавлат таълим муассасалари иш фаолиятини ташкил қилишлари учун лицензия беради. Лицензия беришдан олдин нодавлат таълим муассасаси (НТМ) фаолияти тўғрисидаги маълумот ўрганиб чиқилади, экспертиза бажарилади. НТМлар фаолияти юзасидан келиб тушган мурожаатлар ўрганилади. Келиб тушган мурожаатлар ўрганилиб, таҳлил этилади ва қонунчиликка жоиз бўлса таклифлар бўлим томонидан тайёрланади. Бўлим асосан нодавлат мактабгача таълим ва нодавлат олий таълим, нодавлат кадрлар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш, нодавлат мактабдан ташқари таълим муассасалари билан ишлайди. Бўлим

²² "Социология" ўқув қўлланма. Т. А.Қодирий номидаги халқ, мероси нашриёти. "УАЖБНТ" маркази, 2002. - 292 бет.

²³ Прикладная социология, учебное пособие для вузов, Горшков М.К., Шереги Ф.Э., 2003.(Applied sociology, textbook for universities, Gorshkov M.K., Sheregi F.E., 2003.

бир қанча норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга таянган ҳолда фаолият олиб боради. Булар “Лицензиялаш, рухсат бериш ва хабардор қилиш тартиб-таомиллари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг 14.07.2021 йилдаги 701-сон қонуни, “Таълим тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикасининг 23.09.2020 йилдаги 637-сон қонуни, “Фаолиятни бошлаш ёки тугатиш учун ваколатли органни хабардор қилиш тартиби тўғрисидаги ягона низомни тасдиқлаш ҳақида”ги Вазирлар Маҳкамасининг 25.02.2022 йилдаги 88-сон қарори²⁴, “Махсус электрон тизим орқали айрим фаолият турларини лицензиялаш тартиби тўғрисидаги ягона низомни тасдиқлаш ҳақида”ги Вазирлар маҳкамасининг 21.02.2022 йилдаги 80-сон қарори.

Нодавлат таълим муассасалари (ўқув марказлари) фаолият бошлашидан олдин инспекциядан рўйхатдан ўтадимми? Рўйхатдан ўтса, бунинг тартиби қандай?

НТМларни ўқув марказлари деб аташ тўғри бўлмайди. НТМлар ўз категориясига кўра турли хил: олий таълимни тақдим этаётган нодавлат университетлари, нодавлат мактаб таълими муассасалари, нодавлат мактабдан ташқари таълим муассасалари бор. Оддийроқ айтадиган бўлса: хусусий боғчалар, хусусий мактаблар, хусусий университетлар ва хусусий ўқув марказлари НТМлар ҳисобланади. Ҳозирда нодавлат ўрта-махсус таълим йўналиши ҳам ривожланмоқда. Нодавлат профессионал таълим берадиган муассасани (хусусий техникумни) очиш бўйича даъвогар бўлди. Аммо давлат инспекцияси талабларига мос келмади, шунинг учун ҳозирча хусусий профессионал таълим берувчи муассаса ҳали фаолиятини бошламади.

НТМни очиш тартиби қандай?

юридик шахс license.gov.uz сайтида (лицензия ахборот тизими) рўйхатдан ўтиши керак. Ариза беради ва тизимда кўрсатилган ҳужжатларни ва ўқув дастурини юклайди. Тўлови 132 000сўмни тўлайди. Ягона дарчага мурожаат қилиш ёрдамида ҳам НТМни (ўқув марказини) очиш мумкин. Бўлим томонидан ариза ва ҳужжатлар, ўқув дастури кўриб чиқилади ва ҳужжатлар тўғри бўлса, хабарнома юборилади. Хабарнома юборилгач, тадбиркор ўқув марказининг фаолиятини ишга тушириши мумкин.

Касбий таълимга йўналтирилган ўқув марказини очишда қандай қоидалар бор?

²⁴ “Фаолиятни бошлаш ёки тугатиш учун ваколатли органни хабардор қилиш тартиби тўғрисидаги ягона низомни тасдиқлаш ҳақида”ги Вазирлар Маҳкамасининг 25.02.2022йилдаги 88-сон қарори<https://lex.uz/docs/5877863>

касбий таълим йўналишида ўқув марказини очишда ҳам талаблар юқорида айтиб ўтилганидек. Ўқув курси учун ўқув дастури тузилади. Масалан, тиббиёт соҳасига оид ўқув курсини очмоқчи бўлса, тадбиркор Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги билан маслаҳатлашган ҳолда ўқув дастурини ишлаб чиқиши керак. Масалан, меҳнат муҳофазаси бўйича курс очмоқчи бўлса, тадбиркор Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги билан маслаҳатлашиб ўқув дастурини ишлаб чиқиши керак. Тадбиркор ўқув марказини очаётганда касбий таълимнинг турли йўналишларини кўрсатиши мумкин, аммо бунга албатта ўқув дастури тўғри ишлаб чиқилган бўлиши керак.

Ҳозирда республика бўйича нодавлат таълим муассасалари (ўқув марказлари) сони нечтани ташкил этмоқда? Улардан касб-хунар таълимига йўналтирилган ўқув марказлари сони қанча?

фаолият тури бўйича касбий тайёргарлик кўрсатидиган ўқув марказлари “Кадрлар малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш” деб аталади. Бунга хорижий тилларни ўргатувчи ўқув марказлари ҳам киради. 2022 йил январь ойи ҳолатига Республика бўйича бу каби НТМлар сони 853 тани ташкил этмоқда.

Ўз тузилишига кўра нодавлат таълим муассасалари бир-биридан фарқ қиладими? Масалан, корхоналар, заводлар қошида фаолият юритаётган ўқув марказлари ҳам борми? Улар қайсилар?

юридик шакли бўйича НТМлари МЧЖ, муассаса, оилавий тадбиркорлик шаклида бўлиши мумкин. НТМни очмоқчи бўлган тадбиркор юридик шахс бўлиши керак. Корхоналар, заводлар ҳам ўз қошида касбий тайёрлов ва малака ошириш курсларини ташкил қилиши мумкин, завод эҳтиёжи учун кадрлар малакасини оширади. Бунда корхона ва завод касбий тайёрлов курсини очганлиги тўғрисида инспекцияни хабардор қилади.

Касб-хунар таълимига йўналтирилган ўқув марказлари қайси касбларга ҳозир аҳолини ўргатмоқда? Касб-хунар йўналишини аниқлашда ўқув марказлари нимага таянади деб ўйлайсиз?

ҳар бир ҳудудни инфратузилмасидан келиб чиққан ҳолда тадбиркор ўқув марказини очади. Катта шаҳарларда IT ва компьютер соҳасини ўргатишга, веб-дизайнерликга талаб юқори деб ҳисоблайман.

Касб-хунар таълимига йўналтирилган ўқув марказлари пайдо бўлишига таъсир этган омил нима деб ҳисоблайсиз?

бозор муносабатларининг ривожланиши, кадрларга, мутахассисларга бўлган эҳтиёжнинг ошиши ўқув марказлари пайдо бўлишига таъсир этган омил деб ҳисоблайман.

Касб-хунар таълимига йўналтирилган ўқув марказлари сони асосан қайси ҳудудда кўпроқ; катта шаҳарлардами ёки туман марказларидами?

асосан катта шаҳарларда. Ўқув марказлари сонининг кўплиги бўйича Тошкент шаҳри, Самарқанд вилояти, Тошкент вилояти, Фарғона водийси, Навоий вилоятларини мисол қилиш мумкин. Республикамининг бошқа вилоятларида ўқув марказлари сониди деярли тенгликни кўриш мумкин.

Касб-хунар таълимига йўналтирилган ўқув марказлари ўрта махсус таълим берувчи коллежлар, техникумлар билан рақобатлаша оладими ҳозирда?

ҳозирда касбга тайёрлайдиган ўқув марказлари коллежлар билан рақобатлаша олади деб ҳисоблайман. Масалан, Гулистон шаҳрида “Гулистон Бизнес мактаби” бор. Ўқув курслари асосан тадбиркорлик фаолиятини юритиш бўйича таълим беради. Ёки яна бир мисол, PDP Academy. Бу ўқув маркази компьютерда дастурлашни ўргатади. Бу каби ўқув марказлари ўқувчиларга таълим беради ва ўқишни муваффақиятли битиргандан кейин сертификат ҳам беради. Ушбу курсларни тамомлаган ўқувчилар ҳозирда ишга жойлашиб, ишламоқда. Баъзи соҳаларда ўқув марказлари коллежлар билан рақобатлаша олади, баъзи соҳаларда эса йўқ. Аммо касбга тайёрлайдиган ўқув марказлари техникумлар билан рақобатлаша олмайди деб ҳисоблайман. Чунки ҳозирда техникумлар инфратузилмаси, моддий-техник базаси яхшиланди, фаолияти тугатилган коллежаларнинг лабораториялари ва анжомлари техникумларга фойдаланишга берилди.

Ишчи касбларда-чи? Ўқув марказлари коллежлар билан рақобатлаша оладими? Масалан чилангарлар (сварщики, сантехники), ошпаз-кондитерлар, қишлоқ хўжалигида фаолият юритадиган касблар бўйича маълумот айтсангиз, илтимос.

2000-йилларда бу касбларга тайёрлайдиган ўқув курслари бўлган. Ҳозирдаги ўқув марказларининг тахминан 20%да бу каби касблар ўргатилмоқда. Заводлар, катта корхоналар ўз эҳтиёжи учун бу каби касбларга ишчиларни тайёрламоқда.

Касб-хунар таълимига йўналтирилган илғор ўқув марказларини мисол қилиб келтирсангиз.

илғор ўқув марказлари талайгина. Буларга масалан, “Гулистон Бизнес Мактаби”, PDP Academy, “Нажот таълим” ва бошқа ўқув марказларини мисол қилиш мумкин.

Мавзу бўйича сизнинг таклиф ва тавсияларингизни айтиб ўтсангиз илтимос.

ўқув марказларини очган субъектлар тадбиркорлар ҳисобланади. Уларнинг асосий мақсади даромад ҳисобланади. Шу боис, туман

марказларидан узоқ бўлган ҳудудда ўқув марказини очишда унга маҳаллий аҳолининг талаби бўлишини олдиндан ўйлаб иш тутиш керак. Ўқув марказини марказдан узоқ бўлган ҳудудда очганда, тадбиркор ўз ҳаражатларини қопламайди. Ҳатто ишчи касбларга ўргатса-да, ҳаражатларни қопламаслиги мумкин. Нодавлат олий таълим муассасалари давлат олий таълим муассасалари билан ҳозирда рақобат қилмоқда. Нодавлат техникумлари очиладиган бўлса, улар фаолияти йўлга қўйилса давлат техникумлари билан рақобатлаша олади деган фикрдаман, дея ўз фикрини тугатди мтахассис.

ХУЛОСА

Хусусий ўқув марказлари фаолияти юртимизда 1995 йилдан йўлга қўйилган. Илк ўқув марказлари ёшларни ва ўрта ёшдаги фуқароларни ишчи касбларга, хусусан аёлларни тикувчилик, пазандалик, сартарошлик касбларига ўргатган. Кейинчалик эркаклар учун касбий таълим ҳам йўлга қўйилди, масалан чилангарлик (сварка иши, газосварка, сантехника ремонтни, қурилишдаги касблар). 2000-йилларда Ўзбекистон бозор иқтисодиётига ўтиш даврида давлат таълими тизимида таълим сифати бирмунча пасайди, айрим фуқаролар касблари актуаллиги камайди, янги касбларга бўлган эҳтиёж ошди. Бунда фуқаролар янги касбларни ўрганишга, бозор талабига жавоб берадиган мутахассис бўлишга эҳтиёжи пайдо бўлди. Давлат таълими тизимида бўлмиш техникумлар тугатилди, унинг ўрнига коллежлар очилди, университет ва институтлар фаолиятини давом эттирди. Аммо фуқароларни бу каби давлат таълим тизими ташкилотлари ўқишга қабул қилмади, ёш чеклови, таълимнинг контракт-пулли бўлиши билан фуқароларнинг бу каби ташкилотларга бўлган ишончи камайди. Бу эса ўқув марказларига бўлган касбий таълим курсларига бўлган талабни оширди ва шу тарзда ўқув марказлари фаолияти анча ривожланди. Мақолада ўқув марказлари фаолиятига доир мутахассиснинг ахборотлари асосида маълумотлар ёритилган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. "Социология" Ўқув қўлланма. Т. А.Қодирий номидаги халқ, мероси нашриёти. "УАЖБНТ" маркази, 2002. - 292 бет.
2. Прикладная социология, учебное пособие для вузов, Горшков М.К., Шереги Ф.Э., 2003.
3. "Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида" ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 18.07.2017 йилдаги 515-сон Қарори <https://lex.uz/docs/3273609>

4. “Лицензиялаш, рухсат бериш ва хабардор қилиш тартиб-таомиллари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг 14.07.2021 йилдаги 701-сон қонуни <https://lex.uz/docs/5511879>

5. “Таълим тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикасининг 23.09.2020 йилдаги 637-сон қонуни <https://lex.uz/docs/5013007>

6. “Фаолиятни бошлаш ёки тугатиш учун ваколатли органни хабардор қилиш тартиби тўғрисидаги ягона низомни тасдиқлаш ҳақида”ги Вазирлар Маҳкамасининг 25.02.2022 йилдаги 88-сон қарори <https://lex.uz/docs/5877863>

7. “Махсус электрон тизим орқали айрим фаолият турларини лицензиялаш тартиби тўғрисидаги ягона низомни тасдиқлаш ҳақида”ги Вазирлар Маҳкамасининг 21.02.2022 йилдаги 80-сон қарори <https://lex.uz/docs/5870213>

DEVELOPING IN YOUNG LEARNERS

Ataxanova Rahima

3rd course student at CSPU Primary education faculty

Kurbanova F.K.

English teacher at CSPU (Scientific supervisor)

Listening tasks are the first we start with when we teach very young learners and young learners who are true beginners at learning the English language. As they cannot read, write or speak in English yet, it's the first model of language acquisition for them, as a result, for further speaking practice. Therefore it's one of the most essential language skills for young learners' language development.

Students who can successfully use active listening skills can experience several benefits. Not only do students exhibit better comprehension, but they can become better problem-solvers and overall communicators. Other benefits may include:

- Increased ability to complete assignments
- Better understanding of curricular material
- Increased autonomy
- Better social relationships
- Increased resourcefulness
- Better collaborative skills

Creating space to teach listening skills for kids in the classroom explicitly encourages students to see the importance of listening – not only to their teachers

but to their peers, as well. Explore other teaching activities for teaching listening comprehension skills for middle and high schoolers. Also explore these listening comprehension test ideas for formative assessments. We also have strategies for how to teach listening skills to English learners.

Why is it hard with young learners? Young learners need to be engaged and have a reason for listening. Moreover, it isn't enough to pre-teach new vocabulary to have them recognize it in the track or just ask some questions to check comprehension. These kinds of tasks are not enough to motivate kids.

What's important to consider when creating tasks for developing listening skills of the YL?

Appropriate materials. Materials should relate to their real life or experience. In addition, they should be manageable and graded (for example, vocabulary pre-teaching, pre-listening tasks, visuals, examples). The content itself must be interesting and appealing to young learners; be visually attractive. It should relate to their interests and be age appropriate. Moreover, it's good when materials are fun and gamified to make learning process enjoyable.

Realistic tasks. Young learners get information from their experience. Teachers are supposed to create real-life conditions in the classroom to help learners develop skills for understanding messages. The tasks must reflect learners' real life experience and the knowledge they acquire every day. What tasks can reflect their real life? For example, when they listen to game instructions or doing craft activities. They have a certain purpose therefore the tasks becomes meaningful for them.

Engaging tasks. Young learners are naturally curious, new things engage them. So it's quite important to create materials that can captivate and stimulate their imagination. They also learn through visuals, videos, games. They want to share what they learn with their friends. So they tasks should keep them involved while they are learning the language, they should raise and generate interest. Furthermore, it's great when tasks develop students' imagination and creativity.

What's the order of listening activities

Pre-listening. These tasks prepare students for listening activities. This stage is supposed to arouse students' interests and spark their curiosity, e.g. look at the picture, guess what the recording will be about or predict the words. It's also aimed at contextualising the listening activity and activating schemata to help learners understand the track and make the process easier and more natural. We also pre-teach some structures, expressions or vocabulary to facilitate listening.

Listening. Student should have a purpose, reason for listening, or task. Moreover, students should listen to a recording several times to do the task. The tasks are usually graded. The first task is usually easy and students listen for general information or gist. The second one is more difficult, it usually requires

students to listen for specific information or details. The third listening is usually aimed at checking their answers or at finding implied meanings.

Post-listening. There are two main post-listening activities. First is discussion of the recording, giving opinions on the content (agree/disagree; like/dislike), personalisation. Second is focus on language : it's aimed more at language development rather than listening or speaking skills, e.g. find and analyse collocations. Here are some typical listening tasks:

Listen and point (e.g. when students listen to new words and point at the pictures).

Listen and say what it is about (e.g. when students listen to a story).

Listen and number (e.g. students have pictures from a comic strip and should number the pictures).

Listen and order the lines (e.g., for the song or the steps of the story).

Listen and answer comprehension questions (e.g., for the fairytale)

Listen and choose "True" or "False" (e.g., for some factual information from a CLIL lesson).

Listen and correct the information. (e.g., biography of a child).

Listen and match. (e.g., phrases with pictures)

Listen and make (e.g. craft activity).

Listen and draw/visualise (e.g. activities aimed at developing students' imagination and creativity)

Listen and repeat. (e.g., chant or song or story lines)

Listen and role-play (e.g., a part from a story)

Listening is one of the most essential skills for VYL and YL. Listening materials must relate to YL experience to help them develop these skills. Make sure materials are age appropriate, engaging and realistic. Use authentic materials, create meaningful tasks, contextualise them and make it fun.

Developing listening skills is a fundamental component of any ESL/EFL curriculum for YLs, and songs are regarded as one of the most effective techniques to this end. Songs have a definite place in the YL classroom; they provide meaningful and enjoyable language practice, especially in fostering listening skills. The hope is that the more songs YLs experience, the better language learners they will become. The effectiveness and importance of songs increase when they are used in combination with TPR, which involves game-like movements

References:

1. Blackman, W.H. Listening Games. Singapore: A grade teacher Publication, 1975.
2. Carter, R. & Nunan, D. The Cambridge Guide to Teaching English to Speakers of Other Languages. New York: Cambridge University Press, 2000.

3. Celce, M. & Marianne. Teaching English as a Second or Foreign Language. New York: Thomson Learning, Inc., 2001.

4. Harmer, J. How to Teach English. United Kingdom: Pearson Education, 2007.

5. Nunan, D. & Miller, L. New Ways in Teaching Listening. New York: Capitol Communication Systems, Inc., 2002.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INGLIZ TILINI O'QITISHDAGI MUAMMOLAR

Axmadaliyeva Madinabonu Lutfulla qizi
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

Kirish. Hozirgi globallashuv dunyosida ingliz tiliga talab oshib bormoqda. Sababi ko'pgina rivojlangan davlatlar (jumladan, AQSH, Buyuk Britaniya kabilar)shu tilda so'zlashadi. Qolaversa, ilmiy jurnallarning 50%i ham ingliz tilida chop etiladi. Shuning uchun ham ingliz tilini i kichik yoshdagi insonlar ham, katta yoshdagi insonlar ham o'rganishga harakat qilmoqda. Albatta, yoshiga qarab, ularga dars o'tish metodlari farq qiladi. Masalan, maktabdagi yuqori sinf o'quvchilariga dars o'tishda ba'zi qiyinchiliklarga duch kelinadi.

Birinchi muammo shundaki, o'quvchilarning ingliz tili muhitini shakllantirmasligi, ya'ni ona tilidan ko'p foydalanish. Chet tili darslarida to'liq xorijiy tilda gapirib dars o'tishning imkoni yo'q. Balki maktabning katta sinflarida, ayniqsa bitiruvchilar bilan bu yo'sinda dars o'tish mumkindir, ammo yosh o'rganuvchilar bilan o'zbek tilini ishlatmasdan ingliz tilini o'rgatish imkonsiz. Ammo, birinchi til (ona tili)ni ham haddan ortiq ko'p ishlatish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlariga katta to'siq bo'lishi mumkin. Sinflarda ingliz tili darsi vaqtida o'qituvchining ingliz tili va o'zbek tilidan foydalanib dars o'tishi o'rtasida balans bo'lishi kerak.[1] Ikkinchisi, maktablarda dars soatining kamligi. Ko'pincha, dars davomiyligi 40-45 daqiqa bo'ladi. Lekin tilni o'rgatish uchun bu juda ham kam vaqt. Sababi, til o'rganishdagi to'rtta qobiliyat(eshitib tushunish, o'qib tushunish, yozish va so'zlashuv)ni o'zlashtirish uchun yuqori sinf aqliy salohiyatini hisobga olganda, yetarli emas. Uchinchi muammo esa lug'atning yetishmasligi. O'quvchilar uchun eng qiyin vazifalardan biri duch kelgan lug'atni o'zlashtirish. Nima uchun o'quvchilarning so'z boyligi yo'q, ya'ni o'qituvchilar so'zlarni bilishning hojati yo'q deb hisoblashadi, chunki ular oddiy emas, hatto kamdan-kam hollarda kundalik hayotida qo'llaniladi, shuning uchun ular so'zlarni o'rganish uchun hech qanday motivatsiyaga ega emaslar. Binobarin, chet tili konteksti sifatida ingliz tilini o'rganadigan talabalar o'z bilimlari bilan cheklangan maqsadli tilning grammatikasi va lug'atini bilish va mazmunini tushunish uchun

kurashish kerak.[2] Yana bir muammolardan biri-lug'at boyligi va grammatika qoidalarini boshlang'ich sinfdaligida yaxshi o'zlashtiradi, shunga qaramay, so'zlashuv qobiliyati rivojlanmagan bo'lishi mumkin. Buni rivojlantirish uchun esa ancha vaqt olishi mumkin. Masalan, o'quvchining so'zlashuv qobiliyatini oshirish uchun taqdimot qilishni buyurish mumkin. Lekin u o'z qo'rquvini yengib, chiqishiga ko'p mehnat ketadi. Ko'pincha duch keladigan yana bir qiyinchilik shundaki, o'quvchining ancha avval noto'g'ri tarzda o'rgangan bilimlarini to'g'irlash murakkabroq sanaladi. Misol olganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga "Hello" ("Salom") deb emas, "Hallo" deb xato talaffuz qilinsa, ular keyinchalik ham shunaqa talaffuz qilishni davom ettiradi. Ingliz tilini o'rganishda dunyoqarashning ham katta o'рни bor, ayniqsa, bu akademik insholarni yozishda bilinadi. Bunday insholar O'zbekistondagi maktablarda o'rgatiladiganlaridan ancha farq qiladi. Agar o'quvchilarga: "Global isishning yaxshi va yomon taraflarini tahlil qiling. Unga qarshi qanday choralar taklif qilsa bo'ladi?", -deb savol berilsa, bu haqida hech qanday ma'lumot bilmasligini aytadi. Bunday ma'lumotni bilish uchun esa inglizcha ilmiy jurnallarni o'qishga to'g'ri keladi.

Xulosa. Albatta, har bir sohaning o'ziga yarasha qiyinchiliklari mavjud, shuningdek ingliz tili fanining ham. Bularni hal qilish uchun, avvalo, yaxshilab o'rganib chiqish va uning yechimlarini topish lozim. Pedagog esa har bir jihatdan intilishi, o'z ustida ishlashi va metodikalarni yaxshilab o'zlashtirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'raboyeva N. O.,Urunova G.R.Ingliz tilini o'rganishda dolrazb muammolar va ularning yechimlar. // <https://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/80>

2. Rasulova N. Challenges and Solutions in English Language Teaching to Students. // Молодой ученый Международный научный журнал. – №.11 (301). 2020. –P.179.

IQLIMNING O'ZGARISHI NATIJASIDA YUZAGA KELAYOTGAN EKOLOGIK MUAMMOLAR

Ahmedova Dilfuzaxon Mahammadovna

Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Turdimatova Hafizaxon Sultonali qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Tabiat biz uchun Alloh tomonidan berilgan eng ulug' ne'matdir. Tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlar ma'lum bir qonuniyatlar orqali boshqariladi, ularga rioya qilmaslik ertami kechmi albatta ekologik halokatga olib keladi.

Fan-texnikaning rivojlanishi, sanoat korxonalarining taraqqiy etishi, avtomobillar soninig ortib borishi, turli uglevodorodli energiya manbalari hamda kimyoviy moddalardan foydalanilishi oqibatida havo, suv, tuproq ifloslandi.

Bugungi kunga kelib, insonning tabiatga ko'rsatgan ta'sirlar tufayli sayyoramizda ekologik muammolar avj olib bormoqda. Ekologik muammolarning eng xavfli darajasi shubhasiz, iqlimning o'zgarishidir.

Keyingi yillarda havo tarkibida karbonat angidridning ortishi, chiqindi gazlarining REM (ruxsat etilgan me'yor) ortiq atmosferaga tashlanishi oqibatida issiqxona effekti hosil bo'lib, bugungi kunga jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgan ekologik muammo – global iqlim o'zgarishi vujudga keldi.

Iqlimning o'zgarishi yer sayyorasida umumiy haroratining ko'tarilishi atrof – muhitning ayniqsa, atmosfera havosining zararlanganligini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatuvchlardan biridir.

Ma'lumotlariga ko'ra, iqlim o'zgarishining asosiy sababi yer yuzasidan chiqadigan uzun to'lqinli radiatsiyani yutib atmosferada issiqxona effekti hosil qilayotgan gazlardir. Shu toifaga kiruvchi gazlar "Issiqxona gazlari" deb ataladi.

Yer o'z navbatida atmosfera orqali uzun to'lqinli infraqizil nurlarni koinotga qaytaradi. Ushbu nurlarning bir qismi koinotga chiqib ketish o'rniga issiqxona gazlari tomonidan yutiladi va shu asosda atmosfera me'yoridan ortiq qiziydi va nihoyat yer iqlimiga ta'sir ko'rsatadigan issiqxona qatlami hosil bo'ladi. Issiqxona paydo qiladigan gazlarning atmosferada ortishi esa, yuqorida qayd qilinganidek, insonlarning faoliyati bilan bo'liq. Shu bilan birgalikda, atmosfera havosiga chiqarilayotgan issiqxona gazlari global isishga sababchi bo'lib iqlim o'zgarishlarini keltirib chiqarmoqda.

Dunyo hamjamiyati, shu jumladan mutaxassislar tomonidan, dunyo miqyosida atmosfera havosiga chiqarilayotgan tashlamalar miqdori shu sur'atlarda ketsa, global isish va iqlim o'zgarishlari natijasida eng katta salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ta'kidlamodalar.

Butun jahon hamjamiyati iqlim o'zgarishini insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri deb tan olmoqda. BMT Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi doiraviy konvensiyasi uni hal etishning ikkita asosiy yo'nalishini belgiladi. Atmosferaga issiqxona gazlari chiqarilishini kamaytirish hamda kuzatilayotgan va kutilayotgan iqlim o'zgarishlariga moslashishdir.

O'z vaqtida choralar qabul qilinmaslik va atmosferada issiqxona gazlari miqdorini bundan keyin ham ko'payishi natijasida mamlakatlar iqlim o'zgarishi borasidagi harakatlar uchun katta mablag'larni sarf qilishlariga to'g'ri keladi. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq o'sib borayotgan global tahdidlarga kompleks javob qaytarish maqsadida Parij Bitimi qabul qilindi. Yangi kelishuvning asosiy qirralaridan biri rivojlangan davlatlar bilan bir qatorda rivojlanayotgan davlatlar ham tashlanmalar miqdorini kamaytirish majburiyatini olishlari belgilab qo'yilgan. Kelishuvning asosiy maqsadi issiqxona gazlari tashlanmalarini sezilarli darajada kamaytirib, sayyoramizda global isishni industrial rivojlanish davridagi o'rtacha haroratga nisbatan Selsiy shkalasi bo'yicha 1,5 - 2 gradus chegarasida ushlab turishga erishishdan iborat.

Mutahassislarning fikrlariga ko'ra, agar bu amalga oshirilmasa, sayyoramiz yildan-yilga ko'proq keskin iqlim o'zgarishlariga duchor bo'ladi.

Ma'lumotlariga ko'ra, 2030-yilga kelib atmosferaga chiqarilayotgan tashlanmalarining umumiy miqdori 55 gigatonnani tashkil etishi ehtimoli bor. Haroratni Selsiy shkalasi bo'yicha 1,5 - 2 gradus chegarasida ushlab turish uchun umumiy tashlanmalar miqdori 40 gigatonnadan ortiq bo'lmasligi kerak.

Ta'kidlash joizki, Parij Bitimi 2015-yil 12-dekabrda Parijda Iqlim o'zgarishlari bo'yicha doiraviy Konvensiya tomonlari konfrensiyasining 21-sessiyasida qabul qilingan. 2016-yil 4-noyabrda kuchga kirgan va 2020-yildan boshlab amalga oshirilmoqda. Bitim turli milliy sharoitlar nuqtayi nazaridan adolatlilik prinsiplarini hamda umumiy, lekin tegishli imkoniyatlarni e'tiborga olib aholida javobgarlikni aks ettiradi.

Bitimning maqsadi BMT Iqlim o'zgarishlari bo'yicha doiraviy Konvensiyani amalga oshirilishini faollashtirish, global o'rtacha haroratning industriallashtirishgacha (1750 y.) bo'lgan darajaga nisbatan 2 gradusga saqlab turish hamda haroratning 1,5 gradus gacha o'sishini cheklashga harakat qilishdan iborat. Bu 2050-yilga kelib issiqxona gazlari global ajratmalarini 40 - 70 % ga kamaytirishni va 2100-yilga kelib uning 0 yoki manfiy ko'rsatkichga yetkazishni talab etadi.

2017-yil 19-aprelida BMT ning Nyu-Yorkdagi Bosh qarorgohida O'zbekiston Parij Bitimini imzoladi. Bitimni imzolash uchun BMT Iqlim o'zgarishlari bo'yicha doiraviy Konvensiya kotibiyatiga issiqxona gazlar tashlanmalaridagi milliy miqyosda belgilanadigan hissasini kamaytirish to'g'risida hujjat taqdim etildi. Mazkur bitim 2018-yili 3-oktyabrda ratifikatsiya qilindi. O'zbekiston

Respublikasida uzoq muddatli istiqbolda iqlim o'zgarishiga qarshi kurash chora va harakatlarni kuchaytirish bilan 2030-yilgacha issiqxona gazlari solishtirma tashlanmalarini 2010-yildagi darajaga nisbatan yalpi ichki mahsulot birligida 10 % ga qisqartirishni mo'ljallamoqda.

Ekspertlarning ta'kidlashicha, 2030 yilga borib O'zbekistonda haroratning ortishi 3,5-4°S ga yetishi mumkin. Global haroratning ortishi ayniqsa, O'zbekistonning shimoliy - g'arbiy viloyatlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Mamlakatning faqatgina qurg'oqchil zonalaridagina emas, balki tog'li hududlarning ham cho'llashuvi ro'y beradi.

2020-2030 yillarga borib, O'zbekiston hududidagi quruq subtropik va mo'tadil mintaqqa o'rtasida chegara 2° kenglik shimolga siljiydi, ekstremal harorat ko'tariladi, yog'inlar miqdori me'yordan 15-20 % o'zgaradi.

Iqlim o'zgarishi tufayli sodir bo'lishi mumkin bo'lgan oqibatlar qatoriga quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- hozirgi yuz yillikning o'zida okeanlar sathi 1 m ko'tarilishi;
- CO2 konsentratsiyasi atmosfera havosida ortishi;
- yerning ustki qobig'i harorati +0.6 gradusga(S)ga o'zgarishi;
- suv resurslari taqchilligining kuchayishi;
- tabiiy ofatlarning ortishi- zilzilalar,suv toshqinlarning tez-tez takrorlanishi;
- kuchli yog'ingarchilikli yoki umuman yog'ingarchiliksiz kunlarning ortishi;
- o'simliklarni qurg'oqchilik tufayli nobud bo'lishi;
- hayvonlarning yashash joylarini o'zgarishi;
- cho'llanish jarayonlarining kuchayishi,ya'ni yashash va qishloq xo'jaligi yuritish mumkin bo'lgan yerlarning kamaayishi;
- harorat rejimini keskin darajada kuchayishi natijasida aholi salomatligida jiddiy muammolarni yuzaga kelishi va boshqa ko'pgina oqibatlarga sabab bo'lmoqda.

Iqlim o'zgarishlarini oldini olish uchun quydagi chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi:

- ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- issiqxona gazlarini kamaytirish. Sanoat va ishlab chiqarish korxonalaridan chiqayotgan chiqindilarni yangi texnologiyalar yordamida qayta ishlash;
- yoqilg'ilar sifatini yanada yaxshilash hamda ekologik toza transport vositalarini ko'paytirish;
- suv resurslaridan oqilona foydalanish ;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni yo'lga qo'yish.

Keyingi yillarda mamlakatimizda iqlim o'zgarishlarini oldini olish, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini saqlash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash ishlariga e'tibor yanada kuchaymoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “ 2019 – 2030 - yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “ yashil iqtisodiyot ”ga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, 2022 – 2026 – yillarda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi. Maskur davlat dasturining 9 bandiga asosan “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026 – yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 % ga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20 % ga qisqartirish choralari ko‘rish masalalari belgilanganligi, bu boradagi ishlarni samarali tashkil etilishi buning atmosferaga chiqarilayotgan zaharli moddalar va gazlarini kamaytirish orqali iqlim o‘zgarishini nisbatan ijobiy tomonga o‘zgartirish mumkin.

Bugungi kunda globallashib borayotgan davrimizda ekologik muammolar nafaqat insonlarga balki o‘simliklar va hayvonot dunyosiga ham o‘z ta‘sirini ko‘satmoqda, O‘simlik turlarini butunlay yo‘q bo‘lib ketishiga olib kelmoqda. O‘simlik turlarining yo‘qolishi hayvonot dunyosining turlar sonining kamayishi, yashash areallarini qisqarishiga sabab bo‘lmoqda. Ekologik muammolarni bartaraf etish, kelgusi avlodlarga musaffo osmon, go‘zal tabiat va uning bebaho ne‘matlarini asrash va yetkazish barchamizning umuminsoniy burchimiz ekanligini unutmasligimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘jallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.
3. Akhmedova, D. M., & Turdieva, N. (2021). Bio ecological characteristics of climatic landscape plants of fergana city. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1390-1394.
4. Ahmedova, D. M., Nizomov, N., Ahmedov, R., & Turdiyeva, N. (2022). ATROF-MUHIT MUHOFAZASIDA CHIQUINDILAR MUAMMOSI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 696-702.
5. Ahmedova, D., & Turdieva, N. (2022). AGROTECHNOLOGY OF ORNAMENTAL TREE AND SHRUB CARE. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 1(11), 11-18.

FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI OLIH SOHASIDA DAVLAT TILINING QO'LLANISHI

Badalbayeva Malohat

O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi

"Tillar" kafedrasi boshlig'i, podpolkovnik

Hozirda respublikamizda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirishga alohida e'tibor qaratilib, bu borada izchil islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasining 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida"gi Qonunining 1-moddasida O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili ekanligi qat'iy belgilangan. 9-moddada esa davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritilishi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishining ta'minlanishi qayd etilgan. [1]

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish departamenti tomonidan vazirlik idora hamda tashkilot rahbarlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchilarining faoliyati nazoratga olinib, o'zaro muvofiqlashtirib kelinmoqda.

Davlat tilida ish yuritish haqida gap ketar ekan, bu jarayonda atamalarning ma'nolariga ham alohida e'tibor qaratish kerak. Masalan, ba'zi o'rinlarda favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimiga murojaat qiluvchilar tomonidan "favqulodda vaziyat" tushunchasining o'rnida "favqulodda holat" shaklini qo'llash kuzatiladi. Hatto OAVda ham ba'zida shu holga duch kelinadi. Aslida bu ikki tushuncha ikki xil. Favqulodda holat – maxsus sharoit talabi bilan belgilanadi, e'lon qilinadi. [2] Favqulodda vaziyat esa –tabiiy, texnogen yoki ekologik omillarga ko'ra, yuzaga keladi, sodir bo'ladi...

Bu kabi jihatlarga ziyraklar bilan munosabatda bo'lish zarur. Agar chuqur mushohada qiladigan bo'lsak, o'zbek tilining imkoniyatlari juda keng va biz uchun maydon - bepayon. Masalan, qutqaruvchi so'zi rus tilida "спасатель" deyiladi. Biroq "qutqaruvchi" so'zining o'zbek tilida xaloskor, madodkor, najotkor, ko'makdosh, yordamchi sifatida talqin qilinishi sohada hotirjam holda davlat tilida ish yuritish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

To'g'ri, lug'at qatlamimizga chet tillarida turli sohalarga oid kirgan so'zlar ham bor. Albatta, ularni zo'rlab o'zbekchallashtirish, tilimiz "sofligi"ni ta'minlashga urinish mantiqsizlik. Jumladan, vazirlik tizimi faoliyatida "экстремал", "техноген", "мобиль", "штаб", "симуляция", "комбинезон", "респиратор" va yana qator chet tilidan kirgan so'zlar ishlatiladi. Ayrim

atamalarning muqobilini nomlash mumkindir, biroq ba'zilarida buning imkoni yo'q. Gap bunda emas, chunki til ham jonli vujudiy gap. U ham o'ziga keraklilarini tashqaridan oladi, keraksizlarini asta sekin chiqarib tashlaydi...

Ayrim o'rinlarda avtomobillarga birlashtirilgan mas'ul hodimlarni so'zlashuv uslubida "старший" deyish kuzatiladi. Bu holni barcha sohalarda kuzatish mumkin. O'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri "mashina kattasi" deya o'girilgan holatlar ham bo'lgan. Shu o'rinda mazkur ifodani "avtomobilga mas'ul etib birlashtirilgan hodim" yoki birgina so'z - "mas'ul" bilan aks ettirish mumkin.

Ilgari maxsus yuk transport avtomobillarida "Огнеопасно" degan yozuv bo'lardi. Hozir bu yozuv deyarli yo'q. O'rniga "Olovga xavfli", "Olovdan xavfli", "Yong'inga xavfli" (yana boshqa shakllari ham bo'lishi mumkin!) degan ifodalarni kuzatamiz. "Огнеопасно" ifodasining tagzaminida avtomobildagi suyuqlik xavfli yonilg'i ekanligi olovda esa uning bu xususiyati battar ortishi va kutilmaganda yong'in, portlash ofatini yuzaga keltirishi nazarda tutilgan. Shunday ekan, bu ifodani "Xavfli yonilg'i" yoki yana qandaydir boshqacha ko'rinishda ifodalash maqsadga muvofiq, bizningcha.

Idorada davlat tilida ish yuritish talab qilinarkan, albata, bu borada ishlab chiqilgan tartib va tavsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, aytish kerakki, hozirda vazirlik tizimida davlat tilida ish yuritish yuzasidan tartib ishlab chiqilgan bo'lib, uni tavsiya o'rnida quyidagicha keltirish mumkin:

1. Vazirlik tizimi bo'yicha ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan huquqiy me'yoriy hujjat yoki yuqori tashkilot va idoralarga yuboriladigan matnini o'zbek tilida, davlat tili talablari - grammatik, uslubiy, tinish belgilari va imlo qoidalariga muvofiq ravishda yaratish.

2. Matn yaratishda "O'zbek tilining izohli lug'ati", "O'zbek tilining imlo qoidalari" va yana tegishli lug'atlar bilan bevosita ishlash hamda hujjatdagi xatoliklarga o'z o'rnida barham berish.

3. Matn yaratishda Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimi, Fuqaro muhofazasi sohasida qo'llaniladigan atama va terminlarni o'z o'rnida, to'g'ri qo'llashga qat'iy e'tibor qaratish va bunga erishish.

4. Matn yaratilgandan so'ng uning ustida takroriy ishlovni amalga oshirish, davlat tili, shu bilan birga, sohaviy nuqtai nazardan qonunchilikka muvofiqligini qayta ko'rib chiqish, mutaxassislar bilan kelishish.

5. Tayyorlangan buyruq, buyruqnoma (keyingi matnlarda - rahbarlik hujjatlari) va yuqori tashkilotlarga, shuningdek, aloqador vazirlik, idoralarga yuboriladigan xatlarni vazirning manaviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi tahriridan o'tkazish, kelishish va h.k.

Yuqoridagilardan hulosa qilish kerakki:

- vazirlik yoki idorada davlat tilida ish yuritish tartibiga har bir rahbar, ijrochi xodim qat'iy amal qilishi, buning uchun o'z ustida doimiy ishlashi;
- imkon qadar sohaga tegishli atamalarning o'zbek tilidagi muqobillaridan foydalanishga erishilishi;
- xodimlarning nafaqat yozma, balki o'g'zaki nuqtida ham davlat tilida ish yuritish, so'zlashish madaniyatini yuksaltirishning ta'sirchan choralarini ko'rish h.k. masalalariga mihim e'tibor qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida"gi Qonuni.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2008-yil. 4-jild. 606-bet. B.: 318. (Elektron manba).

FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI OLIH SOHASIDA DAVLAT TILINING QO'LLANISHI

Badalbayeva Malohat

*O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi
"Tillar" kafedrasi boshlig'i, podpolkovnik*

Hozirda respublikamizda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirishga alohida e'tibor qaratilib, bu borada izchil islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasining 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida"gi Qonunining 1-moddasida O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili ekanligi qat'iy belgilangan. 9-moddada esa davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritilishi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishining ta'minlanishi qayd etilgan. [1]

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish departamenti tomonidan vazirlik idora hamda tashkilot rahbarlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchilarining faoliyati nazoratga olinib, o'zaro muvofiqlashtirib kelinmoqda.

Davlat tilida ish yuritish haqida gap ketar ekan, bu jarayonda atamalarning ma'nolariga ham alohida e'tibor qaratish kerak. Masalan, ba'zi o'rinlarda favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimiga murojaat qiluvchilar tomonidan

“favqulodda vaziyat” tushunchasining o‘rnida “favqulodda holat” shaklini qo‘llash kuzatiladi. Hatto OAVda ham ba’zida shu holga duch kelinadi. Aslida bu ikki tushuncha ikki xil. Favqulodda holat – maxsus sharoit talabi bilan belgilanadi, e’lon qilinadi. [2] Favqulodda vaziyat esa –tabiiy, texnogen yoki ekologik omillarga ko‘ra, yuzaga keladi, sodir bo‘ladi...

Bu kabi jihatlarga ziyraklar bilan munosabatda bo‘lish zarur. Agar chuqur mushohada qiladigan bo‘lsak, o‘zbek tilining imkoniyatlari juda keng va biz uchun maydon - berayon. Masalan, qutqaruvchi so‘zi rus tilida “спасатель” deyiladi. Biroq “qutqaruvchi” so‘zining o‘zbek tilida xaloskor, madodkor, najotkor, ko‘makdosh, yordamchi sifatida talqin qilinishi sohada hotirjam holda davlat tilida ish yuritish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi.

To‘g‘ri, lug‘at qatlamimizga chet tillarida turli sohalarga oid kirgan so‘zlar ham bor. Albatta, ularni zo‘rlab o‘zbekchalashtirish, tilimiz “sofligi”ni ta’minlashga urinish mantiqsizlik. Jumladan, vazirlik tizimi faoliyatida “экстремал”, “техноген”, “мобиль”, “штаб”, “симуляция”, “комбинезон”, “респиратор” va yana qator chet tilidan kirgan so‘zlar ishlatiladi. Ayrim atamalarning muqobilini nomlash mumkindir, biroq ba’zilarida buning imkoni yo‘q. Gap bunda emas, chunki til ham jonli vujudiy gap. U ham o‘ziga keraklilarini tashqaridan oladi, keraksizlarini asta sekin chiqarib tashlaydi...

Ayrim o‘rinlarda avtomobillarga biriktirilgan mas’ul hodimlarni so‘zlashuv uslubida “старший”deyish kuzatiladi. Bu holni barcha sohalarda kuzatish mumkin. O‘zbek tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri “mashina kattasi” deya o‘girilgan holatlar ham bo‘lgan. Shu o‘rinda mazkur ifodani “avtomobilga mas’ul etib biriktirilgan hodim” yoki birgina so‘z – “mas’ul” bilan aks ettirish mumkin.

Ilgari maxsus yuk transport avtomobillarida “Огнеопасно” degan yozuv bo‘lardi. Hozir bu yozuv deyarli yo‘q. O‘rniga “Olovga xavfli”, “Olovdan xavfli”, “Yong‘inga xavfli” (yana boshqa shakllari ham bo‘lishi mumkin!) degan ifodalarni kuzatamiz. “Огнеопасно” ifodasining tagzaminida avtomobildagi suyuqlik xavfli yonilg‘i ekanligi olovda esa uning bu xususiyati battar ortishi va kutilmaganda yong‘in, portlash ofatini yuzaga keltirishi nazarda tutilgan. Shunday ekan, bu ifodani “Xavfli yonilg‘i” yoki yana qandaydir boshqacha ko‘rinishda ifodalash maqsadga muvofiq, bizningcha.

Idorada davlat tilida ish yuritish talab qilinar ekan, albata, bu borada ishlab chiqilgan tartib va tavsiyalar mihim ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda, aytish kerakki, hozirda vazirlik tizimida davlat tilida ish yuritish yuzasidan tartib ishlab chiqilgan bo‘lib, uni tavsiya o‘rnida quyidagicha keltirish mumkin:

1. Vazirlik tizimi bo'yicha ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan huquqiy me'yoriy hujjat yoki yuqori tashkilot va idoralarga yuboriladigan matnini o'zbek tilida, davlat tili talablari – grammatik, uslubiy, tinish belgilari va imlo qoidalariga muvofiq ravishda yaratish.

2. Matn yaratishda “O'zbek tilining izohli lug'ati”, “O'zbek tilining imlo qoidalari” va yana tegishli lug'atlar bilan bevosita ishlash hamda hujjatdagi xatoliklarga o'z o'rnida barham berish.

6. Matn yaratishda Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimi, Fuqaro muhofazasi sohasida qo'llaniladigan atama va terminlarni o'z o'rnida, to'g'ri qo'llashga qat'iy e'tibor qaratish va bunga erishish.

7. Matn yaratilgandan so'ng uning ustida takroriy ishlovni amalga oshirish, davlat tili, shu bilan birga, sohaviy nuqtai nazardan qonunchilikka muvofiqligini qayta ko'rib chiqish, mutaxassislar bilan kelishish.

8. Tayyorlangan buyruq, buyruqnoma (keyingi matnlarda – rahbarlik hujjatlari) va yuqori tashkilotlarga, shuningdek, aloqador vazirlik, idoralarga yuboriladigan xatlarni vazirning manaviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi tahriridan o'tkazish, kelishish va h.k.

Yuqoridagilardan hulosa qilish kerakki:

- vazirlik yoki idorada davlat tilida ish yuritish tartibiga har bir rahbar, ijrochi xodim qat'iy amal qilishi, buning uchun o'z ustida doimiy ishlashi;

- imkon qadar sohaga tegishli atamalarning o'zbek tilidagi muqobillaridan foydalanishga erishilishi;

- xodimlarning nafaqat yozma, balki o'g'zaki nuqtida ham davlat tilida ish yuritish, so'zlashish madaniyatini yuksaltirishning ta'sirchan choralari ko'rish h.k. masalalariga mihim e'tibor qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

2. O'zbekiston Respublikasining 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi Qonuni.

2. O'zbek tilining izohli lug'ati. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2008-yil. 4-jild. 606-bet. B.: 318. (Elektron manba).

DIFFERENT SCIENTIFIC VIEWS ON PAREMIOLOGY

Badridinova Aziza Abrol qizi

PhD student of NUU

It is known from history that linguistics as a science has gone through several stages in its development. In ancient times, there was a more grammatical and structural approach to the study of linguistics, but in later periods, different features of the language and its divisions began to emerge. The branches and units of each language have been studied by scientists and various studies have been carried out. In particular, paremiology and phraseology are important branches of linguistics, which are mainly focused on the study of stable linguistic units in the language. Research shows that these two branches of linguistics are related to each other. According to H. Berdiyurov and R. Rasulov, who made a great contribution to the creation of paremiological dictionaries of the Uzbek language in the 20th century, paremiology is closely related to phraseology. Paremiology studies all expressions of different character in the language, while phraseology, as a part of it, studies only stable phrases with figurative meaning. These are their distinguishing features. H. Berdiyurov and R. Rasulov believe that paremiology has a great role in the formation of phraseology as a science.²⁵ To this day, one of the controversial debates in linguistics is the linguistic position of paremiology, its scope and formation as a science. Although paremiology is still recognized as a science, this branch of linguistics has not yet been fully developed as a systematic science like lexicology, morphology and others. In particular, Z.R. Djuraeva describes this situation as follows in her article: "At present, paremiology as a branch of linguistics cannot yet be regarded as an established branch of scientific knowledge. At present, we can only talk about some fundamental concepts, such as paremia, a paremiological unit, but at the moment there is no generally accepted systematization of paremiological material in paremiology, its volume and boundaries have not been determined..."²⁶ It is noted in the article that we can only talk about some fundamental concepts such as parema, paremiological unit. But at present, there is no generally accepted systematic paremiological material in paremiology, that is, its scope and boundaries are not defined. From the linguist's point of view, we can draw the following conclusion: language units such as proverbs, sayings, aphorisms, and wise words, which are units of paremiology, have been studied in different ways by all folk linguists, but as a science, the systematic program and theoretical materials of this field have not been

²⁵ H. Berdiyurov, R. Rasulov - Ўзбек тилининг паремиологик луғати. "O'qituvchi", Tashkent 1984, p 10.

²⁶ Z.R. Juraeva - Approaches to the study of paremiology in Russian linguistics - European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS). Vol. 2 No. 3, March 2021, ISSN: 2660-5570, p 89.

sufficiently created. Nevertheless, the interest and research of paremiology and phraseology by scientists has refined some important concepts in these areas. In particular, Uzbek paremiologists H. Berdiyurov and R. Rasulov emphasize that it is necessary to study the paremiological layer of each language: "In order to know the modern Uzbek (Russian or other) literary language better and more perfectly, with the phonetics, grammar, lexicon of that language at the same time, its rich paremiological heritage should be deeply mastered."²⁷ If we look at the definition given to paremiology by our linguist scientist N. E. Abdullayeva, who has conducted valuable research in the field of paremiology: "Proverbs stand out from other phraseological units due to their specific characteristics. Therefore, it became noticeable in modern linguistics that the study of folklore as a product and its analysis within the field of phraseology led to the limitation of proverbs to a certain extent. As a result, a separate field - paremiology - was created to study proverbs both as a folk example and as a linguistic unit. "Paremiology" (derived from the Greek language "paroimia" - proverb, wise word, and "logos" - science) is a science that studies wise expressions such as proverbs, sayings, aphorisms, its "paremiography" section deals with collecting proverbs, wise sayings and compiling their dictionaries.²⁸ The objects of study of paremiology are called "paremas". Paremas as a unit of paremiology have been studied by many scholars in Uzbek linguistics and world linguistics. The first appearances of paremas in Uzbek folklore date back to the 11th century. In Mahmud Kashgari's "Devoni lug'atit-turk" work, which was published in the 11th century, he introduced words, phrases, phraseological units, proverbs, narratives and other language units. In addition, Gulkhani's famous work "Zarbulmasal" contains more than 300 proverbs. By the 20th century, several collections of proverbs, considered a paremiological unit, were created by Uzbek proverb scholars. For example, Sh. Shomaqsudov and Sh. Shorahmedov's "O'zbek maqollarining izohli lug'ati", T. Mirzaev, B. Sarimsakov, A. Musakulov's "O'zbek xalq maqollari", Y. Ibrahimov's "O'zbek va turk maqollari va iboralari", K.M. Karamatova, H.S. Karamatov's "Proverbs, Maqollar, Пословицы" are among them.

At the same time, scientists A.M. Zhigulev, V.P.Anikin, V.I.Zimin, E.Y.Neshimenko, K.G.Berseneva, V.I.Dal, V.P.Zhukov, who created various paremiological collections and dictionaries in Russian linguistics, and those who contributed to the development of this field with their scientific work in the field of proverbs O. G. Dubrovskaya, T. G. Bochina, N. L. Buneeva, L. B. Savenkova, N. V. Prekina, V. I. Belikov were mentioned by Uzbek linguist N. E. Abdullayeva in her dissertation. At the same time, in Russian linguistics there are several

²⁷ H. Berdiyurov, R. Rasulov - Ўзбек тилининг паремиологик луғати. "O'qituvchi", Tashkent 1984, p 3.

²⁸ N.E.Abdullayeva- Инглиз ва ўзбек халқ мақолларидаги градуономик муносабатларнинг лингвопрагматик хусусиятлари- Monography. "Nurafshon business" Tashkent 2021, p 53.

controversial views on parema, that is, some scientists see them as a phraseological unit (V.T. Bondarenko, V.N. Teliya), some scientists consider them as a small unit of folklore (V.P. Anikin, A.N. Martynova, G.L. Permyakov). However, the folklorist M.A. Temirova, who compared the typology of Uzbek and Kyrgyz folk proverbs²⁹, considered that paremas are folklore texts and more complex than phraseological units.

The list of literature:

1. H.Berdiyorov, R.Rasulov - Ўзбек тилининг паремиологик луғати. "O'qituvchi", Tashkent 1984, p 10.
2. Z.R.Juraeva - Approaches to the study of paremiology in Russian linguistics - European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS).Vol. 2 No. 3, March 2021, ISSN: 2660-5570, p 89.
3. H.Berdiyorov, R. Rasulov - Ўзбек тилининг паремиологик луғати. "O'qituvchi", Tashkent 1984, p 3.
4. N.E.Abdullayeva- Инглиз ва ўзбек халқ мақолларидаги градуономик муносабатларнинг лингвопрагматик хусусиятлари- Monography. "Nurafshon business" Tashkent 2021, p 53.
5. M.A.Temirov - Ўзбек ва қирғиз халқ мақоллари типологияси. Dissertation. Tashkent- 2018, p 37.

**ДИФФЕРЕНЦИАЛ ТЕНГЛАМАЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЁТ
МАСАЛАЛАРИДА ҚЎЛЛАНИЛИШИ**

Баймуратова Клара Амангельдиевна,
КМУ математика факультети ассистенти

Дифференциал тенгламалар ҳодисани объектив тушунишга, улардан самарали фойдаланишга ёрдам беради ва олинган натижаларнинг ишончилигини оширади. Дифференциал тенгламалар иқтисодий динамика моделларида ҳам кенг қўлланилади. Ушбу моделлар нафақат ўзгарувчиларнинг вақтга боғлиқлигини, балки вақт ўтиши билан уларнинг муносабатларини ҳам акс еттиради. Иқтисодиётда кўпинча муаммолар кўриб чиқилади, уларнинг ечими ўзгарувчилардан ташқари керакли функцияларни, шунингдек ушбу керакли функцияларнинг ҳосилаларини ўз ичига олган бир ёки бир нечта тенгламаларга қисқартирилади. Дифференциал тенгламаларга олиб келадиган иқтисодий муаммоларни кўриб чиқамиз.

²⁹ M.A.Temirov - Ўзбек ва қирғиз халқ мақоллари типологияси. Dissertation. Tashkent- 2018, p 37.

K -ни фонд миқдори натурал ёки пул кўринишидаги маблағлар деп белгилаймиз. Фондлар бу машиналар, бинолар ва бошқалар. [3] Улар ескиради, ишка яроқсиз булади. Фондларнинг ескириш тезлиги бу хосила- $\frac{dK}{dt}$, у ишдан чиқиш коэффиценти μ орқали ифодаланган. Масалан, агар фондлар 10 йил давомида тўлиқ янгиланган бўлса, унда ишдан чиқиш коэффиценти $\mu=1/10$ тенгдир. Бошқа томондан, инвестициялар I -пул маблағлари-мутаносиблик коэффиценти ρ билан маблағларнинг кўпайишига олиб келади. Буларнинг барчасини ҳисобга олган ҳолда, биз шаклнинг дифференциал тенгламасини оламиз: $\frac{dK}{dt} = -\mu K + \rho I$.

Иқтисодий назарияда функцияларнинг эластиклиги талаб ва истеъмолни таҳлил қилишда қўлланилади.

Масала.2. Доимий эластиклик k -га тенг бўлган функцияни топинг:

Ечими. Таърифга кўра, функциянинг эластиклиги $E_{yx} = y' \frac{x}{y}$,

масаланинг шarti буйича : $y' \frac{x}{y} = k$ ўзгарувчилари ажираладиган

дифференциал тенгламага келамиз: $\frac{dy}{y} = \frac{dx}{x} \cdot k$

Икки томонини интеграллаб топамиз: $\ln y = k \ln x + \ln C$, бундан $y = C \cdot x^k$.

Масала3. Табиий ўсиш моделини яратиш (ўсиш доимий темпда). [2] Ечими: $y(t)$ -ни айрим корхонанинг ишлаб чиқариш интенсивлигини белгилаймиз. Истемолчининг тойинмаганлиги аксиомаси содир булади, яъни барча ишлаб чиқарилган товарлар сотилади деб фараз қиламиз, шунингдек, сотиш хажми унчалик юқори эмаслиги, биз белгиланган деб хисоблайдиган товарлар p , нархида сезиларли таъсир қилади. Ишлаб чиқариш интенсивлигини ошириш учун $y(t)$, соф инвестициялар $I(t)$, ва амортизация қилинган харажатлар ортасидаги фарқ нолдан катта булишлари керак. $I(t) = 0$ булганда умумий инвестициялар фақат амортизация харажатларини қоплайди ва ишлаб чиқариш даражаси ўзгаришсиз қолади. $I(t) < 0$ булган вазиятда асосий фондларнинг камайишига ва натижада ишлаб чиқариш даражасининг пасайишига олиб келади. Шунинг учун ишлаб чиқаришнинг интенсивлиги $I(t)$ -ўсиш функциясидир. Бу боғликлик тўғридан-тўғри пропорционал, яъни тезланиш деб аталадиган принцип билан ифодалансин.

$$y' = mI (m - const),$$

Бу ерда $-1/m$ тезлашув тезлиги. α -еса соф инвестиция ставкаси, яъни py -даромадининг соф инвестициялар учун сарфланган қисми, яъни $I = \alpha py$

. Бу ерда $k = m\alpha p = const$, охирида $y' = ky$ дифференциал тенгламага келамиз, ўзгарувчилари ажираладиган дифференциал тенгламани интеграллаймиз ва умумий ечимини топамиз: $y = Ce^{kt}$. Бошлангич шартлари $y(t_0) = y_0$, хусусий ечимини топамиз $y = y_0 e^{k(t-t_0)}$. Бу ечим табиий ўсиш тенгламаси деб аталади.

У доимий инфляция даражасида нархларнинг осий динамикасини тафсифлайди.

Худди шу турдаги масалаларни Я.Б.Зельдовичнинг «Янги бошланувчилар учун олий математика» китобида, Н.И.Лобанованинг «Кўшимча таълим тизимида дифференциал тенгламалар орқали амалий масалаларни ечишга ўргатиш» мақоласида топиш мумкин. Кўриб чиқилган мисоллардан дифференциал тенгламаларни ечишнинг ўзига хослиги кўринади. Уларнинг ечими чексиз функциялар туплами бўлиб, ундан бошлангич шартларни қўйиш орқали ечимлар олинади. Шунингдек, кўриб чиқилаётган масалаларда дифференциал тенгламалар иқтисодий масалаларни ечишда кенг қўлланилади, деган хулосага келиш мумкин. Олинган умумий ва хусусий ечимларни тахлил қилиш, ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш учун захираларни аниқлаш, талаб ва таклиф ўртасидаги мунособатларни ўрнатиш имконини беради.

Шундай қилиб, таълим тизимида дифференциал тенгламалар ёрдамида иқтисодий масалаларни ечиш, нафақат ушбу усулни ташқил этувчи, энг мухим элементларни ишлаб чиқишда, балки укувчилар билимини чуқурлаштириш ва мустахкамлашга ҳам ёрдам беради. Бу эса ҳақиқатан ҳам ўз билимини норасмий, мазмунли, чуқур ва мустахкамлигини оширишга олиб келади.

Адабиётлар:

1. Гладышева А.В. Иқтисодий жараёнларни математик иқтисод усуллари билан ўрганиш. Ижтимоий-иқтисодий ходиса ва жараёнлар. 2010. 6-сон (022). 56-62б.

2. Кныш А.А. Иқтисодий университетда математика синфида фанлараро мунособатларни амалга ошириш мисоллари. Стерлитамак: АМИ, 2017. № 2.57б.

3. Иқтисодиётда оддий дифференциал тенгламаларнинг баъзи қўлланилиши: барча таълим шакллари талабалари учун кўрсатмалар: О.В.Авдеева, О.И.Микрюков. Вологда: ВСУ, 2015. 43б.

4. Елецких И.А. "Дифференциал тенгламалар" фанини укув-методик таъминлаш: укув қуланма. Елец: И.А.Бунин номидаги ИДУ, 2018. 63б.

INTERRELATION OF APHORISMS IN LINGUISTICS

Baratova Dildora Sadulla qizi

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

We live in global era so it is important to know different languages. Language is necessary to communicate with people, exchange ideas, learn new cultures and other reasons. Language is the means of communication and it develops after many years. In the past people did not know how to communicate and instead of using language they used different gestures. As we know all gestures represents different kind of cultures in the world but they did not have any other opportunities. After many years, a lot of things improved and people communicated with sounds and they accustomed to use words. Words also plays a significant role while communicating because they represent our views in reality. Words are integral part of our speech and they try to enlighten thoughts. Accordingly, every language has their wealth, it includes all of vocabulary of word stocks. People can express ideas to use with words. Words also a tool to deliver the thought in our mind with oral and in written form. Linguistics studies language but vocabulary stocks are studied in lexicology. The word lexicology came from Greek word (lexis – “word” and logos “doxy”). [1] Lexicology studies not only words but also word combination, phraseology, idioms. Texts can be created by using words. In the text we note words, phraseological units, paroemias.

Word is the most important structural unit of the language that serves to name things, processes and features, has its own sound shell, expresses the concept of the thing in existence, the connection between them or the relationship to them. The smallest unit of speech used in various grammatical meanings and functions. When comparing a word with other units, the word contains both the concepts of expression and content. Furthermore, we use aphorisms, proverbs, riddles and paradoxes in our speech. All of these units have their own special features.

The history of the origin of the term aphorism related to the ancient Greek philosopher and physicist Hippocrates, and it includes the V-IV centuries BC. [2] It is clear that aphorisms existed in the past, now they are existed, and reach future generations. It is no exaggeration to say that aphorisms are a factor of human thinking, because they reflect the inner experiences, material and spiritual values of the people and the nation. Aphorisms can consist of one or more words else they appear as a whole text. As a result of their research on aphorisms, many scientists have defined them in different ways, according to some scientists view that a few number of words using in aphorisms can help to intensify the meaning

of aphorisms but others think that vice versa. According to linguistics research, aphorisms have such features in the contexts. [3]

- 1 brevity of information;
- 2 summarizing the idea;
- 3 didactic;
- 4 expressiveness;
- 5 accuracy;
- 6 communicativeness;
- 7 entirety;

Based on the characteristics of aphorisms, if we dwell on each of them, they must be distinguished from other language units by their shortness of content. In addition, the thought expressed in it is not the entire large text, but the general idea of the description, the spontaneous manifestation of the thought, the manifestation of the word in a manner worthy of the expressed reality.

Most aphorisms' form are short but they have wide meaning so they separate from other linguistic units such as: riddles and paradoxes. Information should be clear and short in order to understand clearly to readers. Now we move to analyze the examples of Uzbek, Russian English aphorisms as followings:

*Onangdan bosh tovlama, oshmasin dardi,
Sharaf toji erur oyog'in gardi.*

Abdurahmon Jomiy

According to this aphorism, the writer tried to describe love to mothers. In Uzbek culture people should respect them in any occasion. The aphorism focuses people never deceive mothers even they are unfair. It is really honoring their being in alive. This well-mannered aphorism can affect every reader and it reach them to keep respect to their mothers. Most aphorisms have educative meaning in their literally.

A word is the weapon. As any weapon it requires cleaning and maintenance

Rulsky

By interpreting word via the weapon the author tries to express every person should pay attention what they are saying. Through the time the words which are said by people must be controlled because even we think that this or that simple words can hurt someone life or lifestyle. The observations prove that in such aphoristic utterances the accent is shifted from the knowledge about the notion marked by a linguistic term to its image.

Язык – основа культуры

Тихий

The second aphorism represents the most significant role of culture is language. Language is not only a means of communication, but something more important. Language consists of all the deep levels of a nation's spiritual life, its

historical memory and the most valuable accomplishment of centuries. Through the language every customs' of any nation reach to future generation.

In conclusion, it is worth saying that aphorisms, which call people to spiritual and moral education in order to ensure economy in speech, are one of the most important language units in society. When we read and analyze them, we understand that each given aphorism is unique and we can get a very good conclusion from them. But every reader analyzes an aphorism in different ways and understands it, because the less the number of words in the aphorisms, the more the meaning in it can be an obstacle to its understanding.

Adabiyotlar:

1. Abduazizov A. Tilshunoslikka kirish II-qism Leksikologiya va semasiologiya, Grammatika, b-3,1999
2. В переводе на русский язык см.: Афорисмы Иппократа / пер. П. Шюца. Санктъ Петербургъ, 1
3. Tashpulatova D.X., Research of aphorisms in world linguistics//Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. b - 2. 5
4. <https://поискслов.рф/anagram>
5. Л.Ф. Ильичёв, П.Н. Федосеев, С.М. Ковалёв, В.Г. Панов., Философский энциклопедический словарь / Гл. редакция. - М.: Советская энциклопедия, 1983.-840 с. -150000 экз.
6. Федоренка Н.Г., Сокольская А.И. Афористика. - М.: Наука, 1990
7. В переводе на русский язык см.: Афорисмы Иппократа / пер. П. Шюца. Санктъ Петербургъ, 1

XALQ KO'NGLINING OVCHISI

Baxtiyarov Javohirbek Jaxongirovich
O'zbekiston Milliy universiteti 3-kurs talabasi

Odatda, ulkan va iste'dodli san'atkorlarning butun bir ijodigina emas, balki har bir asari o'nlab, yuzlab olimlar tomonidan batafsil tadqiq qilinadi, sinchiklab o'rganiladi. Mabodo, ular bir joyga jamlangudek bo'lsa, ajoyib bir tafakkur chamanzori dunyoga keladi. Undagi bir-biriga mutlaqo o'xshamagan har bitta gul o'z rangi hamda tarovati bilan ko'ngillarga orom beradi va ijodkor gulzorining turfaligini ko'rsatuvchi fazilatga aylanadi. Masalan, ulug' Alisher Navoiy ijodi 500 yildan buyon tadqiq etilyapti, bundan keyin ham o'rganilaveradi. Bu bilan Navoiy ijodi haqida aytiladigan fikr qolmadi, degan muammo kelib chiqmaydi. Aksincha, fikr fikrni uyg'otadi deganlaridek, ijodkor uslubi va mahoratining yangi-yangi qirralari ochilaveradi. Chunki haqiqiy iste'dodli san'atkorning ijodiy merosi

ummonga o'xshaydi. Unga sho'ng'igan g'avvos nasibasiga yarasha duru gavharlarni terib chiqaveradi, ular esa mutlaqo tugamaydi. Zamonamizning iste'dodli shoiri Erkin Vohidov ijodi ham ana shunday ummonlardan biridir.

Shoir bo'lish uchun talant kerak. Bu haqiqat shu qadar oydin, shu qadar oddiyki, ba'zan uning oddiyligiga ko'nikib ketib, unutilib ham qo'yamiz. Ayniqsa she'riyat masalalariga bag'ishlangan ko'pgina tanqidiy asarlarda istagan narsa haqida baxs qilamizu, talant to'g'risida, uni avaylab asrash va tarbiyalash haqida kam gapiramiz.

Erkin Vohidovning talanti avvalo shunda ko'rinadiki, u shoirlikning eng zarur hislatiga – shoirona tafakkur qilish, obrazlar bilan o'ylash qobiliyatiga ega. U ko'pincha biron oddiy buyumni oladiyu, shu orqali chuqur ma'noni, jiddiy fikrlarni ifodalaydi. Choynak va piyolani hammamiz yaxshi bilamiz, ammo ularning kamtarlik va manmanlik ramzi bo'lishini hayolimizga keltirgan emasmiz. Erkin Vohidov choynak va piyola orqali sakkiz misrada aniq va shoirona fikrlarni ifodalagan:

Garchi shuncha mag'rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak
Shunday ekan, manmanlik nechun,
Kibru havo nimaga kerak?
Kamtarin bo'l, xatto bir qadam
O'tma g'urur ostonasidan.
Piyolani inson shuning uchun
O'par doim peshonasidan.

Isyonkorlik, chorlovchanlik, olishqoq falsafa, teran mushohada she'riyat kemasining yelkani uchun yo'lchi shamol vazifasini o'taydi, shiddatiga shiddat qo'shadi. Ammo bu shiddat ko'psonli "oddiy she'rxonlar"ni o'ziga eliktiruvchi unsurlar – so'zlar shirasi, tasvir nafosati, ifoda nazokati ila uyg'unlasha olmas ekan, she'r quruqshoqlanib, qofiyalashtirilgan nasr tusiga kiradi, ta'sir doirasi torayadi, bir to'p ziyolilar davrasidan nariga o'tishi qiyin kechadi. Shu ikki muhim jihatni o'z ijodida omixtalashtira olish kamdan-kam shoirga nasib etgan. Erkin Vohidov she'riyatining qudratiga ham, ommaviyligiga ham eng avvalo o'sha mo'jizakor uyg'unlik sababchi bo'lsa, ne ajab?

Yuqoridagi so'zlarning ne chog'lik haqiqatga yo'g'rilganini anglash va tushunish uchun adabiyotga biroz mehr berish kifoya xolos. Shu o'rinda Anvar Obidjonning bir qator fikrlarini keltirib o'tishni joiz deb topdim: "Ijodda faylasuflik bilan odmiilikni, qahru nafrat bilan odamiylikni, kurashuvchanlik bilan go'zallikni uyqash tarzda namoyon qila olish uchun shoirga iste'dodli bo'lishning o'zi kamlik qiladi shekilli.

Chamasi, bunday qalamkashlarda bolalarcha beg'uborlik, o'smirlarcha noziktabiatlik, oshiq yigitlarga xos majnunnamolik, darveshona oshuftahollik, ruhoniylarcha pokizafe'llik, gulchilarga monand chiroysevarlik tuyg'ulari ko'proq tomir otgan bo'ladi. Bunday kishilar odatda bosiq, bezarar ko'rinishadi, nohaqlikka

duch kelganda ham jazavalanib bahslashishni eplasholmaydi, hadikchilik, o'chkorlik, hasadgo'ylik hissi ulardan tamoman begona. Shu xususiyatlar Erkin akada ham bo'rtib turadi, uni yaqindan bilganlarning ko'z o'ngida har vaqt kichikfe'l inson, ochiqyuz suhbatdosh, nozikta'b shoir qiyofasida gavdalanadi".

Eng katta xarsang ham tog' bo'lolmaganidek, nechog'li zo'rligidan qat'i nazar, bitta adib adabiyot yaratolmaydi. Shuni yaxshi bila turib, elatning dong'ini jahonga yoyishdagi muhim omillardan bo'lgan milliy adabiyotning manfaatini shaxsiy shon-shuhratidan yuqori qo'ya olishga hamma adib ham o'zida yetarlicha kuch topa olavermaydi. Bunga kuch topa olish uchun o'zining ertasidan ko'ra, yurti va xalqining charag'on kelajagini ko'proq o'ylashga, shu yo'lda kuyinib yashashga odatlanmoq kerak bo'ladi.

Erkin vohidov uzoq davr davomida xalq noibi sifatida qonunchilik palatasida va senatda bir nechta qo'mitalarni boshqardi. O'n yil yangi mustaqil O'zbekistonni oliy majlisida deputat sifatida, jumladan, O'zbekiston Oliy Majlisi Xalqaro ishlar va parlamentlararo a'loqalar qo'mitasi raisi va yana besh yil oliy Majlis Senatining fan, ta'lim, madaniyat va sport bo'yicha qo'mitasining raisi bo'lgan, ayniqsa qonunchilik palatasida ishlaganda juda ko'p qonunlarni joriy bo'lishiga sababchi bo'lgan. Mustaqil O'zbekistonni yangi shakllanayotgan parlamenti qanday bo'lish kerak va nimalarga e'tibor berish kerak degan masalaga qaxramonimiz juda qattiq faoliyat ko'rsatgan. Ko'rishimiz mumkinki adibimiz faqatgina she'rlar yozibgina qolmay amaliyotda ham juda ko'p say harakatlar qilgan.

Erkin Vohidovning 80-yillarda yozgan bir qator she'rlarida jamiyat taraqqiyotiga to'g'anoq bo'layotgan illatlarga qarshi fikrlari keskinlashdi. Masalan, "Xalq deputatlariga" she'rida yozadi:

Ertaga chiqqan chog' baland minbarga
Ayta olasizmi yurtning dardini?
Azaliy odatni qilasizmi yo?
Yalpi qo'l ko'tarib kelasizmi yo?
Deputat nishonin taqqach ko'krakka,
Quloq solib ko'ring bir bor yurakka.
Ul yurak tubida el g'amidin g'am,
Dog'idin ko'ngilda dog'ingiz bormi?

Bu misralarni o'qir ekanmiz bevosita ko'z o'ngimizga bugungi kun xalq vakili bo'lmish deputat va senatorlar qanday shaxs bo'lishi kerakligii va ular o'z pozitsiyalarini qanday qo'yishi kerakligini ko'rsatib beradi. Qalbida xalq dardi va uning vijdoni bo'lmagan insondan bunday so'zlar shunchaki chiqib qolmaydi. Bugungi kunda jamiyatimizda ham, adabiyotimizda ham qolaversa siyosatimizda ham bunday shaxslarning yo'qligi seziladi goho. Odatda bir inson hayotini yoki adabiyot yoki siyosatga bag'ishlaydi, juda oz uchratamizki ham elitar toifa vakili va shu bilan birga xalq dardi bilan yashaydigan vijdonli shoir va yozuvchi

bo'lishini. Bundan insonga qanday ta'rif berishni sizning e'tiboringizga qoldiraman.

TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA INSON OMILINING ROLI

Begbo'tayev Azzam Eshpulatovich,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

G'azibekov Jurabek Alisher o'g'li,
Ta'lim muassasalari boshqaruvi mutaxassisligi magistranti

Bugungi kunda ilmiy hamjamiyat insonni turli xil ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsatishga qodir kuch sifatidagi tushunchasiga tobora ko'proq murojaat qilmoqda. Ilmiy bilishda inson faoliyatining mantiqiy va gnoseologik talqini an'anaviy tarzda: "shaxsiy omil", "inson omili" kabi iboralarda amalga oshirilgan bo'lsa, bugungi kunda falsafiy va sotsiologik asarlarda "antropologik omil" tushunchasi mavjud. Insonning ijtimoiy hayotdagi o'rnini sintetik tarzda ifodalashga intilish inson salohiyati tushunchasida o'z ifodasini topgan. Ushbu iboralarning paydo bo'lishining uslubiy shartlari inson va texnologiya o'rtasidagi o'zaro ta'sirni aks ettirishda ko'rib chiqilayotgan tushunchalarning roli haqida savol tug'iladi.

Ijtimoiy-gumanitar adabiyotlarda shaxsning ijtimoiy hayotning turli sohalarida faoliyat subyekti sifatida faoliyat yuritishi odatda "inson omili" deb ataladi. Inson omili muammosi kishilarni ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan fazilatlarga ega bo'lgan tarbiyalashni o'z ichiga oladi. Inson omili nafaqat foydalanish ob'ekti, balki inson hayotining dastlabki kunlaridan boshlab shakllanish hamdir.

Akademik T.I.Zaslavskaya ta'kidlaganidek, inson omili "turli pozitsiyalarni egallagan, faoliyati va o'zaro ta'siri jamiyatning ilg'or rivojlanishini ta'minlovchi o'zaro ta'sir qiluvchi sinflar, qatlamlar va guruhlar tizimi"dir. Boshqacha qilib aytganda, inson omili insonni ko'p jihatdan ochib beradi: mehnatkash sifatida, fuqaro va oila boshlig'i sifatida, uning his-tuyg'ulari va fikrlarining barcha xilma-xilligida shaxs sifatida[1].

I.Ya.Lernerning bildirgan fikrlariga ko'ra inson omili muammosi kishilarni ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan fazilatlarga ega bo'lgan tarbiyalashni o'z ichiga oladi. Inson omili nafaqat foydalanish ob'ekti, balki inson hayotining dastlabki kunlaridan boshlab shakllangan. Bu muammoni hal etishda yosh avlod qanday bo'lishini, ijtimoiy ehtiyojlarni qanchalik shaxsiy muammo

sifatida qabul qila olishini va faol faoliyat sub'ekti rolini o'ynashini belgilovchi maktab eng muhim rolga ega. Bu nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning jadallashuvini, balki hayotimizning boshqa barcha sohalari: siyosat, madaniyat, oila, dam olish, o'z-o'zini tarbiyalashning takomillashuvini ham belgilaydi[2].

I.Ya.Lerner va M.N.Skatkin ta'lim maqsadini ijtimoiy tajribani uzatishda ko'rgan, mos ravishda ta'lim mazmunining tuzilishi, ularning fikricha, ijtimoiy tajriba tuzilishiga izomorf bo'lishi kerak edi. Ta'lim mazmunining o'zi ta'lim boshlanishidan oldin, o'qituvchi va o'quvchi oldida maxsus ishlab chiqilgan va tanlangan ijtimoiy tajriba sifatida ko'rilgan[3].

Ta'lim mazmunini turli nuqtai nazardan ko'rish mumkin - masalan, faoliyat nuqtai nazaridan (kognitiv, amaliy, kommunikativ va boshqalar); o'quv fanlarida aks ettirilgan faoliyat sohalari; tuzilmalar, ya'ni turli davrlarda uni tashkil etuvchi umumiy elementlar; ta'lim jarayonida o'zgaruvchan loyiha va ob'ekt sifatida; maqsadlar va ta'lim natijalari sifatida. Bundan tashqari, ta'lim mazmuni tarkibi, albatta, mintaqaviy komponentni o'z ichiga olishi kerak - bilim (shaxsiyat obrazlari, hodisalar, tabiiy ob'ektlar), faoliyat usullari va birgalikda shakllangan qadriyatlar o'quvchilarning shaxsiy tajribasi shakllanishiga zamin bo'ladi.

Ta'lim mazmunini tahlil qilishning nazariy darajasi jamiyat tomonidan to'plangan va foydalaniladigan ijtimoiy tajriba tarkibiga o'xshashlik yo'li bilan uning tarkibini aniqlashtirishni o'z ichiga oladi. Bunday yondashuv tarbiyaviy ta'lim yangi avlodlarni ijtimoiy tajriba bilan tanishtirishga qaratilganligi, ta'lim mazmuni olinadigan yagona manba bo'lganligi bilan bog'liq. Ikkinchisi ijtimoiy tajribaning pedagogik jihatdan moslashtirilgan ko'rinishi bo'lib xizmat qiladi. Har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish istagi esa, umumiy ta'lim mazmunining tuzilishini aniqlash uchun ijtimoiy tajribaning umumlashtirilgan elementlari tarkibini aniqlashga majbur qiladi.

Maktab axborot-ta'lim muhitining gumanitar salohiyati ta'lim muassasasi miqyosidagi o'quv material darajasida o'quv jarayoni har bir ishtirokchisining ta'lim ehtiyojlarini hisobga olish, ularning shaxsiy tajribasi talab darajasiga ega bo'lishini ta'minlashdan iborat. Shunday qilib, gumanitar kontseptsiyadagi o'quv material darajasida darslik va axborot-ta'lim muhitida o'z ifodasini topgan stsensariy yondashuv ustunlik qiladi.

O'rganilgan pedagogik va ilmiy tadqiqotlar xulosasiga ko'ra umumiy o'rta ta'lim mazmuni nazariyasining gumanitar talqinining asosiy qoidalari quyidagicha tizimlashtirilishi lozim:

ta'lim mazmuni inson mavjudligining mohiyatini talqin qilishga, ta'limning shaxsiy ma'nolarini izlashga qaratilgan bo'lishi kerak, mos ravishda ta'lim mazmunining gumanitar kontseptsiyasida o'qituvchi va o'quvchining shaxsiy tajribasi sifatida qaralishi;

ta'lim mazmuni bilishning mantiqiy va ma'naviy-axloqiy usullarini o'zida mujassamlashtirishi kerak;

ta'lim mazmuni konsepsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish bosqichlarida ishlab chiquvchilarning mualliflik pozitsiyasi ko'rsatilishi kerak;

ta'limni tabaqalashtirishda ota-onalar va o'quvchilarga maktab turini, ta'lim turini tanlash imkoniyatini berish;

o'quvchilarning motivatsiyasi va qobiliyatini hisobga oladigan noan'anaviy ta'lim usullari va shakllarini izlash;

ta'limning rivojlanuvchi funktsiyasiga e'tiborni kuchaytirish.

O'z navbatida mamlakatimizda ta'lim natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan mavjud bir qator jiddiy muammolarni ham ta'kidlab o'tish kerak. Bularga:

1. Ba'zi sinf va maktablarda fizika, kimyo, biologiya va matematika kabi fanlarni o'rganish uchun soatlarning keskin qisqartirilishi;

2. Ixtisoslashtirilish niqobi ostida kechayotgan maktablarning ijtimoiy tabaqalanishi. Davlat tomonidan ularga iqtisodiy-ijtimoiy ustivorlik berilishi;

3. Ba'zi maktab va litseylarda alohida fanlar chuqurlashtirilgan sinflarda pullik ta'limni joriy etilishi. Bu o'quvchilar o'rtasida iqtisodiy tabaqalashuvga olib keladi;

4. Ayrim fakultativ kurslarga to'liq jalb etish o'quvchilarning haddan tashqari ortiqcha yuklamasiga va kitob bilan jiddiy mustaqil ishlashiga vaqtlari yetmasligiga olib kelishi;

5. Oliy ta'lim muassasalari materiallari chuqur o'rganiladigan sinflar uchun fanlar mazmuniga singdirilgan, bu o'quvchilarda mustaqil bilim va qidiruv faoliyatining oqilona usullarini shakllantirishga to'sqinlik qilishi;

6. Jamiyatda ta'limning ahamiyatining pasayishi, uning qadrsizlanishi, bu ko'p jihatdan bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liq bo'lib, chuqur tashvish tuyg'usini uyg'otadi. Ta'lim sohasidagi o'rtacha maoshlar respublika miqyosidagi o'rtacha ish haqi ko'rsatkichidan 28 foizga kamroq. O'zbekistonda 2022 yilda o'rtacha oylik ish haqi 3,2 mln so'mni tashkil qilgan. Taqqoslash uchun, iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tahlillari bo'yicha, o'qituvchilar eng ko'p maosh oladigan davlatlar reytingida eng yuqori o'rinlarda Lyuksemburg – yillik 101 360 dollar, Germaniya – 80 407 dollar, Kanada – 71 664 dollar turadi va bu mamlakatlarda eng yaxshi kasblardan biri aynan o'qituvchilik sanaladi[4].

6. Ixtisoslashtirilgan sinflarda maktab o'quvchilarining uy vazifalari bilan haddan tashqari yuklamasi xavotir uyg'otadi. Sog'liqni saqlash bo'yicha mutassadi tashkilotlar bolalar va o'smirlar fiziologiyasida o'quv yuklamasini qat'iy tartibga solish zarurligi bilan bog'liq masalalarni xalq ta'limi organlari hamda mamlakat hukumati oldiga muhim muammo sifatida qo'yishlari lozim;

7. Davlat statistika qo'mitasi 2022 yil uchun hisoblangan minimal iste'mol xarajatlari miqdorini e'lon qildi. Unga ko'ra, bir kishi uchun minimal iste'mol xarajatlarining yangi miqdori 13,2 foizga oshib, 498 mingni tashkil etdi[5]. Jamiyatdagi ishsizlik va mehnatga to'lanadigan ish haqining miqdori ehtiyojlarni qondirishga yetarli emasligi ayrim ko'p bolali ota-onalar tomonidan farzandlarining maktabga tayyorgarliksiz va och holda kelishlariga yo'l qo'yilishi jiddiy tashvishni tug'diradi.

8. Ayrim tumanlardagi maktablarning qoniqarsiz moliyalashtirilishi katta tashvish uyg'otadi. Bu ta'lim sifatiga va ta'limni standartlashtirishni amalga oshirishga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Demak, inson omilining shakllanishi jarayonida hal qiluvchi rol butun jamiyatga, uning ko'p qirrali institutlariga, shaxs va jamoaga ta'sir etuvchi omillarga tegishli. Ammo yosh avlodga nisbatan barcha ijtimoiy institutlar orasida maktab va uning doirasidagi pedagogik tarbiyalash jarayoni eng muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ta'lim mazmuni bilim, ko'nikma, ijodiy faoliyat tajribasi va dunyo hamjamiyatiga munosabatning o'zaro bog'liq tizimi, umum insoniy madaniyatni saqlash va rivojlantirishga tayyorlikni belgilovchi tizim kabi tushuniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zaslavskaya T.I., Ryvkina R.V. Jamoat hayoti sotsiologiyasi: Nazariy insholar. - Novosibirsk: Fan, 1991 yil.

2. Lerner I.Ya. Inson omili va ta'lim mazmunining vazifalari // Sovet pedagogikasi. 1987. No 11. S. 60-65.

3. Shalygina I.V., Shabalin Yu.E. Umumiy o'rta ta'lim mazmuni nazariyasining gumanitar salohiyati I.Ya.Lerner, M.N.Skatkin va V.V.Kraevskiy // Mahalliy va xorijiy pedagogika. 2017. 1-jild, 3-son (39). 55-64-betlar.

4. <https://data.oecd.org/eduresource/teachers-salaries.htm>

5. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/01/09/min-cost/>

ILMIY-PEDAGOGIK KADRLAR TAYYORLASH SIFATINI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Bekmuradova Gulnoza Maxmudovna

Paralimpiya sport turlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash instituti, O'quv-mashg'ulot jarayoni ilmiy axborot bilan ta'minlash hamda ilmiy-metodik bo'limi boshlig'i, Institut ilmiy kengash kotibi.

Globalashayotgan dunyoda hayotimizni ilm, ma'rifat va ta'lim taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Boisi, qaysi sohada rivojlanish yoki kashfiyot kuzatilayotgan

bo'lsa, uning mohiyati, poydevori — ilm-fandir. Dunyo miqyosida shiddat bilan rivojlanayotgan raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqaligina munosib javob bera olishimiz mumkin.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ilmiy-tadqiqot izlanishlar olib borishga qiziqish ortishiga sabab, Davlatimiz rahbari tomonidan "Ta'lim to'g'risida"[1]gi va "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"[2]gi qonunlar ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish, uning sifat va samaradorligini oshirish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga qo'yilganligidir.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash to'g'risida"[3]gi va "Ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash jarayonlarining shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"[4]gi qarorlari hamda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da belgilangan vazifalarning amalga bajarilishi esa, yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni ta'minlash va ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishni samarali amalga oshirish maqsadlari yo'lida foydalanishning samaradorligini ta'minlaydi.

Ilmiy-tadqiqotlar sifat va samaradorligini oshirishda xalqaro dasturlar, xalqaro tajribalarning o'zni muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'sib kelayotgan yosh avlodni hamda iqtidorli tadqiqotchilarni har tomonlama barkamol inson sifatida ko'rish, ularga o'z qiziqishlarini inobatga olgan holda qo'shimcha bilimlar berish hamda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda jamiyat ravnaqi uchun xizmat qilishlariga shart-sharoitlar yaratib berish maqsad qilib olingan.

Ma'lumki, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish ma'lum bir sistemaga va oldindan ishlab chiqilgan rejaga asosan olib boriladi. Ilmiy tadqiqotdan ko'zlangan maqsadga erishish, aniq bir tadqiqot olib borish uslubiga tayangan holda va unga asosan amalga oshiriladi. Ilmiy izlanishlarda albatta tajribalar o'tkaziladi, aktiv yoki passiv kuzatuvlar natijalari olinadi, ilmiy xulosalarga kelinadi[6].

Ilmiy bilimlar tizimi hammabopligi, ilmiy dalillarning haqiqiyliigi (tekshirilganligi), voqeliklarni amalga oshira olinishligi, bilimlar tizimini turg'unligiga ega bo'lishi kerak.

Shunday ekan, ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashda yangi innovatsiyaviy ilg'or g'oyalarni ilgari suruvchi, jahon ilm-fanidagi yangi, istiqbolli yo'nalishlarni muntazam kuzatib boruvchi hamda mamlakat manfaatlari yo'lida qo'llay olishga qodir iqtidorli yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish, xalqaro hamkorlik va chet el bilan ilmiy aloqalarni kengaytirish, doktorant va tadqiqotchilarning xorijda malaka oshirish ko'lamini kengaytirish, ilmiy tadqiqot

muassasalarida o'qitish sifati va raqobatbardoshlikni ta'minlash hozirgi kunda dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Bundan ko'rinadiki, bugungi zamonaviy ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning haqiqiy maqsadi – bu faqat ma'lum bilim va ko'nikmalarni shakllantirishgina emas, balki tasavvurni, kuzatuvchanlikni rivojlantirish va shaxsiy ijodkorlikni tarbiyalashdan iboratdir.

Xulosa o'rnida aytganda, tahlil qilingan ma'lumotlar asosida shunday xulosalarga kelish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ushbu tadqiqotlar natijalari va undan olingan tajribalar yoshlarimizda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilsa, ta'lim sohasi uchun esa raqobatbardosh ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashda asosiy omillardan bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. O'RQ-637-son, 2020 yil 23 sentyabr. O'RQ-637-son.

2. O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida" gi qonuni. 29.10.2019 yildagi O'RQ-576-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. Toshkent sh., 2020 yil 6 noyabr, PF-6108-son

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-noyabrdagi 696-sonli "Ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash jarayonlarining shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son.

6. A. Radjabov. Ilmiy tadqiqot asoslari, «Tafakkur-bo'stoni» 2012-yil.

UNIVERSITET DARSLARIDA CLILNING TIL VA O'QITISH METODIKASI XUSUSIYATLARI

Bekniyozova Zarina

O'zMu tayanch doktoranti (PhD)

Kontentga asoslangan ta'lim (CBI), maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP), ingliz tili o'qitish vositasi sifatida (EMI) va CLIL. Ushbu modellardan biri CLIL so'nggi paytlarda mashhurlikka erishdi va tilni o'rgatish va o'rganishning eng samarali usullaridan biri bo'lib chiqdi.

Kontent fanlarini o'qitishda chet tilidan, odatda, til o'qituvchilari tomonidan emas, balki mazmunan foydalanish Evropa ta'lim tizimlarida yigirma yildan ortiq vaqt davomida keng tarqalgan amaliyot bo'lib kelgan. U asosan boshlang'ich va o'rta maktablarda va yaqinda universitet dasturlarida qo'llanildi. Coleman ma'lumotlariga ko'ra, Evropa Oliy o'quv yurtlarida ingliz tilida o'qitish 1991 yildan beri magistratura va bakalavriat dasturlarida sezilarli darajada o'sdi³⁰.

Koch, Yüksel va Altun fikriga ko'ra³¹, CLIL ikki yo'naltirilgan ta'lim usuli bo'lib, unda talabalar bir vaqtning o'zida tilni ham, mavzu mazmunini ham o'rganadilar. CLIL tilni o'rganish maqsadida tarkibni fanni birlashtirish usulidir. Tarkib fan, tarix, adabiyot, tabiiy va boshqalar kabi har qanday tildan tashqari fanlar bo'lishi mumkin. Ushbu o'qitish usuli 1960-yillarda Kanadada amaliyotga tatbiq etilgan va Yevropada so'nggi 20 yil ichida ommalashib bormoqda.

CLIL -til darslariga tildan tashqari mazmunlarni integratsiyalash orqali tilni o'rgatish usuli. Tilga oid bo'lmagan fandan, ijtimoiy fanlardan tortib adabiyotgacha bo'lgan har qanday fan bo'lishi mumkin.. Shu bilan birga, u kognitiv, madaniy xabardorlik va umumiy akademik bilim kabi boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi³². Shuningdek, CLIL usulini keng tatbiq etishda bir qancha to'siqlar, xususan, malakali o'qituvchilar va tegishli resurslarning yetishmasligi kabi to'siqlar ko'rsatilgan. Bunda e'tiborni o'qituvchilar va resurslarni rivojlantirishga qaratish tavsiya etiladi.


CLIL, shuningdek, o'quv dasturining mazmuni, odatda, boshlang'ich, o'rta yoki oliy ta'lim darajasida asosiy ta'limning qandaydir shakllarida ishtirok etuvchi talabalarga chet tili orqali o'qitiladigan ikki tomonlama ta'lim muhiti" sifatida ta'riflangan..

³⁰ Coleman, J. (2006). English-medium teaching in European higher education. *Language Teaching*, 39(1), 1-14.

³¹ Koç, Ö., Yüksel, G. and Altun, E. (2021) Technology Acceptance and Usage Behaviour of Content and Language Integrated Learning Teachers in Turkey. *English Language Teaching Educational Journal*, 4, 113-124

³² Diab, A.A.M., Abdel-Haq, E.M. and Aly, M.A.S. (2018) The Effectiveness of Using Content and Language Integrated Learning (CLIL) Approach to Enhance EFL Student Teachers' Cultural Awareness.

CULTURE



1-rasm. CLIL 4Cs Framework (Coyle, 2009 dan moslashtirilgan).

Ushbu nazariy asoslar asosida Coyle CLIL pedagogikasini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydigan va uning tarkibiy qismlarini integratsiyalashuviga asos bo'lgan CLIL ning 4C tizimini ishlab chiqdi. U mazmun (mavzu), muloqot (til), bilish (o'rganish va fikrlash) va madaniyatga (o'zini va o'zgalikni ijtimoiy anglash) urg'u beradi. Coyle o'z asosini quyidagicha izohladi: Samarali CLIL bilim, ko'nikma va mazmuni tushunishda progressni talab qiladi; Ushbu doirada ishlab chiqilgan dasturlar til rivojlanishi bilan bevosita va bilvosita bog'liq bo'lgan maqsadlarga erishishga intiladi³³.

CLIL dasturlari an'anaviy tarzda talabalalar o'zlarining birinchi tillarida (L1) savodxonlik ko'nikmalariga ega bo'lganlarida va bu ko'nikmalarni yangi tilni o'zlashtirishga Kontent CLIL ning asosiy komponentidir. CBI "Til va mazmuni o'rganish maqsadlariga ko'ra amalga oshiriladi³⁴. ESP chet tilini o'rgatishga e'tibor qaratadi va quyidagilarga ega:

uning asosiy tarkibiy qismlari, ya'ni, ma'lum bir kasb yoki kasbga nisbatan qo'llaniladigan maqsadli tilni o'rgatish;

talabalarining muloqot ehtiyojlarini tahlil qilish va ish joyida qo'llanilishi mumkin bo'lgan kontentdan foydalanish;

³³ Coyle, D. (2009). Promoting cultural diversity through intercultural understanding: A case study of CLIL teacher professional development at in-service and pre-service levels. *Linguistic Insights – Studies in Language and Communication*, 92, 105-124.

³⁴ Fortanet-Gómez, I., & Bellés-Fortuño, B. (2008). The relevance of discourse markers in teacher training courses for Content and Language Integrated Learning in higher education. In O. Martí Arnáinz & M. P. Safont Jordá (Eds), *Achieving multilingualism: Wills and ways*. Proceedings of the First International Conference on Multilingualism (ICOM). Castelló de la Plana (pp. 149-159). Universitat Jaume I

CLIL ikki tomonlama yo'naltirilgan yondashuv bo'lib, mazmunli fanlarni (o'quv dasturiga kiritilgan) maqsadli (xorijiy) til bilan va til orqali o'rgatadi mazmun va tilga teng ahamiyatga ega³⁵. Bundan tashqari, "Maktabdagi CLIL darslari odatda mazmunli darslar (masalan, biologiya, musiqa, geografiya) sifatida rejalashtirilgan bo'lib, ona tilida gaplashadigan mutaxassislari tomonidan o'qitiladigan chet tili darslari shaklida o'ziga xos mavzu sifatida davom etadi"

CLIL ning asosiy xususiyati uning ikki tomonlama yo'naltirilgan yondashuvi bo'lib, mazmun va tilga teng ravishda urg'u beradigan o'qitish-ta'lim jarayonlarini o'z ichiga oladi³⁶ Wolff ta'kidlaganidek, "Tajriba (CLIL) shuni ko'rsatadiki, ushbu integratsiyalashgan kontseptsiya doirasida ham lingvistik, ham mavzu bo'yicha kompetentsiya mazmun va tilni alohida o'rgatishdan ko'ra samaraliroq targ'ib qilinishi mumkin". Mavjud tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yaxshi amalga oshirilgan CLIL dasturlari mazmun va tilni o'rganish uchun yuqori samarali bo'lishi mumkin, chunki til ko'nikmalari talabalarning o'quv dasturi mazmuni haqidagi bilimlari yanada rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, CLIL - bu darslarga mazmunni integratsiyalash orqali tilni o'rgatish usuli. Talabalar bir vaqtning o'zida nafaqat tilni, balki boshqa fan bilimlarini ham o'rganishadi. Bu usul samarali va vaqtni tejaydi, chunki u talabalarga til va fan sohasidagi bilimlarni olish imkonini beradi. Bundan tashqari, CLIL yangi tilni o'rganishning yanada tabiiy usulini taqdim etadi. CLIL dasturini o'z zimmasiga olgan talabalar tilni o'rganishning an'anaviy usuliga qaraganda tilni yaxshi bilishadi. CLIL shuningdek, mazmun, idrok, muloqot va madaniyat bo'lgan to'rtta kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu ta'lim usulini amalga oshirishda malakali o'qituvchilar va o'quv resurslarining yetishmasligi kabi ba'zi to'siqlar mavjud. Darhaqiqat, akademik fan bo'yicha tajribaga ega bo'lgan til o'qituvchilarini topish qiyinroq. Bundan tashqari, til o'rgatish va fan mazmunini uyg'unlashtirgan o'quv materiallarini ishlab chiqish asosiy vazifa bo'ladi. Biroq, uzoq muddatda CLILning keng tarqalishi butun dunyo bo'ylab til o'rgatish va o'rganishni yaxshilashga yordam berishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Coleman, J. (2006). English-medium teaching in European higher education. *Language Teaching*, 39(1), 1-14.
2. Koç, Ö., Yüksel, G. and Altun, E. (2021) Technology Acceptance and Usage Beha-viour of Content and Language Integrated Learning Teachers in Turkey. *English Language Teaching Educational Journal*, 4, 113-124

³⁵ Ball, P., Kelly, K., & Clegg, J. (2015). *Putting CLIL into practice*. Oxford, UK: Oxford University Press.

³⁶ Wolff, D. (2009). Content and language integrated learning. In K. Knapp & B. Seidhofer, *Handbook of foreign language communication and learning* (pp. 545-572). Berlin: De Gruyter.

3. Diab, A.A.M., Abdel-Haq, E.M. and Aly, M.A.S. (2018) The Effectiveness of Using Content and Language Integrated Learning (CLIL) Approach to Enhance EFL Student Teachers' Cultural Awareness.

4. Coyle, D. (2009). Promoting cultural diversity through intercultural understanding: A case study of CLIL teacher professional development at in-service and pre-service levels. *Linguistic Insights – Studies in Language and Communication*, 92, 105-124.

5. Fortanet-Gómez, I., & Bellés-Fortuño, B. (2008). The relevance of discourse markers in teacher training courses for Content and Language Integrated Learning in higher education. In O. Martí Arnáinz & M. P. Safont Jordá (Eds), *Achieving multilingualism: Wills and ways. Proceedings of the First International Conference on Multilingualism (ICOM)*. Castelló de la Plana (pp. 149-159). Universitat Jaume I

6. Ball, P., Kelly, K., & Clegg, J. (2015). *Putting CLIL into practice*. Oxford, UK: Oxford University Press.

7. Wolff, D. (2009). Content and language integrated learning. In K. Knapp & B. Seidhofer, *Handbook of foreign language communication and learning* (pp. 545-572). Berlin: De Gruyter.

HAYOT VA YARATISHGA IRODA: YANGI O'ZBEKISTON TAJRIBASINING SOTSIOGUMANISTIK MOHIYATI

Bekchanov Zufarbek Madrimovich

Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, jamiyat va davlatni isloh qilish ob'ektiv zaruratga aylandi. Totalitar tuzum qoldirgan salbiy ta'sirlar va g'ayrimilliy tartiblardan xalos bo'lish, respublikamizni milliy demokratik taraqqiyot tomon yo'naltirish strategik vazifa sifatida kun tartibiga qo'yildi. Islohotlar ma'lum bir modelni, andozani yaratishni taqozo etdi, dunyodagi turli milliy taraqqiyot modellari, "nemis modeli", "shved modeli", "yapon modeli", "singapur modeli" "xitoy modeli", "turk modeli" kabilar o'rganildi va shu asosda "o'zbek modeli" yaratildi. Bugun "o'zbek modeli" haqida turli, goho keskin tanqidiy fikrlar bildirilmoqda. Biroq, ularga qarama, biz uning real voqelik sifatida ijtimoiy, ilmiy fikrga va milliy demokratik taraqqiyot tomon siljishimizga qilgan ta'sirini rad etolmaymiz. Bozor iqtisodiyotiga o'tish, demokratik huquqiy davlat barpi etish, ma'naviy yanglanishlar, jahon hamjamiyatiga integratsiya bo'lish kabi tub o'zgarishlarni amalga oshirishda ana shu "o'zbek modeli" dastur, yo'llanma bo'lgan. Jamiyatimizdagi ahillikni, internatsional birlikni ta'minlash va bozor

iqtisodiyotiga bosqichma bosqich o'tishni ana shu model ta'sirida amalga oshirganmiz. To'g'ri, mutaqqillikning dastlabki yillarida rusiyzabon kishilarning respublikamizdan ko'chib ketishi kuchayganini kuzatamiz, ammo davlatimiz internatsional birlikni saqlashga bor kuchini, siyosiy mahoratini sarfladi. Bu birlikni ta'minlash uchun kuchli siyosiy iroda va uzoqqa yo'naltirilgan reja zarur edi. Yon atrofimizdagi respublikalarda milliy va diniy asosdagi to'qnashuvlar milliy xavfsizlikka raxna solganida, Tojikistondagidek fuqarolar urushi ro'y berganida, O'zbekiston Respublikasida tinchlik, osoyishtalik va millatlararo birlik an'analari saqlab qolindi. Bu davlatimiz olib borgan, milliy demokratik taraqqiyot sari tutgan yo'limizning aosan to'g'riligini tasdiqladi. Tan olishimiz kerakki, "o'zbek modeli" mutlaq to'g'ri, mutlaq haqiqat yo'li sifatida ulug'landi, uning kamchiliklari ham borligi tilga olinmadi, tilga olishga avtokratizm yo'l ham bermadi. To 2016 yilgacha chop etilgan asarlar va tadqiqotlarni ko'zdan kechirgan kishi "o'zbek modeli"ni ko'kka ko'tarib maqtash an'ana bo'lganiga ishonch hosil qiladi.

Tadqiqotchilar mutlaq to'g'ri narsa, ayniqsa ijtimoiy hayotga oid mutlaq aksioma, xulosa bo'lishi mumkin emasligini xayoliga keltirishmagan. "O'zbek modeli"ni mutlaqlashtirish ijtimoiy va ilmiy fikrda dogmatik, siyqa qarashlarni avj oldirdi, real hayotda yechilmagan muammolar ilm ahlini deyarli qiziqitirmay qo'ydi. Masalan, davlat boshqarishidagi qarindosh urug'chilik, korrupsiya, ta'magirlik, xo'jako'rsinga ishlash, xalqdan uzoqlashish, budjet mablag'larini talon toroj qilish, aholining turmush tarzini yaxshilashning mutlaq tashlab qo'yilgani, matbuotning rahbar shaxs og'ziga qarash ishlagani kabi illatlar deyarli muhokama qilinmagan. Buni ko'pchilik adolatsizlik deb qabul qilgani va sovet davrini eslagani rostdir. Sh.M.Mirziyoev davlatimiz rahbari bo'lgach, ushbu illatlarni ochiq oydin gapira boshladi, avtokratizm davrida yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'irlash, davlat institutlarini inson va xalq manfaatlariga xizmat qildirishni kun tartibiga qo'ydi. "O'zbek modeli" bugun deyarli tilga olinmaydi, u unutilish arafasidadir. Biz respondentlarimizga "O'zbek modeli"ning qaysi yo'nalishi Sizning ko'proq esiningizda qolgan? degan savolimizga olgan javoblarimiz quyidagicha taqsimlanadi:

"Qonun ustuvorligi -- 31%

"Bozor iqtisodiyotiga bosqichma bosqich o'tish, -- 21%

"Davlat bosh islohotchi -- 20%

"Iqtisodiyotni siyosatdan ustunligi" -- 15 %

"Kuchli ijtimoiy himoya" --7 %

"Ularning hammasi" --4 %

Javob bermaganlar -- 2% ni tashkil etgan.

Ko'rinib turibdiki, bugun yoshlar yaqin o'n yilliklarda barchaning tilidan tushmagan, ko'kka ko'tarilib maqtalgan "O'zbek modeli"ni deyarli unutish

arafasidadir. Ularning 31 % “o‘zbek modeli”dagi qonun ustuvorligi, 21% bozor iqtisodiyotiga bosqichma bosqich o‘tish, 15 % esa iqtisodiyotning siyosatdan ustunligini ta’minlash tamoyilini esda saqlab kelayotganini ko‘rsatadilar. Atigi 4 % respondent “o‘zbek modeli” ko‘rsatilgan barcha tamoyillarni o‘zi ichiga olishini ta’kidlagan. Ming afsuski, respondentlarimizning aksariyati “Harakatlar strategiyasi” va “Taraqqiyot strategiyasi”dagi ustuvor yo‘nalishlar, vazifalar haqida ham aniq tasavvurlarga ega emas. Qandaydir ob’ektiv va sub’ektiv sabablar bois hatto maxsus darslar, ma’ruzalar tinglovchi talaba yoshlar ham aniq javoblar berishda qiynalishadi. Bu mavzu boshqa tadqiqotlarga taalluqli bo‘lgani uchun uni tahlil qilib o‘tirmaymiz.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshiralayotgan demokratik yangilanishlar va islohotlar G‘arb falsafasidagi g‘oyalarga emas, balki avvalo milliy manfaatlarga asoslangan va o‘zbek xalqi orzu tilaklari mujassam konsepsiyalarga asoslanganini qayd etishimiz kerak. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning pragmatik siyosatida va demokratik yangilanishlarda, ayniqsa sitilar barpo etishda g‘arb tajribasiga tayanayotgani aniq ko‘zga tashlanadi. Zamonaviy ilmiy texnologiyalarni joriy etilayotgani, chet el oliy o‘quv yurtlari filiallarining ochilayotgani, ingliz tilini o‘rganishga katta e’tibor qaratilayotgani, xorijiy investorlarning jalb etilayotganida g‘arb tajribalariga murojaat etilayotganini ko‘ramiz. Masalan, Prezidentimizning “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi farmonida oliy ta’lim qamrov darajasini 50% ga yetkazish, 2026 yilga qadar 10 salohiyatli oliy ta’lim muassasini GS va THE xalqaro reytinglariga kirishiga erishish, 100 ming o‘rinli talabalar turar joylari barpo etish, xorijiy ta’lim muassasalari bilan birgalikda 64 ta yangi kasbga o‘rgatishni yo‘lga qo‘yish, 41 ta davlat OTMga moliyaviy mustaqillik berish, xususiy OTMlar uchun zarur shart sharoitlar yaratish kabilar vazifa qilib belgilandi. 2016-2017 o‘quv yilida O‘zbekistonda oliy o‘quv yurtlarining soni 70 ta edi, bugun ularning soni 198 taga yetdi. Ularning 31 tasi dunyodagi yetakchi universitet va institutlar filiallari hisoblanadi. 2016-2017 o‘quv yilida talabalar soni 268,3 ming nafardan iborat edi, bugun ular soni 808,4 ming talabani tashkil etadi. Bugun o‘quv yurtlariga qabul kvotasi 3,5 barobar, oliy ta’lim qamrovi esa 9 %dan 38 % gacha oshgan. Magistraturaga qabul ikki marta avgust va yanvar oylarida o‘tkaziladigan bo‘ldi. Xotin qizlarimizning ta’lim olishlari va kasb kor egallashlari uchun maxsus grantlar va kvotalar ajratiladigan bo‘ldi, ularning kontrakt pullarini to‘lab berish tartiblari o‘rnatildi. Xorijiy OTM lariga kirishda bakalavriat uchun 50 nafar, magistratura uchun 10 nafar xotin qizlarga “El yurt umidi” jamg‘armasi orqali grantlar ajratilishi yo‘lga qo‘yildi.”³⁷. Bir qarashda oliy o‘quv yurtlari sonining oshirilishi, hatto talabalarga berilayotgan imtiyozlar va

³⁷ Qarang: Миркомилов А. Мамлакат тараққиётининг ўзаги // “Янги Ўзбекистон”, 2022, 16 декабрь.

ajratilayotgan kvotalar iroda fenomeniga hech qanday aloqasi yo'qdek tuyuladi, ammo davlatimiz ulkan marralarni ko'zlagan, milliy taraqqiyotimizni 2030 yilga borib rivojlangan 50 davlat qatoriga chiqishni maqsad qilib qo'ygan.

TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR OLIMLAR VA YOSHLAR NIGOHIDA

Bozorboyev Eldorbek Husniddin o'gli
O'zbekiston davlat jaxon tillari universiteti talabasi

Oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan islohotlar va ilmiy tadqiqotlarning global bilimlar iqtisodiyoti uchun ahamiyati ortib borayotgani ta'limda xalqarolashtirishga e'tiborning kuchayishiga olib keldi. Hozirda chet elda besh millionga yaqin talaba tahsil olmoqda, bu raqam 10 yil oldingiga qaraganda ikki baravar ko'p va kelgusi o'n yil ichida ularning soni kamida 8 millionga ko'tarilishi prognoz qilinmoqda. Xalqaro talabalar o'rtasidagi raqobat kuchayib bormoqda va sanoat global va raqobatbardosh bo'lib bormoqda. Talabalarni yuboruvchi mamlakatlar asosan o'rta va past daromadli davlatlar hisoblanib va qabul qiluvchi davlatlar asosan rivojlangan davlatlardir. Faqatgina 2019 yil Covid-19 pandemiyasi tufayli bu jrayon sezilarli darajada sekinlashdi.

Talabalarining xorijiy davlatlarda ta'lim olishining turli shakllari mavjud. Xorijlik talabalardan tushadigan daromadlarning asosiy mablag'lari past va o'rta daromadli mamlakatlardan yuqori daromadli mamlakatlarga kirib bormoqda. Bundan tashqari garchi yaqinda ba'zi o'rta daromadli mamlakatlar mezbon mamlakatlarga aylandi. Kredit mobilligi asosan yuqori daromadli mamlakatlar o'rtasida faol tarzda amalga oshirilmoqda va bulardan ayniqsa AQShda (chet elda o'qish dasturlari) va Yevropada (Erasmus +) kuchli tasirga ega. Yana bir xalqarolashtiruvchi omil bu qo'shma ta'lim dasturlari va online dasturlari talabalarni qanday qo'llab quvvatlash sharoitlari yaratishga qaratilganligidir. Dunyo bo'ylab oliy ta'lim muassasalari va tizimlarida xalqaro professor-o'qituvchilarning mavjudligi global bilimlar iqtisodiyotida oliy ta'limning muhim jihati hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham talaba yerning istalgan nuqtasidan turib kasb va mutaxassislikka ega bo'lish maqsadida xalqaro toifadagi professor o'qituvchilardan saboq olishadi. Shuni inobatga olgan holda asosiy etiborni talabalar va o'qituvchilarning o'zaro hamkorligini amalga oshirish, hamkorlikdagi transmilliy ta'lim yoki transchegaraviy ta'limni etkazish dasturlari ishlab chiqilishi lozimdir. Talabalarining xalqarolashtirish jarayonlaridagi shart-sharoitlarini yaratishda mezbon davlat talabalarga qulay muhitni taklif qilshi, ta'lim olish tuzilmalarini xorijlik talabalar uchun yengillashtirish chora tadbirlarini ishlab chiqishi, o'quv rejasidagi duch keladigan muammolarni

bartaraf etishi, talabalar yashashlari uchun kampus va o'qitishdagi yangi g'oyalarni kiritishi xalqarolashtirish jarayonini jadallashtiradi. Ushbu jarayon esa talabalarni xalqarolashtirish faoliyatini va ularning akademik, iqtisodiy va axloqiy jihatlarini yaxshiroq anglashiga olib keladi.

Onlayn mobillik texnologiyalardan foydalanish xalqarolashtirishga ijobiy ta'sir qiladi. Xalqarolashtirish singari, raqamlashtirish ham keng ko'lamli faoliyat, modellar va yondashuvlarni o'z ichiga olgan umumiy atamadir. Masofaviy onlayn ta'lim ochiq universitet modellarining keng tarqalgan shakllaridan biri, kengaytirish va raqamlashtirishdir. Masofaviy ta'lim xalqaro komponentga ega bo'lib u ortiqcha jismoniy harakatlanish xarajatsiz xalqarolashtirish jarayonini masofadan turib amalga oshirishini ta'minlaydi.

Talabalarni xalqaro hamkorlar bilan o'z faoliyatlarini amalga oshirishi, ishtirok etishlari aralash va gibrid o'qitish kabi boshqa shakllar ham xalqarolashtirish sharoitida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi zamonaviy ta'limda virtual mobillik yoki virtual almashinuv kabi atamalar qo'llanilishi keng tarqalmoqda. COIL (collaborative online international learning) interfaol o'qitish modeli bo'lib, unda ta'lim shakli hamkorlikdagi kurslar hamkor muassasalar o'qituvchilari tomonidan o'z talabalarining faol ishtirokida onlayn tarzda ta'limni tashkil etadi. COIL institutlarga ta'lim oluvchilarni ortiqcha jismoniy harakatsiz va ortiqcha xarajatsiz o'z talabalarini uchun xalqaro va madaniyatlararo ta'lim natijalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Shu boisdan bu jarayon nisbatan arzon, kamroq sarf harajatlari va tejamkor shakli hisoblanadi.

Qo'shma ta'lim dasturlarida ta'lim oluvchi talabalarga COIL o'qitish tizimini joriy qilish xalqarolashtirish jarayonini mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari uchun global lashtirish jarayonda o'z o'rnini egallashi uchun zamir bo'ladi.

Bugungi kunda butun dunyo bo'ylab baynalmilallashtirish o'quv dasturlari, o'qitish va ta'lim natijalarini xalqarolashtirish, shuningdek, global fuqarolikni rivojlantirishni o'z ichiga olgan xalqarolashtirishga talab ortib bormoqda va davlatlar buni qabul qilmoqda. Olimlar va talabalarining juda oz qismigina chet elda butunlay yoki hatto qisqa muddatga sayohat qilish imkoniyatiga ega. Dunyoning aksariyat mamlakatlarida bu ko'rsatgich 1-5 foiz, AQShda 10 foiz, Germaniya va Gollandiya kabi mamlakatlarda 20-30 foizgacha chiqqan. Biz yashayotgan mamlakatda ham barcha talabalarni global bilimlar jamiyatiga tayyorlash uchun oliy ta'lim uyda xalqaro miqyosda bo'lishi kerak. So'ngi yillarda oliy ta'lim muassasalarida global miqyosda malakali kadrlar va mutaxassislar tayyorlash ehtiyoji oshib bormoqda. Bu esa "mahalliy xalqarolashtirish" va "o'quv dasturini xalqarolashtirish" tushunchalari birinchi o'ringa olib chiqdi. Buni tariflaydigan bo'lsaki: mahalliy baynalmilallashtirish - bu mahalliy ta'lim muhitida barcha talabalar uchun rasmiy va norasmiy o'quv dasturlariga xalqaro va madaniyatlararo o'lchovlarni maqsadli integratsiyalashuvidir. Ikkinchidan:

O'quv dasturini baynalmilallashtirish – o'quv dasturi mazmuniga xalqaro, madaniyatlararo va global o'lchovlarni, shuningdek, o'quv natijalari, baholash topshiriqlari, o'qitishni kiritish jarayonidir. Ikki tushuncha mazmuni va diqqat markazida bir-biriga o'xshash degan fikr tobora ortib bormoqda.

Oxirgi o'n yillikda mahalliy baynalmilallashuv va xorijdagi baynalmilallashuv o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, parchalanish va marginallashuvni bartaraf etish maqsadida xalqarolashtirishga yanada markazlashgan, yaxlit va tizimli yondashish zarurati "global baynalmilallashuv"ga qiziqish uyg'otdi. Oliy ta'limning barcha akademik, tadqiqot va xizmat missiyalariga xalqaro, global va qiyosiy mazmun va istiqbollarni integratsiya qilish bo'yicha majburiyat va harakatlar oshirilishi lozim. U institutsional axloq va qadriyatlarni shakllantiradi va oliy ta'limning butun tashkiliy faoliyatiga ta'sir qiladi. Bu nafaqat kampusning butun hayotiga, balki ta'lim muassasasining tashqi aloqa tizimlariga, hamkorlik va munosabatlariga ham ta'sir qiladi. Garchi mamlakatdagi baynalmilallashuv milliy siyosat va strategiyalarda chet eldagi baynalmilallashtirishga qaraganda kamroq ustunlik qilsa-da, u siyosat va amaliyotning asosiy strategik tarkibiy qismiga aylanadi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim va tadqiqotlarni xalqarolashtirishga, jumladan xalqaro hammualliflik va boshqa xalqaro tadqiqot mezonlariga ta'limni xalqarolashtirishga qaraganda ancha kam e'tibor berilgan. Biroq, tadqiqot har qachongidan ham kengroq xalqaro hamkorlik va raqobatni talab qiladigan murakkabroq jarayondir. Tadqiqot infratuzilmasini uzoq muddatli rejalashtirish, tadqiqot salohiyatini oshirish, yangi tadqiqot platformalarini ishlab chiqish va tadqiqotbo'linmalari o'rtasida yaxshiroq muvofiqlashtirish salohiyatni rivojlantirish va xalqaro tadqiqot siyosati va tizimlariga ko'proq strategik e'tibor qaratishni talab qiladi.

Tadqiqotlar, patentlar, nashrlar va iqtiboslar uchun xalqaro moliyalashtirishning o'sishi global xarakterdagi tadqiqot guruhlarini kuchaytirishni talab qiladi. Bibliometrik tahlil xalqaro hamjamiyat bilan ilmiy hamkorlik kengayganligini ko'rsatadi. Iqtidorli doktorantlar va olimlar tadqiqot, ishlanmalar va innovatsiyalar qurilgan xalqaro inson kapitalidir. Bularning barchasi mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarini xalqaro reytinglarga olib chiqishiga olib keladi. Kelajakdagi vazifalar va imkoniyatlar oliy ta'limni xalqarolashtirishda yangi bosqichga olib chiqadi. Xorijdan keluvchi talabalar, professor-o'qituvchilar, ma'murlar va dasturlarning kuchli e'tibor qaratilishi har qachongidan ham dolzarbdir.

Xalqarolashtirishning jamiyatga qo'shgan hissasini oshirish va globalni mahalliy bilan bog'lash juda muhimdir. Xalqarolashuv doimiy rivojlanib boruvchi jarayon bo'lib, mahalliy, milliy, mintaqaviy va global muhitga qarab o'zgaradi. Hozirgi global tendentsiyalar o'tmishdagiga qaraganda radikalroq ko'rinadi va

har qachongidan ham yaqinroq e'tibor va xalqaro hamkorlikni talab qiladi. Millatchi-populistik harakatlar, iqlim o'zgarishi zarurati va pandemiyaning ta'siri ayniqsa bu jarayonni isloh qilishga olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak oliy ta'limni xalqarolashtirishda pedagogik shart-sharoitlarni yaratish uchun quyidagilarni tavsiya qilamiz:

- hamma uchun global ta'limni rag'batlantirish ko'proq xalqarolashtirish o'quv dasturlari, COIL o'qitish tizimi, o'qituvchilar ta'limini xalqarolashtirish va chet tillarini o'qitishga qaratilishi;

- barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun sa'y-harakatlar bilan xalqarolashtirish tashabbuslarini birlashtirilishi;

- axloqiy masalalarni hal qiluvchi yanada inklyuziv va ijtimoiy xalqarolashtirishni rivojlantirish;

- chet tilini, madaniyatlararo kompetentsiyani va global fuqarolik ta'limini rivojlantirish;

- global, mintaqaviy, milliy va mahalliy o'lchovlarni birlashtirish;

- o'quv dasturiga integratsiyalashgan xalqarolashtirish, yangi texnologik imkoniyatlardan foydalanish shakllarini targ'ib qilish;

- ko'proq xalqaro ta'lim muhitini yaratish va iqtisodiy xavflardan qochish uchun xalqaro talabalar tashkilotini diversifikatsiya qilinishi;

Mahalliy va boshqa etnik guruhlar, qochqinlar va immigrantlar kabi noqulay guruhlarning harakatchanligini rag'batlantirish va ularga ko'maklashish, xalqarolashtirish va oliy ta'lim o'rtasidagi aloqani mustahkamlash;

- Baynalmilallashtirishning turli jihatlarini birlashtirgan yanada keng qamrovli yondashuvga intilish lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Miziyoyevning 2022 yil 28 yanvar-dagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-conli farmoni.

2. Gans-Diter Xopfner. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida mustaqil o'rganishning ahamiyati. KHK lari uchun o'quv qo'llanma. O'zbekiston - Shvetsariya «Kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish» loyihasi. — Toshkent, 2009 y

3. Najmiddinova H. Talabalarning mustaqil o'quv faoliyatida o'zlashtirish samaradorligiga erishish. Ta'lim muammolari. 2009 yil, 2-son.

4. Бугайчук К. Массовые открытые дистанционные курсы: история, типология, перспективы // Высшее образование в России.— 2013. — № 3. — С. 148–155.

5. Билолов И.Ў. Талабаларнинг мустақил таълимини Педагогик дастурий воситалар ва педагогик web дизайн фани мисолида ташкил этиш. Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ»

6. Altbach, P., and H. de Wit. 2020. "Rethinking the Relevance of International Branch Campuses." *International Higher Education* 101 (Spring): 14–16.

7. Altbach, P., L. Reisberg, and L. Rumbley. 2010. *Trends in Global Higher Education: Tracking an Academic Revolution*. Rotterdam: Sense Publishers.

8. Baker, S. 2020, August 3. How Covid-19 is Reshaping International Research Collaboration. *Times Higher Education*. Accessed August 3, 2020. www.timeshighereducation.com/news.

ЗАМОНАВИЙ ЖАМИЯТЛАРДА ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ҲАЁТГА ИНТЕГРАЦИЯЛАШУВ ЖАРАЁНЛАРИ

Бойқўзиева Гўзалхон Худойбердиевна

Қўқон давлат педагогика институти ф.ф.б.ф.д.(PhD)

Хотин-қизлар ижтимоий-сиёсий фаоллигининг янада ошиб бориши анъанавий жамиятдан модернизациялашган замонавий жамиятга ўтиш жараёни давомида янада долзарб аҳамият касб этмоқда. Модернизация бир-бири билан узвий боғлиқликдаги сиёсий, иқтисодий, интеллектуал трансформациялар маҳсули сифатида жамият ижтимоий ҳаётининг барча соҳаларини, жумладан, оила ва никоҳ муносабатлари доирасида кечувчи гендер муносабатлар тузилишига таъсир кўрсатмасдан қолмади.

Америкалик социолог Э.Тоффлер замонавий жамиятларни «иккинчи тўлқин» жамиятлари тарзида изоҳлар экан, нуклеар оилавий муносабатлар эволюцияси модернлашган жамиятдаги каби кескин бурилишларни бошидан кечирмаганлигини таъкидлайди³⁸.

Модернизациялаш концепцияси XX асрнинг охирида кенг истеъмолга киритилган бўлса-да, унинг ишлаб чиқилишида классик социологлардан Г. Спенсер, М. Вебер, Э. Дюркгейм, Ф. Тённис ва бошқаларнинг ҳиссаси катта бўлди. Социологиянинг ушбу намоёндаларининг фикрларига кўра, модернизация – анъанавий жамиятдан «модерн» (moderne – фр. – янги, замонавий) жамиятга ўтиш жараёнидир³⁹.

Модернлашган постиндустриал жамиятларда оила ва оилавий муносабатлар муайян даражада трансформацияларни бошидан кечирар экан, аввало, бундай ҳолат хотин-қизлар тенг ҳуқуқлилиги ғояси уларга нисбатан дискриминациянинг ҳар қандай шакллариغا барҳам

³⁸Обидов А. «Жамиятда ижтимоий жарёнларнинг дунёвий таҳлили» <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-282462-1.html?page=10>

³⁹ Обидов А. «Жамиятда ижтимоий жарёнларнинг дунёвий таҳлили» <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-282462-1.html?page=10>.

берилишидан келиб чиқиб, улар ижтимоий фаоллигини қўллаб-қувватлашда шарт-шароитлари яратилишига туртки бўлди. Замонавий оилаларда шахсий салоҳиятнинг роли ва аҳамияти ўсиб борар экан, оила аъзоларининг ҳар бири, жумладан, хотин-қизларнинг ижодий салоҳияти янада очилиши, уларнинг социал мослашувчанлик имкониятлари ўсиши кузатилмоқда. Натижада оиланинг анъанавий функциялари қаторидан янги – персоналитар функция ўрин олди. Ушбу функцияга биноан, шахснинг индивидуаллиги, ҳуқуқ ва эркинликлари олий қадрият сифатида тан олинди. Оиланинг ҳар бир аъзоси, жумладан, аёлларнинг касбий-ижодий ривожланиши ва ўзлигини намоён этишида шарт-шароитлар яратила бошланди.

Асрлар давомида тенглик, эркинлик, мустақиллик учун олиб борилган аёллар ҳаракати, бир томондан, XXI асрдаги илғор аёлларнинг ўзига хос социал қиёфасини шакллантирган бўлса, иккинчи томондан, модернизациялашув жараёни аксарият давлатларда оилавий турмуш тарзи ижтимоий-психологик асосларининг қайта қурилишига олиб келди. Анъанавий оилавий қадриятлар тизими трансформацияси оқибатида аёлларнинг ҳаётий қадриятлари ҳам ўзгарди.

Замонавий жамиятларда хотин-қизлар эркаклар билан ҳеч бир тўсиқсиз тенг шартлар асосида таълим олиш, ўз шахсий ва касбий имкониятлари, иқтидорини рўёбга чиқариш имконини қўлга киритди. Хотин-қизлар ўз устида ишлаши, айниқса, ривожланган Ғарб давлатларида юқори интеллект соҳибига айланиши, нуфузли дунёвий билим ва малакага эга бўлиш асосида мукамал профессионаликка эриша бошладилар. Улар аёлларнинг «табiiй» функциялари ҳисобланган уй хўжалигини юритиш ва фарзанд дунёга келтириш профессионал ҳаётига путур етказиши мумкинлигидан ҳадиксираб, бутун умр ёлғиз яшаши мумкин. Ёҳуд битта ёки иккита фарзанди тарбиясини энага ва уй ходимларига юклаши натижасида фарзандлари билан узвий мулоқотда бўлмаслиги ҳамда улар билан ишончли муносабат ўрнатилмаслиги мумкин. Бундай аёлларга нисбатан Буюк Британияда «альфа-аёл» атамаси қўлланилмоқда. Ушбу давлатда йилига 100 минг фунт стерлингдан кўпроқ маблағ топаётган аёллар «альфа-аёллар» сафига киритилиб, мамлакатдаги бадавлат кишиларнинг 11,4 % ини худди шундай аёллар ташкил қилмоқда. Шунингдек, аёллар етук ёшда оила қуриб, биринчи фарзандини дунёга келтирмоқда. Уларда, аввало, маълум мутахассисликни мукамал эгаллаб, касбий профессионаликка эришгач, турмуш қуриш истаги аёллар орасида никоҳнинг ўртача ёши сурилиб кетишига олиб келди. Японияда бу

кўрсаткич 28 ёшни ташкил этиб, биринчи фарзанд ўртача 30 ёшда дунёга келмоқда⁴⁰.

Рухшунос ва олимларнинг фикрича, Ўзбекистон шароитида турмуш қуриш учун энг мақбул ёш қизлар учун 22-25, ўғил болалар учун эса 24-30 ёш экан. Бу ёшга бориб инсон шахс сифатида ривожланган бўлади. Турмуш қуриш масаласига масъулият билан қаралади ва бу ёшда қурилган оилалар мустаҳкам бўлади⁴¹.

Шундай қилиб, замонавий жамиятда ҳам аёл киши олдида оила ёки ишни танлаш муаммоси турар экан, ижтимоий фаол хотин-қизларнинг, асосан, уч тури шаклланиб улгурди, булар:

1) касбий фаолиятга эътибор бериб, оиладан воз кечган ва фарзандсиз яшовчи аёллар;

2) оилавий қадриятларга эътибор бериб, ишдан воз кечган хотин-қизлар;

3) касбий ва оилавий ролларни биргаликда моҳирона олиб борувчи аёллар.

Биринчи гуруҳдаги социал вазиятда аёл кишининг турли фаолиятга эътибори зарурлиги таъкидланади, шу билан бирга, анъанавий аёллик фаолияти рад этилади⁴², ҳатто бефарзандликка ҳам ижобий қаралади. Бу гуруҳга мансуб аёллар ўз шахсий эркинлиги йўлида фарзандли бўлишни истамайдилар (АҚШда бу чайлдфри (childfree) субмаданияти номи билан аталиб, ҳозирда уларнинг 40 дан ортиқ ташкилотлари фаолият юритмоқда) ва ихтиёрий стерилизация қилдирадилар. Америка Соғлиқни сақлаш статистикаси миллий маркази тадқиқотларига кўра, АҚШда 1982 йилда 2,4%, 1995 йилда 6,6%, 2015 йилда эса 25% аёллар фарзанд кўришни истамай ихтиёрий стерилизация амалиётини амалга оширдилар. Сўнгги пайтларда, ушбу ҳаракат олий маълумотли аёллар орасида янада оммалашмоқда. Германияда хотин-қизларнинг 53% оила қурмаган бўлсалар, 30% аёллар фарзандсиз яшамоқда. Олий маълумотли аёлларнинг 49% фарзандсизликни афзал билмоқдалар⁴³. Натижада, Ф.Арьес таъбири билан айтганда Ғарб давлатларида «Оила мутлақ эмас, балки нисбий аҳамиятга эга бўлиб қолди»⁴⁴.

⁴⁰Сафаева С. Аёллар масаласи: умумий ижтимоий ва миллий жиҳатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. 137 - б.

⁴¹<http://uza.uz/oz/society/musta-kam-oila-sirlari-20-12-2017>.

⁴²<http://uza.uz/oz/society/musta-kam-oila-sirlari-20-12-2017>.

⁴³Рахматов Л. Соғлом она ва бола: халқаро амалиёт. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2016; Ўзбекистонда фуқаролик жамияти ривожланиши: маъруза-2015 / Тошкент, 2016. – Б. 15.

⁴⁴Шайхова Х.А. Аёл мавқеи ва унинг муҳим муаммолари // Хотин-қизлар камситилишига қарши курашнинг сиёсий-ҳуқуқий, маънавий-психологик муаммолари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. 2008 йил 12 июнь // Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2008. – Б. 41.

Бу, албатта, Ғарб цивилизациясида асрлар давомида шаклланиб келган оилавий қадриятлар парчаланганлиги, аввало, индивид манфаатларининг бирламчи, дахлсизлиги ғоясининг ўта оммалашганлиги, шахсий равақ устуворлиги ғояларининг мутлақлашганлигининг натижасидир.

Сўнги вақтларда эр-хотин ҳам ишлайдиган оилалар сони ошиб бормоқда. АҚШда 18 ёшгача фарзанди бўлган 65% аёллар иш билан банд. Бу кўрсаткич Данияда 86%, Швецияда 89 % ни ташкил этса, 3 ёшгача фарзанди бор ишловчи аёллар АҚШда 53%, Данияда 84%, Швецияда 86%ни ташкил этмоқда. Эр-хотин иккаласи ҳам ишлайдиган оилалар сонининг ошиб бориши оила ўртача даромадининг ошишига олиб келади. Бу каби оилаларда эр ва хотин бизнес ёки карьера қилиши учун кенг имкониятга эга. Шу боис, Буюк Британияда 600 минг нафар аёл агар фарзандларига энага топилса, уй бекалигидан кўра, ишга чиқишни афзал билишмоқда⁴⁵.

Бундай ҳолат, аввало, ўсиб келаётган ёш авлод дунёқараши ва қадриятли мўлжаллари, маънавий-ахлоқий меъёрларини издан чиқишига олиб келмоқда. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти Ислон Каримов «Инсоннинг энг соф ва покиза туйғулари, илк ҳаётий тушунча ва тасаввурлари, биринчи галда, оила бағрида шаклланади. Боланинг характерини, табиати ва дунёқарашини белгилайдиган маънавий мезон ва қарашлар – яхшилик ва эзгулик, олижаноблик ва меҳр-оқибат, ор-номус ва андиша каби муқаддас тушунчаларнинг пойдевори оила шароитида қарор топиши табиийдир деб»⁴⁶, таъкидлаган эди.

Хулоса қилиб айтганда, табиийки ҳар бир оила ижтимоий жамият қатламида, жамият ичида истиқомат қилади. Шундай экан, эр-хотин ўртасидаги оилавий муносабатлар жамиятда бўлаётган ижтимоий, сиёсий, иқтисодий, ҳуқуқий, мафкуравий, маънавий-ахлоқий маърифий каби жараёнлар билан ривожланади.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Обидов А. «Жамиятда ижтимоий жарёнларнинг дунёвий таҳлили» <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-282462-1.html?page=10>
2. Сафаева С. Аёллар масаласи: умумий ижтимоий ва миллий жиҳатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. 137 - б.
3. Раҳматов Л. Соғлом она ва бола: халқаро амалиёт. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2016; Ўзбекистонда фуқаролик жамияти ривожланиши: маъруза-2015 / Тошкент, 2016. – Б. 15.
4. Шайхова Х.А. Аёл мавқеи ва унинг муҳим муаммолари // Хотин-қизлар камситилишига қарши курашнинг сиёсий-ҳуқуқий, маънавий-

⁴⁵Сафаева С. Аёллар масаласи: умумий ижтимоий ва миллий жиҳатлари. Тошкент: Ўзбекистон, 2002. 140 б.

⁴⁶Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 136 б.

психологик муаммолари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. 2008 йил 12 июнь // Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2008. – Б. 41.

5. <http://uza.uz/oz/society/musta-kam-oila-sirlari-20-12-2017>.

VALYUTA KURSI O'ZGARISHINING MAHALLIY ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH

Buriyev Ubaydulla Bozor o'g'li
O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

KIRISH. Valyuta kursining o'zgarishi jahon iqtisodiyotida odatiy hodisaga aylanib, ularning mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardoshligiga ta'siri tashvishli masalaga aylanmoqda. Ko'pgina rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda ishlab chiqarish korxonalari iqtisodiyotning tayanchi bo'lib, bandlik va iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shadi. Shunday qilib, valyuta kursi o'zgarishining mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardoshligiga ta'sirini tushunish siyosatchilar uchun ishlab chiqarish sektorining o'sishiga yordam beradigan samarali siyosatni ishlab chiqishda juda muhimdir. Ushbu tadqiqot rivojlanayotgan iqtisodiyotda valyuta kursi o'zgarishining mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardoshligiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Bir qator tadqiqotlarda valyuta kursining o'zgarishining mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardoshligiga ta'siri o'rganildi. Ushbu tadqiqotlarning aksariyati valyuta kursining o'zgarishi mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardoshligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Goldberg va Knetter (1997) tadqiqotiga ko'ra, valyuta kursining o'zgarishi ko'proq eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarning raqobatbardoshligiga ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Xuddi shunday, Burstein va boshqalarning tadqiqoti (2016) valyuta kursining o'zgarishi import qilinadigan materiallarga ko'proq bog'liq bo'lgan tarmoqlarning raqobatbardoshligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqladi.

Ushbu tadqiqot sifat va miqdoriy ma'lumotlarni to'plash uchun aralash usulli tadqiqot dizaynidan foydalanadi. Tadqiqot rivojlanayotgan iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish korxonalari namunasidan miqdoriy ma'lumotlarni to'plash uchun so'rov anketasidan foydalanadi. So'rovda valyuta kursi o'zgarishining ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligiga ta'siri bilan bog'liq savollar mavjud. Tadqiqot shuningdek, valyuta kursi o'zgarishining ta'siri haqida sifatli ma'lumotlarni to'plash uchun ishlab chiqarish sanoatining asosiy ma'lumotchilari bilan yarim tizimli suhbatlar o'tkazadi.

NATIJALAR. Natijalar shuni ko'rsatadiki, valyuta kursining o'zgarishi rivojlanayotgan iqtisodiyotda mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardoshligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ta'sir darajasi sanoat va eksport yo'nalishiga qarab o'zgaradi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ko'proq eksportga yo'naltirilgan tarmoqlar valyuta kursining o'zgarishiga ko'proq moyil bo'lib, kichik va o'rta korxonalar uchun ta'sir ko'proq ahamiyatga ega. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, valyuta kursining o'zgarishi import qilinadigan materiallarga ko'proq bog'liq bo'lgan tarmoqlarning raqobatbardoshligiga sezilarli darajada ta'sir qiladi.

Valyuta kursining o'zgarishi mahalliy ishlab chiqarish korxonalariga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Quyida ba'zi effektlar:

➤ Raqobatbardoshlik: Valyuta kursining o'zgarishi mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardoshligiga ta'sir qiladi. Milliy valyuta kursining pasayishi ishlab chiqarish korxonalarini eksportni tashqi bozorlarda arzonlashtirishi va shu orqali ularning raqobatbardoshligini oshiradi. Boshqa tomondan, milliy valyuta kursining oshishi eksportni qimmatlashtirib, ularning tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini pasaytiradi.

➤ Kirish narxlari: Valyuta kursining o'zgarishi xom ashyo, butlovchi qismlar va mashinalar kabi import qilinadigan materiallar narxlariga ta'sir qiladi. Milliy valyuta kursining oshishi import qilinadigan mahsulotlarni arzonlashtirishi mumkin, qadrsizlanishi esa qimmatlashishi mumkin. Bu mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining rentabelligi va xarajatlar tarkibiga ta'sir qiladi.

➤ Daromadlilik: Valyuta kursining o'zgarishi mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining rentabelligiga ta'sir qiladi. Agar korxonalarining daromadlari chet el valyutasida bo'lsa va milliy valyuta kursi oshsa, ularning milliy valyutadagi foydasi kamayadi. Aksincha, agar milliy valyuta qadrsizlansa, ularning milliy valyutadagi foydasi ortadi.

➤ Investitsiyalar: Valyuta kursining o'zgarishi mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining investitsiya qarorlariga ta'sir qiladi. Agar milliy valyuta kursi oshsa, korxonalar uchun tashqi bozorlarga sarmoya kiritish jozibador bo'ladi, qadrsizlanish esa xorijiy investorlar uchun mahalliy ishlab chiqarish korxonalariga sarmoya kiritishni yanada jozibador qiladi.

➤ Risklarni boshqarish: Valyuta kursining o'zgarishi mahalliy ishlab chiqarish korxonalarini duch keladigan xavfni oshiradi. Valyuta kurslarining o'zgarishi korxonalarining pul oqimlari, balanslari va moliyaviy ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi. Shunday qilib, mahalliy ishlab chiqarish korxonalarini o'zlarining valyuta risklarini xedjlash va boshqa risklarni boshqarish strategiyalari orqali boshqarishlari kerak.

Umuman olganda, valyuta kursi o'zgarishining mahalliy ishlab chiqarish korxonalariga ta'siri sanoat, eksportga yo'naltirilganlik va import qilinadigan

materiallarga bog'liqlik darajasi kabi omillarga qarab farq qiladi. Siyosatchilar uchun mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining o'sishini rag'batlantirish siyosatini ishlab chiqishda valyuta kursining o'zgarishi ta'sirini hisobga olish juda muhimdir.

XULOSA

Valyuta kursining o'zgarishi rivojlanayotgan iqtisodiyotda mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardoshligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, siyosatchilar mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish siyosatini ishlab chiqishda valyuta kursining o'zgarishi ta'sirini hisobga olishlari kerak. Tadqiqot siyosatchilarga valyuta kursining tashqi zarbalarga moslashishiga imkon beruvchi moslashuvchan kurs rejimini qo'llashni tavsiya qiladi. Tadqiqot shuningdek, siyosatchilarga kichik va o'rta korxonalariga valyuta kurslarining o'zgarishi ta'sirini yengishda yordam berish uchun yordam ko'rsatishni tavsiya qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Burstein, A., Eichenbaum, M., & Rebelo, S. (2016). Models of exchange rate determination and adjustment. *Handbook of International Economics*, 4, 391-451.
2. Goldberg, P. K., & Knetter, M. M. (1997). Goods prices and exchange rates: What have we learned? *Journal of Economic Literature*, 35(3), 1243-1272.
3. "Exchange Rates and International Finance" by Laurence Copeland.
4. "Exchange Rates and Manufacturing: A Competitive Advantage?" by Erinç Yeldan.

ВАЛЮТНЫЙ КУРС: СУЩНОСТЬ, ВИДЫ, ФАКТОРЫ ЕГО ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ

Буриева Феруза Нажмиддиновна

магистрант Национального Университета Узбекистана

Что такое курс валют, известно каждому из нас. Курс валют для каждой страны – это по своей сути важнейший экономический показатель. А вот от чего он зависит, знают немногие. На самом деле факторов, влияющих на валютные колебания, множество. Но есть наиболее весомые, о них мы и поговорим в нашей статье.

Первое, что влияет на курс главным образом, это торговый баланс страны. Другими словами, это соотношение импорта, при котором из страны уходит валюта, и экспорта, при котором она поступает в государство. Курс на сегодня может быть крайне низким, если страна

импортирует больше, чем экспортирует. А завтра он может возвыситься из-за того, что много товаров пошло на экспорт.

Второе – это показатели страны с точки зрения макроэкономики. В каждой стране берутся во внимание свои показатели, однако самыми важными и общими являются уровень инфляции, валовой внутренний продукт, уровень безработицы населения. Высокая безработица и инфляция приводят к снижению курса национальной валюты, а рост производственных мощностей, наоборот, укрепляет курс.

Третье – это политика центрального банка того или иного государства. При этом действия, проводимые центробанком, могут быть разными. Одно из таких – эмиссия денег. Обычно она приводит к снижению курса. Валютные интервенции, проводимые банком, – это приобретение или продажа на валютном рынке крупных партий иностранной валюты, что приводит к временному снижению или увеличению курса национальных денег.

На курс валют может повлиять также такое понятие, как доверие населения страны к национальной валюте. Если доверия мало, население предпочтет хранить свои сбережения в иностранной валюте, и на нее будет спрос, а курс национальной валюты при этом снизится. Если дело обстоит противоположным образом, депозиты в банках хранятся в национальной валюте, тем стабильнее будет ее курс. Это далеко не все факторы, которые могут повлиять на курсы валют внутри государства, однако мы перечислили самые значимые, действие многих из них вы можете наблюдать время от времени.

Особенность взаимоотношений с иностранным сектором заключается в том, что бухгалтерский учет операций производится в национальной денежной единице, а расчеты происходят в иностранной валюте.

Поэтому для субъектов, осуществляющих внешнеэкономическую деятельность, немаловажное значение имеет соотношение обмена одной валюты на другую, то есть валютный курс.

Валютный курс двух стран – это цена, по которой между ними происходит обмен национальными валютами (или цена одной валюты, выраженная в единицах другой валюты). В зависимости от выражения валютного курса различают девизный и обменный курсы.

Различают номинальный и реальный валютные курсы. Номинальный валютный курс – это относительная цена валют двух стран. Реальный валютный курс – это относительная цена единицы товаров и услуг, произведенных в двух странах.

Если цены внутри страны растут, то растет и номинальный обменный курс, то есть национальная валюта становится дешевле, так как за доллар

надо платить больше рублей. Поэтому факторы, определяющие рост цен в стране, вызывают и рост обменного курса. Поскольку необходимым условием для роста цен является рост предложения денег, то обнаруживается очень сильная зависимость между изменением денежной массы и изменением валютного курса.

Также на изменение текущего значения номинального валютного курса оказывают влияние:

- автономные изменения в чистом экспорте;
- изменение величины чистого экспорта капитала;
- динамика спроса на валюту со стороны активов.

Изменение объема чистого экспорта капитала в условиях свободного движения капиталов определяется соотношением уровней доходности от вложения средств в отечественные и иностранные активы, то есть соотношением процентных ставок внутри страны и за границей.

Формализовано данная зависимость выражается в виде так называемой теоремы процентного паритета:

$$\Delta e / e = (i - i^z) / (1 + i^z),$$

где

e - номинальный валютный курс;

i - ставка процента в стране;

i^z - ставка процента за границей.

То есть, если разница между текущими процентными ставками внутри страны и за рубежом «погашается» соответствующим изменением номинального валютного курса, то изменений в чистом экспорте капитала наблюдаться не будет. Если же, например, при неизменном номинальном валютном курсе процентные ставки за границей возрастают относительно внутренних процентных ставок, то чистый экспорт капитала также возрастает.

Изменение спроса на валюту со стороны активов зависит от паритета покупательной способности (ППС). Концепция ППС строится на предположении, что субъекты воспринимают покупательную способность валют (то есть реальный валютный курс) как устойчивый параметр. Поэтому, если представить выражение (1) в темпах прироста при $eR = \text{const}$, то получим

$$\Delta e / e = \Delta P / P - \Delta P^z / P^z = \pi - \pi^z,$$

То есть темп прироста курса национальной валюты равен разности между уровнями инфляции в стране и за рубежом.

В зависимости от формы регулирования валютного курса различают пять систем валютных курсов:

- свободное («чистое») плавание – валютный курс формируется под воздействием рыночного спроса и предложения (FOREX);

- управляемое плавание – на валютный курс, кроме спроса и предложения, сильное влияние оказывают центральные банки стран, а также различные временные рыночные искажения;

- фиксированные курсы – фактический обменный курс определяется на валютном рынке, а роль ЦБ состоит в регулировании спроса и предложения на этом рынке, гарантирующем неизменность (или небольшую наклонность) (Бреттон-Вудская валютная система 1944-1971гг.);

- система целевых зон – развивает идею фиксированных валютных курсов (фиксация российского рубля к доллару США в коридоре 5,6 – 6,2 рубля за 1 доллар США (в докризисные времена).

- гибридная система – современная валютная система, в которой существуют страны, осуществляющие свободное плавание валютного курса, имеются зоны стабильности и т.п.

Классификация видов валютного курса

КРИТЕРИЙ	ВИДЫ ВАЛЮТНОГО КУРСА
1. Способ фиксации	Плавающий Фиксированный Смешанный
2. Способ расчета	Паритетный Фактический
3. Вид сделок	Срочных сделок Спот-сделок Своп-сделок
4. Способ установления	Официальный Неофициальный
5. Отношение к паритету покупательной способности валют	Завышенный Заниженный Паритетный
6. Отношение к участникам сделки	Курс покупки Курс продажи Средний курс
7. По учету инфляции	Реальный Номинальный
8. По способу продажи	Курс наличной продажи Курс безналичной продажи Оптовый курс обмена валют Банкнотный

Факторы, определяющие валютный курс:

На состояние валютного курса воздействуют как факторы структурного характера, отражающие состояние экономики данной страны, так и конъюнктурные, постоянно меняющиеся под влиянием тенденций развития на мировом рынке.

1. Структурные факторы:

А) показатели экономического роста (валовой национальный продукт, объемы промышленного производства и др.)

Б) состояние платежного баланса

В) степень зависимости от внешних источников сырья

Г) рост денежной массы на внутреннем рынке

Д) уровень инфляции и инфляционные ожидания

Е) уровень процентной ставки

Ж) платежеспособность страны и доверие к национальной валюте на мировом рынке

2. Конъюнктурные факторы: ведут к спекулятивным операциям на валютных рынках.

3. Денежная масса и инфляция.

Существенное влияние на валютный курс оказывают рост денежной массы, состояние и темпы инфляции, инфляционные ожидания. Ускоренный рост денежной массы, как в наличной, так и в безналичной форме, оказывает понижающее воздействие на курс денежной единицы.

Макроэкономический показатель – денежная масса (М) состоит из трех частей:

М1 – наличные деньги в обращении, средства на расчетных и текущих счетах в банках, дорожные чеки. Преобладающее значение в развитых странах в структуре М1 имеют чековые платежи.

М2 - М1 + срочные вклады в банках

М3 – М2 + гос. ценные бумаги

Увеличение денежной массы в обращении => рост цен, повышение валютной эффективности импорта, расширение спроса на валюту и падение ее курса.

Не только инфляция влияет на снижение валютного курса, но и инфляционные ожидания яв-ся курсообразующим фактором. В ожидании изменения курса валюты инвесторы могут принимать трудно предсказуемые решения. Их результатом м/б либо увеличение спроса на валюту, либо его падение.

Режимы валютного курса:

При фиксированном режиме валютный курс фиксируется в одной валюты или «корзине» валют. Плавающие курсы меняются в зависимости от спроса и предложения на валютном рынке.

После Второй мировой войны в соответствии с Бреттон-Вудским соглашением был введен режим фиксированных золотых паритета и курсов. Центральные банки были обязаны поддерживать курс национальной валюты к доллару в пределах 1% от официально заявленного паритета. Если при этом не хватило золотовалютных резервов, проводилась девальвация валюты.

Достоинства фиксированных валютных курсов:

уменьшение риска и неопределенности, связанных с международной торговлей и финансами.

Недостаток: необходимо наличие достаточных резервов.

В 1971 г. произошел крах Бреттон Вудской валютной системы и был осуществлён переход к Ямайской в.с.

В результате краха Бреттон-Вудской валютной системы золотые паритеты и фиксированные на них валютные курсы были отменены и установлен режим гибких курсов валют.

Достоинства плавающих валютных курсов:

Автоматическая корректировка таким образом, что исчезают дефициты торговых балансов.

Недостатки:

1 Неопределённость в изменении валютного курса => сокращение торговли и свёртывание внешнеэкономической деятельности.

2. Условия торговли могут ухудшаться при падении международной котировки ее валюты.

3. Свободное колебание валютных курсов может оказывать депрессивное воздействие на отрасли, производящие товары на экспорт.

Список литературы.

1.https://cbu.uz/ru/press_center/releases/38933/

2.М.С.Марамигина и Е.Н.Прокофьев «Денги,кредит и банки» 2019 г.

3.Н.В.Андреева Мировая экономика и международные отношения. 2014 г.

4.<https://textbooks.studio/ekonomicheskaya-teoriya-uchebnik/232-valyutnyiy-kurs-suschnost-vidyi-factoryi.html>

FARZAND TA'LIM TARBIYASIDA IJTIMOIIY PSIXOLIK XUSUSIYATLARI

Burxanova Mavjuda Bekbutaevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti kafedrasi o'qituvchisi (PhD)

Bu hikmatli gapda hech qanday mubolag'a yo'q. Shuning uchun ham otabobolarimiz tarbiya sohasiga jiddiy e'tibor qaratganlar. Milliy qadriyatga aylangan bu an'ana hozirga qadar davom etib kelmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalarini davlat tomonidan boshqarishning samarali tizimini yaratish hamda uning moddiytexnika bazasini mustahkamlash maqsadida 2017 yil 30 sentabrda mamlakatimizda Maktabgacha ta'lim vazirligi va uning joylardagi

hududiy bo'linmalari tashkil qilindi. 2017 – 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha dastur tasdiqlandi, uning doirasida muassasalar faoliyatini tizimli tashkillashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash borasida amaliy ishlar boshlandi.

Tan olish kerak, yaqin yillargacha davlat maktabgacha ta'lim muassasalari infratuzilmasi zamon talablariga to'liq mos emasdi. Aholining o'sib borishini e'tiborga olganda, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish imkoniyati yo'q edi.

Sohada amalga oshirilayotgan tub islohotlar doirasida Buvayda tumanida ham maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, bolalarning ta'lim muassasalariga kengroq qamrab olish, shuningdek, tizimda nodavlat sektorini yanada rivojlantirish, davlat-xususiy sherikchiligi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida aniq amaliy ishlar olib borildi.

Ba'zilar bolasi hali ikki-uch yoshga kirmay turib, uning tarbiyasi «nobop»ligidan shikoyat qilishni boshlab yuborishadi. Norasida go'dakni xuddi kattalardan talab qilinadigan «qolip»larga solishga, uning odob-axloqini «o'nglash» harakatlariga kirishiladi.

Bu ham xato yo'l. Chunki hali suyagi qotmagan, yaxshi va yomon nimaligini anglamagan yosh bolani hadeb tergayverish, uni turli qoliplarga solishga urinish, kuchi va iqtidori yetmaydigan mashg'ulotlarga majburlash irodasini sindirishi, ruhiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, keyinchalik hamma narsaga befarq va loqayd qaraydigan qilib qo'yishi mumkin.

Buyuk vatandoshimiz shayxur rais Abu Ali ibn Sino yosh avlod tarbiyasining ibtidosi qanday va nimalar bilan bo'lishi haqida quyidagilarni aytgan edi: «Yosh bola boshlang'ich ta'lim va tilga doir qoidalarni yod olganidan keyin u mashg'ul bo'lishi mumkin bo'lgan kasb-hunar va san'atga moyilligiga qarab, uni shunga yo'llaymiz. Agar u kotiblikni xohlasa, til, xat yozish, nutq so'zlash va odamlar bilan muomala qilish kabilarga dalolat qilamiz. Albatta, bu o'rinda, bolaning mayli ahamiyatga ega» («Islomiy tarbiya va uning falsafasi». Muhammad Atiya, 197-bet).

Tarbiya bir necha tomondan olib boriladi. Bola aqlan rivojlanishi uchun unga turli kitoblar o'qib beriladi, rivoyat va ibratli hikoyatlar so'zlanadi yoki aql-zakovatini o'stiradigan o'yinlar, mashg'ulotlarga jalb qilinadi. Ruhiy tarbiyasini yaxshilash uchun hayot va o'lim, yaxshilik va yomonlik, axloq va odob kabi boqiy mavzularda sodda, bola ruhiyatiga mos suhbat va tushuntirish olib boriladi. Jismoniy tarbiya berish uchun esa biror foydali mehnatga jalb qilish, suzish, merganlik, chavandozlik kabi mashg'ulotlarni o'rgatish mumkin.

Bolalarga yoshligidan boshlab Qur'oni karim qissalaridan, payg'ambarlarning hayoti haqida naql qiluvchi turli rivoyatlardan, xalq ertaklari

va dostonlaridan, topishmoqlar, maqol va matallardan o'qib berish, so'zlash yoki ularning o'zlariga o'qitish ham kerak. Bu bilan bolalarning zehni o'sadi, fikri kengayadi, dunyoqarashi boyiydi, xotirasi kuchayadi. Eng asosiysi, bola eshitganlaridan ibratlanib, yaxshi odamlarga ergashishga intiladi, ularning xulqu odobidan bahramand bo'ladi.

O'g'il-qizlarining zehni o'sishini, aql-idrokli, fikrlovchi bo'lib ulg'ayishini istagan ota-onalar ularga kichikligidan turli ibratli hikoyalarni, ulug'larimizning hayot yo'llari va fazilatlari haqidagi rivoyatlarni, ramziy ma'nodagi yaxshilikka, chiroyli axloq va odobga chorlovchi ertaklarni so'zlab berishsa, ular ma'naviyatini yuksaltirishda katta tarbiyaviy ish qilgan bo'lishadi. Quyida misrlik olim Abdulloh Abdul Muti'ning «Islomda tarbiya» kitobidan bir necha shingil ertaklarni keltirib o'tishni lozim ko'rdik

Bola kichikligida uning tarbiyasini o'z holiga tashlab qo'ygan, ongi, zehni, aqli, odobini shakllantirish bilan shug'ullanishga vaqt topolmagan yoki bunga hafsala qilmagan ota-ona farzandi ulg'aygach, achchiq nadomat hosilini teradi. Farzandlari qalbiga yo'l topa olmayotgan, ular bilan murosalar kelishmayotgan ota-ona avvalo o'zlarini ularning o'rniga qo'yib, shu yoshda men qanday fikrlagan va qanday ish tutgan bo'lur edim deb, shu haqda biroz mulohaza yuritib ko'rishsa, hamma narsa joyiga tushadi. Buning ustiga davr, zamonlar orasidagi farqni ham unutmaslik kerak: zamon hech qachon bir joyda qotib turmaydi. U o'zgarib, taraqqiy etib boradi. Bu haqda hazrat Ali (roziyallohu anhu): «Farzandlaringizni o'zlarining davriga moslab tarbiyalanglar», deganlar. Chunki kechagina ardoqlangan narsa bugun e'tibordan qolishi yoki aksincha, kecha qadri bo'lmagan nimadir bugun eng qimmatli narsaga aylanishi mumkin.

Shu omillar e'tiborga olinmasa, «hozirgi yoshlarga qoyil qolmadim, biz o'z davrimizda bundoq qilardik, bizlar mana bundoq edik» kabi malomat va nadomatlar ko'payaveradi, kattalar va bolalar o'rtasidagi ziddiyat-to'qnashuvlar avjiga chiqaveradi.

Bola ulg'ayish jarayonida hamma narsani asosan atrofidagi kattalardan o'rganadi. Ulardan ibrat olib, ularga taqlid qilib, hayotiy tajriba orttira boradi. Endi o'zingiz qo'pol va badxulq bo'lsangizu, bolangizni chiroyli xulqli va odobli qilib tarbiyalayman deb o'ylasangiz, xato qilasiz. Agar o'zingiz cheksangiz yoki ichsangiz-u, farzandingizni bu yomon illatlardan qaytaraman desangiz, umidingiz va harakatlaringiz puchdir. O'zingiz yolg'on gapiruvchi yoki aldoqchi ekansiz, bolangizdan rostgo'ylik va omonatdorlik kutib ovora bo'lmang.

«Qasosli dunyo, qaytar dunyo» degan gaplar bor. O'zingiz ota-onangizga yoki boshqa yaqinlaringizga qanday muomala-munosabat qilgan bo'lsangiz, buni farzandlaringizdan albatta ko'rasiz. O'z navbatida, farzandingiz sizga qanday beodoblik qilgan yoki alam o'tkazgan bo'lsa, u ham farzandidan shuni albatta topadi. Bu narsa zanjir xalqalari kabi davrlar osha bir-biriga bog'lanib ketaveradi.

Kelajakda farzandingiz ham siz kabi «avlodlar to'qnashuvi» azobini tortib yurmasin desangiz, ana shu salbiy zanjir xalqalarini uzib tashlashingizga to'g'ri keladi.

Zamondosh olimlarimizdan biri yozganiday, «barcha narsa asli bilan bog'langan holda mustahkam bo'ladi, aslidan uzilgan har bir narsa xorlik va xaroblikka mahkum. Kishining asli otaonasidir. Chunki uning o'sib-ulg'ayib, kamolga yetishi ularga bog'liq. Ota-onasidan uzilgan biror kimsaning tolei-baxti hech qachon baland bo'lmagan va bo'lmaydi ham. Ota-onasidan yoki ularning biridan uzilgan, ajralgan kimsa “oq” deb ataladi. Otaonadan uzilish ularni ranjitishdir. Ularning qalbiga ozor yetkazgan, norozi qilgan o'g'il yoki qiz “oq”dir va qattiq gunohkordir».

Fursatdan foydalanib, tumanimiz aholisini, tuman hokimligi, jamoat tashkilotlari jamoalarini, bo'lim tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari murabbiy-tarbiyachilarini, otaonalarimizni, himmati baland xomiy tashkilotlar xodimlarini Mustaqilligimizning 30 yillik bayrami bilan samimiy qutlaymiz. Har bir oilada tinchlik-xotirjamlik bo'lsin, qo'zimizning oqu qorasi bo'lgan aziz o'g'il-qizlarimiz ona Vatanimizning munosib farzandlari bo'lib voyaga yetsinlar, ularning baxt-u kamolini ko'rish hammamizga nasib etsin!

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Omonov.H.T Khattobov.MB "Pedagogical technologies and pedagogical skills" T-2016.

2. Yuldashev.J.G Usmanov.S "Advanced pedagogical technologies" -Teacher 2007.

HARBIY XIZMATCHILAR FAOLIYATIDA FRUSTRASIYANING AHAMIYATI

Bo'tayev Ulug'bek Abdusattorovich

*O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o'quv markazi
Psixologik va profilaktik faoliyat sikli katta o'qituvchisi, podpolkovnik*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2022 yil 8 sentabrda imzolangan “Harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-371-son Qarori bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish” Konsepsiyasining asosiy maqsadi etib harbiy xizmatchilarda milliy g'urur va ma'naviy fazilatlarga tayanadigan barqaror axloqiy-ruhiy holatni ta'minlash, murakkab vaziyatlarga nisbatan bardoshlilikni, yuksak jangovar ruhni tarbiyalash hamda ularda yot g'oyalarga

qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlashdan iboratligi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, ushbu Konsepsiyada harbiy xizmatchilarda milliy ruhga asoslangan yuksak ma'naviy, axloqiy-ruhiy va psixologik sifatlarni, milliy g'urur va jangovar ruhni shakllantirish bo'yicha yagona tizimni yaratish, jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik tizimida shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirish hamda ularda yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash bo'yicha yagona yondashuvni joriy etish, buyuk tariximiz, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug' ajdodlarimizning sarkardalik mahorati va dunyo harbiy san'ati rivojiga qo'shgan hissasi hamda ularning qo'shinlaridagi lashkarboshilarning sadoqati va mardligini shaxsiy tarkib o'rtasida keng targ'ib etish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi [1].

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, harbiy xizmat faoliyati ekstremal shart-sharoitlarda faoliyat olib borishni taqozo etib, uning sub'ektlari kasbiy vazifalar, hayotiy maqsadlar hamda harbiy mashg'ulotlarni samarali bajara olishi jarayonida, qator psixologik to'siqlarga hamda stressogen vaziyatlarga duch kelishlari tabiiydir. Bundan tashqari, bo'lajak harbiy ofitser kadrlarni ekstremal vaziyatlarga va topshiriqlarga nisbatan psixologik tayyorlash, ularda stressbardoshlikni shakllantirish, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, shaxslararo munosabatlar uchun shart sanalgan emotsional barqarorliklarini oshirish shuningdek, ularda frustratsion vaziyatlarga nisbatan optimizm va tolerantlilik xususiyatlarini shakllantirish kabi masalalar zamonaviy harbiy psixologiya oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda, bo'lajak ofitserlarda frustratsion holatlar namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish, nafaqat psixologiya fani uchun balki, mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tizimi istiqboli uchun ham, muhim ahamiyatga ega bo'lgan ishlar turkumidan sanaladi. Mazkur paragrafda, aynan shu masalaga oid ayrim tadqiqotlar mazmunini yoritishga harakat qilamiz.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, aksariyat tadqiqotlar harbiy shaxslarda namoyon bo'luvchi kasbiy zo'riqishlar hamda deviant xulq muammolariga bag'ishlangan. Bo'lajak harbiy ofitserlarda frustratsion holatlarning namoyon bo'lishi va unga nisbatan insonning qarshilik ko'rsatish reaksiyasi masalasi juda kam tadqiq etilgan mavzudir. Amalga oshirilgan tadqiqotlar asosan, ayol harbiy xizmatchi xodimlar faoliyati orqali o'rganilgan. Shuning uchun maqsadni avvalo, harbiy shaxslarda frustratsiyani namoyon etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlashdan boshlash lozim.

Frustratsion holatlar biror ehtiyojning qondirilmasligi yoki ortiqcha vazifalar oldida chorasiz qolishda hamda kutilmagan vaziyatlarda qaror qabul qilishdagi qiyinchilik kabilarda yuzaga keladi. Harbiy xizmatchilar faoliyati ham bundan aslo, mustasno emas. Aslida, hech bir harbiy xizmatchi o'z faoliyatida

maqsadga erishishdan bosh tortmaydi, balki u qanday qilib muvaffaqiyatga erishishni yo'lini bilmaydi. Bu holat harbiy xizmatchining o'z vazifalarida yo'nalishini yo'qotishi bilan xarakterlanadi.

Harbiy xizmatchilar faoliyatida maqsadga erishishga xalaqit beradigan to'siqlar kutilmaganda yoki to'satdan paydo bo'lsa, unda ularda frustratsiya holatidan chiqib ketish o'ta qiyin kechadi.

Tadqiqotchi A.V.Bulgakov ta'kidicha, harbiy xizmatchi faoliyatida quyidagi omillar frustratsiya holatlariga sabab bo'ladi [2]:

fizik va jismoniy omillar (kutilmaganda avtomobilning buzilishi, shaxsiy hayot uchun erkinliklarning cheklanganligi va hokazo);

biologik omillar (o'ta kuchli charchash, qarish, biror kasallikni muntazam boshdan kechirish);

psixologik omillar (o'z-o'zidan paydo bo'ladigan shubha, qo'rquv, oldingi omadsiz tajribalar);

ijtimoiy – madaniy omillar (tizimda mavjud bo'lgan ortiqcha taqiqlar hamda qoida va me'yorlar) va hokazo.

Bundan tashqari, harbiy jamoalarda o'zaro munosabatlarning ijobiyligi va hamkorlikdagi faoliyat jarayoni ko'plab salbiy holatlarni oldini olishga xizmat qiladi. Umumiy vazifalarni ko'rsatmalar yoki iltimoslarsiz hal qilishdan iborat.

Shuningdek, harbiy xizmatchi xodimlarning o'zaro hamkorlikni anglagan holda sheriklariga yordam berishi va ulardagi birgalikda harakat qilish istagi o'z o'zidan, har qanday vaziyatda jamoaning muvaffaqiyatiga yordam beradi. G.A.Kanatayevning aytishicha, harbiy jamoalardagi o'zaro salbiy munosabatlar, ya'ni xizmatdoshining natijalariga befarqlik, da'vogarlikka intilish, nizoli raqobat muhit hamda ayrim shaxslarda vazifalarga nisbatan kuchli javobgarlik hisining yo'qligi kabilar oxir – oqibat frustratsiya holatlarining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, harbiy jamoalarda frustratsiya holatlarini oldini olish uchun avvalo, ularda mustahkam irodaviy sifatlar hamda ishbilarmonlik ko'nikmalarini shakllantirishni talab etiladi. Natijada samarali va yagona tizim hosil bo'ladi [3].

Harbiy faoliyatda frustratsiya holatlari bir qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga bog'liq ravishda yuzaga kelishi mumkin.

A.N.Tarasovning fikricha, harbiy xizmat faoliyatida frustratsiya shakllanishining ob'ektiv sabablariga quyidagilar kiradi[4]:

xodimlar o'rtasidagi munosabatlarning nomuvofiqligi;

xizmat faoliyatida shakllanadigan xarakter sifatleri;

yosh harbiylarning xizmat sharoitiga nisbatan kasbiy va ijtimoiy moslashuvdagi nomuvofiqliklar;

harbiy faoliyatning dinamikligi va murakkabligi;

harbiy xizmatchilarning o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan ziddiyatlarni hal qiluvchi huquqiy asoslarning sust ishlab chiqilganligi;

xizmat sharoitida ijtimoiy qo'llab – quvvatlash hamda ma'naviy va moddiy rag'batlantirishni taqsimlashdagi tartibsizliklar;

harbiy qismning jangovar vazifalarni bajarish va normal hayot uchun zarur bo'lgan narsalar bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi va hokazo.

Ye.O.Lazebnayaning xulosalariga ko'ra, harbiy xizmatchilarda stress va frustratsiya kechinmalarini yuzaga keltiruvchi ijtimoiy – psixologik omillar quyidagilar bilan xarakterlanadi [5]:

shaxsda o'z-o'zini hurmat qilish darajasining pastligi, kuchli tashvishlanish, emotsional xarakterdagi beqarorlik;

yuqori darajadagi asabiylashish va agressiya;

xulq-atvordagi ortiqcha negativizmi;

har qanday yo'l bilan jamoada yetakchi bo'lish istagi;

ayrim harbiy xizmatchilarning o'ziga ortiqcha baho berishi;

jamoadagi murakkab o'zaro munosabatlar;

boshliqlarning qo'l ostidagilarga xolisona bo'lmagan munosabati;

nizomda belgilanmagan munosabatlar;

qanday qilib bo'lmasin o'z obro'sini ko'tarishga intilish;

muloqot madaniyatining yetishmasligi, bironing fikrini eshitmaslik, beparvolik, ortiqcha qo'pollikdan foydalanish holatlari;

kichik boshliqlarga katta boshliqlar tomonidan vazifalarni bajarishlariga bo'lgan ortiqcha g'amxo'rlik sifatleri;

boshliqlarning tomonidan ayrim harbiy xizmatchilarning nufuzini ko'tarish ishlaridagi sustkashlik;

bo'ysunuvchilar va boshliqlar o'rtasidagi o'zaro nizolar;

bo'linma qo'mondonlik tarkibi tomonidan noto'g'ri yoki asossiz qarorlarning qabul qilinishi;

kasbiy tayyorgarlikning yetarli emasligi va hokazo.

Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmat faoliyatida frustratsiya shakllanishining ob'ektiv sabablari va uning ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganish hamda harbiy jamoalardagi o'zaro salbiy munosabatlarni tahlil qilish, yuzaga keladigan frustratsion holatlar va emotsional xususiyatlarning oldini olishda yuqorida keltirilgan psixologik bilim va tajribalar bo'linma komandirlarining shaxsiy tarkibni samarali boshqaridlariga hamda bo'linmani jiplashtirishga hizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 sentabrdagi "Harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar

ruhini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-371-son Qarori. -Toshkent: 2022. 7 - b.

2. Булгаков А.В., Чайка В.Г. Социально-психологическая помощь офицерам в ходе преобразований вооруженных Сил России: Учебное пособие. М.: Военный университет, 2001. – С.56.

3. Налчаджян А. «Фрустрация, психологическая самозащита и характер. Том 2. Защитные механизмы, самосознание и характер». ЛитРес: ISBN: 978-9939-53-845-7. 2018. 1020 стр.

4. Психология мотивации и эмоции / под ред. Ю.Б. Гиппенрейтер, М.В. Филикман. - М.: АСТ: Астрель, 2009. - 704 с.: ил. - (Хрестоматия по психологии).

5. Общая психология и психология личности / под ред. А.А. Реана. - О-21 М.: АСТ: Астрель; СПб.: Прайм-ЕВРОЗНАК, 2011. - 639 с.

REFORMS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM: IN THE EYES OF SCIENTISTS AND YOUNG PEOPLE

G'ofurov Otabek

O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

Kirish. Ta'lim tizimidagi islohotlar hozirgi rivojlanib borayotgan davrning o'ziga xos bir kuchli strategiyasi hisoblanadi. Bizga ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda har bir sohada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'z navbatida, mazkur islohotlarning salmoqli qismini ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tashkil etmoqda. So'nggi yillarda ta'lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta'lim tizimidagi islohotlar va amaliy chora-tadbirlar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tashkil etilmoqda:

- 1) Maktabgacha ta'lim sohasida;
- 2) Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- 3) Oliy ta'lim;
- 4) Oliy ta'limdan keying ta'lim;
- 5) Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning, avvalo, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida boshlanishi ham bugungi kunda ushbu sohaga alohida e'tibor berilayotganligidan dalolat desak mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi globallashuv jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Mazkur sohaga bo'lgan e'tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam

zamin yaratadi. Mazkur sohaga bo'lgan e'tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi. Mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asosi sifatida "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonunni keltirishimiz mumkin. Mazkur Qonunda maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, maktabgacha ta'lim va tarbiya olishga doir davlat kafolatlari va boshqa shunga o'xshash masalalar belgilab qo'yildi. Bundan tashqari, yurtimizda ilk bor Maktabgacha ta'lim vazirligining ham tashkil etilganligi ushbu sohadagi asosiy islohotlardan biri bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili(Literature review).

Yurtimiz azal-azaldan ilm o'chog'i, jahon sivilizatsiyasi markazlaridan beri deb e'tirof etib kelingan. O'rta asrlardan, xalqimiz ta'lim sohasida yuksak marralarga erishgan bo'lib, jahon sivilizatsiyasi hamda fan sohasiga ulkan hissa qo'shishgan. Misol tariqasida, IX-XII asrlarda Movarounnahrda ko'plab o'quv maskanlari bo'lib, ulardan chinakam olimlar, ulamolar yetishib chiqqan. Xusasan, Xorazm Ma'mun akademiyasi ham shu davrdagi yirik tadqiqot markazlaridan biri hisoblangan. Algebra fani bobakalonimiz Muhammad al-Xorazmiy nomi bilan atalganligi, bu azal-azaldan bizning qonimizda yaratuvchanlik, o'qishga bo'lgan qiziqishdan dalolatdir. Bundan tashqari, yana bir buyuk ajdodimiz Abu Ali ibn Sino o'sha olis XI asrda tibbiy jarrohlik operatsiyasilarini amalga oshirgani bilan dunyoga mashhur. Uning "Tib qonunlari" asari Yevropada "Injil" kitobidan keyin eng ko'p nashr etilgan kitoblardan biri bo'lib, 500 yil davomida dunyoning ko'plab nufuzli oliy o'quv yurtlarida barcha talabalar uchun darslik sifatida o'rganib kelingan. Buyuk mutafakkir Al-Farg'oniy astronomiya fanida birinchi bo'lib, geliosetrik nazariyani asoschisi bo'lgan ya'ni Yerni Quyosh atrofida aylanishini aniq hisob — kitoblar bilan isbotlab bergan. XV asrdayoq Samarqandda Mirzo Ulug'bek observatoriya barpo etib, yulduzlar xaritasini tuzgan. U yulduzlar joylashuvini shu qadar aniq hisoblanganki, hozirgi fan-texnika bu ma'lumotlarni atiga bir necha daqiqalarga farq qilishini isbotlagan. Bundan ko'rinib turibdiki, bizning ota-bobolarimiz jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan.

Sobiq sho'rolar davridagi ta'lim tizimiga to'xtaladigan bo'lsak, u darvlarda hatto O'zbekistonning o'zining milliy ta'lim tizimi joriy etilmagani ayanchli holatdir. Asosan ta'lim tizimi sobiq markazning hukmron mafkura manfaatlariga bo'ysundirilgan edi. Aytaylik, aksariyat fanlar o'quv dasturiga kiritilmagan. Birgina O'zbekiston tarixi fanini oladigan bo'lsak, ushbu fan xolis o'rganilmas, o'quv dasturida bu fanga ajratilgan soatlarning katta qismi sobiq ittifoq tarixini o'rganishga bag'ishlanar edi. O'quvchilar ongi Vatanimiz tarixining noto'g'ri talqin qilingan hodisalari bilan to'ldirililar edi. Milliy qadriyat va ma'naviyat toptalar, asl o'zbek olimlarini va buyuk davlat arboblari, sarkardalari hayot va ijod yo'llari

qoralangan. Bunga misol Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bahouddin Naqshband, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon va hokazolarni keltirish mumkin. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirila boshladi. Ayniqsa ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratildi. Ta'lim-tarbiya tizimi takomillashgani sayin odamlarning ma'naviyati, ongi, tafakkur doirasi shakllanib, yuksalib bordi. Ta'lim tizimini har tamonlama, shaklan va mazmunan isloh qilish, yangilash lozim edi. Zero, jamiyat yangi shaxsni tarbiyalashni talab etayotgan bir paytda odamlarning ongi, dunyo qarashi, bilim saviyasini o'zgartirmay, uni zamonaviylashtirmay turib yangi jamiyatni barpo etib bo'lmadi. Axborot texnologiyalar asri deb nom olgan XXI asrda hayotning barcha jabhalarida – sanoat, qurilish, kimyo, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, mashinasozlik va boshqa sohalarda yuksak taraqqiyotni yuzaga keltirish uchun ilm-fanni rivojlantirish, bu borada yangiliklar yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Yurtboshimiz Islom Karimov mustaqillik yillarida ushbu jihatlarni inobatga olgan holda, odamlarda yangicha, milliy qadriyat va an'analarimizga asoslangan dunyoqarashni shakllantirish maqsadida, ta'lim va tarbiyaga juda katta e'tibor qaratganlar. Jumladan u: "Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchilik faolligini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi. Yoshlar, ularning iqtidorliligi va bilim olishga chanqoqligidan ta'lim va ma'naviyatni tushunib yetish boshlanadi" deya ta'kidlab o'tganlar.

Tahlil va natijalar(Analysis and results). Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi, insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Bugungi kunda universitetlarning ta'lim berish faoliyati yana-da takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo'lmoqda. Yoshlarimiz sog'lom hamda go'zal turmush kechirish, egallagan kasbi bo'yicha doimiy ish o'rniga ega bo'lish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, insoniy qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik, qisqacha aytganda, komillikka erishish uchun harakat qilyapti va bu jarayonda ta'lim olishni eng asosiy shart sifatida ko'rmoqda.

Mamlakatimizda 2019-yilning oktyabrida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro

hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi da'vatkor nutqi ham ana shundan dalolat beradi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Xalqimizning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan texnika va texnologiyalari yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish yurtimiz taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'grisida"gi qonuni qabul qilingan bo'lib, ushbu dastur "Ta'lim to'g'rida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan. Uning ustuvor vazifalariga, milliy va xorijiy ta'lim tizimi asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir. Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi. Eng samarali investitsiya — bu ta'limga qilingan investitsiyadir. Chunki jamiyat taraqqiyotini, uning ertangi kunini yetuk malakali kadrlar belgilab beradi. Ta'lim tizimini takomillashtirish — ularning bilimini oshirish, sifat darajasini ko'tarishdir.

So'ngi yillarda ta'limga ajratilayotgan mablag' mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YIM) 10–12 foizini tashkil etib, davlat byudjetining 35 foizidan ko'proq qismini tashkil qilmoqda. Ta'limning barcha bosqichlarida Davlat dasturlari amalga oshirilib, yoshlarga puxta bilim olishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

Yurtimizda uzluksiz va uzviylik tamoyillariga tayangan ta'lim tizimi yaratilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi jamiyatda ma'naviy va intellektual salohiyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash, davlatimizning ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlashdan iboratdir. Jumladan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 41-moddasida ta'lim sohasiga alohida to'xtalib o'tilgan: "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir".

Ta'limga oid davlat siyosatining asosiy tamoyillari sifatida uning milliy g'oyaga yo'naltirilgani, ta'limning uzluksizligi, umumiy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi, o'rta maxsus, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olishda tanlash erkinligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar(Conclusion and recommendations). Istiqlol tufayli odamlarimiz ongu tafakkurida chuqur o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu jarayonda millat sifatida o'zlikni anglash, ajdodlar dahosi va zakovatini davom ettirish, milliy fenomen qudratini bor bo'y-basti bilan jahonga ko'rsatish maqsadi barcha soha va yo'nalishlardagi sa'y-harakatlarda o'z ifodasini topdi. Bunday ezgu intilishlar samarasi o'laroq butunlay yangi — ruhi va fikri toza avlod dunyoga keldi." Mustaqillik yosh avlod hayotiga buyuk kelajak nafasini, ezgu umid va orzular ijobatini olib keldi. Yangi asr avlodiga ajdodlar armonining ushalihi bilan birga beqiyos imkoniyatlar kaliti, yuksak marralar sari dadil qadam tashlash baxti ham nasib etdi. Bugun qayerga qaramang, o'zbekistonlik yoshlar erishayotgan yutuqlarni ko'rishimiz mumkin. Yildan yilga yoshlarimiz, aytaylik, fan olimpidalarida deysizmi, yoki biror bir sport sohasimi, boringki, san'at sohasida ham yuksak marralarni zabt etmoqdalar. Prezidentimiz rahnamoligida ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar samarasi o'laroq, mustaqillik farzandlari dunyo miqyosidagi turli ko'rik-tanlov va xalqaro fan olimpiadalarida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Bu yutuqlar, avvalo, yoshlarning ertaga jamiyatdan munosib o'rin egallashi uchun hizmat qilsa, boshqalar uchun o'rnak bo'ladi. Xulosa qiladigan bo'lsak, mamlakatimizda ta'lim taraqqiyoti shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy hamda madaniy ehtiyojlarini ta'minlaydigan ustuvor soha sifatida qonunan o'z tasdig'ini topdi.

Adabiyotlar.

- 1) <https://aniq.uz> Ta'lim tizimini isloh etish-islohotlarning bir qismi sifatida.
- 2) (O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisodiyot, siyosat mafkura. T. 1996y, 82-bet)
- 3) O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. Karimov I.A. T, 1992y, 13 bet.

4) <https://medium.com> Sovet davrida O'zbekistonda ta'lim tizimi va hozirgi kunda bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va uning samarasi

SAID AHMAD IJODIDA INSON VA JAMIYAT MUAMMOSI

G'ulomova Zoxira

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti talabasi*

Kirish: (INTRODUCTION). Adabiyotning bosh mavzusi inson bo'lgani bois uning xilma-xil holat, harakat, intilishlari badiiy asar uchun material bola oladi. Lekin badiiy asarda gavdalantirilgan voqea-hodisalar hayotda ro'y bergan yoki bo'lishi mumkin voqealarning shunchaki bayoni emas, balki ularning muayyan nuqtayi nazardan qayta ishlangan shaklidir. Hikoya, roman, qissada va dostonida qahramonlar hayotining ma'lum bir vaqt oralig'ida kechmish-kechirmishlari qalamga olinadi va personajlarning fe'l-atvori, xarakteri xususida (albatta, ular asosiy qahramon yoki badiiy xarakter darajasidagi qahramon bo'lsa) muayyan tasavvur uyg'otadi. Bunday samaraga esa badiiy asarning shakl va mazmun, mavzu va g'oya, syujet va kompozitsiya singari unsurlardan tarkib qopadi.

Tahlil va Natijalar(ANALYSIS AND RESULTS)

Said Ahmad qalamiga mansub ushbu hikoya boshlanish nuqtasi ham, tugash nuqtasi ham cho'tkachi Mullaqand bilan bog'liq.

Hikoyaga bosh qahramon qilib Javlonbek olinadi. Hikoya Javlonbekning bo'ri oviga ketayotgan holatini tasvirlash bilan boshlanadi. Yo'lga chiqqanida birinchi uchratgan odami cho'tkachi Mullaqand edi. O'ylashimcha, cho'tkachi Mullaqand bu yerlik emas, chunki Javlonbek bilan uchrashgan vaqtida ham cho'tkachi Mullaqand tojik tilida gapiradi, o'zbek tiliga uncha tili kelishmaydi. Hikoya yarmida Javlonbekni cho'tkachi Mullaqandga bergan savolidan ham bilsak bo'ladi.

-Ishqilib o'zing Isroyilga ketib qolmaysanmi? – dedi Javlonbek uning jig'iga tegish uchun.

- Ketadiganlar ketaversin. Men ketmayman. Shu yerga tug'ildim, shu yerda o'laman. O'zbekni liposhkasini men yegan, qarzimni uzay.

Lekin cho'tkachi Mullaqandning "Shu yerga tug'ildim, shu yerda o'laman" degan gap ham bor. Demak uning ota-onasi boshqa millat vakili bo'lgan deb taxmin qilishimiz mumkin, chunki o'zbek bo'la turib tojik tilida gapirishi biroz tushunarsizroq. Cho'tkachi Mullaqand Javlonbek bilan gaplashganida Ledining nomini ham tilga oladi. Ledi Javlonbekning jondan aziz qadrdon iti edi. Uning ismini eshitishi bilan Javlonbekning yuragi jiz etadi. Chunki Ledi o'lgan edi.

Javlonbek iti o'lganidan keyin qirq kun chilla saqlaydi. Ya'ni hech qayerga chiqmasdan o'tirad. Va hikoya boshlanishida Javlonbekning ovga ketish tasviri Ledisiz birinchi ovga chiqishi edi.

Javlonbek bir ish qilsa bilib qiladigan ovchilardan edi. Buni ovga chiqishda it o'rniga echki olganligidan ham bilsak bo'ladi. Chunki u yaxshi echki ovda ikkita itning ishini qilishini juda yaxshi bilar edi. Javlonbek har ovga chiqqanida albatta bitta bo'lsa ham bo'ri otib savxozdan qo'y undirar edi. Buning sir-asrorining esa boshqa ovchilar tagiga yeta olmas edilar. Javlonbekning mohir ovchiligini uning ota-bobolari ajdodlari ham ovchi bo'lganligidan bilsak bo'ladi. Ovchilik uning qonida bor. Shuning uchun Javlonbek ov qilishni sir-sinoatini juda yaxshi bilgan.

Hikoyada bir nechta kasblar ham keltirilgan. Masalan: Javlonbek ovchi, Robbim chukchi ya'ni o'sha hikoyada keltirilgan qishloq atroflarida qo'li gul sunnat ustasi deb ta'riflanadi. "O'n mingdan ortiq bola uning qo'lidan o'tgan" deb aytiladi hikoyada. Yana Po'lat ismli dong taratgan sartarosh ham bor edi. "Unga soch oldiramiz deb uzoq-uzoqlardan birov eshakda, birov tuyada, yana birov otda kelardi. Serfarzand kishilar bolalarini aravaga o'tqazib olib kelishardi". Va yana hikoyadagi asosiy qahramonlardan biri cho'tkachi Mullaqand hayvonlarni tuyoqlarini moylar edi, bu haqida hikoya boshida Javlonbek mergan bilan cho'tkachi Mullaqandning bo'lgan suhbatidan ham bilsak bo'ladi. Shu o'rinda Robbim chukchi va Po'lat sartaroshlar bir biriga bog'liq o'rinlarini topishimiz mumkin. Ya'ni ular birinchidan hikoyada bir martadan tilga olingan, ko'p takrorlanmagan. Ikkinchidan ikkalasi ham yon atrofdagi qishloqlarda mashhur dong taratgan kasb egalaridir. Uchinchidan asosiysi bu ikkala kasb egasida ham bir vaqtda ikkalasining ham armoni borligi tasvirlangan. Ya'ni "Robbim chukchi bu atroflarda sunnat qilgan go'daklarning oldi ellikka kirib nevara-chevaralik bo'lib ketishdi. Uning dilini bir armon o'rtardi. Xudo o'g'il nevara bersa-yu yurtga osh berib o'zim sunnat qilsam, deb tong-saharlarda nola qilardi. Ammo uning iltijolari shamolga uchgandek ijobat bo'lmasdi". Po'lat sartarosh ham ana shunday armon bilan olamdan ketgandi. Unga soch oldiramiz deb uzoq-uzoqlardan birov eshakda, birov tuyada, yana birov otda kelardi. Serfarzand kishilar bolalarini aravaga o'tqazib olib kelishardi. Shu usta Po'lat qirq yoshga kirganda qo'chqordek o'g'il ko'rgandi. Usta bir yil kutdi, ikki yil kutdi, qirq yil kutdi bolaning boshidan soch tugul tuk ham chiqmadi. Bolamning sochini o'zim olaman deb niyat qilgan usta Po'lat niyatiga yetolmay o'tib ketdi". Hikoya nomiga e'tibor beradigan bo'lsak Bo'ri ovi nimaga aynan bo'ri ovi? Nima uchun Javlonbek aynan faqat bori ovlaydi? Yokida nima uchun hikoyada bo'ri ovi tasviri keltirilgan. Nimaga aynan bo'ri tanlab olingan, boshqa hayvon emas.

Bo'ri- o'zbek xalq og'zaki ijodida totemik obraz. Qadimgi manbalardan yetib kelgan rivoyatlarda bo'ri turk urug'i avlodining davomchisi sifatida ta'riflanadi. "Ona bo'ri" nomli afsonada tasvirlanishicha, qadimgi turklar go'yo dushman

tomonidan qirilgan turk urug'i orasida tirik qolgan o'n yoshli o'g'il bola va ona bo'ridan tarqalgan. "Bo'ri", "Bo'ri qiz", "Cho'loqbo'ri" kabi ertaklarda talqin etilgan totemik bo'ri obrazi insonning xaloskori, uning himoyachisi sifatida tasvirlanadi. Keyinchalik totemik e'tiqodlarga ishonchning yo'qolishi tufayli ertaklarda "Bo'ri bilan tulki", "Och bo'ri", "Ko'y bilan bo'ri", "Bo'ri bilan ot" va boshqalar paydo bo'lgan. Bo'ri yovuzlik, qonxo'rlik, zulm va zo'ravonlik, bosqinchilik timsoliga aylandi. Jahon xususan o'zbek badiiy ijodida bo'ri goh ijobiy, goh salbiy obraz sifatida namoyon bo'ladi, ramziy ma'no kasb etadi. Ba'zi manbalarda baxt keltiradi deyiladi. Bo'riining muqaddaslashtirilishi tarixi, bu jonivor xalq ishonchlari, bo'riining marosim va irimlardagi ifodasi kabi masalalar ham olimlar tomonidan yoritib berilgan.

Bu juda kata va muhim obraz timsoli. Bunga yana juda kop sabablarni keltirishimiz mumkin. Xalqimizda bo'riini tishi, tirnog'ini irim qilib xonadoshlariga ilib qo'yishi holatlari ham bor.

Javlonbekning xotini Xofizaxon parranda go'shtini yemasdi. Ko'rsa allergiyasi qo'zg'ab hammayog'iga qizilcha toshib ketar edi. Shuning uchun ham Javlon bo'ri otib xumorini bosib yurardi. Chunki har bitta bo'ri uchun savxozdan 2 ta qo'y berar edi. Javlonbek bo'ri otib har doim qo'y olar edi.

Bu safar Javlonbekning ovi baroridan keldi, Javlonbek xursand edi uchta bo'ri otdim deb. Lekin uchinchi bo'lib otgani bo'ri emas it ekanligini bilmagan edi. "Javlonbek hayron bo'lib jonsiz yotgan uchta bo'riining tepasiga keldi. Ularning bittasi ko'kragi oq boshqa yog'I qop-qora ovcharka it ekanini bildi. Ichida ovchi bo'lmay o'l, qora bo'rib o'lmasligini bilmasmiding" degan bo'ldi.

Hikoyada Javlonbekning skleroz kasali borligi ham aytilgan.

Skleroz-bu xotiraning susayishi.

"Gapning ochig'ini aytsam ovchidek ahil xalqni umrimda ko'rmaganman. Ov mavsumida tobi qochib qolgan merganlarga ovga borganlari nasiba olib kelishi shart qilib qo'yilgan. O'rdakmi, qirg'ovulmi, to'rttagina bedanami, baliqmi ishqilib bir ulush olib kelib yoqlab qo'yishi shart. Bu qoidani buzganlar "ovjo'ra" likdan chiqariladi.

Buni qarangki shu holatni bo'rilar bilan bog'laydigan bo'lsak, bo'rilar ham bir-biriga juda vafodor bo'ladi. Va ular har doim to'da bo'lib yashaydi. Boshqa to'daga qo'shilishmaydi ham boshqa to'dani o'zlariga qabul qilishmaydi ham.

XULOSA

Said Ahmadning bu hikoyasi aynan hajviya tarzida yozilgan. Ya'ni Javlonbekni bir iyga ya'ni Lediga shunchalik bog'lanib qolishi, Ledini tasvirlashda "zarda qilishni, uyalishni, iltimos qilishni bilardi deb tasvirlashini o'zidan ham bilsak bo'ladi". Ledi o'lgandan keyin Javlonbek qirq kun chilla saqlaydi. Chillaguzaronlik qilib qirq kun o'tgandan keyin, Javlonbek ovga chiqishi, Ledidan nasl olib qolish maqsadida, cho'ponning bo'ribosariga olib borib, bo'ribosar

e'tibor bersin deb Ledini musobaqalarda olgan medallarini taqib oborishi, hatto xotining fransuz atiridan surtib oborishi ham to'liq hajviya tarzida.

Adabiyotlar:

1. Said Ahmad " Bo'ri ovi".
2. Abdulla Ulug'ov Adabiyotshunoslik nazariyasi. "G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot" 2017.42-bet
3. O'zME. Birinchi jild. Toshkent. 2000-yil.

**O'ZBEKISTONDA NOMONETAR OMILLARNING INFILYATSIYASIGA
TA'SIRINI ANIQLASH**

Doniyorov Hojiboy Xolmurod o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

O'zbekistonda inflyatsiyaning tashqi omillariga jahon iqtisodiyotida bo'lgan krezislar, davlatning valyuta siyosati, davlatning boshqa davlatlar bilan tashqi iqtisodiy faoliyati, oltin va valyuta zaxiralari bilan bo'ladigan noqonuniy operatsiyalar va boshqalar bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarish rivojlanishida yuzaga keladigan nomutanosibliklar sababli tovarlar va xizmatlar bahosining umumiy yoki to'xtovsiz o'sishi va natijada pul muomalasi qonunining buzilishi oqibatida pul birligining qadrsizlanishiga inflyatsiya deb aytiladi. Inflyatsiya quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

1. Tovarlar va xizmatlar bahosining uzluksiz va tartibsiz o'sib borishi natijasida pulning qadrsizlanishi va uni sotib olish qobiliyatining tushib borishi;
2. Chet el valyutasiga nisbatan milliy valyuta kursining tushib ketishi;
3. Milliy pul birligida oltin narxining oshib borishi va boshqalar.

Muomalada qog'oz pullar va tanga pullarning mavjudligi inflyatsiyani vujudga keltiruvchi iqtisodiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. "Inflyatsiya" termini lotincha "inflation" so'zdan olingan bo'lib - "shishirilgan", "bo'rttirilgan", "ko'pchigan" degan ma'nolarni anglatadi. Inflyatsiyaning iqtisodiy mohiyati muomaladagi naqd pullarning sotib olish qobiliyatining pasayishi, tovarlar va xizmatlarning bahosini o'sib borishini anglatadi. Bu so'z XIX asrning o'rtalaridan boshlab iqtisodchilar tomonidan iqtisodiy termin sifatida ishlatilgunga qadar, u tibbiyotda xavfli o'sma kasalligini ifodalashda qo'llanilgan. Tarix haqiqatdan ham bu so'zning har tomonlama xavfli ekanligini ko'rsatdi. Chunki inflyatsiya qandaydir alohida olingan bozorlarda tovarlar va xizmatlar narxining o'sishidagina iborat bo'lmasdan, bu umumiy iqtisod uchun xavfli hodisadir. Inflyatsiya so'zining iqtisodiy tarjimai - muomalada mavjud bo'lgan tovarlar va ularning bahosiga nisbatan ko'p pul chiqarish degan ma'noni anglatadi.

Infilyatsiyaning har tomonlama avj olib ketishi mamlakatda sotsial va iqtisodiy jihatdan qarama-qarishliklar yuzaga kelishiga olib keladi. Shuning uchun, davlat infilyatsiyaning oldini olish, pul muomalasini barqarorlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. Infilyatsiyaga qarshi kurashning asosiy shakllari: pul islohati va infilyatsiyaga qarshi siyosat hisoblanadi. Pul islohati deb, muomalasini barqarorlashtirish maqsadida davlat tomonidan pul tizimini o'zgartirishga aytiladi. Jahon amaliyotida pul islohati metall pul muomalasi davrida, ikkinchi jahon urushidan keyin – oltin deviz, oltin dollar muomalasi davrida o'tkazildi. Infilyatsiyani ushlab turish uchun, eng avvalo, uning iqtisodiyot uchun naqadar muhimligini, mexanizm va omillarning harakatga keltirishlarini anglash lozim. Soliq siyosatining infilyatsiyaga real ta'siri. Bozor iqtisodiyoti sharoitida infilyatsiya mavjudligi tabiiy bolgani kabi, mamlakatning "soliq infratuzilmasi"da ham infilyatsiyaning qay darajada bo'lishi olib borilayotgan chora-tadbirlarga bog'liqdir.

Infilyatsiyaning o'sish ko'rsatkichini 7-9 foiz darajasida saqlab turish mo'ljallanmoqda. Infilyatsiya va uning rivojlanishi alohida olingan O'zbekistonda ma'lum xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Hozirgi davr infilyatsiyasi, o'tgan davr infilyatsiyasidan farq qiluvchi xususiyatlarga ega. Oldingi infilyatsiyalar vaqtinchalik bo'lib, ular odatda urush vaqtida harbiy xarajatlarni qoplash uchun qog'oz pullar chiqarilishi natijasida yuzaga kelgan. Biror daromad olmasdan turib, ya'ni ishlab chiqarish va tovar aylanmasi suratlarini oshirmasdan, yoki bu ko'rsatkichlar kamayib ketgan holda davlat tomonidan bo'ladigan xarajatlarni moliyalashtirishning asosiy yo'llaridan biri qog'oz pullarni muomalaga chiqarishdan iborat bo'lgan. Natijada muomalaga chiqarilgan pullar, muomala uchun zarur bo'lgan oltin miqdoridan oshib ketgan va pulning real qiymati uning nominal qiymatidan tushib ketgan, ya'ni, haqiqatda pul birligi o'zida ko'rsatilganidan kam oltin miqdorni ifoda qila boshlagan.

Oxirgi yillarda infilyatsiya tez-tez uchrab turadigan jarayon bo'lib sifati ham o'zgarib bormoqda. Buning sababi shundaki, hozirgi kunlardagi infilyatsiya: birinchidan, uzluksiz baholarning oshishiga; ikkinchidan pul muomalasi qonunining buzilishi natijasida umumiy xo'jalik mexanizmining ishdan chiqishiga olib keladi. Ish haqi omilini oladigan bo'lsak, ish haqining oshishi natijasida baholarning sezilarli darajada o'sishi yuz berishi mumkin. Xalqaro amaliyotdan ma'lumki, agar ish haqi doimiy tarzda oshirib borilsa, u holda, korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy darajasi oshadi. Bu esa, o'z navbatida, korxonalarni baholarni oshirishga majbur qiladi. Aks holda, korxonalar foydasining miqdori kamayib ketadi.

Xulosa qilib aytganda, bunday sharoitda "ish haqi-baholar" spiralining harakatiga barham berish uchun mehnat unumdorligining o'sish sur'atini o'rtacha ish haqining o'sish sur'atidan yuqori bo'lishini ta'minlash zarur. Agarda

mehnat unumdorligini oshirishga muvaffaq bo'linmasa yoki uning pasayishi yuz bersa, u holda, ish haqi o'sishining baholar darajasiga nisbatan ta'siri kuchayadi. Pullar taklifining inflyatsiyaga ta'siri isbotlangan bo'lsada, inflyatsiyani yuzaga keltiruvchi barcha omillar monetar mazmunga ega emas va binobarin, Markaziy bankning nazorati doirasidan tashqaridadir. Lekin mazkur nomonetar omillar o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida inflyatsiyaning o'sish sur'atlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, pul-kredit siyosatining strategiyasini ishlab chiqishda bazaviy inflyatsiyaga, ya'ni inflyatsiyaning uzoq muddatli davriy oraliqlardagi o'zgarishiga alohida e'tibor qaratiladi. Bu esa, Markaziy bankning inflyatsiyani jilovlashdagi rolini aniqroq baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. X.S.Xadjaev, I.A.Bakiyeva, Sh.Sh. Fayziev. Makroiqtisodiyot (O'quv qo'llanma), 2014, 268 bet.
2. X.S.Xadjaev, I.A.Bakiyeva, Sh.Sh. Fayziev. Makroiqtisodiyot (O'quv qo'llanma) 2014, 268 bet.
3. Brouver G.D, Evcsson N. R. Avstraliyada inflyatsiyani modellashtirish. Biznes va iqtisodiy statistika. 2019. 24 - 29.
4. G.X. Nazarova. "Makroiqtisodiyot" fanidan ma'ruzalar matni. 2017-yil, 243 bet.
5. Rashidov O.Y. Pul, kredit va banklar, Toshkent 2008 y.

INTERTEKSTUALLIKNING DUNYO TILSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI

Do'smuradova Yulduz To'ychi qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU tayanch doktoranti

Ma'lumki, bugungi kunda lingvomadaniyatshunoslik dunyo tilshunosligida rivojlangan sohalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu borada ko'plab salmoqli tadqiqotlar yaratilgan. Mazkur sohaga oid ishlarda tadqiqotchilarning olamning lisoniy manzarasi, lingvomadaniy konseptlar, pretsedent birliklar, intertekstuallik, lisoniy ong, barqaror birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari kabi masalalarga katta e'tibor qaratilayotganini kuzatish mumkin [Xudoyberganova, 2020: 19]. Bunday tadqiqotlarda tilning barcha sathlari birliklari, xususan, so'z va matnning tamoman yangicha talqini va tahlili ustuvorlik qiladi. Jumladan, intertekstuallik ham aynan ana shunday muhim birliklardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda matnning mohiyatini aniqlash vazifasi qariyb barcha tadqiqotchilarni qiziqtirib, e'tiborini jalb etib kelmoqda. Haqiqatdan ham, har qanday hodisaning mohiyatini aniqlash uchun uning asosini hosil qiladigan xususiyat va belgilarini aniqlash lozim [Qurbanova, Yo'ldoshev, 2014: 36]. Jahon tilshunosligida

bir qator olimlar matnning mavqeini oshiradigan kategoriyalar ustida ish olib borishgan. Shular sirasiga intertekstuallik tushunchasi ham kiradi. Bilamizki, *intertekstuallik* – ma'lum turdagi matn tarkibida invariant mazmun-ma'noning qayta yaratilishi [Qurbanova, Yo'ldoshev, 2014: 104] degan fikrni beradi.

Intertekstuallik, shuningdek, mikrotekst, ya'ni aforizmlar sifatida ham tadqiq qilingan. Xorij olimlari intertekstuallik tamoyilini turli tomondan tadqiq qilishgan. Xususan, R. Bart, M. Riffater, E. Ropier kabilar intertekstning tushunilishi va uning qayta tiklanishi, X.Blum uning badiiy matn yaratilishida muallifga ta'sirini, Jenett, N.A. Fateeva, P.X. Torop kabi olimlar esa intertekstuallik turlari va vazifasini o'z ishlarida atroflicha tadqiq qilishgan [Xomidova, 2019/6]. Matn ichida matn muammosi dastlab adabiy tanqid edi. Bu yo'nalishda "matn ichida matn"ni o'rganish adabiy dekonstruktivizm vakillari (Yu.Kristeva, R.Bart, J.Derrida) tomonidan yanada rivojlantirildi. Y.Kristeva birinchilardan bo'lib matnlar orasidagi aloqalarni tavsiflash uchun "intertekstuallik" atamasini kiritdi. Intertekstuallik tushunchasi, Y.Kristevaning fikricha, har bir matnning boshqa matnlar bilan aloqadorligida mavjudligini nazarda tutadi. "Har qanday matn iqtiboslar mozaikasidan tuzilgan; har qanday matn boshqasini singdirish va o'zgartirishdir" [Kristeva, 2000: 427]. Muallifning boshqa madaniy, ilmiy matnlarga murojaat qilishi, shubhasiz, qabul qiluvchi uchun ma'lum bir ahamiyatga ega bo'lgan belgidir, allaqachon yaratilgan matnni madaniyatning boshqa "muhim" matnlariga biriktiradi. Masalan: and why companies like Coca-Cola suffer palpitations when they see a passage like this (from John Steinbeck's *The Wayward Bus*): "Got any coke?" another character said. "No," said the proprietor. "Few bottles of Pepsi-Cola.Haven't had any coke for a month ... It's the same stuff. You can't tell them apart" [Bryson, 2003: 242]. Bill Brayson - eng ko'p sotilgan sayohat va inglizcha yumoristik kitoblarining ingliz-amerikalik muallifi bo'lib, kitoblari asosan Amerikada chop etilgan. Ko'chirmada muallif ancha keng tarqalgan kundalik vaziyatni, Pepsi va Cola ning farqlanmasligini ko'rsatish uchun J.Steynbek ishiga havola qiladi. Shu bilan birga, u inklyuziya manbasini ta'kidlaydi (from John Steinbeck's *The Wayward Bus*). Bundan tashqari, M. Gresse nuqtai nazaridan, intertekstuallik umuman madaniyatning ajralmas qismi va xususan adabiy faoliyatning ajralmas xususiyatidir: har qanday iqtibos, qanday tabiatda bo'lishidan qat'iy nazar, va iqtibos keltirish, uning fikricha, har doim muqarrar, yozuvchining irodasi va xohishidan qat'iy nazar - uni majburiy ravishda o'sha madaniy kontekst sohasiga kiritadi, uni "madaniyat tarmog'i" bilan aralashtirib yuboradi, undan hech kim qochib qutula olmaydi [22, 228]. Oldingi matnlarga iqtibos va ishoralardan foydalanish asarga yangi matn kiritilishining ko'rsatkichi bo'lib, matnning qanchalik "avtoritetli" ekanligini belgilaydi. Adabiy nutqning intertekstualligi adabiyotning tarixiylikining belgisi va uning davrning barcha nutqlari bilan aloqadorligidan dalolat beradi. V. G. Gak bunga ishora qilib, madaniy va milliy o'ziga xoslik, ayniqsa, kundalik turmush formulalari, rasmiy hisobotlar, harbiy nutq, reklama, adabiy va boshqa eslatmalar obrazli vazifasida qo'llanilganda yaqqol namoyon bo'lishini qayd etadi. Bu matnlarda

dunyo va madaniyat haqidagi bilimlarni obyektivlashtirishga intertekstuallik vositalari, ya'ni iqtiboslar, adabiy tashbehtar, eslatmalar hissa qo'shishining yana bir tasdig'idir. Shuni ta'kidlash kerakki, dekonstruktivizm vakillari intertekstuallik tushunchasini til falsafasi, insonning butun til faoliyati va umuman madaniyati nuqtai nazaridan ancha keng ko'rib chiqadilar. Intertekstuallik rus tilshunosligida ham bir qator izlanuvchilar tomonidan ko'rib chiqiladi (Yu.M.Lotman, I.V.Arnold, E.V.Mikhailova).

Jahon tilshunos olimlarining fikrlariga nazar solar ekanmiz, har bir tadqiqotchi intertekstuallik borasida o'zgacha yondashganini ko'rishimiz mumkin. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, tadqiqotchi olim I.V.Arnold intertekstuallikni matnga boshqa nutq mavzusiga ega bo'lgan butun boshqa matnlarni yoki ularning parchalarini iqtiboslar, eslatmalar va ishoralar shaklida kiritish deb tushunadi. Muallifning qayd etishicha, tor ma'nodagi intertekstuallik kompozitsion va stilistik muammodir. Adabiyotshunoslar buni adabiy ta'sir nuqtai nazaridan ko'rib chiqadilar, stilistlar iqtiboslar va tashbehlarni intertekstuallik faoliyati shakllari sifatida o'rganadilar [Baxtin, 1986: 541].

Bundan tashqari, rus tadqiqotchilaridan biri E.V.Mikhailova intertekstuallik atamasini matn kategoriyasi deb hisobladi. Intertekstuallik alohida matnning boshqa matnlar bilan mazmuni, janr va stilistik xususiyatlari, tuzilishi, rasmiy belgisi ifodasi bo'yicha ko'p qirrali aloqasi bo'lib, nutqning asosiy kategoriyasi hisoblanadi [Olizko, 2019: 65]. Izlanishlar davomida shu narsaga amin bo'lish mumkinki, har qanday termin, atama, birikma yoki oddiy tushunchaga ega bo'lgan so'z bo'lsin, u adabiyot va tilshunoslik sohasiga o'z hissasini qo'shadi. Intertekstuallik hodisasi nafaqat adabiy jihatdan, balki tilshunoslik nuqtai nazardan ham keng o'rganilib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Олизько Н. С. Интертекстуальность как системообразующая категория постмодернистского дискурса. Автореферат–Москва, 2002.
2. Бахтин, М. М. Вопросы литературы и эстетики: Исследования разных лет / М. М. Бахтин. – М.: Художественная литература, 1975. – 502 с.
3. Кристева, Ю. Бахтин, слово, диалог и роман / Ю. Кристева // Вестник Моск. ун-та. Сер. 9. Филология. – 1995. – № 1. – С. 97-124.
4. Крестова Ю, К.Косикова Французская семиотика: от структурализма к постструктурализму. –Москва, 1997.
5. Лотман, Ю. М. Избранные статьи. В 3 т. Т. 1. Статьи по семиотике и типологии культуры / Ю. М. Лотман. – Таллинн: Александра, 1992. – 479 с.
6. Qurbanova M, Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi. –Toshkent, 2014. b.36,104.
7. Xudoyberganova D.S. "O'zbek tilini dunyo miqyosida keng targ'ib qilish bo'yicha hamkorlik istiqbollari" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2020. b.19.
8. Xomidova M. NamDU ilmiy axborotnomasi. 2019. 6-son.
9. Bryson B, A short story of nearly everything. –USA, 2003.

УЗБЕКСКО-ЕГИПЕТСКИЕ ВЗАИМООТНОШЕНИЯ – МОСТ ВЕЧНОЙ ДРУЖБЫ И ДОВЕРИЯ

Ёзиева Шахрибону

*Магистрант 2-курса Ташкентского государственного
университета востоковедения*

Со дня обретения независимости 31 августа 1991 года наша страна всегда развивается и поднимается на мировой уровень, становясь конкурентоспособной. Наша молодая республика продвигается только вверх по всем отраслям. В мировом сообществе Узбекистан смог установить дружеские взаимосвязи со многими странами мира, а также стал членом и участником многих международных организаций. В нашей республике действуют дипломатические консульства многих стран. Это свидетельствует о дружеских отношениях Узбекистана с другими странами мира. Узбекско-египетские отношения могут быть ярким примером этим словам. Развитие многосторонних и взаимовыгодных отношений со странами арабского мира, в частности Арабской Республикой Египет, является одним из приоритетов внешней политики Узбекистана.

Узбекско-египетские отношения - это взаимодружеские отношения между двумя государствами-членами ООН, то есть Республикой Узбекистан и Арабской Республикой Египет. Важно отметить, что Египет стал четвертым государством, с кем Узбекистан установил дипломатические отношения 23 января 1992 года. Стоит отметить, что Египет считается крупнейшим политическим и экономическим партнером Узбекистана. Точно также и Узбекистан является крупнейшим и сильнейшим партнером Египта в Центральной Азии. Этому свидетельствуют общие интересы, цели и задачи Узбекистана и Египта. Страны являются членами таких международных организаций как Движение неприсоединения, Организация исламского сотрудничества и Международный валютный фонд. Если проанализировать нынешнее состояние узбекско-египетских отношений и перспективы их развития, то можно отметить, как двусторонние связи развиваются по всем отраслям. Очень важно развивать сотрудничество между двумя странами в политической, торгово-экономической, инвестиционной, культурной и туристической сферах, в том числе в области паломнического туризма.

Необходимо подчеркнуть, что узбекско-египетские отношения активно развиваются, расширяются сферы дружественных связей, основанных на взаимном доверии.

С момента установления дипломатических связей с нашей республикой и до настоящего времени Египет поддерживает их на должном уровне, доказав, что является надежным партнером. В сегодняшнее время межгосударственные отношения поднялись на новый, а точнее, на более прочный уровень. Ярким примером тому может послужить недавний официальный визит нашего Президента в Арабскую Республику Египет. 21 февраля этого года в президентском дворце «Аль-Иттихадия» в столице Египте Каире состоялись переговоры Президента Узбекистана Шавката Мирзиёева и Президента Египта Абдельфаттаха ас-Сиси. Данный визит считается важным политическим событием в жизни двух стран и служит укреплением для дальнейшего взаимосотрудничества.

В ходе данного визита главы государств подробно обсудили вопросы дальнейшего развития узбекско-египетского сотрудничества и договорились о поднятии отношений на уровень всеобъемлющего партнерства. Надо подчеркнуть, что основными сферами переговоров стали вопросы расширения взаимодействий в области политики, безопасности, торговли, туризма, промышленной кооперации, а также культурно-гуманитарных и образовательных связей.

Еще одним важным моментом является то, что были установлены договоренности о создании благоприятных условий для привлечения взаимных инвестиций. Определены пять конкретных направлений взаимодействия, в частности, в газохимической, текстильной, электротехнической, ювелирной и фармацевтической отраслях. В рамках египетского стратегического плана «Видение - 2030» и Стратегии развития Нового Узбекистана был отмечен общность проводимых реформ в регионах.

Была выдвинута заинтересованность в обмене опытом борьбы с коррупцией, укрепление безопасности регионов, взаимной поддержке международных инициатив по стабилизации и восстановлению Афганистана.

В связи с тем, что культурно-гуманитарное развитие считается важнейшим направлением для двух регионов была подчеркнута значимость развития культурно-гуманитарных и религиозных связей. Достигнута договоренность о развитии сотрудничества в области подготовки специалистов арабского языка. Глава нашего государства предложил организовать совместными усилиями в 2024 году Глобальный форум арабистов.

Как отмечается в официальных источниках, в присутствии президентов был подписан ряд двусторонних документов, предусматривающих развития взаимодействия между министерствами иностранных дел, а также Министерством инвестиций, промышленности и торговли Узбекистана и главным управлением по инвестициям Египта, организация общественного здравоохранения, привлечения инвестиций и укрепления двусторонних инвестиционных отношений, технического регулирования, обменом опытом по вопросам развития. Были также подписаны разные договоры и меморандумы о взаимодействии между Центром исламской цивилизации Узбекистана и Институтом востоковедения Узбекистана имени Абу Райхана Беруни с Национальной библиотекой и архивом Египта. Это в свою очередь открывает новую страницу сотрудничества регионов в области науки.

Являясь магистрантом Ташкентского государственного университета востоковедения, я бы хотела отдельно отметить про те сферы, которые непосредственно касаются и интересуют нас. Сфера образование и внимание, которое уделяется этой сфере считается очень важным. В связи с тем, что образование играет очень важную роль в жизни и развитии каждого государства, Узбекистан и Египет совместными взаимодействиями стараются только прогрессированию данной сферы. В сегодняшнее время наложены прочные отношения между Узбекистаном и Египтом в области образования.

В ходе официального визита главы нашего государства были совершены разные проекты в данной сфере. Важно отметить, что между Узбекистаном и Египтом существуют крепкие связи в области высшего образования, а именно в изучении арабского языка и литературы, исламской науки, источниковедения, фармакологии, сельского хозяйства и ветеринарии. Как отмечается в источниках, в ряде вузов нашей страны готовят профессиональных специалистов по арабскому языку. Например, в Ташкентском государственном университете востоковедения, Международной исламской академии Узбекистана, Самаркандском государственном институте иностранных языков, Университете мировой экономики и дипломатии арабский язык в качества отдельного образовательного направления изучают свыше 4-х тысяч студентов. Было договорено, что в высших учебных заведениях Узбекистана будут преподавать профессора вузов из Египта. Кроме того была достигнута договоренность о развитии сотрудничества в области подготовки специалистов арабского языка. Глава нашего государства выдвинул идею об организации Глобального форума арабистов в следующем 2024 году. Учитывая то, что значимость арабского языка в Узбекистане все больше

увеличивается были выдвинуты предложения по повышению квалификации преподавателей арабского языка Узбекистана. Обсуждена возможность направления педагогов в Египет на стажировку или приглашения в Узбекистан египетских специалистов.

Стороны обсудили вопрос привлечения квалифицированных профессоров факультета средств массовой информации Каирского университета для обучения в Узбекистане, а также организации обучения узбекских журналистов в Египте. Министр высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан и министр высшего образования и научных исследований Арабской Республики Египет обсудили и подписали проекты дорожной карты на 2023-2024 года. Кроме того, были подписаны договора, документы и меморандумы способствующие укреплению и развитию образовательной сферы двух стран.

Продолжая статью необходимо отметить, что особое внимание было также уделено развитию взаимосвязей в культурно-гуманитарном направлении. Культура - это важный ключ, который способствует укреплению дружбы, доверия, согласия, понимания народов. В дипломатических отношениях всех стран культура играла важную роль. Как отмечено в исторических источниках, народы Центральной Азии с древних времен развивали торгово-культурные отношения со странами Ближнего Востока и Египтом. Учитывая тот факт, что Узбекистан и Египет имеют глубокую и древнюю историю, то взаимодействие двух стран в сфере культуры могут дать очень высокие показатели.

Если отдельно отметить про сферу туризма, то необходимо сказать, что туризм - один из ведущих отраслей экономики Египта. Сегодня большая работа осуществляется в направлении паломнического туризма. А это в свою очередь говорит о том, что наша страна может перенять для себя новые направления в данной сфере. Точно также и египтяне очень заинтересованы в посещении наших святых мест и достопримечательностей. В частности, как отмечали сами египтяне их очень привлекает и интересует наш древний город, то есть жемчужина Востока - город Самарканд. Число посетителей этого величественного города год за годом все больше увеличивается. Все это приводит дальнейшему укреплению взаимодружеских связей в области туризма и культуры.

В этом контексте важно отметить, что культурно-гуманитарные связи между Узбекистаном и Египтом не просто отдельное направление взаимодействия двух государств и народов, вместе с тем они имеют давний и глубокий характер.

В заключении данной статьи можно сказать, что этот официальный визит нашего Президента Шавката Мирзиёева укрепил двусторонние дружеские взаимоотношения с Египтом и обеспечил позитивную динамику развития узбекско-египетского взаимодействия. Развитие дипломатического и культурного диалога между двумя странами служит основой для сохранения и поощрения многообразия культур, взаимодействия в изучении культурного богатства, что служит толчком расширению контактов между двумя странами. Укрепление дипломатических отношений Узбекистана и Египта - это означает укрепление доверия, дружбы, согласия, понимания двух народов.

BUXGALTERIYA HISOBIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Jabbarov Kamoliddin Yo'ldoshevich

O'zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti

Moliya va kredit kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

“2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o‘shishning yuqori sur‘atlarini saqlab qolishga alohida e‘tibor qaratilgan⁴⁷. Barqaror iqtisodiy o‘shishning ta‘minlanishi iqtisodiyotning boshqa sohalari kabi bank-moliya, buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyatining rivojlantirilishi, xalqaro amaliyotda e‘tirof etilayotgan ilm-fanning eng so‘nggi yutuqlarining joriy qilinishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bunday innovatsiyalar qatorida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, mamlakatlarning global iqtisodiy integratsiya jarayonida munosib o‘rin egallashlari uchun o‘sha mamlakatda jamiyatning axborotlashish dararajasi eng asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Axborotlashgan jamiyatning asosini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining infratuzilmasini shakllantirish tashkil etadi va u mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardosh bo‘lishi uchun platforma vazifasini o‘taydi.

Bundan tashqari “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning III bo‘limi “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash”ga qaratilgan bo‘lib, bunda “raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5

⁴⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2017-yildagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. www.lex.uz.

baravar oshirish” maqsad qilingan. Bu maqsadni amalga oshirish doirasida bir nechta chora-tadbirlar belgilangan bo‘lib, “iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026-yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish” shulardan biridir⁴⁸.

Bugun mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e’tibor berilmoqda, ularning faoliyati har jihatdan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Ta’kidlash joizki, “...raqamli iqtisodiyotga faol o‘tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘ladi”⁴⁹.

Shuningdek, iqtisodiyotda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish milliy iqtisodiyotimizga kirib keladigan investitsiyalar ko‘lamini va xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkoniyatlarini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-son Qarorida⁵⁰ belgilab berilgan ustuvor vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish bo‘yicha belgilab berilgan ustuvor vazifalarni bajarish buxgalteriya hisobini tashkil qilish va uni amalga oshirishga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Natijada korxonalar hisobchisi bugun moliyaviy holatni to‘liq ochib beradigan barcha usul va uslublarni egallashini zamonning o‘zi taqozo etmoqda. Bundan tashqari qimmatli qog‘ozlar bilan ishlash ko‘nikmasi va investitsiyalarni jalb qilishning potensial asoslarini tahlil qila olish qobiliyati talab qilinmoqda. Qisqacha aytganda, korxonalar hisobchisi bugungi kunda moliyaviy tahlilchi bo‘lishi kerak.

Yangicha sharoitning talablariga moslashish birinchi navbatda katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida qayta ishlab, joriy faoliyatda foydalanish uchun iste’molga tayyor holatga olib kelishni nazarda tutadi. Bunda ma’lumotlarning hajmi korxonaning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, uning tarkibi, faoliyat turi va ko‘lamiga bog‘liq bo‘ladi.

Savdo tashkilotlari uchun dasturiy mahsulotlar buxgalteriya hisobini marketing operatsiyalari majmuida ko‘p vazifali ishlab chiqilishini ko‘zda tutadi. Masalan, “ombor” moduli ombordagi tovarlar harakatini olib borishga, xaridlar kitobini tuzishga, schyotlarni yozib borishga, provodkalarini avtomatik shakllantirish va ularni hisobchiga topshirishga, narx varaqalarini avtomatik

⁴⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

⁴⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (24.01.2020). <https://president.uz/uz/lists/view/3324>.

⁵⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-son Qarori. www.lex.uz

shakllantirishga, do'konning savdo zalida o'rnatilgan kassa apparatlari bilan hamkorlikda ishlashni ta'minlashga imkon beradi.

Buxgalteriya hisobi majmualari murakkab ichki va tashqi aloqalarga ega. Ichki aloqalar buxgalteriya hisobining ayrim vazifalari, majmualari va bo'limlarining axborotli o'zaro hamkorligini, tashqi aloqalar — boshqaruvning o'zga vazifalarini amalga oshiruvchi boshqa bo'linmalari hamda tashqi tashkilotlar bilan o'zaro aloqalarni bildiradi.

Hisob vazifalari majmualarining o'zaro bog'lanishi buxgalteriya hisobi metodologiyasining o'ziga, schyotlarni olib borish va provodkalarini bajarish tizimiga kiritilgan, bu yerda har bir xo'jalik operatsiyasi ikki marta – bittasi schyotning kreditida va boshqasi debetida aks ettiriladi. Hisob vazifalari majmuasining axborotli aloqasi mashina dasturining asosiga kiritilgan ishlab chiqarishning uch bosqichini farqlashga imkon beradi. Birinchi bosqichda birlamchi hisob, birlamchi hujjatlarni tuzish, ularni ishlab chiqarish va hisobning har bir bo'limi bo'yicha tahliliy hisobning qaydnomalari tuzilishi bajariladi (masalan, ish haqi hisobi bo'yicha hisob to'lov hujjatlari, qo'shib hisoblangan va ushlab qolingani ish haqi va boshqalar tuziladi). Qayta o'zgartirishning barcha operatsiyalari hisobning aniq bo'limi yoki buxgalteriya hisobining yagona bazasiga qurilgan moduli asosida bajariladi.

Ishlab chiqarishning ikkinchi bosqichi provodkalarini tuzish, ularni tahliliy va sintetik hisobning turli registrlari, schyotlarning tartib raqamlari bo'yicha qayd daftari orderlariga joylashtirishdan iborat bo'ladi. Kompyuterga asoslangan ishlab chiqarishning har bir bo'limi tugashi bo'yicha provodkani shakllantirib, bu jarayonlarni to'liq avtomatlashtirishga imkon beradi.

Ishlab chiqarishning uchinchi bosqichi yig'ma sintetik hisobni, asosiy kitobning schyotlari bo'yicha hisobot saldo qaydnomalari va moliyaviy hisobot shakllarini tuzishdan iborat bo'ladi, bu dasturning asosiy moduli tomonidan ta'minlanadi.

Buxgalteriya hisobi majmualari o'rtasida hisoblash tarmog'ini tashkil qilish asosiga qurilgan axborotli aloqalar mavjud. Asosiy vositalar hisobi, tayyor mahsulotlar hisobi, moliyaviy operatsiyalar hisobi, moddiy boyliklari hisobi, ish haqi hisobi kabi bo'limlari uchun dastlabki axborotlarni shakllantirish, qoidaga ko'ra, boshlang'ich hisobda va boshlang'ich hujjatlarda xo'jalik operatsiyalarini aks ettirish natijasida sodir bo'ladi. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va kiruvchi axborotlarning yig'ma hisobi bo'yicha vazifalar uchun hisob vazifalarining boshqa majmualarini yechishning natijalari asos bo'lib xizmat qiladi. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi bo'yicha axborot bazasini shakllantirish alohida e'tiborga loyiq, bu o'rinda asosiy vositalar, materiallar, ish haqi va tayyor mahsulotlar hisobi bo'yicha vazifalarni hal qilishdan olingan yakuniy ma'lumotlar asosiy manba bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, buxgalteriya hisobida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanilishi korxonada hisob jarayonining tezkor ravishda yuritilishi, joriy faoliyat uchun zarur axborot bilan ta'minlanishi hamda qisqa muddatda katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash imkonini beradi. Shu mantiqdan kelib chiqadigan bo'lsak, korxonada hisob jarayonlarining avtomatlashtirilishi, bu – davr talabidir.

МАҒКУРАВИЙ СТРАТЕГИЯ ХУСУСИЯТЛАРИ

Жалилов Б.Х.

ЎзМУ доценти, ф.ф.н.

Бугунги иқтисодий, экологик муаммолар, қашшоқлик ва оммавий қирғин воситаларининг мавжудлиги сингари воқеликнинг жиддий хусусиятлари ҳам мағкуравий стратегиянинг муҳим масалалари бўлиши керак. Ижтимоий ҳаётнинг ўзи зиддиятли бўлгани каби мағкуравий жараёнлар ҳам ўта мураккабдир. Бундай вазиятда миллий манфаатлар мувафаққиятини таъминлаш, миллатни мураккаб вазиятлардан йўқотишларсиз чиқариш, жамиятни тараққиёт сари етаклаш, узлуксиз фаолият кўрсатиш оқилона мағкуравий стратегиянинг хусусиятларидир.

Баъзи мутахассислар, мамлакатимизда янги ғоялар тизимини шакллантиришнинг стратегик мақсадлари жамият ҳаётининг барча соҳаларига дахлдор бўлган бир қатор тамойилларни амалга ошириш билан боғлиқ, деб ҳисоблайди. Бу борада у давлат ва жамият қурилишини, иқтисодиётнинг барча соҳа ва тармоқларини янада эркинлаштириш, кучли ижтимоий сиёсат юритиш, маънавият кўрғони бўлган оила, маҳалла, таълим тизимини ривожлантиришни алоҳида эътироф этади.

Инсониятнинг бугунги цивилизацияси дисфункционал бўлиб қолмоқда, кишилар жамияти турмуш тарзи усулининг ўзгаришига, инсониятнинг янги цивилизацияга оид танловига эҳтиёж сезилмоқда. “Ҳозирги вақтда инсониятда бирлаштирувчи ғоя, умумий ахлоқий чегара йўқ, - дейди А.А.Гусейнов. Менинг фикримча, айнан куч ишлатмаслик ғояси ана шундай ғоя бўлиб хизмат қилади. Куч ишлатмаслик инсоният забт этиши лозим бўлган янги маънавий-амалий чўққидир. Бу шунинг учун ҳам керакки, у яшаши ва цивилизация эришган ютуқларни асраб-авайлаши лозим. Бунинг ҳеч қандай муқобил йўли йўқ”

Мана шундай муаммоларнинг гирдобини томон бораётган турли давлатлар, жамиятлар, хусусан бизнинг мамлакатимизда ҳам бузғунчи ғояларнинг олдини олиш, уларнинг миллий ўзликни англашга салбий

таъсирини бартараф қилишнинг самарали йўллари, усуллари ва воситаларини излаб топиш, ижтимоий-фалсафий муаммо сифатида таҳлил қилиш бугунги фалсафа фани олдидаги муҳим вазифалардан бири бўлиб қолмоқда.

Бундай таҳдидларга қарши курашда миллий маънавитимиз, миллий ғоянинг имкониятларидан самарали фойдаланиш муҳим. Сўнгги пайтларда жаҳонда, жумладан муайян даражада бизда ҳам миллат, унинг маънавий борлиғи, ривожланиши муаммосини етарли даражада фалсафий тафаккурдан ўтказмаслик бу борадаги тадқиқотларнинг издан чиқишига олиб келди. Чунки тадқиқотларнинг таркибий қисми торайди, назарий қоидалари эса сиёсийлаштирилди. Миллий ўзига хослик муаммоларини келгусида ҳар томонлама батафсил ишлаб чиқишмасдан хусусий тадқиқотларни ривожлантириш қийин кечиши яққол кўриниб қолди. Мамлакатимиз фалсафа фани миллий маънавият, миллий ўзликни англашнинг табиати, моҳияти, тузилмаси, даражалари, амал қилиш механизмлари ҳамда ривожланиш қонуниятларини тадқиқ қилиш бўйича ишланмаларга эҳтиёж сезмоқда. Замоनावий жамиятни ривожлантиришнинг оқилона йўллари нафақат новаторлик услубидан фойдаланиш, балки миллий маънавият асосларининг таҳлилига, шаклланган архетипларга асосланган жамият қурилиши борасидаги ўз тажрибасини ўрганишга таяниши лозим. Аммо миллий маънавиятнинг айрим “эскирган” жиҳатлари миллий ривожланишни чеклаб қўймоқда, миллий маҳдудликка сабаб бўлмоқда. Шу боис, анъанавий қадриятларни қайта баҳолаш ҳамда миллий маънавият қадриятли тузилмаси бўғинларини янгилаш юз бермоқда. Замоनावий жамият миллий маънавиятнинг аксиологик модели учун миллатнинг ижтимоий тажрибасини ҳамда янги ижтимоий воқеликка мос келувчи умуминсоний қадриятларни акс эттирувчи анъанавий қадриятлар умумлашуви хусусиятлидир.

Дарҳақиқат, сўнгги ўн йилликларда дунёда ижтимоий хавфли сиёсий, диний, миллатчилик ва бошқа гуруҳбозликка асосланган бузғунчи ғояларнинг фаоллашуви кузатилмоқда. Уларнинг мақсади жамият билан мутлақо мафкуравий қарама-қаршиликка асослангани ҳолда ўзи вужудга келган минтақалар учунгина эмас, балки бутун дунё учун жиддий таҳдидларни туғдирмоқда. Турли дунёқарашга тизимлар ўртасидаги назарий курашдан бошқа мафкура ташувчиларини жисмонан қириб ташлаш орқали курашга ва рақибларини репрессия қилишга ўтиш феномени айнан бузғунчи мафкуралар билан узвий боғлиқ. Айни пайтда миллий ғоя ва мафкурамиз ҳамжиҳатлик ва миллий тараққиёт йўлини белгилаб берувчи қарашлар, қадриятларга асосланди ва миллий

траққиётга таҳдид солувчи турли бузғунчи ғояларга қарши курашда асосий қурол ҳисобланади. Шу нуқтаи-назардан қараганда, мафкуравий курашлар шароитидабузғунчи ғояларнинг мазмун-моҳияти, тарихий илдизлари, замонавий хусусиятларини ўрганиш долзарб масалалардан ҳисобланади. Бугунги мураккаб глобал ўзгаришлар шаротида ҳар қандай жамият ўзига хос ривожланиш йўлини танлар экан, олдига муайян мақсад ва вазифаларни қўяди. Зеро, бу вазифалар жамият, давлат, халқ ва миллат тараққиёти ижтимоий-иқтисодий, сиёсий маърифий, таълим-тарбия ва мафкуравий жараёнларнинг узвий бирлиги асосида амалга ошади. Чунки инсон ҳеч қачон ташқи дунёдан, ўзини қуршаб олган оламдаги ўзгаришлар, рўй бераётган ҳодисалар, воқеа жараёнлардан ажралиб қолган, уларни ҳис этмаган ҳолда уларнинг таъсирисиз яшай олмайди. Халқлар, миллатлар, ижтимоий - сиёсий кучлар фаолиятида содир бўлган турли мазмундаги ҳодиса ва жараёнлар, айниқса ғоявий ҳамда мафкуравий омиллар одамлар онги, тафаккури ва дунёқарашига таъсир этади. Айниқса бу борада ёшларимизда ёт ва зарарли ғояларга қарши курашиш учун мафкуравий иммунитетни шакллантириш долзарб муаммолардан ҳисобланади. Албатта, мафкуравий иммунитетни шакллантириш улар онгида бир хил ғояни зўр бериб тиқиштириш эмас, балки одамларга оққорани ажратиш, зарарли ғояларга қарши ҳушёр ва огоҳ бўлиш хусусиятларини тарбиялаш демакдир. Жамият, миллат ўз ғоясида мустаҳкам турса ғоявий таҳдидлардан кўрқмаса, бундай миллатни енгиш мумкун эмас. Аксинча, жамият ичида ғоявий парокандалик, бўлинишлар бўлса душманларга, уларнинг ёт мафкураларига йўл очиб беради. Бундай миллатни енгиш, мустамлака қилиш осон кечади. Шунинг учун барқарорлик ва хавфсизлик жамиятнинг онглигига, англанган тўғри тушунча ва билимларга фаол амал қилишга, фикрий, ғоявий бирлигига, булар эса мафкуравий иммунитет мустаҳкамлигига таянади. Ҳозирги вақтда глобаллашув жараёнлари объектив ва кўпқиррали жараён бўлиб, ушбу ҳодиса маданият эволюциясининг янги босқичида ўзига хос хусусиятларини намоён қилмоқда. Ушбу ҳодисага турлича ёндашувлар, уни оқлаш, айрим ҳолатларда тараққиётга қарши қўйиш ҳоллари учрамоқда. Бу жараёнлардамиллий, маданий, этник ўзига хосликка ва давлат суверенитетига турли таҳдидларнинг кузатилаётгани ҳам рост. Айни пайтда бутунжаҳонийлик ва инсоният бирлигининг авваламбор, ушбу таҳдидларни кучайтирибгина қолмай халқларга туганмас ечимсиз муаммоларни келтириб чиқаради. Бу борада глобаллашув жараёнларининг фақат иқтисодий ҳамкорлик ёки трансмиллий яхлитликнинг аниқ шакллари ёки индивидларнинг рефлексиясими, деган савол устида бош қотирмоқда. Айрим тадқиқотчилар “глобаллашув ғояси жуда катта ижобий

салоҳиятга эгаллигини, у инсоният бирлигини эълон қилишдан, бутун сайёрани ерликларнинг умумий уйи сифатида кўришдан иборат” эканини зўр бериб исботлашга интиломоқда. Тўғри, глобаллашув жараёнлари бир ёқлама эмас, улар ижобий натижаларга ҳам, салбий натижаларга ҳам олиб келади, уларни билиш ва бошқариш мумкин, айнан шунинг учун уларни тарихий ривожланишнинг ҳозирги босқичида ўрганиш зарур ва бу вақтда миллий, маданий чегараланишни бартараф этишга ҳамда инсониятнинг барча юзага келаётган муаммоларни биргалашиб ечишга фаол интилаётганлигини кўрмасдан илож йўқ.

Жаҳон миқёсида юз бераётган ҳозирги жараёнлар миллий давлатларнинг бир-бирига яқинлашуви, иқтисодий, сиёсий, ижтимоий, мафкуравий ҳамда маданий жиҳатдан интеграциялашувини тақозо этмоқда. Ушбу тенденциялар, маълум даражада, космополитизм кўринишида бўлиб, глобаллашув жараёнлари таъсирида янада яққол тус олмоқда. Бугунги кунда кишилиқ жамиятининг глобал яқинлашуви, аввало, техник тараққиёт, транспорт воситалари, алоқа ва коммуникация тармоқлари, микроэлектрониканинг ривожланиши билан боғлиқ. Посткоммунистик маконда мустақил давлатларнинг вужудга келиши, уларнинг бозор иқтисодиётига ўтиши ва жаҳон хўжалиқ алоқалари тизимига фаол киришиши глобаллашувнинг яна бир кучли омилига айланди.

Бугунги кунда мафкуравий муаммоларни ўрганишнинг долзарблиги, аввало, замонавий глобал ҳамжамият бошидан кечириётган маънавий инқироз билан белгиланади. Иқтисодий, илмий-техник тараққиёт жамиятнинг маънавий ривожидан анча олдинда. Асосий, умуминсоний қадриятлар аста-секин текислаб юборади. Ф.В.де Клерк фикрича, анъанавий асосий қадриятларнинг тушиб кетиши, аввало, глобаллашув оқибатлари билан боғлиқ ва янги мингйилликда “асосий муаммо – жамиятнинг маънавий юксалтириш бўлади”.

Адабиётлар:

1. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати / Қ.Назаровнинг умумий таҳрири остида. –Т., Маънавият, 2009. –Б. 257
2. Назаров Қ. Ғоялар фалсафаси. –Тошкент: Akademiya, 2011. – 331 б.
3. Лапин И. Фундаментальные ценности цивилизационного выбора в XXI столетий. Часть 1. Человеческая цивилизация перед выбором конфигурации фундаментальных ценностей // Вопросы философии. 2015. № 4 –С. 3-15.
4. Ташанов А. Вайронкор ғоялар ва бузғунчи мафкуралар. –Тошкент, Турон замин зиё, 2015. – 400 б.

ART-TERAPIYADA NEVROGRAFIYANING ROLI

Janbayeva Marjan Smatillayevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Kirish (Introduction). Art-terapiya (inglizcha: art — «art» + terapiya— davolash) — san'at va ijoddan foydalanishga asoslangan psixoterapiya va psixologik korreksiya yo'nalishlaridan biri. So'zning tor ma'nosida art-terapiya odatda mijozning psixo-emotsional holatiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan vizual art terapiyani anglatadi. Art-terapiyaning asosiy maqsadi o'z-o'zini ifoda etish va o'z-o'zini anglashni rivojlantirish orqali ruhiy holatni uyg'unlashtirishdir. Terapevtik maqsadlarda san'atdan foydalanishning ahamiyati turli his-tuyg'ularning ramziy ifodasidir: sevgi, nafrat, qayg'u, g'azab, qo'rquv, quvonch va boshqalarni o'rganish uchun ishlatilishi mumkin.. Art terapiya texnikasi mazmuni degan xulosaga asoslanadi, shaxsning ichki "men"i u chizgan yoki haykaltaroshlik qiladigan tasviriy obrazlarda namoyon bo'ladi va psixikaning holati o'zgaradi.

Art-terapiya turlari

Art terapiya haqida aytadigan bo'lsak, art terapiya - bu tasviriy san'atga asoslangan chizma terapiyasi (izoterapiya). O'qish va ijtimoiy moslashishda qiyinchiliklarga duch kelgan bolalar va o'smirlar orasida nevrotik va psixosomatik kasalliklarni aniqlash va tuzatish uchun mashhur. Bu jarayon rasm chizgan odamning hissiy holatini ifodalaydi.

Biblioterapiya (shu jumladan, ertak terapiyasi) - badiiy kompozitsiyalar va san'at asarlarini ijodiy o'qish yoki yaratish.

Musiqqa terapiyasi

Qum terapiyasi

Drama terapiyasi

Haykal terapiyasi

Raqs terapiyasi

Fototerapiya

Qo'g'irchoq terapiyasi

O'yin terapiyasi

Metaforik assotsiativ xaritalar yordamida terapiya.[1]

Hissiy rivojlanishdagi qiyinchiliklar, stress, depressiya, past kayfiyat, hissiy beqarorlik, hissiy reaksiyalarning impulsivligi, boshqa odamlarni hissiy rad etish, yolg'izlik tuyg'usi, shaxslararo nizolar, oilaviy munosabatlardan norozilik, tashvish, qo'rquv, fobiya, salbiy "o'zini o'zi anglash", o'z-o'zidan past baholangan hollarda, art terapiyadan foydalanish o'rinlidir. Musiqqa, ranglar, tasviriy san'at va raqslarning inson hayotidagi o'rnini beqiyos. Madaniy hordiq ramzi bevosita musiqqa va san'at bilan bog'liq. Shu sababli, san'atni terapiya o'rniga art terapiya sifatida qo'llash joiz deb hisoblaymiz.

Zamonaviy psixologiyada Art-terapiya turlaridan biri izoterapiya asosida "Neyrografiya" shakllanmoqda. "Neyro" - miya, "grafika" - men yozaman, ya'ni aqlni yozaman. Neyrografiya - bu muammolar bilan ishlashning vizual usuli va hayotingizni yaxshi tomonga o'zgartirish uchun samarali mashq. U 2014-yilda rassom va psixolog Pavel Piskarev tomonidan ishlab chiqilgan. Neyrografiya psixologik yondashuvlar majmuasini bir nechta grafik tasvirlash texnikasi bilan birlashtiradi. Bir qarashda, bunday grafikalar mavhum ko'rinadi, lekin ularning asoslari nafaqat hissiy - ular nevrologik asosda bo'ladi. Neyrologiyani chizish haqiqatni tasvirlash bilan bevosita bog'liq.[2]

Mavzu bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilish (Analysis and results).

Neyrografiya - bu sizning potentsialingizni ochish imkoniyatidir

Neyrografik tasvirning maqsadi ongsiz qo'rquvlar, e'tiqodlar, keskinliklar va insonning o'tmishi va ruhining oldingi hayotidagi tajribalarini tasvirlashdir. Shaxsning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan cheklovlar ong darajasiga ko'tariladi, ular ijobiy natijalar beradigan g'oyalarga aylanadi. Ushbu amaliyot qaror qabul qilish, savolga javob olish, muammoni hal qilish va istakni amalga oshirish imkonini beradi.

Istaklarni ro'yobga chiqarishning mashhur usuli - bu "istaklar xaritasi" - tushni ifodalovchi tayyor tasvirlar kollajini yaratish. Agar siz uni aniq tasavvur qilsangiz, orzu amalga oshishini biladiganlar ushbu usuldan foydalanadilar. O'zingiz xohlagan narsani tasavvur qilishning eng oson yo'li uning vizual tasvirini yaratishdir.

Istaklarni vizualizatsiya qilishning nevrologik usulining siri inson psixikasining o'ziga xos xususiyatlarida yotadi, u vizual idrok orqali olingan tasvirlardan iborat. Nevrologik mashg'ulot paytida insonning psixologik tajribasi amalga oshiriladi, biz hamma narsani qilamiz, biz o'ylaymiz, xohlagan narsamiz ong darajasiga ko'tariladi.

Inson o'z xohish-istagining amalga oshishiga ishonch hissini his qiladi. Bu qisman, chunki u allaqachon o'z istaklarini qog'ozga tushirgan. Biroz vaqt o'tgach, inson bu mavzu haqida o'ylashni to'xtatadi, shundan so'ng uning istagi amalga oshadi. Ko'pgina mamlakatlardan kelgan mutaxassislar nevrologik tasvirni inson hayotidagi maqsad va vazifalarning eng yaxshi yechimi sifatida tan oldilar.

Neyrografiya - bu rasm chizish orqali hayotingizni boshqarishning bir usuli. Siz hamma narsani, mutlaqo hamma narsani chizishingiz mumkin.

Eng qizig'i shundaki, nevrografiya orqali biz salbiy his-tuyg'ular bilan ishlashimiz, bosilgan his-tuyg'ulardan xalos bo'lish, stressdan, o'z-o'zini yo'q qiladigan e'tiroflardan, halokatli ongsiz dasturlardan va boshqa shunga o'xshash zararli vaziyatlardan qochishimiz mumkin.

Neyrografiya bizga ijobiy fikrlashni o'rgatadi. Ijobiy fikrlash orqali biz xohlagan narsaga erishishimiz, o'zimizni energiya bilan to'ldirishimiz, odamlarni,

voqealarni, yoqimli vaziyatlarni o'zimizga "jalb etishimiz", yangi, baxtli ssenariylarni yaratishimiz mumkin. Eng muhimi, nevrografiya chizish juda oson, qiziqarli va maroqli!

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Xulq-atvorni iroda bilan o'zgartirish juda qiyin. Bizga miyaga tushunarli bo'lgan va yangi neyron aloqalarni shakllantiradigan til kerak. Hozirgi vaqtda buni amalga oshirishning eng samarali usuli - nevrografiya. Bolalikdan hamma uchun tanish bo'lgan jarayon orqali - chizish fikrlarni, his-tuyg'ularni ifodalaydi. Natijada cheklovlar olib tashlanadi va e'tiqodlar o'zgaradi, muammoni idrok etish va unga bo'lgan munosabat o'zgaradi. Shu bilan biz yangi echimlar, ishlarni qilish usullari va imkoniyatlarni topamiz. Ta'kidlashimiz mumkinki, nevrografiya - kerakli haqiqatga o'tish.

Neyrografiya quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi:

- his-tuyg'ularni yashirmaslik, ochiq g'azab, qo'rquv, tashvish, ularni ijobiy his-tuyg'ularga aylantirmaslik;
- psixosomatik kasalliklarning rivojlanishiga olib keladigan ichki nizolarni bartaraf etish;
- kasbiy va moliyaviy soha, martaba va biznesdagi muammolarni hal qilishda nostandart yondashuvni ishlab chiqish;
- voqealarni rejalashtirish, yaxshi tomonga o'zgartirish;
- qarindoshlar, hamkasblar, do'stlar bilan munosabatlarni yaxshilash.

Neyrografiya insonning vaziyatlarga, odamlarga, hayotga munosabatini o'zgartirish, tashqi dunyo tebranishlaridan butunlay mustaqil bo'lishni o'rgatadi.

Tahlil va natijalar (tahlil va natijalar).

Neyrografiya uchun sizga kerak bo'lgan yagona narsa – qog'oz varag'i, qalam va markerlar. Va biroz bo'sh vaqt. Ishlayotganda his-tuyg'ularingizga e'tibor berish.

1. Biz salbiy his-tuyg'ularni, ichki qarama-qarshiliklarni, tashvish, qo'rquv, ichki rad etishni keltirib chiqaradigan mavzuni talaffuz qilamiz. Shu bilan birga, ushbu bosqichda paydo bo'ladigan his-tuyg'ularni nomlash, ichki kuchlanish darajasini va o'sib borayotgan energiya miqdorini tushunish maqsadga muvofiqdir.

2. Biz hissiyotlarni nevrografik chiziq yoki raqam shaklida ifodalaymiz. Chizish jarayonida butun varaq bir-birining ustiga chiqishi, tegishi yoki birlashishi mumkin bo'lgan chiziqlar bilan to'ldiriladi. Shu bilan birga, chiziqning go'zalligiga emas, balki chizish jarayonining o'ziga e'tibor qaratish lozim.

3. Olingan chiziqlarni va ularning kesishish shakllarini tekshiramiz va tuzatamiz. Rasmdagi o'tkir burchaklar va kesishgan chiziqlar ichki ziddiyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Ulardan qutulish uchun ularni yuvish kerak. Rasmning qismlarini tushuntirishga hojat yo'q. Ushbu bosqichda haqiqatning o'zgarishi va

psixologik cheklovlarni olib tashlash mavjud. Amalga oshirish jarayonida birinchi bosqichda paydo bo'lgan his-tuyg'ular va his-tuyg'ular qanday o'zgarganligini kuzatish muhimdir.

4. Chizmaning alohida bo'limlarini marker yoki rangli qalam bilan bo'yash orqali yagona shakllarga birlashtiramiz. Plotlar soni, chiziqlar rangi va ular orasidagi bo'shliqni to'ldirish muhim emas. Bu ish ichki keskinlikni kamaytirishga, ichki ziddiyatni kamaytirishga, muammoni hal qilishga yordam beradigan ijobiy energiyani chiqarishga yordam beradi.

5. Rasmning asosiy chiziqlarini aniqlaymiz va chizamiz. Bu erda birinchi qadamda yengib bo'lmaydigan bo'lib tuyulgan muammo yoki uning yechimidan xalos bo'lish keladi.

6. Emotsional holatdagi o'zgarishlarni baholang.

Agar kimdir bu emotsional holatni his qilsa:

1. Yengillik va erkinlik bosqichi, keyin maqsadga erishiladi. Agar ichki tinchlik va uyg'unlik hissi kelmagan bo'lsa, unda siz barcha raqamlar va chiziqlar bo'yicha turli o'lchamdagi ko'plab doiralarni chizishingiz kerak. Bu birinchi bosqichda e'lon qilingan mavzu tufayli yuzaga keladigan ichki keskinlik darajasini kamaytirishga yordam beradi.

Ilgari hech qachon rasm chizmagan ko'plab odamlar, ularning asosiy mashg'ulotidan qat'i nazar, nevrografiya osongina odatlanib qolishadi.

Xulosa va tavsiyalar (Conclusion/Recommendations).

Neyrografiyaning afzalliklari

- Mavjudligi. Neyrografiya maxsus shartlarni talab qilmaydi, jarayonga e'tibor berish uchun faqat sukunat.

- Oddiylik. Maxsus chizmachilik qobiliyatlari talab qilinmaydi, chunki oddiy shakllar qo'llaniladi:

- doira, uchburchak va kvadrat. Asosiysi, his-tuyg'ular, muammolar va vaziyatlarni qog'ozda ifodalash.

- Tezlik. Oddiy so'rovlar bir necha soat ichida ko'rib chiqilishi mumkin.

Neyrografiyaning kamchiliklari

Usulning universalligiga qaramasdan, nevrografiya e'tiborga olish kerak bo'lgan ba'zi fikrlar mavjud.

Biz har doim ham his-tuyg'ular va his-tuyg'ular bilan yolg'iz ishlay olmaymiz. Ko'pincha biz qochadigan va vaziyatni to'g'ri baholashdan qo'rqadigan savollarni berish uchun sizga kimdir kerak. Shuning uchun, barcha so'rovlarni mustaqil ravishda chizish mumkin emas. Sizga hamrohlik qilish uchun sertifikatlangan nevrologiya o'qituvchilarini tanlang.

Chuqur salbiy vaziyatlarni hal qilishda qiyinchilik. Bunday holatlar uchun uzoqroq vaqt va tajribali o'qituvchi talab qilinadi.

Neyrografiya, boshqa hech qanday usul kabi, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishga, istaklarni sodda va samarali tarzda amalga oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Art-terapiya>
2. Art terapiya. Xrestomatiya. Moskva - Xarkov - Minsk. 2001 yil

**“ELEKTRON HUKUMAT” TIZIMI TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI**

Jienbaev Berdax Kalbay o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi doktoranti*

KIRISH. Elektron hukumatning tarixiy rivojlanishi to'g'risida gapirganda boshqa sohalaridagi kabiqadimgi, ya'ni ibtidoiy jamoat tuzumi, quldorlikyoki feodal davrlar haqida gapirish imkoni yo'q. Chunki bu soha taraqqiyoti aynan XX asrning so'nggi davrlari bilan bog'liqdir.

Ammo, qiyoslash uchun axborotni tegishli manzilga yuborish, o'sha manzildan muayyan bir ma'lumotlarni tezlik bilan qabul qilib olish borasida turli davrlarda davlat boshqaruvida turlicha xizmatlar tashkil etilgan va ularning faoliyatidan samarali foydalanilgan. Chunki buni davrning o'zi taqozo qilgan. Kezi kelganda shuni alohida ta'kidlash o'rinli bo'ladiki, tezkor axborot ma'lumotlarini o'z vaqtida qo'lga kiritish, ma'lumot olishning sifatli tizimlarini yaratish borasida ko'rilgan chora-tadbirlar tarixda buyuk sarkardalarning, xususan, Aleksandr Makedonskiy, Gannibal, Chingizxon, Amir Temur va boshqalarning jangu jadallardagi muvaffaqiyatlariga asos bo'lib xizmat qilgan⁵¹. Aynan, Amir Temurning har bir g'alabasi uning kuzatuvchi guruhlari tomonidan yetkazib beriladigan raqib tomonning qo'shini, joylashgan joyi va holati, qurol-aslahalarining turi va miqdori, aholining kayfiyati va davlatboshlig'iga nisbatan munosabati to'g'risidagi aniq va ishonchli ma'lumotlariga asoslangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Axborot xizmatining samarali va ishonchli tarzda yo'lga qo'yilganligi haqidagi ma'lumotlar, shuningdek, buyuk mo'g'ul hukumdori Chingizxon (Temuchin) davlatida ham mavjudligi tarixdan ma'lum. Ayniqsa, Chingizxonning davlatni idora etish yo'nalishida axborotni yetkazish va olish

⁵¹ Marsel Brioni. Menkim, sohibqiron –jahongir Temur. (tarixiy roman), T.: Yangi asr avlodi. 2012y. – B.279-322. Nurali Qobul. Buyuk Turon amiri yoxud aql va qilich. Roman,T.: 2011y. Sharq nashriyoti. 478b.

bo'yicha kabutar xizmatining yo'lga qo'yilganligi mamlakatni idora etishda samarali natijalarga erishishning muhim omili bo'lib xizmat qilgan. Aynan shunday xizmat turidan Amir Temur ham unumli foydalangan. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, axborotni izlash, uni qo'lga kiritish va tarqatish kabi prinsipial masalalar har doim ham davlat va jamiyat manfaatlari uchun birinchi galdagi vazifalardansanalgan.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, axborot olish, uni tarqatish, shuningdek axborotni qaytaishlash kabi masalalar o'zining tarixiy jihatlariga ega. Biroq, bugungi kundagi jahon axborot oynasi -axborotni egallash, uni tarqatish hamda undan foydalanishning cheklanmagan imkoniyatlarga egaligi bilan o'tgan davrdagilardan tubdan farq qiladi.

NATIJALAR

Bugungi kunimizda internet - dunyodagi axborot almashinuvi va kommunikatsiya vositalari orasida eng ilg'or va ommabop bo'lib, u o'sha telegrafdan boshlab ixtiro qilingan barcha axborot kommunikatsiya texnologiyalarining mantiqiy mohiyatlari - matnli xabar uzatish, tovush uzatish, tasvir uzatish kabilarni, o'zida yagona va yaxlit tizimga mujassamlashtirgan mukammal axborot-kommunikatsiya vositasiga aylandi.

Yuqorida ham ta'kidlaganimizdek, elektron hukumat va uni amaliyotga tadbiq etish jarayoni jahon mamlakatlarida 90-yillar oxiri va 2000 yillarning boshida boshlangan. Bugungi kunda elektron hukumat tizimini joriy qilish jarayoni, jahon miqyosida, ko'plab davlatlarda jadal tus olgan. Yetakchi rivojlangan davlatlarning ayrimlarida mazkur jarayon o'zining nisbatan yetuk bosqichiga borgan bo'lsa, aksariyat davlatlarda elektron hukumat tizimi takomillashuv jarayonini boshidan kechirmoqda. So'zimizga yaqin va uzoq xorij mamlakatlari tajribasidan misol keltirsak: shimoliy qo'shnilarimizdan bo'lgan - Qozog'istonda 2004 yildan boshlab elektron hukumat shakllantirila boshlangan. Qozoq qardoshlarimizning "e-akimat" dasturi doirasida "e-litsenziyalash", "e-notariat", "e- davlat xaridlari" kabi ichki strukturalarda, 126 xildan ortiq davlat interaktiv xizmatlari ko'rsatiladi. Qozog'iston fuqarolari, mazkur tizim orqali, soliqlar, davlat yig'imlari, jarima va bojxona to'lovlarini on-layn to'lashlari, davlat idoralariga yozma murojaat etishlari, tashkilot, muassasa va idoralarning rahbarlari yoki boshqa mas'ul xodimlari qabuliga on-layn ro'yxatdan o'tishlari va ular bilan belgilangan muddatda video-qo'ng'iroqli aloqaga chiqishlari mumkin⁵².

Rossiyada, elektron hukumat tizimi borasida amaliy ishlar 2008 yilda boshlangan edi. AQShda esa bu borada nisbatan erta -2002 yildayoq ishga kirishilgan. Yevropa ittifoqi esa, "e-Europe" tashabbusi orqali, 2000 yilda ish

⁵² www.egov.kz

boshlaganedi.

Bu yo'nalishda, BMT jahonning 193 davlati orasida, elektron hukumatning amaliyotga joriy qilinishi va uning sifat ko'rsatkichi borasida maxsus monitoring va reyting tizimi yuritib boradi. Reyting natijalari har 2 yilda e'lon qilib boriladi. 2012, 2014 hamda 2016 yillarda e'lon qilingan natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, "E- Government Survey: E-Government for the People" monitoring va reyting natijalariga ko'ra, jahon davlatlari orasida quyidagi Top-10 talik yaqqol yetakchilik qilmoqda.

MUHOKAMA

E-Government Development Index - Top 10 Countries in 2016-2022⁵³		
No	Davlatlar	Index
1	Birlashgan Qirollik	0.9193
2	Australiya	0.9143
3	Koreya Respublikasi	0.8915
4	Singapur	0.8828
5	Finlandiya	0.8817
6	Shvesiya	0.8704
7	Niderlandiya	0.8659
8	Yangi Zillandiya	0.8653
9	Daniya	0.8510
10	Fransiya	0.8456

So'nggi natijalarga ko'ra, ya'ni 2022 yil e'lon qilingan ko'rsatkichda Birlashgan Qirollikning birinchilikka chiqib olganligini ko'rishimiz mumkin.

Umuman olganda esa, mazkur reytingni shakllantirishda BMT tomonidan, muayyan davlatdagi elektron hukumat tizimining rivojlanganlik darajasi quyidagi 3 asosiy mezon bo'yicha baholanadi:

- 1) Axborot kommunikatsiya texnologiyalari infrastrukturasi rivojlanish darajasi;
- 2) Davlat tomonidan o'z fuqarolariga ko'rsatilayotgan on-layn interaktiv xizmatlarning miqyosi va sifati;
- 3) Inson kapitali.

Davlat tomonidan o'z fuqarolariga ko'rsatilayotgan onlayn interaktiv xizmatlarning miqyosi va sifati, kontent, interaktiv xizmatlarning foydalanish imkoniyati darajasi va sifatiga ko'ra, davlat hukumatining asosiy portali, davlat xizmatlari ko'rsatiladigan asosiy portal va turli vazirlik hamda idoralarning saytlarini baholash orqali aniqlanadi.

⁵³ <https://publicadministration.un.org/egovkb>

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari infrastrukturasi rivojlanish darajasi esa, 100 nafar aholi soniga nisbatan simli internet tizimining doimiy abonent-foydalanuvchilari miqdori; 100 nafar aholi soniga nisbatan stasionar va mobil aloqa vositalari foydalanuvchilari miqdori; shuningdek, 100 nafar aholi soniga nisbatan, Keng Polosali Internetga ulanish qurilmalari soniga qarab belgilanadi.

Inson kapitali borasida esa, aholining savodxonlik darajasi, hamda turli o'quv muassasalarida ta'lim olayotgan fuqarolarning umumiy aholi soniga nisbatan % miqdoridagi ulushi inobatga olinadi.

Ko'rib turganingizdek, mezonlar asosli bo'lsa-da, baribir, bizning nazarimizda birmuncha nisbiy ko'rinadi. Bundan tashqari, ushbu mezonlar sirasida aholining axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish borasidagi salohiyati va imkoniyatlarini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, BMT tomonidan belgilangan mezonlarda milliy elektron hukumat tizimi uchun qo'llash maqsadida, ko'rib chiqsa va o'rgansa arziydigan ko'plab sifatlar, o'zlashtirish mumkin bo'lgan uzoq yillik tajribalar mavjud. Lekin, jahon tajribasida shakllanib kelgan umumiy standartlarning eng asosiysi bu interaktiv xizmatlarning ma'lum tamoyillar asosidatizimlanishidir.

Elektron hukumatni rivojlantirish va joriy etish sohasida chet el mamlakatlarining qonunlarini qabul qilish to'g'risida ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagilarga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Mamlakat	Qonun nomi	Qabul qilish yili
Singapur	Elektron hukumat xizmatlari to'g'risida	1998 y.
Koreya	Elektron hukumat to'g'risida	2001 y.
AQSh	Elektron hukumat to'g'risida	2002 y.
Finlyandiya	Elektron hukumat xizmatlari to'g'risida	2003 y.
Avstriya	Elektron hukumat to'g'risida	2004 y.
Bolgariya	Elektron hukumat to'g'risida	2008 y.
Germaniya	Elektron hukumatni ilgari surish to'g'risida	2013 y.

XULOSA

Tan olish lozimki, bugungi kunda mamlakatimizda elektron hukumatning yangi xizmat turlaridan foydalanish imkoniyatlari yaratilgan. Buni uy-joy, kommunal xizmatlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish, bank o'tkazmalarini bajarish, shuningdek tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan soliq

hisobotlarini davlat soliq inspeksiyalariga bormasdan topshirish bilan bog'liq interaktiv davlat xizmatlari samarali faoliyat ko'rsatmoqda va fuqarolarimiz bundan unumli hamda o'z manfaatlarini yo'lida foydalanmoqdalar.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Vazirlar Mahkamasining majlisi ma'lumotlari // Xalq so'zi, 2015 yil 17 yanvar. №11. (6194).

2. Yagona portal O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 14 fevraldagi 1920-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Obod turmush yili" Davlat dasturiga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatishni hisobga olgan holda internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali faoliyatini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida" gi 2012 yil 30 dekabrda 378- son qaroriga asosan yaratilgan.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi qarori./ Lex.uz.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 avgustdagi 622-son qaroriga 1-ilova // www.Lex.uz

5. Marsel Brioni. Menkim, sohibqiron –jahongir Temur. (tarixiy roman), T.: Yangi asr avlodi. 2012y. –B.279-322. Nurali Qobul. Buyuk Turon amiri yoxud aql va qilich. Roman,T.: 2011y. Sharq nashriyoti. 478b.

6. Q.Usmonov. O'zbekiston tarixi. Yangi asr avlodi. T.:2012 y., 348b.

7. Nurali Qobul. Buyuk Turon amiri yoxud aql va qilich. Roman, T.: 2011y. Sharq nashriyoti. 478b.

8. www.egov.kz

INFORMATIKA FANI O'QITUVCHILARINING MALAKASINI OSHIRISHDA INFORMAL TA'LIMNING AHAMIYATI

Joldasova Kamila Jolibayevna

A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Informatika fanini o'qitishda, zamonaviy metodlardan foydalanish juda muhimdir. Bugungi kunda, o'quvchilar o'zining o'rganish usullariga mos keluvchi yangi texnologiyalardan qiziqish uyg'otadilar. Shu sababli, o'qituvchilar o'quvchilarning qiziqishlariga mos keladigan va ularga qulay bo'lgan metodlardan foydalanishlari lozim hisoblanadi.

Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, interaktiv o'qitish, online darslar, videolar, animatsiyalar, dasturlash, multimedia vositalari,

informal ta'lim va boshqa metodlarni ko'rsatish mumkin. Bu metodlar o'quvchilarni motivatsiyalash va o'rganish jarayonini qiziqarliroq va samarali qilishda yordam beradi.

Shuningdek, ma'naviyatga e'tibor qaratilishi ham juda muhimdir. O'qituvchilar, o'quvchilarning insoniyatini ehtirom bilan qabul qilish, ularning fikrini eshitish va qo'llab-quvvatlash orqali o'quv jarayonini yanada samarali qilishlari kerak. Bu esa, informatika fanini o'qitish samaradorligini oshirish uchun juda muhimdir.

Bularni jamlagan holda, informatika fanini o'qitish samaradorligini oshirish uchun zamonaviy metodlardan foydalanish juda muhimdir. Bu metodlar o'quvchilarning qiziqishlarini tortish, ularga qulay va samarali o'rganish imkoniyatini yaratish va o'qitish jarayonini ma'naviyatga muvofiqlashtirish yordam beradi.

Informal ta'limning, informatika fani o'qituvchilari uchun katta ahamiyati mavjud. Bu, o'quvchilarning o'zlarini yangi va rivojlanayotgan texnologiyalarga va ma'lumotlarga oid ko'proq bilishlari va ularni o'z darslariga qo'shish imkonini yaratadi.

Informatika sohasida informal ta'lim quyidagi yo'nalishlarda yordam beradi:

1. Internetda qidiruv va o'quv materiallariga kirish;
2. Online o'quv platformalarida o'quv tashkil qilish;
3. O'zlashtirilgan va o'zlashtirilgan o'quv materiallari ishlatish;
4. Forumlar, bloglar, telegram va boshqa ijtimoiy tarmoqlardagi informatika sohasiga oid guruhlar orqali bir-biriga yordam berish;
5. O'zini mustaqil o'rganish uchun o'z texnikaviy loyihalarini boshqarish.

Informal ta'lim usullari, informatika fani o'qituvchilari uchun o'zlashtirilgan darslar, o'quv materiallari, video darslar, qo'llanmalar va boshqa ma'lumotlar to'plamiga ozod kirish imkonini yaratadi. O'quvchilar o'zlarining ma'lumotlari va malakalaridan foydalanib, kompyuter va internetda ishlatiladigan dasturlarni, tarmoqlarni, ma'lumotlar omborlarini tahlil qilish, web-saytlarni yaratish va boshqa dasturlarni yaratishni o'rganishlari mumkin.

Shuningdek, boshqa o'qituvchilar bilan muloqot qilish va boshqa ko'p xil o'rganish usullaridan foydalanish orqali, o'qituvchi o'z malakasini oshirishi mumkin. Informal ta'lim, o'qituvchilarga o'zini o'qishni rivojlantirish, yangi ma'lumotlarga ega bo'lish, va hozirgi zamonning texnologiyalaridan foydalanishga qodir bo'lishlariga yordam beradi.

O'qituvchilar o'quvchilarni o'zining ta'lim maqsadlari va ma'lumotlaridan foydalanib, ularni ma'lum fanlar va ko'nikmalar bo'yicha o'rgatish uchun ko'rsatgan ta'limni ishonchli va samarali qilishga harakat qiladilar. Biroq, formal ta'lim tizimida o'rganish tajribasiga ega bo'lmagan o'quvchilar uchun, formal

ta'lim tizimiga qo'shilmagan bo'lgan yoki uni tugatgan shaxslar uchun informal ta'lim imkoniyatlari bor.

Informal ta'lim - ushbu so'z ma'noni ilmiy tayyorgarlikdagi o'rganish tizimi tarkibidan tashqari, xodimlar, do'stlar, o'quvchilar, internet, davlat dasturlari, konsultantlar va boshqa ko'plab resurslar orqali xususiy, samarali yoki rivojlanayotgan ta'lim usullari yordamida o'rganishdir.

Informal ta'lim quyidagi yutuqlarga erishishda o'quvchilarga yordam beradi:

1. Mavzularni tez va o'qishga qiziqishini uyg'otish;
2. Ta'lim usullarini o'zlashtirishning osonligi;
3. Ma'lumotlarni tahlil qilish va uni amalga oshirish yo'llari;
4. Ijodiy o'rganish usullari bilan ma'lumotlarni mustaqil o'rganish imkoniyati mavjudligi;
5. Ko'nikma va fanlar bo'yicha yangiliklarga e'tibor qaratish imkoniyati mavjudligi.

Informal ta'lim usullari, qo'shimcha ko'nikma va rivojlanayotgan sohalarga oid ma'lumotlarga ega bo'lishga va shaxsiy rivojlanishni oshirishga yordam beradi. Ushbu usullar o'quvchilarni faol qatnashish, ijodiylik va tahlil qilishda xizmat qiladi va ularni har kuni yaxshi bilimga ega bo'lishga yordam beradi.

Informal ta'lim, formal ta'limning o'z ichiga olmagan o'zgarimas va o'z-o'zidan rivojlanadigan bir qismidir. Bu, birinchi navbatda, formal ta'limning taklif etilmaydigan mavzularni, ko'plab fanlarni, mahoratlar va talablar uchun maxsus ma'lumotlar olish uchun foydalanish imkoniyatini beradi.

Informal ta'lim, o'quvchi uchun o'zini o'qishga qaratadi va o'zining o'qishni rivojlantirish uchun bilim va malakalarni yaxshilashga yordam beradi. Bu shu bilan birga, shu fanning yangi yoki uzluksiz bo'lgan yonalishlarini o'rganish, boshqa fanlar bilan bog'liq savollarga javob topish, talabalar bilan hamkorlik qilish va o'zlashtirilgan o'quv materiallaridan va darslaridan foydalanish imkonini beradi.

Bundan tashqari, formal ta'limning chegaralarini oshirish imkonini beradi. O'quvchilar o'z o'qishlarining va o'zlarini o'qishdan o'tkazishlarining yo'qolishi, o'quv materiallarining yetarli bo'lmay qolishi yoki darslardagi barcha nuqtalarining tushunishni ta'minlashgan o'qituvchilar bilan muloqot qilishadi.

Informal ta'limning boshqa bir qulayliklari:

- O'quvchilar o'zlarining o'qishlariga va o'ziga yo'naltirishiga qarab mustaqil o'rganishlarini tashkil qilishadi.
- O'quvchilar boshqa sohalar bilan bog'liq savollarga javob topishadi.
- O'quvchilar o'zlarining o'z o'qish usullariga mos holda o'rganishadi.
- O'quvchilar o'zining o'qishlari uchun kerakli vaqtni va joyni o'zlarining afzalliklariga moslashtirishadi.

Bularning hammasi, o'quvchilar uchun mustaqil o'rganishni tashkil qilish va o'zlarini rivojlantirishni o'rganishda katta yordam beradi.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK METODLAR

Jumayeva Gulnoza Tursunpo'latovna

Qarshi tumani 10-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida, xususan, boshlang'ich ta'limda o'qitishning zamonaviy va pedagogik metodlaridan keng foydalanib kelinmoqda. Har xil ta'lim metodlarni dars jarayoniga tatbiq etish orqali yuqori darajadagi samaradorlikka erishish mumkin, albatta.[1] Avvalo, biz „Zamonaviy pedagogik metodlar nima?“, „Ularning qanday turlari bor?“ kabi savollarga javob topishimiz lozim. „Metod - eng umumiy ma'noda maqsadga erishish usuli, ma'lum tarzda tartibga solingan faoliyat“ deb ta'rif beriladi kitoblarda. Zamonaviy metodlar esa interfaol ta'lim metodlari bilan uyg'unlashgan yangi elektron texnologiyalar orqali an'anaviy dars jarayonini saqlab qolgan holda o'quvchilarga ta'lim berish tizimi hisoblanadi. Bu usullardan foydalangan pedagog o'z o'quvchilariga ham ko'proq ma'lumot yetkazib bera oladi, ham ular uchun qiziq bo'lgan multimedia vositalaridan foydalanib dars vaqtining zerikarli o'tishini oldini ola oladi. Boshqa tomondan qaraganda, vaqtdan unumli fodalana olish imkoniyati ham paydo bo'ladi. O'qituvchi dars jarayonida o'qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishi, barkamol avlodni shakllantirishda turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi kerak. Ta'lim berishning muhim kategoriyalari sifatida „Bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, baholash“ kabi didaktik qonuniyatlar e'tirof etilgan bo'lib, buni har bir pedagog bola boshlang'ich ta'lim olayotgan davrdayoq qo'llashni boshlasa, bolaning keyingi o'qishlari-

da ham o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi.[2] Bugungi kunda o'quv jarayonida interfaol usullar va axborot texnologiyalaridan foydalanishga qiziqish ortib bormoqda. Buning sabablaridan biri shundaki, bu texnologiyalar o'quvchilarga axborotni mustaqil o'rganish va tadqiq etish, tanqidiy fikrlash va o'z g'oyalarini ishlab chiqish hamda o'z ta'limini nazorat qilish imkonini beradi. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarning rivojlanishi, bilim olishi va o'sishiga yordam beradigan sharoitlarni yaratadi. Hozirda „Aqliy hujum“, „Fikrlar hujumi“, „Networking“, „Sinquain“, „BBB“, „Beshinchi plus“, „6x6x6“, „Munozara“, „Rolli o'yin“, „Zamonaviy texnologiyalar“, „Kichik guruhlarda ishlash“, „Dumaloq qor“, „Zigzag“, „Oxirgi so'zni men aytaman“ kabilar ta'limda qo'llaniladi. [3] Misol tariqasida bir metodni olaylik va tahlil qilaylik:

Videotopishmoq metodi. Ushbu metod asosan boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan bo'lib, dars jarayonida yangi mavzu tushuntirilishidan avval mavzuga doir bir nechta izohlarsiz videolavha qo'yib berish bilan amalga oshiriladi. O'quvchilar har bir videoda nima aks etayotganini izohlashadi va daftarlariga o'z fikrlarini qayd etishadi. So'ng o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob berishadi. Bu metod orqali bolalar mavzu haqida umumiy bilmga ega bo'lishadi, o'qituvchi o'zi tushuntirishidan avval ular mavzu haqida tafakkur qilishadi va fikr yuritishadi. Bu bolada mustaqil fikrlay olish, o'z dunyoqarashini kengaytirish va interaktiv usulda bilim olishga imkoniyat yaratadi.

O'z o'rnini top metodi. Bu metod boshlang'ich sinf bolalari uchun bahs va munozarali vaziyatlarda muammoning yechimini topishga yo'naltirilgan bo'lib, bunda o'quvchilar o'z fikrini bayon qilishi, o'zi to'g'ri deb bilgan javobni isbotlab bera olishi va o'qituvchi tomonidan dars so'ngida mavzuni o'zlashtirish darajasi aniqlashtiriladi va adolatli ravishda baholanadi. [4]

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, boshlang'ich sinf o'qituvchilari zamon talablariga ko'ra turli xildagi metodlardan foydalanib dars jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv usulda olib borishlari va o'quvchilarni ko'proq darsga jalb qila olishlari mumkin. Innovatsion, zamonaviy, multimedia vositalari ishtirokida o'tilgan dars bolalarning mavzuni tezroq va chuqurroq o'rganishlarida muhim o'rin tutadi. Tajribali pedagog sifatida bu usullarni ko'proq targ'ib qilish va ta'lim jarayoniga tatbiq qilishni asosiy vazifalarimdan biri hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <http://shuhratbek.uz/interfaol-talim-metodlari/>
2. A'zamjon Xoliqov „Pedagogik mahorat“ Toshkent-2011.
3. Umida Mamadjonova: Boshlang'ich sinfda o'qitishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish usullari. Namangan-2019.
4. Yulduzxon Siddiqova, Sabaxon Mansurova: Boshlang'ich sinflarda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari. Farg'ona-2022.

TIL TA'LIMIDA LINGVOMADANIYATNING SHAKLLANISHI VA O'QUVCHILARNING LINGVOMADANIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-DIDAKTIK ASOSLARI

Jumamuratova Sevara Saparbaevna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Jahon ahli XXI asrda ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar, ekologik muammolar, kiberxavf, internet ummonidagi "po'rtanalar", turli jabhalardagi innovatsiyalar va raqamlashtirish, pandemiyaga duch keldi. Shu tariqa globullashuv va jahonda kechayotgan voqealar rivoji barcha sohalar kabi ta'lim-tarbiya jarayoniga ham yangicha yondashuv, innovatsiyalarni tatbiq etishni taqozo etmoqda. Binobarin, zamonaviy til o'qitish metodikasini lingvokulturologiyasiz tasavvur qilish qiyin. Zero, jahonda til o'qitish va o'rgatish sohasida to'plangan sara tadqiqotlar, nazariy qarashlar, tilni qulay va oson o'rgatish amaliyotini ilmiy o'rganish va ta'lim tizimiga tatbiq etish masalasi yagona g'oya atrofida turli millat farzandlarini birlashtirish va ularni kasbiy kompetentlikning muhim xalqasi sanaladigan ona tili, davlat tili va chet tilini egallashga yo'naltirish, ana shu ehtiyojni chuqur anglatish muammosi bilan chambarchas bog'lanadi. Til o'qitishda tizimdagi har bo'g'in va uning har bir unsuriga alohida e'tibor qilish, fanning mazmun-mohiyatini mamlakat va dunyo ehtiyojlariga bog'liq ravishda takomillashtirish, o'zbek tili fanining ta'lim oluvchilar tomonidan mukammal egallanishi uchun qayg'urish, o'zbek tilidagi og'zaki va yozma nutqining rivojlanishiga erishish yo'llarini izlab topish ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar yo'nalishi bilan mutanosiblikni yuzaga keltiradi.

O'zbek tili mashg'ulotlarida o'lkashunoslik materiallarini tanlash va saralash, ulardan foydalanish, o'quvchilarning lingvokulturologik kompetensiyasini elektron resurslar yordamida shakllantirish ham ustuvor masala sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Bu esa lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirish uchun raqamli resurslarni yaratishni va tadqiq qilish zarurligini ko'rsatmoqda. Shu jihat bilan biz tanlagan mavzu bugungi kunda dolzarblik kasb etadi.

Xorijiy davlatlar ilmiy tadqiqotchilaridan Ch.Brumfit, A.Martinet, C.A.Mizne, J.C.Richards, G.Tomson kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida kommunikativ, lingvistik va sotsiolingvistik kompetensiyalar, tilni lingvokulturologik yondashuvlar o'rganish masalalari yoritilgan.

Til ta'limida lingvokulturologik yondashuvning pedagogik-psixologik asoslari MDH olimlaridan L.S.Vigotskiy, B.Lapidus, L.S.Rubenshteyn, A.N.Leontev, M.V.Babkina, I.L.Bim, N.I.Geiz, N.A.Goncharova, A.Yu.Danilyuk, D.D.Jajeva, M.R.Mayenova, A.O.Tenis, Z.S.Ukolova, L.V.Cherepanova, A.A.Yarulov va boshqalar tomonidan maxsus o'rganilgan.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida o'quvchilarning intellektual salohiyatini o'stirish, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, til ta'limida kompetensiyaviy yondashuv orqali o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish, lug'at boyligini oshirish masalalari A.G'ulomov, K.Qosimova, S.Matchonov, B.To'xliev, R.Niyozmetova, Sh.Yusupova, B.Abdullaeva, R.Yo'ldoshev, T.Ziyadova, A.Hamroev, T.Yusupova, Sh. Yuldasheva, N.Sh.Turdiyev, K.Mavlonova, G.Yusupovalarning ilmiy tadqiqotlarida tadqiq etilayotgan muammoning ba'zi qirralari ochib berilgan.

XX asrning 90-yillarida tilshunoslik bilan madaniyatshunoslik kesishmasidagi yangi fan sohasi, lingvokulturologiya (lingvomadaniyatshunoslik) paydo bo'ldi. U tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida tan olindi. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida deyarli barcha tadqiqotchilar ushbu nazariyaning ildizi V.fon Gumboldtga tadqiqotlariga borib taqalishini aytadilar.

O'zbek tilshunosligida "til va madaniyat" masalalari bilan eng ko'p shug'ullangan olim sifatida professor Nizomiddin Mahmudovni ko'rsatish mumkin. Jumladan, olim o'zining "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." nomli maqolasida "til" va "madaniyat" tushunchalari haqida quyidagilarni yozadi: "Til va madaniyat deganda, ko'pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligi aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to'g'risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi "aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishgan daraja, saviya (nutq madaniyati)" emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmuyi (madaniyat tarixi, o'zbek madaniyati) demakdir" [1:10.]

Chindan ham, lingvomadaniyat deyilganda "nutq madaniyati" tushunchasi paydo bo'ladi, professor N.Mahmudov ta'kidlaganidek, bunday tushuncha noto'g'ri. Lingvomadaniyat deganda, biz madaniy tushunchalarni anglatadigan so'zlarni tahlil qilishimiz maqsadga muvofiq. Bu so'zlarni izohlash orqali yosh-avlodga va chet elliklarga til va madaniyatimizni tanitish imkoniyati ochiladi.

Tilshunos olim Shoirra Usmonova "Lingvokulturologiya" nomli darsligida lingvokulturologik metodlar to'g'risida shunday yozadi, zamonaviy lingvokulturologiya hali to'liq metodologik bazaga ega emas. Odatda, rus lingvokulturologlari lingvokulturologiya metodologiyasini tilshunoslik metodologiyasi bilan bog'lashadi. Lingvokulturologiyaning metodlari til va madaniyatning o'zaro aloqasini tahlil qilishda foydalanadigan tahliliy amallar va tadbirlar yig'indisi sifatida ko'rsatiladi. Lingvokulturologiya fanning integrativ, ya'ni kulturologiya, tilshunoslik, etnolingvistika va madaniy antropologiya tadqiqotlari natijalarini o'zida mujassamlashtirgan sohasi bo'lgani uchun ham

unda “til va madaniyat” markazi atrofida to‘plangan qator bilish metodlari va yo‘nalishlari qo‘llaniladi. Lingvokulturologik tahlil jarayonlarida kulturologiya va tilshunoslik metodlaridan tanlab foydalaniladi [2:37-38].

V.M.Shakleyinning fikricha, “Lingvokulturologiya bu – tilshunoslik emas. Shubhasiz, materiallar tadqiqida tilshunoslik va lingvokulturologik yo‘nalishlarni birlashtirish samara beradi, biroq lingvokulturologiyani mustaqil fan sifatida shakllantirish yo‘liga olib chiqmaydi” [3.253]. Menimcha, Shakleyinning fikrida biroz chalkashlik mavjud. Sababi, lingvokulturologiya tilshunoslik sohasi sifatida qabul qilmaslikning iloji yo‘q. Sababi, bu soha til va madaniyatning kesishmasida hosil bo‘lganligi uchun biz tilshunoslik sifatida tan olishimiz zarur. Faqatgina madaniyatga doir fan bo‘lganda edi, bizning ham fikrimiz Shakleyin kabi birdek bo‘lard. Hozirgi zamonaviy tilshunoslikda til va boshqa sohalar kesishmasida hosil bo‘layotgan bunday sohalar juda ko‘p. Agarda biz bularning barchasini tilshunoslik sohasida o‘rganmasak, tilshunoslik rivojlanmaydi.

Bizning tadqiqot mavzumiz, yuqoridagi tilshunoslar fikrlaridan kelib chiqib, o‘zbek tili ta‘limida o‘quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyalarini qanday qilib shakllantirish lozimligi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tishdan iborat. Bunda biz zamonaviy o‘quvchida lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish uchun:

- o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyalarni shakllantirish bosqichlari til ta‘limiga raqamli texnologiyalarni tatbiq qilish va integrativ, pragmatik, ijtimoiy-madaniy yondashuvlar asosida aniqlash;

- o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyalarni shakllantirishning didaktik ta‘minoti takomillash;

- o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyalarni shakllantiruvchi xorijiy tajribalar, metodlar o‘rganiladi va takomillash kabi vazifa va maqsadlarni belgilab olganmiz. Biz til orqali o‘zbek madaniyatiga doir so‘zlarni o‘quvchilar ongiga singdirish va tanish va tanish bo‘lmagan holatlarda buni qo‘llashni o‘rgatish usullarini tatbiq etamiz.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, olimlarning fikrlarini ko‘ryapmizki, lingvokulturologiya va uning o‘rganilishi yuzasidan olimlarning fikrlari turlicha. Ba’zi qarashlar esa, bir-biriga qarama-qarshi ekanligini ham guvohi bo‘ldik. Shu g‘oyalarni umumlashtirgan holda o‘quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyalarini shakllantirish chora-tadbirlarini ko‘rsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. N.Mahmudov “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 2012. № 5. –B, 10

2. Shoira Usmonova. Lingvokulturologiya. Toshkent-2019. 37-38-betlar.

3. Шаклейн В.М. Лингвокультурология. Традиции и инновация. Монография. –М.:Флинта, 2012. –С.253

YANGI DAVR TALABIGA BINOAN INGLIZ TILINI O'QITISHDA YANGICHA METODLARNING AHAMIYATI

Jumaniyazova Lobar Sirojiddin qizi

O'zDJTU 1-bosqich talabasi

Shukurova Shohsanam Qaxramon qizi

O'zDJTU Ingliz tili amaliy fanlar №3 kafedrasida o'qituvchisi (ilmiy rahbar)

Hozirgi globalshuv davrida chet tillarini o'rganishga bo'lgan e'tiborni oldingi davrlar bilan solishtiradigan bo'lsak, bu solishtiruv asosida ulkan tafovutning guvohi bo'lishimiz mumkin. Chet tillari orasida, asosan, ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talab kundan kunga oshib bormoqda va bu tilning o'qitish metodlarini takomillashtirish va tizimga zamonaviy uslublarni olib kirishni taqozo etmoqda. Shu jumladan, yurtimizda ham yangi zamonaviy metodlar ta'lim tizimiga tatbiq etilmoqda.

Bugungi kunda zamonaviy metodlarning ta'lim tizimiga olib kirilganligi quvonarli holat. Oldinlari darslar o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun o'z ona tili bilan solishtiruv asosida o'qitilar edi. Hozirgi kunda bo'lsa, mashhur metodlardan biri **Tabiiy Yondashuv Metodi** (Natural Approach/Direct Method) asosida dars berilayotganligi nur ustiga a'lo nur bo'lmoqda. Ushbu metodning afzalliklari shundan iboratki, o'quvchi dars mobaynida umuman o'z ona tilidan foydalanmagan holda darsda ishtirok etishi talab qilinadi va buning natijasida o'rganuvchining yangi til atmosferasiga sekin-asta qadam qo'yishiga zamin yaratiladi. Bu uslubning eng foydali tomonlaridan yana biri shuki, o'quvchi dars mobaynida o'rgangan yangi narsalarni doimiy xotirada saqlashga muvaffaq bo'ladi va keyinchalik hech qanday muammolarsiz mustaqil ravishda til o'rganishga nisbatan yengillik his qiladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, bu nafaqat kichik yoshdagi, balki katta yoshdagi insonlar uchun ham chet tilini o'rganish uchun eng qulay metodlardan biridir. Ingliz tilini o'qitishdagi foydali metodlardan yana biri **Audio til metodi** (Audio Lingual Method). Audio til metodining boshqa metodlardan farqi shundaki, bunda o'qituvchi va o'rganuvchi barcha diqqat-e'tiborini o'qish va yozishdan oldin tinglab tushunish faoliyatini oshirishga qaratadi va bu jarayon ko'p vaqt mobaynida davom etadi. Buning o'ziga xosligi shundan iboratki, o'rganuvchida bu jarayonda asosan tushunish mahorati shakllanadi. Zamonaviy texnologiyalar rivojlangani sari til o'qitish metodikalari ham zamon talabi bilan hamnafas tarzda o'zgarib bormoqda. Namuna sifatida **Kompyuter yordamida ingliz tili o'rganish** (Computer-Assisted English Learning) metodini aytish joiz. Kompyuter yordamida chet tili, ya'ni ingliz tilini o'qitish va o'rganish qulayligi shundan iboratki, bu uslub har ikki tomonga dars

materiallarini me'yordan ortiq holda taqdim qilganligi bilan ajralib turadi. Bitti (2010) kompyuter yordamida ingliz tili o'rganish metodiga shunday ta'rif beradi: "Har qanday jarayon, qaysiki o'rganuvchi kompyuterda til o'rganish uchun muhim ma'lumotlar bazasidan foydalansa, o'rganuvchining foydasi uchun xizmat qiladi". Haqiqatan ham, kompyuterlar va turli xil elektron qurilmalar bugungi kunda ingliz tili fanini o'qitish va o'rganish jarayonida cheksiz resurslar bilan ta'minlashga xizmat qilayotganligi til o'rganish jarayonini ancha yengillashtirdi. Jumladan, masofaviy ta'limning tatbiq qilinishi til o'rganish jarayonini yanada osonlashtirdi. Ya'ni o'qituvchi va o'rganuvchi dars vaqtini xohlagan kuni, xohlagan paytida o'zaro kelishuv asosida o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Birinchidan, bu har ikkala tomonning vaqtini va energiyasini tejaydi. Ikkinchidan, o'rganuvchining eng muammoli tomonlaridan biri bo'lgan diqqatni jamlash ko'nikmasini yaxshilashga xizmat qiladi va dars mashg'ulotlarining yozib olishga imkoniyat mavjudligi o'rganuvchi uchun noaniqroq bo'lgan narsalarni dars tugagandan keyin ham qayta boshidan ko'rib chiqishga imkoniyat yaratadi. Chet tillarini o'qitishdagi yana bir eng samarali metodlardan biri bu **Munozara va Dialog (Discussion and Dialogue)** metodidir. Bu metod asosan til bilish darajasi odatdagidan nisbatan yaxshiroq bo'lgan o'rganuvchilar auditoriyasi uchun qo'l keladi. Dars mobaynida o'qituvchi o'z o'quvchilari bilan o'rganilayotgan tildan foydalangan holda turli xil mavzular yuzasidan suhbat olib boradi. Bunda har bir o'rganuvchi keltirilgan masala yuzasidan o'z shaxsiy fikrlarini chet tilida bildirishi talab qilinadi. Aynan shu jihat keyinchalik o'rganuvchining hech qanday qiyinchiliklarsiz chet tilida bema'lol o'z fikr-mulohazalarini ifodalashiga zamin yaratadi. Bu metoddan ko'zlangan asosiy maqsadlar o'rganuvchining o'z fikr-mulohazalarini xorijiy tilda ifoda qila olish qobiliyatini yaxshilash, o'quv jarayonida o'rganuvchidagi xato va kamchiliklarni aniqlash hamda o'sha paytning o'zida tog'irlab ketishdan iboratdir.

Yuqorida ko'rsatilib o'tilgan metodlar haqida shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, bu metodlar nafaqat sifatli ta'lim, ham shuningdek o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorlikda ish olib borishi uchun ko'pgina qulayliklar yaratadi. Zero, aniq va tartiblashgan tizimda yuksalish bo'lgani kabi bu metodlar yordamida ingliz tili o'qitish va o'rganish jarayonida ham yuksak marralarni zabt etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Academic research in educational sciences" ilmiy-amaliy jurnal. 2-son. 2021.
2. "Arab World English Journal" ilmiy-amaliy jurnal 11-son. 2020.

THE IMPORTANCE AND ROLE OF PRODUCTIVE SKILLS IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING

Juraboeva Nigina

Bukhara state pedagogical institute Foreign language and literature faculty course 2 student

Learning occurs when students are thinking, problem solving, constructing, transforming, investigating, creating, analyzing, making choices, organizing, deciding, explaining, talking and communicating, sharing, representing, predicting, interpreting, assessing, reflecting, taking responsibility, exploring, asking, answering, recording, gaining new knowledge, and applying that knowledge to new situations.⁵⁴ The same thing happens in the acquiring of language skills of writing and speaking. In order to speak and write properly learner must go through all the mentioned processes. There are some reasons why language learners come across with challenges when improving their productive skills.

Speaking is not merely a matter of using words, but it needs a more complicated process of producing speech. Speaking is a productive skill that needs a lot of practices. In addition to listening, speaking is mostly taught to the students before reading and writing. By using spoken English, the students will be able to convey their idea. Therefore, speaking is a direct route from one mind to another and is the best way to ask a question or give an explanation. In one way, English is the language which connects people from different regions, cultures, religions, and nations. It is claimed that “English is increasingly being used as a tool for interaction among nonnative speakers”⁵⁵. Among the four language skills, speaking seems to play more important role in communication. Chastain views speaking “as one important element in developing each language skill and conveying culture knowledge”. Considering the significance of accuracy, more attention is drawn to fluency in achieving communicative purposes in conversations.

First and for most, the thing that affects improving speaking skill is giving student the chance to have the luxury of stopping and thinking while speaking. Students can put a book down while reading and think for a while if they find something hard to understand. However, in the process of working on speaking skills there should not be interruption. Since speaking is ongoing process it is teacher’s responsibility to explain student that, it is always possible to work on

⁵⁴ Cameron, Tate, MacNaughton and Politano (1998)

⁵⁵ Brown, H. Douglas & Lee, Heekyeong. (2015). *Teaching by Principle: An Interactive Approach to Language Pedagogy*. New York: Pearson Education, Inc.

speaking skills anywhere. Secondly, spoken English requires getting used to variety of sounds and phrases. Most non-native speakers, even the fluent ones, will struggle pronouncing at least few of the words. Because they haven't spoken the sounds of these words few times before. Due to this fact, students usually because of having difficulty in pronunciation find it difficult to speak. One thing to note is that, mostly learner be shy with pronouncing the word incorrectly which holds them back to improve speaking. To quote Dr. Paul Sulzberger, a researcher at Victoria University, New Zealand, from his 2009 findings on language learning:

When we are trying to learn new foreign words we are faced with sounds for which we may have absolutely no neural representation. A student trying to learn a foreign language may have few pre-existing neural structures to build on in order to remember the words.⁵⁶ Thirdly, without speaking practice, learner will lack the rhythm, the peculiarities of spoken English. Two persons may both be speaking 'correct' English, but one may be markedly better than the other. English – and for that matter any language – has a rhythm, a flow that can come through practice alone. Pronunciation, intonation, and pauses are the pivotal part of speaking. For the uninitiated, intonation is rise and fall of voice when speaking. Whereas pronunciation focuses on the sound of words, intonation focuses on the entire sentence. Lastly, speaking, unlike reading and listening, is not a solo activity. It involves others, which gives rise to two distinct effects, unique only to speaking:

1. Interaction effect

When a learner interacts with others, he or she can get into real-time back and forth, and constantly adjust what to say.

2. Interlocutor effect

Though the ability to speak in English remains the same, one gets nervous speaking to some and remains relaxed speaking to others. That is interlocutor effect: how one speaks is affected by whom they speak to.⁵⁷ Because others too are involved, students' effectiveness as a speaker also depends on factors such as how well they listen to others, do grasp non-verbal cues, and the comfort – or lack of – in speaking in a group. And one can master these only through more and more speaking. Many think they can speak English because they can read, write, and listen. Spoken English, however, is a skill unto itself and therefore requires lots of practice in speaking. Therefore, learner may not speak well even if having the best vocabulary in the world, the best comprehension in reading and listening, or even if learner can write the most grammatically correct sentences.⁵⁸

⁵⁶ Dr. Paul Sulzberger, a researcher at Victoria University, New Zealand, from his 2009 findings

⁵⁷ <https://learnenglish.britishcouncil.org/skills/writing>

⁵⁸ Nation, I.S.P. (2009). Teaching ESL/EFL Reading and Writing. New York: Routledge Publisher

For numerous English learners, it is much harder to learn how to write fluently in English than to learn how to improve other language skills. Even for those learners at advanced levels, written communications tend to come quite more slowly in English in comparison to spoken communications. There are some reasons why learners struggle in writing. First of all, there is more formality in written communication. The English grammar comes with a lot of rules, which must be followed more closely in written English than in spoken English. For instance, if someone asks, "Will you please borrow me your phone?" in a conversation, you can understand from the context that the speaker really meant to say, "Will you please lend me your phone?" In written communication, words are much more significant because they have no visual context. Particularly, if you are in a business setting, committing grammatical errors can result in miscommunication and cause problems. In a spoken conversation, you can smile and make a great impression. However, in writing, the only things you have are words. Second of all, mistakes are often overlooked in spoken communication. When you are having a conversation with someone, you tend to have the ability to get their point even when you understand only a few words of what they are saying because you are aware of the context in which they are communicating. In other words, you or the person you are conversing with can make all the mistakes you want without making a big difference. However, the same is not true when it comes to writing where there is not much room for error. Otherwise, misunderstanding will surely follow. Thirdly, expectations are higher for formal written English. People tend to expect more of what they read. They expect it to be true, informative, or entertaining. When there is an expectation, there is pressure to do an excellent job. This is the reason why many book authors usually undergo the revision process numerous times before finally publishing their books. With speaking, there is generally not so much pressure. Unless you are giving a presentation or closing a business deal, there is not much pressure for you to deliver flawlessly. Lastly, less reflection goes into spoken English. Spoken English is far more spontaneous compared to written English. It is generally more flexible, and mistakes do not necessarily affect your ability to communicate effectively. On the other hand, in writing, it is crucial to think about how you should write to your target audience. There is a need for you to understand who will be reading your writing and how you can clearly communicate with them. Most often than not, it takes time to have these things figured out. In conclusion, there are several different reasons why it is much harder to master written English than spoken English. Indeed, compared to speaking, writing requires more adherence to the rules of grammar, is less forgiving of mistakes, and comes with more expectations and pressure. If you are planning to take an English proficiency exam like IELTS, you should definitely hone your writing skills

because it is through your written English that your mastery of the language will be largely assessed.⁵⁹

Proficient spoken and written English communicates clearly and precisely. It invokes emotion, loyalty and respect. It increases efficiency and productivity. Eliminate mistakes and minimize misunderstandings. Writing and speaking both are useful language learning tool and an essential communication skill that learner should not neglect it.

References:

1. Cameron, Tate, MacNaughton and Politano (1998)
2. Brown, H. Douglas & Lee, Heekyeong. (2015). Teaching by Principle: An Interactive Approach to Language Pedagogy. New York: Pearson Education, Inc.
3. Dr. Paul Sulzberger, a researcher at Victoria University, New Zealand, from his 2009 findings
4. <https://learnenglish.britishcouncil.org/skills/writing>
5. Nation, I.S.P. (2009). Teaching ESL/EFL Reading and Writing. New York: Routledge Publisher
6. <https://www.getlitt.co/blog/how-to-improve-english-writing-and-speaking-skills/>

TURIZMDA YANGI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR: MUZEYLARDA MOBIL AUDIOGIDLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Jo'rabekov Akobir Ziyodilla o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Kirish. Bugungi kunda O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamnafas bo'lib yashashi integratsiyalashuv va globallashuv jarayonlarining faollashuviga keng yo'l ochmoqda. Bu integratsion jarayonlarning rivojlanishi zamonaviy ilg'or axborot kommunikatsion texnologiyalardan unumli foydalanishni taqozo etmoqda. Turizm sohasida ana shunday texnologiya va telekommunikatsion tizimlardan foydalanish raqamli turizm sohasini vujudga keltirdi. Ushbu jarayonlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o'rganish va ilmiy xulosalar chiqarish davr talabi hisoblanadi.

Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi deya bejizga

⁵⁹ <https://www.getlitt.co/blog/how-to-improve-english-writing-and-speaking-skills/>

aytmagan edi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Mamlakatimizda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishning yaxlit tizimini yaratish, davlat organlarining aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan katta ishlar olib borilyapti. Shu bilan birga, 2030 yilga qadar "Raqamli O'zbekiston" konsepsiyasini ishlab chiqish yuzasidan ham chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.⁶⁰ Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi. So'nggi yillarda zamonaviy sayyohlik sanoatida juda muhim o'zgarishlar yuz berdi, bu turizm sohasida yangi axborot tizimlarni va raqamli texnologiyalarni ishlab chiqishga va joriy etishga olib keldi. Ayniqsa, ushbu jarayon mehmonxona, muzey va turli xil xizmat ko'rsatish korxonalarini uchun juda qo'l keldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, O'zbekiston muzeylarida audiogidlar yordamida muzey zallari bo'ylab ekskursiyalar olib borishning zamonaviy usullarini joriy etish hozirgi kunimiz uchun dolzarb masalalardan biri bo'lib, bu yuzasidan mobil foydalanilyotgani haqida O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi rasmiy saytida xabar bergan. Muzeyga tashrif buyuruvchi muzeyning mazkur dastur o'rnatilgan mobil qurilmasidan foydalangan holda eksponatlarning identifikatsion raqamini kiritib, eksponat haqida ma'lumot eshitishi mumkin. Dastur o'zbek, rus va ingliz tillarida ishlash imkoniyatiga ega.

Mazkur dastur O'zbekistonda ilk marotaba „Aloqa tarixi muzeyi“ zallarida 2015-yil mart oyidan boshlab ekskursiyachilar e'tiboriga havola etilmoqda.⁶¹

Materiallar va metodlar. Xorijiy olimlardan Abovd G. va boshqa olimlar⁶² sayohat paytida smartfonda o'rnatilgan mobil giddan foydalanishning sayohatchi uchun ahamiyatlarini ta'kidlashgan bo'lsa, Ardissono L. va boshqalar⁶³ fikriga ko'ra turistik faoliyatdan oldin, faoliyat davomida va faoliyatdan keyin raqamli qo'llab quvvatlash muhim bo'lib, bunda sayohat paytida munosib turar joy topish imkonini beruvchi tavsiya tizimlari ahamiyatlidir, deb bayon qilishgan. Uriyely N.⁶⁴

⁶⁰ Lex.uz

⁶¹ www.uzbekistan-geneva.ch

⁶² Abovd GD, Atkeson CG, Hong J, Long S, Kooper R, Pinkerton M (1997) Cyberguide: a mobile context-aware tourguide. *Wireless Networks* 3, 5, pp 421–433

⁶³ Ardissono L, Goy A, Petrone G, Segnan M, Torasso P (2003). Intrigue: personalized recommendation of tourist attractions for desktop and handset devices. *Applied artificial intelligence, special issue on artificial intelligence for*

cultcommunities of agents

⁶⁴ 9 Uriely Natan (2005) The tourist experience: conceptual developments. *Ann Tour Res* 32(1):199–216

Axborot texnologiyalarni qo'llash orqali maqsad sayyohlik tajribasining sifati yoki darajasini yanada oshirishdir, deb fikr bildirgan. De Karolis B. va boshqa bir guruh olimlar⁶⁵ sayyohlar diqqatga sazovor joylarni tomosha qilish, esdalik sovg'alarini izlash va xarid qilish kabi jarayonlarida interfaol xaritalar, virtual sayyohlik yordamchilari kabi turli xil vosita va yechimlardan foydalanishini, ushbu vosita va yondashuvlar raqamli turizm sohasidagi loyihalashni anglatishi bo'yicha mulohaza qilishgan. O'zbekistonlik olim A.Abduvoxidovning fikriga ko'ra mamlakatimizda turizm salohiyatini dunyoga namoyon qilishda, xalqaro turistik oqimlarni barqarorlashtirish, uni mavsumiylik xususiyatlaridan holi qilish maqsadida internet tarmog'i orqali turistik salohiyatimizni ko'rsatib beruvchi veb sahifalarni xalqaro tajribalar asosida o'zgartirib borish lozim.

Shuningdek mamlakatimiz olimlari Akademik S.S.G'ulomov, Akademik V.Q.Qobulov, professor R.X.Ayupov, A.N.Aripov, A.M. Kadirov, K. Shakirova, M.A.Maxkamova va boshqa iqtisodchi olimlar axborot texnologiyalarini rivojlantirish yuzasidan ilmiy-tadqiqot olib borishgan.

Maqsad. Raqamli turizm quyidagi xizmatlarni o'z ichiga olgan elektron xizmatlarni o'z ichiga oladi:

- axborot xizmatlari (masalan, manzillar, turistik yo'nalishlar yoki mehmonxonalar to'g'risida ma'lumot berish, Google Maps, TripAdvisor va Vikipediya);
- aloqa xizmatlari (masalan, mijoz bilan muhokama yoki elektron pochta xabarini yuborish);
- to'lov yoki tranzaksiyalar bo'yicha xizmatlar (masalan, bronlash, elektron to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlar).
- elektron marketing xizmatlari (masalan, qidiruv tizimlari, bannerli reklama,

mobil ilovalar, QR kod, ijtimoiy media va h.k.)

Turistik biznesni raqamlashtirish sharoitida mijoz o'zi ma'lum bir tur haqida ma'lumot qidiradi, ma'lum bir kompaniyani tanlaydi va xizmatlarning narxlarini

taqqoslaydi. Jarayon mijozga o'zi yoqtirgan turni sotib olish bilan yakunlanadi va

xizmatlar unga kechayu kunduz taqdim etiladi, bu esa xizmat sifatini yaxshilaydi va mijozning qoniqishini oshiradi.

Natijalar. Bugun jamiyatda raqamli texnologiyalarning ahamiyati tobora ortmoqda. Ularning keng joriy qilinishi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish

⁶⁵ De Carolis B, Novielli N, Plantamura V, Gentile E (2009) Generating comparative descriptions of places of interest

in the tourism domain. In Proceedings of the third ACM conference on recommender systems (RecSys '09). ACM, New York, pp 277-280

masalalari hozirgi zamonda har bir davlat uchun jiddiy hayotiy masalaga aylangan. Ekspertlar fikricha, kelgusi 3 yilda iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali dunyodagi 22 foiz ish o'rnini axborot texnologiyalari yordamida yaratiladi. Shuning uchun 2020 yil 28 aprel kuni Prezidentimizning "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, 2023 yilga borib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2 baravar va ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 baravar oshirish hamda ularning eksportini 100 million AQSh dollariga yetkazish nazarda tutilgan.

Turizmda yangi raqamli texnologiyalar: muzeylarda mobil audiogidlardan foydalanish bo'yicha SWOT-tahlil

Kuchli tomonlari	Kuchsiz tomonlari
<ul style="list-style-type: none"> -qonuniy-huquqiy asos mavjudligi -ko'plab loyihalar va dasturlar amalga oshirilyapti -turistlarga yordam ko'rsatuvchi ilovalar mavjudligi -muzeylarda audiogidlar xizmati mavjudligi 	<ul style="list-style-type: none"> -IT va soha mutaxassislari yetishmaydi -innovatsion-texnologiyalar kirib kelishdagi qiyinchiliklar -hanuzgacha aksari korxonalarining shaxsiy veb-saytlarining yo'qligi -raqobat sustligi -audiogidlarda yetarlicha xalqaro tillarning yo'qligi
Imkoniyatlari	Xavflari
<ul style="list-style-type: none"> -turistlar uchun yetarlicha qulayliklar vujudga kelishi -turistlar soni ortishi -YAIMni oshishi -sohaga bo'lgan e'tibor kuchayishi -IT mutaxassislariga qo'shimcha imtiyozlar berilishi -audiogidlarning 3 tilda ma'lumot berishi 	<ul style="list-style-type: none"> -inson omilini kamayishi -kadrlarning maoshdan qoniqmasligi -audiogidlardan foydalanishda texnik nosozliklar yuzaga kelish ehtimoli -audiogidlar noto'g'ri ma'lumot berib qo'yish ehtimoli borligi

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga erishildi.

1. Raqamli texnologiyalarni ahamiyatini yanada oshirish va ulardan unumli foydalanishda malakali IT mutaxassislarga bo'lgan talab yuqoriligi. Bundan

tashqari, doimiy xodimlarning esa malakalarini oshirish va yangi texnologiyalar bilan yaqindan tanishish muhimdir.

2. Yurtimizga keluvchi xorijiy turistlarni mamlakatimiz haqida aniq ma'lumotga ega bo'lishi uchun aniq ma'lumotlarni oson yo'l bilan taqdim etuvchi dasturlar va ilovalarni yanada takomillashtirish zarur. Zero, turistlar kelar ekan barcha korxonalar ham o'zlarini yaxshiroq tanitishga urinishlari va o'zlari haqida ijtimoiy tarmoqlarda ham ma'lumotlar bazasiga ega bo'lishi lozim.

3. Barcha turistik xizmatlarni taqdim etuvchi korxonalar o'rtasida raqobatni kuchaytirish orqali xizmatlar sifatini ham yaxshilashimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. lex.uz
2. www.uzbekistan-geneva.ch
3. Abowd GD, Atkeson CG, Hong J, Long S, Kooper R, Pinkerton M (1997) Cyberguide: a mobile context-aware tourguide, *Wireless Networks* 3,5, pp 421-433
4. Ardissono L, Goy A, Petrone G, Segnan M, Torasso P (2003). Intrigue: personalized recommendation of tourist attractions for desktop and handset devices. *Applied artificial intelligence, special issue on artificial intelligence for cultural communities of agents*
5. Uriely Natan (2005) The tourist experience: conceptual developments. *Ann Tour Res* 32(1):199-216
6. De Carolis B, Novielli N, Plantamura V, Gentile E (2009) Generating comparative descriptions of places of interest in the tourism domain. In *Proceedings of the third ACM conference on recommender systems (RecSys'09)*, ACM, New York, pp 277-280
7. fayllar.org

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR XOTIRASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ibragimova F.

SamDChTI 4 kurs talabasi

Yadgarova O.I.

SamDChTI katta o'qituvchisi p.f.f.d.(Phd)

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa yosh avlodga ta'lim-

tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasida "Maktabgacha ta'limda fanlarni rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish, maktabgacha va umumiy boshlang'ich ta'lim izchilligining mazmun va protsessual komponentlarini optimallashtirish; bolalarni sog'lom turmush tarzini yuritishga o'rgatish, gimnastika va faol o'yinlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish orqali tarbiyalanuvchilarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari va sportga qiziqish uyg'otishni shakllantirish, jismonan sog'lom o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash; maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik va musiqiy tarbiya hamda ta'lim darajasini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM o'qitish asoslarini joriy etish; bolaning kelgusida o'zini o'zi muvaffaqiyatni namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish dolzarb masalalar etib belgilangan".[1] Zero inson hayotidagi tasavvur va bilimlarni katta asosi bolalikdagi olingan bilimlarga, xotira ma'lumotlariga to'g'ri keladi. Bola ruhiyati va intellektini rivojlanishida uni bolalikdagi ijtimoiy muhiti va ta'sirlari kuchli ahamiyatga egadir. Bu yoshdagi bolalar ruhiyati bilan ishlash bo'yicha asosiy mas'uliyat tarbiyachi zimmasi yuklatiladi. Hozirgi zamon tarbiyachisi ijtimoiy-kasbiy vazifalarini bajarish uchun yuksak ma'naviy xislatlarga ega bo'lishi, umumiy va kasb madaniyati, ziyoliligi, axloqiy pokligi, faolligi, shaxsiy hissiyotlarga berilmasligi, ijodiy tasavvur egasi, psixik jihatdan sog'lom, davlatimiz fuqarosi sifatida mas'uliyatni his eta bilishi lozim. Tarbiyachilik kasbiga xos psixik holatlar va xarakter maktabgacha yoshdagi bolalar psixikasining o'ziga xos xususiyatlarini tarbiyalashning psixik asoslari va qonuniyatlari haqida bilim, ko'nikma va malakalar berishdan va ularni kasbiy faoliyatga tatbiq etishdan iborat. [4]

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixikasining rivojlanishida ularning nerv sistemalarida sodir bo'ladigan o'zgarishlar juda katta rol o'ynaydi. Umuman oladigan bo'lsak, bolalar nerv sistemalarining eng kuchli taraqqiy etadigan davri 1 yoshgacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Yangi tug'ilgan bola bosh miyasining o'rtacha og'irligi 380–400 g keladi. Bola bog'cha yoshiga yetguncha uning miyasi g'oyat tez rivojlanib, deyarli uch baravar ko'payadi. Demak, bog'cha yoshiga yetgan bolalar miyasining og'irligi 1100–1200 grammga yetadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nerv sistemasining bundan keyingi takomillashishi davomida bosh miya po'sti qismidagi markazlarni bir-biri bilan tutashtiruvchi nerv tolalari ham *miyelin qobig'i* bilan qoplana boshlaydi.[5] Bosh miyadagi nerv tolalarining miyelin qobig'i bilan qoplanishi aks ettirish jarayoni, ya'ni psixik jarayonlar va ularning rivojlanishi uchun juda katta ahamiyatga ega. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining faoliyatlari uchun qandaydir ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli

taassurot qoldirgan va ularni qiziqtirgan narsalarni beixtiyor eslarida olib qolaveradilar. Ular biror narsani eslarida olib qolishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ymaydilar va hali maqsad qo'yishni uddasidan ham chiqa olmaydilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda asosan ixtiyorsiz esda olib qolishning hukmron bo'lishi tasodifiy hol emas. Buning o'z sabablari bor. Har bir tarbiyachi pedagog bolalar xotirasiga doir xususiyatlarni yaxshi bilishi kerak. Ana shunda bolalar xotirasini to'g'ri rivojlantirish mumkin. Bog'cha yoshidagi bolalar xotirasining katta odamlar xotirasidan keskin farqi, avvalo ular oliy nerv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liqligidadir. Mashhur rus pedagoglaridan P.F.Lestgafning fikricha, insonning bog'cha yoshidagi davri shunday bir davrki, ana shu davr mobaynida kelgusida qanday xarakter xislatlari paydo bo'lishi belgilanadi va axloqiy sifatlarining asoslari yuzaga keladi. Bola bog'cha yoshiga etgach, uning psixik taraqqiyotida jiddiy uzgarishlar yuzaga keladi. Chunki xuddi aynan shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati anchagina kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bola mustaqil faoliyatda qo'llay olishi uchun zarur bo'lgan ikkita qudratli kuchga ega.

Birinchidan, ma'lum darajada o'ziga bo'ysundirilgan harakat apparatiga;

Ikkinchidan esa, atrofidagi katta odamlar va uz tengdoshlari bilan bir qadar erkin munosabatda bo'la oladigan nutqqa ega.

Mana shuning uchun bu yoshdagi bolalarning xulq-atvorlari, hatti-harakatlari, qiziqish va ehtiyojlari bog'chaga tarbiya yoshidagi bolalarnikidan keskin farq qiladi. Bu esa, uz navbatida, bog'cha yoshidagi bolalar bilan bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga ham turlicha munosabatda bo'lishni taqozo qiladi

Bir qator rus psixologlari tomonidan o'tkazilgan ilmiy tekshirish ishlari natijalarining ko'rsatishicha, bog'cha yoshidagi bolalar oliy nerv faoliyati quyidagi maxsus xususiyatlarga ega.[2]

Bog'cha yoshidagi bolalar oliy nerv faoliyati quyidagi maxsus xususiyatlarga ega.		
Birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalarning nerv sistemasi xuddi ilk yoshdagi bolalar nerv sistemasi kabi juda plastik xarakterga egadir, ya'ni ularning nerv sistemalari haddan tashqari egiluvchan, ta'sirotda beriluvchandir. Shuning uchun ham bu yoshdagi bolalarda vaqtli bog'lanishlar(assotsiatsiyalar)	Ikkinchidan, bog'cha yoshidagi bolalar nerv sistemasi yengil qo'zg' aluvchan bo'lishi bilan birga yuzaga keladigan vaqtli bog'lanishlar(assotsiatsiyalar) juda beqaror bo'ladi, ya'ni mustahkam bo'lmaydi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalar tomonidan idrok qilingan turli narsa va	Uchinchidan, bog'cha yoshidagi bolalar nerv sistemasida qo'zg'alish jarayoniga nisbatan tormozlanish jarayoni ancha sust

<p>juda yengillik bilan hosil bo'ladi. Bolalar nerv sistemasining xususiyati ularning esda olib qolish qobiliyatlariga ham ta'sir etmay qolmaydi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalar qo'shiq, ritmli she'r, qiziqarli va chuqur ta'sir etadigan narsalarni beixtiyor hamda juda tez eslarida olib qolaveradilar.</p>	<p>hodisalar ularning xotiralarida uzoq vaqt saqlanib qolmaydi. Ular tez esga olishlari bilan birga tez unutib ham yuboradilar. Ko'pincha narsa va hodisalarning bog'cha yoshidagi bolalar xotiralarida mustahkam saqlanib qolishi shu narsa va hodisalarning bolaga qanchalik emotsional ta'sir qilishiga bog'liq bo'ladi.</p>	<p>bo'lganligi tufayli ular o'xshash va birdaniga, ya'ni bir vaqtning o'zida juda ko'p idrok qilingan narsalarning farqini yaxshi ajrata olmaydilar. Shuning uchun ular birdaniga idrok qilgan juda ko'p narsalarni bir-biri bilan aralashtirib yuboradilar.</p>
--	---	--

Agar bog'cha yoshidagi boladan kechagi bayram kuni bo'lgan, ya'ni idrok qilgan narsalarini bir boshidan so'zlab berish iltimos qilinsa, u ma'noli va izchil qilib so'zlab berolmaydi. Bola bunday holda gapni tasodifiy esiga tushib qolgan narsalardan boshlab ketaveradi. Chunki birdaniga ko'rgan juda ko'p narsalarini bola tamoman aralashtirib yuborgan bo'ladi. Bola esida olib qolgan narsalarida hali izchillik yo'q. Shuning uchun bola dastavval chuqur taassurot qoldirgan, ya'ni esida chuqur o'rnashib qolgan narsalardan boshlab gapiraveradi. Demak, bundan shunday xulosa chiqarish mumkin. Agar bog'cha yoshidagi bolalarga bir vaqtning o'zida haddan tashqari ko'p narsalar ko'rsatilsa, ular hamma narsalarni bir-biri bilan aralashtirib yuboradilar va birontasini ham puxtaroq esda olib qololmaydilar. O'tkazilgan tajribalarning ko'rsatishicha, kichik bog'cha yoshidagi bolalarga nisbatan o'rta va katta yoshdagi bog'cha bolalarida *ixtiyorsiz va mexanik ravishda esda olib qolish* hamda esga tushirish qobiliyati biroz susayadi. Ammo bundan, bolalar ulg'aygani sari ularning xotirasi kuchsizlanadi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Bu yerda gap shundaki, bolalar o'sib, turmush tajribasi ortgan va nutqi o'sgan sari ular narsa va hodisalarni surunkasiga, ya'ni to'g'ri kelganicha emas, balki tanlab, ya'ni o'zlariga kerakligini esda olib qoladigan bo'la boshlaydilar.

So'nggi yillarda o'tkazilgan eksperimental tekshirishlar natijalarining ko'rsatishicha, bog'cha yoshidagi bolalarda ham narsa va so'zlarning ma'nosiga tushunib esda qoldirish samarali ekani aniqlangan. Lekin bog'cha yoshidagi bolalarning mantiqiy esda qoldirishlari ularga to'la tushuniladigan ma'lumotlar berilganda ochiq ko'rinadi.

Kichik bog'cha yoshidagi bolalarda ko'proq *obrazli xotira* rivojlangan bo'ladi. Shuning uchun ular eshitgan narsalariga nisbatan ko'rgan narsalarini yaxshi eslarida olib qoladilar. Buning asosiy sababi,

✓ birinchidan, kichik bog'cha yoshidagi bolalarning idroklari aniq obrazli xarakterga ega,

✓ ikkinchidan, ularda hali nutq to'la-to'kis shakllanmagan.

Bolalar yuqori guruhlarda nutqni anchagina egallab olganlaridan keyingina so'z orqali ifodalangan narsalarni esda yaxshi olib qoladigan bo'ladilar. Bolalar juda ko'p narsalarni asosan turli o'yin faoliyatlari davomida eslarida olib qoladilar. Shuning uchun ularning esda olib qolishlari ko'pincha epizodik va tasodifiy xarakterga ega bo'ladi. Bu esa eslarida olib qolgan narsalarni ma'lum bir sistemaga solishni qiyinlashtiradi. Shu tufayli bolalarning xotiralaridagi narsalar tartibsiz, bir-biri bilan aralashib ketadi. Natijada biron narsani esga tushirishlari qiyin bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalar xotirasiga xos bo'lgan tartibsizlikni yo'qotish va xotirasini o'stirish juda ko'p jihatdan tarbiyachilarga bog'liqdir. Tarbiyachi bolalarni esda olib qolishlari lozim bo'lgan ma'lumotlarni ularning yosh xususiyatlariga mos qilib tanlashi kerak. Bolalar xotirasini mashq qildirishda turli mazmunli o'yinlardan, mashq va treninglardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, «Magazin-magazin» o'yini, har turli loto o'yinlari, topishmoqli o'yinlar, didaktik va maxsus xotira o'yinlari shular jumlasidandir. Umuman, bolaning ma'lumotni esda olib qolishini va qayta esga tushirishini tarbiyachi doimo boshqarib borishi zarur. Chunki bog'cha yoshida xotiraning hamma tiplari o'sa boshlaydi. Biroq shu narsa xarakterliki, xotiraning asosiy turlari orasida (masalan, obrazli, mexanik, mantiqiy kabi) harakat xotirasi nisbatan kuchliroq rivojlanadi. Shuning uchun ham turli harakatlarni hamda musiqa ostida o'ynashni bu yoshdagi bolalar osonlik bilan o'zlashtiradilar. Mexanik tarzda o'zlashtiriladigan nutq ma'lumotlari ham qisman harakat xotirasiga kiradi. Shu sababli bog'cha yoshidagi bolalar tez aytiladigan turlicha ritmdagi she'rlarni bir-ikki qaytarishdayoq yodlab oladilar (masalan, bekinmashoq, o'yinini o'ynash oldidan aytiladigan «sanash»lar). Bekinmashoq o'yinining «sanash»larida hech qanday ma'no yo'q, lekin juda ifodali, jarangli ritmika bor.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bog'cha yoshidagi bolalarda emotsional xotira yaxshi bo'lsa ham, lekin xotiraning bu turi bolalarga nisbatan katta odamlarda kuchliroq bo'ladi. Katta odamlar kuchli emotsional ta'sir qilgan ba'zi narsa va

hodisalarni hech vaqt eslaridan chiqarmaydilar. Bog'cha yoshidagi bolalar esa kuchli emotsional ta'sir qilgan narsalarni ham ba'zan eslaridan chiqarib qo'yishlari mumkin. Bolalar xotirasini o'stirishda tarbiyachi va ota-onalarning nutqi ham nihoyatda katta rol o'ynaydi. Bola bilan gaplashilganda nutq sodda, talaffuz aniq va tushunarli bo'lishi kerak. Xotiraning taraqqiyoti bolaning bog'cha yoshidagi davrida tugallanmay bolaning bundan keyingi taraqqiyotida, ya'ni ta'lim tarbiya va turmush tarziga qarab o'zgarib, o'sib boradi. Shuni ham qayd qilib o'tish kerakki, ma'lumotni idrok qilishda sezgi organlari qanchalik ko'p ishtirok etsa, ma'lumot shunchalik tez va puxta esda qoladi. Bu haqda mashhur rus pedagoglaridan K.D. Ushinskiyning quyidagi gaplari juda ham o'rinlidir. «Bolaning esida biror narsaning mahkam o'rnashib qolishini xohlovchi pedagog, bola sezgi organlarining mumkin qadar ko'prog'ini ko'zi, qulog'i, tovush organi, muskul sezgisi va hatto, agar iloji bo'lsa, hidlash va ta'm bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilishi kerak». Demak bola xotirasi ustida qancha ko'p va puxta ishlansa bolaning maktab ta'limini o'zlashtirishi ham shunchalik oson kechadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi Nizom. Toshkent -2018
2. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim asoslari -F. N. Vaxobova, Sh. B. Nabixanova, D. Karimova-Toshkent-2015
3. Илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйилган Davlat talablari. – Toshkent, 2018 y.
4. Jalilova S.X. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi: kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma / Toshkent: «Faylasuflar» nashriyoti, 2017.
5. Shamshetova A.K., Saipova M.L. Bolalar psixologiyasi. Uslubiy qo'llanma. Toshkent- 2019 y

YOSHLAR TARBIYASIDA TEXNOLOGIYA FANINIG O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Isaqova Zuxra Rafiqovna
Qo'qon DPI katta o'qituvchi

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, jarayonlari hamda kasblar bilan tanishtirish, ularda dastlabki bilim, mehnat ko'nikmalari, malakalarini, mehnatga qiziqish hamda mehnatsevarlikni shakllantirish, mehnat va kasblarni qadrlashga, ularning ahamiyatini tushunishga o'rgatish hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida yashash manbai bo'lgan

mehnat faoliyatiga qo'shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifat va tafakkurlarini rivojlantirish, qiziqishi, mayl va qobiliyatiga xos kasb-hunar tanlashiga zamin yaratish mehnat ta'limi fanining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Texnologik ta'limi fani boshqa o'kuv fanlaridan o'zining qator xususiyatlari bilan tubdan farq qiladi:

- fanni o'qitishda amaliy mazmun ustuvorligi;
- ishlab chiqarish bilan bevosita uzviy va chambarchas bog'liqligi;
- mujassam fan ekanligi, ya'ni uni o'qitishda o'ndan ziyod o'quv fanlari bilan aloqadorligi hamda bir necha mustaqil fanlarni qamrab olganligi;
- o'qitishda o'g'il va qiz bolalar mehnatining o'ziga xosligi;
- shahar va qishloq maktablarining moddiy texnika jihatdan ta'minganlik darajasiga bog'liqligi;
- texnologik ta'limida va kasbga yo'naltirish o'qituvchi va ustalar kasbiy mahoratining shakllanishi bilim, ko'nikma va malakalarining o'ziga xosligi;
- o'quvchilarni ilk maktab yoshidanoq kasb-hunarga yo'naltirish ishlari amalga oshirilishi;

kasb tanlashga yo'llash ishlari mehnat ta'limi darslarining

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Texnologiya ta'limiga oid darslarning asosiy qismini amaliy mashg'ulotlar tashkil etadi. SHu sababli amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish har bir texnologiya ta'limi o'qituvchisidan katta mas'uliyatni talab etadi. Chunki amaliy mashg'ulotlarda turli asbob-uskunalarni ishlatish, ish amallarini o'rgatish va buyum yasash ishlari amalga oshiriladi. Bu esa o'qituvchi va o'quvchilardan ehtiyotkorlik va tejamkorlik bilan ishlashni talab qiladi. Chunki agar bu talablarga rioya qilinmasa o'quvch jarohat olishi yoki materiallarni isrof qilishi yoki asboblarni ishdan chiqarib qo'yishi mumkin.

Odatda amaliy mashg'ulotlarda namoyish qilish, mehnat ko'nikma malakalarini shakllantirish metodlaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Jumladan, texnologiya ta'limida namoyish qilish orqali ko'rsatmalilik ta'minlanadi, bu esa o'quv jarayonini samarali tashkil qilish imkonini beradi. CHunki, texnologiya ta'limining mazmuni texnik jarayonlar va ob'ektlar bilan bog'liqdir. Har bir darsda ko'rsatmalilik sifatida ob'ektlarning, jarayonlarning o'zidan, ularning modellari va shartli tasvirlaridan keng foydalaniladi. Masalan, texnologiya operasiyalarini o'rgatishda o'qituvchi o'quvchilarga materiallarga ishlov beradigan asboblarni tarqatadi va ularni shu asboblarni konstruksiyasi bilan tanishtiradi. Bu holda asbob tarqatma material bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilarga asboblardan tashqari ularning modellarini ham namoyish qilish mumkin. Buning uchun parma, keskich, shtangentsirkul, mikrometr va boshqa kesuvchi hamda o'lchov asboblarning modellaridan keng foydalaniladi.

Mashinasozlik elementlarini o'rgatishda qo'lda yasalgan modellarni qo'llash ham kifoya qiladi.

Maktablar uchun tipaviy o'quv ko'rsatmalari, qo'llanmalar va o'quv jihozlari ro'yhatiga tasmali, reykali, cherviyakli va tishli uzatmalarining, kulochokli mexanizm, friksion reduktorlarning modellari kiradi. Har bir maktab har xil yog'ochlar, turli faner, tunuka, simlar, sortli metallar to'plami, ya'ni kolleksiyaalarga ega bo'lishi lozim. Bu kolleksiyaalarni o'quvchilarning kuchi bilan qilsa ham bo'ladi.

Namoyish qilish metodining xususiyati, ko'pincha o'quv materiallariga illyustratsiya sifatidagina emas, balki uni o'zi bilim manbai bo'lib, ko'p hollarda esa ko'nikma va malakalarni shakllantirish usuli bo'lib xizmat qiladi. Masalan, elektr dvigateli va boshqa jihozlar, asboblari va boshqa shu kabilar bir vaqtning o'zida illyustratsiya va o'quv manbasi bo'lib xizmat qiladi. Uchinchi xususiyati tasvirlash (texnologik karta va boshqalar)ning roolidan kelib chiqadi. O'qituvchi chizmalardan foydalanib o'quvchilarga grafik bilim va malakalarni egallab olishlariga yordam beradi.

Ko'rsatmalilikdan foydalanish samaradorligini oshirishning muqim vositalaridan biri kino, videofilmlar, slaydlarni namoyish qilishdir. Masalan, quyish va bosim bilan ishlov berishni tushuntirishda plakatlar yordamida o'rganish o'quvchilarda tegishli jihozlar va texnologiya haqida to'la tasavvur hosil qila olmaydi. Hamma maktablar quyuvchilik, metallurgiya ishlab chiqarishiga ekskursiya qilish imkoniga ega emas. Bunda video yoki kinofilmlar qo'l keladi.

Ustaxonadagi texnologiya fani mashg'ulotlarida qisqa muddatli (10-15 minutli) filmlar yoki ayrim parchalarni ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Namoyish qilish o'qituvchining tushuntirishi, suhbatini bilan qo'shib olib borilishi lozim.

Filmni namoyish qilishda quyidagilarga rioya qilish lozim:

1. Filmni namoyish qilishdan oldin tushuntirish (idrok qilishga yo'naltirish). Agar filmda ancha qiyin masalalar ifodalansa, kadrlarda esa kichik detallar uchrasa, o'quvchilarni o'quv kinofilmini masalan, metallarning tuzilishi va ularning qotishmalari haqidagi filmdni ko'rishga tayyorlash kerak.

2. Filmdan biror parcha ko'rsatishni filmning va o'quv materialining mazmunini tushuntirish (suhbat) bilan olib borish. 10 minutli kino parcha namoyish qilishdan boshlanadi, so'ng plakat yoki modeldan foydalanib o'qitish davom ettiriladi.

3. Namoyish qilish tushuntirishlar bilan birga olib boriladi. Filmda boshlovchi yoki diktor tomonidan o'qiladigan tushuntirish matni muayyan sinf yoki auditoriya uchun hamma vaqt mos kelavermasligi mumkin, shunda filmni sharhlash zarurati tug'iladi.

Texnologiya ta'limi bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirish texnologiya ta'limi o'qitishda juda muhim o'rin tutadi. Bu ish asosan asosiy instruktaj berish va mashqlar bajarish metodlari orqali amalga oshiriladi.

Texnologiya fani darslarida o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini va malakalarini shakllantirishning hozirgi qo'llanilayotgan metodikasi juda muhim o'rin tutadi. Unda o'qish jarayoni o'qituvchining texnologiya usullarini namoyish etishi va o'quvchilarning unga taqlid qilishi asosida tashkil topadi.

Ilg'or tajribalarni o'rganish texnologiya fani darslarida ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun quyidagi shartlarni e'tiborga olish zarurligini ko'rsatmoqda:

- 1) tekshirishning aniqligi, uning maqsadi va bajarish usullari;
- 2) o'quvchilarda zarur bilimlarni mavjud bo'lishi;
- 3) ta'lim metodlarining shakllantirilayotgan ko'nikma va malakalarining xususiyatlariga mosligi;
- 4) instruktaj usulini muayyan sharoitga moslab o'tkazish;
- 5) mashqlarning yetarli miqdorda bo'lishi;
- 6) o'quvchilarning faoliyatini o'z vaqtida va ob'ektiv baholash;
- 7) o'quvchilar faoliyatining faol ko'rinishda bo'lishi 1-9-sinflarda olib borilishi;
- 8) texnologik ta'limi fani o'quvchilarni ta'limning keyingi bosqichi o'rta maxsus kasb-hunar kollejarida o'qishni davom ettirishga zamin yaratadi.

Umumta'lim maktab o'quvchilari texnologiya fanidan 1-9-sinflarda ishlab chiqarish va agrar sohalarga oid kasb-hunarlar bilan tanishadilar, faoliyatini o'rganish bilan birga, ularning ish uslublarini o'rganadilar. Bunda o'quvchilar metall va metalmas buyumlarga ishlov berish usullarini (chizma chizish, loyihalash, konstruksiyalash, qirqish, biriktirish, yelimlash, pardozlash, dizaynerlik, bichish-tikish, to'qish va boshqalar) bajarish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi.

Bu borada ishlab chiqilgan umumiy o'rta ta'lim davlat standarti mehnat ta'limining mazmunini, ta'lim oluvchilar bilim, ko'nikma va malakalarining zarur va yetarli darajasini, o'quv yuklamalari hajmiga qo'yiladigan asosiy davlat talablarini belgilab beradi.

Ta'lim mazmunining zaruriy o'zagi hisoblanmish ta'lim standarti mamlakat hududidagi turli o'quv muassasalarida ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi, o'quv yuklamalari me'yoriga keltiriladi, o'quvchilar bilimni baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

O'quvchi ta'lim standarti bilan cheklanishi mumkin yoki bilimlarni chuqurroq egallash maqsadida mustaqil ravishda kengroq, chuqurlashtirilgan bilim olishga va yuqori reyting bali to'plash huquqiga ega. Natijada, qiyin yoki o'quvchi xush ko'rmaydigan predmetni o'rganishda unda standartda belgilangan

me'yor bilan cheklanishga imkon beriladi. Bunda o'quvchi o'zining qiziqishi, layoqati, qobiliyatini ro'yobga chiqarish, o'zi uchun eng maqbul yo'lni ongli va mustaqil tanlash imkoniga ega bo'ladi.

Texnologiya fanining davlat ta'lim standarti o'quv-tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari uchun majburiy tayyorgarlikka qo'yiladigan talablarning ochiq bo'lishini nazarda tutadi. Ta'lim oluvchilar uchun shakl va mazmun jihatidan tushunarli tarzda ifoda qilingan mazkur talablar o'quvchilar va ularning ota-onalariga oldindan ma'lum qilinadi.

Hozirgi kunda dunyo bo'yicha rivojlangan davlatlar agrar ishlab chiqarishdan sanoat ishlab chiqarishga, ya'ni yangi texnika va ilg'or texnologiyalarga asoslangan elektrotexnika, robototexnika, avtomatlashtirilgan sanoat ishlab chiqarish davlatiga o'tib bormoqda. Ishlab chiqarishni rivojlantirishda mutaxassislarning texnikaviy salohiyati muhim o'rin tutadi. Ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritadigan mutaxassislarning boshlang'ich ko'nikmalari aynan umumiy o'rta ta'lim maktablarining texnologiya darslarida shakllantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Isakova Zukhra Rafikovna. (2022). CONDUCTING TRAININGS BASED ON THE USE OF THE "MENTAL ATTACK " METHOD. *Neo Science Peer Reviewed Journal*, 4, 48–50.
2. IZ Rafikovna - FORMATION OF TECHNICAL CREATIVITY OF STUDENTS *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 4. 11. 2022. 1349-1352
3. IZ RAFIKOVNA - THE METHODS OF DEVELOPING MODERN TECHNOLOGY SKILLS AMONG GENERAL SECONDARY SCHOOL PUPILS. *Scienceweb academic papers collection*, 2021
4. IZ RAFIKOVNA - O EDUCATE STUDENTS TO BE SMART, POLITE, WELL-MANNERED, INTELLIGENT AND PHYSICALLY HEALTHY IN THE PROCESS OF LABOR EDUCATION *Scienceweb academic papers collection*, 2021
5. Исакова З. (2018). МЕЖПРЕДМЕТНАЯ ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ СРЕДНЕ-СПЕЦИАЛЬНОГО И ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (12-4) 59-63

ЭЛЕКТРОННОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ СУДЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Исмоилов Шохжахонбек Отабек угли

магистрант Правоохранительной академии Республики Узбекистан

В современном мире отмечается устойчивая тенденция к открытости и прозрачности деятельности государственных органов путем расширения каналов доступа к материалам правоприменительной практики, значение которых возрастает, повышаются значимость и степень ее влияния на формирование правосознания, правовой культуры населения, совершенствование механизма правового регулирования общественных отношений. Правоприменительная практика выступает основным элементом правовой системы, «тестирующей» нормы на предмет их эффективности, качества, логичности. Важные направления реформ – внедрение современных информационно-коммуникационных технологий в судебную систему, своевременное рассмотрение обращений граждан.

Одной из отправных точек обеспечения прозрачности судебной системы явился Указ Президента Республики Узбекистан от 13 июля 2018 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию судебно-правовой системы и повышению доверия к органам судебной власти», во исполнение которого внедрена практика процедуры систематических публикаций судебных решений на сайте Верховного суда Республики Узбекистан, введено в судебную практику разъяснение содержания принятого судебного документа участникам судебного процесса после его оглашения[1].

Большое внимание уделяется внедрению в работу судов новейших информационных технологий. К настоящему времени во всех судах внедрена система электронного судопроизводства, позволяющая дистанционно рассматривать судебные дела.

Кроме того, система позволяет судам по гражданским делам и экономическим судам принимать иски и заявления в электронном формате. Только за первый год работы системы в суды по гражданским делам поступило более 440 тысяч заявлений через систему электронного судопроизводства, что составило 40 процентов всех поступивших заявлений. С помощью системы граждане и юридические лица могут произвести оплату государственной пошлины, а также судебных расходов, штрафов, других определенных судебным решением взысканий в государственный бюджет, получать извещения и судебные решения в электронном виде. Система обеспечивает доступ к информации о расположении судов, дате и времени рассмотрения всех судебных дел, возможность ознакомиться с любым

судебным решением в полном или обезличенном виде. Часть информации доступна в интернет-боте, связанном с системой.

В соответствии с рекомендациями мониторинговой миссии Организации экономического сотрудничества и развития с помощью системы во всех судах Узбекистана внедрено автоматическое распределение дел.

С помощью системы ведется учет судебных дел, контроль сроков их рассмотрения, формируется автоматизированная единая база данных судебных документов и судебные отчеты.

В Послании Олий Мажлису Республики Узбекистан от 29 декабря 2020 года Президент подчеркнул, что дальнейшее расширение цифровизации судебной системы создаст для граждан возможность онлайн-подачи обращений без необходимости посещать здания судов, также граждане смогут удаленно отслеживать ход рассмотрения своих заявлений[2].

На сегодняшний день суды Республики Узбекистан оснащены современными средствами информационно-коммуникационных технологий, внедрена единая электронная база данных, система видеоконференцсвязи дает возможность проводить открытые судебные заседания, обеспечивая участие сторон и участников процесса, находящихся в разных регионах республики.

Это преимущество дало возможность рассмотреть по существу в краткие сроки дела, сэкономить средства на обеспечение присутствия в зале судебного заседания как осужденных к наказанию к виду лишения свободы, так и всех других участников процесса.

С октября 2018 года в судах первой инстанции полностью внедрено программное обеспечение, позволяющее автоматически равномерно распределять дела среди судей, исключая человеческий фактор, на основе принципов справедливости и беспристрастности.

В апреле 2018 года внедрена практика отправки вынесенных судами исполнительных документов, подписанных электронной цифровой подписью судьи, в органы принудительного исполнения в электронном виде с помощью интеграции информационных систем Верховного суда и Бюро принудительного исполнения.

С января 2019 года запущена практика формирования дел в электронной форме в экономических судах с целью хранения документов дела исключительно в электронной форме и создания электронного архива. 1 июня 2020 года в информационной системе создан электронный архив с целью отдельного архивирования дел судов, сформированных в электронном виде.

Начиная с сентября 2014 года внедрен порядок проведения судебных заседаний с использованием системы видеоконференцсвязи.

Данная система имеет следующие преимущества:

- участие в судебных заседаниях без необходимости покидания участниками своего региона;
- экономия времени и денежных средств граждан при участии в судебном процессе;
- полное обеспечение участия сторон в судебном процессе.

С 1 февраля 2019 года внедрен порядок направления в суды административными органами данных о собранных документах дел по административным правонарушениям и получения информации, связанной с рассмотрением дела, исключительно через интеграцию информационной системы в электронном виде.

С 1 февраля 2020 года внедрен порядок направления в суды следственными органами данных о собранных документах уголовных дел и получения информации, связанной с рассмотрением дела, исключительно через интеграцию информационной системы в электронном виде.

Одними из важнейших задач являются повышение эффективности судопроизводства, обеспечение открытости информации о деятельности судов, а также улучшение информационных систем и ресурсов, обеспечивающих расширение перечня и повышение качества интерактивных услуг, предоставляемых населению и субъектам предпринимательства.

В данном направлении Верховным судом также проделана определенная работа. В частности, с целью пользования интерактивными услугами, предоставляемыми судами физическим и юридическим лицам по единому адресу, информирования населения о видах интерактивных услуг, предоставляемых судами по единому адресу, упрощения процедуры использования интерактивных услуг, предоставляемых судами физическим и юридическим лицам, создан Портал интерактивных услуг Верховного суда (my.sud.uz). Портал предоставляет населению и субъектам предпринимательства следующие интерактивные услуги.

В январе 2018 года в разделе «Обращение» (exsud.sud.uz) была создана возможность направлять обращения в суды в электронном виде, в режиме онлайн отслеживать процесс их рассмотрения и получать судебные решения в электронном виде.

В апреле 2019 года внедрена единая электронная платежная система для учета государственных пошлин и судебных сборов через раздел «Электронная платежная система» (billing.sud.uz) с целью создания следующих удобств:

- при осуществлении платежей для обращения в суд банковский расчетный счет и другие реквизиты не заполняются вручную;
- для осуществленных платежей не требуется отдельного подтверждения об оплате со стороны банка;
- оплата может производиться любым способом (в том числе через электронные мобильные платежные системы CLICK, Payme и UPay);
- платежи, производимые на основании судебного решения, также производятся через данную систему, и нет необходимости предоставлять суду подтверждающую информацию.

Данная система служит обеспечению оперативности и точности осуществляемых обязательных платежей при обращении граждан и предпринимателей в суд.

В декабре 2018 года внедрена практика систематической публикации вступивших в законную силу судебных решений в разделе «Банк решений» (public.sud.uz). Опубликовано 1 444 248 судебных решений, из них 81 730 – судами по уголовным делам, 361 336 – судами по гражданским делам, 724 610 – административными судами и 276 572 – экономическими судами.

В январе 2018 года в разделе «Образцы» были размещены образцы исковых заявлений и заявлений в суды по гражданским делам и экономические суды.

В январе 2018 года в разделе «Калькулятор» был размещен электронный калькулятор, автоматически рассчитывающий сумму государственной пошлины, которую необходимо оплатить при обращении в суды по гражданским делам и экономические суды.

В сентябре 2018 года создана возможность ознакомления в режиме онлайн со списком дел, назначенных к рассмотрению в первой, апелляционной и кассационной инстанциях, через раздел «Расписание».

В феврале 2020 года внедрена система удаленной онлайн-регистрации на личный прием к руководству Верховного суда через раздел «Электронный прием».

В июне 2020 года в разделе «Онлайн-отслеживание» в тестовом режиме была размещена информационная система, позволяющая отслеживать в режиме онлайн ход рассмотрения обращений независимо от их формы подачи в суд.

С целью цифровизации деятельности органов судебной власти, определения мер по улучшению обмена информацией между судами и другими ведомствами, вывода данной сферы на следующий уровень 3 сентября 2020 года Президент подписал постановление «О мерах по цифровизации деятельности органов судебной власти» [3].

Данным постановлением определены следующие задачи дальнейшего этапа цифровизации деятельности органов судебной власти:

- расширение видов интерактивных электронных услуг, оказываемых гражданам и субъектам предпринимательства, обеспечение наблюдения в режиме онлайн за процессом рассмотрения каждого обращения, создание возможности свободного пользования интерактивными услугами в зданиях судов;

- дальнейшее расширение электронного взаимного обмена данными с министерствами, ведомствами и другими организациями для обеспечения оперативного принятия информации, необходимой для отправления правосудия в судах;

- обеспечение открытости и прозрачности деятельности судейского сообщества путем внедрения специальных информационных программ;

- расширение возможности дистанционного участия в судебных заседаниях, в том числе посредством мобильных устройств и других форм электронного взаимодействия, а также создание условий для получения сторонами по делу судебных решений в режиме онлайн;

- усиление мер по обеспечению информационной и кибербезопасности информационных систем, баз данных и других программных продуктов, комплексной защите служебной информации и данных органов судебной власти.

С целью реализации данных задач утверждена Программа цифровизации деятельности органов судебной власти в 2020-2023 годах, которая предусматривает:

- фиксацию судебных заседаний во всех судах посредством аудиозаписи на основе ходатайства сторон по делу и с согласия председательствующего, а также формирование протоколов судебных заседаний с использованием данной системы;

- автоматическое распределение дел между судьями в судах апелляционной и кассационной инстанции;

- извещение всех участников о времени и месте судебного заседания путем отправки СМС-сообщений на бесплатной основе;

- представление судебных решений сторонам по делу в режиме онлайн, по их просьбе – в бумажной форме;

- организацию оказания около 10 интерактивных услуг с целью создания удобства в деятельности органов судебной власти, в том числе гражданам и субъектам предпринимательства[4].

Одной из важных задач на следующем этапе цифровизации деятельности судов является разработка мобильного приложения, предоставляющего возможность участия в судебных заседаниях в режиме

видеоконференцсвязи, с внедрением его на практике, а также создание системы обеспечения участия лиц, размещенных в учреждения по исполнению наказания, в судебном процессе и на личных приемах руководства судов непосредственно из мест их дислокации посредством режима видеоконференцсвязи.

В октябре 2020 года в разделе «Видеоконференцсвязь» (vka.sud.uz) в пилотном режиме была внедрена мобильная видеоконференцсвязь, позволяющая участвовать в судебных заседаниях из любой точки мира с помощью современных средств (гаджетов) [5].

С октября 2020 года между судами и учреждениями по исполнению наказания установлена система видеоконференцсвязи.

Внедрение данной системы устранило необходимость конвоирования подсудимых и заключенных, а также других лиц, участвующих в деле, с целью обеспечения их участия в судебных заседаниях.

С 1 января 2021 года внедрена система фиксации судебных заседаний во всех судах посредством аудиозаписи на основе ходатайства сторон по делу и с согласия председательствующего, а также формирование протоколов судебных заседаний с использованием данной системы.

Благодаря установке аудиозаписывающей аппаратуры в судебных залах создана возможность проведения судебных заседаний с использованием данной системы [6].

Внедрен порядок получения судами в процессе рассмотрения определенного дела необходимой информации и документов непосредственно из государственных органов и организаций в электронной форме, не создавая неудобств для граждан, с помощью интеграции информационной системы Верховного суда с информационными системами государственных органов и организаций.

Создание системы электронного судопроизводства будет не только способствовать повышению эффективности работы судей и работников аппаратов судов, но и на новом уровне обеспечит закрепленный Конституцией Республики Узбекистан принцип публичности судебного разбирательства через повышение степени информационной прозрачности, доступности и открытости правосудия, повышение доверия к ней со стороны общества. Решение указанных задач подразумевает информатизацию судебной системы в целом и переход к электронному правосудию с одновременным созданием соответствующей правовой базы.

Список использованных:

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 13 июля 2018 года № 5482 «О мерах по дальнейшему совершенствованию судебной-правовой системы и повышению доверия к органам судебной власти»

[Электронный ресурс] – Режим доступа: <https://lex.uz/ru/docs/3822469> (дата обращения: 25.03.2023).

2. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису от 29 декабря 2020 г. [Электронный ресурс] – Режим доступа: <https://www.uzbekistonmet.uz/ru/lists/view/687> (дата обращения: 25.03.2023).

3. Постановление Президента Республики Узбекистан от 03 сентября 2020 года № 4818 «О мерах по цифровизации деятельности органов судебной власти» [Электронный ресурс] – Режим доступа: <https://lex.uz/ru/docs/4979899> (дата обращения: 25.03.2023).

4. Мухитдинова Ф.Ф. Судебно-правовая реформа в Узбекистане: задачи, достижения, перспективы: Монография. – Ташкент: Yurist – media markazi, 2008. – 167 с.

5. Калинин, С.А. Прогнозирование эффективности применения нормативных правовых актов и анализ правоприменительной практики в Республике Беларусь / С.А. Калинин // Прогнозирование последствий принятия нормативных актов и анализ правоприменительной практики: сб. материалов. - Минск: Нац. центр законопроектной деятельности I при Президенте Республики Беларусь, Программа развития ООН, 2005. – С. 141-148.

6. Рыбкина К.В. Информационно-телекоммуникационные технологии в судопроизводстве // Новое слово в науке и практике: гипотезы и апробация результатов исследований. – 2016. - № 23. - С. 232-237.

IKKI O`LCHAMLI SIMPLEKSDA PARAMETRGA BO`LIQ QAT`IY MUSBAT KVADRATIK STOXAСТИK OPERATORNING DINAMIKASI HAQIDA

Istamov Jahongir Ziyodulla o`g`li
Qarshi davlat universiteti o`qituvchisi

Dusiyorova Charos Hasan qizi
Qarshi davlat universiteti magistranti

Chekli o`lchamli simpleksda aniqlangan kvadratlik va kubik stoxastik operatorlarning qo`zg`almas nuqtalarining xususiyatlarini o`rganish bo'yicha ko'plab nashrlar mavjud [1]-[3]. Ushbu ishda ikki o'lchamli simpleksda koeffitsientlari parametrlarga bog'liq qat'iy musbat kvadratlik stoxastik

operatorning qo'zg'almas nuqtalari, invariant qism to'plamlari topilgan va to'la dinamikasi o'rganilgan.

Aytaylik $E = \{1, 2, 3, \dots, n\}$ bo'lsin. Quyidagi

$$S^{n-1} = \{x = (x_1, x_2, \dots, x_n) \in \square \quad , \forall i \in E, \sum_{i=1}^n x_i = 1\}$$

to'plam $(n-1)$ -o'lchamli simpleks deyiladi. $S_{>}^{n-1}$ orqali S^{n-1} simpleksning ichki nuqtalari to'plamini belgilaymiz, ya'ni

$$S_{>}^{n-1} = \{x = (x_1, x_2, \dots, x_n) \in \square \quad , \forall i \in E, \sum_{i=1}^n x_i = 1\}.$$

Har bir $x \in S^{n-1}$ element E dagi ehtimollik o'lchovi elementlaridan tashkil topgan biologik (fizik va h.k.) sistemaning holati sifatida talqin qilinishi mumkin.

Tarif 1. S^{m-1} Simpleksda aniqlangan uzluksiz operator stoxastik deb ataladi, agar

$$(Vx)_k = x'_k = \sum_{i_1, i_2, \dots, i_n=1}^m P_{i_1 i_2 \dots i_n, k} x_{i_1} x_{i_2} \dots x_{i_n}, \quad \forall k = \overline{1, m},$$

Bu yerda

$$P_{i_1 i_2 \dots i_n, k} \geq 0, \quad \forall i_j = \overline{1, m}, \quad j = \overline{1, n}, \quad k = \overline{1, m};$$

$$P_{i_1 i_2 \dots i_n, k} = P_{i_{\pi(1)} i_{\pi(2)} \dots i_{\pi(n)}, k}, \quad k = \overline{1, m},$$

ixtiyoriy π o'rin almashtirish uchun ushbu

$$\sum_{k=1}^m P_{i_1 i_2 \dots i_n, k} = 1, \quad \forall i_j = \overline{1, m}, \quad j = \overline{1, n}$$

tenglik o'rinli bo'lsa.

Eslatib o'tamiz, stoxastik operator simpleksni o'zini o'ziga akslantiradi.

Bu yerda n soni stoxastik operatorning tartibi deyiladi. $n=1$ bo'lganida V operator chiziqli stoxastik operator, $n=2$ da kvadratik stoxastik operator, $n=3$ da kubik stoxastik operator deb ataladi.

Aytaylik $\alpha \in (0, 1)$ bo'lsin. S^2 simpleksda quyidagi $\{S_\alpha\}$ kvadratik stoxastik operatorlar oilasini qaraylik:

$$S_\alpha : \begin{cases} x' = x^2 + \alpha xy + (1 - \alpha) yz + xz \\ y' = xy + y^2 + yz \\ z' = xz + (1 - \alpha) xy + \alpha yz + z^2 \end{cases}$$

Masalaning qo'yilishi. $\{S_\alpha\}$ operatorlar oilasining S^2 simpleksdagi qo'zg'almas nuqtalarini topish va to'la dinamikasini o'rganishdan iborat.

Quyidagi belgilashlarni kiritaylik: $u^{(0)} = \left(\frac{1}{2}, 0, \frac{1}{2}\right)$, $[e_2; u^{(0)}]$ orqali S^2 simpleksning e_2 uchi va $u^{(0)}$ nuqtalarini tutashtiruvchi medianasini belgilaymiz. $[u^{(1)}; u^{(2)}]$ ($u^{(1)}, u^{(2)} \in \partial S$) orqali, har bir $w = (w_1, w_2, w_3) \in S^2$ nuqtadan o'tuvchi va $[e_2; u^{(0)}]$ medianaga perpendikulyar bo'lgan kesmani belgilaymiz. Be'lgilashimizdan ko'rinib turibdiki $[e_2; u^{(0)}]$ mediana va $[u^{(1)}, u^{(2)}]$ kesmalarning kesishish nuqtasi $\left(\frac{1-w_2}{2}, w_2, \frac{1-w_2}{2}\right)$ ko'rinishda bo'ladi.

Teorema. Aytaylik $\alpha \in (0, 1)$ bo'lsin. U holda

1) har bir $w \in S^2$ nuqtadan o'tuvchi $[u^{(1)}, u^{(2)}]$ kesma S_α operator uchun invariant to'plam bo'ladi;

2) S_α operatorning S^2 simpleksdagi qo'zg'almas nuqtalari to'plami $[e_2; u^{(0)}]$ medianadan iborat;

3) har bir $w^{(0)} = (x^{(0)}, y^{(0)}, z^{(0)}) \in S^2$, $[e_1; u^{(0)}]$ nuqtadan boshlanuvchi $w^{(n)}$ traektoriya $[u^{(1)}, u^{(2)}] \subset S^2$ invariant bo'ylab $\left(\frac{1-y^{(0)}}{2}, y^{(0)}, \frac{1-y^{(0)}}{2}\right) \in S^2$ qo'zg'almas nuqtaga yaqinlashadi.

Adabiyotlar

1. Розиков У.А., Жамилов У.У. Вольтеровские квадратичные стохастические операторы двуполой Популяции, *Укр. мат. журн.* 2011. Т. 63. № 7. ISSN 1027-3190.

2. Розиков У.А., Жамилов У.У. F-квадратичные стохастические операторы. *Матем. Заметки.*, 2008. том 83. выпуск 4, 606–612.

3. Жамилов У.У., Розиков У.А. О динамике строго невольтеровских квадратичных стохастических операторов на двумерном симплексе. *Матем. сб.* 2009. том 200. номер 9, 81–94.

ЭЪТИҚОД ФЕНОМЕНИНИНГ ФАЛСАФИЙ АҲАМИЯТИ ВА МЕТОДОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ

Қаландарова Гавхар Сулаймоновна
Тошкент давлат аграр университети
Гуманитар фанлар кафедраси ассесинти

Жамиятда эътиқод ва билимнинг ижтимоий шаклланиши қадимдан ривожланиб келган. Бунда дастлаб эътиқод тушунчаси, диний тушунча орқали асосланиб келинган. Шунга кўра қадимги даврдан Шарқ ва Ғарб

файласуфлари эътиқод масалаларини кун тартибига қўйган ҳолатда ривожлантириб келганлигини таъкидлаш мумкин. Ҳусусан, Марказий Осиё, Ҳиндистон, Хитой, Бобил ва Миср каби ҳудудларда эътиқод ва билимнинг мутаносиблиги фалсафий жихатдан ўрганиб келинган. Жумладан, қадимда шаклланган зардуштдийлик динининг муқаддас китоби “Авесто”да эътиқод тушунчаси, дин эркинлиги, эътиқод ва билимнинг ўзаро мутаносиблиги алоҳида қадрият сифатида эътироф қилинганлигини асослаш мумкин.

Адабиётлар таҳлилига кўра, эътиқод ақоид сўзига боғланиб, “ишониб боғланган нарсалар” маъносини англатади. Ушбу сўз ҳар бир ақли расо ва балоғатга етган банданинг қалбини унга мустаҳкам боғлаши орқали шаклланиб келган. Шунга кўра, шариатда шаръий нуқтаи назардан ҳукмлар иккита турга бўлиб ўрганилади. Ҳусусан, биринчиси-эътиқодий ҳукмлар; иккинчиси, - амалий ҳукмларга бўлиб ўрганилади. Жумладан, эътиқодий ҳукмлар деганда қатъий ишонишга таълуқли бўладиган шаръий ҳукмлар тушунилади. Амалий ҳукмлар эса, қатъий ишончдан келиб чиқиб бажариладиган амалларнинг адо этилишига таалуқли бўладиган шаръий ҳукмлар эканлигини таъкидлаш мумкин. Ислом шариатидаги эътиқодий ҳукмларни ўрганиш ақоид илми дейилади. Ақоид илмини ўрганишдан қўйидаги мақсадлар кўзланади: биринчидан-шартли равишдаги далиллар билан диний эътиқодларни мустаҳкамлаш ва улардан шубҳаларни рад этиш; иккинчидан-бошқаларга тақлид қилиб юришдан аниқ ишонч даражасига кўтарилиш; учинчидан дунё ва охират саодатини ҳосил қилишдир.

Дарҳақиқат, ислом нуқтаи назаридан эътиқодий ҳукмлар ислом дини моҳиятини ташкил қилади. Маълумки “эътиқод” сўзи араб тилида “ишонч”, “имон”, “қатъий ишониш” маъноларини англатади. Шунга кўра ислом таълимоти бўйича шубҳасиз, қатъий ишониладиган нарсалар “ақида” ва қатъий ишониш фаолияти “эътиқод” деб юритилади. Эътиқод сўзининг ўзаги “аъқида” яъни боғлаш сўзидан келиб чиққанлигини таҳлил қилиш мумкин. Ҳусусан, инсонларнинг бирон бир ақидага боғланишига эътиқод дейилади. Шунга кўра, ана шу боғланишнинг ихтиёрийлигини эътиқод эркинлиги сифатида асослаш зарур. Ҳаттаки демократик давлатларда ишлаб чиқилган тамойилларда ҳам бирон бир ақидага эътиқод қилиш ёки қилмаслик инсон ихтиёрида деб эътироф этилган. Ушбу масалалар юзасидан муҳтарам президентимиз Ш.М.Мирзиёев асарлари орқали аниқ илмий-амалий ҳамда назарий хулосалар, Ўзбекистонда эътиқод эркинлиги кафолатлари юзасидан кўрсатма ва асосли фикр-мулоҳазаларга алоҳида аҳамият қаратилаётганлигини бунинг амалий тасдиғидир. Биринчи президентимиз И.А.Каримовнинг ёзишича: “Инсон эътиқодсиз, имонсиз

яшай олмайди. Чунки комил ва собит эътиқод жамият маънавий қиёфасини белгилайди”⁶⁶. Бизнинг фикримизча, таъкидланаётган собит эътиқод замирида аввало умуминсоний қадриятлар, ўзаро бағрикенлик, ҳамжиҳатлик тамойиллари ётади. Шунга кўра, киши бирон динга эътиқод қилиши ё қилмаслиги унинг шахсий ишидир. Аслида бирон ақидага эътиқод қилмаслик ҳам мантиқий жиҳатдан алоҳида бир эътиқоддир.

Адабиётлар таҳлилига кўра қадимги даврлардан биён эътиқод эркинлигининг дастлабки кўриниши сифатида инсониятнинг пайдо бўлиши орқали диннинг ривожланиши билан шаклланиб борганлигини алоҳида этироф қилиш мумкин. Жумладан, зардуштийлик динининг муқаддас китоби “Авесто”да қадимдан аждодларимиз асрлар давомида мукамал эътиқодий қарашлар негизида қадимдан шаклланган мифалогик қатлам, яъни табиат мўжизаларига нисбатан диний қарашлар, эзгулик ва ёвузлик курашини акс эттирган дуалистик тасаввурлар, ҳосилдорлик ва ҳалол меҳнатни ўзида сингдирган ишончларнинг ўзига хос кўринишларини учратиш мумкин. Зеро, инсон иймонсиз яшай олмайди, чунки комил ва собит эътиқод жамият маънавий қиёфасини белгилайди, деб бежиз айтилмаган. Шунингдек, диннинг асосини ташкил қилувчи эътиқод билиш билан бир қаторда, инсонларнинг рухий олами билан боғлиқ эканлигини асослаш мумкин. Шу боис ҳам, этиқод инсонларнинг фикрий мушоҳадасини мунтазам бойитиб борувчи илоҳий неъмат ҳисобланади. Рационал тафаккур ечолмаган мавзу ва масалалар, - деб ёзади Абдулхай Абдурахмонов ёзишича: “фаннинг имкони ва вазифаларидан ташқари бўлиб, бу ишлар дин ёрдамида хал қилинади”⁶⁷. Бизнинг фикримизча, бу этиқодий билимларнинг илдизлари ислом дини шаклланиши билан улуғвор мазмун касб этиб борган. Авваламбор, этиқод феноменининг илк илдизлари минг йиллар мобайнида инсоният ҳаётининг ҳамма томонлари билан чамбарчас боғланиб, уларнинг турмуш тарзига айланиб кетган. Модомики шундай экан, А.Абдурахмонов фикрича: «Дин таъсирида савоб ва гуноҳ ҳақидаги тасаввурлар турадики, кишилар бу маънавий ҳодисага ҳеч қачон бефарқ қарашмаган. Бинобарин, савоб ва гуноҳ, шунингдек, савобли иш қилганда тақдирланиш, гуноҳкорларнинг эса жазоланиши ҳақидаги қарашлар кишилик жамиятининг илк даврларидаёқ шаклланган». Ўз навбатида диний эътиқодлар билан боғлиқ фаолиятлар инсон руҳиятига асрлар давомида кучли таъсир кўрсатиб келган. Инсон маънавий камолотининг бир омили диний эътиқодга, мусулмон Шарқи учун эса ислом динига бориб туташади. Бирок, Б.Очилованинг ёзишича: «собиқ шўролар замонида айрим

⁶⁶ И.Каримов. Янгича фикрлаш ва ишлаш-давр талаби. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 223.

⁶⁷ А.Абдурахмонов. Саодатга элтувчи билим. – Тошкент: Мовароуннахр, 2001. – Б. 235.

муаллифларимиз (дахрийлар, замонасозлар ва бошқалар) томонидан, аксарият ҳорижий муаллифлар томонидан ислом динига нисбатан ғайриилмий, ўта соҳта қарашлар баён этилди»⁶⁸. Бизнинг фикримизча, собиқ совет давлати ва унинг коммунистик мафкуриси инқирозга учрагунга қадар барча диний таълимотларга, жумладан, ислом динига ва унинг уламоларига ҳам, бу динга эътиқод қилувчи оддий аҳолига ҳам тўхтовсиз қаршилик ва хуружлар бўлиб келган. Ҳаттоки, ислом дини фақат арабларга тегишли, уларнинг турмуш тарзларига мос, туркий тилли халқлар учун бу дин бегонадир, дейишгача бориб етилди. Ҳақиқатда эса ислом дини фақат арабларгагина тааллуқли эмас. Ер юзидаги катор халқлар шу динга эътиқод қилсалар, ислом дини ушаларнинг барчасига тегишли жараёнларни қамраб олади. Инсон ва жамиятнинг маънавий поклянишида диний эътиқоднинг алоҳида мақоми мавжуд. У ислом кадриятлари ва рухий билимлар магзини эзгулик ва покликка даъват этувчи билимлар асосида шакллантириб келган. Шу мақсадда, республика Вазирлар Маҳкамаси қошида дин ишлари бўйича махсус кумита тузилганлигини этироф қилиш лозим. Ўзбекистон Республикаси Конституциясида, «Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар ҳақида»ги қонунда давлатнинг дин ва дин вакиллари муносабатида узининг аниқ ифодасини топганлигини талқин қилиш мумкин. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 31-моддасида: «Ҳамма учун виждон эркинлиги кафолатланади. Ҳар бир инсон кайси динга эътиқод қилиши ёки ҳеч кайси динга эътиқод қилмаслик ҳуқуқига эга. Диний қарашларни мажбуран сингдиришга йўл қўйилмайди», - деб ёзилган бўлса, Ўзбекистон Республикасининг «Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тугрисида»ги қонунни (янги таҳрири) 3-моддасида: «Вояга етмаган болаларни диний ташкилотларга жалб этиш, шунингдек, уларнинг ихтиёрига, ота-оналар ёки уларнинг урнини босувчи шахслар ихтиёрига зид тарзда динга уқитишга йўл қўйилмайди», дейилган. Шунингдек, қонуннинг 7-моддасида таълим тизимининг диндан ажратилганлиги тасдиқланади, диний фанларнинг уқув дастурларига киритилишига йўл қўйилмайди ва фуқароларнинг дунёвий билимлар олиш ҳуқуқи таъкидланади, — дейилган. Конституциямизнинг 29-моддасида ҳар ким фикрлаш, сўз ва эътиқод эркинлиги ҳуқуқига эга ёки 31-моддасида⁶⁹ ҳам ҳамма учун виждон эркинлиги кафолатланади. Ҳар бир инсон хоҳлаган динга эътиқод қилиш ёки ҳеч қайси динга эътиқод қилмаслик ҳуқуқига эга. Диний қарашларни мажбуран сингдиришга йўл қўйилмайди. Ислом энциклопедиясида Қуръон Карим тафсири билан шуғулланадиган кишида бўлиши зарур шартлар келтирилган. Шулардан бири соф эътиқодли бўлиш.

⁶⁸ Б. Очилова. Дин ва ихлос. – Тошкент: Мовароуннахр, 2004. – Б.10.

⁶⁹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: 2014. – Б.12.

Чунки эътиқод масаласи ўта нозик иш эканлиги ҳаммага маълум. Эътиқод масалада нуқсонли бор киши тафсир қилса, у нуқсонли чиқиши турган гап. Шунинг учун ҳам эътиқодидида “Аҳли сунна вал жамоа” мазҳабидан озгина оғиш бор шахсга тафсир қилишга изн берилмаган ёки ундоқ одам қилган тафсир йўқ қилинган⁷⁰.

Назаримизда, фалсафа дастлабки кезларда ташқи дунё, тафаккур ва билиш ҳақидаги ҳамма билимларни ўз ичига олган. Шунинг учун ҳам у бир бутун таълимот кўринишида бўлган. Бу ўша даврдаги илмий билиш даражасига мос келар эди.

Дунёни фалсафий билишда бир бирига қарама қарши бўлган икки усул мавжуд бўлиб, уларнинг бири диалектика, иккинчиси метофизикадир. Диалектика атамаси дастлаб қадимги юнон файласуфлари Сукрот ва Платон томонидан қўлланилган бўлиб, у мунозара, бахс ёрдамида ҳақиқатга эришиш усули деб ҳисобланган. Шу ўринда Сукротнинг билишдаги илмий асослари билан ўрганилади.

Сократ учун саховат “билим”нинг (грекча *epirteme*)⁷¹ муайян эквиваленти ҳисобланади. Бироқ унинг билим ҳусусидаги тушунчаси анча мураккабдир. Хозирги атамалардан фойдаланган ҳолда, Сократда аслида унинг учун ажралмас бўлиб ҳисобланган билимнинг учта алоҳида турини ажратиб кўрсатиш мумкин. Билим бу бизнинг ўзимиз ва ўзимиз ўзимизнинг мавжудлигимизни кўрадиган вазиятлар ҳақидаги билимдир. Сократ учун бундай билим асосан тушунчаларни таҳлил этиш “канцептуал таҳлил этиш” ва биз инсон жамият ҳусусида эга бўлган ноаниқ тушунчаларни аниқлаштириб олиш ёрдамида олишга интилган. Адолатлик, саховатлик, мардлик ва яхши хаёт тушунчалари шунга киради. Билим инсон билан яқдил бўлиб кетиши керак яни у шунчаки мен амал қиладиган эмас, балки ҳақиқатдан амал қилиши лозимлиги ҳақида ҳам келтирилган. Шундай қилиб билимни уч қисмга 1).Фактуал билимни (мавжудлик ҳақидаги) 2).Нарматив билимни (нарсаларнинг аслида қандай бўлиши кераклиги ҳақида) ва 3) инсон чинакамига амал қиладиган билимни ўзига олади. Шундай қилиб хулоса қилиш мумкинки, билиш жараёни ғоялар мушоҳадаси назария билан хиссий дунёдаги хаётий тажриба (амалиёт) ўртасидаги тугамас ўзаро таъсир (диалектика) тарзида амалга оширади.

⁷⁰ С.М.Арифханова., Г.Х.Расулева., М.Н.Абдуллаева. Мусулмон фалсафасида рационализм ва билим муоммолари. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2011. – Б.60.

⁷¹ Г.Скирбекк. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.76.

GEGENBAUER KO'PHADLARI

Kenjayeva Nasiba

O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

Ushbu ishda Gegenbauer ko'pxadlari, ularning xossalari va ulardan qaysi sohalarda foydalanilishi haqida o'rganiladi.

Gegenbauer ko'phadlari quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$C_m^\lambda(\xi) = \sum_{s=0}^{\lfloor \frac{m}{2} \rfloor} (-1)^s \frac{\Gamma(m + \lambda - s)}{s!(m - 2s)!\Gamma(\lambda)} (2\xi)^{m-2s}, \lambda > -\frac{1}{2}. \quad (1)$$

(1) formulaga asosan (2) ifodani keltirishimiz mumkin

$$\sum_{m=0}^{\infty} C_m^\lambda(\xi) \omega^m = (1 - 2\xi\omega + \omega^2)^{-\lambda}. \quad (2)$$

Shuningdek, Gegenbauer ko'phadlari uchun ushbu

$$\begin{aligned} (1 - \xi^2)^{\lambda-1/2} C_m^\lambda(\xi) &= \\ &= \frac{(-2)^m}{m!} \frac{\Gamma(m + \lambda) \Gamma(m + 2\lambda)}{\Gamma(2m + 2\lambda) \Gamma(\lambda)} \left(\frac{d}{d\xi}\right)^m (1 - \xi^2)^{m+\lambda-\frac{1}{2}} \end{aligned}$$

Rodrigo formulasi ham o'rinlidir. Bu formula (1) munosabatdan, $\left(\frac{d}{d\xi}\right) C_m^\lambda(\xi) = 2\lambda C_{m-1}^{\lambda+1}(\xi)$ tenglash va matematik induksiya usuli orqali hosil bo'ladi.

Gegenbauer ko'phadlari asosan to'rtinchi tip klassik $\mathcal{R}_{IV}(n)$ sohada (Li sharida) funksiya yasash uchun foydalaniladi.

To'rtinchi tip klassik $\mathcal{R}_{IV}(n)$ soha (Li shari)

$$\mathcal{R}_{IV}(n) = \left\{ z \in \mathbb{C}^n : |zz'|^2 - 2\bar{z}z' + 1 > 0, |zz'| < 1 \right\}$$

shartni qanoatlantiruvchi n o'lchamli vektorlardan tashkil topgan, bu yerda z' vektor z vektorning transponerlanganidir. Li shari ostovi esa quyidagi ko'rinishda aniqlanadi:

$$X_{IV}(n) = \left\{ z \in \mathbb{C}^n : |zz'|^2 - 2\bar{z}z' + 1 = 0, |zz'| = 1 \right\}.$$

Ushbu ko'phad to'rtinchi tip klassik $\mathcal{R}_{IV}(n)$ soha (Li shari) ostovi $X_{IV}(n)$ da ortonormal sistema tashkil qiladi va 1-teorema yordamida Gegenbauer ko'phadi yordamida qurilgan ortonormal sistemani keltirish mumkin.

Teorema 1. $f \neq g, l \neq k$ yoki $i \neq j$ bo'lgan holatlar uchun

$$\int_{X_{IV}(n)} (uu')^l \psi_{f-2l}^{(i)}(u) (\overline{uu'})^k \overline{\psi_{g-2k}^{(j)}(u)} \quad (3)$$

formula o'rinlidir.

Shu bilan birgalikda ushbu

$$\int_{X_{IV}(n)} |uu'|^{2l} |\psi_{f-2l}^{(i)}(u)|^2 \quad (4)$$

ifoda ham o'rinli bo'lgani uchun quyidagi funksiya $X_{IV}(n)$ ostovda ortonormal sistema tashkil qiladi:

$$\frac{(uu')^l}{\sqrt{\pi}} \psi_{f-2l}^{(i)}(u).$$

To'rtinchi tip klassik $\mathcal{R}_{IV}(n)$ sohada esa Gegenbauer ko'phadlari to'la ortonormal sistema tashkil qiladi va (5) funksiya yordamida belgilanadi.

$$(zz')^l \psi_{f-2l}^{(i)}(z). \quad (5)$$

Xulosa qilib aytganda Gegenbauer ko'phadi to'rtinchi tip klassik $\mathcal{R}_{IV}(n)$ sohada garmonik analizni o'rganish uchun xizmat qiladi. Bu ko'pha yordamida Li shari uchun Koshi formulasi va Bergman yadrolarini ham ifodalashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. L.K.Hua, "Harmonic Analysis of Functions of Several Complex Variables in the Classical Domains," Translations of Mathematical Monographs, Vol. 6, American Mathematical Society, Providence, 1963.

ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Кулибоев Азамат Шоназарович

Тошкент молия институту доценти, PhD


Давлат тиббиёт ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботини ташкил этишни Ўзбекистон Республикасининг Бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги қонунига мувофиқ ташкилотнинг раҳбари амалга оширади. Шунингдек, давлат тиббиёт ташкилотларида раҳбар бухгалтерия ҳисоби хизматининг раҳбари бошчилигидаги бухгалтерия ҳисоби хизматини ташкил этиш ҳуқуқига эга ҳисобланади [1].

Давлат тиббиёт ташкилотининг раҳбари ташкилот фаолият йўналишига мос ҳисоб сиёсатини, ички ҳисоб ва ҳисобот тизимининг ишлаб

чиқилишини, ички назорат тартибини, ҳисобнинг тўлиқ ва ишончли юритилишини, ҳисоб ҳужжатларининг бут сақланишини, қонунчиликда белгиланган тартибда молиявий ҳисоботнинг тайёрланиши ва эълон қилинишини, солиқ ҳисоботининг ва бошқа молиявий ҳужжатларнинг тайёрланишини ҳамда ҳисоб-китоблар ўз вақтида амалга оширилишини таъминлаши керак.

Давлат тиббиёт ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш ва тартибга солиш қатъий қонунчилик тизими асосида амалга оширилади. Бухгалтерия ҳисобини тартибга солишнинг мақсади барча бухгалтерия ахборотидан фойдаланувчиларга ташкилотнинг молиявий ҳолати ва фаолияти тўғрисида объектив тақдим этиладиган молиявий ҳисобот маълумотларидан фойдаланишни таъминлаш ҳисобланади [5].

Умумий ҳолда давлат тиббиёт ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини ташкил қилишнинг норматив — ҳуқуқий асосларини қуйидаги кўринишда келтиришимиз мумкин (1— расм).



1-расм. Давлат тиббиёт ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини ташкил қилишнинг норматив - ҳуқуқий асослари⁷²

2016 йилнинг 13 апрелида халқаро талабларга тўла мос равишда қабул қилинган, бюджет ижросининг ҳисобида ҳам асосий таянч қонунчилик базаси ҳисобланувчи Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги қонуни бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини ташкил қилишнинг асосий меъёрларни белгилаб беради. Жумладан, ушбу қонуннинг тегишли моддаларида бухгалтерия ҳисобининг асосий принциплари, унинг субъектлари ва объектлари, бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботини тартибга солиш, бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботини ташкил этиш, бухгалтерия ҳисоби хизматининг раҳбари, ички

⁷²Муаллиф томонидан тузилган.

назорат, бухгалтерия ахборотининг махфийлиги, бухгалтерия ҳужжатларини сақлаш ва бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги қонунчиликни бузганлик учун жавобгарлик кўрсатилган [1].

Шунингдек, 2014 йил 1 январидан кучга кирган Ўзбекистон Республикаси Бюджет кодексига давлат тиббиёт ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини ташкил қилишни алоҳида хусусиятларини белгиловчи қуйидаги омилларнинг ҳуқуқий жиҳатлари кўрсатилган:

1. Қатъий режалаштириш (смета). Маълумки, давлат тиббиёт ташкилотларини бюджетдан маблағ билан таъминлаш, уларнинг бюджетдан ташқари даромалари ва харажатлари, шунингдек мазкур маблағлардан фойдаланиш қатъий режалаштирилган ҳолда тузилган харажатлар сметаси асосий амалга оширилади. Бу эса, бухгалтерия ҳисобини асосий функцияларидан бири бўлган назорат ёрдамида давлат тиббиёт ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини олдига мазкур харажатлар сметаси ижросини назорат қилиш вазифасини юклайди.

Бюджет кодексининг “Харажатлар сметаларини ва штат жадвалларини тузиш ҳамда тасдиқлаш, уларни рўйхатдан ўтказиш тартиби” деб номланган 18 – бобида бюджет ташкилотларининг бюджет маблағлари бўйича харажатлар сметаларини тузиш, харажатлар сметаларини тасдиқлаш ва рўйхатдан ўтказиш ҳамда бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари жамғармалари бўйича даромадлар ва харажатлар сметаларини тузиш, тасдиқлаш ҳамда рўйхатдан ўтказиш қоидалари ёритилган.

2. Бюджет таснифи (режалаштириш) билан боғлаб ҳисоб юритиш. Мазкур омил шуни англатадики, давлат тиббиёт ташкилотлари томонидан бухгалтерия ҳисобини юритиш, ҳисоботларни тузиш қатъий равишда бюджет таснифига боғланган ҳолда олиб борилиши лозим. Акс ҳолда бюджет ижроси маълумотларини дастлабки режалаштириш (смета) кўрсаткичлари билан солиштириш имкони йўқолади. Шунинг учун ҳам давлат тиббиёт ташкилотлари томонидан бюджет ҳамда бюджетдан ташқари маблағларни ижроси жараёнида бюджет таснифи албатта қўлланилади.

Бюджет таснифи кодекснинг 3 — бобида ўз аксини топган бўлиб, бунда бюджет таснифи, унинг таркиби, асосий принциплари, бюджет тизими бюджетларининг иқтисодий белгилар бўйича харажатларининг гуруҳлари бўйича таснифланиши келтирилган. Харажатлар гуруҳлари бўйича аниқ моддалар бюджет таснифига мувофиқ белгиланади.

3. Бюджет жараёни (ғазначилик). Маълумки, бюджет жараёни давлат бюджетини тузиш, уни ижросини таъминлаш ва назорат қилиш, шунингдек бюджет ижросини мунтазам таҳлил қилиш билан боғлиқ

комплекс чора-тадбирларни ўз ичига олади. Давлат бюджетининг ғазначилик ижроси механизмини жорий қилиниши, яъни барча давлат тиббиёт ташкилотларининг бюджет ва бюджетдан ташқари маблағларини ғазна ҳисобварақларида жамланиши, давлат тиббиёт ташкилотлари томонидан ғазначилик бўлинмалари орқали тўловларини амалга оширилиши ҳам давлат тиббиёт ташкилотларида ўзига хос хусусиятларга эга бўлган бухгалтерия ҳисоби тизимини яратиш лозимлигини шарт қилиб қўяди.

Бюджет кодексига давлат молиявий назорат органлари сифатида Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги тасарруфидаги ваколатли органлар киритилган бўлиб, бунга Ғазначилик хизмати қўмитаси ҳам назорат органи ҳисобланади. Чунки, Ғазначилик бўлинмалари давлат молиявий назоратини:

давлат тиббиёт ташкилотларининг товарларни етказиб берувчилар (ишларни бажарувчилар, хизматлар кўрсатувчилар) билан Давлат бюджети маблағлари ҳисобига тузилган шартномаларини харажатлар сметаларида кўрсатилган суммалар доирасида ҳамда белгиланган мақсадларга мувофиқ тузилганлиги устидан назорат қилиш асосида мажбурий рўйхатдан ўтказиш;


харажатлар сметаларида ва рўйхатдан ўтказилган шартномаларда назарда тутилган суммалар доирасида давлат тиббиёт ташкилотлари номидан ҳамда уларнинг топшириғи бўйича товарларни (ишларни, хизматларни) етказиб берувчиларнинг ҳисобварақларига тўловларни бевосита амалга ошириш орқали тўлов интизомига риоя этилишини таъминлаш йўли билан амалга оширади.

Бундан ташқари Бюджет кодексига давлат тиббиёт ташкилотларининг бюджет соҳасидаги ваколатлари, тиббиёт ташкилотларининг моддий рағбатлантириш ва ривожлантириш жамғармаси даромадларини шакллантириш манбалари ҳамда тиббиёт ташкилотларида бюджет ҳисоби ва ҳисоботини юритиш тартиби белгиланган [2].

Юқоридаги ҳуқуқий ҳужжатлардан ташқари Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармонлари ва Қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг норматив - ҳуқуқий ҳужжатлари ҳамда Вазирликлар, идоралар ва давлат қўмиталарининг Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан келишилган ҳолда ишлаб чиқилган меъёрий ҳужжатлари қабул қилинган бўлиб, мазкур ҳужжатлар давлат тиббиёт ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини ташкил

қилишни бевосита тартибга солувчи асосий қонунчилик базаси ҳисобланади [6].

Ушбу меъёрий ҳужжатлардан асосийларини, яъни давлат тиббиёт ташкилотларида бухгалтерия объектлари ҳисобини тартибга солувчи норматив -ҳуқуқий ҳужжатларни қуйидагича тизимлаштиришни мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз (2-расм).



2-расм. Давлат тиббиёт ташкилотларида бухгалтерия объектлари ҳисобини тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар⁷³

Давлат тиббиёт ташкилотларида бухгалтерия объектлари ҳисобини тартибга солувчи норматив — ҳуқуқий ҳужжатларни тизимлаштиришдан асосий мақсад бугунги кунда мамлакатимизда фаолият кўрсатаётган 3 928 та давлат тиббиёт ташкилотларининг ҳисоб юритишидаги ва ҳисоботини шакллантиришидаги норматив — ҳуқуқий ҳужжатлар билан ишлаш билан боғлиқ муаммоларини ҳал қилиш ҳисобланади.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, давлат тиббиёт ташкилотларининг фаолият йўналиши ёки ихтисослашуви хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда, ҳар бир тиббиёт ташкилотининг бухгалтерия хизмати раҳбари ўзининг бухгалтерия ҳисобини тартибга солувчи ички норматив — ҳуқуқий ҳужжатларини бухгалтерия ҳисобининг умумий қоидаларини қўллаган ҳолда ишлаб чиқиши ва тасдиқлаб қўйиши керак.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси. 2013 йил 26 декабрдаги ЎРҚ-360-сон Қонуни.
2. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 13 апрелдаги «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги ЎРҚ-404-сон Қонуни.

⁷³Муаллиф томонидан тузилган.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 14 февралдаги «Ўзбекистон Республикаси давлат бюджети харажатларининг самарадорлигини янада ошириш ва давлат молиявий назорати органлари фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида» ги ПҚ-128-сон Қарори.

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 3 сентябрдаги «Бюджет ташкилотларини маблағ билан таъминлаш тартибини такомиллаштириш тўғрисида»ги 414-сон Қарори.

5. Кулибоев А.Ш. Давлат тиббиёт муассасаларида бошқарув ҳисобини ташкил этиш босқичлари. // “Молия ва банк иши” илмий электрон журнали. – Тошкент, 2022. № 1-сон, 84-89-б.

6. Остонокулов А.А. Бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари маблағлари ҳисоби ва ҳисоботи методологиясини такомиллаштириш. Монография. –Т.: «VNESHINVESTPROM», 2021. –208 б.

ISHLAB CHIQRISH FUNKSIYASI VA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR

Kunakova Fotima Bahodir qizi

O'zbekiston Milliy universiteti 2-bosqich magistratura talabasi

Ishlab chiqarish - bu kerakli mahsulotlarni tayyorlash uchun ishchi kuchidan, uskuna va texnologiyadan, tabiiy resurslardan hamda materiallardan ma'lum miqdordagi kombinatsiyada foydalanish jarayonidir. Masalan, o'z ustaxonasiga ega bo'lgan shaxs stol ishlab chiqarish uchun ishchi kuchidan, xom ashyo sifatida taxta, temir, arra va boshqa uskunalarga sarflangan kapitaldan foydalanadi.

Ishlab chiqarish omillarini yiriklashgan uch guruhga bo'lib qarash mumkin: mehnat, kapital va materiallar.

Masalan, mehnat ishlab chiqarish omili sifatida malakali mehnatni (payvandchi, buxgalter, elektr ustasi), malakasiz mehnatni (har xil ishchilar) va korxonah rahbarlarining tadbirkorlik harakatini o'z ichiga oladi. Bu mehnat turlarini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar mehnat sig'imi va mehnat unumdorligidir.

Materiallar deganda, ishlab chiqarish jarayonida tayyor mahsulotga aylanadigan har qanday moddiy narsani qarashimiz mumkin: butlovchi qismlar, yarim fabrikatlar, temir, po'lat, shisha, yoqilg'i, yog'och, paxta va boshqa xom ashyolar tushuniladi.

Moddiy kapital sarfi ishchilar tomonidan binodan, uskunadan, instrumentdan va texnologik liniyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish munosabatlari birinchi navbatda mahsulot ishlab chiqarishdagi texnologik munosabatlardir. **Texnologiya** - bu tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish to'g'risidagi amaliy bilimlardir. Ma'lumki, texnologiyaning takomillashuvi fanda va texnikadagi yangi yutuqlarning ishlab chiqarish jarayoniga joriy qilish orqali boradi. Yangi texnologiya yangi ishlab chiqarish usullaridan foydalanishni, yangi mashina va mexanizmlardan yanada yuqori malakaga ega bo'lgan mehnatdan foydalanishni taqozo qiladi. Yangi texnologiya yangi turdagi mahsulotlarni yaratishga yordam beradi. Yangi texnologiya mahsulot sifatini oshirishga, ish sharoitlarini yaxshilashga, berilgan resurslar miqdori o'zgarmaganda ishlab chiqariladigan mahsulot miqdorini oshirishga, xarajatlarni kamaytirishga olib keladi.

Ishlab chiqarish funksiyasi. Sarflanadigan ishlab chiqarish omillari miqdori bilan, ushbu omillardan foydalangan holda maksimal ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni ishlab chiqarish funksiyasi orqali ifodalash mumkin.

Ishlab chiqarish funksiyasi foydalaniladigan har bir ishlab chiqarish omillari sarfi majmuasidan maksimal Q miqdorda mahsulot ishlab chiqarishni ko'rsatadi. Agar omillar majmuasi sarfi kapital, mehnat va materiallardan iborat bo'lsa, ishlab chiqarish funksiyasi quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

$$Q = f(K, L, M) \quad (1).$$

bu yerda Q - berilgan texnologiyada maksimal ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori; K - kapital; L - mehnat; M - materiallar.

Agar ishlab chiqarish funksiyasi ikkita, K (kapital) va L (mehnat) omillariga bog'liq bo'lsa, ishlab chiqarish funksiyasi quyidagicha yoziladi:

$$Q = f(K, L) \quad (2).$$

Ushbu funktsiyada mahsulot ishlab chiqarish hajmi ikkita ishlab chiqarish omiliga bog'liq - kapital va mehnatga. Masalan, ishlab chiqarish funksiyasi yordamida non ishlab chiqarish kombinatida mehnat resurslaridan va kapitaldan foydalangan holda qancha non mahsulotini ishlab chiqarish mumkinligini ifodalash mumkin, yoki qishloq xo'jalik korxonasi berilgan mehnat resurslaridan va texnikadan (ishchilarning fond bilan qurollanganlik darajasida) foydalangan holda ma'lum vaqt oralig'ida qancha mahsulot ishlab chiqarishini ifodalash mumkin.

Mahsulot ishlab chiqarish ko'proq qo'l mehnatiga asoslangan bo'lsa (masalan, nonni qo'l mehnati asosida ishlab chiqarilsa), u holda ishlab chiqarish funksiyasini faqat sarflangan mehnatga bog'liq ravishda yozish mumkin:

$$Q = f(L) \quad 3).$$

Agar mahsulot ishlab chiqarishda ko'proq kapital ishtirok etsa, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish yuqori kapital sig'imiga ega bo'lsa, ishlab chiqarish funksiyasini $Q = F(K)$ ko'rinishida yozish mumkin.

Ta'kidlash joizki, (1), (2) va (3) tenglamalar ishlab chiqarishning ma'lum texnologiyasida qo'llanilishi mumkin. Agar texnologiya o'zgarsa, ya'ni yangi texnologiya qo'llansa, mahsulot ishlab chiqarish hajmi resurslar hajmi o'zgarmaganda ham o'sishi mumkin.

Ishlab chiqarish funksiyasi – ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori bilan shu mahsulotni ishlab chiqarishda sarflangan ishlab chiqarish omillari miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi funksiya.

Ishlab chiqarish funksiyasi umumiy holda quyidagicha yoziladi:

$$Q = f(F_1, F_2, \dots, F_n)$$

F_1, F_2, \dots, F_n – ishlab chiqarish omillari miqdori.

Agar ishlab chiqarishni faqat kapital va mehnat sarflari miqdoridan bog'liq desak

$$Q = f(K, L) \text{ ishlab chiqarish omili mahsuloti.}$$

Umumiy mahsulot (total product, TP) - ishlab chiqarish omili sarfiga to'g'ri keladigan mahsulot miqdori. Masalan, TP_L – mehnatning umumiy mahsuloti; TP_K – kapitalning umumiy mahsuloti.

Mehnatning o'rtacha mahsuloti: $AP_L = \frac{Q}{L}$

Kapitalning o'rtacha mahsuloti $AP_K = \frac{Q}{K}$

Chekli mahsulot (marginal product, MR) – boshqa omillar sarfi o'zgarmaganda bir birlik biror omildan qo'shimcha foydalanish hisobidan ishlab chiqarilgan qo'shimcha mahsulot. Masalan, mehnatning chekli mahsuloti:

$$MP_L = \frac{\Delta TP_L}{\Delta L} \text{ yoki } MP_K = \frac{\Delta TP_K}{\Delta K}$$

Ishlab chiqaruvchi muvozanati yoki maksimal mahsulot ishlab chiqarish uchun optimal sarflanadigan mehnat va kapital miqdorini aniqlash sharti - ishlab chiqarishning shunday holatiki bunda har qanday omil uchun sarflangan bir birlik pul miqdori bir xil miqdordagi mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydi:

$$\frac{MRF_1}{P_1} + \frac{MRF_2}{P_2} + \dots + \frac{MRF_n}{P_n} \text{ yoki } \frac{MRF_1}{P_1} = \frac{P_1}{P_2}$$

Ishlab chiqaruvchining muvozanatlik sharti

$$\frac{MP_1}{P_1} = \frac{MP_2}{P_2} = \dots = \frac{MP_n}{P_n}$$

Ishlab chiqarish omillari – biror ne'matni ishlab chiqarishda foydalaniladigan boshqa har qanday tovar yoki ne'mat.

Masshtab samarasi – bu ishlab chiqarish masshtabining kengayishi sur'ati bilan mahsulot ishlab chiqarishni o'sish sur'ati o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Ishlab chiqarishda foydalaniladigan omillar miqdoriga ishlab chiqarish masshtabi deyiladi.

Uchta masshtab samarasi to'g'risida gapirish mumkin:

1. O'suvchi masshtab samarasi yoki musbat masshtab samarasi - ishlab chiqarish masshtabining kengayishi (ishlab chiqarishda foydalaniladigan resurslar sarfining o'sishi) su'atidan mahsulot ishlab chiqarishning o'sish sur'ati yuqori. Masalan, resurslar sarfi 100 foizga oshsa, mahsulot ishlab chiqarish sur'ati 100 foizdan yuqori o'sishga ega, ya'ni 120 foiz.

2. O'zgarmas masshtab samarasi – ishlab chiqarishda foydalaniladigan resurslar sarfining o'sish sur'ati mahsulot ishlab chiqarishning o'sish sur'atiga teng. Masalan, resurslar sarfi 100 foizga oshsa, mahsulot ishlab chiqarish ham 100 foizga oshadi.

3. Pasayuvchi masshtab samarasi – resurslar sarfining o'sish sur'atidan mahsulot ishlab chiqarishning o'sish sur'ati past, ya'ni resurslar sarfi 100 foizga oshsa, mahsulot ishlab chiqarish 80 foizga o'sadi.

Izokvanta - bu bir xil hajmdagi mahsulotni ishlab chiqarishni ta'minlaydigan ishlab chiqarish omillari sarflari kombinatsiyalarini ifodalovchi egri chiziqdir.

Omillar mahsuldorligini kamayish qonuni shuni ko'rsatadiki, biror bir ishlab chiqarish omilidan foydalanish oshib borganda (boshqa omillardan foydalanish o'zgarmaganda), shunday bir nuqtaga erishiladiki, ushbu nuqtadan boshlab qo'shimcha ishlatilgan omil ishlab chiqarish hajmini kamaytiradi. Omil mahsuldorligining kamayish qonuni chekli mahsulotning kamayishini ifodalaydi.

Izokvantaning ma'lum nuqtasidagi burchak koeffitsienti bir ishlab chiqarish omili bilan (bu yerda kapital) boshqa bir omilni (mehnatni) texnik almashtirish qanday bo'layotganligini ko'rsatib beradi. Shuning uchun ham ushbu burchak koeffitsientining absolyut qiymati chekli texnologik almashtirish normasi deb yuritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Campbell R. McConnel, Stanley L. Brue, Sean M. Flynn. Microeconomics: Principles, Problems and Policies. -19 th ed. – New York. The McGraw-Hill Companies, Inc., 2015. P. 604. 2. Аддреу ас-Колелл и др. Микроэкономическая теория. Учебник. – .: Дело и Сервис, 2016. - 630 стр.

2. Пиндайк Р., Рубинфильд Д. Микроэкономика. / Пер. с англ. – СПб.: Питер, 2011. - с. 608.

3. Нуреев Р. . Курс микроэкономики: учебник/ 2-е изд. – .: Норма, 2012. - с. 576.

4. Salimov B.T., Muxitdinova U.S., Mustafakulov Sh.I., Salimov B.B. Mikroiqtisodiyot. Darslik. – T.: TDIU, 2005. - 230 b.

UMUMMADANIY XABARDORLIKNING TARAQQIYOT MODELII

Kurbanova Feruza Komiljanovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Umummadaniy kompetensiyaning turli nazariyalari va modellari o'z tushuntirishlarini boshqarish uchun beshta asosiy konseptual masalalarga tayanadi: motivatsiya (affektiv, hissiyot), bilim (kognitiv), ko'nikmalar (xulq-atvor, harakat), kontekst (vaziyat, muhit, madaniyat, munosabatlar, funktsiya) va natijalar (aniqlangan maqsadga muvofiqlik va samaradorlik, qoniqish, tushunish, jalb qilish, yaqinlik, assimilyatsiya, vazifaga erishish). Shunga qaramay, umummadaniy kompetensiyaning turli jihatlarining ahamiyati (masalan, tuzilma yoki tarkibiy qismlar; umummadaniy tushunishning o'zaro yutug'i; kompetensiyaning rivojlantirish jarayoni; interaktivlarning moslashuvi; turli komponentlar o'rtasidagi sababiy aloqalar) turli modellarni qo'llash zarurligini aks ettiradi. Spitzberg va Changnon umummadaniy kompetensiyaning turli modellarini besh turga (kompozitsion, birgalikda yo'naltirilgan, rivojlanish, moslashish va sabab jarayoni) tasnifladilar: sabab jarayon modellari, moslashuv modellari, rivojlanish modellari, koordinatsion modellar, kompozitsion modellar.

Umummadaniy xabardorlikning rivojlanish modeli (Bennet, 1989; 1993; 2004) tajriba to'plash jarayonini va munosabatlardagi o'zgarishlarni ochib beradi. Umummadaniy xabardorlikni rivojlantirish bosqichlari ham ushbu modelda inkor etish bosqichidan boshlab integratsiya bosqichiga qadar taqdim etilgan (1-rasmga qarang).

FARQLAR INTEGRATSIYASI
FARQLARGA MOSLASHISH
FARQNI QABUL QILISH
FARQNI KAMAYTIRISH
HIMOYA
RAD ETISH

Shakl 1. Madaniyatlararo sezgirlikni rivojlantirish bosqichlari (Bennet, 1993 dan moslashtirilgan).

Inkor etishning dastlabki bosqichi stereotiplar va madaniy og'ish xatti-harakatlari bilan bog'liq. Ushbu bosqichdagi rivojlanish vazifasi madaniy farqlar mavjudligini tan olishdir. Shaxs o'z madaniyati haqiqiy va qonuniy, boshqa

madaniyatlar esa ahamiyatsiz degan munosabatni aks ettiradi. Ba'zan madaniy farqlar umuman inkor etiladi. Bunday munosabat turli madaniyat guruhlar vakillari bilan kamdan-kam muloqotda bo'lgan shaxslar orasida keng tarqalgan.

Himoya bosqichi dualistik fikrlash va madaniy farqlardan ajralib turish bilan tavsiflanadi. Ushbu bosqichdagi rivojlanish vazifasi umumiy insoniyatni ta'kidlab, qutblanishni yumshatishdir. Shaxs boshqa madaniyatni "biz" va "ular" nuqtai nazaridan tan oladi. Madaniy farqlar tan olingan, ammo farqlardan himoyalaniish bu farqlar o'z-o'zini anglash uchun xavf solishi mumkinligi sababli qurilgan.

Farqlarni minimallashtirish bosqichi madaniy farqlarni tan olish orqali aniqlanadi. Bu bosqichdagi rivojlanish-aqliy vazifa madaniy o'z-o'zini anglashni shakllantirishdir. Shaxs o'z madaniyatiga boshqa madaniyatlar nuqtai nazaridan yaxshiroq qarashga qodir. U madaniy tafovutlarni tan oladi, lekin ular madaniy o'xshashliklardan ustun turadi, deb hisoblaydi.

Tafovutni qabul qilish bosqichi xulq-atvor va qadriyatlardagi madaniy farqlarni qadrlash orqali ochiladi. Ushbu bosqichdagi rivojlanish vazifasi madaniy qarama-qarshiliklarni tahlil qilishdir. Shaxs madaniy farqlarni ijobiy yoki salbiy deb baholamasdan ularni qadrlaydi. Shaxs o'z xulq-atvorida bunday qadrlashni tobora ko'proq amalga oshira olsa va keyin uni o'zining qadriyatlar tizimiga kiritsa, boshqa madaniyatga moslashish jarayoni boshlanadi. Bu bosqich etnosentrizmdan etnorelativizmga rivojlanishiga yordam beradi.

Farqga moslashish bosqichi madaniyatlararo muloqotni ta'minlaydigan muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish bilan ifodalanadi. Ushbu bosqichdagi rivojlanish vazifasi o'xshashliklar doirasini o'zgartirish ko'nikmalarini ("turli ko'zlar" bilan qarash qobiliyati) rivojlantirishdir. Shaxs boshqa madaniyat vakillari bilan muloqot qilish va o'zaro munosabatda bo'lish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shaxs umummadaniy kompetensiyani rivojlantirishda davom etsa, uning va boshqa madaniy dunyoqarashlarining integratsiyasi boshlanadi.

Farqlar integratsiyasi bosqichi ko'p madaniyatli qarashlarni o'zlashtirish orqali namoyon bo'ladi. Shaxs madaniyatlarning ko'pligini qadrlaydi va faqat bitta madaniyatda yashashning cheklovlarini tushunadi.

Umummadaniy ogohlikni rivojlantirishning dastlabki uch bosqichi (inkor etish, himoya qilish va minimallashtirish) etnosentrik bosqichlar, keyingi uchtasi (qabul qilish, moslashish va integratsiya) etnorelativistik (Bennett, 2004).

Umummadaniy xabardorlikni rivojlantirish modeli (Bennett, 1986; 1993; 2004; 2013) ta'lim va tadqiqotlarda yuqori baholanadi. Olti bosqichdan iborat ushbu modeldan ayniqsa umummadaniy kompetensiyani rivojlantirish uchun ta'limi muassasalarida foydalanish mumkin bo'ladi.

Umummadaniy kompetensiyaning xalqaro kursi (ICIC) mualliflari umummadaniy kompetensiyani egallashning yetti bosqichini aniqlaydilar (Bednarz, 2010):

madaniy ta'sirlardan xabardor bo'lish
stereotiplash jarayonlaridan xabardor bo'lish
madaniy shokni tan olish va xabardor bo'lish
o'z madaniy kelib chiqishi haqida fikr yuritish
turli madaniy fonlarni hal qilish
umummadaniy kontekstda muammolarni boshqarish
umummadaniy kontekstda sinergiyani rivojlantirish

Shakl 2. Umummadaniy kompetensiyani egallash bosqichlari (Bednarz, 2010).

Ko'p madaniyatli shaxs modeli asosida (Van der Zee va Van Oudenhoven, 2000) bu yerda umummadaniy kompetensiyaning qo'shimcha o'lchovi taqdim etilishi mumkin. Umummadaniy kompetensiyaning shaxsiy o'lchovi o'zini umummadaniy kompetensiyaning samarali rivojlanishining oldingi qismi sifatida tan olingan shaxs xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi. "Asosiy xususiyat o'lchovlaridagi o'xshashliklar, qanday qilib aniqlangan bo'lsa ham, shaxslarning ochiq madaniyatiga xos xulq-atvor modellaridagi farqlarni asoslaydigan umumiy psixologik asosni ta'minlaydi" (Berry va boshqalar, 2006, 113-bet). Ichki qadriyatlar va mavjud munosabatlar qiziquvchanlik, bag'rikenglik, o'zi-o'zini boshqarish kabi shaxsiy xususiyatlar ham shaxsiyat o'lchamiga kiritilishi mumkin.

Umummadaniy kompetensiyani rivojlantirishda g'ayrat, jasorat, tajribaga ochiqlik, ekstraversiya, rozilik, hissiy barqarorlik va boshqalar muhim ahamiyatga ega. Shu narsa aniqki, o'rganuvchilar bir xil o'qitilmaydi va umummadaniy kompetensiyani teng darajada yaxshi va tez rivojlantira olmaydi.

Bu umummadaniy kompetensiyani rivojlantirish uchun muhim bo'lgan o'lchovlardir. Shuni ta'kidlash kerakki, o'quvchilar umummadaniy kompetensiya rivojlanishi sodir bo'lgan muhitning ta'sirini e'tiborsiz qoldirmasliklari kerak. Umummadaniy kompetensiyani rivojlantirishga to'sqinlik qiladigan ekologik to'siqlarga institutsional etnosentrizm va madaniy masofa kiradi (Jonson va boshqalar, 2006). Institutsional etnosentrizm xalqaro guruhlarda o'rganish imkoniyatini rad etishda aks etadi. Umummadaniy kompetensiyani rivojlantirish - bu ta'lim muassasasi ma'muriyati tomonidan yordamga muhtoj bo'lgan jarayon. Global miqyosda fikrlash va harakat qilish zaruriyatini bilmaslik madaniy farqlarga munosib javob bera olmaslikka olib keladi. Madaniy masofa tushunchasi bir xil madaniy qadriyatlarga ega bo'lmagan va shuning uchun ular madaniy zarbaga tayyor bo'lmagan shaxslar o'rtasida mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan masofani ochib beradi. Talabalar umummadaniy kompetensiyani rivojlantirishning ushbu to'sig'iga ko'proq e'tibor berishlari kerak.

Umummadaniy kompetensiyaning rivojlanishi motivatsiyasiz amalga oshirilmaydi. Bunday rivojlanishning umumiy maqsadi talabalar va ta'lim muassasalari xodimlarini jarayonga qiziqish uyg'otish, ularning umummadaniy bilim, ko'nikma va munosabatlarini rivojlantirishga intilishdir. Umummadaniy kompetensiyani rivojlantirish uchun tegishli usullar va vositalar to'plami ham bunday motivatsiyani kuchaytirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bennett, M. Toward Ethnorelativism: A Developmental Model of Intercultural Sensitivity. In R. Paige (Ed.). *Education for Intercultural Experience*, 1993, (p. 21-71). Yarmouth: Intercultural Press.

2. Bennett, M. Becoming Interculturally Competent. In J. Wurzel (Ed.). *Toward Multiculturalism: A Reader in Multicultural Education*, 2004, (p. 62-77). Newton: Intercultural Resources.

3. Bennett, M. *Basic Concepts of Intercultural Communication: Paradigms, Principles, and Practices*. USA: Intercultural Press, 2013

4. Bednarz, F., Leoni, A. Reflective Strategies and Tools, Between Individual and Social Dimension. Diaries, Debriefing Sessions, Tutoring. In M. Onorati, F. Bednarz (Eds.). *Building Intercultural Competences: A Handbook for Professionals in Education, Social Work and Health Care*, 2010, (p. 210-236).

5. Berry, J., Poortinga, Y., Segall, M., Dasen, P. *Cross-cultural Psychology*. Cambridge: Cambridge University Press, 2006.

6. Johnson, J., Lenartowicz, T., Apud, S. Cross-cultural Competence in International Business: Toward a Definition and a Model. *Journal of International Business Studies*, 37, 2006, 525-543.

7. Van der Zee, K., Van Oudenhoven, J. The Multicultural Personality Questionnaire: A Multidimensional Instrument of Multicultural Effectiveness. *European Journal of Personality*, 14(4), 2000, 291-309.

**CHIZIQLI BÓLMAGAN TENGLAMALARNI YECHISHNING
DIXOTOMIYA USULINING TAHLILI**

Kalmuratova Sapura Mirzamuratovna
Qoraqalpoq davlat universiteti assistenti

Muxiyatdinov Jamalatdin Kayratdin uli
Qoraqalpoq davlat universiteti assistenti

Har xil obyektlarni modellar yordamida tadqiq qilishning ko'pgina masalalari chiziqli bo'lmagan tenglamalarni yechishga olib kelinadi. Xususan, elektron, radioelektron va hisoblash texnikasi qurilmalarini tadqiq qilishda,

tebranishlar nazariyasi, suyuqlik va gaz mexanikasi, kimyo-texnologiya va boshqa sohalar masalalarini modellar yordamida yechishda ana shunday amaliy masala yuzaga keladi.

Ushbu maqolada aynan dixotomiya usuli (kesmani ikkiga bólish usuli) ga tóxtalib ótamiz. Bu usul $f(x)$ funksiya haqida ma'lumotlar juda ham kam bo'lganda foydalanishga qulay. Bu usul kesmani teng ikkiga bo'lish usuli, dixotomiya usuli, biseksiyalar usuli yoki vilka usuli deb ataladi.

Usulning hisoblash algoritmi quyidagicha: $f(x)$ uzluksiz funksiya va a_1 va b_1 sonlar $a_1 < b_1$ va $f(a_1) < f(b_1)$ shartlarini qanoatlantiruvchi sonlar bólsin.

1) Dastlab $m_n = \frac{a_n + b_n}{2}$ $n = 1, 2, 3, \dots$ hisoblanadi.

2) Keyingi qadamda $f(m_n)$ hisoblanadi va agarda $f(m_n) = 0$ bólsa hisoblashlar tóxtatiladi.

3) Agarda $f(m_n) = 0$ sharti bajarilmasa, u holda, quyidagi shartlar tekshiriladi:

Agar $f(a_n) \cdot f(m_n) < 0$ bólsa u holda $a_{n+1} = a_n$ va $b_{n+1} = m_n$;

Agar $f(a_n) \cdot f(m_n) > 0$ bólsa u holda $a_{n+1} = m_n$ va $b_{n+1} = a_n$ [2,47].

4) Hisoblashlar shu tarzda $|m_{n+1} - m_n| < \varepsilon$ ($n = 1, 2, \dots$) aniqlikgacha davom ettiriladi. Bunda ε – berilgan absolyut aniqlik. Bu usulning yaqinlashish tartibi 1 ga teng, ya'ni bu usul chiziqli yaqinlashish tezligiga ega. $\{x_n\}$ ketma-ketlik maxraji $1/2$ ga teng bo'lgan geometrik progressiya tezligi bilan ildizga yaqinlashadi. Bundan kelib chiqadiki, berilgan ε aniqlik bilan ildizni hisoblash uchun zarur bo'lgan N – iteratsiyalar soni quyidagi tengsizlikdan aniqlanadi: $\frac{b-a}{2^N} \leq \varepsilon$ yoki

$$N \geq \frac{\ln(b-a) - \ln \varepsilon}{\ln 2} \quad \text{yoki} \quad N \geq \log_2 \left(\frac{b-a}{\varepsilon} \right) \quad [1,23].$$

Dixotomiya (kesmani ikkiga bólish usuli) usulini qo'llashni ko'rsatish uchun biz aniq bir misol keltiramiz.

Misol: $x^3 - 0,2x^2 + 0,3x + 1,2 = 0$ tenglamaning bitta yechimini $\varepsilon = 0,001$ aniqlikda dixotomiya usuli (kesmani ikkiga bólish usuli) ni qóllab yeching [4,65].

Yechilishi: Dastlab tenglamaning haqiqiy ildizlari analitik usulda ajratiladi.

x	-2	-1	0	1	2
Sign f(x)	-	-	+	+	+

Boltsman-Koshi teoremasiga kóra berilgan tenglamaning ildizi $[-1;0]$ kesmada yotibdi. $N \geq \frac{\ln(b-a) - \ln \varepsilon}{\ln 2}$ shartiga asosan $N \geq \frac{\ln(0 - (-1)) - \ln 0,001}{\ln 2}$. Bundan $N \geq 9,9657\dots$ kelib chiqadi. Demak qadamlar soni $n = 10$.

Keyingi qadamda yóqorida keltirilgan algoritm bóyicha hisoblashlarni quyidagi 1-jadvalda davom ettiramiz.

1-jadval

n	a_n	b_n	m_n	$f(a_n)$	$f(b_n)$	$f(m_n)$
1	-1	0	-0,5	-0,3	1,2	0,875
2	-1	-0,5	-0,75	-0,3	0,875	0,440625
3	-1	-0,75	-0,875	-0,3	0,440625	0,11445312
4	-1	-0,875	-0,9375	-0,3	0,11445312	- 0,08100586
5	-0,9375	-1	-0,96875	- 0,08100586	-0,3	- 0,18746948
6	-0,96875	-0,9375	-0,953125	- 0,18746948	-0,08100586	- 0,13349075
7	-0,953125	-0,96875	-0,960937	- 0,13349075	-0,18746948	- 0,16029023
8	-0,960937	-0,953125	-0,957031	- 0,16029023	-0,13349075	- 0,14684364
9	-0,957031	-0,960937	-0,958984	- 0,14684364	-0,16029023	- 0,15355519
10	-0,958984	-0,957031	-0,9580075			

Hisoblashlar $n=10$ qadamda to'xtatiladi. Chunki $|m_{n+1}-m_n|<\varepsilon$ aniqlikka erishildi ya'ni $|m_{10}-m_9|=|-0,0009765|<\varepsilon$. Demak tenglamaning bitta taqribiy ildizi $x=-0,9580075$.

Dixotomiya (kesmani ikkiga b'olish usuli) usulining afzallik va kamchiliklari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Usulning afzalliklari	Usulning kamchiliklari
$f(x)$ funksiya haqida ma'lumotlar kam bo'lganda ham undan foydalanish juda qulay	ko'p hollarda funksiyaning holati juda murakkab bo'lib, bu chetki nuqtalarida funksiyaning ishorasi har xil bo'lgan $[a,b]$ kesmani oldindan aniqlashga qiyinchilik tug'diradi
Bu usul algoritmi juda sekin, ammo barcha noqulayliklardan holi	yaqinlashish juda sekin
Konvergenstsiya kafolatlanadi	sodda bo'lmagan ildiz, masalan, ildiz funksiyaning ekstremum nuqtasi bilan mos kelganda bu usulni qo'llab bo'lmaydi, chunki bunda ildiz

	atrofida funksiya o'z ishorasini almashtirmaydi
Xatolikni nazorat qilish mumkin	agar tenglama $[a,b]$ kesmada bir nechta ildizga ega bo'lsa, u holda hisoblash jarayonida shu ildizlardan qaysi biri topilishi noma'lum
Oddiy va dasturlash oson	uni tenglama karrali va kompleks ildizlarga ega bo'lganda va tenglamalar sistemasiga qo'llab bo'lmaydi

Umuman olganda dixotomiya (kesmani ikkiga b'olish usuli) usuli kamchiliklardan holi emas. Lekin berilgan funksiya haqida ma'lumotlar kam bo'lganda ham bu usuldan foydalanish qulayligi bilan chiziqli bo'lmagan tenglamalarni yechishning sonli usullari orasida dixotomiya (kesmani ikkiga b'olish usuli) usuli muhim ahamiyatga ega usullardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Abdirashidov, B.B.Aminov, A.A.Abdurashidov. Chiziqli b'olmagan tenglamalarni yechishning sonli usullari uslubiy k'orsatmalar.-Samarqand: 2016.
2. A.B.Зенков. Численные методы.-Екатеринбург: 2016
3. В.И.Мишенков, Е.В. Мишенков. Численные методы.-Москва: 2001.
4. Г.Н.Воробьева, А.Н.Данилова. Практикум по вычислительной математике.- М.: Высшая школа, 1990.
5. <https://byjus.com/maths/bisection-method/>
6. <https://atozmath.com/example/CONM/Bisection.aspx?q=bi>

THEORETICAL IMPORTANCE OF DEVELOPING STUDENTS' READING LITERACY WITH THE HELP OF CREATIVE TECHNOLOGY

Kayumova Shokhsanam

*Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Science,
Teacher of Guliston State University*

In today's world, technology is everywhere, and it has changed the way we interact with the world around us. It has also had a significant impact on education, particularly in the area of literacy. With the help of creative technology, students can develop their reading literacy skills in innovative ways. In this article, we will explore how technology can be used to enhance students' reading literacy and why it is important.

Reading literacy is a fundamental skill that is essential for academic and personal success. It is the ability to understand, interpret, and evaluate written material. However, not all students find reading easy, and many struggle with this skill. This is where technology can come in and make a difference. Creative technology tools can provide engaging and interactive learning experiences that can help students develop their reading literacy skills.

One such tool is e-books, which are electronic versions of traditional books. E-books provide a range of features that can enhance the reading experience, such as the ability to adjust font size, highlight text, and access a dictionary. Interactive e-books go a step further and include multimedia elements like videos, animations, and audio recordings, which can make the reading experience more engaging and help students to better comprehend the text.

Another technology tool that can enhance reading literacy is gamification. Gamification involves adding game-like elements to the learning experience. For example, teachers can create reading challenges, where students earn points or badges for completing certain reading tasks, such as reading a certain number of books or reading for a set amount of time. This can make reading more enjoyable and motivate students to read more.

Virtual and augmented reality (VR/AR) is another technology tool that can enhance students' reading literacy skills. VR/AR can provide immersive and interactive learning experiences that can help students to better understand the text. For example, students can use VR/AR to explore a historical location, such as the pyramids of Egypt, or to visualize complex scientific concepts, such as the structure of DNA. VR stands for Virtual Reality, and AR stands for Augmented Reality. Virtual Reality is a computer-generated simulation of a 3D environment or a completely different reality that users can experience through a VR headset or other immersive devices. Augmented Reality, on the other hand, is the integration of digital content, such as graphics or sounds, into the real world through a device, such as a smartphone or tablet, with the use of sensors and cameras. In AR, users can still see and interact with the real world while digital elements are overlaid onto it. Both VR and AR are being increasingly used in various fields, such as entertainment, education and training.

Podcasts and audiobooks are technology tools that can enhance students' reading literacy skills. These tools allow students to listen to text, rather than read it, which can be helpful for students who struggle with reading or have reading difficulties. Additionally, podcasts and audiobooks can be engaging and entertaining, which can motivate students to engage with text more frequently.

Reading comprehension is a fundamental cognitive ability for children, that supports school achievement and successively participation in most areas of adult life. Therefore, children with learning disabilities (LD) and special educational

needs who show difficulties in text comprehension, sometimes also in association with other problems, may have an increased risk of life and school failure[1]. Reading comprehension is, indeed, a complex cognitive ability which involves not only linguistic (e.g., vocabulary, grammatical knowledge), but also, and metacognitive skills and, more specifically, higher order comprehension skills such as the generation of inferences.

Recently, due to the diffusion of technology in many fields of daily life, text comprehension at school, at home during homework, and at work is based on an increasing number of digital reading devices (computers and laptops, e-books, and tablet devices) that can become a fundamental support to improve traditional reading comprehension and learning skills (e.g., inference generation)[2]. Some authors contrasted in children with typical development the effects of the technological interface on reading comprehension vs printed texts. Results were consistent and showed a worse comprehension performance in screen texts compared to printed texts for children and adolescents who nonetheless showed a preference for digital texts compared to printed texts. Regarding children with learning problems, only few studies considered the differences between printed texts and digital devices finding no significant differences, suggesting that the use of compensative digital tools for children with a learning difficulty could be a valid alternative with respect to the traditional written texts in facilitating their academic and work performance[3]. This conclusion is also supported by the results of a meta-analysis, regarding the use of digital tools and learning environments for enhancing literacy acquisition in middle school students, which demonstrates that technology can improve reading comprehension.

Improving reading literacy is an essential skill for primary teachers, as it is a fundamental aspect of their teaching practice. It is critical for teachers to have a strong foundation in reading literacy to ensure that they can effectively support and teach their students. In this article, we will discuss some ways that future primary teachers can benefit from improving their reading literacy skills

1. Read Widely- The first step in improving reading literacy is to read widely. Future primary teachers should read a variety of texts, including fiction, non-fiction, poetry, and children's literature. Reading widely helps to improve comprehension, vocabulary, and overall literacy skills[4].

2. Reflect on Reading Strategies- Reflecting on reading strategies is another effective way to improve reading literacy skills. Future primary teachers should take note of their reading strategies and consider which ones are effective and which ones need improvement. This reflection will help teachers to identify the reading strategies that they can use to support their students

3. Engage in Professional Development- Professional development is an essential component of improving reading literacy skills. Future primary teachers

should engage in professional development programs that focus on literacy instruction. This can include courses, workshops, and conferences that provide strategies for teaching reading comprehension, phonics, vocabulary, and fluency

4. Use Technology- Technology can be a valuable tool for improving reading literacy skills. Future primary teachers can use online resources, such as eBooks, audiobooks, and educational apps to improve their literacy skills. They can also use technology to support their students' literacy development, such as by using interactive whiteboards, tablets, and educational software

5. Collaborate with Colleagues- Collaborating with colleagues is an excellent way to improve reading literacy skills. Future primary teachers should engage in discussions with their colleagues about effective literacy instruction and share resources, strategies, and best practices. This collaboration can help teachers to refine their teaching practices and improve their students' reading literacy

6. Volunteer in Literacy Programs- Volunteering in literacy programs is a great way to improve reading literacy skills while also making a positive impact in the community. Future primary teachers can volunteer in programs that provide literacy support to children or adults. This can help teachers to gain practical experience in teaching literacy skills and develop a deeper understanding of the challenges that students face when learning to read

Improving reading literacy skills is critical for future primary teachers. Reading widely, reflecting on reading strategies, engaging in professional development, using technology, collaborating with colleagues, and volunteering in literacy programs are all effective ways to improve reading literacy skills. By developing strong reading literacy skills, future primary teachers can better support their students' literacy development and provide effective literacy instruction.

In conclusion, technology can be a powerful tool for enhancing students' reading literacy skills. From e-books and interactive reading experiences to gamification and VR/AR, technology offers a range of innovative and engaging ways to develop this critical skill. It is important for educators to incorporate these tools into their teaching practices to help all students develop strong reading literacy skills

References:

1. Beck, I. L., Perfetti, C. A., and McKeown, M. G. (1982). Effects of long-term vocabulary instruction on lexical access and reading comprehension. *J. Educ. Psychol.* 74, 506–521. doi: 10.1037/0022-0663.74.4.506

2. Channa, M. A., Nordin, Z. S., Siming, I. A., Chandio, A. A., and Koondher, M. A. (2015). Developing reading comprehension through metacognitive strategies: a review of previous studies. *Eng. Lang. Teach.* 8, 181–186. doi: 10.5539/elt.v8n8p181

3. Chen, H. (2009). Online reading comprehension strategies among fifth- and sixth-grade general and special education students. *Educ. Res. Perspect.* 37, 79–109.

4. Cornoldi, C., and Bertolo, L. (2013). *Cloze Ridinet*. Bologna: Anastasis.
Cornoldi, C., and Carretti, B. (2016). *Prove MT-3-Clinica*. Firenze: Giunti Edu.
Cornoldi, C., Carretti, B., and Colpo, C. (2017).

5. *Prove MT-Kit Scuola. Dalla valutazione degli Apprendimenti di Lettura E Comprensione Al Potenziamento. [MT-Kit for the Assessment In The School. From Reading Assessment To Its Enhancement]*. Firenze: Giunti Edu. Cullen, J. M., Alber-Morgan, S. R., Schnell, S. T., and Wheaton, J. E. (2014). Improving reading skills of students with disabilities using headsprout comprehension. *Remed. Spec. Educ.* 35, 356–365. doi: 10.1177/0741932514534075

6. De Beni, R., and Palladino, P. (2000). Intrusion errors in working memory tasks: are they related to reading comprehension ability? *Learn. Individ. Differ.* 12, 131–143. doi: 10.1016/s1041-6080(01)00033-4

7. Delgado, P., Vargas, C., Ackerman, R., and Salmerón, L. (2018). Don't throw away your printed books: a meta-analysis on the effects of reading media on reading comprehension. *Educ. Res. Rev.* 25, 23–38. doi: 10.1016/j.edurev.2018.09.003

TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH MUAMMOLARI

Qo'ldoshev Oybek G'ulom o'g'li

Ta'lim muassasalari boshqaruvi mutaxassisligi magistranti

Begbo'tayev Azzam Eshpulatovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

Jahonda Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030 yilgacha barqaror rivojlanish kun tartibining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bu sifatli ta'limdir. U barcha uchun inklyuziv va teng sifatli ta'limni ta'minlashga qaratilgan. Raqamli texnologiyalar ushbu maqsadga erishish uchun muhim vosita sifatida paydo bo'ldi.

Barqaror rivojlanish ta'limga bog'liq bo'lgan ijtimoiy farovonlikni o'z ichiga oladi. Axborot texnologiyalari umumiy bilimlarni tarqatish orqali ta'lim sohasidagi islohotlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Mobil qurilmalar, aqlli doskalar, MOOC, planshetlar, noutbuklar, simulyatsiyalar, dinamik vizualizatsiya va virtual laboratoriyalar kabi yangi texnologiyalar yordamida ta'lim vositalarining joriy etilishi ta'lim muassasalaridagi ta'lim

jarayonlarini o'zgartirdi. Buyumlar interneti (IoT) yosh miyalarni tarbiyalashning eng tejamkor usullaridan biri ekanligi isbotlangan. Bu, shuningdek, hamma uchun jahon darajasidagi ta'lim tajribasini integratsiyalashning mustahkam mexanizmidir[1].

SMART-texnologiyalar, ya'ni, aqlli-doskalar, aqlli-o'quv qo'llanmalari, aqlli-proektorlar, interaktiv va kommunikativ xarakterdagi elektron o'quv materiallarini yaratish va tarqatishning dasturiy ta'minotlari hamda IoT (Internet of things) -buyumlar internetining tizimlashgan xizmatini joriy etish ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitish jarayonida "Blended learning" – aralash ta'lim texnologiyasining "Flipped classroom" metodining amaliy tadbiri mukammal bo'lishligini ta'minlaydi.

Flipped classroom - o'rganish strategiyasi bo'lib, bunda talabalar yangi o'tiladigan mavzuni darsdan oldin mustaqil o'qiydilar, so'ngra dars vaqtida shu mavzuga oid munozaralar, muammolarni yechish usullarini muhokama qiladiki, bu ularga yangi bilimlarni yangilash va o'rganishga yordam beradi.

"Flipped classroom" metodi jihozlangan auditoriya modeli sifatida ham tanilgan bo'lib, an'anaviy auditoriyadan ikki jihatdan farq qiladi: birinchidan, u standart ma'ruzalarni faol va talabalarga yo'naltirilgan o'quv faoliyati bilan almashtiradi. Ikkinchidan, talabalarga darsdan tashqari mustaqil bilim olishlari uchun yozilgan ma'ruzalarni tomosha qilish yoki qisqa audiolarni tinglash orqali yangi tushunchalarni o'rganish imkoniyatini beradi[2].

McNally va boshqalar "flipped classroom"ni tashkil etuvchi to'rtta elementni sanab o'tadi: a) talabalarga darsdan oldin tarkibni o'rganishga yordam beradigan manbalar (masalan, yozib olingan onlayn videolar), b) talabalarni darsga tayyorlashga yordam beradigan strategiyalar (masalan, viktorina, munozara savollari), v) talabalarni baholash mexanizmi - tushunish (masalan, so'rovnomma) va d) talabalarga yo'naltirilgan ta'limni o'rganishga qaratilgan auditoriya faoliyati[3].

Lo va Hew larning ta'kidlashicha, "flipped classroom" modeli turli talabalarning ehtiyojlarini qondira oladigan strategiya[4]. Talabalar tushunib olishi uchun o'quv videolarini to'xtatib qo'yishi yoki takrorlashlari mumkin. Tarkibni allaqachon bilgan talabalar vaqtni tejash uchun ko'rsatma videoning bir qismini o'tkazib yuborishlari ham mumkin. O'qituvchilar dars vaqtini tabaqalashtirilgan holda dars berish uchun qo'llashlari mumkin. Ko'p guruhli ma'ruza mashg'uloti o'rniga o'qituvchilar, yakka tartibda, talabalarning birgalikda ish olib borishganlarida yordam berishlari mumkin.

Hozirgi vaqtda mobil ta'lim (m-learning) kabi ko'chma raqamli qurilmalardan foydalangan holda o'rganish bilim olish bilan bog'liq bo'lgan barcha kundalik faoliyatni qamrab oladi. Ta'lim innovatsiyalarini o'rganish ta'lim tadqiqotlarida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mobil texnologiyalar ta'lim

muassasalariga o'rganishda moslashuvchanlik, hamma joyda bo'lish va ko'chma kabi xususiyatlardan foydalanish imkonini beradi, bu esa yangi raqamli davrda o'qituvchilar va talabalar uchun katta foyda keltiradi.

Biz taklif etayotgan "Flipped classroom" metodini mobil ta'lim texnologiyalari bilan integratsiyasi ta'limning samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Hozirgi vaqtda mobil ta'limga o'zlarining qurilmalaridan foydalanish, ya'ni, BYOD (Bring Your Own Device) modeli keng tarqalgan.


BYOD modeli eng ommabop, arzon va qulay bo'lgan texnologiya bo'lib, qurilmani sotib olish, unga texnik xizmat ko'rsatish va tarmoqqa kirish xarajatlarini foydalanuvchilarning o'zlari to'laydilar. Natijada, BYOD loyihalari ko'pchilik mobil qurilmalarga ega bo'lgan joylarda tezda amalga oshirilishi mumkin.

R.Ballagasning "BYOD – Bring Your Own Device" ("O'z qurilmangizni o'zingiz bilan olib keling") asari nashr etilgandan so'ng jahon pedagogik jamoatchiligi o'quv mashg'ulotlarida talabalar tomonidan gadjetlardan foydalanish masalasiga duch keldi[5].

BYOD kontsepsiyasining ma'nosi shundaki, o'quv jarayonida mobil qurilmalardan foydalanishni taqiqlamaslik, aksincha, ruxsat berish kerak, bu esa talaba-talabalarni har tomonlama o'z noutbuklari, planshetlari va smartfonlarini darslarga olib kelishga undaydi. Agar ta'lim muassasalarida ushbu qurilmalardan foydalanish ta'qiqlansa, ular ta'lim oluvchilarni tobora ko'proq jalb qiladi va ularni chalg'itadi.

Auditoriyada mobil qurilmalardan foydalanishning ta'sirini muhokama qilishda qurilmaning o'zi emas, balki amalga oshirilgan harakatlar va ular sodir bo'lgan kontekst muhim omillardir. Potentsial faoliyatning kengligini hisobga olgan holda, tadqiqotchilar faoliyatni tasniflash va taqqoslash uchun asos qidirdilar. Bunday modellardan biri Puentedura tomonidan ishlab chiqilgan **SAMR modelidir** (1-rasm).

SAMR modeli texnologiyalardan foydalangan holda bajariladigan faoliyatni ular almashtiriladigan kundalik faoliyat bilan taqqoslaydi (masalan, qog'ozli kitob emas, elektron kitobni o'qish) hamda texnologiyadan foydalanishni o'rganish tajribasiga nima qo'shganini so'raydi.



1-rasm. Puenteduraning SAMR modeli

Puenedura to'rtta faoliyat darajasini taklif qiladi:

Almashtirish: texnologiya an'anaviy vositalar yoki auditoriyadagi mashg'ulotlar o'rniga qo'llaniladi, masalan, darslikning qog'oz nusxasini emas, balki onlayn elektron variantini o'qish.

Kengaytirish: texnologiya an'anaviy vositalar o'rnini bosadi, lekin ayni paytda topshiriq yozish uchun foydalaniladigan kompyuter matn protsessori kabi funktsionallikni biroz yaxshilaydi, tasvirlar yoki diagrammalarni kiritish imkonini beradi.

Ikkalasi ham ta'limni takomillashtirish hisoblanadi;

O'zgartirish: texnologiya sizga topshiriq uchun o'z-o'zini o'rganish uchun Internetga kirish kabi faoliyatni sezilarli darajada boshqacha tarzda bajarishga imkon beradi.

Qayta belgilash: texnologiya video, audio va boshqa ijodiy vositalardan foydalangan holda multimedia vositalarini yaratish kabi yangi, ilgari erishib bo'lmaydigan harakatlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Ularning ikkalasi ta'limni o'zgartiruvchi hisoblanadi.

R.R.Puenedura amaliy nuqtai nazardan, modelni auditoriyadagi faoliyatlar spektri sifatida ko'rish kerakligini ta'kidlaydi va o'rganishni chinakam o'zgartirish uchun texnologiyani qo'llab-quvvatlaydigan faoliyat faqat bitta faoliyatni almashtirishdan ko'ra ta'limni boshqasi bilan qayta belgilashga qaratilganligini taklif qiladi[6].

Auditoriyadagi har qanday yangilik barcha talaba-yoshlarga ko'p yoki kamroq darajada ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchilar talabalarning muvaffaqiyatini eng yaxshi tarzda qo'llab-quvvatlashida yangi texnologiyalardan to'g'ri va samarali foydalanishga oid ko'nikma hamda bilimlarga ega bo'lishi juda muhimdir.

Taklif etilayotgan tahlil bir qator sohalarda muhim ijtimoiy va amaliy ahamiyatga ega, jumladan: o'quv rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish; ta'lim muassasalarni texnik ta'minlash; o'qituvchilarning malakasini uzluksiz oshirish; onlayn xavfsizlik.

Ko'rib chiqilgan tadqiqotlarga asoslanib mobil ta'lim faoliyatini amalga oshirishda Mobile Blended Learning - aralash mobil ta'lim strategiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish metodikasini tavsiya etamiz. Bunda dastlab quyidagi tayyorgarlik ishlari e'tiborga olinishi kerak bo'ladi:

1. Ta'lim mazmunini, jumladan o'quv materiallarini, tarqatma va testlarni raqamlashtirish, ya'ni elektron variantga keltirish. O'quv materiallarini kontent yetkazib beruvchilari tomonidan taqdim etilishi tavsiya etiladi. Ta'lim muassasa o'qituvchilari o'quv varaqlarini ishlab chiqish va o'quv faoliyatini loyihalashga e'tibor berishlari kerak.

2. O'quv muhitini, jumladan, simsiz tarmoq va serverni sozlash. Agar ta'lim muassasalar talabalarga Internetga kirish imkoniyatini bera olmasalar, ba'zi vebga asoslangan ma'lumotlarni qidirish vazifalari real ma'lumot qidirish vazifalari bilan almashtirilishi mumkin, masalan, kutubxonadan tegishli kitoblarni topish, insonlardan intervyu olish, so'rovnomalar orqali ma'lumotlarni yig'ish yoki muayyan hududlarda kuzatuvlar olib borish.

3. Kurs birliklarini tekshirish va turkumlash. O'qituvchilar o'zlari o'rgatadigan kurs bo'limlarini o'rganishlari va bo'limlarni uchta o'quv toifasiga, ya'ni an'anaviy o'qitish, auditoriyada mobil o'qitish va maydon ichidagi mobil ta'limga ajratish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, ta'limda pedagogik metodlar va raqamli texnologiyalar integratsiyasidan foydalanib darslarni tashkil etish yangidan yangi pedagogik tafakkurlashni taqozo etadi. Zamonaviy pedagogda faqat keng ko'lamdagi, tizimli bilim, ko'nikma va malakalar talab etiladi. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lg'usi o'qituvlarni tayyorlashda o'zini-o'zi uzluksiz, doimiy ravishda rivojlantiruvchi, ijodkor shaxs bo'lishiga motivatsiya uyg'otish va e'tiborni kuchaytirish davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Keengwe, M. Bhargava, Mobile learning and integration of mobile technologies in education, Education and Information Technologies 19 (4) (2014) 737-746.

2. Long, T., Logan, J. & Waugh, M. (2016). Students' perceptions of the value of using videos as a pre-class learning experience in the flipped classroom. *TechTrends*, 60(3), 245-252.

3. McNally, B., Chipperfield, J., Dorsett, P., Del Fabbro, L., Frommolt, V., Goetz, S., Lewohl, J., Molineux, M., Pearson, A., Reddan, G., Roikos, A., & Rung, A. (2016). Flipped classroom experiences: Student preferences and flip strategy in a higher education context. *The International Journal of Higher Education Research*, 73(2), 281-298.

4. Lo, C. K. & Hew, K. F. (2017). Using „first principles of instruction“ to design secondary school mathematics flipped classroom: The findings of two exploratory studies. *Journal of Educational Technology & Society*, 20(1), 222-236.

5. Ballagas, R., Rohs, M., Sheridan, J. G., & Borchers, J. (2013). BYOD: Bring your own device. Retrieved from <http://www.vs.inf.ethz.ch/publ/papers/rohs-byod-2004.pdf>.

6. Puentedura, R. R. (2013, May 29). SAMR: Moving from enhancement to transformation [Web log post]. Retrieved from <http://www.hippasus.com/rrpweblog/archives/000095.html>

CHIZIQLI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN KOSHI FUNKSIYASI VA UNING CHEGARAVIY MASALALARNI YECHISHDA TADBIQLARI

Qurbanbaev Ó.O.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti,

Djakaeva K.D.

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti akademik liseyi,
"Matematika" kafedrası p.f.f.d.(PhD)*

Differensial tenglamalar nazariyasi hozirgi zamon matematikasining yirik sohalarining biridir. Ayni vaqitda oddiy differensial tenglamalar nazariyasi boy, keng tarmoqlangan nazariyadir. Bu nazariyaning asosiy masalalarining biri, tenglamaning berilgan qo'shimcha shartlarni, aytaylik boshlang'ich yoki chegaraviy shartlarni qanoatlandiradigan yechimining bor bo'lishini va uning yagonaligini izlash va mumkin bo'lgan holatda yechimning o'zini aniqlashdir [1, 2].

Bu maqolada yuqori tartibli chizikli bir jinsli bo'lmagan oddiy differensial tenglamalar ko'rib chiqiladi, shunday tenglamalar uchun chegaraviy shartlarni qanoatlandiradigan yechimni aniqlashning Koshi funksiyasiga asoslangan ayrim bir usullari ko'riladi.

Chiziqli bir jinsli emas

$$Ly = y^{(n)} + a_1(x)y^{(n-1)} + \dots + a_n(x)y = f(x) \quad (1)$$

differensial tenglamaning

$$U_i(y(x_1)) = \sum_{k=0}^n A_i^{(k)} y^{(k)}(a) = 0, \quad U_j(y(x_2)) = \sum_{k=0}^n B_j^{(k)} y^{(k)}(b) = 0 \quad (2)$$

turidagi chegaraviy shartni qanoatlandiradigan yechimini topish masalasini ko'raylik, bu yerda $f(x)$ funksiyasi va $a_k(x)$, $k = 1, 2, \dots, n$ koeffitsientlari ba'zi bir (a, b) intervalida uzluksiz bo'lgan funksiyalar, shuning bilan birga $i = 1, 2, \dots, \tilde{i}$ $j = \tilde{i} + 1, \dots, \tilde{j}$ deganimiz $1 \leq \tilde{i} < \tilde{j} \leq n$ shartini qanoatlandiradigan butun son (1) tenglamaga bir jinsli bo'lgan $Ly = y^{(n)} + a_1(x)y^{(n-1)} + \dots + a_n(x)y = 0$ tenglama uchun $y_1(x), y_2(x), \dots, y_n(x)$ funksiyalari fundamental yechimlar sistemasi bo'lsin. Bu holatda fundamental yechimlar sistemasi orasidan dastlabki $y_1(x), y_2(x), \dots, y_{\tilde{i}}(x)$ qismini (2) chegaraviy shartlarning birinchi qismini, qolgan $y_{\tilde{i}+1}(x), \dots, y_n(x)$ qismini bo'lsa (2) chegaraviy shartlarning ikkinchi qismini qanoatlandiradigan qilib tanlab olamiz va

$$K(x, t) = \frac{1}{W(x)} \begin{vmatrix} y_1(t) & y_2(t) & \dots & y_n(t) \\ y_1'(t) & y_2'(t) & \dots & y_n'(t) \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ y_1^{(n-2)}(t) & y_2^{(n-2)}(t) & \dots & y_n^{(n-2)}(t) \\ y_1(x) & y_2(x) & \dots & y_n(x) \end{vmatrix}$$

formula bilan aniqlanadigan $K(x, t)$ funksiyasini $K(x, t) = K_1(x, t) + K_2(x, t)$ ko'rinishda ikkiga ajiratamiz, bu yerda $W(x)$ deganimiz $y_1(x), y_2(x), \dots, y_n(x)$ fundamental yechimlar sistemasining Vronskiy aniqlovchisi. Bu holatda (1) tenglamaning (2) chegaraviy shartini qanoatlandiradigan yechimi

$$y(x) = \int_a^b K(x, t)f(t)dt = \int_a^x K_1(x, t)f(t)dt - \int_x^b K_2(x, t)f(t)dt$$

ko'rinishda aniqlanadi va $K(x, t)$ funksiyasi (1), (2) chegaraviy masalaning Grin funksiyasidir :

$$G(x, t) = K(x, t) = \begin{cases} K_1(x, t), & x \geq t, \\ -K_2(x, t), & x < t. \end{cases}$$

Misol uchun, mayli

$$y^{IV} = f(x), \quad 0 < x < 1 \quad (3)$$

tenglamasining

$$y(0) = y'(0) = 0, \quad y(1) = y'(1) = 0 \quad (4)$$

chegaraviy shartlarni qanoatlandiradigan yechimini topish masalasin ko'raylik, bu yerda $f(x)$ funksiyasi $x \in [0,1]$ uchun aniqlangan uzluksiz funksiya.

(3) ge bir jinsli tenglamaning fundamental yechimlar sistemasini

$$y_{bt.y.ye} = c_1 x^3 + c_2 x^2 + c_3 x + c_4$$

umumiy yechimi orasidan aksariyati (4) dagi chegaraviy shartlarning bittasini, qolganlari bo'lsa ikkinchisini qanoatlandiradigan qilib tanlab olamiz. Bunday xususiy yechimlar sistemasi xususiy holatda

$$y_1(x) = x^2, \quad y_2(x) = x^3, \quad y_3(x) = (x-1)^2, \quad y_4(x) = (x-1)^3$$

ko'rinishni oladi. Bu xususiy yechimlarning Vronskiy diterminanti, bizga ma'lumki $W(x) = 12$ bo'lganlikdan $K(x,t)$ funksiyasini quyidagicha

$$K(x,t) = \frac{1}{12} \begin{vmatrix} t^2 & t^3 & (t-1)^2 & (t-1)^3 \\ 2t & 3t^2 & 2(t-1) & 3(t-1)^2 \\ 2 & 6t & 2 & 6(t-1) \\ 0 & 0 & (x-1)^2 & (x-1)^3 \end{vmatrix} + \frac{1}{12} \begin{vmatrix} t^2 & t^3 & (t-1)^2 & (t-1)^3 \\ 2t & 3t^2 & 2(t-1) & 3(t-1)^2 \\ 2 & 6t & 2 & 6(t-1) \\ x^2 & x^3 & 0 & 0 \end{vmatrix} =$$

$$= K_1(x,t) + K_2(x,t)$$

deb yozishga bo'ladi. Bu yerda ko'rilyotgan (3), (4) chegaraviy masala uchun yechim

$$y(x) = \int_0^1 G(x,t) f(t) dt = \int_0^x K_1(x,t) f(t) dt - \int_x^1 K_2(x,t) f(t) dt$$

ko'rinishda aniqlanadi, bu yerda

$$K_1(x,t) = -\frac{1}{2}(x-1)^2(t^3 - t^2) + \frac{1}{6}(x-1)^3(3t^2 - 2t^3);$$

$$K_2(x,t) = -\frac{1}{2}x^2(t^3 - 2t^2 + t) + \frac{1}{6}x^3(2t^3 - 3t^2 + 1).$$

Xususiy holatda $f(x) = 1$ bo'lsa, u holda

$$y(x) = \frac{1}{24}x^4 - \frac{1}{12}x^3 + \frac{1}{24}x^2.$$

Adabiyotlar

1. Камке Э. Справочник по обыкновенным дифференциальным уравнениям, 6 изд., М.: Наука, 2003. стр. 576.

2. Наймарк М.А. Линейные дифференциальные операторы, 3 изд., М.: "Физматлит", 2010. стр. 528.

АҲОЛИ БИЛАН ИЖТИМОЙ ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯВИЙ ИШЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Қурбонова Зилола Алишер қизи
Oriental университети ўқитувчиси

Ижтимоий-тарихий ва илмий манбаларнинг гувоҳлик беришича, ўзбек оиласининг ҳаёти, ундаги ўзаро муносабатлар, унинг урф-одатлари, анъаналари ва қадриятлари, турмуш тарзи, маданияти, тарбиявий муҳити ва меҳнат шарт-шароитлари жиддий илмий муаммолар сифатида XX асрнинг 60-70 йилларидан эътиборан ўрганила бошланди. Ана шу йиллардаги дастлабки тадқиқотлар кўпроқ фалсафий, тарихий, этнографик йўналишдаги ва оиланинг тарбиявий ва меҳнат шарт-шароитларини ўрганишга қаратилган бўлса, кейинги тадқиқотлар ўз характерида кўра, оиланинг маданий, ҳуқуқий, тиббий, унинг турмуш тарзи, ундаги тарбия муҳитининг аҳамияти, ўзаро муносабатларнинг психологик қонуниятларини ўрганишга қаратилганлиги билан ажралиб туради. Мазкур тадқиқотлар сирасига қуйидагиларни келтириб ўтиш ўринлидир. Жумладан, Х.Тоштемиров (1977, 1980), Л.С.Яхёев (1980), Г.М.Ҳамидова (1984), Т.Т.Тўйчиева (2000), М.Холматова (2000)лар томонидан оилавий турмушнинг фалсафий жиҳатлари, оила-никоҳ муносабатларининг такомиллашиш анъаналари ва ҳозирги замон ўзбек оиласининг турмуш тарзи ўрганилган. Ш.А.Исроилов (1979), Ф.М.Отахўжаев (1995) ва бошқалар ўз тадқиқотларида ўзбек аёлларининг ҳуқуқий масалалари, оила-никоҳ муносабатларининг ҳуқуқий жиҳатларини ўрганганлар. М.Р.Бўриева (1997) ўз тадқиқотларида ўзбек оиласининг демографик жиҳатларини тадқиқ этган.

Оилавий ҳаёт психологияси, оила-никоҳ муносабатлари, оиладаги ўзаро муносабатлар, ундаги зиддиятлар, ажралишлар ва унинг оқибатлари кейинги йилларда психология фанининг кенг тадқиқот объектига айланиб бормоқда.

Баъзи ҳолларда мижоз тури жиҳатидан келин-куёвлар мос келмаса-да, лекин улар орасидаги ҳиссиёт кучи, психологик-педагогик билим савияси, оилавий ҳаётни мустаҳкамлашга интилиш, тарбия ва маданий савия даражаси, ўзаро муносабат маромлари уларнинг ўзаро қовушишини, оиланинг мустаҳкамлигини таъминлай олади.

Э.Ғозиевнинг (1992, 2002) оилавий ҳаёт муаммолари соҳасида олиб борилаётган тадқиқотлари диққатга сазовордир. Олимнинг таъкидлашича, оилавий муносабатлар турли негиз; иқтисодий, мафкуравий, ҳиссий

иродавий, ахлоқий-ақлий, қариндош-уруғчилик, яқинлик ва дўстлик-биродарлик асосида қурилади. Ана шу негизлар бақувват оилада эр-хотин тотувлиги, оила барқарорлиги, оиланинг бахти ва фаровонлиги таъминланади. Олимнинг фикрича, ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашда ёки янги оилалар қуришда ана шу муҳим асосларга эътибор бериш ва баъзи бир нарсалардан огоҳ бўлиш зарур. "Оила бут бўлиши учун биринчи навбатда, шахслараро тенгликни қарор топтириш керак. Икки ёш, яъни бўлғуси куёв-қайлиқлар бир-бирларини чуқурроқ ўрганишлари, айрим нуқсонлардан кўз юмушлари зарур. Ёшларни қийинчиликларни енгишга, ўзгача шарт-шароитга кўникишга болалиқдан ўргатиб бориш лозим. Энг муҳими улар ўртасида чин муҳаббат бўлиши даркор. Оилада меҳнат тақсимотини тўғри йўлга қўйиш айна муддаодир".

Таълим-тарбия муҳитидаги ҳаёт - инсоннинг кейинги ҳаётида давом этувчи жараён ҳисобланади. Бутун ҳаёт соҳасига қандай тузилмалар таъсир этишига қараб, шахснинг ривожланиш натижаси, шахснинг атрофидаги дунё ва одамлар билан онгли муносабати белгиланади.

Ижтимоий педагогика соҳасидаги олимлар ва амалиётчиларнинг тадқиқотларида ижтимоий-тарбиявий фаолият тушунчасининг тўртта асосий таркибий қисми ажралиб туради, улар: шахс билан индивидуал ишлаш, гуруҳларда ишлаш, жамоада, оилавий-қўшничилик жамиятида ишлаш, жамоатчилик ва давлат даражасидаги ижтимоий сиёсат.

Оилавий-қўшничилик жамиятидаги ижтимоий-тарбиявий сиёсатнинг янада муҳим вазифалари Чирчиқ шаҳрининг ижтимоий соҳа мажмуаси Қўмитаси ва бўлимлари, давлат муассасалари ва жамоат бирлашмалари ёрдамида ҳал қилинади. Яшаш жойидаги ижтимоий-тарбиявий ишлар тизимда ижтимоий тарбия ҳар бир одамга яқин ва тушунарли, чунки у "кичик ватан", "фуқароликнинг шаклланиши" тушунчалари билан боғлиқ. Бу ерда бизнинг оилаларимиз яшайди, фарзандларимизни шу ерда тарбиялаймиз. Кўриниб турибдики, бу борадаги ишлар ижро ҳоқимияти ва ўзини ўзи бошқариш органларидан жиддий эътиборни талаб қилади.

Микромуҳитнинг турли соҳаларида амалга ошириладиган ижтимоий тарбия устувор соҳа ҳисобланади, унда шахс ривожланади, барча тоифадаги аҳоли ҳаёт давомида ижтимоий ривожланиб боради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. William L. Cook, David A. Kenny. Application of the Social Relations Model to Family Assessment. Source: Journal of Family Psychology, Vol. 18, No. 2, p. 361–371. Impactfactor:
2. Арпабаева Д, Арпабаева В. Шарқ мутафаккирларининг оила ва тарбия ҳақидаги қарашлари. Замонавий таълим журнали. 2015 й. 68 б.
3. Исматуллаева Н. Конфуций таълимотларида "комил инсон"

тушунчаси талқини. “Ўзбекистон-Хитой: тарихий-маданий, илмий ва иқтисодий алоқалар ривожини халқаро илмий-амалий конференция. – Тошкент: ТошДШИ, 2018.

ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN TA'LIM TIZIMIDA FOYDALANISH VA CHET EL O'QITISH METODIKALARINI QO'LLASH

Qurbonova Sevinch Salim qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Shukurova Shohsanam Qaxramon qizi (ilmiy rahbar)

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining inson hayotida tutgan o'rni juda katta. Ayniqsa, ta'kidlash kerakki, texnologiya XXI asrning muhim bir kashfiyotlaridan biridir. Hozirda turli xil davlatlarda ta'limni rivojlantirish maqsadida zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Xususan, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida, masalan, Amerika, Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya shu kabi rivojlangan davlatlarda texnologiyalardan foydalanish, ta'lim tizimida keng yo'lga qo'yilgan. Misol sifatida shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, Buyuk Britaniyaning Cambridge va Oxford universitetlarida yo'lga qo'yilgan turli sohalar va darslar odatda zamonaviy texnologiyalar yordamida olib borilishi.

Yaqin 5 yil muddat davomida O'zbekistonga kirib kelayotgan rivojlangan universitetlarning filiallari soni oshayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa davlatning ta'lim sohasida rivojlanayotganligidan darak beradi. O'zbekistonda chet el universitetlari filiallariga misol sifatida, Westminster International University in Tashkent (WIUT), Turin Polytechnic University in Tashkent, YEOJU technical institute in Tashkent, Management Development Institute of Singapore in Tashkent, British University in Tashkent va boshqalar. Yuqorida eslatib o'tilgan rivojlangan universitetlarning O'zbekistondagi filiallari bo'lib qarib 10 yildan oshiq faoliyat yuritib kelmoqda va ta'limning rivojlanishiga hissa qo'shmoqda. Bu universitet filiallarida quydagi sohalar bo'yicha ta'lim beriladi; ekonomika ya'ni iqtisodiyot, business administration, commercial law, economics with finance, business information systems, mechanical engineering, industrial and civil engineering yo'nalishlar mavjud va darslar interaktiv doskalarda o'tiladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishida katta hissa qo'shayotgan sohalardan biri bu, IT yo'nalishidir. Bu sohaning O'zbekistonga kirib kelishi, ta'lim va texnikaga o'zining ta'sirini ko'rsatdi. IT sohasi hozirda keng javhada rivojlangan bo'lib, "IT" so'zining mazmuni **"information technology"**

so'zining qisqartirilgan shakli bo'lib, **“axborot texnologiyalari”** deb ataladi. Qisqa qilib aytganda jamiki hamma texnologiyalar, telefon, kompyuter, televizor barchasi IT sohasida hisoblanadi. Bu texnologiyalarni rivojlantirishda va ta'lim tizimiga olib kirishda sa'y-harakatlar qilinmoqda. Masalan, boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim, litsey va oliygohlarda interactive doskalar orqali ta'lim tizimini yo'lga qo'yishda yangi strategiyalar va farmonlar ishlab chiqilmoqda.

Darhaqiqat, bugungi kunda bir qancha imkoniyatlarni o'z ichiga olgan xalqaro sertifikatlar, ya'ni, til bilish darajasini baholaydigan imtihonlar har oyda (yilda) olinadi. Bu sertifikatlar orqali grant yutish va chet el universitetlarida bepul o'qish va tajriba orttirish imkoniyatiga erishish mumkin. Bu esa til o'rganayotgan yosh o'quvchilar va talabalar uchun keng imkoniyatlar kaliti hisoblanadi. Shuning bilan birga nufuzli universitetlarda ikkinchi va undan yuqori bosqichlarda o'qiyotgan talabalar uchun ham oliy o'quv ta'limining qolgan yillarini imtihon topshirib grant yutish orqali chet el mamlakatlarining mashhur oliygohlarida o'qish va talaba kelajagi uchun keng imkoniyatlar beradi. Bundan tashqari, xalqaro universitetlar bo'ylab talaba almashinuvi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu islohot ham chet tillarini o'rganayotgan talaba uchun katta yutuqlardan biri hisoblanadi.

Darvoqe, hozirda chet el universitetlarida qo'llanilayotgan va O'zbekistonga ham kirib kelgan **“kredit modul tizimi”** bo'lib, bu tizim o'zi ichiga shaffoflikni va ta'lim tizimini yaxshilashga moljallangan tizimdir. Bu tizimda, talaba olayotgan baholar va davomat foizlarda namoyon bo'ladi. Bu modul zamonaviy texnologiyaning yorqin namunasi. Ma'lumot o'rnida eslatib o'tish kerakki, O'zbekiston respublikasining prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 24-dekabrda qaroriga ko'ra, “Oliygozlarning akademik va tashkiliy boshqaruvni ta'minlash bo'yisha qator sa'y-harakatlar olib borildi va 2022-yil yanvar oyidan boshlab 35 ta va undan ortiq muassasalarda bu tizim keng yo'lga qo'yildi”. Bundan tashqari, bu modul tizim yo'lga qo'yilgan universitetlarda seminar kurslar tashkil etildi. Misol sifatida Navoiy davlat pedagogika institutida ta'til va turli dam olish kunlarida dekanlar, kafedra mudirlari va professor-o'qituvchilari uchun “Kredit-modul tizimi va HEMIS platformasi” haqida darslar tashkil etilgan. Bugungi kunda bu tizim ayniqsa oliygohlarda o'z samaradorligini ko'rsatibgina qolmay, shu bilan birga o'qituvchilar uchun foydali va shaffoflikni ta'minlab beradigan yagona platformadir.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Dasturlash>
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Kredit-modul_tizimi
3. <https://oliygoh.uz/post/top-ten-universities>
4. <https://xs.uz/uz/post/olij-talimda-kredit-modul-tizimi-qandaj-samara-beradi>

5. <https://winpcguide.ru/uz/useful-programs/chto-takoe-aiti-sfera-it-sfera---chto-eto-za-sfera-deyatelnosti-it-lyudi-i/>

INTEGRATING PHYSICAL ACTIVITIES IN ENGLISH CLASSES

Kurbanova F.K.

English teacher at CSPU (scientific advisor)

Malikov Doston

3rd course student at CSPU Primary education faculty

When you incorporate physical activities in your ESL class, you will provide your students with an outlet for all their energy that other teachers don't allow them to release. A short period of exercise will make students more willing to sit still for another 10 to 15 minutes while you give your lesson. Just think, three to five minutes of physical activity that incorporates language can give you 15 minutes of quiet, organized class time.

And your students will use their language skills during and after the physical activity, increasing the total time spent learning. During physical activities in class, you will give students instructions - they will have to listen to participate in the activity. There will also be a spoken component to the activity to add to their language skills. In some cases, you can incorporate reading activities, thus including three of the four skills students need to use to learn English.

Because of the correlation between the English words and the physical response, the students will recognize words and phrases more easily. With a word as simple as "wave," you can get your students to listen, speak or act depending on the prompt. Most importantly, using these physical activities in an ESL class will create a fun atmosphere for the students. Students who find a class fun are more likely to be attentive during lessons and retain the information better. It can also turn you into a more popular teacher at school.

When incorporating physical activities into your ESL class, you can either do full class activities where everyone's participating, or have an individual do one of the activities. Individual activities will be a little more difficult for some classes, especially larger ones. You have to know when you can use them and how to maintain control of the other students while one student is performing the activity.

Singling out one student to perform an action in front the class (though it's easier and less embarrassing to have the student do it in front of his/her desk) is usually best reserved for a warm-up, introduction or review lesson.

If you're just introducing new vocabulary to be acted out, you may want to call on the better students who are more likely to already know the words and actions. You may, however, just choose a more outgoing student who wouldn't mind being moved around by the teacher as a demonstration. During a review, you can call on the struggling students to help reinforce the concepts.

But the best way to allow students to expend all of their excess energy in class is through activities that involve the entire class at the same time. These types of activities can depend on the number of students, size of the classroom and layout of the classroom. As you grow more comfortable in your space, you will know which activities will work and how to organize them in the space you have.

Think of it as a theater project—you are the director and you have to work with what you're given. Here we will provide some effective methods for physical tasks with students.

5 Fun Physical Activities to Get Your ESL Class Moving and Grooving

1. Teach verbs through motion. This is when you can teach verbs to the entire class. If you're teaching actions that can be performed in a small space, this is a perfect opportunity to get your students to act them out. So after teaching your students words such as "jump" or "throw," you can ask your students to show you what these words mean. As you watch your students perform these actions, you can also see who knows what to do immediately and which students need to follow the rest of class—now you'll know who needs more help understanding vocabulary.

If you're using words that require a level of interpretation and imagination, such as "dance," you could have a bit more fun. Students love to show off in some of the most ridiculous ways—they'll appreciate seeing you laugh when their dance style is absurd (let them go, they can learn to dance when they're older). This is also an opportunity for you to return to childhood games that require physical activity. You can teach your students parts of the body and actions through a game of Simon Says.

2. Reading and acting verb competition. A variation of this first activity could be done in teams. Using the competitive nature of the students, you can determine which group of students can best perform each action and arbitrarily award points depending on performance and overall behavior. This basic game should have only two teams, no matter the size of the class. The game itself should only take 10 to 15 minutes.

1. Hold up a word or phrase for one team to read without showing the other.
2. When the first team correctly reads the word or phrase, the other team will have to act it out.

3. You can award a point for the team correctly reading and another for the team correctly acting it out.

You can also reverse the activity by playing charades and having the opposing team guess the action. Another variation of the game includes showing the first team a picture that portrays an action and have a student from the team write the word or phrase on the board. The second team would then act out the word or phrase. Have fun trying these out and see what works best with your students!

3. Acting out dialogues. In smaller groups, especially with students who are a little beyond beginners, you can use short dialogues for students to act out. It can be a fairly simple dialogue, such as “Where is the library?” or “May I borrow a pencil?” These should be dialogues that students have read before, so they’re more familiar with the phrases and actions associated with them. There usually won’t be as much movement here as you would have with the previous two activities, but there’s still enough such that the students aren’t stuck in their seats for an entire class period.

You can call two students at a time (sometimes three or four depending on the dialogue) to the front of the room. Provide them with a prompt to begin the dialogue (i.e. ask one another for directions or about each other’s hobbies). If it’s a dialogue that involves props, such as “May I borrow a ...?,” it may help reinforce the vocabulary by forcing the students to pick the correct item for the dialogue.

4. Twister variations. Everyone loves Twister, but it’s not something you can play with an entire class. There are, however, variations that can be used in class to get the students moving and thinking. You can use anything from colors and shapes to words and phrases that you place on the floor (use laminated versions and tape them to the floor so they don’t slide around). Make them large enough or make multiples so every student has an opportunity when playing. You or a chosen student calls out the word/color/shape/etc. and the class rushes to step on or place a hand on that card stuck to the floor. You can also show a color or shape and have the students find the matching word on the floor.

Note: You should not actually turn this into a traditional game of Twister as it could lead to more problems with students pushing and hurting each other.

5. Jump to the front. This game works with groups of three to five students at a time. You can break your class into teams and award points based on the results of each round. As with other games, you can hold up a picture and have the students say or write the corresponding word or phrase. The first student to answer correctly gets to jump a space ahead (three or four answers should win the round). At each jump forward, there should be a card that the student must pick up and read. If the student reads it correctly, he or she stays in that spot for the next question. If the student reads it incorrectly, he or she must jump back. Replace the card if the student gets it incorrect. This simple game also keeps other

students paying attention because they must behave to join in the game for subsequent rounds.

No matter how you include movement in your classroom, it will improve the overall performance and behavior of your students. They will make connections between English words/phrases and actions, while expending enough energy to sit still during the rest of the lesson. The creation of a fun classroom atmosphere will also encourage students to pay attention and learn more, so add some movement to your ESL class today!

References:

1. Álvarez-Bueno C, Pesce C, Caverro-Redondo I, Sánchez-López M, Garrido-Miguel M, Martínez-Vizcaíno V. Academic achievement and physical activity: a meta-analysis. *Pediatrics*. 2017; 140(6):e20171498.

2. Biddle SJH, Asare M. Physical activity and mental health in children and adolescents: a review of reviews. *Brit J Sports Med*. 2011;45:886–95.

3. Babic M, Morgan PJ, Plotnikoff RC, Lonsdale C, White RL, Lubans DR. Physical activity and physical self-concept in youth: systematic review and meta-analysis. *Sports Med*. 2014; 44: 1589–601.

4. Janssen I, LeBlanc AG. Systematic review of the health benefits of physical activity and fitness in school-aged children and youth. *Int J Behav Nutr Phys Act*. 2010;7(40). <https://doi.org/10.1186/479-5868-7-40>.

5. Poitras VJ, Gray CE, Borghese MM, Carson V, Chaput J-P, Janssen I, et al. Systematic review of the relationships between objectively measured physical activity and health indicators in school-aged children and youth. *Appl Physiol Nutr Metab*. 2016;41(6): S197–239.

JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASI RAHBARLARIGA XOS BOSHQARUV KOMPETENSIYALARI

Mamadaliyev Abror Akbarjonovich

Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotshisi

Mamlakatimizning sotsial-iqtisodiy sohasida oxirgi yetti yillikda ro'y bergan keng qamrovli islohotlar, ya'ni "Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" g'oyasini keng targ'ib etish qaratilgan 100 ta maqsadga erishish kontekstida "Davlat – inson uchun" g'oyasini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Va bunda "biz o'n yillar, asrlar davomida amal qilib kelingan "davlat – jamiyat – inson" tamoyilini "inson – jamiyat – davlat" tamoyiliga o'zgarayotganligida o'z ifodasini ko'rayapmiz. Zero,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Bugun hayotning o'zi bizdan professional, tezkor va samarali davlat xizmati tizimini shakllantirish, yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor, el-yurtga sadoqatli kadrlarga keng yo'l ochish bo'yicha samarali tizim ishlab chiqishni talab etmoqda" degan konseptual fikrlari jismoniy tarbiya va sport sohasi rahbar va boshqaruv kadrlar tizimi faoliyatini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etishni taqozo etmoqda.

"2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 1-bo'limini "Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini "fuqarolarga xizmat qilishga yo'naltirish" tamoyili asosida transformatsiya qilish" 4-maqсадida [1] boshqaruv kompetensiyalarini takomillashtirishga alohida urg'u berilgan.

K.M.Zakkarning tadqiqotlarida ko'ra, "rahbar (ta'kid – M.A.) "men xohlayman" hissi bilan emas, balki "men buni qilishim kerak" mazmunida harakat qilishi kerak va ... bu holat ularda shakllangan qobiliyat, tajriba, malakada namoyon bo'luvchi qator psixologik xususiyatlar, ya'ni boshqaruv kompetentligi bilan uzviy bog'liq hisoblanadi" [2; 13].

V.M.Karimova va boshqalarning ta'kidlashlaricha, "boshqaruv ilmining nazariy tarixiy asoslari o'z mazmunida boshqaruv tamoyillari, boshqaruv usullari, guruhlardagi rahbarlik va liderlik masalalari, liderlik uslublari, superliderlik fenomeni, rahbarlik sifatlari, rahbarlikka loyqlikni baholovchi mezonlar, boshqaruvchiga xos kompetensiyalar tasnifi kabi masalalarning iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik jihatlarini to'liq qamrab olishi lozim" [3; 25-27].

O.E.Hayitovga ko'ra, jismoniy tarbiya va sport rahbarlariga xos ijobiy fazilatlar (xislatlar) va xususiyatlar (sifatlar)ga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qila olish malakalari, quyidagi majmuaviy kompetensiyalar turi bilan uzviy bog'liq:

- professional kompetensiya;
- ijtimoiy-psixologik kompetensiya;
- ijtimoiy-informatsion kompetensiya;
- kognitiv kompetensiya;
- maxsus kompetensiya;
- kommunikativ kompetensiya;
- autopsixologik kompetensiya;
- uslubiy kompetensiya;
- madaniy kompetensiya [4; 17].

M.U. Atamuratov qayd etishicha, "rahbar kadrlarning kasbiy muvaffaqiyatini belgilaydigan eng muhim boshqaruv kompetensiyalari yillar davomida shakllanib

boradi ... "Boshqaruv kompetensiyalar modeli"ning tarkibidan quyidagilar o'rin oladi:

- zarur bilim va ma'lumotlarni bilish uchun dunyoqarashning kengligi;
- muammoni aniq tushunishi uchun tahlil va idrokning kuchliligi;
- vaziyat o'zgarishiga moslashish;
- ish samaradorligini ta'minlash uchun tashkilotchilik;
- o'z pozitsiyani ilgari surish uchun o'ziga bo'lgan ishonch;
- natijadorlikka intilish;
- boshqalarning nuqtai nazarini tushunish uchun zarur bo'lgan sezgirlik;
- boshqalar bilan ishlash uchun hamkorlik;
- uzoq muddatda g'alaba qozonish uchun sabr-toqatlik bo'lish" [5; 28-31].

Muallifning fikricha, "Boshqaruv kompetensiya modeli tashkilotning boshqaruvi samaradorligini belgilovchi mezonlar bilan bevosita bog'liq. Har bir kompetensiya boshqaruv kompetensiyasi tegishli xulq-atvor ko'rsatkichlari to'plami hisoblanadi" [5; 31].

Global pandemiya holati barcha rahbarlar singari, jismoniy tarbiya va sport sohasi rahbar kadrlari oldiga ham bir qator yangi professional talablarni keltirib chiqardi. Xususan, rahbar kadrlar nafaqat sport boshqaruvi sohasida, balki kasbiy faoliyatida, sanitar-epidemiologik vaziyatni boshqarish bilan bog'liq kompetensiyalarni ham bilishligi shart bo'li qoldi. Masalan, Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti Yevropa mintaqasi sog'liqni saqlash tizimidagi rahbarlar uchun yangi kompetensiyalar modelini ishlab chiqqanligini guvohi bo'lish mumkin.

Mazkur kompetensiyalar modeli tarkibi uch qismdan iborat bo'lib, "*Boshqaruvning mazmuni va konteksti*" deb nomlangan 1-qismda:

- boshqaruv jarayonida fan va amaliyot uyg'unligi;
- salomatlikni mustahkamlashga doir boshqaruv qarorlarini qabul qilish;
- boshqaruv jarayonida qonunchilik, davlat strategiyasi va kasb etikasiga amal qilish;
- boshqaruvda jarayonida yagona sog'liqni saqlash tamoyili va sog'liq xavfsizligiga amal qilish kabi 4 ta kompetensiyani;

"*Boshqaruv jarayonida munosabat va o'zaro aloqalar*" deb atalgan 2-qismida:

- yetakchilik va tizimli fikrlash;
- hamkorlik va sheriklik;
- muloqot, madaniyat va targ'ibot-tashviqot ishlari kabi 3 ta kompetensiyani;

"*Boshqaruv natijalari va yutuqlari*" deya atalgan 3-qismda ham:

- resurslarni boshqarish va strategik rahbarlik;
- professional rivojlanish va etika normalari asosidagi refleksiv amaliyot;
- "aqli moslashuvchanlik" va tashkiliy masalalarda savodxonlik kabi 3 ta kompetensiyani, hammasi bo'lib 10 ta kompetensiyani o'z ichiga qamram olgan [6].

Umuman olganda, har qanday “kompetensiyalar modeli” – bu kasbiy faoliyatda namoyon bo‘lishiga ko‘ra o‘ziga xos ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan kompetensiyalar ro‘yxatidir. Fikrimizcha, kompetensiyalar modeli jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat yuritayotgan rahbar kadrlarning boshqaruv darajasi, lavozimi va bajaradigan vazifalariga, ya’ni bir so‘z bilan aytganda “Jismoniy tarbiya va sport sohasining tarmoq malaka ramkasi”da keltirilgan kasbiy va xulq-atvor talablarini aniq belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/-6396146>

2. Заккар, К.М. (2002). Принятие решений в системе организационного управления. Дис. ... канд. социол. наук: 22.00.08. Москва, МПГУ, 250.

3. Karimova V.M., Hayitov O.E., Umarova N.Sh. (2008). Boshqaruv sohasidagi professional kompetensiya asoslari. Monografiya. / Prof. V.M. Karimova tahriri ostida. *Toshkent: Fan va texnologiyalar*, 128.

4. Hayitov O.E. (2020). Rahbar psixologik kompetentligini modellashtirishning nazariy-ilmiy asoslari (oliy ta’lim muassasalari o‘rta bo‘g‘in rahbarlari misolida): monografiya. / O.E. Hayitov [Matn]. *Toshkent: “Ilm ziyo zakovati”*, 192.

5. Атамуратов, М. (2021). Компетентность управления как фактор, обеспечивающий эффективность деятельности менеджера. *Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук*, 1 (3), 9.

6. <https://climate-adapt.eea.europa.eu>

KOSMONIM SO‘ZLAR ISHTROK ETGAN FRAZELOGIZMLARNING GENEZISI HAMDA ILMIY O‘RGANILISHI

Mamarasulov Akmal Mamatojievich
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchi

Har bir halq va tilning qadimdan nutq jarayonida foydalanib kelgan o‘z tili mavjud. Bu tilning rivojlanishi uchun shu halqning o‘z olimlari tomonidan tuzilgan til bo‘yicha soha yo‘nalishlari lug‘atlari tuzib chiqilgan. Bu lug‘atlar o‘z navbatida so‘z, frazeologizm, maqol, birikma, ibora, gap, ma’no, mazmun, mohiyat, xususiyat, o‘xshashlik, qarama-qarshiliklar tarkibini kelib chiqishi nuqtai nazardan avvalo tarixiy jihatdan o‘rganishni talab etadi. Xuddi shuningdek o‘zbek va nemis tillarining o‘z ona tilidan kelib chiqib, yo‘nalishga mos bo‘lgan

lug'atlar o'rganib chiqiladi. Ushbu lug'atlardan foydalangan holda sohaga qarashli bo'lgan kosmonim haqidagi frazeologizmlarga asosiy e'tiborni qaratamiz. Bunday kosmonim so'zli iboralar o'zbek va nemis tillarida qadimdan mavjud bo'lgan nomlardir. Shu sababli ham kosmonimga tegishli bo'lgan so'zlar har ikkala tillar leksikasining asosiy o'zagini tashkil etadigan eng qadimiy qatlam uchun asos hisoblanadi. Bu ikki tillarning lug'at tarkibiga turli vaqtlarda, turli bosqichlarida turli yo'llar bilan ta'sir etgan so'zlar qiyosiy o'rganiladi. Shunga ko'ra, nemis va o'zbek, o'zbek va nemis tiliga o'zlashgan so'zlarning soni ham turli bosqichlarda rivojlanib borganligini ko'rishimiz mumkin.

Tilshunoslikda ilmiy tadqiqot yo'nalishlarini aniq sohalarga bo'lib o'zaro chuqur o'rganib borish jarayoni asosan XXI asrning boshidan fanning belgilovchi, bir-biridan farq qiladigan aniq xususiyatlaridan biri sifatida yuqori darajada juda ham tez rivojlanib kelmoqda. Ijtimoiy-Gumanitar fanlar sohasida bu ajratishga intilish ifodasi madaniyatshunoslikning jadallashishiga sabab bo'ldi, natijada uning predmeti sifatida madaniy jarayoni shaxs faoliyatining barcha turlarini o'z ichiga qamrab oldi.

Dunyoning milliylik mazmunini tildagi mavjud ma'no bildiradigan barcha tillar uchun tushunarli bo'lgan kalit so'zlar orqali tushunish mumkin. Demak, ayrim so'zlar xalqning o'ziga xos madaniyatining ayrim xususiyatlarini aks ettirishi mumkin. Anna Vejbitskaya "turli tillardagi so'zlarning ma'nolari bir-biriga to'g'ri kelmaydi (yaxshiroq yo'l yo'qligi sababli ular lug'atlarda sun'iy ravishda bir-biri bilan yozishmalarga kiritilgan bo'lsa ham), ular hayot tarzini aks ettiradi va insonlarga yetkazadi. Ma'lum bir jamiyatga (yoki til jamoasiga) xos bo'lgan fikrlash tarzi va ular madaniyatni tushunish uchun bebaho kalit so'zlardir" deb ta'rif beradi [1].

Yuqoridagi fikrdan shuni tushunish mumkinki, jahon xalqlarining millat, elat, ulus, halq sifatidagi o'rni va milliy umumiyliklaridan kelib chiqib, kundalik faoliyatida, doimiy, tez-tez, vaqti-vaqti bilan bir-birlari bilan muomalada bo'lishlarida ishlatiladigan "kalit so'zlar" mavjud bo'lib, bu gap, so'z, frazeologik birlik, ibora, maqol, aforizm va xokozolar yordamida ham o'ziga hos jihatlari va hususiyatlarini ifodalashini, tasvirlanishini idrok etish mumkin. Bir-birlarini tushunishda halqlar halqlar bir-biri bilan muomala jarayonida mimika, belgi, so'z, iboralar orqali jamiyat hayoti, turmush tarzi, halq sharoiti va madaniyati kabi tushunchalar kalit so'zlarni o'zida qisman yoki to'liq mujassam eta oladi deb ayta olamiz.

Frazeologizmlar tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida shakllanishiga rus tilshunosi V.V.Vinogradov tomonidan asos solingan. U frazeologik birliklarni semantik xususiyatlariga ko'ra tavsiflab, ularni uch guruhga ajratib tahlil qilgan:

- frazeologik chatishma (to'liq ko'chma ma'noga ega, semantik jihatdan qismlarga ajralmaydi, umumiy ma'nosi komponentlar leksik ma'nosidan kelib chiqmaydi;

- frazeologik birikmalar (yaxlit ko'chma ma'noga ega, umumiy ma'nosi komponentlar ma'nosidan kelib chiqishi mumkin;

- frazeologik birlik dunyo rasmlarida (qisman ko'chma ma'noga ega, komponentlari osongina ajratilishi yoki sinonimlariga almashtirilishi mumkinligi haqida fikr bildirgan [2].

Yuqoridagi guruhlarga ajratilgan frazeologik birliklarni semantik xususiyatlariga ko'ra uch guruhga ajratib tahlil qilinganligini misollar asosida ko'rib o'tamiz:

1) frazeologik chatishma bu to'liq ko'chma ma'noga ega bo'lishi, ma'no anglatishi bilan bo'limlarga ajramaydi, barcha ma'nosi frazeologizm tizimlarini leksik ma'nosidan kelib chiqmaydi:

Masalan: boshi osmonga yetdi - biror ish, voqea, hodisa, yutuqdan xursand bo'lmoq: ko'ngli sevinchga to'ldi, og'zi-burni qulog'ida, do'ppini osmonga otmoq, xursand bo'lmoq ma'noni ifodalaydi;

2) frazeologik birlik sodda ko'chma ma'noga ega, to'liq ma'nosi frazeologizm tizimlarini ma'nosidan kelib chiqishi mumkin:

Masalan: yulduzni benarvon urmoq - maqsadga erishmoq, uddaburon, ishbilarmon, ishni ko'zini biladigan: har qanday yo'l bilan o'z ishini bajaradigan inson ma'nosi tushuniladi. O'z ishini bitirish uchun xavfdan ham qo'rqmaydigan sho'x shaxslarga nisbatan qo'llanadi. Bu iborada ishlatilish o'rniga qarab o'xshatish yo'li orqali salbiy xarakterdagi shaxsni ham tushunish mumkin. Ushbu ibora yulduzni umuman nishonga olib bo'lmaslik, narvon bilan yulduzga yetib borish mumkin emasligi kabi mazmunlar qamrovida inson hulqi va xarakterini o'zida ifodalab kelgan;

3) frazeologik birikma jahon rasmlarida to'liq bo'lmagan ko'chma ma'noga ega, ya'ni frazeologizm tizimlarni osongina bo'linishi yoki unga mos keladigan birliklarga almashtirilishi mumkin:

Masalan: yaxshi yoki yomon yulduz ostida tug'ilmoq - omadi boqdi yoki omadi kelmadi: ba'zi insonlar hayotda omadli bo'lib yutuq, muvaffaqiyatga erishadi, (bu yaxshi yulduz ostida), ba'zi insonlar esa hayotda omadsiz bo'lib yutuqqa, muvaffaqiyatga erisha olmaydi (bu yomon yulduz ostida) tug'ilgan.

Jahon tilshunosligida frazeologizmlarni tarixiy davrlardan muomalaga qachon kiritilganlik genezisini o'rganish olimlar tomonidan adabiyotlarda aniq vaqt hamda dalillar bilan ko'rsatib berilmagan. O'zbek va nemis tilidagi osmon jismlari nomi qatnashgan ba'zi iboralarni quyida ko'rib chiqamiz:

“Osmon” - ko'k, samo, falak o'zbek tilining izohli lug'atida berilgan.

Yer ustida gumbaz shaklida ko'rinib turgan moviy fazo kabi so'zlar bilan ifoda qilingan. Bu qatorga o'zbek tilida tushunarli bo'lgan kundalik faoliyatda halq tomonidan ishlatilayotgan gardun, charx, bulutli osmon, moviy bulut, ko'm-ko'k osmon, musaffo osmon, oltin osmon, quyoshli osmon kabi so'z va iboralarni ham qo'shish mumkin [3].

Bu tushunchalar o'zbek tilida berilgan "Osmon" so'zini anglatuvchi izohlarga qaraganda nemis tilida nisbatan ko'proq so'zlar hamda bir oz boshqa ma'no kasb etadigan bir qancha so'z va iboralar orqali "Osmon" ma'nosini hosil qiladi: Masalan: Himmel-osmon, himmeln-jannat, himmelsfeste-samoviy bayramlar, himmelsblau-moviy osmon, himmelsbogen-osmon archasi, himmelan-osmonga, himmelswarts-osmonga, himmelsbeobachtung- osmonni kuzatish, himmelsbuhne-samoviy sahna, himmelsgott-himmelherrgott- Rabbiy, Xudo, himmelherrgottsakra-samoviy xudo sakra, himmelstor-jannat darvozasi, himmelstur- jannat eshigi, himmelbett-kanopli to'shak, himmeldonerwetter-osmon momaqaldiraq ob-havo, himmelfahrt- yuksalish, himmelfahrtskommando-o'z joniga qasd qilish missiyasi, himmelfahrtsnase- burni ko'tarilmoq, himmelfahrtstag- Osmonga ko'tarilish kuni, himmelhund- osmon iti kabi so'z va iboralar bilan nutqda ishlatiladi [4].

Der Mond steht am Himmel – oy osmonda turibdi [4]. Oy uzoqda joylashgan. Oy faqat osmonda turadi yerga tushmasligi aytib o'tilgan. Oyni ko'zlasang (maqsad qilsang) cho'qiga yetasan. Odam yaqinni emas uzoqni o'ylab oldiga maqsad qo'yishi, shu maqsad sari intilib harakat qilsa u albatta unga erishishi hamda uzoq muddat yuqori mavqeylarda yurishi ifodalanadi.

Die Sonne bringt es an den Tag - quyosh uni ochib beradi. "Haqiqatni abadiy yashirib bo'lmaydi" (ibora uzoq tarixga ega va Bibliya matnlarida qayd etilgan).

Die Suche nach dem Glücksstern - Baxtli yulduzni qidirmoq: Bizning soatimiz oyga ergashmagani uchun vaqt allaqachon tugadi. Yaqin kelajakda qilishni rejalashtirgan hamma narsa omadli yulduz ostida bo'lsin. Kim biladi, ehtimol, omadli yulduzni izlash uchun nimadir bor.

Oyni etak bilan yopib bo'lmas - Xiyonat, jinoyat, ayb, gunoh qilib qo'ygan odam buni yashirishga harchand urinmasin, baribir oshkor bo'ladi [5].

Oftobda qatiq ichishgan - ozmi-ko'pmi tanishligi bor, juda uzoq: Siz qayerda bo'lsangiz, biz ham o'sha yerda bo'lamiz. Oftobda sherikchilikda qatiq ichgan odamlar oxirigacha birga bo'lishi kerak.

Yulduzni benarvon uradigan – maqsadga erishmoq: har qanday yo'l bilan o'z ishini bajaradigan inson ma'nosi tushuniladi. O'z ishini bitirish uchun xavfdan ham qo'rqmaydigan sho'x shaxslarga nisbatan qo'llanadi. Bu iborada ishlatilish o'rniga qarab o'xshatish yo'li orqali salbiy xarakterdagi shaxsni ham tushunish mumkin. Ushbu ibora yulduzni umuman nishonga olib bo'lmaslik, narvon bilan

yulduzga yetib borish mumkin emasligi kabi mazmunlar qamrovida inson hulqi va xarakterini o'zida ifodalab kelgan.

V.Flaysler leksikologiya hamda frazeologiyaga oid nazariyalar masalalariga ko'proq e'tibor qaratgan. U frazeologik birliklarning xususiyatlariga va tadqiqot usullariga qarab, tilning frazeologik tarkibini turli xil tasniflashni taklif qilgan. U frazeologik birliklarning semantik va semantik-struktur barqarorligi, leksikallashuvi nutq va matn tayyorlashda leksik birlik xususiyatlarini ko'rsatuvchi asos deb hisoblaydi [6].

Demak, frazeologik birliklardagi ma'no hamda tuzilish jihatdan o'zgarmasligi va leksikallashuvi tilshunoslikda nutq va matn tayyorlashda leksik birlik xususiyatlarini ko'rsatuvchi o'zakdir.

O.V.Krivaleva, S.M.Podvigina "Osmon" va "osmon jismlari" tushunchalarining leksik va frazeologik verbalizatsiyasining milliy o'ziga xosligi, rus va nemis tillari materiali bo'yicha keng ko'lamda tadqiqotlari mavjud [7].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, kosmonim komponentli frazeologizmlarni o'rganish, ularni tasniflash, so'zlarning lug'aviy tabiati, so'zlarning uyg'unligi, kelib chiqishi, mazmun-mohiyati, sohaga doir qo'llanilish uslublari bilan bog'liq bir qator muammolarni hal qilishga imkon beradi. "Quyosh", "Yulduz", "Oy" leksik-semantik sohalari frazeologik ko'rinishda meteorologik, astronomik kuzatishlar, hissiyot va kayfiyatni, mavhum bo'lgan tushunchalarni ifodalovchi frazeologik birliklar ustunlik qiladi. "Quyosh", "Yulduz", "Oy" komponentli frazeologik birliklar qiyosiy jihatdan ham, alohida tilda juda ham qiziq soha obyektlaridan biri ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вежбицкая А., Понимание культур через посредство ключевых слов, М.: Языки славянской культуры, 2001. –С.16-28;
2. В.В.Виноградов [Электронный ресурс] -[https:// www. ras.ru / nappelbaum / f7803014-8af0-4520-93c9-38900e7b13ce. aspx](https://www.ras.ru/nappelbaum/f7803014-8af0-4520-93c9-38900e7b13ce.aspx)
3. A.Madvaliyev tahriri ostida O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent.1976.146-bet
4. Günther Drosdowski DUDEN- Deutsches Universalwörterbuch 2., völlig neu bearbeitete und stark erweiterte Auflage. Mannheim-1989.
5. Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov "O'zbek maqollarining izohli-lug'ati". Toshkent-1990
6. Wolfgang Fleischer „Phraseologiy der Deutschen Gegenwartssprache“ Tubingen Niemeyer.1997 j.
7. Подвигина С.М. Национальная лексико-фразеологической небо и небесные тела русского и немецкого языков автореферат. Воронеж -2007.- 22 с.

SAMARQAND TARIXI: YALANGTO`SH BAHODIR VA REGISTON ANSAMBLI

Mamatov Bektosh Tolibjon o`g`li
Samarqand davlat universiteti magsitranti

Jahon hamjamiyatiga yurtimizda yashab o`tgan tarixiy shaxslar, ularning vatan taraqqiyoti, mustahkamligi, ilm-fan va madaniyat sohalariga qo`shgan hissasi haqida to`liqroq va aniq bo`lgan ma`lumotlarni berish bugungi kun zamonaviy tarixining asosiy vazifasi bo`lib hisoblanadi. Bunda tarixchilar o`tmishda yashab o`tgan, yirik siyosat arboblari urg`u berishga harakat qilishadi. O`tmishi uzoq asrlarga borib taqaladigan tariximizda bunday shaxslar, sarkardalarni ko`plab uchratishimiz mumkin. Ulardan biri Samarqandda ulkan obodonchilik ishlarini amalga oshirgan, o`z faoliyati davrida shaharning taraqqiy topishida va dunyo tamaddunida munosib joy egallashida ulkan hissa qo`shgan tarixiy shaxslardan biri Yalangto`sh Bahodir bo`lib, uning shaxsiyati, tarixda tutgan o`rnini o`rganish muhim hisoblanadi. Samarqanddagi "Registon" ansamblining bugungi kunda yeti iqlimda shuhrat qozonib, milliy madaniy merosimizning ajralmas bir qismi bo`lishida Yalangto`shbiyning xizmatlari kattadir.

Yalangto`sh Bahodir 1576-yilda Nurota hokimi oilasida tavallud topgan bo`lib, olchin urug`i⁷⁴ yetakchilaridan bo`lgan Boyxojibiyning o`g`lidir. Uning faoliyati bo`yicha o`ta qimmatli asar – " Bahr al-asror fi manoqib al-ahyor" ("Olijanob kishilar botirligiga oid sirlar dengizi") muallifi Mahmud ibn Valining yozishicha, amrning asl ismi Xatoy Bahodir, Yalangto`sh esa uning laqabi bo`lgan. Tarixda bu shaxs Yalangto`sh ibn Boyxojibiy, Yusuf Yalangto`sh, Abdukarimbiy, Nizomiddin kabi ismlar bilan tilga olingan⁷⁵. "Yalangto`sh"(yalang ko`krakli, ochiq ko`krakli botir ma`nosida) janglarda ko`kragini qalqon yoki qalchug`o bilan yopmagan botir sifatida ushbu nomni olgan. U otasi Boyxojibiy bilan Xoja Hoshim Dahbediy (Mahdumi A`zamning nabiralari) oldiga kelib, qo`l berib murid tushishadi va uning tarbiyasiga kiradi. Keyinchalik, piri Xoja Hoshim uni harbiy mahoratini oshirish uchun Dinmuhammad xizmatiga yo`llaydi⁷⁶.

Yalangto`sh Bahodirning otasi shayboniylar sulolasi davrida saroy xizmatida bo`lganligi tufayli, u ham hukmdor sulola vakillari xizmatida o`sadi. U shayboniylar bilan bir qatorda, ashtarxoniy hukmdorlarga ham sodiqlik xizmat qiladi. Imomqulixon Yalangto`shbiyni Eron hukmdori Shoh Abbos hamda qozoqlardan

⁷⁴ Olchin, alchin- bir qancha turkiy xalqlar tarkibiga kirgan yirik qadimiy turkiy uru`g`lardan biri.

⁷⁵ А.Зиё. Ялангтўш Баҳодир – илм-фан ва маданият ҳомийси// Янги Ўзбекистон. 2021 йил, 3-март.44-сон

⁷⁶ К.Каттаев. Амир Ялангтўш Баҳодир. Баҳодир Ялангтўшнинг Марказий Осиё ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида туганган ўрни" мавзусидаги халқаро конференция материаллари, Самарқанд, 2019

Abulays va Ishim sultonlarga qarshi kurashda yordam berib, hokimyatni qo'lga olishda asosiy vazifalardan birini bajarganligi uchun 1612-yilda Samarqandga hokim qilib tayinlaydi. Bunda Imomqulixonning piri bo'lmish Xoja Hoshimning tavsiyasi bilan uning Samarqandga hokim qilib tayinlanishi, shaharning madaniy, iqtisodiy salohiyatiga juda katta ta'sir ko'rsatdi.

XVI asrda Shayboniylar davrida poytaxt Samarqanddan Buxoroga ko'chirilishiga qaramay, ilm-fan, madaniyat va savdo markazi sifatida Samarqand o'z o'rnini yo'qotmasdan qolaveradi. XVII asrdagi Samarqandning obodonchiligida Bahodir Yalangto'shning hissasi ayniqsa kattadir.

Uning davrida Samarqandning avvalgi jome' masjidi va madrasasi, ya'ni Amir Temurning jome' masjidi va Bibixonim Madrasasi buzilgan bo'lib, shaharda bunday masjid va madrasalarga ehtiyoj katta edi. Abu Tohirxo'ja Samarqandiyning "Samariya" asarida Yalangto'shbiyning Samarqanddagi keng bunyodkorlik ishlari haqida bir qancha muhim ma'lumotlar bor.

Shonli tariximizda Bahodir Yalangto'shbiy o'zini mohir siyosatchi, harbiy yo'l boshchi sifatida nom qildiribgina qolmasdan, balki "Samarqand shahrining me'mori sifatida" ullaqlanadi. Manbashunos olim K.Kattayev o'zining Yalangto'sh Bahodirga bag'ishlangan maqolasida "Tarixda uch mashhur hukmdor – Amir Temur, Mirzo Ulug'bek va Yalangto'sh Bahodir o'zlari qurdirgan me'morchilik obidalari bilan Samarqandni << yer yuzining sayqali >> ga aylantirishdi" deb yozadi. Haqiqatdan ham, buyuk sarkarda Amir Temur davrida Samarqand Temuriylar davlatining poytaxtiga aylanib, uning mavqeyi ortib bordi.

Registon maydoni ilk bor XIV asr oxirida "Telpakfurushon (telpak sotuvchilar)" nomida markaziy tim (usti yopiq bozor) binosida qad ko'taradi. Lekin, uning me'moray jihatdan shakllanishi temuriyzoda hukmdor Mirzo Ulug'bek bilan bog'liqdir. Uning tashabbusi bilan 1417-1420-yillarda o'z davri uchun nufuzli o'quv dargohi hisoblangan – Ulug'bek madrasasi quriladi.

Uning "Ulug'bek xonaqohi", shimol tarafida "Mirzoyi karvonsaroyi" va masjid bunyod etiladi. G'arb tomonida esa yog'ochdan (sinchli) "Muqatta masjidi" va "Abusaid" madrasasi qurilib, maydon me'moray hudud sifatida o'ziga xos ajralmas ko'rinish kasb etadi. Amir Temur va Mirzo Ulug'bek davrida Samarqand o'ziga xos salohiyatga va nufuzga ega bo'ldi, lekin Yalangto'sh Bahodir uni zamon talabi va extiyojidan kelib chiqqan holda, qaytadan bunyod etdi desak, xato bo'lmaydi.

Dastlab, bu maydon "Sardavanak" ya'ni "sari juri davanak" tez oqar daryo ma'nosini bildirgan⁷⁷. XVII asrga kelib Registon maydonida Mirzo Ulug'bek tomonidan qurilgan karvonsaroy xaroba holda, Muqatta maschidi va Ulug'bek xonaqosi butunlay yo'q bo'lib ketgan va ularning o'rnida shahar bozori

⁷⁷ K.Каттаев. Амир Ялангтўш Баҳодир. Баҳодир Ялангтўшнинг Марказий Осиё ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида тугган ўрни" мавзусидаги халқаро конференция материаллари, Самарқанд, 2019

joylashgan edi. Yalangto'shbiyning tashabbusi va homiyligida shahar qurilish ishlari boshlab yuborildi va bir qancha o'zgartirishlar kiritildi. Jumladan, uning farmoni bilan Mirzo Ulug'bek madrasasida ta'mirlash ishlari olib borish, Mirzo Ulug'bek tomonidan qurilgan xonaqoh, Mirzoyi hammomi va karvon saroylari o'rnida ikkita hashamatli Sherdor madrasasi (1619-1636) va Tillakori madrasa-masjidi⁷⁸ (1646-1660) qurildi.

Sherdor madrasasini Yalangto'sh bahodir piri Xoja Hoshimga bag'ishlab qurdirgan. Madrasa Mirzo Ulug'bek madrasasining nusxasi sifatida unga qarama-qarshi sifatida qurilgan. Imoratning tashqi o'lchovi 70-75 metr, ichki xovlisi kattaligi 30-35 metrni tashkil etadi. Xovlisidagi hujralar soni 52 tani tashkil etib, ularning atrofida darsxonalar qurilgan. "Sherdor" so'zining ma'nosi unda "sher tasviri bor" degan ma'noni bildiribgina qolmasdan, undagi sher, kiyik va quyosh 12 burjlik hijriy yilga ishora qiladi. Bunda quyosh "shamsiy" (quyosh yili), sher "asad", kiyik esa "jaddiy" ma'nolarini bildiradi. Bundan anglashilgan ma'no shuki, quyoshning asad burjida bo'lishi, "sa'di zamon", ya'ni baxtli kunlar degan tushunchani beradi. Taniqli Olim Komilxon Kattayev sher va kiyik 12 burjli xijriy yil hisobiga mos degan fikrlarni bildirib o'tgan. Bundan quyosh hijriy-shamsiy yil; Sher (asad) yilning beshinchi oyi; Kiyik (jaddiy) esa o'ninchi oy, madrasa qurilishi boshlangan va tugallanishi belgilangan oylarni nazarda tutadi. Bunday tasvirlarni saljuqiylar, ilhoniylar va Erondagi sulolar davridagi tug' va tangalarda XVI-XVII asrlarda ko'rishimiz mumkin. Xususan, Sohibqiron Amir Temur Shahrisabzdagi Oqsaroy peshtoqiga sher va quyosh tasvirlarini aks ettirishni buyurgan. Olimlarning fikricha bu aslida, Quyosh (murabbiy) sherni (talaba) kiyik (ilm) saydiga undamoqda⁷⁹.

Uning peshtoqiga Qur'oni karimning "An'om" surasidagi 115-117-oyatlari arabcha matnda yozilgan. Madrasa peshtoqida esa Bahodir Yalangto'shning nomi va abjad hisobida qasida bitilgan. "Yalangto'sh Bahodir so'zini " abjad hisobida sonlarga aylantirsak, Yalangto'sh-816, Bahodir-212, jami 1028 hijriy yil hisobi kelib chiqqanini ko'rishimiz mumkin. Uni milodiy yilga aylantirsak 1619, ya'ni madrasa qurilishi boshlangan yil kelib chiqadi. Madrasa qurilgan vaqtda xalq orasida u "Yalangto'shbiyning katta madrasasi" deb nom olgan⁸⁰. Dunyoning ko'p mamalkatlarida Samarqand shahri haqida so'ralganda, avvalombor ularning ko'z oldiga "Sher" tasviri keladi. Bu bejizga emas albatta, chunki

⁷⁸Chabryar Adle and Irfan Habib. History of civilizations of central Asia/ Volume V.-UNESCO Publishing. 2003.- P48

⁷⁹ К.Каттаев. Амир Ялангтўш Баҳодир. Баҳодир Ялангтўшнинг Марказий Осиё ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида туган ўрни" мавзусидаги халқаро конференция материаллари, Самарқанд, 2019

⁸⁰ Абу Тоҳирхожа Самарқандий. Самария. Б.27. www.ziyo.com кутубхонаси

2007-yilda Samarqandning 2750 yillik yubileyini nishonlash arafasida Xalqararo anjumanda Sherdor madrasasidagi sher tasvirini shahar ramzi sifatida hokimiyatga tavsiya etilishi buning isboti sanaladi.

Tillakori madrasasiga to'xtaladigan bo'lsak, Abu Tohirxo'ja Samarqandiyning "Samariya" asarida bu haqida – "Sherdor madrasasidan 10 yil keyin 1051-yilda solindi. Ushb Tillakori madrasasi Ulug'bek va Sherdor madrasalaridan shimolda, ikkalasining yonidadir. Juma namozini Amir Temur ko'ragon jome' masjidi xarob bo'lgandan keyin, shahr xalqi (hozirga qadar) Tillakoriy madrasasida o'qidilar⁸¹" degan ma'lumotlar keltirilgan. Uning qurilishi 14 yil davom etgan, u "oltindan ishlangan" degan ma'noni bildiradi. Bunga sabab esa uning madrasasi masjidining ichkarisida ishlatilgan oltinning o'zida bitta obida qurish mumkin ekanlig ta'kidlab o'tilgan⁸². Bir manbada 77 kg oltin deyilgan bo'lsa boshqasida 25 kg deb yoziladi⁸³. Bitta bino tarkibida ikkita imorat: sharq tarafiga madrasa va qibla esa tarafiga masjid (1641-1646) bunyod etildi. Uning peshtoqlariga arab xatida xattotlar kufiy va suls xatlarida yozuvlar bitishgan. Masjid gumbazi shiftiga ishlangan naqshlar ustiga tilla suvi zarhallanadi (1660). Bu madrasa-masjid qurilgan davrda esa "Yalangto'shbiyning kichik madrasasi" deb nom olgan. U Yalangto'sh vafotidan so'ng 1660-yilda qurilishi tugallandi.

Yalangto'shbiy madrasalar uchun ishlatiladigan xarajatlar, mudarrislar maoshi, talabalar nafaqasda uzilish bo'lmasligi uchun ko'plab daromadli yer, do'kon va karvonsaroylarni ularga umrbod vaql mulki sifatida hadya etadi. Bu borada tasqiqotchi Abdurahim Hasanovning "Tafakkur" jurnalining "Olimlar beshigi" maqolasida Sherdor va Tillakori madrasalari madrasalarida 11610 (o'n bir ming olti yuz o'n) tanob, 25 ta unumdor yer, 8 ta do'kon bo'lib, ular yiliga 38 ming tanga foyda olishlari haqida ma'lumotlar bergan⁸⁴. Jumladan, Sherdor va Tillakoriga tegishli vaqf mulklari asosan Ofarinkent, Totkent, Shovdor tumanlarining Buyrachi, Qorayog'och, Sog'di kalon, Alhasan tepa, Oqtepa, Nahri Haydar kabi bir qancha hududlarda joylashgan bo'lib, ularning 26 tasi yer-mulklar hisoblanadi.

Shu o'rinda qo'shimcha ma'lumot sifatida, journalist N.P.Ostroumovning 1914-yilda "Туркестанских ведомости" jurnalida e'lon qilingan "Islomshunoslik" maqolasida, Sherdor madrasida 95 nafar talaba tahsil olib, ularga ikki nafar mudarris dars berganligini yozib o'tgan. Tillakorida esa 130

⁸¹ Абу Тоҳирхожа Самарқандий. Самария. Б.28. www.ziyo.com кутубхонаси

⁸² К.Каттаев. Амир Ялангтўш Баҳодир. Баҳодир Ялангтўшнинг Марказий Осиё ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида тутган ўрни" мавзусидаги халқаро конференция материаллари, Самарқанд, 2019

⁸³ M.Tursunova. SHERDOR MADRASAH BUILT BY YALANGTOSHBIY BAHODIR. Journal "Oriental Renaissance : Innovative, educational, nature and social sciences". Volume 2|Issue 4\2 .-April 2022. P 1162

⁸⁴ M.Tursunova. SHERDOR MADRASAH BUILT BY YALANGTOSHBIY BAHODIR. Journal "Oriental Renaissance : Innovative, educational, nature and social sciences". Volume 2|Issue 4\2 .-April 2022. P 1163

nafar talaba, ularga yetarlicha muallimlar dars berganligi, shuningdek har ikki madrasaning 1914-yilda 3000 ming rubldan ortiq vaqf mulki borligi ta'kidlab o'tilgan⁸⁵.

Bulardan tashqari Yalangto'shbiy Mahdumi A'zam sharafiga 1618-yilda Dahbedda mozorning janub tomonida bir daxmali xonaqoh, ikki masjid, qirq hujrali madrasa (lekin madrasa hozirgacha yetib kelmagan) bunyod ettirgan.

Komilxon Kattayevning maqolasida “ Samarqand to'rt marta qayta obod obod etilgandir: 1) Chingizxon bosqinidan so'ng Amir Temur tomonidan qayta tiklandi va obidalar qayta qurildi; 2) Mirzo Ulug'bek davrida shahar mavzolari obodonlashtirilib, “ Registon” maydoniga asos solindi; 3) Yalangto'sh Bahodir davrida Sherdor va Tillakori madrasalari qurilib, “Registon“ maydoni to'liq shakllandi, undan o'rnak olgan yirik mulkdorlar qatorida saroy a'yonlari ham obodonchilik ishlariga o'z hissalarini qo'shish maqsadida bunyodkorlik ishlarini boshlab yubordilar. Bu esa faqat Amir Temur va Mirzo Ulug'bek davrigagina xos edi; 4) Samarqandning keying tiklanishi mang'it hukmdorlardan Amiri Ma'sum-Amir Shohmurod davriga to'g'ri keladi⁸⁶. Shunday bo'lsada Yalangto'shbiy davrida amalga oshirilgan keng ko'lmidagi ishlar, bunyodkorlik namunalari madaniyat, ilm-fan va oddiy xalq manfaatlariga xizmat qildi.

Bahodir Yalangto'sh 1656-yilda 80 yoshida vafot etadi va o'zining vasiyati bo'yicha, uni Dahbetdagi Mahdumi A'zam xonaqohiga, piri bo'lmish Xoja Hoshim qabrinig oyoq tomoniga dafn etadilar. Uning Boybek ismli o'g'il farzandi bo'lganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Lekin, u otasidan yetti yil oldin 1650-yilda vafot etgan. Yalangto'shbiyning o'g'lidan tashqari Iqlimbonu (vafoti 1657) va Oybiy (vafoti 1666) ismli ikkita qizi bo'lib, ular ham shu yerda dafn etilgan.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Yalangto'sh Bahodir yoshligidan qo'rqmasligi, jasurligi bilan hukmron sulola vakillari va pirlarning nazariga tushdi. Harbiy ta'limni yaxshi egallagani, uni janglarda zafar quchishiga olib keldi. U harbiy ta'lim bilan birga diniy ta'limni yaxshi egalladi. Shu sababli ham u bunyodkorlik ishlari bilan birga *sadaqai-joriya* amallari yo'lini tutdi. Ko'plab masjid, madrasa, xalqqa xizmat qiladigan obidalar qurdirib, shaharning obod bo'lishida o'zining unutilmas hissasini qo'shdi. Samarqandda hokimlik davrida, shaharning kelajak taqdirini belgilab beradigan muhim siyosiy va madaniy tadbirlarni amalga oshirdi. Ayniqsa, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, “Registon“ maydoni Bahodir Yalangto'sh davrida yaxlit holga keldi. Yalangto'shbiy bunda madrasa va masjidning bir-biriga uyg'un holda qurilishini, shahar markazida o'ziga xos “guldasta”ni tashkil etishi uchun harakat qildi. Shaharda keng miqyosda

⁸⁵ M.Tursunova. SHERDOR MADRASAH BUILT BY YALANGTOSHBIIY BAHODIR. Journal “Oriental Renaissance : Innovative, educational, nature and social sciences”. Volume 2|Issue 4\2 .-April 2022. P 1163

⁸⁶ К.Каттаев. Амир Ялангтўш Баҳодир. Баҳодир Ялангтўшнинг Марказий Осиё ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида тугган ўрни” мавзусидаги халқаро конференция материаллари ,Самарқанд,2019

obodonchilik ishlarini olib borish bilan bir qatorda, ilm-fanga ham homiylik qildi. Bunday tarixiy shaxslar tarini mukammal o'rganish va uning kelajak avlod xotirasida o'chmas iz sifatida qolishi zarurdir.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Абу Тоҳирхожа Самарқандий. *Самария*. Б.27.www.ziyo.com кутубхонаси
2. Ахмедов Б. *Тарихдан сабоқлар*. - Тошкент, 1994.
3. Азамат Зиё. *Ялангтўш Баҳодир – илм-фан ва маданият ҳомийси*// Янги Ўзбекистон. 2021 йил, 3-март.44-сон
4. К.Каттаев. *Амир Ялангтўш Баҳодир. Баҳодир Ялангтўшнинг Марказий Осиё ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида тутган ўрни*” мавзусидаги халқаро конференция материаллари, Самарқанд, 2019
5. Д.Сангирова. *Ялангтўш Баҳодирнинг Марказий Осиё ижтимоий сиёсий ва маданий ҳаётида тутган ўрни. Баҳодир Ялангтўшнинг Марказий Осиё ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида тутган ўрни*” мавзусидаги халқаро конференция материаллари, Самарқанд, 2019
6. M.Tursunova. *SHERDOR MADRASAH BUILT BY YALANGTOSHBIIY BAHODIR*.Journal “Oriental Renaissance : Innovative, educational, nature and social sciences”.Volume 2|Issue 4\2 .-April 2022.
- 7.Chabryar Adle and Irfan Habib.*History of civilizations of central Asia/* Volume V.-UNESCO Publishing.2003.-P47
8. Yalangto'sh Bahodir. wikipedia.org. (2018). *Ялангтўш Баҳадур*. [online]
9. Bahodir Yalangto'sh. Buxoroisharif.uz. (22.09.2022).

XITOIY YIRIK OSHXONALARIDA TA'M KATEGORIYASINING O'ZIGA XOSLIGI

Mamatova Dilshoda Mashrab qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Xitoy taomlarini uzoq yillik tarixga ega bo'lib, ma'lumotlarga qaraganda, xitoy oshxonasining tarixi yong'in sodir bo'lishi natijasida hayvon go'shtlari va sabzavotlarni olovda pishishi natijasida qadimgi xitoyliklar tomonidan iste'mol qilingan hamda taom sifatida shakllanib borgan. An'anaviy xitoy oshxonasi tarixida guruch yetishtirish va lag'mon tayyorlash tosh davrida boshlangan bo'lib, to hozirgi kungacha bu ikki mahsulot o'ziga xos xususiyat kasb etadi.

Xitoy Xalq Respublikasining geografik tuzilishi okean, daryo havzalari, xilma-xil landshaftlar, cho'llar, tog'lar borligi va har bir mintaqaning o'ziga xos mintaqaviy iqlimidan kelib chiqib, mintaqaviy oshpazlik maktablari va madaniyati mavjud. [3]

Xitoy milliy oshxonasida sakkizta asosiy oshxona tarmoqlari va asosiy taomlar tizimi mavjud bo'lib, ularning nomlari geografik foylashuviga asoslanib qo'yilgan. Ular quyidagilar: Van oshxonasi (Anxuy provinsiyasi), Yue oshxonasi (Guangdong provinsiyasi), Ming oshxonasi (Fujien provinsiyasi), Sian oshxonasi (Xunan provinsiyasi), Su oshxonasi (Jiangsu provinsiyasi), Lu oshxonasi (Shandong provinsiyasi), Chuan oshxonasi (Sichuan provinsiyasi) va Chje oshxonasi (Chjejiang provinsiyasi). Ba'zan sakkizta asosiy oshxona tizimidan to'rttasi katta turkum sifatida talqin qilinadi: "To'rtta asosiy oshxona: Chuan oshxonasi, Yue oshxonasi, Lu oshxonasi va Su oshxonasi". [1, B 9] To'rtta yirik oshxona turkumi o'z ta'm xususiyatlariga ega bo'lib, shunday ta'riflanadi: "Sharq shirin, janub sho'r, g'arb achchiq, shimol esa nordon". Bu jumladan ma'lumki, Xitoy xalqi qaysi hududda iste'qomat qilishiga qarab, taomlar va oziq-ovqat mahsulotlari ma'lum ta'mlar bilan ta'riflaydi. Xitoy oshxonasini geografik joylashuviga qarab shimol yoki janub oshxonalariga ajratish mumkin. Shimoliy va janubiy oshxonalar o'rtasidagi eng katta farq shimolliklar lag'mon va 饺子 (jiaozi-chuchvara), janubliklar esa guruch iste'mol qiladilar. Shuningdek, janubliklar baliq va qisqichbaqalarni yengil ziravorlar bilan, shimolliklar esa mol go'shti, qo'y go'shtini o'tkir ziravorlar bilan iste'mol qilishni afzal ko'rishadi. Tug'ilgan kunida "长寿面" (uzoq umrni ifodalovchi lag'mon) iste'mol qilish ularning hayotiga omad va sog'liq olib kelishiga ishonishadi. [2] Shunday qilib, xitoyliklarning mashhur sakkiz oshxonasida ta'mlar quyidagicha tavsiflanadi:

Oshxona nomi	Ta'm kategoriyasi:
Lu oshxonasi (Shangdong provinsiyasi)	Asosiy ta'mlar: sho'r va sarhil. Taom tarkibida mahsulotlarning sarhilligi kuchaytirish maqsadida tuzdan, taomlar sarhilligi uchun ko'proq sho'rvalardan, sho'r ta'mga urg'u berish uchun turli ziravorlardan foydalanib, haqiqiy ta'm Lu oshxonasi ta'mi yaratiladi. Dengiz mahsulotlari va sho'rvalar asosiy taomlar bo'lib, baland olovdan foydalani taom tayyorlashga e'tibor beriladi.
Chuan oshxonasi (Sichuan provinsiyasi)	Bu oshxona o'zining achchiq va o'tkir ta'mga egaligi bilan butun Xitoyda mashhur bo'lib, taomlar xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Taomlar yangi pirilgan hamda yumshoq holatda dasturxonga tortiladi.
Yue oshxonasi (Guangdong provinsiyasi)	Asosan sarhil va xushbo'yga ta'mga egaligi bilan boshqa oshxonalardan jaralib turadi. Taom tarkibidagi mahsulotlar saralab olinib, tozalanadi. Ko'proq qattiq sabzavotlardan foydalaniladi. Taom tarkibida yog' me'yorda bo'ladi.

	Mahsulotlarni yaxshilab qovurish maqsadida yog' miqdori va olovni bir me'yorda ushlashga katta e'tibor qaratiladi. Yue oshxonasi ko'plab g'arb taomlari bilan hamohang tarzda tayyorlanadi va taomlar soni ko'pligi bilan ham ajralib turadi.
Su oshxonasi (Jiangsu provinsiyasi)	Su oshxonasi yengil taomlardan tashkil topgan. Taomlar tarkibidagi mahsulotlarning rang uyg'unligiga, sabzavotlarni to'g'rash texnikasiga chuqur e'tibor beriladi. Fasllarga qarab, taom tayyorlanadi. Taom tayyorlashda dimlash va qovurish texnikalaridan foydalaniladi hamda taom suyuqligi va yumshoqligiga ko'proq e'tibor qaratiladi. Taom tarkibidagi sabzavotlarning salomlatlik uchun foydaligi asosiy omillardan hisoblanadi. Su oshxonasining Xuayyang oshxonasi mahsulotlarni tanlash va pichoqdan mahoratli foydalanib, sho'rvalar tayyorlashga chuqur e'tibor qaratsa; Sunan oshxonasi shirin ta'mining ustunligi, soya sousini tayyorlashning o'ziga xosligi, xushbo'y don va guruch sharobidan ziravor sifatida foydalanishi bilan ajralib turadi.
Sian oshxonasi (Xunan provinsiyasi)	O'ta o'tkir va achchiq ta'mga egaligi, turli-tuman ko'rinishga egaligi Sian oshxonasining asosiy xususiyati. Nozik, yumshoq, mazali va achchiq ta'm, quyuc va sarg'ish rangli taomlar ko'p uchraydi. Xushbo'y ta'mli Xunan oshxonasi ko'p ziravordan foydalanishi va achchiqligi, past olovda taom tayyorlanishi, oq va qizil ranglarga bo'lingan holda qaynatish usullari bilan boshqa oshxonalardan ajralib turadi.
Ming oshxonasi (Fujien provinsiyasi)	Sarhillik va xushbo'ylik asosiy ta'mlardan bo'lib, sersuv, g'oshtli, yog'siz taomlar ko'proq tayyorlanadi. Uch asosiy xususiyati: qizil bug'doyli ziravorlar keng qo'llaniladi, sho'rva mazali tayyorlanadi, shirin va nordon ta'mga egalik.
Chje oshxonasi (Chjejiang provinsiyasi)	Yengil ta'm, mahsulotlarning kichik va bejirim shaklga egaligi, mazali taomlarini iste'mol qilishda silliq va nozik, qarsildor, yumshoq va tetiklantiruvchi ta'mga egaligi bilan Chje oshxonasining asosiy xususiyatidir. Guruchli va bug'doyli vino xushbo'y ta'm berish uchu qo'llash ustunlik qiladi. Dengiz mahsulotlari va daryo baliqlarini pishirishning yuqori texnikasiga ega bo'lib, taom ta'mi sarhilligi, yumshoqligi, taom tarkibidagi mahsulotlarning ta'mlari saqlanib qolganligi, bejirim bezatilganligini bilan ajratib turadi. Chjejiang provinsiyasining shimoliy-sharqiy hududlari sho'r, janub shirin, g'arbiy qismi achchiq taomlar iste'mol qiladi.

Van oshxonasi (Anxuy provinsiyasi)	Achchiq va sarhil ta'm, yuqori olovda yaxshilab qovurish, to'q ranglari, ham qovurib, ham dimlash, ham qaynatib tayyorlanadigan taom tayyorlanishi, har bir taomni tayyorlashda turli yo'llardan foydalishi, olovdan turli usullarda foydalanib mazali, nozik, xushbo'y va sarhil ta'mli taomlar tayyorlash Van oshxonasining asosiy xususiyatlari hisoblanadi. [4]
--	---

Xulosa o'rnida ytish mumkinki, boshqa davlatlar oshxonasidan farqli ravishda Xitoy oshxonalar tarmoqlarida ta'm bilan bog'liq tushunchalar tubdan farqlanadi. O'zining nozik va qarsildoq ta'miga ega shirin ta'mga ega Guangdong oshxonasi, xushbo'y, shirin va sarhil xususiyatlarini o'ziga jam etgan Fujien oshxonasi, taomlarning yog'liligi va rang-barangligi bilan farqlanuvchi Hunan oshxonasi, achchiq va yog'li taomlarga ega Sichuan oshxonalari eng mashhur oshxonalar sarasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shan, Xiaoqiu, "Website about Chinese food: information design promoting culture identify by website" (2009). Thesis. Rochester Institute of Technology - 55 p.
2. [http://en.wikipedia.org/wiki/Chinese cuisine](http://en.wikipedia.org/wiki/Chinese_cuisine)
3. [http://en.wikipedia.org/wiki/History of Chinese cuisine](http://en.wikipedia.org/wiki/History_of_Chinese_cuisine)
4. <https://baike.baidu.com/item/八大菜系/873948>

JAMOAT TASHKILOTLARINING YOSHLAR IJTIMOYIY FAOLLIGINI OSHIRISHDAGI ROLI VA AHAMIYATI

Mamashukurov Ozodbek Erkin o'g'li
Namangan davlat universiteti

Insoniyat taraqqiyotida XXI asr yangi sahifani ochib berdi. Dunyo hamjamiyati yuqori saviyali va har tomonlama ilg'or jamiyat qurish yo'liga o'tdi. Ana endi aholi umumiy madaniyatining yuqori darajada bo'lishini davr taqazo qilardi. Shu boisdan, bugungi kunda ilg'or jamoatchilik butun aholining madaniy saviyasini va didlarini o'stirish yo'lidan bormoqda. Ilg'or jamiyatlarda aynan ijtimoiy-madaniy faoliyat o'shbu maqsadga xizmat qiladi. Suverenitetimiz qo'lga kiritilganidan so'ng Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan yoshlarga davlat siyosati darajasida e'tibor berila boshlandi. Ular xar tomonlama yetuk bo'lib shakllanishi va kamol topishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy

jihtadan shart-sharoitlar yaratilgan. Barchamizga ma'lumki, fuqarolik jamiyatining asosi jamoat tashkilotlaridir. Jamiyat hayotida demokratik tamoyillarni joriy etish muayan ijtimoiy qatlamlar va guruxlarning ishtiroki orqali bo'ladi. O'z-o'zidan ular orasida yoshlar muhim o'rin tutadi. Respublikamizdagi faoliyat ko'rsatib kelayotgan jamoat tashkilotlari o'z maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda yoshlarning har tomonlama extiyojlarini ro'yobga chiqarishda o'z hissalarini qo'shib kelishmoqva. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56-moddasida: O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi deya ta'kidlangan.[1.]

Jumladan, "Mahalla" xayriya jamg'armasi va uning joylardagi bo'limlari mahalla xududlarida istiqomat qilayotgan yoshlar orasida turli ma'naviy-ma'rifiy ishlar va tadbirlarni uyushtirish orqali ularni ma'nan yetuk inson qilib tarbiyalash va kam ta'minlangan oila farzandlarini qo'llab-quvvatlashda, "Sog'lom avlod uchun" xalqaro nohukumat xayriya jamg'armasi bolalar va yoshlarni sog'lom turmush tarzi talablari asosida tarbiyalashda, "Ekosan" xalqaro jamg'armasi yoshlarda ekologik bilimlarni shakllantirishda, O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mamlakatda amalga oshirilayotgan kadrlar tayyorlash davlat dasturiga muvofiq o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma'naviy salomatligini shakllantirish, sog'lom turmush tarziga intilish va sportga mehr-muhabbatini singdirishda samarali hissa qo'shib kelmoqdalar.[2.28.]

Yoshlarning jamiyatdagi o'rni hamda ularning ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishini oshirish maqsadida O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi o'rtasida Anglashuv Memorandumi imzolandi. Unda Davlatimiz rahbarining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha o'zaro hamkorlikda olib boriladigan ishlar belgilab olindi. Bu haqda federatsiya matbuot xizmati xabar berdi. Kasaba uyushmalari Federatsiyasining yoshlar bilan ishlash tuzilmasini takomillashtirish maqsadida Federatsiyaning Yoshlar birlashmasi tashkil etildi hamda uning raisi saylandi. Yoshlar birlashmasi raisiga O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisining yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi maqomi berildi. Xuddi shu tartibda tarmoq kasaba uyushmalari Respublika kengashlari hamda Hududiy kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmalarida Yoshlar birlashmasi tuzilib, uning raisiga rahbar maslahatchisi maqomi berilishi bildirildi. Ushbu hamkorlikning keyinchalik yoshlar uchun foydali va ahamiyatli bo'lishi kafolatlandi. Bundan shuni anglashimiz mumkinki, har qaysi jamoat tashkiloti va jamoat birlashmalari

yoshlarni qo'llab quvvatlashga tayyor. Bu yoshlarga ulkan shijoat va kuch bag'ishlaydi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Hozirgi kunda respublikamizda faoliyat yuritayotgan eng yirik jamoat tashkilotlaridan biri bu "O'zbekiston Yoshlar ittifoqi" tashkiloti bo'lib, bu tashkilot mamlakatimizning 4 million nafardan ortiq yoshlarini o'z qanoti ostiga birlashtirdi. Ittifoqning asosiy maqsadi yoshlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash, O'zbekistonni jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirishi jarayonlariga jalb qilish hamda yosh avlodning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishni ta'minlash, yigit-qizlarning ma'naviy va kasbiy saviyasini yuksaltirish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashishdan iborat. Barkamol, mustaqil fikrlaydigan, o'zining hayotiy pozitsiyasi va qat'iy e'tiqodiga ega, jamiyat hayotida munosib o'rin egallash, mamlakatni isloh qilish, yangilash jarayonlarida hal qiluvchi kuch va tayanch bo'lishga qodir yoshlarni shakllantirish, ularning siyosiy madaniyati, huquqiy savodxonligi va huquqiy ongini yuksaltirish; yoshlarni, xususan uyushmagan yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan va harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda tarixiy xotira, milliy g'urur va o'zlikni anglash, ro'y berayotgan voqyealarga daxldorlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish; yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning zamonaviy kasblarni egallashga bo'lgan intilishini qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish; iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ular o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda ilmiy faoliyatga jalb qilish; yoshlar, xususan uyushmagan yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi, ekologik madaniyatni shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb qilish; yoshlarni, xususan uyushmagan yoshlarni diniy-yekstremistik va boshqa buzg'unchi tashkilotlar ta'siridan, chetdan "ommaviy madaniyat" niqobi ostida kirib kelayotgan salbiy ta'sir va tahdidlardan asrash, yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni profilaktika qilish va oldini olishga ko'maklashish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 3 avgust kuni mamlakat ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda milliy madaniyat, adabiyot va san'atni rivojlantirish bilan bog'liq dolzarb masalalar, ularni hal etish yo'llari, bu borada ijodiy uyushmalar va davlat tashkilotlari oldida turgan muhim vazifalar haqida atroflicha fikr almashildi. Madaniyat va san'at soxasi vakillarining faoliyatini tubdan islox qilish va jamiyatimiz uchun kerakli madaniyat hodimlarini yetkazish. O'zbekistonda tub o'zgarishlar jarayonlaridagi davlatning bosh islohotchilik o'rni asosan fuqarolik

jamiyatining huquqiy asoslarini shakllantirish jarayonlarida namoyon bo'ldi. Mamlakatda jamoat tashkilotlar mustaqilligini ta'minlash, shuningdek, ularning fuqarolik jamiyatining muhim institutiga aylanishini ta'minlash maqsadida davlatning «kuchli davlatdan–kuchli fuqarolik jamiyati sari» konseptual siyosiy dasturi qabul qilindi va u mamlakatda jamiyatni rivojlantirishning asosiy tamoyiliga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat madaniyat muassasalari va davlat arxivlari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini joriy etish va ularni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan davlat madaniyat muassasalari va davlat arxivlari xodimlarining ijodiy mahoratini munosib baholashni ta'minlashga, kasbiy darajasini hamda malakasini uzluksiz oshirishi uchun rag'batlantirish usullarini yaratishga yo'naltirilgan mehnatiga haq to'lash va moddiy ta'minotini yaxshilash tizimini yanada takomillashtirish.

Bugun xorijiy hamkorlarimiz bizning yoshlarimizni ko'rib, ularga har tomonlama qoyil qolmoqda. Ular bizning yoshlarimiz bilan suhbatlashib, qani endi, o'z kasbini puxta egallagan, xorijiy tillarda bemalol gaplasha oladigan bunday yoshlarni boshqa mamlakatlarda ham ko'rsak va ular bilan ishlasak deb orzu qiladi. Bir so'z bilan aytganda, ular O'zbekiston yoshlarining salohiyatini yuksak baholaydi. Bugungi kunda xorijiy hamkorlarimizning, "Sizlarning yoshlaringiz, bolalaringizning ko'zi yonib turadi" degan so'zlarini har qadamda eshitish mumkin. [1,245.]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.- Toshkent: O'zbekiston, 2014.
2. Ijtimoiy-madaniy faoliyatning dolzarb muammolari. G'afur G'ulom nashriyot matbaa uyi.Toshkent – 2011
3. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir.- Toshkent: O'zbekiston, 2015

LIDERLIK FENOMENI, TALABALARDA LIDERLIK QOBILIYATINI O'RGANILISH HOLATI VA TALABALARDA O'ZINI-O'ZI BOSHQARISH

Mardiyeva Shaxnoza Amirovna

SamDCHTI Gumanitar va axborot texnologiyasi kafedrasida o'qituvchisi.

Respublikamizda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, ayni paytda ushbu tizimda, mas'uliyatli, irodali, o'z kasbiga sadoqatli, fidoyi kadrlarni

yetishtirish vazifasini qo'ymoqda. Hozirgi davrda jamiyat taraqqiyotida yuz berayotgan keskin o'zgarishlar sifat jihatidan yangi va nisbatan murakkab bo'lgan vazifalarni qo'yadi, bunda shaxs intellektining rivojlanish darajasi, uning aqliy imkoniyatlari regulyatori, axloqiy jihatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Har bir insonni shaxs sifatida shakllanishi va inson o'z- o'zini anglashda guruhlarga kirishi aniq holatdir. Guruh ichida u insonlar bilan munosabatga kirishadi va shaxs sifatida o'ziga - o'zi baho bera oladi. Guruh deganda bir nechta odamdan tashkil topilgan jamoa deb tushiniladi. Talabalar guruhi bu bir tomondan shartli ijtimoiy guruh ikkinchi tomondan esa rivojlanish dinamikasini ta'sirida ushbu guruh haqiqiy guruhga va jamoaga aylanishi kerak bo'lgan guruhlardan biridir. Oddiy holda "Biz talabalarimiz" dan "Biz 1-kurs talabalarimiz", "Biz aniq guruhning talabalarimiz", "Biz komandamiz" yoki "Biz jamoamiz". Shunda nafaqat birlashish holati balkim o'z-o'zini boshqalardan farqini bilish holatlari ham inobadga olinadi. Shunda ular o'zga guruhlardan farqlarini tushuna boshlaydilar va o'zlarini qadriyatlar tizimlarini, norma va qoidarani ishlab chiqarishadilar va shunda "Biz" va "Ular" degan tizim yuzaga keladi. Shundan kelib chiqadiki, talabalar guruhi bu shunday guruhki ularni birlashtiruvchi umumiy maqsad va birga bo'lish asosida yotgan holat hamda sabab oqibat mavjudligi ko'rsatiladi. Bu guruhni jamoaga aylanishiga asos bo'ladi. Jamoaning har bir a'zosi ishonadigan maqsadi borligi hamda uni aniq vazifalari -yutuq, birinchilik yoki oldinga siljizdan iborat bo'lishi kerakligi T.Yu.Bazarov, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, X.A.Kodirova, N.S.Safayev tadqiqotlarida aniqlangan.

Talabalar jamoasida liderlik qobiliyatini shakllantirishda guruhliy hулq-atvorni xususiyatlari va guruhliy samaradorligini oshirish yuzasidan guruhga ta'sir etilishini inobadga olinishi kerakligi. Bundan kelib chiqadiki talabalar jamoasi bu jamoaviy boshqaruvning tashkiliy shaklidir. Oliygohta jamoaviy menejment talabalar jamoalarini yaratish va ishlatish yo'li bilan amalga oshiriladigan menejment, jamoaviy boshqaruvning shakllaridan biri sifatida vakolatlar berish jarayoniga asoslangan. Deyarli hamma tashkilotlar turli darajadagi menejrlarga ular shaxsan o'zi hal qila oladigan vazifalardan ko'ra kengroq vazifalar uchun javobgarlik yuklaydilar. Menejerlar javobgarlikni taqsimlash asosida jamoaviy boshqaruvning u yoki bu shakli yaratiladi. (D.F.Vudkok, M.V.Frensis, 1991). Muvafaqiyatli boshqaruv guruhlari qarorlar bevosita guruh tomondan ishlab chiqiladi va qabul qilinadi, administratorning roli esa zarur sharoitlarni yaratish, qarorning chegaralarini aniqlash va qiyin holatda zarur maslahat berishdan iborat.

Jamoa bu maqsadlar, qadriyatlar va birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun umumiy yondashuvlarni bo'lishadigan, bir birlarini to'ldiradigan ko'nikmalarga ega; oxirgi natijalar uchun javobgarlikni o'z zimmlariga olib,

funksional rolli nisbatni o'zgartirishga qodir (guruh ichidagi har qanday rollarni bajara oluvchi); o'zini va sherigini ushbu guruhga (jamiyatga) tegishliligini o'zaro aniqlaydigan oz sonli odamlar (ko'pincha 5 ta yoki 7ta, kamdan kam 15ta yoki 20ta). Talabalar jamoasi demak ma'lum bir vaqtda aniq sohaga tegishli bo'lgan muammo yoki vazifalar ustida birgalikda ishlaydigan talabalarni tashkil etadi. Demak talabalarning rasmiy guruhi 45ta talabadan tashkil topsa unda bir nechta jamoalar bo'lishi mumkin. Hech bir guruh o'zini jamoa deb hisoblamaguncha jamoaga aylanmaydi (T.Yu.Bazarov, 2021).⁸⁷

Jamoaviy hisobdorlik -bu samarali jamoalarning majburiyatlar va ishonch asosidagi ma'lum va'dalar. O'zaro hisobdorlik majburiy tarzda bo'lishi mumkin emas, lekin jamoa umumiy vazifa, maqsad va yondashuv taqsimlaganda, o'zaro hisobdorlik tabiiy tarkib sifati paydo bo'ladi.

Talabalar jamoasida asta sekinlik bilan kerakli bo'lgan ko'nikmalar rivojlanishga zamin mavjud:

- 1) funksional ko'nikmalar (tahlil);
- 2) muammolarni hal etish va qaror qabul qilish;
- 3) shaxslararo ko'nikmala.

Talabalar guruhidan talabalar jamoasi paydo bo'lishi so'ng jamoaviy boshqaruvning tashkiliy shakli sifatida jamoaning paydo bo'lishiga ta'sir qiladigan omillarni aniqlash va o'rganish lozim. Liderlikni ya'na bir qirradi o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini nazorat qilish jarayoni. Talabalar jamoasida eng muhim va asosiy shakllanishi lozim bo'lgan xususiyatlardan biri bu o'z-o'zini boshqarishdir.

Bugungi zamonaviy jamiyatning talabi universitet va institutlarda o'zini -o'zi boshqarish maktabini o'tagan yuqori malakali mutaxassislarni doimiy ravishda ko'paytirishga ob'ektiv ehtiyoj mavjudligi bilan belgilanadi. Universitetlarning bitiruvchilarini jamiyatga muvaffaqiyatli moslashtirish va jamiyatga integratsiyalashuviga qaratilgan ijtimoiy funksiyalarining ahamiyati ortib bormoqda. Yoshlar xolisona jamiyat taraqqiyotining innovatsion salohiyatining tashuvchilari bo'lib, bu ularning universitet va insitut hayotidagi faol ishtirokida to'liq namoyon bo'ladi. Bugungi kunda talaba yoshlar yuqori kasbiy va shaxsiy madaniyatga ega. Talabalar iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy xarakterdagi muammolarni hal qilishda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning haqiqiy hamkori sifatida harakat qilish istagi va zarur bilimlariga ega. Talabalarning o'zini-o'zi boshqarish muammosini rivojlantirishning ahamiyati oliy o'quv yurtlarida talabalar bilan olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ahamiyati ortib borayotgani bilan ham belgilanadi, buning samaradorligi universitet faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichlaridan biridir.

⁸⁷ Жамоаларнинг шаклланиш типологияси ва омиллари. \\Базаров Т.Ю. Персонал бошқариш. Тошкент 2021. 274 б.

⁸⁸[Talabalarining o'zini-o'zi boshqarish muammosini zamonaviy, ilmiy shakllantirishda uchta asosiy funktsional ma'no mavjud, xususan:

1. Talabalarining o'zini o'zi boshqarishi amalga oshirish sharti sifatida ijodiy faoliyat o'quvchilarning o'quv-kognitiv, ilmiy-kasbiy va madaniy aloqalarida.

2. Talabalarining o'zini o'zi boshqarishi tegishli huquq, imkoniyatlar va majburiyatlarga ega bo'lgan talabalar demokratiyasining haqiqiy shakli sifatida.

3. Talabalarining o'zini o'zi boshqarishi ijtimoiy va huquqiy o'zini o'zi himoya qilish vositasi sifatida]²

Talabalarni o'z-o'zini boshqarishda yuqorida keltirilgan maqsadga muvofiq quyidagi tadqiqot vazifalari belgilandi:

1. Talabalar o'zini o'zi boshqarishning mavjud tizimini tahlil qiling.

2. Talabalar boshqaruvining innovatsion modelini ishlab chiqish.

3. Talabalarining o'zini o'zi boshqarishi psixologik vazifa sifatida

4. Shaxs va jamoa rivojlanishida o'zini o'zi boshqarishning o'rni muhimligini aniqlash.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda talabalarining o'zini o'zi boshqarishi tadqiqotchilar tomonidan faoliyatning o'ziga xos turi (L.I. Novikova), jamoani shakllantirish usuli (V.M. Korotov), jamoat tashkilotlari faoliyatining printsipi va vosita sifatida ko'rib chiqiladi. jamoat arboblarni tarbiyalash (N.M. Izosimov), talabalar jamoalari hayotini tashkil etish usuli sifatida (M.I. Rojkov). Davlatning ta'lim siyosatida talabalarining o'zini o'zi boshqarishi "tashabbus, mustaqil faoliyat talabalarining ta'lim, turmush, dam olishni tashkil etishning hayotiy masalalarini hal etish bo'yicha". Talabalarining o'zini o'zi boshqarishi ijtimoiy hodisa sifatida N.P. Bugaenko, O. Vishtak, A.I. Davydova, I.F. Ejukova, A.A. Isaeva, O.A. Kolmogorova, I.N. Kreshchenko, V.M. Pevzner, S.S. Petrova, I.A. Pravdina va boshqalar. Bu asarlarni o'rganish quyidagi xulosalar chiqarish imkonini berdi: Hozir rivojlangan davr talabi- dan kelib chiqqan holda, talabalarining o'zini o'zi boshqarishi universitet va institut ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lishi bilan bir qatorda, talaba yoshlarning turli masalalarini hal etish bo'yicha talabalarining tashabbuskorligi, mustaqil, ijtimoiy foydali faoliyatining alohida shakli: ta'lim, turmush, bo'sh vaqtni tashkil etish, ularning ijtimoiy faolligini rivojlantirish va ijtimoiy maqbul tashabbus-larni qo'llab-quvvatlash;

-talabalarining o'zini o'zi boshqarishi, talabalar jamoasi hayotini boshqarish funktsiyalarini amalga oshirishda talabalarining mustaqil ijtimoiy faoliyati shakli sifatida ishlaydi;

⁸⁸ Volchok, T.I. O'zini o'zi boshqarish jamiyatni yangilash sharoitida bo'lajak o'qituvchini samarali tayyorlash vositasi sifatida / T.I. Volchok // O'rta kasb-hunar ta'limi. - No 10. - 1999. - S. 10-21.

-o'zini o'zi boshqarishning asosiy ustuvor yo'nalishi talabalar muhitida tashkiliy faoliyat, talabalarning manfaatlari va huquqlarini himoya qilish, raqobatbardosh mutaxassisni shakllantirish ekanligi haqidagi g'oya qimmatlidir;

-talabalarning o'zini o'zi boshqarishning yaxlit tizimi turlicha aks ettiradi tashkiliy shakllar talabalar guruhlarini boshqarishda ishtirok etishni ta'minlash;

-o'quvchilarning o'zini o'zi boshqarishi -talabalar hayotini tashkil etish va amalga oshirish bilan bog'liq qarorlarni qabul qilish va amalga oshirish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yaxshi maktab;

-talabalarning o'zini o'zi boshqarishi talabalarni universitet boshqaruviga, xususan, universitet faoliyati bilan bog'liq masalalarni muhokama qilish va hal etish, o'quv jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish va nazorat qilish, ilmiy-tadqiqot va tashqi ishlarga jalb etilishiga yordam beradi.

Umuman olganda, talabalarning o'zini o'zi boshqarishi istisnosiz zamonaviy universitet va institut hayotining barcha sohalarini qamrab oladi. Talabalar uchun, ba'zi mualliflarning fikriga ko'ra, universitet va institut faoliyatida "yopiq" zonalar mavjud emas va bo'lishi mumkin emas, aks holda o'zini o'zi boshqarish haqida gapirish befoyda. Boshqacha qilib aytganda, talabalarning o'zini o'zi boshqarishi talabalar va talabalar jamoalarining hayot tarzi va shakli, universitet va institut faoliyatini ta'minlashda talabalarning mustaqilligi, tashabbuskorligi va faolligining uyg'unligidir. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak talaba yoshlar o'z oldiga quygan maqsadlar va maqsadlari yo'lida amalga oshirishi lozim bo'lgan rejalari va orzu umidlari asosida o'z-o'zini boshqarish juda muhim vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamoalarning shaklanish tipologiyasi va omillari. \\Bazarov T.Yu. Personal boshqarish. Toshkent 2021. 274 b.

2. Volchok, T.I. O'zini o'zi boshqarish jamiyatni yangilash sharoitida bo'lajak o'qituvchini samarali tayyorlash vositasi sifatida / T.I. Volchok // O'rta kasb-hunar ta'limi. - No 10. - 1999. - S. 10-21.

3. Garbuzova, G.V. Talabalarning o'zini o'zi boshqarishi bo'lajak mutaxassislarning kasbiy shaxsini shakllantirish vositasi sifatida: t.f.n. dis. ... qand. psixolog. Fanlar: 19.00.07 / G.V. Garbuzov. - Yaroslavl, 2009. - 22 p.

4. Ejukova, I.F. Talaba tayyorlash pedagogika universiteti talabalarning o'zini o'zi boshqarishi asosidagi kasbiy faoliyatga: muallif. dis. ... samimiy. ped. Fanlar: 13.00.08 / I.F. Ejukov. - Moskva, 2009. - 28 p.

5. Kreschenko, I.N. Bo'lajak o'qituvchi shaxsini kasbiy rivojlantirish jarayonida talabalarning o'zini o'zi boshqarishi /I.N. Kreshchenko // Stavropol universitetining xabarnomasi. - Stavropol. - 1996. - No 1. - S. 232-233.

TALABALAR JAMOASIDA LIDERLIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHDA, XORIJ OLIMLARINING AMALGA OSHIRGAN ILMIY TADQIQOT ISHLARI

Mardiyeva Shaxnoza Amirovna

SamDCHTI Gumanitar va axborot texnologiyasi kafedrası o'qituvchisi

Barcha davrlarda jamiyatning taraqqiyoti, mamlakatni har tomonlama rivoj topishiga xizmat qilishi, birinchi navbatda ilm-fanga bo'lgan e'tibor, yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, intellektual salohiyati va o'z sohasida raqobatbardosh kadr sifatida namoyon bo'lishiga bog'liq bo'lgan. Hozirgi shiddatli rivojlanish sharoitida ham dunyo hamjamiyati hayotida iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy munosabatlarning keskinlashuvi yoshlarni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, ma'naviy hayotiga integratsiyalashuvini ta'minlashni taqozo etmoqda. Bu borada davlat va jamiyat barqarorligiga erishishning asosiy omili esa oliy ta'limda chinakam lider bo'lgan yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Respublikamizda yoshlarni madaniyat, teatr, sa'natga qiziqtirish, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, kompyuter texnologiyalari va internetdan foydalanish, kitobxonlikni targ'ib qilish, qizlarni ijtimoiy faol hayotga jalb etish maqsadida beshta muhim tashabbus ishlab chiqilgan bo'lib, u o'z navbatida, talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Bu esa pedagogik jarayonlarda talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish tuzilmasi, komponentlari, mezonlari, asosiy jihatlari va funksiyalarini aniqlashtirishning muhim ekanligini ko'rsatadi. [1]

Hozirgi vaqtgacha jahon miqyosida talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy, sotsiologik va psixologik yo'nalishlari bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, amerikalik olimlar U.Bennis va B.Nanuslarning uzoq yillik ilmiy tahlillari natijasiga ko'ra, liderlikning 850 dan ortiq ta'rifi hamda ushbu mavzu doirasida minglab empirik izlanishlar olib borilgani ta'kidlab o'tilgan. Nyu-Yorkning Bingemton davlat universiteti professori, B.M.Bassning qayd etishicha, lider va liderlik xususida o'tgan asrning o'zida 11000 dan ortiq kitob va maqolalar chop ettirilgan. Kanadaning York universiteti tadqiqotchisi J.Gringberg oliy ta'lim muassasalari talabalarida yetakchilikni quyidagi asoslarga tayanib, tahlil qilgan: talabalarda lider shaxsini shakllantirish, liderlikni rivojlantirish nazariyasi, modellari va tarbiyaviy jarayonlar, liderlardagi ijtimoiy o'zgarishlarni kuzatish, ayniqsa yigit va qizlar liderligi masalalariga alohida e'tibor qaratgan. [2]

Har bir tadqiqotchi olim o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida liderlik qobiliyatining shakllanishiga o'ziga xos tarzda yondoshgan va qarashlarini bildirgan.

Tadqiqotda keltirilishicha lider nazariyasiga doir 4 xil nuqtai nazar mavjud:

- liderlar tug'iladi, ya'ni tug'ma qobiliyat bo'lib, u shakllantirilmaydi;

- liderlik qobiliyati bu o'quv tajribasining tabiiy natijasi sanaladi;
- liderlik-bu pedagogik jarayonlar asosida yo'naltirilgan qobiliyatlarning samarasi;
 - strategik tajribalar asosida talabalarning qobiliyatidan kelib chiqib muayyan xizmatga jalb qilish ahamiyatlidir. [3]

Rossiyalik tadqiqotchi A.V.Zorina tomonidan "liderlik" - shaxsning jamoada muvaffaqiyatli faoliyatni yo'lga qo'ya olishi, ijobiy muhit yaratishi, umumiy maqsadlarga erishishiga hissa qo'shishi bilan bog'liq jarayon sifatida tushuntirilgan. [4]

Liderlik kompetentsiyasi - bu kishilarni, jamoa a'zolarining xayrxohligi asosida ish faoliyatini foydali hamkorlik uchun tashkil etish qobiliyati, muayyan rahbarning nizolarni samarali hal etish va unga erishish jarayoni sifatida izohlanadi.

Istalgan yosh davrida tashkilotchilik sifatlarni tarkib toptirish, mavjud liderlik layoqatini namoyon etishi uchun sharoit yaratish pedagogdan o'ziga xos tayyorgarlikni talab etadi. Los Anjeles Oliy ta'lim ilmiy tadqiqot instituti professori A.Astinning ta'kidlashicha, "Oliy o'quv yurtlarida talabalarda liderlikni rivojlantirish juda muhim va foydalidir. Chunki bakalavr darajasida ularning tajribasini boyitib borish, ularga kelgusida o'z hayotlarini nazorat qilish imkonini beradi".

A.Astin o'z tadqiqotlarida pedagogik jarayonlarda talabalar o'z vaqtlarining katta qismini o'quv rejadagi fanlarni o'zlashtirishga qaratib, faqat auditoriya mashg'ulotlariga katta e'tibor qaratib qolinganligini muammo sifatida qaraydi. Haqiqatan, talabalarning auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarga keng jalb etish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishning maqbul yechimlarini hisobga olish lozim. Mazkur jarayonlarni to'g'ri tashkil etish uchun quyidagi muhim jihatlarga e'tibor qaratish zarur:

1. Talabaning ijtimoiy (oilaviy) ahvoli.
2. Yoshi va yashash hududining xususiyatlari.
3. Moliyaviy resurslardan foydalanishi.
4. Vaqtni to'g'ri taqsimlashi.
5. Ko'ngillilik (volontyorlik) faoliyatiga bo'lgan mayli.
6. Jamoa bilan ishlash layoqati.
7. Yoshlar tashkilotlaridagi faolligi.

⁸⁹Greenberg J.D. Leadership development for students at York University. Dissertation master of arts in leadership. Royal Roads university, 2008.

2. Hamdan Said. The effectiveness of student leadership training programs in public universities of Malaysia. Dissertation doctor of educational leadership. Idaho state university, 2006.

3. Зорина А. В. Педагогические условия формирования лидерских качеств у студентов вуза. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук, Нижний Новгород, 2009, с. 6.

4. Astin A.W., Astin H.S. Leadership reconsidered: Engaging higher education in social change. Los Angeles. Higher education research institute. 2000.

Aynan ushbu jihatlarga alohida e'tibor qaratish talabalardagi mavjud, "yashirin" liderlik qobiliyatini yuzaga chiqarish, tashkilotchilik sifatlarini namoyon etish imkoniyatini beradi. Qozog'istonlik tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, talabalardagi liderlik ko'p o'lchovli psixologik hodisadir. Liderlik qobiliyati murakkab majmuaviy tizim sifatida barcha shaxsiy sifatlar va xatti-harakatlar asosida shakllanadi. Ularning fikriga muvofiq, talabaning liderlik qobiliyatini rivojlantirish uchun eng muhim narsa bu -pedagogik raqobat muhitidir. Shuningdek, qobiliyatlar tizimi, muloqot ko'nikmalari va shaxsiy sifatlar mazkur jarayonda muhim o'rin tutadi.

Respublikamizda talabalarning tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantirishga doir ilmiy izlanishlar olib borgan olim N.N.Djamilova, liderlik qobiliyati bilan bog'liq quyidagi sifatlarni aniqlashtirgan:

- ◆ intizomlilik - o'zini o'zi tashkillashtirish, javobgarlikni his qilish, shaxsiy maqsadlar va ijtimoiy ko'rsatmalarga bo'ysunishga tayyorlik; \
- ◆ mustaqillik - shaxsning ichki pozitsiyasi, o'zgalarning yordamisiz faoliyatni takomillashtirish uchun zarur bilim, ko'nikma va malaka hamda kompetentsiyalar tizimi;
- ◆ ishchanlik - o'quv, mehnat va ijtimoiy faoliyatda aniq maqsad asosida harakat qilish, o'zining kuch va g'ayratini safarbar etish;
- ◆ tashabbuskorlik - o'quv va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun yangi g'oya va takliflarni ilgari surish hamda amaliy faoliyatda namoyon etishga qodirlik;
- ◆ maqsadga yo'nalganlik - hayotiy pozitsiyasini aniq belgilay olish va o'z maqsadiga erishish usullarini modellashtirish qobiliyati;
- ◆ mas'uliyatlilik - jamiyat tomonidan belgilangan xulq atvor me'yorlariga muvofiq o'z xatti harakatlari natijalarining to'liq anglanishi, berilgan topshiriq va vazifalarni o'z vaqtida hamda bekamu ko'st bajarish istagi;
- ◆ mehnatsevarlik - shaxsning mehnat faoliyati jarayoniga ijobiy munosabatining namoyon bo'lish shakli bo'lib, xohish-istak, iroda va faollik kabi xususiyatlarning integrallashuvi;
- ◆ muloqotchanlik - birgalikdagi, hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlik, shaxslararo munosabatga ochiqlik, o'zaro hurmat va samimiylik asosida ichki hissiyot va intilishlarini namoyon etish;
- ◆ olijanoblik - doimiy yordamga, muruvvat va saxovat ko'rsatishga shaylik, boshqalarning yutuqlari va qayg'ulariga hamdard bo'lish;
- ◆ qat'iylik - aniq va to'g'ri qarorlar qabul qilish asosida masalaning yechimini topishda jonbozlik ko'rsatishga doir shaxsning irodaviy sifati;
- ◆ tolerantlik - o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlariga hurmat ehtiromda bo'lish, muomala, munosabatda kamsitish va tahqirlashlarga yo'l qo'ymaslik, insoniylikni hamma narsadan ustun hisoblab, jamoada, ish joylarida, mahalla ko'yda bunga rioya etish. [6]

Jahon va milliy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, lider qaysi yo'nalishda namoyon bo'lishidan qat'iy nazar uning shaxsiga doir o'ziga xos qobiliyat va sifatlar tarkib topishi zarur:

◆ birinchidan, barcha ruhiy ta'sir etish bilimlarini jamlagan emotsional intellekti (EQ) ning mavjud bo'lishi;

◆ ikkinchidan, guruh yoki jamoa a'zolari orasida o'zining bilimi va ko'nikmalarini birgalikda baham ko'rishi, targ'ib qilishi va muayyan maqsadga yo'naltirishda foydalana olishi;

◆ uchinchidan, kommunikativlik va samarali muloqotni amalga oshirishni uddalay olishi;

◆ to'rtinchidan, ma'lum bir vazifani amalga oshirishda unga tegishli tajribani egallaganligi va bajarish jarayonida shaxsiy namuna bo'la olishi;

◆ beshinchidan, jamoa a'zolari orasida adolatni ta'minlay olishi va umumiy manfaatga erishish orqali jamoaning har bir a'zosi manfaatini ifoda eta olishi;

◆ oltinchidan, jamoa oldidagi umumiy ezgu maqsadga yo'naltirilgan vazifalarni to'g'ri taqsimlash va bajarilishini nazorat qila olish san'atini egallaganligi;

A.V.Artamonovanning tadqiqotiga asosan, pedagogik jarayonni tashkil etishda rasmiy o'quv shakliga nisbatan qat'iy ta'lim nazoratidan holi bo'lgan individual o'quv kurslari talabani lider sifatida tarbiyalaydi.[6] Shaxsga yo'naltirilgan pragmatik o'qitish usuli talabanning ichki qobiliyatlarini namoyon qilish imkonini beradi va o'qituvchi yoki trener bilan talaba o'rtasidagi mazmunli aloqani ta'minlaydi. Eng muhimi, ijtimoiy gumanitar fanlar vositasida interfaol o'quv kurslarini yo'lga qo'yish ko'zlangan maqsadga erishishni osonlashtiradi. Kurs metodikasida talabalarning liderlik qobiliyatini rivojlantirishning 5 bosqichli kombinatsiyasini ifoda etgan model taqdim etilgan. Unga binoan, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini boshqarish, motivatsiya, ijtimoiy ko'nikma uchun sharoit yaratish, o'quv kurslarining natijadorligini oshiradi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning liderlik qobiliyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari rossiyalik professor N.P.Puchkovning tadqiqotlarida ham alohida o'rganilgan. Tadqiqotda keltirilishicha, pedagogik shart sharoitlar asosida talabada liderlik kompetentsiyalarini rivojlantirish orqali uning boshqa sifatlarini integratsiyalash va umummadaniy salohiyatini oshirish mumkin. Uning nazariyasi talaba shaxsidagi liderlik qobiliyatlari 3 ta muhim shartlar asosida rivojlanishiga erishishni o'zida aks ettiradi:

- pedagogika va psixologiya fanlari doirasida maxsus o'quv mashg'ulotlari orqali rejalashtirilgan muammolarni bartaraf etish asosida liderlik kompetentsiyalarini rivojlantirish;

- talabalarni maxsus kasbiy jarayonlarga jalb etish va bevosita boshqaruvga doir sa'y-harakatlarini amalga oshirish imkonini berish;

- talabalarni auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda turli tadbirlar va konferentsiyalarda ishtirokini ta'minlash orqali tajribasini boyitib borish.

Mazkur tadqiqot talabani lider bo'lish istagiga turtki beradi, uni o'z o'zini kashf qilishiga imkon yaratishiga urg'u qaratadi. Ya'ni, talabalar o'z hatti-harakatlarini pedagogik munosabatlarning bevosita markazidan boshlaydi, muammoli vaziyatdan chiqishning imkonini qidiradi. Keyingi bosqichda o'zini rahbardek his qilish imkoniga ega bo'lgani holda, oldindan kutilmagan kasbiy salohiyatini yuzaga chiqarishga urinadi. Natijada egallagan intellektual va kasbiy ko'nikmalari asosida aniq maqsadga yo'naltirilgan tadbirlarda yanada faollashadi, tajribasi ortadi. Tadqiqot natijalari har bir davlatning talabalarni liderlik qobiliyatini shakllantirish va uni rivojlantirib borish bo'yicha o'z tajribasi hamda texnologiyasi mavjudligini ko'rsatadi. Talabalarda liderlik hodisasi o'zgaruvchan intellektual va hissiy komponentlarga ega, murakkab tuzilishga ega bo'lib, hududiy jihatdan o'ziga xosliklarni o'z ichiga oladi. Liderlarni tarbiyalashga har bir davlat-ning milliy masalasi sifatida ham qarash mumkin. Chunki ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning liderlik ko'nikmalarini shakllantirishga bo'lgan pedagogik ehtiyoj, o'sha davlatning milliy mentaliteti va kadrlar tayyorlash milliy strategiyasiga xosdir. Binobarin, mamlakatning ta'lim siyosati har tomonlama yetuk kadrlar tayyorlash bo'yicha o'zining iqtisodiy siyosiy, ijtimoiy-madaniy barqarorligi ilm fan taraqqiyotini ta'minlovchi talablar asosida shakllantirib boriladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xorijiy davlatlarning oliy ta'lim tizimida talabalarni liderlik qobiliyatlarini rivojlantirib borish uzluksiz ravishda kechadi. Bu yo'nalishdagi asosiy sa'y-harakatlar o'quv jarayonidan tashqari, maxsus dasturlar va turli darajadagi tadbirlar vositasida amalga oshiriladi. [5]

Xulosa: Eng muhimi, ta'lim oluvchilarni o'z qobiliyatlarini to'laqonli yuzaga chiqarishi, kasbiy hayotiy ko'nikmalarini egallashlari uchun erkin ijodiy muhit yaratiladi. Etiket qoidalariga zid bo'lmagan holda har qanday rasmiylik va qat'iy cheklovdan holi psixologik muhitning mavjudligi samarali lider tayyorlashning muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Greenberg J.D. Leadership development for students at York University. Dissertation master of arts in leadership. Royal Roads university, 2008.

2.Hamdan Said. The effectiveness of student leadership training programs in public universities of Malaysia. Dissertation doctor of educational leadership. Idaho state university, 2006.

3.Зорина А. В. Педагогические условия формирования лидерских качеств у студентов вуза. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук, Нижний Новгород, 2009, с. 6.

4.Astin A.W., Astin H.S. Leadership reconsidered: Engaging higher education in social change. Los Angeles. Higher education research institute. 2000.

5.Alimbekova A.A., Asylbekova M., Karimova R. Development of leadership potential in students with in an education space of a Pedagogical university. International journal of environmental & science education. 2016, p. 4610–4616.

ИНГЛИЗ ТИЛИ ДАРСЛАРИДА АУТЕНТИК МАТЕРИАЛЛАРДАН Фойдаланиш

Матёқубова Шоҳида Абийровна

ТошПТИ академик лицей инглиз тили бош ўқитувчиси

Чирчиқ Давлат Педагогика университетини таянч докторанти

КИРИШ. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисидаги” фармонида, халқаро тажрибаларга таяниб, олий таълим тизимида илғор ўқитиш стандартларни жорий этиш, шунингдек дарсликларда назарий билим олишга йўналтирилган таълимдан амалий кўникмаларни эгаллашга йўналтирилган таълим тизимида босқичма-босқич ўтиш масаласи устувор йўналиш сифатида қайд қилинган.

Давлат таълим стандарти талабларига мувофиқ, Олий таълим муассасаларининг ихтисослиги чет тил бўлмаган факультетлари бакалаврият ва магистратура босқичи талабалари инглиз тилини CEFR халқаро хужжати талабларига мувофиқ, “B2” даражада эгаллаш талаб қилинади. Мазкур талабни бажариш бўйича ҳукумат томонидан нофилологик йўналишдаги талабаларга чет тиллар ўргатиш/ўқитиш бўйича етарлича ислохотлар амалга оширилмоқда. Бундан ташқари ушбу йўналишларга хорижий тиллардан дарс берадиган профессор ўқитувчилар ҳам дарсларни янада қизиқарли ва самарадор қилиш мақсадида турли хилдаги янги ғояларни тадбиқ қилмоқдалар. Ҳеч кимга сир эмаски, Олий таълим муассасаларининг асосий мақсади ва вазифалари баркамол авлодни муайян касблар эгаси қилиб етиштиришдан иборат. Ушбу талабдан келиб чиқиб, замонавий тенденциялар асосида жаҳон ареналарида ватан равнақига ҳисса қўша оладиган ҳамда унинг маданияти ҳақида умумий маълумот бера оладиган коммуникант шахсини ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга. Ва ушбу олий мақсадларга эришиш учун талаба ёшларни тилга бўлган эҳтиёжларини камчиликларси бартараф қилиш лозим.

Чет тилларни ўқитишда, ўқитиш воситалари муҳим аҳамиятга эга. Ўқитиш воситалари деганда чет тили ўргатишда фойдаланиладиган, қўлланиладиган қуролири тушунилади. Чет тили ўқитишнинг турли ўқитиш воситалари мавжуд. Инглиз тили ўқитувчиси улардан фойдаланиб ўқувчиларга, талабаларга тил материалларни ўргатади, тушунтиради, малака ва кўникма

ҳосил қилади. Улар етишмаса ёки бўлмаса биз ўқувчиларга, талабаларга инглиз тилидан тўлиқ амалий билим беришимиз, уларни тарбиялашимиз қийинлашади. Воситаларни қўллаш тез тушунишга, онгли ўзлаштиришга, хотирада сақлашга ёрдам беради. Ўқитиш воситалари мураккаб ўқитиш тизимининг таркибий қисмидир. Аутентик материаллар тил ўрганиш учун жудаям қизиқарли ва ҳаётий воқеъликка асослангани билан қолган манбалардан ва ўқитиш воситаларидан ажралиб туради.

Ҳақиқий, реал ҳаёт воқеаларига асосланган матнлар ҳақида мулоҳаза қиладиган бўлсак; **Аутентик** (Юнонча *autenticos*-асл, ҳақиқий)- зарур асослар мавжуд бўлган, маълум меъзонларга мувофиқ ҳолда расман асл манбага тўлиқ мос, ҳақиқий деб топилган муаян ҳужжат матни; “расмий ҳужжат” тушунчасига синоним.

Аутентик материалларнинг тил ўрганишдаги авзалликлари беқиёс хусусан:

1. Аутентик материаллар тил ўрганувчини тилнинг реаллик даражаси билан бевосита алоқага олиб киради.

2. Даврий нашрлардан олинган ҳақиқий манбалар доим янгиланган ва янгиланиб туради.

3. Аутентик материаллар ўқувчиларга синф ва ташқи дунё ўртасидаги тафовутни бартараф этишга ёрдам беради.

Талабалар инглиз тилини турли хил мақсадларда ўрганишади. Мана шу мақсадларини мустаҳкамлаш мақсадида хатто кўшимча курсларга ҳам ёзилишади. Таълим йўналишига асосланиб устозлар мақсадли яъни аутентик манбалардан дарсларда фойдалансалар талабаларга ўз мақсадлари йўлида улкан мотиватсия ва ёрдам берган бўладилар.

Хулоса. Талабалар умумий мулоҳаза қилганда реал, ҳаётий маълумотларга қизиқишади. Айниқса бу тил ўрганиш жараёнида бўлса. Аутентик материаллар фойдалидир, чунки улар тилнинг ҳақиқий қўлланилишини кўрсатади ва кўпинча талабалар учун катта қизиқиш уйғотадиган таркибни тақдим этади. Аксарият аутентик материаллар янгиликлар ёки маданиятдаги долзарб мавзуларни тақдим этади ёки талабаларга кундалик ҳаётларида фойдали бўлган маълумотларни ўрганишга ёрдам беради. Шу сабабли, ҳақиқий материаллардан фойдаланиш кўпинча талабаларнинг мотивациясини ва инглиз тилида гапиришда таваккал қилишга тайёрлигини оширади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Жалолов Ж.Ж Чет тили ўқитиш методикаси: Чет тиллар олий ўқув юртлари (факултетлари) талабалари учун дарслик. Ўқитувчи 1996.

2. Сатторов Т.Қ Бўлажак чет тили ўқитувчисининг услубий омилкорлигини шакллантириш технологияси. ТДЙУИ 2003. D. Tojiboyeva, A. Yo'ldoshev. Maxsus fanlarni moqitish metodikasi. 2009.

3. Жалолов Ж.Ж Педагогика институтлари дастури чет тиллар. 1994 й.

4. Bloom B. S., Engelhart M. D., Furst E. J., Hill W. H., Krathwohl D. R. (1956). Taxonomy of educational objectives: The classification of educational goals. New York, NY: David McKay.

5. Brown, A.H., & Green T.D., (2015). The essentials of instructional design: Connecting fundamental principles with process and practice. Routledge.

6. Almon, C. (2011). English language learner engagement and retention in a community college setting, UMI Dissertation Publishing.

7. Matyoqubova Sh. A. Effectiveness of using authentic materials in teaching foreign languages. Mental enlightenment Scientific-methodological journal 2022 October p 309-317.

MINTAQADA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA INNOVATSIYALARNING O'RNI

Masharipova Manzura Alimbayevna

Urganch davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti dotsenti

Saparova Mohira Alisher qizi

Urganch davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Bugungi kunda oziq-ovqat iste'moli hayot sifati, ijtimoiy farovonlik, iqtisodiy va milliy xavfsizlikning eng muhim mezoni sifatida tan olingan. Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga kafolatlanganligini ta'minlash butun dunyoda ustuvor vazifaga aylandi va "oziq-ovqat muammosi" kontekstida ko'rib chiqilmoqda. Chunki oziq-ovqat muammosi doirasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga ustuvor ahamiyat beriladi.

Shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligi tizimining reproduktiv mohiyatini iste'mol tizimini strategik boshqarishsiz amalga oshirish mumkin emas. Aholining yuqori turmush sifatini ta'minlaydigan oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish jarayonlariga davlat aralashuvining asosiy mexanizmi davlat tomonidan tartibga solish bo'lib, u hozirgi vaqtda uchta jihat bilan cheklangan ya'ni oziq-ovqat mahsulotlarining yetarli hajmi, xavfsizligi va sifatini ta'minlash, shuningdek aholining oziq-ovqat mahsulotlariga real iqtisodiy kirishini ta'minlovchi minimal ijtimoiy kafolatlar.

Shuningdek, insoniyatning oziq-ovqat xavfsizligi uchun shart-sharoit yaratish, butun dunyo bo'ylab odamlarning ovqatlanishini yaxshilash, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'sishiga ko'maklashish - bularning barchasi BMTning barqaror rivojlanish maqsadlariga taalluqlidir. Jahon iqtisodiy tizimining eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan jahon oziq-ovqat tizimi qishloq xo'jaligi xom ashyosi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarining xalqaro savdosi vositachilari va tartibga soluvchilari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar majmuidir. Uning faoliyati barqaror rivojlanishning barcha jabhalariga bevosita iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'sir qiladi. Jahon oziq - ovqat tizimi qondirishi kerak bo'lgan asosiy talablar, birinchi navbatda, universal mavjudlik hisoblanadi. Chunki oziq-ovqat tizimining barcha sub'ektlari tomonidan moliyaviy, sug'urta, transport, ta'lim va boshqa xizmatlarni olish imkoniyati, bu ayniqsa kichik fermer xo'jaliklari uchun juda muhimdir.

Bundan tashqari bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini yaratish sharoitida innovatsion rivojlanishning asosiy vazifalari hududni modernizatsiya qilish, shuningdek, sanoat resurslarini tejash, ishlab chiqarishning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, qishloq xo'jaligining ekologik omillarini yaxshilashdan iborat. Belgilangan vazifalarni hal etish uchun mintaqada bo'lgani kabi butun milliy tizimda ham tub o'zgarishlarni amalga oshirish zarur. Shuning uchun, birinchi navbatda, innovatsiyalar sohasidagi takliflarning sifat va miqdor o'sishini ta'minlash kerak.

Zamonaviy sharoitda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun oziq-ovqat va ularni ishlab chiqarish uchun o'z ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish, shuningdek, importni qisqartirishni qo'llab-quvvatlash kerak. Mintaqaning oziq-ovqat resurslarini o'z mahsulotlarini ishlab chiqarish orqali oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'zini-o'zi ta'minlash asosida tashkil etish, bu esa mahsulotlar importini minimallashtirishni nazarda tutadi va bunda oziq-ovqat xavfsizligi kafolatlanadi.

Shu bilan birga hududlar o'rtasidagi oziq-ovqat va xomashyo munosabatlarining asosiy ahamiyati sifatni oshirish, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishning umumiy tannarxini pasaytirish, mamlakat oziq-ovqat bozorini tovarlar bilan to'ldirish, ularning tarkibini yaxshilashdan iborat.

Shunday qilib, oziq-ovqat bozori faoliyati va aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashning muhim shartlari tabiiy ishlab chiqarish, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy, innovatsion va investitsiya resurslaridan maqsadli va oqilona foydalanish hamda aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash tizimini ilmiy asoslangan standartlar asosida mahalliy ishlab chiqarish orqali rivojlantirish hisoblanadi.


Innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonida xavfsizlik tizimi quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan, ishlab chiqarish jarayonida belgilangan talablarga javob bermaydigan innovatsion mahsulotlarning chiqarilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan xavflar ro'yxati;

- ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilanadigan innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonining muhim nazorat nuqtalari va oziq-ovqat xom ashyosining xavfsizlik parametrlari ro'yxati;

- tayyor mahsulotlarning xavfsizlik nuqtai nazaridan ayrim turdagi innovatsion mahsulotlar uchun texnik reglamentlar talablariga muvofiqligini tekshirishning davriyligi [1].

Demak, innovatsion jarayon tovar ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Mintaqada yaratilgan iqtisodiyot doirasida innovatsion bilimlarni joriy etish bo'yicha doimiy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish, innovatsion faollikni oshirish, qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirish, jadal iqtisodiy o'sishning investitsion o'sish komponentlarini saqlab qolish maqsadida asosiy tarmoqlarni jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.



1-rasm. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda innovatsion rivojlanish darajasi [2]

Bizning fikrimizcha, innovatsion mahsulotlar innovatsion darajaning muhim elementlari bo'lib, ular sifatli va xavfsiz mahsulotlarga, shuningdek, ushbu mahsulotlarning aholi uchun mavjudligiga mos kelishi kerak. Mintaqaning barqaror rivojlanishining muhim sharti samarali innovatsion siyosat bo'lib, uning yakuniy maqsadi fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslangan yangi, ilg'or texnologiya va ixtirolarni, mehnatni tashkil etish va boshqarish shakllarini joriy etish, shuningdek, sifat va miqdoriy innovatsion mahsulotlar ko'rsatkichlarini yaxshilash, xususan, oziq-ovqat xavfsizligi masalalarini hal qilish bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хамукова М.А., Мешева Р.А. Теоретические основы формирования региональных продовольственных ресурсов. //Экономика и предпринимательство.- 2014.- №-9.С.207-209.

2. Сафронова Ю.В. Инновационная деятельность как фактор повышения конкурентоспособности на предприятии. В сборнике: Тенденции развития экономики и менеджмента. Сборник научных трудов по итогам международной научно-практической конференции.- 2015. - С. 19-21.

GENDER TUSHUNCHASI VA UNING ASOSIY MOHIYATI

Mingboyev I.A

Toshkent moliya instituti talabasi

Allayorov S.R.

Toshkent moliya institute dotsenti, PhD

Zamon shiddat bilan rivojlanayotgan davrda jamiyat ham taraqqiy etar ekan, insonlar ham zamon bilan hamnafas bo'lishga harakat qilashadi. Bu ayollarga ham tegishli. Ayollar har bir oilaning guli, shamchirog'idir. Hadisi shariflarda ham Hazrati Muhammad (s.a.v.) "Jannat onalar oyog'i ostidadir" deb ta'kidlaganlar. Shunday ekan, onani, ayolni e'zozlash, uni hurmat qilish, huquq va erkinliklarini ta'minlash hamma vaqt dolzarbligini yo'qotmagan. Xotin-qizlar va erkaklar tengligi – ularning teng huquq va majburiy atlar sohibi ekanligini anglatadi. Xotin-qizlar va erkaklar tengligi – demokratiyaning muhim elementidir. Bu tenglik fuqarolarning davlat, qonun va sud oldida rasmiy tan olinadigan huquqiy tengligi bo'lib, u har bir fuqaroning qaysi jinsga mansubligidan qat'i nazar, teng huquq va erkinlikka ega ekanligini anglatadi.

Mamlakatimizda ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik milliy miqyosda shakllantirilmoqda. Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, xususan, O'zbekiston Konstitutsiyasida o'z aksini topgan. Konstitutsiyaning 18-moddasida: «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart», – deyilgan bo'lsa, 46-moddasida esa yanada aniq qilib: «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar», – deb, gender tengligi prinsipi mustahkamlab qo'yilgan.

Konstitutsiyaning bu normalari boshqa qonunlar va qonunosti hujjatlari bilan takomillashtirib borilmoqda hamda ayollar huquqlarini himoya qilish vakolatiga ega bo'lgan mexanizmlar tashkil etilmoqda. BMT Ustavining 55-moddasida: «Inson huquqlariga, kishilarning irqi, jinsi, tili va dinidagi tafovutlaridan qat'i nazar, hammaning asosiy erkinliklariga yalpi hurmat bilan qarash va ularga rioya qilishga ko'maklashadi», – deb ta'kidlash bilan mazkur tashkilotning asosiy faoliyati yo'nalishlaridan biri inson huquqlari, shu jumladan xotin-qizlarning huquqlariga rioya qilinishi muammosi bilan bog'liq ekanligi e'tirof etiladi.

Bunday huquqlarning universal tusga egaligi bu muammoni dunyodagi barcha mamlakatlar uchun ham umumiy ahamiyatga molik qilib qo'yadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining e'lon qilinganiga 60 yildan oshgan bo'lsada, xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash va himoya qilish muammolari inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqning keskin masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu masala nafaqat jamiyat, balki, huquqshunos olimlar va huquqni muhofaza qiluvchilar tomonidan doimiy ravishda muhokama qilinadi va baholanadi.

Xotin-qizlar huquqlari masalasi, aniqrog'i xotin-qizlar hamda erkaklarning qonun oldida tengligi masalasi mazkur sohada inson huquqlarining ta'minlanishiga baho berishda muhim tamoyillardan biri hisoblanadi. Xalqaro miqyos xotin-qizlar huquqlari harakati ikki asosiy bosqichga bo'linadi.

Birinchi bosqich bu diskriminatsiyaga qarshi kurash bo'lib, ushbu harakat natijasida 1979 yili Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya qabul qilingan. Unda sog'liqni saqlash va ta'lim sohasidagi, jamiyatdagi munosabatlar, siyosiy hayotdagi ishtirok va oiladagi teng huquqlilikka oid masalalar o'z ifodasini topgan. Lekin Konvensiyada oiladagi zo'ravonlikka doir qoidalar aks etmagan.

Xotin-qizlar huquqlari masalalari, ularning davlat va jamiya oldidagi tengligi ko'pincha muayyan mamlakat, xalq yoki millatning o'ziga xos xususiyatlariga borib taqaladi.

Xotin-qizlarning jamiyatdagi o'рни va roliga nisbatan shakllangan aqidalar asosidagi munosabatlar qonunan mustahkamlangan va huquqiy normalar bilan belgilangan emas, biroq ularga o'zgartirish amri mahol bo'lgan, «mangu» masala sifatida qaraladi. Aynan aqidalar, qotib qolgan qarashlar, fikrlar va munosabatlar xotin-qizlarni itoatkor, mute, «gah» desa qo'lga qo'nadigan», ikkinchi darajali odam degan tushunchani yaratib, hayotning barcha sohalarida ularning huquqlari buzilishiga, hatto, ularga nisbatan zo'ravonlik bilan bog'liq ji noyatlarning sodir etilishiga olib kelmoqda.

Inson huquqlari inson va davlat o'rtasidagi munosabatlar bo'lib, davlat zimmasiga bu huquqlarning ta'minlanishi va himoya qilinishi borasidagi javobgarlikni yuklaydi. Gap xotin-qizlar huquqlari haqida borganida aybdorni erkaklar o'rtasidan yoki patriarxal ruhdagi jamiyatdan qidirish xohishi paydo bo'ladi. Albatta, bu fikrda ham jon bor, lekin, xotin-qizlar huquqlarining tabiati, ularning universal va rad etib bo'lmas huquqlari inson huquqlarining ajralmas qismi ekanligini ham unutmaslik kerak. Aynan shu o'rinda davlatning xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, ularga nisbatan barcha turdagi kamsitishlar va barcha turdagi zo'ravonliklarning oldini olish va jazolash borasidagi javobgarligi va ishtiroki yaqqol namoyon bo'ladi. Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berish to'g'risidagi deklaratsiyada qat'iy belgilab qo'yil ganidek, davlatlardan xotin-qizlarga nisbatan sodir etilgan zo'ravonlik sababchilarini jazolash, aniqlash va oldini olishda tegishli choralar ko'rish talab qilinadi. Shunga binoan, davlatlarga jamiyatda shakllangan qarashlardan, ya'ni shaxsiy uy-joylarning daxlsizligi va oilaviy hayotga aralashmaslikdan voz kechib, oiladagi zo'ravonlikning oldini olish uchun ularga aralashish talab qilinadi. Bu borada davlatlar xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik qilayotgan shaxslarni aniqlashni ta'minlaydigan qonunchilik doirasini va huquqni qo'llash strategiyasini yaratishlari kerak. Hukumatlar huquqni muhofaza qilish organlari va tibbiyot xodimlari uchun xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka oid masalalar bo'yicha tegishli yo'l-yo'riqlar berishi kerak. Bundan tashqari, hukumatlar xotin-qizlarning kamsitilishiga olib keladigan odatlarni bartaraf etish to'g'risida keng ommani xabardor qilish bo'yicha ta'lim dasturlarini amalga oshirishlari lozim. Inson huquqlari sohasida huquqiy nazariya va amaliyot uchun yangilik hisoblangan bu g'oyalar xususiy shaxslar tomonidan sodir etiladigan harakatlar uchun davlatning javobgarlik doktrinasini takomillashtiradi.

O'zbekistonda ayollar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha izchil va tizimli siyosat olib borilmoqda. Xususan quyidagilar bu siyosatning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi:

birinchidan, ayollar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya etish, onalik va bolalikni muhofaza qilish sohasida qabul qilingan qonun hujjatlari bajarilishini

ta'minlash hamda bu boradagi huquqiy asosni yanada takomillashtirish choralarini ko'rish;

ikkinchidan, ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ishlarning ahvolini doimiy ravishda va kompleks monitoring qilish, ayollarning oiladagi, jamiyatdagi hamda jamoat va davlat ishlarini boshqarishdagi rolini oshirish;

uchinchidan, ayollarning bandleligini ta'minlash yuzasidan samarali choralar ko'rish va amalga oshirish, ularni ishga joylashtirishda har tomonlama yordam ko'rsatish, ayollar o'rtasida, ayniqsa, qishloq joylarda tadbirkorlikning turli shakllarini rivojlantirish;

to'rtinchidan, ayollarning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-huquqiy faolligini oshirish tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, ayollar nodavlat notijorat tashkilotlarining mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun ko'maklashish.

Ayollar bilan erkaklarning teng huquqligini ta'minlash uchun davlat keng miqyosda qo'shimcha tadbirlarni amalga oshirmoqda. Davlat ayollarga bilim olish, kasb egallash, mehnat qilish, unga haq olish, siyosiy hayotda faol ishtirok etish uchun erkaklar bilan teng imkoniyatlar yaratish bilan birga, ayollarning oiladagi o'rnini, jismoniy imkoniyatlarini hisobga olib, ularga mehnat qilishda, sog'lig'ini mustahkamlashda yaxshi sharoitlar va imtiyozlar yaratib berishi ham zarurdir. Chunki teng imkoniyat va qo'shimcha sharoit, imtiyozlar o'rnatish bilangina ayollarning teng huquqliligi ta'minlanishi mumkin. Bundan tashqari, oiladagi ishlarning asosiy qismi ayollar zimmasiga tushadi, buning natijasida ayollar o'zlarining to'la huquqliligi imkoniyatidan foydalanmaydilar. Shuning uchun davlat ayollar bilan erkaklarning tengligini e'lon qilgan ekan, buni ta'minlash uchun ayollarni qo'shimcha ravishda moddiy va ma'naviy rag'batlantirish choralarini ko'rmolmoqda». O'zbekistonda ayollar huquqlarini kamsitishga yo'l qo'ymaslik xotin-qizlarni mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida faol ishtirok etishga jalb qilish uchun huquqiy asos yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kalabixina I. Ye. Kratkiy ponyatiyniy slovar po gendernim issledovaniyam
2. Sotsialniy pol: ekonomicheskoe i demograficheskoe povedenie Uchebno-metodicheskie materialy po kursu. M., 1998.2.↑ Gender tenglik bo'yicha butunjahon statistikasi.
3. Gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxati (PDF).
4. <https://lex.uz/docs/-4494849> Xotin-qizlar teng huquq kafolatlari to'g'risidagi O'RQ-562 02.09.2019

BOZORGA CHIQARILGAN QIMMATBAHO QOG'OZLARNING MATEMATIK MODELI

Mirzamurodov Oltinbek Sultonali o'g'li

O'zbekiston Milliy univestiteti magistranti

Qimmatli qog'ozlar - kompaniyaning investitsiya asoslari: Kompaniyalar sotiladigan qimmatli qog'ozlarga naqd pul ajratishni afzal ko'rishining sababi, inflyatsiya ta'siridan bo'sh pul mablag'larining qiymatini yo'qotishiga yo'l qo'ymaslikdan farqli o'laroq, o'zlarining naqd pullari bilan qat'iy, past xavfli daromad olishdir. Bundan tashqari, kompaniyalar naqd pul taqchilligi kabi to'satdan vaziyatlar yuzaga kelganda yoki jozibador sotib olish imkoniyati paydo bo'lsa, ma'lum miqdorda naqd pulni zaxirada saqlashga rag'batlantiriladi. Opsion kabi yuqori riskli investitsiyalar bilan solishtirganda, sotiladigan qimmatli qog'ozlar kamroq daromad keltiradi - qo'shimcha ravishda, sotiladigan qimmatli qog'ozlar odatda faqat bir yil yoki undan kamroq vaqt davomida saqlanadi - shuning uchun investitsiyaga kiritilgan likvidlikdan to'lash xavfi kamayadi.

Bundan tashqari, sotiladigan qimmatli qog'ozlar qimmatli qog'ozlar (masalan, ETF, imtiyozli aktsiyalar) va qarz investitsiyalari (masalan, pul bozori vositalari) shaklida bo'lishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlarning uch xil tasnifi mavjud:

1. Sotish uchun mavjud (AFS): Muddatidan oldin sotish niyatida sotib olingan
2. Savdoga qo'yiladigan: sotishdan keyin va to'liq muddatidan oldin qisqa muddatli daromad olish maqsadida sotib olingan.
3. Muddatgacha ushlab turilgan (HTM): Muddati tugagunga qadar ushlab turish rejaları bilan sotib olingan.

Bozor iqtisodiyotida tekislik takrorlanishning mavjudligi 19-asr iqtisodchilarining ishlarida qayd etilgan. 20-asrning o'rtalaridan boshlab iqtisodiy dinamikani o'rganishda matematik usullar keng qo'llanila boshlandi. Xususan, inmakroiqtisodiyotda bir qator matematik modellar taklif qilingan: yalpi talab-yalpi taklif modeli (bozor modeli), Solou modeli, multiplikator-tezlashtiruvchi model va boshqalar. $p(t)$ narx bo'lsin. hozirgi vaqtda mahsulotning t . Keyin narxning dinamikasi quyidagi tenglama bilan tavsiflanadi

$$p=D(p)-S(p) \quad (1.1)$$

Bu yerda $D(p)$ - talab funksiyasi, $S(p)$ - taklif funksiyasi. Odatda, ushbu funktsiyalar sohalari quyidagi xususiyatlarga ega:

(1) manfiy bo'lmagan va silliq funktsiyalar $D(p)$, $S(p)$ bo'lsa belgilanadi $p \in (0, \infty)$;

(2) agar $p \in (0, \infty)$ keyin tengsizliklar $D'(p) < 0$, $S'(p) > 0$ ushlab turiladi;

(3) $\lim_{p \rightarrow 0} D_{(p)} = D_0$, qayerda $D_0 \gg 1$ yoki $D_0 = \infty$, $\lim_{p \rightarrow 0} S_{(p)} = S_\infty$, qayerda $S_\infty \ll 1$ yoki $S_\infty = \infty$;

$D'(p) < 0$ tengsizlik, agar mahsulot narxi oshib borsa, tovarlarga talab pasayishini bildiradi. Aksincha, mahsulotning bozor narxi oshib borayotgan bo'lsa, taklif ko'payadi. $\lim_{p \rightarrow 0} S_{(p)} = 0$ tabiiydir, chunki nol narxda mahsulot taklifi mavjud emas. (1.1) tenglama faqat bitta ijobiy muvozanat holatiga ega ($p(t) = p_0 > 0$). Haqiqatan ham, agar $F'(p) = D'(p) - S'(p) < 0$ bo'lgan $F(p) = D(p) - S(p)$ funksiyani ko'rib chiqsak, ya'ni bu funksiyalar monoton kamayib boradi. Bundan tashqari, $\lim_{p \rightarrow 0} F(p) = \infty$ yoki u yetarlicha katta konstanta va $\lim_{p \rightarrow 0} F(p) < 0$ ga teng. Demak, $F(p) = 0$ tenglama faqat bitta ildizga ega $p(t) = p_0 > 0$.

Maqoladagi asosiy tenglamani (1.1) o'zgartirish taklif qilingan. Bu tenglama o'rniga biz kechikish-differensial tenglamani ko'rib chiqamiz:

$$\dot{p} = D(p) - S(p_h), \quad (1.2)$$

Bu yerda $p = p(t)$, $p_h = p(t-h)$, ya'ni $S(p)$ ta'minot funksiyasiga kechikish qo'shamiz. Endi bu funksiya $p(t)$ savdo kuni narxiga emas, balki narxga bog'liq. oldingi davrda, ya'ni kechagi savdo kunining narxi. Ushbu so'nggi bayonot tabiiydir, chunki ishlab chiqaruvchi tovarlarni etkazib berishda oldingi davrdagi narxni boshqaradi. Ushbu ish doirasida biz $D(p)$, $S(p_h)$ funksiyalarini tanlashning ikkita variantini ko'rib chiqdik:

$$(1) \quad D_1(p) = a_\alpha p^{-\alpha}, \quad S_1(p_h) = b_\alpha p_h;$$

$$(2) \quad D_2(p) = \frac{a}{p+c}, \quad S_2(p_h) = b \left(1 - \frac{c}{p_h+c} \right).$$

Yuqorida a , a_α , b_α , a , b , c - musbat konstantalar. Ikkala variantda ham $D(p)$, $S(p)$ funksiyalar tegishli sinfga tegishli. $S_1(p_h)$, $S_2(p_h)$ funksiyalari orasida bitta muhim farq bor: $\lim_{p \rightarrow \infty} S_1(p_h) = \infty$, $\lim_{p \rightarrow \infty} S_2(p_h) = b$.

4. Xulosa ishda biz bozorning matematik modelining ikkita variantini ko'rib chiqamiz, ular ko'proq mashhur bo'lgan "yalpi talab-yalpi taklif modeli". Asarlarda bo'lgani kabi [5,6] modelning klassik shakli o'zgartirildi va ta'minot funksiyasida kechikish qo'shildi. Bu yechimlar dinamikasini sezilarli darajada o'zgartiradi. Kechikishni hisobga olmasa, tegishli tenglamalar muvozanat holatiga ega bo'ladi va ular bozor iqtisodiyotining tsiklikligini tavsiflovchi davriy echimlarga ega bo'lolmaydi. Kechikishni hisobga olgan holda, tsikllar mos keladigan model parametrlarini tanlash bilan mavjud bo'lishi mumkin (tenglama koeffitsientlari). Tsikllar davri $T(h) = 2\pi h / \omega_\alpha$, $\omega_\alpha =$ ga yaqin, bu erda a - ikkala model uchun asosiy parametrlardan biridir. Agar konstanta $h \rightarrow \infty$ bilan yetarlicha

kichik va aksincha, yetarlicha katta bo'lsa, davr nolga yaqin bo'ladi. Ikkinchi holatda $h \rightarrow \infty$ bo'lganda, o'tgan asrning 1930-yillarida mashhur iqtisodchi tomonidan ochilgan iqtisodiyotning uzoq davrlari. N.D.Kondratyev amalga oshirildi. Yana bir bor ta'kidlaymizki, talab va taklif funksiyalarini tanlashning ikkala variantida ham davriy echimlar mavjud va ular muammoning barcha amalga oshirilishi mumkin bo'lgan parametrlari uchun barqarordir. Solow-Swan modelida ishda kechikish kiritish taklif qilingan [10], ammo bu ishda matematik nuqtai nazardan to'g'ri bo'lgan tahlil mavjud emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ricardo D 1971 Principles of Political Economy and Taxation (Harmondsworth: Penguin)
2. Zhang W B 1991 Synergetic Economics: Time and Change in Nonlinear Economics (Berlin-Heidelberg:Springer-Verlag)
3. Puu T 1990 Economic Dynamics (Berlin-Heidelberg: Springer-Verlag)
4. Lebedev V V and Lebedev K V 2011 Matematicheskoe modelirovanie nestatsionarnykh protsessov in Russian (Moscow: eTest Publ.)
5. E. C. Titchmarsh, Rimanning Zeta funktsiyasi nazariyasi, Oksford, 1951,407 p. 6 . A.L.Karatsuba, Analitik nazariya asoslari. - M.: Nauka. 1983. 4. S.C. Coutinho, The Mathematics of Ciphers.Number Theory and RSACryptography.- AKPeter, Ltd. All Rights Reserved, 1999, p. 323.

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ОБУЧЕНИЯ
НА УРОКАХ ГЕОГРАФИИ**

Мосин Виктор Петрович

учитель географии высшей категории

Средняя общеобразовательная школа № 43 Сырдарьинского района

Понятие «игровые педагогические технологии» включает достаточно обширную группу методов и приёмов организации педагогического процесса в форме различных педагогических игр. В отличие от игр вообще, педагогическая игра обладает существенным признаком - чётко обучения и соответствующим ей педагогическим результатом, которые могут быть обоснованы в явном виде и характеризуются учебно-познавательной направленностью. Игровая форма занятий создаётся на уроках при помощи игровых приёмов и ситуаций, выступающих как средство побуждения, стимулирования к учебной деятельности.

Реализация игровых приёмов и ситуаций при урочной форме занятий происходит по следующим основным направлениям:

- дидактическая цель ставится перед учащимися в форме игровой задачи;

- учебная деятельность подчиняется правилам игры;

- учебный материал используется в качестве её средства;

- в учебную деятельность вводится элемент соревнования, который переводит дидактическую задачу в игровую;

- успешное выполнение дидактического задания связывается с игровым результатом.

Перед учителем стоят задачи:

- опираться на достижения предыдущего возраста;

- стремиться мобилизовать потенциальные возможности конкретного возраста;

- подготовить "почву".

Обучая географии, учитель сознательно или бессознательно, формирует у учащихся отношение к предмету. И это отношение в дальнейшем становится важным фактором в обучении предмета.

Формирование познавательного интереса к предмету происходит под воздействием многих факторов. Одним из этих факторов является использование игр на уроке.

Игра в учебном процессе направлена на решение следующих задач:

- собственно дидактических по освоению содержания той или иной предметной области;

- психологических, т.е. развитие познавательной и личностной сферы субъектов образовательного процесса, оптимизация отношений между детьми, а также между педагогом и учащимися;

- информационно-коммуникативных как основы для формирования информационной культуры, овладение навыками анализа и прогнозирования изменений путем моделирования с помощью ИКТ элементов окружающего мира.

Таким образом, игровые технологии являются динамичным воспроизведением природных и социальных процессов в рамках учебного процесса. Новые возможности проведения игровых занятий, открывает компьютер. В них можно заложить не только разнообразную информацию в виде текста, картосхем, статистических материалов и т.п., но и наглядно моделировать изучаемые процессы и явления во времени и пространстве, обрабатывать информацию и представлять её в наглядном виде, подводить итоги и т.д., т.е. отрабатывать все этапы игры. Это значительно облегчит работу учителя по подготовке игры и оценке её результатов, сделает деятельность учащихся более содержательной и приблизит её к реальной жизни.

Таким образом, игровые педагогические технологии - включают достаточно обширную группу методов и приёмов организации педагогического процесса в форме различных педагогических игр. В отличие от игр вообще, педагогическая игра обладает существенным признаком - четкого обучения и соответствующим ей педагогическим результатом, которые могут быть обоснованы в явном виде и характеризуются учебно-познавательной направленностью. Игровая форма занятий, создаваемая на уроках при помощи игровых приёмов и ситуаций, выступающих как средство побуждения, стимулирования к учебной деятельности происходит формирование всех четырех компонентов содержания образования: знаний, умений, опыта творческой деятельности и опыта эмоционально-ценностного отношения к миру. В процессе игры выявляются уровень знаний и умение применять их в новой, сложной ситуации; активизация обучения, наличие элемента состязательности, эмоциональности деятельности приводят к повышению качества учебного процесса (в ходе игры усваивается 90% учебного материала против 20-30% на обычном уроке); проблемное содержание в игре активизирует мыслительную деятельность школьников; учащиеся ощущают практическую значимость знаний основ географической науки; формальные знания превращаются действенные.

Значение игровой деятельности в усвоении опыта творческой деятельности: происходит приобщение к исследовательской деятельности; раскрываются и развиваются творческие способности личности; ученики получают возможности применять воображение, развивать полемические и ораторские способности.

Значение игровой деятельности в приобретении опыта эмоционально-ценностного отношения к миру, к деятельности, друг к другу: игра отражает различные мотивы поведения; происходит раскрепощение личности: преодолеваются неуверенность в себе, застенчивость, робость и развиваются такие качества личности, как самостоятельность, контактность, коммуникабельность; эмоциональные переживания в ходе игры оказывают влияние на формирование мировоззрения; расширяются кругозор и общая культура; формируется нестандартное, критическое отношение к действительности.

Игровые моменты всегда оживляют урок, делают его более интересным и содержательным. Часто использую такие формы учебной деятельности как разные виды географических диктантов, тестирование, составление таблиц и схем, решение кроссвордов, ребусов, тщательно подбираю занимательный дополнительный материал, технические и художественные средства.

Применяемые на уроках географии технологии оказывают положительное влияние на качество знаний учащихся. В 5-7 классах на уроках географии, например, провожу «Своя игра», игру «Путешествие по карте» для закрепления знаний географической номенклатуры можно проводить в любом классе, и много других разных интересных игр.

Игровые моменты всегда оживляют урок, делают его более интересным и содержательным. Часто использую такие формы учебной деятельности как разные виды географических диктантов, тестирование, составление таблиц и схем, решение кроссвордов, ребусов, тщательно подбираю занимательный дополнительный материал, технические и художественные средства.

Применяемые на уроках географии игровые технологии оказывают положительное влияние на качество знаний учащихся.

ASSESSMENT OF THE IMPACT OF THE TRANSITION TO A GREEN ECONOMY ON ECONOMIC GROWTH

Murodov Sardor Nurali o'g'li

Master's student of the National University of Uzbekistan

Introduction. The process of globalization requires the qualitative renewal of the technological base of industrialized countries, the transition to a modernized economy to a new technological structure that ensures the improvement of the quality of life and the living environment while increasing the level of production efficiency and competitiveness. The "green growth" economic policy, which makes this transition abroad, has been adopted by the Organization for Economic Co-operation and Development (OECD) as a strategic direction for the long-term (until 2030) development of all its members. In terms of anti-crisis potential, eco-innovations, green investment and, in general, green economy, can increase employment, alleviate unemployment, stimulate activity in all sectors of the economy, and allow to get out of recession faster.

Eco-innovation is defined as any form of innovation aimed at significant and clear growth in achieving the goals of sustainable development, reducing the harmful impact on the environment and using natural resources more efficiently and rationally, and the generally accepted definition of the green economy is the reef does not exist. The United Nations Environment Program (UNEP) considers the "green economy" as an economic activity and offers a broad understanding of this concept, i.e. "a green economy improves human well-being and ensures social justice, environmental "significantly reduces risks and degradation of nature".

This definition of "green economy" does not differ from the well-known concept of sustainable development.

In connection with the accession of Uzbekistan to the Paris Agreement on climate change, it undertook obligations related to the reduction of greenhouse gases and reducing the negative impact on the environment. Also, within the framework of the Action Strategy for the Development of the Republic of Uzbekistan, paragraph 250 of the state program adopted for 2019 envisages the development of this Strategy.

Main part. The scale of the "green" sector in the world economy is still relatively small, so the term "green shoots" of the economy is usually used in special literature along with the concept of "green economy". In fact, the value of products and services in this area in 2010 was 2 trillion. US dollars or 2.7 percent of the world's gross domestic product, and the profit is 530 billion. US dollars, employment - 10 mln. established a person.

However, the contribution of the "green" sector to the development of the economic complex of some countries, which concentrate the main part of the potential and investments in this area, is significantly higher: in the USA, the "green economy" provides more than 600 billion dollars of products and services (4.2% of GDP), employment estimated at 3 million people; In Japan - 3.4 percent of GDP and 1.5 million, respectively. ; 2.5 percent of the total GDP and more than 3.4 million people in the countries of the European Union; however, in some countries these figures are higher: in Germany it is 4.8% of GDP, in addition, Germany is one of the world's leading countries in the export of environmentally friendly products and services (in particular, more than 12% of the world trade in climate-saving equipment); In Great Britain, which is the world leader in terms of the share of the "green" sector in GDP, this indicator is 240 billion dollars (or 8.8% of GDP), its share in exports is 5%, and the level of total employment is 3 percent.

According to experts, the "green economy" can increase GDP growth, per capita income and employment at the same or higher rate in the short term than the traditional "brown economy". . Recent international discussions show the need for a clear development of the concept of "green economy", a deep analysis of the measures to implement it from the point of view of the interests of all countries. The strategy of transition to "green economy" is a complex process that requires large investments (up to 2% of GDP per year) and affects almost all sectors of the economy. World experience shows that the "green economy" stimulates regional development, contributes to social stability, it is possible to increase the economic potential by creating new jobs in the "green economy" sectors.

Innovation is a key factor for environmental efficiency and economic growth. Eco-innovation is any innovation that reduces the impact on the environment; it is the production of new products, the creation of systems and processes that save natural resources and emit minimal toxic substances. Eco-innovation is not only a means of preserving natural resources and the environment in general, but also a very effective tool that helps to increase the economic well-being of the country and the level of competitiveness in general, along with the rational, modern, reliable use of resources.

This is because the "green" transition is a new stage for the economy of our country not enough research has been conducted yet. But this is from the World Bank a number of researches and discussions are being conducted till today. Below is this on the basis of the discussions, measures are being implemented towards the "green" economy based on the strategy of transition to a "green" economy, a number of opinions are presented.

The pace of ecologically oriented development policy is accelerating due to innovative development and innovative changes. While the number of total inventions worldwide increased by 30% from 2000 to 2017, the number of innovative technologies that help reduce climate change tripled during that time. Almost 90% of such technologies are contributed by OECD countries. Through innovative technologies, it is possible to organize ecologically safe production at low prices, which, in turn, ensures the emergence of new business opportunities and new markets.

Conclusion. World experience shows that the "green economy" stimulates regional development, social stability, and economic potential through the creation of new jobs in the "green economy" sectors. "Green economy" mainly helps economic development and ensures the growth of the gross domestic product, increase of the country's income, employment of the population, reduction of the level of unemployment in the country. At the same time, the transition to a "green economy" will reduce the risk of global threats such as climate change, the loss of minerals, and the scarcity of water resources. , when today's world civilization has gathered strength and reached the peak of its power, if all the countries of the world do not choose an ecologically oriented model for economic development, the entire planet will gradually decline and completely disappear under the conditions of globalization. we can come to the conclusion that there is a risk of going.

References:

1. "The World Bank and the Ministry of Economic Development and Poverty Reduction of the Republic of Uzbekistan. 2022. Towards a Greener Economy in Uzbekistan. ©World Bank."

2. Порфирьев Б.П., "Зеленая" экономика: реалии, перспективы и пределы роста. - М. Карнеги, 2013. 3. www.unep.org - Birlashgan Millatlar Atrof-muhit dasturining rasmiy sayti

4. www.worldbank.org - Jahon bankining rasmiy ma'lumotlari

5. "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Jahon banki, Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi, 2022-yil. O'zbekistonda "Yashil" O'sish va Iqlim O'zgarishi bo'yicha Siyosiy Muloqotlar Turkumi: Ishlar To'plami. Jahon banki: Washington D.C."

6. 2019-yil 4-oktabrdagi "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" Iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son qarori

7. Khidirov N. (2020) "SPECIFIC FEATURES OF FINANCING INVESTMENT ACTIVITY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES," International Finance and Accounting: Vol. 2020: Iss. 1, Article 31.

8. Ulug'bek S.O., Xidirov N.G. Real sektor korxonalarini investitsion loyihalarini moliyalashtirishda bank kreditlarining rolini oshirish va kredit riskini hisobga olish masalalari // Science and Education. - 2022. - T. 3. - №. 2. - C. 1482- 1488. <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/2693>.

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIGIDAGI "NUTQ HAQIDA" SHE'RINI O'TISH METODIKASI

Murodova Mohinur
SamDU talabasi

Nutq - tilning fikr ifodalash va almashish jarayonida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli.

Nutq orqali o'quvchilar o'z fikrlarini ravon bayon qila oladi. Nutqni yaxshi o'rgangan o'quvchi o'z hayot yo'lida qoqilmaydi. Nutq jaryonida har bir so'zni o'z vaqtida, o'z ma'nosida qo'llay olish ham bir san'atdir.

Ona tili darslarida o'tiladigan har bir yangi mavzu o'quvchiga nafaqat nazariy bilim berishi, balki og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishga ham xizmat qilishi kerak. Ona tili fani bevosita hayot bilan, amaliyot bilan bog'liq bo'lganligi sababli dars jarayoni faqat grammatik qoidalarni takrorlash, quruq yodlash bilan o'tmasligi lozim [3].

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun chiqarilgan "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligidagi topshiriqlar o'quvchilarning nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilar topshiriqlarni bajarish

asnosida nutqlarida yo'l qo'yadigan ayrim kamchiliklarni to'g'irlab olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

3-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida Erkin Vohidovning "Nutq haqida" she'ri berilgan. Dastlab o'qituvchi she'rni ravon va ifodali o'qib beradi. Chunki o'qituvchining ifoda usuli, she'r o'qish ohangi o'quvchilarga namuna bo'lishi erak:

Har so'zida "bu", "anu",
"Haligi", "so'ng", "qanaqa",
"Bu, bu" deydi – nima bu?
"Shunaqa"si qanaqa?
Tiliga kelib qolgan
So'zdan qayta olmasa.
"Bu" qo'shmasdan savolga
Javob ayta olmasa!

She'r o'qib bo'lingach, o'quvchilarga savollar beriladi. Beriladigan savollarga har bir o'quvchi javob bermasligi mumkin. Biroq loaqal bir nechta o'quvchining javobi bo'lsa ham, bu mulohazlar o'rinli qabul qilinishi lozim. Shundagina o'quvchilarning fikr bildirish istagi oshadi:

1. Siz nutqingizga e'tibor qilganmisiz? Bilmagan holda ortiqcha so'z va tovushlarni ishlatasizmi?
2. Ortiqcha so'z va tovushlarni qo'llamaslik uchun nima qilish kerak deb o'ylaysiz?
3. Hech e'tibor berganmisiz nutqingizda sheva so'zlarni ishlatasizmi?
4. Kimning nutqiga havas qilasiz? Nima uchun?
5. Yo'lingizda sheva so'zlar bilan gapiryotgan odamlarni ko'rganmisiz?
6. Ko'chada bilmagan holda ortiqcha so'z va tovushlarni ishlatgan odamlarni ko'rganmisiz?
7. Gapiryotganda ruscha so'zlarni yoki boshqa tildagi so'zlarni qo'shib gapirasizmi? Yoki shunday gapirganlarni ko'rganmisiz?
8. Yolg'on gapirish yaxshi odatmi?
9. Ota-onangiz, yaqinlaringiz yoki do'stlaringizga yolg'on gapirganmisiz?
10. Yolg'on gapirgan bo'lsangiz yolg'oningiz yaxshilikka xizmat qilganmi yoki yomonlikkami?

Savollarga javob berib bo'lishgach, bolalar bilan "Ranglar jilosi" o'yini o'ynaladi. Bu o'yinda bolalarga o'qituvchi tomonidan raqamlar tarqatib chiqiladi. O'quvchi soni nechta bo'lsa shuncha raqam. Shuncha raqam o'qituvchi stoli ustida ham bo'ladi. O'qituvchi stolidagi raqamlar o'quvchilar soniga qarab teskari yashirin holatda bo'ladi: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, ...

Raqamlardan tashqari o'qituvchi partasi ustida so'zlar yozilgan qog'ozchalar ham bo'ladi. Ular ham raqamlarga o'xshab teskari qilib qo'yilgan bo'ladi. 1-

o'quvchini o'qituvchining o'zi tanlaydi ya'ni raqamlangan qog'ozchalardan birini beradi. Qog'ozchada qaysi raqam bo'lsa, shu raqam berilgan o'quvchi javob beradi. O'qituvchi stoli ustidagi so'zlar yozilgan qog'ozlardan birini tanlaydi. So'zning 1 harfi tushurib qoldirilgan bo'ladi va shu o'rinda doskada 2 ta konvert bo'ladi biriga "x" ikkinchisiga esa "h" deb yozilgan bo'ladi. Bu harflar yozilgan konvertlar ichida bo'g'inlar yashiringan bo'ladi. O'quvchi tanlagan so'ziga qaysi harf to'g'ri kelishini topishi kerak bo'ladi. Bo'g'iz undoshimi yoki chuqur til orqa undoshimi? O'quvchi to'g'ri topsa ya'ni uni qo'lidagi so'zda tushib qolgan harf "x" undoshi bo'lsa, o'quvchi to'g'ri topsa unga **RAG'BAT** beriladi va "x" undoshi yozilgan konvert ichidagi bitta bo'g'in yozilgan qog'ozchani oladi. Va keyingi o'quvchini tanlab beradi. O'qituvchi stoli ustidagi raqamlardan birini tanlaydi. Keyingi o'quvchi chiqadi va o'yin shu tarzda davom etadi. Agar o'quvchi harfni noto'g'ri tanlab qo'ysa u o'quvchiga **JARIMA** beriladi. Va shu o'quvchi tanlagan so'z so'zlar qatoriga yana qaytib qo'shiladi. Va uni boshqa o'quvchi tanlashi mumkin.

O'quvchilar uchun beriladigan so'zlar quyidagilar:

Ya...shi – yaxshi, Go...i – gohi, To'...tab – to'xtab, ...am – ham, ...ar – har, ...aligi – haligi, ...amma – hamma, a...ir – axir, o...iri – oxiri, ...il – xil, ...ursand – xursand, ...afa – xafa, ...alollik – halollik, ...avfli-xavfli, masla...at – maslahat, ba...ridili – bahridili, ...izmat – xizmat.

Doskaga ilingan **X** va **H** harfli konvertlar ichidagi bo'g'inlar quyidagilar:

- | | |
|--------------------|-----------------|
| 1. Bi-naf-sha rang | 5. Sa-riq |
| 2. Ko'k | 6. Zar-g'al-doq |
| 3. Ha-vo rang | 7. Qi-zil |
| 4. Ya-shil | |

O'quvchilar bo'g'inlarni yig'ib bo'lishgach, o'qituvchi aytadi: "Bolalar bilamizki, ranglar jilosi deganda hammamizni yodimizga kamalak keladi hozir sizning qo'lingizda kamalak ranglarini bo'g'inlarga ajratilgan holati turibdi. Hozir men sizga kamalak ranglarini tartib bilan bir marta aytaman. Sizlar qo'lingizdagi bo'g'inlarni juftini topishingiz kera bo'ladi". Kamalak ranglari quyidagilar:

- | | |
|------------------|---------------|
| 1. Binafsha rang | 5. Sariq |
| 2. Ko'k | 6. Zarg'aldoq |
| 3. Havo rang | 7. Qizil |
| 4. Yashil | |

-Shoir o'z she'rida so'zlashga oid tavsiyalar beribdi. Keling shu tavsiyalarni "Zanjir metodi" shaklida o'ynaymiz. O'qituvchi o'quvchilarga berilgan raqamlardan foydalanib zanjirning boshi, ya'ni birinchi o'quvchini tanlab oladi. Yuqoridagi o'yinimizda qolgan o'quvchilar ham qatnashishini ta'minlash uchun tanlangan raqamlarni bir chetga qo'yib turadi. Ya'ni raqam tanlaydi shu raqam berilgan bola boshlaydi. Birinchi ismi chiqqan o'quvchi quyidagi gapni aytadi –

Aniq gapirish. 2- o'quvchini ismi tanlanadi u o'quvchi 1- o'quvchini gapini ham qo'shib aytadi – **Aniq gapirish, shoshilmasdan gapirish.** O'yin shu tariqa davom etadi. 3- o'quvchi yuqoridagilarni takrorlaydi va bu so'zni qo'shib aytadi **mazmunli gapirish.** 4-o'quvchiyuqoridagi so'zlarga bu so'zni qo'shib aytadi **baqirmasdan gapirish.** 5-o'quvchi yuqoridagi so'zlar qatoriga bu so'zni ham qo'shib aytadi **nutqni nazorat qilish.** 6-o'quvchi yuqoridagi 5 so'zga bu so'zni ham qo'shib aytadi **so'zni o'z o'rnida qo'llash.** 7-o'quvchi yuqoridagi so'zlar qatoriga bu so'zni ham qo'shib aytadi **savolga to'g'ri javob berish.** 8-o'quvchi **Aniq gapirish, shoshilmasdan gapirish, mazmunli gapirish, baqirmasdan gapirish, nutqni nazorat qilish, so'zni o'z o'rnida qo'llash, savolga to'g'ri javob berish, yolg'on so'zlamalik** shu so'zlarni aytib o'yinimizga yakun yasaydi.

O'quvchilar o'qituvchiga keyingi topshiriqdagi iboralar ma'nosini aytib berishi kerak.

- Xo'sh bolalar quyidagi iboralar ma'nosini kim aytadi?
- O'qituvchi yana raqam tanlaydi va shu raqam berilgan o'quvchi savolga javob beradi.

Do'ppisini osmonga otdi – juda xursand bo'ldi.

Oyog'ini qo'liga oldi – shosha-pisha

Tepa sochi tikka bo'ldi – jahli chiqdi

Ko'ngli yarimta – xafa bo'ldi.

- Xo'sh bolalar quyidagi gaplarda ajratib ko'rsatilgan so'zlar o'rniga qaysi iboralar qo'yilar ekan.

1. Shosha-pisha yana dalaga yo'l oldi.

Shosha-pisha - oyog'ini qo'liga oldi.

2. Ramzning qattiq jahli chiqdi.

Jahli chiqdi- tepa sochi tikka bo'ldi.

Keyin o'quvchilar bilan "Notalar raqsi" o'yinini o'ynaymiz. Bu o'yinda qatorlar bilan alohida-alohida ishlanadi. Har bir qatordagi o'quvchilar soni hisobi olinadi. Masalan 1-qatorda 10 ta o'quvchi bo'lsa endi ularni nomlab chiqamiz. Masalan 1-partadagi o'quvchilarni **do**, 2- partadagi o'quvchilarni esa **mi**, 3-partadagi o'quvchilarni **fa**, 4-partadagi o'quvchilarni **lya**, 5-partadagi o'quvchini **si notasi** deb nomlaymiz. So'ng o'yin boshlanadi o'qituvchi notalarni tartibsiz holatda aytadi. O'quvchilar turishi kerak bo'ladi. Adashib turgan o'quvchi yoki turmagan o'quvchi holatlari kuzatilsa o'yin to'xtatiladi va adashgan o'quvchiga ikkita convert ko'rsatiladi. Bu konvertlarning biri **jarima** biri **jazo**. Agar o'quvchi **jazoni** tanlasa u o'yinchini o'yindan chetlashtiramiz va shu qatorni qayta nomlab chiqamiz. Va o'ynashda davom etamiz. Agar o'quvchi **jarimani** tanlasa unda o'qituvchi unga bir so'zni aytadi o'quvchi esa unga shu so'zni harflab aytib bera

olishi kerak bo'ladi. Agar harflab aytishda ham xato qilsa o'yindan chetlashtiramiz.

Shu o'yinni o'ynagach darsga yakun yasaladi. Dars yakunida o'quvchilarga o'zlarining og'zaki nutqlariga e'tibor berishlarini, yuqorida bajargan topshiriqlarni yana qayta o'zlari bajarib ko'rishlarini vazifa qilib beriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, ona tili va o'qish savodxonligi darsi jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga faqatgina darslikdagi topshiriqlarni shunchaki bajartiribgina qolmay, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishga doir qo'shimcha mashqlar bajartirishi ular og'zaki va yozma nutqining yanada oshishini ko'rsatadi. Shuningdek, o'quvchilarga she'rlarni shunchaki yodlatmasdan, berilgan matnni shunchaki o'qitmasdan, balki berilgan she'r va matnlarni hayot bilan, bolalar uchun qiziqarli mashg'ulotlar bilan bog'lab o'rganish o'quvchilarning nazariy va amaliy bilimining yanada rivojlanishi va mustahkamlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimova I va boshq. 3-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligi. 2-qism Toshkent-2022
2. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Qurbonov, Shokir Tursun, Zeboxon Ro'zmetova 3-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" 1-qism Toshkent-2022
3. Botiraliyeva M. "Tinglab tushunishning o'quvchilarga og'zaki nutqini shakllantirishdagi o'rni" "Lingvadiidaktikaning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari to'plami (2022-yil 18-may). – Toshkent - 2022
4. Hamdamova M. 1-2- sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirish tizimi.diss. – Toshkent - 1998.

SPORT FAOLIYATIDA MOTIV VA MOTIVATSIYA MUAMMOSINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Nazarov Davron Baxtiyor o'g'li

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tayanch doktoranti

Kirish. Sport faoliyatining muhim komponentlaridan biri bu - sport bilan shug'ullanish motivatsiyasidir. Sport faoliyatini psixologik jihatdan ta'minlashda, insonni sport bilan shug'ullanishga undovchi, rag'batlovchi motiv muhim rol o'ynaydi. Sport faoliyatini psixologik tahlil qilish masalalari ichida psixologlar diqqatini ko'proq, sport faoliyatining motivlari masalasi jalb etadi. Bir qator tadqiqotlarda bevosita motivlar mavjudligi va ularning ahamiyatli ekanligi aniqlangan. Masalan, jismoniy mashqlarda mushaklar harakatlaridan rohatlanish,

estetik zavqlanish, musobaqalarga qatnashish ishtiyoqi, sog'lom, baquvvat bo'lish, o'zini himoya qila olish istagi, o'zini mehnatga, jangovar harakatlarga tayyorlash, kelishgan, chiroyli qaddi-qomatga erishish. Sport bilan shug'ullanishning dastlabki bosqichida kishining jismoniy mashqlar qilishiga bevosita motivlar ta'sir qiladi. Bunda sportning ma'lum turi bilan emas, balki umumiy jismoniy harakatlarni bajarish istagi, jismoniy tarbiya darslaridagi topshiriqlarni bajarish xohishi, badanning chigilini yozish uchun qilinadigan ixtiyoriy mashqlar kiradi. Shuningdek, jismoniy takomillika intilish, o'zining jismoniy natijalarini yaxshilash va musobaqalashish ishtiyoqi ham sport bilan shug'ullanishga bo'lgan qiziqishni orttiradi. Keyinchalik motivlar xarakteri o'zgaradi, tanlangan sport turi bilan shug'ullanish natijasida sport faoliyati bilan shug'ullanishni davom ettirish uchun shu sport turiga nisbatan maxsus qiziqishning ortishi, bu sohadagi bilimlarning o'sishi, sport texnikasini mukammal egallashdagi muvaffaqiyatlarga erishishi kabi motivlar yetakchilik qiladi. Nihoyat sport mahoratining yuksak bosqichida qo'lga kiritilgan sport darajasini saqlab turish xohishi, sportning ushbu turini yanada rivojlantirish istagi, mamlakat sport sharafini himoya qilish kabilar asosiy motivlar bo'lib chiqadi. Bu motivlar yorqin ijtimoiy yo'nalganlik xarakteriga ega bo'ladi, ya'ni sportchining shaxsiy motivlari ijtimoiy motivlarga bo'ysundiriladi. Bu esa sportning tarbiyaviy ahamiyatini, shaxsning ijtimoiy shakllanishidagi rolini ko'rsatadi.

Asosiy qism: Qator psixologik tadqiqotlarda motivatsiya shaxsning ijtimoiy shakllanishi jarayoni sifatida qaraladi. Jumladan, shaxs motivatsiyasi ijtimoiy ishlab chiqarishning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi (Zdravomislov, Leontev, Milman). Biologik motivatsiyadan farqli o'laroq, shaxs motivatsiyasi jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlarini qondirishga yo'naltiriladi (Vvedenov, Ollport, Reynvald). Bu esa uning tarixiy o'zgaruvchanligini tasdiqlaydi (Bestujev; Shoroxova; Donchenko va boshqalar) va ontogeneza tarbiya tizimini shakllantirishga qaratiladi (Chxartishvili, Ivanchuk, Simonov). [1]

Sport bilan shug'ullanish asosida, insonning sport faoliyatidan qoniqishi, muvaffaqiyatlarga erishish va o'zlikni namoyish etish motivatsiyalari yotadi. Professor A.S. Puni sport bilan shug'ullanishning bevosita va bilvosita motivlarini ajratib ko'rsatgan. [2]

Sport faoliyatining birlamchi yoki bevosita motivlari quyidagilar bilan belgilanadi.

1. Mushaklar harakati va faolligidan tug'ilayotgan qoniqish hissiga bo'lgan ehtiyoj;
2. Kuchli, sog'lom va chiroyli qaddi-qomatga ega bo'lish motivi;
3. O'zining kuchi, tezligi, epchilligi, chaqqonligi, chidamliligini va irodasini rivojlantirish va undan huzurlanishga bo'lgan ehtiyoj;

4. O'zini qiyin , hatto, ekstremal vaziyatlarda namoyon etish istagi;
5. O'zining sport mahoratini ko'rsatish va g'alabalarga erishish istagi;
6. Musobaqalarga qatnashish motivi;
7. O'zini namoyon etish, tasdiqlash, jamoatchilik e'tiborini qozonish xohishi.

Sport faoliyatining bilvosita (ikkilamchi) motivlari.

1. Musobaqalarda yuksak natijaga erishish motivatsiyasining kuchli bo'lishi;
2. Murakkab xatti-harakatlarning takomillashtirish. Ularni bajarish bilan bog'liq zavq-shavq (antisipasiya);
3. O'zini Vatan himoyasi, jinoyatchilikka qarshi kurashishga tayyorlash motivi;
4. Sport faoliyatining tomoshabopligi;
5. Professional sportning biznes bilan birlashib, uyg'unlashib ketishi;
6. Sport faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini anglash va sport turini rivojlantirish va hakoza.

Sobiq Chexoslovakiyada psixolog olimlar motivatsiya muammolarini ishlab chiqqan bo'lib, ushbu masala sporchi va sport trenerlarini psixodiagnostikadan o'tkazish usullariga asoslangan edi (Vanek, Goshek, Svoboda, Motsak va boshqalar). [3]

Motivatsiya jarayonlariga oid ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirar ekan, taniqli psixolog Yu.Yu. Palayma sport faoliyatiga nisbatan quyidagi to'rtta motivatsiya guruhlarini alohida ajratib ko'rsatadi. [4]

Birinchi guruhni muallif, shartli ravishda "individualistlar" (individualistik motivlar) deb ataydi va ushbu guruhdagilarga hos bo'lgan kishilardagi motivlarning mazmunida tor shaxsiy manfaatlar ustunlik qiladi.

Ikkinchi guruh shartli ravishda "kollektivistlar" (kollektivistik motivlar) deb ataladi. Mazkur sportchilarning motivlarida kollektivning, guruhning manfaatlari bilan bog'liq motivlar ustuvordir, individualistik motivlar esa ustun motivga tobe bo'ladi. Sport faoliyati amaliyoti shuni ko'rsatadiki, sportchilarda ushbu har ikkala motiv teng darajada shakllangandagina, sport yutuqlarini qo'lga kiritish uchun qulay shart-sharoit va imkoniyatlar yaratiladi.

Uchinchi guruhni muallif "protsessual motivlar" deb ataydi. Ushbu guruhga mansub sportchilar uchun sport natijalari emas, balki mashg'ulot jarayonlarining o'zi muhimdir, ya'ni ularning sport libosida yurishlari, sport jamoasi orasida ekanliklari va hokazolar.

To'rtinchi guruh esa "natijaviy motivlar"ni muhim deb hisoblovchi sportchilardan tarkib topgan bo'lib, ular uchun ko'proq sport natijalarini qo'lga kiritish bosh masaladir.

Xulosa: Sportchilarni musobaqaga psixologik tayyorlash tizimi orasidan uning musobaqada ishtirok etishining motivliligini faollashtirish qismiga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Demak, sportchilarning musobaqada

ishtirok etishlarining motivlari xilma-xil bo'lib, har bir shaxsda uning bir necha turlarini uchratish mumkin. Ular ichida sportchilarni psixologik tayyorlashda ijtimoiy ahamiyatga ega motivlarning shakllanishi, ayniqsa, javobgarlikning roli kattadir. Muayyan musobaqaga sportchilarni psixologik tayyorlash, jarayonida trener sportchilarga xos hamma motivlar haqida xabardor bo'lishi zarur va ularning musobaqada muvaffaqiyatli qatnashishlariga intiltiruvchi motivlarning faollashishiga yordam berishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.E. Hayitov. Sport faoliyati psixologiyasi. Darslik. Toshkent -2021. - B. 196.
2. Л.К. Серова. Мотивация в спортивной деятельности. Монография. – М.: Спорт, 2020. 144 с
3. Z.G.Gapparov. Sport psixologiyasi. Darslik. Toshkent -2020. 397 bet
4. J.M. Ishtayev. Sport psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Chirchiq -2021. –B. 256.

**TAEKVONDO BO'YICHA UZOQ MUDDATLI TAYYORGARLIK
TIZIMINING TUZILISHI HAMDA ORALIQNI HIS QILISHNI
SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI**

Namozova M.B.

O'zDJSTU magistranti

Kundan kunga yosharib va yangilanib borayotgan O'zbekistonimizda har bir yo'nalishga ayniqsa, sport sohasiga Rahbariyatlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning tashabbuslari bilan o'zbek sportining rivojlanishida asosan Prezidentimiz rahnamoligi tomonidan qaratilayotgan e'tibor kishini ruhan quvontiradi. So'zlarimizning isbotini sportchilarimiz erishayotgan yutuqlaridan ham bilib olishimiz mumkin albatta. Bundan tashqari besh tashabbus ham yoshlarga hamda ularning yuksalishiga qaratilgan muhim e'tibor namunasi.

Ko'plab sport turlari singari Taekvon-do (ITF) sport turidan ham ko'plab natijalar, katta yuqtuqlar, ustoz va murabbiylarning ko'rsatgan jonkuyarliklari o'z mevasini bermoqda. (shular jumlasidan ya'ni champion sportchilarimizdan: Bexruz Saidov, Mohinur Namozova, Mustafoyev Shaxzod, Allaberdiyeva Nilufar va h.k).

Demak, Taekvon-do (ITF) bo'yicha uzoq muddatli tayyorgarlik tizimining tuzilishi ham sportchilarning muhim jabhalarda o'zlarini namoyon etib yuqori

marralarni qo'lga kiritishlari uchun sababchi bo'ladigan muhim omil ya'ni usullardan biri hisoblanadi.

Sportchilarning uzoq muddatli mashg'ulotlari va musobaqalari quyidagi uslubiy qoidalar asosida quriladi:

1. Yagona pedagogik tizim, barcha yosh guruhlar uchun o'qitishning vazifalari, vositalari, usullari, tashkiliy shakllarining uzluksizligi. Uzoq muddatli mashg'ulotlar samaradorligining asosiy mezonini bu sport turi bo'yicha optimal yosh chegaralarida erishilgan eng yuqori sport natijasidir.

2. Eng yuqori sport mahoratiga nisbatan maqsadli yo'naltirish barcha yosh guruhlar uchun o'quv-mashg'ulot jarayoni.

3. Ko'p yillik mashg'ulotlar jarayonida sportchi tayyorgarligining turli jihatlarining optimal nisbati.

4. Umumiy va maxsus o'qitish uchun mablag'lar miqdorining barqaror o'sishi, ular orasidagi nisbat asta-sekin o'zgarib turadi. Yildan yilga maxsus o'quv vositalari hajmining o'quv yuklamasining umumiy hajmiga nisbatan ulushi ortib bormoqda va shunga mos ravishda umumiy tayyorgarlikning ulushi kamayib bormoqda.

5. Mashg'ulotlar va raqobatbardosh yuklamalar hajmi va intensivligini bosqichma-bosqich oshirish. Keyingi yillik siklning har bir davri oldingi yillik siklning tegishli davrlariga nisbatan yuqori darajadagi o'quv yuklamalarida boshlanishi va tugashi kerak.

6. Mashg'ulot va raqobatbardosh yuklamalardan foydalanish jarayonida, ayniqsa, bolalar, o'smirlar bilan mashg'ulotlarda bosqichma-bosqichlikka qat'iy rioya qilish har tomonlama tayyorgarlik faqat agar doimiy ravishda ortib bormoqda. Uzoq muddatli jarayonning barcha bosqichlarida mashg'ulotlar va raqobatbardosh yuklamalar sportchining biologik yoshi va individual imkoniyatlariga to'liq mos kelishi kerak.

7. Sportchilarning jismoniy sifatlarini uzoq muddatli mashg'ulotlarning barcha bosqichlarida bir vaqtda tarbiyalash va buning uchun eng qulay bo'lgan yosh davrlarida individual sifatning ustun rivojlanishi. Maktab yillarida, agar samarali pedagogik ta'sir ko'rsatilsa, barcha jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar mavjud, ammo bu mashqlarni tubdan o'zgartirish kerak.

Barchamizga ma'lumki, har bir sport turi uchun jismoniy sifatlar muhim rol o'ynaydi. Aslida, barcha jismoniylik har sportchilar mavjud bo'ladi, lekin ularning ayrimlari ustunlik darajasiga ega bo'ladi. Mashg'ulotlar jarayonida har bir sport turiga qarab muhim bo'lgan jismoniy sifat rivojlantiriladi.

Sportchilar uchun bu davr muhim bo'lib, o'zining har bir ustunlik qiladigan zarbasini o'z maromiga yetkazib, hamda shu zarbaning raqibga yetkazish darajasini yuqorilab beruvchi davr hisoblanadi. Mashg'ulot jarayonida har bir zarbani sportchi raqib bilan yuzma-yuz turgan holda aynan yoqtirgan zarbasini

maromiga yetkazib berib, aynan shu zarba ustida maksimal shug'ullanishga muvofiq bo'ladi. Bevosita bu musobaqaga jarayonidagi yuqori natijaning poydevori albatta. Nimaga deganda, sportchi mashg'ulot jarayonida o'zi yoqtirgan hamda o'zi ishongan zarbasi ustida qancha ko'p shugullansa, shu zarbadan foydalanish hamda zarba natijasi kutilgandek bo'ladi. Vaholanki, mashg'ulot jarayonida orttirilgan bu refleksi albatta o'z natijasini ko'rsatadi.

Mashg'ulotning har bir qismi o'z vazifasi hamda o'z chegaralariga ega hisoblanadi. Ammo, aynan uzoq muddatli tayyorgarlik jarayoni bevosita sportchilar o'z ustida ishlashlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: Barcha sport turlarida sportchilar mashg'ulotlar jarayonida o'zlarining individual qobiliyatlarini namoyon etishadi. shu asnda Taekvondoda ham mashg'ulotlar o'z vazifaga egadir. Taekvondoda oraliqni his qilish mashqlarini mukammallashtirish uchun bevosita asosiy tayyorgarlik bosqichidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Sababi taekvondochi uchun oraliq his qilish har zarbani maromiga yetkazish bilan uzviy bog'liq. Aynan man shu bosqichda ko'nikmasini hosil qilib malakasini oshiradi, hamda uni shakllantirish yo'llarini tuzib chiqishga ham sazovor bo'ladi. Yuqorida ko'rsatilgan muhim bosqichlar albatta mashg'ulot bosqichida namoyon bo'lishi lozimligi bu qilinayotgan ishlar ya'ni say harakatlar ishning samaradorligi oshirishga xizmat qiladi albatta. Sportchilar uchun oraliqni his qilish har bir zarbani ko'zlagan nuqtasiga yetkazish uchun xizmat qiladi, trenerlar mashg'ulot jarayonida sportchilarga xuddi shu maqsadni ko'zlab, oraliqni his qilishni shakllantirishga muvofiq bo'lishga albatta ko'zlangan natijaga erishiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova- "Umumiy psixologiya"- "O'zbekiston faylasuflar milliy jamoyati" nashriyoti. T-2014.
2. Gapparov.Z.G.-Sport psixologiyasi-darslik-T.: "Mehridaryo", 2011-345 b.
3. J.M.Ishtayev- "Sport psixologiyasi"-o'quv qo'llanma-Toshkent: "O'zkitobsavdonashriyot", 2020.-232b.
4. U.T.Mukarramov, K.Botirov-Taekvondo (ITF) sport turidan uslubiy qo'llanma. Buxoro-2021 "Durdona"
5. U.T.Mukarramov-Taekvondo (ITF) uslubiy qo'llanma. Buxoro-2020 "Durdona".

CHET TILLARINI O`QITISHDA ZAMONAVIY METOD VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Nematullayeva Muslimaxon Raxmatullo qizi

O`zDJTU 1-bosqich talabasi

Shukurova Shohsanam Qaxramon qizi

O`zDJTU Ingliz tili amaliy fanlar №3 kafedrasida o`qituvchisi (ilmiy rahbar)

Aytish joizki, hozirgi davrda chet tillarini o`qitish hamda o`rganish ko`plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda shu bilan birga Yurtimiz, O`zbekistonda ham zamon talabiga aylanmoqda. Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta`limga alohida e`tibor qaratmoqda va ta`lim sifatini oshirish maqsadida ko`plab qarorlar qabul qilinmoqda. Chet tillarini o`rganish uchun berilayotgan imkoniyatlar va shu doirada amalga oshirilayotgan islohotlar buning misolidir.

Hozirgi kunda o`quv jarayonlarida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalardan foydalanishga bo`lgan e`tibor va qiziqish kundan kunga oshib bormoqda. Buning an`anaviy ta`limga qaraganda ustun jihatlari mavjud. Chet tillarini o`qitish jarayonida, xususan ingliz tilini o`qitishda, zamonaviy metodlardan foydalanish samarali yo`l hisoblanadi. Dars jarayonlarida ingliz tilidagi informatsiyaga boy videolar, dialoglar hamda kinolar tomosha qildirish, ularning eshitish salohiyatini oshirish maqsadida magnitafon va CD larda foydalanish mumkin. Bu nafaqat eshitib tushunishda, balki o`quvchining nutqining rivojlantirishda ham qo`l keladi. Ushbu texnik vositalardan foydalanish esa chet tilini o`rgatish va o`rganish jarayonini yanada samaraliroq va qiziqarliroq bo`lishida muhim rol o`ynaydi. Quyida hozirgi kunda keng foydalanib kelinayotgan bir qancha metodlar keltirib o`tilgan:

- “B-B-B” (bilamiz, bilishni xohlaymiz, bildik) metodi. Bu usul orqali o`quvchi dars jarayonida matnni tushunish, uni tahlil qilish qobiliyatini o`stira oladi;
- “Aqliy hujum” (Brainstorming). Bu usulning mohiyati o`quvchilarning jamoa bo`lib muammoga yechim topish va ularni tanqidiy fikrlashga jalb qilishdan iborat;
- “Muammoli vaziyat yechimi (Creative Problem Solving). Bunda hikoyaning boshlanish qismi o`qib beriladi va uning yakunlovchi qismini topish esa o`quvchining hukmiga havola etiladi. Bu usul o`quvchilarning fikrlash qobiliyatini yanada rivojlantirishga yordam beradi;
- “Tezkor savol” (Quick answer). Bu o`tilgan darsni mustahkamlash va o`quvchilarning qanday darajada o`zlashtirganliklarini tekshirish uchun juda foydalidir;

- “Hikoya zanjiri” (A chain story). Bunda o`quvchilardan biror hikoyani so`zlab berish so`raladi va bu metod ularning og`zaki nutqini rivojlantiradi;

- “Rasmlar so`zlaganda” (When pictures speak) usuli mohiyati ham o`quvchilarning og`zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan, buning uchun mavzuga doir rasmlardan foydalanish kerak bo`ladi;

Yuqorida keltirib o`tilgan metodlar singari chet tilini o`qitishning samarali usullari mavjud. O`qitish jarayonlarida innovatsion texnologiyalar va zamonaviy metodlardan foydalanish o`quvchilarni mustaqil va erkin fikrlashga, izlanishga har bir masalaga jiddiy yondashishga hamda qiziqishlarini kuchaytirishga ko`maklashadi. Umuman olganda, O`qituvchi va o`quvchi o`rtasida hamkorlik faoliyati tashkil etila olsa, har ikki tomon ham ko`zlagan, ijobiy natijaga erisha oladi.

Xulosa qilib aytganda, maqolada ko`rib chiqilgan zamonaviy metodlarning an`anaviy shaklidan farqli o`laroq afzalliklar ko`pdir. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish esa kompyuterda ishlash salohiyatini shakllantiradi, chet tilini o`rganishga motivatsiyani oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, pedagoglardan dars jarayonida kreativ bo`lish, ya`ni darsga aloqador bo`lgan turli xil foydali va qiziqarli o`yinlar orqali har bir o`quvchini darsga jalb qilish talab etiladi. Demakki, chet tillarini o`qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish katta salohiyatga ega hisoblanib, o`qitish jarayonini haqiqiy ijodiy jarayonga aylantirish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Atoyeva Sh. "International Scientific Conference". - Dekabr, 2022. 116-117-bet.

2. Elmurodova S.A. Chet til o`qitish metodikasida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. "Academic research in educational sciences". - 2021. 58-bet.

3. Yo`ldasheva N.M. Chet tillarini o`qitishning innovatsion usullari tarjimashunoslik va filologik tadqiqotlarda zamonaviy yondashuv." Multidisciplinary Scientific Journal". -May, 2022. 1049-bet.

KREATIVLIK: TARIX, TA'RIF VA TAHLIL

Nizomiddinova Dilfuza Hoshimjon qizi
Namangan davlat pedagogika insituti talabasi

Kirish. Bilamizki, kundalik hayotimizda deyarli har kuni ishlab chiqarilayotgan yangi narsalar; yangi rusumdagi transport, yangi uslubda qurilayotgan binolar, yangi modadagi kiyimlar yoki bo`lmasa yangilik va xabarlar qulog`imizga chalinadi. Ko`ramiz. Bilamiz. Bular albatta boshqalardan farqli

ravishda yuzaga kelgan yangi g'oya va tashabbuslar mahsulidir. Bu narsalarni inson farazan, tasavvur qilib yaratadi, bunyod qiladi. Bu ijod qilishdir. Shuning uchun ham biz bunday yetuk salohiyatli insonlarni ijodkorlar deb ataymiz. Shuningdek, ijodkorlik kreativlik tushunchasi (lotincha, inglizcha "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) ning asosiy negizidir.

Kreativlik keng ma'noda qo'llanuvchi, yangi va qimmatli narsa shakllanadigan hodisa. Masalan, g'oya, ilmiy nazariya, musiqiy tarkib yoki hazil mutoyiba balki moddiy obekt (ixtiro, bosma, adabiy asar) va rasmlar kabi. Shuningdek ijodkorlikdagi ilmiy qiziqishlar ham turli sohalarida topilishi mumkin. Asosan, psixologik, biznes va aniq fanlarda. Biroq, ta'lim sohasi, gumanitar fanlar (falsafa, san'at va dinshunoslik, ijtimoiy fanlar (sotsiologiya, lingvistika, iqtisodiyot), muhandislik, texnologiya, shuningdek, matematika fanlari va sohalarida ham kreativlikni turli ko'rinishda namoyon qilishimiz mumkin. Bu sohalar umumiy ma'noda kreativlik – ijodkorlik va inson salohiyati, shaxsning ko'rinishi, aqliy va jismoniy jarayonlar, ruhiy salomatlik, sun'iy aql, ta'lim orqali paydo bo'layotgan porloq kelajak, ta'lim, boshqaruvchanlik, shuningdek, tashkiliy tajribalar o'rtasida katta bog'liqlik bor desak adashmagan bo'lamiz.

Kreativlik- ijodkorlik dunyoning istalgan tarafida keng jabhalarda namoyon bo'ladi. Xususan, Yevropa va Osiyo olimlari ham kreativlik tushunchasini o'zgacga talqin qilishadi .

Masalan, ilmiy izlanishlarda kreativlikning qisqacha bayoni haqida Maykl Mumford shunday fikr bildirgan: "Oxirgi o'n yil davomida, biz ijodkorlik yangi, foydali mahsulotlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi degan umumiy to'xtamga keldik." [1] Yoki, Robert Sternbergning so'zlariga e'tibor qaratsak u "Asar – ijod arzirli va soxta bo'lmagan haqiqiy narsadir." [1] degan fikrni bildirgan. Mualliflar esa o'zlarining aniq ta'riflarida bu umumiylikdan keskin farqli fikrlarini bayon etganlar.

Piter Meusbergning taxminicha, yuzdan ortiq, ko'plab ijodiy ta'rif va tasniflar adabiyotdan topilishi mumkin. Ko'pincha, orginallikga aniqlik kiritadigan yoki yaratilgan narsaning muvofiqligi va bu orqali yuzaga kelgan jarayonlar haqidagi kontekstlar ishlab chiqishda ko'rish mumkin.

Jumladan, Dr . E. Palel Torrantsning shaxsning ijodiy qobilyatini baholash kontekstida shunday bir fikr bildirgan. "Ijodkorlik muommolarga, kamchiliklar bilimdagi bo'shliqlar, yetishmayotgan elementlar, kelishmovchiliklar va bo'shliqlarga sezgir bo'lish jarayoni, qiyinchilikni aniqlash, yechimlarni izlash, taxmin qilish yoki kamchiliklar to'g'risida farazlarni shakllantirish, ushbu farazlarni sinab ko'rish, ehtimol, ularni o'zgartirish va, nihoyat, natijalarni yetkazishdir." [1]

Umuman olganda, ijodkorlik odatda ajralib turadigan bir yangilikdir. Xususan, bu jarayonda stress (tushkunlik) holatlari ham bo'lishi mumkin. Masalan, Tereza Amobile va Pratt (2016) ijodkorlikni "Yangi va foydali g'oyalarni ishlab chiqarish va innovatsiyalarni amalga oshirish sifatida belgilanadi." [2] degan fikrni ilgari surishgan.

Ko'pchilik tadqiqotchilar kreativlikni belgilashda shaxsning o'ziga xosligi va xususiyatlariga e'tibor qaratadilar. J. Gilfordning fikricha, kreativlik va ijodiy imkoniyat qobiliyatlar va ijodiy tafakkurga ta'sir etuvchi omillar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi.

Kreativlik ijodiy tafakkurning yangi mahsuli yoki natijasi ekanligi yuzasidan bahslar hali ham ayrim olimlar orasida davom etmoqda.

V.Arteyning izlanishlarida ijodkorli uning bo'lgan obyektga qarab baholanmaydi, deb aniq munosabat belgilanadi. Uning fikricha, "Kreativlik – bilim, faoliyat va istakning uyg'unligi" dir [2].

Chet el olimlarining kreativlik tushunchasi haqidagi izlanishlarini tahlil qilib va umumlashtirib R. Xomeni yozadi: "Kreativlik o'zida yangicha yo'sinda amalga oshirilgan o'zlashtirish to'liqini (Makkelif), yangicha aloqadorlikni aniqlash (Kyubi), yangicha munosabatga kirishish (Rodjers), yangiliklar (Lassuel), ongning e'tirozlariga sabab bo'luvchi faoliyatidir." [2]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ko'rinib turganidek, kreativlik, masalan, ilm-fanda asosan psixologik tushuncha (kategoriya) sifatida tahlil etilgan hamda uning bevosita inson psixikasi bilan bog'liq ekanligi e'tirof etilgan. Agarda til va nutq inson psixikasining mahsuli sifatida namoyon bo'ladigan bo'lsa, uning shakllanishi va rivojlanishi pedagogik muammo sifatida ham tahlil etilishini taqozo etadi.

YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH – JAMIYAT TARAQQIYOTINING ISTIQBOLLI DINAMIKASI

Nishonov Sarvar Jasur o'gli

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

XXI asrlar modernizatsiyasini yetaklovchi kuch globallashtirish hisoblanadi.

Globallashtirish natijasida ko'p madaniyatlilik, shu bilan birga, milliy madaniyatlarni saqlab qolishga urinishlar ham mavjud. Ushbu qarama-qarshilikning yechimi umumbashariy madaniyatning umumiy tendensiyalarida ham namoyon bo'lmoqda. Tolerantlik esa bu tendensiyalarning zaruratidir.

Bunday sharoitda jamiyatda bag'rikenglik madaniyati oqilona tashkil etilgan jamoaviy madaniyat doirasida shakllanadi. Bag'rikenglik madaniyatining

zaruriyati bir makonda yashovchi turli xil ijtimoiy guruhlarga mansub shaxslarning tinch-totuvlik va hamkorlikda yashashini ta'minlash bilan bog'liq.

Bugungi kunda hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi jamiyatimiz hayotiga "Ommaviy madaniyat" niqobi ostida G'arb madaniyatining shiddat bilan kirib kelayotganidan ham kuzatish mumkin.

Bunday vaziyatda yosh avlodlarimizning ongi va dunyoqarashini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash orqali o'zligimizni anglash, uni saqlash, shu asosda taraqqiyotga xizmat qiladigan, ma'naviyati yuksak, intellektual boy, har qanday to'siqlarni yengib o'tishga qodir avlodni shakllantirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu borada ko'plab olimlarimiz o'zlarining tadqiqotlarida yoshlarni qadriyatli yondashuv ruhida tarbiyalanishi ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qilishi, shuningdek, milliy qadriyatlarimizni millatning o'tmishi va kelajagi bilan bog'liqligi haqidagi nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy izlanishlarini olib bormoqda. Jumladan, respublikamiz olimlaridan U.Qoraboyev⁹⁰, J.Tulenov, Q.Nazarov, D.Habibullayeva⁹¹ va boshqalar qadriyatlarning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati, vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari, sharqona ildizlari, o'ziga xos xususiyatlari, qadrlash va qadrsizlanish muammolari, qadriyatlarning milliy va umuminsoniy jihatlarini atroflicha o'rganishgan. Bundan tashqari, O.Tohirov yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish asoslarini, F.Yo'ldoshev⁹², S.Otamurodovlar⁹³ esa yoshlarni milliy meros ruhida tarbiyalash orqali milliy o'zligini anglashi masalalarining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tadqiq etishgan. Qadriyatlar inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha tajribalari, yutuqlari, urf-odatlar va an'analari asosida tashkil topgan narsa va hodisalar yig'indisi hisoblanib, uning tarkibiy qismlaridan bo'lgan milliy qadriyatlar muayyan millatga xos bo'lishi bilan ahamiyatlidir.

"Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlar, an'analari, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi"⁹⁴. Ma'lumki, insonning qaysi millatga mansub ekanligi haqidagi tasavvuri faqat g'oyagina emas, balki tuyg'u hamdir. Bu tuyg'u kishida millatning tarixi, ruhiyati, hozirgi holati va xususiyatini tushunish, his qilish shaklida mujassamlashgan bo'ladi. Agar insonda milliy ong va g'urur bo'lmasa, u o'zining

⁹⁰ Usmon Hosil (Qoraboyev). Odatnoma. 2-kitob, T., "O'zbekiston", 2018, 288-bet.

⁹¹ Habibullayeva D. O'zbekistonda umuminsoniy va milliy qadriyatlarining tiklanishi. Tar.fan.nomz.diss., T., 1995, 135-bet.

⁹² Yo'ldoshev F., Haydarov O. Ma'naviy meros va yoshlar tarbiyasi. "Guliston", 1999, 5-son, 5 – 6-betlar.

⁹³ Otamurodov S. Talaba yoshlarining milliy o'zlikni anglashi. "Ijtimoiy fikr", 2000, 1 – 2-sonlar, 150 – 154-betlar.

⁹⁴ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 10-jild, T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2005, 571-bet.

qaysi millatga mansubligini his etmasa, uning milliy qadriyatlarini anglashini tasavvur qilish qiyin. Xususan, har bir ruhan sog'lom kishida o'z qadr-qimmatini saqlash, o'zini hurmat qilish tuyg'usi mavjud bo'lib, buni millat mentalitetida ham xuddi shunday holatni ko'rish mumkin. Buni millatlarning o'z-o'zini anglash jarayoni takomillashgan sari milliy manfaatlar ham, milliy qadriyatlar ham kuchayib, mustahkamlanib boraverishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Barchamizga ma'lumki, istiqlolimizning dastlabki yillaridan milliy o'zlikni anglash g'oyasi mamlakatimiz ma'naviy va ma'rifiy hayotida milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analar, ajdodlar merosining qayta tiklanishi hamda tarixiy shaharlarimizning yubileylarining xalqaro miqyosdakeng nishonlanishi bilan boshlandi. Jumladan, milliy qadriyatlarini tiklash, milliy o'zlikni anglash, davlatimiz tomonidan olib borilayotgan barkamol avlodni tarbiyalash sohasidagi siyosatga bevosita o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatib berdi. Bu esa milliy qadriyatlarini tiklab, rivojlantirmasdan, shaxsda ijtimoiy taraqqiyotga mos keladigan fazilatlarini shakllantirib bo'lmasligini isbotlab berdi. Afsuski, bugungi kunda milliy madaniyatimizga zid bo'lgan G'arb va Sharq madaniyatining kirib kelishi nafaqat yosh avlodga, balki katta yoshdagilarning ham ongi va dunyoqarashini o'zgartirish yoki ikkilantirishga sabab bo'lmoqda. Jumladan, milliy madaniyatimizning tarkibiy qismi bo'lgan libos madaniyati borasida o'zini "o'ta zamonaviy" hisoblagan shaxslar "Ommaviy madaniyat" niqobi ostida milliy liboslarimizni eskilik sarqiti, madaniyasizlik, shaxs erkinligini bo'g'uvchi zanjir kabi noto'g'ri xulosa chiqarishga harakat qilayotganliklaridan ko'rish mumkin"⁹⁵. Bunday chiqarilgan xulosalarning asl mohiyati millatimizning an'anaviy madaniyatini unutish orqali, uning o'rniga o'zga millatlarning madaniyatini singdirish orqali yoshlarni an'anaviy madaniyatimizdan unutishga urinish yo'li bilan vatanparvarlik ruhi va milliy qadriyatlarimizdan uzoqlashtirishdir. Shu o'rinda aytish joizki, unutilib ketilayotgan milliy qadriyatlarimizning tiklanishi hamda rivojlanishi xalqimizning jahon sivilizatsiyasi tarixiy taraqqiyotida tutgan o'rnini, buyuk mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan boy moddiy hamda ma'naviy madaniyat yodgorliklarini, urf-odat, an'ana va udumlarimizning insonparvarlik mohiyatini chuqur anglash, shu asosda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini yuksaltirib, ularning mafkuraviy immunitetini shakllantirish va yuksaltirishga xizmat qildi. Bu esa, o'z navbatida, yosh avlodlarimiz tomonidan milliy qadriyatlarimizning e'zozlanishi va e'tiborini kuchayishi milliy mahdudlik, milliy xudbinlik, manmanlik kabi salbiy omillar yuzaga kelishining oldini olishi bilan muhimdir. Shuning uchun ham bu masalada xushyorlik, nazokat, insof, diyonat, bag'rikenglik, saxovat kabi omillar talab qilinadi. Ta'kidlash joizki, milliy qadriyatlar tufayli yosh avlod o'z-o'zini anglab va

⁹⁵ Ibaydullayev T.G. Ethnic cloths as a main factor of national cultural development. Eurasia Science, 2019, p. 119–120.

qadrlab, chinakam insoniy fazilatlar mujassami sifatida o'z «Meni»ga ega bo'lsa, jamiyat taraqqiyoti birinchi o'ringa chiqadi. hamda kelajak avlodlar uchun o'zidan yaxshi nom qoldirib, rivojlangan, erkin fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini qurishga xizmat qiladi. Shuning uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlar ma'naviyatiga ta'siri orqali jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilish yo'llarini o'rganishni davom ettirish muttasil va uzluksiz jarayonga aylanishi zarur. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, kelajakni kishilarning, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy olamini shakllantirmasdan, ularni ijtimoiy jarayonlarning ijodkori hamda ishtirokchisiga aylantirmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki jamiyat taraqqiyotining taqdirini ma'naviy yetuk insonlar hal qiladi. Buning uchun esa yosh avlodni milliy qadriyatlar, ya'ni, millat a'zolari tomonidan ming yillar davomida yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat boyliklari, milliy tili, milliy adabiyoti, uning psixik ifodasi, xarakteri, ijtimoiy-siyosiy qarashlari, sharqona axloqiy prinsiplari, urf-odatlarini, an'analari ruhida tarbiyalab, voyaga yetkazish jamiyatimiz taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmon Hosil (Qoraboyev). Odatnoma. 2-kitob, T., "O'zbekiston", 2018, 288-bet.
2. Habibullayeva D. O'zbekistonda umuminsoniy va milliy qadriyatlarning tiklanishi. Tar.fan.nomz.diss., T., 1995, 135-bet.
3. Yo'ldoshev F., Haydarov O. Ma'naviy meros va yoshlar tarbiyasi. "Guliston", 1999, 5-son, 5 – 6-betlar.
4. Otamurodov S. Talaba yoshlarining milliy o'zlikni anglashi. "Ijtimoiy fikr", 2000, 1 – 2-sonlar, 150 – 154-betlar.
5. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 10-jild, T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2005, 571-bet.
6. Ibaydullayev T.G. Ethnic cloths as a main factor of national cultural development. Eurasia Science, 2019, p. 119–120.

XULQI OG`ISHGAN BOLALARPSIXOLOGIYASINI O`RGANISH, KORREKSIYA QILISH VA JAMIYATGA MOSLASHTIRISH YO`LLARI

Normamatova Sh.N.

Toshkent shahar Chilonzor tumani 184- sonli maktab psixologi

Jahonning turli mamlakatlarida u yoki bu jinoyatni sodir etib, jinoyatchilik yo'liga kirib qolgan, bu yo'ldan qanday chiqishni bilmay, adashib, jamiyatda o'z o'rnini topolmay yurgan bolalar ko'pchilikni tashkil etadi. BMT UNICEF bolalar

jamg'armasining statistik ma'lumotlariga muvofiq, voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlik o'sish tendensiyasiga ega. 2019 yilda aniqlangan voyaga yetmagan huquqbuzarlar soni 1990 yilga nisbatan deyarli 30 % ga oshgan. Har yili o'smirlar tomonidan 300 mingdan ortiq, jumladan, jinoiy javobgarlik yoshiga yetmaganlar tomonidan 100 mingga yaqin jinoiy harakatlar sodir etiladi. Bundan tashqari, bir milliondan ortiq ma'muriy huquqbuzarlik holati qayd qilinadi, har yili "voyaga yetmaganlarni polisiyaga olib kelish" o'rtacha 12-15% ga ortmoqda. Dunyoda 30% gacha ijtimoiy jihatdan xavfli harakatlar 14 yoshdan kichiklar tomonidan sodir etiladi. 5 yil ichida qidiruvda bo'lgan voyaga yetmaganlar soni 25% ga oshgan¹. Shunday ekan, Xulqi og'ishgan bolalar psixologik xususiyatlarini kompleks o'rganish jiddiy ahamiyat kasb etadi.

Jahon miqyosida olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning aksariyati xulq-atvor buzilishlarini tahlil qilish, oila, ta'lim muassasasi va huquqni muhofaza qilish idoralari, voyaga yetmaganlar uchun odil sudlov tuzilmasi bilan bog'liq, chunki har bir voyaga yetmagan huquqbuzarga nisbatan individual yondashuv siyosati ularni reabilitasiya qilish uchun institusional muassasalarni yaratishni nazarda tutmaydi, readaptasiya jarayoni yakka tartibda amalga oshirilishini ko'zda tutib, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida og'ishgan hulqini keltirib chiqaruvchi omillarni korreksiyalash va prososial xulq modellarini shakllantirishga bag'ishlangan tadqiqotlarga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida huquqbuzarlik statistikasi jinoiy qonunbuzarlikning pasayish dinamikasini ko'rsatadi. Shu bilan birga, voyaga yetmaganlarning jinoiy harakatlari tarkibida mulkchilikka qarshi (o'g'rilik, firibgarlik, talonchilik, yo'lto'sarlik, transport vositasini olib qochish, mulkni qasddan yo'q qilish va zarar yetkazish) residiv jinoyatlar (85% gacha) ustun bo'lib qolmoqda. Bu esa, o'z navbatida, voyaga yetmagan huquqbuzarlar bilan ishlashda foydalanilayotgan texnologiyalarning mukammal emasligidan dalolat beradi. Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikka qarshi kurash muammolari har doim juda dolzarb bo'lib kelgan. Shunday ekan, voyaga yetmagan xulqi og'ishgan bolalarning individual psixologik xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish jiddiy ahamiyat kasb etadi. Bu borada voyaga yetmagan huquqbuzarlarning moslashmaganlik darajasini aniqlash va tarbiyalanuvchilarning korreksiyasi va moslashuvining individual texnologiyalari, shuningdek, yoshlarning ichki psixologik manbalariga tayanib, ularda axloq buzilishlarini psixologik profilaktika qilishni ishlab chiqish imkonini beruvchi (kognitiv, shaxsiy-emosional, axloqiy) mezonlar tizimini isloh qilish va korreksiyalashning konseptual modelini yaratishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda qonunbuzarlikni profilaktika qilish sohasida olib borilayotgan islohotlar davomida samarador me'yoriy-huquqiy baza yaratilgan. Xususan, qabul qilingan hujjatlar orasida O'zbekiston Respublikasining "Voyaga

yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida" gi O'RQ-263-sonli Qonuni² (2010), Vazirlar Mahkamasining 113-son qarori "Fuqarolarning hayoti va salomatligiga qarshi jinoyatlarni profilaktika qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori (1999) va boshqa ko'plab hujjatlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Bu hujjatlarda keltirilgan vazifalarni samarali amalga oshirish uchun aholi va, xususan, yoshlar orasida turli ko'rinishdagi qoidabuzarliklarni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-psixologik omillar va huquqbuzarlik intervensiyasini tizimli o'rganish zarur. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" gi (2016) 406-sonli Qonuni³, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Psixologiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va huquqbuzarlikni profilaktika qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 472-sonli qarori, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda quyida keltirilgan ma'lumotlar muayyan darajada xizmat qiladi.

Shaxsning anomal rivojlanishi, ijtimoiy me'yorlar va deviant axloqni o'rganishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqishga Vatanimiz va qator xorijiy davlatlarning ko'plab tadqiqotchilari: R.Blackburn⁴, W.Bonta, Andrews R. va Hoge T., P. Heaven⁵, B.S.Bratus, E.Dyurkgeym, Yu.A.Kleyberg, V.I.Kogan, V.N.Kudryavsev, A.Ye.Lichko, V.S.Bitenskiy, T.Parsons, A.A.Rean, V.A. Xudik⁶, B. M. Umarov va boshqalar hissa qo'shgan.

Ijtimoiylashuv va reabilitasiya o'rtasidagi aloqa Ye.V.Julina, V.A. Kudryavsev, O.V. Troshina ishlarida tadqiq etilgan. O'smirlar moslashuvining umumiy muammolari fonida Xulqi og'ishgan o'smirlarning kasbiy faoliyatga moslashuvi muammosi S.A.Belicheva, I.B.Gromova, I.S.Kon, Yu.A.Kleyberg, I.S.Polonskiy, I.Yu.Sundiyeu, D.I. Feldshteyn⁷ va boshqalarning ishlarida ko'rib chiqilgan.

So'nggi yillarda olib borilgan izlanishlarda bir necha yo'nalish kuzatiladi:

voyaga yetmaganlar xulqidagi og'ishlarning ijtimoiy-psixologik sabablarini o'rganish (A.I.Dolgova, A.L.Groysman, E.G.Kondrashenko, G.P.Kostyashkin, I.A.Medvedev, A.I.Nevskiy, Yu.A.Kleyberg, va boshqalar);

deviant axloqning psixologik o'ziga xosligini aniqlash (S.A.Alekseyev, M.A.Alemaskin, S.A.Badmayev, S.A.Belicheva, A.G.Kovalev, L.S. Slavina, D.I.Feldshteyn, A.Ya Varlamova, L.I Bojovich, G.K.Tulyaganova, B.Umarov, Z.F.Kamaletdinova, E.Kuljonov⁸ 10 va boshqalar);

voyaga yetmaganlar axloqidagi og'ishganlarni diagnostika qilish masalalarini ishlab chiqish (A.S.Belkin, V.M.Obuxov, V.G.Stepanov, N.MakVilyams, T.Kornilova, Ye. Grigorenko, S. Smirnov⁹ va boshqalar);

o'quvchilarda deviant axloqning oldini olish va bartaraf etish yo'llari va usullarini izlash (K.Sh.Axiyarov, L.P.Girfanova, V.N.Gurov, S.A.Belicheva,

I.A.Nevskiy, A.I.Ostrovskiy, O.A.Sviridov, I.F.Dementyeva, Ronginskaya T.I, Varlamova A.Ya., Nechayeva A.Yu., Shaduro A.F., Yurichka Yu.I.¹⁰ va boshqalar).

V.N.Ivanchenko, A.G.Asmolov, S.N.Yenikolopov, X.Remshmidt, G.V.Uvarovalarning ishlari mazmuniy ustanovkalar va ularning axloqiy buzilishlari bilan o'zaro aloqasini tadqiq etishga bag'ishlangan. Mualliflar individual shaxsiy ustanovkalar – me'yorlarning invariantlari, mazkur submadaniyat an'analarini o'zlashtirish, ijtimoiylashuvdagi umumqabul qilingan qoidalardan begonalashish, ijobiy ijtimoiy qadriyatlarni rad etish va erkinlikka o'sib o'tgan ehtiyoj natijasidir, degan xulosaga kelgan. Yoshlarda deviant ko'rinishlar va determinantni tadqiq etuvchi mavjud tadqiqotlarni tahlil qilish mavjud muammolarni sharhlash imkonini beradi. Shunga qaramay, bugungi kunda Xulqi og'ishgan bolalar uchun ta'lim muassasalarida o'quvchilar uchun moslashuv mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha longityud tadqiqotlar mavjud emas.

Ilmiy ishlar va adabiyotlarni o'rganish natijasida, shuningdek, o'quvchi-yoshlarning individual psixologik xususiyatlarini xisobga olgan holda quyidagilarga e'tibor beradigan bo'lsak:

O'quvchi shaxsining asosiy sifatleri tuzilmasida muloqot va o'zini o'zi ixtiyoriy boshqarish ehtiyoji dezintegrasiyalovchi; eskapizm va ergashuvchanlik kabi sifatlar birlashtiruvchi rol o'ynaydi. Shaxsning ma'naviy xulqida bu sifatarning mavjudligi o'quvchilarning dezadaptasiyasi, frustrasiyalovchi vaziyatlarga tushishidagi qiyinchiliklarga ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy psixologik moslashuvning emosional komponentini tadqiq etish natijalari o'quvchilarning shaxslararo munosabatlarida nokongruentlilik va adovat ustunligida namoyon bo'luvchi umumiy yetilmaganlik hamda "Men konsepsiya" sining nomutanosibliigi, o'z navbatida, emosional yetilmaganlik tajovuzkorlik va zo'ravonlikka moyillik hamda o'z his-tuyg'ularini boshqarishga qodir emaslikda namoyon bo'ladi.

Har qanday bola uchun rivojlantiruvchi muhitni yaratishning eng muhim mexanizmlaridan biri psixo-texnologiyalar vositasida ta'limga tatbiq etiladigan va korreksiya jarayonining boshlang'ich, qisman va to'liq davrlarini nazarda tutadigan tizimli-amaliy yondashuv hisoblanadi.

Xulqida og'ishish kuzatilgan o'quvchi-yoshlarni jamiyat normalariga moslashtirish jarayonida bu faoliyatning dinamikasi va mexanizmi (kognitiv, hissiy va axloqiy) samaradorligini empirik tadqiq etish shaxsning ijtimoiy-moslashuvchan mexanizmlarini shakllantirishga imkon beradi.

Ijtimoiylashuvning emosional jihatida o'quvchilarning o'zini va boshqalarni qabul qilishda namoyon bo'ladigan o'zlariga nisbatan emosional-qadriyatli munosabat dinamikasi kuzatiladi, bu o'g'il bolalar kabi qizlarning katta qismida ijtimoiy moslashuv va ijobiy "Men konsepsiya" sining bevosita korrelyatsion

aloqasida o'z ifodasini topadi. Emosional intellektning rivojlanish dinamikasi his-tuyg'ular va empatiyani boshqarish qobiliyatining rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Aynan mazkur sifatlar o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy moslashuvchan axloqi bilan korrelyasiyalanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, agar ta'lim muassasalari xulqida og'ishish kuzatilgan o'quvchilarni korreksiyalash va mavjud ijtimoiy normalarga moslashtirish jarayoni davomida ularning ijtimoiy shakllanishi, jamiyat nuqtai nazaridan ijtimoiy me'yor va qadriyatlar, axloq namunalarining o'zlashtirilishi ularning rehabilitasiya bosqichida tashkillashtirilishi huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning individual psixologik xususiyatlarini bilishga tayanib, psixologik-pedagogik xarakterdagi individual chora-tadbirlarni qo'llashni nazarda tutishi zarur. Shuningdek, faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish jarayoni sub'yekt-sub'yekt o'zaro hamkorligi va rivojlantiruvchi ta'limning paradigmalari kontekstida ta'limning faol usullarini qo'llashga asoslangan jarayon sifatida qurilishi zarur, ijtimoiy-me'yoriy xulqni shakllantirish dasturlari individual yoshga oid, gender, axloqning motivasion xususiyatlari, o'zlashtirish va ma'lumotlarni izohlashni o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda ikkita: kognitiv (ijtimoiy-me'yoriy tizimlarning shakllanishi) va emosional (o'zi va boshqalarga ijobiy emosional-qadriyatli munosabatning rivojlanishi) komponentni o'z ichiga olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Материалы Всероссийской научно-практической конференции.//По проблеме профилактики правонарушений.- М.: ВНИИ МВД России, 2019
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida. O'RQ-263-son. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010 y., 39son, 341-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Psixologiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va huquqbuzarlikni profilaktika qilish chora-tadbirlari to'g'risida. 2019 yil 472-sonli qarori.
4. Blackburn R. The Psychology of criminal conduct. New York: John Wiley & sons Ltd., 2002
5. Bonta W, Andrews R. &Hoge T. The Psychology Antisocial Behavior // Criminal justice and behavior. 1990. Vol 17. P. 19-52.
6. Kudryavsev V.N. Genezis prestupleniya: Opit kriminologicheskogo modelirovaniya. - M.: 1998, 1998; Rean A.A. Xarakterologicheskiye osobennosti podrostkov-delinkventov // Voprosi psixologii. 1991. № x. S. Ch-ch; Bratus B.S Anomalii lichnosti.-M.: «Мысль». 1988.s.; Lichko A.Ye. Bitenskiy V.S. Podrostkovaya norkologiya. -M.: Medisina. 1991.- 304.

7. N.G. Kamilova “Xulqi og‘ishgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari resosializasiyasining psixologik xususiyatlari” yosh va pedagogik psixologiya. rivojlanish psixologiyasi psixologiya fanlari doktori (dsc) dissertasiyasi avtoreferati.-2020y.

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA INTEFAOL METODLARDAN FOYDALISHNING AHAMIYATI

Normatova Solihabonu Nodirjon qizi

O‘zDJTU 1-bosqich talabasi

Shukurova Shohsanam Qaxramon qizi

O‘zDJTU Ingliz tili amaliy fanlar №3 kafedrası o‘qituvchisi (ilmiy rahbar)

Ma’lumki, yurtimiz mustaqillikka erishgandan so’ng ta’lim sohasiga katta e’tibor berila boshladi. Xususan, xorijiy tillarni (ingliz tili) o’qitishga bo’lgan ehtiyoj va talablar oshdi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan joriy 2023-yilga “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb nom berilishi ham bejiz emas. Demak, xorijiy tillarni o’qitishda darsning samaradorligini oshirish eng dolzarb va muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, 2022-yilning 20- yanvar sanasida qabul qilingan “ Xorijiy tillarni o’rganishni takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” nomli qarorida “o’quvchi yoshlarga chet tillarini o’qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, chet tilarini o’qitishni ommalashtirish, darslarni mazmunli tashkil etish uchun dasturiy loyihalar ishlab chiqish va ularni joriy etish, dars davomida video, audio, ko’ngilochar ko’rsatuvlar va boshqa o’rgatuvchi kontentlardan foydalanish, darslarning sifatini ta’minlash maqsadida fuqarolik-huquqiy shartnomalar negizida o’z ishida yuqori natijalarga erishgan , yuqori malakali mutaxassislarni, shu jumladan mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb qilish” kabi ko’plab fikrlar yuritilgan. Bu qarordagi takliflar esa chet tillarini o’rganish jarayonining yanada qiziqarli va sifatli o’tishini ta’minlaydi. Demak, ta’lim jarayonida xorijiy tillarni (ingliz tili)o’qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo’ladi. Ushbu jarayon uchun dars davomida o’qituvchilar mavzuga aloqador videoroliklardan, turli dialog va suhbatlardan iborat videofilmlardan foydalanishlari mumkin. Bular esa o’quvchilarda ham ko’rib, bir paytning o’zida tinglash va tushunish mahoratini shakllantirishga ulkan hissa qo’shadi.

O’quvchilarning faolligini, darsga bo’lgan qiziqishlarini, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish uchun dars jarayonlarini tashkil etishning ko’plab usul va

yo'nalishlari bor. Darsda o'quvchilarning faolligi asosiga qurilgan interfaol metodlar mana shu yo'nalishlarning eng samarali usuli hisoblanadi. "Interfaol" tushunchasi esa ingliz tilida "interact" shaklida ifoda etilib, lug'aviy ma'nosi, "inter"-o'zaro, "act" esa harakat degan ma'noni anglatadi. Shuni aytib o'tish joizki, an'anaviy ta'lim suhbat (dialog) asosida tashkil etiladi va bu suhbat ishtirokchilari o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi, yoki guruhlar bo'lishi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, interfaol metodlar bevosita o'quvchilarning faolligi va o'qituvchi vositasida amalga oshiriladi; o'quvchilarning o'zaro suhbatlari va muloqotlari hamda qizg'in muhokamalari asosiga quriladi. Bu kabi o'zaro hamkorlikdagi faoliyat hamda jarayonlar o'quvchilarni kommunikatsiya va nutq mahoratlarini oshirishda, bilim ko'nikmalarini kengaytirishda, hamda erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Qo'shimcha qilish joizki, interfaol metodlar o'quvchilarga:

- muammoli vaziyatlarga birgalikda, jamoaviy holatda yechim topish;
- o'quv jarayonida o'zaro yaqinlikni yuzaga keltirish;
- shaxsiy qarorlarni ikkilanmay bildira olish qobiliyatlarini yuzaga keltirish
- dars jarayoniga nisbatan mas'uliyatni oshirishga yordam beradi.

O'quvchilarda interfaollikni oshirishga xizmat qiluvchi ko'plab metodlar bo'lib, quyida ularni tanishtirib o'tamiz:

- "Buzz" mashg'uloti. Ushbu metodda ishtirokchilar bir mavzuga qaratilgan guruhda birlashishadilar. Har bir guruhdan har bir talaba mavzu yuzasidan o'z fikrini bildiradi, guruhi uchun o'z hissasini qo'shadi. Va o'qituvchi tomonidan har bir guruhdagi har bir o'quvchi rag'batlantiriladi. O'qituvchi sifatida siz o'quvchilaringizga suhbatni boshlash uchun kalit so'zlarni berishingiz mumkin.

- "Muammoli vaziyat yechimi" (Creative problem solving) bu metod uchun o'qituvchi tomonidan biror bir hikoya o'qib beriladi va o'quvchilar o'zaro fikrlashib hikoyani davom ettirishadi, ya'ni hikoyaning yakuni o'quvchilar hukmiga havola etiladi.

- "Rasmlar so'zlaganda" (When pictures speak) usuli o'quvchilarning nutqiy qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Bunda o'quvchilar e'tiboriga mavzuga aloqador rasmlar taqdim etiladi va ular rasmlar asosida ishlashadi.

- "Viktorina kartochkalari" (Quiz cards) metodida o'quvchilar soniga qarab ularga mavzuga aloqador savollar yozilgan kartochkalar tarqatiladi va ular ushbu kartochkadagi savollarga javob berishadi.

Ayonki, har bir interfaol metod o'ziga xos maqsad va vazifalarga ega va har biri o'quvchi salohiyatini oshirishga yordam beradi. Va shunisi aniqki, ushbu o'qitish metodlari yordamida o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi ortishi bilan birga ularning chet tillarini o'rganish samaradorligi ham ortib boradi. Bugungi rivojlanayotgan zamonimiz ta'lim tizimi har qanday sohada yetakchi va o'z sohasing bilimdoni bo'lgan yoshlarni talab qilar ekan, biz bo'lajak o'qituvchilar

Yurtboshimiz yaratib berayotgan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda, innovatsion texnologiyalardan samarali tarzda foydalanib yurtimiz kelajagi uchun o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Pedagogik va psixologik tadqiqotlar" ilmiy-amaliy jurnal 1-son. 2023.
2. <https://slidetodoc.com/7-mavzu-interfaol-talimning-nazariy-va-tashkiliy-jihatlar/>
3. <https://lex.uz/uz/docs/-5831978>
4. D.Isroilova. (2021)_Ingliz tili darslarida interfaol metodlardan samarali foydalanish. Navoiy Nurota.

ЎЗБЕК КОМПОЗИТОРЛИК ИЖОДИЁТИДА ФОРТЕПИАНО ВА ЙИРИК ШАКЛДАГИ АСАРЛАРДА РАҚС ЖАНРИНИНГ МАВЗУЙЛИК МАСАЛАСИ

Нартураева Ситора Орибовна

ЎзДК "Бастакорлик ва чолғулаштириш" кафедраси ўқитувчиси

Замонавий мусиқа санъатининг энг қадимий ва эътиборга молик жанрларидан бири – бу камер-чолғу ансамбли ҳамда фортепиано учун ёзилган йирик шаклдаги асарлардир. Унда симфоник жанр сингари оддийдан тортиб, мураккаб, фалсафий, чуқур мазмундаги мусиқий асарларни ижро эта олиш имконияти мавжуд. Шу билан бирга, фортепиано ҳамда ансамбль учун ёзилган мусиқалар ўзига хос шаклларга эга. Ҳозирги кунда камер ансамбллариининг аҳамияти ошган бўлса-да, жанрнинг моҳияти сақлаб қолинган.

Ўзбекистонда илгари фортепиано ҳамда камер чолғуси учун ёзилган мусиқаларда рақс жанри сезиларли натижаларга эга бўлмаган бўлса-да, айтиш мумкинки, ҳозирги кунда бу жанр энг ривожланган ва чўққисига эга бўлган паллададир. Рақс жанридаги мавзуйлик масаласи инсоннинг қалбини, ички дунёсини нозик ҳаракатлар орқали тасвирлашга қаратилган.

Урушдан кейинги йилларда торли чолғулар учун кватрет жанри анча ривожланди. Дастлаб торли кватрет таркиби учун кичик ҳажмдаги пьесалар, сюиталар, рақслар яратила бошлади. Ўзбекистонда камер-чолғу ансамбли опера ва симфоник мусиқа билан бир қаторда миллий ижодиётнинг қизиқарли, самарали ҳамда сермахсул соҳасига айланди. Ўзбек мусиқасида миллийликка катта урғу берилди.

Йиллар давомида ўзбек мусиқаси янада сайқаллашиб, ўзининг индивидуал хусусиятларига эга бўла бошлади. Фортепиано чолғуси ҳамда торли кватрет учун мусиқалар ёзиш фаол ривожланди. Айниқса,

И.Акбаровнинг квартетлари ўзига хослиги билан эътиборни тортади. Унинг яратган квартетларида бевосита симфоник ижодиёт билан боғлиқликни кўриш мумкин. Композитор ушбу жанрда анча тажрибага эга бўлганлиги сабабли, унинг квартет учун ёзилган асарларида миллийлик руҳи яққол акс этади. И.Акбаровнинг камер-чолғу асарларида, яъни олтига торли квартетлари ва фортепиано учун ёзилган бир нечта пьесаларида миллий руҳни ҳис қилиш мумкин.

Камер-чолғу мусиқасида Б. Гиенконинг самарали фаолиятини айтиб ўтиш мумкин. У асосан классик намуналарга риоя қилган. Б.Гиенконинг квартет жанридаги илк тажрибаларига “Ўзбекистоннинг суратлари” мусиқий асарини киритиш мумкин. Ушбу асарнинг ғояси ўзбек шеърляти билан уйғунлашган. Туркумнинг барча қисмларида эпиграф сифатида Х.Олимжон (биринчи ва учинчи қисмларда) ва Миртемир (иккинчи қисм)нинг шеърларидан тўртликлар келтирилган. Мусиқада шеърлий мазмун умумлашган ҳолда намоён бўлади. “Ўзбекистоннинг суратлари” асарида Б.Гиенконинг ижодиётига хос бўлган ансамбль ёзувининг услубий қирраларини яъни, тафовутсиз драматургия, жанрнинг лирикага интилувчанлиги, ашула жанрига мурожаатни кўриш мумкин. Б.Гиенконинг камер-чолғу ансамбли учун яратган тўққизта торли квартет, иккита скрипка, альт, виолончель ва фортепиано чолғулари учун “Триптих” номли квинтетларида миллийлик хусусиятлари ўзининг тўлақонлик ифодасини топган. Ушбу асарларнинг ривожланиши, куйнинг ўзбекона характери, доира усулларидан самарали фойдаланганлиги мусиқий асарга янада жозиба бағишлайди.

XX асрнинг 30-йилларида Тошкентда Глазунов ва Комитас номидаги квартетлар оммалашди. Улар концертларда катта муваффақиятлар билан ижро этила бошланди. Ўзбекистоннинг профессионал ва ҳаваскор ансамблларининг репертуар дастури классик асарлар эди. Рус ва ҳориж мусиқасининг тарғиб этилиши миллий мусиқий маданиятнинг ўсишига туртки бўлди.

XX асрнинг 20-йиллаиг охири 30-йилларнинг бошларида камер ансамбль учун кўплаб асарлар яратила бошлади. Уларнинг муаллифлари К.Абдуллаев, В.Успенский, Д.Мацуцинлар эди.

1929 йили К. Абдуллаев торли квартет учун илк бор “Савти муножот” ва “Мухайяр” номли пьесаларини яратди. Композитор ўзининг тажрибаларида XX асрнинг 20-йиллардаги халқ куйларини қайта ишлаш билан шуғулланган.

“Савти муножот” мақомдан олинган парчанинг илк бор гармонизациялаш тажрибаси бўлган. Аниқроғи, торли квартетнинг овозларига бўлиб чиқилган. Бу пьеса ғамгин характердаги қадимий тўй

маросимининг куйидан ташкил топган. Ўзбек халқида муножатнинг бир қанча вариантлари мавжуд – яъни ашула ва чолғу йўллари каби. Композитор чолғу йўлидаги вариантдан фойдаланган ҳолда, унинг лад-интонацион ва метроритм хусусиятларини сақлаб қолган. Муаллиф биринчи скрипканинг партиясини форшлаглаб билан бойитади ва шу йўл билан халқ ижрочилик услубига яқинлаштиради.

Куй кварта-квинта ёки параллел кварта оҳангдошликлари билан гармонизациялаштирилганлиги сабабли, халқ чолғу мусиқасига хос бўлган кўп овозлигини эслатади.

“Савти муножат”да полифоник фактурага урғу берилган. Лекин бу интонацияга қараганда, ритмик муносабатда кўпроқ намоён бўлади. Секста ва терциялар, шунингдек секунда-септима интерваллари жуда камдан-кам ҳолатларда учрайди. Улардан колористик эффектларни кўрсатишдагина фойдаланилган.

К.Абдуллаевнинг “Мухайяр” пьесасига ҳам полифоник фактура, хусусан, имитация услуби жуда хос.

Ленинград консерваторияси мунтазам равишда Тошкентда симфоник ва камер мусиқаси кечаларини ўтказиб борган. Ауэр номидаги кваттет катта муваффақиятлар билан нафақат классик, балки, Ўзбекистонда яратилган янги мусиқий асарларни ҳам ижро этишган. Улар жумласига Л. Штрейхернинг ўзбек мавзуларига асосланиб ёзилган “Пьеса” ва “Сюита”лар киради.

30-йилларнинг ярмида бошлаб яратилган симфоник асарлар орасида айниқса, А. Козловскийнинг “Лола” номли фарғонача сюитаси ажралиб туради. Ушбу сюитада янги таасуротлар ва ёрқинлик мавжуд. Рус ва ғарбий Европа классик мусиқасини тинглаб, унинг тарбиясини олган мусиқачилар маҳаллий товушларни жаҳон мусиқасига ҳос тарзда катта муваффақиятга олиб чиқишди. Сюита турли мусиқий услублардан иборат бўлиб, улар орасида айниқса, рус мактаби, француз импрессионистлари ва албатта ўзбек халқ мусиқасининг анъаналари яққол кўзга ташланади. Финалнинг бош мавзуси асосида куйни ўзгармас кўринишини сақлаб қолинган ҳолда Глинка вариацияларининг тамойили ётади. Шу билан бирга, фактура-тембр томонлама вариация усуллари билан самарали фойдаланилган. Мазкур сюитада рус композитори Михаил Глинканинг ижодига хос бўлган вариациялашнинг турли йўллари берилган. Композитор Козловский рус симфоник классиклардан мавзунинг атрофида овоз ости ҳаракатланиш каби услубларни ўзбек мусиқасига олиб кирди. Шу билан биргаликда “Лола” сюитасининг партитурасида француз импрессионистлари, яъни, Дебюсси ва айниқса, Равельнинг ижодида мавжуд бўлган айрим услублар ҳам намоён бўлади. Айниқса, композитор А.Козловский табиатнинг

тасвирини нозик мусиқа ёрдамида ифодалашга муваффақ бўлган. Оркестровканинг ёрқин ва жилдорлиги айниқса “Лола” сюитасининг иккинчи қисмида кузатилади, гармоник ва лад-тонал нуқтаи назардан ҳам янги бўёқларга бой. Шунингдек, мазкур сюитада қўлланилган урғуларда Равелнинг ҳам таъсири сезилади. “Лола” сюитасидаги оркестр фактурасининг кўп режалилиги, педалларнинг кўп қўлланилиши, мавзуйликнинг бўлиниши, айниқса торли чолғулардаги тембр колоритининг кучайтирилиши, авжига чиқиш ва яна ҳаракатнинг пастга тушиб кетиши, кутилмаган ёрқинлик ва унинг йўқолиши Равел ижодининг таъсири билдиради. Шунга қарамай, Козловскийнинг “Лола” сюитаси Равель асарларига эмас, балки, Дебюссининг “Иберия” номли асари билан ўхшаш эканлигини таъкидлаш лозим.

Сюжет жиҳатидан мазкур асарлар ўхшашлиги уларнинг композицион тузилишида ҳам акс эттирилади:

“Лола”		“Иберия”
1-қисм	Лолачиларнинг бозор майдонида тўпланиши	Кўчаларда ва йўлларда
2-қисм	Фарғона боғларидаги тунлар	Тун иси
3-қисм	Лолачиларнинг қайтиши. Лолалар базми	Байрам кунидаги тонг

Ҳарактер ва қисмларнинг тузилиши жиҳатидан ҳам кўп ўхшашликлар кузатилади. Экспозиция тамойили ҳамда мавзунинг ривожланишида “Лола” ва “Иберия” да кўп боғлиқликлар мавжуддир. Биринчи қисмда ҳар иккала композиторнинг асарида ҳам ритмик фактура, аста-секинлик билан овознинг пасайиб бориши ва охирида тиниқ сокин янграши, асосийси эмоционал-образ нуқтаи назардан романтик кайфият мавжудлиги кузатилади.

Иккинчи қисм ҳам бир-бирига жуда яқин. “Иберия”нинг иккинчи қисмида тун жуда чиройли тасвирланади, ундаги жиллоли тембр сирли ва ёқимли оқшом муҳитини кўрсатиб беради. Ундаги мелодик образ ривожлантирилган. Финал қисми жанр жиҳатдан ҳар иккала асарда ҳам марш жанрида ёзилган ва оммавий байрам манзарасини ўзида ифода этади.

“Лола” сюитасида Дебюсси ҳамда рус композиторларининг таъсири бўлса-да, бироқ у ўзига хослигини йўқотмаган. Композиторнинг бундай ёрқин, мустақил оригинал асарни яратишида энг аввало ўзбек халқ мусиқаси муҳим омил бўлиб хизмат қилган.

“Лола” сюитасида табиатимизнинг гўзаллигидан завқланиш, миллий маросимларимиздан илҳомланиш каби туйғулар мавжуд. Композиторнинг

мазкур музиқий картинани яратишдан асосий мақсади оддийгина халқ байрамини тасвирлаш эмас, балки ўзбек миллий тантаналарида ўтказилувчи маросимларнинг нақадар сержило ҳамда такрорланмас эканлиги кўрсатишдан иборат бўлган. Айнан ўзбекча мавзуни танлаб, уни ривожлантиришда композитор Козловский турли музиқий ифода воситалари ҳамда бўёқлар орқали бунинг уддасидан чиқа олган. Тонал-гармоник нуқтаи назардан, шунингдек, табиий ладлардаги турли айланмалар орқали ўзбекона специфика кўрсатиб берилган. Ушбу музиқий асарда мавзуийлик масаласи муҳим ўринга эгадир.

Бундан ташқари, Ўзбекистонда камер музиқасини ривожлантиришда Г. Мушелнинг ҳам ўрни беқиёс. Айниқса, унинг ўзбек мавзулари асосида ёзилган скрипка, виолончель ва фортепиано учун “Беш пьеса”, М.Равель хотирасига бағишланган торли кваттет ва фортепиано учун “Сюита” асарлари эътиборни тортади. Ундаги мавзуийлик миллий оҳанглари мизга асосланган.

Энг аввало камер асарларда, айниқса, торли кваттет учун ёзилган пьесаларда миллийликни акс эттириш, миллий колорит, жило, усуллар, мақомлардан фойдаланилган ҳолда ўзбек музиқасига кўплаб янгиликлар киритилди.

Европа ва рус музиқасига хос бўлган усуллар пухта ўрганилиб чиқиб, сўнг олинган билим ва кўникмалар асосида миллий музиқамизга синтез усуллари киритилди. Мақомлардан мавзу сифатида парчалар олиниб, ривожлантирилди. Европа чолғуларида ҳам миллий куйларимизни профессионал тарзда ижро этиш мумкинлигига замин яратилди.

Ҳозирги кунда ижод қилаётган кўплаб композиторлар томонидан камер асарларга, хусусан, торли кваттет учун кўплаб пьеса, сюиталар, кўшиқлар яратилмоқда. Ва бу самарали ижод маҳсули камер оркестр ижросида тез-тез янграшини кўришимиз мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Т.С.Вызго, Ф.М.Кароматов – История узбекской музыки. 1-2-3том.
2. Н.С.Янов-Яновская – Узбекская симфоническая музыка. Тошкент, 1979й.
3. Т.Б. Гафурбеков - Фольклорные истоки узбекского профессионального музыкального творчества. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 128 с.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AQLIY SALOHIYATINI OSHIRISHDA MANTIQUIY FIKRLASHNING AHAMIYATI

Nuriddinova Azizaxon Bahromjon qizi
Namangan davlat universiteti talabasi

So'ngi yillarda mamlakatimiz ta'lim tizimida xususan boshlang'ich ta'lim tizimida keng qamrovli ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston respublikasi Prezidentining "O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish kabi bir qancha vazifalar asosiy vazifalar sifatida belgilab berildi.

Ushbu vazifalarni inobatga olgan holda boshlang'ich ta'lim tizimi faoliyatini takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish o'quvchilarning fanlardan o'zlashtirish darajasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Farmoniga binoan tasdiqlangan xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi asosida O'zbekistonning 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) o'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish belgilangan.

Bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun avvalo umumta'lim maktablarida boshlang'ich sinflarda sifatli dars jarayonlarini tashkil etish, o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Insonning fikrlash qobiliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri bu mantiqiy savodxonlikdir. Mantiq grekcha so'z bo'lib, "fikir", "nutq" ma'nolarini beradi. Fikrlash bu axborotni qayta ishlashning intellektual jarayoni va ob'ektlar, ularning xususiyatlari yoki atrofdagi dunyo fonemalari o'rtasidagi aloqalarni o'rnatishdir. Fikrlash hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni topish imkonini beradi.

L.M.Fridman, E.N.Balayan va S.A.Yanovskaya kabi o'qituvchilar mantiqiy masalalar yuzasidan bir qancha tavsiyalarni ishlab chiqdilar. Ushbu tavsiyalar "Evrestik qoidalar" deb ataladi. "Evrestika" so'zi yunon tilidan "haqiqatni topish san'ati" deb tarjima qilinadi.

Mantiqiy fikrlashning eng sodda ko'rinishi tasviriy-mantiqiy fikrlash bo'lib, ob'ektlarni tasvirlash ishlarini o'z ichiga oladi. Bu aqliy faoliyat bolada 1,5 yoshdan boshlab bolalik paytida shakllanadi.

Mavhum-mantiqiy fikrlash jarayoni tabiatda bo'lmagan (tovushsiz) toifalar orqali amalga oshirish. Mavhum tushuncha nafaqat real ob'ektlar o'rtasida balki

fikrning o'zi yaratgan mavhum va majoziy tasvirlar o'rtasidagi munosabatlarga ham ta'sir qiladi.

Ta'lim jarayonida, ayniqsa boshlang'ich ta'limda mantiqning o'rni va ahamiyati benihoya katta. 1-sinf o'quvchisi maktabga kelgan kundan maktab bilan tanishishi, muhitga tez moslashishi, savod o'rganishi va yangi bilimlarni egallashi bevosita o'quvchining mantiqiy tafakkuriga bog'liq. O'quvchida mantiqiy fikrlashning tushuncha, hukm(mulohaza) va xulosa chiqarish kabi shakllari mujassam bo'lishi lozim. Birorta predmet yoki hodisa haqida dastlab muhim belgilarini aks ettiruvchi tushuncha paydo bo'lishi, ularning xossalari, o'rtasidagi munosabatlar predmetning mavjud bo'lishi yoki bo'lmaslik fakti haqida fikrlar tasdig'i yoki inkori shaklida ifodalangan hukm ya'ni mulohaza yuritishi, hukmlardan xulosa qilib yangi bilimlarni keltirib chiqaruvchi mantiqiy amallarni bajarishi kerak. O'quvchida mantiqiy fikrlash ko'nikmasini qanday shakllantirish mumkin? Bu esa o'qituvchidan yuksak mahorat va ota-onadan ozgina e'tibor talab etadi. Ko'pchilik insonlarda mantiq alohida qobiliyat talab qiladi degan fikr bor. Ammo kuzatishlar tahlili shuni ko'rsatadiki mantiqiy fikrlashni o'rganish uchun oddiy o'rtacha qobiliyat yetarli. Shunchaki o'quvchi e'tiborli va diqqatli bo'lishi kerak. Ilk ko'nikmalar oilada ota-onaning yondashuvi asosida shakllantirilishi lozim. Maktabda o'qituvchi ota-ona bilan hamkorlikda ishlagan holda shakllanayotgan ko'nikmani yuzaga chiqarib, mashg'ulotlar yordamida o'quvchining tasavvur olamini boyitib, mantiqiy tafakkurini kengaytiradi. Yangi chop etilayotgan darsliklarda mavjud mantiqiy masalalar, testlar, jumboqlar va o'yinlar mantiqiy fikrlash jarayonining kichik qismini rivojlantirishga yordam beradi. O'qituvchi bulardan tashqari ham muammoli va jumboqli topshiriqlar, ijodiy vazifalar berib, o'zi ham o'quvchi bilan birgalikda ishlasa ko'zlangan maqsadga erishiladi. Masalan matematik masalani ishlashda mantiqdan foydalanish:

Nargiza tug'ilganida onasi 28 yoshda edi. 11 yildan keyin Nargiza va uning onasining yoshlari yig'indisi nechaga teng bo'ladi?

Bu masalani yechishda o'quvchi dastlab masalani o'qib tushunchaga ega bo'ladi, so'ngra masalada keltirilgan ma'lumotlar asosida mulohaza yuritadi. Bu jarayonda 11 yildan keyin Nargiza 11 yoshga, uning onasi esa $28+11=39$ yoshda bo'lishini aniqlaydi. Aniqlangan ma'lumotlar asosida masala shartiga binoan Nargiza va onasining yoshlari yig'indisini topish uchun quyidagi xulosaviy fikrga keladi, ya'ni $39+11=50$

Mantiqiy fikrlash qobiliyati yaxshi shakllangan o'quvchida quyidagi xususiyatlar namoyon bo'ladi:

1. Savod o'rganishda, yangi bilimlar olishda va fanlarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelmaydi.

2. Tasavvur olami kengayadi, ijodkorlik va kreativligi oshadi.

3. Har bir voqea-hodisaga o'z munosabatini bildira oladi, shaxsiy fikri paydo bo'ladi.

4. Og'zaki nutqi yaxshi rivojlanadi.

5. Umumiy xulosalarini aniq dalillarga asoslanib yoritib bera oladi.

6. Aniq maqsad qo'yish, kasb tanlashda qiynalmaydi.

7. Duch kelgan muammoli vaziyatlarga munosib to'g'ri yechim topa oladi.

Mantiqiy fikrlashi yaxshi bo'lmagan o'quvchilarda esa fanlarni o'zlashtirish, mustaqil qaror qabul qilish, o'z fikrini bayon qilib berishi, tashqi ta'sir, voqea-hodisalarga munosabat bildirishi kabi holatlarda yetarlicha kamchiliklar kuzatiladi. Bu kabi muammolarning oldini olish uchun eng avvalo oilada sog'lom intellektual muhitni yaratish, maktabda har bir o'quvchiga individual yondashish lozim. Ayrim ota-onalarning o'zlari avvalo mantiq haqida tushunchaga ega bo'lishlari kerak. Shu o'rinda umumiy ota-onalar uchun ham alohida mantiqiy tafakkurni oshiruvchi, qiziqarli va tushunarli qilib o'quv qo'llanmalar yaratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umumiy ma'noda mantiqiy fikrlash o'quvchilarda zukkolik va zukkolikni rivojlantirishga, topqirlik, tezkorlik, aniqlik, ijodkorlik xususiyatlarining kamol topishiga katta ta'sir ko'rsatadi, noma'lum iste'dodlarni kashf etishga, o'z kuchi va o'z qobiliyatlariga ishonchini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi qonuni" Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyoti poydevori- Toshkent: Sharq, 1997

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni".

3. Mamadiyeva N. "Falsafa" (Mantiq qismidan) Toshkent-2021, 5-9-bet.

4. Ahmedov M. Mirzamuhammedov D. "Masalalar yechish metodikasi" "Boshlang'ich ta'lim" № 6 2004-yil.

TA'LIM MUASSASALARIDA INGLIZ TILINI O'RGANISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Nurillayeva Ziyoda Khalimjon qizi

O'zDJTU 1-bosqich talabasi

Shukurova Shohsanam Qaxramon qizi

O'zDJTU Ingliz tili amaliy fanlar №3 kafedrasi o'qituvchisi (ilmiy rahbar)

Bugungi kunda mamlakatimizda tilga qaratilgan e'tibor kun sayin ortib bormoqda va biz yoshlar uchun juda ham keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Shuni aytish kerakki, barcha ta'lim muassasalarda jumladan; maktab, kollej va oliy o'quv yurtlarida nafaqat chet tillarini, balki boshqa turdagi fanlarni o'zlashtirish uchun internet, kompyuter va turli xil elektron manbaalaridan keng foydalanish imkoniyati mavjuddir. Axborot texnologiyalardan foydalanish darslarni o'zlashtirish uchun qulay va samaralidir. An'anaviy darsning sxemasidagi kompyuter texnologiyaning joriy etish o'qituvchiga o'quv jarayonida yanada qiziqarli va rang-barang, qizg'indir.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, "Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz uchun bilan hamjihatlikka, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir". Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida 2012- yil 10 dekabrda qabul qilingan "Chet tillarni" o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi Prezident Qarori chet tillarini o'rganish imkoniyatini beradi.

Chet tillariga bo'lgan talab qizg'in avj olib borilmoqda chunki hozirda barcha kasb-hunarlar shu chet tillarni bilish qobiliyatini talab qilmoqda. Shu sababli, ko'p yoshlarimiz chet tillarni o'rganishmoqda va xorijda o'qish, ishlash uchun ham qattiq harakat qilishmoqda. Garchi, chet tillarni o'zlashtirish qiyin bo'lishligiga qaramay, ular davom ettirmoqda. Mening fikrimcha, til o'rganish bu o'rganayotgan odamga juda ko'p imkoniyatlar eshigi ochiladi ya'ni qiyinchilikni orqasida, rohati ham bordek degan gapdir. Misol uchun oladigan bo'lsak, hayotimizda turli xil voqelarga, muammolarga duch kelishimiz mumkin ya'ni o'sha ayrim insonlarni ko'rishimiz mumkin chet tiliga bo'lgan qiziqishi pastroq bo'lgan insonni, u ingliz tilini shunchaki, yuzaki o'qimoqda lekin bu noto'g'ri ekanligini bilmaydi. Chunki ingliz tilini mohiyatini, uni qanday qilib mukammal darajaga o'stirish orqali qattiq harakat qilish kerak deb o'ylayman. Natijada ko'zlagan manziliga yetadi.

Hozirda kompyuterni jalb qilish sizga har qanday darsni jozibali va haqiqatan ham zamonaviylashtirishga imkon beradi. Negaki, turli xil internet saytlar orqali va kompyuterlar orqali darslarini o'zlashtirish, ulardan foydalangan xolda uy ishlarni bajarish ham o'quvchini bilim ko'nikmasini, ham darsning samaradorligini oshirishga imkon beradi. Kompyuterda barcha o'quv metod bosqichlarida foydalanish mumkin bo'ladi jumladan: yangi materiallar, takrorlash, qo'llanmalarda, elektron kitoblarda va ko'nikmalarni tushuntirishda qo'llash mumkin. Va albatta, bolajonlar uchun turli xil qiziqarli mashg'ulotlar ham mavjud ya'ni o'yinlar, mantiqiy savollar va shunga o'xshash turli xil funksiyalarni bajarish imkoniyati bor. Shuni ayta olamanki, zamonaviy texnik vositalar bilan o'quvchi o'zi xohlagan metod orqali individual metodi orqali chuqur o'zlashtirishlari mumkin bo'ladi.

Chet til ta'limida tashkiliy o'quv ko'nikma va malakalarni o'quv-metodik vositalar asosida hosil qilinadi. Bu jarayon maktab tajribasi isbotidan o'tgan quyidagi usullarni taqozo etadi: chet til o'rgatishda muallim bilan o'quvchi, muallim bilan sinf (guruh), o'quvchi bilan sinf (guruh), o'quvchi bilan o'quvchi birga ishlash tavsif etiladi. Hozirgi maktab tajribasiga kompyuterlarning kirib kelishi o'z-o'zini nazorat qilishda barakali samaralar bera boshladi. Bularning hammasi o'quv jarayonida tashkiliy ko'nikma va malaka hosil qilishga mo'ljallangan tadbirlardir.

Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samarador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan :

1. kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video rolikni, namoyishlarini, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin;

2. chet tilidagi radio eshitish va televideniyaedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin;

3. ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitofon va kasetalardan foydalanish;

4. CD playerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, chet tillarni zamonaviy innovatsiyalar bilan o'qitish usullaridan foydalanish juda ham samarali va foydali bo'ladi. Va o'quvchini nutqi ravonlashadi, mantiqiy fikrlash qobiliyati va aniq, puxta javob berish malakalari rivojlanadi. O'z navbatida, dars jarayonlariga puxta tayyorlanib boradi va ayniqsa, bilimga bo'lgan ishtiyoqi kundan kun ortib boraveradi. Va bu albatta, nafaqat bolaning o'zida rivojlanish bo'ladi, balki jamiyatimiz ham kundan kun rivojlanib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekmurotova U.B “Ingliz tilini o’qitish innovatsion texnologiyalardan foydalanish“ mavzusida referat. Toshkent - 2012 yil.
2. Jalolov Jamol. Chet el o’qitish metodikasi . “O’qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent – 2012 yil.
3. Hoshimov O’. Yoqubov I. INGLIZ TILI O’QITISH METODIKASI. (o’quv qo’llanma) Toshkent.” Sharq” nashriyoti, 2003.

KONCHILIK SOHASIDA INGLIZ TILINI O’QITISH USULLARI

Obbosxonova N.Z.

DTU OLMALIQ FILIALI “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida assistenti

Konchilik keng va murakkab sohadir. Dunyoning ko’plab mamlakatlarida foydali qazilmalarni izlash va ulardan foydalanish to’xtovsiz davom etmoqda. Xalqaro geografik mehnat taqsimotining chuqurlashishi va yanada rivojlanishi dunyoda oltita yirik kon sanoati markazlarining shakllanishiga olib keldi. O‘zbekiston Respublikasi jahonda kon sanoati yuqori rivojlangan mamlakatlar qatoridan mustahkam o‘rin olgan. Konchilik sohasida olib borilayotgan qator izlanishlar va soha rivoji hozirgi davrda bevosita ingliz tili bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Malakali konchi kadrlarni tayyorlashda ularning til bilish salohiyatlari ham yetarlicha muhim hisoblanadi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi ingliz tilining konchilik sohasidagi salmoqli o‘rniga bag‘ishlanadi. Respublikamizda konchilik sanoatining jadal suratda rivojlanishi tufayli chet tilini mukammal egallagan mutaxassislariga ehtiyoj ortib bormoqda. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda faoliyat yurituvchi konchilik korxonalarini asosan transmilliy korporatsiyalardir. Ular nafaqat foydali qazilmalar va tog’-kon texnologiyasi bilan shug‘ullanadilar, balki chet ellik korxonalar bilan ham fikr almashib, sohada jahon standartlariga mos ravishda faoliyat yuritadilar. Shuning uchun, ingliz tilini mutaxassislar orasida keng miqyosda o‘qitish konchilik ishi yo‘nalishi mavjud ta’lim muassasalarining oliy maqsadiga aylandi.

Zamonaviy texnologiyalar davridagi global o'zgarishlar O‘zbekiston oliy ta'lim tizimining yuqori standartlarga javob berishi uchun doimiy innovatsion rivojlanishlarni talab qiladi. O‘zbekistonda bir nechta konchilik va neft-gaz universitetlari mavjud, chunki O‘zbekiston juda ko‘p tabiiy resurslarga ega mamlakat bo‘lib, konchilik mutaxassislariga talab yuqori. Bundan tashqari, O‘zbekistonda konchilik bo'yicha talabalar birinchi va ikkinchi kurslarda ingliz tili fanini o'qiydilar, ammo ular hali ham ingliz tilida kelajakda ular duch keladigan

kasbiy muloqotning barcha o'ziga xos xususiyatlaridan xabardor emaslar. Shunday qilib, tog'-kon sanoati bo'yicha talabalarga ta'lim beradigan ingliz tili o'qituvchilari oldida bo'lajak konchilik sohasi mutaxassislari ehtiyojlarini tushunish va shunga mos ravishda ingliz tili fanida soha terminologiyasi bilan boyitilgan o'quv majmualarini ishlab chiqishdek murakkab vazifa turibdi. Ingliz tilshunosligida tezkor o'zgaruvchan muhit va ehtiyojlarning tobora xilma-xil bo'lib borayotgani sababli, ushbu o'zgarishlarni qabul qilish uchun yanada chuqur yondashilgan va uzoq muddatli o'qitish strategiyalaridan foydalanish kerak. Muayyan maqsadlar uchun ingliz tilini qanday o'qitish kerakligi doimo munozarali masala bo'lib kelgan. Ingliz tilini ma'lum maqsadda o'rganuvchi talaba akademik, professional yoki kasbiy faoliyat bilan shug'ullanadigan til o'rganuvchi sifatida ko'riladi va ingliz tilidan ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun vosita sifatida foydalanadi. Ushbu talabalarning qachon, qayerda va nima uchun o'qish yoki ish joyida tilga qay darajada muhtoj ekanligiga katta e'tibor qaratiladi.

Konchilik ishi yo'nalishi talabalariga yangi kasbiy lug'atni o'rgatish, ularni tegishli atamalar lug'ati bilan ta'minlashning o'zi yetarli emas, albatta. Ularga har bir leksik birlik uchun jonli kontekstni taqdim etish muhimroqdir. Ushbu murakkab kontekstlar orqali ular nutqni tushunish va talqin qilish ko'nikmalarini asta-sekinlik bilan o'zlashtirib boradilar.

Talabalarga ingliz tilini o'rgatishda oddiydan murakkabga o'tish usuli qo'l keladi. Avvalo, ularga soha terminologiyasi va uning tildagi ahamiyati haqida biroz tushuncha berilib, til o'rgatish davomida quyidagicha materiallar taqdim etilishi maqsadga muvofiqdir:

1) Umumiy mavzuga yo'naltirilgan ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadigan yangiliklar;

2) Dastlabki bilimga ega bo'lishlari uchun ensiklopedik va fan darsliklarida mavjud matnlar;

3) Kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi va terminologiyadan mohirona va keng foydalanilgan, mutaxassislarga uchun mo'ljallangan o'quv va ilmiy matnlar;

4) Sohaga oid bilimlar va tegishli terminologiyani puxta egallashlari rolli o'yin va amaliy mashg'ulotlar.

O'quv jarayonining dastlabki bosqichlarida OAV yangiliklari bilan ishlash o'quvchiga fan sohasining umumiy jihatlari bilan tanishishga yordam beradi. Keyinchalik, ommaviy axborot vositalaridagi matnlarga qaraganda xususiyoq hisoblangan va mavzuga oid lug'atlarni o'z ichiga olgan ensiklopedik matnlar va asosiy fan (konchilik) darsliklarini o'qitishga e'tibor beriladi. Buning natijasida konchilik sohasi talabalarini o'z ona tili dunyoqarashini chet tilidagi dunyoqarash bilan o'zaro bog'lash va amaliy terminologik lug'atni shakllantirish imkoniga ega bo'ladilar. Kasbiy va ilmiy matnlar orqali talabalarning lingvistik salohiyatini oshirish bilan birgalikda kasbiy sohaga jalb etish ham nazarda tutiladi. Rolli

o'yinlar o'qitish jarayonini yakunlab, talablarda kasbga oid ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, rivoj topayotgan konchilik sohasida ingliz tilini o'qitish dolzarb masalalardan hisoblangani sababli, bu borada samarali o'qitish usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ingliz tili o'qituvchilaridan talab etiladigan fanni bosqichma-bosqich tashkil etishdan va sohaga doir sifatli materiallarni topishdan iborat. Bilim va ko'nikmalarni egallagan talabalarga og'zaki nutq jarayonida olgan ma'lumotlarini qo'llash imkonini yaratishda ham o'qituvchi ma'suliyatni o'z bo'yiga olishi maqsadga muvofiqdir.

BADIIY TALQINDA PSIXOLOGIK TAHLIL

Obidova Nafisa

Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Badiiy asar insoniyat tarixining qaysi qatlamini tasvirlamasin, uni birinchi galda inson sifatidagi o'y-fikrlari bilan yoritishi lozim. Badiiy ijodning o'ziga jalb etuvchi jihatlaridan biri, uning inson ichki olamidagi qorong'u va mavhum tilsimlarni ochish qobiliyatidir. U qallda kechadigan jarayonlarni shu qadar aniq – oydin ifoda etadiki, boshqa bir fan ahli bunga qodir bo'lgani yo'q. “Uzoq davom etib kelayotgan tarixiy adabiy hayotda, deydi A.B.Yesin, - psixologizmning sirli, ammo samarali jihatlaridan biri, ijodkor inson qalbi haqida so'zlay turib, har bir o'quvchi bilan uning o'zi haqida gaplashayotgandek bo'ladi”. Psixologizm - bu badiiy asarning uslubiy tasnifi bo'lib, u orqali personajlarning ichki dunyosi chuqur va mufassal bayon etiladi. Ko'zga ko'rinmaydigan, qo'lga ilashmaydigan hissiyotlar, fikrlar, tuyg'ular qiyofa kasb etadi go'yo. Psixologizmni birinchilardan bo'lib adabiy hodisa sifatida fanga olib kirgan va unga adabiy uslub deb izoh bergan Chernishevskiy, L.N. Tolstoyning dastlabki hikoyalarni o'qish asnosida shunday xulosaga kelgan.

Psixologik tahlil badiiy hodisa bo'lib, ijodiy talantning kamoloti darajasini, uning ta'sir doirasini belgilovchi sifat belgisidir. Inson ruhiyatining tahlili, uni chuqur tushunish mahorati-adabiyotning tub mohiyatini belgilovchi sifat darajasiga ko'tarilishi birdaniga yuz bermagan. Adabiyotning turli rivojlanish bosqichlarida bu muammo turlicha tushunilgan. Jumladan, Aristotelning “Poetika” asarida qayd qilinishicha, badiiy asarning asosiy belgisi – tashqi hodisalarning tasviridir, xarakter esa tashqi hodisalar tasviridan keyingi vositadir. O'zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidida “psixologizm” va “psixologik tahlil” terminlari farqlanmay ishlatiladi. Ammo psixologizm psixologik tahlil tushunchasiga nisbatan keng bo'lib, u o'zida bevosita avtorning

psixologiyasi ham qamrab oladi. Psixologik tahlil esa inson psixikasi jarayonlarini, uning fikr va hissiyotidagi turli - tuman ohanglar rivojini aks ettiruvchi, qahramon ruhiy dunyosini analitik prinsipda ochuvchi estetik kategoriyadir. Hayotda bo'lganidek adabiyotda ham odam o'zining individual psixalogik xususiyati bilan boshqalardan ajralib turadi. Bu xarakter tushunchasi bilan bog'liqdir. Adabiyotda badiiy xarakter – bu individual belgilarni o'z ichiga olgan holda ma'lum bir ijtimoiy sharoitda paydo bo'lgan, ijtimoiy ma'no kasb qilgan iroda yo'nalishi va bu iroda yo'nalishining asardagi badiiy ifodasidan iboratdir. Faqat ijtimoiy sharoit asosida yuzaga chiqqan shaxs irodasi xarakterning asarda badiiy va g'oyavi asosini ta'min etadi. Psixologizm atamasi psixologik tahlil, psixologik tasvir, psixologik obraz, psixologik roman, psixologik hikoya va psixologiya kabi atamalar bilan bog'liq. Adabiyotda psixologizmning rivojlanish tarixini tavsiflab, adabiyotshunos olim L.Ya.Ginzburg “mavjud adabiy janrlarda psixologik yangiliklar endigina nish urayotgan bir vaqtda, badiiy adabiyotning yondosh janrlari bo'lmish – rasoil, kundaliklar, memuarlar va avtobiografik janrlarda psixologizm allaqachon o'rnashib bo'lgan edi” deb yozadi. Badiiy adabiyotda asarning g'oyaviy-estetik ahamiyatini personajlar xarakteri ochib bersa, personaj xarakterining yozuvchi tomonidan ochib berilishi psixologik tahlil vositasi hisoblanadi. Badiiy asarda asosiy urg'u qahramon ichki olami, botiniy hayoti, o'y-kechinmalariga qaratilmagan bo'lsa, u holda har qanday obraz xarakteri ham badiiy psixologizm namunasi bo'la olmaydi. Chunki, “psixologizm – adabiy asar badiyatining asosiy, ammo yagona bo'lmagan mezoni hisoblanib, “psixologizm – agar badiiy asar uchun botinan zarur bo'lsagina, u asarning yutug'i bo'la oladi. Badiiy psixologizm tushunchasi bilan psixologik tahlil yoki psixologik tasvir kabi tushunchalarning o'zaro aloqasi bor-ki, olimlar va tadqiqotchilar o'rtasida baxsli xolatlarni yuzaga keltiradi. Ammo bu savollar nazariy jihatdan bugunga qadar ochiq qolmoqda – ayrim tadqiqotchilar bu terminlarga aniqlik kiritsalar, boshqa guruh olimlar bu nazariyani chetlab o'tishga harakat qiladi. Badiiy asar psixologik darajasini belgilashda adabiy tur va janrlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, lirika – inson qalbi va ichki his-tuyg'ulari kuychisi ekanligi ma'lum, demak u bevosita ruhiyat tasviri bilan bog'liq holda shoir. psixologiyasi va ichki olamini tarannum etadi. Dramatik turda ruhiyatni tasvirlash dinamik prinsip asosiga qurilishi haqida yuqorida batafsil to'xtalib o'tgan edik . Epos – inson ruhiyatini tasvirlashning xilma-xil vositalari, usullaridan iborat keng imkoniyatlarga ega. Epik turda lirika va dramadagi barcha usul va vositalar o'ziga xos ravishda sintezlashadi. Yozuvchi lirikadagi singari o'z qahramonining ichki dunyosidan turib ham, qahramonning o'z nutqi vositasida ham, tashqi xarakteristika va holatlar tasviri orqali ham ruhiyat dunyosiga daxl qilaveradi. Ayni paytda badiiy psixologizmdan foydalanish epik tur janrlariaro ham farqli

xususiyatlarga ega. Epik janrlar orasida hikoya, xususan psixologik hikoyaning o'zni bugungi kun adabiy jarayonlarida yetakchilik qilmoqda.

Hikoya – hayotning kichik bir parchasini aks ettirganidan, epizodik tarzda unda bir yoki bir necha hayotiy voqea qalamga olinganidan bu janrda qahramon ruhiy dunyosi izchil ravishda batafsil yoritish, “qalb dialektikasi”ni chuqur va to'liq ochib berish yozuvchidan katta mahorat va iste'dod talab qiladi. Roman va qissa kabi katta yoki o'rta hajmdagi nasriy asarlarda qahramon xarakteri, uning ruhiyati, botiniy hayoti va ichki kechinmalarini ochib berish uchun yozuvchida imkoniyat va vaqt ko'proq bo'ladi. Epik janrlar orasida hikoya, xususan psixologik hikoyaning o'zni bugungi kun adabiy jarayonlarida yetakchilik qilmoqda. Hikoya – hayotning kichik bir parchasini aks ettirganidan, epizodik tarzda unda bir yoki bir necha hayotiy voqea qalamga olinganidan bu janrda qahramon ruhiy dunyosi izchil ravishda batafsil yoritish, “qalb dialektikasi”ni chuqur va to'liq ochib berish yozuvchidan katta mahorat va iste'dod talab qiladi. Roman va qissa kabi katta yoki o'rta hajmdagi nasriy asarlarda qahramon xarakteri, uning ruhiyati, botiniy hayoti va ichki kechinmalarini ochib berish uchun yozuvchida imkoniyat va vaqt ko'proq bo'ladi.

Xuddi shunday yo'nalishda Lotin Amerikasi davlatlari, xususan, Urugvayda psixologiya elementlarining hikoya oqimlarining to'liq rivojlanishiga imkon beradigan harakat shakllana boshladi, bu bizni ong evolyutsiyasi bilan bog'liq jihatlarga olib boradi. Bu masalalarning xalqaro tan olinishiga imkon berishga, birgina argentinalik yozuvchi Xorxe Luis Borxesning “Sohildagi uchrashuv” hikoyasi misolida, inson ruhiyatining murakkab jihatlari ko'rishimiz mumkin. Asar insonning o'zi bilan o'zi uchrashish voqeasi asnosida jamiyatdagi odamlarning xudbinlashib borayotgani, zamonning o'zgarib borayotgani va inson umri haqida mulohaza yuritishga undaydi. “Sohildagi uchrashuv” hikoyasi Borxes ijodiga xos fikrlash tarzini, o'zimizning ta'birimiz bilan aytganda, diapazonini belgilab beradigan uslubda yozilgan. Ya'niki, hayotda yuz bermaydigan hodisa real voqealik doirasida qalamga olinadi. Asar aynan shunday nomlanishida ramziylik bor. Sohilda qahramonlargina emas, ikki davr, bir ijodkorning o'tmishi — yoshligi bilan hozirgi payti — keksaligi uchrashadi, g'ayrat, shijoat, jo'shqinlik bilan ehtiyotkorlik, salobat, lekin jur'atsizlik uchrashadi. Boz ustiga uchrashib qolganlarning har biri shu uchrashuvni tushida ko'rayotgan bo'ladi. Hikoyada ko'p narsalarga o'zgacha nazar solish lozimligi haqidagi g'oya ham bor. Bir vaqtlari keskin o'zgarishlar, yolg'onga, riyoga murosasiz bo'lish tarafdori sifatida nom qozongan adib yoshligi bilan uchrashib qoladi, uning sokin, teran mulohazalari zamirida, tinchlikni istab qolgan qarashlarida keskinlik yetishmaydigan nochor, ojiz qariyaning jur'atsizligi, taslim bo'lgani, shonli bayroqlarni ko'tarish istagi qalbini tark etgani sezilib turadi. Ikki suhbatdosh o'zaro til topisholmaydi, natijada bir-birini tushunolmaydi. Avlodlar o'rtasidagi

ixtilof, yangi fikr — u qanday bo'lishidan qat'i nazar eski qarashlarni — ular har qancha tabarruk, purma'no bo'lsa ham mahv etajagini keksa Borxes ham, muallif ham, qolaversa, biz, ham chor-nochor his qilamiz. Borxesning maqsadi - har doim eng skeptik tomondan qaraladigan, o'z taqdiriga kira olmaydigan va hatto uni boshqara olmaydigan odamning borligi va iztiroblari bilan bog'liq bo'lgan barcha bema'ni narsalarni yetkazish. Borxes muntazam tarzda murojaat qilgan ramzlar esa, xususan, mana bular edi – ko'zgular, kutubxona, adoqsizlik, bog' va tushlar olami hamda bularning barchasi birgalikda – labirint. U “Al-Muhtasimga yaqinlashuv” hikoyasida yozadi: “Qodir Xudoning o'zi ham Kimnidir izlashda davom etayotir, ushbu Kimdir esa — boshqa bir yuksakroq (yoxud shunchaki zarur va o'ziga monand) Kimnidir izlash bilan mashg'ul va shu tariqa Zamonlar Intihosiga — yoki, to'g'rirog'i Intihosizlikka (cheksizlikka) qadar”.

“Xaroba doiralari”da esa quyidagilarni o'qiymiz: “Bir kun — qushlaridan ayrilgan subhidam chog'i afsungar doira ketidan doira bo'lib, ehrom devorlariga olov yaqinlashayotganini ko'rdi. Daryodan najot topmoqchi bo'ldi, biroq o'lim uning ulug' yoshiga toj kiydirish, barcha tashvishlardan xalos etish uchun tashrif buyurganligini anglab, bu fikridan qaytdi. Va u yong'inga peshvoz chiqdi. Biroq olov tillari uning vujudini zabtiga olmadi, bil'aks erkalab yalab-yulqadi, yuvib-taradi — kuydirib kul qilmadi. Va yengil tortib, xo'rlik alami bilan dahshat ichra anglab yetdiki, uning o'zi ham kimdir birov o'z tushlarida ko'rayotgan sharpa edi, xolos”. Borxes mavjud voqelikning o'zi-da omonat va nomukammal ekanligini, uni boshqa bir – to'qib chiqarilgan va barcha unsurlari puxta ishlangan boshqa bir dunyo o'zida mahv eta olishi mumkinligini aytadi – “Tlyon, Ukbar, Orbis Tertius”. “Labirintida halok bo'lgan Al-Buxoriy”, “O'lim va bussol”, “Xaroba doiralari” kabi o'nlab hikoyalari singari “Al Muhtasimga yaqinlashuv”, “Yashirin mo'jiza”, “Tangri bitiklari” va “Tlyon, Ukbar, Orbis Tertius” deb nomlangan hikoyalari adibning fundamental asarlari qatorida alohida tadqiq etiladi. Borxes asarlari tadqiqi kishini bir vaqtning o'zida hayrat va taassufga soladi. Birgina yozuvchi shu qadar ko'lamdor adabiy olamni barpo eta olgani hayratlanarli. Taassuf shuki, adib shu yo'nalishdagi boshqa urinishlarga aslo o'rin qoldirmagan . Ya'ni, uning asarlari yaxlitligini chindan tasavvur qila olar ekansiz, bu adabiyot sarhadlarida yana nimalardir qilishga, hali kashf etilmagan boshqa nuqtalarni izlab topa olishingizga umid so'nib boradi. Ammo, uning zamondoshi Xulio Kortasar bir karra qo'yilgan nuqta aslo so'nggisi bo'lmasligini dalillab berdi. Kortasar Borxes voqeligiga baqamti, ammo ayni paytda batamom mustaqil xos voqeligini yarata oldi. O'nlab hikoyalari, “Rauela”, “Yig'ish uchun andoza”, “Manuel kitobi” kabi romanlari bilan badiiyat ufqlarini mislsiz tarzda kengaytirib yubordi. Ta'bir joiz bo'lsa, so'nggi bir necha o'n yilliklar adabiy jarayoni argentinalik mana shu ikki intellektual mahsullari ta'siri ostida kechdi. Borxesning har bir hikoyasini har qanday boshqa ko'lamdor asarlarga zamin bo'la oladigan mukammal formulalar

tarzida tushinish mumkin. Borxes shu tariqa allaqanday boshqa ulkan loyihalarning mohiyatlarini havola etadi. Uning o'zini esa bir me'morga mengzash mumkin. Borxesning salohiyatini shunda ko'rishimiz mumkinki, hajman qisqa hisoblangan hikoya yoki esse janrlarida ham o'quvchi uchun ulkan g'oyalarni bera olgan

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Imomova G. Psixologik iztiroblar: Ruhiyat tasvirida dialog va monolog. – Toshkent.: “Yozuvchi”, 1992
2. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent.: “Fan”, 2008.
3. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
4. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. Birinchi kitob. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
5. Mirqosimova M., Rustamova M. Janr va mahorat. – Toshkent: Milliy kutubxona, 2007.
6. Nazarov B. O'zbek adabiyoti tanqidchiligi. – Toshkent: Fan, 1979.
7. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
8. Nazarov B. O'zbek adabiyoti tanqidchiligi. – Toshkent: Fan, 1979.

INGLIZ TILIDA SO'ZLARNI ESLAB QOLISHNING SAMARALI USULLARI

Odiljonova Diyora Tursunboy qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo'nalishi 1-kurs talabasi

Bilamizki, til o'rganish kishidan uzoq matonat talab qiladigan jarayondir. Grammatikangiz qanchalik yaxshi bo'lmasin, uni ishlatishingiz mumkin bo'lgan biron bir so'zni bilmasangiz, (so'zma-so'z) til ko'nikmalaringiz bilan unchalik uzoqqa bormaysiz: lug'at yangi dunyolar uchun eshiklarni ochadi va o'rganishni qiziqarli va qoniqarli qiladi. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatishni ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish va sohani rivojlantirish uchun tizimli ishlarni tashkil etish, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, buning uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

dunyo bo'yicha samarali natija bergan o'qitish metodikalari, dastur va darsliklarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalari va o'quv markazlarida joriy etish;

xorijiy davlatlarda chop etiladigan zamonaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalarini, xalqaro testlar va ularni joriy qilish uchun

tegishli ruxsatnoma va litsenziyalar, xorijiy tillarni o'rgatishga qaratilgan kontentlarni mualliflik huquqlarini xarid qilish;

xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, dasturiy ta'minot loyihalarini ishlab chiqish va joriy etish;

xorijiy tillarni puxta o'zlashtirish, tilning asosiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun videorolik, o'yin, ko'ngilochar ko'rsatuv, filmlar va boshqa o'rgatuvchi kontent yaratish;

fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida yuqori malakali mutaxassislarni, shu jumladan mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb etish. [1]

Ammo siz bilgan so'z doirasini kengaytirish dietaga o'xshaydi: siz biroz kuch sarflashingiz kerak va buning uchun na sehrli hiyla, na sir yoki hamma narsaga mos keladigan usul yo'q. Har kim o'zi uchun mos keladigan narsani topishi kerak; ammo sabr-toqatli bo'lish, real maqsadlar qo'yish va ularga erishsangiz, o'zingizni mukofotlash yaxshi strategiya bo'lib, uni quyidagi fikrlardan biri bilan to'ldirish mumkin. Chet tillarini o'rganishda ,albatta, yangi so'zlarni eslab qolish talab qilinadi. Chunki tillarni o'rganishda so'zlarni yod olish katta ahamiyat kasb etadi. So'zlarni tez va samarali yod olishda dunyo olimlari va mutaxassislari ayrim tavsiyalarni berib o'tishgan. Ingliz tilidagi lug'atni o'rganishga ustuvor ahamiyat berishning eng samarali usullaridan biri bu eng keng tarqalgan so'zlardan boshlashdir. O'zingiz bilmagan so'zlarning ma'nosini qidirish uchun lug'at yoki boshqa onlayn manbalardan foydalaning. Qog'ozga asoslangan yoki onlayn kartalar hali ham yangi so'zlarni o'rganishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Ingliz tilidagi lug'atni yodlashning kaliti bu muntazam mashqdir. Esda saqlashning mutaxassislardan tomonidan tavsiya etilgan bir nechta usullari mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

Xotira texnikasidan foydalanish.

Lug'atni yodlashning mashhur usuli - mnemonikadan foydalanish, bu sizga murakkabroq tushunchalar yoki so'zlarni eslab qolishga yordam beradigan aqliy yorliqlardir. Misol uchun, siz so'zlar o'rtasida bog'lanishlar yaratishingiz mumkin. Yoki siz qisqartmani o'ylab topasiz: Spagetti, pomidor, zaytun, guruch, tuxum sotib olish uchun do'konga borishingiz kerak bo'lganda. Muammo shundaki, siz hali ham qisqartma, qo'shiq yoki assotsiatsiyani yodlashingiz kerak, ammo ozgina mashq qilsangiz, ijodiy va foydali aloqalarni o'rnatishda yaxshi bo'lasiz. Va aytish mumkinki, qisqartmalar yoki assotsiatsiyalar haqida qancha uzoq o'ylasangiz, u bilan kelgan so'zlarni shunchalik yaxshi eslaysiz.

Ta'lim muhitini yaratish.

Chet elda o'qiyotganingizda, siz hamma joyda tilni eshitasiz va o'qiysiz va suvga cho'mish orqali tezroq o'rganasiz. Ammo bilgan so'zlar sonini sekin-asta ko'paytirish uchun chet elga borish shart emas – qayerda bo'lsangiz ham,

ilhomlantiruvchi va o'rganish uchun qulay muhit yaratishingiz mumkin: yangi tilda jurnallar yoki kitoblar sotib oling, filmlar tomosha qiling va ovqat pishiring (yoki shunchaki ovqat) mahalliy taom.

So'zlarni kontekstga qo'yish.

Ko'proq so'zlarni tezroq o'rganish uchun ularni kontekstga qo'yish yaxshi fikrdir: tasodifiy so'zlar ro'yxatini yozish o'rniga, ularni jumalarga qo'yishga harakat qiling. Shunday qilib, siz bu so'zning hayotda qanday ishlatilishini bilasiz. Bundan tashqari, agar siz kulgili jumalarni o'ylab topsangiz, uni yodlash osonroq bo'ladi. Qanday o'rganganingizga qarab, siz jumalarni to'ldiradigan va so'zlarni tabiiy yashash joylariga joylashtiradigan chizmalar yoki rasmlarni topishingiz mumkin.

Haqiqiy vaziyatlardan o'rganish.

Kontekst haqida gapiradigan bo'lsak: Filmlar, teleko'rsatuvlar, kitoblar, podkastlar yoki qo'shiqlar nafaqat eng keng tarqalgan so'zlar uchun ajoyib manba, balki ular lug'atni yodlashda ham yordam beradi, chunki ular har doim sahna, shaxs yoki (haqiqiy) bilan bog'lanadi. -hayot) hodisasi. Shunday qilib, asl tilda (subtitrlar bilan) kitoblarni o'qish yoki filmlarni tomosha qilishga harakat qiling va so'zlar nimani anglatishini aniqlang. Agar siz tushunmaydigan ibora yoki jumlaning ko'rsangiz yoki eshitsangiz, uni yozing, qidirib toping va yodlashni boshlang.

Bu boshqichlar samarali natija bersa, keyingi bosqichlarga o'tish mumkin.

Agar siz til o'rganishni keyingi bosqichga olib chiqmoqchi bo'lsangiz, bog'langan so'zlar, sinonimlar yoki antonimlar bilan ong xaritalari uchun yetarli joy qoldiring. Agar siz o'rganish jarayonidan maksimal darajada foydalanmoqchi bo'lsangiz, so'zni ona tilingizga tarjima qilmaslikka harakat qiling, aksincha, uni o'rganmoqchi bo'lgan tilda tushuntiring va tavsiflang.

Sizga mos keladigan vositalarni topish ham lug'atlarni tez esda saqlashga yordam beradi. Bilamizki, tillarni har kim har xil o'rganadi, shuning uchun siz uchun nima ishlayotganini hali bilmasangiz, iloji boricha ko'proq turli usullarni yoki ularning kombinatsiyasini sinab ko'ring: Flash-kartalar, ilovalar, ro'yxatlar, o'yinlar lug'atni yodlashning ajoyib usullaridir. Xuddi shu narsa to'g'ri vaqtni topish uchun ham amal qiladi: Ba'zi odamlar ma'lum vaqtni belgilashni xohlashadi, boshqalari esa o'z-o'zidan o'rganishadi. Qaysi yondashuvni tanlashingizdan qat'iy nazar, qandaydir ritmga kirishga ishonch hosil qiling.

So'zlarni yod olishda ikki tomonlama usulni qo'llash.

Sizga mos keladigan vositalarni topishingiz kerak bo'lganidek, o'rganish tajribasini iloji boricha qamrab olish ham muhimdir: faqat kartalar yoki ro'yxatlardagi so'zlarni o'qimang - ularning talaffuzini eshiting, o'zingiz baland ovozda ayting va yozing. yoki ularni yozing. Qanchalik ko'p so'zlar bilan uchrashishni barcha hislar uchun tajribaga aylantirsangiz, shuncha yaxshi bo'ladi.

(Nega turli xil lazzatlar nima deb atalishini o'rganayotganda muzqaymoq iste'mol qilmaslik kerak?)

Foydali so'zlarga e'tibor qaratish vaqtini tejashga va so'zlarni ko'p o'zlashtirishga ko'maklashadi.

Agar siz chet eldagi marketing firmasida ishlamoqchi bo'lganingiz uchun so'z boyligingizni kengaytirmoqchi bo'lsangiz, ehtimol Shekspirning romanlarini o'qish yoki O'rta asrlarga tegishli so'zlarga e'tibor qaratish shart emas. Sizning martaba, sevimli mashg'ulotlaringiz va real hayotdagi suhbatlar uchun so'zlar qanchalik amaliy va ommabop bo'lsa, ularni o'rganish shunchalik oson bo'ladi va siz ulardan tez-tez foydalana olasiz. (Bu o'yin kabi bo'lishi mumkin: har safar real hayotdagi suhbatda ma'lum bir so'zni ishlatganingizda o'zingizni mukofotlashingiz mumkin.)

Va albatta, so'ggi samarali usul Takrorlash va keyin yana takrorlashdir. Chunki Abu Rayhon bobomiz aytganlaridek: " Takrorlash bilimning onasidir ". Bunda faqat hozirgi so'zlarni emas, balki siz allaqachon yodlagan deb o'ylagan "eski narsalarni" ham takrorlashni unutmang. Saqlangan so'zlarni yangi lug'at kabi tez-tez ko'rib chiqishingiz shart emas, lekin so'zlarni qanchalik ko'p ishlatsangiz, ularni yaxshiroq eslaysiz.

Xotiralanish jarayonlarini o'rganuvchi psixologlar narsalarni tez va uzoq vaqt yodlab olishning yaxshi usuli bor deb ta'kidlashadi. Yangi so'zni taniganingizdan so'ng uni ishlating. 10 daqiqadan so'ng uni yana ishlating. Bir soatdan keyin. Ertasi kuni qaytadan. Keyin bir hafta davomida bu so'z ishtirokida gaplar tuzing. Shundan so'ng, uni eslashga harakat qilishingizga to'g'ri kelmaydi- yangi so'z boyligi siz bilan abadiy qoladi. [2]

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada chet tillaridagi so'zlarni oson o'zlashtirishda samarali vosita va usullar ko'rib chiqildi. Agar ushbu usullar chet tillarini o'rganishda o'quvchilarga qo'llanilsa, bu shubhasiz samarali natija beradi, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.01.2022 yildagi "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 34-sonli qarori. // <https://lex.uz/uz/docs/-5831978> [murojaat qilingan sana: 11.03.2023]

2. O'tkir Umarov. Ingliz tilidagi so'zlarni yodlashning 7 samarali usuli // <https://fledu.uz/uz/ingliz-tilidagi-sozlarni-yodlashning-7-samarali-usuli/> [murojaat qilingan sana: 11.03.2023].

QO'QON XONLIGIDA QO'SHIN TA'MINOTI

Odilova Mohichehra

O'zbekiston Milliy Universiteti talabasi

Kirish. Qadimgi davrlardan boshlab to hozirgi kunga qadar har bir davlatning harbiy salohiyati davlat boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etgan. Jumladan, harbiy qo'shin davlatni ichki va tashqi jihatdan turli hujumlardan himoyalash, davlatda tinchlikni saqlab turish, davlatni qo'shni davlatlar bilan tashqi siyosatda munosib raqobatbardosh bo'lishi kabi masalalarni tashkil qilishda asosiy o'rin egallaydi. Albatta harbiy qo'shin kuchli harbiy salohiyatga ega bo'lishi uchun to'g'ri tashkil etilgan harbiy taktikaga ega bo'lishi, o'z davrining zamonaviy qurol-yarog'lari bilan ta'minlanishi bilan bir qatorda, askarlarning qay darajada oziq-ovqat bilan ta'minlanganligi ham muhim o'rin tutadi. Aynan ushbu masala, ya'ni, qo'shinning oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanish jarayonlariga oid ma'lumotlarni Qo'qon xonligi misolida ko'rib chiqamiz.

“Qo'qon xonligida har bir kishi harbiy xizmatga kirishda hukumatdan ot va ot abzali olgan, safarga chiqishdan oldin yuzboshi-2 tilla, ellikboshi-1,5 tilla, oddiy askar-1 tilla olgan. Qo'shinlarni ta'minlash 1851-yilda pulli unvonlar va oziq-ovqat naturasidan iborat edi: bir uilda yuzboshi-147 so'm kumush tanga, ellikboshi-98 so'm, o'nboshi-65 so'm, oddiy askarlar-43 so'm olganlar. Harbiy xizmatga ko'pincha kuz oylarida chaqirilgan. Quyi mansabdagi xizmatchilar hukumatdan bir yilda ikki qopdan arpa, oyiga bir tilladan pul olganlar. Bundan tashqari ayni zamonda ularga bahorda 4 tadan yozlik to'n, ko'ylak, etik, salla, do'ppi va belbog', qishda esa issiq chopon, oshlangan po'stin, etik, issiq bosh kiyim va ot berilgan. Qurollardan qilich, nayza, miltiq berilgan. Miltiq hammaga emas, faqat otishni biladiganlarga tanlab berilgan, umuman, qo'qonliklarning qurol-aslahasi juda yomon bo'lgan”[1] “Xonlikda armiyaga chaqirilgan sarbozlar qo'shbegi tomonidan oziq-ovqat bilan to'la ta'minlangan. Ammo qurol yarog'larni o'zlari sotib olganlar. Qo'qon viloyati qo'shinlarining ta'minoti bilan xonning shaxsan o'zi shug'ullangan. Bundan tashqari, xonlikda xonning qo'riqchi shaxsiy sipohiyolari saroyda qorovullik vazifasini bajarganlar. Ular ikki ming kishidan iborat bo'lib merganligi va jangovarligi bilan tanilganligi uchun galabotirlar(xon gvardiyasi) deb atalardi. Galabotirlar kichikroq maosh olib, davlat hisobidan ovqatlanardilar. Umuman olganda, xonlikda harbiy majburiyat aholi uchun eng og'ir majburiyat hisoblangan. Biron-bir qat'iy va adolatli o'rnatilgan qoidalarga asoslanmagan majburiyatlar juda og'ir bo'lib, u xalq orasida noroziliklarni keltirib chiqargan. Xudoyorxon o'z askarlari sonini ko'paytirar ekan, ularni yetarlicha ozuqa va maosh bilan ta'minlay olmasdi. Natijada Qo'qon askarlari turli nojo'ya yo'llar, masalan, o'g'rilik, talonchilik orqali qornini to'ydirishga majbur bo'lganlar.

Oqibatda, askarlar hech shubhasiz o'zgarlar mulkiga nisbatan har qanday hurmatni yo'qotganlar. Harbiy kuchlarning ta'minoti va oyligi Qo'qon xonligida ham Buxoro amirligiga o'xshash edi. Muntazam sarbozga har kuni ikkita non, bir kosa issiq ovqat, oyiga 6 so'm pul va har yili muntazam ust-boshdan tashqari bitta to'n berilar edi. Urush davrida safarbar qilingan kishilar kiyim, ovqat va qurol bilan ta'minlanmas edilar. Ponsad va boshqa harbiy boshliqlarga katta yer maydonlari, hatto ayrim qishloqlar hadya qilib berilar, ular shu mulkdan olinadigan daromad hisobiga yashar edilar"[2].

Xonlikda askarlarni oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun aholidan undiriladigan bir qancha soliqlar va majburiyatlar mavjud edi. " Qoraqo'noq-harbiy yurishlar vaqtida qo'shinga qo'noq berish vas hu vaqtda uni oziq-ovqat bilan ta'minlash, umuman askarning ta'minoti uchun aholidan to'planadigan oziq-ovqat jarimasi bo'lgan. Buxoroda bo'lgani kabi bu hududda ham "tag'or" yoki "moli tag'or" kabi qo'shinning ta'minoti uchun xalqdan natura ko'rinishida olinadigan oziq-ovqat solig'i ham mavjud bo'lgan. Askarlar ta'minoti bilan bir qatorda ularning ot-ulovlarini yem, xashak bilan ta'minlash ham xalq bo'yniga tushgan, ya'ni ulardan ot uchun yem, xashak olingan va bu- "qoh"(koh) deb atalgan. Sabz puli- faqat naqd pul bilan olingan, arxiv hujjatlarida yozilishicha, "sabz"-ko'kbosh bo'lib, Qo'qon jo'xorisi hali pishmay turib, xon, harbiy amaldor va askarlarning otlariga yem uchun to'plangan. Askarga oziq-ovqat va otiga yem-xashak yetkazib berish majburiyati- "ulufa" deb atalgan. "Zaxira" esa ekin pishgunga qadar, asosan, askarning ta'minoti uchun ketadigan oziq-ovqat bo'lib, aholidan to'planar va omborda saqlab turilardi"[3].

"Xonliklardagi hukmdorlar qo'shinning harbiy va shaxsiy ehtiyojlarini qondirishda oziq-ovqatga alohida e'tibor qaratishgan. Bunda moddiy ne'matlar-don-dun, go'sht, yog' va boshqalar bilan ta'minlashga e'tibor berilgan. Masalan, Qo'qon xonligida mamlakatdagi viloyatlar turli harbiy qismlarning ta'minoti uchun javobgar edilar. Xususan, Shahrixondagi qishloqlar Umarxon(1810-1822) davridagi Qo'qon okrugi harbiylarining ehtiyojini qondirish uchun g'alla yetkazib berganlar. XIX asr 60-70 yillariga kelib esa Rossiya bilan bo'lgan harbiy harakatlar oqibatida soni va talabi oshgan qo'shinning bug'doyga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun birgina Shahrixonning imkoniyatlari yetmas edi. XIX asr muallifi N.Pantusovning ko'rsatishicha, bu davrga kelib, birgina Qo'qon ehtiyojlarini qondirish 210 ta qishloq ahli zimmasiga yuklatilgan edi. Shu davrga oid arxiv hujjatlarining birida qo'shin ehtiyojlari uchun Qoratepa, Navkand, Yoyilma, Uchqo'rg'onda yetishtirilgan bug'doyning beshdan bir qismi berilishi qayd etiladi. Harbiy mansabdorlarga, alohida e'tiborli mergan, botirlarning kundalik ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan g'alla berish haqidagi hujjat-pattalar Qo'qon xonlarining arxivlarida ko'plab saqlanib qolgan. Ularda qo'shin dastasi va boshqa qismlarida xizmat qiluvchi harbiylarga bug'doy ajratilgani qayd etilgan. Shunday

hujjatlardan biri 1871-1872-yillarda dodhoh sarkorga berilgan bo'lib, unda muntazam qo'shin "askariya" va to'pchilarning yashashi uchun kerakli miqdorda bug'doy ajratilgani bildirilgan.

Hujjatlarda ayon bo'lishicha, harbiylarga bug'doy bilan birga, oqshoq, jo'xori, arpa, tariq ham berilgan. Ayrim hollarda harbiylarga bug'doy o'rniga un sotib olish uchun pul ham berilar edi"[4]. Bundan bilishimiz mumkinki, qo'shinni oziq-ovqat bilan ta'minlash, nafaqat aholidan soliqlar yig'ib olish orqali, balki, qo'shin ta'minoti uchun mamlakatdagi ba'zi hududlar ham ma'sul qilib qo'yilgan. "Shodmon Vohidov va Rahbar Xoliqovalarning qayd etishlaricha, xonlikdagi ayrim unvon va mansab egalari saroydan yillik pul ko'rinishidagi maoshdan tashqari quyidagi mahsulotlarni ham olganlar: yuzboshi- yiliga 80 pud bug'doy, 240 pud jo'xori(otlari uchun), 2 ta qo'y charpak, 2 qadoq choy, oq choy olgan bo'lsa, bahodirlar esa 20 botmon bug'doy olishgan. Xonlikda qo'shin daftarlari mavjud bo'lib, unda askarlar soni va ta'minotiga oid ma'lumotlar qayd qilingan. Qo'shinning asosiy bo'linmalaridan hisoblangan piyodalar- sarbozlar ta'minoti talab darajasidan past bo'lgan. Sarbozlar har kuni 2 donadan bug'doy unidan tayyorlangan non bilan ta'minlanganlar.

Ammo harbiy yurishlar davrida markaziy qo'mondonlik tomonidan askarlarning umumiy ovqatlanishi yo'lga qo'yilmagan. Bu ish askarlarning o'ziga tashlab qo'yilgan"[3]. "XIX asr muallifi V.Velyaminov- Zernovning ma'lumotlariga ko'ra, 1835-1836-yillarda Qo'qon xonligida izboshiga maosh, ust-boshdan tashqari bug'doy, jo'xori, quruq choy, jumladan ko'k choy va xatto ko'mir ham berilar edi. Izboshining maoshi, kiyim-boshi va unga ajratilgan oziq-ovqatlarning umumiy miqdori 36 tillayu 107 tangaga teng kelar edi. Bu harajatlarning barchasi xon xazinasi hisobidan qoplanar edi. Ba'zi hollarda qo'shin ta'minoti yaxshilanishi uchun xatto bozorlar ham tashkil qilingan. Vaqtinchalik tashkil etiladigan bunday bozorlar, qo'shin bilan birga yurgan savdo ahli tomonidan amalga oshirilgan. Harbiy harakatlar sharoitida tashkil etilgan o'ziga xos bu bozordan askarlar harbiy yurishga o'zlari bilan olib ketadigan oziq-ovqat, yem-hashagi tugagan taqdirda, bu mahsulotlarni sotib olganlar. Bundan tashqari, O'rta Osiyo xonliklarida qo'shinning turli qurol-aslahalarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiluvchi turli hunar turlari mavjud edi. Shuningdek, miltiq va to'p ishlab chiqarishga ixtisoslashgan ustaxonalarda faoliyat ko'rsatgan hunarmandlarning kundalik ehtiyojlari uchun quruq choy, jumladan, uning oq-quyruq navi, zig'ir yog'i, guruch, go'sht, dumba yog'i, sabzi, piyoz, qovun va boshqalar yetkazib berilar edi"[4]. Yana xonliklarda qo'shinning oziq-ovqat zahirasi ma'lum bir hudud yoki qal'alarda saqlangan. "Qo'qon xonligidagi Avliyo ota qal'asi Madalixon buyrug'iga binoan Odinabek tomonidan qurilgan. Bu qal'ada Chu vodiysida joylashgan Merka va Itkechuv qal'alariga tarqatiladigan qurol-yarog' va oziq-ovqat zaxirasi saqlangan"[5]. Qo'qon xonligi aholisi ham boshqa xonliklar aholisi

singari asosan dehqonchilik bilan shug'ullanib, oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishgan. "Qo'qon xonligi aholisi uchun bug'doy asosiy ekinlardan biri hisoblangan. Donli ekinlardan makkajo'xori yetishtirish keng tarqalgan bo'lib, u shahar va qishloqlarda kambag'allarning asosiy iste'mol mahsuloti hamda mol ozuqasi hisoblangan. Bu kabi dehqonchilik mahsulotlari ichki bozorda asosiy mahsulot hisoblangan. Xonlik bozorlari meva va poliz mahsulotlarining yil davomida to'kinligi va arzonligi bilan tanilgan. 1856-yil tarvuz 2 pul, qovun 1 pul, 10 ta bodring 1 pul, chorak quritilgan o'rik 3 pul, chorak uzum 6 puldan sotilgan. Shuningdek, anordan Namangan va Toshkentda sirka tayyorlangan var us savdogarlari orasida unga talab katta bo'lgan, bir shisha sirka 1 tangadan sotilgan"[3]. Tashqi savdo xonlikni turli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda muhim sanalgan. "Hindistondan shakar, guruch, ziravor, murch va choy olib kelingan. Hindistondan keladigan mahsulotlarning katta qismini choy tashkil qilgan. Savdoda ko'k choyni 16 turi mavjud bo'lgan hamda ular sifatiga qarab turli narxlarda baholangan. Xitoydan ham boshqa mahsulotlar bilan bir qatorda choy mahsulotlari olib kelingan, birgina choyni yillik savdo aylanmasi 100000 dan 300000 gacha yetgan"[3]. Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, barcha davlatda aholini, jumladan, harbiy qo'shinini o'z hududida kam yoki umuman yo'q bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda tashqi savdo aloqalari muhim rol o'ynagan.

Xulosa qilib aytganda, Qo'qon xonligida qo'shinning harbiy salohiyati, Buxoro xonligi va amirligidek kuchli bo'lmagan. 1860-yillarda ham ayrim ma'lumotlarga ko'ra muntazam qo'shin bo'lmay, qo'shin faqatgina urush bo'lgan holatlarda ko'ngilli kishilar tomonidan yoki harbiy safarbarlik orqali tashkil etilgan. Qo'qon xonligida ham o'sha davrda O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan boshqa davlatlar singari qo'shinni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, oddiy xalq tomonidan pul yoki natura ko'rinishidagi xonlik xazinasiga kelib tushadigan turli soliqlar orqali amalga oshirilgan. Qo'shinni va oddiy aholini davlat hududida mavjud bo'lmagan ozuqa mahsulotlari bilan ta'minlashda tashqi savdo muhim o'rinni egallagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyorxonzoda. Anjum at-tavorix(Tarix yulduzlari). T.: "Fan va texnologiya" 2014
2. X.Бобоев ва б. "Узбек давлатчилиги тарихи" T.: "Fan va texnologiya" 2009
3. A.Zamonov, A.Egamberdiyev. O'zbekiston tarixi IV qism. T.: "BAYOZ" 2022
4. Д.Х.Зияева. Узбекистонда харбий иш тарихидан(Кадимги даврдан хозиргача) T.: "Sharq" 2012
5. Turkiston harbiy okrugi tashkil etilishi arafasida O'rta Osiyo davlatlarida harbiy soha. I.Bahodirov maqolasi. O'tmishga nazar jurnali. 3-son 4-jild.

ХОТИН-ҚИЗЛАР ХУЛҚ-АТВОРИНИНГ СИЁСИЙ ФАОЛИЯТИДАГИ АҲАМИЯТИ

Олимова Мохинур Равшанбек қизи

Ўзбекистон Миллий университети таянч докторанти

Фуқаролик жамиятини шакллантиришда хотин-қизлар манфаатларини ҳимоя қилиш ҳамда уларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, сиёсий фаоллигин ошириш муҳим аҳамият касб этади. Ҳозирги кунда Янги Ўзбекистонда айнан бу борада кенг қамровли ислохотлар амалга оширилмоқда. Бу эса хотин-қизлар сиёсий фаоллигини жамиятда кечаётган жараёнларга ижобий муносабатини шакллантиради. Ҳозирги кунда Ўзбекистонда доимий яшовчи аҳоли 35.4 миллион кишини ташкил этиб, шундан 49.7 фоизини хотин-қизлар ташкил этади. Бу кўрсаткич эса сиёсий фаолиятда хотин-қизларнинг ролини ошириш долзарб эканлигини кўрсатади.

Шундай экан хотин-қизлар замонавий жамиятда муҳим ролини тушуниш сиёсий фаолият таҳлили учун жуда муҳимдир.

Ўзбекистонда хотин-қизларнинг сиёсий фаолиятини ўрганишнинг долзарблиги сиёсий қарорлар қабул қилишда хотин-қизларнинг таъсири ҳам катта рол ўйнашини кўриш мумкин. Мамлакатимизда хотин-қизлар сиёсий фаоллигини ошириш, амалга оширилаётган ислохотларнинг янада самаралироқ бўлишини таъминлайди. Бу эса бугунги кунда бу соҳанинг долзарблигини кўрсатади.

Фуқароларнинг жамиятдаги ҳуқуқий ва сиёсий фаолиятди иштирок этиши унинг фуқаролик ҳуқуқидир. Шу билан биргаликда бундай сиёсий жараёнларда иштирок этиш инсоннинг сиёсий-хулқ-атворини кўрсатиб беради. Ҳозирги Замонавий дунёда хотин-қизларнинг сиёсий хулқ-атвори мавзусида кўплаб тадқиқот ишлари олиб борилмоқда. Хотин-қизлар ҳозирги шиддат билан ривожланаётган дунёнинг ажиралмас қисмидир. Аммо хотин-қизларнинг сиёсатда иштирок этиш даражаси ҳам турлича. Сиёсий жараёнларда иштирок этиш ўзини намоён қилиш ҳар қандай сиёсий фаолиятни амалга ошириш жараёнида фуқароларнинг хулқ-атвори кўринади. Ва бу албатта сиёсий психология билан биргаликда кўринади. Хотин-қизларнинг жамиятдаги сиёсий ҳаётида фаол иштирок этиши, уларнинг сиёсатга бўлган қизиқиши, сиёсий майдонга кириб келиши сиёсий хулқ-атворнинг юксалишига олиб келади. Сиёсий жараёнларда иштирок этаётган аёл албатта ўзининг хулқ-атвори билан қолганларга ўрнак бўлиши зарурдир. Шахснинг сиёсий хулқ-атворида албатта ижтимоий ва сиёсий омиллар таъсир кўрсатади. Бу эса жамиятнинг сиёсий

маданияти, ҳуқуқий тизими, ривожланишига катта таъсир кўрсатади. Шахснинг шаклланишига ижтимоий-психологик омиллар ҳам катта таъсир кўрсатади. Албатта бу жараёнда оиланинг ҳам ўрни бениҳоя катта бўлади. Хотин-қизларнинг сиёсий фаоллигини оширишдан асосий мақсад оилаларда соғлом маънавий муҳитни яратишдан иборат. Аёл жамиятга келтирадиган энг катта фойдаларидан бири ёш авлодни ватанпарварлик руҳида тарбиялаб беришдан иборат. Инсоннинг ҳулқ-атвори оилада шаклланади, шунинг учун ҳам аввало она яъни аёл даставвал ўзи одобли, ҳулқ-атворли бўлиши зарурдир.

Оила бу муқаддас даргоҳ. Фарзандлар оилада тарбия топади. Оила қанчалик соғлом бўлса жамият ҳам шунча ривожланади. Мамлакатимизда хотин-қизларнинг фаоллигини оширишдан асосий мақсад замонавий, намунали ва маънавий соғлом оилани шакллантириш, ахлоқий ва оилавий қадриятларни сақлаб қолиш уни келажакка етказишдан иборат. Хотин-қизлар орасида жиноятчиликнинг мавжудлиги бу ачинарли ҳолатдир. Ўзбек оиласига ўзбек аёлиги бу хусусият ҳос эмас. Юртимизда хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ҳамда оила институтини мустаҳкамлаш борасида бир қатор ишлар амалга оширилмоқда жумладан:

- Ёрдамга муҳтож оилаларга, оғир ижтимоий вазиятга тушиб қолган хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш;
- Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш намуналди оилани шакллантириш, оиладаги низоларни, ажирашишларни олдини олиш;
- Хотин-қизларнинг репродуктив саломатлигини муҳофаза қилиш;
- Хотин-қизлар ўртасида ҳуқуқбузарлик профилактикасини ва жиноятчиликни олдини олиш бўйича бир қатор кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда.

Мамлакатимизда ҳам мустақиллик кунларидан бошлаб хотин-қизларнинг сиёсий ҳаётда иштирок этишига катта эътибор қаратилиб келинмоқда. Ўзбекистоннинг ўз тараққиёт стратегиясида хотин-қизларнинг сиёсий фаоллигини оширишга алоҳида имкониятлар яратилмоқда. Ушбу соҳада давлат бошқарувида ҳам хотин-қизларнинг сони кундан-кунга ортиб бормоқда. Ва албатта бу жараёнда уларнинг хатти-харакатлари ҳам ҳулқ-атворлари ҳам ўзгариб бормоқда. Ва ходиса эса улардаги ижтимоийлашув даражасининг ўсиб бораётганини кўрсатиб беради. Хотин-қизларнинг сиёсий фаоллигини ошириш унинг сиёсий маданияти билан боғлиқдир. Бу жараёнда уларнинг ҳулқ-атвори кўринади. Албатта сиёсий лидер аёл ўзининг хатти-харакатлари ва ҳулқ-атвори одоби билан жамиятда ўрин эгаллайди. Сиёсий маданият албатта жамиятнинг маънавий ҳаёти таъсирида шаклланади. Аёл жамиятда ўзининг гўзаллиги ўзининг хушмуомилалиги билан ажиралиб туради. Жамиятда ўзини

фаоллик ва ташаббускорлигини кўрсатган оиланинг шаклланишига ва фаровонлигига ҳамда мустақамланишига фаоллик кўрсатган хотин-қизларга Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан “Мўтабар аёл” кўкрак нишони таъсис этилиши мамлакатимизда хотин-қизларга бўлган хурмат ва этиборнинг бир намунасидир⁹⁶.

Ахлоқий масалаларга бир қатор олимларимиз ҳам ўз фикр ва мулохазаларини билдириб ўтганлар. Хусусан Фаробий ўзининг “Ихсо ул-улум” асарида ахлоқ масаласига алоҳида тўхталиб ўтган фаробий давлат бошқарувида маънавий камолот мезони этиб донолик ва зукколик фазилатини алоҳида таъкидлайди. Фаробий “донолик хақиқий бахт тўғрисида билим беради, мулохазалилик эса бахтга эришиш учун қандай хатти-харакатлар қилиш зарурлигини кўрсатади”⁹⁷-деган эди.

Фаробий барча инсонларда шахсий ва ижтимоий манфаатлар уйғун бўлиши кераклигини таъкидлаган. Фаробий ахлоқий муносабатларни илоҳий хусусият деб хисобламайди. Балки аниқ муносабатлар ўртасида шаклланишига ишора қилади. Олим фикрича ижтимоий муҳит, кишиларнинг муносабати ва инсоннинг хоҳиш иродаси унинг маънавий дунёсини шакллантиради ҳаёт йўлини белгилашда муҳим ва асосий йўлни кўрсатади. Ахлоқий хислатлар сирасига илимлилик, адолатлилик, ҳалоллик, камтарлик, меҳрибонлик ва бошқа хусусиятларни киритади.

Шу билан бир қаторда олима М.Холматова ва Н Мураевъеваларнинг тадқиқот ишларида шуни кўрсатадики: Оналар билими юқори бўлган оилаларда иқтисодий аҳволи яхши бўлади; оналар билими юқори бўлган оилаларда болалар жинояти кам содир бўлади; билимли оналар фарзандлари доимо тўқ, яхши кийинган ва кам касалга чалинадиган бўлади; билимли оналарнинг фарзандлари фан ва техниканинг янги йўналишларини тез ўзлаштириб олади; билимли она ўз-ўғил-қизларига оила қуриш уни парваришлар унинг моддий таъминоти ҳақида кўпроқ маълумот беради ҳамда фарзандларига ўз жисми саломатлигини сақлашни ўргатади⁹⁸.

Замонавий университетларда сиёсий хатти-харакат атамасига катта эътибор қаратилмоқда. Сиёсий хатти-харакат атамасини таҳлил этиш жараёнида сиёсий психология пайдо бўлди. Бу боарада биринчи бор Америкалик тадқиқотчи Гаролд Лассуэл биринчилардан бўлиб “Психопотология ва сиёсат” номли монографиясини 1930 йилда чоп этди. Ушбу монографияда баъзи руҳий касалликларга эга бўлган сиёсатчилар

⁹⁶ 02.04.2018 йилдаги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг “Мўтабар аёл” кўкрак нишони таъсис этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 257-сон Қарори

⁹⁷ Қаранг Фараби. Социально-этические трактаты. Алма-Ата, 1973, -174с.

⁹⁸ Холматова М., Муравьева Н.М., Ёшлар оилавий ҳаёт бўсағасида. -Т.: Ўзбекистон, 2000 й. -64 б.

фаолияти таҳлил қилинган. Лассуэлнинг “Жаҳон сиёсати ва шахсий ҳимоясизлик” номли китобида шахснинг сиёсий ҳулқини баъзи жиҳатлари ва психологик асослари, сиёсий режим ва жараёнларнинг турли типлари ҳақида маълумотлар берилган. Дастлабки сиёсий ҳулқ-атвор билан боғлиқ тадқиқотлар шу даврдан бошланганини кўришимиз мумкин. Сиёсий психология бу жамиятнинг сиёсий ҳаётиди иштирок этадиган айрим аъзорларнинг ҳулқ-атворига урғу беради. Сиёсий ҳулқ-атвор жамиятнинг мамлакатда юзага келадиган вазиятни ифодаловчи тушунчадир. Яъни бунда сайловларда иштирок этиш, митинг ва намойишларга қатнашишда фаол ҳулқ-атворли шахсга нисбатан ишлатилади.

Ҳулқ-одоб масаласига тўхталганда хотин-қизларимизнинг Увайсий Анбаротин ҳамда Нодирабегимнинг хусусиятларига эътибор қаратишлари жоиз деб ҳисоблайман. Яъни уларнинг ахлоқий фазилатларини ўзининг амалий фаолиятида қўлласа жамиятда ривожланиш ва ўзбек хотин-қизларига ўзига хослик юксалган бўларди.

Анбаротиннинг камтарлик фазилатига алоҳида инсоннинг камтар бўлишга чақирган. У инсонларни хушмуомалаликка, салом беришга, ширин каломни ўзгалардан аямасликка ундаган. Буни биз қуйидаги мисралардан ҳам кўришимиз мумкин.

Одамийлик ҳислатидур ҳар салом
Ҳам баҳойим этмас одамдек калом.
Ким ҳаёт ичра босиб келди қадам,
Рўзҳорини ясаб бўлсун адам⁹⁹.

Ислом динида ҳам хотин-қизларни эъзозлаш уларни асрав авайлаш эркаклар билан тенг ҳуқуқлилиги қайд этилган. Ислом дини кириб келгунига қадар оилада қиз фарзанд туғулса тириклайин кўмилган. Фақат ислом дини кириб келиши билан бу ҳолат тўхталилди. Ҳатто никоҳда ҳам эр йигит томонидан аёлига маҳр берилиши ҳам хотин-қизларнинг фойдаси учундир.

Хотин-қизларнинг мавқеини ошириш уларнинг интелектини юксалтириш, хотин-қизлардаги салоҳият ва имкониятларни очиб беришга имконият яратиш зарур. Хотин-қизларни қанчалик юқорига кўтарсак уларга имкониятлар яратиш оиланинг ва келажак авлоднинг янада юксалишига олиб келади. Хотин-қизларга ўз қобилиятларига яраша иш билан таъминлаб бериш бу борада хотин-қизларнинг ўз имкониятларидан фойдаланиб қобилиятини намоён этишига йўл очиб бериш жамиятни пойдевори мустаҳкамланишига сабаб бўлади. Агар хотин-қизларга оилада ва жамиятда ўз ўрнини тўғри англаса у ҳам аёл ҳам ўз касб вазифасини

⁹⁹ Зебуннисо, Дилшод, Анбаротин. –Т.: “Ҳозирги Шарқ”, 1991, 113-б.

сидқи дилдан бажара олади. Албатта бугунги кунда хотин-қизларимизга раҳбарлик лавозимини ишониб топшириш бир қатор қулайликларга сабаб бўлади. Аёл муаммоларни безарар йўлини танлайди. У тинчлик билан муаммоларни ҳал қилади. Оилада аёлнинг ўрни бўлса уни турмуш ўртоғи қўллаб-қувватласа кўп қирраларги забт эта олади. Аёл ҳам ўзининг оиладаги вазифасини унутмаслиги зарурдир. Ўзининг эрини олдидаги вазифаларини ҳам бажариши унга меҳр бериши оиланинг ҳам тинчлик-тотувлигига эришади. Тинч ва тотув оиланинг фарзандлари албатта гўзал хулқли ва одобли белиши шак-шубҳасиз. Ўзбек хотин-қизлари ўз касби ва оиладаги вазифасини бажаришида ўзининг хулқ-атворини очиб беради.

Мамлакатимизда оилани мустаҳкамлаш ҳамда хотин-қизларга бўлган эътибор ижтимоий-сиёсий ислохотлар ижобий натижалар бермоқда. 2019 йил 7 мартдаги ПҚ-4235-сон “Хотин-қизларнинг меҳнат ҳуқуқлари кафолатларини янада кучайтириш ва тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлашга оид чора-тадбирлар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарорида ҳам хотин-қизларнинг иш билан таъминлаш уларга шароит яратиб беришга алоҳида урғу беради. Яъни:

- Хотин-қизларнинг меҳнатини муайян соҳада қўллаш бўйича тақиқлар бекор қилинди;

- Хотин-қизлар соғлигига салбий таъсир этадиган касблар рўйхати тасдиқланди;

- Хотин-қизларнинг тадбиркорлик билан шуғулланишига кенг имкониятлари яратиб берилмоқда;

- Хотин-қизларга имтиёзли кредитлар бериш

- Оилаларда тазйиқ ва зўравонликларни олдини олиш борасида кенг имкониятлар яратилиб берилмоқда.

Юртимизда яратилаётган имкониятлар унимли фойдаланган хотин-қизларимизнинг сони кундан кунга ортиб бормоқдалар. Аёл бир вақтнинг ўзида ҳам сиёсатчи, ҳам раҳбар, ҳам турмуш ўртоқ, ҳам онадир.

Хотин-қизларнинг сиёсий хулқ-атвори ва давлат ишларини бошқаришда диний ва дунёвий илимларга амал қилишлари яхши натижа беради деб ҳисоблайман. Масалан тарихдан кўришимиз мумкинки, Амир Темур ҳам давлатни бошқаришда диний тамойилларга ҳам амал қилган. Фаробий, Ибн Сино, Ахмад Югнакий ва бошқаларнинг ҳам асарларида ҳам диний қадриятларга урғу берганини кўришимиз мумкин. Улар ўз даврининг сиёсий маданиятини айнан манашу хусусиятларда кўрган.

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI SO'Z ERKINLIGINING HUQUQIY VA AXLOQIY KO'ZGUSI SIFATIDA

Oripov Xasan Abdivaxobovich

Samarqand Davlat universiteti tayanch doktorant

O'zbekiston Respublikasida so'z erkinligi o'zining barcha ko'p qirrali ko'rinishlari bilan izchil rivojlanib, mustahkamlanib bormoqda. O'zbekistonning sud-huquq tizimidagi barcha tashkilot, muassasalarda so'z erkinligi tamoyillari doimiy amalga oshirilmoqda. O'zbekiston fuqarolarining O'zbekistonda demokratiyani rivojlantirish bo'yicha o'z fikr va g'oyalarini ifoda etishi munosabati bilan o'z huquq va imkoniyatlarini anglashi mustahkamlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ushbu ijtimoiy-falsafiy hodisaning jamiyatni shakllantirish va mustahkamlash bilan birga demokratik tamoyillarni ishlab chiqishda muhimligi va ahamiyatini bir necha bor e'tibor qaratgan. Jumladan, Yevropa Kengashi rahbari Sharl Mishel bilan uchrashuvda davlat rahbari O'zbekiston so'z erkinligini ta'minlash sohasida Yevropa Ittifoqi bilan amalga oshirilayotgan juda yaqin va ochiq hamkorlikni davom ettirishga tayyorligini hamda ushbu yo'nalishdagi ishlarning natijalarini baholash va ommaviy axborot vositalarini yanada qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflar ishlab chiqishga kelishib olingan edi. Ushbu yo'nalishdagi ishlarning natijalarini baholash va ommaviy axborot vositalarini yanada qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflar ishlab chiqishga kelishib olindi¹⁰⁰.

O'zbekistonda so'z erkinligini kengaytirish borasidagi izchil o'zgarishlarni qayd etgan holda, "Chegara bilmas muxbirlar"¹⁰¹, xalqaro nodavlat tashkiloti tomonidan tuzilgan 2022 yil uchun so'z erkinligi indeksida O'zbekiston o'z reytingini birdaniga 24 pog'onaga yaxshilaganini ta'kidlash lozim, 157 o'rindan (global ball – 49,26 birlik) 133 o'ringa (global ball – 45,74 birlik) ko'tarildi¹⁰².

Mamlakatimizda ham ommaviy axborot vositalari sohasida jiddiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga yo'llagan tabrik so'zlarida "... yurtimizda ommaviy axborot vositalari soni 2016-yilga nisbatan qariyb 30 foizga ortib, 1962 taga yetgani diqqatga sazovordir. Ayniqsa, xususiy media vositalari hayotimizdan keng o'rin egallab borayotgani jamiyatimizda


¹⁰⁰ Президент и глава Евросовета обсудили экономику и свободу слова [Электронный ресурс].-Режим доступа:<https://www.gazeta.uz/ru/2022/10/28/eu/> (дата обращения 3.11.2022)

¹⁰¹ Официальный сайт международной неправительственной организацией «Репортеры без границ» [Электронный ресурс].-Режим доступа: <https://rsf.org/en/index> (дата обращения 3.11.2022)

¹⁰²Узбекистан улучшил свои позиции в рейтинге свободы слова [Электронный ресурс].-Режим доступа: <https://kun.uz/ru/news/2022/05/03/uzbekistan-uluchshil-svoi-pozitsii-v-reytinge-svobody-slova> (дата обращения 3.11.2022)

fikrlar xilma-xilligini ta'minlashda, tub islohotlarni amalga oshirishda, joylarda yo'l qo'yilayotgan kamchilik va muammolarni dadil ko'tarib chiqishda muhim omil bo'lmoqda. Keyingi paytlarda ijtimoiy tarmoqlar orqali ba'zi joylarda ommaviy axborot vositasi xodimlariga mensimay qarash, ularning o'z vakolati doirasida erkin faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilish holatlari uchrayotgani haqida xabarlar tarqalayotgani ham bu fikrni tasdiqlaydi. Shu munosabat bilan yana bir bor ta'kidlab aytmoqchiman: biz barpo etayotgan huquqiy demokratik davlatda so'z va matbuot erkinligi doimo Bosh qomusimiz va qonunlarimiz hamda Prezident himoyasida bo'ladi»¹⁰³ deya ta'kidlab o'tganlar.

O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari faoliyatini huquqiy tartibga solish barqarorligini oshirish, so'z va axborot erkinligini ta'minlashga qaratilgan Qonunchilik bazasi mustahkamlanmoqda¹⁰⁴. So'z erkinligi va ommaviy axborot vositalarining samarali faoliyatini ta'minlashning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida mamlakatimizda 20 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular orasida quyidagi qonunlarni alohida ta'kidlash lozim:




1-rasm. O'zbekiston Respublikasida so'z erkinligi va ommaviy axborot vositalarining samarali faoliyatini ta'minlashning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan asosiy qonunlar

O'zbekiston Global Peace Index (Global tinchlik indeksi) bo'yicha Markaziy Osiyodagi eng xavfsiz mamlakat deb topildi ¹⁰⁵. Buni fuqarolar huquq va erkinliklarini takomillashtirish yo'lidagi ulkan yutuq deb baholash kerak.

¹⁰³Президент Узбекистана: "Свобода слова и печати всегда будет находиться под защитой. [Электронный ресурс].– Режим доступа: "<https://darakchi.uz/ru/147439> (дата обращения 12.11.2022)

¹⁰⁴ О реформах в Узбекистане на пути повышения роли СМИ в жизни государства и общества <http://www.uzbekistan.org/ru/2-uncategorised/5487-o-reformakh-v-uzbekistane-na-puti-povysheniya-rol-i-smi-v-zhizni-gosudarstva-i-obshchestva.html>

¹⁰⁵ Узбекистан признан самой безопасной страной в Центральной Азии [Электронный ресурс]: - Режим доступа: <https://kun.uz/ru/news/2022/09/02/uzbekistan-priznan-samoy-bezopasnoy-stranoy-v-tsentralnoy-azii>



2-rasm. Osiyo mamlakatlari xavfsizlik indeksi (postsovet respublikalari) (Global Peace Index¹⁰⁶)

Butun dunyoda, jumladan, jamiyat taraqqiyoti demokratik asoslarining eng yuksak namunasi va yetakchi bo'lishga davogar davlatlarda ham siyosiy elita va ommaviy axborot vositalarining birlashuvi vujudga kelmoqda. So'z erkinligi har qanday demokratik jamiyatning markazidagi eng muhim masala bo'lib qolmoqda. G'arb ilmiy tadqiqot adabiyotlarida mavzu sezilarli darajada ishlab chiqilganiga qaramay, so'z erkinligining ba'zi shakllarida sezilarli keskinlik va qarama-qarshiliklar saqlanib qolmoqda.

So'z erkinligini himoya qilishning muhim sharti - ommaviy axborot vositalari vakillari huquqlarining ta'minlanishi, siyosiy elita manfaatlariga mos bo'lmagan ma'lumotlarni e'lon qilganliklari uchun ta'qib qilinmaslikdir.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDA SO'NGGI YILLARDA SODIR BO'LGAN YO'L-TRANSPORT HODISALARI VA ULARNI OLDINI OLISH UCHUN AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR

***Osimov Bahodir Bahromjon o'g'li**
Namangan davlat universiteti talabasi*

Kirish. Transport (lotincha transporto - “ tashiyman “ degan ma'noni anglatadi) moddiy ishlab chiqarishning yuk va yo'lovchilar tashishni amlga oshiradigan eng muhim tarmoqlaridan biri, sanoat va qishloq xo'jaligidan keyingi uchinchi asosiy manbai hisoblanadi. Transport taraqqiyoti ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojining umumiy darajasiga va ilmiy texnik taraqqiyotiga bog'liq.

¹⁰⁶ Официальный сайт организации «Репортеры без границ» [Электронный ресурс]: - Режим доступа: <https://rsf.org/en/index/score-pol?year=2022>

Transport moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi, u barcha tarmoqlarning rivojlanishida yetakchi asosiy o'rin tutadi.

Transportning ahamiyatini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

-sanoat bilan qishloq xo'jalik orasidagi aloqalarda;

-qayta ishlovchi bilan undiruvchi sanoat orasidagi munosabatda;

-ishlab chiqarish bilan xom-ashyo orasidagi bog'lanishda;


-ishlab chiqarish bilan iste'molchi orasidagi aloqada;

-jahon mamlakatlari bilan turli regionlar orasidagi mahsulot va xomashyo almashinuvida;

-jahonda xalqaro tashqi savdo bilan ichki savdoni tashkil etishda.

Transportning ahamiyati har bir sohada ahamiyatli bo'lishi bilan birga, uning ham salbiy jihatlari mavjud. Mamlakatimizda ham transportdan foydalanish kundan kunga o'sib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Ammo transport vositalaridan foydalanish ko'paygani sari yo'llarda yo'l-transport hodisalari ham ko'payib bormoqda.

Asosiy qism. O'zbekiston Respublikasi hududida 2022 yilda 9902 ta yo'l-transport hodisalari sodir bo'ldi, bu ko'rsatkich 2021-yilda 10001 tani tashkil qilgan. Yo'l-transport hodisalaridan 2022-yilda halok bo'lganlar 2356 tani va jarohat olganlar 9606 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkichlar 2021-yilda 2426 ta va 9230 tani tashkil qilgan.



1-rasm. Yo'l-transport hodisalarining hududlar kesimida soni


Yo'l-transport hodisalarining turlari o'rtasida ham bir qancha tafovutlarni ko'rishimiz mumkin. 2022-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, eng ko'p yo'l-transport hodisasi piyodani urib yuborish orqali sodir bo'lgan. Ya'ni bu ko'rsatkich 4449 tani (44,9%) tashkil qiladi. Eng kam yo'l-transport hodisasi sodir bo'lishi turgan transportga urulish sabab sodir bo'lgan. Bu turi bo'yicha ko'rsatkich 105 tani (1,1%) tashkil qiladi (1- jadval)

1-jadval

N	YTH ning turlari	Soni	Miqdori % da
1.	Piyodani urib yuborish	4449	44,9
2.	To'qnashuv	3093	31,2
3.	Ag'darilish	467	4,7
4.	To'siqqa urulish	428	4,3
5.	Velosipedni urib yuborish	1136	11,5
6.	Turgan transportga urilish	105	1,1
7.	Boshqalar	224	2,3

Yo'l-transport hodisalarining turlari bo'yicha soni (2022)


Yo'l-transport hodisalarining kelib sabablari obyektiv va subyektiv bo'ladi. 2022-yilda obyektiv sabablarga ko'ra 4759 ta, subyektiv sabablarga ko'ra esa 5143 ta YTH si sodir bo'lgan. Obyektiv sabablardan eng ko'p YTH si yo'lni ikkiga ajratuvchi to'siqlar o'rnatilmaganligi (1302 ta) sababli sodir bo'lgan. Eng kam YTH si esa svetofor yoki yo'l belgisi o'rnatilmaganligi (214 ta) sababli sodir bo'lgan (2-rasm)



2-rasm

Subyektiv sabablardan eng ko'p YTH si belgilangan tezlikka rioya qilmaslik (1577 ta) sababli sodir bo'lgan. Eng kam YTH si esa mast holda boshqarish (299 ta) sababli sodir bo'lgan (3-rasm). 2021-yilda ham YTH ni keltirib chiqargan sabablar juda ko'p bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bularga piyodalar o'tish joyidan o'tayotgan piyodani urib yuborish (1150 ta), harakatnin tashkil etishdagi

muammolar (2009 ta), piyodalar o'tish joyi belgilanmagan joydan kesib o'tish (1380 ta), bolalarni qarovsiz qoldirish (501 ta), avtomashinani mast holda boshqarish (135 ta), belgilangan tezlikka rioya qilmaslik (2010 ta), harakat davomida telefondan foydalanish (100 ta), qarama –qarshi yo'nalishga chiqish (792 ta), haydovchining tajribasizligi (912 ta), svetofof yoki yo'l belgisiga rioya qilmaslik (402 ta),veloyo'lak bo'lmagan joydan o'tish (610 ta) kabi sabablarni kiritishimiz mumkin. 2021 –yilda yo'l-transport hodisalarining deyarli 3626 tasi davlat ahamiyatidagi (mintaqalararo), 2099 tasi mahalliy, 1697 tasi xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan yo'llarda yuz bergan. 2022-yilda esa yo'l-transport hodisalarining 1733 tasi xalqaro ahamiyatdagi, 3005 tasi davlat ahamiyatidagi, 2376 tasi mahalliy ahamiyatidagi, 2684 tasi shahar ko'chalari ahamiyatidagi, 102 tasi xo'jalik ahamiyatidagi yo'llarda sodir bo'lgan.



3-rasm. Yo'l-transport hodisalarining subyektiv kelib chiqish sabablari (2022 y)

Agar yo'l-transport hodisalarini hafta kunlari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, YTH lari asosan haftani 2 yarmida sodir bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Yo'l-transport hodisalari eng kam sodir bo'ladigan kun bu yakshanba kunligini ko'rishimiz mumkin(2-jadval). Yakshanba kuni kam sodir bo'lishiga sabab, dam olish kunligi va insonlarning transport vositalaridan foydalanib migratsiyani amalga oshirmasligidir.

2-jadval

N	Hafta kunlari	2021- yil	2022-yil
1	Dushanba	1464	1392
2	Seshanba	1482	1374
3	Chorshanba	1275	1448
4	Payshanba	1461	1532
5	Juma	1565	1395
6	Shanba	1541	1509
7	Yakshanba	1213	1252

YTH larining hafta kunlari bo'yicha miqdori

Agar yo'l-transport hodisalarini hafta kunlari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, YTH lari asosan haftani 2 yarmida sodir bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Yo'l-transport hodisalari eng kam sodir bo'ladigan kun bu yakshanba kunligini ko'rishimiz mumkin(2-jadval). Yakshanba kuni kam sodir bo'lishiga sabab, dam olish kunligi va insonlarning transport vositalaridan foydalanib migratsiyani amalga oshirmasligidir. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan " Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" gi Vazirlar Mahkamasining loyihasi ishlab chiqilgan. Ushbu qarorga muvofiq aholi punktlarida transport vositalarining tezligi 70km/soatdan, maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlari atrofidagi yo'llarda 300 m gacha bo'lgan masofada 30km/ soatdan, turar-joy dahalari va yondosh hududlarda, uy-joy binolari orasidagi yer uchastkasida esa soatiga 20 km/ soatdan oshirmasdan harakatlanishga ruxsat etilgan edi. Ammo, " Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi prezident qaroriga ko'ra, yo'l-harakati xavfsizligi bo'yicha Respublika komissiyasi qarori bilan Toshkent, Nukus shaharlari va viloyat markazlarida yuqori harakat intensivligi va odamlar gavjum joylarda maksimal tezlikni 60km/soatgacha kamaytirilishi haqida qaror qabul qilindi.

Shaharlarda eng yuqori tezlikni soatiga 10 km/soatga (ya'ni, 70 km/s dan 60km/s ga kamaytirilishi) kamaytirish O'zbekistonda bir yilda 614 nafar insonning hayotini saqlab qoladi. Prognozashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti shaharlarda o'rnatilgan maksimal tezlikning pasayishi yo'ldagi holatga (transportning o'rtacha tezligi) va yo'llardagi o'lim darajasini

tahlil qilgan. 140 ta mamlakat ma'lumotlari yig'ilib, tahlil qilinganda tadqiqot quyidagi xulosalarga kelgan:

- shaharlarda eng yuqori tezlikni soatiga 10 km ga kamaytirish o'lim darajasini yiliga 0,8 kishiga (100 000 kishiga) kamaytirishga yordam beradi. Bu O'zbekistonda 614 nafar insonning hayotini saqlab qolish deganidir:

- eng yuqori tezlik o'rtacha harakat tezligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

- Harakat tezligi va sayohat vaqtiga asosiy ta'sir etuvchi omil bu yo'l infratuzilmasining sifati hisoblanadi, tezlikni cheklash faqat yo'l-harakati qoidalarini yaxshilash va tegishli infratuzilma mavjud bo'lsa, ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

- Qonun ustuvorligi reytingining 1 ball ga ortishi har yili yo'llarda o'lim darajasini 3,3 kishiga (har 100 000 kishiga) qisqartirish mumkin;

- past tezlikda sodir bo'lgan yo'l-transport hodisalarida og'ir jarohatlar ulushi kamayadi. Yo'l-transport jarohatlari zarari past daromadli mamlakatlarda YIM ning taxminan 1 % I, o'rta daromadlilarda 1,5 % i va yuqori daromadli mamlakatlarda 2 % iga teng.

Xulosa. Yuqoridagi statistik tahlillar va tadqiqotlar shuni ko'rsatyaptiki, so'nggi yillarda yo'l-transport hodisalarida minglab insonlar halok bo'lmoqda. Shu hodisalarning oldini olish uchun, yo'llarning infratuzilmasini yaxshilash, haydovchilarga sifatli bilim berish va yo'l-harakati qoidalariga qat'iy amal qilishini nazoratga olish kerak. Bundan tashqari, yo'l-transport hodisalarida piyodalar ham qatnashishini ko'rishimiz mumkin. Piyodalarda yo'l harakati qoidalariga amal qilishini va yo'llarda harakatlanish madaniyatini shakllantirishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xidiraliyev K.E., Karshibayeva L.K. "Transport, sanoat va qishloq xo'jaligi geografiyasi" darslik. Guliston. 2020. -273 bet. <http://e-library.namdu.uz/>

2. A.A. Isayev. Transport geografiyasi. -T. "Mumtoz so'z" . 2019. 153-bet. <https://docs.yandex.ru/>

3. F. Amirqulov ,E. Islamov D.O'runov J.Choriev. O'zbekistonda yo'l-transport hodisalarini kamaytirishda intellektual transport tizimlarining o'rni. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-yo-l-transport-hodisalarini-kamaytirishda-intellektual-transport-tizimlarining-o-rni?ysclid>

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, 12.04.2022 yildagi 172-son. <https://uzpdd.uz/downloads/>

5. <https://docs.yandex.ru/>

6. <http://e-library.namdu.uz/>

7. <https://cyberleninka.ru/>

8. <https://lex.uz/uz/docs>

EFFORTLESS METHODS OF TEACHING OF IDIOMATIC EXPRESSIONS IN THE ESL LESSONS

Otabayev Muzaffar Ne'matullayevich

English language teacher, Namangan Instituti of Engineering Technology

Idioms are a crucial component of learning a language and frequently show a proficient student. Idioms in English are a part of the cultural aspects of the language that EFL students should master. Students can better grasp texts that have metaphorical and lexical implications beyond the fundamental word level by having a clear comprehension of figurative language, such as idiomatic idioms. Idioms, however, frequently provide difficulties for students who lack language proficiency and cultural literacy. There are numerous approaches to increase students' understanding of idioms. The purpose of this article is to explore the different sorts of creative teaching techniques that can be applied to the instruction of idiomatic expressions to English language learners. It suggests that idioms need to be learned so increasing the learners' awareness of these unique words and phrases can help them learn to identify and interpret them with greater success.

Many techniques are used to teach languages today. One of them is the use of activities to teach languages. If you can plan some activities for your English conversation group, you'll undoubtedly discover that they provide great opportunities for English practice. Things to do are enjoyable. The idea that teaching languages should be fun has become widely recognized in recent years. This is not to imply that it is simple, but that adding fun won't always make it harder. Teaching someone how to use an idiom is difficult. Because of this, if we teach English idioms, we must employ fresh approaches to language instruction.

Students can better grasp writings that have metaphorical and lexical implications above and beyond the level of simple words by gaining a clear comprehension of figurative language. Students examine figurative language in this lesson with an emphasis on literal vs metaphorical interpretations of idioms. Students' comprehension of figurative language will grow as a result of classroom read-alouds, teacher modeling, and student-centered activities.

Students can better understand the metaphorical meanings of idioms by understanding their historical context.

Students can better guess the meaning of unknown words or phrases by understanding how language changes through time through discussions centered on the origins of words and phrases.

We believe idioms to be fascinating, which is why we want to teach them. Idioms can be taught effectively by being categorized by topic, such as idioms related to bodily parts, idioms related to color, etc. [1]

Also, we enjoy contrasting and comparing English idioms with those in the students' or our native tongues (Uzbek). This is so that it is possible to talk about the idiom's etymology and how several languages may use comparable expressions to convey the same notion. Discovering idioms in a context is another method of teaching them.

If idioms are taught with other simple word lists. We think that the English teacher needs to teach students how to use dictionaries efficiently. Teaching pronunciation, functional categories, distinct levels of meaning, usage, model sentences, as well as idioms and phrasal verbs, is a difficult undertaking. To make the process easier than you can possibly think, we strongly advise that you heavily utilize photos. We teach a group of idioms in 8–12 steps. For instance;

✓ Show them the pictures and ask random questions about what they know about the pictures and in this case pictures of the animals. (Emphasize on the most common characteristics of those animals);

✓ Tell them a story using the idioms you intend to teach.

✓ Write the idioms on the board as you are telling the story.

✓ Ask them to guess what the new idioms mean according to the context.

✓ You could have a group work here if possible.

✓ Tell them the meaning of the idioms.

✓ Give them extra examples using the new idioms (in context if possible)

✓ You could ask them to create their own examples.

✓ Re-tell the story focusing on the new idioms.

✓ Give then a group work activity to write very short stories using the new idioms (you could make a homework out of this step if you are pressed with time)

✓ Ask them to read their short stories to keep them motivated.

✓ Ask the other students to summarize their partners' stories.

You should use your artistic ability to create drawings for them. They'll find it amusing. This is a rough strategy that you could certainly improve upon by adding your own steps based on the dynamics of the classroom.

Without more information, it is now difficult to determine the specific meaning of the phrase, but by examining the context in which it is used, you can get a fair understanding of what it implies.

It's crucial to remember that the primary goal of your classes shouldn't be learning an idiom. Students should be able to grasp them, in my opinion, but using them in spoken English could come off as awkward and "false." . It's easy to

understand this when you see a non-native of your language trying to use idiomatic expressions. It may sound funny but not appropriate for a formal conversation.

You are robbing your students of some of the cultural diversity of the English language if you don't teach them idioms. Imagine your speech without all of the proverbs, which are in fact an important aspect of our culture, and without the "lingo" that enables speakers of a certain generation or socioeconomic class to establish a unique identity or even a specific "private language" [2].

Students seem more engaged with textual content and show less resistance to reading material that could otherwise be difficult or irritating when teachers support students' natural tendencies toward narrative forms of meaning making in conjunction with text-based lessons.

Students respond to texts using narrative strategies that encourage role-playing and the surfacing of memories, images, and experiences as they start to form interpretations.

After having interacted with the word through a highly individualized, narrative investigation of their own experiences with metaphorical language, students are more likely to comprehend, retain, and care about what a metaphor implies.

References:

1. Larsen-Freeman D. Techniques and principles in language teaching. New York: Oxford University Press., 1986. P. 48.
2. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. 3-е изд., стереотип. М.: Русский язык, 2001. 123 С.
3. Коробка П.Л. Идиоматическая фразеология как лингвистическая культурологическая проблема. М.,1999. 130 С.

BARQAROR TARAQQIYOTDA AYOLLAR: ILM-FAN VA SIFATLI TA'LIM

Otakuziyeva Sevinch Alijon qizi

Namangan Davlat Universiteti 2-bosqich talabasi

Ayni paytda biz insoniyat taraqqiyotiga unutilmas va beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizni dunyoga keltirib, mehr bilan tarbiyalagan, ularni ulug'vor ishlarga ruhlantirib, kamarbasta bo'lgan fozila ayollarimiz bilan albatta faxrlanamiz. Ma'lumki har qanday jamiyat va davlatning qaydarajada xalqparvar hamda adolatli ekani uning xotin-qizlarga bo'lgan munosabati va g'amxorligi bilan belgilanadi. Xalqimizni rozi qilishdek oliy maqsadga erishish uchun xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning iqtisodiy, ijtimoiy

va siyosiy faolligini oshirish Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanadi. Shu o'rinda e'tiboringizni ayrim misollarga qaratmoqchiman. „ Hech kim mehr va e'tibordan chetda qolmaydi" degan ezgu tamoyil asosida, 2021-yilda 900 mingga yaqin xotin-qizlarga ijtimoi-iqtisodiy, tibbiy, huquqiy va psixologik yordamalar ko'rsatildi. Bu maqsadlar uchun budjetdan 2trillion so'm mablag' yo'naltirildi. Xususan, 18 mingta ayollarga uy-joy xarid qilish uchun 400 milliard so'm imtiyozli kreditlar ajratildi. Boquvchisini yo'qotgan ayollarning farzandlari uchun bog'cha xarajatlarini budjetdan qoplash tartibi joriy etildi. Yana bir muhim raqamga etibor bering. Faqatgina 2021-yilning o'zida xotin-qizlarga tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2trillion so'mdan ziyod kredit va subsidiyalar ajratildi. Natijada 320 mingdan ortiq opa-singilarimiz doimiy ish va daromadga ega bo'ldilar. Mamlakatimizda jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblangan mahalla va oila institutlarini mustahkamlash bo'yicha ham e'tiborga molik ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, 2021-yilda ehtiyojmand oilalarga mansub 2 mingdan ziyod qizlar oliygohlarga davlat granti asosida qabul qilindi, yana shuncha talaba qizlarga kontrakt pullari to'lab berildi. Ayollar ta'limiga alohida e'tibor berilayotganligi tufayli o'tgan yili oliy o'quv yurtlariga qabul qilingan talabalarning 80% ni xotin-qizlar tashkil etadi. Agar bundan 6 yil avval oliygohlarda 110 ming qizlarimiz tahsil olishgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 400 ming nafarga yetdi yoki ularning ulushi 2016-yildagi 38% dan ayni paytga kelib qariyb 50% ga yetdi. Bu natijalar ham ushbu yo'nalishdagi islohotlarimizning amaliy ifodasi, desam o'ylaymanki, sizlar ham fikrimga qo'shilasizlar. Har qanday xalqning yetuklik darajasini avvalo, ayollarning ilmiy-madaniy kamoloti belgilab berishi, oqila va o'qimishli onalar millatning buyuk kelajagini yaratishlari hammamizga yaxshi ayon. Shu bois donishmandlar:

“Bitta qiz bolani o'qitsangiz butun oilani o'qitgan bo'lasiz" deb bejiz ta'kidlamaganlar. Qizlarimizning zamonaviy bilimlar va kasb-hunar egasi bo'lib, jamiyatda hamda o'z oilasida munosib o'rin topishi uchun boshlagan ishlarimizni bundan keyin ham izchil davom ettiramiz. Bu borada, avvalo, 2022-2026- yillarga mo'ljallangan xotin-qizlar ta'limi qo'llab-quvvatlash milliy dasturini qabul qilamiz. Ushbu hujjat doirasida poytaxtda xotin-qizlar uchun alohida universitet va joylarda uning texnikumlarini tashkil etildi. Batcha talaba qizlarga ta'lim kontraktlarini to'lash uchun 7 yil muddatga foizsiz kredit berish tartibi joriy qilindi. Ushbu ishlarning mantiqiy davomi sifatida ilmiy izlanish va kashfiyotlari bilan yurtimiz ravnaqiga katta hissa qo'shib qo'shib kelayotga olina ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash ishlarini yangi bosqichga ko'tarildi. Ma'lumki bugungi kunda ayol-qizlar orasida o'nlab akademik va professorlar, fa doktorlari va fan nomzodlari, yuzlab iste'dotli tadqiqotchilar bor. Ilm-fan bilan shug'ullanish, ilmiy yangilik yaratish - bu igna bilan quduq qazishga barobardir.

So'ngi yillarda mamalakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talab yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, milliy ta'lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim ma'rifat egalari, jismoni va ma'naviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash, ta'lim muassasalrining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab ermoqda.

Mamlakatimiz ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo'lgan hurmat-e'tiborini yanada oshirish o'quvchilarning kasbiy mahoratini oshirishni rivojlantirish, tizimida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida:

O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ilarni amalga oshirishga doir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikmalar va bilimlarni shakllantirish;

dunyo miqyosida bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodlarini yaratish, o'quv sasturlari va standartlarini optimallashtirish;

ta'lim-tarbiya muassasalrining rahbar xodimlari, pedagog va murabiylari, professor-o'qituvchilari va ilm-fan sohalarini vakillarining jamiyatimizdagi o'rni va maqomini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini munosib adrlash va faoliyat samaradorligiga qarab moddiy rag'batlantirish;

pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini „hayot davomida o'qish“ ta'moyili asosida takomillashtirib borish;

ilmiy-tadqiqot va ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xususiy sektorning salmog'ini kengaytirish, hududlarda nodavlat ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali raqobat muhitini shakllantirish, ta'lim sohasida davlat xususiy sheriklarini rivojlantirish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya taxnologiyalarini qo'llagan xolda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish

tizimini yaratish, elektron resuslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilar o'rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish;

ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish;

ta'lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotini joriy etish, respublika ta'lim tashkilotlarini nufuzli xalqaro reytinglarga kiritish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish.

Xalq ta'limi vazirligi: Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan birgalikda 2021-yil 1-martga qadar malakali psixolog va xorijiy ekspertlarni (shu jumladan Finlandiyaning malakali mutaxassislarini) jalb qilgan holda Milliy o'quv dasturini (keyingi o'rinlarda - Dastur) ishlab chiqildi.

tayanch o'quv tejasini takomillashtirish hamda o'zaro uzviy bog'liq fanlarni birlashtirish hisobiga ularning sonini optimallashtirish;

o'quvchilarni kelgusi hayotga tayyorlash va ularga o'z bilim va ko'nikmalaridan amaliyotdan foydalanishni o'rgatuvchi malaka talablarini singlar kesimida ishlab chiqish;

fanlararo o'zaro aloqadorlik va sinflar kesimida davriylikka to'liq rioya qilgan holda o'quv dasturlari o'rtasida uzviylikni ta'minlash;

yangi avlod darsliklarini o'qituvchining metodik qo'llanmasi, o'quvchining mashq dagtari va multimedia ilovasi bilan birga kompleks tarzda yaratish va nashr erish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi „ Iqridorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4306- sonli qarori ro'yxati belgilangan xalqaro fan olimpiadalarida g'oliblik (oltin, kumush, bronza medalini) qo'lga kiritgan o'quvchilarni tayyorlagan umumta'lim muassasalrining o'qituvchilariga - oliy, akademik litsey va kasb-hunar maktablarining o'qituvchilariga bosh o'qituvchi malaka toifasi beriladi.

respublika fan olimpiadalarida va ko'rik-tanlovlarning respublika bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan o'quvchilarni tayyorlagan o'qituvchilarning malaka toifasi bir pog'onaga oshirildi;

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2018-yil 3-dekabdagi rezolyusiyasiga muvofiq 24-yanavar -Xalqaro ta'lim kuni deb e'lon qilingan. Bu muhim qaror xalqaro hamjamiyat tomonidan ta'limning tinchlik va taraqqiyot yo'lidagi ahamiyati nechog'lik yuksak e'tirof etilayotganining yaqqol tasdig'idir. Shu nuqtai nazardan, butun dunyoda pandemiya inqirozi oqibatlarini tugayli ta'lim sohasida ko'plab muammoli vaziyatlar kuztilayotgan mutakkab bir davrda O'zbekistonda yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi davlat siyosati darajasiga

ko'tarilgani alohida diqqatni tortadi. Mamlakatimizda bolalar va yoshlarning ta'lim olishga bo'lgan huquqlarini ro'yobga chiqarish va ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratish jarayonlari „ Yangi O'zbekiston - maktab ostonasidan boshlanadi" g'oyasi asosida tubdan takomillashtirilgani bu fikrning amaliy ifodasidir. Davlatimiz va jamiyatimiz, birinchi navbatda e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratmoqsa. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, „Ta'lim sifatini oshirish - Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak har bir rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatda barqaror taraqqiyotda ayollarga katta e'tibor, hurmat, katta ishonch bo'lsagina ilm-fanda kattadan-katta mara va yutiqlarga erishila veradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.<http://pravacheloveka.uz>
- 2.<http://lex.uz>
- 3.<http://yuz.uz>
- 4.www.gov.uz

**КРАЕВАЯ ЗАДАЧА ДЛЯ ВОЛНОВОГО УРАВНЕНИЯ
С ДРОБНОЙ ПРОИЗВОДНОЙ**

Отарова Ж.А.

*Каракалпакский государственный университет имени Бердаха,
доцент кафедры «Дифференциальные уравнения»*

Узакбаева Д.Е.

*Каракалпакский государственный университет
имени Бердаха, магистрант*

В настоящее время наблюдается заметный рост внимания исследователей к дробному исчислению. В первую очередь это обусловлено многочисленными эффективными приложениями дробного интегро-дифференцирования при описании широкого класса физических и химических процессов, протекающих во фрактальных средах. Модели дробного порядка являются более эффективными, чем модели целочисленного порядка для некоторых реальных мировых проблем. Дробные производные обеспечивают адекватное средство для описания памяти и наследственных свойств различных материалов и процессов. Возникают дробные дифференциальные уравнения во многих инженерных и научных дисциплинах, таких как математическое моделирование систем

и процессов в области физики, химии, аэродинамики, электродинамики и т. д.. Вопросы разрешимости локальных, нелокальных, начальных, смешанных и краевых задач для уравнений дробного порядка изучены многими авторами. Наиболее полная библиография приведена в работах [1],[2].

В области $D = \{(x,t) : 0 < x < p, 0 < t < T\}$ рассмотрим задачу для уравнения

$$D_{0t}^{\alpha+1} u - u_{xx} = 0, \quad (1)$$

где $0 < \alpha < 1$.

Задача I. В области D , найти функцию $u(x,t)$ удовлетворяющее уравнению (1) непрерывное всюду в \bar{D} кроме $0 \leq x \leq p$, и прямой $t = 0$ удовлетворяющее уравнению (1) и условиям,

$$\left. \begin{aligned} \lim_{t \rightarrow 0} t^{1-\alpha} u &= \varphi(x), & 0 < x < p, \\ \lim_{t \rightarrow 0} \frac{d}{dt} (t^{1-\alpha} u) &= \psi(x), & 0 < x < p, \end{aligned} \right\} \quad (2)$$

$$u_x(0,t) = u_x(p,t) = 0, \quad 0 < t \leq T. \quad (3)$$

Класс нетривиальных решений уравнения (1) удовлетворяющих условиям (3) ищем в виде

$$u(x,t) = X(x) \cdot T(t), \quad (4)$$

подставляя (4) в уравнение (1) получим:

$$\frac{D_{0t}^{\alpha+1} T}{T} = \frac{X''}{X} = -\lambda, \quad \lambda = const \quad (5)$$

здесь

$$D_{0t}^{\alpha+1} X(x)T(t) = \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)} \frac{d^2}{dt^2} \int \frac{X(x)T(t)}{(t-\tau)^\alpha} d\tau = X(x)D_{0t}^{\alpha+1} T(t),$$

из (5) получим уравнения:

$$X''(x) + \lambda X(x) = 0, \quad X'(0) = X'(p) = 0, \quad (6)$$

$$D_{0t}^{\alpha+1} T(t) + \lambda T(t) = 0. \quad (7)$$

Нетривиальные решения задачи (6) возможны лишь при значениях

$$X_k(x) = \cos \lambda_k x, \quad \lambda_k = \left(\frac{\pi k}{p} \right)^2, \quad k = 1, 2, \dots$$

На обе части (7) подействуем оператором дробного интегрирования порядка $\alpha + 1$.

$$I_{0t}^{\alpha+1} D_{0t}^{\alpha+1} T^{(k)} + \lambda_k I_{0t}^{\alpha+1} T^{(k)} = 0, \quad I_{0t}^{\alpha+1} = D_{0t}^{-\alpha-1}.$$

В результате получаем интегральное уравнение Вольтерра 2-го рода [3]. Здесь

$$I_{at}^{\alpha} D_{at}^{\alpha} = f(x) - \sum_{k=0}^{n-1} \frac{(x-\alpha)^{\alpha-k-1}}{\Gamma(\alpha-k)} f_{n-\alpha}^{(n-k-1)}(\alpha)$$

$n = [\alpha] + 1$ и $f_{n-\alpha}(x) = I_{at}^{n-\alpha} f$ получим:

$$T^{(k)}(t) - \frac{T_{1-\alpha}(0)}{\Gamma(\alpha+1)} t^{\alpha} - \frac{T_{1-\alpha}(0)}{\Gamma(\alpha)} t^{\alpha-1} + \lambda_k I_{at}^{\alpha+1} T^{(k)}(t) = 0$$

$$T^{(k)}(t) + \lambda_k I_{at}^{\alpha+1} T^{(k)}(t) = \frac{T_{1-\alpha}(0)}{\Gamma(\alpha+1)} t^{\alpha} + \frac{T_{1-\alpha}(0)}{\Gamma(\alpha)} t^{\alpha-1}$$

$$T^{(k)}(t) + \frac{\lambda_k}{\Gamma(\alpha+1)} \int_0^t \frac{T^{(k)}(\tau)}{(t-\tau)} d\tau = f^{(k)}(t)$$

далее согласно [4] получим,

$$T^{(k)}(t) = f^{(k)}(t) - \frac{\lambda_k T_{1-\alpha}^{(k)}(0)}{\Gamma(\alpha+1)} \int_0^t (t-\tau)^{\alpha} E_{\frac{1}{\alpha+1}}(-\lambda_k (t-\tau)^{\alpha+1}; \alpha+1) \tau^{\alpha} d\tau - \\ - \frac{\lambda_k T_{1-\alpha}^{(k)}(0)}{\Gamma(\alpha)} \int_0^t (t-\tau)^{\alpha} E_{\frac{1}{\alpha+1}}(-\lambda_k (t-\tau)^{\alpha+1}; \alpha+1) \tau^{\alpha-1} d\tau.$$

Вычисляя интеграл

$$I = \int_0^t (t-\tau)^{\alpha} E_{\frac{1}{\alpha+1}}(-\lambda_k (t-\tau)^{\alpha+1}; \alpha+1) \tau^{\alpha-1} d\tau,$$

где

$$E_{\frac{1}{\alpha+1}}(-\lambda_k (t-\tau)^{\alpha+1}; \alpha+1) = \sum_{s=0}^{\infty} \frac{(-\lambda_k (t-\tau)^{\alpha+1})^s}{\Gamma((s+1)(\alpha+1))} = \sum_{s=0}^{\infty} \frac{((-1)^s \lambda_k^s (t-\tau)^{s(\alpha+1)})}{\Gamma((s+1)(\alpha+1))}, \\ I = \sum_{s=0}^{\infty} \frac{((-1)^s \lambda_k^s)}{\Gamma((s+1)(\alpha+1))} \int_0^t (t-\tau)^{\alpha} (t-\tau)^{s(\alpha+1)} \tau^{\alpha} d\tau.$$

Вводя обозначения $\frac{\tau}{t} = \eta, \tau = t\eta, d\tau = t d\eta$, получим:

$$T^{(k)}(t) = T_{1-\alpha}^k(0) t^{\alpha} E_{\frac{1}{\alpha+1}}(-\lambda_k t^{\alpha+1}; \alpha+1) + T_{1-\alpha}^k(0) t^{\alpha-1} E_{\frac{1}{\alpha+1}}(-\lambda_k t^{\alpha+1}; \alpha).$$

Тогда, имеем частные решения вида

$$u_k(x, t) = X_k(x) T^{(k)}(t) = T_{1-\alpha}^k(0) t^{\alpha} E_{\frac{1}{\alpha+1}}(-\lambda_k t^{\alpha+1}; \alpha) \cos \frac{k\pi}{p} x,$$

Общее решение запишется в виде:

$$u(x,t) = \sum_{k=1}^{\infty} T_{1-\alpha}^{(k)}(0) t^{\alpha} E_{\frac{1}{\alpha+1}}(-\lambda_k t^{\alpha+1}; \alpha) \cos \frac{k\pi}{p} x.$$

используя, начальные условия получим:

$$u(x,t) = \int_0^p \left[\frac{2}{p} \sum_{k=1}^{\infty} \Gamma(\alpha+1) t^{\alpha} \sum_{k=1}^{\infty} \frac{(-\lambda_k t^{\alpha+1})^s}{\Gamma(s(\alpha+1) + \alpha + 1)} \cos \frac{k\pi}{p} x \cos \frac{k\pi}{p} \theta \right] \eta(\theta) d\theta + \\ + \int_0^p \left[\frac{2}{p} \sum_{k=1}^{\infty} \Gamma(\alpha) t^{\alpha-1} \sum_{k=1}^{\infty} \frac{(-\lambda_k t^{\alpha+1})^s}{\Gamma(s(\alpha+1) + \alpha)} \cos \frac{k\pi}{p} x \cos \frac{k\pi}{p} \theta \right] \xi(\theta) d\theta,$$

при $\alpha = 1$ решение запишется в виде:

$$u(x,t) = \sum_{k=1}^{\infty} \left\{ \frac{2}{p} \int_0^p \xi(\theta) \cos \frac{k\pi}{p} x dx \cos \frac{k\pi}{p} t + \frac{4}{k\pi} \int_0^p \eta(\theta) \cos \frac{k\pi}{p} x dx \sin \frac{k\pi}{p} t \right\} \cos \frac{k\pi}{p} x.$$

Литература

1. Нахушев А.М. Уравнения математической биологии. – М.: Высшая школа, 1995. – 301 с.
2. Нахушев А.М. Дробное исчисление и его применение. -М.: Физматлит, 2003. 272 с.
3. Самко С.Г., Килбас А.А., Маричев О.И. Интегралы и производные дробного порядка и некоторые их приложения. – Минск: Наука и техника, 1987. – 688 с.
4. Джабашян М.М. Интегральные преобразования и представления функций в комплексной области. М., 1996.

ОБ ОДНОЙ ОБРАТНОЙ ЗАДАЧЕ ДЛЯ СМЕШАННОГО УРАВНЕНИЯ ЧЕТВЕРТОГО ПОРЯДКА

Отарова Ж.А.

*Каракалпакский государственный университет имени Бердаха,
доцент кафедры «Дифференциальные уравнения»*

Реимова Л.Ж.

*Каракалпакский государственный
университет имени Бердаха, магистрант*

Краевые задачи для дифференциальных уравнений в частных производных рассматривались многими авторами [1,3]. Наиболее полную библиографию по этим вопросам можно найти в [3].

Обратные задачи имеют многочисленные приложения и возникают в различных областях человеческой деятельности, таких, как сейсмология, разведка полезных ископаемых, биология, медицина, контроль качества промышленных изделий и т.д. Различные обратные задачи для отдельных типов дифференциальных уравнений в частных производных изучались во многих работах. Отметим здесь прежде всего работы А.Н.Тихонова [10], С.И.Кабанихина [5], В.Г.Романова [8], М.М. Лаврентьева [6,7], К.Б.Сабитова [9], В.К.Иванова [4] и их учеников. Более подробную информацию об этом можно найти в монографии А.М. Денисова [2].

В области $D = \{(x,t) : 0 < x < q, -\alpha < t < \beta\}$ рассмотрим уравнение

$$Lu \equiv \begin{cases} u_t + u_{xxxx} = f(x), & \text{в } D_+, \\ u_{tt} - u_{xxxx} = f(x), & \text{в } D_-, \end{cases} \quad (1)$$

Задача 1. Найти функцию $u(x,t)$ и $f(x)$, удовлетворяющие следующим условиям:

$$u(x,t) \in C_{x,t}^{3,1}(\bar{D}) \cap C_{x,t}^{2,1}(D) \cup C_{x,t}^{2,1}(D_+ \cup D_-), \quad (2)$$

$$f(x) \in C(0,q) \cap C^1(0,q), \quad (3)$$

$$Lu(x,t) \equiv f(x), (x,t) \in D_+ \cup D_- \quad (4)$$

$$u(0,t) = 0, u(q,t) = 0, u_{xx}(0,t) = 0, u_{xx}(q,t) = 0, \quad -\alpha \leq t \leq \beta, \quad (5)$$

$$u(x,\beta) = \varphi(x), u(x,-\alpha) = \psi(x), \quad 0 \leq x \leq q, \quad (6)$$

где $D_+ = D \cap \{(x,t) : t > 0\}$, $D_- = D \cap \{(x,t) : t < 0\}$, и $\varphi(x), \psi(x)$ – заданные достаточно гладкие функции, причем $\varphi^{(2i+1)}(0) = \varphi^{(2i+1)}(q) = 0$, $\psi^{(2i+1)}(0) = \psi^{(2i+1)}(q) = 0, i = 0,1$.

Пусть $u(x, t)$ и $f(x)$ решение задачи (1)-(6). Рассмотрим функцию

$$u_k(t) = \sqrt{\frac{2}{q}} \int_0^q u(x, t) \sin \lambda_k x dx, \quad \lambda_k = \frac{k\pi}{q}, \quad k \in \mathbb{N}. \quad (7)$$

На основе (7) введем следующие функции

$$u_{k,\varepsilon}(t) = \sqrt{\frac{2}{q}} \int_\varepsilon^{q-\varepsilon} u(x, t) \sin \lambda_k x dx, \quad (8)$$

где ε – достаточно малое число. Дифференцируя функции (8) по t в D_+ и два раза в D_- , учитывая уравнение (1), и интегрируя по частям четыре раза, учитывая условий (5), и переходя к пределу при $\varepsilon \rightarrow 0$, имеем

$$\begin{aligned} u_k' + \lambda_k^4 u_k &= f_k, \quad t > 0, \\ u_k'' - \lambda_k^4 u_k &= f_k, \quad t < 0, \end{aligned} \quad (9)$$

где

$$f_k = \sqrt{\frac{2}{q}} \int_0^q f(x) \sin \lambda_k x dx. \quad (10)$$

Дифференциальные уравнения (9) имеют общие решения

$$u_k(t) = \begin{cases} u_k^- = a_k e^{-\lambda_k^4 t} + \frac{f_k}{\lambda_k^4}, & t > 0, \\ u_k^+ = b_k e^{\lambda_k^4 t} + c_k e^{-\lambda_k^4 t} - \frac{f_k}{\lambda_k^4}, & t < 0, \end{cases} \quad (11)$$

где a_k, b_k, c_k – произвольные постоянные, $k \in \mathbb{N}$. По условию функция $u(x, t)$ принадлежит классу (2), тогда для функций (11) выполнены равенства

$$u_k(0, -0) = u_k(0, +0), \quad u_k'(0, -0) = u_k'(0, +0). \quad (12)$$

Функции (11) удовлетворяет условиям (12) откуда,

$$a_k = \frac{c_k - b_k}{\lambda_k^2} \quad \text{и} \quad f_k = \frac{\lambda_k^2}{2} (b_k (\lambda_k^2 + 1) + c_k (\lambda_k^2 - 1)),$$

Тогда (11) примет вид:

$$u_k(t) = \begin{cases} u_k^- = \frac{b_k (\lambda_k^2 + 1 - 2e^{-\lambda_k^4 t}) + c_k (2e^{-\lambda_k^4 t} + \lambda_k^2 - 1)}{2\lambda_k^2}, \\ u_k^+ = \frac{b_k (2\lambda_k^2 e^{\lambda_k^4 t} - \lambda_k^2 - 1) + c_k (2\lambda_k^2 e^{-\lambda_k^4 t} - \lambda_k^2 + 1)}{2\lambda_k^2}, \end{cases}$$

из граничных условий получаем:

$$\frac{b_k \left(\lambda_k^2 + 1 - 2e^{\lambda_k^4 \alpha} \right) + c_k \left(2e^{\lambda_k^4 \alpha} + \lambda_k^2 - 1 \right)}{2\lambda_k^2} = \psi_k,$$

$$\frac{b_k \left(2\lambda_k^2 e^{\lambda_k^2 \beta} - \lambda_k^2 - 1 \right) + c_k \left(2\lambda_k^2 e^{-\lambda_k^2 \beta} - \lambda_k^2 + 1 \right)}{2\lambda_k^2} = \varphi_k,$$

$$\bar{\Delta}_k = \begin{vmatrix} \frac{\lambda_k^2 + 1 - 2e^{\lambda_k^4 \alpha}}{2\lambda_k^2} & \frac{2e^{\lambda_k^4 \alpha} + \lambda_k^2 - 1}{2\lambda_k^2} \\ \frac{2\lambda_k^2 e^{\lambda_k^2 \beta} - \lambda_k^2 - 1}{2\lambda_k^2} & \frac{2\lambda_k^2 e^{-\lambda_k^2 \beta} - \lambda_k^2 + 1}{2\lambda_k^2} \end{vmatrix} =$$

$$= \frac{1}{2\lambda_n^2} \left[-2e^{\lambda_n^4 \alpha + \lambda_n^2 \beta} - 2e^{\lambda_n^4 \alpha - \lambda_n^2 \beta} + 2e^{\lambda_n^4 \alpha} + \lambda_n^2 e^{-\lambda_n^2 \beta} + e^{-\lambda_n^2 \beta} - \lambda_n^2 e^{\lambda_n^2 \beta} + e^{\lambda_n^2 \beta} \right] = \frac{1}{2\lambda_n^2} \Delta_n$$

где,

$$\Delta_k = \left[-2e^{\lambda_k^4 \alpha + \lambda_k^2 \beta} - 2e^{\lambda_k^4 \alpha - \lambda_k^2 \beta} + 2e^{\lambda_k^4 \alpha} + \lambda_k^2 e^{-\lambda_k^2 \beta} + e^{-\lambda_k^2 \beta} - \lambda_k^2 e^{\lambda_k^2 \beta} + e^{\lambda_k^2 \beta} \right];$$

$$\Delta b_k = \frac{1}{2\lambda_k^2} \left[\psi_k \cdot \left(2\lambda_k^2 e^{-\lambda_k^2 \beta} - \lambda_k^2 + 1 \right) - \varphi_k \left(2e^{\lambda_k^4 \alpha} + \lambda_k^2 - 1 \right) \right];$$

$$\Delta c_k = \frac{1}{2\lambda_k^2} \cdot \left[\varphi_k \left(\lambda_k^2 + 1 - 2e^{\lambda_k^4 \alpha} \right) - \psi_k \left(2\lambda_k^2 e^{\lambda_k^2 \beta} - \lambda_k^2 - 1 \right) \right],$$

здесь, $b_k = \frac{\Delta b_k}{\Delta_k}$, $c_k = \frac{\Delta c_k}{\Delta_k}$. Подставляя эти значения имеем:

$$u_k(t) = \begin{cases} u_k^-(t) \Delta_k = \Delta b_k \left(\lambda_k^2 + 1 - 2e^{-\lambda_k^4 t} \right) + \Delta c_k \left(2e^{-\lambda_k^4 t} + \lambda_k^2 - 1 \right), \\ u_k^+(t) \Delta_k = \Delta b_k \left(2\lambda_k^2 e^{\lambda_k^2 t} - \lambda_k^2 - 1 \right) + \Delta c_k \left(2\lambda_k^2 e^{-\lambda_k^2 t} - \lambda_k^2 + 1 \right). \end{cases}$$

Литература

1. Аманов Д. Разрешимость и спектральные свойства краевых задач для уравнений четного порядка: автореф. дис. ... д-ра физ.-матем. наук. Ташкент: АН РУз, 2019. 64 с.
2. Денисов А.М. Введение в теорию обратных задач. М.:Изд-во МГУ, 1994. 208 с.
3. Джураев Т.Д., Сопуев А. К теории дифференциальных уравнений в частных производных четвертого порядка. Ташкент: Фан, 2000. 144 с.
4. Иванов В. К., Васин В. В., Танина В. П. Теория линейных некорректных задач и ее приложения. Москва, Наука, 1978.
5. Кабанихин С.И. Обратные и некорректные задачи. Новосибирск: Сибирское научное издательство, 2009. 457 с.

6. Лаврентьев М.М. Об одной обратной задаче для волнового уравнения. Доклады Академии наук, СССР, 157(3), 1964, -С. 520-521.

7. Лаврентьев М. М., Романов В. Г., Шишатский С. Т. Некорректные задачи математической физики и анализа. Москва, Наука, 1980.

8. Романов В.Г. Обратные задачи математической физики. М.: Наука, 1984. 264 с.

9. Сабитов К.Б., Сафин Э.М. Обратная задача для уравнения смешанного параболо-гиперболического типа в прямоугольной области / Известия ВУЗов, Математика №4, 2010. Стр. 55-62.

10. Тихонов А.Н. Об устойчивости обратных задач. Доклады Академии наук СССР, 39(4), 1943, -С. 195-198.

INTELLEKTUAL MULK HUQUQI VA UNING JAMIYAT BILAN BOG'LIQ HUQUQIY TOMONLARI

*Primov Sunnatillo Elmurod o'g'li
O'zbekiston Milliy universiteti talabasi*

Mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish , undan foydalanish va uni tasarruf etish , shuningdek o'zining mulk huquqini , kim tomonidan bo'lmasin , har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidir.¹⁰⁷ Darhaqiqat , insoniyat yashashi va hayot kechirishi davomida bir qator mulkiy huquqlarga egalik qiladi. Tarixan olib qaraganimizda ham mazkur masala hamisha insonlar hayotida asosiy o'rin egallab kelgan. Shuningdek , ayni paytda “mulk” so'zining o'ziga ta'rif beradigan bo'lsak , mulk – moddiy va ma'naviy ne'matlarning muayyan kishilar egaligida bo'lishi va ular tomonidan o'zlashtirilishidir. Mulkka egalik huquqi hamda mulk obyektlariga egalik , ularni bo'lish , taqsimlash bo'yicha kishilar o'rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlardir. Ushbu mulkka egalik qiluvchi shaxslar , ya'ni mulkdorlar esa davlat , fuqarolar va yuridik shaxslardir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek , mulk bu moddiy va ma'naviy ne'matlar hisoblanib , ayni paytda intellektual mulk ma'naviy ne'mat ko'rinishida namoyon bo'ladigan mulkdir.

Mulk huquqi har doim nafaqat fuqarolik huquqining balki har qanday tizimning eng asosiy markaziy institutlaridan biri hisoblanadi. Intellekt so'ziga to'xtaladigan bo'lsak , bu so'z lotincha “intellectus” so'zidan kelib chiqqan bo'lib , insonning aqli, ongi , fikrlash qobiliyatini bildiradi. Masalan , O'zbekistonda

¹⁰⁷ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharx. 1-jild. Adliya vazirligi. –T.: “Vektor press” 2010. 400-b.

intellektual mulk sohasidagi eng taniqli olimlardan biri , professor O. Oqyulov ham , o'z navbatida , "Intellektual mulk huquqi fuqarolik huquqining o'ziga xos kichik sohasini tashkil etadi",¹⁰⁸ –deb ta'kidlagan .

Intellektual mulk –bu shaxsning o'z aqliy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yaratuvchanlik natijasiga bo'lgan huquqi.

Intellektual mulk huquqi esa insonning ijod qilishi natijasida badiiy asar , pyesa, qo'shiq , ixtiro va boshqalarni yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq masalalarni tartibga solish bilan bog'liq munosabatlarni qamrab oluvchi huquq sohasi va ushbu tartibga soluvchi munosabatlarni o'z ichiga oluvchi huquqiy normalar yig'indisi hisoblanadi.

Shunday ekan, intellektual mulk ijodiy jarayon natijasida yuzaga keladi. Mana shu ijodiy jarayonning obyektlari quyidagilarda o'z aksini topadi:

- adabiy, badiiy va ilmiy asarlar ;
- artistlarning ijrochilik faoliyati ;
- ovoz yozuvlari ;
- radio va televizion ko'rsatuvlar ;
- ixtirolar ;
- sanoat namunalari ;
- tovar belgilari ;
- firma nomlari va hokazolar.

Intellektual mulk huquqi tushunchasining tarixiy kelib chiqishiga nazar tashlaydigan bo'lsak , bu masalalarga eng qadimgi Rim huquqida , undan keyinroq vujudga kelgan musulmon huquqida ham alohida o'rin ajratilgan.

XVIII asr oxirlarida intellektual mulk huquqini izohlovchi ilk ilmiy nazariya – tabiiy huquqlar nazariyasi vujudga keldi. Ushbu nazariya asosida ijodkor shaxslarning huquqlari inson va fuqaroning tabiiy huquqlarining ajralmas qismidir , uning ma'naviy ijodining natijasidir , degan asosli xulosa yotadi.

Keyinchalik , proprietar nazariyasi vujudga keldi va XIX asrda keng tarqaldi. Uning asosida insonning har qanday mehnati mulk yaratadi , demak ijodkor inson aqliy mehnati ixtirolar , asarlar va boshqa nomoddiy obyektlarni yaratishga qodir , degan g'oya mujassam bo'ldi.

Intellektual mulk huquqi tabiatini izohlashda intellektual huquqlar nazariyasi ham o'ziga xos o'rin egalladi.1979-yilda belgiyalik yurist E.Pikar "intellektual huquqlar" iborasini muomalaga kiritdi.

Shuningdek intellektual huquqlar borasida hozirda keng qo'llanilayotgan nazariya uning qo'shaloq negizlarga ega ekanligiga asoslanadi. Ushbu qo'shaloq asos mulkiy va shaxsiy huquqlardan iborat. Buni isbotlab berishda fransuz olimi

¹⁰⁸ O.Oqyulov.Intellektual mulk huquqi. I.Mo'minov nomidagi falsafa va huquq instituti – T.:Toshkent, 2005. 6-b

R.Dyumaning xizmati katta. Ushbu nazariyaning mazmuni dunyoning ko'pgina mamlakatlari intellektual mulkka bag'ishlangan normalarida o'z ifodasini topgan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining IV bo'limi ham shular jumlasiga kiradi.

Insonning aqliy, ijodiy faoliyati mahsuli hamisha qimmatbaho, e'zozli va qiymatli bo'ladi. Shuning uchun ham intellektual mulk huquqiga barcha zamonlarda hamda barcha mamlakatlarda alohida ahamiyat qaratiladi. Intellektual mulkni himoya qilish bo'yicha qator xalqaro tizimlar ishlab chiqilgani va joriy etilganligi ham buni isbotlaydi.

Intellektual mulkni himoya qilishda xalqaro miqyosda ikkita xalqaro tashkilot hamda bir qator regional tashkilotlar faoliyat olib bormoqda. Ikkita asosiy xalqaro tashkilot sifatida Butunjahon Intellektual Mulk Agentligi (BIMT) va Jahon Savdo Tashkiloti (JST) intellektual mulkni himoya qilish va tartibga solish vazifasini amalga oshirmoqda. Regional tashkilotlardan eng muhimlaridan biri bu Yevropa Ittifoqidir. Ushbu tashkilotlar xalqaro miqyosda intellektual mulkni muxofaza qilishda juda muhim funksiyalarni bajarib kelmoqda.

BIMT – intellektual mulk siyosati, hamkorligi, xizmat va ma'lumot bilan ta'minlovchi global forumdir. Bu tashkilot BIMT ning o'zini o'zi moliyalovchi tashkiloti bo'lib, hozirgi kunda 192 a'zodan iborat. O'zbekiston BIMT ga, ushbu tashkilot boshqarib kelayotgan va milliy intellektual mulk tizimini rivojlantirishga katta hissa qo'shayotgan xalqaro shartnomalar va kelishuvlarga 1991-yildan buyon a'zo bo'lib kelmoqda. Jumladan bulardan biri 1996-yil 20-dekabrda qabul qilingan " BIMT ning mualliflik huquqi bo'yicha Jeneva shartnomasi"¹⁰⁹ dir.

Shu bilan bir qatorda Yevroosiyo Patent tizimining ishlashida hamda patentlarni berishda ma'muriy vazifalarni bajaruvchi xalqaro tashkilot sifatida ajralib turadi.

Binobarin, intellektual mulkning xalqaro shartnomalarini obyektiga ko'ra turlicha tasniflash mumkin:

1. Intellektual mulkning asosiy xalqaro tashkilotlari
2. Asosiy xalqaro mualliflik shartnomalari
3. Turdosh huquqlar sohasidagi asosiy xalqaro shartnomalar
4. Sanoat mulki sohasidagi asosiy xalqaro shartnomalar
5. Xalqaro patent huquqining asosiy shartnomalari
6. Mintaqaviy kelishuvlar
7. Imkoniyati cheklanganlarning huquqlarini muxofaza qiluvchi shartnomalar¹¹⁰

¹⁰⁹ BIMT ning mualliflik huquqi bo'yicha Jeneva shartnomasi. 1996-yil 20-dekabr

¹¹⁰ Intellektual mulk. Darslik. Mas'ul muharrirlar: O.Oqyulov, N.E.Gofurova –T.:TDYU nashriyati, 2019. 98-b

Muallifning o'ziga tegishli nomoddiy mulk huquqini muxofaza qilishida uning patentga ega bo'lishi eng muhim omillardan biri sanaladi. Patent huquqini obyektiv ma'noda ham, subyektiv ma'noda ham ko'rib chiqish mumkin. Obyektiv ma'noda –patent huquqi ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq holda vujudga keluvchi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar majmuidir. Subyektiv ma'noda esa patent huquqi – ixtiro, foydali model yoki sanoat namunasiga bo'lgan muayyan subyektning shaxsiy nomulkiy yoki mulkiy huquqidir.

Patent –bu vakolat berilgan davlat organi tomonidan davlat nomidan beriladigan rasmiy muxofaza qilingan hujjatdir. O'zbekiston Respublikasida bu vazifa intellektual mulk agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

Mamlakatimiz o'z oldiga yuksak huquqiy demokratik davlat qurishdek, oliy maqsadni qo'yar ekan, intellektual mulkning ishonchli huquqiy himoyasini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Intellektual mulk bilan bog'liq munosabatlar batafsil Fuqarolik kodeksi 2-qismining 4-bo'limi, 59-bobida¹¹¹ to'liq yoritib berilgan. Mazkur huquq fuqarolik huquqimizda umumiy tushunchani tashkil etadi. U quyidagi institutlarga bo'linadi:

1. Mualliflik huquqi
2. Patent huquqi
3. Tijorat siri huquqi

Ushbu huquqiy institutlar yuzasidan o'z navbatida turli qonunchilik hujjatlari qabul qilingan:

- “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida” ;
- “Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'rosida”gi ;
- “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida” ;
- “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida” ;
- “Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muxofaza qilish to'g'risida” ;
- “Raqobat to'g'risida” ;
- “Tijorat siri to'g'risida” .

Bundan tashqari mazkur sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida javobgarlik choralari yanada kuchaytirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning XIII bobida intellektual mulk huquqi bilan bog'liq munosabatlarni buzish yuzasidan javobgarlik masalalari batafsil yoritilgan.

¹¹¹ <http://lex.uz//ru/dosc/-180552> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism)

Darhaqiqat , intellektual mulk huquqi huquqshunoslikning muhim tarmoqlaridan biri sifatida bugungi kunda mamlakatimizda ham rivojlanib bormoqda. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, intellektual mulk huquqi va u bilan bog'liq munosabatlarning mustahkam huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilgan. Ammo ayni paytda , mamlakatimizda bu sohada isloh qilinishi , tuzatilishi kerak bo'lgan kamchiliklar yo'q deb ham ayta olmaymiz. Jumladan , bu borada hali hanuz xalqimizning to'g'ri yo'naltirilgan dunyoqarashi shakllanmagan. Badiiy adabiyot , san'at , ilmiy ishlar namunalari , tovar belgilari , firma nomlari va bu kabi boshqa intellektual mulk obyektlariga hurmat masalasida sustkashlik yuz bermoqda. Sanoat , ishlab chiqarish sohasida ham bu kabi huquqbuzarliklarga ko'p bora yo'l qo'yilayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Shu munosabat bilan milliy bozorda sotilayotgan tovarlar , shou-biznes xizmatlari ,dasturiy ta'minot mahsulotlari intellektual mulk normalari asosida muomalada bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.Biroq afsuski litsenziyalangan legal mahsulotlar bilan soxtalashtirilgan qaroqchilik mahsulotlari o'rtasidagi nisbat hamon kishini tashvishga soladi.To'g'ri litsenziyalangan mahsulotlar nisbatan qimmat , shu sababli ham kishilar ko'p holatlarda qaroqchilik mahsulotlarini sotib oladilar va bunda ular hatto o'zlari qilayotgan qilmishlari mohiyatini o'ylab ham o'tirmaydilar. Eng daxshatli fojea shundaki, bunday holatga nisbatan "hamma shunday qilyapti" , "nega arzon turganda qimmatini olishim kerak" , "bunda hech qanday huquqbuzarlik qilmadim" kabi iddaolar aytiladi. Intellektual mulk bo'yicha huquq egalarning qonuniy manfaatlarini mensimaslik , hisobga olmaslik ko'pchilik uchun oddiy holat bo'lib qolishi ushbu muammoni chuqur ildizga ega ekanligidan dalolat beradi. Masalan , "Versace" brendi ostidagi atirni bizning bozorlarimizda o'n bir ming yoki o'n sakkiz ming so'mga ham sotib olish mumkin , vaholanki bu atir brendi xorijda eng kamida 100 \$ ga baholanadi. Bu brend nomidan foydalanib uni bevosita obro'sizlantirish demakdir , bu kabi misollar kundalik hayotimizda ko'p uchraydi. Bu shuni ko'rsatadiki , raqobatni obro'sizlantirishning oldini olish borasidagi qonunlar va sohani taartibga solish yuzasidan joriy qonunlar va qonunosti hujjatlar yetarli darajada yaxshi ishlayapti.

Mazkur sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish hamda intellektual mulkning muqaddas va daxlsiz ekanligi kundalik hayotimizning ajralmas bir qadriyatga aylantirish uchun quyidagi ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirishimiz maqsadga muvofiqdir:

- birinchidan , aholida intellektual mulkka nisbatan hurmat va xayrixohlik bilan qarash ko'nikmasini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratish ;
- ikkinchidan , intellektual mulk egalari o'z huquqlarini himoya qilish , bu borada boshqa shaxslar tomonidan sodir etilgan har qanday huquqbuzarlikka nisbatan murosasizlik bilan munosabatda bo'lish psixologiyasini shakllantirish ;

– uchinchidan , ijodkor ziyolilarning katta qismida ko'zga tashlanayotgan huquqiy nigilizm holati , ya'ni bu boradagi qonun normalariga bepisand qarab , plagiatsga yo'l qo'yishi kabi huquqbuzarliklarni oldini olish va bu borada profilaktika ishlarini samarali olib borish;

– to'rtinchidan , intellektual mulk huquqi va u bilan bog'liq munosabatlar sohasidagi ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va amaliyotga keng joriy etish hamda ularni ommabop risolalar , darsliklar , bukletlar va ilmiy-ommabop maqolalar tarzida yanada keng targ'ib qilish .

Haqiqatdan ham , intellektual mulk huquqi insonning mashaqqatli ijodiy mehnati samarasi o'laroq , insoniyatga , keng ommaga bilim olishga , moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilarkan , u qimmatbaho va e'zozli mulkdir. Moddiy ashyoga nisbatan mulk huquqi qanday muqaddas va daxlsiz bo'lsa , ilmiy g'oyaga nisbatan , asarga nisbatan huquqlar ham xuddi shunday muqaddas va daxlsiz bo'lmog'i lozim hamda bu obyektlarga nisbatan oqilona va hurmat bilan munosabatda bo'lish , bu boradagi huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik va ularning oldini olish asosiy insoniy fazilatlarimizdan biriga aylanmog'i darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharx. 1-jild. Adliya vazirligi. –T.: “Vektor press” 2010. 400-b.

2.O.Oqyulov.Intellektual mulk huquqi. I.Mo'minov nomidagi falsafa va huquq instituti – T.:Toshkent, 2005. 6-b

3. BIMT ning mualliflik huquqi bo'yicha Jeneva shartnomasi.1996-yil 20-dekabr

4. Intellektual mulk. Darslik.Mas'ul muharrirlar: O.Oqyulov, N.E.Gofurova – T.:TDYU nashriyati , 2019. 98-b

5. <http://lex.uz//ru/dosc/-180552> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism)

OLIY TA'LIMDA OPTIKA DARSLARIDA ZELMEYER NAZARIYASINI TUSHUNTIRISH ORQALI TALABALARNI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Po'latova Nozimaxon Sobidxon qizi
NamDU 1-bosqich doktoranti

Jamiyatimizni rivojlantirish bilan mexnat bozorining o'zgarib borishi, kadrlar sonini ortishi, axborot muhiti globallashi ta'sirida oliy ta'limda bitiruvchilarga qo'yilayotgan talablar murakkablashib boraveradi. Shu nuqtai

nazardan, zamonaviy oliy ta'lim o'z faoliyatini tashkil etishda nafaqat bugungi davr talablari ham zarur. Shu bois talabalarga bilim berish bilan birga, ularda mustaqillik, tashabbuskorlik, hamkorlik, vaziyatni real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish, tez kirishuvchanlik xususiyatlarini shakllantirib, har qanday o'zgarishlarga konstruktiv moslasha olish qobiliyatini rivojlantirib borish lozim. Oldimizda turgan bu dolzarb vazifa mustaqil hayotiy pozitsiya, ijtimoiy faollik, yuksak aqliy va ma'naviy salohiyatni shakllantirishga qaratilgan shaxsga yo'naltirilgan ta'limni hayotda yanada kengroq tatbiq etishni taqozo etadi. Buning uchun ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan har bir pedagogning kompetensiyasiga ega bo'lishi muhimdir. Kompetensiya-olingan nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini amaliyotda qo'llay olish qobiliyati va layoqati tushuniladi. Demak, kompetensiyaviy yondashuv bilim, ko'nikma va malakani inkor etmagan holda, egallagan bilimlarni amalda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi.

Oliy ta'limda bo'lajak fizika fani o'qituvchilariga yorug'lik dispersiyasi mavzusini tushuntirishda sindirish ko'rsatkichini qaysi parametrlarga bog'liqligini tushuntirish muhim hisoblanadi.

Elektromagnit nazariyaga ko'ra, har qanday muhitda yorug'lik tezligi uning dielektrik ϵ va μ magnit o'tkazuvchanligi bilan belgilanadi

$$v = \frac{c}{\sqrt{\epsilon\mu}} \quad (1)$$

(4) va (7) formulalarni taqqoslashdan kelib chiqadiki,

$$n = \sqrt{\epsilon\mu} \quad (2)$$

Shunday qilib, muhitning sinishi ko'rsatkichi uning elektr (ϵ) va (μ) magnit xususiyatlari bilan belgilanadi. Ko'pgina dielektriklar uchun μ birga yaqin deb hisoblasak, unda biz yozishimiz mumkin

$$n = \sqrt{\epsilon} \quad (3)$$

Bir qator gazsimon va suyuq dielektriklar uchun bu nisbat juda yaxshi bajarilgan. Bularga azot, vodorod, karbonat angidrid, geliy, benzol va boshqalar kiradi. Biroq, boshqa ko'plab muhitlar uchun, masalan, shisha, suv, spirtli ichimliklar uchun ϵ n^2 dan sezilarli darajada ko'proq. Shunday qilib, suv uchun $n^2 = 1.75$, statik holatda $\epsilon = 81$. Bundan tashqari, tajriba shuni ko'rsatadiki, n yorug'likning to'lqin uzunligiga bog'liq, ya'ni yorug'likning tarqalishi kuzatiladi. Sinishi ko'rsatkichining to'lqin uzunligiga bog'liqligi, (3) dan ko'rinib turibdiki, n ni moddaning doimiysi sifatida ifodalovchi Maksvellning elektromagnit nazariyasi tomonidan bashorat qilinmaydi.

Maksvellning elektromagnit nazariyasi nuqtai nazaridan yorug'lik dispersiyasini tushuntirishdagi qiyinchiliklar Lorents nazariyasi tomonidan yo'q qilinadi. Lorents nazariyasida dispersiya elektromagnit to'lqinlarning moddaning

bir qismi bo'lgan va to'liqning o'zgaruvchan elektromagnit maydonida majburiy tebranishlarni amalga oshiradigan zaryadlangan zarralar bilan o'zaro ta'siri natijasida ko'rib chiqiladi.

Birinchi yaqinlashishda majburiy tebranishlar faqat yadro bilan eng zaif bog'langan tashqi elektronlar - optik elektronlar tomonidan amalga oshiriladi deb taxmin qilish mumkin. Oddiylik uchun faqat bitta optik elektronning tebranishlarini ko'rib chiqamiz.

Elektron uchun Nyuton harakat tenglamasini yozamiz:

$$\frac{d^2r}{dt^2} = F_{el} + F_{qar} + F_{maj} \quad (4)$$

bu yerda m-elektronning massasi.

Optik elektron quyidagi kuchlar ta'sirida bo'ladi:

a) qaytaruvchi kvazielastik kuch, $F_{el} = kr$ bu erda k- elastiklik koeffitsienti

b) qarshilik kuchlari $F_{qar} = -g \frac{dr}{dt}$ bu yerda g qarshilik koeffitsient;

c) $F_{maj} = eE$ yon tomondan elektronga ta'sir qiluvchi majburiy kuch E kuchlanishi bilan elektr o'zgaruvchan maydon.

Yorug'lik to'liqining maydon kuchi $E = E_0 \sin \omega t$, bu erda E_0 -amplituda, ω tsiklik chastota.

(4) tenglamani standart shaklga keltiramiz:

$$\frac{d^2r}{dt^2} + \frac{g}{m} \frac{dr}{dt} + \frac{kr}{m} = \frac{e}{m} E_0 \sin \omega t \quad (5)$$

$$\frac{d^2r}{dt^2} + 2y \frac{dr}{dt} + \omega_0^2 r = \frac{e}{m} E_0 \sin \omega t \quad (6)$$

Bu yerda $y = \frac{g}{2m}$ -susayish koeffitsienti, $\omega_0^2 = \frac{k}{m}$ elektronning xususiy tebranishining chastotasi.

Oddiy qilib aytganda qarshilik kuchini e'tiborsiz qoldirish mumkin deb taxmin qiling, ya'ni.

$g=0$.

$$\frac{d^2r}{dt^2} + \omega_0^2 r = \frac{e}{m} E_0 \sin \omega t \quad (7)$$

Ushbu tenglamaning yechimi quyidagicha bo'ladi

$$r = r_0 \sin \omega t \quad (8)$$

Bu yerda $r_0 = e \frac{E_0}{\omega_0^2 - \omega^2}$ Tavsiya etilgan echimning to'g'riligini (7) tenglamaga almashtirish orqali tekshirish oson.

Elektronning muvozanat holatidan siljishi natijasida atom (molekula) elektr dipol momentini oladi:

$$p = er = \frac{e^2 E}{\omega_0^2 - \omega^2} \quad (8)$$

Agar muhit birlik hajmida bitta turning n atomlari bo'lsa va ularning har birida faqat bitta elektron siljishi mumkin bo'lsa, u holda hajm birligining elektr momenti yoki P moddasining qutblanishi teng bo'ladi

$$P = Np = Ner = \frac{Ne^2 E_0 \sin \omega t}{\omega_0^2 - \omega^2} = \frac{NEe^2}{m(\omega_0^2 - \omega^2)} \quad (9)$$

Moddaning dielektrik o'tkazuvchanligi \mathcal{E} ga teng

$$\mathcal{E} = 1 + \mathfrak{e} = 1 + \frac{P}{\epsilon_0 E} \quad (10)$$

bu erda \mathfrak{e} -moddaning dielektrik sezuvchanligi, ϵ_0 -vakuumning dielektrik o'tkazuvchanligi (elektr doimiysi).

Shuning uchun (9), (16) ni hisobga olgan holda biz quyidagilarni olamiz:

$$n^2 = \mathcal{E} = 1 + \frac{Ne^2}{\epsilon_0 m(\omega_0^2 - \omega^2)} \quad (11)$$

- **Zelmeyer formulasi.** (18) ifodadan ko'rinib turibdiki, sinish ko'rsatkichi to'liqning elektromagnit maydonining ω chastotasiga bog'liq.

Agar n birga yaqin bo'lsa, u holda

$$n = 1 + \frac{Ne^2}{2m\epsilon_0(\omega_0^2 - \omega^2)} \quad (12)$$


va (18) formulasi soddalashtirilgan

Sinishi ko'rsatkichining grafigi n chastotaga ω (**dispersiya egrichizig'i**) 2-rasmda keltirilgan. Past chastotalarda ($\omega \ll \omega_0$):

$$n = 1 + \frac{Ne^2}{2m\epsilon_0\omega_0^2} = const \quad (13)$$

ya'ni juda past chastotalarda sinish ko'rsatkichi deyarli doimiy (statik qiymat), so'ngra ω (**normal dispersiya**, nuqta egri) o'sishi bilan asta-sekin ortadi. $\omega = \omega_0$ da sinish ko'rsatkichi $n \rightarrow \infty$. Yuqori chastotalarda ($\omega \gg \omega_0$) sinish ko'rsatkichi birga intiladi, kamroq qoladi, chunki (12) yig'indisidagi ikkinchi yig'indi manfiy bo'ladi.

Sinishi ko'rsatkichining ∞ ga aylanishi fizik ma'noga ega emas va qarshilik yo'qligi haqidagi soddalashtirilgan taxmin natijasida paydo bo'ldi ($g=0$). Agar bu qarshilikni hisobga olsangiz, unda egri chiziq boshqacha bo'ladi (rasm. 2, qattiq egri). MN soha-**anomal dispersiya** sohasi, bu yerda ω chastota oshgan sari n kamaya boradi. **Anomal dispersiya hodisasi yorug'likning yutilishi bilan chambarchas bog'liq: har qanday hududda g'ayritabiiy dispersiyani keltirib chiqaradigan moddalar bu sohadagi yorug'likni kuchli o'zlashtiradi.**



Talabalar dispersiya hodisasini mohiyatini to'liq tushinishlari uchun Matlab dasturida matematik modellashtirildi. Zelmeyer formulasi bo'yicha $e=1.6 \cdot 10^{-19}$ Cl, $\pi=3.14$, $N=(1)$, $e=1.6 \cdot 10^{-19}$ Cl, $m=9.1 \cdot 10^{-31}$ kg, $\omega_0=0.35 \cdot 10^{16}$, $w=0.28 \cdot 10^{16}$ dan $w=0.40 \cdot 10^{16}$ gacha, qadam 0.01 qiymatlar uchun sindirish ko'rsatkichini unga tushayotgan yorug'lik to'lqinlari chastotasiga bog'lanishini nazariy hisoblandi. Olingan natijalarga ko'ra sindirish ko'rsatkichini unga tushayotgan yorug'lik to'lqinlari chastotasiga bog'lanishini grafigi chizildi va bu natija adabiyotlarda keltirilgan grafik bilan ustma ust tushishi ko'rsatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Lansberg.G.S. Optika. Uchebnoe posobiye dlya vuzob- 6-ye izdatelstva, stereot. -M.: FIZMATLIT, 2003-848 c.-ISBN 5-9221-0414-8.
2. O'lmasova M.H. Optika, atom va yadro fizikasi 3-kitob. Cho'lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi .Toshkent-2010
3. Sivuhin.D.V. Obshiy kurs fiziki-T.4.Optika.-Izd.3-M.:Fizmatlit,2005
4. Trofimova T.I Kurs fiziki uchebnoye posobie dlya vuzov.-M:Akademiya,2006.
5. Savelyev I.V. Kurs obshey fiziki: ucheb.posobiye dlya studentov vuzov v 3 t:T.2 Elektrichestvo i magnetism.volni. Optika -Lan,2011.

ҲОФИЗ РЎЗИБОЙ МАШРАБ ИЖОДИДА ОДОБ-АХЛОҚ МАСАЛАСИ (XIX АСР ИККИНЧИ ЯРМИ - XX АСР БОШИ ҚАШҚАДАРЁ АДАБИЙ ҲАЁТИ)

Равшанов Олим
тадқиқотчи

Ўзбек адабиёти диёримизнинг барча ҳудудларида азалдан воқе бўлиб келган ижодий муҳитларнинг умумий раvнақи тажассумидир. Шу нуқтаи назардан, XIX асрнинг иккинчи ярми-XX аср боши Қашқадарё воҳасида барқарор бўлган адабий ҳаёт ва бадиият ривожига ҳисса бўлиб қўшилган

назмий ва насрий асарларни мундарижага киритмасдан, мумтоз сўз санъатининг тараққиётини, ғоявий – бадий хусусиятларини, миллий ўзига хослик жиҳатларини ўрганиш, аҳамиятини белгилаш мукамал бўлмайди. Ҳофиз Рўзибой Охунд Машраби Соний исми шарифи адабиётшунослар ва мухлисларга ўтган асрнинг бошларидан яхши маълум эди. Мустабид Совет тузуми ўрнатилгунга қадар Ҳофиз Рўзибой Охунд XVII асрда яшаб ижод қилган машҳур шоир Бобораҳим Машрабнинг издоши, унинг ижоддаги давомчиси сифатида қаралар эди. “Машраби Соний” – тахаллуси (Иккинчи Машраб) шу издошлик ва давомчиликнинг эътирофидир.

Мустабид Совет тузуми даврида коммунистик мафкура ўтмиш адабий меросининг ўз аршинига тўғри келмайдиган қисмини “реакцион” деб ҳисоблаб, муттасил қоралаб келган эди. Ўтган асрнинг 60-йилларида Ҳофиз Рўзибой Машраби Соний унутилишга маҳкум этилади. Шоир ҳаёти ва ижодини етарли ўрганмаслик оқибатида, унинг туғилган жойи, асарлари ҳақида асосли гаплар айтилмади.

Пўлатхон домла Қайюмов Ҳофиз Рўзибойнинг Қаршидан эканлиги биринчилардан бўлиб айтган эди. Бунга етарли эътибор берилмади ва унинг Намангандан, Ўзгандан, ҳатто, Ҳисордан эканлиги тўқилди. Ҳофиз Рўзибой Машраби Сонийнинг “Дариф” номли 206 мисрали манзумасида ўзининг Қаршида таҳсил олиши, устозлари ҳақида сўз юритилади. Шайх Сиддиқ ва ўғли Абдураҳмон Маҳдум Самарқанд Даҳбедидан Қаршига, Хонакоҳ масжидида имомлик ва мударрислик қилганлар:

Бор эди шаб то сахар бедор ҳам покиза хў,
Шайх Сиддиқ эрди оти, нисбати эрди неку,
Ул азиз Даҳбеддин кўчти, қилиб Қаршига рў,
Зийнати шаръи тариқат масжид ичра шаръи жў,
Абдулраҳмон Маҳдум оти, қуддусуллоҳ руҳи,
Азми уқбо айлади, торихин эшитинг жустужў –
Минг икки юз олтмиш¹ эрдиким, фано бўлди, дариф.

Хонакоҳ масжиди ёнидаги алоҳида дахмаларда Шайх Сиддиқ ва ўғли Абдураҳмон Маҳдумнинг хоклари бор. Ҳофиз Рўзибой ёшлигида ана шу ота - ўғил машойихлардан таълим олган. Кейинчалик мадраса таҳсилани Бухорода давом эттиради. “Дариф” шеъри 1872-1873 йилларда ёзилган. Шу йилларда Бухоро амирлиги Чор Россиясига вассал бўлиб қолган, сулҳга кўра, русларнинг Бухорода, Қаршида юриши, савдо-сотик билан шуғулланиши, ҳудудларни ўрганишига йўл қўйиларди. Чор Россияси корчалонлари аста-секин амирлик ҳудудларида ўрнашиб, Когон, Карки

¹ 1844 йил.

каби шаҳарларда гавжум яшашга киришадилар. Ичкиликбозлик, таъма, фаҳш, чекиш каби ёмон иллатлар маҳаллий халққа ҳам таъсирини кўрсата бошлайди. Ҳофиз Рўзибой “Дариғ” шеърӣ асариди бу иллатларнинг пайдо бўлиши, мусулмончиликка ёт бўлган одатларнинг кириб келиши истилочилар ахлоқи билан (“Они учун аввали келди ўрус, охирда соч”) боғлиқ эканлигини таъкидлайди.

Ҳофиз Рўзибой Машраби Сонийнинг адабий мероси мураккаб тарихга эга. Шарқшунослик институти жамғармасида унга нисбат этиладиган 8 та кўлёзма мавжуд. Ҳофиз Рўзибой Машраби Соний ўз даврида замондошлари томонидан эътироф этилган, танилган ижодкор эди. Шоирнинг ижодида одоб-ахлоққа доир қарашлар алоҳида аҳамият касб этади. Одам туғилибдики, яхши тарбия кўрмаган бўлса, кибру ҳавога ружу қўйса можародан боши чиқмайди, кўз ёши тўкади. Оқил киши, шоир наздида, ҳеч қачон ёмонликни ҳавас қилмайди. Киши қадамни тўғри қўйса, у мақсудини топмай қолмайди. Жонига раҳми келмайдиганлар хато қилиб, жафо орттирадилар. Таъма талабида бўлганнинг оёғи тинмайди. Тунлар ором олиш ўрнига, изғийди, нимадир топсам, нимадир ўмарсам, дейди. Бежо босилган қадам пинҳон қол-майди. Панд-насихат, ҳикмат билан йўғрилган ғазаллар шоир ижодининг асосий беағи, дейиш мумкин. Одамларга яхшилик раво этиш, улар оғирини енгил қилиш доимо дуога, мақтовга сазовор фазилат ҳисобланади. Нафсни тийиш одам қадрини оширади, нафсга берилиш эса одам қадрини туширади.

Адаб - инсон бошидаги тождир. Одобли, ҳаёли, инсофли, билимли кишилар ҳаётда завол кўрмай, адашмай бахтли ҳаёт кечиради. Адабнинг зид-ди бўлган кибрга берилган инсон тубанлик сари кетади. Шу боисдан, кичикларнинг катталарни ҳурматсиз қилиши, манманликка берилиб, мажлис ичра юқори ўлтириши, айрим ёшларнинг ибосизлиги шоирни қаттиқ ран-житади.

Ҳофиз Рўзибой ҳаётӣ масалалар, халқ тақдирида ҳал қилувчи ўрин тутадиган воқеалар ҳақида тавозеъ ва нафислик билан фикр юритади. Баландпарвозлик унинг шеърӣяти учун ёт. Шоирнинг ҳар бир сўзи, жумла ва ибораси, мисралари ўқувчини мушоҳадага даъват этиб туради. “Қўйдилар элни иззага неча бир занғар чиқиб”, дейди шоир. Элни иззага қўйиш-сотқинлик ёки хиёнат бўлиши мумкин. Ҳофиз Рўзибой лирикасида тасав-вуф адабиётига хос бўлган покиза хулқ, шойиста ахлоқ, донишмандона панд-насихат талқини кўзга ташланиб туради. Шоир доимо ўрганишни, билишга интилишни, ҳақиқат талабгори бўлишни тарғиб этади:

Давомат яхшиларни суҳбатин орзу қилгин,
Талабгори ҳақиқат бўл, ҳамиша жўстужў қилгин.

Шоир умрининг охирги йилларини (Саййид амир Абдул Аҳад даврида) ўз она қишлоғи Қамашидида ўтказди.

Қашқадарё воҳасида XIX – XX асрларда қизғин фаолиятда бўлган адабий ҳаёт манзараси бор бисоти билан авлодларга юз очаётганлиги янги даврнинг муҳим самараларидан ҳисобланишга лойиқ.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. *Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қураимиз.* – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – Б. 309.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сон “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.

3. “Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг қашқадарёлик сайловчилар билан учрашувдаги нутқи”. 2020 йил, 11 октябрь.

4. Абдуллаев В.А. *Ўзбек адабиёти тарихи.* Т., 1964, 26-бет.

5. Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншунослик. Т. 2000.

6. Абдуллаев И. *Машраб ва «Мабдаи нур», «Ўзбекистон адабиёти ва санъати» газетаси,* 1991, 12-апрель, 15-сон.

7. Абдусаттор Жуманазар “Мабдаи нур” ва калаванинг икки учи. Т. 2014. Ziyouz.uz.

8. Маҳмуд Саъдий ва Аҳмад Отабоев. “Матншунослик давр талаблари даражасидами?” “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси. 2010 йил 27-сон.

ЁШ ТАДБИРКОРЛАРНИ ХУДУДИЙ-ИҚТИСОДИЙ МУАММОЛАРИ

Ражапова Эътибор Бекбергеновна

Урганч давлат университети тадқиқотчиси

Ёш тадбиркорларни худудий-иқтисодий муаммоларни ҳал этишга жалб қилиш, уларнинг иқтисодий креатив фаоллигидан фойдаланган ҳолда инновацион иқтисодий яратиш давлатимиз сиёсатининг муҳим, устувор йўналишларидан бири бўлиб қолмоқда. Бугун мамлакатимизда яратилаётган иш ўринларининг 90 % хусусий секторга тўғри келади. Уларда меҳнат қилаётганларнинг 80% зиёди 30 ёшгача бўлган кишилардир¹¹². Демак, ёшларни ўзига кенг жалб этаётган хусусий сектор

¹¹² Қаранг: www.21asr.uz.

мамлакатимиз ижтимоий-иқтисодий ривожланишини етакчи йўналишига айланиб бормоқда. Шу билан бирга, Ўзбекистонда аҳоли сонининг тез суръатлар билан ошиб бораётгани, ижтимоий ҳаётга ҳар йили ярим миллиондан зиёд янги куч, меҳнат ресурслари кириб келаётганини унутиб бўлмайди. Республикамиздаги ижтимоий-демографик ўсиш ижтимоий-иқтисодий соҳа олдига янги-янги муаммоларни қўяверади. Шунинг учун ҳам Республикамиз Президенти Ш.М.Мирзиёев 2021 йилни “Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили” деб эълон қилар экан, бу борада ёшларни иш билан банд этиш, уларни тадбиркорликка жалб қилишга оид, стратегик аҳамиятга эга, кейинги икки йилнинг ичида 60 та Фармон ва Қарорлар қабул қилди. Бу ўринда аввало Президентимизнинг Ёшлар тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва бандлигига кўмаклашиш, уларни ижтимоий ҳимоя қилиш ҳамда бўш вақтини мазмунли ташкил этишга оид қўшимча чора тадбирлар тўғрисида”¹¹³, Қарорини эслаш ўринлидир. Президент Фармонида ёшлар тадбиркорлигини қўллаб-қувватлашнинг аниқ механизмлари ва 2023 йилгача бўлган даврдаги вазифалар белгилаб берилган. Унда “Ёшлар дафтари”га критилган тадбиркорлик фаолиятини бошлаш учун бино ва иншоотларни ижарага олган ёш тадбиркорларга бир йиллик ижара харажатларининг 30 %, бироқ базавий ҳисоблаш миқдорининг 25 % бараваригача бўлган миқдор “Ёшлар дафтари” жамғармалари ҳисобидан компенсация қилиниши кўрсатилди. Иш берувчилар 25 ёшдан ошмаган ходимлари учун тўлаган ижтимоий солиқ суммаси давлат бюджетидан тўлиқ қайтиб бериладиган бўлди. Тадбиркорлик билан шуғулланишни истаган, “Ёшлар дафтари”га киритилган ёшларга асбоб-ускуналар ва меҳнат қуроллари сотиб олиш учун базавий ҳисоблаш миқдорининг 40 бараваридан кўп бўлмаган миқдорда “Ёшлар дафтари” жамғармалари ҳисобидан субсидиялар ажратилади. “Ёшлар дафтари”га киритилган ёшларнинг хорижий тиллар ва умумтаълим фанлари бўйича нодавлат таълим ташкилотларида ўқиш харажатларининг 50 % давлат бюджетидан компенсация қилинади. Фармонда ҳудудларнинг ижтимоий иқтисодий салоҳияти, ихтисослашуви ва бошқа хусусиятларини инобатга олиб, қиймати 33 миллион сўмгача бўлган тайёр бизнес-режалар банкини яратиш, барча туман ва шаҳарларда Ёшлар саноат ва тадбиркорлик зоналарини ташкил этиш каби вазифалар белгиланган. Унда ётоқхона билан қамраб олинмаган талабаларга ижара ҳақининг 50 % давлат бюджетидан (талабаларнинг 60 % гача) тўлаб бериш, ҳудудларда хотин-

¹¹³ 2021, 20 апрель)ги Фармони ва “Ёшлар саноат ва тадбиркорлик зоналари фаолиятини ташкил этиш ҳамда ёшларнинг тадбиркорликка оид ташаббусларини қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида” 2021, 21 апрель.

қизларни тадбиркорликка жалб этиш учун “Юз минг тадбиркор хотин қиз” лойҳасини амалга ошириш зарурлиги кўрсатилган. Инновацион изланишларни моддий рағбатлантириш мақсадида Ёшлар ишлари агентлигида юридик шахс мақомига эга Ёшларга оид давлат сиёсатини қўллаб-қувватлашг жамғармасини ташкил этиш мақсадга мувофиқ деб белгиланган¹¹⁴. Хуллас, Президентимиз Фармони ёш тадбиркорлар учун зарур барча шарт-шароитларни яратиш, улардаги креатив ва инновацион изланишларга кенг йўл очиб беришга қаратилган бўлиб, у моҳиятан ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий ривожланишини ёшлар билан боғлайди. Сўнгги 5 йил ичида 30 ёшгача бўлган тадбиркорлар сони 5 баробар кўпайиб, 500 мингдан ошди. Бу кўрсаткич ҳудудларда 186 та Ёшлар саноат ва тадбиркорлик зоналари ташкил этиш, жойларда “Бизнесга биринчи қадам” стартап лойиҳалари танловларини уюштириш имконини берди. Мазкур танловларда ғолиб топилган лойиҳанинг ҳар бирига маҳаллий бюджетдан 50 миллиондан сўм маблағ ажратилди. 2022 йилда бу мақсадда давлат бюджетидан 100 миллиард сўм маблағ ажратилди. Президентимиз деярли барча чиқишларида, Фармон ва Қарорларида асосий эътиборини ёшларни иш билан банд этиш, уларда тадбиркорлик кўникмалари ва билимларини шакллантириш, инновацион изланишларини қўллаб-қувватлашг масалаларига қаратади. “Бундан буён,--дейди у,--ҳар қандай инвестиция лойиҳасининг бош мақсади, аввало, ёшлар бандлиги масаласини ҳал этишга қаратилиши керак. Бу ҳамма жойда ўзгармас қоидага айланиши зарур. Ёшларни иш билан таъминлаш, зарур касб-ҳунарларга ўргатиш учун жойларда ҳокимлар ва сектор раҳбарлари масъул ва жавобгардир”¹¹⁵. Президентимизнинг инновацион хусусиятга эга Ёшлар саноат ва тадбиркорлик зоналарини ташкил этишга оид Қарорида қуйидагилар асосий вазифалар қилиб қўйилган:

ёшларнинг тадбиркорлик фаолиятини бошлаши ва юритишлари учун Ёшлар саноат зоналари ҳудудида ишлаб чиқариш майдонлари тақдим этиш орқали уларни тадбиркорлик фаолиятига кенг жалб этиш; ёшларга уларнинг саноат ва хизмат кўрсатиш йўналишидаги инновацион лойиҳалари, ташаббуслари ва ғоялари амалга оширилишида кўмаклашиш ва қулай шарт-шароитлар яратиш;

“стартаплар” ташкил этиш мақсадида бизнес инкубатор вазифаларини амалга ошириш, ёш тадбиркорлик субъектларининг фаолиятини барқарор ривожлантириш ва рақобатбардошлигини ошириш; ёшларга ўз

¹¹⁴Қаранг: “Янги Ўзбекистон”, 2021, 22 апрель.

¹¹⁵“Азму шижоатли ёшларимиз билан биргаликда Янги Ўзбекистонни бунёд этамиз”. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ёшлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси // «Янги Ўзбекистон», 2021, 1 июль.

инновацион ишланмаларини ишлаб чиқариш жараёнига жорий этиш ва натижаларини тижоратлаштириш, йирик саноат корхоналари билан кооперация алоқаларини ўрнатиш борасида амалий ёрдамлар кўрсатиш;

банд бўлмаган, шу жумладан, “Ёшлар дафтари”га киритилган ёшларни иш билан таъминлаш ва уларнинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий фаоллигини ошириш;

худудлардаги бўш бинолар ва ер майдонларини ёш тадбиркорларга лизинг асосида ажратиб бериш¹¹⁶.

Инновацион ривожланишнинг асосий кўрсаткичларидан, меъёрларидан бири рақамли иқтисодиётдир. Иқтисод фанлари доктори, профессор Н.Тўхлиевнинг таъкидлашича, “анъанавий иқтисодиёт асосан, иқтисодий ўсишни таъминласа, рақамли иқтисодиётнинг бош мақсади инновациялар, яъни иқтисодий ривожланишдир. Чунки унинг имкониятлари коинот каби чексиз. У ҳамма вақт янги маҳсулот ва хизматлар яратишга қодир...Инновацион ривожланган мамлакатлар илмий салоҳияти юқори ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш соҳаларининг устунлиги билан ажралиб туради...Уларда интеллектуал ўсишга, ижодий қобилиятини ривожлантиришга вақт ва имконият кўпаяди. Янги иқтисодиётда фан сиғими юқори, ресурс тежайдиган ва рақамли, ахборот технологияларига асосланган ишлаб чиқаришнинг аҳамияти ортади.

ЯЛПИ ХУДУДИЙ МАҲСУЛОТДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНГ УЛУШИНИ ОШИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ

Рахматуллаев Беҳзод Рахматуллаевич

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти мустақил изланувчиси

Иқтисодиёт ривожланиб бориши билан хизматларга бўлган умумий талаб барқарор ўсиб боради. Ҳозирги вақтда ушбу соҳа ҳисобига иқтисодий ўсиш суръатларини ошириш учун кўплаб имкониятлар мавжуд. Бироқ, унинг барқарор ривожланиши аҳолининг умумий турмуш даражасини оширишни талаб қилади. Бошқача қилиб айтганда, хизмат кўрсатиш соҳаси ялпи ҳудудий маҳсулот ўсиш суръатларидан анча юқори суръатларда ўсиши мумкин, аммо шу билан бирга маҳсулот ишлаб чиқариш ва экспортни ҳажмини ошириш зарур. Шунга қарамай, мамлакатимизда олиб борилаётган иқтисодий сиёсатимизда хизмат кўрсатиш соҳасининг меҳнат

¹¹⁶Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. "Ёшлар саноат ва тадбиркорлик зоналари фаолиятини ташкил этиш ҳамда "ёшларнинг тадбиркорликка од ташаббусларини қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида" // "Янги Ўзбекистон", 2021, 22 апрель.

ресурсларини масофавий иш билан таъминлашни таъминлайдиган ва яшаш қулайлиги даражаси ва аҳолининг ҳаёт сифатини оширишга қаратилган иқтисодиёт сектори сифатида аҳамиятининг ўсишига ёрдам берди. Аҳолига ижтимоий хизматларнинг янги сифатига қўйиладиган талаблар бозор иқтисодиёти ривожланишининг ижтимоий йўналтирилган моделига мувофиқ хизмат кўрсатиш соҳасини ислоҳ қилиш муаммоларини ҳал қилишнинг асосий вазифалари қаторига киради.

Иқтисодий ривожланишнинг постиндустриал босқичида хизмат кўрсатиш соҳаси тармоқларининг ялпи ички маҳсулотдаги ҳиссасини ортиб бориши билан ўзаро алоқадорликда замонавий хизматлар турларини кенгайтиб бораётганлигини кўришимиз мумкин¹¹⁷. Сервис тизимида ишлаб чиқариш (хизмат кўрсатиш)нинг муҳим омили бўлиб, билимлар ва ахборотлар алоҳида аҳамиятга эга бўлмоқда.

Маълумки, мамлакатимиз ижтимоий ва иқтисодий сиёсатида хизматлар соҳасини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Ҳудудларнинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқиб, алоҳида ёндашувлар асосида хизматлар соҳасини ривожлантириш, тадбиркорлик субъектларини молиявий ресурслар ва инфратузилма билан таъминлаш ҳамда уларга қулай солиқ режимини жорий этиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 27 январдаги ПҚ-104-сонли “Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори¹¹⁸ қарори қабул қилинди. Мазкур қарор билан, «Янги Ўзбекистон» массивларида хизмат кўрсатиш объектларини ташкил этишнинг мақсадли кўрсаткичлари тасдиқланиб, Самарқанд вилоятининг Булунғур ва Ургут тумани маҳаллаларида 121 та хизмат кўрстиш объектлари ташкил этилиши белгиланди. Шунингдек, вилоятда Самарқанд шаҳрида 5 та, Самарқанд туманида 1 та, Ургут туманида 1 та жами 10,3 гектар майдонга 7 та йирик савдо комплекслари ва ҳудудий савдо-логистика марказлари ташкил этилиши назарда тутилиб, фойдаланишга топширилмоқда.

Шуни таъкидлаш керакки, хизмат кўрсатиш соҳаси тармоқларининг ривожланишининг sanoat ишлаб чиқаришига нисбатан ўзига хос жиҳати, sanoat корхоналарида меҳнат унумдорлиги мунтазам ўсиш тенденциясига эга бўлса, хизмат кўрсатишда эса унинг баъзи тармоқларида вақт ўтиб бориши билан меҳнат унумдорлиги ҳам пасайиш тенденциясига эга бўлади.

¹¹⁷ Алексеева П.О. Механизм совершенствования управления предприятиями сферы услуг. / Дисс. канд. экон. наук. – Санкт-Петербург, 2015. 82 с.

¹¹⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 27 январдаги ПҚ-104-сонли “Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори

Самарқанд вилоятининг асосий иқтисодий кўрсаткичлари таҳлилига назар солсак, ялпи ҳудудий маҳсулот ҳажми 2022 йилда ўтган йилга нисбатан 105,8 %га ўсган бўлса, ушбу кўрсаткич 2021 йилда ўтган даврга нисбатан 108,5 % бўлган. Ҳудудда ялпи қўшилган қиймат ҳажми ўтган йилга нисбатан 2022 йилда мос равишда 105,5 % ва 2021 йилда 108,5 %га ошган. Саноат маҳсулоти (қурилишни қўшган ҳолда) ҳажми 2017 йилда ўтган йилга нисбатан 100,2 %, бу кўрсаткич 2022 йилда 109,3 %га ошган. Хизмат кўрсатиш ҳажми эса ушбу даврларда 2017 йил – 103,6 %, 2022 йил – 106,3 %га ошган. Шунингдек, саноат ва қишлоқ хўжалигининг ўсиш суръатларида барқарорлик таъминланган. га нисбатан пастроқ суръатларда ўсган. Айниқса, 2020 йилда жаҳонда юз берган коронавирус пандемияси оқибатлар хизматлар соҳаси, хусусан туризм тармоғига жиддий равишда салбий таъсир кўрсатди. Хусусан, савдо, яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар ҳажми 2020 йилда 2019 йилга нисбатан 97,3 %га бажарилган. Ушбу тармоқларда пасайиш тенденциясининг кузатилиши пандемия оқибатларини юмшатиш мақсадида қатъий чекловларнинг ўрнатилиши ҳамда одамлар ва корхоналар фаолиятини тўхтатиши натижасида савдо, яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар кўрсатиш имкониятлари пасайди. Шунингдек, пандемия шароитида рақамли технологияларга асосланган фаолиятнинг кенгайиб бориши ташиш ва сақлаш, ахборот ва алоқа хизматлари ҳажмини (2020 йилда 98,2 %) пасйишига олиб келган. Бироқ, 2020 йилада ҳам саноат ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари унда яратилган ялпи маҳсулот ҳажми ошиб борган (1-жадвал).

1-жадвал

Самарқанд вилоятида ялпи ҳудудий маҳсулотининг иқтисодий фаолият турлари бўйича таркиби¹¹⁹

Кўрсаткич-лар	Ўлчов бирлиги	2017 й.	2018 й.	2019 й.	2020 й.	2021 й.	2022 й.
ЯҲМ	млрд.сўм	27039,0	32863,7	39050,5	43834,7	52893,6	62440,3
	Ўтган йилга нисбатан, %	101,5	100,7	105,6	102,4	108,5	105,8
	млрд.сўм	26645,5	32289,7	37936,3	42478,3	51784,4	60866,2

¹¹⁹ Манба: Самарқанд вилояти Давлат статистика бошқармаси маълумотлари асосида ҳисобланган.

Ялпи қўшилган қиймат	Ўтган йилга нисбатан, %	101,5	100,6	105,5	101,6	108,5	105,7
Маҳсулотларга соф солиқлар	млрд.сўм	393,5	574,0	1114,2	908,3	1109,2	1574,1
	Ўтган йилга нисбатан, %	102,9	109,0	108,4	107,8	108,8	109,7
Саноат маҳсулоти (қурилишни қўшган ҳолда)	млрд.сўм	4382,9	6264,2	7284,1	8779,7	10523,1	13474,5
	Ўтган йилга нисбатан, %	100,2	114,1	110,5	107,1	112,9	109,3
Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари	млрд.сўм	13213,9	15350,5	16925,5	19346,3	22672,3	24652,2
	Ўтган йилга нисбатан, %	100,5	94,4	103,0	102,7	103,3	103,6
Жами хизматлар, шундан:	млрд.сўм	9048,7	10675,0	13726,7	14352,3	18589,0	22739,5
	Ўтган йилга нисбатан, %	103,6	103,2	106,2	97,3	112,6	106,3
Савдо, яшаш ва овқатланиш бўйича хизматлар	млрд.сўм	1641,5	1980,1	2430,5	2720,2	3350,6	4190,8
	Ўтган йилга нисбатан, %	102,7	103,1	106,8	100,3	112,1	111,0
Ташиш ва сақлаш, ахборот ва алоқа хизматлари	млрд.сўм	1916,7	2106,4	2348,7	2504,2	3299,6	3876,6
	Ўтган йилга нисбатан, %	105,5	106,0	104,5	98,2	122,8	110,9
Бошқа хизматлар	млрд.сўм	5490,5	6588,5	8947,5	9127,9	11938,8	14672,1

	Ўтган йилга нисбатан, %	103,3	102,2	106,6	96,2	110,0	103,7
--	----------------------------------	-------	-------	-------	------	-------	-------

Ҳозирги вақтда Самарқанд вилояти хизмат кўрсатиш соҳаси тармоқларида мавжуд механизм хизматлар бозорида улар фаолиятини тўлиқ назоратини амалга ошириш ва субъектлар фаолиятини бошқариш тизимини ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга. Бунда хизмат кўрсатиш корхоналари фаолиятини ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг устувор йўналишлари сифатида соҳани молиявий қўллаб-қувватлаш ва кредитлаш, фондлар билан қуролланиш даражаси, ҳуқуқий хизматлар кўрсатиш ва маркетинг тадқиқотлари ҳамда суғурталаш хизматларини ўз ичига қамраб олади.

Самарқанд вилоятида хизматлар бозорини самарали ривожланиш қўйидаги йўналишлардан иборат бўлиб, мазкур йўналишлар ялпи ҳудудий маҳсулотнинг ошишига бевосита таъсир қилади :

- мулкчилик шаклига кўра (давлат, хусусий, жамоавий, аралаш ва хорижий);

- шаклланиш йўналишига кўра (ҳуқуқий, молиявий, ахборот, маркетинг ва воситачилик хизматлари);

- тақлиф қилинаётган хизматлар кўламига кўра (халқаро, миллий, ҳудудий, маҳаллий);

- хизматлар турлари ва йўналишлари бўйича: тадбиркорлик фаолияти бўйича хизматлар (солиқ-кредит, молиявий-инвестицион, суғурта ва суғурталаш хизматлари), тақсимот йўналишига кўра (умумий овқатланиш, ресторан, савдо хизматлари), ижтимоий соҳада амалга ошириладиган хизматлар (илм-фан, таълим, соғлиқни сақлаш, жисмоний тарбия ва маданият хизматлари).

Кўпчилик хорижий иқтисодчи олимлар хизмат кўрсатиш соҳасининг таркибий тузилишини унинг тармоқ белгилари ва ривожланиш нуқтаи назаридан таснифлашни тақлиф этишадилар.

Шунинг учун ҳозирги инновацион ривожланиш шароитида хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш, бир томондан, бандлик даражасини оширишни таъминласа, иккинчи томондан, меҳнат салоҳиятини ошириш имконини беради. Хизматлар соҳасининг ривожланиши ва иқтисодиётнинг трансформациялашуви аҳоли бандлиги даражасини ошириш ва ишга жойлашиш ҳамда меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланишда мослашувчанликнинг шаклланишини зарурат этмоқда.

Вилоят ҳудудий ривожланишида хизмат кўрсатиш соҳаси ялпи ҳудудий ўсишининг энг муҳим манбаи ва аҳолини иш билан таъминлашнинг асосий объектига айланмоқда. Меҳнатнинг моддий ишлаб чиқариш соҳаларидан хизмат кўрсатиш соҳасига ўтиши ва унинг ялпихудудий маҳсулотдаги улушининг ўсиши нафақат Самарқанд вилоятида, балки мамлакат миқёсидаги тенденциядир. Шунингдек, инновацион иқтисодиёт шароитида хизмат кўрсатиш соҳасини модернизация ва диверсификациялашни тақозо қилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 27 январдаги ПҚ-104-сонли “Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид қўшимча чоратadbирлар тўғрисида”ги Қарори.
2. Пардаев М.Қ., Мирзаев Қ.Ж. Пардаев О.М. Хизматлар соҳаси иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. - Т.: “Иқтисод-молия”, 2014. - 384 б.
3. Алексеева П.О. Механизм совершенствования управления предприятиями сферы услуг. / Дисс. канд. экон. наук. – Санкт-Петербург, 2015. 82 с.
4. Зайналов Д.Р. Услуги и сервис как экономическая категория. // «Сервис» журналы. Самарқанд: 2009, 1-сон. 70-77 бетлар. – 0,6 б.т.

ИҚТИСОДИЁТНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ШАРОИТИДА ХИЗМАТЛАРНИ ТИЗИМЛАШТИРИШ ВА ТАСНИФЛАШ

Раҳматуллаев Беҳзод Раҳматуллаевич

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти мустақил изланувчиси

Жаҳонда хизмат кўрсатиш соҳасининг ривожланиб бориши мамлакатлар миллий иқтисодиётлари таркибининг ўзгариши ҳамда иқтисодий фаолиятнинг барча йўналишларини трансформациялашишига олиб келмоқда. «Иқтисодий жиҳатдан тараққий этган давлатларда ялпи ички маҳсулот таркибида хизмат кўрсатиш соҳасининг улуши 65-80 %ни, илм-фан ва инновацион фаолиятни инвестициялашга сарфланаётган маблағлар ҳиссаси эса 3,0 %ни ташкил этмоқда. Шунингдек, ривожланган давлатларнинг хизмат кўрсатиш соҳаси-даги бандлар улуши 70,0 %дан зиёдни ва тўғридан-тўғри инвестициялар ҳажмининг 40,0 %и хизмат кўрсатиш соҳасига тўғри келмоқда»¹²⁰. Шу жиҳатдан ҳам бугунги кунда хизмат кўрсатиш ва сервис корхоналарини ривожлантиришнинг

¹²⁰ <http://stats.oecd.org/>

ижтимоий-иқтисодий механизмларини такомиллаш-тириш долзарб аҳамият касб этмоқда.

Бугунги кунда республикада хизмат кўрсатиш корхоналарини барқарор ривожланиши, уларнинг хўжалик фаолияти самарадорлигини оширишнинг муҳим омили ҳисобланган хизмат кўрсатиш интенсивлигини таъминлашга алоҳида аҳамият қаратилмоқда. «Жорий йилда жами 18 триллион сўмлик 29 мингта лойиҳа амалга оширилиб, хизматлар соҳаси 20 фоизга ўсган. Келгуси йилда хизмат кўрсатиш соҳасидаги лойиҳаларни амалга оширишга 500 миллион доллар ажратилиши белгиланди»¹²¹. Бу вазифаларни ҳал этишда хизмат кўрсатиш корхоналарининг ресурс салоҳиятини ошириш омилларини аниқлаш, хизмат кўрсатиш жараёнларини бошқаришнинг самарали усулларини жорий этиш, хизмат кўрсатиш сифати ва рақобатбардошлигига эришиш, корхоналар фаолиятини ташкил этишнинг ижтимоий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш каби йўналишларда илмий-тадқиқотларни чуқурлаштириш долзарб ҳисобланади.

Хизматларнинг тез суръатлар билан ўсиши ва уларнинг хилма-хиллиги иқтисодий назарияда маълум тизимлаштиришни талаб қилади, бу турли мезонларга кўра таснифлаш асосидаги типология орқали ифодаланади. Хизматларни маълум бир хусусият асосида бирлаштириш уларнинг ўзига хос хусусиятлари ва иқтисодий моҳиятини, ривожланиш ва ўзгариш қонуниятларини ажратиб кўрсатиш имконини беради, бундан ташқари, хизматларнинг статистик ҳисоби муаммосига, шунингдек, айрим тармоқларни аниқлашга аниқ ёндашиш имконини беради.

Хизмат кўрсатишнинг кескин турли соҳалари умумий мезон бўйича битта қуйи тизимга бирлаштирилган - уларда ишлайдиган ишчилар меҳнатининг фойдали таъсири хизматлар кўринишида тақдим этилади. Бир турдаги хизматлар моддий маҳсулотда, бошқалари эса у ёки бу меҳнатнинг фойдали таъсирида амалга оширилади. Шунга асосланиб, моддий ва номоддий хизматлар фарқланади.

Моддий хизматлар рўйхати қуйидаги хизматлар турлари билан ифодаланиши мумкин. Ишлаб чиқаришдаги моддий хизматлар: транспорт хизматлари, коммунал хизматлар. Ишлаб чиқаришдан ташқари хизматлар: меҳмонхона хизматлари, аҳолига моддий хизмат кўрсатиш (кимёвий тозалаш, кир ювиш, фотосуратлар, автомобилларни таъмирлаш ва техник хизмат кўрсатиш, соатлар, кийим-кечак, поябзал ва бошқаларни

¹²¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2021 йил 14 декабрь куни хизматлар соҳасини ривожлантириш бўйича амалга оширилаётган ишлар натижадорлиги ҳамда келгусидаги устувор вазифалар муҳокамаси юзасидан видеоселектор йиғилиши. <https://xs.uz/uzkr/post/khizmatlar-sohasini-rivozhlantirish-bojicha-ustuvor-jonalishlar-belgilandi>

таъмирлаш). Ишлаб чиқариш ва айланма хизматлари: ишлаб чиқариш ва унинг жамоатчилик билан алоқаларини ташкил этиш ва бошқариш хизматлари, биноларга техник хизмат кўрсатиш, реклама, турли хил илмий ёрдамчи лабораториялар, асбоб-ускуналарни ижарага бериш агентликлари, конструкторлик бюролари, қайта чоп этиш ва стенография, нусха кўчириш ва бошқалар.

Номоддий хизматлар рўйхати қуйидаги хизматлар турлари билан ифодаланиши мумкин: ижтимоий хизматлар: соғлиқни сақлаш, таълим, фан ва шахсий хизматлар: суғурта хизматлари, юридик хизматлар, банк хизматлари, консалтинг хизматлари.

Кўп жиҳатдан юқоридаги таснифга ўхшаш хизмат кўрсатиш соҳаларини шартли равишда тўртта катта гуруҳга бўлиш: ишлаб чиқариш, шу жумладан бизнес ва профессионал, молиявий, суғурта ва кўчмас мулк хизматлари; чакана ва улгуржи савдо, транспорт ва алоқадан иборат бўлган тарқатиш; умумий овқатланиш, меҳмонхона бизнеси, дам олиш, кўнгилочар ва маиший хизматлар кўрсатадиган шахсий; ва ижтимоий, жумладан соғлиқни сақлаш, таълим, турли давлат ташкилотлари хизматлари.

Истеъмол товарларининг фарқланишига ўхшаб, хизматларни умумий қабул қилинган гуруҳларга бўлиш мумкин: асосий хизматлар (умумий талаб хизматлари), чекланган истеъмол хизматлари ва ҳашаматли товарларга ўхшаш хизматлар. Хизматларнинг бундай табақаланиши хизматлар ишлаб чиқаришни ривожлантиришнинг иқтисодий амалиётида, бозор шароитида нарх белгилаш амалиётида ва ҳоказоларда амалий аҳамиятга эга.

Эҳтиёжларни қондириш хусусиятига кўра номоддий товарларни ҳам қуйидагиларга бўлиш мумкин:

1. Аҳолига кўрсатиладиган ва индивидуал эҳтиёжларни қондирадиган шахсий хусусиятга эга хизматлар;

2. Жамоатчилик эҳтиёжларини қондирадиган жамоавий характердаги хизматлар;

3. Уй хўжалиги эҳтиёжларини қондирадиган, улар томонидан ўзларининг якуний истеъмоли учун яратилган хизматлар.

Ф.Котлер хизматни бир томоннинг бошқасига тақдим этиши мумкин бўлган ва асосан номоддий кўринишда бўлган ҳар қандай тадбирлар ёки фойда сифатида тушунтиради¹²².

С.Хеллер хизматни етказиб берувчининг барча зарур ресурсларни синхронлаштириш, истеъмолчилар эҳтиёжларини қондириш учун

¹²² Котлер Ф. Основы маркетинга. М.: Прогресс, 1991. С. 638.

моддий, ҳуқуқий ва бошқа шароитларни яратишни ўз ичига олган фаолиятга тайёрлиги деб таърифлайди¹²³.

Хизматлар иқтисодий фаолият сифатида таърифланиши мумкин. Хизмат бу ҳатти-ҳаракатлар, ишлар ёки ишларни бажариш бўлиб, улар номоддийдир¹²⁴. Хизмат – бу турли тақдим этадиган номоддий активлари ёрдамида шахсий ҳаётимизнинг қийматини оширадиган корхоналарнинг маҳсулотидир¹²⁵.

В.А Яковлев томонидан берилган «хизмат» тушунчасига оид яна бир қизиқарли фикрни келтириб ўтамиз, унга кўра, у ушбу тушунчанинг икки томонининг диалектик бирлигини таъкидлайди: хизматлар меҳнат жараёни сифатида, меҳнат шаклларида бири сифатида (бу борада бу истеъмол қиймати эмас) ва аниқ меҳнат натижаси сифатидаги хизматлар, унинг самарали натижаси, бунда эса у истеъмол қийматига эга¹²⁶.

М.М.Мухамедовнинг фикрича, «Хизмат» тушунчасининг мантиқий мазмун-моҳияти шундаки, у инсон фаолияти маҳсули сифатида меҳнатнинг бошқа турларидан ўзида алоҳида бир муҳим хусусиятни мужассамлаштирганлиги билан ажралиб туради. Хизматлар – кишилар ўртасидаги бевосита, тўғридан-тўғри, яъни моддий шаклдаги воситаларсиз ўзаро фаолият – неъмат, ишлаб чиқариш, истеъмол муносабатларини ифодалайди.¹²⁷

И.И.Эргашевнинг фикрича, иқтисодий категория сифатида хизматларни турли авлод ва турли мактаб иқтисодчилари томонидан турлича талқин этилишига қарамасдан, хизматнинг икки томонлама тавсифини ифодаловчи икки асосий белгисини кўрсатиш мумкин. Бир томондан, «хизмат – бу самарали фаолиятнинг ўзига хос тури эканлиги, иккинчи томондан, хизматни фаолиятнинг аниқ натижаси сифатида моддий неъматлар кўринишида ифодаланмайди ҳамда муайян иқтисодий ва ижтимоий фойдалилик даражасини ифодалайди»¹²⁸.

Хизмат – бу уни кўрсатиш жараёнида бажарувчи ҳамда истеъмолчи ўртасида юзага келадиган ўзаро алоқаларнинг бевосита натижаси бўлиб,

¹²³Янсен, Ф. Эпоха инноваций: пер. с англ. М.: 2002. – С. 9.

¹²⁴ К.Хаксевер, Б.Рендер, Р.Рассел, Р.Мердик Управление и организация в сфере услуг, 2-е изд. / Пер. с англ. Под ред. В. В. Кулибановой. - СПб: Питер, 2002. - 752 с : ил. - (Серия «Теория и практика менеджмента»).

¹²⁵ К.Хаксевер, Б.Рендер, Р.Рассел, Р.Мердик Управление и организация в сфере услуг, 2-е изд. / Пер. с англ. Под ред. В. В. Кулибановой. - СПб: Питер, 2002. – С 256: ил. - (Серия «Теория и практика менеджмента»).

¹²⁶ Яккока Л. Карьера менеджера: пер. с англ. М.: Прогресс, 1990. – С. 16.

¹²⁷ Мухаммедов М.М. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари (монография). – Самарқанд: Zarafshon, 2017. – 300 б., 46-б.

¹²⁸ Эргашев И.И. Хизмат кўрсатиш соҳасида инновацион-инвестицион жараёнларни ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш. // Дисс. PhD. – Самарқанд: СамИСИ, 2018. 28-б.

мижоз талабини қондиришга йўналтирилган бажарувчининг самарали фаолиятида амалга ошадиган ижтимоий ва иқтисодий муносабатлар тизими ҳисобланади.

Хизматларни тақдим қилиш ва уларни кўрсатиш жараёнида сифатни таъминлаш ҳамда самарадорлик кўрсаткичлари муҳим аҳамиятга эга. Иқтисодиётнинг трансформациялашуви шароитида ушбу хизматлар рақамли технологиялар воситасида доимий такомиллашади ва ривожланиб боради.

KVADRAT TENGLAMALARNI YECHISH USULLARI

Rahmanova Sayyora Yusupovna
Urganch Davlat universiteti o'qituvchisi

Matematika darslarida yoki matematika to'garaklarida, kvadrat tenglamalarni yechishning turli xil usullarini ko'rsatish orqali:

1. O'quvchilarni mavzuga nisbatan bilimlari kengayadi;
2. O'quvchilarni matematikadan ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatadi;
3. O'quvchilarni mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantiradi;
4. Matematik fikrlash madaniyatini tarbiyalaydi;
5. O'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini va layoqatini oshiradi.

Kvadrat tenglamalarni yechishning turli xil usullari mavzusini o'tishdan oldin, har bir yechish usuli o'quvchilarga taqdimot usuli orqali tushuntiriladi. Darsda har bir o'quvchi kvadrat tenglamalarni yechish usulini ko'rsatib beradilar.

1. **Kvadrat tenglamani Viet teoremasi yordamida yechish**

$$x^2 - 5x - 6 = 0$$

Kvadrat tenglama keltirilgan kvadrat tenglamadir. Viet teoremasiga ko'ra,

$$x_1 + x_2 = 5$$

$$x_1 \cdot x_2 = -6 \text{ ga teng, tanlash usuliga ko'ra } x_1 = 6$$

$$x_2 = -1$$

tenglama ildizlari shulardan iborat.

2. **Kvadrat tenglamani yechishning koeffisientlar usuli**

$2x^2 - x - 1 = 0$ ko'rinishidagi kvadrat tenglamani koeffisientlari yig'indisi 0ga tengligidan, bu tenglamani bir ildizi 1ga teng. Tenglikning har

ikkala qismini 2ga bo'lsak $x^2 - \frac{1}{2}x - \frac{1}{2} = 0$ ko'rinishidagi keltirilgan kvadrat tenglama hosil bo'ladi.

$$\text{Viet teoremasiga ko'ra } x_1 \cdot x_2 = -\frac{1}{2}$$

$$1 \cdot x_2 = -\frac{1}{2} \text{ ga teng}$$

$$\text{Demak, } x_1 = 1$$

$$x_2 = -\frac{1}{2}$$

3. Kvadrat tenglamani grafik usulda yechish


$x^2 - x - 2 = 0$ ko'rinishidagi kvadrat tenglamani grafik usulda yechamiz. Buning uchun $x^2 = x + 2$

$y = x^2$ va $y = x + 2$ funksiyalarni hosil qilamiz. Bu funksiyalar grafiklarini bir koordinati tekisligida tasvirlab, grafiklar kesishgan nuqtasi berilgan kvadrat tenglamaning ildizlari bo'ladi.

Rasmdan ko'rinib turibdiki, berilgan kvadrat tenglamaning ildizlari

$$x_1 = -1$$

$$x_2 = 2$$



4. Kvadrat tenglamani to'la kvadratga ajratish usuli bilan yechish

$X^2 - 6x + 8 = 0$ kvadrat tenglamani to'la kvadratga ajratish usuli bilan yechamiz

$$X^2 - 6x + 8 = 0$$

$$x^2 -$$

$$6x = -8$$

$$x^2 -$$

$$6x + 9 = -8 + 9$$

$$(x -$$

$$3)^2 = 1$$

$$x - 3 = -1$$

$$x - 3 = 1$$

$$x_1 = 2$$

$$x_2 = 4$$

5. Kvadrat tenglamani formula yordamida yechish

$$2x^2 - 3x + 1 = 0$$

$$ax^2 + bx + c = 0$$

$$D = b^2 - 4ac = (-3)^2 - 4 \cdot 2 = 1$$

Diskriminant 0dan katta bo'lganligi uchun, tenglama ikkita ildizga ega.

$X_{1,2} = \frac{-b \pm \sqrt{D}}{2a}$ formuladan tenglama ildizlari $x_1 = 1$ va $x_2 = \frac{1}{2}$ ekanligi kelib chiqadi.

6. Kvadrat tenglamani Gorner sxemasi yordamida yechish

$x^2 - 3x - 4 = 0$ kvadrat tenglamani Gorner sxemasi yordamida ildizlarini topamiz. Kvadrat tenglamani $P_2(x) = x^2 - 3x - 4$ ikkinchi darajali ko'phad ko'rinishida ifodalaymiz. Ko'phadning ozod hadidagi 4 ning bo'luvchilari orqali, ko'phadning ildizlarini izlaymiz. 4 ning bo'luvchilari $\pm 1; \pm 2; \pm 4$

Bulardan, masalan, $x = 1$ ni ko'phadga qoyamiz

$$P_2(1) = 1 - 3 - 4 = -6$$

Berilgan ko'phadning qiymati 0 ga teng bo'lmadi. Demak, $x = 1$ ko'phadning ildizi emas ekan.

Agar ko'phad x ning biror qiymatida 0 ga aylansa, shu son berilgan ko'phadning ildizi bo'ladi (Bezu teoremasiga ko'ra).

Endi $x = -1$ ni qoyib ko'ramiz

$$P_2(-1) = 1 + 3 - 4 = 0$$

$x = -1$ ko'phadning ildizi ekan. Gorner sxemasi ko'phadning koeffisientlaridan tuziladi.

		1	-	-
		3	4	
1	-	1	-	0
		4		

$$P_2(x) = x^2 - 3x - 4 = (x + 1)(x - 4)$$

$$x^2 - 3x - 4 = 0 \text{ kvadrat tenglamaning ildizlari } x_1 = -1 \text{ va } x_2 = 4$$

7. Kvadrat tenglamani ildizlarini ko'paytuvchilarga ajratish usuli bilan topish

$$x^2 - 3x - 4 = 0$$

$$x^2 - 3x - 4 = x^2 + x - 4x - 4 = x(x + 1) - 4(x + 1) = (x + 1)(x - 4) = 0$$

Har bir qavsni 0ga tenglash orqali tenglama ildizlari $x_1 = -1$ va $x_2 = 4$

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduhamidov A., Nasimov H. A. Algebra va matematik analiz asoslari. I qism, "Istiqbol", T., 2000.

2. Abduhamidov A., Musurmonov O. L., Nasimov H. A. Matematika tarixidan lavhalar. "Matbaa tongi", T., 2000.

3. Galitskiy M. L. va b. Algebra va matematik analiz kursini chuqur o'rganish. "O'qituvchi", T., 1985

4. To'laganov T. R. Elementar matematika. "O'qituvchi", T., 1997

5. Umirbekov A. U. Shaabzalov Sh. Sh. Matematikani takrorlang. "O'qituvchi", T., 1989.

BA'ZI BIRINCHI TARTIBLI BO'LAKLI-UZLUKSIZ O'ZGARMAS ARGUMENTLI DIFFERENSIAL TENGLAMANI YECHISH

Raxmanova Charos Tursunboy qizi, Faxriddinov Fitrat Baxrom o'g'li.
Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

Ushbu tadqiqotda quyidagi bo'lakli-uzluksiz o'zgarmas argumentli birinchi tartibli differensial tenglamani tadqiq qilamiz:

$$x'(t) = x(t) \cdot g(x([t])), \quad t > 0, \quad (1)$$

$$x(0) = c_0. \quad (2)$$

bu yerda, $[t]$ – t ni butun qismi va g – ixtiyoriy berilgan uzluksiz funktsiya, c_0 – berilgan son.

1980-yil boshidan beri bo'lakli uzluksiz argumentli differensial tenglama (BUADT) matematika fanlari va muhandislik tadqiqotchilarining asosiy diqqatga sazovor joyiga aylandi. Bu soha uzoq vaqtdan beri keng miqyosda ishlab chiqilgan va biomeditsina, kimyo, mashinasozlik, fizika, qurilish muhandisligi va aerodinamik muhandislik kabi sohalarga keng qo'llanilgan. BUADT fizika va muhandislik tizimlari sohasida bosqichma-bosqich yoki qisman doimiy o'zgaruvchilar yoki bo'lak-bo'lak doimiy kuchlar ostida harakat bilan chambarchas bog'liq modellarda paydo bo'ladi. Bu sohada dastlabki tadqiqotlar [1,2] da berilgan. Keyinchalik, bir nechta mualliflar barqarorlik, tebranish xususiyatlari va davriy eritmalarning mavjudligi bilan bog'liq ba'zi maqolalarni muhokama qilingan [3 - 5].

Ta'rif. Agar $x(t)$ funktsiya quyidagi shartlarni qanoatlantirsa, unga (1), (2) **Koshi masalasining yechimi** deyiladi :

(i) $x(t)$ funktsiya $[0, \infty)$ intervalda uzluksiz;

(ii) $x(t)$ funktsiyaning $x'(t)$ hosilasi $n=1,2, \dots$ nuqtalardan tashqari har bir $t \in [0, \infty)$ nuqtada uzluksiz hosilaga ega va $n=1,2, \dots$ nuqtalarda bir tomonlama hosilalari mavjud;

(iii) $x(t)$ funktsiya har bir $[n, n + 1)$, $n=1,2, \dots$, oraliqda (1) tenglamani qanoatlantirsin.

Teorema. Boshlang'ich shartli (3.3) masala $[0, \infty)$ oraliqda yagona $x(t)$ yechimga ega bo'lib, u quyidagi ko'rinishda aniqlanadi

$$x(t) = c_k e^{g(x(k))t}, \quad t \in [k, k+1), \quad k = 0, 1, 2, \dots, \quad (3.6)$$

bu yerda $g(x(k))$ ushbu rekurent formula orqali aniqlanadi:

$$g(x(k)) = g\left(c_{k-1} e^{k \cdot g(x(k-1))}\right) \quad (3.7)$$

$$c_k = c_{k-1} e^{g(x(k-1)) \cdot k - g(x(k)) \cdot k}, \quad x(0) = c_0 \quad (3.8)$$

Haqiqat shundaki, ko'plab matematik modellar bo'lakli doimiy argumentni o'z ichiga oladi, masalan, ishlov beriladigan qismto'sar tizimi, Froude mayatnik, Jeneva g'ildiragi, elektrodinamik vebrator, namlangan yuklash tizimi. Ba'zi tadqiqotchilar chiziqli bo'lmagan differensial tenglamalarni hal qilish uchun bo'lak-bo'lak doimiy argumentdan foydalanishning afzalliklarini tan oldilar. Differensial tenglamalarni yechishda PI argument yondashuvining odatiy qo'llanilishi bu yaqinda o'tkazilgan tadqiqotda qarag'ay pashshalari tomonidan mayda sutemizuvchilarning ovqatlanishi bo'yicha yirtqich-o'lja tizimi yechimlari boshlangan. Yangi yondashish bo'lakli doimiy argument tebranish muammolarining taxminiy va sonli yechimlari uchun asos bo'ldi. Texnik dinamikada chiziqli va chiziqli bo'lmagan tebranish tizimlarini yechishning taxminiy va raqamli usullari keng tarqalgan. Harakatning boshqaruvchi tenglamalarida mavjud bo'lgan dastlabki jismoniy ma'lumotlar asosan, taxminiy va sonli yechimlarga o'tkaziladi. Shuning uchun bu usulda olingan taxminiy va sonli yechimlar sistemalar harakatining xususiyatlarini aniqroq aks ettiradi.

Davriy va deyarli davriy yechimlarning mavjudligi muammosi fizika fanidagi ahamiyati uchun oddiy yoki funksional differensial tenglamalarning sifat nazariyasidagi eng jozibador mavzulardan biri bo'lib kelgan. Ushbu [1.1] ish mualliflari ushbu

$$(x(t) + px(t-1))^{(n)} = q([t]) + f(t) \quad (2.1)$$

ko'rinishdagi n -tartibli bo'lakli-uzluksiz o'zgarimas argumentli differensial tenglamalarni deyarli davriy yechimlar mavjudligini o'rgandilar. Bu erda $[t]$ eng katta butun funksiya, p va q va nolga teng bo'lmagan doimiylar, $f(t)$ deyarli davriydir.

Shuningdek, ba'zi ikkinchi tartibli differensial tenglamalarning davriy yechimlari mavjud bo'lishi uchun etarli shartlar bo'yicha [1.2] keltirilgan

Qaralayotgan tenglamaning $n = 2$ bulgandagi yechimi tushunchasini keltiramiz.

Ta'rif 1.1. Agar $x(t)$ funksiya ushbu 3 ta shartlarni qanoatlantirsa unga (2.1) tenglamaning yechimi deyiladi.

1) $x(t)$ funksiya \mathbb{R} da uzluksiz;

2) $(x(t) + px(t - 1))^{(n)}$ funksiya $t = n, n \in \mathbb{Z}$ nuqtalardan boshqa barcha $t \in \mathbb{R}$ larda uzluksiz hosilaga ega va $t = n, n \in \mathbb{Z}$ da bir tomonli hosilaga

ega;

3) $x(t)$ funksiya har bir $(n, n + 1), n \in \mathbb{Z}$ intervalda (*) tenglamani qanoatlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Cooke, K.L. and Wiener, J. Retarded Differential Equations With Piecewise Constant Delays. *Journal of Mathematics Analysis and Application*, 1984. 99: 265–297.

2. Shah, S.M. and Wiener, J. Advanced Differential Equations with Piecewise Constant Argument Deviations. *International Journal Mathematics and Mathematics Science*, 1983. 6:671–703.

3. Cooke, K.L. and Wiener, J. *A Survey of Differential Equations with Piecewise Continuous Arguments*. Delay Differential Equations and Dynamics Systems. USA: Springer-Verlag New York, Inc. 1991: 1 – 15.

4. Sadahisa, S. and Tadayuki, H. Dynamics of a Linear Differential System with Piecewise Constant Argument. *Dyn. Contin. Discrete Impuls. Syst.*, 2000. 7: 585 – 594.

5. Wiener, J. *Generalized Solution of Functional-Differential Equations*. World Scientific.

ALISHER NAVOIY IJODIDA KUZ FASLI TALQINI

Raxmatova Madinabonu Kasimovna
Buxoro davlat universiteti magistranti

Sohibova Zarnigor
BuxDU filologiya fanlari nomzodi

Mumtoz adabiyotimizning cho'qqisi hisoblangan Alisher Navoiy ijodini zavol bilmas ma'nolar xazinasini deyish mumkin. Ulug' shoir lirikasida bizni o'rab turgan borliqdagi jamiki narsa va hodisalar o'zining badiiy ifodasini topgan. "Navoiy

nazmda kuz – xazon faslining alohida o'rnini bor. Tabiatdan ma'lumki, kuz tushkunlik, xazon, hayotning so'ngi hisoblanadi. Shoir talqinidagi kuz esa ko'proq mumtoz lirikada keng qo'llanilgan hijron – “yoridan ayrilgan oshiq” motivini ta'sirli ifodalashga xizmat qiladi” [4,214]. Xususan, Alisher Navoiy adabiy merosini to'liq qamrab olgan “Mukammal asarlar to'plami”ning I tomi “Badoyi' ul-bedoya”dan o'rin olgan 48-raqam ostidagi “Sorig' og'riq bo'ldum, ey soqiy, xazoni hajr aro” matlasi bilan boshlanuvchi g'azal bu borada ahamiyatlidir:

Sorig' og'riq bo'ldum, ey soqiy, xazoni hajr aro,
Qoni asfar mayki, bor har qatrasini bir qahrabo [1,64].

Aruz she'riy tizimining ramali musammani mahzuf vaznida yaratilgan (taqte'si: foilotun-foilotun-foilotun-foilon; _ v _ / _ v _ / _ v _) ushbu g'azal shoirning soqiyga murojaati bilan boshlanadi. G'azalda shoir o'zining ishqiy kechinmalari, hijron iztiroblarini kuz fasliga aloqador badiiy detallar vositasida mohirona tasvirlaydi. Unga ko'ra yor visolidan umidvor oshiq hijron xazoni orasida ko'milgani ifodalangan. Buning pirovardida esa lirik qahramon o'zining ham xazon tusiga kirib, hattoki, sariq kasal bo'lib qolganini ta'kidlaydi. Birinchi misrada mubolag'aning go'zal ko'rinishiga guvoh bo'lamiz (“sorig' og'riq bo'ldim”). Ikkinchi misrada esa shoir mubolag'ani kuchaytirish orqali matla'ning badiiy jozibasini yanada oshiradi. Ya'ni yor hajrida xastalangan oshiq kasal bo'lib, qonigacha sariq tusga kirganini aytadi hamda sariq qonining har qatrasini shu tusdagi qimmatbaho toshga (qahraboga) o'xshab ko'rganlarni o'ziga jalb etadi. Ko'rinadiki, matla'da muallif mubolag'a (“sorig' og'riq bo'ldim”), tashbeh (“har qatrasini bir qahrabo”) va tanosib (sorig', asfar, qahrabo) singari badiiy badiiy tasvir vositalarini chiroyli tarzda qo'llab, kuz faslining go'zal ifodasini yaratadi.

Yuz-u jismimdur sorig' barge qurug'on shox uza,
Shox-u bargekim qurub sorg'orsa, kim ko'rmish davo?[1,64].

Keyingi baytda lirik qahramon kayfiyatining keyingi tashbehi – qurib borayotgan daraxt. Shoirning nazdida oshiq tang ahvolda. Uning sarg'aygan yuz-u jismi go'yoki sarg'ayib, qurigan ustihon (shox) uzra so'nggi ilinjda turgan barg va uning zavoli muqarrarligi, bu holatda uzoqqa bora olmasligi ma'lum. Buni kundek ravshanligini inobatga olib, lirik qahramon o'zini ritorik so'roqqa tutadi. Ya'ni shoxi qurigan bargning davo topganini hech kim ko'rmagan, deb mulohaza yuritadi. Bu orqali istifxom san'atini vujudga keltiradi. G'azalning keyingi baytida shoir o'z hayratini yashirmaydi:

Ne marazdur buki, bir gulrux sharori ishqidin
Bo'ldi sorig' lola ko'zum oqi-yu dog'i qaro, [1,64].

Bu naqadar kuchli kasallik ekanki, uning sarg'aygan tusi oshiqning ko'zi qorachig'ga qadar yetib bordi. Ushbu baytda Navoiy istiora san'atidan mohirona foydalanadi. Ishqdan sarmast oshiqni ishq uchqunidan qizargan gulruxga qiyoslaydi. Bundan tashqari, “qora” va “oq” o'zaro bir-biriga qarama-qarshi

qo'yiladi.

Sud emish ko'z tushsa asfar jinsi sori, vah, qani

Sarvinozimkim, sorig' gul bargidin kiymish qabo? [1,64].

Shoir nazdida sarg'aya borayotganiga qaramay, xazon rangi lirik qahramon uchun alohida ahamiyat kasb etadi, har qanday sariq tusga kirgan jism uning o'tkir nigohidan chetda qolmaydi. Chunki ular oshiqqa shu rangdagi kiyim kiyim olgan yorini eslatadi go'yo. Va bu oshiqning hayratiga sabab bo'ladi:

Sorg'orib qoldim havodis kojig'a hijrda kuni,

Bir sorig' qushdekki, kunduz qolg'ay ul qushlar aro. [1,64].

Bu hayrati tufayli oshiq o'zini tarsaki yegan insondek his etadi va natijada, bir sariq qushga aylanib qolgandek bo'ladi. Bu yerdagi san'at ham tashbeh namunalari hisoblanadi. Bu shunday sariq qushki, shu qadar sariq tusga burkanib qolganidan uyalib ko'rsatmaslik maqsadida boshqa parranda-yu darrandalardan ayro qoladi, bekinadi. Oshiq ham yoridan ayrilish, hijronda qolishitufayli o'zini mana shu qushga mengzaydi. Navbatdagi baytda Navoiyning faylasuf shoir sifatida fikr yuritadi:

Shom ila subh ar sorig' og'riq emaslar, bas nedur

Tun sochin yoyib, quyosh yirtib yuzin, tutmoq azo? [1,64].

Uning nazdida, zero, shom ila sahar oshiqdan farqli o'laroq "sorig og'riq" emaslar, shunday ekan tun sochin yoyib, quyosh yuzini yirtib aza tutishiga ne hojat!

Dard tufroqqa nihon qildi Navoiy jismini,

Topibon bir shisha oltun dafn qilg'ondek gado. [1,64].

Maqta lirik qahramon kayfiyatini ochib berish uchun ahamiyatli. Biz Navoiy ijodining bir muhlisi sifatida mana shu baytni shahbayt deb nomlaymiz. Zero, baytni alohida olinganda ham uning mazmuniy butinligi saqlanib turadi. Maqtaning mazmunidan anglashiladiki, lirik qahramon ichki kechinmalari muqarrar dardga sabab bo'ladi. Gado bir shisha oltin topib, uni tuproqqa hech kim topa olmasligi uchun qanchalik chuqur ko'mishga harakat qilsa, oshiqni ezayotgan bu dard ham go'yo mana shu gado singari uning jismini tuproqqa shunchalik yashirdi. Ya'nikim, muallif bu dardning (aslida hijroning) davosi yo'q uning oxiri o'lim bilan tugashiga ishora qiladi.

Alisher Navoiyning o'lmas merosini o'rganish undan keyingi har bir davr uchun dolzarb masala bo'lib kelgan. Bu she'riyatni o'rganganimiz sari o'zimizda uning badiiyatiga yanada chuqurroq kirib boorish ehtiyojini sezamiz. Yuqoridagi g'azal ham uning so'z san'ati dunyosidagi mahoratining bir isbotidir.

Tahlillardan anglashiladiki, yordan ayro hijronda qolgan lirik qahramon kechinmalari xazon motivi bilan parallel tasvirlanadi. [2,128.]Zero, xazon fasli ifodalangan g'azallarda oshiq kayfiyati, uning borliqqa munosabati bo'rtib turadi. Shu bois, Alisher Navoiy g'azallarida kuz fasli tasviri ramziy-timsoliy mohiyat kasb

etadi. Binobarin, tanlangan poetik manzara lirik qahramon hissiyotlarining go'zal dalili bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. I том. Бадое ул-бидоя. Тошкент: "Фан", 1988. – 689 б.
2. Исҳоқов Ё. Сўз саънати сўзлиги. "Зарқалам", 2006. – 128 б.
3. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 782 б.
4. Соҳибова З.Н. Навоий ижодида хазон фасли ва ҳижрон мотиви. ВухDU Ilmiy axboroti, 2020-yil 4-son. – 213-218 б.
5. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Тошкент: "Академнашр", 2010. – 400 б.
6. Ҳаққулов И. Тақдир ва тафаккур. – Тошкент: "Шарқ", 2007. – 336 б.

МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА УНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Ризаева Лобар Тошпулатона

Ўзбекистон Миллий университети таянч докторанти

Мактабгача таълим тушунчаси-Мактабгача таълим узлуксиз таълимнинг бошланғич қисми ҳисобланади. У боланинг соғлом ва ривожланган шахс бўлиб шаклланишини таъминлаб, ўқишга бўлган иштиёқини уйғотиб, тизимли ўқитишга тайёрлаб боради. 6-7 ёшгача бўлган мактабгача таълим давлат ва нодавлат болалар мактабгача таълим муассасаларида ва оилада амалга оширилади. Мактабгача таълимнинг мақсади – болаларни мактабдаги ўқишга тайёрлаш, болани соғлом, ривожланган, мустақил шахс бўлиб шакллантириш, қобилиятларини очиб бериш, ўқишга, тизимли таълимга бўлган иштиёқини тарбиялашдир.


Мактабгача таълим муассасасида болаларнинг ҳаёти ва соғлиғини муҳофаза қилиш мактабгача таълим муассасаси ҳамда штатдаги тиббиёт ходимлари, шунингдек мактабгача таълим муассасасига бириктирилган соғлиқни сақлаш органларининг тиббиёт ходимлари томонидан амалга оширилади.

Мактабгача таълим муассасасида болаларнинг ҳаёти ва соғлиғини муҳофаза қилишни ташкил этиш тартиби ва қоидалари, мактабгача таълим муассасасига болаларни олиб келиш ва олиб кетиш қоидалари, мактабгача таълим муассасаси биноларида хавфсизликни ташкил этишга оид талаблар, мактабгача таълим муассасасида ёнғин хавфсизлигини ташкил этишга оид талаблар, ҳудуд хавфсизлигига бўлган талаблар "Мактабгача

таълим муассасаларида болаларнинг ҳаёти ва соғлиғини муҳофаза қилишни ташкил этиш тартиби тўғрисида Низом” билан тартибга солинади.

Мактабгача таълим тизими

Мактабгача таълим муассасалари – Ўзбекистон Республикасидаги таълим муассасаларининг тури бўлиб, турли йўналишдаги мактабгача бўлган даврдаги умумтаълим дастурларини амалга оширади. Мактабгача таълим муассасалари 2 ёшдан 7 ёшгача бўлган болаларни тарбиялашни, ўқитишни, назорат қилишни, парваришлашни ва соғломлаштиришни таъминлайди.



Мактабгача таълим муассасасини ташкил этиш тартиби, фаолиятини ташкил этиш ва бутлаш, ҳамда мактабгача таълим муассасасининг молмулки ва пул маблағлари, жавобгарлиги, бошқаруви ва таълим жараёни қатнашчилари тўғрисидаги керакли маълумотларни “Ўзбекистон Республикасида давлат мактабгача таълим муассасаси тўғрисида Низом” дан олишинигиз мумкин.

Мактабгача таълим муассасалари, фаолият йўналишига кўра, қуйидаги турларга бўлинади:

- Болалар ясли, болалар ясли боғчаси, болалар боғчаси, уйдаги болалар боғчаси (мустақил муассаса ёки филиал сифатида).
- Мактабгача тарбия ва бошланғич таълим муассасаси (болалар боғчаси-мактаб).
- Тарбияланувчиларни бир ёки бир нечта йўналишда (тил, бадиий эстетик, спорт ва бошқалар) тарбияловчи мактабгача таълим муассасалари.
- Тарбияланувчиларнинг жисмоний ва рухий ривожланишдаги оғишларни квалификацион яхшиловчи тикловчи турдаги болалар боғчаси.
- Тиббиёт гигиена, профилактика ва соғломлаштириш тадбир ва процедураларини амалга оширувчи заифлашган болаларни назорат қилиш ва соғломлаштириш боғчаси.
- Бирлаштирилган турдаги болалар боғчаси (бирлаштирилган турдаги болалар боғчасига ривожлантирувчи, тикловчи ва соғломлаштирувчи гуруҳлар умумлаштирилган кўринишда киради)



Мактабгача таълим муассасасининг иш тартиби ва у ерда болаларнинг бўлиш давомийлиги давлатнинг мактабгача таълим сифат ва даражасига бўлган талаблари, низом, мактабгача таълим муассасаси ва ота-оналар орасида тузилган шартнома, ҳамда таъсисчилар томонидан белгиланади.

Имкониятлари чекланган болалар учун махсус мактабгача таълим муассасалари ташкил қилинган бўлиб, у ерга болалар давлатнинг жойлардаги ваколатли таълимни бошқариш ва соғлиқни сақлаш органлари тарафидан ташкил қилинган руҳий-тиббий педагогик комиссиянинг хулосасига биноан қабул қилинади.

Махсус мактабгача таълим муассасасини ташкил этиш тартиби, мол-мулки ва пул маблағлари, махсус мактабгача таълим муассасасида ўқув-таълим ва соғломлаштириш жараёнини ташкил қилиш, таълим жараёни иштирокчилари ва махсус мактабгача таълим муассасасининг бошқаруви ҳақидаги тўлиқ маълумотлар “Махсус давлат мактабгача таълим муассасаси тўғрисидаги Низом” да кўрсатилган.

Мактабгача таълим муассасаларининг асосий мақсадлари

Мактабгача таълим, олиниш шакли ва усулларида қатъий назар, қуйидаги мақсадларни ўз олдига қўяди:

Мактабгача таълим мақсад ва вазифаларни амалга оширишда ижтимоий ва хайри ташкилотлари, маҳалла, халқаро фондлар фаол иштирок этадилар.

Ўзбекистонда мактабгача таълим давлат тилида ҳамда қорақалпоқ, рус, тожик, қирғиз, қозоқ ва туркман тилларида олиб борилади.

•Мактабгача тарбия ва бошланғич таълим муассасаси (болалар боғчаси-мактаб).

•Тарбияланувчиларни бир ёки бир нечта йўналишда (тил, бадий эстетик, спорт ва бошқалар) тарбияловчи мактабгача таълим муассасалари.

•Тарбия жисмоний ва рухий ривожланишдаги оғишларни квалификацион яхшиловчи тикловчи турдаги болалар боғчаси.

•Тиббиёт гигиена, профилактика ва соғломлаштириш, тадбир ва проседураларини амалга оширувчи заифлашган болаларни назорат қилиш ва соғломлаштириш боғчаси.

•Бирлаштирилган турдаги болалар боғчаси (бирлаштирилган турдаги болалар боғчасига ривожлантирувчи, тикловчи ва соғломлаштирувчи гуруҳлар умумлаштирилган кўринишда киради).

•Болаларни мактабда ўқишга мақсадли ва тизимли тайёрлаш;

•Болаларнинг шахсий қобилиятлари ва истеъдодларини ривожлантириш;

•Болаларни миллий, умуминсоний ва маданий қадриятлар билан таништириш, болани интеллектуал ривожлантириш;

•Болаларда юқори маънавий ва одоб ахлоқ асосларини шакллантириш;

•Болаларнинг жисмоний ва рухий соғлигини мустаҳкамлаш.

Мактабгача таълим мақсад ва вазифаларни амалга оширишда ижтимоий ва хайрия ташкилотлари, маҳалла, халқаро фондлар фаол иштирок этадилар.

Мактабгача таълим — узлуксиз таълим тизимининг пойдевори- Илмий кузатиш ва тадқиқотлар натижасида инсон ўз ҳаёти давомида оладиган барча маълумотнинг етмиш фоизини беш ёшгача бўлган даврда олиб улгуриши аниқланган. Дарҳақиқат, бу даврда инсон боласи дунёни англайди, ўз она тилини ўзлаштиради, ота-она, оила, маҳалла, Ватанга меҳри уйғонади, умр давомида оладиган билимларга замин ҳозирлайди. Бунда, энг аввало, оила асосий роль ўйнаса, мактабгача таълим муассасасининг ҳиссаси ҳам бу борада муҳим аҳамият касб этади. Шу боис мамлакатимизда айнан мактабгача таълим узлуксиз таълим тизимининг ажралмас бўлагига, таъбир жоиз бўлса, унинг дебочасига айланган.

Шу маънода Ўзбекистон Республикаси Президентининг яқинда матбуотда эълон қилинган “2017-2021 йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори ушбу тизим фаолиятини янги босқичга кўтариш, соҳани бугунги кун талаблари даражасида модернизация қилишга хизмат қилиши шубҳасиз.

Албатта, мазкур масалага эътибор кеча ёки бугун пайдо бўлиб қолгани йўқ. Ортга назар ташлайдиган бўлсак, ўтган 25 йиллик мустақиллик даврида Биринчи Президентимиз Ислом Каримов раҳнамолигида мамлакатимизда таълимни тубдан ислоҳ қилишнинг муҳим босқичлари

амалга оширилиб, моҳиятан ҳеч қайси бир давлатда мавжуд бўлмаган узлуксиз таълим тизими шакллантирилди. Яъни ёш авлоднинг мактабгача таълим муассасаларидан то олий таълимгача бўлган узлуксиз билим олишлари, касб ўрганиши учун шарт-шароитлар яратиш давлат сиёсатининг устувор йўналишига айланди.

Бу борада, айниқса, мактабгача таълим муассасалари тизимини ривожлантириш, болаларни мактабгача таълим муассасаларига жалб этиш, мактабга тайёрлаш масалалари таълим соҳасидаги давлат сиёсатининг устувор вазифаларидан бири деб қаралди. Мамлакатимизда баркамол авлодни тарбиялаш учун, энг аввало, қулай ташкилий-ҳуқуқий шароитлар яратилди.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев томонидан мазкур соҳадаги ислохотлар изчил давом эттирилиб, мактабгача таълим муассасалари тармоғини ҳозирги замон талаблари ва стандартлари асосида ривожлантириш, уларни реконструкция ва модернизация қилишга қаратилаётган эътибор замирида ҳам келажагимиз эгаларининг ҳеч кимдан кам бўлмай улғайишлари ҳамда буюк аждодларга муносиб ворис бўлиб вояга етишларини таъминлашдек эзгу мақсад мужассам.

Республикамизда таълим тизими доимо давлатнинг эътиборида бўлмоқда. Ўтган давр мобайнида соғлом ва ҳар томонлама ривожланган авлоднинг шаклланишини таъминлашга қаратилган самарали мактабгача таълим тизимини ташкил қилиш буйича комплекс ташкилий-ҳуқуқий чора-тадбирлар амалга оширилди. Ўзбекистан Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иктисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мулжалланган иктисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналиш-ларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузасида такидлаганидек, “Аввалги учрашувларда таълим ва илм-фан, давлатнинг ёшларга доир сиёсатини амалга ошириш, таълимнинг янги, замонавий усулларини, жумладан, ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш соҳасидаги иш-лар ахволи танкидий таҳлил қилиб берилган эди. Бу борадаги долзарб вазифаларни амалга ошириш ёшларимиз, жамиятимиз ва мамлакатимизнинг келажаги учун стратегик аҳамиятга эга экани сабабли ушбу соҳадаги ишлар шахсан Бош вазирга юклатилган. Сизнинг эътиборингизни куйидаги вазифаларни амалга оширишга кара-таман. Биринчи вазифа - мактабгача таълим соҳасида”[1].

Жумладан, давлатимиз раҳбарининг қарори билан тасдиқланган Мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш бўйича 2017-2021 йилларга мўлжалланган дастурда кенг кўламли стратегик мақсадлар, муҳим вазифалар белгилангани билан аҳамиятлидир.

Хусусан, ҳужжатда бугунги кундаги ҳаётӣ талаб ва эҳтиёжлар, соҳада ечимини кутаётган масалалар ҳамда ҳали ишга солинмаган имкониятлар ҳисобга олинганлиги барчамизни қувонтиради.

“Айниқса, келгуси беш йилликда 2200 та мактабгача таълим муассасасининг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш, жумладан, қишлоқ аҳоли пунктларида янги мактабгача таълим муассасаларини қуриш, уларни замонавий талабларга жавоб берадиган инвентарь, ускуналар, ўқув-методик қўлланмалар, мультимедиа ресурслари билан таъминлаш ҳамда ушбу мақсадлар учун жами 2,2 триллион сўм маблағ ажратилиши кўзда тутилаётгани ушбу қарор ўз ичига нечоғлик кенг қўламли вазифаларни қамраб олганлигини кўрсатади” [2].

Ҳақиқатан ҳам, бугунги кунда қишлоқ жойларида мактабгача таълим муассасалари сонини кескин ошириш зарурати кўринмоқда. Айрим қишлоқ шароитида яшайдиган ёш оналар учун болалар боғчаси масаласи ҳаётӣ эҳтиёжга айланган.

Албатта, бу эҳтиёж бежиз эмас. Мактабгача таълим муассасалари, биринчидан, мактаб ёшигача бўлган болаларнинг умумий саводини чиқариш, болаларда Ватанни севиш, у билан ғурурланиш ҳиссини уйғотиш, Конституцияни ўргатиш, дунёқарашини кенгайтириш имконини бераётган бўлса, иккинчидан, ёш болали оналарнинг меҳнат қилишга оид конституциявий ҳуқуқини рўёбга чиқаришга ҳам хизмат қилади.

Қолаверса, мактабгача таълим муассасаларига жалб қилинмаган болаларни мактаб таълимига тайёрлашда ота-оналарнинг педагогик-психологик билимларини ошириш ҳам мақсадга мувофиқ саналади. Давлатимиз раҳбарининг мазкур қарорида 3-6 ёшдаги мактабгача таълим муассасаларига қамраб олинмаган болаларни уларнинг ота-оналарини методик қўлланмалар билан таъминлаш орқали мактаб таълимига тайёрлашни ташкил этишга алоҳида эътибор қаратилгани болаларни таълимнинг кейинги босқичига тайёрлаш даражасини юксалтиради.

Шу ўринда мактабгача таълим муассасаларида тарбияланувчиларни интеллектуал, жисмоний, ахлоқий жиҳатдан тарбиялаш, умуминсоний қадриятлар билан таништириш, болаларни мактабга сифатли тайёрлаш мақсадида турли тўғараклар, маънавий ва экология хоналари, кичик музей, кутубхоналар ташкил этиш борасидаги анъаналарни изчил давом эттириш мақсадга мувофиқ. Чунки китобга, санъатга, илмга, умуман, келажакда муайян касбни эгаллашга бўлган қизиқиш болаларда айни шу даврда шаклланади.

“Хулоса ўрнида шуни айтиш керакки, ушбу йўналишда олдимизда турган асосий вазифалардан бири бу — мутасадди ташкилотлар, фуқаролик жамияти институтлари ҳамда ОАВ билан ҳамкорликда

Президентимизнинг янги қарори мазмун-моҳиятини, болаларни эрта ёшдан ривожлантириш, уларни ижтимоий мослаштиришда мактабгача таълим муассасаларининг роли ва аҳамиятини аҳоли орасида янада кенгроқ тарғиб қилиш, чуқур тушунтиришдан иборатдир”[2].

Мухтасар айтганда, мактабгача таълим узлуксиз таълимнинг бошланғич қисми ҳисобланади. У боланинг соғлом ва ривожланган шахс бўлиб шаклланишини таъминлаб, ўқишга бўлган иштиёқини уйғотади, тизимли ўқитишга тайёрлаб боради. Шундай экан, бу тизим фаолиятини янада кучайтириш, мактабгача таълим муассасаларида ҳар томонлама қулай шарт-шароитлар яратиш, уларга мактабгача ёшдаги болаларни кенг жалб этиш фарзандларимизнинг баркамол ва етук шахс бўлиб шаклланишида муҳим ўрин тутаяди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, аъдий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси булиши керак. / Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мулжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йуналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза. 2017 йил 14 январь. - Т.: «Ўзбекистон», 2017. -44-45-б.

2. Турсунов С. Мактабгача таълим — узлуксиз таълим тизимининг пойдевори №2/ <http://www.adolatgzt.uz/policy/munosabat1/4382>

HOSILANING FIZIKA FANIGA TADBIQLARIGA MISOLLAR

Risbekova D.J.

Chirchiq davlat Pedagogika universiteti magistri

Hosilaning fizik ma'nosi. Hosila tushunchasiga olib keladigan ikkinchi masalada harakat qonuni $s = s(t)$ funktsiya bilan tavsiflanadigan to'g'ri chiziq bo'ylab harakatlanayotgan moddiy nuqtaning t vaqt momentidagi oniy tezligi

$v_{oniy} = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \frac{\Delta s}{\Delta t}$ ekanligini ko'rgan edik. Bundan hosilaning fizik (mexanik)

ma'nosi kelib chiqadi.

$s = s(t)$ funktsiya bilan tavsiflanadigan to'g'ri chizikli harakatda t vaqt momentidagi harakat tezligining son qiymati hosilaga teng $v_{oniy} = S'(t)$

Hosilaning mexanik ma'nosini qisqacha quyidagicha ham aytish mumkin: yo'ldan vaqt bo'yicha olingan hosila tezlikka teng.

Hosila tushunchasi nafaqat to'g'ri chizikli harakatning oniy tezligini, balki boshqa jarayonlarning ham oniy tezligini aniqlashga imkon beradi. Masalan, faraz qilaylik $y = Q(T)$ jismni T temperaturaga qadar qizdirish uchun uzatilayotgan issiqlik miqdorining o'zgarishini tavsiflovchi funksiya bo'lsin. U holda jismning issiqlik sig'imi issiqlik miqdoridan temperatura bo'yicha olingan hosilaga teng bo'ladi:

$$C = \frac{dQ}{dT} = \lim_{\Delta T \rightarrow 0} \frac{\Delta Q}{\Delta T}.$$

Umuman olganda, hosilani $f(x)$ funksiya bilan tavsiflanadigan jarayon oniy tezligining *matematik modeli* deb aytish mumkin.

Misol-1.

Motorli qayiq turg'un suvda 20 km/soat tezlik bilan harakatlanmoqda. Ma'lum vaqtdan keyin motor ishdan chiqdi. Motor to'xtagandan 40 sekund vaqt o'tgach qayiqlarning tezligi 8 km/soat bo'ldi. Suvning qarshiligi tezlikka proporsional bo'lsa, motor to'xtagandan 2 minut vaqt o'tgach qayiq tezligini toping.

Yechish.

Qayiqqa $F = -kv$ kuch ta'sir qilmoqda. Nyuton qonuniga ko'ra $F = mv'(t)$ Bundan $mv'(t) = -kv$.

Bu tenglamani $v(t) = Ce^{-\frac{k}{m}t}$ ko'rinishdagi funksiya qanoatlantiradi. $t = 0$ da $v = 20$ shartidan $C = 20$ kelib chiqadi.

Bundan soat $v(t) = 20e^{-\frac{r}{m}t}$ $t = 40s = \frac{1}{90}$ bo'lganda qayiqning tezligi 8 km/soatga teng, bundan $8 = 20e^{-\frac{r}{m} \cdot \frac{1}{90}}$ yoki $e^{\frac{r}{m}} = \frac{20}{8} e^{\frac{90}{m}}$ hamda $t = 2 \text{ min} = \frac{1}{30}$

soat bo'lganidan $v = 20 \frac{20}{8} e^{-\frac{1}{30}} = 20 \frac{20}{8} e^{-\frac{1}{30}} = \frac{32}{25} \approx 1,28$ (km/s) ekanini topamiz.

Javob: motor to'xtaganidan 2 minut vaqt o'tgach, qayiqlarning tezligi taxminan 1.28 km/soatga teng bo'ladi.

Misol-2

Radioaktiv yemirilish natijasida radioaktiv modda massasi $m(t)$ ning vaqtga nisbatan o'zgarish qonuniyatini toping?

Bu yerda $m(t)$ - gramm, t - yillarda o'lchanadi.

Yechish.

Yemirilish tezligi massaga proporsional deb faraz qilsak,

$$m'(t) = -\alpha m(t)$$

differensial tenglamaga ega bo'lamiz. $m(t) = Ce^{-\alpha t}$ funksiya bu tenglamaning yechimi ekanligini tekshirish mumkin.

$m_0(t_0) = m_0$ boshlang'ich shartdan $m(t) = m_0 e^{-\alpha(t-t_0)}$ qonuniyatga ega bo'lamiz.

Javob: $m(t) = m_0 e^{-\alpha(t-t_0)}$.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ш.А. Алимов и др. Алгебра и начала математического анализа, учебник для 10–11 класса. Учебник для базового и профильного образования, Москва, “Просвещение”, 2016.

2. Mal Coad and others. Mathematics for the international students. Mathematical Studies SL 2nd edition. Naese and Harris publications. 2010.

3. А.Н. Колмогоров и др. Алгебра и начала анализа. Учебное пособие для 10–11 классов. Москва, “Просвещение”, 2018.

4. Э. Сайдамов и др. Алгебра и основы математического анализа. часть 2 учебное пособие, Ташкент, “Ilm ziyo”, 2016.

5. А.У. Abduhamidov va boshqalar. Algebra va matematik analiz asoslari, 1-qism, Toshkent, “O'qituvchi”, 2012.

М.А. Mirzaahmedov, Sh.N. Ismailov. Matematikadan qiziqarli va olimpiada masalalari. I qism, Toshkent, “Turon-Iqbol”, 2016.

6. Matematikadan qo'llanma, I va II qismlar. O'qituvchilar uchun qo'llanma. Prof. T.A. Azlarov tahriri ostida. Toshkent, “O'qituvchi”, 1979.

7 М.А. Mirzaahmedov, D.A. Sotiboldiyev. O'quvchilarni matematik olimpiadalarga tayyorlash. Toshkent, “O'qituvchi”, 1993.

8 М.А. Mirzaahmedov, Sh.N. Ismoilov. 10-sinf uchun “Algebra va analiz asoslari” dan testlar, G'ulom NMIU, Toshkent, 2005.

9 В.М. Говоров и др., Сборник конкурсных задач по математике, Наука, М., 1984.

10 Т.А. Azlarov, X. Mansurov. Matematik analiz asoslari. 3-nashr, “Universitet”, Toshkent, 2005.

20. Б.П. Демидович. Сборник задач и упражнений по математическому анализу, Наука, М., 1990.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ОПТИМАЛЬНОГО УРОВНЯ ДОЛЛАРИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Рохаталиева Гулёра

*Студент 2 курса математико-экономического факультета
Национального университета*

Анализ современных процессов долларизации является актуальным направлением исследований макроэкономического уровня. Долларизация исследуется как в сфере международных валютных отношений, так и в валютной политике отдельных национальных экономик. Особенно повышенный интерес эти процессы вызывают в условиях мировых экономических и политических кризисов, интеграционных трансформаций, активных экономических реформ в ряде государств. Связано это, как правило, с макроэкономической нестабильностью, с процессами девальвации национальных валют, высокой инфляцией, необходимостью страхования валютных рисков бизнесом и населением, а также с проблемами привлечения иностранных инвестиций [1, р. 4].

Изучение данного вопроса также имеет свои особенности в ходе формирования интеграционных союзов. В начале 2015 г. на постсоветском пространстве был образован Евразийский экономический союз как международная организация региональной экономической интеграции. В настоящее время в ЕАЭС входят пять государств: Армения, Беларусь, Казахстан, Киргизия и Россия – с различным уровнем экономического развития, национальными особенностями макроэкономической политики, в том числе в сфере денежно-кредитных и валютных отношений. В Договоре ЕАЭС поставлена задача сформировать общий финансовый рынок к 2025 г.¹ В связи с этим цель данного исследования – анализ протекающих процессов долларизации в странах ЕАЭС на основе расчета ее уровня в 2015–2018 гг. и выявление инструментов снижения долларизации в Беларуси, Казахстане и в России.

Полученные результаты могут быть использованы для дальнейшего формирования валютной политики стран – участниц интеграционного объединения с учетом особенностей их развития на макроуровне.

Уровень долларизации экономики Узбекистана планируется снизить с 50% до 45% в 2021 году. Показатель вырос из-за того, что банки предпочитали привлекать внешние заимствования для финансирования крупных проектов. Теперь намечено пересмотреть положение расчёта капитала, методологию расчёта показателя краткосрочной ликвидности и принять другие меры.

Уровень долларизации экономики Узбекистана планируется снизить с 50% до 45%.

В ходе послания парламенту президент Шавкат Мирзиёев заявил, что необходимо постепенно уменьшать зависимость экономики от иностранной валюты. Для этого в этом году долю валютных кредитов поручено снизить с нынешних 50% до 45%, то есть не менее чем на 2 млрд долларов.

По состоянию на 1 декабря 2020 года, сумма активов банков составляет 350,4 трлн сумов, из них в иностранной валюте — 172,4 трлн сумов или 49,2% от всей суммы (показатель долларизации банковского сектора). В начале прошлого года этот показатель составлял 47,3%.

Кроме того, на декабрь остаток кредитов в банках составляет 270,7 трлн сумов (+27,9% за 11 месяцев), когда как объём депозитов — 105,8 трлн сумов (+16,3%).

Кроме того, отныне проекты, реализуемые в регионах за счёт внешних заимствований, будут обсуждаться местными Кенгашами и общественностью. Также будет увеличена доля международных облигаций, выпускаемых в национальной валюте, с нынешних 25% как минимум до 40%.

Литература

1. *Dalgic H. C.* Financial Dollarization in Emerging Markets: An Insurance Arrangement : Job Market Paper. – November 2017. – 70 p. – URL: https://cpb-us-e1.wpmucdn.com/sites.northwestern.edu/dist/d/1976/files/2017/11/Dalgic_JMP-tl2393.pdf.

2. *Quispe-Agnoli M.* Costs and Benefits of Dollarization : Paper prepared for the conference “Dollarization and Latin America: Quick Cure or Bad Medicine?” by Latin American and Caribbean Center, Summit of the Americas Center, Florida International University in March 4, 2002. – July 2002. – 30 p. – URL: <http://citeseerx.ist.psu.edu/viewdoc/download;jsessionid=295C83A05F1EF96B3E0E026E6763AB8F?doi=10.1.1.492.7046&rep=rep1&type=pdf>.

3. *Хейзен С.* Долларизация: контроль риска имеет ключевое значение // Финансы & развитие. – 2005. – Март. – С. 44–45. – URL: <https://www.imf.org/external/pubs/ft/fandd/rus/2005/03/pdf/basics.pdf>.

4. *Rivera-Solis L. E.* Dollarization in El Salvador: Revisited : MPRA Paper No. 60087. – February 2012. – URL: https://mpra.ub.uni-muenchen.de/60087/1/MPRA_paper_60087.pdf.

5. *Alesina A., Barro R. J.* Dollarization // American Economic Review. – 2001. – Vol. 91, no. 2. – P. 381–385. – DOI: 10.1257/aer.91.2.381.

BOSHOQLI DON EKINLARINING UN-SHUDRING KASALLIGI, KASALLIK BELGILARI VA ZARARINI O'RGANISHNING AXAMIYATI

Ro'ziyev Shaxzod Shomurod o'g'li

O'simliklar himoyasi va karantini ilmiy-tadqiqot insituti tayanch doktoranti

Qishloq xo'jaligi ekinlari orasida o'zining alohida o'rni bilan ajralib turuvchi bug'doy va sholi yetakchi o'rinlarda turadi. O'zgidromet prognoziga ko'ra, 1031,9 ming gektarga ekilgan kuzgi boshhoqli don ekinlarining o'rtacha hosildorligi 67,8 s/ga, yalpi hosili 6994,6 ming tonnani tashkil etgan. 2022- yilda aholini guruch mahsulotiga bo'lgan talabini ichki ishlab chiqarish hisobiga qoplash uchun jami **111,2 ming** gektar, shundan asosiy maydonlarga **40,3 ming** gektar va takroriy ekin sifatida **70,9 ming** gektarga sholi ekilgan. Ulardan sifatli va mo'l hosil olishda kasalliklarga chidamli serxosil navlarni ekish bilan bir qatorda, kasalliklarini erta muddatlarda aniqlash va ularga qarshi ilmiy asoslangan qarshi kurash choralarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda ichki bozorni sholi bilan to'laqonli ta'minlash va eksport xajmini oshirish maqsadida sholi yetishtirishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-fevraldagi PQ-4973-sonli qarori e'lon qilingan.[1]

Bug'doy va sholining xavfli kasalliklaridan biri un-shudring kasalligi bo'lib, qo'zg'atuvchisi *Blumeria* turkumining bug'doy va sholiga moslashgan maxsus foramalari hisoblanadi. Ularning O'zbekiston sharoitida o'simliklarda tarqalishi, rivojlanishi va zarari ilmiy asosda to'liq o'rganilmagan, lekin un shudring kasalligi boshhoqli don ekinlarini kasallantirish darajasi ko'payib borishi, ushbu kasallikni qo'zg'atuvchi zamburug'larning turlar tarkibini, sistematik o'rnini aniqlash va ularga qarshi samarali kurash choralarini ishlab chiqishga asos bo'ladi.

Don ekinlarining un-shudring kasalligini qo'zg'atuvchisi - fitopatogen askomitset *Blumeria graminis* bo'lib, har xil ekin turlari bilan bog'liq ko'p sonli biologik shakllarga ega. Boshhoqli ekinlarning barcha yer usti qismlariga ta'sir qiladi. U asosan bug'doy, javdar, arpa, suliva va sholi ekinlarida rivojlanadi. Bu kasallikni belgisi oq qoplamaning shakllanishi bilan tavsiflanadi, kasallik rivojlanishi davomida kulrang yoki jigarrang rangga ega bo'ladi [5].

Erysiphe graminis bilan *Blumeria graminis* turini chalkashtirishgan, ammo 1975 yilda faqat boshhoqli donli o'simliklarda un-shudring kasalligini qo'zg'atuvchi yangi *Blumeria graminis* turi aniqlangan. *Blumeria* va *Erysiphe* gaustoriylari va konidial devorlarning tuzilishi bilan farq qiladi. [10]

Bug'doy va sholining poya va barglarida un-shudring kasalligi uchraydi. Uning asosiy mikroskopik belgilari oq o'rgimchak to'ri qoplamasi shaklida namoyon bo'ladi. Kasallik rivojlangan sari uning shakli paxta momig'iga o'xshash

zich chang yostiqlari shaklini oladi. Ko'chatlarda kasallik birinchi navbatda barg qobig'ida siyrak dog'lar shaklida, so'ngra barglarda, odatda yuqori tomonda, kamroq tez-tez har ikki tomondan topiladi. O'sish davrida kasallik yangi hosil bo'lgan barglarga va poyaga tarqaladi. [6].

Kasallikning qo'zg'atuvchisi - *Blumeria graminis* un-shudring zamburug'i (Erysiphales) ga tegishli. Yopiq mevali tanachalar (klestotsey) mavjudligi sababli, bu tartib ilgari plektomitsetlarga tegishli edi. Yaqinda ular pirenomitsetlar tarkibiga kirdi [7].

Blumeria graminis yuzaki mitseliyga ega bo'lib, uchlarida o'sayotgan gifalar, appressoriyalar hosil bo'lib, o'simlik yuzasiga biriktirish uchun moslashtirilgan tekis qalinlashgan shaklga ega. Appressoriyadan hujayralar ichiga kiradigan gaustoriya (barmaq o'simtalari bilan elliptik shishlar) chiqib ketadi. Ularning yordami bilan qo'ziqorin o'simlik hujayralaridan ozuqa moddalarini so'radi.

Infeksiya 0 ° C dan + 20 ° C gacha bo'lgan muhit haroratida va 50 dan 100% gacha bo'lgan nisbiy namlikda sodir bo'ladi. Yuqori harorat, +30 ° C dan yuqori, fitopatogenning rivojlanishini susaytiradi. Kasallikning inkubatsiya davri 3 kundan 11 kungacha, o'rtacha 3-5 kun davom etadi.[6].

Un-shudring zamburug'larining rivojlanish siklida mavsum davomida konidial bosqich asosiy o'rinni egallasa ham, ular jinsiy bosqichda askosporalar yordamida ko'payadi. Ularning askosporalari o'suv davrining ohirlarida rivojlanadigan askokarplar ichidagi asklarda hosil bo'ladi. Bu askokarplar, klestotetsiylar kabi to'la yopiq, ammo asklar ichida notartib ravishda joylashadigan kleystotetsiylardan farqli ravishda, bularning asklari, peritetsey va psevdotetsiylardagi kabi, askokarpning bazal qismida joylashadi[9].

Yorug'lik mikroskopida aniqlanishicha, un-shudring zamburug'larining gaustoriylari bir necha xil bo'lishi mumkin, ammo ularning ultratuzilishi kam sonli misollarda tekshirilgan. Barcha gaustoriylarning ingichka bo'yinchasi va shakli yumaloq, noxsimon yoki boshqa xil bo'lgan tanasi mavjud. *Blumeria graminis* turining gaustoriylarining tuzilishi uziga xos bo'lib, barcha boshqa un-shudring zamburug'aridan farq qiladi, ya'ni gaustoriy tanasidan ko'p, barmaqqa o'xshash o'smalar o'sib chiqadi.

Bug'doy un-shudring bilan qisqa yorug'lik sharoitida eng ko'p zararlanadi. Qayd etilishicha, bahorgi ekinlarning erta ekinlari kech ekinlarga qaraganda kamroq zararlanadi. Kuzgi ekinlar erta ekilganda ko'proq zarar ko'radi [6].

Quruq yillar o'simliklarning kuchli shikastlanishi bilan tavsiflanadi. Bunday holatda zaiflashgan o'simliklar eng ko'p zararlanadi [2]

Xitoyda, un-shudring kasalligi o'zining ahamiyatini oshirmoqda. Oxirgi o'n yillikda olti million gektardan ortiq bug'doy ekin maydonlari har yili almashtirilgan. Hozirda bu mintaqada boshqa bug'doy kasalliklaridan ko'ra xavfliroqdir.[12]

Un-shudring kasalligi bug'doy yetishtiriladigan barcha hududlarda iqtisodiy yo'qotishlarga sabab bo'ladi. Bu kasallik 13% dan 34% gacha, o'rtacha va og'ir kasallik ostida 50-100% gacha don yo'qotilishiga olib keladi.[11]

Xulosa qilib aytganda boshqoli don ekinlarining un-shudring kasalligini qo'zg'atuvchilar tur tarkibi, tarqalishi, rivojlanishi va qishloq xo'jaligiga keltirayotgan zarari to'g'risida Respublika sharoitida ilmiy tadqiqotlar ishlari kam o'tkazilgan. Hozirgi ekologik sharoitdan kelib chiqib, ilmiy tadqiqotlar ushbu kasallikni zararini kamaytirish va kasallikka qarshi biologik va kimyoviy kurash choralarini ishlab chiqishga asos bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-fevraldagi PQ-4973-sonli qarori, Toshkent shahri, O'zbekiston.
2. Вакин А.Т., Головин П.Н. и др. Словарь-справочник фитопатолога. Ленинград Издательство: Сельхозгиз, 1959. - 414 с.
3. Волков С.М., Зимин Л.С., Руденко Д.К., Тупеневич С.М. Альбом вредителей и болезней сельскохозяйственных культур нечерноземной полосы европейской части СССР. – Москва-Ленинград: государственное издательство сельскохозяйственной литературы, 1955. – 488 с.
4. Государственный каталог пестицидов и агрохимикатов, разрешенных к применению на территории Российской Федерации, 2016 год. Министерство сельского хозяйства Российской Федерации (Минсельхоз России) Скачать >>>
5. Доброзракова Т.Л. Сельскохозяйственная фитопатология, 2 – е изд., испр. и доп. Под редакцией М.К. Хохрякова, Ленинград: изд. «Колос», 1974 – 382с.
6. Пересыпкин В.Ф. Сельскохозяйственная фитопатология, 4-е изд., перераб. и доп. - Москва: Агропромиздат, 1989. - 480 с.
7. Чикин Ю.А. Общая фитопатология (часть 1): учебное пособие. – Томский госуниверситет – Томск, 2001 – 170 с.
8. Агроатлас. <http://www.agroatlas.ru>
9. Alexopoulos C.J., Mims C.W., Blackwell M. Introductory mycology. fourth edition. Wiley-India, 2007, x+869 pp *E. graminis* bor obligat parazit, ya'ni uni sun'iy muhitda yetishtirish mumkin emas. (Agrios (2005). *Plant Pathology*.)
10. *Blumeria graminis* Grass Mildew. *Encyclopedia of Life*. Retrieved 25 February 2017
11. Basandrai A. K., Basandrai D. (eds). Powdery mildew of wheat and its management. Apple Academic Press, USA, p. 133–182.
12. Zeng F., Yang L., Gong S., Shi W., Zhang X., Wang H., Xiang L., Xue M., Yu D. 2014. Virulence and diversity of *Blumeria graminis* f. sp. *tritici* populations in China. *Journal of Integrative Agriculture*, 13 (11): 2424–2437.

RUS OIRENTALIZMINING SHAKILLANISHI VA UNING O'ZIGA XOSLIGI

Ro'ziboyev Dostonbek Dilmurod o'g'li
O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

Ruslar ancha qadimdan sharq bilan aloqaga ega bo'lishgan. Vasili Bartold aytganidek Rus yerlari geografik joylashuviga ko'ra dastlabki davlardan o'q g'arb va sharq tasiri ostida bo'lgan¹²⁹. Faqat Buyuk Pyotr davridan boshlab ruslar o'zlarini yevropalik sifatida bilishni boshlaganlar va Osiyoni alohida qit'a sifatida anglashni boshlashdi. Shu davrdan boshlab rus sharqshunosligi tizimli shakillana boshladi. Rus sharqshunosligi - orieontologiyasi uch asrdan ortiq tarixga ega alohida predmet sifatida shakillanib ulgurgan. Rus sharqshunosligi uch asosiy davrga bo'linadi: birinchi davr bu Rus podsholigi davri, ikkinchi davr sovet sharqshunosligi davri, uchunchi davr hozirgi SSSRning asosiy merosxo'ri Rossiyada mavjud bo'lgan sharshunoslik davridir. Albatta bu davrlar o'ziga xosliklar bilan ajralib turadi. Uch davrning ham biz uchun muhim tomoni bu rus orientalizimining sharqni xususan O'rta Osiyoning dini, madaniyatini qanday interpretatsiya qilganligi va obyektiv, subyektiv aspektlarning namoyon bo'lishidir. Ruslarning sharqqa nisbatan qarashlarining shakillanishi bir muncha qiziqarli jarayon bo'lib bu ularning geografik joylashuvi bilan bog'liq bo'lgan chunki rus yerlari yevropaning sharqiy chegarasida va osiyoning bir qismida joylashganligi bu esa dastlab ruslarni o'zini sharqlik sifatida ko'rishiga ham sabab bo'lgan keyingi davrda tizimli asosli bilim va sharqshunoslikning paydo bo'lishi ruslarni o'zini g'arbliklar deb tanishiga asos bo'ladi. Garchand Edvard Saidning faoliyati butun rus orientalizmini tadqiq qilmagan bo'lsa ham uning fikrlari bu yerda ham bilim va kuch munosabatlari yuzasidan savollar tug'diradi. Chunki rus sharqshunosligining tadqiq qilishga qaratilgan orientologik faoliyati tog'ridan tog'ri imperial manfaatlar bilan bog'langan.¹³⁰

1888-yilda Sankpeterburk universitetining rektori ta'limga ma'sul bo'lgan vazirga yo'llagan maktubida: "Agar biz extiyotkorlik bilan o'z missiyamizga tayyorlanmasak va harbiy choralar bilan bir qatorda ularning tilini dinini hududini, yashash tarzi va etiqodini yaxshi tushunadigan kishilarni tabiyalay olmasak, bizning Sharqdagi sivilizatsiya missiyamiz va Osiyoning har bir burchagiga kuchimiz va tasirimiz amalga oshmaydi."¹³¹ Rus sharqshunoslari imperial manfaatlar bilan o'z ilmiy faoliyatlarini bog'liqligini isbotlab bera olganliklari ular uchun keng imkoniyatlarni ochib bergan. Yangi koloniyalarni itoatda ushlab turish uchun ham olib borilgan faoliyat nafaqat kuch va

¹²⁹ V. V. Barthold, *Sochineniia*, vol. 9 (Moscow: Nauka, 1977), 534.

¹³⁰ *Reforming the Tsar's Army* New York: Cambridge University Press, 2004 133-150.

¹³¹ *Materialy dlia istorii*, vol. 2, 185.

sharqshunoslarning bilimiga tayanishi ananaviy orientalizm metodidan mohirona foydalanilganligini ko'rsatib beradi.

Asos solingan yili 1855-yildan boshlab toki Bolsheviklar inqilobigacha Sankt Peterburg universiteti sharqshunoslik fakulteti nafaqat Rossiya balki xorijda ham salohiyat jihatidan Kambridge, Laiden va Yale kabi oliy ta'lim muassalari bilan bir qatorda turgan.¹³² Ayni paytda Rus podsholigi mamuriyati ham sharqshunoslik maktablari va oliy ta'lim muassalarining mavjudligini o'z ambitsiyalarini amalga oshirishning vositasi sifatida ko'rishgan. Shunday anglangan ehtiyoj tufayli Sankt Peterburg universitetida sharqshunoslik fakultetida faoliyatini amalga oshirishi uchun shaxsan podshoning o'zi alohida ijozat bergan. Bu protseslar esa orientalizmning tobora fanning obyektiv doirasidan chiqib subyektivlashgan imperial vositaga aylanib borishiga zamin hozirladi.

Rus akademik orientalizmi va ananaviy orientalizmini yaqqol o'z faoliyatida jamlagan bir qancha buyuk olimlar bor shulardan biri Vasiliy Bartoldir. Vilgelm Bartold (1869-1930) nomi bilan ham tanilgan Vasiliy Viladirimirovich Bartold Sankt Peterburgda tug'ulgan. U XIX asr ikkinchi yarmida rus orientologiyasi va orientalizmning asosiy xal qiluvchi figurant olimlaridan bir edi. U asli nemis ildizlariga ega bo'lganligi uchun ham Vilgelm Bartold nomi bilan ham mashhur bo'ladi.

Rossiyada zamonaviy orientalizm 1807-yilda Qozon universitetining ochilishi bilan qizg'in tarzda boshlanib ketdi. Oliygohdagi sharq tillari kafedra o'qituvchilari sifatida nemis sharqshunoslari Xristian Martin Frahn va Erdman taklif qilingan edilar. Ular sharq tillari to'g'risida maruzalar qilishgan va qadimiy qo'lyozmalarni o'qishgan ularning maruza tili lotin tili bo'lgan. Biroq ularning izchil maktabi kengaymadi. 1856-yilda Qozon universitetining sharq tillari fakulteti Sankt Peterburgga ko'chiriladi. Bundan ko'zlangan maqsad hukumatga yaqinroq bo'lishi edi. Ko'proq amaliy faoliyatga bog'langan maktab Lazerov Sharq tillar insitutiga 1814-yilda Moskvada Arman oilasi tomonidan asos solingan edi. Bu insitut tez orada davlat qo'llovidagi tarjimonlar, administratorlar va Rossiyaning sharqiy, janubiy qismlarida diplomatik misiya tarkibida xizmat qiluvchi kadrlarnig bazasiga aylandi. ¹³³

Rus orientalizmning fenomen sifatida eng qiziqarli tomonlaridan biri shuki u mafkuraviy ideologiyaning almashinuvi natijasida interpretatsiyadagi o'zgarishga uchraganligi bilan Ingiliz, Fransuz orientalizmidan farqli. Avaliga imperial siyosatga xizmat qilgan sharqshunoslar 1917-yildagi inqilobdan keyin sovet ideologiyasiga xizmat qila boshlashdi. Bularga bir qancha misollar bor bulardan eng mashxuri bu Vasiliy Bartold edi.

¹³² Cappadocia Journal of Area Studies (CJAS) 2020, vol. 2, no.2

¹³³ Michael Kemper, Department of European Studies, University of Amsterdam 26 September 2018 Page 6

1920-1930 yillarda SSSRda sharqshunoslikning tabiati va rivojlanish sohalari noaniq va nomuvofiq edi. 1917- yil oktyabr inqilobidan keyin sodir bo'lgan jamiyat va fanidagi inqilobiy siljishlar rus sovet Sharq fanining falsafiy, nazariy, uslubiy va ayniqsa tashkiliy asoslarini qayta ko'rib chiqishni talab qildi. Bu yillarda Moskva, Sankt-Peterburgda sharqshunoslikning institutsional va ilmiy asoslarida tubdan o'zgartirish sodir bo'ldi. SSSRning ilmiy va madaniy markazlari Peterburg, Kiev, Boku, Toshkent, Vladivostok va boshqa markazlarda ayni paytda marksistik leninistik metodologiya, yangi tadqiqot mavzulari, shuningdek, ilmiy va ta'lim muassasalarining yangi tuzilmasi asosida akademik sharqshunoslik shakillandi.¹³⁴

1920-1930 yillarda Rossiya va Sovet Ittifoqining Sharqshunoslik markazlarida hali ham SSSRgacha mavjud bo'lgan sharqshunoslik maktablarining vakillari ishlagan, ammo shu bilan birga rus sharqshunoslarining yangi avlodi shakillana boshlagan. Yangilarining paydo bo'lishi qatorida sharqshunoslik bo'yicha eski jurnallar va ilmiy maqolalar to'plamlari davom ettirilmogda edi. 1920-yillarning ikkinchi yarmida SSSRda sharqshunoslik tobora kuchayib borayotgan mafkuraviy va siyosiy bosimni boshdan kechira boshlaydi.¹³⁵

1920-1930 yillarda Sovet sharqshunosligining tashkil topishi murakkab va ko'p qirrali hodisa edi. Uning boshlanishida bir nechta "inqilobiy" qayta tashkil etish va Sharq ilmining yangilanishi namoyish etildi. Fanlar akademiyasiga qarashli asosiy Sharqshunoslik markazi hali ham Osiyo muzeyi edi. 1921 yilda Osiyo muzeyi sharqshunoslar Kengashini tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi. U Peterburg universitetlari va akademik markazlarining professor-o'qituvchilari va olimlarini birlashtirdi.¹³⁶

Burjua va sovet orietologiyasi o'z obyektiga sharq xalqlarining o'tmishi va buguni nutayi nazaridan diametrikal qarama-qarshidir. Burjuaziya orientologiyasi boshlanishidan Yevropaliklar va Amerikaliklarning koloniyalashtirish va ratsizm dunyoqarashini ifodalaydi. Burjuaziya orientologiyasi o'zini "G'arb" (Yevropa madaniyati AQSHni ham o'z ichiga olgan) deb nomlaydi va "sharq"qa qarshi qo'yadi shuningdek sharqni irqiy jihatdan kamsitadi uning tarixtagi o'rniga nisbatan taqdiri o'z qo'lida bo'lmagan tarixning egalari emas obyektlari sifatida qaraydi. Burjua orientologiyasi imperialistik mamlakatlarning siyosatiga to'liq bo'ysundirilgan. Aksincha sovet orientologiyasi marksizim va lelinizim metodologik yondashuviga asoslangan

¹³⁴ Journal for Educators, Teachers and Trainers, Vol. 12 (1) Post-revolution oriental studies in the ussr: correspondence between v. V. Bartold and a. Y. Krymsky in the 1920s Page 4

¹³⁵ Journal for Educators, Teachers and Trainers, Vol. 12 (1) Post-revolution oriental studies in the ussr: correspondence between v. V. Bartold and a. Y. Krymsky in the 1920s Page 4

¹³⁶ Journal for Educators, Teachers and Trainers, Vol. 12 (1) Post-revolution oriental studies in the ussr: correspondence between v. V. Bartold and a. Y. Krymsky in the 1920s Page 4

holda g'arb burjua orientologiyasiga qarama qarshi holda sharqni o'rganadi.¹³⁷ Bu 1951 yil Buyuk Sovet Entsiklopediyasining "vostokovedenie" haqidagi yozuvidan olingan. Iqtibos SSSRdagi marksistik orientologiyaning o'z-o'zini ko'rishini qamrab oladi. Akademik manodagi orientalizm sovet davrida ham hukumat va partiya nazorati ostida o'z taraqqiyodida davom etdi. Sovet orientalizmining asosiy xususiyatlaridan biri bu mahalliy ananaviy orientalizm vakillariing shakillantirilganligi. Bunga sabab barcha sovet respublikalari qatori markaziy osiyoda olib borilgan ilmiy ishlar ham SSSR fanlar akademiyasi tomonidan autorizatsiya qilinardi. G'oyaviy metodologik yondshuv sifatida esa marksizim va lelinizim metodologiyasi asos qilib olingan edi.

Zamonaviy Rossiyada orientalizm har yerda: sa'nat, adabiyot, kino, siyosiy munozaralardagi jinoyatchilik va imigratsiya mavzularida shuningdek Rossiyaning yevropalik va osiyolik identikligi tahlilida va albatta fanda o'zini namoyon etadi. Biroq kuch va bilimning o'zaro qanchalik aloqadorlik va munosabatda ekanligi Saidning tilida muxokama qilinmaydi. Bunga eng asosiy sabablardan biri bu Edvard Saidning asari ancha keyin 2006-yilda chop etilganligi va tahlillarning oz bo'lganligi bilan ham bo'lishi mumkin.¹³⁸ Edvard Saidning Orientalizmi Rossiya universitetlarida ham madaniy tahlilning ramziy asari sifatida qaralgan bo'lsa ham, uning orientologiya faniga ta'siri past edi. Birinchi to'liq ruscha tarjima 2006-yilda paydo bo'lgandan so'ng Orientalizmga keltirilgan komentariy tahlillar va interpretatsiyada asarni faqat G'arbgaga yo'naltirilganligiga ishontirishga harakat qilishdi va buni komentatorlar ta'minlagan edi. Yirik rus sharqshunoslari Orientalizmni sayoz dalilarga asoslagan polemik asar sifatida rad etishdi.¹³⁹

Rus orientalizmi uch asrdan ortiq tarixiy davrni bosib o'tdi. U dastlab siyosiy iqtisodiy qiziqish va ehtiyojlar yuzasidan shakillangan akademik fan bo'lsa keyinchalik qudratni o'zida jamlagan Rus imperiasining imperial siyosatining amalga oshirish vositasiga aylandi. SSSRning qulashidan so'ng rus orientalizmi yagi asoslar va vazifalar topishga acha vaqt sarfladi. Zamonaviy rus orientalizmi asosiy vazifa sifatida post-sovet hududida o'z tasirini yo'qotmaslik va uni qayta tiklashga harakat qilmoqda buning uchun u madaniyatdagi yetakchilik va kuch ta'siridan foydalanishga alohida u'rg'u bermoqda. Asosiy e'tibor rus tili va axborotning ta'siriga qaratilmoqda. Bugungi Rus orientalizmi sharq bilan bo'lgan munosabatlarda mushtarakliklar qidirishga harakat qilmoqda chunki bunga

¹³⁷ "Vostokovedenie," Bol'shaia sovetskaia entsiklopediia, vol. 9 (Moscow: Bol'shaia sovetskaia entsiklopediia, 1951), 193–202, here: 193–194.

¹³⁸ Vladimir Bobrovnikov, "Pochemu my marginaly? (Zametki na poliakh russkogo perevoda 'Orientalizma' Edvarda Saida)," *Ab Imperio* 2 (2008): 325–344.

¹³⁹ Sergei A. Panarin, "Edvard Said: kniga sofizmov," *Istoricheskaia ekspertiza* 2, no. 3 (2015): 78–105. See also the contributions to Seied Dzhavad Miri and Vladimir O. Bobrovnikov, eds., *Orientalizm vs. Orientalistika* (Moscow: Sadra, 2016).

siyosiy yakkalanganligi sababdir. Shuning uchun ham u Markaziy Osiyoga nisbatan o'zining sobiq koloniyasi sifatida qaraydi va unga ko'proq tasir o'tkazishni xoxlaydi. O'z tarkibidagi musulmon axoli va post-sovet xududini qamrab oladigan yangi idalogik xoslik Yevroosiyolik identikligiga alohida e'tibor bermoqda. Xulosa shuki mustamlakadan keyingi xududlarga nisbatan munosabatda eng dastlabki ta'sir vosita kuch bilan dastaklanadigan madaniy ta'sir va gegemonlikka alohida urg'u berilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Edward Said, *Orientalism*, New York: Vintage Books, 2003, 9.10. .
2. Cole, Nicki Lisa, Ph.D. "What Is Cultural Hegemony?" ThoughtCo, Aug. 28, 2020, [thoughtco.com/cultural-hegemony-3026121](https://www.thoughtco.com/cultural-hegemony-3026121).
3. "Vostokovedenie," *Bol'shaia sovetskaia entsiklopediia*, vol. 9 (Moscow: Bol'shaia sovetskaia entsiklopediia, 1951), 193–202, here: 193–194.
4. Vladimir Bobrovnikov, "Pochemu my marginaly? (Zametki na poliakh russkogo perevoda 'Orientalizma' Edvarda Saida)," *Ab Imperio* 2 (2008): 325–344.
5. Sergei A. Panarin, "Edvard Said: kniga sofizmov," *Istoricheskaia ekspertiza* 2, no. 3 (2015): 78–105. See also the contributions to Seied Dzhavad Miri and Vladimir O. Bobrovnikov, eds., *Orientalizm vs. Orientalistika* (Moscow: Sadra, 2016).
6. *Journal for Educators, Teachers and Trainers*, Vol. 12 (1) Post-revolution oriental studies in the ussr: correspondence between v. V. Bartold and a. Y. Krymsky in the 1920s Page 4
7. Michael Kemper, Department of European Studies, University of Amsterdam 26 September 2018 Page 6
8. *Materialy dlia istorii*, vol. 2, 185.
9. *Cappadocia Journal of Area Studies (CJAS)* 2020, vol. 2, no.2
10. V. V. Barthold, *Sochineniia*, vol. 9 (Moscow: Nauka, 1977), 534.
11. *Reforming the Tsar's Army* New York: Cambridge University Press, 2004 133-150.

ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ – ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ЯККАЮ ЯГОНА ТЎҒРИ ЙЎЛИДИР!

Рўзиев Ойбек Садуллоевич

Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти, ассистент

Кажанова Ойгул Унгаровна

Ўзбекистон Давлат Санъат ва маданият институти, магистр

Юртимизда сўнгги йилларда “Инсон қадрини” таъминлаш остида олиб борилаётган ислохотлар инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини таъминлаш, унинг ҳаёти, кадр-қимматини ҳимоя қилишнинг негизи асосида шаклланишининг гувоҳи бўлди. Шу ўринда, айниқса, миллат кўзгуси бўлган ўқитувчиларнинг инсон сифатида ҳам касбий нуқтаи назаридан ҳам эъзозланиши бу юртнинг келажаги порлоқ бўлишига исботдир. Давлатимиз раҳбарининг 20 декабрь 2022 йилдаги Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномасида таъкидланганидек, ўқитувчиларнинг мақомини, уларнинг шаъни ва кадр-қимматини ҳимоя қилишни Конституцияда алоҳида белгилаб ўтилган.

Президентимиз томонидан 2023 йилни «Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили» деб эълон қилиниши эса нур устига нур бўлиб, жуда қувонарли воқеа бўлди. Халқчил сиёсат туфайли ёшлар мардона илм чўққиларини эгаллашлари, ўзларининг ақл-заковатлари, ижодий имкониятлари ва куч-қувватларини тўлиқ намоён этишлари ва ривожлантиришлари учун барча шароитлар муҳайё дегани бу. Бугунги кенг кўламли имкониятлар даврида ўсиб келаётган ҳар ёш авлоднинг жамиятда шахс бўлиб шаклланишида таълим тизимининг ўрни беқиёс. Бежизга маърифатпарвар жадид боболаримиз “Нажот – таълимда, нажот – тарбияда, нажот – билимда. Чунки, барча эзгу мақсадларга билим ва тарбия туфайли эришилади”, дея айтиб ўтишмаган. Нажот таълимда сўзининг қудратини эса муаллим юзага чиқаради.

Бугунги кунда таълим тизимида сифатли таълимни таъминлаш учун ўзига хос ёндашув керак. Бу ёндошув эса жамият ривожига табиий фанларнинг ўрни беқиёс эканлигини белгилаб беради. Кимё саноати химия, тиббиёт биология, инсон ҳаёти эса физика фани билан чамбарчас боғлиқ. Биргина мактаб мисолида айтадиган бўлсак, бу фанларни замонавий технология, яхши жиҳозланган лаборатория ёрдамида ўтиш таълим сифатини оширади. Аммо ўқитувчининг маҳорати ва савияси эса ундан-да муҳим роль ўйнайди. Шу ўринда Суқротнинг таълим борасидаги фикрини келтириб ўтиш жоиз. “Мен ҳеч кимга ҳеч нарса ўргата олмайман, бор-йўғи уларни фикрлашга мажбур қила оламан”. Оддий мактабларда қачон давлат

бюджетидан маблағ ажратилади-ю, қачон замонавий технологияларга мос шароитда дарс ўтсам таълим сифати ошади, дея фикрловчи ўқитувчилар бугунги куннинг долзарб муаммоларидан биридир. Билим ва савияли ўқитувчининг қуроли доска, бўр ва латта ҳисобланади. Ўқитувчи ўз имконияти ва педагогик маҳорати, билимига таянган ҳолда дарс ўтса фанига бўлган қизиқиш ортса ортадики, асло камаймайди.

Давлат умумий ўрта таълим мактабларидан ўқувчиларнинг хусусий мактабларга ота-оналари томонидан ўтказилиш ҳолатлари бугунги кунда таомил тусига айланмоқда. Нимага? Нодавлат таълим ташкилотларининг қулайлиги, афзаллиги нимада? Тўғри, ҳар бир ота-она фарзандининг яхши шароитда ўқиб, замонавий технологиялар қуршовидаги таълим масканида ўқитиб, келажаги учун пишиқ-пухта таълим пойдеворини қўйишни истайди. Майли, пул кетса-кетсин, болам ўқисин, одам бўлсин, дейди-да.

Ўрганишлар ва социологик таҳлиллар асосида таълим тизими кескин ўзгаришни талаб қилмоқда. Яъни сифатли таълим ёш авлодга тақдим этиш. Сабаби, ўрта мактабни тугатаётган ўқувчилар орасида ким бўлсам экан деган саволни кўпинча замон талабидан келиб чиқиб ота-оналар ҳал қилишмоқда. Чет элларда имконияти бор ота-оналарнинг фарзандлари нуфузли олийгоҳларда асосан иқтисод соҳасида шартнома асосида ўқишни давом эттирмоқда, имконияти йўқ ота-оналарнинг болалари “қора ишчи” бўлиб келмоқда. Шу номуносибликни йўқотиш учун ҳам давлат умумий ўрта таълим масканларига репетиторлик қилаётган кучли ўқитувчиларни қайтариш керак. Зеро, моддий манфаат сабаб улар нодавлат таълим масканларига ўтиб кетишмоқда. Барча ота-оналарнинг энг оғриқли нуқтаси бу фарзандининг мактаб таълими қониқтирмаётганлиги ва натижада қўшимча тарзда репетиторга ҳақ тўлаб ўқитилаётганидир.

Физик олим Альберт Эйнштейннинг бир гапи бор. “Мен ҳеч қачон ўз ўқувчиларимни ўқитмайман, бор-йўғи улар ўқиб-ўрганиши учун шароитни таъминлашга ҳаракат қиламан”. Демак, сифатли таълимни таъминловчи асосий устун бу — ўқитувчининг педагогик маҳорати. Тан олиш керакки, бугун кечагидек яшаб ёки ишлаб бўлмайди. Хориж давлатларининг илм-тараққиётда эришаётган ютуқларини кузатиш ва ўрганиш зарур. Фойдалисини олиб, ўз тажрибасида қўллаш, таҳлил қилиш — давр талаби. Натижада касбий маҳорат ошгани сайин фан юксак поғоналарга чиқиб юксалаверади. Токайгача тарихдан маълумки деб шам ёруғида илм олган ота-боболаримизнинг эришган ютуқлари билан мақтанамиз? Хоразмий алгоритми, Беруний глобуси, Фарғонийнинг нилометри, Мирзо Улуғбекнинг юлдузлар жадвали ва ҳоказо. Лекин ўтмиш билан фахрланиш яхши, аммо бугунги ўтаётган кунимиз ҳам бир кун ўтмиш бўладику. Шунда ёш авлодга

нимани мерос қилиб қолдирамиз? Улар келгусида биз билан фахрлана оладиларми?

1. Бугунда ўқитувчилар орасида номзодлик ишини орзу қилиб юрганлар бир қанча. Оммавий ахборот каналларда умумий лойиҳа асосида танлов ўтказиб меҳнати ва эришилган кўрсаткичига қараб номзодлик (PhD) унвони беришлиши мақсадга мувофиқ. Бунда, мисол учун олий таълимга кира олмаётган ўқувчиларининг кўрсаткичи бўйича энг паст мактаб танлаб олинади. Ушбу мактаблар рўйхати эълон қилинади. Ҳар бир номзод ўзига яқин бориб ишлашга қулайини танлайди. Тажриба тариқасида 10-11-синф ўқувчилари икки йил мобайнида номзодликка эга бўлишни истаган ўқитувчи ихтиёрий мактабни танлаб олиб, ҳам номзодлик илмини давом эттиради. Ушбу давр ичида ўқитувчи ўз маҳоратини ишга солиб ўқувчиларни олий таълим муассаларига кириш кўрсаткичини сезиларли даражада кўтариб берса, шу ўқитувчига фан номзодлигини бериш кўриб чиқилади. Бу билан мактабларнинг ва фан ўқитувчисининг ҳам рейтинги ошади. Бундан ташқари, ўқитувчилар орасида соғлом рақобат, сифатли таълимга бўлган талаб ҳам кучаяди. Давлатимиз раҳбарининг “агар, битирувчиларимизни тил биладиган, касбни пухта эгаллаган, креатив фикрлайдиган, Ватанини севадиган ва шу билан бирга замонавий ахборот технологиядан фойдаланадиган қилиб тарбияласак, албатта жамият, бутун Ўзбекистон ўзгаради”, деган асосий ғоясининг моҳияти ҳам шу.

2. Техника йўналишида фойзаларга асосланган фан олимпиадаларини ўтказиш. Олимпиаданинг биринчи босқичи онлайн тарзда ўтказилади. Иккинчи босқич вилоятлардан чегараланмаган миқдорда 80% дан кўп баллни тўплаган ўқувчилар Олимпиада Қўмитаси томонидан белгиланган жойга йиғилади. Ушбу тур натижаларига кўра Республикамизда фаолият олиб бораётган олийгоҳлар нуфузига қараб тақсимланиши, яъни 80% дан юқори балл олган ўқувчилар барча олий юртларига, 70%–80% орасида балл олган ўқувчилар рейтингда пастроқ ўриндаги олий ўқув юртларига, 60%–70% орасида балл олган ўқувчилар энг паст кўрсаткичли олий ўқув юртларига имтиҳонсиз қабул қилиш кўзда тутилган. Бундан мақсад “Мудраб ётган” фан ўқитувчилари “уйғониб” ўз устида ишлаб, ўқувчиларини ҳеч бўлмаганда 60% ли натижа учун тайёрлайди. Натижада ўқитувчи Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 майдаги “Иқтидорли ёшларни аниқлаш ва юқори малакали кадрлар тайёрлашнинг узлуксиз тизимини ташкил этиш тўғрисида” ги қарори қарор асосида моддий таъминотини ривожлантиради.

Хулоса қилиб айтганда, 2022—2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясининг тўртинчи устувор йўналишида айнан адолатли ижтимоий сиёсат юритиш, инсон капиталини

ривонлантириш бўйича қатор мақсадлар белгилаб қўйилган. Демак, олдимда турган вазифа — сифатли таълимни ёш авлодга тақдим этишдир. Янги Ўзбекистоннинг келажаги эртанги куни маърифатли жамият асосига қурилади. Бу жамиятда эса илм-фан ривожланиши, юксалиши даркор.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 20 декбардаги Олий мажлисга ва Ўзбекистон халқига мурожаатномаси
2. “Марифат” газетаси 2023 йил 25 январ
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 майдаги “Иқтидорли ёшларни аниқлаш ва юқори малакали кадрлар тайёрлашнинг узлуксиз тизимини ташкил этиш тўғрисида” ги Қарор.

**O'ZBEKISTONING TASHQI SAVDOSINI RIVOJLANTIRISH
VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

Umurzakova Nargisaxon Muxtarovna
TDAU katta o'qituvchisi

Ruziqulov Nazarbek
TDAU 2-bosqich talabasi

Mavjud muammolar: Jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan xalqaro iqtisodiy munosabatlarning umumiy hajmi 75-80 % tashqi savdoning ulushiga to'g'ri keladi.

Xalqaro savdoda - xalqaro mehnat taqsimoti asosida paydo bo'ladigan turli davlatlarning tovar ishlab chiqaruvchilari o'rtasidagi aloqalarning bir shakli bo'lib, ular o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy bog'liqliklarini namoyon qiladi.

Adabiyotlarda keltirilishicha tashqi savdo aylanmasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, jahonda ishlab chiqarish 10% ga ko'paygan holda jahon savdosi 16% ga o'smoqda.

Tashqi savdo deganda - bir mamlakatning boshqa bir mamlakat bilan haq to'lanadigan olib kirishi, yaoni eksport va haq to'lanadigan olib chiqish, yaoni eksportdan iborat savdosi tushuniladi.

Dunyodagi barcha mamlakatlarning haq to'lanadigan tovar aylanmasi yig'indisi esa - xalqaro savdo deb ataladi.

Xalqaro savdo jarayonida davlatimizning statistik ma'lumotlarga ko'ra qishloq xo'jalik mahsulotlari eksporti 25 % ni tashkil etmoqda, agar aholini o'sish sur'atlarini e'tiborga oladigan bo'lsak bu mavzu naqadar dolzarblikni tashkil etishini ta'savur etish qiyin emas. Vaholanki, aynan shu ko'rsatkich

rivojlangan mamlakatlarga qaraydigan bo'lsak ularda qishloq xo'jaligi mahsulotlari YAIM- dan 5%dan oshmaydi Masalan, AQSHda qishloq xo'jaligi mahsulotlari 0,5% dan oshmaydi, Yaponiyada esa 1% dan oshmaydi.

O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 25%ni tashkil etadi bu esa juda baland ko'rsatkich davlatimiz qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji yil sayin oshib bormoqda. Agar shu tarzda xalqaro savdoni amalga oshirishda davom etadigan bo'lsak iqtisodiyotni rivojlanishiga emas aksincha pasayishiga ya'ni, topgan daromadning asosiy qismi rivojlanishiga emas faqat iste'molga hizmat qiladi.

Shu o'rinda O'zbekiston respublikasining bu borada tutgan o'rni, olib borayotgan siyosati qay darajada degan haqli savol tug'iladi.

Eng avvalo O'zbekiston JAHON SAVDO TASHKILOTIGA to'laqonli a'zolicini mustahkamlashi lozim bo'ladi. Bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni bir nechta guruhga guruhlashtirish mumkin.

Birinchidan, iqtisodiyot yaoni bozor sohasiga davlatni aralashuvini keskin kamayrish kerak. Bu bilan davlatdagi ishlab chiqaruvchilar faoliyati erkinlashadi. Ularni oldida faoliyat turlarini erkin tanlash, bozorga moslashish jarayoni yuz beradi. Oqqan daryo albatta oqadi-deganlaridek bozor o'z iste'molchisi va ishlab chiqaruvchisini topadi. Bozorda bo'sh qolgan joylar esa albatta xalqaro savdo hisobidan to'ldiriladi. Natijada bozorning asosiy qonuni bo'lgan talab va taklif qonunlari haqqoniy ishlay boshlaydi.

Ikkinchidan, bojhona bojlarini takomillashtirish kerak, albatta import bilan bir vaqtda eksport masalasiga ham e'tibor qaratish kerak. Jahon bozorida bizning mahsulotlar arzon va haridori ko'pligi sir emas, jahon bozorida o'z o'rnini topgan bo'lar edi. Bunga misol qiladigan bo'lsak Xitoy xalq respublikasini jahon bozoridagi o'rni juda ham katta bunga sabab bojhona bojlari deyarli yo'q bu davlat har bir davlatning daromadiga qarab narx belgilash amaliyotiga egadir. Rivojlanayotgan davlatlarga arzonroq sotadi va aksincha rivojlangan davlatlarga esa yuqoriroq narxda sotishadi shuning uchun ham xitoy iqtisodiyoti yildan-yilga rivojlanib bormoqda hozirda jahon savdosida xitoyning ulushi 10-12% ni tashkil etmoqda.

Statistika ma'lumotlariga ko'ra Xitoy iqtisodiyoti 2040 - yilga borib AQSH iqtisodiyotidan ham o'tib ketishi pragnoz qilinmoqda ishlab chiqarish industriyamizni yanada takomillashtirib borishimiz lozim bo'ladi .

Uchinchidan, texnologiyalarni rivojlantirishimiz kerak, bunga esa IT ni mukammal rivojlantirib takomillashtirib borishimiz zarurdir. Qanchalik IT sohasiga katta urg'u bersak texnologiyalarimiz rivojlana boradi shundagina ishlab chiqarish industriyamiz 10-barobargacha o'sishiga olib keladi. Yaponiyada ITni rivojlantirishga 1970-75-yildan beri katta ahamiyat berib kelmoqda. Yaponiyada IT sohasiga YaIM dan 5-6% ni shu sohaga yo'naltiradi

shu sababli ham Yaponiyada texnologiyalar rivojlanib ketgan avtomobil ishlab chiqarish, kimyo sanoati, farmatseftika, mobil telefonlar, komyuterlar ishlab chiqarish bo'yicha va shu mahsulotlarini eksport qilishda dunyodagi yetakchi davlatlar qatorida turadi.

Albatta keyingi yillarda davlatimiz rahbari SH.Mirziyoev bu sohaga alohida e'tibor qaratmoqdalar va biz ham Yaponiya kabi IT sohasiga YaIM dan 5% ni yo'naltirsak jadal sur'atlarda rivojlana boramiz shundagina texnologiyalar rivojlanadi ishlab chiqarish salohiyatimiz yanada o'sishiga hizmat qiladi.

To'rtinchidan, korrupsiyani butunlay yo'q qilish va nafaqat barchamiz o'ylashimiz balki bilishimiz va amin bo'lishimiz kerak. Korruptsiyaga qarshi kurash choralari keskin oshirish, jazo choralari kuchaytirish lozim, natijada insonlar korrupsiyaning oqibatlari to'g'risida aniq tiniq ta'savurga ega bo'lishi lozim.

Beshinchidan, ta'lim tizimini tubdan isloh qilishimiz, yanada rivojlantirib borishimiz lozim. Shu o'rinda ta'lim tizimiga berilayotgan e'tiborni yanada oshirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi, bejizga iqtisodchilar "Eng yaxshi sarmoya –bu ilmga sarflangan sarmoya"- deyishmaydi.

Oltinchidan, tadbirkorlikni yanada rivojlantirib borishimiz lozim.Oxirgi paytlarda kichik biznesga katta ahamiyat berdik ammo katta biznesga yani katta tadbirkorlikka yetarlicha sharoit yaratib bera olmayapmiz. Bizlar yirik tadbirkorlarni yanada qo'llab quvvatlab keng imkoniyatlar yaratib berishimiz, yirik tadbirkorlarni birlashtirishimiz ya'ni korparatsiyalarni tashkil qilib ularni rivojlantirib borishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xususiy sektorlarni ham yil sayin oshirib borishimiz davlat mulklarini xususiylashtirib borishimiz lozim shundagina rivojlanish bo'ladi bog'cha, maktab, shifoxonalar bosqichma bosqich xususiylashtirishimiz lozim davlatda qanchalik xususiylashtirishga kengroq yondashsak rivojlanib borishimiz yanada tezlashgan bo'lar edi.

Xulosa: Iqtisodiyotni rivojantirish uchun eng avvalo valyutamizni qadrini oshirib borishimiz lozim, bunga esa O'zbekiston Jahon bozorida qaysi davlatlar bilan savdo – sotiq ishlarini olib borsa o'sha davlatlarga eksport qilgan mahsulotlarimizni o'zimizni valyutada so'mimizda mahsulotlarimizga to'lov qilishini taklif qilishimiz, boshqa davlatlarga iloji boricha iqtisodiy ahvolimizdan kelib chiqib o'z valyutamizda qarz berishimiz bizning valyutamiz qisqa vaqt ichida jahon bozorida valyutamizni qadri oshib borgan bo'lar edi. Shundagina so'mimizda inflatsiya darjasi yo'q bo'lib ketadi, ya'ni qaysi valyuta jahon bozorida ko'p ishlatila boshlansa o'sha valyutani inflatsiya darajasi ham tushib boradi.

Shaffoflikni ham oshirib borishimiz lozim iqtisodiyotda qancha shaffoflik bo'lsa shuncha yuksalish bo'ladi ya'ni shaffoflik kuchli bo'lsagina davlatimiz tez

sur'atlarda o'sib boradi korrupsiya holatlari kamroq bo'ladi ya'ni xalqimiz qaysi sohalrga qancha mablag' ajratyotganligini bilsagina ochiq iqtisodiyot tizimi yuz beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Jaxon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik
2. A.V.Vaxobov, D.A.Tojiboeva, SH.X.Hajibakiev. –Toshkent Baqtriya-pres. 2015.
3. SH.M.Mirziyoev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini tahminlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” – T. “O'zbekiston”. 2017

ПРОБЛЕМЫ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Рузметова Новваль Вахабджановна

д.ф.н.н (PhD) Старший преподаватель кафедры «Узбекский язык и иностранные языки» Академии МВД Республики Узбекистан

Реформы в профессиональном образовании проводятся на основании Указа Президента Ш.М. Мирзиёева «О дополнительных мерах усовершенствования системы профессионального образования», принятого 6 сентября 2019 года. Согласно данному указу, внедряется новая система непрерывного профессионального образования: начальное, среднее и среднее специальное. Для взрослого населения и безработных граждан организуются центры профессионального обучения. В настоящее время в области профессионального образования создана сеть образовательных учреждений, состоящая из 340 профессионально-технических школ, 147 колледжей и 143 техникумов, подготовка кадров в которых должна осуществляться на основе образовательных программ, соответствующих 3, 4 и 5 уровням Международной стандартной классификации образования 2011.

Профессионально-технические школы обеспечивают профессиональное образование для выпускников 9-х классов. Большая часть времени обучения здесь уделяется практическим занятиям. Обучение ориентировано на области семейного бизнеса, строительство, услуги, животноводство, птицеводство, пчеловодство, рыболовство и т.д.

Колледжи обеспечивают подготовку специалистов, имеющих как минимум общее среднее образование, в форме дневного, вечернего и заочного обучения с продолжительностью до двух лет. На выпускников колледжей крупные потенциальные работодатели создают портфель

заказов, исходя из текущей и будущей потребности в работниках, что гарантирует трудоустройство выпускников.

Выпускникам техникумов, успешно окончившим образовательные программы, предоставляется право продолжения учебы со 2-го курса соответствующих направлений образования бакалавриата высших образовательных учреждений без вступительных экзаменов на основе индивидуального собеседования. Таким образом, представляется возможность продолжить обучение и улучшать свои профессиональные знания и навыки.

Главная цель проводимых преобразований - вывести отечественную систему подготовки кадров на новый уровень, соответствующий мировым стандартам. Кроме того, Президентом страны поставлена задача по повышению доступности качественного образования, ведь в условиях рыночной экономики именно молодые специалисты, кадры новой формации играют важную роль на пути достижения высоких показателей.

Современное состояние профессионального образования характеризуется рядом противоречий. С одной стороны, от выпускника профессионального учебного заведения требуется рациональное сочетание теоретических знаний с их практическим применением для решения конкретных производственных и экономических задач на уровне современных требований науки и техники. С другой стороны, подготовка специалистов в системе профессионального образования не может в полном объеме удовлетворить потребность современного производства и современной экономики в силу значительного ухудшения качества их подготовки. Ухудшение качества подготовки специалистов проявляется именно в системе - профессионального образования. К этому добавим, что «развитие системы профессионального образования все в большей степени носит догоняющий характер по отношению к потребностям развивающейся экономики, в то время как от нее ожидается опережающий характер, выражающийся, в создании и внедрении перспективных наукоемких технологий» [1, с.68].

Актуальность рассматриваемой проблемы заключается еще в том, что до недавнего времени количество обучающихся в системе среднего и средне-специального профессионального образования из года в год сокращалось, хотя потребность в таких специалистах не снижается. Во всем мире сокращение количества обучающихся и выпускников в системе ПО особенно остро ощущается в начале XXI века. Это привело к резкому сокращению квалифицированных специалистов среднего звена, особенно среди рабочих и технических работников, непосредственно выполняющих сложные перспективные, наукоемкие, высокотехнологичные

производства. Сокращение специалистов ПО не может удовлетворить ни потребностей растущей экономики, ни конкретных работодателей.

Что должно быть сделано чтобы усовершенствовать работу в системе профессионального образования?

Во-первых, профессиональные учебные заведения (профессиональные школы, колледжи и техникумы), как всякое образовательное учреждение, должны иметь тесные связи с общеобразовательными школами, где реализовано профильное обучение соответствующего направления. В отдельных случаях оказывать содействие через властные структуры в открытии профильных классов в школах города и региона. Поэтому сотрудничество общеобразовательных школ и проф.школ, колледжей и техникумов надо строить на качественно новом уровне.

В этом сотрудничестве заинтересованы сами колледжи и техникумы. В договоре о сотрудничестве должны быть отражены: проф -ориентационная работа, пред профильная подготовка и профильное обучение учащихся школ, ориентированных на специальности данного колледжа или техникума. Это особенно актуально для профессиональных учебных заведений, осуществляющих подготовку специалистов для предприятий машиностроительного комплекса, автопрома, химической промышленности, транспорта и строительства. Такую работу необходимо организовать и проводить постоянно в течение всего учебного года.

Во- вторых, среднее профессиональное образование в целом в настоящее время остро нуждается в преподавателях и мастерах производственного обучения. Развитие профессионального образования невозможно без творческой самореализации преподавателя колледжа или техникума. «Сегодня, когда образование воспринимается большинством людей как одна из высших ценностей, резко возрастает значимость как педагогической деятельности, так и профессионального уровня педагога» [2, с.5]. Реализация профессионального образования связана с профессионализмом педагога. «Обеспечить качественное образование, воспитание, профессиональное мышление, высокую мобильность и компетентность, ориентированность на сознательный и качественный труд должны педагоги(преподаватели и мастера производственного обучения), обладающие высоким уровнем профессионализма, владеющие глубокими педагогическими, методическими знаниями и умениями» [3, с.52].

Одним из основных направлений профессиональной деятельности преподавателя образовательного учебного заведения является организация самостоятельной работы обучающихся. Общеизвестно, что организация самостоятельной работы, ее планирование, организационные

формы и методы проведения на любом уровне образования представляют собой одни из наиболее слабых мест в системе подготовки специалистов. Современные требования к подготовке специалистов при изучении общеобразовательных и специальных дисциплин требуют перехода от пассивных форм к активной, творческой и индивидуальной работе с обучающимися путем расширения их самостоятельной работы. Наряду с повышением профессионализма встает вопрос о подготовке преподавателей общеобразовательных и специальных дисциплин и мастеров производственного обучения. С одной стороны, это связано с тем, что начался рост числа обучающихся в системе ПО в связи с потребностями экономики и производства, в том числе и открытием новых специальностей и направлений подготовки в сфере малого и среднего бизнеса.

В-третьих, укрепление материально-технической базы требует безотлагательного решения. Часть руководителей учебных заведений под материально-технической базой понимают создание компьютерных классов.

Но большинство специальностей в ПО требует подготовки в технически оборудованных кабинетах, лабораториях, мастерских с современными станками и материалами. На устаревшем оборудовании, в необорудованных лабораториях, кабинетах и мастерских нельзя подготовить конкурентно способных специалистов для современного производства, для современной экономики, для предпринимательской деятельности. Сегодня для ПО создание материально-технической базы является первостепенной задачей. Для решения этой задачи встает вопрос, какими средствами должна быть создана эта материально-техническая база?

Сегодня ПО выпускает специалистов на различные сферы человеческой деятельности. Возникает противоречие в создании и укреплении материально-технической базы учебного заведения и подготовкой специалистов для конкретного производства или предприятия. Если организовано сотрудничество между учебным заведением и предприятием материального производства на наиболее длительный период, то в создании и укреплении материально-технической базы учебного заведения может и должно принять участие именно - это предприятие независимо от форм собственности. Это является проявлением одной из форм дуального образования, когда предприятие имеет тесное сотрудничество с профессиональным образовательным учреждением и непосредственно участвует в формировании будущих специалистов [4].

Профессиональные учебные заведения по своему назначению должны готовить специалистов, способных занимать и успешно вести трудовую деятельность, как в крупных, так и средних и мелких производственных предприятиях (фирмах) в соответствующих должностях, в индивидуальной трудовой деятельности, в сфере гостиничного и туристического сервиса, торговли, строительства и предпринимательства. А это приводит к разработке и внедрению в учебный процесс ПО законченных образовательных программ.

Таким образом, проблемы среднего профессионального образования как самостоятельного образовательного уровня могут быть решены:

- через сотрудничество общеобразовательных школ и колледжей, включающее проф ориентационную работу, пред профильную подготовку и профильное обучение учащихся, ориентированных на специальности данного колледжа или техникума;

- через повышение профессионализма преподавательского состава колледжей как по общеобразовательным, так и по специальным дисциплинам;

- через укрепление материально-технической базы колледжей и техникумов для проведения общеобразовательных и специальных дисциплин.

Таким образом повысится качество профессионального образования в Узбекистане, что в будущем будет способствовать развитию экономики нашей страны.

Литература

1. Батыршина А.Р., Зайниев Р.М. Методологические и технологические аспекты организации самостоятельной работы студентов в системе бакалавриата. Часть 1. // Вестник Университета российской академии образования. - 2016. - №4. – С.68-72.

2. Демин В.Н. Приоритеты развития профессионального образования в России // Высшее образование сегодня. – 2013. № 5. – С.4-10.

3. Зайниев Р.М. Довузовская математическая подготовка в профильных классах инженерно-технического направления // Высшее образование сегодня.– 2011. № 3. – С.52-54.

4. Зайниев Р.М. Основные проблемы среднего профессионального образования и некоторые пути их решения. Часть 1. // Вестник Университета российской академии образования. -2017. - № 1.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TASVIRIY SAN'AT FANINING O'QITISH METODIKASI

Sadriddinova Farangiz Barkamol qizi

*Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, avvalo bu sinflarda ta'lim mazmuni kichik maktab yoshidagi bolalarning yoshlik xususiyatlari va psixologiyasi, qiziqishi, ulardagi mavjud bilim va qobiliyat hamda layoqatlariga qarab belgilanadi.

Ma'lumki bolalarda tasviriy faoliyatga, hususan rasm chizishga ishtiyoq nihoyatda erta boshlanadi. Uni 2-3 yoshlardan boshlanishi tarixdan ma'lum. Shunisi harakterliki, bolalar o'qish va yozishdan ko'ra rasm chizishni juda yoqtiradilar. Biroq ular chizadigan rasmlarning davomiyligi juda qisqa bo'ladi, 1-2 minut, ko'pi bilan 4-5 minutda har qanday rasmni tugallab qoyadilar. Bolalar tomonidan chizilgan rasmlar savodli bo'lmasa-da, biroq mazmunan biron-bir ko'rinishni, voqeani yoki buyumni o'z iqtidorlariga yarasha, ularning harakterli belgilarini tasvirlay oladilar. Bo'yoqlar bilan ishlash ularga ma'lum qiyinchiliklar tug'dirishi sababli ulardan foydalanishni aytarlik xush ko'rmaydilar. Lekin, turli yorqin ranglar bilan bo'yalgan buyumlar bolalarda katta qiziqish uyg'otadi. Ularning harakterli jihatlaridan biri ularning chizadigan rasmlarini soddalashtirishga bo'lgan harakatlaridir. Ular ayrim narsalarning old ko'rinishini (uy, odam, kitob, soat) ayrimlarini yon tomonidan (mashina, hayvonlar, qushlar, baliqlar, bayroqcha va boshqalar), yana boshqalarini ustki tomonidan (kapalak, barg, ninachi, qo'ng'iz vaboshqalar) tasvirlaydilar. Bunga asosiy sabab bu yoshdagi bolalar hali narsalarni yorug'soya, perspektiva qisqarishi va ularning qoidalarini uncha tushunib yetmaganliklaridir.[1]. Tasviriy san'at fanini boshlang'ich sinf o'quvchilariga turli yo'nalishlarda ularning qiziqishiga qarab o'rgatish kerak. Maktabda tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samarali turlaridan biri hisoblangan tabaqalashtirish ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi. Tabaqalashtirilgan ta'lim o'quvchilarni individual tarzda, shuningdek, guruhlarga ajratib o'qitish, ularning mustaqil ishlarini to'g'ri va maqsadga muvofiq tashkil etish orqali sinfdagi barch o'quvchilar bilim va malakalarini dinamik rivojlanishiga xizmat qiladi. Bunda o'qituvchi har bir o'quvchining qiziqishi, qobiliyati, layoqatini hisobga olib, mashg'ulotlarni tashkil etish orqali dars samaradorligini oshirishiga erishadi.

Pedagogika nazariyasida pedagog olimlar tomonidan tabaqalashtirilgan ta'limni ikki turi qayd qilinadi: 1. Darajali tabaqalashtirish. 2. Ixtisoslashtirilgan tabaqalashtirish.

Darajali tabaqalashtirish ikki turga bo'linadi:

1. Individual ta'lim. Bunda o'quvchilarning qobiliyati va imkoniyatlariga qarab har bir o'quvchi bilan alohida-alohida ish olib boriladi.

2. Guruhli ta'lim. Bunda o'quvchilarni qobiliyati va imkoniyatlarriga qarab ularni ikki va undan ortiq guruhlariga ajratib o'qitiladi.

Ixtisoslashtirilgan tabaqalashtirish esa u yoki bu fanni chuqur o'rgatish, bolalarni turli kasblarga yo'naltirish yoki ularni asoslarini o'zlashtirishga qaratilgan boladi. Bular qatoriga tasviriy san'atni chuqur o'rgatadigan maktablar (sinflar), fakultativlar, to'garaklar kiradi.[2].

Sinfda bolalarga beriladigan topshiriqlar mazmuni, asosan yangi bilim va malakalar berish maqsadida amalga oshiriladi. Dars jarayonida topshiriqlarning quyidagi ikki shakli ko'p qo'llaniladi:

1. Sinfda bajariladigan topshiriqlar. 2. Uyda bajariladigan topshiriqlar.[3].

Quyida borliqni idrok etish mavzusiga doir mashg'ulot ishlanmasi beriladi:

Mavzu: " kuzgi tabiat manzarasini idrok etish".

Darsning vazifalari: kuz fasli tasvirlangan rasm. Kuzgi ishlarga doir manzara tasviri. Tabiat qo'yniga sayohat. Uni tashkil etishning imkoni bo'lmagani taqdirda san'at asarlarining reproduksiyalaridan foydalanish mumkin. Masalan: O'.Tansiqboyevning «Tog'da kuz», Inog'omovning «Kuz» va boshqalar.

Darsning mazmuni: Mashg'ulot asosan ikki yo'nalishda olib boriladi. Birinchisi kuzgi tabiat manzarasining xarakterli hususiyatlarini estetik idrok etish, ikkinchisi kuzgi ishlarning o'ziga xos tomonlari bilan tanishtirish. Dars o'quvchilarni maktab bog'i yoki dalaga sayohatga olib chiqish va u yerda amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishtirishdan boshlanadi. Sayohat jarayonida o'qituvchi emotsional – estetik vaziyat hosil qilish maqsadida bolalarga kuz va kuzgi ishlar haqidagi she'rlardan na'munalar o'qib beradi.

Sher o'qib bolingandan so'ng, tabiatning ko'rinishi bolalar bilan birgalikda tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida kuzatilayotgan manzara yuzasidan bolalarga savollar beriladi. Bu savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Kuzda tabiatda qanday o'zgarishlar ro'y beradi?
- Daraxtlarning o'lchovi bir xilmi?
- Qarshingizdagi manzarada qanday daraxt turlarini ko'ryapsiz?
- Daraxtlarning tanasi va shox – shabbalarining tuzilishi qanday?
- E'tibor bering, daraxt shoxlarining yo'g'onligi bir xilmi?
- Daraxtlarning shakli bir – biridan qanday farq qilib turibdi?
- Osmonga razm soling, uning rangi qanday?
- Osmondagi bulutlarning shakli yoki rangi qanday (bulutlar bor bo'lsa)?
- O't va daraxtlarning rangida farq bormi?
- Tabiatni kuzatish jarayonida yaxshi taassurot qoldirgan narsa nima?

Tabiatni kuzatish jarayonida bolalar ba'zi bir tabiiy materiallarni (urug'lar, barglar, mayda hasharotlar, ildizlar) kolleksiya uchun yoki tasviriy ishlar uchun yig'ishlari mumkin. O'qituvchi darsni iloji boricha tabiat qo'ynida o'tkazishga harakat qilishi lozim.[4].

Rangtasvir

“ San'at – mo'jizadir. Yurak va miyaning shunday xilvat joylari borki, unga faqat san'at vositasidagina kirish mumkin”.

Ibn Sino

Rangtasvir – rang san'ati. Rangtasvir – haqiqiy hayotni aks ettirib, tomoshabinning fikri va hissiyotlariga ta'sir o'tkazuvchi tasviriy san'at turlaridan biridir.[5].

Biror bir satx yuzasiga, bo'yoqlar (moybo'yoq, tempera, akvarel, guash, va boshqalar) bilan bajarilgan san'at asariga rangtasvir deyiladi. Rangtasvirdagi obrazlar juda yorqin va tomoshabop. Rassomlar asarlarini rangtasvir va plastik vositalar bilan yaratadilar. Ular qalamtasvir va kompozitsiya imkoniyatlaridan foydalanganlari bilan, rangtasvirdagi eng asosiy ta'sirchanlikni beruvchi vositalardan biri bu rang hisoblanadi.[6].

Dunyodagi ob'ektlar, voqea va hodisalarning turli – tumanligi va rassomlardagi ularga bo'lgan qiziqishning kuchayib ketishi XVII asrga kelib rangtasvirda turli – tuman janrlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bular portret, manzara, natyurmort, animalistik, afsonaviy, tarixiy, batal va maishiy janrlar edi.

Rangtasvir dastgohli va monumental rangtasvirga bo'linishi mumkin.

Rassom kartinasini podromnikki tortilgan xolstda ishlaydi. Bu xolst dastgoxga o'rnatilgan bo'ladi. Shu sababli ham bu dastgoxli rangtasvir deyiladi.

“Monumental” so'zi juda katta degan mazmunni beradi. Monumental rangtasviresa binolarning ichki va tashqarigi devoriga chizilgan katta kartina (freska, panoo va boshqalar) hisoblanadi. Rangtasvirning miniatyura, ikonaga rasm solish, dekorativ naqsh, teatr – dekoratsiyasi kabi turlari ham mavjud. Rangtasvirning har bir turlari o'zining bajarish texnikasi va badiiy – obrazli vazifalarni hal qilishi spetsifikatsiyasiga qarab ajratiladi.[7].

Rangtasvirning yana bir turi dekorativ naqqoshlik hisoblanadi.

Kartina va monumental rangtasvirdan farqli bo'lgan mustaqil fikriy – obrazga ega bo'lmagan, dekorativ xarakterga ega bo'lgan syujetli rangtasvir kompozitsiyalari dekorativ rangtasvir deyiladi. Dekorativ rangtasvir me'moriy inshoot va dekorativ – amaliy san'at buyumlaridagi bezaklarning turli ko'rinishlrini birlashtiradilar.

Me'moriy dekorativ bezak devorga, gumbaz, fasad va binoning boshqa elementlariga yoki xolstga bajarilishi mumkin.

Rangtasvir uchun zarur bo'lgan rangni rassom palitrada aralashtirib topadi, keyin bu bo'yoq kartina tekisligida rangga aylanadi. Bu yerda u rang tartibi – koloritni yaratadi. Ranglar aralashmasiga qarab u issiq va sovuq, quvnoq va g'amgin, tinch va harakterli, yorqin va to'q bo'ladi.[8].

Rangtasvir janrlari

Rangtasvir texnikasi asrlar davomida muntazam ravishda mukammallasha borgan. Rangtasvirchilarni turli – tuman syujetlar borgan sari e'tiborini tortgan. Bu o'zgarishlarning barchasi XVII asrga kelibfaqat rangtasvirdagi emas, balki grafika va haykaltaroshlikda ham turli janrlarni paydo bo'lishiga olib keldi. Rangtasvir janrlarining quyidagi turlari mavjud: portret, natyurmort, manzara, animal, tarixiy, maishiy, afsonaviy va batal janri va boshqalar. [9].

Naturadagi rangtasvir jarayoni

Naturadagi rangda tasvirlash jarayoni o'z qonun qoidalariga ega. Ishning boshlanish qismid nimalar qilish, o'rtasida qaysi masalalarni xal etish va oxirlab qolganda uni qanday yakunlash kerakligini bilish zarurdir. Rangtasvirda quyidagi asosiy masalalarni xal etish zarur:

- Umumiy tus va rang xolatlari va natura bo'yoqlarning bir – biriga yaqinligidagi tus va rang munosabatlarini topa bilish;
- Katta rang – tusli munosabatlar chegarasidagi rang – tuslarning «cho'zilishi», alohida buyumlarning hajmi shakllarining batafsil rangli qayta ishlanishi;
- Butun tasvirning umumiyliigi, yaxlitligi hamda kompozitsiya markazini ko'rsata bilish. Bu masalalarning har biri nima bilan yakunlanishi ketma- ketlikda ko'rib chiqamiz.[10].

Rangtasvirda ish boshlashdan avval naturadagi umumiy rang munosabatlarini diqqat bilan o'rganib chiqish lozim. Shuning uchun bu masalaga 5 – 10 minut vaqt sarflab, naturaning umumiy rang munosabatlarini tushunish kerak: eng och va eng to;q (zich) dog' qayerda, tusi va rang kuchi bo'yicha asosiy farqlar (to'yinganligi)qanday ekanligini topish kerak. Masalan, naturadagi sariq olmalar fondagi sariq mato bilan solishtirilsa, olmalar matodan ochroq ularning sariq tusi sariq matoga nisbatan yorqinroq (to'yingan) ko'rinadi. Rangning uch xil o'ziga xosligi bo'yicha natura qo'yilmasidagi buyumlarning asosiy rang xususiyatligi mavjud. Issiq va sovuq tuslar tasvir ohangdorligini oshiradi, naturadagi tabiiy ko'rinishini namoyon etadi.[11].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rasm. Boshlang'ich sinf programmalarini. –Toshkent: O'quvpeddavnashr, 1956.
2. Boymetov. B. , Tolipov N. Maktabda tasviriy san'at to'garagi.Toshkent,1995.

3. Rasm solish. Boshlang'ich sinf programmalari. – Toshkent: O'quvpeddavnashr, 1953.
4. Tasviriy san'at. O'rta maktab programmalari (1-3 va 4-6 sinflar). Toshkent: O'qituvchi, 1968.
5. Nabiyev M. Rangshunoslik. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
6. X. Egamov «Bo'yoqlar bilan ishlash» T – 1987y.
7. Ensiklopediya xudojnika. Izdatelstvo «Vneshsigma» 2000 g.
8. «Shkola izobrazitel'nogo iskusstva» Izd «Izobrazitel'moe iskusstvo», 1989 g.
9. X. Egamov «Bo'yoqlar bilan ishlash» T – 1987y.
10. Risunok. Jivopis. Kompozitsiya. (Xrestomatiya) Moskva. “Prosveshenie” 1989.
11. S. Abdirasilov, N. Tolipov, N. Oripov «Rangtasvir» (o'quv – metodik qo'llanma) Toshkent – 2003y.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARDA MANTIQIY FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY TAHLILI

Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi
SamDU tayanch doktoranti

Ma'lumki, insoniyat ijtimoiy - tarixiy taraqqiyotining har bir bosqichida olimlarning e'tibor markazida insonning ongi va tafakkur muammosi turgan. Ushbu dolzarb muammo yuzasidan faylasuflar, mantiqshunoslar, shoirlar, yozuvchilar, shifokorlar, pedagoglar, psixologlar va boshqa bir qator soha vakillari o'zlarining ilmiy izlanishlarini olib borishlariga qaramay, bu masala o'zining to'liq yechimini hanuzgacha topgani yo'q.

Bugungi kunda mantiqiy fikrlash tushunchasining aniq ta'rifining haligacha ishlab chiqilmaganligi muammoga dialektik nuqtai nazardan yondashuvni talab qiladi.

Kelib chiqishiga ko'ra arabcha bo'lgan “mantiq” atamasi “fikir”, “so'z”, “aql”, “qonuniyat” kabi ma'nolarga ega. Uning ko'pma'noligi turli xil narsalarni ifoda qilishda o'z aksini topadi. Xususan, mantiq so'zi, obyektiv olam qonuniyatlarini va tafakkurning mavjud bo'lish shakllari va taraqqiyotini, shu jumladan, fikrlar o'rtasidagi aloqadorlikni xarakterlaydigan qonun-qoidalar yig'indisidir. [2]

Demak, tafakkur - mantiq ilmining o'rganish obyekti hisoblanib, tafakkur tufayligini inson “teran fikr”, “ziyraklik”, “donolik”, “uquvlilik” va “farosatlilik” kabi xislatlarni o'zida mjassamlashtira olishi mumkin. Psixolog olim E. G'oziyev psixologiya, mantiq, falsafa, hatto kibernetika tarmoqlarida ham tafakkurni

o'rganadigan sohalarga kiritilayotganini ta'kidlaydi [3]. Ushbu fanlarning har biri tafakkurni o'z muammosi va tadqiqot doirasida tekshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida: "O'quvchilarda erkin, tanqidiy va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarur..."[1] - deya Xalq ta'limi tizmiga muhim vazifa etib belgilanganligi kichik yoshdagi o'quvchilar tarbiyasi, ayniqsa ularda mustaqil va mantiqiy fikr yuritishni shakllantirish muammosi mamlakat siyosatining eng ustuvor masalalaridan biri ekanini anglatadi.

Jahon ilm-u fanida insonni fikrlashga o'rgatish doim dolzarb bo'lib kelgan. Amerikalik ixtirochi va tadbirkor Tomas Alva Edison quyidagi mulohazalarni keltiradi: "Sivilizatsiyaning buyuk vazifasi - odamni fikrlashga o'rgatishdir" [4]. Fransuz faylasufi va yozuvchisi B. Paskal: "Bizning butun fazilatimiz fikrlash qobiliyatimiz borligida. Shunday ekan, to'g'ri fikrlashga intilaylik" [5] - deb aytadi.

Ruhshunoslarning ta'biricha, fikrlash, ya'ni tafakkur - odam miyasida sodir bo'ladigan jarayon. Fikrlash ko'magida inson ongi yoki ruhiyatida aks etgan narsa va hodisalarning anglangan yoxud anglanmagan jihatlari inson tafakkuri orqali o'rganiladi. Demak, insonning shaxslik belgisi, bu uning tafakkur yuritish layoqatida namoyon bo'ladi. Hech narsa insonning odam ekanligini tafakkur layoqatichalik isbotlab berolmaydi. Shunday ekan, muayyan jamiyatning taraqqiyotini insonlarning tafakkur salohiyati, narsa va hodisalarga ijodiy-mantiqiy mulohaza yurita olish qobiliyati asosiy insoniy xususiyat sifatida ajratib olingan.

Ko'rinadiki, inson fikrlaganda narsa va hodisalarning boshqalar tomonidan kashf etilgan jihatlarni bilib oladi. Mustaqil fikrlanganda esa, inson dunyo hodisalari va hayotiy yoki badiiy vaziyatlar mohiyatini o'zgalarnikiga o'xshamagan yo'sinda, o'ziga xos yo'l bilan anglaydi. Insonning mustaqil mulohaza yuritishi, o'z fikrini aytishi hamda unga o'zgalarni ishontirishi uchun unda shunga xos va mos mantiqiy asoslari bo'lishi kerak. Bundan ko'rinib turibdiki, har qanday insonning mustaqil fikri mantiqiy asoslarga quriladi. Mantiqiy asossiz mustaqil fikr va munosabat bo'lmaydi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyati unga yaratilgan sharoit tufayli kuchayadi yoki susayadi. Ularning ruhiy taraqqiyoti har xil sharoit va bosqichlarda turlicha amalga oshadi. Bu vaziyatda o'qituvchi-muallimlarning zimmasiga o'z o'quvchilarining mantiqiy mulohaza yurita olishga yo'naltirish kabi muqaddas bir vazifa yuklatiladi. Chunki, o'quvchi ayrim hollarda mantiqiy mulohaza yuritishni unutib qo'yishi mumkin. Bu vazifani esa o'qituvchi o'zi bajaradi. O'qituvchi ular o'zlashtirishi lozim bo'lgan masalani tayyor holda beradi, beriladigan savol va topshiriqlarning yechilish yo'llarini tavsiya qiladi. O'quvchi o'rganilayotgan o'quv materialini eslab qolishi va uni uyda takrorlashi lozim

bo'ladi xolos. Bu esa ta'limda o'quvchidan mantiqiy fikrlashni talab qilmaydi. O'quvchilarga bu tarzda singdirilayotgan bilim mustaqil ravishda mantiqiy o'rganishni talab qilmaydi. U har qanday aqliy zo'riqishdan o'zini torta boshlaydi, bunday o'quvchilar esa biror ishni bajarishdan zavqni tuya olmaydi. Demak, shaxs fikrining mustaqilligi uni mantiqiy fikrlashga yo'naltiradi.

Dunyo tamaddunida tafakkur deb atalmish ruhiy-intellektual hodisaga alohida e'tibor qaratiliniyotgani ma'lum bo'lyapti. Demak, fikrlash mustaqil fikrlashdan, mantiqiy fikrlash esa tafakkurning barcha boshqa ko'rinishlaridan farq qilishi ilmiy asoslanib kelinmoqda. Mantiqiy fikrlash tafakkurning ko'rinishlari orasida shaxsning tafakkur salohiyati va intellektini oshirish borasida samaradorligi bilan alohida ajralib turadi. Chunki mantiqiy fikrlash o'rganilayotgan masalaga tuli tarafdin yondashish, uni analiz va sintez qilish orqali tekshirish, qiyoslash, taqqoslash singari metodlardan foydalanib to'g'ri xulosa qabul qilishni taqozo etadi. Hozirgi kunda jamiyatimiz mantiqiy mulohaza yurita oladigan yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishni talab qilmoqda.

Mantiqiy fikr yuritadigan odam qo'yilgan muammoga har tomonlama yondashadi, uni yuzaga kelishi sabablarini, muammoni bartaraf etish yo'llarini tahlil qiladi. Mantiqiy mulohaza yuritadigan inson muammodan qochmaydi, balki uni oqilona hal etishga intiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim tizimida o'quvchi yoshlarda mantiqiy tafakkur qobiliyatini rivojlantirish – bu mustaqil fikr yuritadigan, har qanday muammoga o'z aqliy qobiliyati darajasida tezlik bilan oqilona yechim topa oladigan, o'z bilimi va hayotiy tajribalariga tayanib o'zining shaxsiy fikriga ega barkamol avlodni tarbiyalash imkonini beradi. Mantiqiy tafakkur insonga odam va olamni idrok etish quvvatini beradigan, uning fikrlash mexanizmini ma'lum tartibga keltiradigan aqliy faoliyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Elektron resurs: <https://xabar.uz/uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-o'zbekiston-xalqiga-murojaatnomasi>
2. M. Sharipov, D. Fayzixo'jayev "Mantiq" G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2004, 216 bet 5-bet.
3. Ғозиев Э. Тафаккур психологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – 13 б.
4. Тафаккур гулшани // Ватандош ҳамда хорижий алломаларнинг афоризмлари ва ҳикматли сўзлари. тўпловчи Воронцов В. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти,1989. – 142 б.
5. Г.Я. Стрельцова. Блез Паскаль. Москва Изд. "Мысль" 1979 с. 236
6. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. Birinchi kitob. Toshkent "Innovatsiya-Ziyo" 2022. 400 bet
7. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. Ikkinchi kitob. Toshkent "Innovatsiya-Ziyo" 2022. 390 bet.

ИНВЕСТИЦИЯ МОЛИЯВИЙ МЕХАНИЗМЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ СИФАТИДА

Саламов Фаррух Фаттоевич

*Самарканд иқтисодиёт ва сервис институти
“Иқтисодиёт назарияси” кафедраси ассистенти*

Ҳозирги иқтисодий шароитда инвестициялар Халқаро бозорда мувозанатни таъминлаш, миллий иқтисодиётнинг муттаносибликда ва барқарор ўсиш суръатларини таъминлаш омили сифатида эътироф этилмоқда.

Инвестиция атамасини мантиқий ва тарихий ўрганадиган бўлсак, ушбу атама ўзининг ривожланиш тарихига эга бўлиб бугунги мазмун- моҳияти бир қанча мантиқий- тарихий ва илмий-амалий жараёнлар билан боғлиқлигини кўришимиз мумкин. Инвестиция иқтисодий категория сифатида дунё иқтисодчи олимларнинг диққат марказида бўлганлиги ва ижтимоий-иқтисодий муаммоларни бартараф этиш омили сифатида иқтисодчи олимлар томонидан тадқиқотлар олиб борилаётганлигига гувоҳ бўлишимиз мумкин.

"Инвестиция" атамаси лотинча " investire " сўзидан келиб чиққан бўлиб, кийим, кийиниш деган маънони англатади. Бу атаманинг замонавий талқини, албатта, бошқача. Фарқнинг сабабларини узоқ ўтмишда маълум бир субектнинг муваффақияти унинг кийимлари билан белгиланганлиги билан изоҳлаш мумкин. Шунинг таъкидлаш мумкинки, инвестициялар ўз тарихининг бошида рақобатбардошликни ошириш воситаси сифатида кўриб чиқилган.

Биринчилар қаторида Моддий фаровонликни ошириш воситаси сифатида Джон Ло (1671 - 1729) ўзининг “Пул ва савдо, халқни пул билан таъминлаш таклифи мақсадидаги ўзаро боғлиқлик” асарига асосланиб “Ло тизими”ни ишлаб чиқди ҳамда XVIII асрнинг бошларда Францияда ушбу тизимдан фойдаланила бошланди. Унинг моҳияти шундан иборат эдики, капиталлар савдосига асосланб давлат молиясини ташкил этиш лозим эди қийматнинг шаклланиши максимал даражада бозор механизмига яқин эди. Ушбу механизмдан амалда қисқа муддат фойдаланилган бўлса ҳам Джон Лонинг ғоялари бошқа иқтисодчи олимлар ўртасида кенг муҳокамаларга сабаб бўлди.

Джон Лонинг сафдошларидан Ирланд иқтисодчиси Г. Кантильон (1680 – 1734) ўзининг 1755 йилда нашр этилган “савдо табиати ҳақидаги иншо” асарида инвестиция атамаси унинг мазмун моҳияти тўғрисидаги илмий – амалий қарашларини билдириб; нархлар, даромадлар ва пул массаси ҳажми

ўртасидаги муносабатларга пулни иқтисодиётга "киритиш" усуллари таъсир қилади деб хулоса қилди ва бу ғоя замонасидаги иқтисодчилар томонидан катта эътирофларга сабаб бўлди.

Шунинг учун М. Блауг Г. Кантильон бошдан-оёқ пул таҳлилини ўтказди, шу билан пулнинг иқтисодиётга "киритилиши" усули пул миқдорининг ўсишини, нархлар ва даромадларга боғлиқлигини кўрсатди, деган изоҳи жуда адолатли бўлди.

Р.Кантильоннинг илмий ютуғлари физиократлар доктринаси ўртасида ҳам ўзининг устуворлиги сақлаб қолди, ушбу иқтисодий мактаб асосчиларидан Ф. Кенэ ҳам инвестиция унинг мазмун моҳиятини ўрганишда Р. Кантильоннинг илмий ютуғларига асосланди.

Адам Смит (1723 - 1790) ҳам ўзининг "Халқлар бойлигининг табиати ва сабаблари бўйича тадқиқотлар" деган асарининг айнан "Капитални тўплаш ёки самарали ва самарасиз меҳнат ҳақида" деб номланган бобида инвестицияларни иқтисодий тараққиётни таъминлашнинг асосий шартларидан бири сифатида эслайди.

Яна бир таниқли иқтисодчи Д. Рикардо (1772-1823) инвестициялар муаммосини бироз бошқача талқинда ўрганиб чиқди. А. Смитнинг опоненти бўлган ушбу тадқиқотчи ўзининг қийматнинг меҳнат назариясини ишлаб чиқди. Ушбу назарияга кўра, ишлаб чиқарилган товарлар нархига нафақат тирик, балки моддий меҳнат ҳам киради. Тирик меҳнат орқали Д. Рикардо асбоблар ишлаб чиқаришда содир бўлган меҳнатни тушунади, ўз навбатида, меҳнат маҳсулот ишлаб чиқариш учун зарур бўлган меҳнат деб тушунилади. Унинг ғояларини сарҳисоб қилиб, Д. Рикардо ишлаб чиқарилган маҳсулот таннархига мутлақо барча харажатлар, шу жумладан уни ишлаб чиқариш ва ташиш учун сарфланган вақт ҳам киради деган хулосага келади. Шундан келиб чиқиб, айтишимиз мумкинки, Д. Рикардонинг илмий ғояларига мувофиқ инвестициялар ҳам ишлаб чиқарилган маҳсулот таннархининг омилларидан бири сифатида қаралиши керак.

Д. Рикардонинг яна бир муҳим илмий ютуғи унинг саноатдан саноатга капитал оқими механизмлари бўйича олиб борган тадқиқотидир, бунинг сабаби олим турли соҳаларда бозор нархларининг ўзгаришини кўриб чиқди.

Ж. М. Кейнс (1883 - 1946) аҳоли даромадларининг ўсиши билан истеъмол қилишга чегараланган мойилликни камайтириш тенденцияси мавжудлигини айтади. Ж. М. Кейнс хулосасига кўра жамғариш ҳажмининг ошиши, албатта, инвестицияларга бўлган талабнинг ошишига олиб келиши керак. Шу билан бирга, Ж. М. Кейнс, аввалгиларидан фарқли ўлароқ, фоиз инвестицияларга бўлган талабнинг ўсишининг ягона омили эмас, деб

ҳисоблаган, олим инвестиция ҳажми инвестиция қилинган капитал бирлигининг чегараланган даромад даражасига ҳам таъсир қилишига амин эди. Кейнснинг фикрига кўра, фоиз капитални энг ликвид шаклда (пул шаклида) сақлашдан бош тортганлик учун мукофот сифатида қаралиши керак. Сиёсий ва иқтисодий беқарорлик туфайли капиталнинг ликвидлигини сақлаб қолиш зарурати ортиб бораётганлиги сабабли, фоиз ставкаси Ж. М. Кейнс томонидан "кредит тўлови" сифатида ҳам кўриб чиқилган. Шундай қилиб, олим инвестициялар ҳажми кутилган рентабелликнинг кредитлар бўйича фоизлардан ошиб кетиш даражасига боғлиқлигини исботлади ва агар бу кўрсаткичлар тенг бўлса, инвестициялар умуман мумкин эмас таъкидлайди.

Корхона учун инвестициялар унинг узоқ муддатли иқтисодий ривожланишининг муҳим омилларидан биридир. Шунинг учун инвестицияларни жалб қилиш механизмларидан фойдаланиш корхонанинг муваффақиятли фаолиятининг таркибий қисмидир. Айнан инвестициялар корхонанинг молиявий-иқтисодий ҳолатини яхшилаш, унинг бозор улушини ошириш, инновацион маҳсулотларни жорий етиш, рақобатбардош устунликларни яратиш ва улардан фойдаланиш ва бошқалар учун ресурслар манбаи бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Кўпинча маҳаллий корхоналар учун инвестицияларнинг асосий манбаи ўз ресурсларидир. Бу уларнинг фаолиятининг иқтисодий ва сиёсий муҳитининг беқарорлиги, шунингдек, инвесторлар билан ўзаро алоқалар учун самарали воситаларнинг йўқлиги билан боғлиқ. Шундай қилиб, жорий тенденцияларни ҳисобга олган ҳолда капитал олувчилар ва донорлар ўртасида ҳамкорликнинг янги усуллари шакллантириш зарурати мавжуд.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак; Инвестицияларни жалб қилиш механизмларини муваффақиятли шакллантириш ва улардан фойдаланиш корхоналарга зарур миқдордаги капитални ўз вақтида жалб қилиш имконини беради, бу еса беқарор ташқи муҳитда уларнинг рақобатбардошлигини оширади. Шунингдек, у компанияга узоқ муддатли иқтисодий ривожланиш, янги бозорларга чиқиш, янги инновацион ва рақобатбардош маҳсулотларни яратиш ва сотиш имкониятини беради.

Фойдаланилган адабиётлар.

1 Дробязко С.Г. Принципы в праве / С.Г. Дробязко // Проблемы развития юр. науки и совершенствование правопр. практики : сб. науч. тр. – Минск: БГУ, 2005. – С. 27-32.

2 Менкью Н.Г. Принципы экономикс. – СПб: Питер Ком, 1999. – С. 784.

3 Аникин А.В. Шотландский мудрец: Адам Смит // Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Эксмо, 2007. – С. 879-901.

4 Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов / А. Смит. – М.: Эксмо, 2009. – С. 956.

5 Маршалл А. Принципы политической экономии / А. Маршалл; Пер. с англ. Р.И. Столпера, общ. ред. С.М. Никитина. – М.: Издательство Прогресс, 1983 г. – С. 416.

ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОСТОЯНИЕ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Сангинов Саидрасул

*ведущий консультант Комитета Сената Олий Мажлиса Республики
Узбекистан по вопросам развития Приаралья и экологии,
доктор философских наук*

Угрожающий характер процесса деградации окружающей среды на современном этапе развития человеческой цивилизации в немалой степени связан с изменением отношения человека к природной среде.

Тенденция возрастания антропогенного влияния на экосистемы имеет место повсеместно в различных регионах мира. Не является исключением и территория Центральной Азии, включая территорию Узбекистана.

Экологи все чаще говорят о необходимости изменения отношения общества к природе, ее уникальным объектам и невозобновимым ресурсам. Это возможно только на пути формирования экологической культуры.

Необходимость повышения уровня экологических знаний населения, формирования экоориентированного мировоззрения молодежи ставят перед обществом задачу совершенствования экологического образования и воспитания на всех уровнях непрерывного обучения. А это становится не только задачей образовательных учреждений. В условиях все большей глобализации экологических проблем особое внимание уделяется привлечению общественности к охране окружающей среды, повышению экологической культуры, экологического сознания молодежи, обеспечению преемственности экологического образования в образовательных учреждениях¹⁴⁰.

Для решения этих задач по инициативе Экологического движения Узбекистана ее депутатской группой в Законодательной палате Олий Мажлиса Республики Узбекистан была разработана Концепции развития экологического образования в Республике Узбекистан, которая была

¹⁴⁰ <http://icc.uznature.uz/rus/newsmain/771.html>

утверждена в мае 2019 года постановлением Кабинета Министров республики¹⁴¹. В ней содержатся механизмы формирования экологических знаний на каждом этапе обучения и воспитания: дошкольного, базового школьного, среднего, высшего, послевузовского, а также в системе повышения квалификации специалистов.

К сожалению, ее своевременному внедрению в учебные программы помешал период пандемии COVID-19. В послековидные годы экологическая общественность вновь подняла вопросы экологического образования, инициировав ряд мероприятий с участием представителей законодательных органов, образовательных министерств, учебных заведений и общественных экологических организаций. В частности, в ноябре 2022 года на совместном заседании Комитета Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан по вопросам развития региона Приаралья и экологии и Комитета Сената по вопросам науки, образования и здравоохранения была заслушана информация министра народного образования о состоянии экологического образования в стране. Это обусловлено тем, что основной массив экологических знаний у человека формируется именно в школе.

Как показало изучение этого вопроса, наряду с известными достижениями по повышению уровня экологических знаний молодежи, есть ряд недостатков в реализации положений Концепции развития экологического образования в стране. В частности, экологические знания, представляемые учащимся в рамках учебных предметов, слабо обогащены конкретными примерами решения экологических проблем, недостаточно учитываются возрастные особенности учащихся при преподавании тех или иных экологических тем, не разработаны специальные пособия для преподавателей о важнейших экологических датах. Школьные библиотеки недостаточно обеспечены экологической литературой и наглядными материалами, не завершено создание их информационной базы. В регионах не налажено взаимодействие с государственными органами и местными негосударственными некоммерческими организациями, осуществляющими деятельность в области экологии.

Содержание образовательных программ и учебников недостаточно обогащено информацией об актуальных экологических проблемах, отечественном и мировом опыте решения экологических проблем и смягчения последствий изменения климата, а также о задачах, поставленных в Концепции перед образовательными учреждениями.

¹⁴¹ <https://lex.uz/ru/docs/4354746>

На совместном заседании комитетов Сената поставлены задачи по созданию рабочей группы в целях анализа, обогащения и совершенствования учебников и методических пособий по экологическому образованию; улучшению работы по подготовке специалистов в области экологии и повышению их квалификации, а также по повышению квалификации педагогических кадров по темам, связанным с экологией; обогащению действующих образовательных программ и учебников информацией об актуальных экологических проблемах и их решению, смягчению негативных последствий изменения климата, исходя из отечественного и мирового опыта; обеспечению учебниками и учебно-методическими материалами, в том числе электронными методическими средствами, обеспечивающими деятельность педагогов в сфере экологического образования; ускорению разработки учебно-демонстрационных материалов, видеороликов и дидактических материалов в соответствии с возрастом обучающихся по актуальным проблемам охраны окружающей среды, рациональному использованию питьевой воды и других природных ресурсов, адаптации к изменению климата; широкому распространению экологических видеофильмов и социальных роликов, созданных в системе общего образования, через каналы центрального и местного телевидения; проведению различных конкурсов, интерактивных тренингов и других мероприятий, связанных с экологическим образованием и обучением, разработки типовых положений по организации экологических кружков, экологических клубов и «Зеленых патрулей», а также привлечению средств международных грантовых проектов для обеспечения «Экологических уголков» в общеобразовательных школах необходимыми материалами; укреплению сотрудничества с государственными учреждениями и общественными организациями, действующими в сфере экологии и охраны окружающей среды; организации для старшеклассников экскурсий в экологически неблагополучные регионы.

Вопросам экологического образования и образования в целях устойчивого развития дан глубокий анализ в статье председателя Комитета Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан по вопросам развития региона Приаралья и экологии Б.Б.Алиханова и заместителя председателя Исполкома Центрального Кенгаша Экологического движения Узбекистана С.В.Самойлова «Качественное образование в интересах устойчивого развития», опубликованной 13 марта 2023 года в газете «Народное слово» (№50 (8351))¹⁴². В ней раскрыты цели непрерывного

¹⁴² <https://xs.uz/ru/post/category/all?page=3>

экологического образования, образования для устойчивого развития и образования в целях устойчивого развития, а также предложена и обоснована идея создания в образовательной системе Узбекистана специализированного образовательного учреждения в сфере окружающей среды и экологии.

В марте этого года по инициативе Министерства природных ресурсов Узбекистана начата предметная работа по формированию Центральноазиатского университета экологии и охраны окружающей среды, который призван подготовить квалифицированных специалистов высшей квалификации по направлениям экологической науки и природоохранной практики для государственных органов, предприятий и учреждений.

В настоящее время в стране действует лишь два профильных факультета: факультет экологии в Национальном университете Узбекистана, который готовит специалистов для отрасли в бакалавриате по направлению «Экология и охрана окружающей среды (по отраслям и направлениям)» и в магистратуре по специальности «Экология (по отраслям и направлениям)», в докторантуре по специальности «Экология», а также факультет географии и экологии в Самаркандском госуниверситете¹⁴³, который готовит бакалавров по трем направлениям (география, экология и гидрометеорология) и магистров по 4 специальностям (география изучения объекта, экология, почвоведение, гидрология). Естественно, этого явно недостаточно для нашей страны, стремящейся проводить эффективную экологическую политику, что нашло отражение в целом ряде статей обновленной Конституции Республики Узбекистан.

При организации Центральноазиатского университета экологии необходимо использовать опыт не только опыт отечественных факультетов экологии, но и практику лучших профильных высших учебных заведений мира.

В процессе подготовки предложений по созданию Университета специалистами Научно-информационного центра Межгосударственной координационной водохозяйственной комиссии было проведено изучение деятельности высших учебных заведений России, Казахстана, Беларусь, Чехии, Польши, Израиля, США, Японии, Германии, Великобритании, Испании, Франции и Китая, готовящих специалистов для сферы охраны природы. Эта информация оказалась весьма полезной при разработке предложений по организации нового учебного заведения.

¹⁴³ <https://www.samdu.uz/ru/pages/geography-ecology-faculty>

В качестве основных задач и направлений деятельности Университета определяются подготовка высококвалифицированных кадров в области охраны окружающей среды с использованием современных инновационных и научно-педагогических технологий, последних достижений науки и техники в соответствии с национальными и международными образовательными стандартами; создание системы непрерывного образования для подготовки, переподготовки и повышения квалификации научных и научно-педагогических кадров в области экологии, проведение фундаментальных и прикладных научных исследований по актуальным направлениям экологической науки, внедрение в образовательные процессы опыта ведущих профильных зарубежных учебных заведений; развитие и укрепление долгосрочного сотрудничества с ведущими учебными заведениями, научными центрами, бизнес-сообществами и международными экологическими организациями зарубежных стран и др.

Университет станет своеобразным ЭКОХАБом (кампусом), обеспечивающим интеграцию образования, науки и производства в области охраны и рационального использования природных ресурсов, а также базовым высшим учебным заведением Центральной Азии по подготовке квалифицированных кадров и координации научной и исследовательской работы в сфере экологии.

Безусловно, создание такого образовательного учреждения позволит решить целый ряд задач, предусмотренных Концепцией развития экологического образования в Республике Узбекистан, и послужит кадровому обеспечению выполнения задач по улучшению экологической обстановки в стране и центрально-азиатском регионе в целом.

OILADAGI MOJAROLAR

Sangirova Nilufar Sayfidinovna

O'zbekiston Milliy universiteti 2-kurs magistranti

Ma'lumki, umumiy manfaatlar, qiziqishlar orqali jipslashgan, a'zolari nikoh birligi, o'zaro axloqiy javobgarlik va o'zaro yordam orqali bir-biriga bog'langan, nikohga yoki yaqin qarindoshlikka asoslangan kichik guruh – oila deb ataladi. Demakki, jamiyat uchun nihoyatda ahamiyatli hisoblangan er va xotin, ota-ona va bola, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan muammolar aynan oila negizida yuzaga keladi. Shularni inobatga olgan holda, tadqiqotimiz davomida nizo (konflikt)lar, oilaviy mojarolarni o'rganishga qaror qildik.

Insonlarning o'zaro munosabatlaridagi mojarolar-bizning davrimiz va jamiyatimizda uchraydigan normal hodisa. Hamma gap so'nggi natijada, kelisha olmayotgan ikki tamon nimaga erishdi;

- munosabatlarning buzilishiga
- urush, kurash
- barchaga ma'qul bo'ladigan yangi g'oya yoki umumiy yechimning tug'ilishi

Mojaroning o'zi nima? Mojaro-bu o'zaro ta'sir doirasiga tortilgan odamlar, ya'ni muxoliflarning qarama-qarshi tomonga yo'naltirilgan maqsadlari, manfaatlari, pozitsiyalari, fikr-mulohazalarining to'qnashuvidir. Har qanday mojaro (konflikt)ning zamirida har ikki tamonning ma'lum bir masala yuzasidan ziddiyati yoki shu vaziyatda maqsadlar va ularga erishish vositalarining qarama-qarshiligi, yoki muxoliflar mafaatlari, istaklari va intilishlarining mos kelmasligi yotadi.

Ammo mojaroning avj olishiga doim bir hodisa sabab bo'ladiki, bunda bir tamon boshqa tarafning mafaatiga zid keladigan (bu holat maqsad qilinmagan bo'lsa ham)hatti-harakatni boshlaydi. Shunday qilib, mojaroni sxema tarzda quyidagicha tasvirlash mumkin:

Mojaro = Nizoli vaziyat+ voqea-hodisa (intsident)

Mojarolar konstruktiv (mahsuldor) yoki destruktiv (buzg'unchi) bo'lishi mumkin. **Konstruktiv mojaro**-bu o'zaro munosabatlar natijasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan mojaro, odatda, ikki tamon yoki masalaning yangi yechimini topadi, yoki kompromiss (kelishuv)ga erishadi. Bunday mojaro kishilar o'rtasidagi munosabatlar tarangligini yo'qotadi, bir-biriga haqiqiy his-tuyg'ularni ifoda etishga yordam beradi, insonlarni birlashtiradi, muammoli vaziyatdan muvaffaqiyatli chiqishni izlashga rag'batlantiradi, shaxsni rivojlantiradi.

Destruktiv mojaro. Bu turdagi mojarolar o'zaro munosabatlarning me'yor va tartib-qoidalarni buzilishiga sabab bo'ladi. Destruktiv nizo qatnashchilari o'z kuch-quvvatini bir-birovlarini nazorat qilishga yoki aks ta'sir qilishga sarflaydilar. Bu turdagi kelishmovchiliklarning 2 xilini ajratish mumkin: *o'tkinchi to'qnashuvlar*- bunda janjal qatnashchilari o'z shaxsiy foydalarini ko'zlab harakat qiladilar, va *ommaviy buzg'unchi mojarolar*-uning ishtirokchilari biror imtiyoz yoki hukmronlikka erishishga intiladilar. Har ikki holatda ham ishtirokchiar o'z jamoalarining manfaatlariga zid ish qiladilar, zero ular o'z maqsadlariga etish qasdida jamiyat qo'llab-quvvatlamaydigan vositalardan foydalanadilar.

Shunday qilib, mojaro-ikki va undan ortiq tomon o'rtasida kelishuvning mavjud bo'lmasligi. Maqsadlar, umidlar, hohish-istaklar va qiziqishlar, qadriyatlar va ehtiyojlarning har xilligi, muloqot qila olmaslik, demak, boshqa insonni tushuna olmaslik mojaroni keltirib chiqarishu mumkin.

Mojaroli vaziyat turli kishilarga turlicha ta'sir qiladi, bunda kishilar boshqalarga nisbatan o'zlarini har-xil tutadilar.

Mojarro davomida o'zini tutishning **5 xil** varianti mavjud:

1. **Qochish** (*bo'yin tovlash, chetlashish*)-mojaroni hal qilish bilan shug'ullanishni istamaslik; munozarali masala yoki vaziyatdan qochish, o'zini chetga tortish, keyinga qoldirish.

2. **Moslashish** (*yon bosish*). O'z g'am-tashvishlarini unutib, boshqa kishining ehtiyojini qondirish; o'z manfaatlariga qaramasdan, o'zini qorbon qilish, yon bosish yoki boshqa kishiga bo'ysunish.

3. **Kompromiss**. Ikki tamonga ham ma'qul bo'ladigan yechimni topish; ikki tamonlama yon bosish.

4. **Raqobatlashish**. Boshqa kishi hisobiga o'z manfaatlariga erishishga harakat qilish; har qanday lavozim imkoniyatlarini ishga solib o'z pozitsiyasini himoya qilish va ustun kelishga intilish. Kimdir har doim mag'lub bo'ladi.

5. **Hamkorlik**. Boshqa kishi bilan ikki tamon manfaatlariga muvofiq keluvchi yechimni topishga yo'naltirilgan hamkorlik; muammolarni chuqur o'rganish, qiyoslash, ularni ijodiy yechish imkoniyatlarini ikki tamonlama ko'rib chiqish.

Mojarro vaziyatida insonlar turli pozitsiyani egallaydilar:

1. **Siz yuqorida – men pastda (tobe xulq)** – o'z fikrlari, his-tuyg'ularini dadil ifoda etishni istamaslik, ifoda eta olmaslik yoki bundan qo'rqish, o'z huquqlarini paymol qilinishiga yo'l qo'yish.

2. **Men yuqorida – siz pastda (Agressiv xulq)** – boshqalarni qo'rqitish, kamsitish huquqlarini tahqirlash.

3. **Biz tengmiz (Ochiq xulq)** - siz nimani o'ylayotganingizni, his qilayotganingizni, siz nimaga ishonishingizni ochiq, dadil ifoda etish, boshqalarning huquqlarini hurmat qilgan holda o'z haq-huquqingizni himoya qilish, talab qilish.

Ushbu xulq turlarini farqlashda insonning shaxsiy huquqlari asos bo'ladi. Harakatlaringiz muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ular ishonchli bo'lishi lozim. Siz o'zingiz bajarmoqchi bo'lgan ishga ishonishingiz lozim. Bu – har bir vaziyatda o'z huquqlaringiz va boshqa kishilarning huquqlarini aniq tasavvur qilish zarurligini anglatadi.

TOBE XULQ.

Agar siz boshqalarga sizni qurbon qilishlarigaimkon bersangiz, o'z his-tuyg'ularingiz, hohish-istaklaringiz, fikr-mulohazalaringiz haqida ochiq gapirmasangiz yoki ularnimuvofiq tarzda (ishonchsiz, uyalib, uzr so'rab) ifoda etsangiz, agar boshqalar siz bilan hisoblashmasalar – demak, sizning huquqlaringiz buzilayapti va sizning xulqingiz ochiq emas. Tobe xulq kishining o'z shaxsini, huquqlarini hurmat qilmasligini ko'rsatadi. Bu holat esa boshqa kishilar ham sizni hurmat qilmasliklariga olib keladi – ular sizni mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni istamaydigan va muammolarni yechishni bilmaydigan ishonchsiz hamkor sifatida qabul qiladilar

AGRESSIV XULQ.

Siz o'z huquqlaringizni himoya qilganingizda, o'z fikrlaringiz, tuyg'ularingiz, nuqtai-nazaringizni ifoda etganingizda boshqalarning huquqlari bilan hisoblashmasangiz, demak, o'zingizni agressiv tutasiz. Bunday xulq quyidagicha xabar beradi: " Men shunday deb o'ylayman – boshqacha o'ylashga sizning aqlingiz yetmaydi. Men mana shuni hohlayman – siz nimani istashingiz muhim emas. Men mana shuni his qilayapman – sizning his-tuyg'ularingiz ahamiyatsiz." Maqsad – ustunlik, dominantlik, boshqalarning yo'qotishi hisobiga g'oliblik.

OCHIQ XULQ.

Siz o'z huquqlaringizni himoya qilganingizda, ochiq, o'zingizga ishonib harakat qilasiz, fikrlaringiz, his-tuyg'ularingiz, e'tiqodingiz, mulohazangizni aniq, rostgo'y, to'g'ridan-to'g'ri, boshqalarning huquqlarini kamsitmasdan ifoda etasiz. Siz o'zingizni so'zlar bilan emas, harakatlaringiz va ishlaringiz orqali namoyon etasiz. Sizning so'zlaringiz va harakatlaringiz boshqalarga siz haqingizda quyidagilarni bildiradi: Men shunday deb o'ylayman. Men shuni his qilayapman. Men vaziyatni shunday tasavvur qilayapman (baholayapman). Siz axborotni uzatayotganda kekkaymaysiz, boshqalarni ham kamsitmaysiz, - siz teng muloqot qilasiz.

Ochiq xulq o'zini va boshqalarni hurmat qilishga asoslangan. O'z huquqlaringizni himoya qilganingizda, boshqa kishilarning hohish-istaklari va huquqlari mavjudligini esda tutish lozim. Ochiq xulqning maqsadi-hurmat qilish va hurmatga sazovor bo'lish, haqqoniylikni talab qilish, huquq va ehtiyojlaringiz boshqalarning huquq va ehtiyojlariga zid kelsa – kompromissga erishish uchun imkoniyat yaratish.

Bunday kompromisslar ikki tamonning yaxlitligini saqlagan holda manfaatlarining qondirilishiga olib keladi. Bunday yondashuv boshqalarni manipulyatsiya qilish (ruhiy boshqarish) orqali o'z maqsadlariga erishishda ochiq xulqdan foydalanishning oldini oladi. Boshqalar bilan hamkorlik qilish – ikki tomon uchun maksimal foyda ko'rishning eng yaxshi yo'li.

Mojaroni bartaraf etish aksar hollarda munosabatlarni saqlab qolish degan ma'noni anglatadi. Har qanday janjal va kelishmovchiliklar tufayli oila va undagi o'zaro munosabatlar yoki saqlanib qolishi mumkin, yoki darz ketishi va hattoki barbod bo'lishi ham ehtimol. Odamlar bir-birovlariga yordam berishni va o'zaro munosabatlarni saqlab qolishni istaydilar. Bu hohish-istak yangi paydo bo'lgan kelishmovchiliklar mojaroga aylanganda ham, saqlanib qoladi.

O'zaro munosabatlarni albatta, saqlab qolish mumkin; buning uchun, o'rtadagi mojaroga qaramay, har ikki tomon bir-birovlarini xolisona (ob'yektiv) baholay olishlari o'zaro munosabatlarining qadr-qimmatini va ahamiyatini tan olish uchun imkon qadar harakat qilishlari lozim. Bunday xayrli qadam hamma sohada:

ma'muriyat va xodimlar munosabatlarida, ota-oan va bola orasidagi, er va xotin o'rtasidagi janjallarda birday muhim va zarurdir.

Mojaroni bartaraf etish uchun zarur shart – barcha ishtirokchilar quyidagilarni tan olishlari kerak: avvalo, har bir odam shaxs sifatida o'z qadr-qimmatiga ega; sizga qarshi tamonning gapida ham jon bo'lishi, pozitsiyasida ham o'z afzalliklari bo'lishi mumkin, har kimni uning o'z muammolari ko'proq qiziqtiradi, va nihoyat, har birining ko'nglida, balki qalbining eng tubida janjal-suronni bas qilib, mehr munosabatlarini saqlab qolish istagi bordir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, insonlar o'zlari barpo etgan oilalarning muvaffaqiyatli davom etishida oiladagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni qanday bartaraf etish choralari bilish bugungi kun davr talabidir. Oilalarni ajralishlarining mavjudligi bizning respublikamizda ham keng jamoatchilik diqqatini o'ziga qaratib, bu muammoning yechimini topish uchun kerakli choralarni ko'rishga da'vat etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akramova F. A., Abdullayeva R. M. Sharq mutafakkirlarining oila xususidagi qarashlari. T.: «Shams ASA», 2002
2. Davletshin M.G., Shoumarov G 'B. Zamonaviy o'zbek oilasi 4a uning psixologik xususiyatlari / O 'zbek oilasining etnopsixologik muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani m a'ruzalari qisqacha bayoni. — Toshkent, 1993
3. Oila: ijtimoiy himoya omillari. Ilmiy-ommabop maqola- / lar to'p)ami., /Prof. V. M. Karimova tahriri ostida. T.: 2007
4. Karimova V. M. Oilaviy hayot psixologiyasi. T.— 2006
5. Xodakov N. M. Yosh kelin-kuyoviarga. 3-nashr. —Toshkent, 1990
6. Avanesova O, Po'latova M. I. "Inqiroziy vaziyatlarga duch kelgan kishilarga psixologik yordam ko'rsatish" axborot qo'llanmasi.

ASSESSMENT OF RADON RISKS AT THE RURAL SETTLEMENTS OF UZBEKISTAN

***Safarov A.A., Safarov A.N., Khasanov Sh.Kh.,
Umurzakov E.A., Suvanova S.F., Muminov M.
Samarkand State University***

Background: Over the decades, because radon accumulates in interior environments and is the leading cause of lung cancer, studies on residential radon have become extremely essential. The past decade has seen an increase in the use of solid-state nuclear track detectors (SSNTD) to measure the average annual

concentration of radon in the premises and conduct epidemiological research to establish the risks of oncological diseases. However, because data collecting is time-consuming, this method is inconvenient in practice. In contrast to passive method based on SSNTD, passive methods based on short-term exposure to radon monitors (charcoal filters, electrets) can be advantageous for monitoring and rapid identification of dwellings with potentially high radon concentrations

Objectives: To conduct a pilot assessment of the potential radon hazard of dwellings in rural areas of the Republic of Uzbekistan and to evaluate the applicability of short-term passive absorption method.

Results: In this work, we have conducted a pilot assessment concerning radon flux density from the soil surface as well as volumetric activity of indoor radon at the dwellings of rural areas of Uzbekistan by means of "passive" sorption detectors based on the activated charcoal together with scintillation spectrometry. Furthermore, gamma dose rates and natural radionuclide concentrations in soil and building material samples were assessed. Common radiological indices have been calculated using the values of natural radionuclides. It was observed that, despite large variations, 94% radon flux density values did not exceed 80 mBq/(m²s), whereas radon volumetric activity ranged from 35 to 564 Bq/m³. The radium equivalent activity in the soil and building materials samples investigated was less than the permissible level of 370 Bq/kg. Computed gamma dose rates ranged from 55.50 to 73.89 Gyh⁻¹, well below the limit of 80 Gyh⁻¹, while annual effective dose rates ranged from 0.068 to 0.091 mSvy⁻¹, with the average value above the standard limit of >0.47 mSvy⁻¹.

Conclusions: Overall, the results show that short-term passive absorption method is very suitable for conducting a mass assessment of the radon safety of residential premises

References

1. Su C. et al. Indoor exposure levels of radon in dwellings, schools, and offices in China from 2000 to 2020: A systematic review // *Indoor Air*. Wiley Online Library, 2022. T. 32, № 1. C. E12920.
2. Schmid K., Kuwert T., Drexler H. Radon in indoor spaces: an underestimated risk factor for lung cancer in environmental medicine // *Dtsch. Arztebl. Int. Deutscher Arzte-Verlag GmbH*, 2010. T. 107, № 11. C. 181.
3. Elío J. et al. Estimation of residential radon exposure and definition of Radon Priority Areas based on expected lung cancer incidence // *Environ. Int.* Pergamon, 2018. T. 114. C. 69–76.
4. Lubin J.H. и др. Risk of lung cancer and residential radon in China: pooled results of two studies // *Int. J. cancer*. Wiley Online Library, 2004. T. 109, № 1. C. 132–137.

5. Darby S. и др. Radon in homes and risk of lung cancer: collaborative analysis of individual data from 13 European case-control studies // Bmj. British Medical Journal Publishing Group, 2005. T. 330, № 7485. C. 223.

6. Vasidov A. Radon and the method of its detection. 2015. 197 p.

WILLIAM FAULKNER'S ROLE IN THE AMERICAN LITERATURE

Safarova Fotima Ne'matulla qizi

JSPU Foreign language faculty Practical English Course Department's teacher

The article "Novella" by A.V. Mikhailov presents an exhaustive description of the short story and the story, taking into account the differences between them. The researcher deliberately opposes the short story to the story, noting that the short story is a form of epic narration, distinguished by a number of structural features and as a closed form, opposed primarily to the story. Focusing on the historical nature of the short story, which has medieval roots and demonstrates the inner plasticity of the genre, the author emphasizes the closeness of the modern European short story, revived at the turn of the 19th - 20th centuries, to its original form. However, the subject of our study is the work of an American writer who worked in the genre of a story, in the tradition of English-language literary criticism, denoted by the term "story". In the article, the terms "story" and "novella" as the Russian equivalent of the English "story" are used as synonyms. The practice of designating Faulkner's "small prose" is typical for all Russian Faulkner studies. There are a number of foreign studies on this issue, such as review studies of modern "Folknerianism" by American authors, review articles by domestic literary critics, and dissertation work by M.Yu. Asanina[1]. However, a number of problems still remain outside the scope of research interest. For example, this problem was first formulated in I.A. Kashkin's article "Faulkner the Storyteller", which opened the first collection of short stories in Russian. Even earlier, in 1934, Faulkner was characterized by A. Elistratova in the anthology of the American short story, anticipating much of what is said about him today. The first response to the collection of short stories "Doctor Martino" appeared in a Soviet magazine the following year.

Faulkner's short stories were analyzed in the general context of the study of the American short story in the monograph by V.N. Oleneva, but they did not become the object of a special study. Articles by D.V. Zatonsky and A.M. Zverev analyzed the phenomenon of Faulkner as a novelist and emphasized the inseparable connection between Faulkner's stories and the writer's "great" prose [2].

A number of works were devoted to special issues, such as a comparative analysis of the psychological novel in the works of Faulkner and T. Wolfe, an attempt to trace the process of combining the genres of the story and the novel in fiction, and the practice of the writer. It is necessary to note the commentary on Faulkner's short stories, made by A.M. Zverev in the "Collected Stories" (Faulkner, 1977) and A.A. Dolinin in the corresponding volumes of the first "Collected Works" (Faulkner, 1986, Foreign literary scholars (primarily American) have paid much more attention to the study of William Faulkner's short stories, although they occupy a relatively small segment in the Western "Faulknerian" literature.

The body of research affecting this issue can be divided into two main groups: complex works on Faulkner's short prose and works that affect purely private questions. A number of notable collections and monographs have been devoted to the analysis of Faulkner's short stories from 1919 to 1962. A number of attempts to define the general contours of Faulkner's short stories were made in the 1980s and 1990s. A full-scale analysis of Faulkner's short stories turned the scientist into one of the leading international experts on this issue. Articles and reports on fairly specific problems of Faulkner's short stories have been analyzed, and individual stories of the writer have been analyzed [3].

There is a shortage of generalizing works that analyze the writer's short prose in the context of general trends in the development of the American short story of the 20th century. The second group of works consists of articles and reports on fairly specific problems of Faulkner's short stories, which by no means reduces the importance of this source for an adequate understanding of the problem as a whole. Among such studies, we highlight a remarkable article by J. Carothers, [4] which set new tasks and outlined new directions in the study of the writer's short prose, which was also implemented in the author's soon published monograph.

With no less care, literary critics analyzed individual stories of the writer, of which "The Firestarter" and "A Rose for Emily", included in the programs of most universities, were especially popular. The authors offered a variety of interpretations of the text: from the search for gender features or ethnic color to reveal intentional stylistic errors and special means of artistic self-expression.

At the same time, there continues to be a noticeable shortage of generalizing works that analyze the writer's short prose in the context of general trends in the development of the American short story of the 20th century, in comparison with the work of other American short stories that study and explain the cause of the emergence of marginal genre phenomena in Faulkner's prose, etc [5].

By creating collections of short stories, including both already published and specially written stories, Faulkner publishes "mini-cycles" connected to each

other at the plot-thematic and intertextual levels, ensuring the internal integrity of the books they form.

The desire to create a full-fledged short story cycle, realized in the course of writing "The Invincibles", leads to the appearance in the book of a "through plot" and a single chronotope, as well as a new "cycle-forming" function of the protagonist. The appearance of such a genre formation during the creation of "The Invincibles" becomes evidence of the relevance of the short story cycle for American prose in the first half of the 20th century [6].

In a nutshell, it should be noted that, William Faulkner specialized in writing works of psychological drama and emotional depth using lengthy, serpentine style and carefully selected vocabulary. He is recognized for adopting groundbreaking literary techniques including stream of consciousness, numerous narrators' points of view, and chronological changes within narrative. He is the only authentic American Modernist prose fiction writer of the 1930s.

Reference:

1. Backman M. Faulkner: The Major Years. Bloomington; London: Indiana University Press, 1966. - 390 p.

2. Backnian M. Sickness and Primitivism: A Dominant Pattern in William Faulkner's Work// Accent. 1954. -N 14. - P. 61-73,

3. Bass E. Meaningful Images in "The Sound and the Fury" // Modern Language Notes. 1961. - N 76. - P. 728-731.

4. Bassan M. Benjy at the Monument // English Language Notes. -1964-1965. -N 2. P. 46-50.

5. Baum C, The Beautiful One: Caddy Compson as the Heroine of "The Sound and the Fury" if Modern Fiction Studies. 1967 (Spring), -Vol. 13TN 1 - P. 33-44.

6. Beach J. W. The Twentieth Century Novel. New York: Appleton-Centuiy-Crofts, Inc., 1932. - 270 p.

Websites:

1. <https://litpriest.com/authors/william-faulkner/>

2. <https://owlcation.com/humanities/William-Faulkner>

BADIIY MATNNING FONETIK -FONOLOGIK XUSUSIYATLARI (SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATI ASOSIDA)

Sindarova Dilbar Sobirjon qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
o'zbek filologiyasi fakulteti talabasi*

Kirish. Inson o'zaro kommunikatsiya jarayoniga so'z orqali kirishadi, o'z fikr-mulohazalarini ma'lum bir tovushlar vositasida bayon qiladi. Nutq tovushlari biror fikrni ifodalashdan tashqari inson ruhiy holati va his-tuyg'ularini namoyon etishda ham ahamiyatli. Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida matnning leksik-semantik, morfologik, sintaktik xususiyatlari bilan birgalikda fonetik-fonologik birliklarning estetik xususiyatlari ham muhim. Ayniqsa, she'riy matnda ushbu til birliklarining o'ziga xos xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi, tovushlarning mo'jizaviyligi, ta'sirchanligini poetik nutqda ko'proq kuzatish mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Nutq tovushlarining imkoniyatlari aytib o'tganimizdek, poetik nutqda to'la oydinlashadi, ular vositasida so'zlovchi his-tuyg'ulari, ichki kechinmalarini ifodalashi mumkin. E. Bagritskiy : „She'ning har bir harfi organizmdagi hujayraga o'xshaydi va u doimo harakatda .She'rda o'lik hujayralar bo'lmaydi, “ – deb ta'kidlaydi. [1,81]. She'riy matndagi o'ziga xos jozibador ohangdorlikka aynan tovushlarni uslubiy qo'llash natijasida erishiladi. Ushbu fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, she'riy matn turida qo'llanilayotgan har bir tovush va harf o'z funksiyasi bilan birgalikda ma'lum bir uslubiy vazifani ham bajarishi mumkin. Tovushlarni orttirish yoki tushirish ,takrorlash ,undoshlarni qavatlash, unli tovushlarni cho'zish kabi fonetik usullar yordamida badiiy matnda ekspressivlik ta'minlanadi. Qahramon ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo'lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatq, olqish, so'roq, ta'kid, norizolik, tilak-istak, qo'llab-quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda yozuvchilar unli yoki undosh tovushlarni birdan ortiq yozish usulidan foydalanganlar. [2,57].

Muhokama. Nasriy asarlarda undoshlarni qavatlash ,tovushlarni takrorlash, so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish kabi fonetik usullardan muallif ko'proq muayyan ma'no, qahramonlarning ichki kechinma va hissiyotlarini ifodalash, qahramon nutqini individualashtirishda foydalanadi, biroq yuqorida ta'kidlanganidek, fonetik birliklarning imkoniyatlarini she'riy matnda nasriy matnga qaraganda ko'proq his qilamiz. Muallif bunda alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan o'zi ko'zlagan muayyan bir uslubiy maqsad uchun foydalanadi.

Xalqimizning sevimli, shoirning o'z ta'biri bilan aytganda „o'jar shoir“ i Shavkat Rahmon ham o'z ijodida ushbu vositalardan mahorat bilan

foydalangan. Badiiy matnning ohangdorligini, ta'sirchanligini ta'minlashda alliteratsiyaning o'rni beqiyosdir. She'riy nutqda misralar, undagi so'zlar hamda bo'g'inlar boshida yoki oxirida bir xil undosh tovushlarning takror qo'llanishiga alliteratsiya deyiladi. Ko'hna badiiyatshunoslik (ilmi bade')da alliteratsiya „tavze“ san'ati deb yuritilgan. [3,58]. Ushbu san'at haqida gap ketganda beixtiyor Erkin Vohidov qalamiga mansub o'sha mashhur „q“ harfli alliteratsiya asosidagi she'ri yodimizga tushadi. Ekspressivlikni yanada oshirish maqsadida qo'llaniladigan fonetik usullardan yana biri assonansdir. Adabiyotlarda assonans aynan yoki yaqin unilarning takrorlanib kelishidan hosil bo'ladigan ohangdoshlik ekanligi bayon qilingan. [4,58]. Ko'rinib turibdiki, ushbu san'atlarning eng ustun jihatlaridan biri ularning o'quvchi yodida tez saqlanib qolishiga imkon berishidir.

Natijalar. Shavkat Rahmon ijodida ham alliteratsiya namunalarini ko'plab uchratish mumkin. Masalan, uning „Savol“ she'ridagi quyidagi parchada **k** tovushi takrori orqali shoir she'r musiqiyiligini, emotsionalligini ta'minlashga erishadi :

Kim edim-u, kim bo'ldim endi,
Ko'rib turar quyosh, suv, tuproq.
Ko'zlarimdan ko'ra hayotni
Yelkalarim ko'ribdi ko'proq.
Yoki boshqa bir she'riy parchadagi sh tovushi:
Ana... quloq soling... eshityapsizmi?
Kuylar shoir shamol, kuylar shoir qor.
Shoir qorong'ulik, shoir tog'larda,
Shoir daryolarning shovullashi bor.

„Murojaat“ she'ridagi quyidagi parchada ham **q** tovushi takrori orqali kitobxon e'tiborini jalb etish, estetik zavq berish, o'ziga xos manzara chizishga erishilgan.:

Faqat ishq, faqat ishq, boshqasi sarob,
Boshqasi shamolning oniy suroni.
Qirqta tar gulimni ayladim xarob,
Qirqta qul ko'zi-la ko'rdim dunyoni,
Qirqta qora qul yotar moziyda...

„Qasam“ she'ridagi boshqa bir she'rda esa shoir **s** tovushi orqali kuchli ta'kid, ifodalananayotgan fikrga urg'u berish, aytilmoqchi bo'lgan eng muhim fikrga diqqatni jalb etish kabi ma'nolarni ifodalagan:

Shavkat Rahmon degan bir o'jar shoir
Bir kuni qaytadan yaraladimi?
Hayotim ma'nisin juda ko'p o'ylab,
Sayladim so'zlarning saralarini.

Shoir ijodida, shuningdek, assonansni ham **a-o** tovushlar uyg'unligida ko'rishimiz mumkin, ushbu san'at she'r ohangdorligini ta'minlash bilan birga, unga ko'tarinki ruh, yengil ifoda bag'ishlagan:

Tutilgan oy, qadimgi fanorsan anor,

Yoqut to'la qip-qizil qanorsan anor.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Shavkat Rahmon she'riyatini bu tarzda fonetik tahlil qilish asnosida uning naqadar iste'dodliligi, badiiy mahoratining qay darajada yuksak ekanligiga guvoh bo'lamiz. Uning til birliklaridan qay darajada foydalana bilishi shoir mahoratini ko'rsatadi. Bunday fonetik tahlil orqali shoir uslubi, uning o'ziga xosliklarini aniqlash barobarida til imkoniyatlarini o'rganish, shuningdek, muallif o'z ijodida ko'zlagan maqsadni to'la anglash mumkin. Demak, badiiy matn tahlilida leksik-semantik, morfologik tahlil bilan birgalikda fonetik tahlil ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alponova Sh. Inson ruhiyatini aks ettirishda fonetik vositalarning o'rni. - Toshkent: Fan. 2009.

2. Yo'ldoshev M, Isaqov Z, Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2010.

3. Kurbanova M, Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi. - Toshkent: Universitet. 2014.

4. Shavkat Rahmon. Saylanma. - Toshkent: Sharq. 1997.

5. Shavkat Rahmon. Hulvo. - Toshkent: Yosh gvardiya. 1987.

YASHIRIN IQTISODIYOTNI MIMIC MODEL I YORDAMIDA BAHOLASH

***Sindorov Davlatbek Abdumajid o'g'li**
O'zbekiston Milliy univertiteti magistiranti*

Butun dunyoda modiy asosga ega bo'lgan barcha boylklarni xufyona yo'lar bilan o'zlashtirishga urinishlar bir necha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Xufyona yo'larni aniqlashda bizga yashirin iqtisodiyotning hajmi va rivojlanishi haqidagi empirik tadqiqotlar yordam beradi. Tadqiqotlar va kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, yashirin iqtisodiyotning miqyoslari rivojlangan mamlakatlarda birmuncha kamroq, rivojlanayotgan, shuningdek, bozor iqtisodiyotiga o'tish maqsadida chuqur islohotlarni amalga oshirayotgan sobiq sotsialistik mamlakatlarda kengdir. Shu boisdan yashirin iqtisodiyotning ta'rifi va sabab omillarini, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini o'rganish, uning ko'lamlarini keskin kamaytirish va unga qarshi kurash masalalarini tadqiq qilish barcha davlatlar uchun dolzarb ahamiyatga ega. Yashirin iqtisodiyot ko'lamini va

miqyosini aniqlashda MIMIC modelidan foydalaniladi. MIMIC modeli xorijlik olimlar K.Xart, F.SHnayder J.Giles tomonidan tadqiq etilgan.

Barchamizga ma'lumki, bugingi kunda mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyotning o'rni beqiyos. Hozirda bozor iqtisodiyotga o'tgan rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotga o'tish uchun xufyona iqtisodiyot bir muncha monelik qilmoqda. Xufyona iqtisodiyot mavjudligiga dastlab 20-asrning 30-yillarida e'tibor bera boshladilar. 70- yillarga kelib esa ingliz sotsiologi K.Xart tomonidan xufyona iqtisodiyotni birinchilardan bo'lib tadqiq qilish boshlandi. U "Uchinchi dunyo" mamlakatlarida ko'plab shaxarliklarning rasmiy iqtisodiyotga aloqador emasligini aniqladi. U norasmiy iqtisodiyot atamasini ilmiy muomalaga kiritdi. P.Gutman (AQSH) xufyona iqtisodiyot ko'lamiga va roliga e'tibor qilish lozimligini asosladi. E.Feyg yesa xufyona iqtisodiyot ko'lami 70- yillarning oxirida AQSH rasmiy YaIM ning uchdan bir qismini tashkil etishini baxoladi. Shunday qilib 20- asrning ikkinchi yarimida xufyona iqtisodiyot asoslari yaratildi[1.6].

Xufyona iqtisodiyot soxasidagi faoliyat miqyosi va xarakterining o'zgaruvchanlik chegaralari juda kengdir-jinoiy faoliyatdan (masalan, narkobiznes, odam savdosi) olinadigan katta daromadlardan tortib mardikorlarga beriladigan kunlik ish xaqqigacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Qisqa qilib aytganda, xufyona iqtisodiyot jamiyat iqtisodiyotining parazitini xisoblanadi.

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida to'sqinlik qiluvchi yashirin iqtisodiyot qanday yo'llar bilan baxolanish hamda uning sabab va ko'rsatgichlarini aniqlash dolzarb masala xisoblanadi. Bunda yashirin iqtisodiyotni baxolashda eng keng tarqalgan "bir necha ko'rsatgichlar va bir necha sabablar" MIMIC modelidan foydalaniladi.

Shunday qilib, MIMIC modeli kuzatilgan sabab o'zgaruvchilari va yashirin o'zgaruvchi (kuzatuvchilari) o'rtasidagi munosabatlarini belgilaydi, bu esa, o'z navbatida, kuzatilgan ta'sir o'zgaruvchilari to'plamiga bilvosita ta'sir qiladi. MIMIC ni amalga oshirish X sabablari va harakatlantiruvchi kuch Y (ko'rsatkichlar) tomonidan boshqariladigan yashirin o'zgaruvchi-yashirin iqtisodiyotning ta'rifini o'z ichiga oladi. Bu normal taqsimlangan xatolarga ega (p+1) chizikli tenglamalarga olib keladi:

$$Y_t = \lambda \eta_t + \varepsilon_t$$

$$\eta_t = \gamma' X_t + \xi_t$$

η – yashirin o'zgaruvchi (yashirin iqtisodiyot halmi);

$X = (X_1, X_2, X_3, X_4, X_5, X_6)$, kuzatiladigan ekzogen sabablar;

$\gamma = (\gamma_1, \gamma_2, \gamma_3, \gamma_4, \gamma_5, \gamma_6)$, strukturaviy modeldagi strukturaviy parametrlar;

$Y = (Y_1, Y_2)$, kuzatiladigan endogen ko'rsatkichlar;

$\lambda = (\lambda_1, \lambda_2)$, o'lchov modelidagi strukturaviy parametrlar;

$\varepsilon = (\varepsilon_1, \varepsilon_2)$, o'lchov xatolarining standart og'ishlari;

Strukturaviy buzilish va o'lchash xatolari normal taqsimotga ega va bir-biridan mustaqil deb hisoblanadi. Natijalarning sifatini ta'minlash uchun taxmin juda muhim. D.Giles va L.Tedds takidlagandek, bu modelni baholash uchun λ ko'rsatgichning elementlaridan biriga cheklov qo'yish zarur. MIMIC modelni baxolash eng ko'p qo'llaniladigan usul bu maksimal extimollilik usuli bo'lib, kuzatilgan o'zgaruvchilar ko'p o'zgaruvchan normal taqsimotga amal qilishi, ko'p o'zgaruvchan normal taxminni ayniqsa egzogen o'zgaruvchilar uchun, odatda yumshatish mumkin. MIMIC yondashuv xatolarining normal taqsimlanishini nazarda tutadi, modelning xatto parametrlari va o'rtacha qiymatini 0 ga va standart og'ishini doimiyga cheklaydi, shu bilan birga xatolik bilan bog'liq bo'lmagan sharoitlarni saqlaydi[2].

Modelning tushuntirishda takidlanganidek, ko'rsatgichlardan birining ko'rsatilishi va uning qiymati 0 dan farq qilishi kerak. YaIM ta'siriga qarab ijobiy yoki salbiy(+/-1) bo'lishi mumkinligini xisobga olib, norasmiy iqtisodiyot indeksining xarakterini kuzatish va uni YaIM nisbatida ifodalash uchun qiymati +1 bilan cheklanadi. F.Shnayder (2010 yil) MIMIC modeliga asoslangan yashirin iqtisodiyot ko'lamini o'rganishda odatda sabab va oqibat o'zgaruvchilari sifatida quyidagilar qo'llaniladi.

-to'g'ridan-to'g'ri soliqqa tortishning soliq yuki, shu jumladan ijtimoiy sug'urta to'lovlarining ulushi (YaIM ga nisbatan foizda);

- bilvosita soliqqa tortishning soliq yuki, shu jumladan bojxona to'lovlari (yalpi ichki mahsulotga nisbatan foizda);

- davlat tomonidan tartibga solishning ta'siri;

- ishsizlik darajasi (umumiy aholi soniga nisbatan foiz);

- aholi jon boshiga YaIM (dollar bilan).

- Ko'rsatkich o'zgaruvchilari sifatida u foydalangan:

- ishsizlik darajasi (18 yoshdan 64 yoshgacha bo'lgan aholi ulushi);

- yillik YaIM o'sish sur'atlari;

- aholi jon boshiga milliy valyuta hajmining yillik o'zgarishi.

Birinchi bosqichda yashirin iqtisodiyot soliq yuki va tartibga solishning intensivligi kabi yashirin xatti-harakatlarning sabablari, shuningdek, chet el valyutasiga bo'lgan talab va rasmiy ravishda sariflangan ish vaqti kabi noqonuniy faoliyatni aks ettiruvchi ko'rsatkichlar yordamida baholanadi. Ikkinchi bosqichda kalibrlash yoki taqqoslash amalga oshiriladi. Yashirin o'zgaruvchi va uning birligi kuzatilishi mumkin emasligi sababli, tizimli model faqat kuzatilmagan o'zgaruvchining dinamikasini ko'rsatadigan indeksni hisoblash mumkin bo'lgan taxminiy koeffitsientlar to'plamini taqdim etadi. Qaysi biri qo'llanilishidan qat'i nazar, kalibrlash deb ataladigan protsedurani (benchmarking) qo'llash, tajriba va kalibrlangan qiymatlarni taqqoslashni, akademik muhokamani talab qiladi.

Tadqiqotning ushbu bosqichida qaysi kalibrlash usuli eng yaxshi yoki ishonchli ekanligi aniq emas[3].

Misol uchun, MIMIC modeli (olti sabab, yashirin o'zgaruvchi va ikkita ko'rsatkich) ishga tushirilsa va modelni optimallashtirish uchun to'rtta statistik ahamiyatsiz o'zgaruvchining koeffitsientlari chiqarib tashlansa, natija MIMIC bo'ladi. Statsionar bo'lmagan vaqt qatorlarini istisno qilish uchun o'zgaruvchilar birinchi farqlariga aylantiriladi.

Boshqa statistik usullar bilan solishtirganda, MIMIC modellari yashirin iqtisodiy faoliyatni baholash uchun bir qator afzalliklarga ega. D. Giles, L. Teddsning fikriga ko'ra, MIMIC boshqa raqobatdosh usullarga qaraganda ko'proq ob'ektiv yondashuvlardan biridir, chunki u bir vaqtning o'zida bir nechta ko'rsatkichlar va sabab o'zgaruvchilardan foydalanishga imkon beradi. Bundan tashqari, ushbu yondashuv juda moslashuvchan bo'lib, o'rganilayotgan yashirin iqtisodiy faoliyatning xususiyatlariga, ko'rib chiqilayotgan davrga va ma'lumotlarning mavjudligiga qarab sabablar va ko'rsatkichlar o'zgaruvchilarni tanlashni o'zgartirishga imkon beradi. F. Shnayder, MIMIC modeli yashirin iqtisodiyotning hajmi va rivojlanishini aniqlash usullarini baholashda ma'lum yutuqlarga olib kelishini ta'kidlaydilar[4]. Shuning uchun ular buni boshqa baholash usullaridan ustun deb hisoblashadi. Bu ijobiy jihatlar, xususan, faqat ro'yxatga olinmagan iqtisodiyot hajmini baholashga emas, balki barcha yashirin iqtisodiy faoliyatga taalluqlidir.

Bu shuni anglatadiki, MIMIC modeli yashirin iqtisodiyotning keng ta'rifiga ishora qiladi va yashirin iqtisodiyotning hajmini baholash boshqa usullarga asoslangan hisob-kitoblarga qaraganda ancha yuqori. Shunday qilib, MIMIC modeli yashirin iqtisodiyot hajmi uchun yuqori chegaralarni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Xufyona iqtisodiyot: o'quv qo'llanma. H.P.Abulqosimov, N.G.Muminov – T.: Yangi nashr, 2020. – 304 b.

2. Breusch, T. (2005). Estimating the underground economy using MIMIC

3. Del'Anno, R., & Schneider, F. G. (2006). Estimating the Underground Economy by Using MIMIC Models: A Response to T. Breusch's Critique. Economics working papers. Department of Economics, Johannes Kepler University Linz, Austria.

4. Schneider, F. (2015), Schattenwirtschaft und Schattenarbeitsmarkt: Die Entwicklungen der vergangenen 20 Jahre, Perspektiven der Wirtschaftspolitik

XORIJY TILLARNI O'QITISHDA PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK MAHORAT

Sobirova Asilabonu Aziz qizi

O'zDJTU1-bosqich talabasi

Shukurova Shohsanam Qaxramon qizi

O'zDJTU Ingliz tili amaliy fanlar №3 kafedrası o'qituvchisi (Ilmiy rahbar)

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, har bir sohada, shuningdek, ta'lim sohasida ham jadal rivojlanishlar olib borildi. Jumladan, mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitishga va buning uchun yetarlicha sharoit va imkoniyatlar yaratishga e'tibor qaratib kelinmoqda. Bular orasidan ingliz tiliga qiziqish yuqori bo'lganligi tufayli bu tilni o'rganish va o'rgatishda ham pedagogik, ham psixologik jihatdan yondashish talab etiladi. Avvalo, pedagogik mahorat nima? Unga hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan quyidagicha ta'rif beriladi: Pedagogik mahorat ~ o'qituvchilarning shaxsiy (xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, ijodkorligi, fidoyiligi) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy jarayonda ilm-fan cho'qqilarini zabt etishini, o'z kasbidagi mahoratining tobora rivojlanib borishini ta'minlab beradigan faoliyat hisoblanadi. U o'z fanini mukammal bilgan pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va amaliy mashg'ulotlar orqali o'z talabalariga yaxshi o'zlashtirishga yordam beradigan yo'llarni topishga harakat qiladi. [1] Albatta, har bir pedagog kasbiy faoliyati davomida o'z qobiliyat va usullaridan oqilona foydalana bilishi va bularni dars jarayonida to'g'ri tatbiq eta olishi talaba va o'quvchilarning mashg'ulotlarga, dars mavzusiga ko'proq jalb bo'lishiga sabab bo'la oladi. Zero, bugungi kunda barcha fanlarni o'qitish jarayonida kompetensiyaviy yondashuv keng tatbiq etimoqda. Endi o'quvchi va talabalarga bilim va malaka berishning o'zi yetarli emasligi, balki hosil qilingan tushunchalarni turli vaziyatlarda amaliy qo'llash, layoqatini shakllantirish ham bir pedagogik mahorat turlaridan biri, aslida. [2] Talabalarning bilimi qay darajada ekanligiga to'g'ri baho bera olish, ularning qiziqishlariga ijobiy yondashish ularning bilim olishiga ko'mak bera oladi.

Binobarin, ushbu tizim bir-biriga o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan quyidagi komponentlardan tashkil topgan:

1. O'qituvchilik kasbiga sadoqat
2. Kasbga oid fanlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilishi
3. Pedagogik qobiliyatlarini namoyon eta olishi
4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallashi [3].

Misol tariqasida bu strukturani ingliz tili misolida asoslashga harakat qilaylik. Fan o'qituvchilarida rostan ham o'z kasbiga sadoqat va mehr bilan yondashish holatlari bu kasbni yanada chuqurroq egallashga olib keladi. Shuningdek, nafaqat til sohasini, balki unga bog'liq boshqa ijtimoiy fanlardan xabardor bo'lish, o'z ko'nikma va malakalarini tinglovchiga erkin namoyon eta olish, pedagogik texnikani, ya'ni kasbiy mahoratni o'z o'rnida qo'llay bilish kuchli mutaxassis-pedagogni shakllantirishga xizmat qiladi. Darvoqe, til o'rganayotgan shaxs uchun nafaqat pedagogik, balki psixologik ilm ham muhim hisoblanadi. Har qanday tilni o'rganishning asosiy psixologik jihatlari orasida eng muhimlari: til o'rganishga qiziqish va motivatsiya, til o'rganish qobiliyati va uni shakllantirish, til va nutqning nisbati va til to'sig'i sanaladi. Birinchi navbatda, motivatsiya eng asosiy omil hisoblanadi. Har qanday faoliyatda bo'lgani kabi inson biror narsani qilishni xohlamasa yoki uni kuch va bosim bilan bajarsa, u yuqori natijaga erisha olmaydi. Masalan, talaba talabchan ingliz tili o'qituvchisi bilan birgalikda ishlab, imtihondan muvaffaqiyatli o'tishni xohlaydi, lekin muvaffaqiyatsiz bo'lishdan juda ham qo'rqadi. Deylik, u imtihondan o'tadi, lekin bunday mahalliy muvaffaqiyatning uzoq muddatli ta'siri bo'lmaydi. Yangi til hayotingizning bir qismiga aylanishi uchun uni asta-sekin va barqaror o'rganish muhim. Buni kuch bilan amalga oshirish ilojsizdir. Jarayon vaqt va amaliyot talab qiladi. Buning uchun individuallarning o'z xohishlari va bu xoxish maqsad yo'lidagi motivatsiya sifatida xizmat qilishi kerak. Til o'rganayotgan odamlar uchun mehnat bozoridagi talab motivatsion omil hisoblanadi [4]

Boshqa nuqtai nazardan qaraganda, o'qitish jarayonida ikkita asosiy jihat mavjud: ta'lim va tarbiya. Ta'limning maqsadi: o'quvchining shaxsiyatini rivojlantirish. Muvaffaqiyatli ta'lim va tarbiya jarayoni uchun o'qituvchi o'quvchining chet tilini o'zlashtirishi uchun ushbu ikki jihatning rivojlanishini to'g'ri tushunishi kerak. S.Hardjano intellektni oshirish jarayoniga katta e'tibor berdi va buni 4 bosqichga ajratdi:

1. O'qituvchi materialni taqdim etadi va tushuntiradi;
2. Mavzu haqiqatan o'zlashtirilganligiga ishonch hosil qiladi;
3. Materialni mustaqil chiqarishga o'rgatadi;
4. Faol va ijodiy foydalana oladigan qilib tarbiyalaydi [5].

Chet tilini ikkinchi yoki xorijiy til sifatida o'rganayotganlar uchun ham pedagogik, ham psixologik strategiyalar mavjud bo'lib, ulardan ta'lim jarayonida to'g'ri foydalanib kelinmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, chet tillarni o'rgatishning turli usullari mavjud va bu o'qituvchidan yetarlicha ko'nikma va bilimlarni talab qiladi. Mahoratli o'qituvchi bo'lish uchun esa o'quvchilar bilan bog'lanib psixologik ko'nikmalarga va ularga o'rganishga yordam beradigan pedagogik mahoratga ega bo'lish lozim. Olimlarning fikrlariga tayangan holda pedagog inson o'zida barcha

zarur malakalarni shakllantirgan bo'lishi va uni o'quvchilariga targ'ib qila olishi ta'limda dolzarb mavzulardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A'zamjon Xoliqov. Pedagogik mahorat Toshkent-2011. Tafakkur bo'stoni 15-16 b.
2. Ulug'bek Azizov. Til bilish taraqqiyotga eltadi. Toshkent-2022. Yangi O'zbekiston.
3. Xamidova Nilufar Sayfiddionovna, Radjabova Oksana Aleksandrovna: Pedagogik mahorat va uning komponentlari Xorazm 2022.
4. Galskovo.N.D Chet tillarini o'qitish nazariyasi. Lingvodidaktika va metodologiya N.D Galskovo – M: Akademiya 2008: 336-bet
5. Rustamova Barno, Soliyeva Dilnoza: Xorijiy tillarni o'qitishda psixologik bilimlarning ahamiyati.

**YASHIRIN IQTISODIYOT VA MIMIC MODEL ASOSIDA
MODELLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

Sindorov Davlatbek Abdumajid o'g'li

*Mirzo Ulug'bek Nomidagi O'zbekiston Milliy Universtiteti matematika
fakulteti matematik iqtisodiyot yo'nalishi magistiranti*

Soya iqtisodiyotlari bilan bog'liq faoliyat butun dunyoda mavjud bo'lib, aksariyat jamiyatlar ushbu faoliyatni jazolash, ta'qib qilish, iqtisodiy o'sish yoki ta'lim kabi turli choralar orqali nazorat qilishga harakat qiladilar. Resurslarni yanada samaraliroq taqsimlash uchun mamlakat yashirin iqtisodiyotning ko'lami, kimning yashirin faoliyat bilan shug'ullanayotgani va ushbu faoliyatning chastotasi haqida ma'lumot to'plash juda muhimdir. Afsuski, yashirin iqtisodiyot faoliyati, jumladan, jalb qilingan tovarlar va mehnat to'g'risida aniq ma'lumot olish juda qiyin, chunki bu faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslar o'zlarini oshkor qilishni xohlamaydilar. Shu boisda bu sohani (“oq”, “oq yoqalilar”, “kulirang”, “qora”) iqtisodiyotlarga bo'lib o'rganishadi. Yashirin iqtisodiyodni sabab va ko'rsatkichlarini, hajmini baholashda MIMIC modeliga tayaniladi.

Yashirin iqtisodiyot dunyoning barcha iqtisodiyotlaring umumiy salbiy tamonidir. Turli darajalarda har qanday mamlakat iqtisodiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Yashirin iqtisodiyot amaldagi qonunchilikka zid kelishi yoki zid kelmasligi nuqtai nazaridan mamlakatlarda kriminal, jinoiy yoki kuzatilmagan xufyona iqtisodiyot sektorlariga ajratiladi. Kriminal, ya'ni jinoiy, qora xufyona iqtisodiyotda umuman iqtisodiy faoliyat yashiriladi. Kuzatilmagan, norasmiy iqtisodiyot sektorida sarf xarajat yoki daromad yashiriladi yoki umuman hisobga olinmaydi. Mutaxassislar yashirin iqtisodiyotni quyidagi nomlarda yuritiladi: “oq-

yoqali” jinoyat - davlatning rasmiy vakolatlarini suiste'mol qilish bilan bog'liq jinoyat turlariga ajratishadi. Ushbu turga valyuta qoidalarini buzish, savdoga yetkazilgan zarar, daromadni yashirish, sug'urta qoidalarini buzish, firibgarlik va boshqalar kirishi mumkin. “Kulrang” iqtisodiyot - asosan norasmiy va yashirin iqtisodiyotning eng yirik sohasidir. Ushbu turdagi iqtisodiy faoliyat qonun doirasida, biroq davlat idoralari tomonidan hisobga olinmaydi. “Qora” iqtisodiyot – bu noqonuniy tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan taqiqlangan faoliyat turlarini o'zida jamlaydi[1.6].

Yashirin iqtisodiyotning sabab va ko'rstkichlari quydagilar kiradi:

Sabab o'zgaruvchilari: 1.Yashirin iqtisodiyot hajmiga ta'sir qiluvchi eng keng tarqalgan va muhim sabab soliq yukidir. Ko'pgina empirik tadqiqotlar soliq yukining yashirin iqtisodiyotga statistik ahamiyatli ta'sirini tasdiqlaydi. Ya'ni “Soliq yuki qanchalik ko'p bo'lsa, soyaning hajmi shunchalik katta bo'ladi”.

2. Yashirin iqtisodiyot hajmi va rivojlanishiga davlat institutlari sifatining ta'sirini tahlil qilish juda muhimdir. Yaxshi qonun ustuvorligi, mulkiy huquqlarni va shartnomalarning bajarilishini ta'minlash rasmiy iqtisodiyot foydasini oshiradi. Ya'ni “: Demokratik institutlarning sifati qanchalik yaxshi bo'lsa, yashirin iqtisodiyotning hajmi shunchalik kichik bo'ladi”.

3. Yashirin iqtisodiyotning hajmi va rivojlanishiga ta'sir qilishda qishloq xo'jaligining ahamiyati katta. Norasmiy bandlik va ishning aksariyati qishloq xo'jaligidadir. Ko'pgina tadqiqotlarda qishloq xo'jaligi yashirin iqtisodiyot hajmini o'lchashda hisobga olinmaydi. Ya'ni “Qishloq xo'jaligi sektori qanchalik ustun bo'lsa, uning hajmi shunchalik katta bo'ladi”.

4. Ishsizlik va yashirin iqtisodiyot o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlari hali ham noaniq. Keng tarqalgan gipoteza shundan iboratki, ishsizlikning o'sishi yashirin iqtisodiyot faoliyatining o'sishiga olib keladi, chunki ishsizlar norasmiy iqtisodiyotda ish topishga kuchli rag'batga egadir. Yaniy “ Ishsizlik qancha ko'p bo'lsa, soyaning o'lchami shunchalik katta bo'ladi”.

5. Adabiyotlarga asoslanib, yashirin iqtisodiyotning sababi sifatida rasmiy iqtisodiyotdagi ishchi kuchiga nisbatan o'z-o'zini ish bilan ta'minlash darajasi yuqoriroqdir. Nazariy taxmin shundan iboratki, o'z-o'zini ish bilan ta'minlovchilar soliq qoidalariga rioya qilishdan qochish uchun turli yo'lardan foydalaniladi. Ya'ni “O'z-o'zini ish bilan ta'minlash darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning hajmi shunchalik katta bo'ladi”.

Ko'rsatkichlar:1. Olimlar yashirin iqtisodiyotning o'sishi va rasmiy iqtisodiyot o'rtasida ijobiy bog'liqlik borligini ta'kidlaydilar. Yashirin iqtisodiyot kambag'al odamlarga daromad olish usuli sifatida arzon mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish yo'llarini topishga imkon berishi mumkin. Demak, yashirin iqtisodiyot iqtisodiy faoliyatning kengayishi bilan birga o'sib boradi, chunki rasmiy iqtisodidagi o'sib borayotgan talab norasmiy iqtisodiyotga o'tib,

raqobatbardoshlik va tadbirkorlikning oshishiga olib keladi. Ya'ni "Yashirin iqtisodiyotning hajmi qanchalik katta bo'lsa, YaIM shunchalik past bo'ladi".

2. Jamoat qo'lida bo'lgan pullar notartib va norasmiy tranzaksiyalar nazorat organlari va hukumat amaldorlari tomonidan aniqlanmasligi uchun kredit/depozit kartalari, cheklar yoki bank operatsiyalari bilan emas, balki asosan naqd pulda amalga oshirilishi kuzatiladi. Ya'ni "Yashirin iqtisodiyotning hajmi qanchalik katta bo'lsa, naqt pul hajmi shunchalik katta bo'ladi".

3. MIMIC modelida ko'rib chiqiladigan uchinchi ko'rsatkich jami aholi ulushi sifatida umumiy bandlikdir. Yashirin iqtisodiyot rasmiy iqtisodiyotdan iqtisodiy agentlarni norasmiy ishlash uchun o'zlashtiradi, bu esa rasmiy iqtisodiyotda inson resurslari mavjudligining qisqarishiga olib keladi. Ya'ni "Yashirin iqtisodiyot qanchalik katta bo'lsa, umumiy bandlik shunchalik past bo'ladi,".

Shunday qilib, MIMIC modeli kuzatilgan sabab o'zgaruvchilari va yashirin o'zgaruvchi (kuzatuvchilari) o'rtasidagi munosabatlarini belgilaydi, bu esa, o'z navbatida, kuzatilgan ta'sir o'zgaruvchilari to'plamiga bilvosita ta'sir qiladi. MIMIC ni amalga oshirish X (sabablari) va harakatlantiruvchi kuch Y (ko'rsatkichlar) tomonidan boshqariladigan yashirin o'zgaruvchi-yashirin iqtisodiyotning ta'rifini o'z ichga oladi. Bu normal taqsimlangan xatolarga ega (p+1) chizikli tenglamalarga olib keladi:

$$Y_t = \lambda_p \eta_t + \varepsilon_t \quad (1)$$

$$\eta_t = \gamma_p X_t + \xi_t \quad (2)$$

$$\eta = Y_1 X_1 + Y_2 X_2 + \dots + Y_q X_q + \xi \quad (3)$$

η - yashirin o'zgaruvchi (yashirin iqtisodiyot hajmi);

X - ($X_1, X_2, X_3, X_4, X_5, X_6$), kuzatiladigan ekzogen sabablar;


γ - ($\gamma_1, \gamma_2, \gamma_3, \gamma_4, \gamma_5, \gamma_6$), strukturaviy modeldagi strukturaviy parametrlar;

Y - (Y_1, Y_2), kuzatiladigan endogen ko'rsatkichlar;

λ - (λ_1, λ_2), o'lchov modelidagi strukturaviy parametrlar;

ε - ($\varepsilon_1, \varepsilon_2$), o'lchov xatolarining standart og'ishlari;

Javab 1. MIMIC modelining umumiy tuzilishi



Boshqa statistik usullar bilan solishtirganda, MIMIC modellari yashirin iqtisodiy faoliyatni baholash uchun bir qator afzalliklarga ega. D. Giles, L. Teddsning fikriga ko'ra, MIMIC boshqa raqobatdosh usullarga qaraganda ko'proq ob'ektiv yondashuvlardan biridir, chunki u bir vaqtning o'zida bir nechta ko'rsatkichlar va sabab o'zgaruvchilardan foydalanishga imkon beradi. Bundan tashqari, ushbu yondashuv juda moslashuvchan bo'lib, o'rganilayotgan yashirin iqtisodiy faoliyatning xususiyatlariga, ko'rib chiqilayotgan davrga va ma'lumotlarning mavjudligiga qarab sabablar va ko'rsatkichlar o'zgaruvchilarni tanlashni o'zgartirishga imkon beradi. F. Shnayder, MIMIC modeli yashirin iqtisodiyotning hajmi va rivojlanishini aniqlash usullarini baholashda ma'lum yutuqlarga olib kelishini ta'kidlaydilar[4]. Shuning uchun ular buni boshqa baholash usullaridan ustun deb hisoblashadi. Bu ijobiy jihatlar, xususan, faqat ro'yxatga olinmagan iqtisodiyot hajmini baholashga emas, balki barcha yashirin iqtisodiy faoliyatga taalluqlidir.

Bu shuni anglatadiki, MIMIC modeli yashirin iqtisodiyotning keng ta'rifiga ishora qiladi va yashirin iqtisodiyotning hajmini baholash boshqa usullarga asoslangan hisob-kitoblarga qaraganda ancha yuqori. Shunday qilib, MIMIC modeli yashirin iqtisodiyot hajmi uchun yuqori chegaralarni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Xufyona iqtisodiyot: o'quv qo'llanma. H.P.Abulqosimov, N.G.Muminov – T.: Yangi nashr, 2020. – 304 b.
2. Breusch, T. (2005). Estimating the underground economy using MIMIC
3. Del'Anno, R., & Schneider, F. G. (2006). Estimating the Underground Economy by Using MIMIC Models: A Response to T. Breusch's Critique. Economics working papers. Department of Economics, Johannes Kepler University Linz, Austria.
4. Schneider, F. (2015), Schattenwirtschaft und Schattenarbeitsmarkt: Die Entwicklungen der vergangenen 20 Jahre, Perspektiven der Wirtschaftspolitik

CULTURAL RELATIONS OF UZBEKISTAN AND TURKMENISTAN ON THE PAGES OF "XALQ SO'ZI" NEWSPAPER (2001-2019)

Subkhonova Niso Akhmadovna
master of Bukhara State University

Klichev O.A.
associate professor of Bukhara State University, PhD.,

Introduction. The history and culture of the Uzbek and Turkmen peoples are common, customs and traditions are similar, and the scientific and creative heritage of our ancestors has become the common property of our peoples. The main goal of impartial coverage of the realized mutual cultural and humanitarian relations on the pages of the newspaper: by developing friendship ties between the Uzbek-Turkmen peoples, cooperation based on good neighborliness, and cultural and educational relations of our peoples. It consists of comprehensively explaining the history, culture, spiritual values, national traditions and customs.

Methods. The cultural relations of the Republic of Uzbekistan with the state of Turkmenistan are presented in several editions of the newspaper "Xalq so'zi". In particular, in the 13th issue of the "Xalq so'zi" newspaper, the statement of spiritual and educational issues between the countries, under the article "A new stage of relations" by A. Karim, the Uzbek-Turkmen relations have been brought to a new stage. It was explained in the article entitled "Sport - a pillar of peace and cooperation" in issue 185 of September 15. A. Samadov's article on "Uzbekistan-Turkmenistan: close neighborly and fraternal ties are strengthening" in issue 48 of March 8, 2017, and O. Fayziev's article "Days of Turkmenistan's cinema" in issue 72 of April 12, 2018 The article is an important source for the coverage of cultural relations between the two countries. In the edition of "Xalq so'zi" newspaper dated October 16, 2019, No. 214, M. Elmurodov's "A new era of age-old friendship and fraternal relations. Turkic-speaking countries" in the article in 2019, information on effective meetings in the city of Ashgabat was recorded.

Results. Scientific research of the cooperation of the Republic of Uzbekistan with the state of Turkmenistan is the demand of the time, and the results of the research can be explained in the following aspects:

- commenting on the basis of the articles in the newspaper "Xalq so'zi" that the scientific study of the mutual compatibility of the views of the countries in the spiritual and cultural relations serves as the basis for the establishment and development of beneficial cooperation between the two countries is important.
- the establishment of relations between the states of Uzbekistan and Turkmenistan during the past periods, as well as the signing of documents

covering all areas of cultural and educational cooperation, also require the scientific study of these relations through newspaper articles.

- scientific analysis of the cultural and humanitarian relations of the brotherly countries through the facts in the newspaper columns will raise the relations between the countries to a new level in the future, and will make it possible to make scientifically based recommendations to further strengthen the brotherly relations.

Discussion. Turkmens and the Uzbek people are united by the closeness of their language and historical roots, as well as epics, legends and folk epics common to both peoples. It is worth noting that the cultural and humanitarian sphere, which is one of the priority areas of Uzbek-Turkmen relations, is comprehensively covered in the columns of the newspaper "Xalq so'zi". Cultural centers play an important role in the development of Uzbek-Turkmen relations based on the principles of mutual respect, trust and beneficial cooperation. Representatives of the Uzbek-Turkmen cultural center annually participate in the conferences of the World Turkmen Humanitarian Association, the World Association of Turkmen Handicraft Appreciators, and the International Festival of National Customs and Traditions.

As the main result of the friendly meeting and negotiations between the presidents, bilateral relations have been raised to a qualitatively new level - the level of strategic partnership. In particular, in the article titled "Uzbekistan-Turkmenistan: close neighborly and fraternal ties are strengthening", the newspaper "Xalq so'zi" noted that Shavkat Mirziyoev's first visit to Turkmenistan as the President of Uzbekistan was made in March 2017. [1]. The goal was to continue the long-standing friendship between our peoples. "Let our paths of friendship and brotherhood widen" in 2017, with ties in the cultural sphere taking an important place. The holding of the days of culture of Turkmenistan, the establishment of a street and an architectural monument named after the great Turkmen poet and thinker Makhtumkuli on May 18, 2017 in Tashkent is a clear proof that Uzbekistan and Turkmenistan attach great importance to good neighborly relations.

In the article of A.Samadov entitled "Uzbekistan-Turkmenistan: close neighborly and fraternal ties are strengthening", in April 2018, during the visit of the President of Turkmenistan Gurbanguly Berdimuhamedov to our country, in the city of Tashkent, the recreation park "Ashkhabad", Makhtumkuli Street, an opinion was expressed regarding the opening of the Uzbek-Turkmen Friendship House and the "Ulli Hovli" complex in Khorezm region. This is a bright example of friendship, unity and cultural closeness between our peoples [2]. Representatives of Uzbekistan and Turkmenistan actively participate in culture days, various concerts, festivals, sports events and educational programs held in both countries.

In particular, on October 11, 2019, an article published in the newspaper “Xalq so‘zi” reported that the forum of intellectuals of the CIS and the Forum of Health were held in Turkmenistan, and the festivals of “Sharq Taronalari” and Craftsmen were held in Uzbekistan [3].

Even in the conditions of the pandemic, the representatives of the art and culture of Turkmenistan and Uzbekistan maintained mutual relations online and in traditional form. This year, the festival of folk dances was held in Turkmenistan and the international conference “Central Asia at the Crossroads of World Civilizations” was held in our country [4]. In issues 185-186 of the newspaper of 2017, it was stated that the sports delegation of Uzbekistan took part in the indoor sports and martial arts games held in Ashgabat in September 2017 [5]. Days of Uzbekistan culture were held in Turkmenistan in November. Now the focus on the ancient history and culture between the two peoples has completely changed. As a vivid example of this, the opening of the Ashgabat amusement park in Tashkent on April 23, 2018, the days of Turkmen culture in our country in November 2016, and the days of Uzbekistan culture in Turkmenistan in November 2017 were mentioned in newspaper publications. This is also an example of the high attention paid to the common culture and history of the two brotherly peoples.

Conclusion. In conclusion, it can be noted that the rate of growth of bilateral relations between Uzbekistan and Turkmenistan confirms their firm position on further strengthening of mutual dialogue and deepening of cultural and humanitarian relations. Uzbekistan-Turkmenistan strategic partnership is based on the principles of friendship, good neighborliness, mutual respect and trust serves as a bright example of what can be done.

Suggestions for this research:

- as one of the main conditions for the acceleration of interregional cooperation, continuous coverage of cultural and humanitarian relations, friendship and good neighborly relations between our peoples in the mass media;
- to continue active cultural-humanitarian dialogue, to regularly organize culture days and various creative events in our countries;
- development of exchanges in the field of education and tourism as the most important tool of “people’s diplomacy”, which is the most reliable way to strengthen the environment of friendship, solidarity and stability in the two regions.

References:

1. Samadov A. Uzbekistan-Turkmenistan: close neighborly and fraternal ties are strengthening. Xalq so‘zi // March 8, 2017, issue 48 (6742) p. 1.
2. Fayziev O. Days of Turkmenistan cinema. Xalq so‘zi // April 12, 2018 No. 72 (6766) p. 2.

3. UzA. Effective meetings before the CIS summit. Ashgabat city. Xalq so'zi // October 11, 2019, No. 211 (7441) p. 1.

4. Elmurodov M. A new era of eternal friendship and fraternal ties. Turkic speaking countries. Xalq so'zi // October 16, 2019, No. 214 (7444) p. 1-3.

5. Atakhanova D. Sport is a pillar of peace and cooperation. Xalq so'zi // 2017 year September 15, No. 185-186 (6879-6880) p. 1-2.

МАТЕРИНСКАЯ ДЕПРИВАЦИЯ КАК ФАКТОР СУИЦИДАЛЬНОГО РИСКА У ПОДРОСТКОВ

Султанова Амина Анваровна

*Преподаватель кафедры "Практическая психология" Ташкентского
государственного педагогического университета им Низами*

В настоящее время Средняя Азия, а в частности, Республика Узбекистан, входит в группу стран с высоким уровнем самоубийств. Сегодня Узбекистан занимает 3 место в Средней Азии по количеству суицидов среди подростков. Несмотря на то, что число самоубийств в мире за последние 20 лет уменьшилось на 36%, они унесли больше жизней, чем войны и убийства. С января по август 2021 года, случаи суицида в республике Узбекистан составили 219 случаев, из них лиц мужского пола-93, женского-126. Говорить о добровольном лишении себя жизни в Узбекистане настолько тяжело с учетом культурной и религиозной принадлежности, что это является табу, и, тем более, обсуждать эту проблему в СМИ, открыто, не представляется возможным. Но и умалчивание, сокрытие самого корня проблемы, не меняет ситуации, а где-то, даже усугубляет: люди думают о суициде как о единственном выходе, о единственном способе спасения, и, отчаявшись, решаются на столь роковой шаг. Каждый шестой суицид в Узбекистане совершается по причине семейных разногласий, а если обратить внимание на отношение родителей к своим детям, которые в силу всевозможных экономических проблем лишают своих детей внимания, любви, совместного времяпровождения, добавляет к проблеме суицида еще один вопрос для обсуждения.

В последнее время появляется все больше печальных сообщений о попытках самоубийства. И, что самое трагичное, не всегда попытки спасти человека, который отважился на данный шаг, увенчиваются успехом. К примеру, случай годичной давности февраля 2022 года в метро, когда молодой мужчина прыгнул под движущийся поезд, которого не удалось спасти. Так что же это же это такое-суицид? Как и почему детские травмы,

родительское неприятие, отверженность, могут сыграть роковую роль в жизни подростка. Из истории экспериментальной психологии мы помним эксперимент Гарри Харлоу, проведенный на макаках, которых разлучили с матерями, заменив их на махровые полотенца. И какие последствия это оказало на дальнейшее развитие и аффилиацию детёнышей, воспитанных суррогатными матерями, оказавшимися в конце эксперимента в «колодце отчаяния». Не стоит описывать эксперимент в рамках данной статьи, с результатами эксперимента можно ознакомиться в интернете. Со своей стороны, описывая влияние материнской депривации на подростка, мне бы хотелось лишь напомнить о важности и необходимости материнской заботы и любви, играющую столь важную роль в становлении полноценной личности. Эмоционально-личностная сфера в подростковом возрасте является предметом многочисленных обсуждений в практике и науке: эти исследования по-прежнему современны и актуальны. Есть много факторов, влияющих на поведение и эмоционально-личностное развитие ребенка (современная подростковая субкультура, отношения со сверстниками и взрослыми, социальное окружение, наличие или отсутствие семьи, отношения между матерью и ребенком). Семья, как ближайшее социальное окружение удовлетворяет потребности ребенка в принятии, признании, защите, эмоциональной поддержке и уважении. Именно в семье приобретает первый опыт социального и эмоционального взаимодействия. Многие авторы подчеркивают решающую роль родительского отношения в психическом развитии детей (А.Я. Варга, А.И. Захаров, О.А. Карабанова, М.И. Лисина, А.С. Спиваковская, Э.Г. Эйдемиллер, В. Юстицкис и др.) [Карабанова, 2005]. Подростковый возраст сложный и значимый в становлении жизненного статуса и сам по себе является критическим, а для подростков, переживших депривацию, считается проблемным. Отсутствие семьи является психологической травмой. Для детей, воспитывающихся в приютах присущ более медленный темп психического развития, низкий уровень умственного развития, бедная эмоциональная сфера, убогое воображение, позднее формирование навыков саморегуляции. Материнская депривация, усложняет переживаемые болезненные эмоции, страх, тревогу, или сказывается на сложности выражения эмоций и способствует развитию эмоционального дальтонизма, алекситимии. Под тревожностью мы понимаем индивидуальную психологическую особенность, проявляющуюся в склонности человека к частым и интенсивным переживаниям состояния тревоги [Астапов, 2008]. А под алекситимией – психологическую характеристику человека, которая характеризуется частичной или полной неспособностью индивида точно описать свои эмоциональные

переживания, понять чувства другого человека. Кроме того, возникающими у него трудностями в определении различий между телесными ощущениями и чувствами, а также фиксацией на внешних событиях в ущерб внутренним переживаниям [Провоторов и др., 1998]. Развитие алекситимии, тревожности при повышенной эмоциональности подростка с учетом усугубляющего фактора родительской депривации, когда подросток в силу разных причин (смерть родителя, лишение его родительских прав и т. д.) временно или полностью лишается попечения родителей, может привести к агрессивности, субъективному переживанию одиночества, аутоагрессивному поведению. Отсутствие эмоционального тепла или родительской любви и заботы со стороны близкого человека, воспитание вне семьи проявляются «расстройствами привязанности» (Дж. Боулби), психической депривацией, нарушениями мотивационно-потребностной сферы и личностной тождественности. Один из самых серьезных феноменов сиротства – «утрата базового доверия к миру» – формируется с ранним детским опытом ребенка с материнской депривацией (М.Ю. Ефремова). Самоповреждающее поведение является прямой формой аутодеструктивного поведения. Под аутодеструктивным поведением в психологии понимают преднамеренные действия, следствием которых является физическое или психическое разрушение личности, не носящее осознанной цели лишения себя жизни [Андронникова, 2010; Короленко, Донских, 1990; Руженкова, Руженков, 2011]. Последствие материнской депривации, является серьезной проблемой для ребенка. Ребёнок, выросший отчужденным, без заботы, внимания и родительской любви, ощущая на себе пренебрежение и отверженность, страдает рядом комплексов, негативно влияющих на психоэмоциональный фон личности. Отсюда и неуверенность, и заниженная самооценка, и низкий эмоциональный интеллект, и биполярное расстройство личности и аутоагрессивные состояния, ведущие к депрессивно суицидальным мыслям и действиям. Семейные ценности и пропаганда семейных традиций и канонов семьи, должны стать социальной программой обеспечивающей сохранность семьи и традиций, в которых воспитывается ребенок. Материнская любовь, тактильность во взаимоотношениях, должны стать неотъемлемой частью для обеспечения защиты ребенка, оказав положительное влияние на дальнейшее развитие ребенка, передающиеся из поколения в поколение. Необходимо помнить и следовать весьма важному постулату: “Ребенок учится тому, что видит у себя в дому. Родители, пример тому!” (Себастьян Брант).

Список использованной литературы:

1. Карабанова О.А. Возрастная психология: конспект лекций. М.: Айрис-пресс, 2005. 238 с.
2. Астапов В.М. Тревога и тревожность. Хрестоматия. М., 2008. 240 с.
3. Провоторов В.М., Кравченко А.Я., Будневский А.В., Грекова Т.И. Традиционные факторы риска ИБС в контексте проблемы алекситимии // Российский медицинский журнал. 1998. № 6. С. 45-47.
4. Андронникова О.О. Основные характеристики подростков с самоповреждающим виктимным поведением // Вестник Томского университета. 2010. № 322. С. 149-154.

SHAXSDA AYBDORLIK HISSINING IFODALANISHI PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

Sultanova Saida Muhiddin qizi

Nizomiy nomidagi TDPU, "Amaliy psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

Qadimgi falsafa doirasida aybdorlik va uyat hislari jamoatchilik fikridan qo'rqish bilan bog'liq holda ko'rib chiqilgan, bu xatti-harakatlar qabul qilingan me'yorlarga mos kelmagan taqdirda qoralanishi mumkin bo'lgan. G.G.Matyushin o'zining «Uyat va vijdon axloqiy o'zini o'zi baholash shakllari sifatida» nomli kitobida uyat va aybdorlikning mohiyatini o'zi haqidagi jamoatchilik fikridan qo'rqish va «ba'zi nomussizlik qo'rquvi»da ochib bergan Platon va Aristotelga murojaat etadi.

Aristotel ham aybdorlik va uyatni axloq nuqtayi nazaridan ko'rib chiqqan va ularning ijtimoiy mohiyatini ta'kidlagan. Demokrit uyatning ikki turini ajratgan: o'zgalar oldida va o'zi oldida, bunda birinchi holatda insonning uyatli harakati boshqalarga ma'lum bo'lsa, ikkinchisida bu harakat haqida faqat uni sodir etgan shaxsgina biladi. Matyushin o'z oldida uyat va aybdorlikning zamonaviy tushunchasi o'rtasidagi bog'liqlik haqida taxmin qiladi [1].

S.V.Gornayeva «Shaxsiy ijtimoiy xulq-atvorni psixologik tartibga solish ma'nosida aybdorlik va uyat» nomli maqolasida XX asr faylasuflariga murojaat qiladi. Masalan, Kerkegor uyatni inson o'zini dunyoga jamiyat oldida o'zi xohlagandek ko'rsata olmaydigan umidsizlik tuyg'usiga reaksiya deb biladi. Bu o'z-o'zidan bo'la olmaslik va boshqa bironing bu qobiliyatsizlikni bilib qolishdan qo'rqish uyatni keltirib chiqaradi. J.P.Sartr uyat kechinmasini «boshqa odamlar oldida o'zimdan uyalaman» holati sifatida ta'riflaydi va undagi uchta munosabatni ajratadi: o'zimni qanday his qilaman, boshqa odamni qanday his qilaman va boshqa odam meni qanday ko'radi. Sartrning fikricha, uyatni boshdan kechirish uchun inson o'z his-tuyg'ularini shu uch bog'liqlik bo'yicha bilishi kerak. Inson himoyasiz va kuzatilgan

vaziyatdan qochib qutula olmasligini tushunganida uyat paydo bo'ladi. Aytish mumkinki, faylasuf olimlar, uyat va aybdorlikni asosan jamiyat va o'z-o'zidan o'z fikri va qarashlariga munosabat sifatida ko'rib, bu tuyg'ularning kechinmalarini yaxshilik va yomonlik, «yaxshi-yomon» toifalarida tahlil qilganlar [2].

Ko'pgina mualliflar aybdorlik va uyat hissini shaxsning axloqiy xulq-atvori va rivojlanishi bilan bog'laydi. G.M.Breslav o'zining «Tuyg'ular psixologiyasi» nomli kitobida T. Shibutani, D.A.Xanna, K.Fisher, A.Modilyani va boshqalarga murojaat etadi. Uyat va aybdorlik axloqiy va etik me'yorlarga zid bo'lgan xatti-harakatlar sodir etilganda paydo bo'ladigan hissiyotlar sifatida qaraladi. Ular axloqiy o'zini o'zi boshqarish me'yor va haqiqiy xatti-harakatlar o'rtasidagi nomuvofiqlikni bildiradi, shaxsiy javobgarlik hissini va jamiyat me'yorlariga rioya qilish zarurligini shakllantiradi. R.Mey, E.Fromm, I.Yalom, O.Rank kabi mualliflar uyat va aybdorlik hissini nafaqat boshqalarga nisbatan, balki o'ziga nisbatan sodir etilgan harakat bilan ham bog'laydilar [3].

Rus psixologiyasida uyat va aybdorlik o'z-o'ziga munosabat va o'z-o'zini anglash tushunchalari bilan bog'liq holda o'rganilgan. V.N.Myasishchev uyat va aybdorlikni insoniy tajriba va xatti-harakatlarning axloqiy mezonlariga ko'ra shakllanadigan baholash munosabatlari deb hisoblaydi. Ushbu mezonlarga e'tibor qaratgan holda, inson ijtimoiy me'yor va qoidalarni o'zlashtiradi [4]. V.V.Stolin o'z-o'ziga munosabatni o'rganar ekan, aybdorlik va uyat hissini ichki ziddiyat va o'zini ayblash kabi o'ziga xos modalliklar bilan bog'lagan [5].

O.N.Bogolyubova o'zining «Uyatni boshdan kechirish: hodisalarning sifatli tahlili» nomli maqolasida yozishicha, bugungi kunda ko'pchilik tadqiqotchilar uyat va aybdorlikni o'z-o'zini anglash hissiyotlari (self-conscious emotions) toifasiga kiritishadi. Uyat va aybdorlikdan tashqari, bu his-tuyg'ularga xijolatchilik, hasad va mag'rurlik ham kiradi. Ularning barchasini o'z-o'zini anglash jarayoni bilan bog'liqligi birlashtiradi. Bogolyubova aybdorlik va uyat o'rtasidagi farqqa katta e'tibor beradigan Djuna Tangneyga murojaat qiladi. Uning nuqtayi nazari bo'yicha, aybdorlik muayyan xatti-harakat bilan bog'liq va uyat butun shaxsga tegishli. Uyat tashqi qoralash muhitini o'z ichiga oladi, bunda aybdorlik hisi ichki «vijdon urishi» bilan keskinlashadi. Aybdorlik shaxsni faollashtiradi, chunki u vaziyatni to'g'rilash istagini keltirib chiqaradi, uyat esa yashirish va g'oyib bo'lish istagini keltirib chiqaradi. Va shunga ko'ra, aybdorlik hissi ko'proq empatik kechinma bilan bog'liq, uyat esa, aksincha, unga to'sqinlik qiladi va stressga buzg'unchi reaksiyalarga ko'maklashadi. Tangneyning aytishicha, uyat aybdorlikka nisbatan ortiq darajada kuyinish tuyg'usidir, chunki u o'zining «Men»iga salbiy baho beradi, aybdorlik esa faqat harakatni «baholaydi» [6].

K.Muzdibayev o'zining «Aybdorlik va uyatni boshdan kechirish» nomli kitobida ham hissiyotlar farqiga e'tibor beradi. Uning fikricha, «uyat» va «aybdorlik» bir-biriga yaqin tushunchalardir, chunki ular o'zaro o'xshash tartibga solish funksiyalariga ega.

Ammo ular shaxsda butunlay boshqacha kechinmalarni aks ettiradi. Agar kishida biror narsani, me'yorlarni, qoidalarni, va'dalarni buzganida, o'z majburiyatlarini bajarmaganida aybdorlik hissi paydo bo'lsa, u holda uyat kengroq tushuncha bo'lib, shaxsning butun yaxlitligiga taalluqlidir. Bu qoidalarni buzish bilan bog'liq emas. Aybdorlik hissini boshdan kechirayotgan odam o'z e'tiborini xatti-harakatlariga qaratsa, uyatli holatga tushgan shaxs o'zini, «Men»ni tahlil qilishga qaratadi. Uyat harakatning nomaqbulligi va nomuvofiqligi tufayli paydo bo'ladi va o'zini o'zi qoralash bilan bog'liqdir. Shunday qilib, haqiqatan ham, bu fenomenlarni o'rganishda ularning farqlanishiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Aybdorlik tushunchasi uyat tushunchasiga juda yaqin, chunki bir xil holat ikkala hissiyotni ham keltirib chiqarishi mumkin. Ikkala hissiyot ham biror narsani tuzatish yoki yashirish istagini keltirib chiqaradi, ammo bu istak aynan nimaga qaratilganligi aybdorlikni uyat hissidan ajratib turadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, uyatni boshdan kechirganda, inson o'zidan, o'zining butun shaxsiyatidan uyaladi, aybdorlikni esa shaxs muayyan harakat uchun his qiladi. K.Muzdibayev «Ayb va uyatni boshdan kechirish» nomli kitobida aybdorlikni shaxsning har qanday axloqiy me'yorlar, diniy yoki huquqiy me'yorlarni buzganlik holati, shaxsning o'z qilmishini anglashi bilan bog'liq salbiy tuyg'usi sifatida ta'riflaydi. Aybdorlikni boshdan kechirganda, noto'g'ri amal yoki harakatning mohiyati zarar yetkazish, kimgadir yoki biror narsaga zarar yetkazishdan iborat. Aybdorlik bilan bog'liq bo'lgan asosiy hissiyotlar - bu vijdon, afsuslanish, pushaymonlik va jazodir.

K.Muzdibayev aybdorlik tushunchasiga keng tavsif beradi. Darhaqiqat, turli fanlar bu tushunchadan foydalanadi va uni turli nuqtayi nazardan ko'rib chiqadi. E.P.Ilin aybdorlikni psixologik atama sifatida «qabul qilingan axloqiy me'yorlar va o'z xatti-harakatlari o'rtasidagi nomuvofiqlikni aniqlash bilan bog'liq bo'lgan o'ziga nisbatan norozilik kechinmasi» deya tushunish mumkin, deb yozadi. U O.S.Vasileva va E.V.Korotkova asarlariga murojaat qiladi, bu olimlar aybdorlikni ehtiyojlar piramidasining eng yuqori darajasidagi ehtiyoj bilan belgilanadigan tuyg'u sifatida ta'riflaydi. Ular ta'kidlashicha, aybdorlik salbiy faollikdan keyingi vaqt davri bilan bog'liq [2].

Yuqorida ta'kidlangan ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, shaxsning ijtimoiylashuvida uyat va aybdorlik hissi katta ahamiyatga ega. Bu his-tuyg'ular inson tomonidan jamiyatdagi xulq qoidalari va normalarini o'zlashtirishga, shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini tartibga solishga, odamlar bilan samarali munosabatda bo'lishni, boshqa odamning kechinmasini his qilishga o'rganishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Матюшин Г. Г. Стыд и совесть как форма моральной самооценки. Москва: б.н., 1998.
2. Вайсс Д. Как работает психотерапия. М., 1998.
3. Бреслав Г. М. Психология эмоций. - М.: б.н., 2007.

4. Мясищев В.Н. Психология отношений / под ред. А.А. Бодалева. - М.: б.н., 2004.
5. Столин В.В. Самосознание личности. - М.: б.н., 1983.
6. Tangney J. P., Dearing R. L. Shame and Guilt. New York: Guilford Press, 2003. 272 p.

АУДИТ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ

Суюнова Зухра Баходирр кизи

Докторант Ташкентского Финансового института

Главной целью аудита объектов основных средств является установление соответствия применяемой в организации способа учета, налогообложения операций по движению основных средств нормативным актам, действующим в Республике Узбекистан. Другими словами, это выражение мнения о том, что в бухгалтерском учете и бухгалтерской отчетности объекты основных средств составлены достоверно.

Своевременное проведение аудиторской проверки правильности учета и использования основных средств позволит избежать многих неприятностей.

При достижении данной цели аудитор должен следующее

- оценить систему внутреннего контроля проверяемой организации;
- разработать программу аудиторских процедур по существу;
- определить методы проверки.

При проверке системы внутреннего контроля аудитор должен выявить наличие распорядительных документов, закрепляющих способы ведения учета операций, связанных с движением основных средств. Детально изучить порядок документального оформления фактов хозяйственной деятельности, рассмотреть применяемые формы учета связанных с объектами основных средств, утвержденные схемы и графики документооборота. Чтобы убедиться, достоверны ли системы бухгалтерского учета и внутреннего контроля, аудитор должен провести тестирование.

В ходе проведения аудита основных средств необходимо:

- учитывать назначение и необходимость основных средств в составе имущественного комплекса организации, а также их роль в обеспечении эффективности и непрерывности производственной деятельности;
- учитывать определенную ограниченность, условность информации, содержащейся в бухгалтерской отчетности.

При проведении аудита основных средств используются следующие аудиторские процедуры:

- инспектирование (проверка записей, документов);
- устанавливать количественное влияние операций с основными средствами (прежде всего крупных) на финансовое состояние и финансовые результаты организации;
- пересчет (проверка точности арифметических расчетов в первичных документах и бухгалтерских записях либо выполнение аудитором самостоятельных расчетов);
- аналитические процедуры (анализ и оценку полученной аудитором информации).

Источниками информации для проверки операций с основными средствами являются:

- договоры купли-продажи основных средств,
- акты (накладные) приемки-передачи основных средств (ф. № ОС-1),
- акты приемки-передачи отремонтированных, реконструированных и модернизированных объектов (ф. № ОС-3),
- описи инвентарных карточек (ф. № ОС-7),
- инвентарные книги, инвентарные списки основных средств (ф. № ОС-9), карточки учета движения основных средств (ф. № ОС-8),
- акты на списание основных средств (ф. № ОС-4).

Аудит основных средств включает в себя следующие этапы:

1. Осуществление оценки наличия и сохранности объектов основных средств.
2. Проверка соблюдения условий для отнесения имущества к основным средствам.
3. Осуществление проверки документального оформления и учета основных средств.
4. На основании данных учета и первичных учетных документов проверить своевременность зачисления объектов в состав основных средств и правильность формирования первоначальной стоимости поименованных активов.
5. Проверка правильности начисления амортизации основных средств для целей бухгалтерского и налогового учета.

Основные ошибки, которые выявляются при аудите объектов основных средств и действия аудитора по окончании проверки:

Обнаружив несоответствие между фактическим наличием основных средств и учетными данными, аудитор выясняет причины отклонений. Доказательством присутствия нарушений может служить сличительная ведомость. Ее данные помогают информационной базой для

осуществления последующих процедур. По итогам инвентаризации аудитор формирует информацию по собственным, арендованным и находящимся на особом хранении основным средствам. Инвентаризируя здания, сооружения и другую недвижимость, аудитор проверяет наличие документов, подтверждающих право собственности, зарегистрированное в установленном порядке в соответствующем учреждении юстиции. При инвентаризации производится осмотр объектов по местам хранения и эксплуатации. Если в ходе проверки выявлены неучтенные объекты, аудитор должен определить причины, по которым основные средства не отражены в учете. непригодные к эксплуатации предметы отражаются в отдельной инвентаризационной описи.

Аудитору необходимо убедиться в следующем:

- основные средства отвечают критериям, оговоренным в положениях по бухгалтерскому учету, оценены и отражены в отчетности в соответствии с учетной политикой;
- права организации на основные средства не обременены;
- приобретенные основные средства отражены в учете и отчетности в правильной оценке и в соответствующем отчетном периоде;
- все отраженные в отчетности основные средства действительно существуют;

Из практики аудиторских проверок, типичными ошибками, выявляемыми при оценке сохранности и проверке наличия основных средств, являются:

- 1) неотражение на забалансовых счетах стоимости арендованного имущества, что приводит к недостоверному формированию информации (справки о наличии ценностей, учитываемых на забалансовых счетах);
- 2) оприходование некоторых основных средств без наличия свидетельства о регистрации права собственности;
- 3) несоблюдение момента перехода права собственности от продавца к покупателю, что ведет к недостоверному отражению основных средств на счетах учета;
- 4) отсутствие документов, характеризующих техническое состояние основных средств;
- 5) необоснованное списание недостачи основных средств на расходы организации.

Выявленные в процессе аудита основных средств ошибки оказывают влияние на достоверность финансовых результатов и бухгалтерской отчетности, поскольку приводят к искажению суммы начисленной амортизации в бухгалтерском и налоговом учете.

В процессе аудита основных средств проверяющий должен сочетать элементы финансового и управленческого анализа. В заключение кропотливой работы аудитор формирует пакет рабочих документов, составляет аудиторский отчет и представляет его руководителю проверки совместно с рабочей документацией.

Список литературы:

1. Закон Республики Узбекистан «Об аудиторской деятельности» 25 февраля 2021 года ЗРУ № 677
2. Ерофеева В.А. Аудит. Учебное пособие/В.А. Ерофеева. – М.: Юрайт, 2014. – 640 с. – ISBN 978-5-9916-1592-1
3. Ерофеева В.А. Аудит. Краткий курс лекций/В.А. Ерофеева. – М.: Юрайт, 2014. – 208 с. – ISBN 978-5-9916-2601-9, 978-5-9692-1439-2
4. Толчинская М.Н., Гаврилова Э.Н. Контроллинг качества аудита в современных условиях//Научное обозрение. Серия 1: Экономика и право. 2015. № 3. С. 207-210.
5. Толчинская М.Н. Риск-ориентированный подход в организации службы внутреннего аудита//Фундаментальные исследования. 2015. № 10-3. С. 640-644.
6. Широков С.И. Внутрифирменный стандарт – методика аудиторской деятельности «Особенности аудита собственного капитала коммерческих организаций»//Аудит и финансовый анализ. 2008. №5. С. 40-42.
7. Юнусова Д.А. Трансформация международных стандартов аудита в РФ: проблемы и необходимость//Финансовая экономика. 2014. № 5. С. 23-

**DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI YECHISHDA
MAPLE PAKETIDAN FOYDALANISH**

Temirxolova B.G'

Guliston davlat universiteti talabasi

Negmatulloev Z.T.

Guliston davlat universiteti dotsenti,

Hozirgi kunda fan-texnika rivojlanib borgan sari matematikaning roli ortib bormoqda. Shu jumladan matematikadan fizika, mexanika va astronomiya hamda iqtisodiy masalalarni yechishda, biologik jarayonlarni tahlil etishda va boshqa ko'p sohalarda foydalaniladi. Bu sohadagi jarayonlarning matematik modeli differensial tenglamalar nomi bilan yuritiladi.

Amalda ixtiyoriy matematik paket yordamida amalga oshirish mumkin bo'lgan-elementar hisoblashlar va almashtirishlar zanjiri murakkab masalalarni ham yechish imkonini beradi(masalan,oddiy differensial tenglamalar, chegaraviy masalalarni yechish). Maple dasturiy paketi oliy matematikaning maxsus bo'limlaridagi ko'pgina masalalarning yechimlarini topishga imkon beradi. Maple muhitida ishlash texnologiyasi bilan maxsus adabiyotlarda tanishish mumkin.

Maple matematik paketidan "Differensial tenglamalar" va "Oliy matematika" fanidan bo'ladigan amaliy mashg'ulotlarda, seminar mashg'ulotlarida, oddiy differensial tenglama va tenglamalar sistemasi, chegaraviy masalalarni sonli yechish bo'yicha tanlov fanlari mashg'ulotlarida foydalanish mumkin.

Faraz qilaylik, moddiy nuqta OX o'qi bo'ylab harakat qilsin. Harakat funksiyasi $f(t)$ bo'lsin. Bundan tashqari biror $t = t_0$ momentda uning absissasi x_0 qiymatida qabul qilinsin. Shu moddiy nuqtaning harakat qonunini toping.

Bu masalani matematik modeli ushbu

$$\frac{dx}{dt} = f(t), x(t_0) = x_0$$

differensial tenglama va boshlang'ich shart ko'rinish bilan ifodalanadi.

Yana bir misol keltiraylik. Radiaktiv modda hisoblangan radiyning parchalanish tezligi uning miqdoriga to'g'ri proporsional. Faraz qilaylik, t momentda R_0 radiy bor bo'lsin. Ixtiyoriy t momentda R radiy miqdorini aniqlang.

Agar proporsionallik koeffisienti c ($c > 0$) ga teng bo'lsin, u holda masalan ushbu differensial tenglamani yechishga keltiriladi.

$$\frac{\partial R}{\partial t} = -cR$$

Bu tenglamani $t = t_0$ da $R = R_0$ ga teng bo'ladigan yechimi

$$R = R_0 e^{-c(t-t_0)}$$

funksiya bilan ifodalanadi.

Yuqoridagi masalalardan ko'rinadiki, bitta differensial tenglamani bir nechta funksiyalar qanoatlantirishi mumkin, shuning uchun differensial tenglamalar nazariyasining asosiy maqsadi berilgan tenglamaning barcha yechimlarini topish va ularning xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

Bu maqsadga erishish uchun hozirgi kunda bizning qo'limizda maxsus matematik paketlar mavjud. Bular Maple, Mathcad, MathLab, Mathematica va hokoza. Ana shu paketlardan foydalangan holda oddiy differensial tenglamalarni yechishimiz mumkin bo'ladi.

Quyida ana shunga erishish uchun avval differensial tenglama, chegaraviy masala, ularning umumiy va xususiy yechimlari, ularni analitik usulda topish, qay hollarda matematik paketlardan qanday foydalanish mumkinligi haqida so'z yuritiladi.

Maple da differensial tenglamalarning analitik yechimlarini topish uchun quyidagi komanda ishlatiladi:

`dsolve(eq, var, options),`

bu yerda

eq-differensial tenglama;

var-noaniq funksiyalar;

options-parametrlar.

Differensial tenglamani kiritishda hosilani bildirish uchun `diff` komanda ishlatiladi, masalan,

$$y'' + y = x$$

Differensial tenglama quyidagi ko'rinishda yoziladi:

$$\text{diff}(y(x), x\$2) + y(x) = x$$

Differensial tenglama sonli yechimning grafigini qurish uchun ushbu

$$\text{odeplot}(de, [x, y(x)], x = x1 .. x2)$$

komandadan foydalanish mumkin, bu yerda funksiyasi sifatida `de:=dsolve({eq,cond},y(x),numeric)`-sonli yechish komandasidan foydalanilgan, bundan keyin esa kvadrat qavsda o'zgaruvchi va noma'lum funksiya `[x,y(x)]` hamda grafik qurishning intervali `x=x1 .. x2` kabi ko'rsatilgan.

Muammoni oydinlashtirishni mashqlarda bajarib ko'raylik va quyidagi tadbirlarni bajaraylik:Quyidagi Koshi masalasini sonli va taqribiy yechimini 2-tartibli darajali qator ko'rinishida topaylik:

$$y'' + x\sin(y) = -\sin x, y(0) = -1, y'(0) = 1.$$

Buning uchun avvalo Koshi masalasining sonli yechimini topamiz, keyin esa topilgan yechimining grafigini quramiz:

`> restart;ordev=6:`

`> eq:=diff(y(x),x$2)+x*sin((y(x)))=-sin(x):`

`> cond:=y(0)=-1,D(y)(0)=1:`

`> de:=dsolve({eq,cond},y(x),numeric);`

`> de=proc(rkf45_x)...end proc`


Natijani chiqarish qatorida `rkf45` usuldan foydalanilganlik haqida ma'lumot chiqadi.Agar satr kerakli ma'lumot bermasa, bu oraliq komandani ikki nuqta qo'yish bilan ajratib qo'yish lozim. Agar `x` ning biror fiksirlangan qiymati uchun natija olish (masalan yechimning shu nuqtadagi hosilasi qiymatini chiqarish) zarur bo'lsa, masalan, `x=0,5` nuqtada, u holda quyidagilar teriladi (1-rasm):

`de(0,5);`

$$\left[x = 0, y(x) = -1, \frac{\partial}{\partial x} y(x) = 1 \right]$$

Warning, the name `changecoords` has been redefined

`> odeplot(de,[x,y(x)],-10..10,thickness=2);`



1-rasm. Koshi masalasi sonli yechimning grafigi. 2-rasm.Koshi masalasi yechimining grafigi.

Koshi masalasi yoki chegaraviy masalaning yechilishi. Dsolve komanda Koshi masalasi yoki chegaraviy masalaning yechimini topishi mumkin, agarda berilgan differensial tenglama uchun noaniq funksiyaning boshlang'ich hamda chegaraviy shartlari berilsa. Boshlang'ich yoki chegaraviy shartlarda hosilalarni belgilash uchun differensial operator D ishlatiladi masalan, $y''(0) = 2$ shartni $(D@@2)(y)(0)=2$ kabi berishga to'g'ri keladi yoki $y^1 = 0$ shartini $:D(y)(1)=0$. Eslatib o'tamiz, n -chi tartibli hosila $(D@@n)(y)$ kabi yoziladi.

1). Muommoni oydinlashtirishni mashqlarda bajarib ko'raylik va quyidagi tadbirlarni bajaraylik, ya'ni Koshi masalasining yechimini topaylik:

$$y^{(4)} + y'' = 2\cos x, y(0) = -2, y'(0) = 1, y''(0) = 0, y'''(0) = 0$$

Yechish:

> de:=diff(y(x),x\$4)+diff(y(x),x\$2)=2*cos(x);

$$de := \left(\frac{\partial^4}{\partial x^4} y(x) \right) + \left(\frac{\partial^2}{\partial x^2} y(x) \right) = 2 \cos(x)$$

> cond:=y(0)=-2,D(y)(0)=1,(D@@2)(y)(0)=0,(D@@3)(y)(0)=0;

cond := y(0) = -2, D(y)(0) = 1, (D⁽²⁾)(y)(0) = 0, (D⁽³⁾)(y)(0) = 0

> dsolve({de,cond},y(x));

$$y(x) = -2 \cos(x) - \sin(x) + x$$

Ko'pchilik differensial tenglamalar turlarining aniq analitik yechimi topilmaydi. Bu holda differensial tenglamalarning yechimini yaqinlashuvchi metodlar yordamida topish mumkin, ya'ni noaniq funksiyani darajali qatorga yoyish orqali topish.

Differensial tenglamalarning yechimini darajali qator ko'rinishida topish uchun dsolve komandada o'zgaruvchilardan keyin *type = series* (yoki shunchaki *series*) parameterini ko'rsatish kerak n-chi yoyilma tartibini ko'rsatish uchun, ya'ni daraja tartibini yoyilma tugagancha, dsolve komandadan oldin tartibini aniqlaydigan `Order:=n` komandani qo'yish kerak.

Endi Koshi masalasining yechimini darajali qator ko'rinishida topamiz hamda sonli yechim va olingan darajali qatorning grafigini ular mosroq tushishi mumkin bo'lgan interval uchun yasaymiz (2-rasm).

$$y(x) = -1 + x + \left(\frac{1}{6} \sin(1) - \frac{1}{6}\right)x^3 - \frac{1}{12} \cos(1)x^4 + \left(\frac{1}{120} - \frac{1}{40} \sin(1)\right)x^5 + O(x^6)$$

```
>convert(% ,polynom):p:=rhs(%):
```

```
>pl:=odeplot(de,[x,y(x)],-3 .. 3,thickness=2,color=black0:
```

```
>p2:=plot(p,x=-3 .. 3,thickness=2,linestyle=3,color=blue):
```

```
>display(p1,p2);
```

Yechimning darajali qator bilan juda yaqin qiymatlari $-1 < x < 1$ ekanligi grafikdan ko'rinib turibdi.

Xulosa. Agar bu kabi masalalarni oddiy matematik usulda yechish, hamda uning grafigini hosil qilish zarur bo'lsa, bu talabalardan, magistr, doktorant va o'qituvchilardan ko'p vaqt va malaka talab etadi. Yuqoridagi masaladan ko'rinib turibdiki, uni Maple muhitida oson yechish va bir paytda uning grafigini ham hosil qilish mumkin ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Dyakonov V.P. Maple 7: Uchebniy kurs. SPb.: Piter, 2001.
2. Dyakanov V.P. Matematicheskaya sistema Maple R3/R4/R5. M.: Solon, 1998.
3. Manzon B.M. Maple V Power Edition. M.: Filin, 1998.
4. Proxorov G.V., Ledenev M.A., Kolboyev V.V. Paket simvolnix vichisleney Maple V. M.: Petit, 1997;
5. Ilin V.A. Poznyak E.G. Analiticheskaya geometriya. m.: Nauka. 1970.

TA'LIM TIZIMIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR KO'LAMI

Tosheva Ruxshona Bobomurod qizi

O'zDJTU 1-bosqich talabasi

Talibjanova Aziza Lutfullayevna

O'zDJTU Ingliz tili amaliy fanlar №3 kafedrasi katta o'qituvchisi (ilmiy rahbar)

Har qanday mamlakatning kuchi fuqarolarining intellektual salohiyati, fikrlash doirasi, ma'naviy yetuklik jihatidan belgilanadi. Albatta, bu uchun o'sha davlatning ta'lim tizimi rivojlangan bo'lishi va ilm-fanning yanada takomillashuvi uchun barcha shart-sharoitlariga to'laqonli javob berishi kerak. Bu yo'lda esa mamlakatimizda ta'lim tizimiga aloqador bir qator islohotlar olib borilyapti. Xususan, ta'lim to'g'risidagi so'nggi ma'lumotlarga qarasa, O'zbekiston prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 23-sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi yangi qonun tahriri imzolandi deya xabar qildi adliya vazirligi matbuot xizmati. Qonunga muvofiq ta'lim turlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Maktabgacha ta'lim va tarbiya – bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni axloqiy, ma'naviy, estetik, jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, kichik yoshli bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlovchi ta'lim turi. Bu nafaqat kichik yoshli, balki olti yoshdan yeti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlab berishni ham ko'zda tutadi;

- Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim – umumiy o'quv dasturlarini, bilim, malaka, savodxonlik ko'nikmalarni yetarlicha o'zlashtirishini ta'minlash, o'qitish, o'rgatish. Yetti yoshdan qabul qilingan har bir bola dastlab boshlang'ich sinf (1-4) ni o'qiydi. Keyingi bosqich 5-11-sinflarni o'z ichiga qamrab oladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu ta'lim majburiy holda o'n bir yil davomida amalga oshiriladi.

- Professional ta'lim – bu boshlang'ich, o'rta, o'rta-maxsus bosqichlarga bo'linadi. Kasb-hunar maktablari, kollejlari, texnikumlari har bir ta'lim oluvchining o'zi tanlagan kasbga va mutaxassislikka ega bo'lishiga xizmat qiladi. Yana bir narsani ta'kidlash mumkinki, fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi professional ta'limni o'qiy oladilar;

- Oliy ta'lim – o'z navbatida bakalavriat va magistratura bosqichlarini qamrab oladi. Bakalavriat ta'limi chuqurlashtirilgan malaka, bilim, ko'nikma beradigan, o'qish davomiyligi 3,4 yoki undan ko'p bo'lishi mumkin bo'lgan, magistratura esa 1 yoki 2 yil muddatda aniq mutaxassislik bo'yicha shakllantirilgan ta'lim tizimi;

- Oliy ta'limdan keyingi ta'lim – doktorlik dissertatsiyasini yoqlash, himoya qilish, ilmiy izlanish olib borish, mutaxassislikni chuqur o'rganib tadqiqot olib

borish. Maqsadi – mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlab berish;

- Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha – kadrlar malakasini oshirish, kasbiy bilim, malaka, ko'nikma chuqurlashishi hamda yangilanishini ta'minlaydi. Kadrlar toifa, darajasi, lavozimi bilan shug'ullanadi.

1997- yilda O'zbekistonda 59 ta oliy o'quv yurti, 75 ta kollej, 258 ta o'rta-maxsus o'quv yurti faoliyat yuritdi.

1998-2000-yillarda mamlakatda 160000 o'quvchiga mo'ljallangan 47 ta akademik litsey va 260 ta kasb-hunar kollejlari qurilgan. Shu maqsadlar uchun 135mlrd so'm sarflandi.

2000-yil boshiga kelib, mamlakatimizda 61 ta oliy, 75 ta kollejlarda 360 mingdan ortiq talaba tahsil oldi.

O'zbekistonda 2006-yilda 9748 ta maktab bo'lib , ularda 5 926860 ta o'quvchi ta'lim oladi.

2018- yilda “El-yurt umidi” jamg'armasi tashkil etildi. Ushbu jamg'arma chet elda faoliyat ko'rsatayotgan, shuningdek, iqtidorli yoshlarning rivojlangan mamlakatlarda ta'lim olishi, malaka oshirishiga ko'maklashadi.

Bularning barchasi o'z hududiy sektorlariga va alohida bo'limlariga ega bo'lib, o'sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlarini o'zida namoyon qiladi. Yoshlar qanday kasb tanlashidan qat'iy nazar ularning ilm o'rganishdagi darajasi oshishida va ish, kasb ko'nikmasining yanada takomillashuvida o'rni ahamiyatga molik. 2018- yil 5-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarida faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori ta'lim tizimida yangi bosqich shakllantirgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Oliy ta'lim tizimida yetarli shart-sharoitlar yaratilishiga va ta'lim muassasalari oldidagi to'siqlarning bartaraf qilinishiga doir bir qancha chora-tadbirlar belgilandi. Bundan tashqari, 2019-yil 8-oktabrda “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni oliy ta'limni modernizatsiya qilish bilan birga, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlarini rivojlantirishni ham ko'zda tutadi.

Uning maqsadli ko'rsatgichlari:

- *Xorijiy oliy ta'lim muassasalari dasturlari asosida o'qitish tashkil qilingan OTMlar soni 23tadan 45 taga ko'payadi;

- *O'quv va ilmiy adabiyotlarining elektron shaklini yaratish 20 foizdan 30 foizga oshiriladi;

- * Magistratura mutaxassisligi bitiruvchilari ilmiy faoliyatga yo'naltirish 15 foizdan 45 foizga ko'tariladi;

*Xorijda malaka oshirgan professor-o'qituvchilarning ulushi 2 foizdan 20 foizga ko'tariladi;

*Muhandislik-texnik ta'lim yo'nalishlarida tehsil olayotgan talabalar ulushi 20 foizdan 50 foizga ko'payadi;

*2019-yilda aholini oliy ta'limga qamrab olish 20 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2030- yilga borib 50 foizga oshadi;

*Kredit- modul tizimi joriy etiladigan ta'lim muassasalari soni ham 2 tadan 85 taga ko'payadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: **“Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug'iladi.Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi”**.Ushbu konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi.Pirovardida, O'zbekistonda yuqori malakali mutaxassislar soni oshishiga va oliy ma'lumotli qatlamning ko'payishiga sababchi bo'ladi. Sog'lom raqobatning bo'lishi o'rta va o'rta-maxsus ta'limni bitirgan o'quvchilarning oliy ta'lim sari qadam tashlashiga yordam beradi. Bu uchun oliy ta'limning kredit-modul tizimini yo'lga qo'yishi ayni muddaodir.Chunki o'qish jarayonida kredit bo'lishi har bir talabaning kelajakda mustaqil shaxs sifatida ishlashiga, ijtimoiy hayotda erkin fikrini bildira olishiga, axborotlarni mustaqil o'zlashtirib tahlil qila olishiga va uni kerak o'rinda qo'llay bilish mahoratini o'zida mujassamlashtirishiga va eng asosiysi duch kelgan muammoni hal qiladigan, jamiyatda o'z o'rniga ega kadr sifatida shakllanishiga sababchi bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, ta'lim sohasida olib borilayotgan har bir islohot o'zining dolzarbligi va ahamiyati jihati bilan boshqa sohalardan aslo qolishmaydi. Chunki bu - davr talabi va istiqbolli vazifasi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. “Pedagogika” 1-qism.M.X.To'xtaxo'jayeva. Toshkent.
2. 2010<https://lex.uz/ru/docs/-3765586>
3. <https://youtube.com/watch?v=B054OnITmzQ&si=EnSIkaIECMiOmarE>
4. <https://yuz.uz/uz/news/talim-tizimi-va-yangicha-yondashuvlar>.

ДЕРМАТОГЛИФИКА: ИСТОРИЯ И НАУКА

Тургунов Абдурашид Абдуманнобович

доктор психологических наук (DSc), доцент

Президент компании «Future survey inc.» (Филадельфия, ПА. США)

Дерматоглифика - это научное изучение отпечатков пальцев, ладоней и подошв. Этот термин происходит от греческих слов «derma», означающего кожу и «glyph», что означает резьбу или надпись [1]. Эта область исследований включает в себя анализ узоров и борозд на этих отпечатках для понимания их генетической и развивающейся основы, а также их использование в идентификации и диагностике.

Дерматоглифика может предоставлять информацию о здоровье человека, его интеллекте, чертах личности и потенциале для определенных заболеваний. Изучение дерматоглифики часто используется в судебной медицине, медицинской диагностике и генетических исследованиях.

Дерматоглифика, также известная как анализ отпечатков пальцев, является научным изучением отпечатков пальцев, ладоней и стоп. Это отрасль судебной медицины, которая широко используется для идентификации личностей и раскрытия преступлений. В последние годы дерматоглифика стала популярной в других областях, таких как образование, психология и генетика.

Дерматоглифика используется уже более столетия для изучения узоров борозд и складок на коже пальцев, ладоней и стоп. Эти узоры уникальны для каждого человека и не меняются на протяжении всей жизни. Это делает дерматоглифику эффективным инструментом для идентификации личностей и их отличия от других.

Изучение дерматоглифики основано на наблюдении, что узоры борозд на коже формируются в период эмбрионального развития и определяются комбинацией генетических и окружающих факторов. Эти узоры оказываются под влиянием различных факторов, таких как питание, перинатальный уход и воздействие токсинов.

Дерматоглифика может быть классифицирована на три основные категории: петли, вихри и дуги [2]. Петли - самый распространенный узор и образуется бороздами, которые входят и выходят, с одной стороны. Вихри образуются бороздами, которые делают полный круг, а дуги образуются бороздами, которые входят с одной стороны и выходят на другой.

Изучение дерматоглифики имеет множество практических применений. В судебной медицине дерматоглифика используется для идентификации подозреваемых и связывания их с преступлениями. Также

она используется для определения жертв бедствий, таких как землетрясения, пожары и авиакатастрофы.

В области образования дерматоглифика используется для идентификации нарушений в обучении, поведенческих проблем и особых талантов у детей.

В области психологии дерматоглифика используется для изучения личностных черт и моделей поведения. Некоторые исследования показали, что определенные формы гребней связаны с определенными чертами личности, такими как интеллект, креативность и агрессивность.

Изучение дерматоглифики не лишено противоречий. Некоторые критики выразили обеспокоенность по поводу обоснованности и надежности метода, утверждая, что он основан на устаревших теориях и ему не хватает научной строгости. Другие критиковали использование дерматоглифики в таких областях, как образование и психология, утверждая, что это может привести к формированию стереотипов и дискриминации.

Несмотря на эти опасения, дерматоглифика остается популярным и широко используемым методом идентификации индивидов и изучения человеческого поведения. Благодаря продолжающимся исследованиям и достижениям в области технологий изучение дерматоглифики, вероятно, продолжит расти и развиваться в ближайшие годы.

Научные подходы к результатам научных исследований по дерматоглифике выявили ее важность в науке.

Дерматоглифика юзасидан олиб борилган илмий тадқиқотлар натижасидаги илмий ёндошувлар унинг фандаги аҳамиятини очиб берган.

Одним из первых исследователей в области дерматоглифики был сэр Francis Galton, который провел обширные исследования отпечатков пальцев в конце 19 века [3]. Galton был британским эрудитом, внесшим значительный вклад во многие области, включая статистику, психологию и генетику. Он разработал систему классификации отпечатков пальцев, которая используется до сих пор.

Galton считал, что отпечатки пальцев могут использоваться для идентификации личности и что они предоставляют ценную информацию о характере и интеллекте человека. Он даже предположил, что преступников можно идентифицировать по отпечаткам пальцев и что люди с определенными узорами отпечатков пальцев более склонны к совершению преступлений [3].

В начале 20 века Harold Cummins [4] и Charles Midlo [5] расширили работу Гальтона и разработали более полную систему дерматоглифического анализа. Они первыми предложили, что отпечатки

пальцев и другие дерматоглифические особенности были наследственными и могут быть использованы при диагностике генетических нарушений.

Cummins также разработал концепцию "дерматоглифических ориентиров", которые представляют собой конкретные точки на пальцах и ладонях, которые можно использовать для идентификации и классификации узоров отпечатков пальцев. Он считал, что эти ориентиры могут быть использованы для изучения развития нервной системы и других органов во время эмбрионального и плодного развития [4].

Мидло считал, что узоры отпечатков пальцев в значительной степени определяются генетическими факторами, и он разработал классификационную систему отпечатков пальцев на основе типов узоров. Также изучал отношение между узорами отпечатков пальцев и некоторыми медицинскими состояниями, такими как синдром Дауна и шизофрения. Он считал, что аномалии в узорах отпечатков пальцев могут быть использованы в качестве диагностических инструментов для этих и других состояний [5].

Позже, в 1960-х и 1970-х годах, команда японских исследователей под руководством Tsunehiko Suzuki провела обширные исследования по дерматоглифике [6]. Они разработали систему классификации отпечатков ладоней и стоп и обнаружили, что определенные узоры были связаны с определенными заболеваниями и состояниями. Они также разработали систему для анализа узоров отпечатков пальцев для выявления преступников.

Suzuki считал, что узоры отпечатков пальцев могут быть использованы для выявления генетических нарушений, и что изучение этих узоров может дать представление о развитии различных заболеваний и нарушений. Он разработал классификационную систему для узоров отпечатков пальцев, аналогичную системе Midlo, и проводил исследования в области связи между отпечатками пальцев и различными медицинскими состояниями. Его работа помогла установить дерматоглифику как легитимное направление исследований в Японии [6].

В последние годы проявился новый интерес к исследованиям дерматоглифики, особенно в связи с ее потенциальным использованием в персонализированной медицине и судебной медицине. Исследователи, такие как A.Aggrawal [7], T.Suzuki [6] и M.Kayser [8], провели исследования по генетической основе узоров дерматоглифики и их связи с различными заболеваниями и состояниями.

Anil Aggrawal проводил исследования связи между узорами отпечатков пальцев и различными генетическими и медицинскими состояниями, и

опубликовал множество статей по этой теме. Он считает, что дерматоглифика имеет важное применение в области судебной медицины, медицины и генетики, и что изучение узоров отпечатков пальцев может дать ценную информацию о здоровье человека, личностных качествах и генетическом составе.

"Дерматоглифика - это изучение отпечатков пальцев, ладоней и стоп. Это увлекательная область, которая имеет потенциал предоставить ценные исследования в области генетики и здоровья человека." - Anil Aggrawal [7].

По мнению Manfred Kayser, уникальные узоры борозд и бороздок на наших пальцах определяются сложным взаимодействием генетических и окружающих факторов. Он проводил исследования генетической основы узоров отпечатков пальцев и обнаружил, что определенные гены связаны с конкретными типами узоров. Он также считает, что изучение узоров отпечатков пальцев может дать ценную информацию о происхождении и географическом происхождении человека. Он проводил исследования взаимосвязи между узорами отпечатков пальцев и происхождением и обнаружил, что определенные узоры более распространены в некоторых популяциях, чем в других.

Kayser считает, что дерматоглифика является ценным инструментом для понимания генетики и идентичности человека, и что она имеет важное применение в широком спектре областей, от медицины и судебной медицины до антропологии и археологии [8].

Из этой можно сказать, что уникальные узоры на отпечатках пальцев отражают уникальную природу индивидуальности.

Одним из наиболее известных применений дерматоглифики в психологии является изучение интеллекта. Исследователи обнаружили, что может быть связь между определенными узорами отпечатков пальцев и когнитивными способностями. Например, некоторые исследования показали, что у людей с более сложными узорами отпечатков пальцев может быть более высокий уровень IQ.

Дерматоглифика также использовалась для изучения характера личности. Исследователи обнаружили, что определенные узоры отпечатков могут быть связаны с конкретными чертами характера, такими как экстраверсия или невротизм. Некоторые исследования даже предполагают, что узоры отпечатков могут использоваться для определения лиц, подверженных риску развития определенных психических расстройств, таких как шизофрения.

Однако важно отметить, что использование дерматоглифики в психологии все еще является относительно новым и развивающимся

направлением, и требуется проведение дополнительных исследований, чтобы полностью понять связь между отпечатками пальцев и психологическими характеристиками. Кроме того, существуют опасения относительно надежности и достоверности анализа дерматоглифики, а также этические соображения, связанные с использованием этой информации.

Сегодня дерматоглифика используется в широком спектре областей, от медицины и судебной медицины до антропологии и археологии. Она используется для изучения всего, от генетических нарушений и генетики населения до выявления преступников и анализа древних артефактов.

Исследования генетической основы узоров отпечатков пальцев показали, что определенные гены связаны с конкретными типами узоров. Кроме того, исследования показали, что узоры отпечатков пальцев могут дать ценную информацию о происхождении и географическом происхождении человека.

В целом, дерматоглифика является важной областью изучения с широким спектром применения. Она дала ценные идеи о генетике и идентичности человека, и, вероятно, продолжит быть важной областью исследований в течение многих лет.

Библиографический список;

1. <https://en.wikipedia.org/wiki/Dermatoglyphics>.
2. <https://www.forensicsciencesimplified.org/prints/principles.html>.
3. https://en.wikipedia.org/wiki/Francis_Galton.
4. CUMMINS, HAROLD, CAROLYNN TALLEY, and R. V. Platou. "Palmar dermatoglyphics in mongolism." *Pediatrics* 5.2 (1950): 241-248.
5. Cummins H., Midlo C. *Finger prints, palms and soles: an introduction to dermatoglyphics*. – New York: Dover Publications, 1961. – Т. 319.
6. Suzuki T. et al. *Dermatoglyphics in typical cleft hand //The Hand*. – 1981. – Т. 13. – №. 1. – С. 69-76.
7. Jasuja O. P., Singh G. D., Kumar M. *A Dermatoglyphic Study in Cases of Polydactyly and Syndactyly //Anil Aggrawal's Internet Journal of Forensic Medicine and Toxicology*. – 2010. – Т. 11.
8. Kayser M., De Knijff P. *Improving human forensics through advances in genetics, genomics and molecular biology //Nature Reviews Genetics*. – 2011. – Т. 12. – №. 3. – С. 179-192.

SURXONDARYO VILOYATIDA TIBBIY-REKRATSION TURIZMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI (OMONXONA SANATORIYASI MISOLIDA)

Turdiyeva Gulnoza Mamanazar qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Turizm Fakulteti O'qituvchisi (ilmiy rahbar)

Valiyev Hasan Sunnatillo o'g'li
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Turizm Fakulteti
Turizm (Turizm sohasida xizmatlar texnologiyasi va ularni tashkil etish) yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Ma'lumki barcha sohalarda bo'lganidek turizm sohasida ham butun respublikamizda bo'ylab keng ko'lamli chora-tadbirlar olib borilmoqda. Turizm mamlakat iqtisodiyotida o'zining muhim o'rnini egallaydi. Prezidentimiz aytganlaridek: "Turizm mamlakatimiz iqtisodiyotining ertangi kuni"¹⁴⁴ Ushbu sohani rivojlantirish maqsadida mamlakat yetakchisi SH.M.Mirziyoyev boshchiligida davlatimiz bo'ylab muhim ishlar olib borildi. Ayniqsa surxon vohasida ham bu yo'nalishga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Bu harakatlarga Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 27-maydagi qarorini asos sifatida olishimiz mumkin. Viloyatda arxeologik turizm, diniy turizm, qumsash turizm bilan bir qatorda rekreatsion turizm ham ancha rivojlanib bormoqda. Dastlab rekreatsion turizm o'zi nima ekanligini bilib olsak. **Rekreatsion turizm** - bu jismoniy kuchni tiklash, dam olish maqsadida odamlarning harakati bilan bog'liq turizm turi. Bu mamlakatlar uchun turizmning eng muhim turlaridan biridir. Shunday qilib, ko'plab sayyohlar sog'lomlashtirish markazlari, sanatoriylarga maxsus tibbiy xodimlar bilan tashrif buyurishadi, turli xil so'lomlashtirish muolajalaridan o'tadilar.

Rekreatsion resurslar turizm faoliyati uchun asos bo'lib xizmat qiladi, chunki rekreatsion muhitda bu dam olish uchun hech qanday qulaylik bo'lmasa, u yerga hech kim bormaydi. Ma'lumki rekreatsiya turizmning asosiy serdaromad tarmoqlaridan biridir. Shu asnoda vohada turizmni ushbu turini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Rekreatsiya faoliyati rivojlangan ayrim davlatlar rekreatslarning to'xtovsiz oqimi natijasida o'zlarining iqtisodini ancha yaxshilab olishgan. Yurtimizda ham hozirgi kunda ushbu sohani taraqqiy ettirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Misol uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatida samarali foydalanish va uni rivojlantirish

¹⁴⁴ <http://www.president.uz/oz/1516>

bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" qarorining 3- ilovasi (Surxondaryo viloyatida turli ixtisoslikdagi kasalliklarga tashxis qo'yish va davolash bo'yicha zamonaviy klinikalar faoliyatini yo'lga qo'yish va tibbiyot turizmini rivojlantirish chora-tadbirlar rejasi tuzib chiqilgan) ushbu yo'nalishga qaratilgan¹⁴⁵ .

1-jadval. Surxondaryo viloyati turizm salohiyatini oshirish uchun qilinaigan ishlar.

ilova¹⁴⁶

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi
1	Tibbiyot turizmini rivojlantirish bo'yicha sanatoriya va sihatgohlar faoliyatini takomillashtirish.	1. Viloyatdagi mavjud barcha sanatoriya va sihatgoxlarni xorijiy turistlar qabul qilishga moslashtirish va jahon standartlariga javob beradigan darajaga ko'tarish. 2. Qo'shni mamlakatlarda Surxondaryo viloyatining tibbiyot turizmi imkoniyatlari va eng mashhur tabiiy shifo maskanlari bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish 3. Klinika, sanatoriya va sihatgohlar qurish bo'yicha xorijiy investorlarni jalb etish va ularga qulayliklar yaratish.
2	Viloyatda tibbiyot forumlarini o'tkazish.	1. Surxondaryo viloyatida respublika keyinchalik xalqaro darajadagi tibbiyot forumlarini o'tkazish. 2. Ushbu forumlarni viloyatning eng mashhur tabiiy shifo maskanlarida tashkil etish.
3	Xo'jamayxona g'ori yaqinida klinika va sanatoriya obyektlarini qurib foydalanishga topshirish.	1. Xo'jamayxona g'ori yuza qismidan chiqayotgan xalq tilida shifobaxsh deyilgan tabiiy buloq suvi tarkibini o'rganish.

¹⁴⁵ <http://lex.uz//uz/docs/-4832412>

¹⁴⁶ <http://lex.uz/>

		<p>2. Tabiiy buloqqa yaqin joyga xususiy klinika va sanatoriyalar qurish uchun yer maydonlari ajratish.</p> <p>3. Mazkur yer maydonlarini belgilangan tartibda sotuvga qo'yish.</p> <p>4. Auksion shartlarini aynan klinika va sanatoriya faoliyatini tashkil etish qilib ko'rsatish hamda foydalanishga topshirish muddatini aniq belgilash.</p>
4	G'o'rinbuloqsoy yaqinida klinika va sanatoriya obyektlarini qurib foydalanishga topshirish.	<p>1. G'o'rinbuloqsoydan chiqayotgan xalq tilida shifobaxsh deyilgan tabiiy buloq suvi tarkibini o'rganish.</p> <p>2. Tabiiy buloqqa yaqin joyga xususiy klinika va sanatoriyalar qurish uchun yer maydonlari ajratish.</p> <p>3. Mazkur yer maydonlarini belgilangan tartibda sotuvga qo'yish</p> <p>4. Auksion shartlariga aynan klinika va sanatoriya faoliyatini tashkil etish qilib ko'rsatish hamda foydalanishga topshirish muddatini aniq belgilash</p>

Ushbu ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatida samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" qarorining 3- ilovasi asosida tahrirlandi.

Shuningdek viloyatda uzoq yillardan beri faoliyat yuritib kelayotgan turistik manzilgohlar ham mavjud. Misol uchun "Omonxona" sanotoriyasi. Boysun tumani markazidan sharqqa eltuvchi katta yo'l chetidagi belgi "Omonxona" sanatoriysiga yetaklaydi. Sanatoriya Omonxona qishlog'ida joylashgan. Mahalliy oqsoqollarning aytishicha, bu yerda 700 yildan beri odamlar yashaydi. Buni qishloqdagi eski qabriston va undagi qabr toshlari ham tasdiqlaydi. "Omon" so'zi sog'lom, xavfsiz,

tinch, osoyishta, “xona” so‘zi esa xona, joy, manzil, makon ma‘nolarini bildiradi¹⁴⁷. Xullas, “Omonxona” tinchlik, salomatlik va osoyishtalik maskanidir. Katta yo‘ldan burilib, qirlar orasidan 15 kilometr yurganingizdan so‘ng qishloq markaziga yetib borasiz.. Atrofi quyuq archazorlar bilan o‘ralgan bo‘lib, geografik muhiti, go‘zal manzaralari, bahovoligi bilan inson ruhiyatiga ijobiy ta‘sir etadi. Omonxona atrofidagi tog‘ buloqlaridan chiqayotgan shifobaxsh suvi bilan mashhur. Buloq suvi tarkibida sulfat, magniy, azot ionlari mavjud, undan tashqari kremniy kislotasi, temir, alyuminiy va makroelementlar bor. Suv tarkibida sulfat va magniy ionlari me‘yordagidan ko‘pligi sabab, yuqori darajada o‘t so‘ruvchi, peshob xaydovchi va qon bosimini tushuruvchi xususiyatga ega. Bu suv o‘t pufagi, jigar va boshqa ichki organlarni yuvish xususiyati zamonaviy tibbiyotdan ancha afzalligi aniqlangan. Bu go‘shadagi obihayotdan unumli foydalanish maqsadida "O‘zbekiston temir yo‘llar aksiyadorlik "jamiyati tashabbusi bilan zamonaviy darajadagi zamonaviy shifoxona barpo etildi. Shifo maskanida oshqozon-ichak, qandali diabet, yurak-qon tomir, jigar, o‘t, umurtqa pog‘onasi kasalliklari bilan og‘rigan bemorlar shifo topishmoqda. Mutaxassislarning fikricha, vitamin va minerallarga boy buloq suvi inson tanasini, ayniqsa jigar, o‘t pufagi yo‘llarini davolash xususiyatiga ega. Minerallarga boy buloq suvi inson tanasini, ayniqsa jigar, o‘t pufagi yo‘llarini davolash xususiyatiga ega¹⁴⁸. Ma‘lumotlarga ko‘ra, Boysundagi Omonxona qishlog‘ida 1 ta sihatgoh, 3 ta mehmonxona bo‘lib, mehmonlarni 190 ta xonadon qabul qiladi (yiliga o‘rtacha 22-25 ming mehmon keladi)¹⁴⁹. Sihatgoh 160 o‘ringa mo‘ljallangan bo‘lib, bu yerda bir yil davomida 700 dan ziyod ishchilar sog‘lomlashtiriladi. Davolanish va dam olish muddatlari 10-15 kundan iborat. Shuningdek Yil davomida 1000ga yaqin pensionerlarga davlat hisobidan yo‘llanma beriladi. Ushbu qishloqdagi hokim yordamchisi mehmonlar oqimini 100 mingga yetkazish bo‘yicha ish boshlagan. Yani umumiy turistlar soni 4 barobardan oshirish mo‘ljallangan. Agar infratuzilmasi

¹⁴⁷ O‘zbekiston viloyotlari toponimlari. Qorayev Suyun. Toshkent “O‘zbekiston Milliy ensklopediyasi” 2005. 125-135b


¹⁴⁸ <https://ekolog.uz/?p=314>

¹⁴⁹ www.surxonstat.uz

yaxshilansa, yo'l bo'yida 200 dan ziyod servis obyektlari va kamida mingta ish o'rinlari paydo bo'ladi.

1-rasm Omonxona tibbiy-rekreations manzilgohining yillik o'sish prognozi¹⁵⁰

Buni uchun o'rganishlarimiz natijasida quyidagi bir nechta infratuzilmani



yaxshilasak, natijalarimiz yaxshi bo'ladi, Ya'ni bular:

- **Avtomobil yo'llari infratuzilmasini shakllantirish va xizmat ko'rsatish qamrovini kengaytirish**

- **Umumiy ovqatlanish shahobchalarini takamollashtirish**

- **Joylashtirish vositalarini (Hotel, Hostel, mehmon uylarini ko'paytirish**

- **Mutaxassislar bilan hamjihatlikda Omonxona va shunga o'xshash Surxondaryodagi barcha tibbiy-rekreations manzilgohlarning ixcham «sayyohlar uchun qo'llanma» tayyorlanib, uni turfirmalarga tarqatish yoki chet tillarga tarjima qilib uni chet sayyohlik firmalariga tarqatish**

- **Viloyatning eng katta muommasi bo'lgan, ya'ni yo'l yoqalarida barcha talablarga mos bo'lgan hojatxonalar qurish orqali imkoniyatlardan to'liq foydalana olishimiz mumkin.**

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki Surxondaryo viloyati turizm sohasini rivojlantirishga doir ko'plab ishlar, tadbirlar va islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, turistik dam olish maskanlari, joylashtirish vositalarining hamda havo, temiryo'l va boshqa turdagi transport xizmatlarining soni va sifati oshirishini rag'batlantirishga doir hukumat qarorlari qabul qilinmoqda. Surxondaryo viloyati madaniy meros obyektlarini konservatsiya va restavratsiya qilish, obodonlashtirish, sayyohlar uchun ommaviy ko'ngilochar tadbirlar tashkil etish, mehmonxonalarda xizmat ko'rsatish sifatini yuksaltirish, zamonaviy infratuzilma obyektlari barpo etish, yo'llarimizga zamonaviy Turistik yo'l korsatkichlar bilan ta'minlash bilan bir qatorda borasida

¹⁵⁰ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

salmoqli ishlar amalga oshirilishga qaramasdan bir qancha muomolar ko'zga tashlanmoqda. Jumladan; Surxondaryo viloyatida turizmni yanada rivojlantirish uchun avvalo viloyat hududidagi infratuzulma obyektlar holatini yaxshi emasligi, yo'llar, yo'l ko'rsatgichlari, reklama banerlari, zamonaviy aloqa xizmatini yo'lga qo'yish kabi kamchiliklar mavjud. Mana shunday muomolarni bartaraf e'tish uchun yuqorida ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydanilgan adabiyotlar.

1. L.V.Djurayeva "Hududiy rekreatsiyon tizimlarni rivojlantirishning xalqaro tajribalari"// ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМ ВА РЕКРЕАЦИЯНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ГЕОГРАФИК МУАММОЛАРИ ВА ИМКОНИЯТЛАРИ Республика илмий – конференцияси,
2. M.R.Boltaboyev Turizm: Nazariya va amalyot (darslik) Toshkent "Barkamol Fayz Media" 2018. 109b
3. Soliyev A.S, Usmonov M.R.Turizm geografiyasi Samarqand:saMDU,2005 112 b.
4. Surxondaryo viloyatining turizm salohiyati. Toshkent "Tafakkur" 2022 3-20b
5. Qorayev Suyun O'zbekiston viloyatlari toponimlari.. Toshkent "O'zbekiston Milliy ensklopediyasi" 2005. 125-135b
6. www.Ekolog.uz
7. www.surxonstat.uz
8. www.uzbektourism.uz

BUXORO HUDUDIGA YAHUDIYLARNING KO'CHIB KELISHI TARIXI, URF-ODAT VA AN'ANALAR

Turdiyev Madiyor Mamanazarovich

Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti o'qituvchisi

Farmonova Sevinch Ilhomjon qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti talabasi

Kirish. Yahudiylar dunyodagi eng qadimiy xalqlardan biri bo'lib Falastinda yashaganlar. Ularning dini hisoblangan yahudiylik dini miloddan avvalgi 2-mingyillikda Yaqin Sharqda paydo bo'lgan. Keng tarqalgan fikrga ko'ra "yahudiy" so'zi Ya'qub payg'ambarning o'g'li Yahudo nomidan olingan. Yahudiylar Xudoning sevimli bandasi bo'lib, ularga yerda insonparvarlik, tenglik, farovonlik, hamjihatlik va boqiy hayotga hukmron ilohiy jamiyatni qurish messiyasini

bajaruvchi xalq mas'uliyati yuklatilganligi aqidasi mavjud. Yahudiylar o'ziga xos madaniyat va xarakterga ega xalq hisoblanadi. Ular millati va dini sofligini ta'minlashga intiladi. Hattoki, ruhoniylar miloddan avvalgi 444-yilda yahudiylarning boshqa xalqlar bilan quda-andachilik munosabati o'rnatishini taqiqlovchi qonun qabul qilishga erishganlar. Aytishlaricha, insoniyat tarixidagi ilk tadbirkorlar yahudiylardan chiqqan ekan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Yahudiylarning O'rta Osiyoga kirib kelishlari to'g'risida turli qarashlar mavjud. Lekin O'rta Osiyo yahudiylarining ajdodlari bu yerga Forsdan ko'chib kelgan degan umumiy fikr qabul qilingan. Miloddan avvalgi 722-yilda Isroil podshohligi Ossuriya tomonidan, miloddan avvalgi 586-yilda esa Babil davlati tomonidan bosib olingach, yahudiy xalqining bir qismi o'lkadan haydab chiqarildi.

Miloddan avvalgi VIII asrlarda ba'zi yahudiylar Misr, Eron kabi o'lkalarda boshpana topganliklari haqida ham ma'lumotlar bor. Fors davlati ma'lum muddat Osiyoni o'z hukmi ostida tutib turgan vaqtda yahudiylar ko'chib kela boshlashgan. Yahudiylar O'rta Osiyoda So'g'diyona davlati davrida, ya'ni miloddan avvalgi II asrda paydo bo'ldilar.

Ko'pchilik tadqiqotchilar ularning bu yerda paydo bo'lishlarini "Buyuk ipak yo'li" faoliyati bilan bog'lashadi. Buxoro yahudiylarining O'rta Osiyoda qachon paydo bo'lganlari ham munozarali. Ba'zi olimlar, masalan, M. Zandning fikricha yahudiylar O'rta Osiyoda miloddan avvalgi VI asrda paydo bo'lganlar. Yahudiylar ensiklopediyasida Buxoro hududi Bibliyadagi xabar bilan iyeoroilliklarning o'n pushti surgun qilingan joylardan biri sifatida tenglashtirilgan (miloddan avvalgi 722-yil).

Arxeologik tadqiqotlar yahudiylar O'rta Osiyoga II-V asrlarda va VIII asrlarda kelganliklarini ko'rsatadi. Yozma manbalarga ko'ra esa miloddan avvalgi I asr va milodiy I asrda Marvga, VI-VIII asrlarda Xorazmga kelganlar. Yahudiylarning Buxoroda bo'lishlari to'g'risida ilk ma'lumot XIII asrga to'g'ri keladi. Ba'zilar V asrda Forsdan surgun qilinganliklarini da'vo qiladigan buxorolik yahudiylar madaniyatini rivojlantirish orqali bir necha ta'qib va assimilyatsiya to'lqinlariga qarshilik ko'rsatdilar. Buxoro yahudiylarining o'z oilaviy afsonalari mavjud va ushbu afsonalarga ko'ra XIV asr oxiri va XV asr boshlarida yahudiy to'quvchilarni Amir Temur Sabzavor, Sheroz va Bag'doddan Movarounnahrga olib keltirgan.

Ayni paytda bu yerda mahalliy yahudiy jamoalari mavjud bo'lib, ular aralashib ketishgan. Buxoro yahudiylari atamasi birinchi bo'lib XVI asrda paydo bo'lgan va shu davrda Buxoro yahudiylarning bosh markaziga aylangan. Shu yerda shaharda yahudiylar mahallasi - "Mahallai ko'hna" tashkil topgan. Umuman olganda "Buxoro yahudiylari" atamasi nafaqat Buxoro hududidagi, balki Samarqand va Farg'ona vodiysidagi O'rta Osiyo yahudiylarini nazarda tutadi. Buxorolik yahudiylarning asosiy qismi Samarqand, Buxoro, Toshkent, Qo'qon,

Dushanbe va Bishkekda istiqomat qiladi. Buxoro yahudiylarining asosiy mashg'ulotlari savdo, musiqashunoslik artistlik, hunarmandchilik bo'lib keyinchalik maishiy xizmat, pedagoglik sohalari, muhandis, vrachlik kasblarini egallashgan.

XIII asr boshiga kelib qadimgi yahudiy jamoalari inqirozga uchradi. XVIII asrning boshlarida yahudiylar Eron, Afg'oniston, Xiva, Qo'qon va Buxoro jamoalariga bo'linib ketdi. XVIII-XIX asr oxirlarida yahudiy jamoalari Buxorodan tashqari Kermin, Kattaqo'rg'on, Samarqand, Shahrisabz, Qarshi, Toshkent, Qo'qon, Andijon, Namangan, Farg'ona, Marg'ilon shaharlarida ham ma'lum bo'lgan, kichik guruhlar Boysun, Termiz, Denov va Xivada yashagan. 1917-yil oktabr voqealari, Buxoro amirligi qulagandan so'ng, O'rta Osiyoning milliy chegarasi bo'lgan "Buxoro yahudiylari" atamasi yashash joyidan qat'iy nazar barcha mahalliy yahudiylar uchun umumiy bo'lib qoldi. Ular fors tilining tojik lahjasida gaplashardi.

Natijalar. Vatanidan, milliy davlatchiligidan ayrilishi yahudiylarning hayotidan iz qoldirdi: ular Eronda o'z tillarini - ibroniy tilini unutib, fors tiliga o'tishadi. Ular mintaqaning tub aholisi - o'zbeklar va tojiklar kabi kiyina boshladilar. Shunga qaramasdan din ularga milliy o'zligini saqlab qolishga imkon bergan. An'anaviy qarashga ko'ra, yahudiyning boshqa dinga o'tishi boshqa millatga o'tish bilan barobardir.

XX asrning oxiriga kelganda Buxoro yahudiy jamoasi 8000 ga yaqin, ya'ni shahar aholisining 12 foizini tashkil etdi. Buxoro yahudiylari zehni xalq bo'lib, Rossiya imperiyasi bilan savdo aloqalarini o'rnatishda faol ishtirok etishgan. Huquq, tibbiyot va mahalliy davlat hokimiyati sohalarida lavozimlarni egallaganlar. Yahudiylarning O'rta Osiyodagi hayotida huquqiy tengsizlik hukm surar edi. Chingizxon Buxoroni vayron qilgach, qayta qurilgan shaharda yahudiylar mahalla yahudiyon yoki tojikcha yahudiy mahallasida yashagan.

Jamiyat cheklanib, ularning boshqa joylarda yashashi man qilingan edi. Ular musulmon ayollarga uylanishi va musulmon qulga egalik qilishi mumkin emasdi va hattoki yahudiy do'konlari musulmonlarnikidan bir pog'ona pastroq bo'lishi kerak edi. Yahudiylar rivojlanishga, ayniqsa, savdogarlari daromadli savdo korxonalari yo'lga qo'yishga muvaffaq bo'ldi. Jamoa, shuningdek, keyingi 500 yil davomida ishlatilgan ajoyib ibodatxona qurdi.

1991-yilda Sovet ittifoqi parchalanishi ortidan Buxoro yahudiylarining aksariyati Isroil va AQSHga ko'chib ketishgan. Ularning katta diasporasi Nyu-Yorkda Forest Hills atrofiga joylashishgan.

Muhokama. XX asrda yahudiylarning guzarlar (kvartallar), sinagoga (kenisso) va marosim suv omborlari (mikveh), hammom (hamm), o'z bozorlari va qabristonlari bo'lgan mahalla mavjud bo'lgan. Buxoro yahudiylarining bir qismi

taniqli musiqachilar, aktyorlar va raqqoslar bo'lib, ular birgalikda xalq og'zaki ijodini saqlashga hissa qo'shgan.

1932-yilda Samarqandda yahudiylar teatri tashkil qilingan. 1940-yilgacha Markaziy Osiyoda yahudiylarning ivrit tilidagi maktablari, davriy va maxsus nashrlari bo'lgan. Yahudiylikda ibodat tong, peshin va shom paytida qilinadigan kundalik hamda shanba kuni sinagogada bo'lib o'tadigan haftalik ibodat shakllariga bo'linadi.

Yahudiylikda ibodat - "savoda she-ba-lev" ibroniycha "Qalb xizmati" degan ma'noni anglatadi. Buxoro yahudiylari savdo va hunarmandchilik, jumladan, to'qimachilik, zargarlik buyumlari yasash va yog'ochga ishlov berish orqali uzoq vaqtdan beri an'anasini saqlab qolishgan. Bu yog'ochga ishlov berish an'anasining eng yorqin namoyon bo'lishi Buxoro uylarida, o'rta asr shaharlar dizayni va mahallalar tizimidagi xalq me'morchiligining benazir jonli na'munalari saqlanib qolgan. Uylarda kirish eshigining yuqorisida "mezusa" deb nomlangan, uzun bir quvur ichiga o'rama holda qo'yilgan "Tavrot" jummalari yozilgan bo'ladi. Yahudiylar "mezusa" ularni yovuz ruhlar yomonligidan saqlaydi degan e'tiqodga ishongan holda, uyga kirish va chiqishda unga qo'l tekkizib barmoqlarini o'padilar. Biroq yahudiy jamoasining ommaviy ko'chishi bu uylarning buzilishiga olib keldi. Eski mahallalarda faqat 200 ga yaqin Buxoro yahudiylari qolgan.

An'anaviy uylar 1993-yilda Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga, 2020-yilgi Jahon yodgorliklarini kuzatish dasturiga kiritilgan. Bu uylar haqiqatan ham Ipak yo'li va Buxoro shahridagi madaniy muloqotni ifodalaydi. Shuningdek, ularning milliy urf-odat, an'ana, bayram va marosimlarni tiklash hamda turmushga tadbiq etish sohasida ham katta ishlar qilingan. 1992-yil 18-20-fevralda Buxoroga Isroil elchisi Are Levin tashrifi muhim voqeaga aylangan edi. Butun dunyoda yahudiylar hayotini saqlab qolishga intilayotgan "Chabad" harakati O'zbekistonda ayniqsa kuchli.

Xulosa. Yahudiylar hayoti boshqa xalqlarga o'rnak bo'lgulik darajada. Yahudiylar omadining bosh siri ta'lim bilan bog'liq. O'rganish va ta'lim olishda diniy va axloqiy qonun-qoidalarining o'rni yuqori. Jamiyat qoidalariga ko'ra, o'qituvchining nufuzi otanikidan yuqori turadi. Yahudiy bolalar dangasalik va ko'cha changitish nimaligini bilmaydi. Bolalarning doimo band bo'lishi yahudiycha tarbiyada tabiiy jihat hisoblanadi. Aytish mumkinki, "dunyoni yahudiylar boshqaradi" degan gapning siri bilimga e'tibor hamda farzand tarbiyasidagi o'ziga xos yondashuvdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buxoro tarixi [Matn] : o'quv qo'llanma / Halim To'raev. - Buxoro : "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdoni nashriyoti, 2020. - 320 b.

2. Dunyo dinlari tarixi 10-sinf: O'rta ta'lim maktablarining 10-sinflari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik / Z. Islomov, D.

Rahimjonov, J. Najmiddinov. - Birinchi nashr. - Toshkent.: «Yangiyo'l poligraf servis», 2017. - 144 b.

3. Narbekov A. V. Dinshunoslik asoslari: O'quv qo'llanmasi. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2007. – 211 bet.

MALAKA OSHIRISH TIZIMINING INNOVATSION MODELIGA PEDAGOGIK TACNIF: JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARI MISOLIDA

Tursunaliyev Ilhomjon Axmedovich

Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi PQ-5054-sonli "Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qaroriga asosan respublikamizdagi jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni kasbiy-amaliy mahorati, ma'naviy-axloqiy saviyasini oshirish, sport ta'lim tizimini ilmiy-metodik ta'minlash, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, uzluksizligini ta'minlash hamda umumiy rahbarlikni amalga oshirish maqsadida Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tashkil etilgan bo'lib, uning Nukus, Samarqand va Farg'ona filiallari ham faoliyat olib bormoqda. Shu orqali Institut va uning filiallarida respublikamizdagi maktabgacha ta'lim, xalq ta'limi, professional ta'lim, oliy ta'lim hamda maktabdan tashqari sport ta'limini, jumladan xususiy sektorni ham o'zida mujassamlashtirgan yaxlit uzluksiz malaka oshirish tizimi shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoniga [1] Institut va uning filiallari oldiga qo'ygan asosiy strategik vazifalaridan biri – bu jismoniy tarbiya va sport mutaxassislariga mo'ljallangan malaka oshirish tizimining innovatsion modeliga asos solish va tizimni uzluksizligini sifat jihatdan yuqoriga ko'tarish sanaladi. Shu bois 2023-yil boshidan Institut va uning filiallarida 12 179 nafar tinglovchini malakasi oshirish rejalashtirilgan bo'lib, unda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 1 019 nafar jismoniy tarbiya instruktorlari; umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim muassasalarining 6 215 nafar jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari; oliy ta'lim muassasalarining 322 nafar jismoniy tarbiya va sport bo'yicha pedagog kadrlari; sport ta'limi muassasalarida faoliyat yuritayotgan 4 623 nafar rahbar kadrlar, instruktor-metodistlar, hakamlar, trenerlar va sport psixologlarining innovatsion modeliga asoslangan tizimlashtirilgan uzluksiz malakasi oshirish jarayoni yo'lga

qo'yildi va o'quv mashg'ulotlarida quyidagi nazariy pedagogik tacnifga tayanilmoqda.

Ta'limdagi innovatsiya deganda, avvalo, ta'lim texnologiyalarini, ya'ni, bir qator metodlar, uslublar va o'quv materiallarini mazmun-mohiyatini takomillashtirish jarayoni tushuniladi. Bugungi kun talablaridan kelib chiqib fikrlasak, innovatsion ta'lim faoliyati bolalarga ta'lim beradigan har bir muassasa ta'lim faoliyatining muhim tarkibiy komponentlaridan biri sanaladi. Darhaqiqat, aynan innovatsion faoliyat nafaqat ta'lim xizmatlari bozorida ta'lim muassasasining raqobatdoshligi uchun asos yaratadi, balki o'qituvchi (shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislar)ning kasbiy rivojlanish yo'nalishi mohiyatini ham belgilab beradi hamda andragogikaning ahamiyatini ko'rsatadi.

N.I. Kamalova (2022), malaka oshirish tizimi to'g'risida olib borgan tadqiqotlari orqali, "Dars davomida andragogikaning asosiy qonunlariga rioya etish va dars jarayonida qo'llaniladigan vositalarni kattalarning psixo-fiziologik xususiyatlariga moslashtirish lozim. Sababi, malaka oshirishga kelgan tinglovchilar orasida oliy ma'lumotli tinglovchilar va mutaxassislar, oliy o'quv yurtini 1-5 yil oralig'ida tugatganlar va 25-30 yil oldin tugatgan tinglovchilar ham bo'ladi. Oliy ma'lumotli tinglovchilarga mavzular chuqurlashtirilib o'tilishi kerak bo'lsa, mutaxassis tinglovchilarga mavzu materiallari sekinroq tempda berib borilishi talab qilinadi. Oliy ta'limni 1-5 yil oralig'ida tugatgan pedagoglar mavzuni o'tish bo'yicha metodikaga ehtiyoj sezsa, oliy ta'limni tugatganiga 15 va undan ko'p yil bo'lgan tinglovchilar esa ilm-fandagi yangiliklarga ehtiyoj sezishadi" [2; 29-30] – degan xulosaga keladi.

Kattalar ta'limi samaradorligida psixologik va andragogik bilimlarning ahamiyati haqida izlanishlar olib borgan, Sh.A. Dusmuxamedova (2022), quyidagilarni: "kattalar auditoriyasining professor-o'qituvchiga nisbatan ishonchi va ochiqligi; tinglovchilarning ishga jalb etilishining yuqori darajasi; mashg'ulot davomida bilish faolliklarining qat'iyiligi; tinglovchilar orasida yuzaga keluvchi samimiy psixologik muhit; tinglovchilarning bir-biriga hamda ma'ruzachi-trenerga yordam so'rab samimiy murojaati; ta'lim jarayonida biron-bir tinglovchida yuzaga keluvchi muammo va qiyinchiliklarga ijobiy munosabat; mashg'ulot davomida tinglovchilarning hamkorlikda muhokama qilish uchun o'z muammolarini izhor eta bilishlari; tinglovchilarning o'z nuqtayi nazarini erkin bayon eta bilishlari; hamkorlikdagi faoliyatning o'rnatilganligi; andragog shaxsi va uning kasbiy nuqtayi nazariga (pozitsiyasiga) bo'lgan hurmat va qiziqish; ma'ruzachi-trener (andragog) o'qituvchi fikriga qo'shilish istagi; kattalar ta'limi tajribalarining ta'lim sohasiga kiritilishi natijasida ta'lim mazmuni samarasining namoyon bo'lishi; ta'lim natijasiga qarab kasbiy va shaxsiy muammolarining hal etilishi imkoniyati; tinglovchining ta'lim natijalaridan qoniqishi; tinglovchilarning

ta'lim yakunidan so'ng o'zaro aloqalarni davom ettirish istagining yuzaga kelishida namoyon bo'ladi" [3; 68] – deya samaradorlik ko'rsatkichlari sifatida ajratadi, bu xususiyatlarni andragogikaning muhim jihatlari etib belgilaydi.

Shuningdek, muallif, "... andragogik bilimlar ta'lim jarayoni, maqsad va vazifalarini to'g'ri belgilashda, ta'lim texnologiyalarini to'g'ri qo'llashdagina yaxshi samara beradi; tinglovchilarning yosh xususiyatlarini va ularning ehtiyojlarini bilgan holda ta'lim berish ta'lim sifatini oshirishga va ko'zlangan natijalarga erishishga xizmat qiladi; malaka oshirish jarayonida andragogik bilimlar qo'llanilayotgan yangi ta'lim shakllarini mazmun va mohiyatini to'g'ri aniqlash hamda to'g'ri tashkil etishga yordam beradi" [3; 68] – deb hisoblaydi.

Xalq ta'limi tizimidagi uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi imkoniyatlari yuzasidan E.Alkarov, G.Otamurodov, B.Xurramovlar (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, mualliflar, "Pedagogning o'z kasbiy kompetentligini rivojlantirib borishi, mutaxassisligi bo'yicha malakasini doimiy oshirib, jahon tajribasi va ilm-fan yangiliklaridan muntazam ravishda xabardor bo'lib borishida bugungi kunda jahon ta'lim sohasida keng muvaffaqiyat bilan faoliyat ko'rsatib kelayotgan onlayn ta'lim olish tizimi samarali vosita hisoblanadi. Respublikamizning xalq ta'limi tizimida malaka oshirish jarayonlarida onlayn ta'limni tashkil etish maqsadida global internet tarmog'iga mo'ljallangan ta'limni boshqarish tizimini (LMS) yaratish, malaka oshirish yo'nalishlariga oid o'quv-metodik, axborot-ta'lim resurslarini joylashtirish ishlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir" [4; 11-12] – degan xulosani ilgari surishadi.

A.N. Amonovga (2021) ko'ra, "Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining bilim, ko'nikma va kasbiy malaka darajasi, shaxsiy xususiyatlari o'zaro bog'liq bo'lib, metodologik yondoshuvda mutaxassisning uzluksiz, hayoti davomida malakasini oshirish muammolarini tadqiq qilishga integrallashgan yondoshish zarurligini taqazo qiladi. ... Malaka oshirish tizimida ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish, takomillashtirish bilan bir qatorda, jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat olib boruvchi mutaxassislar va rahbar xodimlarning kasbiy bilim, ko'nikma va mahoratlarini oshirish, yangilash hamda takomillashtirish jarayonida mutaxassislarning raqobatbardoshlik sifatleri hamda bilim va ko'nikmalarining zamon talablariga javob bera oladigan darajada bo'lishi, milliy g'oya, mafkura hamda umuminsoniy madaniyat asosida tashkil etuvchi – ijodiy faoliyat tajribasi, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi davr talabi bo'lib qolmoqda. Malaka oshirishning innovatsion va rivojlantirish funksiyalari; mutaxassisning ijodiy, ilmiy-metodik, intellektual salohiyatini takomillashtirishning barqarorligini ta'minlashdan iboratdir" [5; 49-50].

D.A. Mustafoyevaning (2020) tadqiqotlarida, "BMT Bosh Assambleyasining 70 yillik yubiley sessiyasida qabul qilingan "Barqaror rivojlanish maqsadlari

(SDGs)” hamda “Yevropa oliy ta’lim makoni (EHEA)” konsepsiyalari mazmunida “kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishda kompetensiyalarga asoslangan ta’lim (competence-based learning) modelini joriy etish belgilab berilgan. Bunda pedagog kadrlarning ijodiy salohiyati, kasbiy kompetentligi va ijodiy kreativligini rivojlantirish, malaka oshirishning innovatsion shakllari orqali o’qitishning integrativ-differensial metodikalarini yaratish va kasbiy kompetentlikni baholash mazmunini takomillashtirish bo’yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi” [6; 3] – deb qayd etiladi.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish, sport sohasida zamonaviy kadrlar salmog’ini oshirish borasida tizimli islohotlar olib borilmoqda. Bu esa o’z navbatida tizim oldida turgan strategik vazifalarning bajarilishida yuqori malakali jismoniy tarbiya va sport bo’yicha mutaxassislarga bo’lgan ehtiyojni keskin oshirmoqda hamda ularning kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirib borishni taqozo qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli “2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to’g’risida”gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/-6396146>

2. Kamalova N.I. (2022). Malaka oshirish tizimida dasturlash tilini o’qitish metodikasi. *“Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal*, 5, 28-31.

3. Dusmuxamedova Sh. (2022). Kattalar ta’limi samaradorligida psixologik va androgogik bilimlarning ahamiyati. *“Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal*, 1, 66-69.

4. Alkarov E., Otamurodov G., Xurramov B. (2022). Malaka oshirish jarayonlari tahlili va uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi imkoniyatlari. *“Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal*, 1, 7-12.

5. Amonov A.N. (2021). Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining malaka oshirish tizimini takomillashtirishga integrallashgan yondoshuvlar. *Fan – sportga*, 3, 49-51.

6. Mustafoyeva D.A. (2020). Ixtisoslik fan o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish (ixtisoslik fani o’qituvchilarining malaka oshirish kurslari misolida): Ped. fan. bo’y. fal. d-ri (PhD) ... dis. avtoreferati. – Toshkent, 141.

ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИДА “МАҲАЛЛАБАЙ ИШЛАШ” ТИЗИМИ ДОИРАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИШЛАР ТАҲЛИЛИ

Турсунов Шерзод Абдуқодирович

*Тошкент давлат иқтисодиёт университети
Менежмент ва маркетинг кафедраси доценти*

Раҳманкулов Жамшид Алиқулович

*Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги ҳузуридаги
Маҳаллабай ишлаш ва тадбиркорликни ривожлантириш
агентлигининг Қашқадарё вилоят бошқармаси бошлиғи*

Қашқадарё вилоятида “Маҳаллабай ишлаш” тизими доирасида 2022 йил давомида қатор ишлар амалга оширилди. Жумладан ҳоким ёрдамчилари фаолиятининг 2022 йил натижаларига кўра энг муҳим самарадорлик кўрсаткичлари (KPI) 5 та йўналишлар ва 5 та ташаббускорлик ҳислатлари бўйича онлайн тарзда баҳоланди. Унга кўра Қашқадарё вилояти 95.48 балл билан Республика бўйича 1-ўринни эгаллади. Хусусан, ҳоким ёрдамчиларининг фаолияти, 727 нафари (89.3 фоиз) “аъло”, 79 нафари (9.7 фоиз) “яхши”, 7 нафари (0.9 фоиз) “қониқарли”, 1 нафари (0.1 фоиз) “қониқарсиз” деб баҳоланди. Туманлар кесимида Ғузор тумани (98.64 балл), Деҳқонобод тумани (97.66 балл) ҳамда Қарши шаҳар (97.40 балл) вилоятда энг яхши натижа кўрсатди. Вилоят бўйича 84 та маҳалладаги ҳоким ёрдамчилари белгиланган юқори кўрсаткични (100 балл) қайд этди. Шу билан бирга, Яккабоғ (90.85 балл), Кўкдала (91.07 балл) ва Чироқчи (92.25 балл) туманларида энг паст натижалар қайд этилди. Маҳаллалар кесимида Деҳқонобод тумани “Қўнғирот”, Кўкдала тумани “Чувиллоқ”, “Аннарўз”, Чироқчи тумани “Уйшун”, “Қуруқсой”, Яккабоғ тумани “Обод”, “Бешўғил” ва “Татар” маҳаллалари ҳоким ёрдамчилари вилоятда йил якунида энг паст натижалар кўрсатди. Ҳоким ёрдамчилари томонидан 2022 йилда қуйидаги ишлар амалга оширилди:

1. 257 025 нафар фуқароларнинг даромадли меҳнат билан бандлиги таъминланди. Хусусан, 108 871 нафари доимий иш жойларига жойлаштирилди; 105 368 нафари ўзини-ўзи банд қилган шахс сифатида рўйхатга олинди; 8 385 нафари якка тартибдаги тадбиркорликка (ёлланма ишчи билан); 14 301 нафари ҳақ тўланадиган жамоат ишларига жалб қилинди; 20 100 нафар фуқароларга ижара асосида ер ажратилди.

2. Вилоятдаги барча маҳалла фуқаролар йиғинларининг ихтисослашуви ва иқлим шароитидан келиб чиқиб асосий йўналишлар бўйича ўсиш нуқталари белгилаб олинди. Жумладан:

-Вилоятдаги 388 та МФЙ чорвачиликка ихтисослашган бўлиб, шундан 188 таси майда шохли молларни боқишга, 186 таси эса қорамолчилиқка, 14 таси паррандачилиқка ихтисослашган.

-198 та МФЙ деҳқончилиқка ихтисослашган бўлиб шундан 48 таси сабзавотчилиқ, 60 таси помидор-бодринг, 31 таси картошқачилиқ, 19 таси полизчилиқ, 18 таси кўчатчилиқ ва 22 таси бошқа йўналишларга ихтисослашган.

-57 та МФЙ боғдорчилиқка ихтисослашган. Шундан 25 та узумчилиқ, 13 таси олмачилиқ, 8 таси анорчилиқка ва 11 таси бошқа йўналишларга ихтисослашган.

-Маиший хизмат кўрсатиш йўналишига 47 та МФЙ, савдо йўналишига 79 та ихтисослашган, 14 та иссиқхона, 8 таси паррандачилиқка ихтисослашган.

Бундан ташқари 8 та хунармандчилиқ йўналишида, 5 та асаларичилиқ ва 5 та балиқчилиқ йўналишларига ихтисослашган.

Биринчи навбатда маҳаллада мана шу ихтисослашган йўналишларни янада ривожлантиришга эътибор қаратилди. Аҳоли хонадонлари билан тадбиркорлар ўртасида ҳамкорлик йўлга қўйилиб кооперациялар ташкил этилди.

3. Ҳоким ёрдамчилари тавсияномалари асосида 31 813 та лойиҳага 765,1 млрд.сўм имтиёзли кредитлар ва 8 066 нафардан ортиқ ишсизларга 17,2 млрд.сўм субсидиялар ажратилди. Жумладан, ажратилган кредитларнинг 18 684 таси (479,5 млрд.сўм) қишлоқ хўжалиги, 1 149 таси (31,4 млрд.сўм) хизмат кўрсатиш, 1 116 таси (33,3 млрд.сўм) хунармандчилиқ, 9 255 таси (193,9 млрд.сўм) кичик ишлаб чиқариш йўналишларига ажратилди.

4. 26 475 нафар аҳоли касб-хунар ва тадбиркорлик курсларида ўқишни тамомлади. Нодавлат ўқув муассасалари фаолиятини рағбатлантириш, шунингдек, ёшлар ва хотин-қизларни касб-хунарга ва тадбиркорликка ўқитишни янада кенгайтириш мақсадида 154 нафар фуқароларнинг ўқиш харажатлари (ўқитиш харажатларининг 70 фоизи) учун 89,9 млн.сўм компенсация тўлаб берилди.

5. 8 551 та юридик ва 8 333 та яқка тартибдаги тадбиркорлик субъектлари давлат рўйхатидан ўтказилди, шунингдек 767 та корхоналарнинг фаолияти кенгайтирилди ва кам қувват билан ишлаётган 972 та корхоналарнинг қувватлари тикланди.

6. 2022 йилда жами 10 938 та микролойиҳалар ишга туширилди. Шундан хизматлар йўналишида 7 987 та, саноат йўналишида 1 617 та ҳамда қишлоқ хўжалиги йўналишида 1 334 та микролойиҳа ташкил этилди. Микролойиҳаларнинг жами қиймати 1,9 трлн сўмни ташкил этди. Ушбу

микролойиҳаларда жами 33 008 нафар фуқароларнинг расман бандлиги таъминланди.

7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 14 февралдаги “Қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкаларини хусусийлаштириш тўғрисида”ги 71-сонли қарорига асосан, ўтган йилда вилоят бўйича жами 3 502 та (3 312 таси жисмоний шахс, 190 таси юридик шахс) аризалар (тўланиши керак бўлган сумма 4,1 млрд.сўм) келиб тушган.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 2 февралдаги ПҚ-138-сонли қарори ижросини таъминлаш юзасидан ҳоким ёрдамчилари томонидан ҳудудларда қурилиши бошланган ҳар қандай бино ва иншоотларнинг қонунийлигини текшириш бўйича мутасадди органларга сўровнома киритиш амалиёти жорий этилди.

Ҳоким ёрдамчилари томонидан ўз ҳудудида қурилиши бошланган бино ва иншоотларнинг қонунийлигини аниқлаш бўйича ҳудудлардаги кадастр органларига жойларда аниқланган 1 104 та бино ва иншоотлар (геолакатицияси илова қилинган ҳолда) сўровномалар киритилди. Шундан, ҳозиргача 615 тасига (55,7%) жавоб олинган бўлиб 107 та ноқонуний ҳолат аниқланган, 489 тасига (44,3%) жавоб берилмаган.

9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 3 августдаги “Кўчма савдо фаолиятига ахборот технологияларни янада кенг жорий этиш ҳамда савдо автомати орқали чакана савдо фаолиятини тартибга солиш чора-тадбирлари тўғрисидаги” ВМ 485-сонли қарори ижросини таъминлаш мақсадида 5 740 та лойиҳа схемалари ишлаб чиқилди. Шундан 3 207 та лот бўйича <https://e-auksion.uz/> савдо платформасига чиқарилган. 975 та лот (режага нисбатан 30.0 фоизга) аукцион орқали танлов ғолиби аниқланди.

10. Вилоят бўйича давлат корхоналарига тегишли бўш турган ва асосий фаолиятига оид бўлмаган 117 та объектларни ишга тушириш бўйича ҳоким ёрдамчилари томонидан чора-тадбирлар белгиланди. Шундан 69 таси ишга тушган, ўз йўналишида фойдаланмоқда. 14 тасида ДАҚН (ГАСН) хулосасига асосан фойдаланишга яроқсиз деб топилган, 7 таси инвестиция дастурига киритилган, 5 тасига ўзига қолдириш бўйича асосли хатлар берилган, 5 таси хусусий объектлар, 2 таси оммавий савдоларда сотиш учун савдода, 12 тасига сотиш учун таклиф берилган, 3 таси тадбиркорларга ижарага берилган.

11. Вилоятда деҳқон хўжаликлари ташкил этиш учун 2022 йилда 9 264 гектар ер майдонлари ажратилиши белгиланган, шундан вилоят бўйича 12 300 гектар ер майдонлари 24 минг 946 та лотларга бўлиниб, "E-AUKSION" савдосига чиқарилган.

Вилоятда деҳқон хўжаликлари ташкил этиш учун савдога чиқарилган 12 минг 300 гектар (24 946 та лот) ер майдонларидан 9 минг 239 гектар (20 100 та лот) ер майдонларига (75 фоиз) ғолиблар аниқланган.

Ушбу танлов ғолиблари аниқланган ер майдонларининг 8 минг 575 гектари (94 фоиз) ҳоким ёрдамчилари томонидан хатловдан ўтказилди. Ўрганиш натижасида 35 та лотдаги 30 гектар ер майдонлари ўлчаб берилмагани, 1 минг 332 лотдаги 466 гектар ер майдонлари сув билан таъминланиши ёмон эканлиги, 365 та лотдаги 128 гектар ер майдонлари лалми ер майдонларидан ўлчаб берилгани ва 2 минг 54 та лотдаги 718 гектар ер майдонларига экин экилмаганлиги аниқланди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 10 сентябрдаги ПҚ-373-сон қарорига асосан 2023 йилнинг 1 январига қадар пахта-ғалладан қисқартиладиган 10 530 гектар ер майдонларини туман ҳокимлигининг захирасига қайтарилиши белгиланган.

Шунингдек, Вазирлар Маҳкамасининг 182-сон қарорида Деҳқонобод туманида писта ва каврак плантацияларини барпо этиш бўйича “Тадбиркорликни ривожлантириш офиси”ни ташкил этиш белгиланган. Қарорга мувофиқ Деҳқонобод туманида “Тадбиркорликни ривожлантириш офиси” МЧЖ ташкил этилди, У.Юсупов массиви ҳудудидан 86,5 гектар ер майдони 49 йилга ижара асосида ажратиб берилди.

Ажратилган 86,5 гектар майдоннинг 74,5 гектарыга писта ва оралиқ майдонига 3 йиллик каврак кўчатлари, 6 гектар майдонга каврак уруғи ҳамда 5,5 гектар майдонга 10 турдаги мевали дарахтлар экилди. Плантацияни томчилатиб суғориш мақсадида (секундига 3-5 литр сув чиқариш имкониятига эга) чуқурлиги 200 метр бўлган артезиан сув қудуғи қазилиб, сув чиқарилди. Лойиҳани ишга тушириш орқали, 200 га яқин ишсиз аҳолини, жумладан уюлмаган ёшларни мавсумий ишларга жалб этилди.

Бугунги кунда аҳоли хонадонларининг 80 фоизи, яъни 3400 та хонадонларининг 370 гектар ер майдонлари шунингдек, “Е-аукцион” савдо майдончасидан 458 нафар фуқароларга 0,5 гектардан ажратилган 229,5 гектар деҳқон хўжаликларидаги ер майдонлари жами 599,5 гектар ер майдонларида 11 минг 990 тонна картошка маҳсулоти етиштирилди.

Жорий йилда ҳам ушбу ҳудуддаги хонадонларда 59 млрд 950 млн сўм миқдорда 11 минг 990 тонна маҳсулот тайёрланади. Шундан 22 млрд 950 млн сўм миқдордаги 4 минг 590 тонна маҳсулот 229,5 гектар деҳқон хўжаликлари ҳисобига тўғри келади.

Бунинг натижасида маҳаллаларда картошка етиштирувчи хонадонлар сонини кўпайиши ҳамда ишсиз аҳолининг ушбу фаолият тури билан банд бўлиши ва даромад манбаи ортишига эришилди.

Президентимиз ташаббуслари билан тузилган ҳоким ёрдамчилари институтининг иқтисодий соҳада эришган айрим ютуқларини 2021 йилнинг натижаларига нисбатан таҳлил қилиб кўрдик. Мисол учун:

- аҳолининг даромадли меҳнат билан таъминланганлик даражаси 4,9 баробарга ёки 491 фоиз ўсишга;

- фуқароларнинг ўзини-ўзи банд қилиш даражаси 2,1 баробарга ёки 216.8 фоиз ўсишга;

- фуқароларнинг бандлик масаласида расман мурожаат қилиш даражаси 83 616 нафарга ёки 43.4 фоиз мурожаатлар қисқаришга;

- фуқароларга ажратилган субсидиялар 3,0 баробарга ёки 296 фоиз ўсишга;

- оилавий тадбиркорлик дастурлари доирасида муаммоли кредитлар 5,4 баробарга қисқаришга эришилди.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, ҳоким ёрдамчилари томонидан 2022 йилда жами 95 639 та хонадонга ёрдам кўрсатилган бўлиб, шундан ҳозирги кунгача 73 835 та (80 фоиз) хонадонларнинг 1 ойда аҳоли жон бошига тўғри келадиган даромадлари ўрганилди. Хонадонларнинг аҳоли жон бошига дастлабки даромади ўртача 508 минг сўмдан тўғри келган. Йил якуни билан эса ўртача 942 минг сўмдан тўғри келди. Ушбу хонадонларда аҳоли жон бошига даромадлари ўртача 185 фоизга ўсишга эришилди.

BOSHLANG'ICH TA'LIM MATEMATIKA DARSLARINING SIFATINI OSHIRISH HAQIDA

Tursunov Quchqor
SamDU dotsenti

To'xtayeva Shaxnoza

SamDU Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-kurs talabasi

Ta'lim-tarbiyaning sifatli bo'lishi birinchi navbatda uning asosiy ustunlari bo'lgan beshta (o'qitishdan ko'zlangan maqsad, o'qitilayotgan fan mazmuni, o'qitish usullari (metod), o'qitish formalari va o'qitish vositalari) ustunlaridir. Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga beradigan asosiy maslahatlarimizdan biri kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'ziga xos o'zlashtirib olish qobiliyatlaridan kelib chiqib, o'zlashtirilishi boshqa fanlar materiallariga qaraganda biroz qiyin kechadigan matematik materiallarni o'rgatishda sinf o'quvchilarining bilim darajalaridan va tanlangan mavzuni murakkabligidan kelib

chiqib o'qitishning zamonaviy metodlaridan biri bo'lgan integratsiyalashgan ta'limdan foydalanish usullarini yaxshilab o'rganib olishlari lozim bo'ladi.

Ta'lim-tarbiyani va uning sifatini o'qitish vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'qitish vositalariga har bir mutaxassislarining o'quv rejalari, o'quv rejalari asosida yaratilgan davlat ta'lim standartlari, fan dasturlari talablari asosida yaratilayotgan darsliklar va ularga yordamchi bo'lib xizmat qilayotgan o'quv-uslubiy qo'llanmalar, Respublikamizdagi ilg'or metodist-olimlar va mohir salohiyatli o'qituvchilar tomonidan ta'lim-tarbiyaga oid chop etilayotgan risola, maqola, tavsiyanomalar kiradi. Shuning bilan birga o'qitishning texnik vositalarining ta'lim-tarbiyadagi va uning sifatli bo'lishidagi o'rni juda kattadir.

Mamlakatimizda 2023-yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb atalishida ham mantiqiy ketma-ketlik mavjud bo'lib, bu narsa tabiatda doimiy sur'atda ro'y berib turadigan miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga kelishining ta'limdagi holatini ko'rsatadi deb o'ylaymiz. Keyingi besh yillikda o'rta maktab bitiruvchilarining OTMlarga kirish ko'rsatkichi 9% dan 39% gacha ko'tarilganligi ham endi navbat ta'lim-tarbiyaning barcha bosqichlarini bitkazib chiqayotganlarning bilimlari sifatli bo'lishini shaxsiy va amaliy zaruratning o'zi talab qilayotganligi ham bor gap.

Majburiy ta'limning birinchi bosqichi bo'lgan boshlang'ich ta'limda ta'lim-tarbiyaning sifati ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarga bog'liqligini biz hammamiz yaxshi bilamiz. Biz hozir ta'lim oluvchi va ularning ota-onalariga bog'liq bo'lgan tomonlarini tahlil qilishga harakat qilamiz. Ta'limning sifati ta'lim oluvchilardan ya'ni bolalar bog'chalaridan va to'g'ridan-to'g'ri o'z uylaridan kelgan bolalardan tarkib topgan sinfdagi bolalarning matematik bilim darajalariga ko'pdan-ko'p bog'liq:

a) OTMni yaqinda tamomlab kelib o'qituvchilik bu sohasida turgan xodimga maktab ma'muriyati o'zi o'qitishni boshlaydigan birinchi sinf o'quvchilarining ro'yxatini shakllantirish vazifasini topshiradi. Agar bu o'quvchilarning barchasi shu maktab hududiga yaqin bo'lgan bolalar bog'chasining bittasidan kelgan bo'lsa, nur ustiga a'lo nur, chunki bu bolalarning maktabga tayyorgarlik darajalari bitta metodologiya asosida olib borilgan bo'lib, bilim darajalari bir-biridan o'ta darajada farq qilmaydi. Sinfni qabul qilgan yosh o'qituvchi bolalar ta'lim-tarbiya olgan bolalar bog'chasining ustoz-murabbiylari bilan suhbatlashib har bir bolaning pedagogika-psixologik qobiliyatlarini o'rganib shunga qarab darslarga tayyorgarlik ko'radi.

b) Bordiyu ro'yxati shakllantirilayotgan sinf o'quvchilari bog'chaga bormagan (bular ham turli-tuman oilalardan, ya'ni bolasining ta'lim-tarbiyasiga e'tibori nuqtai nazardan) har xil xususiy (bunday bog'chalar hozirgi kunda juda ko'p) bog'chalardan, davlat bilan sherikchilik asosidagi bog'chalardan, davlat tasarrufidagi bog'chalardan kelgan bolalardan tashkil topgan bo'lishi mumkin.

Bunday holatda yosh o'qituvchining majburiy ta'limning birinchi bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich ta'limdagi ish faoliyati ancha qiyinchilik bilan boshlanadi. Chunki sinfdagi o'quvchilarning tayyorgarlik darajalari har xil bo'lib, ularga bir vaqtda bir xil mavzudagi (asosan, matematika va ona tili fanlaridan) dars o'tish mumkin emaslik muammosi paydo bo'ladi. Agar o'qituvchi mavzuni maktabga tayyorgarlik darajasi past bo'lgan bolaga mo'ljallab boshlasa, qolgan bolalarda zerikish boshlanadi, darsning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bordi-yu mavzuni yaxshi tayyorgarlik bilan kelgan o'quvchi bilimiga moslashtirib boshlasa, o'zlashtirishi past bolada ham darsga bo'lgan qiziqish yo'qoladi, bu esa dars sifatiga o'ta jiddiy va salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu muammoli vaziyatdan chiqishning birdan-bir to'g'ri yo'li quyidagicha deb o'ylaymiz:

-Joriy o'quv yilida maktabga birinchi sinfdagi o'qishi rejalashtirilayotgan o'quvchilar jamoasini maktabga tayyorgarlik darajasini (maxsus komissiyaning suhbatida, ota-onalarning bevosita ishtirokida) aniqlab ularni uch guruhga ajratish kerak bo'ladi.

1-guruhga tayyorgarlik darajasi a'lo bo'lgan bolalar;

2-guruhga tayyorgarlik darajasi yaxshi bo'lgan bolalar;

3-guruhga tayyorgarlik darajasi past bo'lgan bolalar.

Ko'p yillik pedagogik kuzatishlar va pedagogik-psixologik tajribalardan ma'lumki, o'qituvchilarga ta'lim-tarbiya ishlarini bir xil bilish va bir xil salohiyatli bolalar bilan boshlash ta'lim-tarbiyaning sifatini ta'minlaydi.

Alohida-alohida bolalardan tuzilgan sinflarni qaysi o'qituvchiga topshirish maktab ma'muriyati zimmasiga qoldirish maqsadga muvofiqdir. Lekin shu narsani esdan chiqarmaslik kerakki, o'z ustida tinmay ishlaydigan sinf o'quvchilarining har birini o'z bolasidek sevib, ularga sidqidildan fan asoslarini o'rgatishni maqsad qilsa, hatto uchinchi guruh bolalarini ham birinchi guruh o'quvchilari darajasiga qisqa vaqtda olib chiqadi va ota-onalarning beminnat rahmatiga sazovor bo'ladilar.

Bundan tashqari yil boshida o'qituvchi ota-onalar va maktab ma'muriyati o'rtalarida bo'ladigan turli-tuman „Men bolamni falon o'qituvchiga o'qishga beraman“, „Men bolamni piston o'qituvchiga o'qishga bermayman“ degan o'zaro qarama-qarshi so'zlarning ijobiy hal etilishiga erishiladi.

Ta'lim oluvchi bolaga ota-onalarining ta'limga bo'lgan munosabati ham ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, buni hurmatli ota-onalar esdan chiqarmasligi kerak. O'quvchining maktab partasida o'tirib olgan bilimlari uyda ota-onasi tomonidan nazorat qilinmas ekan, ota-onaning ham o'qituvchining ham bola ta'lim-tarbiyasida erishishi kerak bo'lgan muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Chunki kichik maktab yoshidagi o'quvchi hali o'yinqaroq bo'lib, har bir ko'rgan narsasidan, o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqdan ham o'yin elementlarini

axtaradi. Bunda o'qituvchi bilan har bir ota-onaning samimiy hamkorligi o'ta muhimdir. Aziz ota-onalar "Davlat oylik berib qo'yibdi-ku!" degan yoki hurmatli o'qituvchilar "Bolaning kelajagi bilan ota-onalar qiziqsin" degan o'zaro mantiqsiz gap-so'zlardan voz kechib har bolaning kelajagi uchun har birimiz qayg'uraylik, ularga imkon qadar mehr ko'rsatib yosh avlodni Yangi O'zbekistonning yangi barkamol avlodi qilib tarbiyalashdek ishga o'z hissamizni qo'shaylik.

Keyingi yillarda Respublikamizning ta'lim-tarbiyaga oid barcha me'yoriy hujjatlarida ta'limning sifatini oshirish masalasi qayta-qayta takrorlanmoqda.

Ta'limning sifatini kafolatlovchi omillardan biri o'qituvchi tomonidan tanlab olingan o'qitish usulidir. Hozirgi kunga kelib ta'lim-tarbiya usullari (metodlari)ning soni yuzdan oshib ketdi desak haqiqatni aytgan bo'lamiz. Anashunday usullardan biri har bir fan mavzuni boshqa fan mavzularidan qaysi birlari o'tilayotgan mavzuga aloqadorlik darajasidan kelib chiqib o'zaro aloqadorlikda o'tish usuli bo'lib, bu usul har ikki fan materiallarini o'zaro yaqinlashtirib, bir-birini mantiqiy boyitib o'qitishga integratsiyalashgan ta'lim metodi o'qitish sifatini kafolatlaydi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari matematika fani darslarini o'zi o'tadigan boshqa fanlar darslari bilan integratsiyalashgan holda o'tish imkoniyatiga egadirlar.

Masalan, shunday fanlardan ona tili va tabiatshunoslik fanlarini matematika fani bilan o'zaro fanlararo aloqadorlikda o'tish masalasida e'tiboringizni qaratmoqchimiz.

a) Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'rganiladigan „Vaqt va uning o'lchov birliklari“ mavzusini tabiatshunoslik fani o'rganiladigan „Quyosh sistemasidagi planetalari“ mavzusini o'zaro integratsiyalashgan holatda o'tish imkoniyati mavjud.

Vaqt o'lchov birliklari boshqa, masalan, og'irlik va uzunlik o'lchov birliklariga qaraganda ancha qiyinchilik bilan o'zlashtiriladigan tushunchadir. Bu vaqt tushunchasi doimiy ravishda oldinga harakatlanadigan tushuncha bo'lib, uni ortga qaytarib bo'lmaydi. Boy berilgan vaqtni orqaga qaytarib, uni yangidan boshlashning imkoni yo'q, shuning uchun ham vaqtning ketdi baxting ketdi deyishmaydi, mutafakkirlarimiz.

Vaqtning o'lchov birliklaridan, masalan, sutka-tun-kun, oy va yil, tabiat hodisalaridan olingan bo'lib qolgan sekund, minut, soat, hafta va asr o'lchov birliklari insonlar tomonidan yuqoridagi tabiat hodisalariga monand o'ylab topilgan vaqt o'lchov birliklaridir.

Har bir dars ikki qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi mavzuning nazariy qismi bo'lib unda masala yoki muammo yechimining nazariy asoslari yechilish yoki hal etilish qoidalari umumiy ko'rinishda bayon etilsa, darsning amaliy qismida nazariy qismidagi qoidalardan foydalanib o'quvchilar kundalik

amaliy hayotida uchraydigan muammolarni hal qilishga oid misol va masalalar qarab chiqiladi.

Vaqt o'lchov birliklarining tabiat hodisalari bilan bog'liq bo'lganlarini quyosh sistemasidagi quyosh yer va uning yo'ldoshi bo'lgan oy planetalarining harakatlarini ifodalovchi o'quv filmlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi, bu dars sifatiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sutka: tun va kun yerning o'z o'zi atrofida bir marta to'liq aylanish vaqtiga teng;

Oy: oy planetasining yer atrofida bir marta to'liq aylanib chiqish vaqtiga teng;

Yil: fasllar (bahor, yoz, kuz va qish) Yer planetasining quyosh atrofida to'liq aylanib chiqish vaqtiga teng. Bundan ko'rinadiki, vaqt o'chov birliklarining turli sanoq sistemasida berilishi oy planetasining Yer atrofida aylanish, sutka Yerning o'z o'zi atrofida aylanish va yil Yer planetasining quyosh atrofida to'liq bir marta aylanib chiqish davrlarini bildiradi.

Matematika darsida vaqt o'lchov birliklarini o'rganishni yuqoridagi eslatib o'tilgan tabiatshunoslik fanidagi quyosh sistemi, quyosh sistemasidagi planetalar, planetalarning harakat trayektoriyalari, sutka, oy va yil kabi tushunchalarni darsning asosiy nazariy qismi deb qabul qilib o'rganilsa, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqishlari ortishi natijasida darsning sifati yanada oshadi. Bu darsning strukturasi va unda qo'llaniladigan metod va o'quv vositalari, ulardan foydalanish metodikasini ustozning o'ziga havola qilib qoldiramiz. Chunki har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'zi mehr qo'ygan o'quv vositalari va o'qitish usullari mavjud bo'lib, ulardan unumli foydalanish malaka va ko'nikmalariga ega bo'lgan o'qituvchining darsi qiziqarli bo'lib uning sifati ham talab darajasida bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi. – Samarqand, Zarafshon, 2020.
2. "Milliy dastur". –Toshkent, 2020.
3. Boshlang'ich ta'limning davlat ta'lim standartlari. - Toshkent, 2020.
4. Matematika (3-sinf darsligi), L.O'rinboyeva va boshqalar. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. 126-130 betlar
5. Tabiatshunoslik (4-sinf darsligi), A.Bahromov va boshqalar, "Sharq" nashriyoti. Toshkent – 2020. 7-28 betlar.
6. R.Mavlonova, N.Rahimboyeva, Boshlang'ich ta'limda integratsiya va innovatsiya.

IMOM BUXORIY AQIDAVIY QARASHLARINING IJTIMOIIY-MADANIY VA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARI

To'xtayeva M.X.

O'zMU mustaqil tadqiqotchisi

Dunyo ilm fan yo'lida o'chmas iz qoldirgan buyur mutafakkir-u allomalarimiz islom madaniyatini rivojlantirishda betakror hissa qo'shgan eng avvalo, haqli ravishda muhaddislar sultoni deya nom olgan Imom Buxoriyning diniy, axloqiy va huquqiy ta'limotiga yangicha nazar bilan qarash hozirgi kunda g'oyat dolzarb bo'lib, ma'lum ma'noda amaliy ahamiyatga ham ega.

Imom Buxoriyning «Al-jome' as -sahih» hadis to'plamining boshqa hadis to'plamlaridan ustunlik jihatlari muhaddisning hadis qabul qilishdagi shartlari orqali namoyon bo'lib, o'zining shartiga to'g'ri keladigan hadisni sanad bilan rivoyat qilgan. Manbalarda ko'rsatilishicha, «hadis rivoyat qiluvchi roviylarning sifatlariga, axloqlariga juda katta e'tibor qaratgan va roviyning sifati, axloqi hadis qabul qilishdagi talablariga yetarli darajada javob bermasa, unday roviydan hadis qabul qilmagan»¹⁵¹.

Hadislar islom sivilizatsiyasining «tayanchi»dir. Islomda hadisning diniy qonun va axloqiy hidoyat manbasi sifatidagi nufuzi Qur'ondan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Qur'onda huquqqa oid oyatlarning soni nisbatan kam bo'lsa-da, hadislar; g'usl, tahorat, salomlashishning to'g'ri shakllari va bandalar uchun yaxshilikning ahamiyati barcha masalalarda diniy farzlarning tafsilotini yo'naltiradi. Shuningdek, shariat qoidalarining «ko'pchiligi» Qur'ondan ko'ra Imom Buxoriy hadislaridan olinadi.

Bugungi kunda islom amaliyoti va e'tiqodining bir qismi hisoblangan unsurlar Qur'onda emas, hadislarda tilga olingan. Shuning uchun musulmonlar Qur'on sukut saqlagan hududlarda musulmonlarga islom amaliyoti va e'tiqodi haqida batafsil ma'lumot beruvchi hadislar Islom dinini to'g'ri bajarish uchun zaruriy shart ekanligini ta'kidlaydilar. Bunga Qur'onda buyurilgan, lekin hadislarda bayon qilingan farz namozlarni misol qilib keltirish mumkin. Masalan, namozning rakat deb atalgan qismlari va necha marta o'qilishi haqida hadislarda ma'lum qilingan. Ammo bu tafsilotlar hadislarda farqlanadi va namozlar turli islom mazhablari tomonidan turlicha o'qiladi. Boshqa tomondan, Qur'onchilarning fikriga ko'ra, agar Qur'on biror narsa haqida sukut saqlasa, bu Xudo uni muhim deb bilmasligi uchundir.

Islom dini hamma narsani tartibga solgandek, Allohning yo'lga da'vat qilishni ham tartibga soladi. Buning uchun o'zini musulmon deb atagan har bir

¹⁵¹ Tohir al-Jazoiriy al-Damashqiy. Tavjihu-n-nazar ila usuli-l-asar. Al-Matbu'ati-l-islomiya. – Halab, 1995.- B.220.

kishi ularni bilishi va da'vat qilishda ulardan chetga chiqmasligi shart qilib qo'yilgan. Ushbu qoidalaridan:

Birinchisi: Ilm.

Allohning diniga da'vat qilgan musulmon shariat ilmiga ega bo'lishi kerak. Islomiy bilimga ega bo'lmagan odamni dinga taklif qilish to'g'ri emas. Bunday holatda uning xato qilishi muqarrar. Shuning uchun ham Alloh taolo: «Bilginki, albatta Allohdan o'zga iloh yo'q»¹⁵², deydi.

Imom Buxoriy «Sahih» kitobida shunday bobni zikr qiladi, «Ilm so'z va amaldan oldindir»¹⁵³. Unda: «Ulamolar ambiyolarning vorislaridir. Ular ilmni meros qilib qoldirishgan. Kim uni olsa, to'liq nasiba olibti»¹⁵⁴ – deyilgan.

Shuni yana alohida ta'kidlab o'tish joizki, hadisda, olim ilmni osonlashtirishi, uni tushunarli tilda etkazishi, yani ilmida albatta yangilik yaratishi va ilm qoidalariga rioya qilishiga qaratilgan. «Nabiy sololohu alayhi vasallam: «Osonlashtiringlar, qiyinlashtirmanglar, xushxabar beringlar, bezdirmanglar», dedilar»¹⁵⁵

Ilmning fazilati haqida ko'plab dalillar mavjud. Alloh taolo ilmli bilan johilni ajratadi va aytadi: «Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo'larmidi?!»¹⁵⁶ Albatta, bilgan bilan bilmagan bir bo'la olmaydi. Hatto ularning taklifnomalari ham bir xil bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun kimki o'z yaqinlarining holidan xavotirda bo'lsa, ularning adashishini istamasa, avvalo ilm olsin, dinni to'g'ri yo'l bilan yetkazsin.

Ikkinchi: Ixlos.

Ma'lumki, ixlos har bir ibodatning boshidadir. Ibodatda ixlos yo'qolsa, egasiga foydasi tegmaydi. Alloh taolo marhamat qiladi: «Ayting: «Darhaqiqat, men Ollohga U zot uchun dinimni xolis qilgan holda ibodat qilishga buyurilganman»»¹⁵⁷

Muhammad payg'ambar ilk da'vatlarini tavhid bilan bolaganlarida dinga da'vat qilib, birovni harom ishlardan qaytarishdan boshlashimiz to'g'ri emas. Demak, Allohga shirk keltirgan kishini chekish haromligi haqida gapirib, dinga taklif qilish, sunnatga ziddir.

To'rtinchisi: Dono bo'lish.

Da'vat foydali bo'lishining muhim sabablaridan biri hikmatdir. Alloh taolo bizni da'vat qilishda hikmatli bo'lishni buyurgan.

¹⁵² Oltin silsila.1 –juz.Sahihul Buxoriy – Toshkent: Hilol - nashr, 2016. – B. 175.

¹⁵³ O'sha joyda.

¹⁵⁴ O'sha joyda.

¹⁵⁵ O'sha manba. – B.176.

¹⁵⁶ O'sha manba. – B. 175.

¹⁵⁷ Qur'oni karim. Zumar surasi. // O'zbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar muallifi Alovuddin Mansur – Toshkent: Cho'lpon, 1991.

Alloh taoloning diniga da'vat qilgan kishi hikmatli bo'lmasa, odamlar undan haqni qabul qilmaydilar, aks holda da'vat albatta o'z mevasini beradi. Muhammad payg'ambar hayotlarida bo'lgani kabi, biz ham bunga tez-tez duch kelamiz. Qur'onchilarning ta'kidlashicha, Qur'onning o'zida hadisni Qur'ondan boshqa ikkinchi ilohiy manba sifatida qabul qilishga da'vat yo'q. «Allohga va Rasuliga itoat» iborasi, faqat Qur'onga amal qilish bilangina vazifasi Qur'onni yetkazishdan iborat bo'lgan Payg'ambarga itoat qilish, degan ma'noda tushuniladi. Qur'onchilarga ko'ra, Muhammadning vositachiligi faqat Qur'on bilan, hadislar bilan emas. Har bir sohada mutaxassis bo'lgan olimlar bor. Fiqh olimi, muhaddis, so'fiy, kalom olimi, ilm olimi kabilar. Bularning barchasini bilgan kishi islom olimi deyiladi. Bilish yetarli emas. O'zi bilgan narsasiga ko'ra amal qilishi va ixlosli bo'lishi ham zarurdir. Binobarin, ilmi, amali, ixlosi bor musulmonga islom olimi deyiladi. Kimda bu uchlikdan biri yetishmasa, mutaassib deyiladi. Qur'ondagi oyatlar ikkiga bo'linadi: Ma'nosi ochiq bo'lganlar (Muhkam oyatlar), ma'nosi aniq bo'lmaganlar va tafsir va izohga muhtoj bo'lganlar (Mutashabih oyatlari) deyiladi. Hadis-i shariflar ham ikki qismga bo'linadi: muhkam va mutashobih. Ularni talqin qilish majburiyati islom dinida ijtihod institutining qaror topishiga olib keldi. Payg'ambar va sahobalarining ijtihodlari islom ilmining asosidir. Haqiqiy islom ulamolari kalom ilmida va mutashobih oyat va hadislarini izohlashda faqat Rasululloh va sahobalarning ijtihodlariga ergashdilar, qadimgi faylasuflarning ularga to'g'ri kelmaydigan g'oyalarini inkor etib, shu tariqa Allohning dinini himoya qildilar. Islom ulamolari falsafani islom bilan aralashtirib, sahobalar yo'lidan adashgan 72 ta firqaning falsafalari haqida uzoq vaqtdan beri xabar berishgan.

Beshinchisi: Yumshoq bo'lmoq, muloyimlik go'zal axloq timsoli. Mo'tadil odamni ko'p odamlar o'rab olishini ko'rish mumkin. Aksincha, odamlar har doim qattiq xarakterga ega bo'lgan odamdan uzoqlashadilar. Hattoki, Alloh taolo go'zal axloq namunasi bo'lgan Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam) haqida shunday deydi: "Allohning rahmatiga shukr, ularga muloyimlik qildingiz. Agar qo'pol va tosh yurakli bo'lsang, atrofingdan tarqalib ketishardi. (Oli Imron, 159).

Taklif qilishda muloyim bo'lish talab qilinadigan xususiyatlardan biridir. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Makkadan Toifga da'vatga borganlarida, odamlar uni toshbo'ron qilib, haydab yuborishdi. Farishta kelib, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga, agar xohlasang, men tog'ni olib, boshlariga qo'yaman, deb aytganida? U zot duo qilib: «Ey, Allohim, ularni mag'firat qil, bilmaydilar», dedilar.

Ibn Kasir rahimahulloh ushbu oyatni sharhlar ekan: "Bu oyatda juda ko'p alomatlar bor. Fir'avn kibrning eng yuqori darajasiga yetgan bo'lsa ham, Alloh taolo Musoga u bilan yumshoq gaplashishni buyurdi".

Oltinchi: Sabr. Da'vatning muhim sabablaridan biri sabr qilishdir. Shuning uchun Alloh taolo Qur'oni karimda sabrni tavsiya qiladi va shunday deydi: "O'g'lim! Namoz o'qing, yaxshilikka buyur, yomon ishlardan qaytar. Yo'lingizdan kelgan qiyinchiliklarga sabr qiling. Darhaqiqat, bu sabr-toqat talab qiladigan amallardan biridir".

Umuman olganda, din nuqtai nazaridan Qur'ondan so'ng kelgan hukm manbai sifatida hadislariga munosib ahamiyat berilgan va Muhammad payg'ambar, ayniqsa Alloh taoloning sunnatlariga rioya qilish va Muhammad payg'ambar juda aniq ifodalar bilan buyurganlar. Qur'oni karimda bu haqda quyidagi oyatlar zikr qilingan: «Ey Payg'ambar, ayt: Agar Allohni sevsangiz, menga ergashinglar, Alloh ham sizni yaxshi ko'radi va gunohlaringizni mag'firat qiladi»¹⁵⁸; «Ey Payg'ambar, ayting: Allohga va Payg'ambarga itoat qiling. Agar yuz o'girsangiz, bilingki, Alloh kofirlarni sevmaydi»¹⁵⁹; «Allohga va payg'ambarlarga itoat qilinglar, shoyadki rahm qilinursizlar»¹⁶⁰; «Payg'ambar sizga nima olib kelsa, uni oling, nimadan qaytarsa, undan saqlaning».¹⁶¹

Qur'on oyatlari nozil bo'lganidek, Hz. Payg'ambar (s.a.v.) o'z hadislarini yozishni man qilganlar, lekin bir-birlariga hadis yetkazishlariga ruxsat berganlar. Bu taqiqning sababi Qur'onni hadislar bilan chalkashtirib yuborish xavfi, savodxonlarning kamligi, yozuv materiallarining kamligi sababli arab yozuvining hali rivojlanmaganligi bo'lishi mumkin. Keyinchalik, bu kamchiliklar yo'qolganda yoki kamayganda, Muhammad payg'ambar hadislarini yozishga ruxsat berganliklarini ko'ramiz. Shu boisdan ham Buxoriy muhaddislar vakili sifatida amal qilgan islom huquqi metodologiyasi u taalluqli bo'lgan maktab bilan ko'p jihatdan mos keladi. Buxoriy o'zining qat'iy vakillik o'rnini yaratish uchun uzoqda qoladi va u islom qonunlari bo'yicha o'z talqinlarini ilgari surganda, u hech qanday islom yetakchilarini keltirmaydi, shuningdek, dalillarga qarab diniy masalalarga e'tibor qaratadi. U islom masalalariga, agar bu masalada ma'lum bir ma'lumot bo'lmasa, islom huquqining xulosalarini hisobga olgan holda mantiqiy yondashadi. Buxoriy keltirgan islomiy zikrlarni bir mazhab tomonidan baholab bo'lmaydi, shuningdek, ularni bir mazhabga boshqasidan yaqinroq deb da'vo qilish ham mumkin emas.

¹⁵⁸ Qur'oni karim. Oli Imron surasi. // O'zbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar muallifi Alovuddin Mansur – Toshkent: Cho'lpon, 1991.

¹⁵⁹ O'sha joyda.

¹⁶⁰ O'sha joyda.

¹⁶¹ O'sha manba. Nashr surasi.

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

Uzoqova Marjona Sherali qizi
O'zDJTU XT3-2201-guruh talabasi

Abdusamadov Zafar Nurmatovich
O'zDJTU Ingliz tili 3-fakulteti dekani (ilmiy rahbar)

Hozirgi kunda zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda, xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatish tobora keng tus olib bormoqda. O'zbekistonda eng ko'p o'rganilayotgan xorijiy til bu – ingliz va rus tillari hisoblanadi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki – 2022-yil 25-iyun holatiga ko'ra maktab o'quvchilarining 1,5 ming nafari ingliz tili o'rganuvchilari hisoblanadi. Buning asosiy sababi ingliz tilini o'qish va o'rganish orqali chet elda bo'layotgan yangiliklardan xabardor bo'lish va dunyo miqyosida kechayotgan ishlarda o'z fikrini ravon ifodalay olishdir.

Dunyo va insonlar yaralibdiki, til va unga bo'lgan ehtiyoj har doim bor. Insonlar bir-birlarini tushunishlari, bir-birlarini anglab yetishlari uchun doimo tilga murojaat qiladilar. U orqali muloqotga kirishadilar va fikr almashadilar. Yuqoridagi fikrlar albatta bir til doirasida muloqotga kirishayotgan insonlargagina tegishlidir. Bu degani turli xil tillarda suhbatlashadigan insonlar bir-birlarini tushunmasliklari kerak deganimi? Yo'q, albatta. Til paydo bo'ldiki, insonlar bu jabhada ko'p izlanishlar olib borishdi. O'z tiliga yot bo'lgan tilni o'rganish – fan tilida xorijiy yoxud chet tillarini o'rganish deb nom oldi. Biror tilni o'rgatish yoki o'rganish uchun biz albatta metodlarga morojaat qilamiz. Ilm-fanda bu kabi o'rgatish usullarini o'zida jamlagan – metodologiya fani ishlab chiqilgan. Metodologiya – yunon tilidan olingan bo'lib- “metod” va “logiya” ya'ni “o'rgatish usullari degan ma'noni anglatadi”. Metodologiya fani tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday tizim haqidagi ma'lumotlarni o'rgatadigan fandır. Hozirgidek xorijiy tillarni o'qitish rivojlangan bir davrda, uni o'qitish va o'rganish metod prinsiplari zamonaviylashib bormoqda. Buni biz texnologik qurilmalar va interfaol usullardan foydalanish bilan bog'lay olamiz. U yoki bu chet tilini o'qitish haqida gap borar ekan biz birinchi navbatda, shu tilni bizga o'rgatayotgan o'qituvchining dars berish usuli, ya'ni metodikasiga e'tibor beramiz. Bu yerda metodika deb shu tilni o'rganish davomida o'rgatuvchi tomonidan foydalanilgan jumlar, ko'rgazmali qurollar, vaqt taqsimoti, o'rganuvchilar bilan bo'lgan psixologik muomala va boshqa shu kabilarni kiritish mumkin. Bu kabi jabhalarni qamrab olgan soha, fan tilida umumiy qilib – metodika deb yuritiladi. Ko'pincha biz “Zamonaviy metodika”, “Eskirgan metodika” kabi jumlalarga duch kelganmiz.

Aslida zamonaviy metodika nima degan savolga biz hech ikkilanmasdan hozirgi kunda eng ko'p foydalanilayotgan o'rgatish usullari deyishimiz mumkin. Hamma ham yangilik o'ylab topa olishi, yoki undan dars davomida foydalanishi mumkin. Lekin biz "zamonaviy" deb atayotgan bu usullar o'rganuvchilarga qanchalik foydali!? Bu yerda ta'kidlanayotgan narsa aynan shudir. Hozirgi kunda ommaga kirgan va samarali foyda berayotgan usullardan biri bu – "O'yin metodidir". Bu metoddan ko'pincha kichik yoshdagilarga til o'rgatish davomida qo'llashadi. O'yin o'ynash orqali bolalarga nafaqat tilni osonroq o'rgatish, balki ularni o'ylash qobiliyatini ham o'stirish mumkin.

Til va uni o'rganish to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, birinchi o'rinda shunday savol tug'ulishi tabiiy. Nega ikkinchi tilni o'rganishimiz kerak? Bu savolga to'laqonli javob berish uchun Abdulla Avloniyning 1913-yilda "Oyna" jurnalida chop etilgan "Ikki emas to'rt til lozim" maqolasiga e'tibor qaratish kerak. Bobomiz bu maqolalari orqali jamiyatni til bilishga, ularni mukammal o'rganishga va o'rgatilgan tilga bemalol muloqotga kirisha olishga undaydi. Aynan bizning yurtimiz bo'lmish O'zbekistonda xorijiy til sifatida ingliz va rus tillarini o'rgatish keng rivojlanmoqda. E'tiborimizni dunyoning eng rivojlangan davlatlariga qaratadigan bo'lsak, ularning aksariyati ingliz tilida muloqotga kirishishadi. Shunday ekan ingliz tilini o'qish dunyo bilan hamnafas bo'lish, eng so'ngi ma'lumotlar, yangiliklarni o'zimiz hech qanday ko'maklarsiz o'rganish, butun dunyo oldida o'z fikrimizni hech qanday ikkilanishlarsiz, ravon bayon qilish demakdir.

Ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni barkamol va har tomonlama yetuk qilib tayyorlash uchun ularni boshlang'ich davrlaridayoq to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish kerak. Aynan shu uchun ham til o'rgatishda boshlang'ich yoshdagi o'quvchilarga katta e'tibor qaratishadi. Shuning uchun ham ularda til o'rganishga bo'lgan boshlang'ich motivlar rivojlana boradi. Bolalar keyinchalik qo'shimcha adabiyotlarga qiziqqa boshlaydilar. Bolalarga til o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortib borishi, ularning o'qituvchi bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini yuzaga keltiradi. O'qituvchi o'z metodlaridan foydalanib, o'quvchilarga bilim beradi, o'quvchilar ularni o'rganish orqali keyinchalik bu bilimlarni amalga taqdim qiladilar. O'zlarining intellektual qobiliyatlaridan foydalangan holda yanada yangi o'qitish usullarni kashf qiladilar.

Hozirgi kunda chet tillarini o'qitishda eng zamonaviy texnik vositalarga tayangan metodlardan foydalanishayapti. Ya'ni ulardan biri bu – Podcast metodidir. Bu podcast orqali til o'rganish, bir so'z bilan aytganda mutimediya o'rganish usulidir. Bunda siz nafaqat chet tilida so'zlarni tinglaysiz, balki uni animatsion ko'rish va sheriklaringiz bilan tahlil qila olish imkoniyatiga ham ega bo'lasiz. Til o'rganishda unga tegishli matnlarni tahlil qilish, o'quvchiga kommunikativ qobiliyatini rivojlanib borishiga sabab bo'ladi. Demak, umumiy

pedagogika sohasida podkastning bizga beradigan imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz:

*Talabalarga o'quv materiallarini yetqazib berish

*Talabalar tomonidan haqiqiy axborot olish

*Gapirilayotgan mavzuni ko'ra olish

*O'quv materialimizni ko'char qurilmalar orqali turli sharoitlarda foydalana olish

*Nafaqat til ko'nikmalarini, balki umumiy qobiliyatimizni ham oshirish.

Bundan shunday xulosa chiqib keladiki, hozirgi kunda chet tillarini o'rgatishda interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash keng tadbiiq qilinmoqda. Buning asosiy sababi oldinlari o'quvchilar va til o'rganuvchilar faqat bor, tayyor va yaratilgan bilimlardan foydalanishgan. Bu ularning bir qancha imkoniyatlarini cheklab qo'ygan. Endilikda zamonaviy metod va usullardan foydalanish o'quvchida o'rganayotgan predmetlarini o'zlari mustaqil qidira olish afzalligini beradi. Bu kabi o'rganish usullari fanda zamonaviy metodlar deb yuritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Chet tilini o'qitish metodologiyasida zamonaviy metodlar" – Zayniddin Sanaqulov .2021:5.723

2. Chet tilini o'qitish metodikasi" – J.Jalolov .2012:372.881.111.1

3. "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitish" – Tajibayev.G.Sh. 2019/ 1.1/

ANATOMIYA VA KLINIK ANATOMIYA FANLARINI O'RGANISHDA ZAMONAVIY O'QUV TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Ulug'bekova Gulrux Jo'rayevna

Andijon davlat tibbiyot instituti

Anatomiya va klinik anatomiya kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Adhamov Shohjahon Abdullajon o'g'li

Andijon davlat tibbiyot instituti pediatriya fakulteti 3-bosqich talabasi

Kirish. Respublikamiz sog'liqni saqlash tizimida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda va bu jarayonga barchamiz guvoh bo'lib turibmiz. Xususan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan " O'zbekiston tibbiyoti-inson qadri uchun " degan ulug'vor g'oyaning ilgari surilishi va ushbu g'oya asosida mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimi faoliyati samaradorligini yuksaltirish, yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Shu jumladan tibbiy oliy ta'lim tizimi

samaradorligini yanada yuksaltirish, mamlakatimiz tibbiyot oliy ta'lim muassasalarini jahonning ilg'or, yetakchi ta'lim muassasalari qatoriga qo'shish borasida qator say-harakatlar olib borilmoqda.

Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-maydagi PF-6221-sonli "Sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish to'g'risida"gi farmoni yo'l xaritasi doirasida oliy va o'rta maxsus tibbiy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari va rejalarini to'liq qayta ko'rib chiqish masalasi ilgari surildi.

Yuqoridagi aytib o'tilgan islohotlar tibbiy oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlashda zamonaviy, sifatli ta'lim berish usullarini yanada takomillashtirish zarurligini aks ettiradi. Bu esa tibbiyot oliy o'quv yurtlarida talabalarga ta'lim berish jarayonida ilg'or tibbiy pedagogik texnologiyalarni, metodlarni, yetakchi xorijiy davlatlarning samarali o'qitish usullarini amaliyotga tadbiiq etish va faol qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Shu qatorda preklinik (klinika oldi fanlari) va klinik fanlarni o'qitish jarayonida ushbu ishlarning o'rni muhimdir.

Jumladan anatomiya va klinik anatomiya fanlarini o'rganishda 3D formatdagi "Pirogov anatomik stoli", 3D, 4D "ANATOMAGE SMART TABLE", "SMART BOARD" kabi ilg'or innovatsion o'quv jihozlarining o'rni o'zgachadir.



1-rasm. "ANATOMAGE SMART TABLE".¹⁶²

¹⁶² Rasm <https://anatomage.com> internet saytidan olindi.



2-rasm. 3 D “ANATOMAGE SMART BOARD” o‘quv majmuasi.¹⁶³
MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xususan 3 D formatdagi “Pirogov anatomik stoli” anatomiya va klinik anatomiyani o‘rganish uchun qulay, innovatsion ishlanmadir. Ushbu o‘quv jihozida odam tana qismlari, organlari morfologik ko‘rinishi, tuzilishi, ularning turli anatomik sathlardagi tasviri berilgan. Shu bilan birga a‘zolarning mikroskopik va makroskopik tuzilishlarini ham o‘rganish mumkin. Anatomik tuzilmalar, a‘zolarning nomlari, ular haqidagi ma’lumotlar o‘zbek, ingliz va rus tillarida berilgan. Ushbu o‘quv majmuasida har bir ko‘rgazma rangli ya’ni organlarning rangi inson organlari rangi kabi tasvirlangan. Majmua visual ko‘rish effekti orqali anatomiyaning o‘rganuvchilarda to‘liq tushunchaga ega bo‘lishlarida yordam beradi.

Quyida 3 D Pirogov anatomik stolining modeli keltirilmoqda:

¹⁶³ Rasm <https://www.medicalexpo.com> internet saytidan olindi.



3-rasm. 3D interaktiv Pirogov anatomik stoli.¹⁶⁴

Shu kabi innovatsion o'quv jihozlaridan biri- "SMART TABLE" bo'lib, ushbu qurilma bir qancha afzalliklarga egadir. Qurilmada osteologiya, artrologiya, miologiya, splanxnologiya va nevrologiya kabi bo'limlar, ularning har birida tegishli a'zolar, anatomik tuzilmalar, ularning qismlari (ingliz tilida) berilgan. Ahamiyatlisi shundaki, odam ichki organlari sistemasining normal fiziologik funksiyalari haqida animatsion videolar va sxematik ko'rinishlari mavjud, ushbu videolar a'zolar haqidagi ma'lumotlarni audio holatda o'qib eshittirish imkoniyatiga ega. Umuman olganda ushbu "aqli stol" talabalarda anatomiya va boshqa preklinik fanlarini o'qitishda juda qo'l keladi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ana shunday zamonaviy o'quv texnologiyalarini amaliy mashg'ulot jarayonlariga keng jalb etish, talabalar bilan foydalanish, talabalarining ushbu texnologiyalarda mustaqil ishlashlari yuqori samara berishi yetakchi xorijiy mamlakatlar o'qitish tizimidagi yutuqlaridan ko'rinib turibdi.

Ushbu noan'anaviy o'quv texnologiyalarining samarasini an'anaviy uslublar bilan taqqoslash maqsadida Anatomiya va klinik anatomiya kafedrasida tahsil olayotgan pediatriya fakultetining 101-, 102- guruhlarida kuzatish, tadqiqot amaliyoti o'tkazildi:

101 "A" -guruh talabalarida amaliy mashg'ulotlar noan'anaviy tarzda ya'ni kafedrada mavjud bo'lgan "SMART TABLE" dan amaliy mashg'ulot jarayonlarida qo'llagan holda tashkil etildi.

102 "B" - guruh talabalarida esa amaliy mashg'ulotlar an'anaviy tarzda olib borildi.


¹⁶⁴ Rasm <http://nash-pirogov.ru> internet saytidan olindi.

Har ikkala eksperimentga jalb etilgan guruhlarda 5 ta amaliy mashg'ulot o'tkazildi. So'ng ushbu guruhlarda o'tilgan amaliy mashg'ulotlarga doir 3 bosqichda sinov aprobatsiyalari tashkil etildi.

Sinov eksperimentning 1-bosqichida o'tilgan amaliy mashg'ulotlar yuzasidan nazorat test sinovlari tashkil etildi.

Sinov aprobatsiyasining 2-bosqichida guruhlar o'rtasida "ziddiyatli masalalar" bo'yicha bellashuv o'tkazildi.

Sinov amaliyotining oxirgi 3-bosqichida guruhlar o'rtasida berilgan topshiriq bo'yicha "anatomik qismlarni nomlash" sinovi o'tkazildi. O'tkazilgan sinov aprobatsiyalari tahlil etilganda quyidagicha natijalar olindi. Quyida natijalar tahlilining sxematik ifodasi keltirilmoqda :



4-rasm. Tadqiqot natijalari (natijalar ballik tizimida ifodalangan).

Tahlil natijalariga ko'ra 1-bosqichda "A" guruh talabalari 12 ballga, 2-bosqichda esa 10 ballga va 3-bosqichda esa 15 ballga ustunlikka ega bo'lishdi. Umumiy tahlillarga ko'ra "A" guruh "B" guruhga nisbatan 37 ball farq bilan ustunlikka ega bo'lganliklari aniqlandi.

Xulosa. Yuqorida keltirib o'tilgan tahlil natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki, ushbu zamonaviy o'quv texnologiyalarini dars mashg'ulotlarida va talabalarining mustaqil ishlash jarayonlarida keng foydalanish, ularning sonini oshirish talabalarda, anatomiya va klinik anatomiya va boshqa tibbiy-biologik fanlarni o'rganuvchilarda keng tasavvurni shakllantirishda, o'quv -amaliy salohiyatini oshirishda yuqori samaradorlikka egadir.

Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-maydagi PF-6221-sonli "Sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish to'g'risida" gi farmoni.

2. <https://lex.uz>

3. <https://anatomage.com>

4. <https://www.medicalexpo.com>

5. <http://nash-pirogov.ru>

**БЎЛАЖАК ТЕХНОЛОГИК ТАЪЛИМИ ЎҚИТУВЧИЛАРИДА
ЗАМОНАВИЙ КАСБИЙ СИФАТЛАРНИ ВИРТУАЛ ТЕХНОЛОГИЯЛАР
ОРҚАЛИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН
ПЕДАГОГИК ВА ВИРТУАЛ ОМИЛЛАРИ**

Умрзақов Бехзот Бурунович

Кўқон ДПИ Миллий хунармандчилик ва амалий санъат факультети декани

Ўқитувчининг касбий-тарбиявий фаолияти ўзининг моҳият-этиборигамувофиқ маънавий-ахлоқий характерга эга. Шунга кўра, касбий тузилма асоси инсонпарварлик, ватанпарварлик, миллий ғурур, умуминсоний қадриятларга содиқлик ва меҳнатсеварлик мажмуидан иборат бўлиб, унинг қиёфаси ўқувчи-талабаларга, жамоага, ота-оналарга, мулкка, қонун-қоидаларга бўлган муносабатларида кўринади.

Сиртдан қараганда, ўқитувчининг касбий-тарбиявий фаолияти амалий йўл-йўриқлардан иборат бўлиб, ўқувчи-талабанинг хатти-ҳаракати, хулқ-атвори, муомала-муносабатларини миллий анъана ва қадриятлар негизда кузатиб, тартибга солиб ва бошқариб боришга қаратилгандек кўринади. Аммо шунчаки кузатиш, назорат ва тартиб ўрнатиш маънавий-ахлоқий негизга асосланилмаса, унинг таъсири ва самараси бўлмайди.

Шакллантирувчи экспериментга оид изланишларимиз, виртуал технологиянинг айнан мана шу жойдан бошланишини кўрсатади. Бунинг учун биз асосий этиборни узлуксиз таълим тизимида бўлажак ўқитувчиларни касбий фаолиятини такомиллаштиришнинг маънавий-ахлоқий асосларини ифода этувчи модел лойиҳасини тайёрлашга уриниб кўрдик. Олинган илмий маълумотларимизни таъкидловчи эксперимент якунида қўлга киритилган маълумотлар билан қиёслаганимизда қуйидаги тузилма шаклланди: касбий билимдонлик; кузатувчанлик; ўқувчи ва талабани тинглай олиш одоби; меҳрибонлик; яхшилик; саҳоватли; тил ва

дил бирлиги; кечиримли бўлиш.

Бўлажак ўқитувчи касб фаолияти мазмунини белгилловчи асосий омилларга: оила, маҳалла, Ёшлар Иттифоқи; маънавий-маърифий ишлар бўйича раҳбар ўринбосари (мудир, директор, ректор) ва бошқа жамоат ташкилотларини киритиш мумкин.

Таъкидловчи эксперимент жараёнида ҳар бир ўқитувчи ўзи дарс бераётган фанининг мазмунига маънавий-ахлоқий тарбия вазифаларини сингдириб бориши, яъни ҳар бир дарснинг тарбиявий мақсадини белгилашда фан моҳиятини ташкил қиладиган ғоялар, дунёқарашлар, ўқувчи-талабадан қандай шахсий ва касбий сифатлар ҳамда фазилатларни шакллантиришига эътибор қаратилиши лозим деган тўхтамга келинган эди. Чунки таълимий- тарбиявий мақсадлар уйғунлиги ривожлантирувчи мақсадда ўз эътирофини топиб, шахснинг ақлий камолоти, билиш қобилияти ҳамда маънавий-ахлоқий қиёфасининг шаклланишига ўз таъсирини кўрсатади. Таълимни тарбиядан ажратиб бўлмайдиган жиҳат ҳам мана шу жойда юзага чиқади. Шунинг учун ҳар қандай ўқитувчининг, айти пайтда, бўлажак ўқитувчи дейилишида унинг ақлий тарбия, яъни шахснинг ақлий камолоти билан шуғулланиши назарда тутилади.

Мақсадларни амалиёт даражасига олиб чиқиш ўқувчи-талабада мустақил ишлаш эҳтиёжини туғдиради. Таълим ўқитувчи ва ўқувчининг биргаликдаги фаолияти бўлиб, бу ўринда ўқитувчи ўқитади, билим беради дейилса, масаланинг моҳиятига анъанавий ёндашилган бўлади. Ўқитувчининг асосий вазифаси ўқувчи ва талабани мустақил билим олишга йўналтиради дейиш мақсадга мувофиқ бўлиб, замонавий педагогик технологияларнинг таълим жараёнига татбиқининг моҳияти мана шу жойда кўринади. Аммо “Доно халқимиз янги уй қурмай туриб, эскисини бузмасликни ўргатади” Юқорида таъкидлаб ўтилганидек, анъанавий педагогикадан воз кечилмаган ҳолда, унинг заминиде замонавий педагогик технологиялар татбиқини ривожлантириб бориш мақсадга мувофиқ эканлиги, тадқиқотга оид изланишлар жараёнида ўз эътирофини топди.

Ўз навбатида, шакллантирувчи экспериментга оид кузатувларимиз тарбия жараёни аниқ мақсадга йўналтирилган маънавий-ахлоқий кўникма ва малакаларни ривожлантириш асосида, шахснинг ҳис-туйғулари, онги, дунёқараши, характери ва маданиятини юксалтиришга қаратилишини кўрсатди. Бола ўз-ўзини тарбиялай олиш даражасига етгунча тарбия берилади. Сўнг “тарбия берилади”нинг ўрнига йўналтириш ишлари олиб борилади дейиш – давр талаби. Ҳамонки, тарбия амалиётида “тарбия бериш” ва “тарбия олиш” тушунчаларини бир-бири билан боғлаган ҳолда қўлланилмоқда. Анъанавий тарбия билан замонавий тарбияни бир-

биридан ажратиб турадиган ушбу чегара тобора инновацион ёндашувларга ўз ўрнини бўшатиб бермоқда, дейилса ўринли бўлади.

Касбий фаолият ҳам ўзаро боғлиқ бўлган “бўлажак ўқитувчи-ўқувчи, талаба” фаолиятини ўз ичига олади Педагог олим Х.И. Ибрагимов ва Ш.А. Абдуллаевалар тарбия жараёнини таълимдан қандай хусусиятларига кўра фарқ қилишини асослаб кўрсатганликлари тўғрисида тўхталиб ўтган эдик. Улар томонидан билдирилган тарбия жараёнининг хусусиятларини тўлиқ қабул қилган ҳолда, уларнинг тадқиқот ишида бўлажак ўқитувчиларни касбий фаолиятга тайёрлашнинг инновацион педагогик ва виртуал омилларини белгиловчи методика кўринишидан фойдаланиш зарур. Илмий-ижодий ёндашилса, бўлажак ўқитувчиларни касбий фаолиятини такомиллаштиришга оид омилларни шунчалик кўп кашф этиш мумкин. Юқорида кўриб ўтилганидек, умуминсоний тарбиянинг илғор ютуқларидан фойдаланиш виртуал технологиянинг янада такомиллашувига олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев, Шавкат Миромонович. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент : Ўзбекистон, 2017.

2. Мавлонова Р.А, Санакулов Х.Р, Ходиева Д.П, “Мехнат ва уни ўқитиш методикаси ” Ўқув қўлланма. 2007 йил.

3. О.А Қўйсинов, В.Н.Сатторов, Х.С. Якубова, Мехнат таълими, касб танлашга йўллашдан амалий машғулотларни ташкил этиш методикаси. Методик қўлланма. — Тошкент 2011 йил.

ЖАМИЯТДА ҲУҚУҚИЙ ОНГ ВА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШДА ҲУҚУҚИЙ ТАРҒИБОТ ТАДБИРЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ

Умурзакова Н.М.

Тошкент давлат аграр университети катта ўқитувчиси

Ҳуқуқий давлат, фуқаролик жамияти қуришнинг зарурий шarti – бу қонунларнинг сўзсиз бажарилишидир. Қонунларнинг бир хилда ва сўзсиз бажарилиши ҳуқуқшуносларимизнинг ўз вазифасига муносабати ва зиммасидаги маъсулиятни ҳис қилишга боғлиқдир¹⁶⁵.

¹⁶⁵ Рустамбоев М.Х. Жиноят ҳуқуқи (умумий қисм). Олий ўқув юртлари учун дарслик. –Тошкент: ТДЮИ. 2006. 34-6.

Мамлакатимизда ўсиб келаётган ёш авлодни тарбиялаш давлат сиёсати даражасига кўтарилган бир вақтда ёшларда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни янада юксалтириш, уларни қонунларга ҳурмат руҳида тарбиялаш мамлакатимиз олдида турган муҳим масалалардан биридир. Ҳуқуқий демократик давлат қуриш ва жамият тараққиётининг ривожини, ўсиб келаётган авлоднинг таълим даражасининг, ҳуқуқий саводхонлигининг юқорилигига боғлиқдир.

Мавзунинг долзарблиги. Бугунги кунда республикаимизда ҳуқуқий демократик давлат барпо этиш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш борасида ислохотлар амалга оширилмоқда. Ҳуқуқий демократик давлатнинг энг муҳим белгилари бўлган қонун устуворлигини таъминлаш ва юксак даражадаги ҳуқуқий онг ва маданиятга эга бўлган баркамол авлодни тарбиялаш – бу ислохотларнинг ўзагини ташкил этмоқда.

Ўзбекистон Республикасида ёшлар манфаатларини кўзлаган ҳолда амалга оширилаётган бу борадаги савобли ишлар ўз натижасини бериши учун, буюк аجدодларимиз ва келажак авлод, ота-боболар олдидаги бурчларни сидқидилдан бажариши учун –ўсиб келаётган ёш авлоддан юксак маънавият ва маърифатга эга бўлиш, тарихга нисбатан дахлдорлик ҳиссини сезиш ва албатта конституцион бурчни бажаришдек юксак масъулият талаб қилинади. Бу бурчларни бажариш нафақат ёшлар, балки жамиятнинг барча аъзоси учун ҳам фарз, ҳам қарзидир.

Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириб бориш қонун устуворлигини таъминлаш ва қонунийликни мустаҳкамлашнинг энг муҳим шартларидан бири ҳисобланади.

Сўнгги йилларда миллий ҳуқуқ тизимини тубдан ислоҳ қилиш, жамиятда ҳуқуқий маданиятни шакллантириш ҳамда малакали юридик кадрларни тайёрлаш борасида сезиларли ишлар амалга оширилди.

Жамиятнинг ҳар бир аъзоси ўз ҳуқуқ ва бурчларини ҳамда масъулиятини пухта билиши, буни ҳаётий эҳтиёж сифатида англамоғи лозим. Фуқароларимизнинг дунёқараши, тафаккури мамлакат ҳаётига, янгилашларга мос равишда ўзгариб бориши ҳуқуқий маданият тушунчаси билан чамбарчас боғлиқдир.

Президентимиз томонидан 2019 йил 9 январда қабул қилинган “Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-5618-сон фармони мазкур йўналишда олдимизда турган муҳим вазифаларни белгилаб берган муҳим ҳужжат бўлди.

Фармонда мазкур йўналишдаги мавжуд камчиликлар бирма-бир кўрсатиб берилгани унинг аҳамиятли жиҳати саналади. Ҳужжатда қайд этилганидек, бугунги кунда аҳолида қонунларга ва одоб-ахлоқ

қоидаларига ҳурмат, ҳуқуқбузарликларга нисбатан мурасасизлик ҳиссини уйғотиш ишига комплекс ёндашилапти, деб айта олмаймиз. Шахсий манфаатлар ва жамият манфаатлари ўртасидаги мувозанатни сақлаш ғояларини аҳоли онгига сингдириш ишлари етарли эмаслиги — қонун устуворлигини таъминлашга салбий таъсир этмоқда. Сўнгги вақтларда республикамизнинг турли ҳудудларида баъзан мансабдор шахслар томонидан фуқароларнинг ҳуқуқлари камситилишига оид ҳолатлар ҳақида глобал ахборот тармоғида мақолалар берилаётганлиги кузатилади. Бу салбий ҳолатларнинг асл сабаби фуқароларда ҳуқуқий билим етишмаслигига бориб тақалади¹⁶⁶.

Бундан ташқари, ҳуқуқий маданиятни юксалтиришда ёшлар қатлами билан олиб борилаётган ҳуқуқий таълим ва тарбия борасидаги ишлар ҳам тизимли ва узвий олиб борилмаяпти. Бу масала узоқ йиллар давомида ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ва таълим муассасаларининг иши сифатида қараб келиниб, бунда оила, маҳалла ва фуқаролик жамияти институтларининг иштироки етарлича таъминланмаган. Очиғини айтганда, тарғибот тадбирларида кўпинча самарасиз семинар, давра суҳбатлари ва шу каби учрашувларни ташкил этиш билан чекланиб қолинмоқда, тарғибот жараёнида инновацион усуллардан етарлича фойдаланилмаётгани аён бўлмоқда. Бу эса жамиятимиз тараққиётига ўзининг салбий таъсирини кўрсатмоқда. Ёшларнинг ҳуқуқий тарбиясига салбий таъсир кўрсатувчи омилларга нисбатан ҳуқуқий иммунитетни шакллантириш, ҳар бир шахсда қонунларга ва одоб-ахлоқ қоидаларига ҳурмат, миллий қадриятларга садоқат, ҳуқуқбузарликларга нисбатан мурасасизлик ҳиссини уйғотиш ишига комплекс тарзда ёндашилмаяпти.

Шулардан келиб чиқиб, фармонда жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтиришнинг асосий вазифалари белгилаб берилди.

Таъкидлаш лозимки, ҳуқуқий маданият кишиларнинг ҳуқуқий саводхонлик даражаси, қонунларга бўлган ҳурмати, ҳуқуқий нормаларни ижро этиши, ҳаётга татбиқ эта олиш кўникмаси, ҳуқуқбузарликларга нисбатан мурасасизлик, қонунларга итоаткорлик, ҳуқуқий фаоллик ҳамда ташаббускорлигини англатади. Жамият аъзоларининг юксак ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданияти жамиятимиз тараққиётини таъминлайди.

Ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданият савияси қабул қилинган қонунлар

¹⁶⁶ “Ҳуқуқий онг юксалса, жамият тараққиётига йўл очилади”- Ф.Эшонқулов / “Адолат” ижтимоий сиёсий газетаси №7 /2019

сони билан эмас, балки ушбу қонунларнинг тўлиқ ижро этилиши билан белгиланади. Ушбу муҳим ишда одамларда қонунларга ва норматив ҳужжатларга нисбатан ҳурмат ҳиссини тарбиялаш алоҳида аҳамиятга эга. Айни шу мезонлардан келиб чиқиб, фармонда фуқаролар онгида “Жамиятда қонунларга ҳурмат руҳини қарор топтириш — демократик ҳуқуқий давлат қуришнинг гаровидир!” деган ҳаётий ғояни мустаҳкамлаш, аҳолига мамлакатимизда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислоҳотлар, қабул қилинаётган қонун ҳужжатлари ва давлат дастурларининг мазмун-моҳиятини изчил етказиш тизимини шакллантириш бирламчи вазифалардан эканлиги таъкидланади.

Фуқароларнинг ҳуқуқий саводхонлигини таъминлашда оммавий ахборот воситаларининг роли жуда муҳим. Шу боис миллий медиа маконда ҳуқуқий мавзулардаги рукнларга эътиборни янада кучайтириш, аҳоли ўртасида кўпроқ кўтарилаётган муаммоларни даврий нашрлар саҳифаларида, телевидение ва радио эшиттиришларида тушунтириб бориш зарур. Фармон билан ушбу йўналишда оммавий ахборот воситаларининг ҳуқуқий ахборот билан таъминлашдаги ролини ошириш, ҳуқуқий тарғиботнинг инновацион усулларида кенг фойдаланиш, шу жумладан, веб-технологияларни қўллашни кенгайтиришга доир вазифаларнинг белгиланиши айни муддаодир.

“Юксак ҳуқуқий маданият — мамлакат тараққиёти кафолати” деган концептуал ғоя асосида аҳолининг барча қатламлари ҳуқуқий саводхонликка эришишлари, юксак даражадаги ҳуқуқий онгга эга бўлишлари ҳамда ҳуқуқий билимларини кундалик ҳаётда қўллай олишлари учун тизимли ва кенг қамровли ҳуқуқий тарғибот тадбирларини ташкил қилиш давлат органлари ва ташкилотларнинг устувор вазифаларидан бири ҳисобланади.

Жумладан, биз жамиятда ҳуқуқий маданиятни шакллантириш ва ривожлантириш, мамлакатимизда ҳуқуқий таълим ва билимлар тарғиботини тубдан яхшилаш, қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ижрочиларга етказиш, аҳолини қабул қилинаётган қонунларнинг мақсади, мазмун-моҳиятидан кенг хабардор этиб боришга йўналтирилган мақсадли чора-тадбирларни қўллаб-қувватлаймиз. Зеро, фақат эркин, ўз ҳуқуқ ва мажбуриятларини биладиган, қонун ва амалдаги тартиб-қоидаларни ҳурмат қиладиган фуқаро ўз ҳуқуқларидан тўлалигича фойдалана олади.

Шу ўринда бир мулоҳазани айтиб ўтиш жоиз деб ўйлайман. Бугунги кунда қонунларимизни оддий халқ тушунадиган даражада содда тилда ишлаб чиқиш масаласи ҳам долзарб бўлиб турибди. Қонун лойиҳаларини ўзбек тилида тайёрлаб, кейинчалик рус тилига ўгириш мақсадга

мувофиқдир. Амалиётда эса бир қатор қонун лойиҳалари рус тилида тайёрланиб, сўнгра ўзбек тилига ўгирилиши оқибатида ундаги айрим жумлалар ғализ ва тушунарсиз бўлиб қолмоқда.

Қолаверса, қонун ҳужжатларини аҳолига етказадиган веб-сайтлар номи ҳам ўзбек тилида, қисқа жумлада ифодаланса, мақсадга мувофиқ бўлар эди. Масалан, ҳозир амалдаги Ўзбекистон Республикаси норматив ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари муҳокамаси портали — www.regulation.gov.uz номи балки мутахассислар учун, зиёлилар учун тушунарлидир, аммо оддий фуқаролар учун эса қоларли, дейиш қийин. Ўзбекистон аҳолисининг асосий қисми ўзбек тилида сўзлашишини инобатга олган ҳолда бу каби оммавий интерактив порталлар ўзбекча номланса, улар барчага тушунарли бўлади, деган фикрдамиз.

Шу жумладан, Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш концепциясига биноан ташкил этилган аҳолига бепул маслаҳат бериш порталини ўз ичига олган ҳуқуқий ахборот тизими номини (Advice.uz) ҳам ўзбек тилида номлаш айти муддао бўлар эди. Бу борада [Mening fikrim](http://Meningfikrim) — Жамоавий мурожаатлар портали (www.meningfikrim.uz) номи аҳолининг кенг қатлами, айтиқса, ёшлар орасида кенг оммалашгани мисол бўла олади. Шундай экан, ўзбек тилидаги веб-сайтлар номининг инглизча бўлишига асло ҳожат йўқ. Бошқача айтганда, ушбу сайтларда ҳуқуқий мавзуда берилган ахборот, тушунтиришларни кўпчиликнинг ўқиши маълум даражада ана шу омил билан ҳам боғлиқдир.

Хулоса қилиб айтганда, фармонда белгилаб берилган жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш борасидаги муҳим йўналиш ва вазифаларни ўз вақтида амалга ошириш биз, ҳуқуқшунос ва зиёлилардан масъулият ва фидойиликни талаб этади. Зеро, давлатимиз раҳбари таъкидлаганидек, “Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш — юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гаровидир”.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси- Т: “Ўзбекистон” нашриёти-1992 йил.
2. “Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-5618-сон фармони 2019 йил 9 январ
3. “Ҳуқуқий онг юксалса, жамият тараққиётига йўл очилади”- Ф.Эшонкулов / “Адолат” ижтимоий сиёсий газетаси №7 /2019

ИЖТИМОЙ БИЛИШДА НИЗОМИЙ АРУЗИЙ САМАРҚАНДИЙНИНГ ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРИ

Усманов Ж.Б.

Тошкент кимё-технология институти Янгиер филиали катта ўқитувчиси

Ҳозирги давр ижтимоий тараққиёт жараёнида жамиятни илмий билиш ва бошқариш унда содир бўлаётган жараёнлар тараққиётнинг оқибатларини олдиндан кўра билиш ниҳоятда катта аҳамият касб этади.

Маълумки ҳар бир бир фан инсон билмлари системасида бошқа фанлар эгаллай олмайдиган, бошқа фанлардан кам бўлмаган маълум ўринни эгаллайди.

Илмий билимлар, фаннинг қонун ва категориялари ўз – ўзидан, гумон ва фразаларнинг мажмуаси сифатида эмас, балки инсоннинг амалий эҳтиёжи, ишлаб чиқариш ва ижтимоий практиканинг талаблари асосида юзага келади ва такомиллашиб боради.

Низомий Арузий Самарқандий бу борада “Инсон олами билишда мантиқ илмини чуқур зеҳн билан илғамоқ даркордир, зеро у оламдаги ҳар бир масалага тўғри хулоса билан ёндашур”¹⁶⁷ деб ёзади.

Ҳар қандай илмий билим, назарий қоидалар инсон амалиётининг натижаларини умумлаштириш ва акс эттириш сифатида шаклланиб боради. Амалиёт инсон назарий билимининг асоси ва ҳаракатлантирувчи кучи ҳисобланади.

Табиий ва ижтимоий ҳодисаларни ўрганадиган йўналишлар қанчалик кўп ва хилма хил бўлмасин, улар ҳеч қачон бирининг ўрнини иккинчиси эгаллай олмайди, бошқача қилиб айтганда ҳар бир фан ўз ўрнида керак ва зарур, чунки бир фан томонидан ҳал этилиши лозим бўлган масалани бошқача уддалай олмайди.

Шундай экан ижтимоий ҳаёт ҳодисаларини, қонунларини ўрганувчи бир қанча ўнлаб фанлар тизимида фалсафа қандай ўрин тутаети. Улардан нимаси билан фарқ қилади ва бу фаннинг асосий хусусиятлари нима билан белгиланади деган масала ўз ўзидан юзага келади.

Фалсафанинг асосий масалаларидан ва вазифаларидан бири инсоният жамияти ривожланишининг умумий қонуниятларини очиб беришдан, жамият тараққиёти реал омилларга боғлиқлиги яъни моддий ишлаб чиқариш охир оқибатда жамият тараққиётининг асоси эканлигини кўрсатиб беришдир.

¹⁶⁷ Низами Арузии Самарқандии. Собрание редкостей., М: 1968 г.

Фалсафа инсоният жамияти ҳақидаги конкрет фанлар берган билимларни назарий асосда умумлаштиради ва тизимлаштириб боради. Инсон дунёқарашининг такомиллашишини фан кашфиётлари асосида фалсафий умумлаштириш йўлидан боради.

Кишилик жамиятни, ижтимоий ишлаб чиқаришни, моддий ҳаёт ривожланишини ўрганувчи ижтимоий фанлар юқорида таъкидлаганимиздек хилма хилдир. Бунга иқтисодиёт, тарих, педагогика, ҳуқуқшунослик, ахлоқ, эстетика, диншунослик ва бошқа фанларни кўрсатишимиз мумкин. Бу фанлардан ҳар бири ижтимоий ҳаётнинг бирор бир конкрет томонини ўрганади ва шу асосида жамият ва унинг тараққиёти тўғрисида умумназарий ва конкрет билимлар ҳосил қилади.

Низомий Арузий Самарқандий “Инсон жамиятнинг аъзоси сифатида салтанат аъзолари дабир каби қанчалик фаол фикрласа у мамлакат ривожини учун ҳиссадордир” деб таъкидлайди¹⁶⁸.

Жамият ва унинг тарққиётини тўғри фалсафий таҳлил қилиш, билиш учун, энг аввало жамиятнинг ўзи нима деган саволга жавоб бериш лозим.

Маълумки ҳар қандай фалсафий мулоҳазага кўра, воқеаликдаги барча нарса йўқ жойдан заминсиз пайдо бўлмайди. Илмий фалсафага кўра кишилик жамияти ва инсон табиат эволюциясининг қонуний тарққиёти натижаси эканлигини илм аҳли ичида аксирият томонидан мақулланган. Бу деган сўз аввало табиат ва жамият ўзаро диалектик боғлиқликда ва бир бирини тақозо қилиб туради демакдир. Бошқача қилиб айтганда табиий ҳодисалар ва жараёнларда бўлганидек ижтимоий муносабатларда, кишилик жамиятида содир бўладиган ўзгариш ва ривожланишлар ўзининг мазмуни моҳияти ва табиатига кўра, қонуний жараёнлардан иборатдир.

DARS JARAYONIDA LOYIHA METODIDAN FOYDALANISH HAMDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRUVCHI VA ADABIY-NUTQIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITA SIFATIDA

O'smanova Diloromxon Ziyodinovna

Andijon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Shiddat bilan rivojlanayotgan har bir soha uchun yangilanish va rivojlanish juda muhim jarayon hisoblanadi. Shu jumladan ta'lim sohasi uchun ham. Turli yo'llarni bosib o'tgan bu soha eng muhim o'zgarishlarni boshdan kechirdi.

Bu soha nima uchun o'zgarishi va yangilanishi kerak?

¹⁶⁸ Низомий Арузий Самарқандий. Чаҳор мақола. 1963 й.

Unda qanday muammolar hamda yechimini topishi lozim bo'lgan masalalar bor?

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev aytganidek, keng islohotlar birinchilardan maktablardan ya'ni ta'lim muassasalardan boshlanishini takidlagani bejiz emas. Bunday o'zgarishlar birinchi navbatta o'sib kelayotgan bolalarda bo'ladi. Tabiiyki oddiylik, an'anaviylik va bir xillik ularni zeriktiradi. Ayniqsa axborotlar zamonida ular yangiliklarga intilib yashashi bu tabiiy holdir.

Ma'lumki, o'quvchilar turlicha, ularga ta'lim berish bir xil texnologiya asosida amalga oshiriladi, bizga ma'lumki bu an'anaviy ta'lim ko'rinishlari hisoblanadi. Uni noan'anaviy bo'lishi uchun aksi, ya'ni turli metod va texnologiyalarni qo'llash va o'quvchilarni bir xil dunyoqarash hamda bilim olishiga erishdir.

Buning uchun bizga ko'plab innovatsion texnologiyalar qo'l keladi. Bulardan biri loyiha metodidir.

“Loyiha” metodi - bu ta'lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborot yig'ish, tadqiqot o'tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta'lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhiy bo'lishi mumkin, lekin har bir loyiha o'quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir.

Loyiha metodining kelib chiqish tarixini ko'radigan bo'lsak, XX asr boshlarida Djon Dyui tomonidan ilgari surilgan. Kolumbiya universitetining professori Uilyam Xerd Killpatrik – professor, pedagog bu texnologiyalarni yanada shakllantirish masalasini ilgari suradi.

Loyihalashtirish- (“loyiha” so'zidan)- real natijaga olib boruvchi, qat'iy tartibga solingan harakatlar izchilligini o'z ichiga oluvchi faoliyatni anglatadi.


O'quv loyihasi esa, o'qituvchi tomonidan maqsadli ravishda talabanning ma'lum vazifani bajarish bo'yicha faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishdan to maxsulotni (intellectual yoki moddiy mahsulotni) ommaviy baholash uchun taqdim etishgacha bo'lgan mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus (labaratoriya sharoyitida) o'quv faoliyatidir.

O'quv loyihaviy faoliyatning protsessual tuzilmasi ya'ni davomiyligi 3 bosqich bo'lib, birinchi bosqich-tayyorlov: “rejalashtirish” fazasi, ikkinchi bosqich- loyihani bajarish, uchinchi bosqich- yakuniy: taqdimot, himoya, baholash, refleksiya kabilarni o'z ichiga oladi.

O'quv loyihasi uslubiy pasportining tuzilishi quyidagilardan iborat: pedagogik annotatsiya, loyiha topshirig'i, talabalarga uslubiy ko'rsatmalar va loyihali ta'limning texnologik xaritasi.

Pedagogik annatatsiyaga alohida to'xtalib o'tadigan bo'lsak unda: o'quv mavzusi belgilanadi, qatnashchilar aniqlanadi, ta'limning maqsadi belgilanadi,

rejalashtiriladigan o'quv natijalari ko'rsatiladi, o'quv predmeti aniqlanadi, o'quvchilar loyihani muvoffaqiyadli hal etish uchun egallashi lozim bo'lgan oldingi bilim va ko'nikmalar ro'yxati shakllantiriladi, loyihaning turlanish belgilariga ko'ra tavsifnomasi ishlab chiqariladi (loyihaning davomiyligi: qisqa, o'rta va uzoq muddatli, bundan tashqari ishtirokchilar soni: alohida yoki guruh bo'lib o'tkazilishi), loyihani bajarish tartibi va loyihaning baholash darajasi belgilanadi, loyihaviy ta'limni tashkil etish bosqichlari belgilanadi va ta'lim modelining qisqacha tavsifnomasi ishlab chiqiladi. Masalan, "Loyiha" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:



Innovatsion texnologiyalarga boy bo'lgan hozirgi kundagi ta'lim jarayonida muhandis-pedagog "Loyiha" metodini qo'llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni ta'lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta'minlanishi muhim masalalardan biridir. Shuni ta'kidlab ayta olamanki, hozirgi zamon o'quvchisi dars jarayonida shunchaki tinglovchi emas, balki asosiy rolda bo'lish kerakligini o'zimis ham ko'rib turibmiz. Bu degani ta'lim beruvchi "rejissiyor", ta'lim oluvchi esa "aktiyor" vazifasini bajarishi va bugungi kun talabi ekanidan dalolatdir.

Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:

1. M.Xoshimova. "Ta'limda loyihalar bilan ishlash" o'quv moduli slaydi, T.: Avloniy nomidagi XTXQTMOHM. 2020.
2. T.G'afforova. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, O'quv qo'llanma. -T.: Tafakkur, 2011.

BROKKOLI KARAMIDA SUYUQ SUSPENZIYALI O'G'IT QO'LLANILGANDA VEGETATSIYA DAVOMIDA O'ZLASHTIRILGAN NPK MIQDORI

Usmanova Yu.

O'zbekiston Milliy universiteti magistri

Ergasheva O.

O'zbekiston Milliy universiteti, b.f.f.d., dots.v.b.

Birlashgan millatlar tashkilotining oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining (FAO) 2021- yil statistik ma'lumotlarida keltirilishicha dunyo bo'yicha jami 1 128 mln.tonna sabzavot ekinlari yetishtirilgan bo'lib, shundan 67,68 mln.t (6%) karam ekiniga to'g'ri keladi [5]. Karamdoshlar oilasi ekinini ichida eng ozuqaga boy, sifatli sabzavot ekinini brokkoli hisoblanib, dunyo bo'yicha bunga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Respublikamizda ham bu borada bir qator qaror va farmoshiylarda «... mamlakat aholisiga sifatli va kafolatli qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash... » muhim ekanligi va uning ijrosi ta'minlanishi ko'zda tutilgan [1]. Hozirgi kunda sabzavot ekinlarini o'g'itlashda an'anaviy mineral o'g'itlardan ko'ra suyuq suspenziyalardan foydalanish har jihatdan qulay, isrofgarchiliksiz, o'simlikka oziq elementlarni kompleks holatda berish imkoniyati hamda yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega ekanligi sabab fermer xo'jaliklar ko'p klasterlarida ekinlarni oziqlantirishda suyuq suspenziyalardan foydalanilmoqda.

Ma'lumki brokkoli karamini to'g'ridan-to'g'ri urug'ini tuproqqa sepib yetishtirish mumkin, lekin ko'chat ekish ma'qulroq, erta ekish 5-6 bargli yoshda, kechki – 4-5 bargli yoshda bo'lgani yaxshi. Ko'chat yetishtirish va uni dalaga ekish uchun urug' sepish muddati hamma joyda bir xil emas, bu iqlim sharoiti, navning vegetatsiya davri, mahsulotning foydalanish vazifasigi bog'liq.(Hill D.E.,1984, Belverli R., 1986, Dementyev Yu.N., 1988, Vibe G.I., 2000, Razumkov G.A., 2009, Kotsareva T.N., 2011), buni hisobga olganda issiqxona sharoitida yetishtirish maqsadga muvofiq bo'ladi [2]. Brokkoli yangi sabzavot ekinlari bo'lishiga qaramay, bu davrda 10 ga yaqin geterozigotali duragaylar davlat reestriga kiritilgan. Jumladan, Naxos F1 2015 yil davlat reestriga kiritilgan. Bundan tashqari, brokkolining Parthenon F1 duragaylari O'zbekistonda davlat reestriga kiritilmagan bo'lsada, yer egalari va fermerlar tomonidan yetishtirilib yuqori hosil olinmoqda [6].

Tadqiqot uchun brokkoli karamining uchta Chronos F1, Parthenon F1 va Naxos F1 duragaylari tanlab olindi. Tadqiqot bo'z tuproqlar zonasining sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarida o'tlazildi. Tajriba maydoni hududi tuprog'i sug'oriladigan tipik bo'z tuproq, o'rta qumoq, tekshirishlar natijasida o'rtacha

hisoblanganda gumus bilan 2,08% (yuqori), umumiy azot 0,16%, umumiy fosfor 0,26%, umumiy kaliy 1,6% va azot, fosfor va kaliyning tuproqdagi harakatchan miqdori mos ravishda azot N 24,3 mg/kg (past), P₂O₅ 59,8 mg/kg (yuqori) va K₂O bilan 238,2 mg/kg (o'rtacha) ta'minlanganligini ko'rsatdi. Tadqiqot hududidagi tuproqning gumus holati yuqori ekanligining sababi yillar davomida o'simlik qoldiqlari tadqiqot hududiga tashlangani va mahalliy go'ng qo'llanilgani hisobiga shu natijani ko'rsatdi [3]. Harakatchan fosfor bilan ham yuqori ta'minlanganiga izoh sifatida, tadqiqot maydoniga o'tmishdosh ekin sifatida sabzavot ekinlaridan shirin qalampir, baqlajon, ko'katlar, salat bargi sarimsoq piyoz ekilgan va azotli va fosforli mineral o'g'itlar qo'llanilgan.

Dastlab issiqxona sharoitida urug'lar 2022-yilning 1-yanvarida ko'chatlik uchun ekildi va 2 oy muddat ichida tayyor bo'ldi. 2022- yilning fevral oyida yer ko'chatlarni o'tkazish uchun tayyorlandi. 2022-yilning 5-mart sanasida ko'chatlar tajriba maydoniga o'tqazildi. Bunda tajriba maydoni variantlarga (nazorat, organik o'g'it hamda mineral o'g'it) bo'lib chiqildi. Qator oralariga tomchilatib sug'orish tizimi ham o'rnatib chiqildi. Bunda qator oralari 40x40 sm, tomchilatib sug'orish shlangalari har biri agatlarda bir-biridan 80 sm uzoqlikda joylashga bo'lib, tomchilatib sug'orish shlangasidagi suv tomadigan teshikchalari orasi 20 sm ni tashkil qildi. Ko'chatlar orasi esa 30 sm ni tashkil etdi. Dastlab yosh ko'chatlar 2 hafta mobaynida tomchilatib sug'orish tizimida har kuni sug'orib turildi va shu vaqt oralig'ida ko'chatlar fenologik kuzatuv nazoratiga olindi. Biz tadqiqotimizda yosh brokkoli ko'chatlarni o'g'itlashda mineral o'g'itlarni kompleks holda variant bo'yicha (IFO KALIFOS, IFO- UAN 32) suyuq suspenziya shaklida ham ildizdan ham bargdan oziqlantirish orqali qo'llanildi (1-rasm).



1-rasm. Brokkoli karamida suyuq suspenziya o'g'itini qo'llash.

Mineral o'g'itlar suyuq suspenziya holatida tomchilatib sug'orish tizimida va yaproqdan purkash orqali berildi. IFO KALIFOS tomchilatib sug'orishda 3-4 l/ga, yaproqdan purkash yo'li bilan 2 l/ga vegetatsiya davomida 4 marta qo'llanildi, IFO UAN-32 tomchilatib sug'orishda 30 l/ga har 7 kunda 4-marta berildi. IFO KALIFOS suyuq suspenziya o'g'iti tarkibida 10,2% suvda eruvchan fosfor, 25% kaliy vegetatsiya davomida o'simlikning gullashi hamda meva tugishida muhim ahamiyatga ega bo'lib o'simlikning turli davrlarida oson o'zlashtiriladi, bundan


tashqari tarkibida 0,6% suvda eruvchan bor va 0,1% rux mikroelementi borligi, o'simliklarning normal o'sishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan muhim mikroelement sifatida xizmat qiladi. IFO UAN-32 tarkibida 32% umumiy azot mavjudligi, shundan 16% karbamid azoti, 8% ammoniy azoti va 8% nitrat azotidan iborat. Bu esa o'simlik tomonidan oson o'zlashtirishini imkonini beradi [4].

Chronos F1 duragayi hosili 2022-yilning aprel oyi oxirida pishdi, sababi bu nav xususiyatiga ko'ra ertapishar duragay, bo'yi past va boshchasi kam vaznga ega hisoblanadi. Parthenon F1 bilan Naxos F1 duragayini hosili may oyi o'rtalarida bir-biridan 7-10 kun farqi bilan yig'ishtirib olindi (2-rasm). Chronos F1 duragayi mineral o'g'it variantida boshchasi og'irligi 188,91 gr, Parthenon F1 og'irligi esa 1350 gr va Naxos F1 765 gr natijani ko'rsatdi. Parthenon F1 asosan mahsulotlarni saqlash, muzlatish va qayta ishlashga tavsiya etiladi. Naxos F1 duragayi boshchalar diametri va og'irligi jihatidan jahon standartlariga mos kelganligi sababli olimlar tomonidan eksportbop mahsulot sifatida tavsiya berilgan.



2-rasm. **Chronos F1, Parthenon F1 va Naxos F1 hosili**

Har bir o'simlikdan yuqori hosil olishda kerakli avvalambor zarur oziq elementlar bilan ta'minlanishi zarur. Tuproqda azotning umumiy va harakatchan miqdorlari deyarli bir xil muvozanatda bo'lmaydi, bu moneliklar tufayli o'simlikni azotga bo'lgan talabini mineral o'g'itlar hisobiga ta'minlash mumkin. Tadqiqotimizda mineral o'g'it sifatida qo'llanilgan kompleks NPK li suyuq suspenziyali o'g'it ta'sirida duragaylarda har xil natijalar olindi (1-diagramma).



1-diagramma. Brokkoli karamining butun vegetatsiya davomida o'zlashtirilgan umumiy NPK miqdori, %

Fosforni tuproqdan o'simlik mineral holatda gidro, digidrofosfat tuzlar ko'rinishida hamda harakatchan holatda oladi. Uch asosli tuz holatdagi fosfor o'zlashtirmaydi. Shuningdek fosfor tuproqda kam harakatchan hisoblanadi, bu monelik tufayli o'simlikka fosforni mineral o'g'itlar holatiga berilganda to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtiradi. Fosfor azotli va kaliyli o'g'itlarni ham o'zlashtirishini ham oshiradi. O'simlikni kaliy bilan ta'minlanishi ham tuproqdagi harakatchan kaliy miqdori bilan ham bog'liq. Kaliy tuproqda yaxshi ta'minlangan bo'lishiga qaramay, tuproqdagi kalsiy kationi (Ca^{+2}) uni o'zlashtirilishiga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun ham kaliyli o'g'it solinganda o'simlik o'g'itdan ham tuproqdan ham kaliyni yaxshi o'zlashtiradi.

Hosil yig'ishtirib olingandan so'ng, o'simlik 1 oy davomida quritilib, laboratoriya sharoitida o'simlik tarkibidagi azot, fosfor, kaliy (K.Ginzburg, G.Shmeglova va Ye.Vulfius usulida) aniqlandi. Azot elementini eng yaxshi o'zlashtirgan duragay sifatida 1-Naxos F1, 2-Chronos F1, fosfor elementini esa 1-Chronos F1, 2-Naxos F1, kaliy elementini o'zlashtirishi bo'yicha 1-Naxos F1, 2-Chronos F1 shu tarzda natija ko'rsatdi. Parthenon F1 da NPK miqdori kam chiqdi.

Xulosa. Qo'llanilgan kompleks NPK li suyuq suspenziyali o'g'it hisobiga nazorat va organik o'g'it variantiga nisbatan brokkoli karami duragaylarida Naxos F1 va Chronos F1 da umumiy azot, fosfor va kaliyning ko'rsatkichlari yuqori ekanligi va bu kompleks o'g'itda oz miqdorda bor (B) va rux (Zn) mikroelementi mavjudligi azot, fosfor va kaliyni yaxshi o'zlashtirishini ta'minlagan. Bu esa suyuq suspenziyali o'g'itni hisobiga oziq elementlarning o'zlashtirilishida yuqori samaradorlik va afzallik ega ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2-noyabrdagi PQ-413-son qarori.
2. Boltayev M.A. Takroriy ekish muddatlarida brokkoli karamini yetishtirish texnologiyasining asosiy elementlari. Avtorefrat, –Toshkent, 2019, –B. 6-19.
3. Ergasheva O.X., Maxammadiyev S.Q., Usmanova Yu.A. Issiqxona sharoitida o'g'it qo'llashning brokkoli karami hosildorligiga ta'siri. "O'zbekiston Agrar habarnomasi". –Toshkent, № 1 (7) 2023, –B. 76-79.
4. Ergasheva O.X., Usmanova Yu.A. Issiqxona sharoitida brokkoli karamida organik va mineral o'g'it qo'llashning duragay xususiyatiga ta'siri. "Xorazm Ma'mun Akademiyasi habarnomasi", jurnal. –Xorazm, № -3-1/2023, –B. 100-103.
5. FAO – 2021 yilnomasi. –B. -12.
6. Qahhorov S.Q., Nurmatov Sh.Sh. va Sanayev S.T. The selection of auspicious cultivar and hybrid broccoli. "Ares" jurnal, –Toshkent, 2022. –№3/1, –B. 114-115.

TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR

O'tayev Akram

CHDPU pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi Muqaddimasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik belgilab qo'yilgan. Bu norma mamlakatimizda ta'lim va tarbiya huquqining asosini tashkil etadi. Unga ko'ra, milliy qadriyatlar bilim olish, tarbiyalanish va hayotiy ko'nikmalar huquqlarini ifodalaydi. Umuminsoniy qadriyatlar esa ta'lim oluvchilarni siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarni o'zida mujassam etadi. Shu sababli bu huquqlar majmui pedagogik kadrlar tomonidan ta'lim oluvchilarga tushuntirilishi, izohlab berilishi va ularga mazkur huquqlar bo'yicha ko'nikmalar shakllantirilishi taqozga etiladi. Xorijiy tajribalarning konstitutsiyani pedagogik o'zlashtirish jarayoni shuni ko'rsatadiki, har bir mamlakat o'zining konstitutsiyasida ifodalangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un o'zlashtiradi. Bunda milliy qadriyatlar shu xalqning ta'lim va tarbiya uchun odatlari, an'analari hamda mentaliteti sifatida qabul qilinadi, shu sababli har bir mamlakatda milliy qadriyatlar bo'yicha farqlanishlar ko'zga tashlanadi, mamlakatlarning o'z konstitutsiyasini pedagogik o'zlashtirishda umuminsoniy qadriyatlar negizini insoniyatning yutuqlari, orzu-umidlari va Yer sharida birgalikda yashash ideallari tashkil qiladi. Shu jihatdan xalqimizning milliy qadriyatlari asosida yangi konstitutsiyamiz o'zlashtirilishi va bunda umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashtirilishi ta'lim oluvchilarning bilimi, ongi va dunyoqarashini hozirgi zamon talablari asosida tarkib toptirish imkonini

beradi. Aynan shaxsning mazkur ko'nikmalari konstitutsiyada ifodalangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarda o'z ifodasini topgan bo'ladi. Shu jihatdan yangi O'zbekiston konstitutsiyasini o'zlashtirish va targ'ibot etishda mazkur masalalar hisobga olinishi kerak.

Konstitutsiyamizning yangi tahririda har bir inson o'z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga egaligi belgilangan. Bunda ta'lim oluvchilar ikki jihatdan o'z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga ega bo'ladi: birinchisi, mustaqil harakat vositasida kamolotga erishish; ikkinchisi, ta'lim va tarbiya vositasida erkin kamol topish. Bunday imkoniyatlar ta'lim oluvchilarga erkinlik, kamolot, ijtimoiy axloq asoslarini o'zlashtirish va o'zining qonuniy manfaatlariga erishish huquqlarini beradi. Shu sababli ta'lim oluvchilar o'qish, izlanish va mustaqil harakat qilish ko'nikmasini o'zlashtirishi hamda pedagogik kadrlar ko'magida barkamollik asoslarini egallashi taqoza etadi. Bu huquqlar ana shu amaliy jihatlari bilan ta'lim oluvchilarni faollashtirish xususiyatlariga ega. Yangi O'zbekiston sharoitida har bir inson shaxsining erkin kamol topishi pedagogik va siyosiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Chunki inson shaxsi kamol topganda hayot mazmunini anglaydi, jamiyatda siyosiy faollik ko'rsatadi va o'zining shaxsiy manfaatlarini umumning manfaatlariga moslashtiradi. Shaxsning kamol topishi biror tadbir vositasida emas, balki uning erkin harakati asosida yuzaga kelsa muhim ijtimoiy omilga aylanadi. Shu sababli har bir rivojlangan jamiyatda, jumladan, bizning innovatsion jamiyatimizda inson shaxsining erkin kamol topishi eng asosiy vazifalardan biridir. Shaxs kamolotida ijtimoiylikning tarkib topishi uning jamiyatdagi mavqeini belgilaydi. Mazkur masala bo'yicha xorijiy mamalakatlar, jumladan, Rossiya Federatsiyasida o'ziga xos tajriba to'plangan. Bu tajribaga ko'ra, inson shaxsini kamol toptirish siyosiy va jamoatchilik institutlari vositasida amalga oshiriladi. Shu jihatdan yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim tashkilotlaridan tashqari ijtimoiy va ommaviy harakatlar shaxs kamolotini tarkib toptirishda muhim amaliy tadbirlarni amalga oshirish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz. Bu borada ta'limni amalga oshiruvchi pedagogik kadrlar yetakchi vazifasini bajarishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mamlakatimiz konstitutsiyasining yangi tahririda har kimning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egaligi alohida ta'kidlangan. Bunda ta'lim oluvchilar erkin fikrlashi, erkin siyosiy faoliyat yuritishi va shaxsning daxlsizligidan, ya'ni u davlat himoyasida ekanligidan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Mazkur huquqlar majmui ta'lim oluvchilarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va estetik ongini ta'lim va tarbiya jarayonida erkin shakllantirish vazifasini qo'yadi. Shu jihatdan pedagogik kadrlar har bir ta'lim oluvchi bilan individual tartibda shug'ullanish vositasida ularning mazkur huquqlar bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirib borishi muhim vazifalardan hisoblanadi. Yangi O'zbekistonning eng asosiy taraqqiyot omillaridan biri insonning erkinlik va shaxsiy daxlsizligini

ta'minlashdir. Bunda insonning ruhiy erkinligi, aqliy daxlsizligi, estetik va siyosiy hurligi hamda jismoniy himoyalanganligi muhim o'rin tutadi. Chunki pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, insonning erkinlik va shaxsiy daxlsizlikka ega bo'lishi jamiyatni innovatsion rivojlantirishning tayanch omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli yangi O'zbekiston konstitutsiyasida bu masala innovatsion tarzda alohida konstitutsiyaviy norma bilan belgilanmoqda. Mazkur masalalar eng avvalo jamiyat ziyolilari bo'lgan pedagogik kadrlar tomonidan chuqur idrok etilishi zaruriyat bo'lib turibdi. Negaki bu toifa kadrlar yosh avlodni ta'lim va tarbiyasi ishi bilan shug'ullanadi.

Mamlakatimiz yangi konstitutsiyasida har kimning kasb va faoliyat turini erkin tanlashi belgilangan. Ushbu huquq ta'lim oluvchilarga kasb tanlash bo'yicha xalqaro huquq me'yorlariga mos erkinlikni beradi. Shu jihatdan o'smir yoki voyaga yetgan ta'lim oluvchilar o'z layoqatlari va qiziqishlaridan kelib chiqib kasbni erkin tanlashi kerak. Bunda pedagogik kadrlar, ota-onalar va jamoatchilik yo'naltirish vazifasini bajaradi, xolos. Shuningdek, ta'lim oluvchilarning erkin faoliyat yuritishi ham belgilangan. Bu norma kelgusida ta'lim oluvchilar munosib shart-sharoitlarga ega, vaqt me'yori belgilangan va ta'lim oluvchilarning kasbiy ko'nikmasiga mos mehnat sharoitida faoliyat yuritishini belgilaydi. Shu sababli bu huquqlar ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogik kadrlar tomonidan ta'lim oluvchilarga keng tushuntirilishi taqoza etiladi. Bozor iqtisodiyoti va innovatsion jamiyat sharoitida shaxsning kasbga ega bo'lishi va kasbiy layoqati vositasida faoliyat yuritishi muhim hisoblanadi. Misol uchun, oliy pedagogik ta'lim jarayonida kasbiy malaka va ko'nikmalarni egallayotgan bo'lajak o'qituvchilar faoliyat asoslari bilan qurollanishi taqoza etiladi. Bunda bo'lajak o'qituvchilar faoliyatga kirishishda nazariy, metodik va amaliy jihatdan yetuk malakaga ega bo'lishi muhimdir. Shu sababli Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan oliy pedagogik ta'lim jarayonida 4+2 tizimi amal qilmoqda. Bunda bo'lajak o'qituvchilar haftaning to'rt kunida oliy pedagogik ta'lim muassasasida kasbiy-nazariy bilimlarni egallashadi va qolgan ikki kunida ta'lim muassasalarida o'zlashtirgan bilimlarni amaliy-metodik jihatdan mustahkamlaydi. Buning natijasida bo'lajak o'qituvchilar kasb va faoliyat asoslarini bevosita amaliyot bilan bog'lab o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

Milliy konstitutsiyamizning yangi tahririda har kim o'zining shaxsiy kamoloti uchun ta'lim olish huquqi belgilab qo'yilgan. Bunda ta'lim oluvchilar maktabgacha, maktab, o'rta maxsus, ixtisoslashtirilgan, professional va oliy ta'lim turlari bo'yicha o'zlarining ta'lim olish huquqlaridan foydalanadi. Buning natijasida ta'lim oluvchilar butun hayot davomida bilim, ko'nikma, malaka va tarbiya asoslarini egallash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu intellektual boylikning eng muhim asosidir. Ta'lim - bu bilim, o'quv va tarbiya majmuidir. Shu jihatdan ta'lim olish huquqi jamiyatda intellektual boylikni tarkib toptiradi. Yangi O'zbekiston

sharoitida intellektual boylik ikki asosda tarkib topadi: birinchisi, pedagogikamiz tarixida amalga oshirilgan ta'lim-tarbiyaga oid tajribalar; ikkinchisi, zamonaviy ta'lim vositasidir. Shu sababli konstitutsiyamiz yangi tahririda belgilangan ta'lim huquqini intellektual boylikning asosi sifatida qabul qilinishi kerak. Bu masala 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham belgilangan. Bunda mamlakatda ta'lim sifatiga erishish vazifasini bajarish bilan har kimning ta'lim huquqini kutilgan darajada ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ta'lim huquqini eng avvalo shaxsning o'zi anglab olishi kerak va u butun hayot davomida ta'lim olishi mumkinligini idrok etishi taqozo etiladi. Bunda pedagogik kadrlar maslahatchi va tushuntiruvchi vazifasini bajaradi.

Yangi O'zbekiston konstitutsiyasida ilk bor o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish asosi sifatida e'tirof etilgan. Shu jihatdan bu norma sog'lom va barkamol avlodni shakllantirish, tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitish ishlarida o'qituvchi mehnati asos bo'lishini ko'rsatadi. Buning uchun yangi konstitutsiyamizda o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligini ta'minlash ishlarida davlatning g'amxo'rlik qilishi belgilab qo'yilgan. Bu huquqlar pedagogik kadrlarning jamiyatda maqomini yuksaltirish asosi bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchining mehnati bugun va kelajakda o'z samarasini berishi xuussiyatiga ega. Bugungi kunda ta'lim oluvchilarni o'qitish va tarbiyalashda o'qituvchi mehnati namoyon bo'ladi, kelgusida esa o'qituvchining mehnati jamiyatning savodxonligini yuksaltirishda ko'zga tashlanadi. Shu sababli o'qituvchilar maqomi yangi O'zbekiston konstitutsiyasida belgilab qo'yilmoqda. Bunday tajriba xorijiy mamlakatlardan Rossiya Federatsiyasi, Germaniya Federativ Respublikasi va AQShda kuzatiladi. Bu mamlakatlarda asosiy e'tibor o'qituvchining ijtimoiy himoyasiga qaratilgan. Mamlakatimizning yangi tahrirdagi konstitutsiyasida esa bu masaladan tashqari o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish ham belgilangan. Unda o'qituvchining shaxsiy, kasbiy va faoliyat daxlsizligi har qanday salbiy ta'sirlardan himoya qilinadi. Buning natijasida ta'lim oluvchilar va jamiyat o'qituvchining faoliyat daxlsizligiga amal qiladi. Shu sababli mazkur norma pedagogik kadrlar tomonidan chuqur o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

E'tibor berilsa, yangi O'zbekiston konstitutsiyasida ta'lim va tarbiyaga oid huquqlar majmui keng belgilangan bo'lib, ularda bevosita va bilvosita huquqlardan foydalaniladi. Bevosita huquqlarda ta'lim va tarbiya masalalari ochiq belgilangan bo'lsa, bilvosita huquqlar esa deyarli har bir moddaning mazmunida aks etgan. Shu jihatdan mazkur konstitutsiyamiz insonning ta'lim va tarbiya bo'yicha huquqlari ilmiy, texnikaviy, madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy va estetik asoslarga binoan belgilangan. Bu masalalar ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogik kadrlar tomonidan ta'lim oluvchilarga yangi metodikalarga asosan tushuntirilishi

zaruriyatdir. Kontitutsiyada belgilangan ta'lim va tarbiyaga oid huquqlar ayni paytda ta'lim oluvchilar, ta'lim beruvchilar hamda jamiyat a'zolari uchun burch va ma'suliyatlarni ham belgilaydi. Ta'lim va tarbiyaga oid huquqlardan oqilona foydalanish uchun burch va ma'suliyatga amal qilish kerak. Bunda ta'lim ishtirokchilari va jamiyat a'zolari ta'lim va tarbiyaga oid burchini bajarishi, o'z qobliyatida mazkur sohada ma'suliyatni his qilishi kerak bo'ladi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim va tarbiyaga oid nafaqat huquqlar, balki bu boradagi burch va ma'suliyat ko'nikmalari bilan qurollantirilishi taqoza etiladi. Bunda burch, ma'suliyat va ta'lim huquqi tizimiga asoslanish kutilgan samarani beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunining loyihasi. 2023.
2. O'tayev A., Muradullayeva M. Pedagog kasbiga bo'lgan layoqat. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya.-Jizzax,2021.

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI PIRLS XALQARO BAHOLASH
DASTURIGA TAYYORLASH METODIKASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR
ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

Utanbayeva Dildora Abdixadirovna

GulDU, "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedراسi stajyor-o'qituvchisi

Mamlakatimiz ta'lim samaradorligining qay darajada ekanligi, o'quvchilarning bilim darajasi, dunyoqarashining kengligi, mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari, shuningdek, matnni o'qish va tushunish darajalari, maktab va oilada ta'lim olish uchun yaratilgan muhitning ijobiy yoki salbiy ekanligini aniqlash maqsadida PISA, PIRLS, TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli Farmonida Xalq ta'limi tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanishi, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llashga ko'maklashishi qayd etilgan holda o'quvchilarning bilim darajasini baholash bo'yicha xalqaro dasturlar va tadqiqotlarda (PISA, TIMSS, PIRLS va boshqalar) umumta'lim muassasalari o'quvchilarining ishtirokini tashkil etish vazifasi belgilangan[1].

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study – xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) – bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ushbu sinov turi har 5 yilda bir marta o'tkazishga mo'ljallangan[5].

Xorijlik olimlar ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borar ekan PIRLS xalqaro tadqiqoti shaxsni hamda jamiyatni o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishida, yozma matnlar va boshqa turdagi ma'lumotlar ustida mulohaza yuritishni maqsad qilganligini ta'kidlagan holda, bunday yondashuv bugungi jamiyatda yanada yaqqol sezilib, jamiyat o'quvchidan o'qish orqali olgan ma'lumotlardan foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lishni talab etmoqda, deb fikr bildirganlar.

Hozirgi paytda matnlar yoki ma'lumotlarni internet orqali o'qish maktabdagi dasturning asosiy qismi va ma'lumotlarni qo'lga kiritishning eng muhim usuli hisoblanadi[3].

Yangi raqamli savodxonlik ma'lumotlarni internet orqali o'qish uchun muhim sanalib, unda o'quvchi o'ziga kerakli ma'lumotni qidirib topib, uni tushunish orqali o'qishdan ko'zlangan maqsadga erishadi[4].

Onlayn tarzda o'qiladigan ma'lumotlar mazmunini shakllantirish an'anaviy bosma materiallarni o'qib tushunish uchun talab etiladigan o'qib tushunish jarayoni bilan yangi raqamli savodxonlikni birlashtirilishini taqozo etadi. ePIRLS tadqiqoti o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmasini baholabgina qolmay, balki PIRLS tadqiqoti doirasida beriladigan matnlardan ko'zlangan maqsad o'quvchilarni qator veb sahifalardan fotosuratlar, chizmalar, xaritalar, jadvallar va boshqa vizual vositalar hamda videolar, animatsiyalar va ekranda vaqtincha ochilib-yopilab turadigan oynachalar kabi boshqa innovatsion imkoniyatlar bilan birga qo'llay olishga o'rgatishdir[6].

Raqamli texnologiya - bu jamiyat ne'matlarini ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarida elektron hamda axborot-kommunikatsion texnologiyalarini keng joriy etishni ko'zda tutadigan insonning xo'jalik faoliyatini tadqiq etuvchi fandır. Raqamli texnologiya atamasi ikki xil turli tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Birinchidan, raqamli texnologiya - bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne'matlarining ustuvor o'rnini bilan tavsiflanadi. Ikkinchidan, raqamli texnologiya – bu o'ziga xos nazariya bo'lib, uning o'rganish obyekti, axborotlashgan jamiyat hisoblanadi[2].

Mamlakatimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS-2021 xalqaro tadqiqotiga tayyorlash jarayonida 8 ta mashq daftari va ularda jamlangan 24 ta matnlardan foydalanildi. Ushbu daftarlardan foydalanish o'quvchilarga qiziqarli, samaradorli bo'lishi bilan bir qatorda bir qancha noqulayliklarni ham keltirib chiqaradi. Xususan, matn bilan qayta ishlashda ularni qaytadan chop etish, ota-

onalar bilan bu borada hamkorlikning cheklanganligi kabi muammolar ko'zga tashlandi.

Biz tadqiqotimiz davomida olib borgan izlanishlarimiz natijasida "PIRLS UZBEKISTAN" mobil ilovasini yaratdik.

Biz tomonimizdan yaratilgan, raqamli texnologiyalar orqali qiziqarli interfeyslar yordamida PIRLS hamda ePIRLS xalqaro baholash dasturlariga boshlang'ich sinf o'quvchilarini tayyorlashga xizmat qiluvchi "PIRLS UZBEKISTAN" mobil ilovasi orqali respublika ta'lim muassasalarida, jumladan, Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari, Xalq ta'limi muassasalari o'qituvchi va o'quvchilari, tadqiqotchilar foydalanishlari uchun qulay imkoniyat yaratadi. PIRLS tadqiqoti haqida ma'lumotlar, mashq matnlarini o'z ichiga qamrab olgan mobil ilova boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro tadqiqotga samarali tayyorlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mobil ilovaning maqsadi: Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS hamda ePIRLS xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashga innovatsion yondashish.

Mobil ilovaning vazifalari:

- o'quvchilarga PIRLS xalqaro baholash dasturi haqida ma'lumot berish;
- PIRLS xalqaro baholash dasturiga tayyorlanishda tavsiya etilayotgan mashq daftarlari bilan ishlashda o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish;
- mashq daftarlari bilan istalgan vaqtda ishlash imkoniyatini yaratish;
- qog'ozbozlikni kamaytirish (har bir o'quvchi uchun alohida mashq daftarlari chop ettirish shart bo'lmaydi);
- har bir matn ustida qayta-qayta ishlash imkonini yaratish;
- natijalarning adolatli va shaffofligiga ishonchni oshirish;
- o'yinlar orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, PIRLS xalqaro baholash dasturida o'quvchilarning muvaffaqiyatli ishtirok etishi davlatimizning qatnashuvchi davlatlar o'rtasidagi o'rnini ko'rsatib berar ekan bu jarayonga har birimizning mas'uliyat bilan yondashishimizni talab etadi. "PIRLS UZBEKISTAN" mobil ilovasidan foydalanish PIRLS hamda ePIRLS xalqaro tadqiqotlariga o'quvchilarni samarali tayyorlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli Farmoni. 2018-yil 5-sentabr. <https://lex.uz>

2. Ayupov R.H., Tursunov S.Q. Raqamli texnologiyalar: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. Monografiya. –T.: Nodirabegim, 2020

3. Leu, D.J., O'Byrne, W.I., Zawilinski, L., McVerry, J.G., & Everett-Cacopardo, H. (2009). Comments on Greenhow, Robelia, and Hughes: Expanding the new literacies conversation. *Educational Researcher*, 38(4), 264–269.

4. Leu, D., Kinzer, C., Coiro, J., Castek, J., & Henry, L. (2013). New literacies: A dual-level theory of the changing nature of literacy, instruction, and assessment. In D.E. Alvermann, N.J. Unrau, & R.B. Ruddell (Eds.), *Theoretical models and processes of reading* (6th ed., pp. 1150–1181). Newark, DE: International Reading Association.

5. Omanova M.A. PIRLS xalqaro dasturi asosida 4-sinf o'quvchilarida matnni o'qish va tushunish malakasini rivojlantirish. Maqola. PIRLS xalqaro baholash dasturi: nazariya va tatbiq etish sitiqbollari. Xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari. Tohkent, 2020-yil 13-mart.

6. Wineburg, S., McGrew, S., Breakstone, J., Ortega, T. (2016). Evaluating information: The cornerstone of civic online reasoning. Stanford, CA: Stanford University. Retrieved from <http://purl.stanford.edu/fv751yt5934>.

MAMLAKATIMIZDA OLIY TA'LIMNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Fayziyev Abdulaziz

O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishining 3-kurs talabasi

Bugungi kunda mamlakatimizning ta'lim sohasidagi davlat siyosati umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tamoyillari, inson huquqlari, ta'limning gumanistik mohiyati, har kimning bilim olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarining kafolatlanishi, ta'lim olishdan teng huquqlilikdan foydalanishga tayanadi. Bu borada ta'limni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan: ta'lim sohasida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining kafolanishi; ta'lim olishda tenglik, shu jumladan, rivojlanishida maxsus psixofizik xususiyatlari bo'lgan shaxslarga, ularning sog'lig'i va bilim qobiliyatlariga muvofiq, asosiy ta'limning barcha darajalarida va qo'shimcha ta'lim olishda shart-sharoitlarni yaratish;

Dunyo yaralibdiki, ta'lim va tarbiya bor. Ta'lim bu - ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon bo'lsa, tarbiya esa, aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayondir.

Zamonaviy globallashuv sharoitida mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar qatori ta'lim tizimidagi islohotlar ham misli ko'rilmagan darajada shiddat bilan ketmoqda. Xususan, oxirgi yillarda amalga oshirilgan chora-tadbirlar, qabul qilingan me'yoriy – huquqiy hujjatlar oliy ta'limni rivojlantirish va modernizatsiya qilishga qaratilganligi bilan xarakterlidir. Mazkur huquqiy-me'yoriy hujjatlar mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, oliy ta'lim muassasalarining mustaqil bo'lishiga erishish, ta'limning kredit-modul tizimiga o'tish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishdek dolzarb masalalarni hal qilishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda mavjud oliy ta'lim muassasalari oldiga o'quv rejadagi “mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayoniga kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va ilg'or texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish” kabi strategik masalalar qo'yilgan[1:1].

Ta'limga innovatsion yondashuv ijtimoiy hayotning yaxshilanishi barobarida, fan, texnika va ishlab chiqarish integratsiyasiga hamda mamlakatimiz taraqqiyotini jadal o'sishiga olib keldi. Ayni vaqtda raqamli texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, raqamli ta'limdan keng foydalanish imkoniyatini beruvchi innovatsion o'quv dasturlarini ishlab chiqilishini ta'minlash vazifalarini ham o'rtaga qo'ydi. Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida 2020-o'quv yilidan boshlab amal qilib kelayotgan Kredit-modul tizimi, bu - ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarining mustaqil ishlashini ta'minlash hamda talabalar bilimini reyting asosida baholash kabilar[2:1].

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida - o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish; bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash; talabalar bilimini reyting bali asosida baholash; talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkoniyatni yaratish; ta'lim jarayonida mustaqil bilim olishning ulushini oshirish; ta'lim dasturlarining

qulayligi va mehnat bozorida mutaxassislariga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi e'tirof etiladi[3:1].

Yuqoridagilar dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir. Muxtasar aytganda, mazkur tizim talabalarning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirilgan. Ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta'minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgan.

“O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ning “Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish” bandida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish; ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish talablari belgilab qo'yilgan. Oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturining asosiy yo'nalishlaridan biri oliy ta'lim muassasasini boshqarishni avtomatlashtirish, o'quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'lib, buni amalga oshirish uchun Janubiy Koreya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Finlandiya, Daniya, Rossiya kabi davlatlarning tajribasiga tayanilgan holda mavjud jarayonlarni axborotlashtirishning reinjenering tizimiga o'tish, ya'ni ta'lim sifatini oshirish va avtomatlashtirish orqali oliy ta'lim muassasalari faoliyatida ko'p takrorlanadigan vazifalar uchun ketadigan vaqtni tejash rejalashtirilgan[3:1].

Globalashuv sharoitida, zamonaviy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan innovatsion jarayonlar, avvalo, inson faoliyatining barcha sohalarida raqamli texnologiyalardan faol foydalanish bilan bog'liq va birinchi navbatda, ta'limning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan[4:1]. Shu munosabat bilan talabalarning kasbiy innovatsion faoliyati tubdan boshqacha ma'no kasb etadi. Innovatsion faoliyatning mohiyati va mazmuni shundan iboratki, talabalar uchun ta'lim sohasidagi har qanday yangilik o'qituvchi tomonidan amalga oshirilgandagina yuzaga chiqadi. Ya'ni, ta'lim jarayonida talabalarni ob'ektdan sub'ektga aylantirish, birinchi navbatda, o'qituvchining kasbiy kompetentligiga bog'liqdir[5:1].

Bugungi kunga qadar mamlakatimizning deyarli barcha oliy ta'lim muassasalarida talabalarining mustaqil ishlari ilmiy jurnallarni o'qib-o'rganish, o'qituvchi tomonidan berilgan mavzularga esse va referatlarni yozish, sohaviy terminlarning tarjimasini berish va krossvord tuzish, tuzilgan o'quv loyihalarini qayta tuzish, berilgan statistikani tahlil qilish kabi vazifalarni bajarishdan iborat edi. Endilikda esa, innovatsion yondashuvlar ta'sirida mustaqil ta'limga auditoriya va auditoriyadan tashqaridagi ta'limni loyihalash, portfolio, keys-texnologiyalar, shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda talabalarining ijtimoiy va kasbiy kompetentligini shakllantirib borishga yo'naltirilgan topshiriqlar berish talab o'qituvchilarning [6:215].

Oliy ta'limda bo'lajak mutaxassislarining inklyuziv tayyorgarligini rivojlantirishda, pedagogik shart-sharoitlar majmuini ishlab chiqish va asoslash talab etiladi. Psixologik-pedagogik, falsafiy va ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tashkiliy pedagogik shart-sharoitlar qo'yilgan vazifalarni yechimini topishga qaratilgan mazmun, shakl, metodning ob'ektiv imkoniyatlari majmui sifatida qaraladi, professor-o'qituvchi tomonidan ongli ravishda tashkil etilgan pedagogik jarayonning olib borilishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi, mavjudligi, faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini belgilovchi tashqi ob'ektlarga ta'sir va ichki holatlar majmui qo'yilgan muammoning yechimini belgilaydi hamda pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga qaratiladi[7:151].

Shuningdek, keyingi yillarda jahonda va mamlakatimizda ta'limni rivojlantirish, uni tubdan qayta o'zgartirishda aniq yo'nalishlar paydo bo'ldi. Ularning birinchisi, ta'limni tubdan demokratlashtirish; ikkinchisi, uzluksiz ta'lim g'oyasi, so'ng "ta'lim - bir umrga" g'oyasini "ta'lim - butun umr davomida" g'oyasiga almashtirish; uchinchisi, bu nafaqat mutaxassislarni tayyorlash vositasi, balki jamiyatga ongli, fidoyi insonlarni yetkazib berish; to'rtinchisi, ta'limning globallashtirishga erishish; beshinchisi, ta'limni axborotlashtirishdan iborat[8:230].

Pedagogik jarayonlarni tashkil qilishning innovatsion shakllari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va katta miqdordagi resurslarning mavjudligi kabi innovatsion komplekslarni yaratilishi hisobiga ta'limda sifat darajasining ortishiga erishish mumkin. Bunday komplekslar o'quv jarayonini mustaqil ravishda tashkil qilishga qodir bo'lgan ijodkor o'qituvchiga mo'ljallangan. Axborot texnologiyalari o'quv jarayonida yangi shakldagi ta'lim texnologiyalarini qo'llash o'qitish samaradorligini oshirish imkonini beradi[9:119].

Umuman olganda, bugungi real vaziyat bizni rivojlangan mamlakatlar yo'lidan olg'a qarab borishimiz va ularga tezroq yetib olishimizga undayapti, bu esa, ta'lim sohasida aynan, elektron axborot tizimini faollashtirishni,

jahonning yetakchi ta'lim muassasalarining tajribalaridan foydalanib, ilg'or zamonaviy axborot-kommunikatsiya, internet hamda raqamli texnologiyalar sohasidagi bilimlarni chuqur egallashni taqozo qiladi[10:1]. Demak, jamiyatimizning barcha qatlamlarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash borasidagi savodxonlikni uzluksiz ravishda oshirib borish bugungi kunda nafaqat nafaqat ehtiyoj, balki zaruratga aylanayotganligi aynan haqiqatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr.O'RQ-637-son <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-630-son. <https://lex.uz/>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni. <https://lex.uz/>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori. <https://lex.uz/>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-3775-sonli Qarori. <https://lex.uz/>
6. Hakimova M.F., Turabekov F.S. Ta'lim iqtisodiyoti. – T.: Innovatsiya vazirligi nashriyoti. 2021. -215 bet.
7. Hakimova M.F., Turabekov F.S., Kayumova M.Sh. Ta'lim va o'rganish nazariyasi. – T.: Innovatsiya vazirligi nashriyoti. 2021. -151 bet.
8. Mamajanov I. Iqtisodiy ta'limda innovatsion va axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb masalalari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. Ilmiy elektron jurnal. 2020. - №4. –B. 230-242.
9. Mamajanov I. Ta'limda innovatsiya va innovatsion faoliyat. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. Ilmiy elektron jurnal. 2020. №6. – B. 119-124. <http://iqtisodiyot.tsue.uz/>
10. Hakimova M. Bizga zamonaviy kadrlar kerak //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.

TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR OLIMLAR VA YOSHLAR NIGOHIDA

Fayzullayeva Dilbaroy Sa'dullayevna

*Farg'ona viloyati Beshariq tumani 35- umumiy o'rta ta'lim
maktabi amaliyotchi psixologi*

"Ta'lim-tarbiya bu bizning kelajagimiz, hayot - mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Qanchalik murakkab bo'lmasin maktab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak". (Sh.M.Mirziyoyev).

Bugungi kun zamirida mamlakatimizda Prezidentimiz tomonidan yoshlarning tarbiyasi, ta'lim tizimidagi ularning kamolati, aqliy qobiliyatiga, salohiyatiga va taraqqiyotiga bo'lgan e'tibor bugun sohalardagi o'zgarishlar shu qatori izlanishlar yosh olimlarimizga berilayotgan imkoniyatlar tahsinlarga sazovordir. Barchamizga ma'lumki, ta'lim jarayonidagi tub o'zgarishlar, ta'lim sohasidagi ilmiy izlanishlar uzoq tarixga borib taqaladi. Ilm- fan ravnaqiga o'z hassalarini qo'shgan allomalarimiz Imom Ismoil al-Buxoriy, Abu Nosir Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi olimlarimiz va mutafakkirlarimiz asarlarida, ilmiy izlanishlarida o'z davrida ham yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol inson sifatida shakllantirish ta'kidlab o'tilgan.

Imom Ismoil al-Buxoriy o'z hadislarida iymon, e'tiqod, insonparvarlik, xalqparvarlik, Vatanparvarlik, to'g'rilik, mehr - oqibatlilik, vafodorlik kabi fazilatlarini ulug'lasa, Farobiy mavjudodni bilishda ilm-fanning rolini hal etuvchi omil deb biladi.

Abu Rayhon Beruniy esa ta'lim va tarbiyaning maqsadini inson fazilatini va mavqeini yosh avlodning rivojlanishini chin ma'noda Vatanparvarlik va insonshunuslik zamirida bilim va tarbiya, tabiatga uyg'unlik tamoyilida deb ta'kidlaydi.

Mirzo Ulug'bek esa o'zining falsafa, astronomiya, matematika, geografiya, musiqa, tarix, adabiyot sohsiga doir asarlarida o'z davri yoshlari uchun muhim g'oyalarni do'stlik, tinchlik, adolatga bog'lab ilgari surgan. Bilimga intilishni har bir muslim va muslima yoshlar uchun farz ekanligini ta'kidlab o'tgan.

"Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" (Abdulla Avloniy).

O'zbek xalqining millatimizning milliy uyg'onish davri, o'zbek adabiyotiga ilk o'zbek alifbosi yozuv alifbosiga asos solgan taniqli namoyandalaridan biri Abdulla Avloniy ham o'z davrida o'zbek millati ta'limi va tarbiyasiga juda ulkan tarixiy hissasini qo'shgan va biz avlodlarga millat birligini, Vatan tuyg'usini o'z erkimizni ulug'lashni o'rgatgan adiblarimizdan biri edi. Uning dastlabki millat ko'zgusi

bo'lmish zamonasining yoshlarini savodxon, saviyali bo'lmog'i uchun 1909 yili ilk maktabini ochadi.

Adibning dastlabki axloqiy - ta'limiy asarlari, darsliklar yozib, milliy uyg'onish davri adabiyotini maydonga olib chiqqan va o'zbek adabiyotini shu bilan birga millatimizning rivoj topishiga juda katta hissa qo'shgan.

Adib jamiyat va davlatimiz taraqqiyotiga, insonlarning kelajagi uchun, ta'lim va tarbiyani o'rni beqiyos darajada ekanligini o'zining axloqiy - ta'limiy asarlarida yosh avlodni ezgulik, yuksak axloqiylik, ziyolilik ruhida tarbiyalash, uning e'tiroficha, har bir millatning saodati, davlatning tinchi va rohati yoshlarning yaxshi ta'lim - tarbiyasida deb bilishdir.

Ta'lim tizimidagi islohotlarda bugun psixologik rivojlanishning o'rni ta'lim va yoshlar tarbiyasiga ruhiy barqarorligida mujassam.

Shveytsariyalik psixolog J. Piatening nazariyasida, ya'ni, uning fikricha, bolalarning aqliy o'sish qobiliyati o'zining ichki "meni" qonuniyatlari asosida rivojlanib boradi. Sifat jihatidan esa o'ziga xos bir qator genetik bosqichlarni bosib o'tadi. "Ta'lim - bu aqliy yetishish jarayonini faqat bir qadar tezlanishga yoki bo'lmasa sekinlashtirishga qodir, lekin u aqliy jihatdan yetilish jarayoniga hech qanday jiddiy ta'sir ko'rsata olmaydi va ta'lim rivojlanishi qonunlariga bo'ysunishi kerak", deb ta'kidlab o'tgan. Psixologik jihatdan doimo olimlarimizning fikrlarini ta'kidlashimiz joizki, doimiy ta'lim yetakchi rolni bajaradi. Ta'lim va rivojlanish esa o'zaro bir- biriga bog'liqligi bilan ularni alohida sodir bo'ladigan ikki jarayon bo'lmas, balki butun bir jarayondir. Ta'limimiz to'la aqliy rivojlanishi bo'lishi mumkin emas, ta'lim rivojlanishiga turtki bo'ladi. Rivojlanish esa o'z ortidan ergashtirib boradi. Insoniyatda doimo zarur sharoit mavjud bo'lib, u shu faoliyatda unumli foydalangan holda ta'limning mantiqiy fikrlash masalasini tarkib toptiradi. Shu bilan birga insoniyatga tegishli bo'lgan aqliy rivojlanish faoliyati uchun zamin yaratadi. Bugungi kunimizda barcha jabhalarida ta'limdagi imkoniyatlarimiz kelajagimiz yoshlar shu qatori barcha yosh turida qat'iy nazar o'z ustida ishlagan insonlar uchun juda kengdir. Biroq ta'lim cheksiz emasdir. Lekin rus psixologi L. S. Vigotskiyni fikriga nazar solsak, ta'lim va taraqqiyot muammosiga ijtimoiy - tarixiy jarayon nuqtayi- nazardan yondashib, qarajak bilimlarni o'zlashtirish insoniyatning tarixiy taraqqiyotida yaratilgan madaniyatda ishtirok etish jarayonidir deb ta'kidlaydi. Shuningdek, L. S. Vigotskiy tomonidan kiritilgan "psixik taraqqiyotning eng muhim zonasi" tushunchasi " ta'lim taraqqiyotidan oldinda boradi" degan umumiy qoidaning yaqqol mazmuni timsolini tushunish uchun keng imkoniyat yaratadi. Bugungi kunda mamlakatimizda bolalarni psixik taraqqiyotida ta'lim va tarbiyaning mavqei, dasturli ta'lim undagi ko'nikma va malakalarning ahamiyatini ilmiy - amaliy asoslab berish muhim o'rin egallaydi.

Respublikamizda bugun maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, kollej va litseylar, oliy ta'limga qaratilgan e'tibor juda yuqori darajada dunyo standartlari bilan tenglasha oladigan yutuqlarga erishmoqda. Mamlakatimizga qulay va samarali bo'lgan dasturli ta'limning faoliyati yoshlarimizni jahon minbarlariga qo'rqmay qadam qo'yishga yo'l ochmoqda. Dunyo bilan raqobatlasha oladigan kashfiyotchi, tadqiqotchi, sportchi, shaxmatchi, matematik kabi yosh olimlarimiz bilan bugun faxrlansak arziydi. Yaqin va uzoq xorij mamlakatlari yoshlari va olimlari bilan ilmiy - amaliy tadqiqot yutuqlari va g'oyalari bilan tenglasha oladigan yoshlarimiz jahon mamlakatlarida o'zlarini munosib o'rniga bugun egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021-yil.
2. Avloniy A. "Turkiy Guliston yoxud axloq". - Toshkent: 2018.

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYAVIY MUNOSBATLAR
JARAYONLARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH**

Farxodov F.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ma'naviy yuksalishiga ko'maklashish markazi direktor o'rinbosari

Gapparova M.

*"Yangi asr" universiteti "Pedagogika" kafedrasida dotsenti v.b.,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy munosabatlar, pedagogning to'g'ri tashkil etilgan muloqoti boshqaruvi talabani o'zligini anglash funksiyasini takomillashtiradi. Bunda tarbiyaviy munosabatlarning jarayonlarini tashkil etish va boshqarish vazifasi muloqot asosida talabalarga o'zining "Men"ligini anglashni, shaxs sifatida o'z fikrini dadil va erkin gapirishni, jamoada o'z o'rnini bilishni, o'z-o'zini baholashni o'rgatishi kerak.

Pedagogik muloqot tuzilishi jihatidan pedagog ijodkorligining noyob namunasi. Bir qancha olimlar tarbiyaviy munosabatlarning jarayonlarini tashkil etish va boshqarish muloqotiga ko'plab tavsiflarni ilmiy asarlarida bayon etsalarda, muloqot, avvalo, o'qituvchining shaxsiy psixologik xususiyati sifatida namoyon bo'ladi. Olimlar esa, muloqot uchun pedagogga yo'nalish beradi xolos. Jumladan, rus pedagogi V.A.Kan-Kalikning fikricha, o'qituvchining pedagogik muloqoti tuzilishi quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Prognostik bosqich (modellashtirish): O'qituvchi tomonidan guruh jamoasi bilan bo'lajak muloqotni modellashtirish.

2. Kommunikativ aloqa: O'quvchi bilan dastlabki o'zaro tanishuv jarayonida bevosita muloqotni tashkil etishga erishish.

3. Pedagogik jarayon: O'qituvchining xatti-harakati, pedagogik mahorati bevosita muloqotni boshqarishga qaratilgan bo'lishi kerak.

4. Natijalar tahlili: Amalga oshirilgan muloqotni tahlil etish, yutuq va kamchiliklarni xolisona baholab kelgusi faoliyat uchun modellashtirish.

Olimning fikrlari asosida muloqotning ushbu yo'nalishlarini quyidagicha ta'riflash mumkin?

Modellashtirish bosqichida auditoriyaning barcha andozalarga javob berishi, har bir o'quvchining psixologik xususiyatlarini o'rganishi, ta'lim-tarbiyaviy jarayonda uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar dinamikasini oldindan ko'ra olish va bartaraf etish, muloqotning o'zaro hamkorlik asosida qurilishi, ya'ni muloqot o'qituvchi shaxsiga emas, balki o'quvchi shaxsiga ham mos kelishini ta'minlash zarur.

Kommunikativ aloqa bosqichida sinf jamoasini o'zaro muloqotga tez jalb etadigan suhbat texnikasini puxta bilish, ularning barcha qizi- qishlariga javob bera olish, erkin fikr bildirishlariga imkoniyat yaratish va o'quvchilar ongiga ijobiy ta'sir etishning turli usullarini qo'llash metodlarini egallash lozim.

Pedagogik jarayon bosqichida o'qituvchining faoliyati bevosita ta'lim-tarbiyaviy ishlarni ma'lum bir yo'nalishga solish, o'quvchilar tashabbusini qo'llab-quvvatlash, sinf jamoasining rasmiy va norasmiy liderlari bilan adolatli muloqotni tashkil etish, o'z fikrlarini jamoa fikrlari bilan real sharoitga moslashtira olish ko'nikmalarini yaratish kabi faoliyat olib boriladi.

Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda bizga yaxshi ma'lumki, tarbiya jarayoni uzoq muddatli, murakkab, uzluksiz bo'lib, u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Garchi zamonaviy ta'lim texnologiyasi o'quvchining ta'lim jarayonidagi yetakchilik rolini yoqlayotgan bo'lsada, tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi asosiy mavqeini egallay olmaydi. Chunkiy unda xarakter, dunyoqarash yetarlicha shakllanmagan bo'lib, u bu borada tarbiyachining yordamiga extiyoj sezadi shu bois tarbiya texnologiyasi mantiqiy, ham tarkibiy jixatdan ta'lim texnologiyasidan farq qiladi. Tarbiya texnologiyasi asosida tarbiyaviy jarayon yotadi.

Yigirma birinchi asr global va bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan kompaniyalar, jamoalar hamda korporatsiyalar hosil bo'lishi va rivojlanishi davri bo'lib, ular bilan bog'liq ijtimoiy tuzilmalarda ishlash uning a'zolari orasida yuksak darajadagi kooperatsiya mavjudligini talab qiladi. Shuning uchun ham ko'pchilik insonlar Korparativ ko'nikmalarni rivojlantirishni ta'limning juda muhim vazifalaridan biri deb hisoblaydilar. Ko'pgina ta'lim muassasalari Korparativ

faoliyat turlariga ega bo'lib, ular sport, dramatik va musiqa to'garaklari, yoshlar ijtimoiy-siyosiy jamoalarini o'z ichiga qamrab oladi.

Tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini korporativ yondashuv asosida bilim olish quyidagi pozitiv ko'rsatgichlarning rivojlantirishga olib keladi:

- talabalar umumiy masala yoki muammoni hal qilish uchun birgalikda intiladilar va fikr almashinadilar, natijada, ular faol ravishda bilim oladilar;
- guruhlarda ishlash uning a'zolari orasida do'stona munosabatlarni rivojlantirishga olib keladi va natijada, ular bir-birlari bilan intensiv fikr almashadilar;
- guruha'zolari orasidagi o'ziga xos kooperatsiya ular orasida juda ham samarali bo'lgan kommunikatsiyani rivojlantiradi va ular turli xil go'yalarni maksimal ravishda generatsiya qila oladilar.

Ushbu guruhlar aro raqobatga asoslangan Tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini korporativ yondashuv asosida har bir shaxs o'z guruhiy qiziqishlariga mos ravishda yaxshiroq ishlash va ijodiy fikrlashga intiladi. Korparativ yondashuv asosida ta'lim berishga bag'ishlangan juda ko'p ilmiy izlanishlar mavjud bo'lib, ular ijtimoiy psixologiya sohasiga mansubdir. Kichik guruhlar dinamikasi o'rganish, uni maqsadga muvofiq ravishda tashkil etish, uni boshqarish, guruhlararo raqobat vaziyatini tashkil qilish o'qituvchidan o'ziga xos mahorat va bilimni talab qiladiki, bularsiz Korparativ yondashuv asosida ta'lim berishni uyushtirish mumkin bo'lmaydi.

Korparativ ta'lim usuli quyida keltirilgan xususiyatlari hamda faoliyat turlari bilan xarakterlanadi:

- ✓ talabalar mavzuga oid masala va muammolarni o'rganish (yoki hal qilish) uchun guruhlarda ishlaydilar;
- ✓ guruhlar bilimi yuqori darajadagi, o'rta darajadagi yoki past darajadagi o'quvchilardan tashkil etilishi mumkin;
- ✓ guruhlardagi o'quvchilar irqiy va jinsiy jihatdan aralash bo'lgani ma'qul;
- ✓ bilim darajasini baholashda ko'proq individumlarga emas, balki guruhlariga baho beriladi.

Hamkorlik bo'yicha ta'lim strategiyasining namunasi quyidagicha o'qitiladi:

1. Talabalar 3-5 talabadan iborat kichik guruhlariga bo'lingan.
2. Darslarni segmentlarga bo'linib, o'quvchilarning har biriga darsning bir qismini belgilang.
3. Barcha talabalarni o'z segmentlari bilan tanishish uchun vaqt ajratib turing.
4. Har bir jumboq guruhining bir o'quvchisi bilan bir xil segmentga ajratilgan boshqa talabalarga qo'shilgan vaqtinchalik "ekspert guruhlari"ni yaratib bering.

5. Talabalar o'zlarining mavzularini o'rganishlari va vaqtinchalik guruhlardagi "mutaxassislar" bo'lishlari uchun zarur materiallar va resurslarni taqdim etadilar.

6. Talabalarni "uy guruhlari"ga qaytarish va har bir "ekspert" ma'lumotni bilib olganligi uchun ko'rsatmalar beradi.

7. Har bir "uy guruhi" uchun mutaxassislarning axborot hisobotini tashkil qilish uchun qo'llanma sifatida xulosa jadvalini / grafik organizatorini tayyorlang.

8. "Uy guruhi" a'zolari tarkibidagi barcha talabalar bir-biridan barcha kontentni o'rganishga mas'uldirlar.

Jarayon davomida o'qituvchi talabalarni ishlashda davom etishlarini va birgalikda ishlashlarini ta'minlaydi. Bu shuningdek, o'quvchilarni tushunishni kuzatib borish imkoniyatidir.

Korparativ ta'lim – bu kichik guruh talabalariga umumiy topshiriq bo'yicha birgalikda ishlashga imkon beradigan o'quv strategiyasidir. Parametrlar tez-tez o'zgarib turadi, chunki o'quvchilar matematikadan oddiy muammolarga qadar, masalan, milliy miqyosda ekologik yechimlarni taklif qilish kabi turli xil muammolar bo'yicha birgalikda ishlashlari mumkin. Talabalar ba'zan topshiriqdagi qismi yoki roli uchun shaxsan javobgardirlar, ba'zan esa ular butun guruh sifatida javobgar bo'ladilar.

Korparativni boshqaradilar, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlar uchun javobgardirlar, daromadlarni taqsimlaydilar.

Korparativ ta'limning beshta asosiy elementlari:

- Ijobiy o'zaro bog'liqlik.
- Shaxsiy va guruh javobgarligi.
- Shaxslararo va kichik guruhlarining qobiliyatlari.
- Yuzma-yuz targ'ib qiluvchi o'zaro ta'sir.
- Guruhni qayta ishlash.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi.

Kreativlik – kelajakka turtki beradigan xususiyatdir. Kreativlik – shaxsni ilhomlashtirishga xizmat qiladi, shu nuqtayi nazardan shaxs kreativligini shakllantirish va rivojlantirish har qanday ta'lim qismiga singdirilishi kerak.

Ko'rinib turibdiki, kreativlik bevosita shaxsning individual psixologik xususiyatlari bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Uning rivojlanishi esa intellekt-intuitsiya-mantiqiy fikrlash jarayoni ta'sirida kechadi. Talabalarda kreativlikni rivojlantirish ta'lim mazmunini o'zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga

qarab, munosib ravishda o'qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi. Bunda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

– talabalarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish

ehtiyojlarini shakllantirish va ta'lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta'minlash;

– talabalarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, talabalar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g'oyalarni bag'rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash, har bir talabada uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag'batlantirish;

– o'quv jarayonini talaba shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;

– talabalarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko'nikmalarini

shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash;

– kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo'lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg'ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish.

Tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini tashkil etish va boshqarishni muvaffaqiyatli amalga oshirishda o'qituvchilar tomonidan qo'llanadigan metodlar muhim ahamiyatga ega. Tarbiya metodlari – pedagog-o'qituvchilarning o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, vositalari, tarbiyalanuvchilarga barkamol shaxs xislatlarini singdirish maqsadida tarbiya jarayonini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etish yo'llaridir. Ayni vaqtda tarbiya mazmunini ko'p qirraliligi tufa yli tarbiya metodlari ham xilma-xil bo'lib, ulardan qaysi birini tanlash tarbiyaning qaysi jihatlari olib borilayotganligiga bog'liq. Albatta, tarbiya jarayonining qandaydir bosqichida metod ba'zan ajratib olingan holda alohida qo'llanilishi mumkin. Biron-bir tarbiya metodidan foydalanish aniq pedagogik sharoitga hamda o'quvchitalabalarining yosh va psixologik xususiyatlariga ham bog'liq. Bu boradagi vazifalar yosh avlodni O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustaqamlash, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi yo'lida faoliyat olib boruvchi faol va barkamol shaxs qilib tarbiyalash, ularni bu kurashga jalb ettirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu g'oyaga tayangan holda, tarbiya jarayonida uning qonuniyatlariga muvofiq tarbiya metodlaridan foydalanib, ish ko'rish lozim bo'ladi.

Demak, pedagogik fanlar misolida talabalarning Tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini tashkil etish va boshqarish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida quyidagi vazifalarni bajarish muhim sanaladi:

1. Pedagogik fanlar misolida talabalarning shaxsiy – kreativ kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligini asoslash;

2. Talabalarning shaxsiy – kreativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish;

3. Talabalarning shaxsiy – kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning mezonlarini ishlab chiqish;

4. Talabalarning shaxsiy – kreativ kompetensiyasini yanada rivojlantirish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupova, F.M. (2020). Pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta'lim berishda o'qituvchiga qo'yilgan talablar. *Science and Education*, 1 (Special Issue 2).

2. Ikramov, R., & Bekmirzayev, N. (2020). Yurist nutqi madaniyati. Toshkent: Akademiya nashri.

3. Bayzakov, J. A. (2020). Pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta'lim berishda o'qituvchiga qo'yilgan talablar. *Science and Education*, 1 (7), 208-214.

MAMLAKATDA IMPORT TARIFLARINI PASAYTIRISHNING NARXLAR DARAJASIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING GIPOTETIK MODELINI YARATISHNING ASOSLARI

Fattoyev Elbek Alisherovich

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
Matematika fakulteti matematik analiz kafedrasida magistranti*

Import bojlari stavkalari davlat tomonidan chet eldan mamlakatga olib kiriladigan mahsulotlar va xizmatlarga solinadigan soliq yoki yig'implarni bildiradi. Import bojlari stavkalarining faraziy modeli quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Tarif stavkalari: Modelda hukumat siyosati maqsadlariga qarab, har xil turdagi mahsulotlar uchun har xil tarif stavkalari bo'ladi. Misol uchun, hukumat qimmatbaho mahsulotlar importini to'xtatish va mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun yuqori tarif stavkalariga ega bo'lishi mumkin.

Daromadlarni shakllantirish: Hukumat import tariflaridan tushgan daromaddan ta'lim, sog'liqni saqlash va infratuzilmani rivojlantirish kabi turli davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun foydalanadi.

Proteksionizm: Import tariflari mahalliy sanoatni xorijiy raqobatdan himoya qilish uchun ham ishlatilishi mumkin. Bunday holda, hukumat chet el importining mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan raqobatlashishiga yo'l qo'ymaslik uchun o'zimizda ishlab chiqariladigan mahsulotlarga yuqori bojlar qo'yishi mumkin.

Xalqaro savdo: Model import tariflarining xalqaro savdoga ta'sirini ham ko'rib chiqadi. Yuqori tariflar boshqa mamlakatlarning savdo qasosiga olib kelishi mumkin, bu esa eksport imkoniyatlarini qisqartirish orqali ichki iqtisodiyotga zarar etkazishi mumkin.

Iste'molchilar farovonligi: Import tariflari iste'molchilar farovonligiga ham ta'sir qilishi mumkin. Yuqori tariflar import qilinadigan mahsulotlar narxining oshishiga olib kelishi mumkin, bu esa iste'molchilar farovonligini pasaytirishi mumkin.

Umuman olganda, import bojlari stavkalarining faraziy modeli samarali siyosatini ishlab chiqish uchun davlat daromadlarini shakllantirish, proteksionizm, xalqaro savdo va iste'molchilar farovonligi kabi turli omillarni hisobga olishi kerak.

Biz tuzayotgan gipotetik model quydagi formula asosida qo'llaniladi

$$S = a + b \cdot x + c \cdot t + d \cdot k + e \cdot f + p$$

Bu yerda :

S – mahsulotning istemolchilar uchun belgilangan oxirgi narxi.

a – maxsulotning tan narxi.

x – hamkor davlat tomonidan belgilangan import tarif stavkasi.

t, k, e – mahsulot narxiga tasir qiluvchi boshqa omillar.

b, c, d, f – koifisentlar.

p - boshqa omillar bilan izohlab bo'lmaydigan mahsulotlar narxining tasodifiy o'zgarishini tavsiflovchi model xatosi.

Xulosa.

Bunday modelni yaratish uchun maxsulotlarning narxlari va ushbu mahsulotlarning import tariflari to'g'risida ma'lumotlar bo'lishi kerak. Shundan so'ng, har bir omilning mahsulotlar narxiga ta'sirini aniqlaydigan koeffitsientlarning qiymatlarini aniqlash uchun regressiya tahlili usullaridan foydalanishimiz mumkin. Bundan tashqari, vaqt seriyalarini tahlil qilish va statistik testlar kabi usullardan gipotetik modelning real ma'lumotlarga qanchalik mos kelishini tekshirish va import tariflarining turli darajalarida mahsulot narxlarini bashorat qilish uchun foydalanish mumkin.

Adabiyotlar:

Chat gpt, google, fayllar.org, penpoin.com.

NATURAL SONLAR SISTEMASI UCHUN PEANO AKSIOMALARINING KENGAYTMASI

Fozilov Shavkatjon

NamDU o'qituvchi

Yo'ldosheva Maftuna

NamDU magistranti

Kirish. Natural sonlar matematika va tegishli fanlarning yuragi hisoblanadi. Sonlar o'lchovi sifatida amaliy qo'llanilishidan tashqari, natural sonlar katta nazariy ahamiyatga ega. Ular ratsional sonlar kabi yuqori darajadagi raqamlar konstruktsiyalari uchun asos bo'lib xizmat qiladi[1]. Tyuring nazariy informatika fanida natural sonlar ham muhim rol o'ynaydi[2]. Tyuring mashinalari tomonidan qabul qilingan tillar kabi hisoblanuvchi sanab o'tiladigan to'plamlar tushunchasi natural sonlar bilan chambarchas bog'liq.

Matematikada natural sonlar to'plami uchun ikkita konventsia mavjud. Natural sonlar an'anaviy ta'rifga ko'ra $\{1,2,3,\dots\}$ musbat butun sonlar to'plami sifatida tasvirlanishi mumkin; yoki birinchi marta XIX asrda paydo bo'lgan ta'rifga ko'ra $\{1,2,3,\dots\}$ manfiy bo'lmagan butun sonlar to'plami[3]. Matematiklar barcha natural sonlar to'plamiga murojaat qilish uchun \mathbb{N} yoki N dan foydalanadilar. Bu to'plam sanaladigan-cheksiz.

Bu, shuningdek, to'plamning asosiyligi aleph null, "N" nol kiritilgan yoki kiritilmaganligi aniq bo'lishi uchun, ba'zan oldingi holatda " \emptyset " ostiga qo'shiladi va "*" ustki belgisi qo'shiladi. oxirgi holatda "1" pastki belgisi qo'shiladi. Ya'ni, $N_0 = \{0,1,2,3,\dots\}$ yoki $N^* = N_1 = \{0,1,2,3,\dots\}$ [3,4].

Peano aksiomalari natural sonlar sistemasining har qanday ta'rifi qanoatlantirish kerak bo'lgan zarur va yetarli shartlarni bildiradi[4,5]. Biroq, bu aksiomalar zarur va yetarli bo'lishi mumkinligi hisobga olinsa, natural sonlar sistemasi uchun ko'proq xususiyatlar yoki aksiomalar o'rganilmaganmi? Agar mavjud bo'lsa, ular yetarli va zarurmi? Bu savollar ushbu maqola uchun asos bo'ladigan turtki berdi. Aynan shu munosabat bilan biz Peano aksiomalari kabi bir qadar yetarli va zarur bo'lgan ikkita aksiomani taklif qildik.

Ushbu maqola N^* to'plamini mos ravishda juft va toq sonlarning X va Y bo'limlariga nisbatan ushbu ikki bo'lim o'rtasidagi korrelyatsiyani tahlil qilish maqsadida ko'rib chiqadi. Umumiyroq qilib aytganda, biz N^* uchun ushbu bo'limlarga nisbatan elementar hodisalar to'plamini Z tasodifiy o'zgaruvchisi sifatida aniqladik, shunday qilib

$$Z = \begin{cases} \{2i\}, & \forall i \in N^* \\ \{2i - 1\}, & \forall i \in N^* \end{cases}$$

Bu shuni anglatadiki, Z ehtimollik taqsimoti funktsiyasi bilan binomial taqsimotga ega bo'lishi uchun modellashtirilish mumkin;

$$b(Z; m, p) = \binom{m}{z} p^z q^{m-z}$$

Bu yerda m cheksiz sonli sinovlarni ifodalaydi.

Tarixiy jihatdan, natural sonlarning matematik ta'riflari ma'lum qiyinchiliklar bilan rivojlangan[6]. Peano aksiomalari (sonlar nazariyasida) sifatida ham tanilgan, Peano aksiomalari 1889 yilda italiyalik matematik "Juzeppe Peano" tomonidan kiritilgan beshta aksiomadan iborat[6,7]. Yunon matematigi "Evklid" (miloddan avvalgi 300-yillar) tomonidan yaratilgan geometriya aksiomalari singari, Peano aksiomalari arifmetika, sonlar nazariyasi va to'plamda qo'llaniladigan 1,2,3 natural sonlari uchun qat'iy asos yaratishga mo'ljallangan. Peano aksiomalari cheksiz belgilar va qoidalar to'plami tomonidan cheksiz to'plamni yaratishga imkon beradi. Ba'zi konstruktsiyalar shuni ko'rsatadiki, berilgan to'plam nazariyasi, Peano taxminlarining modeli mavjud bo'lishi kerak[3,4].

Peano aksiomalari natural sonlarning rasmiy nazariyasini beradi[8,9,10]. Aksiomalar quyidagilardir:

I. Butun "0" raqami mavjud.

II. Har bir "a" natural soni - $S(a)$ bilan belgilanadigan natural son vorisiga ega. Intuitiv ravishda $S(a)$ $a+1$ ga teng.

III. Faktoriali nolga teng bo'lgan natural son yo'q.

IV. S in'eksion hisoblanadi. Ya'ni, bir-biridan farq qiluvchi natural sonlarning o'ziga xos vorislari bor.

V. Agar biror xususiyatga "0" ega bo'lsa, shuningdek, unga ega bo'lgan har bir natural sonning vorisi ham bo'lsa, u barcha natural sonlarga ega bo'ladi. Ushbu postulat matematik induksiyani isbotlash texnikasi haqiqiylikini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, shuni ta'kidlash kerakki, yuqoridagi ta'rifdagi "0" biz odatda nol deb hisoblagan raqamga mos kelmasligi kerak. "0" oddiygina tegishli ketma-ketlik funktsiyasi bilan birlashganda Peano aksiomalarini qondiradigan ob'ektni bildiradi[3].

Metodologiya. Bizning birinchi aksiomamiz uchun Natural sonlar sistemasi birinchi navbatda ikkita sonlar to'plamiga bo'lingan. Bu to'plamlar: juft va toq sonlar to'plami. Keyinchalik, Pearson korrelyatsiya koeffitsienti ushbu ikki bo'lim o'rtasidagi korrelyatsiya darajasini tekshirish va boshqa foydali xususiyatlarni yaratish uchun ishlatiladi. Ikkinchi aksiomada biz har bir bo'limning bir-biriga nisbatan regressiya chiziqlari tabiatini va ularning ta'sirini aniqladik.

1-aksioma: N^* ning juft va toq bo'limlarining o'zaro bog'liqligi (bir xil kardinallik) birlikni beradi.

2-isbot: X va $Y \in N^*$ ning mos ravishda juft va toq bo'limlari bo'lsin, bir xil kardinallik bilan - $n = \frac{N^*}{2}$. Keyin $X=\{2i\}$ va $Y=\{2i-1\} \forall i \in N^*$

Pirson korrelyatsiya koeffitsienti r bo'lsin. Keyin

$$r = \frac{n \sum_{i=1}^n X_i Y_i - \sum_{i=1}^n X_i \sum_{i=1}^n Y_i}{\sqrt{n \sum_{i=1}^n X_i^2 - (\sum_{i=1}^n X_i)^2} \sqrt{n \sum_{i=1}^n Y_i^2 - (\sum_{i=1}^n Y_i)^2}}$$

Shunday qilib, $r = \sqrt{aa'}$

$$a = \frac{n \sum_{i=1}^n X_i Y_i - \sum_{i=1}^n X_i \sum_{i=1}^n Y_i}{n \sum_{i=1}^n X_i^2 - (\sum_{i=1}^n X_i)^2} \quad a' = \frac{n \sum_{i=1}^n X_i Y_i - \sum_{i=1}^n X_i \sum_{i=1}^n Y_i}{n \sum_{i=1}^n Y_i^2 - (\sum_{i=1}^n Y_i)^2}$$

Endi biz a dagi $X=\{2i\}$ va $Y=\{2i-1\}$ ni almashtiramiz

$$a = \frac{n \sum_{i=1}^n (2i)(2i-1) - \sum_{i=1}^n (2i) \sum_{i=1}^n (2i-1)}{n \sum_{i=1}^n (2i)^2 - (\sum_{i=1}^n (2i))^2}$$

$$\Rightarrow a = \frac{n \sum_{i=1}^n (4i^2 - 2i) - 2 \sum_{i=1}^n i \sum_{i=1}^n (2i-1)}{n \sum_{i=1}^n 4i^2 - (2 \sum_{i=1}^n i)^2}$$

$$\Rightarrow a = \frac{n \sum_{i=1}^n (4i^2 - 2i) - 2 (\sum_{i=1}^n i)(2 \sum_{i=1}^n i - n)}{n \sum_{i=1}^n 4i^2 - (2 \sum_{i=1}^n i)^2}$$

$$\Rightarrow a = \frac{4n \sum_{i=1}^n i^2 - 2n \sum_{i=1}^n i - 4(\sum_{i=1}^n i)^2 + 2n \sum_{i=1}^n i}{4n \sum_{i=1}^n i^2 - (2 \sum_{i=1}^n i)^2}$$

$$\Rightarrow a = \frac{4n \sum_{i=1}^n i^2 - 2n \sum_{i=1}^n i - 4(\sum_{i=1}^n i)^2 + 2n \sum_{i=1}^n i}{4n \sum_{i=1}^n i^2 - 4(\sum_{i=1}^n i)^2}$$

$$\Rightarrow a = \frac{4n \sum_{i=1}^n i^2 - 4(\sum_{i=1}^n i)^2}{4n \sum_{i=1}^n i^2 - 4(\sum_{i=1}^n i)^2}$$

$$\Rightarrow a = 1$$

Keyin a' dagi $X=\{2i\}$ va $Y=\{2i-1\}$ raqamlarini almashtiramiz:

$$a' = \frac{n \sum_{i=1}^n (2i)(2i-1) - \sum_{i=1}^n (2i) \sum_{i=1}^n (2i-1)}{n \sum_{i=1}^n (2i-1)^2 - (\sum_{i=1}^n (2i-1))^2}$$

$$\Rightarrow a' = \frac{4n \sum_{i=1}^n i^2 - 4(\sum_{i=1}^n i)^2}{n \sum_{i=1}^n (2i-1)^2 - (\sum_{i=1}^n (2i-1))^2}$$

$$\Rightarrow a' = \frac{4n \sum_{i=1}^n i^2 - 4(\sum_{i=1}^n i)^2}{n \sum_{i=1}^n (4i^2 - 4i + 1) - (2 \sum_{i=1}^n i - n)^2}$$

$$\Rightarrow a' = \frac{4n \sum_{i=1}^n i^2 - 4(\sum_{i=1}^n i)^2}{n \sum_{i=1}^n (4i^2 - 4i + 1) - (2 \sum_{i=1}^n i - n)^2}$$

$$\Rightarrow a' = \frac{4n \sum_{i=1}^n i^2 - 4(\sum_{i=1}^n i)^2}{4n \sum_{i=1}^n (4i^2 - 4i + 1) - 4(\sum_{i=1}^n i)^2 + 2(2n \sum_{i=1}^n i) - n^2}$$

$$\Rightarrow a' = \frac{4n \sum_{i=1}^n i^2 - 4(\sum_{i=1}^n i)^2}{4n \sum_{i=1}^n i^2 - 4n \sum_{i=1}^n i + n^2 - 4(\sum_{i=1}^n i)^2 + 2(2n \sum_{i=1}^n i) - n^2}$$

$$\Rightarrow a' = \frac{4n \sum_{i=1}^n i^2 - 4(\sum_{i=1}^n i)^2}{4n \sum_{i=1}^n i^2 - (4 \sum_{i=1}^n i)^2}$$

$$\Rightarrow a' = 1$$

Pearson korrelyatsiya koeffitsientini baholaymiz - r . Bundan kelib chiqadi.

$$r = \sqrt{aa'} = 1$$

Yuqoridagi dalil - X va Y o'rtasida mukammal korrelyatsiya mavjudligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, u quyidagi xulosani ham o'rnatadi.

Natija1: X va Y N^* ning mos ravishda juft va toq bo'limlari bo'lsin, bir xil kardinallik bilan - $n = \frac{N^*}{2}$. Keyin,

$$I. Cov(X, Y) = Var(x) = Var(Y)$$

$$II. Cov(X, Y) = \sqrt{Var(x)Var(Y)}$$

2-aksioma: X va Y N^* ning juft va toq bo'limlari teng kardinalliklarga ega bo'lsin. Y dagi X va X dagi Y ning chiziqli regressiya chiziqlari teng va mos ravishda $X = Y + 1$ va $Y = X + 1$ ga teng.

2-isbot: 1-aksiomadan $a = 1$ va $a' = 1$. Eslatib o'tamiz, X kuzatuvlar to'plamining boshqa Y kuzatuvlar to'plami bo'yicha va aksincha regressiya chiziqlari mos ravishda quyidagicha berilgan. $X = aY + b$ va $Y = a'X + b'$

$$\text{Shuningdek, } b = \bar{X} - a\bar{Y}$$

$$\Rightarrow b = \frac{\sum_{i=1}^n X_i}{n} - \frac{\sum_{i=1}^n Y_i}{n}$$

$$\Rightarrow b = \frac{\sum_{i=1}^n (2i)}{n} - \frac{\sum_{i=1}^n (2i - 1)}{n}$$

$$\Rightarrow b = \frac{2 \sum_{i=1}^n i}{n} - \frac{2 \sum_{i=1}^n i - n}{n}$$

$$\Rightarrow b = \frac{2 \sum_{i=1}^n i}{n} - \frac{2 \sum_{i=1}^n i}{n} + \frac{n}{n}$$

$$\Rightarrow b = \frac{2 \sum_{i=1}^n i}{n} - \frac{2 \sum_{i=1}^n i}{n} + 1$$

$$\Rightarrow b = 1$$

$$\Rightarrow X = (1)Y + 1$$

$$\Rightarrow X = Y + 1$$

$$\text{Shuningdek, } b' = \bar{X} - a'\bar{Y}$$

$$b' = \frac{\sum_{i=1}^n X_i}{n} - \frac{\sum_{i=1}^n Y_i}{n}$$

$$\Rightarrow b' = \frac{\sum_{i=1}^n (2i)}{n} - \frac{\sum_{i=1}^n (2i - 1)}{n}$$

$$\begin{aligned} \Rightarrow b' &= \frac{2 \sum_{i=1}^n i}{n} - \frac{2 \sum_{i=1}^n i - n}{n} \\ \Rightarrow b' &= \frac{2 \sum_{i=1}^n i}{n} - \frac{2 \sum_{i=1}^n i}{n} + \frac{n}{n} \\ \Rightarrow b' &= \frac{2 \sum_{i=1}^n i}{n} - \frac{2 \sum_{i=1}^n i}{n} + 1 \\ \Rightarrow b' &= 1 \\ \Rightarrow Y &= (1)X + 1 \\ \Rightarrow X &= Y + 1 \end{aligned}$$

Bu ikkinchi aksiomadan ko'rinib turibdiki

I. Modelning tushuntirish kuchi juda yuqori. Ya'ni 100%.

II. Xato atamasi nolga teng. Shunday qilib, mukammal barqarorlik mavjud.

Xulosa. Natural sonlar sistemasining ikkita bo'limini tahlil qilishda korrelyatsiya tushunchasidan foydalanilgan. Muhim natijalar aniqlandi va aksioma sifatida umumlashtirildi. Bu o'rnatilgan aksiomalar natural sonlar sistemasi bo'lgan sonlar sistemasi tomonidan majburiy ravishda qondiriladigan mavjud aksiomalarni kengaytiradi. Bu shuni anglatadiki, agar N^* yuqorida ta'riflanganidek natural sonlar sistemasi bo'lsa, yuqoridagi Peano aksiomalariga qo'shimcha ravishda,

I. N^* ning Juft va Toq bo'limlarining o'zaro bog'liqligi (bir xil kardinallik) birlikni berishi kerak.

II. Toq qismdagi (Y) Juft qismning (X) chiziqli regressiya chiziqlari mos ravishda $X=Y+1$ va $Y=X+1$

Keyingi tadqiqotlar chuqurroq nazariy va amaliy natijalarni ochib berishi kutilmoqda.

Adabiyotlar:

1. Jaeger, S. (2011), Computational Complexity on Signed Numbers.
2. Turing, A. (1936), On Computable numbers, with an Application to the Entscheidungsproblem. Proc. Of the London Mathematical Society. 42(2), 230-265.
3. Wikipedia, (2013), Natural Numbers.
4. Aitken, (2009), Chapter 1: The Peano Axioms. MATH 378, CSUSM. SPRING.
5. Joyce, D. (2005), The Dedekind/Peano Axioms. Clark University.
6. CCSA,(2013),PeanoAxioms.(http://www.priceton.edu/~achaney/tmvc/wiki100k/docs/Peano_axioms.html)
7. William,L.H.(2013),PeanoAxioms.EncyclopaediaBritannica.
8. Alozano, (2012), Peano Arithmetic. (<http://planetmath.org/peanoarithmetic>).
9. Groisser, D. (2001), Peano Axioms for the Natural Numbers.

Carl, L. (1998),
(<http://ms.uky.edu/~lee/ma502/notes2/node7.html>)

Peano's

Axioms.

РАҲБАР АЁЛЛАРНИНГ БОШҚАРУВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Хайдарова Жавоҳира Акбаровна

*Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги
Давлат бошқаруви Академияси стажёр-тадқиқотчиси*

Бугун Ўзбекистонда Президентимиз Ш.Мирзиёев бошчилигида олиб борилаётган ислохотлар раҳбарларни ўз хизмат вазифасига профессионал ёндашуви, керакли билим ва кўникмаларни эгаллаб, халқимизга сизқидилдан хизмат қилишига ундаши лозим. Ватанимизнинг янги имижини шакллантириш раҳбарларнинг энг олий мақсадларидан бирига айланиши шарт. Профессional мослашув бу, албатта, ҳудудларда, ташкилотларда, жамоада профессионал муҳитни шакллантириш, меҳнат унумдорлиги ва сифатини ошириш, ўзаро муносабатлар ва ҳамкорлик, натижадорликка эришиш орқали амалга оширилади. Бунинг учун раҳбардан аҳоли учун чексиз имкониятларни яратиб бериш, инсонни қадрлаш, муаммоларни ҳал қилишда ҳар бир масаланинг ечимига профессионал ёндашиши керак бўлади.

Ҳозирги кунда хотин-қизларнинг, шу жумладан раҳбар аёлларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, уларда жамиятдаги мавқени ошириш, уларнинг бевосита бошқарув жараёнидаги иштирокини ошириш билан боғлиқ. Ҳозирги кунда хотин-қизларнинг бошқарув фаолиятига жалб этиш борасида қатор ислохотлар амалга оширилмоқда. Жумладан сунги йилларда қатор норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда хотин-қизларни, раҳбар аёлларнинг касбий ва бошқарув малакаларини ошириш, уларда бошқарув компетенцияларни шакллантириш бўйича қатор вазифалар белгиланди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида» 60-сон, 2022 йил 7 мартдаги “Оила ва хотин-қизларни тизимли қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 87-сон фармонида Давлат бошқаруви академиясида раҳбар хотин-қизларни тайёрлаш бўйича алоҳида ўқув курсларини ташкил этиш ҳамда ҳар йили камида 100 нафар хотин-қизларни ўқитиш, барча давлат органлари ва ташкилотлари, устав

капиталида давлат улуши 50 фоиз ва ундан ортиқ бўлган ташкилотлар ҳамда уларнинг тизимидаги ташкилотлар раҳбарларининг камида 1 нафар ўринбосарини хотин-қизлар орасидан тайинлаш, Хотин-қизларни тадбиркорликка жалб қилиш учун Халқ банки тизимида раҳбарнинг хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш бўйича ўринбосари лавозими жорий этиш, иқтидорли ёш хотин-қизларни раҳбарлик лавозимларига тавсия этиш тизимини яратиш каби вазифлар белгиланган¹⁶⁹.

Маазкур вазифалардан келиб чиқиб ҳозирги кунда бу борада республика ва вилоят даражасида алоҳида белгиланган дастурлар доирасида чора-тадбирлар амалга оширилмоқда, лекин туман даражасида хотин-қизларни, шунингдек, раҳбар аёлларнинг касбий ва бошқарув компетенцияларини ривожлантириш борасида ишлар самарали ташкил этилгани йўқ. Сабаби барча хотин қизларни вилоят марказида ўқувларга мунтазам жалб қилиш имконияти чекланган. Шунинг учун туман даражасида махсус ўқувлар ва хотин-қизлар ҳамда раҳбар аёллар учун махсус онлайн платформаларни (бошқарув компетенцияларини ривожлантиришга қаратилган) ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ. Шунингдек, хориж тажрибасини ўрганиш асосида қўйи бўғинда фаолият юритаётган раҳбар аёлларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, уларда бошқарув компетенцияларни ривожлантириш асосида бошқарувнинг ўрта ва юқори бўғинидаги раҳбарлик лавозимларига захира кадрларни шакллантириш мақсадга мувофиқ.

Бу борада хориж тажрибасига таянадиган бўлсак, Америкалик тадқиқотчи Хуберт Хамфри раҳбар аёлларнинг бошқарув фаолиятидаги ёндашуви икки жиҳатини ажратиб кўрсатади: 1) Эркак ва аёл раҳбар кадрлар бошқарув функциялари (режалаштириш, ташкилаштириш, мувофиқлаштириш, назоарт ва рағбатлантириш)ни бажаришда ўхшашликни намоиш этадилар; 2) Бошқарув қарорлари ижросини таъминлашда эркак ва аёл раҳбар кадрлар ўртасида фарқлар мавжуд¹⁷⁰.

Сунги йилларда амалга оширилган тадқиқотларда хотин-қизларда бошқарув компетенцияларини ривожлантириш, уларнинг нафақат ижтимоий-иқтисодий фаоллиги балки, сиёсий фаоллигинини ҳам ошириб, уларни бошқарувдаги нуфузини, иштирокини оширади деган ёндашув илгари муҳим аҳамият касб этмоқда.

Россиялик тадқиқотчилар Е. А. Смирнов ва М. В. Рослякованинг 2020 йилда чоп этилган “Бошқарув жамоасида гендер омили” номли мақоласида аёл ва эркак раҳбарларнинг ишбилармонлик фазилатларининг

¹⁶⁹ <https://lex.uz/docs/5899498>

¹⁷⁰ Теоретические аспекты деятельности женщины-руководителя [Электронный ресурс]. — URL: <http://refbox.org/3630-teoreticheskie-aspektydeyatelnosti-zhenschiny-rukovoditelya.html>

бир-бирини тўлдиришига урғу бериш, бошқарув жамоасининг (ташкilot ходимларининг) жипслашувига, уларни ўзаро хамжиҳатлигини таъминлаш имкони беради деган фаразани илгари сўради¹⁷¹. Бу реал ҳаётда ўз ифодасини топаётганлиги Ўзбекистонда

Ҳозирги кунда давлат сиёсатини шакллантиришда ва қарорлар қабул қилишда раҳбар аёллар фаол иштирок этмоқда. “Ўрганиш натижалари мамлакатимизда тузилмавий ва институционал ўзгаришлар изчил давом этаётганини, гендер тенглик соҳасидаги қонунчилик такомиллаштирилаётганини, хотин-қизларнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётдаги ўрни ва мавқеи ортиб бораётганини тасдиқлайди. Сиёсий партияларда хотин-қизлар улуши 47 фоизга, олий таълимда 40 фоизга, тадбиркорлик фаолиятида эса 37 фоизга етди. Раҳбар лавозимларда ишлаётган аёллар улуши — 33 фоиз. Бугунги кунда 2 мингга яқин давлат ва жамоат ташкилотларига аёллар раҳбарлик қилмоқда”¹⁷².

Раҳбар аёлларнинг бошқарув компетенциялари ривожлантиришни тизмли ташкил этиш ҳар бир вилоятда раҳбар аёлларнинг бошқарув компетенцияларини баҳолавчи “Ассессмент марказ”лар ташкил қилиш ҳамда ҳар чоракда раҳбар аёлларнинг бошқарув компетенцияларини баҳолаш асосида уларни махсус модуллар (бошқарув компетенцияларн шакллантиришга қаратилган) бўйича ўқитиш мақсадга мувофиқ.

Социология фанлари доктори, профессор Т.Норбоева “Аёл кишининг бошқарув услуби хотиржамроқ, мувозанатлироқ, юмшоқроқдир. Ўз ишида қатъиятлилик, сабр-тоқат ва нарсаларни охирига етказиш қобилияти етакчи аёлга муваффақиятга эришишга ёрдам беради. Агар компания аёл томонидан бошқарилса, ривожланиш одатда изчил бўлади. Масъулият ва кичик масалаларга ҳам эътибор қаратиш биринчи ўринга чиқади. Қарор қабул қилувчи тузилмаларда аёлларнинг фаолият олиб бориши сиёсатнинг ижтимоий йўналтирилишини таъминлайди”¹⁷³ деб таъкидлайди.

Тўғри аёл раҳбар кадрларнинг бошқарув жараёнидаги иштироки уларнинг ижтимоий мавқеи ва жамиятдаги ролни ошириш билан биргаликда, гендер тенгликни таъминлашга хизмат қилади.

¹⁷¹ Смирнов Е. А., Рослякова М. В. Гендерный фактор в управленческой командной работе / Женщины в профессиях XXI века: тенденции, проблемы, перспективы: материалы Всероссийской научной конференции с международным участием. Москва, 3 марта 2020 г. — Иваново: Ивановский государственный университет, 2020. — С. 32–39.

¹⁷² Давлат бошқарувидаги ТОП-40 раҳбар аёллар рейтинги // <https://www.xabar.uz/infografika/davlat-boshqaruvidagi-top-40>

¹⁷³ Аёл раҳбар қандай бўлиши керак? // <https://xs.uz/uzkr/post/gender-tenglik-yangi-ozbekiston-ustuvor-jonalishining-azhralmas-qismiga-ajlandi-tanzila-narbaeva>

Хулоса килиб айтганда, раҳбар аёлларнинг бошқарув компетенцияларини ривожлантиришда қуйидагиларга эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ:

Биринчидан, хотин-қизлар, шу жумладан раҳбар аёлларда бошқарув компетенцияларни шакллантириш мактаб таълимидан бошланиши, мактаб ва олий таълим тизимида миллий ғоя, миллий мафкура билан бир қаторда махсус лидерлик кўникмалари бўйича амалий, тренинг машғулотлари жорий этилиши, ёшларни келгусида раҳбарликка тайёрлаш билан бир қаторда, хотин-қизларимизнинг бошқарув соҳасида ўзида бўлган ишончни ортиради;

Иккинчидан, барча олий таълим муассасаларида “Ёш лидер қизлар” клубини ташкил этиш орқали, уларда бошқарув кўникмаларини шакллантириш, давлат тузилмалари ва ташкилотларидаги раҳбар аёллар томонидан улар учун махсус мастер-класс ташкил этиш орқали уларни бошқарув фаолиятига қизиқишини уйғотиш мақсадга мувофиқ;

Учинчидан, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви Академияси ҳудудий филларларида ҳам “Раҳбар аёллар” учун махсус ўқув курсларини ташкил этиш, хотин қизларни бошқарув компетенцияларини ривожлантириш бўйича амалга оширилган ишларни қамровини оширади;

Тўртинчидан, ҳар бир вилоятда хотин қизларни, раҳбар аёлларнинг бошқарув компетенцияларни баҳолашчи ва ривожлантиришга ихтисослашган “Ассесмент” марказларини ташкил этиш ва кўчма (сайёр) тадбир орқали махсус тестлар, сўровнома ва интервьюлар орқали уларни бошқарув салоҳиятини баҳолаб бориш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар (Reference)

1. Теоретические аспекты деятельности женщины-руководителя [Электронный ресурс]. — URL: <http://refbox.org/3630-teoreticheskie-aspektydeyatelnosti-zhenschiny-rukovoditelya.html>

2. Смирнов Е. А., Рослякова М. В. Гендерный фактор в управленческой командной работе / Женщины в профессиях XXI века: тенденции, проблемы, перспективы: материалы Всероссийской научной конференции с международным участием. Москва, 3 марта 2020 г. — Иваново: Ивановский государственный университет, 2020. — С. 32–39.

3. Давлат бошқарувидаги ТОП-40 раҳбар аёллар рейтинги // <https://www.xabar.uz/infografika/davlat-boshqaruvidagi-top-40>

4. Аёл раҳбар қандай бўлиши керак? // <https://xs.uz/uzkr/post/gender-tenglik-yangi-ozbekiston-ustuvor-jonalishining-azhralmas-qismiga-ajlandi-tanzila-narbaeva>

MAKTAB TA'LIMI TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR

Umurzakova Nargiza Muxtarovna

"Gumanitar fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi (ilmiy rahbar)

Xakimov Oyatillo Komoljon o'g'li

Toshkent Davlat Agrar Universiteti "Yurisprudensiya" yo'nalishi 1-kurs talabasi

"Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi"

Shavkat Mirziyoyev

Bu tizim maktab o'quvchilarida ta'lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish talab etilmoqda; ayrim maktablarda o'quvchilar soni sinfda o'quv jarayoni sifatining keskin pasayishiga olib keladigan darajada oshib ketgan; pedagoglarning metodik ta'minotini yaxshilash lozim; darsliklarni yaratish tizimida xilma-xillikning yo'qligi ularni yaratish va nashr qilishni monopollashtirishga omil bo'lib qolmoqda hamda ularning mazmuni, metodikasi va nashr sifatiga salbiy ta'sir etmoqda; davlat ta'lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan, o'qitish va baholash metodlari, shuningdek darsliklar va boshqa o'quv materiallarini asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan bo'lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda; foydalanilayotgan darsliklar sifatini oshirish, xorijiy o'quv qo'llanmalarini qo'shimcha yoki muqobil o'quv materiallari sifatida qo'llash amaliyotini yo'lga qo'yish talab etilmoqda; xorijiy tillar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'qitish jarayoni metodik yordamga muhtoj; xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'lim dasturlari yetarli darajada rivojlanmagan, mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari dasturlarida o'qituvchilarning inklyuziv ta'lim bo'yicha maxsus tayyorgarligini ta'minlash lozim; maktablarda nizolarni hal qilish va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha samarali ichki tizim, shuningdek o'quvchilarni xavf guruhidan chiqarish uchun maktab o'qituvchilari va psixologlari malakasini oshirish yuzasidan maxsus dasturlar ishlab chiqish talab etilmoqda.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 37-50-maqсадlarida belgilangan quyidagi vazifalar, xususan: Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish, kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlariga o'qitish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish; umumta'lim maktablarining kasb o'rganish istagidagi bitiruvchilarini davlat tomonidan kamida bir kasbni

egallashiga ko'maklashuvchi tizimni joriy etish; maktabgacha ta'limning qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish; 2022/2023-yillarda 6 yosh.li bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024/2025-o'quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish; maktabgacha ta'lim tizimiga xususiy sektor mablag'larini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish; maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratish; yangi maktablar qurish, xususiy maktablarni ko'paytirish, ta'lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi milliy dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish, o'quv o'rinlari sonini 2026-yil yakuniga qadar 6,4 milliongacha yetkazish; nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlarga sharoit va imkoniyatlarni kengaytirish orqali ularning ulushini 2026-yilda 8 foizga, shu jumladan, 2022-yilda 3 foizga oshirish; yoshlarni san'at dunyosiga oshno etish, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta'minlangan 100 mingdan ortiq bepul to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish; chekka hududlarda maktab hamda maktabgacha ta'lim muassasalariga transport qatnovini yo'lga qo'yish; 2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish; milliy o'quv dasturiga asosan 2026-yilga qadar 699 nomdagi, shu jumladan, 2022-yilda 296 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o'qituvchi metodik kitoblari hamda mobil ilovalarni yaratish; milliy o'quv dasturi bo'yicha yangi metodikalarga o'qituvchilarni o'qitish maqsadida elektron malaka oshirish platformasi uchun 2026-yilga qadar jami 769 ta videodars yaratish; umumta'lim maktablarida darslik va o'quv-metodik majmualarini tajribasinovdan hamda chet ellik mutaxassislar ishtirokida ekspertizadan o'tkazish tizimini joriy etish; malakali o'qituvchilarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1000 AQSh dollari ekvivalentiga yetkazish. Jahonning turli nuqtalarida urushlar davom etayotganligiga doir misollar keltirgan holda O'zbekistonda jamiyat tinchlik, osoyishtalik bilan yashayotgani, davlat tomonidan inson qadrini ulug'lashga oid chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi to'g'risida axborotlar beriladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida joriy o'quv yilining uchinchi choragidan boshlab 10-11-sinflarida fanlar ixtiyoriy tanlov asosida o'qitiladigan bo'ldi. Bu borada 2019-yilning 28-dekabr kuni Xalq ta'limi vazirining "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida variativ o'quv rejalarni tajriba-sinovdan o'tkazish" to'g'risidagi 405-sonli buyrug'i chiqdi va u joylarga yetkazildi.

Bu xabar ko'plab o'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilarda turli savollar paydo qildi. Jara-yon qanday tashkil etiladi? Maktablarda bunga sharoit bormi? Qaysi yo'nalishlar tanlov fanlarga qamrab olingan? O'quvchilarning barchasi o'ziga kerakli fanlarni tanlab, boshqasida qatnashmasa, boshqa fanni umuman

o'qimasa ham bo'laveradimi? Maqolada mana shu kabi savollarga javob olishingiz mumkin.

Variativ o'quv rejani joriy qilish — ixtiyoriy avvalo, variativ o'quv rejani joriy etishdan maqsad o'quvchi-ning manfaatlarini inobatga olish, ularning oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlari mavjud fanlarni chuqur o'rganishlariga sharoit yaratish, o'quv jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishdan iborat. Ammo, shunday bo'lsa-da, o'quvchi, o'qituvchilar va ota-onalar tomonidan qo'llab-quvvatlanmasa, maktabda variativ o'quv reja bo'yicha tegishli fandan dars berish uchun yetarli malaka va tajribaga ega o'qituvchilar bo'lmasa, joriy etilmaydi. Shuningdek, variativ o'quv reja amalga oshirilayotgan maktablarda o'quvchilarning xohish-istaklariga ko'ra an'anaviy sinflar ham mavjud bo'ladi. An'anaviy sinflarda 2019/2020-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja asosida dars olib borilsa, tanlov sinflarda variativ o'quv reja amalda bo'ladi. Tanlov sinfida o'quvchilar soni 35 nafargacha bo'ladi.

Tanlov sinflar yo'nalishlari:

- xorijiy til va filologiya;
- moliya-iqtisod;
- texnologiya;
- tabiiy fanlar;
- ijtimoiy-gumanitar.

Tanlov sinfi yo'nalishi 10-, 11-sinf o'quvchilari o'rtasida so'rovnoma o'tkazish orqali aniqlanadi. Bir nafar o'quvchi faqat bitta yo'nalishni tanlaydi. Maktabda barcha yo'nalishdagi tanlov sinflari ochilishi talab etilmaydi. Ya'ni, maktab ichki imkoniyati, pedagoglar darajasidan kelib chiqib, 5 ta yo'nalishdan biri yoki bir nechta ochilishi mumkin.

Tanlov sinflarini joriy etish uchun maxsus komissiya tuziladi. Komissiya tarkibi:

- maktab direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari;
- maktab psixologi;
- amaldagi 10-11-sinf rahbarlari;
- fan metod birlashma rahbarlari;
- ota-onalar qo'mitasi raisi.

Komissiya o'quvchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkazib, natijasini umumlashtiradi.

Tanlov sinfida o'qishni xohlagan o'quvchilar soni 35 nafardan oshib ketsa, maktab tomonidan tegishli fan bo'yicha sinov o'tkaziladi. Natijalarga ko'ra o'quvchilar saralab olinadi. Agar tanlov sinfida o'qish istagidagi o'quvchilar 35 nafardan oshmasa, hech qanday sinov tashkil etilmaydi. Ota-onalar farzandlarini tanlov sinfiga qabul qilish to'g'risida direktor nomiga ariza yozishlari shart. Zero, o'quvchining ertangi kelajagini hal qilishda muhim rol o'ynaydigan ushbu bosqich

ota-ona roziligisiz yoki ularni ogohlantirishsiz tashkil etilmaydi. Agar o'quvchi va ota-ona bola tanlov sinfda o'qishni istamasa, an'anaviy sinfda o'qishni davom ettiraveradi. O'quvchilar eng ko'p tanlagan yo'nalish bo'yicha sinflar soniga mutanosib ravishda yangidan sinflarga ajratiladi. Sinflar soni mavjud 10-, 11-sinflar sonidan oshib ketishiga yo'l qo'yilmaydi.

Jarayonda fanlar ikki guruhga bo'linadi:

1. Majburiy fanlar.
2. Tanlov fanlar.

Tanlov sinfida tayanch o'quv rejada belgilangan soatlar doirasida o'quvchilar soni 25 nafar va undan ziyod bo'lgan 10-11-sinfda o'quvchilarni ikki guruhga bo'lib o'qi-tishga ruxsat beriladi (chet tili, informatika, jismoniy tarbiya, o'zbek (rus) tili). Tanlov fanlarga ajratiladigan qo'shimcha soatlarni o'tishda fanlar bo'lib o'qi-tilmaydi. Jumladan, tanlov fani sifatida tanlangan majburiy fanlar: chet tili, informatika, jismoniy tarbiya, o'zbek (rus) tili fanlari ham ikki guruhga bo'lib o'qitilmaydi. Mazkur fanlarga tayanch o'quv rejada ajratilgan soatlar bundan mustasno.

Yuqorida ko'rsatilgan barcha qonun va farmonlar bevosita ta'lim sifatini rivojlantirishga qaratilgan. Shi bilan birgalikda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2023-yilni "Inson e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb belgilanishi ta'limga etiborni yanada kuchaytirilganligidan dalolatdir. Ta'lim tizimini rivojlanirish to'g'risida ko'plab qaror va farmonlar elon qilingan. Bulardan biri "Variativ sinf" larni tashkil qilish bo'ldi. Bu tizim juda ham yaxshi ishlangan. Bugungi kunda maktabgacha talim tizimi yaxshi rivojlangan, unda bolalarga bog'chalarda maktabgacha bo'lgan bilimlarni yetarli darajada o'rgatilmoqda deb o'ylayman. Lekin maktab tizimida ancha oqsoqlanyapti. Chunki 9-10-sinfdan boshlab o'quvchilarning 70-80 % maktab darsliklarini o'qimaydi. Ikkinchidan o'quvchilar OTMlarga kirish uchun albatta Abyutrentlar tayyorlash markazida bir yil imtihonlarga tayyorgarlik ko'rishlari kerak bo'ladi. Uchinchidan Abyutrentlar tayyorlash markaziga borish uchun ko'p o'quvchilarning oilaviy sharoiti yetarli emas. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini rivojlantirish kerak.

Variativ sinf juda ham to'g'ri tanlanib ishlangan, lekin unga ozgina o'zgartirishlar va uni tezroq maktablarda o'tkazish kerak. Bu tizim 2019-yilning 28-dekabr kuni Xalq ta'limi vazirining "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida variativ o'quv rejalarni tajriba-sinovdan o'tkazish" to'g'risidagi 405-sonli buyrug'i chiqqan oradan shuncha vaqt o'tib bu tizm maktablarda tarqalmagan. Bu bilan xulosa qilishimiz mumkinki variativ sinf hali ham sinov tariqasida o'tkazilmoqda yoki ba'zi mutassaddi tashkilotlar tizimga betibor qarashmoqda. Variativ sinf tizimidagi o'quvchilar soni, tanlov fanlarini va kasb-hunarlarini ko'paytirish kerak deb o'ylayman. Bu bilan o'quvchilar o'zi istagan kasb va hunarni puxta egallaydi.

Bularga erishish uchun mutasaddi tashkilotlardan ozgina xarakat qilishlari kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2019-yilning 28-dekabr kuni Xalq ta'limi vazirining "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida variativ o'quv rejalarni tajriba-sinovdan o'tkazish" to'g'risidagi 405-sonli buyrug'i.

2. marifat.uz <http://marifat.uz> > 4051.

ТУРИЗМ СОҲАСИДА ТУРИСТИК КОРХОНАЛАРИНИНГ ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИЯТИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИ ТИЗИМИНИ МОДЕЛЛАШТИРИШДА ИҚТИСОДИЙ ЎСИШНИ СИФАТ ЖИҲАТИДАН БАҲОЛАШ КЎРСАТКИЧИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Халбаев Шахриёр Абдуллаевич

Шароф Рашидов номидаги

Самарқанд давлат университети тадқиқотчиси

Инновацион иқтисодиёт шароитида туризм соҳасида иқтисодий салоҳиятни шакллантириш ва улардан фойдаланиш жараёнларини моделлаштириш усулларида кенг фойдаланишни тақозо этмоқда. Туризм соҳаси стратегик соҳа бўлиб, умуман иқтисодиётнинг самарадорлиги унинг самарадорлигига боғлиқдир.

Мамлакатимизда иқтисодий ислохотларни амалга ошириш жараёнида туризм соҳасида мавжуд салоҳиятдан самарали фойдаланиш ҳисобига мамлакат иқтисодий ўсишини таъминлашга кенг эътибор қаратилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январда ПФ-60-сонли "2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони билан тасдиқланган 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясининг учинчи "Миллий иқтисодиётни жадал ривожлантириш ва юқори ўсиш суръатларини таъминлаш" устувор йўналишида «Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қилинг» дастури доирасида маҳаллий сайёҳлар сонини 12 миллион нафардан ошириш ҳамда республикага ташриф буюрадиган хорижий туристлар сонини 9 миллион нафарга етказиш" 35-мақсади белгиланди. Шу нуқтаи назардан, бугунги туризм соҳаси иқтисодий салоҳиятдан самарали фойдаланиш ва ривожлантириш стратегияси такомиллаштириш, шунингдек, туризм соҳасида туристик корхоналарининг иқтисодий салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлиги

тизимини моделлаштиришда иқтисодий ўсишни сифат жиҳатидан баҳолаш кўрсаткичидан фойдаланиш долзарб масала ҳисобланади.

Туризм соҳаси фаолиятининг илмий ғоялари ва концептуал асослари кўплаб маҳаллий К.Х.Абдурахмонов, Н.Т.Тухлиев, М.Қ.Пардаев, И.С.Тухлиев, А.А.Эштаев, М.Т.Алиева, А.Н.Норчаев, Б.Ш.Сафаров, Д.Қ.Усманова каби иқтисодчи олимлар илмий-тадқиқот ишларини олиб бормоқдалар.

Бугунги кунда туристик корхоналар фаолияти самарадорлигини таъминлаш учун ҳал қилиниши керак бўлган асосий муаммо иқтисодий салоҳиятни шакллантириш ва улардан фойдаланиш сифатини оширишдир. Туристик корхоналарнинг иқтисодий салоҳиятини самарали шакллантириш ва улардан фойдаланишга қаратилган бошқарув қарорлари тизимини ишлаб чиқиш ушбу муаммонинг ечими ҳисобланади. Шунингдек, модернизациялашган иқтисодий шароитларга жавоб берадиган иқтисодий салоҳиятни баҳолашнинг илмий асосланган усуллари ва моделларини излаш ва қўллаш муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги ПФ-5611-сонли «Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Фармонининг 1-илоvasи билан тасдиқланган “2019 — 2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш концепцияси”да: “2019 — 2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Концепцияси қулай иқтисодий шароитлар ва омилларни яратиш бўйича олиб борилаётган ислохотларнинг самарадорлигини ошириш, туризм соҳасини жадал ривожлантириш бўйича устувор мақсад ва вазифаларни белгилаш, унинг иқтисодиётдаги ўрни ва улушини ошириш, хизматларни диверсификациялаш ва уларнинг сифатини ошириш ҳамда туризм инфратузилмасини такомиллаштиришга қаратилган”¹⁷⁴-дея таъкидланган. Шунингдек, Концепцияга мувофиқ, сифатли туристик маҳсулотларни шакллантириш, мавсумий омилларга бўлган қарамликни камайтириш ҳамда меҳмонхоналар юқловини, айниқса йилнинг номавсумий ойларида ошириш мақсадида ички ресурслардан самарали фойдаланиш масаласига алоҳида урғу берилган. Бу эса ўз навбатида туризм соҳасида иқтисодий салоҳиятдан самарали фойдаланишни тақозо қилади.

1-жадвал

¹⁷⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги ПФ-5611-сон «Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Фармони. <https://lex.uz/docs/4143188>

**Ўзбекистон Республикасида туризм соҳаси ривожланишининг
ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичлари динамикаси¹⁷⁵**

№	Кўрсаткичлар	2014 йил	2015 йил	2016 йил	2017 йил	2018 йил	2019 йил	2020 йил	2021 йил	2014-2021 й.й. да ўсиш, %
1	Ташриф буюрувчилар сон-жами, минг киши	621 9,3	717 6,2	774 6,6	1001 8,4	1619 6,6	1766 7,2	457 4,8	623 8,9	100,3
2	Кирувчи туризм: Ўзбекистон Республикасига келган ташриф буюрувчилар (чет эл фуқаролари) сони, минг киши	186 2,0	191 7,7	202 7,0	2690 ,1	5346 ,2	6748 ,5	150 4,1	188 1,3	101,0
3	Чиқувчи туризм: Чет элга кетган ташриф буюрувчилар (Ўзбекистон)	278 5,8	350 4,3	384 7,8	5182 ,5	8594 ,8	8437 ,8	200 1,5	219 4,8	78,8

¹⁷⁵ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари.

	Республик аси фуқаролар и) сони, минг киши									
4	Ички туризм, минг киши	157 1,5	175 7,2	187 1,7	2145 ,9	2255 ,5	2480 ,8	106 9,2	216 2,7	137, 6

Ташриф буюрувчи – бу ўзининг одатий муҳитидан бирор бир белгиланган асосий жойга, ташриф буюраётган мамлакатда ёки жойда рўйхатга олинган корхонага ишга жойлашиш мақсадни кўзлаб, бир йилдан кам бўлган муддатга сафарни амалга оширувчи саёҳатси Республикамизда бу кўрсткич 2021 йилга келиб 6238,85 минг кишини ташкил этиб, 2014 йилга нисбатан 100.3 фоизни ташкил қилмоқда. Таҳлил шуни кўрсатадики, асосан мамлакатимизда ички туризмни ривожлантириш эвазига ўсиш таъминланган.

Кирувчи туризм: Ўзбекистон Республикасига келган ташриф буюрувчилар (чет эл фуқаролари) сони 2021 йилда 1881,35 минг кишини ташкил қилиб 2014 йилга нисбатан 101,0 фоизни ташкил қилмоқда. Чиқувчи туризм эса, 2021 йилда 2194,85 минг кишини ташкил қилиб, 2014 йилга нисбатан 22,2 фоизга камайган. Ички туризм 2021 йилда 2162,7 кишини ташкил этиб, 2014 йилга нисбатан 137,6 фоизга ошган (1-жадвал).

Молиявий-иқтисодий жараёнларнинг ички қарама-қаршиликларини ўрганиш зарурати корхоналар ресурсларини шакллантириш ва улардан фойдаланиш кўрсаткичлари ва уларнинг фаолияти кўрсаткичларининг ўзаро таъсирини ўрганишни белгилайдиган мураккаблик ва изчиллик нуқтаи назаридан тадқиқотлар ўтказишни ўз ичига олади.

Туристтик корхоналарнинг иқтисодий салоҳиятни бошқариш тизимининг асосий мақсади қуйидаги функция билан расмийлаштирилган шаклда ифодаланиши мумкин:

$$P_{iq} = \left(\frac{T_{st}}{A_k} \cong \frac{K_x}{K_{um}} \cong \frac{P_m}{M_{qm}} \right) \quad (1)$$

P_{iq} - корхонанинг иқтисодий салоҳияти;

T_{st} - сотишдан тушган тушум;

A_k - корхона активлари;

K_x - хусусий капитал;

K_{um} - умумий капитал;

P_m - пул маблағлари;

M_{qm} - қисқа муддатли мажбуриятлар.

Тақдим этилган ҳар бир кўрсаткич контекстида бундай ўзига хосликка эришиш учун мулк мезонини баҳолашда ёзишмаларни амалга ошириш керак. Потенциалнинг ўзи мулкни баҳолаш мезони билан белгиланади.

Ўрганилаётган корхоналар бўйича таҳлил маълумотларидан фойдаланган ҳолда намунавий ҳисобот кўрсаткичларини қуриш ва уларни ҳисоблаш, мавжуд ҳисоботлардан ҳисоблаш йўли билан олинган коэффитсиэнт қийматларини баҳолаш қуйидагилар бўйича таклиф этилаётган иқтисодий салоҳиятни ўлчаш тизимининг асосий элементларини ташкил қилади. шакл:

$$R_{qay} = \frac{T}{K_{um}} \quad (2)$$

Бу ерда:

R_{qay} - ресурслар қайтими;

T - сотишдан тушган тушум;

K_{um} - умумий капитал.

$$M_m = \frac{K_{sh} * R_{sam}}{T} \quad (3)$$

M_m - Молиявий мустақиллик

$$M_L = \frac{0,04 * 4T}{zaxiralar + D/Q + P_m} \quad (4)$$

M_L - мутлоқ ликвидлик;

D/Q - дебиторлик қарзлари;

P_m – пул маблағлари.

Кейин ўзаро боғлиқ элементларни ҳисобга олган ҳолда молиявий мустақилликнинг асосий кўрсаткичи қуйидаги шаклни олади:

$$M_m = \frac{0,04 * K_{um} * R_{sam}}{M_L (zaxiralar + D/Q + P_m)} \quad (5)$$

Шундай қилиб, молиявий мустақиллик кўрсаткичи туристик корхоналарининг иқтисодий салоҳиятини шакллантириш ва улардан фойдаланиш самарадорлигининг комплекс кўрсаткичини яратиш нуқтаи назаридан ўзгартирилди. Ушбу интеграциялашган кўрсаткич биз томонидан белгиланади "Иқтисодий ўсишни сифат жиҳатидан баҳолаш кўрсаткичи", чунки у иқтисодий салоҳиятнинг сифат хусусиятини акс эттирувчи самарадорлик кўрсаткичидир.

Кейин, мос равишда, керакли модель қуйидаги шаклни олади:

$$K_{iqo'sjb} = \frac{0,04 * K_{um} * R_{qay}}{M_L * (zaxiralar + D/Q + P_m)} \quad (6)$$

$K_{iqo'sjb}$ - иқтисодий ўсишни сифат жиҳатидан баҳолаш кўрсаткичи;

K_{um} - умумий капитали;

R_{qay} - ресурслар қайтими;

M_L - мутлақ ликвидлик;

D/Q - дебиторлик қарзлари;

P_m - нақд пул;

Ушбу моделдан фойдаланиш туристик корхоналарининг иқтисодий салоҳиятининг ҳақиқий ва истиқболли даражасини баҳолаш имкониятини назарда тутди. Туристик корхоналарининг иқтисодий салоҳиятини баҳолаш натижалари, тақлиф этилаётган моделдан фойдаланган ҳолда амалга оширилган ҳақиқий кўрсаткич.

Ўрганилаётган давр учун корхоналарнинг иқтисодий ўсишини сифат жиҳатидан баҳолаш 2-жадвалда келтирилган.

2-жадвал

Самарқанд вилояти туристик корхоналарининг иқтисодий ўсишини сифат жиҳатидан баҳолаш кўрсаткичи қийматлари (2015-2021 йй.)¹⁷⁶

№	Туристик корхоналар номи	2015 йил	2016 йил	2017 йил	2018 йил	2019 йил	2020 йил	2021 йил
1	"ATLANTA AIR" хусусий корхонаси	0,00	0,01	0,02	0,54	0,01	0,01	0,03
2	"AZIM TRAVEL SERVICE" МЧЖ	0,00	0,03	0,04	2433,93	57,77	0,39	0,23
3	"KARVON SAMARQAND" МЧЖ	0,00	0,05	0,14	2,22	0,13	0,31	0,10
4	"SHAHEREZADA SAM STAR TOUR" МЧЖ	0,00	0,09	0,04	0,12	0,20	0,13	1,18
5	"SOGDA-TUR" МЧЖ	0,00	0,39	0,06	0,01	2,36	0,01	0,18
6	"SPUTNIK TRAVEL KOMPANI" МЧЖ	0,00	1,29	11,17	1769,87	0,86	0,09	0,44
7	"TOUR ORINT TRAVEL" МЧЖ	0,00	0,00	0,01	0,11	0,02	0,00	0,01
8	"MUXTOR NUR TRANS SERVIS" МЧЖ	0,00	233,06	27,28	45,44	106,04	6,36	33,60
9	"DINARA TOUR SERVICE" МЧЖ	0,00	0,06	1,05	0,21	9,74	0,29	0,11
10	"SILK-TUR" МЧЖ	0,00	0,01	0,02	0,11	0,05	0,00	0,00
11	"ZAMIN-TRAVEL" МЧЖ	0,00	0,00	0,15	0,61	4,98	-0,02	0,00

Кўрсаткичнинг бундай ўзгарувчанлиги ($K_{iqo'sjb}$) анъанавий баҳолаш методологиясидан фойдаланган ҳолда ушбу корхоналарнинг иқтисодий салоҳиятини таҳлил қилиш жараёнида ресурс ва самарадорлик

¹⁷⁶ Муаллиф томонидан туристик корхоналарнинг молиявий ҳисоботлари асосида ишлаб чиқилган.

компонентлари учун алоҳида олинган натижалар билан таққосланади. Бу ликвидлик кўрсаткичлари динамикасининг катта ўзгарувчанлиги билан изоҳланади: баъзи корхоналар учун жуда паст ва бошқалар учун нормал қийматларга нисбатан жуда юқори. Рентабеллик кўрсаткичлари сўнгги йилларда ривожланиш тенденцияларининг ёмонлашувидан, рентабелликдан далолат беради. Бу омилларнинг барчаси корхоналарнинг иқтисодий салоҳиятига салбий таъсир кўрсатади.

Самарқанд вилояти туристик корхоналари ичида "MUXTOR NUR TRANS SERVIS" масъулияти чекланган жамиятининг иқтисодий ўсишини сифат жиҳатидан баҳолаш кўрсаткичи ижобий тенденцияга эга.

Бухоро вилояти туристик корхоналари ичида 2021 йил мобайнида "BUKHARA ECO TOUR" ва "ARK TRAVEL" масъулияти чекланган жамиятларининг иқтисодий ўсишини сифат жиҳатидан баҳолаш кўрсаткичи ижобий тенденцияга эга (3-жадвал).

Самарқанд ва Бухоро вилоятлари туристик корхоналарининг иқтисодий ўсишини сифат жиҳатидан баҳолаш кўрсаткичларини яхшилашда туристик корхоналари сотишдан тушган тушум ва ўз маблағлари манбааларини янада кўпайтиришга тақозо қилади.

Шуни таъкидлаш керакки, энг самарали иқтисодий салоҳият барқарор иқтисодий ривожланиш тизимида туристик корхоналари фаолиятига таъсир қилади. Шундай қилиб, ресурслар ва натижалар ўртасидаги ўзаро таъсир доирасини ва унинг иқтисодий потенциалга таъсир даражасини баҳолаш уни ўзгарувчан иқтисодий муҳитга мослаштиришга имкон беради. Туристик корхоналарнинг иқтисодий ресурс интенсивлиги кўрсаткичини аниқлаш зарурати туғилади. Бу иқтисодий салоҳиятни шакллантириш ва ундан фойдаланишни баҳолашни чуқурлаштиради.

3-жадвал

Бухоро вилояти туристик корхоналарининг иқтисодий ўсишини сифат жиҳатидан баҳолаш кўрсаткичи қийматлари (2015-2021 йй.)¹⁷⁷

№	Туристик корхоналар номи	2015 йил	2016 йил	2017 йил	2018 йил	2019 йил	2020 йил	2021 йил
1	"БУХОРОТУРИСТ" МЧЖ	0,03	0,00	0,00	0,00	0,00	0,00	0,00
2	"ЗАРГАРОН-СЕРВИС" МЧЖ	0,11	0,30	0,33	0,62	0,80	0,00	0,00

¹⁷⁷ Муаллиф томонидан туристик корхоналарнинг молиявий ҳисоботлари асосида ишлаб чиқилган.

3	"ШАХРИСТО Н ВОЯЖ" қўшма корхонаси МЧЖ	0,08	0,07	0,00	0,00	0,67	0,00	0,00
4	"HOTEL AZIA BUHARA" қўшма корхонаси МЧЖ	0,26	0,28	0,55	0,49	0,49	0,00	0,14
5	"ОТЕЛЬ ОРИЕНТ СТАР" қўшма корхонаси МЧЖ	0,00	0,00	0,79	0,43	0,52	0,00	0,00
6	"EAST LINE TOUR" МЧЖ	0,00	0,45	0,33	0,05	0,00	0,00	0,00
7	"BUKHARA ECO TOUR" МЧЖ	0,00	0,03	0,12	0,13	0,14	0,00	0,33
8	"ARK TRAVEL" МЧЖ	0,00		0,57	0,00	0,62	0,18	0,24
9	"BUXORO KITOB OLAMI" МЧЖ		0,00	0,27	0,10	0,16	0,03	0,01
10	"BUXORO LOLA SERVIS" МЧЖ	0,00	1,03	0,39	0,10	0,15	0,75	
11	"LYABI HOUSE HOTEL" МЧЖ	0,00	0,14	0,42	1,54	0,48	0,00	0,14

Туристтик барқарор ривожлантиришнинг стратегик ва тактик мақсадларига эришиш учун иқтисодий салоҳиятни бошқаришга нисбатан қўлланиладиган янги талаблар туристик хизматларнинг ресурслар билан таъминлашнинг ўзига хос хусусиятлари билан боғлиқдир.

Бизнинг фикримизча, туристик корхоналар учун иқтисодий ресурс интенсивлигини ишлаб чиқариш жараёнига жалб қилинган ресурслар - иқтисодий ва ўзига хос туристик ресурсларининг ётоқ кунлари сонига нисбати сифатида аниқлаш мумкин. Иқтисодий салоҳият динамикаси кўрсаткичларини ҳисоблашнинг мураккаблиги туристик ресурслар ва хизматлари нархларининг ўзгаришини ҳисобга олиш зарурати билан боғлиқ. Бошқача қилиб айтганда, иқтисодий ресурс интенсивлиги иқтисодий салоҳиятни шакллантириш ва ундан фойдаланиш тизимини бошқариш жараёнини белгиловчи ресурслар билан таъминланганлик даражасини ифодалайди. Иқтисодий салоҳиятни бошқариш жараёни бўйича олиб борилган тадқиқотлар ички, ташқи, ўзаро боғлиқ ва мавҳум ресурсларни тўғридан-тўғри сақлашга қодир бўлган ресурс базаси шаклидаги бошқарув қуйи тизимининг услубий аниқлаш имконини берди.

$$R_s = \frac{R}{y} \quad (7)$$

Бу ерда:

R_s -Ресурс сигими;

R - ресурсларнинг умумий миқдори;

y - ётоқлар сони

Туризм ва рекреацион сектор корхоналари ишлаб чиқариш объектларининг мавсумий ишлашига эга, шунинг учун ҳақиқий тўшақларнинг йиллик фойдаланиш индексини ҳисобга олиш мақсадга мувофиқдир. Асосан, ўрганилаётган корхоналар йил бўйи ишлаб чиқариш бирликлари ҳисобланади, шунинг учун йиллик фаолият индекси ваучерларнинг ўртача кунлар сонига боғлиқ бўлади:

$$I_y = \frac{365}{V} \quad (8)$$

I_y - Йиллик эксплуатация;

V - ўртача кунлар сони ваучерларнинг амал қилиш муддати.

Шунинг учун (8) формула қуйидаги шаклни олади:

$$R_s = \frac{R}{y * I_y} \quad (9)$$

Бу ерда:

R_s -Ресурс сигими;

R - ресурсларнинг умумий миқдори;

y - ётоқлар сони;

I_y - Йиллик эксплуатация.

Амалиёт шуни кўрсатадики, туристик корхоналарининг иқтисодий ресурс интенсивлигига маблағларни тақсимланмаган фойдага йўналтириш орқали эришилади. Бу кўрсаткич иқтисодий ўсиш стратегиясининг

кўрсаткичи бўлиб, иқтисодий салоҳиятни бошқариш воситаси сифатида фойдаланиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг «Туризм тўғрисида»ги Қонуни.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январда ПФ-60-сонли “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги ПФ-5611-сон «Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Фармони.
4. Абдувоҳидов А.А. Ўзбекистон туризм индустриясини ривожлантиришда компьютер тизимларини такомиллаштириш истиқболлари, Ўзбекистонда ички туризмни ривожлантиришда хорижий тажрибани қўллаш республика илмий амалий анжумани мақолалар тўплами, 2014, 392-393 б.
5. Абдурахмонов К.Х. Менежмент туризма: Учебное пособие. –Т.: Филиал ФГБОУ ВПО “РЭУ им. Г.В. Плеханова” в г. Ташкенте, 2013.-248с.
6. Алиева М.Т. Иқтисодий эркинлаштириш шароитида туризм хизматлари соҳасини бошқаришнинг иқтисодий жиҳатлари (Ўзбекистон Республикаси мисолида): иқтисодий фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. -С.: СамИСИ, 2019. - 255 б.
7. Норчаев А.Н. Замонавий туризм инфратузилмасининг шаклланиш ва ривожланиш тенденциялари: иқтисодий фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: ТДИУ, 2021. – 246-б.
8. Пардаев М.Қ., Атабаев Р. Туристтик ресурсларни таҳлил қилиш ва баҳолаш. -Самарқанд: СамИСИ, 2006. -137 б.
9. Тўхлиев И.С., Қудратов Ғ.Х., Пардаев М.Қ. Туризмни режалаштириш. Дарслик. -Т.: “Iqtisod-Moliya” нашриёти, 2010. – 238 б.
10. Сафаров Б.Ш. Миллий туризм хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик асослари // Монография. –Т.: «Фан ва технология» нашриёти, 2016. 184 б.
11. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма. -Т.: Гос.науч.изд-во “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006. – 424 с.
12. Эштаев А.А. Глобаллашув шароитида туризм индустриясини бошқаришнинг маркетинг стратегияси» (Ўзбекистон Республикаси туризм тармоғи мисолида): иқтисодий фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. -С.: СамИСИ, 2019. - 250 б.

ТАЪЛИМДА БОШҚАРУВ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Ҳамидова Зайнура Рамазоновна

Тошкент Ориентал университети

Таълим менежменти мутахассислик магистранти

Ҳозирги кунда мамлакатимизда таълим самарадорлигини ошириш ва таълимни бошқаришнинг назарий асосларини кучайтиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Таълимнинг ривожлантиришга оид бир қатор қарор ва фармонлар чиқарилмоқда. Жумладан “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармоннинг имзоланиши барча соҳаларда шу билан бирга таълим соҳасини ҳам ислоҳ қилишга ундамоқда. Тўритинчи босқис “адолатли ижтимоий сиёсат юритиш, инсон капиталини ривожлантириш” деб номланиб, мактабларда таълим сифатини ошириш, педагог-кадрларнинг билими ва малакасини халқаро даражага олиб чиқиш ва шу орқали таълимда бошқарув фаолиятини янада юксалтиришга кўмаклашмоқда. Ундан ташқари “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги фармонига мувофиқ таълим соҳасига замонавий ахборот-коммуникация технологиялари ва инновацион лойиҳаларни жорий этиш, ўқувчиларна таълим олишига мотивацияни шакллантириш талаб этмоқда. Шуларни инобатга олган ҳолда мамлакатимизда таълимни бошқариш фаолиятини ривожлантиришга алоҳида эътибор берилмоқда. Биз бунини юқорида айтиб ўтилган Фармонлардан ҳам кўришимиз мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон Конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишланган маросимдаги маърузасида мамлакатимизнинг бугунги кундаги ва истиқболдаги устувор вазифалари ҳақида тўхталиб, қуйидагиларни таъкидлади: “Биз таълим ва тарбия тизимининг барча бўғинлари фаолиятини бугунги замон талаблари асосида такомиллаштиришни ўзимизнинг биринчи даражали вазифамиз деб биламиз”¹⁷⁸.

Шу нуқтаи-назардан, таълим соҳасидаги амалга оширилаётган тизимли ислоҳотлар ва эришилган қатор ижобий ўзгаришлар бир қаторда,

¹⁷⁸ Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишланган маросимдаги маърузаси. www.uza.uz. 07.01.2017й.

таълим муассасалари раҳбар кадрларининг бошқарув компетентлигини ривожлантириш механизмларини ва таълимни самарадорлигини оширишни такомиллаштириш зарурати мавжуд.

Таълим муассасасининг фаолиятидаги самарадорлик, биринчи навбатда, жамоадаги шахслараро муносабатлар, вазифаларни қанчалик тўғри ташкил этилгани ёки этилмаганлигига боғлиқ. Бошқача айтганда, ишнинг қандай ташкил этилиши раҳбарлик, бошқарувчиликнинг ташкил этилиши даражасига боғлиқ. Ҳар бир раҳбар педагогик тизимни бошқарар экан, энг аввало, ундаги муаммолар ва бу тизимдаги аъзоларнинг педагогик-психологик хусусиятларини билиш қобилиятига эга бўлиши керак. Мактаб директорлари бошқарув фаолиятида таълим муассасасида барча жараёнларни тартибга солиб туриш учун бошқарув функцияларини мазмун ва моҳиятини билишлари зарур.

Умумий бошқарувда бўлганидек, таълим муассасалари раҳбарлари ҳам ўз фаолиятлари давомида қуйидаги еттита бошқарув циклидан фойдаланадилар: мақсадни белгилаш, маълумотларни йиғиш ва қайта ишлаш, бошқарув қарорларини қабул қилиш, режалаштириш, ташкиллаштириш, назорат қилиш ва таҳлил қилиш.

Таълим муассасасининг раҳбари ўзига юклатилган вазифаларни бажариш жараёнида қуйидаги уч турдаги объектларга бевосита таъсир кўрсатади:

- таълим жараёни иштирокчилари (ўринбосарлар, ўқитувчилар, ўқувчилар, техник ходимлар, ота-оналар, хомийлар ва ҳ.к.),
- жараёнлар (таълимий, тарбиявий),
- моддий-техник воситалар.

Моделдаги 3 та ўлчовнинг юқори кўрсаткичлари таълим муассасасидаги бошқарув фаолиятининг қанчалик самарали ташкил этилганлигини кўрсатиб беради. Шундан келиб чиқиб, Хомерики таълимда бошқарув самарадорлигини бошқарув объекти, бошқарув фаолияти мазмуни ҳамда бошқарув цикли ўртасидаги ҳам миқдорий, ҳам сифат тавсифларига эга бўлган турли кўрсаткичлар, деб баҳолайди.

А.Файоль бошқарув жараёнини ташкилот мақсадларини амалга ошириш фаолияти сифатида кўриб чиқади. У таълимни бошқариш фаолиятини (функционал таркиби, ташкил этиш, назорат ва бошқарув) амалга оширадиган фаолият субъектлари деб баҳолайди. Анри Файоль бошқарувнинг бешта функциясини кўрсатган:

- режалантириш;
- ташкил этиш;
- фармойиш бериш;
- мувофиқлаштириш;

- назорат қилиш;

А.Файоль асос солган мактаб ваикллари томонидан бошқарувнинг универсал тамойиллари ишлаб чиқилган бўлиб, бунда биринчи категория бошқарув усулида мақсад ва вазифаларни белгилаш, ресурслар таъминоти ва тақсимоти, назорат, ишлаб чиқаришни режалаштириш, молия ва маркетинг масалалари бошқарув иерархиясининг энг юқори бўғини томонидан амалга оширилади. Иккинчи категорияда эса ташкилот фаолиятига доир юқорида санаб ўтилган бошқарув функциялари ташкилот бошқарув иерархиясининг энг юқори бўғини томонидан эмас, балки ташкилот ходимлари томонидан мустақил равишда амалга оширилади. Кўплаб Ғарб давлатларининг таълимни бошқарув моделида айнан мана шу иккита категориянинг ҳар биридан фойдаланиб келинишини кузатиш мумкин.

Лекин охириги йилларда таълим бошқарувида инсоний муносабатларга асосланган тамойиллар орқали бошқарувни амалга ошириш энг самарали тамойилларининг бири сифатида қаралмоқда. Ушуб бошқарув назарияси мактаби вакилари асосан психология фани мутахассислари бўлиб, у бошқарувда юқори самарадорликка эришиш сифатида қуйидаги тамойилларга асосланади:

Бошқарувчи ўз қўл остидаги ходимларни руҳан қўллаб-қувватлаш, уларга бўлган тўла ишончни намоиш этиш.

Ходимларнинг ўз-ўзини йўналтириш ва назорат қилиш, уларни меҳнат фаолияти натижаларига кўра рағбатлантириб бориш.

Ходимларнинг ижодий ва интеллектуал имкониятлариданг кенг фойдаланиш.

Ушбу мактаб вакиллари Мери Паркер Фоллет, Элтон Мейо, Абрахам Маслоу ва кейинчалик К.Одждирис, Р. Лайкерт, Д. Мак Грегор, Ч.Бернард¹⁷⁹ ва бошқалар ижтимоий психология ютуқларидан бошқарувда фойдаланиш масаласини кўтардилар ва уларнинг фикрича самарали меҳнат фаолиятини ташкил этишнинг асосий элементи инсон омили билан боғлиқлигини бевосита боғлаганлар.

Таълимни бошқаришнинг назарий асосларига ҳам бир қатор рус олимлари ҳам қизиқиб ўзларининг тадқиқот ишларини олиб борганлар. Россияда “Таълим ичидаги бошқарув назарияси ва ривожланиши” номли тадқиқот ишида Б.С.Шапалова ўзининг таълимни бошқаришдаги қарашларини билдириб ўтган. Е.Ф.Ивашенко томонидан эса “таълим муассасаларини бошқаришга мотивацион ёндашув” масаласини кўриб чиқди. Рус педагоглари Д.А.Новиков, И.Чуракова, А.Конержевский, В.Е.

¹⁷⁹ Mayo Elton. 1933. The Human Problems of an Industrial Civilization. New York: Vfcmillan Company.

Цибульниковалар таълимда бошқарув назарияси масалаларига оид ўзларининг қарашларини билдирадилар. О.А.Новикова таълимни бошқариш ва янада ислоҳ қилишнинг асосий мақсади давлат ва жамият ўртасимдаги ўзаро муносабатларни таъминлайдиган самаралаи тизимни яратишдир. Унинг фикрича қуйидаги асосий муаммоларни ҳал қилиш кераклигини таъкидланади.

- бўлинишни соддалаштириш ва функцияларни мувофиқлаштиришни ўрнатиш,
- таълимни бошқаришнинг турли даражалари ўртасидаги ваколатлар ва мажбуриятлар;
- жамоат компонентининг ривожланишини таъминлаш;
- таълим тизимини бошқаришда идоровий тузилмани бартаараф этиш;
- давлат органлари ва таълим муассасалари учун тўлақонли ахборот-статистик таъминотни яратиш, шунингдек жамоат ва индивидуал фуқаролар сифатида¹⁸⁰.

Таълимни бошқариш назарияси ривожланишининг кейинги босқичи таълим тизими ва муассасаларига ижтимоий институт нуқтаи назаридан қаралиши, уларни бошқаришда саноат ва ишлаб чиқариш ташкилотларини бошқариш усулларини қўлланилиши билан боғлиқдир. Бу борада тадқиқотчи олимларнинг умумий фикри мавжуд эмас, бироқ бир гуруҳ олимлар барча турдаги муассасаларга бошқарувнинг умумий назарий воситаларини қўллаш мумкин ва барча турдаги ташкилотларни бошқариш бир хил қонуниятлар асосида кечади деган фикрга келган бўлса, бу ғояга қарама-қарши ғоя тарафдорлари таълим тизими ва муассасалар ўзига хос хусусиятларга эга институт, уларни бошқаришда алоҳида ғоя ва ёндашувлар зарур деб ҳисоблайдилар. ушуб даврда эълон қилинган асарларда асосан умумий бошқарув назарияси гуқтаи назаридан таълимни бошқариш ғояси, янги классик менежмент ғоялари таълимни бошқаришга йўналтирилган холларини кузатиш мумкин.

Тадқиқотчилар назариянинг шаклланиш босқичларини аниқлайдилар, турли йўллар билан таълим бошқарувини аниқлайдилар. Аммо уларнинг фикрлари бир-бирларига мос келади. Таълимни бошқаришда эски ғоялардан вос кечилиб янги моделлар ишлаб чиқилди ва унинг натижасида таълимда сезиларли ўзгаришлар юз берди.

Таълимни бошқариш назарияси доирасида Ўзбекистонлик олимлар ҳам ишларини олиб борганлари ва унга кўра Ш.Қурбонов ва Э.Сейтхалиловлар қуйидаги фикрларни билдириб ўтишган: “Унумдорлик –

¹⁸⁰ Новиков Д.А. Теория управления образовательными системами. –Москва 2009. С. 12

бу қандайдир вақт ичида олинган натижаларнинг фойдалилиги ва у билан боғлиқ харажатлар ўртасидаги нисбатни кўрсатувчи фаолият хусусияти демакдир”¹⁸¹. Шунингдек, ушбу тадқиқотчиларнинг фикрича, бир таълим муассасасининг бошқа таълим муассасасига нисбатан юқорироқ натижалари ушбу таълим муассасасида ҳар доим ҳам бошқарув сифати юқорироқ бўлишидан далолат бермайди. Масалан, таълим муассасаси бой моддий базага эга бўлса, молиялаштиришнинг қўшимча манбалари ҳисобига ўқитувчиларга бошқа таълим муассасасидагига нисбатан юқорироқ иш ҳақи тўлай олса, бу таълим муассасаси бу барча неъматлардан маҳрум бўлган оддий таълим муассасасига нисбатан таълим сифатининг юқорироқ бўлишини таъминлаши мумкин. Лекин масала ҳар бир таълим муассасаси ўзида мавжуд имкониятлардан нечоғлиқ фойдаланаётганлигидан иборат.

Таълимни бошқариш назарияси ўзининг бир неча ўн йиллик ривожланиш даврида таълимни бошқаришда тўпланган энг самарали тажрибаларни, бошқарувнинг умумий назариясида мавжуд модел, тамойиллар, ёндашувлар, усул ва воситаларни таълим бошқарувига мослаштирилиши, шунингдек ижтимоий (психология, сиёсатшунослик, социология, фалсафа, иқтисодиёт) ҳамда аниқ ва техника (математика, кибернетика, ахборот технологиялари) фанларининг ютуқларидан фойдаланиши унинг бошқарув фани соҳасида салмоқли натижаларга эришганликларидан даракдир.

Тадқиқотимизнинг асосий мақсади ҳам мамлакатимизнинг умумий ўрта таълим тизимини раҳбар кадрларининг самарали бошқарувини ташкил этиш ва шу орқали юқори сифатли таълим беришга эришишдир.

Таълим муассасалари ва уларнинг фаолиятини ўрганишга оид назарий-методологик ёндашувларнинг ўрганилиши ва аҳамиятини ўрганиб таҳлил қилдик. Таълим муассасаларининг раҳбарларининг фаолиятини баҳолашда унинг самарадорлигини аниқлаш зарур. Самара кўрсаткичлари раҳбарларнинг фаолиятини кўрсатиб беради. Умумтаълим мактаб директорларининг фаолиятини баҳолашда бир қатор хорижий ўзбек олимларининг фикр ва мулоҳазаларини таҳлил қилдик.

Умумий ўрта таълим муассасалари фаолиятини такомиллаштириш ва раҳбар ҳодимларнинг фаолиятини мувофиқлаштиришда юқорида билдирган фикр ва мулоҳазаларимиз муҳим аҳамият касб этади. Улар асосида бошқарув фаолиятини илмий асосда ташкил этиш, таълим тарбия жараёни иштирокчилари ҳамда барча ходимларнинг фаолиятини мотивлаштириш, ташаббусларни рағбатлантириш, турли педагогик

¹⁸¹ Қурбонов Ш., Сейтхалилов Э. Таълим тизимини бошқариш. – Т.: «Турон-Иқбол», 2006. –101-б.

лойихаларни ишлаб чиқиш ва таҳлил қилиш учун зарурий шарт шaroитларни яратиш, таълим эҳтиёжларидан келиб чиқиб натижаларнинг самарадорлигини таҳлил қилишни ҳамкорликда ташкил этишни назарда тутди. Шу билан бирга мактаб директорларининг ўз фаолиятини ташкиллаштиришда оқилона услуб ва бошқарувда тарбиявий муносабатларнинг ўзига хос хусусиятларини инобатга олиш каби бир қатор талабларни белгилайди.

YONG'IN XAVFSIZLIGINI O'QITISHDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH

Xamraev Abrorxon Axmadjonovich

Xavfsizlik tushunchasi inson hayotiga mustahkam kirib borgan va hozirgi zamonning jiddiy muammosidir. Bolaning turli yoshdagi rivojlanish bosqichlarida faol bo'lgan makonning kengayishi muqarrar ravishda ko'plab xavf-xatarlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Kattalarning asosiy vazifasi bolalarda xavfsiz xulq-atvor madaniyatini shakllantirishdir. Bolalarda xavfsiz xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish, ularni bunday xatti-harakatlar qoidalari bilan tanishtirish bo'yicha tizimli tarbiyaviy ishlar, ayniqsa, bolaning ushbu qoidalarga rioya qilish qobiliyatini o'rta ta'lim muassasalarining maqsadlaridan biri sifatida joriy etish bilan bog'liq.

Ma'lumki, bolaning hayoti xavfsizligi va uning salomatligini muhofaza qilish o'rta ta'limning dolzarb vazifalaridan biridir. Yo'nalishlardan biri yong'in xavfsizligi haqida g'oyalarni shakllantirishdir. Yong'in xavfsizligi qoidalari bizga shunchalik tanishki, ba'zida hamma ularni biladiganga o'xshaydi. Ammo statistika shuni ko'rsatadiki, bolalarning olov bilan hazil qilishlari natijasida yong'inlar soni kamaymayapti. Bolalar yong'inida halok bo'ladi, mulk vayron bo'ladi.

Yong'in paytida bolaning xatti-harakati bilan bog'liq ko'plab hodisalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bolalar passiv-mudofaa reaksiyasi bilan ajralib turadi: qo'rquvdan bola yonayotgan uyni tark etish yoki yordam chaqirish o'rniga tanho joylarda yashirinadi. Kichik maktab o'quvchilarida yong'in xavfsizligi bo'yicha o'qitishning samaradorligi past bo'lgani uchun yong'in xavfsizligini ta'minlash va shu asosda ta'lim muassasalarining ta'lim ishlarini sifat jihatidan yaxshilash konsepsiyasini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Dars davomida o'qituvchilar bolaning muammoni hal qilishning o'z yo'lini topish, vaziyatlarni tahlil qilish, eng oqilonalarini tanlash va o'zlashtirish istagini kuchaytiradilar. Ular bolalarga topshiriqni bajarish yo'llarida tashabbuskorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik ko'rsatishga imkon beradigan muloqot sharoitlarini yaratadi, bolaning tabiiy

o'zini o'zi idrok etishi uchun muhit yaratadi.

O'rta ta'lim muassasasida bolalarga yong'in xavfsizligini o'rgatish jarayonida quyidagi usullardan foydalanish samarali bo'ladi:

- o'qitishda innovatsion yondashuvlar, yangi tamoyillar, ko'rsatmalar, texnologiyalardan foydalanish;

- Pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirish (o'quv jarayonini rejalashtirish, interfaol vositalar, shakllar, o'qitish usullaridan foydalanish, rejalashtirilgan tadbirlarning mavjudligi, tizimliliigi, vizual va didaktik jihozlar, ishtirokchilarning yong'inga xavfli xatti-harakatlari to'g'risida ma'lumot olish),

- bolalarning yong'in xavfsizligi asoslari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarining pedagogik diagnostikasini amalga oshirish.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Katta yoshdagi bolalarga yong'in xavfsizligini o'rgatishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchining ishini yaxshilashi mumkin. Slaydlar, mavzuli rasmlar, vizual va multimedia vositalarini ko'rsatish bolalarda muhokama qilinayotgan mavzuga doimiy qiziqish uyg'otish va saqlab qolish imkonini beradi. Multimedia vositalari o'rta va undan katta yoshdagi bolalar bilan ishlashda qo'llaniladi va multimedia qurilmalari, interfaol doska, televizor, musiqa pleyeri, noutbuk yordamida efirga uzatilishi mumkin. Yong'in xavfsizligi bo'yicha o'quv filmlari, multfilmlar, onlayn film lentalarini tomosha qilish, to'g'ridan-to'g'ri sharoitlarda ko'rsatib bo'lmaydigan voqealar yoki hodisalarni aks ettiruvchi dinamik rivojlanayotgan harakatlarni taqdim etish imkonini beradi, animatsion qahramonlar bilan sodir bo'ladigan sarguzashtlar, multimedia taqdimotlarini ko'rsatish, elektron ensiklopediyalarning parchalarini namoyish qilish, bolalar bilan ishlashda interfaol o'yinlardan foydalanish darslarni yanada yorqin, qiziqarli qiladi va bolalarning bilimga qiziqishini oshiradi.

Bolalarga yong'in xavfsizligini o'rgatish ishida, tashkilotchilik katta ahamiyatga ega. Guruhda xavfsizlik burchagi yaratilgan, sinfda yong'in qalqoni, yong'in xavfsizligi stendi, rolli o'yinlar uchun atributlar, o't o'chirish moslamalari, o't o'chirish mashinasi, stol o'yinlari, o't o'chiruvchi bilan ko'cha modellari va boshqalar mavjud bolishi kerak. Ishda kognitiv tadqiqot faoliyatidan foydalanish imkonini beradi.

Yong'in sodir bo'lganda bolalarga xavfsiz xatti-harakatlar qoidalariga o'rgatish uchun o'qituvchi sxemalar bilan islahi, didaktik o'yinlar tashkil etishi, ota-onalar bilan ishlash muhim hisoblanadi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida bolalarda quyidagi yong'in bilan xavfsiz harakat qilish ko'nikmalari shakllandi:

- yong'in bilan xavfsiz harakat qilish qoidalarini bilish va uyda, tabiatda yong'in xavfli vaziyatlarda o'zini qanday tutish kerakligini bilish;

- yong'in sodir bo'lganda xavfsiz xatti-harakatlar qoidalariga o'rgatilgan;

- yong'in xavfi yuqori bo'lgan ob'ektlar, elektr jihozlari bilan ishlashga qodir;
- bolalarda o'zlarining sog'lig'ini saqlash xatti-harakatlarini amalga oshirish qobiliyati rivojlanadi - passiv ob'ektdan bola o'z salomatligi va xavfsizligining faol sub'ektiga aylanadi.

Shunday qilib, o'qituvchining o'quv jarayonini tashkil etishda integral yondashuvdan foydalangan holda, yong'inga xavfsiz munosabatda bo'lish madaniyatini tarbiyalash va singdirishda maqsadli ishlashi yong'inlar sonini kamaytirishning eng yaxshi usuli degan xulosaga kelishimiz mumkin. Yonginning oqibatlarini kamaytirish, ishda innovatsion usullardan foydalanish, hayot faoliyati xavfsizligi asoslarini shakllantirishda ta'lim muammolarini eng samarali hal qilishga olib keladi. Inson o'zini himoya qilishning asosiy tamoyillarini qanchalik tez o'rgansa va o'z harakatlari uchun mas'uliyatini anglab etsa, natija shunchalik samarali bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Akimova L. A., Lutovina E. E., Zuev A. M. Maktabda hayot xavfsizligini o'rgatish nazariya, metodika, tashkil etish: darslik.

2. Petrova S. V.; Ta'lim va fan vazirligi Ros. Federatsiya, Orenb. davlat ped. un-t, Moskva. ped. davlat un-t. - Orenburg: OGPU nashriyoti, 2010. - 248 p.

3. Chikeneva I.V., Suzdaleva A.M., Abuzyarova Yu.V., Tokareva O.N. Hayot faoliyati xavfsizligi: Darslik. Orenburg: OGPU nashriyoti, 2012. - 164 p.

4. Sokratov N. V., Kuptsova V. G. Bolalar va o'smirlarda sog'liqni saqlash motivatsiyasini tarbiyalash // XXI asr ta'limi va o'qituvchisi: muammolar, rivojlanish istiqbollari: Vseros. ilmiy-amaliy. konf. (Orenburg, 2010 yil 6-7 oktyabr). - Orenburg: OGPU nashriyoti, 2010. - S. 121-127.

5. Kontent-nauchno metodicheskiy elektrtonniy jurnal

www.cyberleninka.ru

www.elar.rsvpu.ru

www.vestnikpedagoga.ru

TA'LIMDA JINOYAT HUQUQI FANINING AHAMIYATI

Xamraqulov Zafarjon Yigitalievich

Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti v.b., PhD

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish mehnat bozori uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadlariga asoslangan bo'lib, har bir davlat innovatsion bilimlarga ega, ijodkor yoshlarga ehtiyoj sezadi. Mamlakatning sanoat, qishloq xo'jaligi, tibbiyot, ta'lim, xizmat ko'rsatish va xalq xo'jaligining barcha tizimlarida malakali kadrlarning mavjudligi sohalar taraqqiyotining

yuksalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ta'limda malakali kadrlarni tayyorlash davlatlar siyosatining ajralmas qismini tashkil etishining asosiy omili bo'ladi.

So'nggi yillarda "voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlardan ko'zlangan asosiy maqsad – o'z intilishlari va ehtiyojlarini (ayniqsa, moddiy manfaatdorlik) qondirish, katta yoshdagilar qaramog'ida bo'lmaslik, mustaqil hayot kechirishlarini ta'minlash uchun sodir etilayotganligini ham yaqqol ko'rish mumkin"[1]. Jinoyatlarning ko'payishiga ishsizlik, hayotda o'z o'rnini topa olmayotganlik, tayinli ish joyi va daromad manbaiga ega emasligi hamda boshqa omillar sababchi bo'lmoqda.

O'zbekistonda voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik yoshi kattalarnikiga qaraganda kamroq bo'lishiga qaramasdan, umumiy ko'rsatkichlar kamayib bormayapti. Ularning oldini olish va yil sayin ko'payib borayotgan jinoyatlar sonini kamaytirish ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etmoqda.

Shaxs ma'naviy kamolotida oilaviy tarbiyaning o'rni yuqori ekanligi psixologlar tomonidan isbotlab berilgan bo'lib, zamonaviy pedagogika ham "oilamaktab-mahalla" tizimining yosh avlod tarbiyasidagi samaradorligini tasdiqlaydi. So'nggi paytlarda ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarda bir qancha muammolar kelib chiqayapti. Ko'plab omillar ta'sirida o'zaro munosabatlar salbiy tomonga og'ib bormoqda. Ota-onalarning ham hammasi tarbiya berishda to'g'ri yo'ldan bormoqda deyish ham unchalik to'g'ri bo'lmay qoldi. Bolalarning kompyuter va telefon orqali internet tarmog'iga qaramligi oshib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan axborot va o'yinlar real hayotdagi voqealardan chalg'itib bormoqda. Bularning barchasi turli suitsidlar, tengdoshlar bilan kelishmovchiliklar, axloqiy buzuvchiliklar, shafqatsizlik orqali jinoyatchilikning avj olib borishiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

2021 yilda O'zbekiston Respublikasida jinoyatchilik indeksi 34,7 va xavfsizlik indeksi bo'yicha 65,3 ballni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich bilan dunyoda 96-, Osiyoda 25-, Markaziy Osiyoda 3-o'rinni egalladi.

2021 yil davomida 111082 ta jinoyat sodir etilgan bo'lib, u har 10 ming kishiga hisoblanaganda, 31,8 taga to'g'ri keladi. So'nggi uch yil davomida ro'yxatga olingan jinoyatlar 2,4 baravar ortgan. Xususan, 2019 yilda 46 089 ta jinoyat sodir etilgan bo'lib, u 2021 yilga ikki baravardan ko'proqqa ortgan.

2021 yilda eng ko'p jinoyatlar Toshkent shahri (25 543), Farg'ona (19 903) va Toshkent viloyatlari (11 957) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam jinoyatlar esa Jizzax (2 731), Navoiy (2 998), Xorazm (2 929) viloyatlari hududida sodir etilgan.

SHuningdek, odam o'ldirish bilan bog'liq 52 ta, odam savdosi 162 ta, tuhmat 168 ta, haqorat 1 220, fuqarolar tengligini buzish, shaxsiy daxlsizlik 25 ta, uy-joy

daxlsizligini buzish 32 ta jinoiy yo'l bilan olingan mulkni qasddan yo'q qilish 106 ta holati sodir etilgan.

2021 yilda jinoyat sodir etganlar soni 80 303 kishini tashkil qilgan. Ulardan erkaklar 87,8 foizini, ayollar esa 12,2 foizini tashkil qiladi. Jinoyatlarni 62,0 foizini 31 va undan katta yoshlilar, 19,3% - 25-30 yoshlilar, 15,5% - 18-24 yoshlilar, 2,7% - 13-17 yoshlilar sodir etgan[2].

Voyaga yetmaganlarning jinoyat sodir etishlaridagi asosiy sabablardan biri, ularning tabiatidagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va huquqiy normalarni mensimaslik sifatlarining mavjudligidir. Hozirgi davrning yoshlarida ko'pincha mana shu illat ko'zga tashlanadi. Aynan shu illat turli huquqbuzarliklarning kelib chiqishiga sababchi bo'ladi. Bunday toifadagi yoshlar do'stlik, insoniylik, vijdon, adolat kabi ijobiy fazilatlarini o'z muhitlarida qaror topgan qarashlar asosida talqin qiladilar. Shohona yashash, dabdababozlik, shuhratparastlik, manmanlik, boqimandalik kayfiyati ularning o'z hayotiy maqsadlarini mustaqil tanlab olishlariga yo'l qo'ymaydi. Axloqiy va huquqiy me'yorlarni pisand qilmaslik, andishasizlik, qo'pollik, o'z aybini tan olmaslik, tajovuzkorlik, o'jarlik kabi holatlar jinoyatchilik kelib chiqishiga turtki beradi.

Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqiy bilimlarning pastligi ta'lim tizimida huquqshunoslik sohalariga taalluqli o'quv kurslarining takomillashtirilishini talab qilmoqda. Vaholanki, huquqshunoslik faniga tegishli bilimlar "Konstitutsiya olamiga sayohat" deb nomlanuvchi va boshlang'ich sinflarda o'qitiluvchi kursdan boshlanadi. O'rta maktablarda huquqshunoslik fani haftasiga bir soatdan belgilangan bo'lib, ayrim hududlarda 6112100 – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi bo'yicha ixtisoslikka ega bo'lmagan o'qituvchilar tomonidan o'qitilmoqda. Tabiiyki, huquqshunoslikka doir fundamental fanlar to'g'risida yetarli tushunchaga ega bo'lmagan o'qituvchi qanchalik mahoratli bo'lmasin, huquqning nozik qirralarini chuqur tahlil qila olmaydi. Bu ta'lim oluvchilarni bilimlarining sayozlashuviga olib keladi.

O'zbekistonda yoshlarning jinoiy faoliyatiga to'sqinlik qilish, jinoyatchilikning oldini olish yo'lida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Islohotlar samaradorligini oshirishda axborot-tahlil ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. So'nggi 3-5 yil ichida yuz bergan jinoyatlar tahlili ta'limda jinoyat huquqini samarali o'qitish zarurligini ko'rsatib berdi.

Jinoyat huquqi oliy davlat hokimiyat organlari tomonidan o'rnatilgan, ijtimoiy munosabatlar uchun xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) larni aybli sodir etilishini jazo qo'llash asosida jinoyat deb topish, jinoiy javobgarlik, jazo, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari hamda alohida jinoyatlar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi huquq tarmog'i sanaladi. Mustaqil fan sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- jinoyat huquqi qilmishning jinoyligi, jazoga sazovorligi, jinoiy javobgarlik va jazoning asoslari, ularni tayinlash va ozod qilishning asoslarini belgilovchi yagona huquq tarmog'idir;

- jinoyat huquqi bilan himoya qilinadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazilishi oqibatida boshqa huquqiy fanlar bilan tartibga solinuvchi ijtimoiy munosabatlar kelib chiqadi;

- jinoyat huquqining sub'ektlari, boshqa huquq tarmoqlaridan farqli ravishda, jinoiy-huquqiy munosabatlarda davlat funktsiyasini bajaruvchi davlat organlari va jinoyat sodir etgan jismoniy shaxslardan iborat bo'ladi;

- jinoyat-huquqiy normalarining harakatga kelishi uchun muayyan yuridik faktning yuzaga kelishi talab etiladi;

- jinoyat huquqi aybdor deb topilgan shaxsga nisbatan og'ir oqibatlar keltirib chiqaruvchi jazolar qo'llanilishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jinoyat huquqi fanining o'rganilishi va uning mamlakatdagi jinoyatchiliklarni oldini olishdagi samaradorligini oshirishning dolzarbligini quyidagi omillar bilan belgilay olamiz:

- birinchidan, yurtimizni jahonning ilg'or mamlakatlari qatoriga olib chiqish maqsadlarida kompleks islohotlarni amalga oshirishga bo'lgan ehtiyojlarning kuchayib borayotganligi;

- ikkinchidan, yoshlarni yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega komil insonlar qilib tarbiyalash va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning dolzarb ahamiyat kasb etayotganligi;

- uchinchidan, milliy ma'naviyatimizning tiklanishi yo'nalishida olib borilayotgan, oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarda yosh avlodning huquqiy tarbiyasiga katta e'tibor qaratilayotganligi;

- to'rtinchidan, globallasuv jarayonlarining kuchayib borayotgan hozirgi davrida inson huquq va erkinliklarini himoya qilish ehtiyojlarining ortib borayotganligi;

- beshinchidan, jamiyatning huquqiy normalarga rioya qilish va qonunga itoatkorlik an'analarining kuchayib borishining davlat manfaatlariga xizmat qilishining muhim omili ekanligi;

- oltinchidan, mamlakatda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish borasida kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, keng jamoatchilik bilan birga profilaktik mexanizmlarni samarali yo'lga qo'yish zaruratining ortib borayotganligi;

- yettinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarni huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish ehtiyojlarining kuchayib borayotganligi.

Ta'lim oluvchilarning huquqiy savodxonligini yuksaltirish, huquqiy ongini rivojlantirish va bu orqali jamiyatdagi huquqiy madaniyatni oshirishga erishish uchun jinoyat huquqidan foydalanish zarurligini oydinlashmoqda.

Adabiyotlar:

1. Kriminologiya: Darslik. (Z.S.Zaripov tahriri ostida). – T.: O'zR IIV Akademiyasi, 2006. - B. 198.
2. Manba: www.stat.uz

**РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА БАНК- МОЛИЯ ТИЗИМИНИ
ТРАНСФОРМАЦИЯ КИЛИШ ЖАРАЁНИДА ЗАМОНАВИЙ
АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ЎРНИ**

Хидирова Барчиной Илхомовна
ТДИУ катта ўқитувчи

Бугунги кунда республикамизда рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши натижасида, тижорат банкларининг янги инновацион электрон хизматларига талаби янада ортган. Аҳоли ўртасида банк биносига бормасдан, биргина телефон, компьютер ёки бошқа информацион технологиялар орқали кўплаб амалиётларни бажариш имконияти оммалашган. Шунингдек, танланган ташкилотнинг мобил иловаси ёки расмий сайтига кириб, керакли маълумотни олиш, турли тўловларни амалга ошириш, буюртма бериш ва шикоят ёки эътирозлар йўллаш мумкин. Ҳозирда электрон базага жамланган ахборотларнинг рақамлаштирилганлиги натижасида авваллари маълум муддат кутишга тўғри келадиган банк амалиётларини бир неча сонияда ўтказиш имконини берувчи дастурлар, қурилмалар яратилган. Ҳаётимизга ахборот-коммуникация технологияларининг мана шундай шиддат билан кириб келиши жаҳон хўжалик алоқаларининг глобаллашувини, товар ва хизматлар, шу жумладан, молиявий хизматларни етказиб берувчилар бозорида рақобатни кескин кучайтириб юборди. Банк тизимида замон талабларига мос ҳолда ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий қилиш ва шу орқали кўплаб банк хизматларини автоматлаштириш ишлари жадаллашган. Ўзбекистон Республикасининг 2020-2025 йилларга мўлжалланган банк тизимини ислоҳ қилиш стратегиясида замонавий ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш, тижорат банкларининг бизнес жараёнларини автоматлаштириш ва масофавий банк хизматлари турларини кенгайтириш учун зарур шарт-шароитлар яратиш мақсадида тижорат банкларини корпоратив трансформация қилиш жараёнида замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш соҳасида асосий вазифалар белгилаб олинган:

- ✓ масофавий банк хизматлари, шу жумладан, контактсиз тўловлар сони ва қамровини кенгайтириш;
- ✓ автоматлаштирилган скоринг тизими, ракамли идентификациялаш ва кредит конвейерларидан кенг фойдаланиш;
- ✓ банк маълумотлари ва тизимларининг ахборот хавфсизлигини кучайтириш;
- ✓ банк соҳасидаги янги концепция ва технологияларни кенг жорий этиш (финтех, ракамли банк).

Бу вазифаларни амалга оширишдан кўзланган мақсад республикамизда ракамли иқтисодиётни ривожлантириш асносида аҳолининг молиявий ва ҳуқуқий саводхонлигини ошириш, мамлакатимизнинг халқаро майдондаги интеграциясини жадаллаштиришдан иборат. Маълумки, банкларни рақамлаштириш жараёни банк ва мижоз ўртасидаги муносабатларни рақамли ахборот-коммуникация технологиялари асосида барпо этиш ҳисобланади. Бу жараёнда банк мижозларига молиявий хизматлар қулай, сифатли ҳамда тезкор равишда амалга оширилиши, операцион харажатларни камайишида муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистон банк тизимида сўнгги йилларда банк хизматларининг сифати ва кўламини ошириш бўйича қатор ишлар амалга оширилди. Лекин жаҳонда бўлаётган ўзгаришлар, глобаллашув жараёни, рақобатбардошликни ҳаддан зиёд ривожланиши, тижорат банкларининг трансформация жараёнини янада фаоллаштириш, мижозларга кўрсатилаётган банк хизматларини янги босқичга олиб чиқиш заруратини юзага келтиради. Бу борада Президентимиз Ш.М.Мирзиёев Олий Мажлисга Мурожаатномада, “2021 йилда стратегик аҳамиятга эга бўлган 32 та йирик корхона ва тармоқни трансформация қилиш ишлари амалга оширилади. Банклар фаолиятига рақамли технологияларни кенг жорий этиш эътиборимиз марказида бўлади. 2021 йилда “Саноатқурилишбанк”, “Асака банк”, “Ипотека банк”, “Алоқа банк”, “Турон банк” ҳамда “Қишлоқ қурилиш банк”ни хусусийлаштиришга тайёрлаймиз. Камида битта йирик банкдаги давлат улуши стратегик инвесторларга тўлиқ сотилади. Бу борада етакчи Европа банклари билан музокаралар олиб борилмоқда». “Яна бир жиддий камчилик шуки, рақамли технологияларни кенг жорий этиш ҳисобидан ходимлар сони ва иш жараёнларини оптималлаштириш чоралари кўрилмаётганлигидир» деб таъкидлаб ўтганлар. Рақамли трансформацияга бир қатор иқтисодчи олимлар ўз таърифларини берганлар.

Жумладан, хорижлик иқтисодчилар Т. Аблязов, В.Асаулнинг фикрича, рақамли трансформация жараёни мавжуд бизнес моделларини

такомиллаштириш, шунингдек, иш самарадорлигини ошириш учун рақамли технологиялардан фойдаланишни англатади. Ушбу жараён инновацион технологияларни доимий равишда жорий қилишни ўз ичига олади, бу бутун иқтисодиётни тўлиқ рақамли ўзгартиришга олиб келади.

Таниқли ўзбекистонлик иқтисодчи олим, иқтисод фанлари доктори, профессор. Н.Х. Жумаев “Рақамли иқтисодиётда IT ёрдамида таннархни камайтиришга, натижада оптималлашувга ва самарадорлик ошишига эришилади. Рақамли иқтисодиётда замонавий илмий ёндашувлар ва инновациялар муҳим ҳамда устувор аҳамиятга эга бўлади. Бунда илмий сиғимкорлик юқори бўлган тармоқлар равнақ топишини таъкидлайди”. Юқорида келтирилган фикрларга қўшилган холда банк соҳасида рақамли трансформацияни ривожлантириш мижозлар эҳтиёжларини синчковлик билан ўрганиш ва мавжуд имкониятларни таҳлил қилиш орқали, мижозга йўналтирилган янги инновацион стратегияни ишлаб чиқиш орқали амалга оширилиши керак деб ҳисоблаймиз. Таҳлил ва натижалар Республикамизда сўнгги 4 йилда банк тизимини трансформация қилиш ҳамда ривожлантириш бўйича тўғридан-тўғри таъсирга эга мақбул қарор ва фармонлар қабул қилинди: «Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки тўғрисида»ги қонун (янги таҳрирда); «Банклар ва банк фаолияти тўғрисида»ги қонун (янги таҳрирда); «Тўловлар ва тўлов тизимлари тўғрисида»ги қонун; “Валюта сиёсатини либераллаштириш бўйича биринчи навбатдаги чора тадбирлар тўғрисида”ги (ПФ-5177-сон, 02.09.2017); “Республика банк тизимини янада ривожлантириш ва барқарорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги (ПҚ-3270-сон, 12.09.2017); “2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида” (ПФ-5992, 12.05.2020) фармонлар. Натижада: Валюта бозори либераллаштирилиши ҳисобига нақд пул билан боғлиқ муаммолар ечилди; бу эса банкоматлар инфратузилмаси ҳамда замонавий тўлов тизимларини жорий этишга шароит яратди; аҳоли ва тадбиркорлик субъектлари учун банк хизматларидан фойдаланиш имкониятлари кенгайди; мижозлар билан ишлаш тизими ўзгармоқда, замонавий банк хизматлари турлари кўпайтирилди ва рақамлаштирилмоқда; банкларни аҳолига янада яқинлаштириш ва қулайликлар яратиш мақсадида банк хизматлари марказлари ташкил этилмоқда.

Банк тизимида рақамли ўзгартиришлар воситасида банк бизнес-моделлари оптималлаштирилиб, банк сегментини ривожлантириш масофавий банк хизматларидан тортиб молиявий операциялар соҳасидаги ўзгаришлар жадаллашувига олиб келмоқда. Банк хизматлари бозорида талабнинг ортиши натижасида рақобат ортиб бориб, ахборот-

коммуникация технологияларининг янги имкониятларидан фойдаланишга зарурати янада ошди. Мижозлар учун молиявий хизматлардан қаерда ва қачон фойдаланиш борасида танлов имконияти пайдо бўлди. Банклар томонидан туну кун режимида ишлайдиган (24/7) офислари шу эҳтиёжларни ўрганиш натижасидир. Бу эҳтиёжларга мос равишда молиявий бозорда тўловларни ўтказишнинг электрон тизими, электрон пуллар, масофавий банк хизматлари, жумладан, интернет орқали тақдим этилувчи банк махсулотлари, банк терминаллари ҳамда банкларнинг автоматлаштирилган маркази мисол бўла олади. Рақамли молиявий технологияларнинг қўлланилиши давлат, тўлов хизматларини етказиб берувчилар ва мижозлар ўртасида ўзаро фаол ҳамкорлик имкониятини оптималлаштирмоқда. Бу эса банк хизматларининг янги усуллари жорий этиш ва инновацион жозибадор банк махсулотлари яратилишига олиб келмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, республикамизда рақамли иқтисодиётни ривожлантириш, банк хизматларини масофадан кўрсатиш иқтисодиётни янги босқичга кўтариш, банкларда трансформация жараёнларини амалга ошириш борасида қатор ислохотлар амалга оширилмоқда. Бу борадаги жараёнларни кенгайтириш мақсадида 12 май 2020 йилдаги ПФ5992-сонли “2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикаси Банк тизимини ислох қилиш стратегияси тўғрисида”ги Президент фармони мувофиқ жорий йилдан бошлаб, банклар трансформация жараёнлари ўтказилиши белгилаб қўйилган. Фармонга мувофиқ замонавий технологияларни жорий қилиш, контакtsiz тўловлар сони ва қамровини кенгайтириш, автоматлаштирилган скоринг тизими, рақамли идентификациялаш, кредит конвейеридан кенг фойдаланиш, рақамли банкнинг тамойилларига асосланган бизнес-моделларини жорий этиш белгиланди.

СОЦИАЛИЗАЦИЯ И ВОПРОСЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Хидоятов Максуд

«Центр развития профессиональной квалификации медицинских работников», кафедра общественно-гуманитарных наук, старший преподаватель, канд.филос.наук

Социализация – это прежде всего, процесс. Процесс вхождения в мир социальных связей и отношений. Это процесс взаимодействия биосоциального существа с окружающей его социокультурной средой.

Социализация основана на тех культурных, социальных ценностях, которые исторически сложились в данном обществе или в данной национальной среде. Постепенно, по мере взросления человека в нем накапливается социально-культурный опыт прошлых поколений, он усваивает определенные знания, определенные модели поведения, характерные именно для данного сообщества.

При этом человек социализируется в течении всей своей жизни: от рождения до глубокой старости. С этой точки зрения процесс социализации, в соответствии с этапами жизни человека, сопровождаются такие этапы жизни, как детство, отрочество, юность, зрелость, которые условно подразделяют на первичную и вторичную социализацию (в социологической литературе она называется ресоциализацией). На этапе первичной социализации человек в основном усваивает те нормы и приобретает те навыки, которые необходимы для вхождения во взрослую жизнь. Наибольшее значение в первичной социализации отводится семье, родственникам, соседям, дошкольным учреждениям, школе. Именно здесь формируются мировоззренческие основы, нормы поведения, главное, происходит индивидуализация личности. Вторичная социализация характеризуется, в отличие от первой, способностью личности оценивать свое поведение в соответствии с нормами, сложившимися в обществе, способностью строить новые формы взаимоотношений с другими членами сообщества. Вторичная социализация связана с такими социальными институтами, как школа, среднее специальное или высшее учебное заведение, армия, трудовой коллектив и др.). Результатами социализации личности, ее культурного развития являются сформировавшиеся на каждый данный момент уровни её сознания и мировоззрения, способы мышления, поведения и отношений в социальных и профессиональных условиях, в конкретных сферах жизни.

Уровень социализации личности, следовательно, соответствует уровню освоения ею общественной культуры, уровню ее творческого саморазвития, уровню развития ее способности к творческой деятельности. Социализация представляет собой процесс непрерывного взаимодействия с обществом. Со стороны общества это взаимодействие проявляется в обучении, воспитании и формировании личности, а со стороны личности – в идентификации, самореализации, создании и развитии своего Я.

2. Одним из важных факторов социализации является образование. Большинство исследователей отмечают, что роль образования в качестве одного из главных факторов процесса социализации молодежи в настоящее время возрастает, усиливается влияние составляющих его видов

образовательной деятельности, значимых для молодежи, распространяемых и пропагандируемых через них ценностей, образцов поведения. Поэтому одним из приоритетных направлений политики нашего государства является политика в сфере образования. Это отражено в Законе Республики Узбекистан «Об образовании», принятый Олий Мажлисом 19 мая 2020 года, где образование определяется как «системный процесс, направленный на предоставление обучающимся глубоких теоретических знаний, умений и практических навыков, а также на формирование общеобразовательных и профессиональных знаний, умений и навыков, развитие способностей» (1);

Высшее образование позволяет человеку овладевать определенными знаниями, навыками для его дальнейшей профессиональной деятельности. Но профессионализация, это не только овладение личностью определенной специальностью, она должна сопровождаться прививанием ей высоких морально-этических качеств, она должна стать носителем культуры того общества, где она трудится. В Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года в качестве одной из главных задач определена «системная организация духовно-просветительской работы в высших образовательных учреждениях, повышение эффективности реализуемых мер в данном направлении, разработка и реализация на практике Концепции развития духовно-нравственного сознания студенческой молодежи, направленной на развитие интеллектуального потенциала, мышления и мировоззрения, укрепление идеологического иммунитета молодежи в качестве гармонично развитого поколения, живущего с чувством патриотизма, служения интересам народа» (2).

Образование с точки зрения социализации - не только системный процесс, но процесс непрерывный. Человек постепенно овладевает необходимым объемом знаний для дальнейшей трудовой деятельности. Любое изменение в образовательном процессе адекватно будет отражаться в социализации личности. В современный период, в нашем обществе особое внимание уделяется реформированию высшего образования, постепенному отказу от традиционной системы в пользу двухступенчатой системы высшего образования: бакалавр – магистр. Эта система – было принята в 1999 году в Болоньи (Италия), где представители около 30 европейских стран подписали Декларацию «Зона европейского высшего образования». Основная задача Болонского процесса это создание общеевропейского образовательного пространства в соответствии с интересами развития европейской экономики. В настоящее время в Болонскую конвенцию входят 48 государств, в том числе из постсоветских

государств Кыргызстан и Казахстан. Узбекистан не входит в Болонский процесс, однако внедряемая кредитно-модульная система очень похожа на образовательную систему болонского сообщества. Неоспоримые достоинства кредитно-модульной системы заключаются в непрерывности образовательного процесса, в наделении студента большими правами и самостоятельностью. В связи с этим, анализируя современное состояние высшей школы, ректор Самаркандского государственного университета отмечает, что «есть серьезные сомнения в том, что введение двухступенчатого высшего образования в Узбекистане положительно повлияло на качество обучения и, в частности, на профессиональную квалификацию молодых специалистов. Если считать, что рынок высококвалифицированного труда у нас пополняется прежде всего бакалаврами, то в силу усеченной профессиональной образовательной программы большинство выпускников вузов начинают свою профессиональную деятельность без достаточной практической специализации. Для их доводки должна быть реализована система адаптации и доучивания специалистов, отсутствующая в странах с переходной экономикой» (3).

В связи с этим, возникает ряд вопросов. Во-первых, выходит, что бакалавр не полный специалист и его надо доучивать? Во-вторых, как быть с тем огромным количеством специалистов, окончивших бакалавриатуру университетов, где они будут работать?. Во-третьих, насколько будет соответствовать образовательный уровень бакалавров современным требованиям рынка. В-четвертых, в погоне за количеством, не потеряем ли качество образования: при общем объеме кредитов за 4 года - 240, не получится ли так, что студент вместо освоения предмета, будет добирать кредиты (например, за посещение, за конспекты, за ответ и т.п.), и в конце семестра он получит необходимую для него оценку, а если недобор, то будь любезен - сдай экзамен. И, последнее, немаловажный вопрос: не приведет увеличение числа профилирующих предметов к вытеснению других, непрофилирующих предметов? Например, в технических вузах проявилась тенденция сокращения количество часов по дисциплинам социально-гуманитарного направления, таким как философия, социология, экономика, культурология, политология, психология и др. А ведь эти науки дают знания о закономерностях развития человека и общества. Значимость этих наук усиливается еще и тем, что они способствуют формированию мировоззрения, расширению кругозора, воспитанию высоких морально-этических качеств, любви к своей Родине.

Одной из важных задач сферы высшего образования является охват большого количества молодежи. Это веление времени. Сейчас большое

внимание уделяется созданию новых учебных заведений. Чем больше вузов, тем больше разнонаправленных образовательных услуг и больше специалистов для народного хозяйства. Так, в настоящее время по данным Министерства высшего образования, науки и инноваций в Узбекистане действуют 162 вуза. Количество негосударственных университетов достигло 25, а количество зарубежных университетов и филиалов достигло 30. В этом году несколько университетов были вновь открыты или реорганизованы (4). Следовательно увеличивается количества агентов социализации, в функции которых входит подготовка высококвалифицированного специалиста. А со стороны молодого человека стоит задача овладения профессией и получить свой социальный статус.

Таким образом, в период стремительных преобразований, осуществляемых в нашем обществе, образовательная система должна сохранить свою важную роль в социализации личности, формировании инновационного мышления молодежи, способного отвечать глобальным вызовам современности, и, самое главное, готового служить укреплению и процветанию нашего общества.

Литература:

1. Закон Республики Узбекистан «Об образовании». Принят Законодательной палатой 19 мая 2020 года. Одобрен Сенатом 7 августа 2020 года. Интернет источник: <https://lex.uz/docs/5013009>

2. Концепция развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года. Приложение № 1 к Указу Президента РУз от 08.10.2019 г. № УП-5847. Интернет источник: <https://nrm.uz/contentf>

3. Халмурадов Р.И. Реформа высшего образования в Узбекистане: трудности и надежды. Интернет источник: [///C:/Users/Home/Downloads/reforma-vysshego-obrazovaniya-v-uzbekistane-trudnosti-i-nadezhdy%20\(2\).pdf](///C:/Users/Home/Downloads/reforma-vysshego-obrazovaniya-v-uzbekistane-trudnosti-i-nadezhdy%20(2).pdf)

4. Какие новые вузы открылись в Узбекистане в этом году? Интернет источник: <//kun.uz/ru/news/2022/06/06/kakiye-novyue-vuzy-otkrylis-v-uzbekistane-v-etom-godu>

AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPITENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Xodjiyeva F.O.

*Navoiy davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, p.f.n.*

Hamdamova L.O.

Navoiy davlat pedagogika institute Pedagogika ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

Bugungi kunda jamiyatimiz taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan iste'dodli, izlanuvchan, zamonaviy bilimga ega, Vatanga, ona zaminga sadoqatli yoshlarga hamma sohada keng yo'l ochib berish oliy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Mustaqil Respublikamizning oliy ta'lim tizimi oldiga qo'ygan yangi tipdagi vazifalaridan biri talaba yoshlardagi ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish hisoblanadi.

Har qanday sohada yoki kasbda shaxs o'z potensialini rivojlantirishi jamiyatda va undagi turli tuman vaziyatlarda o'z o'rniga ega bo'lishi muhim sanaladi. Shaxs nazariyasida pedagogika va psixologiya, akmeologiya tarmoqlarida shaxsning o'ziga xos ilmiy-tadqiqotchilik malakalari shakllanishiga doir qarashlar mavjud. Lekin hozirgi paytda bo'layotgan zamonaviy texnika va texnologiyalashgan davrda kishi ongiga bo'lgan ta'sir vositalarining kuchayishi yuqoridagi masalani kun tartibiga qo'ymoqda. Har bir ishning samaradorligini va yuqori natijalarini egallash uchun kuchli, o'tkir bilimga, yuqori iqtidorga, zamon talabiga moslashishga, tashkiliy madaniyatga, xulqqa, motivatsiyaga va bilim olish uchun moyillikka ega kadrlar o'ta zarurligini hayot taqozo etmoqda.

Talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirish masalalari bugungi kunda jahonda keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Masalan, AQShning Nebraska shtati Linkoln universitetida, Yaponiyaning Vasseda universitetida talabalarning ilmiy-tadqiqotga yo'naltirish hamda ularning ilmiy, ijodiy fikrlarini o'stirish ya'ni ijodiy-tanqidiy fikrlashga o'rgatish masalalari bo'yicha "Independent work» to'garagi tashkil qilingan. "Independent work» talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltiruvchi to'garaklar sifatida tashkil qilingan bo'lib, u to'garaklarda talabalarni bevosita ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirish, iqtidorli talabalarni aniqlash, ularni o'zi xohlagan va qiziqqan sohalariga yo'naltirish masalalari bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Xorijiy tajribaga tayangan holda bizning davlatimizda ham yoshlarni ayniqsa, talabalarning ijodiy malakalarini takomilashtirishning turli qirralarini hisobga olgan holda, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini ochish va rivojlantirish muammolari oldingi o'ringa chiqib bormoqda.

Akmeologik yondashuv asosida ilmiy faoliyat boshlayotgan talaba-yoshlar oldida hamisha tadqiqot ishining metodologik asosini belgilab olish, tajriba ma'lumotlarini tahlil qilish, umumlashtirish, tajriba-sinov ishlarini tashkil etish hamda olingan ilmiy natijalarni himoya qilish jarayoni turadi. Respublikamiz oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish va talaba-yoshlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish ko'p jihatdan ilmiy tadqiqot ishlariga maqsadli yo'naltirishga bog'liqdir. Provvardida talaba-yoshlarni startap goyalarining muallifi sifatida kashf etish mumkin.

Ilmiy tadqiqot ishlari inson aqliy faoliyatini ma'lum maqsadga yo'naltirilgan ijodiy harakatlari majmuyidan iborat. Bu faoliyatdan ko'zlangan maqsad, hodisa yoki jarayon to'g'risidagi yangi ilmiy bilimlarni o'rganish va kashf etish, uni takomillashtirish hamda ularni ijtimoiy hayotga tatbiq etishdan iborat.

Har bir ilmiy-tadqiqotchilik ishini olib boradigan talaba avvalo o'z oldiga maqsad qo'yishi lozim. Ayrim o'quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlarini yetarli rivojlanmaganligi ta'lim sifatiga ham zarar ko'rsatmoqda. Talaba yoshlar bilim olar ekan o'z oldiga yetuk mutaxassis bo'lishdek oliy maqsad qo'yadi. Oliy maqsadlarga erishish uchun esa unga akmeologik bilimlar zarur bo'ladi.

Oliy o'quv yurtlarida talaba-yoshlarni ilmiy ijodga qiziqtirishda va o'zining akmesini belgilashda avvalo biror muammo ustida ishlashga ishtiyoq paydo qilish, ilmiy manbalar ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

Akmeologik yondashuv asosida talabalarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish jarayonida quyidagilarga amal qilinishi lozim, deb hisoblaymiz;

- talabalarning qiziqishlarini o'rganish;
- ilmiy ma'ruza va suhbatlarga jalb qilish;
- ilmiy mavzuda ma'ruza tayyorlash vazifasini berish;
- refarat, kurs ishlari tayyorlashni topshirish;
- tahlil qilish uchun ilmiy materiallarni tayyorlashni o'rgatish;
- tadqiqotchilik rejasini ishlab chiqish;
- ilmiy adabiyotlar bilan ishlashni o'rgatish.

Talabalar-yoshlarni bo'lajak mutaxassis sifatida ilmiy izlanishlar olib borishi, olingan axborotlarni tizimlarga ajratishi, muammoga xos fikr va texnikaviy yechimlarning maqbul variantlarini tanlash usullarini bilishi talab etiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'lim jarayonida talabalarning ilmiy-ijodiy faoliyat ko'rsatish qobiliyati, qiziqishi va imkoniyati aniq hisobga olinsa hamda bu faoliyatni rivojlantirish yo'llari to'g'ri tanlansa, talabalarning intellektual salohiyati ortadi va o'z akmesini belgilash imkoniyati ortadi. Chunki, akmeologik yondashuv asosida olib borilgan tadqiqot ishlarining natijasi

talabalarda o'z akmesining yuqori cho'qqisiga erishishda hamda startap g'oyalari yaratishga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Анисимов О.С. Педагогическая акмеология: общая и управленческая. – Минск: Технопринт УП, 2002.286.-стр.

2. B.X.Rahimov Yoshlarni ilmiy-ijodiy faoliyatga yo'naltirish asoslari. Ma'sul muharrir U.N. Toshkentboyev; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Guliston davlat universiteti.-T,:fan,2010.-128 bet

3. G.N.Ibragimova. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: p.f.b.f.d. (PhD) diss. avtoref. ... - Toshkent, 2017.

O`SMIRLIK DAVRIDAGI DEVIANT XULQ-ATVORNI PSIXOLOGIK TASHXIS QILISH

Xolikova Xilola Gulamovna

Navoiy viloyati Karmana tumani 1-umumiy o`rta ta`lim maktabi psixologi

Sultonova Muqaddas Nurboyevna

31-umumiy o`rta ta`lim maktabi psixologi

Tarbiya uzluksiz jarayon bo`lib,inson dunyoga kelishidan boshlab to umrining oxirigacha davom etib boradi.Bu jarayon davomida atrof-muhitdagi voqea-hodisalarning shaxsga salbiy yoki ijobiy aks ta'sir etishi uning insoniy fazilatlarini qay darajada shakllanganligini belgilaydi.Bugungi kunda ta'lim sohasi oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri ham aynan,shu maqsadga qaratilgan bo`lib,kelajak avlodni komil shaxs sifatida shakllanishini ta'minlashdan iboratdir.

Insonning xul-atvori o`zgaruvchan va rang-barang bo`lib,uning individual xususiyatlari,o`ziga xos "uslublari"ning mavjudligi hech qachon va hech kimda hech qanday shubha tug'dirmaydi.Biroq bu xulq-atvorning xilma-xilligi uning cheksiz degani emas,zero insonlarning o`zaro muloqoti,o`zaro munosabati,ularni saqlanishi zaruratdir. Ma'lumki,har bir jamiyat o`zining qat'iy belgilangan ijtimoiy xulq-atvor dasturlari tizimiga va jamoatchilik fikri,odatlar,axloqiy tamoyillar,an`analar kuchiga tayanuvchi xulq-atvor qoidalariga ega.Qabul qilingan meyorlar xulq-atvorning tarixan shakllangan qoidalari sifatida talqin qilinadi,shu bilan birga u baholovchi vazifaga ham ega.Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar jarayonida jamiyatda turli ijtimoiy o`zgarishlar,yangilanishlar yuz bermoqda.Mazkur yangilanishlar jarayoni

jamiyatning qadriyatlar tizimiga hamda u orqali shaxslarning hatti-harakatlari va xulq-atvoriga turlicha, ayrim hollarda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holatga ayniqsa, ruhiy-fiziologik jihatdan ham murakkab o'zgarishlar davrini boshidan kechirayotgan 14-17 yoshlardagi o'smirlarda yaqqolroq namoyon bo'lmoqda. Ushbu muammolarning nazariy asoslarini tadqiq etish hamda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning o'smir yoshlar xulq-atvoriga salbiy ta'sir qilish mumkin bo'lgan jihatlarini, ayniqsa ular kuzatiladigan ijtimoiy deviantlik holatlarining psixologik xususiyatlarini o'rganish asosiy maqsadni tashkil etadi. Rivojlanib borayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni, komil insonlarni voyaga yetkazish masalasiga katta e'tabor berilmoqda. Insonning xulq-atvori o'zgaruvchan va rang-barang bo'lib, uning individual xususiyatlari, o'ziga xos "uslublari" ning mavjudligi hech qachon va hech kimda, hech qanday shubha tug'dirmaydi. Biroq bu xulq-atvorning xilma-xilligi uning cheksiz degani emas, zero insonlarning o'zaro munosabati, ularni turli ijtimoiy guruhlarga birikuvi, yashashi uchun iliq psixologik muhitning saqlanishi zaruratdir. Ma'lumki, har bir jamiyat o'zining qat'iy belgilangan ijtimoiy xulq-atvor dasturlari tizimiga va jamoatchilik fikri, odatlar, axloqiy tamoyillar, an'analar kuchiga tayanuvchi xulq-atvor qoidalariga ega. Qabul qilingan meyorlar xulq-atvorning tarixan shakllangan qoidalari sifatida talqin qilinadi, shu bilan birga u baholovchi vazifaga ham ega. Unga muvofiq ravishda har qanday harakat "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" "yaxshi" yoki "yomon" deb tavsiflanadi. Bunday tushunishda me'yorning tabiiy bog'lanishi, yani unga aloqador tushuncha "buzulish" atamasi bo'lib hisoblanadi.

Odatda "buzulish" atamasi har qanday "kasal" va "kasallik" xususida mulohaza yuritilganda ham ishlatiladi. Chunki buzulish aniq termin bo'lmasdan, balki bu tushuncha orqali xulq-atvor yoki uning simptomlari bilan bog'liq belgilar tushuniladi. Lekin psixik buzulishlar guruhiga alohida ijtimoiy og'ishlar yoki shaxsiyatsiz vazifalar kirmaydi. Har bir shaxs o'z yosh davriga xos muayyan ijtimoiy munosabatlar egasi hamda unga jamiyat tomonidan ko'rsatiladigan ko'plab iqtisodiy siyosiy, huquqiy, axloqiy ta'sirlarning obyektini hisoblanadi. Shaxsning xarateri, temperamenti, qobiliyati ruhiy jarayonlarni boshdan kechirganda, mehnat faoliyatida, turmushda o'zini namoyon etadi. Demak, psixik jarayonlar, psixik holatlar va psixik xususiyatlarning o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda aloqadorlik shaxsning psixologik tuzulishini tashkil etadi. Afsuski, biz ba'zan inson haqida fikr yuritganimizda sog'liq, kasallik va uchinchisi sog'liqqa ham, kasallikka ham qo'shilmaydigan bir holat haqida fikr yuritishimizga to'g'ri keladi.

Jahon fani, xususan tabobat ilmi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan Abu Ali ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" kitobida sabablar to'rt xil bo'ladi: moddiy, faol (ta'sir qiluvchi), shakily va tugallovchi sabablarni ko'rsatib o'tadi. Moddiy sabablar sog'liq va kasallik negizlarida paydo bo'ladi. Eng yaqin negiz a'zo ruhdur.

Ta'sir qiluvchi sabablar odam gavdasining holatlarini o'zgartiruvchi yoki o'zgarmagan holda saqlovchi sabablardir. Jumladan uyqu va uyg'oqlik ham sabablardan biridir. Bir yoshdan boshqa bir yoshga o'tish, yosh, jins e'tabor bilan farqlash ham ta'sir qiluvchi sabablardir. Shakliy sabablar mijozlar ulardan keyin paydo bo'ladigan quvvatlar va tarbiyalardir. Tugallovchi sabablar faoliyat (ishlar)dir. O'smirlik davriga xos deviant xulq-atvor va ularni ijtimoiy moslasha olmaslik (dezadaptatsiya) muammosi kuchayib boorish xususiyatiga ega ekanligi bois ham juda dolzarbdir. Bunday o'smirlarning umum qabul qilingan ijtimoiy va ma'naviy axloqiy meyorlarni tanolmasligi ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi oila, maktab, mahalla va boshqa ijtimoiy institutlar oldiga muhim vazifalarni yuklaydi. Mazkur muammoning tadqiqi bilan shug'ullangan bir qator olimlarning fikricha, sodir etilgan har o'nta jinoyatdan olti-sakkiztasini ijtimoiy dezadaptatsiyani bartaraf qilish orqali samarali amalga oshirish mumkin. Hozirgi zamonda turli yosh davrlariga xos deviant xulqining psixologik korreksiyasi va uni bartaraf qilishga oid yangi texnologiyalar yaratish xususidagi masalaga oydinlik kiritishga e'tabor haddan ziyod ortgan. Zamonaviy psixologiya fanlarida ushbu muammoga bag'ishlangan psixoanalitik, frustratsion, hamda bexavioristik tadqiqotlarning o'rni hamsalmoqlidir. Ammo, bizningcha, tarbiyasi qiyin o'smirlarning patalogik xulq mexanizmlari, mazkur "qiyin"lik tasnifiga asoslangan tipologiyaning modelini yaratish dolzarb muammoligicha qolmoqda.

Deviant xulqning fenomenologiyasi, ya'ni deviant xulqning tasnifi, bu o'zgarishlar nafaqat o'smir uchun, balki ijtimoiy guruh va jamiyat uchun ham salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Insonning deviant axloqini jamiyatda qabul qilingan meyorlarga zidligi va ruhiy jarayonlarining muvozanatsizligi moslashuvchan emasligi ko'rinishida yoki uning shaxsiy axloqi ustidan axloqiy va estetik nazoratdan bo'yin tovlash ko'rinishidagi o'zini faollashtirish jarayonining buzulishida namoyon bo'luvchi alohida qilmishlar yoki qilmishlar tizimi sifatida belgilash mumkin. Og'uvchi xulq (deviant, lot. deviatio-og'ish) deb, kishining qilmishlari, faoliyati turi odatiy, umum e'tirof etilgan meyorlardan farq qiladigan yoki u o'zi a'zosi bo'lgan jamiyat tomonidan qabul qilingan meyorlarga mos kelmay, barqaror ravishda ularning ijtimoiy meyorlaridan og'ishida namoyon bo'ladigan axloqqa aytiladi. Demak, deviant xulqli shaxs deb, birinchi navbatda, axloqiy jihatdan qarindosh urug'lari va do'stlarining kunglini og'ritadigan va atrofdagilarning hayoti uchun xavf tug'diradigan shaxslarga (individlarga) aytiladi. Katta yoshdagi individ avval boshdanoq ichki maqsadga intilish kuchiga ega bo'lib, shunga ko'ra faolligining barcha ko'rinishlari yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davletshin M.G. Yosh psixologiyasi va pedagogic psixologiya. - T. 2002. 105-b.
2. Kamilova N.G. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. - T. 2012. 244-b.

O'QUVCHI YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING AHAMIYATI

Xolmuhammedova X.

Toshkent shahar Olmazor tumani

16-son umumta'lim maktabi tarbiya fani o'qituvchisi

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish ijtimoiy tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi eng muhim omil sanaladi. Ma'naviy axloqiy ta'lim va tarbiya o'zaro bog'liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxs ma'naviy axloqiy kamolotini shakllantirish asosi hisoblanadi. Ma'naviy axloqiy ta'lim o'quvchilarga ma'naviy axloqiy, ijtimoiy axloqiy munosabatlar mohiyati to'g'risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda ma'naviy axloqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish ma'naviy axloqiy ongini shakllantirish jarayoni bo'lib, u izchil, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozim.

Ma'naviy axloqiy tarbiya o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy ma'naviy axloqiy bilimlar negizida ijtimoiy faoliyatni tashkil etish borasida ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ijobiy mazmundagi ma'naviy axloqiy sifatlarni qaror toptirish va ma'naviy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan murakkab dinamik jarayon hisoblanadi. O'quvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirish huquqiy ta'lim va tarbiya jarayonining muhim bosqichidir.

O'quvchi xulqi, xatti-harakatlarida ma'naviy madaniyatlilikning asosiy mezonlari: insonparvarlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, mehrmuruvvat, imon, ijodkorlik, faollik, tashabbuskorlik, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini baholashni talab etadi. Bu talab o'quvchining Vatan, ota-ona, do'stlari, jamoa oldidagi burchiga, vazifalariga, ta'lim-tarbiya jarayonida namoyon bo'ladigan faollik, ijodkorlik xususiyatlariga munosabati orqali amalga oshiriladi.

Buning uchun, eng avvalo, inson fazilatlarining o'zaro munosabatlarini va o'rnini aniqlab olmog'i lozim. Insonning ma'naviyati uning odobi, xulqi, madaniyatida tashkil topadi. O'quvchi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish esa aqliy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida inson ijobiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi. Yuqorida keltirilgan barcha ijobiy hislatlar o'quvchi shaxsini ma'naviy axloqiy darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi. O'quvchilar ma'naviy axloqiy tarbiyasini tashkil etish aniq maqsadga yunaltirilgan yaxlit pedagogik jarayon bo'lib, ushbu jarayonda quyidagi pedagogik vazifalar hal qilinadi:

1. O'quvchilarga ma'naviy axloqiy me'yorlar hamda axloqiy munosabatlar mohiyati va ularning ijtimoiy jamiyat hayotidagi ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berish.

2. O'quvchilarda ma'naviy axloqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojini yuzaga keltirishga, ma'naviy axloqiy ongini qaror toptirish.

3. O'quvchilarda ijobiy mazmundagi ma'naviy axloqiy sifatlar (bilimlilik, mehnatsevarlik, kamtarlik, mehrmuhabbat, vatanga, hamda muhabbat, otaona va kattalarga hurmat, insonparvarlik, saxovat, burchga sadoqat va xokazolarni) qaror toptirish.

4. O'quvchilarda ma'naviy axloqiy mazmundagi xulq-atvor, xarakter va irodani shakllantirish.

5. O'quvchilar ma'naviy axloqiy madaniyatini shakllantirish.

O'quvchilar ma'naviy axloqiy sifatlarining qaror topishi tarixiy ob'ektiv sharoitda shaxs tomonidan jamiyat taraqqiyoti, insonlarning o'zaro hamkorlik, aloqa doiralarining kengayishi takomillashuviga ko'rsatiladigan ta'sirning ijobiy mo'tadil holatda bo'lishini ta'minlashda ko'rinadi.

- Ma'naviy axloqiy sifatlarining qaror topishi quyidagi umumiy mazmun asosida ro'y beradi:

-o'quvchining ma'naviy axloqiylik darajasi ijtimoiy munosabatlar jarayonida, uning jamiyat, atrof-muhit va tabiatga bo'lgan yondoshuvida namoyon bo'ladi;

-o'quvchining ma'naviy axloqiylik darajasi u mansub bo'lgan jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyoti darajasiga bog'liq;

-o'quvchining ma'naviy axloqiy kamoloti ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlarning o'zaro uyg'unlashuvi asosida tashkil etiladigan o'zluksiz, tizimli ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi natijasida vujudga keladi;

-o'quvchining ma'naviy axloqiy kamoloti ijtimoiy munosabatlarning yo'lga qo'yilishida ijobiy natijalarga olib keladi.

O'quvchilarning ma'naviy axloqiy tarbiyasini amalga oshirish quyidagi tamoyillarga muvofiq yo'lga qo'yiladi:

• Ma'naviy axloqiy tarbiyaning ijtimoiy g'oyaviy asosga ega ekanligi. U ushbu tamoyil ma'naviy axloqiy ta'lim va tarbiyaning yagona g'oya O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlash, milliy mafkura g'oyalarini o'quvchilar o'rtasida targ'ib etishda ifodalanadi;

• Ma'naviy axloqiy ta'lim va tarbiyaning izchil, tizimli, uzluksiz tashkil etilishi. Ushbu tamoyil o'quvchilarga ma'naviy axloqiy bilimlar berish, ularda ijtimoiy-amaliy faoliyat ko'nikma va malakalarini hosil qilish, ma'naviy axloqiy ta'lim va tarbiya ishining tizimlilikini ta'minlash, bir maromda doimiy tashkil etilishiga erishishda namoyon bo'ladi;

• Ma'naviy axloqiy ta'lim-tarbiya g'oyalarining aniq. maqsadga yo'naltirilganligi. O'quvchilar o'rtasida tashkil etilayotgan ma'naviy axloqiy tarbiyani yo'lga qo'yishdan ko'zlangan yagona maqsad ularda ma'naviy axloqiy sifatlar, ma'naviy axloqiy madaniyatni qaror toptirishdan iboratdir.

“uzluksiz ta'lim tizimi (UTT)ning davlat, jamiyat va shaxsning ijtimoiy-

iqtisodiy va ma'naviy-axloqiy taraqqiyotidagi ahamiyati va o'рни, burch va vazifalarini aniqlash"¹⁸².

O'quvchi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirishga kirishishdan avval shu tadbirlar rejasini tuzib olish lozim. Reja tuzishda avvalo ob'ektning holati va xususiyatlarini aniqlab olish lozim bo'ladi. Bu vazifani amalga oshirishda pedagogik diagnostika qo'l keladi. Tibbiyotda bemorlarni muolaja qilishdan oldin, ularga tashxis qo'yiladi. Tashxis qo'ymay turib muolajani boshlash, dushman qayoqda ekanini bilmay turib unga o't ochish bilan barobar.

Tarbiyaviy tadbirlarni boshlashda pedagogik diagnostikaning vazifasi tarbiyalanuvchining ma'naviyati, qadriyatlarga yo'naltirilganligi, xulqi, odobini o'rganish va tahlil qilishga qaratiladi. Bu jarayonlarni o'rganmay turib, tarbiyaviy tadbirlarni boshlash shunchaki rasmiyatchilik uchun o'tkazilgan harakatlar bo'lib, ularning samarasi yuqori bo'lishi ehtimoldan juda uzoq. Pedagog-olima G.X.Ibragimova talaba-yoshlarning odob-axloq, qadriyatlarga oid bilimlarining sayozligini hal etilishi lozim bo'lgan muammolardan biri sifatida ko'rsatgan¹⁸³. Pedagogik diagnostikada e'tiborni shaxsning quyidagi ma'naviy-axloqiy sifatlariga qaratish lozim: kattalarga hurmat, kichiklar to'g'risida g'amxo'rlik, mehnatsevarlik, mas'uliyat, tashabbus, bag'rikenglik, ta'limdagi faollik, ijodiylik, Vatanga muhabbat, xalqqa muhabbat, e'tiqod va tamoyillarning mavjudligi, muomala madaniyati, milliy madaniyatga munosabati, qadriyatlarga yo'naltirilganligi, o'z Vatani tarixiga qiziqishi, o'z guruhi va jamoasiga hurmat, jamoaviylik va boshqalar.

MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA XITOIY TAJRIBASI

Hoshimov Jahongir Ravshanbek o'g'li

*Toshkent moliya instituti, Baholash ishi va investitsiyalar
kafedrasi dotsenti v.b. PhD*

Bugungi kunda Xitoy Xalq Respublikasi rahbariyati tomonidan quyidagi jihatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda: tashqi dunyo bilan Xitoyning mustahkam aloqasini o'rnatish; tadbirkorlar bilan davlatning birdamligi va ishonchli

¹⁸² Курбонов Ш., Сейтхалилов Э. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури: педагогик илмий тадқиқот муаммолари ва йўналишлари. –Т.: «Фан», 1999. 7 бет.

¹⁸³ Ибрагимова Г.Х. “Касб таълими тизимида миллий истиқдол ғояси асосида талаба-ёшлар маънавиятини шакллантириш” мавзусидаги пед. фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети. - Т., 2007. 60 бет.


sharikchiligini ta'minlash; jahon hamjamiyati tasavvurida Xitoyning ishonchli hamkor imijini hosil qilish; ishlab chiqarishning yuqori mahsuldorligi bilan rivojlanish emas, balki taraqqiyotning innovatsion asosda qurilishini ta'minlash bosh maqsadi deb hisoblaydi.

Xitoy davlati Butunjahon savdo tashkiloti (JST) a'zo bo'lishi bilan ko'plab sohalarda tub islohotlarni amalga oshirdi. Xususan, quyidagi muhim yo'nalishlarda: turli xildagi tariflarni pasaytirish; iqtisodiyotning yetakchi sohalari, xususan xizmatlar: telekommunikatsiya, sug'urta, bank, savdo, logistika sohasiga yo'naltiriladigan investitsiyalarga to'siq va cheklovlarni olib tashlash bilan bog'liq chora-tadbirlarni keltirish mumkin. Ushbu yaratilgan imkoniyat va sharoitlar tufayli nafaqat transmilliy kompaniyalar, balki kichik va o'rta hajmdagi xorijiy kompaniyalarning Xitoy davlatiga investitsiya kiritish bilan bog'liq faolligi yanada oshdi. Shular tufayli Xitoyga kiritilgan TTXI hajmining oshishi yildan-yilga o'sib bordi.

2008-2012 yillarda boshlangan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi davrida Xitoy davlati xorijiy investitsiyalarning kirib kelishini pasaytirmaslik maqsadida "yashil yo'lak" tizimini joriy qildi. Ushbu tizimdan xorijiy kapitalga ega bo'lgan korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish va xorijiy investitsiyalarning kirib kelishini rag'batlantirish masalalari o'rin olgan bo'lib, bu, o'z navbatida, investorlar uchun "himoya yostig'i" vazifasini o'tadi. Amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy-ma'muriy va siyosiy-tashkiliy chora-tadbirlar sabab Xitoy keyingi yillarda eng yirik savdo-sotiqni amalga oshirayotgan hukmron davlatlardan biriga aylandi

Shuningdek, 1978 yildan boshlab Xitoy xorijiy sarmoyani jalb qilish maqsadida rasmiy ravishda "islohot va ochiqlik" siyosatini olib bordi. O'shandan beri olib borilgan islohotlar mamlakatda xorijiy investitsiyalar ustidan nazoratni bosqichma-bosqich liberallashtirdi. 1983-2020-yillarda xorijiy investitsiyalar qariyb 1000 baravarga oshib, 1,77 milliard AQSH dollardan 1,36 trillion AQSH dollariga yetdi.

1-rasm ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, 2011-2021 yillarda Xitoyga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning yillik oqimi yillar davomida o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu natijaga erishishiga sabab Xitoy Xalq Respublikasida investorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar shuningdek, investitsion muhiti va jozibadorligi yaxshi yaratilganidan dalolat beradi. Jahon mamlakatlarining investitsion jozibadorligini ko'rsatadigan reytinglarning barchasida xususan, "Global raqobatbardoshlik indeksi", "Global innovatsion indeks" va "Biznes muhiti hafi indeksi"larida faol ishtirok etib kelishi sabab ushbu natijalarga erishgan.



1-rasm. 2011-2021 yillarda Xitoyga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning yillik oqimi (milliard AQSH dollarida)¹⁸⁴

2021 yilda Xitoyga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining qiymati qariyb 181 milliard AQSH dollariga yetdi. Bu o'tgan yilga nisbatan qariyb 21 foizga oshgan.

Jumladan, ushbu davlat kabi O'zbekistonni ham xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkaziladigan so'rovnomalarda faol ishtirok etishi, jahon mamlakatlarning investitsion jozibadorligini ko'rsatadigan reytinglarning barchasida xususan, "Global raqobatbardoshlik indeksi", "Global innovatsion indeks" va "Biznes muhiti hafi indeksi"larida ishtirokini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish kelajakda investorlarning investitsiyalarni kiritish bo'yicha qarorlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sababi, xorijiy investor biror bir davlatga investitsiya kiritishdan oldin, o'sha mamlakatning investitsion muhiti haqida ishonchli ma'lumotga ehtiyoj sezadi. Albatta, eng ishonchli manbalardan biri bu xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tomonidan yuritiladigan indekslar hisoblanadi. Bu indekslardan investorlar o'zlariga kerakli va ishonchli ma'lumotlarni qo'lga kiritishlari mumkin.

¹⁸⁴ <https://www.statista.com/statistics/1016973/china-foreign-direct-investment-inflows/>
ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

BOSHLANG'ICH SINFLAR UCHUN PIRLS TOPSHIRIQLARINI TAYYORLASH VA ULAR USTIDA ISHLASH TEXNIKASI

Xo'jamqulova Nafisa Ro'ziqulovna

O'zbekiston–Finlandiya pedagogika instituti Pedagogika fakulteti o'qituvchisi

В рамках исследования PIRLS изучается качество чтения и уровень понимания прочитанного текста учащимися 4-х классов стран с разными системами образования. Выбор учащихся 4-х классов для этих занятий важен, поскольку именно на четвертом году обучения у учащихся формируется высокий уровень обучаемости, формируется их способность к получению знаний в дальнейшем обучении, а значит и к современности. приспособление.

Ключевые слова: грамотность чтения, исследование PIRLS, международная оценка.

2018-yil 5-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoni qabul qilindi. [1]Xalq ta'limi tizimiga ilg'or xorijiy tajribani, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, shu jumladan ta'lim berishning innovatsion usullarini joriy etish, o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratish, fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish belgilangan.

Ushbu tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan AQShning Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) bilan hamkorlikda olib borilmoqda. Mazkur loyiha 2019 yil 28 sentyabrda XTV va USAID o'rtasida imzolangan besh yillik rivojlanish maqsadlari to'g'risidagi bitimning birinchi tarkibiy qismidir.[1]Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'i Ulug'bek Tashkenbayev hamda Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA – International Association for the Evaluation of Educational Achievement)ning Amsterdamdagi direktori Andrea Netton o'rtasida O'zbekistonning PIRLS-2021 baholash tizimida ishtirok etishi yuzasidan 25-yanvar kuni ilk rasmiy uchrashuv tashkil qilindi. O'rganishlarimiz natijasida PIRLS tadqiqotlarida darsda o'quvchilar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan o'qishning quyidagi ikki turi o'rganiladi:Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o'qish. [7] Mazmuni tushunish va amalda foydalanish maqsadidagi o'qish. Bu ikki xil o'qish turi ham boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ilmiy bilimlarini oshirishga va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi[6]

O'quvchilarga ikki xil topshiriq beriladi:

1. Adabiy o'qish tajribasini o'rganish;



2. Axborotni ishlab chiqish va undan foydalanish.

Boshlang'ich ta'limda asosan o'qish savodxonligining asosi matnlar bilan to'liq ishlash uchun zarur bo'lgan o'qish qobiliyatlarini shakllantirishdir va matnlarni tahlil qilishdir. Bu o'quvchilar tomonidan kerakli ma'lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma'lum qismi bo'yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan amalga oshiriladi. Matnning asosiy toifalariga asoslanib, o'qituvchi bilishi kerak kichik yoshdagi o'quvchilarning matnni tushunishi bilan chambarchas bog'liq bolaning nutqini, matn faolligini bilish va o'zlashtirish jarayoni aks ettirilgan. Bilimning eng muhim vositasi til va bilish jarayoni, psixolingvistlarning fikricha, unda sodir bo'ladi matnni idrok etish va yaratish jarayonlarining uzluksiz almashinishi. N. I. Jinkin ta'kidlaydiki, matnning ma'nosini hisobga olgan holda, o'quvchi o'qishi kerak [9]. Shunday ekan xalqaro dasturlar asosida o'quvchilarda matn bilan ishlash mobaynida til bilimlari shakllana boradi.

Xuddi shunday 4-sinf O'qish kitobidagi "Alisherning yoshligi" matni bilan tanishishda PIRLS asosida dars mobaynida ishlash, o'quvchilarning topshiriqlarga javob berishlarini ko'rib o'tamiz.

Topshiriqlar:

1-topshiriq. Hikoyaning nomini toping?

Ali  ning y  ligi

2-topshiriq. "Alisherning yoshligi" hikoyasining muallifi nomini ayting?

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek

3-topshiriq. Hikoya kim haqida yozilgan?

Hazrat Alisher Navoiy haqida yozilgan.

4-topshiriq. G'iyosiddin Kichgina va bir bek suhbatidan parchani o'qing va ma'nosini izohlang;

— O'g'il chakki emas, tiyrak, begona ko'zdan asrasin!-dedi zimdan bolani ta'qib qilib turgan bek.

G'iyosiddin Kichkina kamtarona ohangda:

— Ilohim, mulla bo'lsin, zehni yaxshi,- dedi. So'ng o'zi ham ichida: «Ha, **Tangrim** yomon ko'zdan asrasin»,- deb qo'ydi.

5-topshiriq. "Takya" deganda nimani tushundingiz?

A) bosh kiyim B) oyoq kiyim D) qishki kiyim

6-topshiriq. Matnda qaysi hayvon Alisher bilan uchrashish jarayoni tasvirlangan?

Tog'asi dashtdan olib kelib sovg'a qilgan kiyik

7-topshiriq. Alisherning maktab haqidagi fikrlarini o'qing va tahlil qiling?

— Ov qilmoq, merganlik - ermak narsa, lekin eng zo'r zaruriyat

maktabdir. Turmushning ko'p sirlarini maktab o'rgatadi.

Izoh: Maktab har bir yosh o'quvchi uchun zarur ekanligi, biz maktabdan inson hayoti davomida kerak bo'ladigan bilimlarni olishimiz mumkinligi aytamiz.

8-topshiriq. Alisherning yoshligi otgan maktabni qanday ta'savvur qilasiz rasmini chizing?

Bu haqida o'qituvchi tushuncha beradi

9-topshiriq. "Olim odam xor bo'lmaydi"-deganda nimani tushunasiz, izohlang?

Ilmli, ziyoli inson har vaqt o'z o'rniga ega boladi.

10-topshiriq. Hayvonlar va qushlar haqida maqollardan namunalarni ayting?

Bedana tezotar bo'lsa,

O'z boshini o'zi yer.

Bedananing «vit» degani — qochgani.

Bo'ri bo'ronda quturar.

Bo'rining ozig'i — burnida.

Zag'izg'on sog'ligidan o'lmas, suqligidan o'lar.

Zag'izg'on chaqib to'q bo'lmas.

Zag'cha sigirdan qo'rqmas.

Itida jiyan yo'q,

Baqada — qayin.

Itidan suyak ortmas,

Mushukdan — bez.

Ot — yigitning yo'ldoshi.

11-topshiriq. "Alisherning yoshligi" hikoyasida kimlar ishtirok etgan?

Otasi, Bek, onasi, Alisher, tog'asi, do'stlari.

12-topshiriq. Alisherni qanday bola deb tasavvur qildingiz, tasvirlab bering?

Ziyрак, o'qishga va maktab ilmiga qiziquvchan, olijanob hayvonlarga mehr ko'rsatadigan zakovatli bola.

Boshlang'ich maktabda tilning eng qisqa ma'noli birligi - so'zdan boshlab va eng yuqori lingvistik birlik - matn bilan tugaydigan ilmiy- ommabop matnlar bilan ishlash usullari va usullarini batafsil ko'rib chiqaydigan bo'lsak ushbu til birliklari bilan ishlashning tavsiya etilgan texnika va usullari amaliyotda "oddiydan murakkabga" tamoyili asosida qo'llaniladi va kichik yoshdagi o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quvchilar bilan differentsial ishlashda qo'llashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. LEX.UZ
2. S.Matchonov, A.Shojalilov 4-sinf O'qish kitobi

3. Gaynazarova G.A. Mashg'ulotlarda interfaol muhitni yaratish omillari. Zamonaviy uzluksiz ta'lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar. Xalqaro ilmiy konferentsiya. – Toshkent: – 2018. B.225.

4. Davletshin M.G. Boshlang'ich ta'limning psixologik omillari // Xalq ta'limi tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yangi avlodini tayyorlash muammolari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 1996. -B. 132-134.

5. Davletov E.Yu. Boshlangich ta'limga PIRLS baholash dasturi imkoniyatlari. Zamonaviy uzluksiz ta'lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar. Xalqaro ilmiy konferentsiya. – Toshkent: – 2018. – B.248.

6. Rabbonayeva D.T. “Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni 'zlashtirish darajasini takomillashtirish usullari”. Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun uslubiy ko'rsatma. – Samarqand, 2020-yil.

7. www.uzedu.uz

8. Ziyonet.uz

9. olimpiada.uz

IMPROVING PRONUNCIATION SKILLS

Kurbanova F.K.

English teacher at CSPU (Scientific advisor)

Khurozova SH.M

3- course student at CSP Primary education faculty

To become competent users of a second language, learners must focus on various different aspects of the language they are attempting to learn. At high school, second language learning tends to emphasize the importance of grammar and vocabulary, as these are easy to teach to large classes, and furthermore, are easy to test by written exam. This approach often causes other aspects of the second language to be neglected, however, particularly the practical skills that allow learners to actually use the language for real communication. It is all too common to find good students of English who are in effect tongue-tied – they have an extensive knowledge of the written language but lack the ability or confidence to use spoken English as a communication tool. Yet in reality, communication skills are not nearly as difficult to acquire as English language learners may think. If regular speaking practice is introduced from an early stage, together with the opportunity to hear native speakers using the language in its natural form, then it is possible for students to become as comfortable with spoken English as they are

with written English. One aspect of spoken English which can be improved without too much effort is pronunciation. In this paper I describe two characteristics of English pronunciation which learners can focus on in order to make their spoken English sound more confident, more proficient, and easier to understand. The 126 Improving your English Pronunciation first of these is the appropriate use of weak vowels, such as schwa, in unstressed syllables. This is explored in section 3. The second concerns the use of weak forms in longer utterances, which is essential for producing sentence-level rhythm. This is the focus of section 4. The discussion begins in section 2 with comments on the importance of acquiring a good pronunciation.

Weak vowels

Fortunately, there are several ways in which English learners can improve their pronunciation once they have identified the main pitfalls. In the case of Japanese learners of English, the most significant improvement they can make is to begin incorporating weak vowels into their English, specifically the 'schwa' vowel [ə]. Before this can happen, however, learners must recognize two basic points about English pronunciation. First, in spoken English not all syllables (or beats) are of equal importance – some are naturally stronger than others. And knowing when and how to pronounce weak syllables can make a speaker's pronunciation more natural. Second, English spelling does not tell you how to pronounce English vowels. For example, the vowels in the underlined syllables in (1) have exactly the same sound, despite having different spellings. All are pronounced [ə]. (Non-photoc pronunciations are used throughout this paper.)

offer [.....]
sofa [.....]
forget [.....]

The position of weak vowels is determined by stress, or more precisely, the absence of stress. All content words in English (i.e. nouns, verbs, adjectives) have a characteristic stress pattern which usually comprises a single 128 Improving your English Pronunciation stressed syllable together with a variable number of unstressed syllables around it. Most unstressed syllables are pronounced with a weak vowel such as [ə]. By contrast, spoken Japanese does not employ word stress in this way, and consequently, it is natural for Japanese learners of English to ignore the significance of stress when speaking English. (Note that, for similar reasons, English speakers typically ignore pitch accent patterns when learning Japanese.) And this is unfortunate, because stress is unquestionably a key aspect of English pronunciation, especially for listeners

PRONUNCIATION

Amazing	Control
America	Consider

Ago	Computer
Allow	Communicate
Forget	
Support	
Suggest	
Decision	

SCHWA sound in sentences

That was amazing

It was two weeks ago

My dad did not allow me

You should control it well

Please reconsider

Don't forget it

I suggested that we should meet

The schwa vowel [ə] is the most common English vowel sound. It occurs in every sentence of spoken English, yet it can cause problems even for advanced Japanese learners of English because it is not a native Japanese sound. The first problem is to do with producing the [ə] sound itself. There are many textbooks on English phonetics that provide descriptions of the tongue position and lip position needed for pronouncing [ə] correctly, but in reality these descriptions are not helpful. The most effective way for students to master the [ə] sound is to listen regularly to native speakers and to copy what they hear. Good pronunciation always starts with careful listening. The second problem concerns knowing where [ə] should be pronounced. In fact, predicting the occurrence of [ə] in English sentences follows from what has already been said in the preceding paragraphs : the distribution of [ə] is determined by the stress pattern, not the spelling. It is restricted to unstressed syllables ; and generally speaking, most unstressed syllables have the potential to be pronounced with a [ə] vowel. In the words in, for example, all the unstressed vowels (underlined) are typically produced as [ə].

Some tips to improve pronunciation:

1. You don't need to have an accent which is 100% Perfect There are hundreds of different accents and dialects in the English language. Yours, wherever it's from, will just be another one, even if it's foreign. Having an accent is normal.

2. 2. Phonetics will help you Phonetics is very useful as it will help you understand how a word is pronounced just by looking in the dictionary. Phonetic transcription of the word "phonetics". You might find it a bit difficult to learn the symbols of the phonetic alphabet as we're sure you won't have seen a lot of them before, but this alphabet has the advantage of being international and universal,

and it will let you know how any word is pronounced in any language. You can find several exercises and free resources on the internet to learn phonetics if you are interested.

3. 3. Speak to yourself. It's a good idea to record yourself speaking English and then listen to the recording to find possible mistakes or things to work on. The best thing is to listen to a sentence pronounced by a native speaker and then try to repeat it by imitating their pronunciation as best you can. This is exactly what happens in the "Speak" section of our online English course: you listen to the dialogue, repeat and record the sentences and then you listen and compare your pronunciation. If you are not satisfied, you can repeat this as many times as you need.

4. 4. Pronunciation isn't everything Remember that your intonation is also important and that every language, dialect or register has its own intonation patterns. Moreover, using correct intonation will make your English sound a lot more natural even if your pronunciation isn't perfect. Pay attention to the intonation of questions, exclamations, statements, etc., in English. You might find it's very different to the intonation in your mother tongue.

5. Start imitating people This may sound like a joke, but we'll explain what we mean. We're sure you've imitated a foreign accent in your own language before, for example, that of someone from England or the US. This time you'll have to imitate their accent but while speaking their language, that is to say, you'll have to speak English while imitating their British or American accent. You'll see how your pronunciation sounds a lot more authentic in this way.

6. Music to your ears It's a trick that always works. Download the lyrics of your favorite songs and read them as you listen to them. Pay close attention to how each sound is pronounced and rewind if necessary to listen to a part again.

7. Films and series will be your friends We don't get tired of repeating it: the best way to get used to an accent is by exposing yourself to it by watching films and series, listening to the radio, podcasts, etc. Nowadays, with the internet, we have access to a very wide range of audiovisual content in English. There's a lot to choose from.

Summary

From the preceding discussion it should be evident that the ability to speak in rhythm goes hand in hand with the ability to use weak forms. If improving your English Pronunciation learners of English become proficient at distinguishing between strong and weak syllables within single words, and also between content words and grammatical words in longer utterances then they will have established a useful base for reproducing the rhythmical patterns that characterize the natural speech of native English speakers. Listeners will immediately notice the improvement in fluency, and in many cases will be led to

rate the speaker's overall level of English more highly as a result. Most English learners can improve their pronunciation without much difficulty and it can make a real difference.

Reference

1. Brown, Gillian. Listening to Spoken English. London : Longman, 1990. Print
2. Khusan Abdumominov's English course materials.
3. <https://blog.abaenglish.com/8-tips-to-improve-your-english-pronunciation/#:~:text=Every%20day%20our,to%20the%20dialect!>
4. <https://englishlive.ef.com/blog/language-lab/10-tips-perfect-english-pronunciation/#:~:text=Close%20your%20eyes,the%20sound%20correctly.https://englishlive.ef.com/blog/study-tips/upgrade-english-vocabulary-newspapers-magazines/>

ЛЮБОВНАЯ ЛИРИКА ПУШКИНА

Хусанов Мизроб Тоирович,

студент Джизакского государственного педагогического университета им.А.Кадыри. г.Джизак

Концепция любви занимает ведущее место в концепт сфере А. С. Пушкина наряду с концептами “Свобода”, “Дружба”, “Гармония”.

Любовь для Александра Сергеевича Пушкина была одной из главных тем в лирике. Понятие любви в стихах А.С.Пушкина, с одной стороны — это переживание определенных чувств и эмоций во множественном смысле слова; а также как осознание и последующая демонстрация внутреннего мира влюбленного лирического героя, образ которого автобиографичен. Для этого мы должны были очертить ряд основных вех в когнитивно-дискурсивном анализе творчества Пушкина.

Словарь языка А.С. Пушкина определяет “любовь” как “интимное чувство, влечение к другому человеку, человеческому сообществу или идее”. В античной мифологии и поэзии — это космическая сила. В платонизме любовь — это эрос, сила духовного восхождения. В общем смысле платоническая любовь — это любовь, свободная от чувственного влечения.

Часто говорят, что сущность поэта наиболее очевидна в словах любви. Рассмотрим, как А.С. Пушкин изображает любовь в поэтической картине мира.

Тема любви к женщине (любовь-эрос) отзывается во многих стихотворениях и имеет множество значений: любовь - чувство идеальное, возвышенное, прекрасное в своей высшей выразительной силе, любовь как мимолетное влечение, любовь мудрого человека в жизни, любовь и эмоции, которые с ней связаны (счастье, грусть, сожаление, ревность и т. д.).

Многие стихотворения Пушкина являются шедеврами лирической любовной лирики. Одним из них “Признание” (“Я вас люблю — хоть я бешусь...”).

Следующие строки стихотворения описывают благородную натуру поэта, глубокую чувство и любовь:

*Пора, пора мне быть умней!
Но узнаю по всем приметам
Болезнь любви в душе моей:
Без вас мне скучно, — я зеваю:
При вас мне грустно, — я терплю;
И, мочи нет, сказать желаю,
Мой ангел, как я вас люблю!*

В этом стихотворении Пушкин сравнивает любовь с болезнью, и такой же контраст можно найти в стихотворении “Выздоровление”:

*Тебя ль я видел, милый друг?
Или неверное то было сновиденье,
Мечтанье смутное, и пламенный недуг
Обманом волновал мое воображенье?*

Суждение Пушкина о том, что любовь — это болезнь, наиболее прямолинейно выражено в четвертой (и последней) строке стихотворения “Надпись на стене больницы”: “Болезнь любви неизлечима!”.

Таким образом, в этих примерах реализуется когнитивная метафора болезни любви.

Любовь как цепь страданий, печальный плен, огонь горького желания, ежедневный яд, бесполезный труд и стыд, страх, яд и разрыв сердца — все это дополняет репрезентацию фрейма “несчастливая любовь”.

Отметим, что любовь для Александра Пушкина — чистое и простое явление сознания. Это чувство всегда предшествует любви и предшествует ей как знак:

*Душе настало пробужденье:
И вот опять явилась ты...*

Только пробуждённая душа обладает способностью любить и способностью чувствовать и видеть красоту. А утомленная душа стирает память о прекрасной встрече:

Бурь порыв мятежный

*Рассеял прежние мечты,
И я забыл твой голос нежный,
Твои небесные черты.*

Как отмечают многие критики и читатели, слова любви поэта пропитаны музыкальностью. Многие из его произведений звучат как романсы или симфонии. На сегодняшний день некоторые из его произведений подверглись музыкальной обработке: “Я вас любил”, “Я помню чудное мгновенье”, “Не пой, красавица, при мне” и другие. Любовь для поэта — это “чудное мгновенье”, “часы надежд и наслаждений”:

*Я помню чудное мгновенье:
Передо мной явилась ты,
Как мимолетное виденье,
Как гений чистой красоты...*

Любовь — это выражение музыки, выражения и любви, а также реализация рамки “Счастливой любви”:

*Клянущ речей любовный шепот,
Стихов таинственный напев,
И ласки легковерных дев,
И слезы их, и поздний ропот.
Но кто любви не жертвовал собою?
Вы, чувствами свободные певцы!
Пред милыми смирялись вы душою,
Вы пели страсть — и гордою рукою
Красавицам несли свои венцы.*

А в ещё одном стихотворении поэта — “На холмах Грузии лежит ночная мгла...” — имеются строчки, которых можно назвать эпиграфом жизни А. С. Пушкина: “...И сердце вновь горит и любит — оттого, // Что не любить оно не может”.

Особенно поражает ещё одно стихотворение “Я вас любил...”. Эта лирическая миниатюра содержит универсальные духовные ценности. В стихотворении “Я вас любил...” нет пренебрежения, сравнения или метафоры. В свою очередь В.Г. Белинский говорил, “в нём та же трогательная душу гуманность, та же артистическая прелесть, что и в других интимных стихотворениях поэта”.

Эта простота позволяет различным эмоциям проявляться в едином ключе.

“Я вас любил” — это выражение повторяется трижды, и его общий смысл сохраняется, что дает новый оттенок:

*Я вас любил: любовь ещё, быть может,
В душе моей угасла не совсем;*

*Но пусть она вас больше не тревожит;
Я не хочу печалить вас ничем.*

Этот раздел подчеркивает благородный и сдержанный характер лирического героя. Его чувства не остыли, но он не хочет тревожить или огорчать объект своей любви:

*Я вас любил безмолвно, безнадежно,
То робостью, то ревностью томим...*

Автор подчёркивает на силу любви, на многогранность эмоций, связанных с любовью, таких как отчаяние, смущение и ревность:

*Я вас любил так искренне, так нежно,
Как дай вам бог любимой быть другим.*

Этими строками Пушкин утверждает, что истинная любовь — это желание быть любимым и счастливым, даже другими.

Стоит отметить, что Пушкин часто реализует когнитивную метафору огня любви: “Не угасал мой пламень страстный”, “И сердце вновь горит и любит”.

Тема любви в лирике Пушкина по-разному раскрывается в разные периоды его творчества. В лицейский период любовь — это светлое, несерьезное чувство, одно из удовольствий жизни, своего рода романтическая и разрушительная страсть (это любовь-эротика). В петербургский период любовь связана с патриотическими устремлениями поэта: это любовь к родине (любовь-филия). Только во времена Михайловского Пушкин приходит к пониманию любви как высшей человеческой ценности. Любовь теперь ассоциируется с внутренней свободой и способна пробудить в поэте вдохновение и самые высокие человеческие чувства (любовь-Агапе).

Несмотря на новые влюбленности и конец прошлых отношений, Пушкин доказывает, что любовь не исчезает навсегда. Рано или поздно человек вновь переживает это чувство, утверждает поэт, и в любви никогда не бывает неудач.

Даже безответная любовь не может отринуть любовь и навсегда отказаться от этого чувства.

Список использованной литературы:

1. Бочаров С.Г. Поэтика Пушкина. М., Наука, 1974.
2. Мочульский К.В. Великие русские писатели XIX в. СПб., Алетейя, 2001.
3. Набоков В. Комментарии к «Евгению Онегину» Александра Пушкина.
4. <https://ru.m.wikipedia.org>.
5. <https://www.livelib.ru>
6. <https://myfilology.ru/russian-literature/>
7. <https://studfile.ne>

PEDAGOGLARNING KREATIVLIK IMKONIYATLARI VA ULARNING TARKIBIY ASOSLARI

Xushboqov B.X.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari ularda o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg'or, b o'lajak pedagoglarning o'quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratadi.

Yangi, hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiiq etish o'qituvchidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni talab qiladi. O'qituvchining kreativligi o'z tajribasini qayta ko'rib chiqishi va yaxshilash hammaga ma'lum narsalarni o'zgartira olishi va ijodiy foydalana bilish, sifat jihatdan yangiliklarni yaratish juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Kreativlik tushunchasi (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilganda ijod ma'nosini anglatadi. Haqiqattan esa yangi, original (o'ziga xos) yanada sayqallangan moddiy va ma'naviy bog'liqliklarni yaratishdir. Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin.

O'qituvchining kreativligi, bu uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g'oyalarni izlab toppish laoyiqatidir. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi o'zaro bir-biriga bog'liq kreativlik tarkibiy komponentlarini ajratish imkoni beradi:

1. Intellektual (aqliy);
2. Ahloqiy (o'z-o'zini boshqarish);

3. Motevatsion (maqsadiy);
4. Emotsional (his hayajonli).

Kretiv layoqat quyudagi o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan qismlardan iborat

bo'ladi:

1. Kreativlik maqsad;
2. Ijodiy intilish;
3. Kreativ (ustanovka) qurish,
4. Kreativ yo'nalish;
5. Kreativ ifodali akt;
6. Kreativ o'z-o'zini boshqarish;
7. Kreativ faollik;
8. Kreativ intilishlar darajasi.

O'qituvchining kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo'ladi va rivojlanadi. K.Rodgers "Ijod-o'z o'zini kuchaytirish demakdir" degan asarida ijodiy shaxs uchun eng asosiy savollardan birini beradi: "Meni meni hayot tarzim qoniqtiradimi yoki to'g'ri talqin etadimi. O'qituvchining ushbu savolga javobi uning kasbiy va ijodiy cho'qqilarga intilishi yuqori ijodoy malakali va o'zini ijodiy tomondan to'la namoish etishga intilishi kreativ shaxs bo'lishi". Shunday qilib kreativlik o'qituvchining ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, kreativ maqsadi, yo'nalishi va o'zini boshqara olishida ko'rinadi va uni o'zini faolligi, o'zini-o'zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o'sayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi. Pedagogning **kreativlik potentsiali** uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi. Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq. Pedagogning kreativ potentsiali an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;
- yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati;
- bir qolipda fikrlamaslik;
- o'ziga xoslik;
- tashabbuskorlik;
- noaniqlikka toqat qilish;

Pedagog kreativlik potentsialiga ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
- yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;

- ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;
- hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.

Har bir pedagogning o'zini- o'zi rivojlantirishi va o'zini- o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogic muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi. Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini-o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni echish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala echimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Darslarda o'qituvchi "kreativlik yo'l xaritasi"ga ko'ra quyidagi 4 ta yo'nalish bo'yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar (Patti Drepreau) sanaladi: ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish; bo'lajak pedagoglarni o'quv fanlarini qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish; innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning echimini topishga kreativ yondashish; kutiladigan natija.

Bo'lajak pedagoglarni kreativ fikrlashga o'rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor shaxs bo'lishi zarur. Bordi-yu, uning o'zi kreativlik sifatlariga ega bo'lmasa, u holda qanday qilib, bo'lajak pedagoglarni kreativ fikrlashga rag'batlantira oladi. Chiqariladigan yagona xulosa quyidagicha: o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor bo'lsagina, bo'lajak pedagoglar ham shunday bo'la oladi. O'qituvchining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
2. Muslimov N.A, Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. -81-b.
3. Muslimov N.A. "Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish" / Monografiya. – T.: Fan, 2004.
4. Muslimov N.A. va boshqalar. "Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi" / Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
5. Muslimov N.A., Inoyatov U.I., Usmonboyeva M., Inog'omova D. "Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob" / Metodik qo'llanma – T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012. – 193-b.
6. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. "Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi" / Metodik qo'llanma – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. -115b.
7. Sayidahmedov N. "Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya".- T.: Oliy pedagogika instituti, 2003.

TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR YOSHLAR NIGOHIDA

Shamsiddinova Mohiraxon Yahyoxon qizi

Namangan Davlat Universiteti Ingliz filologiya talabasi

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning olib borayotgan islohotlari natijasida O'zbekistonda ta'lim sohasidagi izchil islohotlarning amalga oshirilmoqda hamda yurtimizning xalqaro reytinglardagi nufuzi oshib bormoqda.

Shuningdek, ma'ruzada Prezidentimiz tomonidan davlat va jamiyat ravnaqini belgilab beruvchi quyidagi fikrlar pedagog sifatida bizni ruhlantirdi: "Atoqli ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning: "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir", degan hikmatli so'zlarini men qayta-qayta takrorlashdan charchamayman.

Keyingi yillarda masalaga mana shunday yondashuv bizning ushbu sohadagi faoliyatimiz mezoniga aylandi. Chindan ham, agar biz ta'limni o'zgartirsak, ta'lim insonni o'zgartiradi. Inson o'zgarsa – butun jamiyatimiz o'zgaradi"[1]. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, biz keng ko'lamlilik demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik[2].

Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar O'zbekistonda Uchinchi Renessansga poydevor bo'ladi. Shu sababli hozirda mamlakatimizda uzluksiz ta'limni takomillashtirish, farzandlarimizni har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalash, yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlashni tubdan yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ta'lim-tarbiyaning boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimidagi o'zgarishlardan barchamiz yaxshi xabardormiz. Sohada yagona davlat siyosatini yuritish maqsadida Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi.

2017-yili yurtimizda 5 ming 211 ta bog'cha faoliyat yuritgan bo'lsa, joriy yilda bu raqam – tasavvur qiling – 19 ming 316 taga yetdi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari hamda oilaviy bog'chalarning joriy etilishi, bir qator imtiyozlar berilishi tufayli 13 mingdan ziyod nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Ushbu maqsadli islohotlar natijasida maktabgacha ta'limga qamrov darajasini 62 foizga, 6 yoshdagi bolalar o'rtasida esa 77 foizga yetkazishga erishildi.

Yurtimiz baxtiyor yoshlar mamlakati bo'lib, mamlakatimiz aholisining qariyb 64 foizini yoshlar, ya'ni- 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Albatta bu, davlatimiz zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklashini ko'z oldimizga keltirsak, juda katta e'tibor, g'amxo'rlikni talab etadi, ikkinchi tomondan yoshlarimizga ko'rsatiladigan e'tibor, ertaga ulkan yutuq va natijalarini ham beradi. Chunki hozir O'zbekiston mehnat resurslarining yarmidan- ko'pi yoshlardir. Kelgusida har uchinchi rahbar ham yoshlardan bo'ladi. Shu bois ham, yoshlar barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etib kelingan. Sharq Uyg'onish davrida ham, jadidlar faoliyatida ham, jamiyatning yangilanishida yoshlarning o'rni beqiyos bo'lgan. Shu jihatdan muntazam shakllanib boruvchi bu qatlam doimiy yo'naltirib va qo'llab-quvvatlab turishni talab etadi. Bu esa, davlat tomonidan yoshlarning mamlakat manfaatlari- yo'lida erkin ijtimoiylashuvi va o'zini samarali namoyon etishi uchun maqbul sharoit va imkoniyat yaratish hamda yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi yoshlarga oid davlat siyosatini anglatadi. Shu bois, mamlakatimizda eng katta e'tibor mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, bu vazifa O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2017-yil 5-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106-son, 2018-yil 25-yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5313-son farmonlari, shuningdek, ko'plab qaror va yoshlarga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan[3].

Davlatimiz tomonidan ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tiborini ushbu tizimdagi keng ko'lamli islohotlardan bilishimiz mumkin. So'z isboti sifatida ta'lim jarayonida qilinayotgan islohotlardan ayrim namunalar keltirib o'tish joiz:

1. 2021-yil 1-maydan IELTS, TOEFL, GMAT, GRE, SAT kabi 5 ta; 2022-yil 1-yanvardan esa arab, xitoy, fransuz, rus, ispan, koreys, yapon, italyan, turk va nemis tillari bo'yicha 13 ta xalqaro imtihon tizimlarida (jami 18 ta) yuqori natijaga erishgan yoshlarning imtihon xarajatlarini kompensatsiya qilib berilmoqda.

2. Shuningdek yoshlarning innovatsion, startap va biznes loyihalarini moliyalash uchun respublika bo'yicha umumiy qiymati 100 mln. AQSh dollar miqdorida kreditlar ajratilishi belgilangan.

3. 132 mingdan ziyod o'g'il-qizlarning tadbirkorlik loyihalari uchun 3 trillion 300 milliard so'm imtiyozli kreditlar ajratildi. Hududlarda tashkil etilgan 186 ta Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalaridagi 3 mingta loyiha doirasida 50 mingta yangi ish o'rni yaratildi.

4. Hozirda Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamentida 100 nafar, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamentida esa, 250 nafar yoshlar faoliyat yuritmoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida Yoshlar akademiyasi tashkil etildi.

5. Respublika bo'ylab 206 ta Raqamli texnologiyalar o'quv markazlari tashkil etilib, "Ma'rifat karvoni" tadbirlari doirasida 3 milliondan ortiq kitoblar yoshlarga yetkazib berildi hamda "Yosh kitobxon" tanlovi, "Bir million dasturchi", "Yoshlar ovozi" kabi o'nlab yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Eng yaxshi tarafi, loyihalar faqatgina poytaxt emas, balki butun respublika bo'ylab qamrab olingan.

6. Yoshlar iqtidorini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Mard o'g'lon" davlat mukofoti, "Kelajak bunyodkori" medali ta'sis etildi. Iqtidorli qizlar uchun beriladigan Zulfiya nomidagi davlat mukofoti har bir viloyatdan ikki nafardan qizlarga topshiriladigan bo'ldi. Sovrindor qizlarga beriladigan imtiyozlar yanada ko'paytirildi.

7. Xorijiy ta'lim muassasalaridan o'zimizdagi oliy ta'lim o'quv yurtlariga o'qishini ko'chirish, test jarayotnlari, bir vaqtning o'zida 5 ta OTMda bilimini sinab ko'rish masalalari buning yorqin misolidir.

8. 2021-yilda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan ingliz tili o'rganuvchi iqtidorli yoshlar uchun "Ibrat" tillar oromgohi tashkil etildi.

9. 2022-O'zbek tilini Wikipediya'dagi o'rnini ko'tarishga qaratilgan "Wikipediya marafaoni" tashkil etildi.

10. 2021-yil 18-avgustda "Oliy ta'lim tashkilotlarida to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun ta'lim kreditlari ajratishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Hukumat qaroriga ko'ra, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan davlat, nodavlat, xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari, xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining

filiallari va qo'shma ta'lim dasturlari bo'yicha kunduzgi ta'lim shaklida bakalavriat hamda magistraturada tahsil olayotgan talabalarga Markaziy bankning asosiy stavkasi (14 foiz) miqdorida 7 yil muddatga ta'lim krediti ajratilishi belgilandi.

11. 2022-yil mart oyida esa oliygoh, texnikum va kollejlarda o'qiyotgan qizlar uchun ta'lim krediti 7 yilga foizsiz berilishi ma'lum qilindi.

12. 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi prezident farmoniga ko'ra, 2022/2023 o'quv yilidan to'lov kontrakt asosida 1-bosqichga qabul qilinadigan hamda ushbu o'quv yilida 2-bosqichga o'tgan magistr xotin-qizlarning kontrakt to'lovlari qaytarish shartisiz qoplab berilishi nazarda tutilgan.

13. Xotin-qizlarning magistraturada o'qish xarajatlarini qoplash uchun davlat tomonidan 23 ming nafar qizga 200 milliard so'm ajratilishi belgilangan.

14. Yangi O'zbekiston strategiyasida oliy ta'lim tizimlaridagi vazifalar:

- Oliy ta'limga qamrov darajasini 50 foizga yetkazish bilan birga asosiy e'tibor ta'lim sifatini oshirishga qaratiladi. 2026-yilga qadar kamida 10 ta oily goh nufuzli xalqaro reytinglarga kiritiladi;

- Talabalarining yashash sharoitini yaxshilash uchun kelgusi besh yilda qariyb 100 ming o'rinli talabalar yotoqxonalarini barpo etiladi;

- Oliy ta'limda raqobat muhitini kuchaytirish maqsadida 2026-yilgacha xususiy oilygohlar soni kamida 50 taga yetkaziladi.

- Doktoranturaga qabul davlat buyurtmasi hamda manfaatdor tashkilotlar mablag'lari hisobidan to'lov-grant asosida joriy etiladi," - deb ta'kidladi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining saylovoldi dasturida.

15. So'nggi yillarda qabul kvotalari qariyb bir necha barobarga ortdi. Bundan tashqari, kelgusi yillar davomida bu ko'rsatkichni 50 foizga yetkazish, oily ta'lim muassasalarining nufuzini yanada ortirish, shuningdek, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan maqsadli chora tadbirlar dasturiga asosan aytaolamanki, bu tizimni islohotlar kutmoqda. Bu jarayonda, o'qituvchilarning ilmiy darajasini orttirish, professor o'qituvchilarning oylik maoshlarini ko'paytirish bo'yicha ham chora tadbirlar ko'rilmogda. Oliy ta'lim tizimida, umuman olganda, ta'limning barcha bosqichlarida dars berayotgan ingliz tili o'qituvchilarining atigi 4 foizi xalqaro sertifikatga egaigi bu borada qilinishi zarur bo'lgan ishlar salmoqli ekanligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, 2030-yilga qadar respublikadagi barcha oily ta'lim muassasasi (OTM)ning 85 foizi, jumladan, 2020/2021-o'quv yilining o'zida 33 ta oily ta'lim dargohini kredit-modul tizimiga o'tkazish ko'rsatib o'tildi. Kredit-modul tizimi, bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modelini hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib bo'rish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-

modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash hamda talabalar bilimni reyting asosida baholashga asoslanadi. Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning-qiyamatini aniqlash;
- talabalar bilimni reyting bali asosida baholash;
- talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkoniyat berish;

— ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirishga xizmat qiladi. Bunda dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balkitalabdan mustaqilo'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, so'nggi yillarda ta'lim tizimida turli xildagi yangiliklar va islohotlar bu oily ta'lim tizimida ta'lim sifatining ortishiga yordam beradi.

“O'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish va xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish”[4] va bu kabi ko'plab jarayonlar yurtimizda ta'lim tizimidagi islohotlar ko'lamini kengayishiga salmoqli hissa qo'shadi.

Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev. “Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik” kitobi.

2. Nuu.uz sayti. <https://nuu.uz/talim-tizimidagi-islohotlar-olimlar-va-yoshlar-nigohida-mavzuida-respublika-ilmiy-amaliy-konferensiya-bo%CA%BBlib-o%CA%BBtdi/>

3. Lex.uz sayti. <https://lex.uz/docs/-3523206>

4. Gov.uz sayti. <https://gov.uz/oz/news/view/25899>

JAMIYATDA INSON QADRI VA IJTIMOIIY MANFAATLARNI RO'YOBGA CHIQRISHDA IJTIMOIIY SIYOSATNING O'RNI

Shamshiyeva Vazira Abdivaliyevna
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti tadqiqotchisi

Jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda davlatning birinchi darajali vazifalaridan biri aholini yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy siyosat yuritish orqali, aholi farovonligi va turmush darajasini doimiy oshirib borishdir. Shu ma'noda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi muhim omil aholining turmush tarzini yaxshilash, ularning hayotiy manfaatlari, ehtiyojlari va talablarini qondirib borish, daromadlar miqdorini ko'tarish hisoblanadi. SHu maqsadda, olib borilayotgan islohotlarda strategik belgilangan muhim vazifalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, yuzaga kelayotgan ba'zi muammolarni bartaraf etib borish lozim bo'ladi.

Jamiyatda inson qadrini ulug'lash ijtimoiy-siyosiy islohotlarning o'ziga xos tamoyili bo'lib, mamlakat aholisi ijtimoiy hayotining ko'p ming yillik falsafasi, ijtimoiy madaniyati, milliy maqomi, mentaliteti, tabiiy va demografik vaziyatdan kelib chiqadigan yangi tamoyillarning qaror topishi hamda ularning amalga oshishi bilan bog'liq. Ushbu tamoyillarning jamiyatda ro'yobga chiqishi tizimlilik xususiyatiga ega bo'lib, davlat va jamiyatning hayotiy manfaatlarini ifodalaydi. Inson omilini yuqori darajada ta'minlanishi tufayli jamiyatda ijtimoiy tanglik va beqaror vaziyatlar chetlab o'tiladi, demokratik yangilanishlarning muhim bosqichiga qadam qo'yiladi.

O'z navbatida, jamiyatda inson qadrini ulug'lash borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat hokimiyati, mahalliy organlar, o'z-o'zini boshqarush organlari, nodavlat tashkilotlari va boshqa tuzilmalar ishtirok etadi. Davlat hokimiyati va uning tuzilmalari aholining kam ta'minlangan qatlamlariga manzilli ijtimoiy yordam, qo'llab-quvvatlash ishlarini uyushtirishda mahalla, qishloq, ovul fuqarolar yig'inlari xizmatlaridan foydalanadi. Natijada kam ta'minlanganlarning anchagina qismi ijtimoiy yordam olish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ta'kidlashicha, "Bugun hayotimizning o'zi Konstitutsiyamizda ifodasini topgan eng asosiy maqsad - inson manfaatlarini har tomonlama ta'minlash masalasini dolzarb vazifa qilib qo'ymoqda"[1].

Huquqiy davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish sharoitida xalqning o'zligini anglashi, yurt ravnaqi yo'lida inson manfaati, erkinligi va farovonligini ta'minlash talabi aniq va ravshan belgilab olinishi muhim ahamiyat kasb etadi[2]. Ushbu vazifalarni bajarish avvalo ijtimoiy

sohadagi islohotlar jarayonini izchil va samarali amalga oshirilishiga bog'liq. Shunday qilib, inson qadrini ta'minlash borasidagi islohotlar falsafasi, o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalaridagi o'zgarishlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, jamiyat manfaatlarini ta'minlashda maqsad va vazifalarni belgilab olishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Inson manfaatlarini ta'minlash, ularning huquq va ijtimoiy kafolatlarini ro'yobga chiqarish, kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimida zamonaviy boshqaruv texnologiyalari va uslublarini qo'llash muhim ahamiyatga ega. Inson qadrini ulug'lashda jamiyatda xalq mentaliteti bilan bog'liq tamoyillar, yillar davomida inson manfaatlarini yuksaltirish bilan boy tajriba ijobiy ta'sir etadigan mexanizmlardan hisoblanadi. Mazkur jarayonlarni ta'minlashda ijtimoiy davlat tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni bu xususiyatda davlatning asosiy siyosati xalq manfaatlariga qaratilganligi bilan bog'liq jarayon tushuniladi. N.Kondratovichning fikricha, "Ijtimoiy asoslangan davlat deganda aholining iqtisodiy va ijtimoiy huquq va erkinliklari hamda davlatning bunga aloqador bo'lgan mas'uliyatining konstitutsiyaviy asoslarda muhrlab qo'yilganligi tushuniladi"[3].

Jamiyatda inson manfaatlarini ta'minlashda aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordamlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ijtimoiy yordamlar jamiyatning bir muncha nochor qatlamlariga, ya'ni o'zini boqish uchun o'zi ishlab pul topish imkoniyatiga ega bo'lmaganlar (bolalar, qariyalar, nogironlar va o'zlariga bog'liq bo'lmagan sharoitga ko'ra ishlab chiqarishda band bo'lmaganlar)ga yo'naltiriladi. Ijtimoiy yordamga muhtojlarning ehtiyoji avvalo, mamlakatdagi demografik vaziyatga ko'ra, aholining daromad darajasiga va ularning taqsimlanishiga, o'rnatilgan iste'mol standartlari, shuningdek, milliy an'analar va hayot tarzidagi tarixiy xususiyatlarga ko'ra belgilanadi.

Mamlakatning iqtisodiy hayoti qanchalik rivojlangan bo'lsa, aholini ijtimoiy himoya qilish ham yuqori darajada bo'ladi. Aholini ijtimoiy himoya qilish mamlakat taraqqiyotga erishayotgan bir paytda eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy himoya tushunchasi hozirgi ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar davrida jamiyatda ijtimoiy muammolarini hal etishdek muhim jarayonni o'zida jamlagan va ijtimoiy barqarorlikka oid qadriyatlarni mujassamlashtirgan kategoriya sifatida amal qiladi. Aholini ijtimoiy himoya qilish konsepsiyasi insoniyat tarixida 19-asr oxirlarida paydo bo'lib, sotsial atama sifatida 20-asrning 30-yillarida yuzaga keldi.

Demak, ijtimoiy himoya mexanizmlari ijtimoiy hayotning eng muhim qadriyatli jarayoni bo'lib, u o'ziga normativ-huquqiy va tashkiliy-uslubiy omillarni o'z ichiga oladi. V.Kulikovning fikricha: "ijtimoiy himoya bozor iqtisodiyotida jamiyat ijtimoiy hayoti va ho'jalik tashkil etilishining organik

tuzilmasi bo'lib, uning tashkiliy- huquqiy ko'rinishlari mehnat jarayonini va ishchi kuchini qayta tiklanishini ta'minlab turishi lozim"[4].

Inson qadrini ulug'lashda aholining keng qatlamlarini ijtimoiy himoyalash asosiy maqsadi aholi turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi. Ushbu vazifani hal etish uchun bir qator chora-tadbirlar va to'g'ridan-to'g'ri davlatning tartibga soluvchi usullari: pul to'lovlari, turli xil imtiyozlar berish, iste'mol tovarlari va xizmatlarining baholaridagi farqni yopish uchun dotatsiyalar, hayotiy zarur bo'lgan oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlarini taqsimlash kabi chora-tadbirlar qo'llaniladi.

Shu mazmunda "Ijtimoiy siyosat jamiyat tomonidan qo'llab quvvatlanadigan qadriyatlar tizimi sifatida jamiyatning har bir a'zosi ehtiyojlarini amalga oshirishda sharoitlar yaratishni ta'minlash bilan bog'liq davlatning muhim funksiyalaridan biri bo'lgan sohadir. Ushbu siyosat markazida inson omili turadi va u bir vaqtning o'zida mazkur siyosat maqsadi, predmeti va sub'ekti bo'ladi. Ijtimoiy siyosat ob'ekti ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy struktura shuningdek, insonning yashash sharoiti va mehnati bo'lib hisoblanadi"[5].

Ijtimoiy himoyaning mazmuni ancha keng qamrovli xususiyat kasb etib, u jamiyatda o'zining taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan muhim mezonlarni o'zida jamlaydi, inson omilining ustivorligini doimiyligini ta'minlab boradi. Olimlarning fikricha: "Ijtimoiy himoya - bu huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy kafolatlarni layoqatli fuqarolarga iqtisodiy mustaqilligi va tadbirkorligi hisobiga o'z turmush darajasini oshirishga sharoit yaratib beradigan hamda aholining mehnatga layoqatsiz bo'lgan qismiga davlat tomonidan beriladigan moddiy yordam, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar to'lash uchun shart- sharoitlar yaratib beradigan tizimdir"[6].

Jamiyatda inson huquq va manfaatlarining ta'minlanishi huquqiy davlat nazariyasi tamoyillaridan kelib chiqadi. Ushbu nazariyaga muvofiq, davlat va jamiyatning ustivor maqsadi - aholining ijtimoiy manfaat va ehtiyojlariga xizmat qilish, huquq va qonunlarning mutlaq ustivorligini ta'minlash, inson hayotiy faoliyatidagi eng muhim qadriyatlarni asrash va uning istiqbolini ta'minlashda ma'muriy buyruqbozlik va o'zibo'larchiliklarga yo'l qo'ymaslik, aholining ijtimoiy himoalanmagan qatlamlarini ehtiyojlarini to'liq ta'minlash va hokazolardan iborat bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -Toshkent: O'zbekiston, 2017. - B. 14.

2. 64. Saitqosimov A. Ijtimoiy barqarorlik inson hayotiy farvonligini ta'minlashning zaruriy sharti. Falsafa va huquq. № 1, 2019 y. –B. 184.

3. Кондратович Н. Республика Беларусь – социальное правовое государство: сущность и основные направления государственной социальной политики. –Минск, 2020. <https://rcek.by/respublika-belarus-sotsialnoe-gosudarstvo>.

4. В.В.Куликов. Современная экономика труда: Монография. Россия2001- С.88

5. Социальная энциклопедия. Ред. Кол. А.П.Горкин и др., -Москва: Большая Российская энциклопедия, 2000. -С. 253.

6. Рынок труда и социальное партнерство: Монография Ю.Г.Одегов, Г.Г.Руденко, Н.Г.Митрафанов. М.: 1998 – С.53-55.

ТУРИЗМ КАК СТРАТЕГИЧЕСКИЙ СЕКТОР ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА

Шарипов Абдурашид Бозорбоевич

преподаватель профессиональной школы № 2 Шараф - Рашидовского района Джизакской области, научный соискатель.

Узбекистан обладает колоссальным туристическим потенциалом. Республика считается одним из центров туризма не только в Центральной Азии, но и во всем мире. В стране есть просто уникальные историко-архитектурные ансамбли разных периодов прошлого, а современная архитектура в древних городах соседствует с памятниками национального зодчества прошлых веков, что является особенностью характерной только для Узбекистана. Необычайно привлекательны для туристов маршруты по узбекским городам, через которые в древности проходил Великий шелковый путь, связывавший Китай со странами Европы. Это такие города, как: Бухара, Самарканд, Хива, Шахрисабз, Коканд, Термез.

Современная республика имеет и другие ресурсы, которые могут заинтересовать иностранных гостей: горные вершины и реки, имеющие огромное значение для развития активного вида туризма; пустыни и заповедники, богатые разными видами животных и растений (иногда встречающихся только в Узбекистане); минеральные источники с целебной водой, в большинстве своем не имеющих аналогов в мире; традиции прикладного искусства и самобытная культура, с которыми можно познакомиться только в Узбекистане; с каждым годом растущий экономический потенциал страны.

Придавая особое значение туризму, в деле расширения и укрепления международных связей, республика на заре своей независимости указом Президента Республики Узбекистан от 27.07.1992 года была создана Национальная компания «Узбектуризм», приняла ряд законов, регулирующих эту отрасль. Однако, коренное отношение государства к данному сектору кардинально изменилось с началом в стране глубинных изменений в общественно-политической жизни.

В конце 2016-х гг. в Узбекистане был запущен процесс кардинального реформирования туристической отрасли. Преобразования в сфере туризма названы одним из стратегических направлений развития национальной экономики, которое способно обеспечить ускоренное развитие регионов.

2 декабря Шавкат Мирзиёев, на тот момент исполнявший обязанности главы государства, а ныне — избранный Президент страны, подписал указ Президента «О мерах по обеспечению ускоренного развития туристической отрасли Республики Узбекистан».

Документ был направлен на обеспечение ускоренного развития туристской отрасли, придание туризму статуса стратегического сектора экономики, превращение его в мощный инструмент устойчивого роста экономики страны, эффективное использования туристского потенциала регионов, а также увеличение роли туризма в повышении уровня и качества жизни населения.

Несмотря на огромный туристский потенциал, туристская инфраструктура Узбекистана, качество и уровень оказания туристских услуг, а также система управления отраслью не соответствуют современным требованиям в условиях глобализации и жесткой конкуренции.

Указом были предусмотрены беспрецедентные меры по коренному реформированию туристской отрасли, которые знаменуют собой переход на качественно новый уровень государственной политики в данной сфере, устанавливающей следующие основные целевые задачи и приоритеты:

- формирование благоприятных условий для деятельности субъектов туристской индустрии, снятие всех преград и барьеров, препятствующих развитию туризма, упрощение визовых и регистрационных процедур, паспортного и таможенного контроля;
- реализация комплекса мер по обеспечению безопасности жизни и здоровья туристов и экскурсантов при организации туристских услуг;
- ускоренное развитие новых потенциальных видов туризма — паломнического, экологического, познавательного, этнографического,

гастрономического, спортивного, лечебно-оздоровительного, сельского, промышленного, делового, детского, молодежного и семейного туризма;

- расширение сотрудничества с международными и национальными организациями в сфере туризма, крупными зарубежными брендами и компаниями, внедрение передовых мировых стандартов качества оказания туристских услуг;

- ускоренное развитие в регионах республики современных объектов туристской инфраструктуры, прежде всего, гостиничной, транспортно-логистической, инженерно-коммуникационной, широкое привлечение для этих целей иностранных инвестиций;

- разработка конкурентоспособных туристских продуктов, создание новых туристских маршрутов в регионах, их продвижение на мировых туристских рынках;

- коренное совершенствование системы качественной подготовки квалифицированных кадров для туристской отрасли.

Поворотным моментом указа, предусматривающим кардинальную либерализацию визовой политики государства, направленной на повышение привлекательности страны для иностранных туристов, является:

- полная отмена с 1 апреля 2017 года визового режима для туристов из 15 государств, включая Австралию, Австрию, Великобританию, Германию, Данию, Испанию, Италию, Канаду, Люксембург, Нидерланды, Республику Корея, Сингапур, Финляндию, Швейцарию и Японию, а также для туристов из 12 государств, достигших возраста 55 лет, в том числе Бельгии, Индонезии, КНР (в составе туристских групп), Малайзии, США, Франции, Вьетнама, Израиля, Польши, Венгрии, Португалии и Чехии. Безвизовый режим будет применяться в отношении иностранных граждан, въезжающих в республику в туристических целях на срок не более 30 дней;

- введение единых туристских виз для всех стран, выдаваемых сроком на 30 дней, существенное упрощение порядка получения виз, в том числе с использованием системы «он-лайн» заполнения анкет на получение визы, а также внедрение с 2018 года системы электронных виз.

Эти нормы призваны были повысить положительный имидж Узбекистана в сфере туризма, существенно расширить туристский поток в страну, а также способствовать усилению деловой активности в данной отрасли.

Значимым фактором создания благоприятных условий при въезде в страну иностранных туристов служит кардинальное повышение качества и уровня оказания услуг в аэропортах, вокзалах и других пунктах пропуска через государственную границу

Реализация этих мер направлена на обеспечение соответствия качества услуг в основных транспортных узлах самым передовым мировым стандартам, повышение рейтинга международных аэропортов и вокзалов страны.

Другой важной особенностью указа являлись меры по стимулированию предпринимательской активности в сфере туризма, развитию туристской инфраструктуры, предоставлению туристским организациям дополнительных льгот и преференций.

Реализация указа позволила обеспечить интенсивное развитие туризма как стратегической отрасли экономики страны, способной внести достойный вклад в устойчивое развитие, структурные преобразования и диверсификацию экономики, стать локомотивом для ускоренного комплексного развития всех регионов и сопряженных отраслей, а также всемерно способствовать формированию положительного имиджа Узбекистана в качестве привлекательного центра туризма.

В продолжение этих новаций Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев 28 января 2022 года подписал указ «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы».

Документом утверждена государственная программа по реализации стратегии, разработанная на основе принципа «От Стратегии действий — к Стратегии развития», которая включает семь приоритетных направлений, среди которых не последнее место занимает и туризм.

В последующие 5 лет объём туристических услуг должен увеличиться в 3 раза с созданием 3,5 млн новых рабочих мест в сфере.

Планируется развитие торговых услуг и придорожного сервиса путём создания 130 современных рынков и торговых комплексов, а также 65 крупных и 5000 малых сервисных объектов придорожной инфраструктуры.

Ожидается сокращение доли теневой экономики в сфере услуг в 3 раза (сейчас это более 50% ВВП).

Предприниматели получают больше льгот для повышения привлекательности сферы услуг.

Число местных туристов планируется довести до свыше 12 миллионов, зарубежных туристов — до 9 миллионов, а также увеличить численность занятого населения в сфере туризма — в 2 раза с доведением их числа до 520 тысяч.

В Зааминском, Фаришском, Бахмальском районах и Айдар-Арнасайской системе озёр будут построены дополнительные туристические зоны и зоны отдыха и реализованы проекты на сумму 300 млн долларов с созданием 25 тысяч рабочих мест.

Запланировано увеличение объёма туристических услуг как минимум в 10 раз в последующие 5 лет путём трансформации Самарканда во «Врата туризма». В 2022 году будет создан туристический центр Самарканда, включающего в себя исторический комплекс «Вечный город» с необходимой инфраструктурой.

Программу по развитию экотуризма намечено реализовать в Каракалпакстане и Приаралье, паломнического и экологического туризма — в Навоийской области, отдельные программы по туризму в Хорезмской, Бухарской и Ташкентской областях, а также ожидается улучшение туристической инфраструктуры в Ташкенте.

Работа, проделанная в Узбекистане по превращению туризма в один из стратегических секторов экономики, отражена в различных рейтингах и номинациях. Более 10 авторитетных зарубежных изданий признали Узбекистан одним из самых привлекательных туристических направлений.

В частности, в последние годы Узбекистан был признан лучшим туристическим направлением в мире изданием «The Guardian», самой быстрорастущей страной в глазах Wanderlust и лучшим развивающимся туристическим направлением, согласно Grandvoyage. В результате последовательно реализуемых мер, Узбекистан поднялся на 10 позиций (22 места) в Глобальном индексе мусульманского туризма, составленном CrescentRating. Кроме того, Всемирная туристская организация оценила Узбекистан на 4-е место в списке самых быстрорастущих стран в сфере туризма.

Однако в отрасли существует множество проблем, которые необходимо решить. Высокие транспортные расходы по сравнению с соседними странами, отсутствие диверсификации авиамаршрутов, а также низкое качество дорог, санитарная и информационная инфраструктура, острая нехватка гидов и экскурсоводов являются одними из факторов, снижающих туристическую привлекательность Узбекистан

Список используемой литературы:

1. Дурович А.П. «Маркетинг в туризме» 2004г.
2. Дехтярь Г.М. «Лицензирование и сертификация в туризме». 2003г.
3. Информационная – правовая система NORMA.
4. www.uzbektourism.uz
5. www.gov.uz
6. www.travel.ru

**ГЛОБАЛ ТИНЧЛИК ИЖОДКОРЛАРИДАН БИРИ
(ЗБ.БЖЕЗИНСКИНИНГ ҲАЁТ ЙЎЛИ ВА ГЕОСТРАТЕГИК
КОНЦЕПЦИЯСИНИНГ РАЦИОНАЛ ВА МЕТОДОЛОГИК МАҒЗИ)**

Шарипов Дилшод Бахшиллович,
Бухоро давлат педагогика институти ўқитувчиси

Збигнев Казимеж Бжезински Америка Қўшма Штатларининг энг машхур сиёсатшуноси, жамиятшуноси, давлат арбоби ва АҚШ ташқи сиёсатининг узоқ йиллар давомида хавфсизлик бўйича мафкурачиси бўлган. АҚШнинг Дунё сиёсатида ҳукмронлик қилишининг ашаддий тарғиботчисидир. 1928 йил 28 мартда Варшавада дипломат оиласида туғилган. 1938 йилдан Канадада яшаган. 1950 йилларда АҚШ фуқаролигига қабул қилинади ва шу ерда академик карьерасини бошлайди. Макгилл университетининг магистри ва 1953 йилда Гарвард университетининг сиёсий фанлар доктори. Унинг докторлик диссертацияси “СССРда тоталитар тизимнинг шаклланиши” деб номланган. Гарвард университетидида дарс берган, 1959 йилда Нью – Йоркка ишга ўтади ва 1961 йилда Колумбия университетидида дарс беради – у ерда Зб.Бжезински Коммунистик ишлар Институтида (Institute on Communist Affairs) раҳбар бўлади. 1960 йиллар ўрталарида Давлат департаментининг режалаштириш Кенгашининг аъзоси бўлган. 1960 йилларда Жон Фиджераль Кеннеди ва Линдон Джонсон Президентлик админстрациясида давлат маслаҳатчиси лавозимида бўлган. Л.Джонсон ҳокимияти охирларида Вице – Президент Хамфрининг ташқи сиёсат бўйича маслаҳатчиси ва охиргининг Президентлик компаниясида маслаҳатчи бўлган. Никсон-Киссинджер сиёсатининг қаттиқ танқидчиси бўлган. 1977—1981 йилларда АҚШ Президенти Джимми Картер админстрациясининг миллий хавфсизлик бўйича котиби бўлган. ЦРУнинг махфий режаларини тақдим этган, масалан, Собиқ Иттифоқни имкон қадар ҳар хил конфликтларга ўраб қўйиш каби режалар ҳам бевосита Зб.Бжезинскининг ишидир. 1970 йиллар охирида Афғонистонда бошланган уруш бўйича Дж.Картерга шундай хат ёзади: “Энди, бизда Совет Иттифоқига ўз Вьетнам урушимизни бериш имкони мавжуд”.¹⁸⁵ «Циклон» операцияси унинг ишидир. АҚШ Президенти Б.Клинтон даврида Збигнев Бжезински НАТОнинг Шарқий Европага

кенгайиш концепциясининг ашаддий тарафдори бўлган,¹⁸⁶ хаттоки, “Буюк шахмат доскаси...” номли асарида НАТОнинг Шарқий Европага кенгайиши АҚШ миллий манфаатларининг кенгайишидир, деб уқтирган.

Айни пайтда Стратегик ва халқаро тадқиқотлар маркази (Center for Strategic and International Studies (ингл.)) консультанти ва Вашингтондаги Джон Хопкинс Университети қошидаги Пол Нитце номидаги замонавий халқаро муносабатлар мактабининг (School of Area and International Studies (ингл.)) АҚШ ташқи сиёсати бўйича профессори, миллий демократияни қўллаб – қувватлаш (National Endowment for Democracy (ингл.)) директорлар кенгашининг аъзоси, Фридом Хаус ташкилотининг («Freedom House (ингл.)») аъзоси, уч томонлама комиссия аъзоси (Trilateral Commission (ингл.)), Америка Гуманитар ва Аниқ Фанлар академияси (American Academy of Arts and Sciences (ингл.)) аъзоси, Чечнияда тинчлик Америка Қўмитасининг раҳбарларидан бири булган.

Зб.Бжезински дунё сиёсати ва сиёсат илмида қўйидаги энг муҳим 4та амалий ишлари билан машхур:

• АҚШда биринчи бўлиб, социалистик давлатлардаги барча ҳодисаларни тоталитаризм концепцияси бўйича тушунтириш берган;

• Антикоммунизм глобал стратегиясининг муаллифи;

• Технотрон эра тўғрисидаги назарияни ишлаб чиққан;

• АҚШ гегемонлигининг Янги концепциясини илгари сурган.¹⁸⁷

Унинг рухсати билан биргина “**Буюк шахмат доскаси**” китоби 19та тилга таржима қилинган, хусусан, рус тилига ҳам.¹⁸⁸ Ҳозирги пайтда Збигнев Казимеж Бжезински Джон Хопкинс Университети қошидаги стратегик ва халқаро тадқиқотлар маркази маслаҳатчиси ва бошқарув кенгаши аъзосидир. Зб.Бжезинскининг барча китоблари, мақолалари, интервьюлари Интернет сайтларида эълон қилинган.¹⁸⁹ Биз уларни номма – ном иқтибосда келтириб ўтдик. Збигнев Казимеж Бжезински ўзининг “Буюк шахмат доскаси” китобида бевосита АҚШнинг янги дунёвий тартиб шаклланишидаги ҳукмронлик ўрнини геостратегик омиллар – асосан

хавфсизлик омиллари орқали тақдим этган. Буюк шахмат доскаси деб **Евроосиё**ни белгилайди ва дунё сиёсати келажаги шу ердан белгиланишини стратегик тафаккур орқали таҳлил қилади ҳамда бу ерда ҳукмронлик нуқтаи назаридан, сиёсий, тарихий жараёнлар нуқтаи назаридан АҚШгина Евроосиё ҳукмрони бўлишини таъкидлайди. Зб.Бжезински АҚШ давлат байроғини ер шари устига ўрнатади. Геостратегик режа бўйича дунё сиёсати тарихининг ягона ва энг қудратли давлати сифатида ўз давлатини таърифлайди.¹⁹⁰ Зб.Бжезинскининг концепцияси бевосита АҚШ миллий манфаатларини акс эттирган, холос. Унинг концепцияси кўпгина ривожланган ва ривожланаётган давлатлар раҳбарлари, расмий вакиллар, элчилар, тадқиқотчилар ва талабалар томонидан ўқиб чиқилган. З.Бжезински Ўзбекистон Республикасида бир неча мартаба бўлган ва Ўзбекистон Республикасининг 1 – Президенти И.Каримов қабулида бўлган, минтақавий ва глобал хавфсизлик бўйича фикрларини билдирган – бу ўз пайтида миллий ОАВларида эълон қилинган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Тўлиқроқ маълумот учун интернет сайтга қаранг: <http://www.foreignaffairs.com/author/zbigniew-brzezinski>
2. Тўлиқроқ маълумот учун интернет сайтга қаранг: <http://www.ozon.ru/context/detail/id/2161188/>,
<http://www.archipelag.ru/authors/brzezinski/?library=430>
3. The Permanent Purge: Politics in Soviet Totalitarianism, Cambridge: Harvard University Press (1956); Soviet Bloc: Unity and Conflict, Harvard University Press (1967), ISBN 0-674-82545-4; Between Two Ages : America's Role in the Technetronic Era, New York: Viking Press (1970), ISBN 0-313-23498-1; Power and Principle: Memoirs of the National Security Adviser, 1977-1981, New York: Farrar, Strauss, Giroux (March 1983), ISBN 0-374-23663-1; Game Plan: A Geostrategic Framework for the Conduct of the U.S.-Soviet Contest, Boston: Atlantic Monthly Press (June 1986), ISBN 0-87113-084-X; Grand Failure: The Birth and Death of Communism in the Twentieth Century, New York: Charles Scribner's Sons (1989), ISBN 0-02-030730-6; Out of Control: Global Turmoil on the Eve of the 21st Century, New York: Collier (1993), ISBN 0-684-82636-4; The Grand Chessboard: American Primacy and Its Geostrategic Imperatives, New York: Basic Books (October 1997), ISBN 0-465-02726-1; The Choice: Global Domination or Global Leadership, Basic Books (March 2004), ISBN 0-465-00800-3; Second Chance: Three Presidents and the Crisis of American Superpower , Basic

Books (March 2007), ISBN 0-465-00252-8; America and the World: Conversations on the Future of American Foreign Policy, Basic Books (September 2008), ISBN 0-465-01501-8; Russo-Soviet Nationalism, M.A. Thesis, McGill University (1950); Political Control in the Soviet Army: A Study on Reports by Former Soviet Officers, New York, Research Program on the U.S.S.R (1954); with Carl J. Friedrich, Totalitarian Dictatorship and Autocracy, Cambridge: Harvard University Press (1956); Ideology and Power in Soviet Politics, New York: Praeger (1962); with Samuel Huntington, Political Power: USA/USSR, New York: Viking Press (April 1963), ISBN 0-670-56318-8; Alternative to Partition: For a Broader Conception of America's Role in Europe, Atlantic Policy Studies, New York: McGraw-Hill (1965); The Implications of Change for United States Foreign Policy, Department of State (1967); International Politics in the Technetronic Era, Sofia University Press (1971); The Fragile Blossom: Crisis and Change in Japan, New York: Harper and Row (1972), ISBN 0-06-010468-6; with P. Edward Haley, American Security in an Interdependent World, Rowman & Littlefield (September 1988), ISBN 0-8191-7084-4; with Marin Strmecki, In Quest of National Security, Boulder: Westview Press (September 1988), ISBN 0-8133-0575-6; The Soviet Political System: Transformation or Degeneration, Irvington Publishers (August 1993), ISBN 0-8290-3572-9; with Paige Sullivan, Russia and the Commonwealth of Independent States: Documents, Data, and Analysis, Armonk: M. E. Sharpe (1996), ISBN 1-56324-637-6; The Geostrategic Triad : Living with China, Europe, and Russia, Center for Strategic & International Studies (December 2000), ISBN 0-89206-384-X; with David Owen, Michael Stewart, Carol Hansen, and Saburo Okita, Democracy Must Work: A Trilateral Agenda for the Decade, Trilateral Commission (June 1984), ISBN 0-8147-6161-5; with Brent Scowcroft and Richard W. Murphy, Differentiated Containment: U.S. Policy Toward Iran and Iraq, Council on Foreign Relations Press (July 1997), ISBN 0-87609-202-4; U.S. Policy Toward Northeastern Europe: Report of an Independent Task Force, Council on Foreign Relations Press (July 1999), ISBN 0-87609-259-8; with Anthony Lake, F. Gregory, and III Gause, The United States and the Persian Gulf, Council on Foreign Relations Press (December 2001), ISBN 0-87609-291-1; with Robert M. Gates, Iran: Time for a New Approach, Council on Foreign Relations Press (February 2003), ISBN 0-87609-345-4;

4. Збигеньв Бжезински. Великая шахматная доска. Господство Америки и его геостратегические императивы. Москва. «Международные отношения». 2000.

5.

[http://openvault.wgbh.org/wapina/barcode50275brzezinski_5/index.html/ Interview about US relations with China] for the **WGBH series**, [<http://openvault.wgbh.org/series/War+and+Peace+in+the+Nuclear+Age/> War

and Peace in the Nuclear Age];[<http://www.csis.org/experts/4brzez.htm> Brzezinski at CSIS]; [<http://www.jamestown.org/board.php#6> Brzezinski at Jamestown]; [<http://www.trilateral.org/memb.htm> Brzezinski at the Trilateral Commission]; [<http://www.modernhistoryproject.org/mhp/EntityDisplay.php?Entity=Brzezinski&Start=1973> The Modern History Project: Zbigniew Brzezinski]; [<http://www.cnn.com/SPECIALS/cold.war/kbank/profiles/brzezinski/> CNN Cold War - Profile: Zbigniew Kazimierz Brzezinski]; [<http://www.nndb.com/people/263/000023194/> NNDB Profile of Zbigniew Brzezinski], Notable Names Database; [<http://www.jhuapl.edu/POW/bios/zbrzezinski.htm> Profile: Zbigniew Brzezinski], Johns Hopkins University; [<http://www.booknotes.org/Transcript/?ProgramID=1314> "Booknotes" interview with Brzezinski on "The Grand Failure", April 2, 1989.]; [<http://www.gwu.edu/~nsarchiv/coldwar/interviews/episode-17/brzezinski1.html> Cold War: interview with Brzezinski], The National Security Archive, June 13, 1997; Zbigniew Brzezinski. [<http://www.comw.org/pda/fulltext/9709brzezinski.html> A geostrategy for Eurasia], Foreign Affairs, The Council on Foreign Relations, September 1997; [<http://www.mtholyoke.edu/acad/intrel/zbignato.htm> Brzezinski: NATO enlargement is central to secure Euro-Atlantic alliance], United States Information Service, October 10, 1997; [<http://www.globalresearch.ca/articles/BRZ110A.html> Interview with Brzezinski: CIA's intervention in Afghanistan], Le Nouvel Observateur, January 1998; [<http://www.counterpunch.org/brzezinski.html> Brzezinski: How Jimmy Carter and I started the Mujahedeen]; [<http://www.globalresearch.ca/articles/BRZ110A.html> The CIA's Intervention in Afghanistan]; [http://www.pbs.org/newshour/bb/asia/jan-june01/chinakb_4-4.html Kissinger & Brzezinski discuss the surveillance plane standoff with China], The NewsHour, Public Broadcasting Service, April 4, 2001; [http://www.azer.com/aiweb/categories/magazine/34_folder/34_articles/34_brzezinski.html Geopolitically Speaking: Brzezinski on Eurasia] Azerbaijan International, Winter 1995 (3.4); [http://www.azer.com/aiweb/categories/magazine/52_folder/52_articles/52_caucasus.html Geopolitically Speaking: Brzezinski on the Caucasus] Azerbaijan International, Summer 1997 (5.2); Zbigniew Brzezinski. [<http://www.wanttoknow.info/brzezinskigrandchessboard> The Grand Chessboard: American Primacy in Eurasia]; Zbigniew Brzezinski. [<http://query.nytimes.com/gst/fullpage.html?res=9906E7DB133FF932A3575AC0A9649C8B63&sec=&spon=&partner=permalink&exprod=permalin>

k Confronting Anti-American Grievances], "New York Times", September 1, 2002; Neal Conan. [http://www.npr.org/programs/totn/transcripts/2003/sep/030916.conan.html Brzezinski discusses his participation in the 1978 Camp David], Talk of The Nation, National Public Radio, September 16, 2003; Zbigniew Brzezinski. [http://www.newamericanstrategies.org/transcripts/Brzezinski.asp We are going to live in an insecure world] , October 28, 2003; [http://www.pbs.org/newshour/bb/middle_east/jan-june04/iraq_3-19.html Brzezinski on repercussions for diplomacy and the war on terror], The NewsHour, Public Broadcasting Service, March 19, 2004; [http://www.cfr.org/publication/6917/hbo_history_makers_series.html History Makers Series: Conversation with Brzezinski], The Council on Foreign Relations, March 24, 2004; Zbigniew Brzezinski. [http://www.jhuapl.edu/POW/notes/notes_12oct.htm Speaker's notes: Threats, Dangers, and Uncertainties], Johns Hopkins University. October 12, 2004; Marie-Laure Germon. [http://bellacio.org/en/article.php3?id_article=3851 Brzezinski: "The Neo-Conservative Formula Doesn't Work"], Le Figaro, October 18, 2004; Arthur Lopic. [http://www.voltairenet.org/mot120351.html?lang=en Brzezinski: the Empire's Adviser] , Voltaire Network, October 22, 2004; Zbigniew Brzezinski. [http://informationclearinghouse.info/article12243.htm The Dilemma Of The Last Sovereign (PDF-140KB)], The American Interest, Autumn 2005; [http://www.rand.org/news/press.05/12.08.html Brzezinski to chair RAND center for Middle East public policy advisory board], RAND Military Corporation, December 8, 2005; [http://www.payvand.com/news/06/mar/1090.html Brzezinski's role in the 1979 Iranian Revolution] , "Payvand News", March 10, 2006; [http://thinkprogress.org/2006/04/25/zb-iran/ Air Strike on Iran Could 'Merit the Impeachment of the President'], April 26, 2006; [http://www.acus.org/docs/060531-CJM_Lecture_Brzezinski.pdf The Christopher J. Makins Lecture by Dr. Zbigniew Brzezinski], May 31, 2006; [http://www.pbs.org/newshour/bb/middle_east/jan-june07/iraq_02-01.html Former National Security Advisors Clash on Iraq Policy], The NewsHour, Public Broadcasting Service, February 1, 2007; [http://www.senate.gov/~foreign/testimony/2007/BrzezinskiTestimony070201.pdf Brzezinski's Testimony to the Senate Foreign Relations Committee], February 1, 2007; [http://articles.latimes.com/2007/feb/11/opinion/op-brzezinski11 A road map out of Iraq], LA Times, February 11, 2007; [http://www.washingtonpost.com/wp-dyn/content/article/2007/03/23/AR2007032301613_pf.html Terrorized by 'War on Terror'] , Washington Post, March 25, 2007;

[<http://www.iht.com/articles/2007/06/18/america/web-rose.php> Transcript: Zbigniew Brzezinski, Henry Kissinger and Brent Scowcroft interviewed by Charlie Rose], International Herald Tribune, June 18, 2007; [<http://edition.cnn.com/2007/POLITICS/09/23/iran.us/index.html> Brzezinski: U.S. in danger of 'stampeding' to war with Iran], CNN, September 24, 2007;

6. Збигенв Бжезински. Великая шахматная доска. Господство Америки и его геостратегические императивы. Москва. «Международные отношения». 2000. с. 254.

АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ СУДЛАРДА ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИНИ ТАЪМИНЛАШДАГИ ЎРНИ

Шерматов Муроджон Абдумутал ўғли

Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши

хузуридаги Судьялар олий мактаби таянч докторанти

Ахборот-коммуникация технологиялари биз билан биргаликда ишлаб ва яшаб, ҳаёт тарзимизни ўзгартирадиган манба бўлиб улгурди. Мазкур соҳанинг революцияси инсон ақл-заковати учун улкан янги имкониятларни кўшди. Хусусан, судлар фаолиятида ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш бизга маълумотни масофа, вақт ва ҳажм билан чекламасдан, ҳар қандай шаклда қайта ишлаш, сақлаш, олиш ва узатиш, суд ишларида масофавий ташкил қилиш, жамоатчиликка суд мажлисларини реал вақт режимида кузатиш имкониятини яратиб бермоқда.

Шунга кўра суд органларини ахборотлаштириб бориш фуқароларнинг конституциявий ҳуқуқларини таъминлашнинг муҳим усулларида бири ҳисобланиб, судлар самарадорлигини ошириш, улар билан жамоатчилик назорати институтлари ўртасидаги муносабатларнинг ажойиб кўриниши сифатида гавдаланиб келмоқда. Шу нуқтаи назардан, ҳозирги кунда ахборот технологиялари орқали судлар фаолияти тўғрисидаги ахборотларга кириш, улардан фойдаланиш ва тарқатишга оид жамоатчиликнинг конституциявий ҳуқуқларини таъминлаб бориш ҳозирги кундаги асосий вазифалардан бири ҳисобланади.

Бу борада Б.Очилов судлар фаолиятига замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этишдан кўзланган асосий мақсад судлар фаолиятининг очиқлигини, шаффофлигини ва тезкорлигини таъминлаш, судларда иш юритиш сифатини ва аҳолининг одил судловга

эришиш даражасини оширишдан иборат деб келтиради¹⁹¹. Б.Пўлатов фуқаролик суд ишларини юритишда ахборот технологияларидан фойдаланиш, судлар фаолиятида компьютерлаштириш даражасини ва компьютер техникасидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш судьяларнинг иш ҳажмини пасайтиришга, турли молиявий сарф-харажатларни камайтиришга хизмат қилади. Қолаверса, жамиятда демократия ва адолатни таъминлашнинг энг муҳим омили бўлмиш суд ҳокимиятининг замонавий ахбороткоммуникация технологиялари билан жиҳозланиши унинг жамиятда тутган ўрни ва обрўсини ҳам оширади деб келтириб ўтгани бежизга эмас¹⁹².

Судлар фаолиятида ахборот-коммуникация технологияларини жорий қилиш бўйича яратилган ҳуқуқий кафолатларни таҳлил қиладиган бўлсак, бу соҳани ривожлантиришга қаратилган сўнгги ўн йилдаги ислохотлар муайян вақтда мавжуд бўлган эҳтиёж ва талабдан келиб чиққан ҳолда амалга оширилган. Ахборот-коммуникация технологиялари орқали жамоатчилик назоратини амалга ошириш илмий тадқиқ этилмасдан келган. Буни ҳуқуқшунос олим М.Мамасиддиқов ҳам ўз илмий тадқиқот иши билан суд ишларини юритишда замонавий ахборот технологияларини жорий этиш истиқболларини қиёсий-ҳуқуқий таҳлил қилиш, айниқса, фуқаролик суд ишларини юритишда жамоатчилик назоратини таъминлаш воситалари ва уларни такомиллаштириш масалаларини тадқиқ этиш долзарб масалалардан бири эканлигини¹⁹³, Б.Пуллатов эса судлар фаолиятига замонавий ахборот технологияларини жадал суръатлар билан жорий этиш муаммоларини илмий-назарий жиҳатдан тадқиқ этиб ўрганиш муҳим эканлигини қайд этиб ўтади¹⁹⁴. Бу эса илмий ишимиз юзасидан судларда ахборот-коммуникация технологиялари орқали жамоатчилик назоратини амалга оширишдаги ўрнини илмий-назарий таҳлил қилиш мажбуриятини юклайди.

Судларда ахборот-коммуникация технологиялари жорий этиш дастлаб Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 2 август кунги ПФ-4459-сонли “Суд тизими ходимларини ижтимоий муҳофаза қилишни

¹⁹¹<http://hudud24.uz/sudlar-faoliyatida-ahborot-tehnologiyalari-ochi%d2%9blik-va-shaffoflikka-hizmat-%d2%9biladi/>

¹⁹² Фуқаролик суд ишларини юритишда ошкоралик тамойили ва жамоатчилик назоратини таъминлашнинг долзарб масалалари / Монография. Масъул муҳаррир ю.ф.д., проф. Б.Х.Пўлатов. – Тошкент. “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”. 2019. – 140 б.

¹⁹³ Мамасиддиқов М.М., Отажонов А.А. ва бошқ. Мамлакатимизда давлат идоралари фаолияти устидан самарали жамоатчилик назоратини ўрнатиш механизмларини ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш / Монография. Муаллифлар жамоаси. Масъул муҳаррир ю.ф.д., проф.

¹⁹⁴ Фуқаролик суд ишларини юритишда ошкоралик тамойили ва жамоатчилик назоратини таъминлашнинг долзарб масалалари / Монография. Масъул муҳаррир ю.ф.д., проф. Б.Х.Пўлатов. – Тошкент. “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”. 2019. – 140 б.

тубдан яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида”¹⁹⁵ги Фармони билан белгиланган. Фармонда, судлар фаолиятига замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш дастури тасдиқланган ва судларнинг таркибий тузилмасида ахборотлаштириш масалалари бўйича алоҳида бўлинмалар ташкил қилиш назарда тутилган. Фармоннинг ижроси юзасидан Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 10 декабрдаги “Судлар фаолиятига замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”¹⁹⁶ги 346-сон Қарори билан, суд органлари веб-сайтлари орқали фуқароларга интерактив хизматларни кўрсатиш бўйича қатор амалий чора-тадбирлар амалга оширилган. Судлар фаолияти тўғрисидаги ахборотларни тўплаш, ишлаш, тизимлаштириш ва сақлаш, Олий судга, Олий хўжалик судига даъво, илтимоснома ва уларга илова қилинадиган ҳужжатлар билан биргаликда судга мурожаат қилиш, хўжалик судларининг қарорларини мажбурий тартибда эълон қилиш бўйича “E-SUD” Миллий электрон судлов ахборот тизими яратилган. Бу судларнинг ўз фаолиятлари тўғрисида ахборот технологиялари орқали жамоатчиликни ўз вақтида ҳабардор қилиб туриш ва ўзаро алоқа ўрнатиш бўйича дастлабки қадамлар ташланганини билдиради.

Хусусан, судларга мурожаатларни электрон шаклда “Мурожаат” (exsud.sud.uz) рукни орқали юбориш, уларни кўриб чиқиш жараёнини онлайн кузатиб бориш ва суд қарорларини электрон шаклда олиш имконияти яратилди. “Қарорлар тўплами” (public.sud.uz) рукни орқали қонуний кучга кирган суд қарорларини тизимли равишда эълон қилиш амалиёти жорий қилинди. “Намуналар” (template.sud.uz) рукнига фуқаролик ишлари бўйича ва иқтисодий судларга мурожаат қилиш учун даъво ариза ва аризалар намуналари жойлаштирилди. “Мажлислар жадвали” (jadval.sud.uz) рукни орқали биринчи, апелляция ва кассация инстанцияларида суд мажлисига тайинланган ишлар рўйхати билан онлайн равишда танишиш имконияти яратилди. “Электрон қабул” (qabul.sud.uz) рукни орқали масофадан туриб Олий суд раҳбариятининг шахсий қабулига онлайн тарзда рўйхатдан ўтиш тизими жорий этилди. 2020 йил июнь ойида “Онлайн кузатув” (my.sud.uz/#/monitoring) рукнига мурожаатларни судларга тақдим этиш шаклидан қатъий назар уларни

¹⁹⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Суд тизими ходимларини ижтимоий муҳофаза қилишни тубдан яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида”¹⁹⁵ги 2012 йил 2 август кунги ПФ-4459-сонли Фармони <https://lex.uz/docs/2037985?ONDATE=11.03.2021&ONDATE2=14.07.2018&action=compare>

¹⁹⁶ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Судлар фаолиятига замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”¹⁹⁶ги 2012 йил 10 декабрдаги 346-сон Қарори

кўриб чиқиш жараёнини онлайн тарзда кузатиб бориш имконини берувчи ахборот тизими синов тариқасида жойлаштирилди¹⁹⁷.

Судлар фаолиятини рақамлаштиришнинг кейинги босқичида муҳим вазифаларидан суд мажлисларида видеоконференцалоқа режимида иштирок этиш имконини берувчи мобил дастурни ишлаб чиқиш ва уни амалиётга жорий этиш, шунингдек видеоконференцалоқа режими орқали жазони ижро этиш муассасаларида жойлашган шахсларни бевосита улар жойлашган жойдан туриб суд мажлисларида, шунингдек суд раҳбариятининг шахсий қабулларида иштирокини таъминлаш тизимини жорий этилишини қайд этиш мумкин¹⁹⁸.

Қонунчилик билан барча судларда ишларни очиқ кўрилиши, қонунчилик билан процесс иштирокчиси бўлмаган шахсларга, шу жумладан, оммавий ахборот воситалари вакилларига суд мажлисида қатнашиш имконияти яратиб берилган, уларнинг иштирокини чеклаш таъқиқланган бўлиб, жамоатчиликни суд мажлисларида видеоконференцалоқа режимида эркин иштирок этиш имконини берувчи мобил дастурни ишлаб чиқиш ва уни амалиётга тадбиқ этиш ҳар томонлама манфаатли бўлади. Шунга кўра 2020 йил октябрь ойида “Видеоконференцалоқа” (vka.sud.uz) рўқали замонавий воситалар (гаджетлар)дан фойдаланган ҳолда дунёнинг исталган нуқтасидан туриб суд мажлисларида иштирок этиш имконини берувчи мобил видеоконференцалоқа синов тариқасида жорий этиш белгиланганини қўллаб-қувватлаш лозим.

Рақамлаштириш жараёни натижасида суд мажлисларини аудио, видео қайд этиш ва онлайн кўрсатишнинг жорий қилингани судлар фаолиятининг очиқлиги ва шаффофлигига олиб келган бўлсада, бироқ жамият эҳтиёжини фақат булар билан қондириб бўлмайди. Ишда иштирок этувчи шахсларга судьянинг ишни кўриш бўйича хатти-ҳаракатлари, тарафларга муносабати ва муомаласи, қабул қилган қарорининг мазмуни, якуний хулосага келишда қандай далиллардан фойдаланганлиги ҳам тушунарли ва шаффоф бўлиши лозим. Айнан тушунарли ва асослангандир суд қарорлари фуқароларнинг суд ҳокимиятига ишончини таъминловчи муҳим омиллардан биридир. Бу борада рақамли ислохотлар ҳар бир фуқарога суд қарори билан монеликсиз танишиш, суднинг веб-сайтида жойлаштирилган шунга ўхшаш суд қарорлари билан солиштириш имконини бериш мақсадини ҳам кўзлайди, бу эса ўз навбатида суд қарорининг жамият томонидан қабул қилинишига ижобий таъсир кўрсатади.

¹⁹⁷ <https://sud.uz/wp-content/uploads/2022/01/3-OS-2021.pdf>

¹⁹⁸ <https://sud.uz/wp-content/uploads/2022/01/3-OS-2021.pdf>

Хулоса қиладиган бўлсак, судлар фаолиятини рақамлаштириш ва ахборотлаштириш жамиятнинг асосий эҳтиёжи бўлмиш судлар фаолияти тўғрисидаги ахборотлар ва улар фаолиятининг самарадорлигига оид ахборотларга киришни таъминлайди. Бу жамоатчилик томонидан судлар фаолиятини самарали назоратни амалга оширишга имкон беради. Шунга кўра, ахборот технологиялари орқали суд тизимининг барча ички ва ташқи фаолияти тўғрисидаги маълумотларни жамоатчилик етказиб бериш ва электрон хизмат кўрсатиш тизимини жорий этиш лозим. Бу суд ишларини ташкил этишда инсон омили, бюрократик тўсиқларни йўқ қилишнинг замонавий усули бўлиб, судларда фаолиятида ахборот технологиялари орқали судлар фаолиятини жамоатчилик томонидан кузатиб бориш, баҳолаш имконини яратиш беради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Суд тизими ходимларини ижтимоий муҳофаза қилишни тубдан яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2012 йил 2 август кунги ПФ-4459-сонли Фармони <https://lex.uz/docs/2037985?ONDATE=11.03.2021&ONDATE2=14.07.2018&action=compare>

2. 199Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маъжамасининг “Судлар фаолиятига замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2012 йил 10 декабрдаги 346-сон Қарори

3. 200Фуқаролик суд ишларини юритишда ошкоралик тамойили ва жамоатчилик назоратини таъминлашнинг долзарб масалалари / Монография. Масъул муҳаррир ю.ф.д., проф. Б.Х.Пўлатов. – Тошкент. “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”. 2019. – 140 б.

4. Мамасиддиқов М.М., Отажонов А.А. ва бошқ. Мамлакатимизда давлат идоралари фаолияти устидан самарали жамоатчилик назоратини ўрнатиш механизмларини ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш / Монография. Муаллифлар жамоаси. Масъул муҳаррир ю.ф.д., проф.

5. <http://hudud24.uz/sudlar-faoliyatida-ahborot-tehnologiyalari-ochi%d2%9blik-va-shaffoflikka-hizmat-%d2%9biladi/>

6. <https://sud.uz/wp-content/uploads/2022/01/3-OS-2021.pdf>

¹⁹⁹ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.

²⁰⁰ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4-5.

HARBIY HAYDOVCHILARDA PSIXOLOGIK SHIKASTLANISHNING NAMOYON BO'LISHI VA UNING SALBIY OQIBATLARI

Shermatov Fayzullo Toshitlayevich

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti prorektori, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), podpolkovnik

Bugungi kunda eng asosiy masalalardan biri sifatida e'tirof etilayotgan inson omiliga bo'lgan etibor kun sayin ortib bormoqda, shunday ekan bevosita haydovchilarning psixologik tayyorgarligiga, axloqiy-ruhiy holatiga, haydovchining kasbiy maxoratiga va muomala madaniyatiga bevosita bog'liq bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, yo'l harakati vaqtida turli xil vaziyatlar yuzaga keladi. Tasodifan kutilmagan holatlarda ro'y beradigan yo'l transport hodisasi jarayonida haydovchilarimiz hamda yo'lovchilar tomonidan yo'l transport hodisasi sodir etilganda ularning stress-omillar ta'sirida psixologik jarohat olgan shaxslarda o'zlarini va atrofni anglashlarida ma'lum bir o'zgarishlar kuzatiladi.[1]

Haydovchi qanchalik kuchli darajada stress olgan bo'lsa, unda shuncha salbiy psixologik asoratlari kelib chiqishi ehtimoli mavjud bo'ladi. Bunday stressning psixojarohatlovchi asoratlari haydovchi va yo'lovchilarda quyidagi turli shakllarda namoyon bo'ladi. Jumladan,

- hayot ma'nosining yo'qligi;
- o'zini mavjudligini norealligini his qilishi;
- halokat yaqin, yaqinda xalok bo'laman deb his qilishi;
- o'z-o'ziga bo'lgan bahoning pastlab yoki yuqorilab ketishi;
- o'zini idrok qilishning birdan o'zgarishi (o'zini bir xilligini keskin o'zgarishi);
- ichida o'zining shaxsiy dezintegratsiyasini (shaxsini tarkibiy qismlarga ajratish (o'zining jarohlangan holgacha va undan keyin qanday his qiladi) his qilishi;
- avtohalokat jarayonida o'zini aybdor deb hisoblashi;
- o'z imkoniyatlarini sodir etilgan noxush hodisalarga ta'sirini sub'ektiv baholashi;
- bo'lib o'tgan avtohalokatlarda eng optimal variantlarni tuzish xayolan miyasiga o'rnashib qolishi;
- emotsional his-tuyg'ularning oshishi yoki aksincha, emotsional hech narsani his qilmasligi;

Yuqori asabiylik, tez jahli chiqish, tajovuzkorlik, o'z joniga qasd qilishi xayollari, kayfiyat yo'qligi va kuchli tushkunlikka tushish holatlari ro'y beradi.

Bugungi kunda haydovchilarning stressni vujudga keltiruvchi psixojarohatlovchi asoratlari quyidagi shakllarda namoyon bo'lgani kuzatildi: [2]

a) miyada o'rnashib qolgan taassurotlar, obrazlar, birdaniga yuzaga psixojarohatlovchi vaziyatlarni eslatuvchi kechinmalar, his-tuyg'ular va o'zining boshidan o'tgan real kuchli ta'sir etuvchi voqea va yo'l transport xodisalari;

- sodir etilgan voqea joyida qo'rquv xissini paydo bo'lishi oqibatida haydovchi va yo'lovchilarda psixojarohatlovchi vaziyatni to'laligicha yoki ba'zi bir muhim holatlarni ayta olmaslik holatlari;

- kayfiyatning ko'tarinkilikdan tushkunlik holatiga tushib qolishi, zerikarli kayfiyatga o'zgarib turishi.

b) nazorat qilib bo'lmaydigan nafrat, darg'azab tajovuzkorlik reaksiyasini inson tanasiga salbiy ta'sir holatlari kuzatiladi, natijada esa, inson organizimiga salbiy ta'sir rekatsiyalari vujudga keladi:

- haydovchi va yo'lovchilarda og'ir yo'l transport hodisasi sodir etilganda aniq bir fikr, kechinma, harakatda qotib qolish, atrofdagilarni asossiz ayblayverishi;

- tafakkurning umumiy tormozlanishi;

- u yoki bu vazifani hal etishda fikrni jamlay olmaslik;

- uncha murakkab bo'lmagan ma'lumotni eslab qolishning qiyinligi;

- bosh og'rig'i va bosh aylanishi;

- yurak, oshqozon sohasidagi og'riqlar (noxush hislar);

- terlashning yuqori darajasi;

- ishtahaning birdan ko'tarilib yoki pasayib ketishi;

- doimiy charchoq, ezilganlikni his qilishi;

- barmoqlar, qo'l, oyoq, bosh va tananing boshqa qismlarini nazorat qilib bo'lmaydigan darajada qaltirashi va shu kabi inson organizimiga salbiy ta'sir etuvchi emotsional psixologik o'zgarishlarning ro'y berish holatlari namoyon bo'ladi.

Bunday natijalar sodir etilgan jarayonda haydovchi va yo'lovchilar ruhiyatida stress-omillari organizmning funksional holati, qadriyatlar oriyentatsiyasi va motivatsion ustanovkalar buzilishiga olib keladi, natijada esa mediko-psixologik korreksiya ishlarini olib borish va ular sog'ligini reabilitatsiya qilishni shart qilib qo'yadi.

Bunday harakatlar jarayonida asosan har bir haydovchi va yo'lovchilardan ogohlik va xushyorlikni talab etadi. Haydovchi muntazam ravishda diqqatini jamlagan holatda o'zini yaxshi his etishi, yo'llarni nazoratga olishi, yo'l harakati qoidalariga rioya etishlari va shu kabilar muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu esa o'z navbatida, har bir haydovchining kasbiy mahoratiga, kasbiy ko'nikma va tajribasiga, shuningdek, yo'lning ko'rinish uzoqligiga, ob'ektning ravshanligiga va asosiy rangiga nisbatan keskin farqiga va harakatlanish tezligiga bevosita va bilvosita bog'liq bo'ladi. [3]

Ob'ekt	Harakatlanish tezligi km/s bo'lganda ko'rinish masofasi m.		
	40	60	80
Yo'l qoplamasi (holat)	25	43	57
Qarama-qarshi harakatlanayotgan avtomobillar	200-300	200-500	300-500
Yo'lning umumiy yo'nalishi	200-1000	500-2000	1000-1500

Avtomobil yo'lni egri chiziqli qismida harakatlanganida, haydovchini yo'l vaziyatini qabul qilish o'ziga xos xususiyati bilan farq qiladi.

Bunda haydovchi markazdan kuch ta'sirini sezadi va o'zini ko'p vaqtini avtomobil harakat yo'nalishini kuzatishga sarflaydi, burilish radiusi qancha keskin bo'lsa uning diqqat-e'tibori shuncha ko'p oshadi. U vestibulyar (quloq ichida joylashgan, bosh va gavda muvozanatini idora qiladigan organ) sezishni ko'rish bilan taqqoslaydi. Yo'lning egrilik radiusi 800-1000 m. bo'lganda, haydovchi deyarli markazdan qochma kuch ta'sirini sezmaydi. Agar tezlik soatiga 50 km.dan oshmasa, avtomobil boshqarishga yo'l qo'yiladigan xatolar xavfli oqibatlariga olib kelmaydi. Tezlik oshganda yoki burilish radiusi kamayganda avtomobilni harakatlantirish trayektoriyasini saqlash qiyin bo'ladi. Tezlik juda katta bo'lganda surilishi yoki og'darilishi mumkin va qarama-qarshi harakatlanishda o'tib ketish qiyinlashadi. Bunday sharoitda haydovchining asosiy e'tibori faqat avtomobil harakatlanish trayektoriyasi va uni to'g'rilashga qaratilgan bo'ladi.

Tajriba va tadqiqotlar ko'rsatadiki, yaxshi e'tiborga ega bo'lgan shaxslar ancha tez haydovchilik ko'nikmalarini egallaydilar. Haydovchi uchun e'tiborsizlik YTHsini sodir etish sababi. Shuning uchun haydovchilikka psixofiziologik tanlashda e'tibor sifati tekshiriladi. Avtomobil boshqarishda haydovchi biror-bir holatni noto'g'ri qabul qilishi mumkin. Bunday noto'g'ri qabul qilishlar inson psixologiyasida illyuziya deyiladi.

Kasb staji ko'p bo'lgan haydovchilarga, e'tiborni taqsimlash ko'nikmasi yaxshi rivojlangan, xotirasida odatda sodir bo'ladigan yo'l-transport hodisalarining ko'p ma'lumotlari saqlanadi. Demak, yangi haydovchiga qaraganda ular ishorani aniqlash va axborotni qayta ishlashi uchun ancha kam vaqt sarflaydilar. Doimiy shaharlararo yo'nalishda shahardan tashqari yo'llarda ishlaydigan haydovchilar, shahar sharoitida o'rgangan haydovchilarga nisbatan tezroq axborotni qayta ishlaydilar. Jiddiy yo'l vaziyatida haydovchining tez va aniq reaksiyasi YTHni oldini olishga hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, bosib ketish yoki to'qnashuv oldini olishga, favqulodda tormozlash yoki aylanib o'tishni qo'llashda reaksiya vaqti muhim ahamiyat kasb etadi. Piyodalarni bosish bilan

bog'liq YTHlari materiallari tahlili ko'rsatadiki 70%ga yaqin holatda bosib o'tgandan keyingi avtomobil yo'li 1 m.dan oshmaydi, ularni tezligi soatiga 30-50 km atrofida bo'lgan. To'xtash yo'lini 1.0-1.5 m.ga qisqartirish uchun, haydovchi reaksiya vaqtini 0.1-0.15 soniyaga kamaytirishi yetarli. Vaqtni bunday kamaytirishga datent davrini qisqartirish yo'li bilan erishish mumkin, ya'ni, asosiy e'tiborni va vaziyatni baholash ko'nikmalarini oshirish yo'li bilan reaksiya va h.z.

Xulosa o'rnida shuni qayd etilishi lozimki, bunday muammolar bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sanaladi. Shunday ekan, zo'riqishlar bilan bog'liq psixologik xususiyatlarning darajalari, kasbiy muvaffaqiyatni ta'minlovchi sifatlar: qo'zg'alish kuchi, muvozanatlashganlik, harakatlanish kuchi, muammolarni o'zi hal qilishi, ochiqlik-oshkoralik, vazminlik va mardlik kabi jarayonlarning faol shakllanishida muhim omil ekanligiga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Mazkur ilmiy maqolamizda avtohalokatlardagi stress omillari haydovchilar organizmining funksional holati, qadriyatlar oriyentatsiyasi va motivatsion ustanovkalar buzilishiga olib kelishi haqida fikrlar atroflicha bayon etilgan bo'lib, natijada esa mediko-psixologik korreksiya ishlarini olib borish va ular sog'ligini reabilitatsiya qilish zarurligi hamda profilaktik va reabilitatsiya ishlarini samarali yo'lga qo'yish muhimligi atroflicha qayd etiladi. Bunda asosiy e'tibor avtohalokat ishtirokchilarining ruhiyatiga ta'sirini bilishi va ularni inobatga olishlari zarur bo'ladi. Shuning bilan birgalikda avtohalokat ishtirokchilarining stressogen omillarga, konfliktli vaziyatlarga hamda inson salomatligini yomonlashuviga olib kelishidan kelib chiqib, ruhiy holatini o'rganishlari, stress va krizisni profilaktika qilish tadbirlarini yaxshi bilishlari talab etiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

[1] Frolov M.F. Psixofiziologicheskiy stress i kachestvo deyatelnosti cheloveka-operatora // Psixicheskaya napryajennost v trudovoy deyatelnosti: sb. nauchn. st. - M., 1993.- S. 83.

[2] O'quv qo'llanma. "Avtomobillarni boshqarish asoslari va harakat xavfsizligi". 1 qism. SOHAQMBYu 2016 yil. 53 bet.

[3] Danilova N. N. Psixofiziologiya: Uchebnik dlya vuzov. - M.: Aspekt Press, 1998. - S.46.

[4] Shermatov F.T., Beknazarov A.A. Jangovar stress va uning psixologik oqibatlari. O'quv qo'llanma. AKT va AHI, "Taktika, umumqo'shin tayyorgarligi va gumanitar fanlar kafedrası" tomonidan buyurtma asosida tayyorlandi. 2021. 47-bet.

MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA LOLAQIZG'ALDOQ OBRAZI

Shokirova Gulhayo Bobir qizi

Buxoro davlat universiteti 3-bosqich talabasi

Badiiy adabiyot -inson qalbida mavj urgan benazir tuyg'ularning qog'ozdagi go'zal hamda ma'lum ohang hamda tartibga solingan ifodasi bo'lib, uning o'ziga xosligini bizga namoyon etuvchi serqirra ijodkorlar so'z san'atkorlari: shoir, yozuvchi, dramaturglardir. Agar adabiyot bir jon bo'lsa unga ruh bag'ishlovchi kuch bu- obrazlilikdir. Zero, har qanday obrazli fikr inson qalbiga tezda joy oladi, agar u inson yon -atrofidagi obrazlar, shuning ma'lum va mavjud narsalar bilan gavdalantirilsa, ijod sohibi o'z maqsadining yarmiga yetgan bo'ladi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

"Chinakam shoirning qalbida allaqanday sohir qush doimo sayrab turadi, degan gapni ko'p bora eshitgandik. O'sha qush aynan Muhammadjonning, Muhammad Yusufning yuragida ishyon qurganiga men astoydil ishonganman" - deydi shoir Abdulla Oripov.

Haqiqatdan ham, Muhammad Yusuf xalq dili va tiliga yaqin shoir edi. Uning har aytgan oh-u nolasi kuy-qo'shiqqa aylanib bugun xonadonlarda yangramoqda. Zero, Bobur ta'kidlaganidek: "Inson nomining vafotidan keyin ham tilga olinishi uning ikkinchi umri demakdir". Zotan, Andijonlik shoir she'rlaridagi go'zal badiiy obrazlar va obrazlilik bevosita bunga ko'maklashdi.

Muhammad Yusuf ijodida eng ko'p ko'zga tashlanadigan obraz- lolaqizg'aldoqdir. Goho inson hayotidagi g'am -kulfatni, goho hazin tuyg'ularni, mahzunlikni, armonlarni ifoda etgan bu gul bag'ri qon oshiq obrazida tasviriy ifoda sifatida ham shoir ijodida uchraydi:

Men shahar erkasi, sen tog' go'zali deya shoir lolaqizg'aldoqqa ishora qilib oshiqdan bir necha pog'ona yuqorida, ishq pokligida deb tasvirlaydi. Yana bir she'rida esa, hayotga oshufat qizlar kulgusi va tabassumini qizg'aldoqqa qiyoslaydi, shoir go'yo bu kamtarin tabassumni ilg'amagan bo'ladi ham:

Qizg'aldoqday qizlar kulib tursa, boqmay

Suyib seni saylagan sho'rpesonaman.

O'zga she'rida esa shoir yoriga iltijo bilan " lola, lolajonim, lolaqizg'aldoq" deya murojaat qiladi va undan o'tinib dunyo tashvishlariga bo'yin egmasligini so'raydi. Shoir qizg'aldoq obrazi orqali ko'proq mahzunlikni, inson hayotidagi armon va alamlarni ham ifoda etadi:

Bir tuproqqa to'kilgan qizg'aldoqlar,

Bevaqt qurbon bo'lib ketgan o'glonlar -deya Muhammad Yusuf urushda Vatan deya jon bergan mardlarning xunini qizg'aldoqqa qiyoslash orqali ularning qoni pok ekanligiga ham ishora qilib o'tadi.

Olamni qopladi oq qizg'aldoqlar ,

Qaldirg'ochsiz qoldi ko'shki ravoqlar - qahraton qish qahrining go'zal mo'jizasi bo'lmish qorni "oq qizg'aldoq " deb atash orqali shoir tabiatdagi muvozanatni , uning betakror go'zalliklarini badiiy tarzda kashf etadi. " Oq qizg'aldoqlar" o'zga misralarda ohga to'la , armon bilan yonauotgan gulxanga qiyos etiladi:

Tog'lardagi qizg'aldoq

Endi menga yor hamroh.

Gulxan bo'lib lovullab

Bag'ri-dilim yonar oh.

Badiiy adabiyotdagi an'anaviy oshiq dardini , o'rtanayotgan qalbini Muhammad Yusuf obraz bilan ifodalab , qizg'aldoq orqali o'z fikrini sodda , ravon va go'zal badiiy ifoda etgan.

Qizg'aldoqday boshim egik , bu makonda ,

Yoshin yashab o'tmagan otajonim bor - misralari orqali endi shoir umuman o'zga ma'no -mazmun kasb etuvchi misralar yaratadi va endi qizg'aldoq obrazi orqali ham inson ruhiyatini , ham makon-toponimni ifodalash orqali alam-u armon ichidagi badiiy qahramon dunyosini tasvirlaydi: Qizg'aldoqlar bosh egib qon yig'lab turgan.... Qabriston- so'nggi manzil, abadiy uy kabi nomlar bilan atalgan bu joyni atashda Muhammad Yusuf novatorlik qiladi hamda tabiiy holatni ,ya'ni qizg'aldoqning tabiatan egik boshini insonlar kelib g'amdan bosh eguvchi makonga qiyoslaydi. Armon, alam ,iztirob mazmunida qizg'aldoq obrazidan badiiy foydalangan Muhammad Yusuf "Jayron" she'rida :

Yurak qoning to'kilgan so'qmoq ,

Bag'ri alvon lolaqizg'aldoq - deya insonlar ozoridan bezgan , ularning jabridan qalbi vayron jayronning yurak-bag'ri qon bo'lganini ifodalagan bo'lsa ham, aslida ming azobda o'rtanayotgan yor qalbini ham misralar zamiriga joylagan.

Darhaqiqat, adabiyot - bir kuchli qurol bo'lsa , obrazlilik uning o'qlari hisoblanadi. Zero, haqiqiy muxlislar e'tirof etgan badiiy asargina vaqt va makon intihonidan omon o'ta oladi . Muhammad Yusuf ham xuddi shunday shoir edi: Sen qabrim ustida xotira bayroq,

Lola, lolajonim , lolaqizg'aldoq - deya ijodkor ,ehtimol , ortda qolajak asarlarini , badiiy merosini ham ifoda etgan. Zamonlar , davrlar girdobini pisand etmay muxlislari qalbidan allaqachon o'z o'rniga ega " qizg'aldoq sohibi" - Muhammad Yusuf badiiy adabiyotimozda o'chmas darg'a bo'lib qoldi. Zero, uning she'riyatidagi samimiylik, soddalik , obrazlilik shoirning o'ziga xos uslubi bo'lib qoldi. Adabiyotda o'z yo'li va o'rniga egan ijodkorlar sanoqli , ammo ular ichida Muhammad Yusuf ham bor bo'lib , u xalqimiz yodida mangu qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Xalq bo'l elim" Muhammad Yusuf T-2009 "O'zbekiston".
2. "Alyorim qolur" Muhammad Yusuf T-2019 "Ziyo nashr".

ТАЪЛИМ СОҲАСИДАГИ ИСЛОҲОТЛАР – КЕЛАЖАК ПОЙДЕВОРИ

Шукуров Ориф

Жиззах давлат педагогика университети мустақил тадқиқотчиси

Мамлакатимизда сўнги йилларда таълим тизимида олиб борилаётган ислохотлар таълим-тарбия даражасини ривожлантириш билан бирга, фарзандларимизнинг сифатли ва мазмунли билим олишларига шароит яратмоқда. Кейинги даврда қабул қилинган қатор ҳужжатларнинг ижроси боис таълим сифати ва самарадорлигига эришиш борасида ижобий натижалар қўлга киритилмоқда. Бунинча нафақат таълим соҳаси вакиллари, балки бошқа соҳа вакиллари ҳам ҳис этиб турибди. Давлатимиз раҳбари президентлик фаолиятининг дастлабки кунларидан бошлаб юртимизда инновацион ва креатив фикрлайдиган замонавий кадрлар тайёрлаш, ёшларни ватанпарварлик руҳида, юксак маънавият эгалари этиб тарбиялаш, шу мақсадда таълим тизимини такомиллаштириш масалаларига алоҳида эътибор қаратиб келмоқда.

Таълим соҳасига қаратилаётган бундай эътибор самараси ўлароқ, давлат бошқарувини тубдан янгилаш, ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларини модернизациялаш борасида кенг қўламли янгиланиш ва ташаббуслар бошланди. Уларни ҳаётга тўлиқ жорий этиш ижтимоий тараққиёт масъулиятини ўз зиммасига оладиган ватанпарвар, мустақил қарор қабул қилиш қобилиятига эга бўлган иқтидорли ва истиқболли, малакали ва рақобатбардош профессионал кадрларга жуда катта эҳтиёжни вужудга келтирди. Бу эҳтиёж, биринчи навбатда, жамиятнинг таълим соҳасида туб ислохотлар бошланишига туртки бўлди.

Ҳаммамизга аёнки, тараққиётнинг тамал тоши ҳам, мамлакатни қудратли, миллатни буюк қиладиган куч ҳам бу — илм-фан, таълим ва тарбиядир. Эртанги кунимиз, Ватанимизнинг ёруғ истиқболи, биринчи навбатда, таълим тизими ва фарзандларимизга бераётган тарбиямиз билан чамбарчас боғлиқ.

2023 йилга “Инсонга эътибор ва сифатли таълим” йили деб ном берилишида ҳам таълим сифатига берилаётган эътибор нечоғлик катта эканлигидан далолатдир. Ҳақиқатдан ҳам, мамлакатимизда илм-фанни

янада равнақ топтириш, ёшларимизни чуқур билим, юксак маънавият ва маданият эгаси этиб тарбиялаш, рақобатбардош иқтисодиётни шакллантириш борасида амалга оширилаётган ишлар жадал давом эттирилмоқда ва замонавий босқичга кўтарилмоқда.

Давлатимиз раҳбари томонидан 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясининг “Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили”да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги Фармонни имзоланиши мамалакатимизнинг янада ривожланиши йўлида амалга оширилаётган ислохотларнинг узвий давоми бўлди. Амалга оширилаётган янгиланишлар даврида таълим тизимида ҳам алоҳида эътибор берилмоқда.

Хусусан, Фармонда ҳам таълим сифатини ошириш, соҳани илғор хорижий тажриба асосида ислоҳ қилиш мақсадида 2023 йил 1 сентябрдан бошлаб ҳар бир туман (шаҳар)нинг биттадан умумий ўрта таълим муассасасида ўқувчиларни иккита хорижий тил ва битта касб-хунарга ўргатиш амалиёти босқичма-босқич йўлга қўйилиши, умумий ўрта таълим муассасаларининг 1-4-синфларида ўқувчиларни илғор хорижий тажриба асосида ишлаб чиқилган дарсликлар бўйича ўқитиш, 5-9-синфларда ўқувчиларга умумтаълим фанларидан таянч билимлар бериш, 10-11-синф ўқувчиларининг қизиқиш ва қобилиятига мос бўлган ихтисослашган дастурлар асосида билим бериш амалиётини жорий қилиш, 2023/2024 ўқув йилидан бошлаб республиканинг барча вилоятлари ва Тошкент шаҳрида бошланғич синф ўқувчиларини бепул овқат билан таъминлаш, 2023 йил 1 апрелдан бошлаб мактабгача таълим қамровини кенгайтириш, профессионал таълим тизимини ривожлантириш, меҳнат бозори ва иш берувчиларнинг талабларига мос бўлган малакали ўрта бўғин кадрларини тайёрлаш, 2023-2024 ўқув йилидан бошлаб давлат грантлари коллеж ва техникумларнинг дуал таълим шакли бўйича ҳам ажратиш, 2023 йил 1 сентябрга қадар Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳрида малакали хорижий экспертларни жалб қилган ҳолда Европа касбий таълим ва касбга ўқитиш сифатини таъминлаш тизими талабларига тўлиқ жавоб берадиган 1 тадан намунавий профессионал таълим муассасалари фаолияти йўлга қўйиш, 2023 йил 1 апрелдан бошлаб профессионал таълим муассасаси педагогларининг базавий тариф ставкалари мос равишда умумий ўрта таълим муассасаси педагогларининг базавий тариф ставкаларига, профессионал таълим муассасаси биринчи ва иккинчи малака тоифасига эга бўлган, малака тоифасига эга бўлмаган олий маълумотли ҳамда олий маълумотга эга бўлмаган ишлаб чиқариш таълими усталарининг базавий тариф ставкалари тегишинча умумий ўрта таълим

муассасаси биринчи ва иккинчи малака тоифали ўқитувчиси, олий маълумотли ўқитувчиси ҳамда ўрта махсус маълумотли ўқитувчисининг базавий тариф ставкаларига тенглаштириш каби масалалар алоҳида ўрин эгаллаган.

Хулоса қилиб айтганда илм – инсоннинг ягона нажот йўли. Албатта бир қарашда бу баландпарвоз гапга ўхшайди. Лекин, ҳақиқатдан ҳам эътибор билан қарайдиган бўлсак барча муаммоларнинг ечими албатта илм соҳибларига боғлиқ. Энг оддий жабҳалардан тортиб оламшумул ишларнинг ортида ҳам олим ва илм аҳилларининг буюк хизматлари ётади.

ТАЛАБАЛАРДА КРЕАТИВ ТАФАККУРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Эгамбердиева Ф.

Ориентал университети доценти, педагогика фанлари номзоди

Усмонбоева М.

Низомий номидаги ТДПУ доценти, педагогика фанлари номзоди

Шахснинг мутахассис сифатида касбий камол топиши, ривожланиши ўз моҳиятига кўра жараён тарзда намоён бўлади. Касбий етуклик инсон онтогенезининг муҳим даврлари касбий камол топиш, ривожланиш ғояларининг қарор топиши (14-17 ёш)дан бошланиб, касбий фаолиятнинг яқунланиши (55-60 ёш)гача бўлган жараёнда кечади. Ижодкор шахснинг шаклланиши ва ривожланиши унинг ички ва ташқи олами ўзгаришининг ўзаро мос келиши, ижтимоий-иқтисодий шарт-шароитлар ҳамда инсон онтогенези – туғилишидан бошлаб то умрининг охирига қадар узлуксизлик, ворисийликни тақозо этадиган фаолият мазмунига боғлиқ.

Маълумки, касбий тажриба билим, кўникма ва малакаларнинг интеграцияси сифатида акс этади. Бироқ, касбий-ижодий фаолият кўникмаларининг ўзлаштирилиши нафақат амалий кўникма ва малакаларнинг интеграцияси, мутахассис сифатида фаолиятни самарали ташкил этиш усул ва воситаларини ишлаб чиқишни эмас, шу билан бирга касбий ижодкорлик методологиясидан хабардор бўлиш, ижодий тафаккурни ривожлантириш ва креатив характерга эга шахсий сифатларининг етарли даражада ўзлаштирилиши талаб этади.

Ижодкор шахснинг шаклланишини унинг ўзаро мос тарзда бажарилган

ижодий фаолият ва ижодий маҳсулотларни яратиш борасидаги ривожланиши сифатида белгилаш мумкин. Ушбу жараённинг суръати ва қамрови биологик ва ижтимоий омиллар, шахснинг фаоллиги ва креатив сифатлари, шунингдек, мавжуд шарт-шароит, ҳаётий муҳим ва касбий шартланган ҳодисаларга боғлиқ. Замонавий шароитда педагогнинг креативлик сифатларига эга бўлиши тақозо этади.

Сўнгги йилларда етакчи хорижий мамлакатларнинг таълим тизимида ўқувчи ва талабаларда креативлик сифатларини шакллантириш масаласига алоҳида, жиддий эътибор қаратилмоқда. Бунинг асослари Бронсон, Меррийман (2010 й.), Кен Робинсон (2007 й.), Фишер, Фрей (2008 й.), Бегетто, Кауфман (2013 й.), Али (2011 й.), Треффингер (2008 й.) ва б. томонидан олиб борилган кўплаб тадқиқотлар, уларнинг натижаларида кўриш мумкин.

Биргина Кен Робинсон томонидан 2007 йилда тайёрланган “Мактаб креативликни барбод этаптими?” номли видео лавҳани YouTube сайтида 5 млн марта томоша қилинган. Қолаверса, ўқитувчилар креативлик асосларини ўрганишга жиддий киришганлар (Бегетто, Кауфман, 2013 й.). Ўқитувчиларда педагогик фаолиятни креатив ёндашувни қарор топтиришга доир адабиётлар чоп этиляпти, Таълим департаменти томонидан тайёрланган видео лавҳаларга асосланувчи ноанъанавий дарслар ташкил этиляпти (Али, 2011; Таълим департаменти, 2013 й.).

Салмоқли амалий ишлар олиб борилаётганлигига қарамай, кўпчилик ўқитувчилар ҳали ҳануз шахс (ўзларида ҳамда талабаларда креативлик сифатларини қандай қилиб самарали шакллантириш тажрибасини ўзлаштира олмаяптилар.

Таълим тизимини бошқариш органлари ҳар йили таълим муассасаларида юқори самарадорликка эришишга эътибор қаратади. Ана шу мақсадда ўқув дастурини ишлаб чиқилади, янги ўқув дарсликлари яратилади. Бу эса ҳам талабалар, ҳам ўқитувчиларни касбий ўсишларига ёрдам беради. Олиб бориладиган амалий ҳаракатлар талабаларда ютуқларга эришиш, олға интилишга бўлган эҳтиёжни муайян аражада юзага келтиради, уларнинг ўқув-билиш қобилиятларини бир қадар ривожлантиришга ёрдам беради.

Бироқ, ўқув йилининг охирида келиб олий таълим муассасаларида талабаларнинг фанларни ўзлаштиришларида юқори даражадаги ижобий натижалар кузатилмаяпти. Кўплаб талабаларнинг таълим олишга нисбатан қизиқиши йўқолган. Бунинг натижасида ўқитувчилар ҳам аввалгидек завқу шавқ билан касбий фаолиятни ташкил этишни ўйлашмаяпти. Таълим тизимини бошқарувчи органлар таълим олишга нисбатан хоҳиш-истаги бўлмаган талабалар, бу каби таълим олувчиларни

ўқитишни истамаётган ўқитувчилар фаолиятини ўзгартириш борасида янгидан-янги чора-тадбирлар белгиланса-да, аҳвол ўзгаришсиз қолмоқда.

Бунинг сабаби нимада? Балки дарсларнинг аввалдан ўйлаб, режалаштирилиб қўйилиши талабалар учун қизиқ бўлмаётгандир, балки таълим мазмунининг муайян қолипга солинганлиги талабалар учун ҳеч қандай стимул бермаётгандир, рағбат билдирмаётгандир. Ўқув машғулотларининг аввалдан режалаштирилишидан воз кечиш, талабаларда танқидий, креатив тафаккурни шакллантириш ва ривожлантириш, уларни ижодий фикрлаш, янги ғояларни ўйлаб топишга мажбур қилиш таълим олишга бўлган муносабатни ўзгартириш, уларни ютуқларга эришишга рағбатлантиришда асосий омил бўлар. Ўқув машғулотларида етишмаётган омил – **креативлик** саналади²⁰¹.

Шахсда креативлик сифатларини ривожлантириш жараёнининг умумий моҳиятини тўлақонли англаш учун дастлаб “креативлик” тушунчасининг маънони тушуниб олиш талаб этилади. Кен Робинсоннинг фикрига кўра, “креативлик – ўз қийматига эга оригинал ғоялар мажмуи” (Аззам, 2009 й.) саналади. Х.Гарднер эса ўз тадқиқотларида тушунчани шундай изоҳлайди: “креативлик – шахс томонидан амалга ошириладиган амалий ҳаракат бўлиб, у ўзида муайян янгиликни акс эттириши ва маълум амалий қийматга эга бўлиши лозим”. Т.Эмебайл (1989 й.)нинг ёндашуви нуқтаи назаридан ифодаланса, креативлик “муайян соҳа бўйича ўзлаштирилган пухта билимлар билан бирга юқори даражада ноодатий кўникмаларга ҳам эга бўлиш” демақдир.

Кўплаб тадқиқотларда интеллект ва креативлик ўртасидаги алоқадорлик хусусида турлича қарашлар мавжуд. Бир гуруҳ тадқиқотчилар улар ўртасида ҳеч қандай боғлиқлик йўқ эканлигини уқтирсалар, иккинчи гуруҳ вакиллари креативлик ва интеллект даражаси бир-бирига боғлиқ эканлигини таъкидлайди (Ким, 2005 й.).

“Креативлик” тушунчаси ўзида маданий хилма-хилликни акс эттиради. Ғарб кишилари учун креативлик, умуман олганда, янгилик саналади. Улар креативлик негизида ноанъанавийлик, қизиқувчанлик, тасаввур, ҳазил-мутойиба туйғуси ва эркинлик мавжуд бўлишига эътиборни қаратадилар (Мёрдок, Ганим, 1993 й.; Штернберг, 1985 й.). Шарқликлар эса, аксинча, креативликни эзгуликнинг қайта туғилиш жараёни, деб тушунадилар (Хуи, Стернберг, 2002 й.; Рудович, Хуи, 1997 й.; Рудович, Йе, 2000 й.). Гарчи ғарблик ва шарқликларнинг креативлик борасидаги қарашлари турлича бўлса-да, бироқ, ҳар икки маданият вакиллари ҳам мазкур сифат ва унга эгаликни юқори баҳолайдилар (Кауфман, Лан, 2012 й.).

²⁰¹ Башина Т.Ф., Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009. – с.

Патти Драпеау нуқтаи назарига кўра креатив фикрлаш, энг аввало, муайян масала юзасидан ҳар томонлама фикрлаш саналади. **Ҳар томонлама фикрлаш** талабалардан ўқув топшириғи, масаласи ва вазифаларини бажаришда кўплаб ғояларга таянишни талаб этади. Бундан фарқли равишда **бир томонлама фикрлаш** эса биргина тўғри ғояга асосланишни ифодалайди. Мушоҳада юритишда масала юзасидан бир ва кўп томонлама фикрлашдан бирини инкор этиб бўлмайди. Бинобарин, бир ва ҳар томонлама фикрлаш креативликни шакллантиришда бирдек аҳамият касб этади. Яъни, топшириқни бажариш, масалани ечишда талаба ечимнинг бир неча вариантини излайди (кўп томонлама фикрлаш), кейин эса энг мақбул натижани кафолатловчи биргина тўғри ечимда тўхталади (бир томонлама фикрлаш).

Юқорида билдирилган фикрларга таянган ҳолда “креативлик” тушунчасини қуйидагича шарҳлаш мумкин: **Креативлик** (лот., инг. “create” – яратиш, “creative” – яратувчи, ижодкор) – индивиднинг янги ғояларни ишлаб чиқаришга тайёрликни тавсифловчи ва мустақил омил сифатида иқтидорлиликнинг таркибига кирувчи ижодий қобилияти.

Шахснинг креативлиги унинг тафаккурида, мулоқотида, ҳис-туйғуларида, муайян фаолият турларида намоён бўлади. Креативлик шахсни яхлит ҳолда ёки унинг муайян хусусиятларини тавсифлайди. Креативлик иқтидорнинг муҳим омили сифатида ҳам акс этади. Қолаверса, креативлик зеҳни ўткирликни белгилаб беради, “талабалар эътиборини таълим жараёнига фаол жалб этишни таъминлайди”.

Хорижий мамлакатларда барча соҳаларнинг мутахассислари каби ўқитувчилар ҳам ўзларида креативлик сифатлари мавжудлиги ва унинг даражасини аниқлаб боради. Бунинг учун улар Э.П.Торренс томонидан 1987 йилда асосланган ва шахснинг креатив тафаккурга эгаллигини аниқловчи тестдан ўтади. Мазкур тест шахс креативлиги ва унинг даражасини ижодий фаолиятни ташкил этишдаги фаоллик, тезкор фикрлаш, ўзига хос (оргинал)лик ва такомиллашганлик каби мезонлар бўйича баҳолаш имкониятини яратади. Ўқувчи томонидан тавсия этилган саволларга бериладиган жавоблар айнан мана шу тўртта мезонни қанотлантириши лозим²⁰².

Э.П.Торренс фикрича, “креативлик”²⁰³ тушунчаси негизда қуйидаги ёритилади:

- муаммони ёки илмий фаразларни илгари суриш;

²⁰² Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.

²⁰³ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 6.

- фаразни текшириш ва ўзгартириш;
- қарор натижаларини шакллантириш асосида муаммони аниқлаш;
- муаммо ечимини топишда билим ва амалий ҳаракатларнинг ўзаро қарама-қаршилигига нисбатан таъсирчанлик.

Креатив фикрлаш ҳар бир ижтимоий соҳада яққол акс этиши мумкин²⁰⁴. Ўқитувчининг ижодкорлиги эса у томонидан ташкил этилаётган касбий фаолиятни ташкил этишга ижодий (креатив) ёндашувида акс этади. Сўнгги йилларда ушбу ҳолат “педагогик креативлик” тушунчаси билан ифодаланмоқда.

Педагогик креативлик – педагогнинг анъанавий педагогик фикрлашдан фарқли равишда таълим ва тарбия жараёнини самарадорлиги таъминлашга хизмат қилувчи янги ғояларни яратиш, шунингдек, мавжуд педагогик муаммоларни ижобий ҳал қилишга бўлган тайёргарлигини тавсифловчи қобилияти.

Педагогнинг креативлик сифатларига эга бўлмаслиги туфайли талабалар ҳам қизиқарли ва ажойиб ғояларга эга бўлсалар-да, бироқ, уларни ифодалашда сусткашликка йўл қўяди. Бунинг сабабли таълим жараёнида қўлланилаётган методлар талабаларда эркин, мустақил фикрлаш кўникмаларини шакллантиришга хизмат қилмаслиги билан белгиланади. Муаллиф томонидан тавсия қилинган восита ва стратегиялар талабаларда креативликни ривожлантиришда ўқитувчилар учун қўл келади ҳамда талабаларда ўқув фанларини ўрганишга бўлган қизиқиш, интилишни ривожлантиради²⁰⁵.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности – СПб.: СПГУТД, 2006.
2. Башина Т.Ф., Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009.
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
4. Сиротюк Ф.С. Диагностика одарённости / Учеб.пособие. – М.: Директ-Медиа, 2014. – 1229 с.
5. Утёмов В.В., Зинковкина М.М., Горев П.М. Педагогика креативности: прикладной курс научного творчества / Учеб.пособие. – Киров: АНОО “Межрегиональный ЦИТО”, 2013. – 212 с.

²⁰⁴ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.

²⁰⁵ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4-5.

TA'LIMDAGI O'ZGARISHLARNING MADANIY ISTIQBOLI

Elmuradova Surayyo Abdijalilovna

SamDCHTI assistent o'qituvchisi

Zamonaviy jamiyat tabiatining o'zgarishi bilan butun ta'lim tizimiga qo'yiladigan talablar ham o'zgaradi. Ta'lim (o'zining ta'lim maqsadlaridan tashqari) zamonaviy axborot jamiyatida eng muhim ijtimoiy funktsiyalarni bajaradi (telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida sub'ektning uzluksiz ta'limi, sub'ektlar va ijtimoiy institutlar o'rtasidagi aloqa, axborot jamiyatining texnologik rivojlanishi va boshqalar) va shu ma'noda axborot jamiyatining yanada rivojlanishiga imkon beruvchi funktsional mexanizm sifatida ishlaydi. Bu talablarni faqat davlat va jamiyat tomonidan ta'lim-tarbiya madaniyatini rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan holda bajarish mumkin.

“Bizningcha ta'lim madaniyati - bu axloqiy tamoyillar asosida shaxsning (jamiyatning) ijtimoiylashuvi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojini qondirish yo'lida moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratishga yo'naltirilgan ijodiy faoliyatining jarayoni va natijasidir”. [1] Ta'lim madaniyati - bu jamiyatning hukmron madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, mavjud madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini o'zida namoyon qilishi bilan ifodalanadi.

Axborot jamiyatini shakllantirish jarayonida ta'limning mohiyatini, maqsadlarini va jamiyatdagi o'rnini sezilarli darajada o'zgartiradigan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Chunonchi, axborot qadriyat, rivojlanish resursi, birlashtiruvchi muhit, ijtimoiy hayot va inson mavjudligining ustun xususiyatiga aylanib bormoqda. Axborotning mavjudligi, ochiqligi axborot jamiyatining muhim xususiyatiga aylanib bormoqda. Axborot texnologiyalari yagona aloqa makonini tashkil qilib, buning natijasida dunyo o'zaro bog'liq bo'ladi. Buning natijasida global muammolar soni ortib bormoqda; shaxsning mas'uliyat darajasi ko'tariladi, uning faoliyatining yangi axloqiy qoidalari paydo bo'ladi. U mahalliy vaziyatda tezda mas'uliyatli va moslashuvchan qarorlar qabul qilishi, xilma-xillik va qadriyatlar to'qnashuvi sharoitida o'z faoliyatini loyihalashtira olishi kerak.

Shunday qilib, axborot jamiyatiga o'tish bilimlarni ishlab chiqarish va ularni uzatish va o'zlashtirish faoliyatida chuqur o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etadi va natijada ta'limning roli va o'rnini tubdan o'zgartiradi. Axborot jamiyatining rivojlanishi klassik o'rnini bosadigan yangi ta'lim paradigmasini shakllantirishning jadal jarayonlari bilan bog'liq. Yangi paradigma inson va uning ta'lim orqali rivojlanishi haqidagi fundamental g'oyalarni o'zgartirishga, ta'lim mazmunining intizomiylikdan tizimli modeliga o'tishga asoslanadi.

Avvalo, asosiy ta'lim maqsadi o'zgarish bo'lib, u endi bilimlarni o'qitishda emas, balki shaxsning o'zini o'zi belgilashi va o'zini o'zi anglashi uchun

sharoitlarni ta'minlashdan iborat. Ushbu bayonot murakkab tizim sifatida insonga va o'tmishga emas, balki kelajakka burilishi kerak bo'lgan bilimga bo'lgan munosabatning o'zgarishiga asoslanadi. Yangi ta'lim modelini amalga oshirish mezoni oldindan ko'rish yoki "kelajakni bilish" darajasidir. Yangi ta'lim paradigmasida o'quvchi pedagogik ta'sir ob'ekti emas, balki kognitiv faoliyat sub'ektiga aylanadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi dialogik munosabatlar ta'lim jarayonini tashkil etishning asosiy shakllarini belgilaydi. Natijada oddiy takror ishlab chiqarishdan uzoqda bo'lgan talabning faol, ijodiy faoliyati shakllanadi.

Zamonaviy odam nafaqat ma'lum bir bilimga ega bo'lishi, balki o'rganishi ham kerak: muayyan muammolarni hal qilish uchun kerakli ma'lumotlarni izlash va topish, bu muammolarni hal qilish uchun turli xil ma'lumotlar manbalaridan foydalanish va doimiy ravishda qo'shimcha bilimlarni olishi zarur.

Buni mashhur iqtisodchi Lester Tyurovning so'zlari bilan tasdiqlash mumkin: "Bilim uzoq muddatli barqaror raqobatdosh ustunlikning yagona manbaiga aylanadi, chunki qolgan hamma narsa raqobat tenglamasidan chiqib ketadi, ammo bilimdan faqat shaxslarning malakasi orqali foydalanish mumkin".[2] Zamonaviy jamiyat o'rgana oladigan, axborot bilan mustaqil ishlay oladigan odamlarga muhtoj - faqat ular axborot jamiyatida muvaffaqiyatga ishonishlari mumkin.

Zamonaviy jamiyatda ta'lim amaliyoti ta'lim texnologiyalari bilan almashtiriladi. Ta'lim ma'lum bilim va ko'nikmalarni o'rgatish emas, balki madaniyat sub'ektini shakllantirish jarayoni sifatida mavzulashtirilgan. Ta'lim jarayoni madaniy jarayon sifatida qaralganda, ta'limning zamonaviy kontseptsiyasi shakllantirilmoqda.

Zamonaviy ta'lim kontseptsiyasi tashqi maqsadlar bilan emas, balki ta'lim sub'ektining ehtiyojlari bilan belgilanadigan ta'limning yangi qadriyatlarini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Ta'lim jarayoni madaniy makonda rivojlanadi va ta'lim muassasalari bilan cheklanmaydi. U butun sotsializatsiya jarayonida sub'ektga hamroh bo'ladi, ta'lim muassasalari faqat madaniy qadriyatlar va me'yorlarning tarjimoni sifatida ishlaydi.

Talimdagi o'zgarishlarning madaniy istiqboliga quyidagi tendentsiyalar muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin:

- texnologiyalarni jadal yangilash, iqtisodiyot va jamiyatning rivojlanish sur'atlarini tezlashtirish, odamlarni tez o'zgaruvchan sharoitlarda hayotga tayyorlaydigan, ularga butun hayoti davomida bilim olish imkoniyatini beradigan ta'lim tizimi va ta'lim jarayonini shunday tashkil etish zaruriyatini keltirib chiqaradi;

- axborot jamiyatiga o'tish, madaniyatlararo o'zaro ta'sir ko'lamining sezilarli darajada kengayishi, bu shaxsning kommunikativ va axborot kompetentsiyasining alohida ahamiyatini belgilaydi;

- iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, raqobatning kuchayishi, malakasiz va past malakali ishchi kuchi hajmining qisqarishi, bandlik sohasida jadal tarkibiy o'zgarishlar, ishchilarning uzluksiz malakasini oshirish va qayta tayyorlash zarurligini dolzarblashtirish, ularning kasbiy harakatchanligini oshirish;

- axborot jamiyatida ta'limning rolini o'zgartirish, ta'lim makonini kengaytirish; ta'limning klassik modelidan voz kechish, axborot jamiyati voqeligiga yo'naltirilgan yangi ta'lim konsepsiyasini shakllantirish;

- zamonaviy madaniyatdagi antropologik burilish tufayli ta'lim qadriyatlarini o'zgartirish;

- zamonaviy ta'limni insonparvarlashtirish va shunga mos ravishda zamonaviy jamiyatni insonparvarlashtirish zarurati. [3]

Ko'pgina iqtisodiy rivojlangan va jadal rivojlanayotgan mamlakatlar barqaror va xavfsiz rivojlanish bo'yicha milliy doktrina, konsepsiya va dasturlarni ishlab chiqish bilan birga, milliy ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirishni o'zlarining strategik yo'nalishlaridan biri sifatida kiritayotgani bejiz emas. Yaponiyaning ta'lim tizimi yoshlar va kattalar aholisi orasida eng yuqori ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Yaponiyalik talabalar OECD xalqaro talabalarni baholash dasturida (PISA) ilmiy, matematika va o'qish savodxonligi bo'yicha eng yaxshi ko'rsatkichlarga ega. -- Ushbu ajoyib natijalar maktablarda va undan tashqarida ta'lim uchun qulay muhit, o'qituvchilarning yuqori sifatli ishtiroki va har tomonlama (yaxlit) ta'limni samarali olib borish uchun oilalarning kuchli yordami bilan bog'liq." [4]

Ta'lim madaniyatining yana bir jihati jamiyatlarning o'qituvchilar va o'qituvchilarga qanday qarashlari bilan bog'liq. Singapurning o'qituvchilarga bo'lgan hurmati, o'qituvchilarni tayinlash homiylik va korrupsiya bilan boshqariladigan kontekstlardan farqli o'laroq, yaxshi hujjatlashtirilgan. Finlyandiya islohoti o'qituvchilarga bo'lgan yuksak hurmatni ko'rsatadi, chunki islohot "ular uchun" emas, "ular bilan" amalga oshiriladi.[5]

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'limga dialektik yondashuv bu shaxsni jamiyatning bir qismi sifatida tarbiyalanishi ikki qarama-qarshi tizilma bir tomondan, - shaxs jamiyatning yagona elementi sifatida, alohida va ikkinchi tomondan, - jamiyatning umumiy, integral tizimi sifatida bir-biri bilan bog'lanishi va o'zaro ta'sirini ko'rib chiqishni talab etadi, - deb hisoblaymiz. Bunday qarama-qarshi tomonlar o'rtasidagi munosabatlarning eng muhim oraliq bo'g'inlari - bu oila ya'ni, boshlang'ich ijtimoiy-genetik guruh va keyingisi bu, - ta'lim sohasi, ya'ni mamlakat aholisining yangi avlodi va ularni kelgusi hayotga tayyorgarligining atributiv sohasidir. Ilmiy tadqiqotimizning tahliliy yo'nalishida biz ijtimoiy falsafa

nuqtai nazaridan bu ta'lim sohasini zamonaviy jamiyatning muhim tarkibiy va tashkiliy qismi sifatida o'rganib chiqdik.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. T.Primov. Ta'lim falsafasi yoki ta'lim-tarbiyaning metodologik masalalari. Toshkent. 2014. -51. 24-bet.

2. Inson kapitalining rivojlanishi va undan samarali foydalanish. <https://dutyfree58.ru/uz/chelovecheskii-kapital-eto-v-ekonomike-razvitie-chelovecheskogo-kapitala-i/>

3. Sovremennaya konsepsiya obrazovaniya <https://ido.tsu.ru/other res/ep/filosof umk/text/t1 3.htm>

4. OECD (2018), *Yaponiyada ta'lim siyosati: 2030 yilgacha ko'priklar qurish*, Ta'lim bo'yicha milliy siyosatlar sharhlari, OECD nashriyoti, Parij, p. 15. <https://doi.org/10.1787/9789264302402-en>¹⁸ OECD (2018), xuddi shu yerda. p. 16.

5. Fernando M. Reimers. Dadil ta'lim maqsadlari. <https://doi.org/10.1007/978-3-030-41882-3>

YOSHLARNI INSONIYLIK RUHIDA TARBIYALASH MASALALARI

Ergashev Komoljon

Farmasevtika ta'lim va tadqiqot instituti 1-bosqich talabasi

Yoshlarni insoniylik ruhida tarbiyalash avvalambor Vatandan boshlanadi. Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash, ularni Vatan ma'nosini teran anglab yetishga o'rgatish, vatanparvarlik – yuksak axloqiy tamoyil ekanini tushuntirish ma'naviy qadriyatlarimizning asosini tashkil etadi. Vatan mustaqilligini ta'minlashda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, alohida o'rin egallaydi. Shuning uchun ham vatanparvarlik tarbiyasi davr talabidir. Vatan himoyasiga tayyorlanayotgan yoshlarimizning har biri yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi shart. Biz yoshlarga har sohada o'zlarini namoyon qilishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Har bir yosh avlodni yuksak ma'naviyatli, ona-Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy an'analarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning ongi va shuurini zararli yot g'oyalardan himoyalashga alohida vazifa sifatida qaralmoqda. Insoniylik insonning qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqliligi to'g'risida, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart sharoitlar yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilishni ifodalovchi tushuncha bo'lib u oiladan boshlandi. Har bir farzand shaxsi oilada shakllanadi. Oila-barkamol avlod poydevori hisoblanadi,

oilada farzandlarni axloqiy-huquqiy jihatdan tarbiyalash, ayniqsa, adolat, burch, vatanparvarlikni shakllantirish, ona vatanni sevish hissini uyg'otish o'ta muhim ro'l tutadi. Inson tarbiya jarayonida yaxshi xulq-atvorga, odatlarga va aql-farosat omillariga ega bo'lgan bo'lsa, hayot saboqlarini shunchalik yaxshi anglaydi va yaxshi ishlarni amalga oshiradi, va aksincha, qanchalik tarbiyasi kam, hayotiy ko'nikmalari oz bo'lsa, bunday shaxs ba'zan bilib yoki bilmay yomon ishlarga qo'l uradi. Shuningdek yaxshi tarbiya, ba'zilar o'ylaganidek, bir soatlik yoki bir kunlik ish emas. Maqsadli tarbiya tarbiyachidan chidam, matonat, katta bilim va tajriba talab qiladi. Demak, har bir ota-ona va o'qituvchi tarbiyaga oid bilim va malakaga ega bo'lishi shart. Tarbiyaning asosiy maqsadi yoshlarni baxt-saodatli, o'z zamonining aziz, hurmatli va fidoiy kishisi qilib tarbiyalashdan iborat. Tarbiyaning ikki asosi bor: fazilatni qo'riqlaydigan go'zal axloq va yaramas yo'ldan, yomon ahvolga tushishdan saqlaydigan hushyorlik. Ota farzandini dunyo olovidan qanchalik himoya qilsa, oxirat olovidan undan-da ko'proq himoya qilmog'i kerak. Odoibu tarbiya vositasida yaxshi xulqlarni o'rgatish, yomonliklardan qaytarish, to'kin-sochinlikka odatlantirmaslik, ziynatga muhabbat uyg'otmaslik bilan ota farzandini oxirat olovidan asraydi. Yuksak ma'naviyatning yetakchi, asosiy tarkibiy qismlaridan biri bu – vatanparvarlikdir. vatanparvarlik deganda, insonning o'z ona yurtini qadrlab shu ona yurt uchun, uning qanday sohasi bo'lmasin o'z kuchi va g'ayratini ayamadan sarflashidir. Ma'naviy jihatdan yetuk bo'lmagan shaxs o'z Vatanning nima ekanini anglab yetmaydi. Bu tushunchasi "Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi". Demak, vatanparvarlik ma'naviy xislatlar bilan bir butunning ikki qismidir. Insofililik, iymon-e'tiqod, ishonch, mehmondo'stlik, hurmat-izzat, odillik, adolatparvarlik, saxiylik, sabr-toqatlilik, o'zi va o'zgalarni tushunish, sadoqatlilik, mehnatsevarlik, sidqidillik Vatanparvarlik tushunchasini o'zida namoyon etadi. Insonlar o'rtasida adolat va tinchlikni ta'minlash ham vatanparvarlik va insonparvarlikdir. Bu biz yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim bir vositasidir. Insonparvarlik normalari va burchlarining buzilishi o'zaro tenglikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy tarbiyani izdan chiqaradi. Insonparvar bo'lgan shaxs Vatan tuyg'usini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. U Vatandek ulug' ne'mat yo'qligini boshqalardan ko'proq tushunib yetgan bo'ladi.

Insonlarda haqiqiy iroda, oliy fazilatlar: e'tiqod, iqror va amal o'zaro bog'langanda, u kelajakka aql ko'zgusi bilan boqadi. Davlatiga, xalqiga mehr-muhabbat bilan qaraydi, kerak bo'lsa, jonini ham fido qiladi. Kelajakka ishonch, iymon, e'tiqod, diyonat mehr-shafqatli bo'lishga bog'liq. Aslida "Iymon alohida bir fazilat emas, balki insonga xos bo'lgan yetuk ma'naviyat normalarining muayyan

tizimidir. Iymonli odam komil inson bo'ladi. Demak, iymon komil insoniylikni ifodalovchi barcha fazilatlarni o'z ichiga oladi.

Yosh avlodda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamma davrlarda millatning ilg'or kishilari diqqat markazida bo'lib kelgan. Bilim ilmiy dunyoqarashning asosi. Dunyo dunyoqarashi paydo bo'ladi, qachonki odam olamni idrok eta boshlasa, uning hayotini ko'rsa va his etsa, qulaylik va noqulaylikdan xabardor bo'lsa. Undan keyin dunyoqarash kuzatiladi; inson dunyo haqida to'laqonli qarashlarga ega va u bilan bog'liqdir. Dunyoqarashga atrof-muhit sharoiti va ko'plab tashqi omillar ta'sir qiladi. Shunday ekan dunyoqarashning o'zi nima? Dunyoqarash - faqat insongagina xos xususiyat bo'lib, hayvonot dunyosi boshqa narsa, buyumlar va mavjudodlar uchun bu hol yotdir. Dunyoqarash kishilarning olam va uning o'zgarishi, rivojlanishi haqidagi ilmiy falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik diniy, qarashlari va tasavvurlari tizimidan iborat. Kishilar tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar to'g'risida qancha ko'p ma'lumotlarga, bilimga ega bo'lsa, ularning dunyoqarashi ham shu darajada mukammal va puxta bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, ilmiy dunyoqarash turlicha buladi. Turli kasb egalari turli xil dunyoqarashga ega bo'ladi. Dunyoqarashning ikkita darajasi mavjud. Birinchisini, kishilarning kundalik hayotiy amaliy tajribasi hamda kasbiy faoliyati asosida to'plangan bilimlar, tasavvurlar, qarashlar tashkil qilsa, ikkinchisini ilm-fan tufayli to'plangan nazariy bilimlar, g'oyalar yig'indisi tashkil etadi. Ularning ikkalasi bir-biri bilan uzviy bog'langan bulib, bir-birini to'ldiradi. Dunyoqarash ijtimoiy borliqning in'ikosidir. Diniy dunyoqarash mifologiya (afsona) negizida shakllangan va rivojlangan, voqelikning kelib chiqishi, rivojlanishi, istiqbolini xayoliy obrazlar, tasavvurlar va tushunchalarda aks ettiruvchi dunyoqarashdir.

Diniy dunyoqarashning xalq ongiga singib, qalbida chuqur ildiz otib ketishining boisi shundan iboratki, ular oddiy kishilarning ruhiyatiga moslab, ularning hissiyoti, tafakkuriga ta'sir etadigan va ko'p vaqtgacha esda saqlanib qoladigan yorqin obrazlar, afsona va rivoyatlar shaklida izhor qilinishidadir

Falsafiy dunyoqarash - bu olam haqidagi yaxlit va tizimlashtirilgan bilimlar yig'indisidir. Mifologik va diniy dunyoqarash hissiy a'zolarimiz orqali erishilgan ma'lumotlar asosida shakllansa, falsafiy dunyoqarash hissiy va aqliy a'zolarimiz tufayli ilm-fan yordamida to'plagan bilimlar yig'indisidir. Falsafiy dunyoqarash kishilarga tabiat, jamiyat, inson tafakkuri rivojlanishining umumiy qonuniyatlari haqida ma'lumot beradi. Shu bilan birga u insonni qurshab turgan olamni, dunyoni va uning taraqqiyot qonunlarini bilish mumkinligini, bilish esa murakkab, ziddiyatli jarayondan iboratligini ta'kidlaydi.

Muayyan dunyoqarashga ega bo'lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub'ektlarga nisbatan ma'lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan

zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to'laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas'uliyat tuyg'usiga ega bo'lishi uchun zamin yaratadi.

МЕТОДЫ ВЫДЕЛЕНИЯ ДНК ДЛЯ МОЛЕКУЛЯРНО-ГЕНЕТИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Эргашева Иродахон

МГЭИ им.А.Д.Сахарова БГУ. Беларусь. Минск. Бакалавр 4 курс

Савицкая Татьяна

МГЭИ им.А.Д.Сахарова БГУ. Беларусь. Минск. К.б.н. доцент

На сегодняшний день исследование ДНК, выделенной из объектов биологического происхождения, является общепринятой и наиболее информативной, и точной в медицинской практике при диагностике моногенных и мультифакториальных заболеваний, в судебно-медицинской и криминалистической экспертизе при идентификации личности, определении биологического родства, а также при научных молекулярно – генетических исследованиях.

Решающим преимуществом молекулярной диагностики является то, что объектом исследования является непосредственно молекула ДНК человека. Отсюда, диагностику можно проводить не только на тех тканях, где экспрессируется соответствующий ген, но практически на любых клетках организма, из которых можно выделить ДНК. ДНК-диагностика возможна практически на любой стадии развития организма, а не тогда, когда формируется соответствующий орган, ткань или система, где экспрессируется мутантный ген. Реальной становится досимптоматическая диагностика многих наследственных заболеваний, в том числе и пренатальная диагностика.

Известно, что исходным этапом, влияющим на результат молекулярно-генетического исследования и дальнейшую идентификацию биоматериала, является процедура выделения и очистки ДНК из биологического образца. С момента открытия структуры и свойств ДНК технологии её выделения непрерывно совершенствуются и модифицируются.

В настоящее время существует множество методов выделения ДНК, таких как фенол-хлороформная экстракция, выделение на спин-колонках, экстракция на магнитных носителях, ферментативная температурно-зависимая экстракция, выделение с помощью коммерческих наборов.

Основная задача этапа выделения – получение очищенных препаратов ДНК, которые в дальнейшем могут использоваться для решения широкого спектра вопросов, в частности реакции амплификации, обратной транскрипции, клонирования, секвенирования, гибридизации, синтезе ДНК и т. д.

Цель работы:

Изучить методы выделения ДНК и их применение при молекулярно-генетических исследованиях.

Для достижения поставленной цели в работе решались следующие задачи:

1. Охарактеризовать методы выделения ДНК.
2. Выделить ДНК разными методами.
3. Оценить количественный и качественный состав выделенной ДНК.

Применение молекулярно-генетических исследований, позволяет точно и быстро выявить вирусы и инфекции, мутации генов, вызывающих патологию, оценить риски наследственных и иных заболеваний. Для выделения нуклеиновых кислот из биологических материалов необходимо провести лизис клеток, инактивацию клеточных нуклеаз и отделение искомым нуклеиновых кислот от клеточной массы.

Методы выделения НК:

1. Технология фенол-хлороформного выделения
2. Выделение с помощью спин-колонок
3. Выделение на магнитных частицах
4. Технология ферментативного температурно-зависимого выделения
5. Выделение с помощью коммерческих наборов

Из всех известных способов выделения ДНК наиболее универсален и качественен по очистке «классический» метод, основанный на использовании органических растворителей (фенол/хлороформ).

Объектом нашего исследования является ДНК, выделенная из периферической крови, с помощью которого мы провели сравнение. В работе ДНК выделялась двумя методами. А именно, с помощью фенол-хлороформной экстракции и набором для выделения ДНК DNAzol™ Reagent, for isolation of genomic DNA from solid and liquid samples. Таким образом, с помощью двух методов была выделена ДНК из одного образца периферической крови. Оба метода подходят для выделения ДНК при молекулярно-генетических исследованиях.

Метод выделения ДНК с помощью DNAzol более быстрый, но он может быть использован только при большом количестве клеток в осадке. Т.к. молекулярно-генетическим лабораториям часто приходится работать с материалом, содержащим мало ядерных клеток, этот метод не может

заменить фенол-хлороформную экстракцию. Так же показатели чистоты от белковых примесей оказались ниже, чем при выделении другим методом.

Метод выделения фенол-хлороформной экстракцией более длительный, но также и более эффективный. Концентрация выделенной ДНК гораздо выше, так же показатели чистоты соответствуют рекомендованным значениям. Метод простой и надежный, существует в ряде модификаций, как и многие другие методы, хотя, с другой стороны, является и наиболее трудоемким.

KO'KPATAS MA'DANLI MAYDONINING GEOLOGIK TUZILISHI VA MINERAL TARKIBI

Ergashova Marjona Izatullayevna

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
Geologiya va muhandislik geologiyasi fakulteti talabasi*

Amirqulov Jalil Jumaboy o'g'li

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Geofizikaviy tadqiqot usullari kafedrasida stajyor-o'qituvchisi.*

Kirish. Bugungi kunda butun jaxonda bo'lgani kabi O'zbekiston Respublikasida ham mineral xom ashyo ba'zasi zaxiralarini yaratishda oltin xom ashyosi yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. Ma'lumki O'zbekiston oltin zahirasi va qazib olish bo'yicha dunyo mamlakatlari orasida birinchi o'ntalik davlatlar tarkibiga kiradi. Jahon bozorida, ayniqsa Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida oltinga bo'lgan ehtiyojning toboro oshib borishi, oltin xom ashyosi narxining o'sib borishiga olib kelmoqda, oltin qazib oluvchi davlatlarda oltin mineral-xom ashyosi bazasini kengaytirish ehtiyoji tug'ilmoqda. Bu xol o'z navbatida oltin qizib olish miqyosini kengaytirish va oltin bo'yicha geologiya qidiruv ishlarini rivojlanish zaruriyatini tug'diradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, To'rtquduq istiqbolli maydonida olib borilayotgan qidirish ishlariga asoslanib bajarilgan ushbu maqola ham aynan shu kunning dolzarb masalasi yechimiga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Golovanov I.M., Divaev F.K. O'zbekistondagi konlarining geologik va sanoat turlari. «Katlangan mintaqalarning metmatologiyasi va magmatik birikmalari». Universitet, 2000

Golovko A.V. va boshq. Karashohinsky murakkab lamproites Janubiy Bukantau (Markaziy Qizilqum). Geologiya va mineral resurslar, 2005

Golovko A.V. «Foydali qazilma konlarining shakllanish shartlari, taqsimlanishi va prognozi» xalqaro konferentsiyasi materiallari, Toshkent, 2006 yil.

Jo'raev A.D., Scriabin V.F. O'zbekistonda geokimyoviy qidiruvlarning samaradorligi. Prognoz va qidiruvlar. 2002 yil.

Tadqiqot metodologiyasi: Maydon qanotlarida Ko'kpatas ma'danli maydonining oltin-sulfidli formatsiyasi uchun xos bo'lgan oltin-ma'danli formatsiya namoyondalari ma'lum bo'lib, ularning istiqbolliligini o'rganish ishlari hozirgi paytda Ko'kpatas GQE tomonidan olib borilmoqda. Ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar natijalaridan ma'lumki, Ko'kpatas ma'danli maydonining ma'danli uchastkalaridagi sanoatbop ma'dan tanalari faqat qorashox svitasa jinslarida joylashgan bo'lib, uning quyi qismlari ahamiyatga molik ekanligi kuzatiladi. Qalinligi 300-400m bo'lgan yotqiziqlar ma'dan hosil bo'lishi uchun juda qulay bo'lib, (garchi ba'zi bir ma'dan tanalari ushbu satxdan yuqorida yoki pastda joylashgan bo'lsada) cho'kindi brekchiyalarning birinchi pachkasi ustida yotuvchi svita kesmasining bir qismi hisoblanadi.

To'rtquduq ma'dan maydoni mineral tarkibi va assotsiatsiyalariga ko'ra: kvarts - pirit - arsenopirit - sheyelit - oltin paragenetik assotsiatsiyalarga ajratiladi. Bu kabi ma'danlarning hosil bo'lishidagi dastlabki bosqichda yuzaga kelgan minerallar yuqori haroratda paydo bo'ladi. Ushbu jarayonda yuzaga kelgan oltin yuqori sifatli (890-920 o'rtacha 850) to'q sariq rangli, izometrik kristall shakliga ega bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot xududidagi asosiy geostruktura bo'lgan To'rtquduq maydoni Kokpatos ma'danli maydonining tabiiy strukturaviy-litologik davomidir. Shuning uchun ham Kokpatos ma'dan maydoni uchun qo'llanilgan qidiruv belgilari ushbu xududda xam qo'llanilgan.

Kokpatos ma'dan maydonida aniqlangan barcha eng yirik oltin sulfidli konlarning stratigrafik jixatdan Qorashoxo svitasiga, ayniqsa uning uchinchi pachkasiga va to'rtinchi pachkaning ustki qismiga to'g'ri kelishi ma'lum bir jihatdan qidiruv xududini chegaralovchi omildir.

Birlamchi pirit-arsenopiritli uyumlarning litologik jixatdan nazorat qilinishi regional metamorfizm natijasida turli darajada uglerodlashgan kvarts-xloritli, kvarts-seritsit-xloritli va kvarts-seritsitli slanetslarga asosli va o'rta tarkibli vulkanitlar bilan bog'langandir. Qorashoxo stratigrafik birligining boshqa litologik qismlari metasomatik ma'dan qatlamlarini o'zida qamrashi jixatidan yuqorida ta'kidlangan slanetslar turlariga qaraganda tobe ahamiyatga egadir

Ma'danlashuvning joylashuvi va ma'dan tanalar shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy strukturaviy omil sifatida diz'yunktiv strukturalarning tik yotishida xosil bo'lgan klivajlar, yer yorig'i bo'ylab yuzaga kelgan darzlanish zonalari va ustsurilma strukturalarning formatsiyalararo ajralishi kabilar birinchi planga

chiqadi. Uzilmali strukturalarning mayda burmalanishlar bilan, ayniqsa qatlamlarning fleksurasimon bukilishlari bilan muvofiq kelishi metasomatik jarayonlarning joylashishida ham muhim omil rolini o'ynaydi.

Intruziv tog' jinslari roli biroz cheklangan, ayrim xollarda metasomatik oltin sulfidli ma'danlashuvning qayta taqsimlanishida ma'lum bir darajada katalizator rolini o'ynashi mumkin. Geoximik tadqiqotlar jarayonida aniqlangan oltin va margimushning geoximik oreollari To'rtquduq maydonidagi asosiy qidiruv belgilari ekanligi ma'lum bo'ldi. Oltinning keskin oreollari Kokpatos va Qorashox svitalarining kontakt zonasi bo'ylab rivojlanganligi ma'lum bo'ldi. Polimetallar hamda molibden, vofram va kobaltlarning uncha keskin bo'lmagan oreollarini yuqori kontrastli magnit anomaliyalari bilan birgalikda Alitintov granidiorit shtokining ekzokontaktidagi rivojlanishi zonasi bilan bog'liqdir.

Kvars tomirlarida sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan ma'danli minerallar sof oltin va kumush, elektrum hamda ularning telluridlari hisoblanadi. Iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lmagan, lekin tarkibida oltin va kumush to'planadigan minerallardan pirit va arsenopirit ko'p uchraydi. Ikkinchi darajali, kam tarqalgan minerallardan galenit, sfalerit, antimonit, sheyelit, volframit va boshqalarni ko'rsatish mumkin.



1 - rasm. Kanava madan tanasi qisman oksidlangan temirli va tomir ko'rinishda sulfid minerallarining joylashuvi²⁰⁶

Xulosa. To'rtquduq ma'dan maydonida aniqlangan barcha eng yirik oltin sulfidli madanlarning stratigrafik jixatdan ko'kpatos va qorashoxo svitasiga to'g'ri kelishi ma'lum bir jixatdan qidiruv xududini chegaralovchi omildir.

Birlamchi pirit-arsenopiritli uyumlarning litologik jixatdan nazorat qilinishi regional metamorfizm natijasida turli darajada uglerodlashgan kvars-xloritli,

kvars-seritsit-xloritli va kvars-seritsitli slanetslarga asosli va o'rta tarkibli vulkanitlar bilan bog'langandir. Ma'dan shakllanishining gidrotermal bosqichida foydali komponentlar, shu jumladan oltin xam, qamrovchi jinslardan ajralib chiqadi va ma'dan tanalarida qayta yotqiziladi.

Janubiy Bukantovning istiqbolli maydoni sifatida To'rtquduq maydoni oltin ma'danlashuvi ma'dan kamrovchi jinslari hosil bo'lishiga ko'ra o'rtacha chuqurlik sharoitida hosil bo'lib, magmatik gidrotermal tipga tegishli va paragenetik xossalari kokpatas intruziv kompleksi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Kamrovchi jinslarda oltin va kumush munosabatlarining yuqori meyyoriy xolati, shuningdek Qarashaxo svitasining jinslarida oltin miqdorining yukoriligi, ma'dan qamrovchi jinslar tasirida gidrotermal qorishmaning boyishiga olib kelgan.

Xududning oltin konlarini va oltin ma'danlashuviga istiqbolli bo'lgan uchastkalarini o'rganish natijasida shundan dalolat beradiki, oltin ma'danlarining hosil bo'lishida asosiy ma'dan nazorat qiluvchi omillar bo'lib strukturaviy, magmatik va litologik omillar xizmat qiladi. Ma'dan qamrovchi jinslar bo'lib Qorashoxo svitasining vulqonogen cho'kindi jinslari - tufli qumtoshlar, alevrolitlar va slanetslardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bobrov A.V., Litvinov Yu.A., Divaev F.K. Chig'atoy kompleksining karbonat-silikatli jinslarida fazoviy aloqalar va olmos sintezi: $P = 4-7 \text{ GPa}$ $T = 1200-1700 \text{ o}$ S da tajriba natijalari // Geokimyo, 2004,
2. Golovko A.V. «Foydali qazilma konlarining shakllanish shartlari, taqsimlanishi va prognozi» xalqaro konferentsiyasi materiallari, Toshkent, 2006.

GENDER TENGLIKNING MILLIY MADANIYAT VA QADRIYATLARGA TA'SIRI

Esonaliyeva Gulnoza Dilmurod qizi

O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi

Jahondagi ilg'or mamlakatlar barqaror taraqqiyot, huquqiy demokratik davlat qurishdek oliy maqsadlar sari intilar ekan, eng avvalo, bu davlatda inson huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari himoyalangan bo'lishi, jamiyat a'zolarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalarida o'z faolliklarini namoyish qilishlari uchun tenglik, erkinlik asosida imkoniyat va sharoitlar yaratib berilgan bo'lishi lozim. Zero, erkinlik, mustaqillik, ochiqlik va oshkoralik, adolatlilik, teng huquqlilik kabi oliy qadriyatlar demokratik davlatning asosiy belgilari sifatida qayd etiladi.

Shuningdek, bugungi globallashuv va integratsiyalashuv davrida yana bir muhim omil –gender tengligi tamoyili ham huquqiy demokratik davlatning ustuvor indikatorlaridan biri bo'lib maydonga chiqmoqda . Gender tenglik –bu mamlakatning demokratik taraqqiyot darajasini ko'rsatuvchi belgilaridan biri hisoblanadi. Shu bois , ayni damda o'z kelajagiga , ertangi kuniga befarq bo'lmagan har qanday jamiyatda bu masalaga bo'lgan e'tibor dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Eng avvalo, “gender tengligi” atamasiga ta'rif beradigan bo'lsak , “gender” so'zi ingliz tilidan olingan so'z hisoblanadi. Mazkur tushuncha jamiyatda , oilaviy munosabatlarda erkaklar va ayollar o'rtasidagi teng huquqlilikka erishishni nazarda tutadigan tushuncha va qonuniy munosabatlarni anglatadi. Gender tengligi insonning shaxs sifatida paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to'siqlarni o'rganish va yo'q qilish , jumladan , hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat. Shu jihatdan olganda , gender tengligi tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalamaydi , balki, har ikki jins vakillarining o'z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi , hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ifoda etadi.

Gender tenglikning huquqiy asoslariga to'xtaladigan bo'lsak, bu borada 1948-yil BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi “ da²⁰⁷ belgilangan insoniy tamoyillar alohida ahamiyat kasb etadi. Unda ayol va erkaklarning tengligi alohida e'tirof etilib, Deklaratsiyaning 1-moddasida “ Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini va huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan , binobarin , bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak “, - deya ta'rif berilgan. Shuningdek , Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1966-yilda qabul qilingan “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida” gi xalqaro pakt ²⁰⁸hamda BMT Bosh Assambleyasining 2016-yildagi rezolyutsiyasi va boshqa qator hujjatlar mazkur sohaning huquqiy-me'yoriy asoslari sifatida xizmat qilmoqda. Bu islohotlarni moliyalashtirish maqsadida “gender byudjeti” tushunchasi ham amalga kiritilib , bugungi kunda barcha demokratik davlatlarda tashkil etilgan va ularga katta mablag'lar ajratilib borilmoqda.

Yuksak huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan mustaqil davlatimiz ushbu xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan holda xalqaro huquqning umume'tirof etgan talablaridan kelib chiqib o'z milliy qonunchiligida ayollar va erkaklar tengligi masalalariga jiddiy

²⁰⁷ . Shavkat Mirziyoyevning xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga bagi'shlangan yig'ilishdagi nutqi <https://review.uz/post/shavkat-mirziyoyev>

²⁰⁸ PF-87-son 07.03.2022. Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/uz/docs/-5899498>

ahamiyat bermoqda . Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday deydilar: “Biz o‘z faoliyatimizning ilk kunlaridan boshlab gender tengligini ta‘minlash , munis va mo‘tabar ayollarimizning og‘irini yengil qilish , huquq va manfaatlarini ta‘minlash, iqtisodiy , ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish masalasini davlat siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida belgiladik.”²⁰⁹Jumladan , 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” gi qonun mamlakatimizda gender tengligini ta‘minlashga qaratilgan yaxlit va asosiy qonun hujjati sanaladi. Ushbu qonun bilan ilk bor milliy qonunchiligimizda “gender” tushunchasiga ta‘rif berilgan .Qonunda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, ushbu sohada davlat boshqaruvi mexanizmlari belgilandi.Xususan , xotin-qizlarning gender kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Gender tengligini ta‘minlash masalalari bo‘yicha komissiya tashkil etildi. Shu bilan birga “ 2020-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi “ loyihasining ishlab chiqilganligini ham alohida ta‘kidlash joiz.

Ushbu qonunchilik hujjatlarining ijrosiga monand jamiyatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish borasida ham samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Ayollar va erkaklarning teng huquqliligini ta‘minlash , xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi rolini oshirish , ayollarni turli mas‘ul lavozimlarga tayinlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2022-yil 7-mart kuni qabul qilingan “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanda rivojlantirish to‘g‘risida”gi²¹⁰Prezident farmonida ham bu masalalarga alohida to‘xtalib , bu borada “ Davlat boshqaruvida xotin-qizlar faolligini oshirish dasturi” tasdiqlandi. Umuman olganda , bugungi kunda mamlakatimizda gender tenglikni ta‘minlash , xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy hayot jarayonlariga faol jalb etish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida jamiyatimizdagi ayol-qizlar ham mustaqil davlatimizning rivoji uchun turli sohalarda o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

Mamlakatimiz siyosatida gender tenglikka erishish strategiyasi milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. Bu sohadagi islohotlar eng avvalo, xalqimizning asrlar davomida shakllangan milliy madaniyat va qadriyatlariga sadoqat ruhida amalga oshiriladi.

Shuningdek , barchamizga ma‘lumki mamlakatimiz milliy madaniyat va urf-odatlarida sharqona ruh o‘z aksini topgan. Ya‘ni unga ko‘ra oila muqaddas dargoh hisoblanishi , oilada erkak va ayollarning huquq va majburiyatlari , vazifalari ,

²⁰⁹ O‘RQ-562-son 02.09.2019.Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida <https://lex.uz/docs/-4498499>

²¹⁰ Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 14.

oilaning boshi sifatida erkaklarga alohida ehtirom masalalari shular sirasiga kiradi. Bundan tashqari bu boradagi milliy qadriyatlarimiz sirasiga : an'anaviylik, qadriyatlarga sodiqlik , sharqona mentalitet , oila , nikoh , oilaviy munosabatlarning boshqaruvida erkaklarning roli, unga jamiytdagi asosiy qatlam sifatida qarash kabi xususiyatlar ham kiradi. Ushbu munosabatlarni yanada sayqallanib , hozirgi qiyofasi shakllangunga qadar bo'lgan jarayonlarda bosqinlar , mustamlakachilik tuzumning ta'siri mavjud.

Shu o'rinda bir narsani alohida ta'kidlash joizki , gender tengligi borasidagi islohotlar xalqimizning azaliy urf-odat va qadriyatlariga qarshi chiqish, ayollarning huquq va manfaatlarini ustun qo'yishni anglatmaydi. Aksincha , ayollarga , xotin-qizlarga ma'lum bir faoliyatda ularning imkoniyati cheklangan , ularning qo'lidan kelmaydi , ularga faqatgina oilada uy-ro'zg'or ishlari, farzand tarbiyasi bilan shug'ullanish kabi ishlargina xos degan noto'g'ri qarashlarni bartaraf etib, ijtimoiy, iqtisodiy , siyosiy , davlat boshqaruvi , madaniy-ma'rifiy , shuningdek sport sohalarida o'z qobiliyatlarini , imkoniyat va salohiyatini namoyish etishlari uchun imtiyozlar va shart-sharoitlar yaratib berishni nazarda tutadi.

Hayot shiddat bilan o'zgarayotgan davrda jamiyat ham taraqqiy etar ekan, insonlar ham zamon bilan hamnafas bo'lishga harakat qilashadi. Bu ayollarga ham tegishlidir. Endilikda ayollar faqat uy-ishlari, bola tarbiyasi bilan shug'ullanib, "yo oila, yo ish" ,- degan fikrlar gender tengligiga to'sqinlik qiladi. Ko'rib turibmizki, rivojlanishning eng o'tkir muammolaridan biri tenglikka erishish, ayniqsa, jamiyatda ham, oilada ham erkak va ayolning gender tengligiga erishish eng og'ir masalalardan biridir. Ming afsuski, xotin-qizlar ko'pincha rivojlanish jarayonidan chetda qoladi va hatto unda ishtirok etgan taqdirda ham juda katta qiyinchiliklar va hatto yo'qotishlar (bunda ko'pgina hollarda oilaviy nizolar, ajrimlar) evaziga erishadi. Mazkur holatni oldini olishda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" gi ²¹¹ qonunning 25-moddasida Uy mehnati jins bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas, u ayollar va erkaklar tomonidan teng darajada amalga oshiriladi"-deb belgilangan. Aynan 21-modda esa, mehnat munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini belgilagan.

Binobarin, bizning boy madaniyatimiz va qadriyatlarimiz hamisha ayollarni, xotin-qizlarni e'zozlaydi. Ularni ilm-fanga , ma'rifatga chaqiradi. Xotin-qizlarimizning faqat oilada uy-ro'zg'or ishlari bilan shug'ullanishlari kerak, degan qarashlar esa go'zal urf-odat va qadriyatlarimizning noto'g'ri talqin qilinishidir. To'g'ri , dinimizda bu borada majburiyatlar masalasida ikki xillik mavjud, lekin

²¹¹ Кримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. - Т. Маънавият, 2008. 111-б.

o'zaro hurmat va huquqlardan foydalanish masalalarida tenglikni ko'ramiz. Bizning jamiyatimizda gender tengligi deganda erkak va ayollarning bir xil huquq va majburiyati tushunilmaydi. Bu joyda din vaziyatga oydinlik kiritadi. Erkak oilaning boshlig'i va asosiy majburiyat hamda vazifalarni bo'yniga oladi. Lekin bu ayolni huquqlardan cheklamaydi. Islomda ayolga nisbatan ojiza deb qaraladi va o'g'ir majburiyatlardan xalos etiladi (oila boqish kabi vazifalar).

Zero, xotin-qizlarga keng imkoniyatlar yaratilishi natijasida bugungi kunda mamlakatimiz rivojining turli sohalarida yurtimiz ayol-qizlari o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Shu o'rinda savol tug'ilishi mumkin: "Nima uchun gender tengligi masalasida faqat ayollarga keng imkoniyatlar yaratishga e'tibor berilmoqda?"

To'g'ri hozirda yurtimizda bu yo'nalishda ayollar faolligini oshirishga ko'proq e'tibor berilmoqda. Buning o'ziga yarasha sabablari bor - bizning jamiyatimizda erkaklar hamisha yetakchi mavqeda va faol bo'lib kelganlar. Ammo ayollar masalasida hali qilinadigan ishlar ko'p. Shu bois gender tengligi bilan bog'liq loyihalar bugungi kunda ko'proq ayollarning faolligini oshirishga yo'naltirilgan. Tabiiyki, bu yo'nalishdagi ishlar bir tizimga tushgach gender tenglik loyihalari erkaklar va ayollar uchun teng muhit yaratishda davom ettiriladi.

Ammo tanganing ikki tarafi bo'lganidek, hali-hanuz ayollarning o'rni oshxonada, ularga oiladagi vazifalarni amalga oshirishning o'zi yetarli deb, ularga ta'lim olishlarida, ijtimoiy hayot jarayonlarida faol ishtirok etishlarida to'sqinlik qilish holatlari, ularning zo'ravonlik qurboni bo'lishiga afsuski, guvoh bo'lib qolamiz. Ayollarga zo'ravonlik qilish, ularning huquq va erkinliklarini kamsitish, hattoki qo'l ko'tarish muqaddas dinimizda ham ta'qiqqlangan. Shuningdek, ta'lim olish borasida hadislarimizda "Ilm olish har bir musulmon ayol va erkak uchun farz" deb yoziladi.

Shunday ekan, gender tenglikni ta'minlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish uchun quyidagi qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- birinchidan, gender tengligi masalasida aholining dunyoqarashini rivojlantirish;

- ikkinchidan, bu borada milliy urf-odat va qadriyatlarimizning noto'g'ri talqin qilinishining oldini olish;

- uchinchidan, mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlar to'g'risida xalqimizning bilimlarini oshirish, ularga bu bo'yicha ma'lumotlar yetkazishni kengaytirish;

- to'rtinchidan, xotin-qizlarni jamiyatda, ijtimoiy hayotda o'z faolliklarini namoyish qilishlari uchun ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash tizimini yanada jadallashtirish.

Xulosa qilib aytganda , gender tengligini ta'minlash , insonlarning jinsiy mansubligidan qat'iy nazar ularga huquq va erkinliklarini , ijtimoiy hayotda o'z faolliklarini namoyish qilishlari uchun teng imkoniyat va sharoit yaratib berish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy omillaridandir. Zero , bu omil zamonaviy ezgu qadriyat sifatida milliy madaniyatimizning ajralmas bir bo'lagiga aylanmog'i darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi
<https://constituion.uz/oz/pages/humanrights>
2. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt
<https://www.yumpu.com//xx/documents/view/27980293>
3. Shavkat Mirziyoyevning xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqi <https://review.uz/post/shavkat-mirziyoyev>
4. PF-87-son 07.03.2022. Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/uz/docs/-5899498>
5. O'RQ-562-son 02.09.2019. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida <https://lex.uz/docs/-4498499>

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASH YO'LLARI

Xodjiyeva F.O.

Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti

Esanova A.N.

Navoiy davlat pedagogika instituti 2- kurs magistranti

Globalashgan bugungi kunda yoshlar tarbiyasiga befarq va loqayd bo'lgan millat va mamlakatlar yer yuzidan nomi va o'zi yo'qolib ketishiga sabab bo'lsa, yoshlarni zamonaviy milliy g'oya ruhida tarbiyalagan millat bardavom yashaydi. Shu sababli, xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarimizning hayotga ongli munosabatlarini shakllantirish, yon-atrofdagi yuz berayotgan voqealarga dahldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch osoyishta hayotimizga xavf tug'dirish mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish vazifasi muhim masala hisoblanadi. Bu vazifani bajarish asosan pedagog kadrlarning zimmasiga tushadi.

Respublikamiz aholisining 60 foizdan ortig'i yoshlar ekanligidan kelib chiqib, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish va ularning manfaatlarini har tomonlama huquqiy himoya qilishga alohida e'tibor berilib, qator maqsadli chora-tadbirlar ro'yobga chiqarilmoqda. Davlatimiz rahbari: "Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda", deb alohida qayd etdi[1].

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, millat tarbiyachisi bo'lmish bo'lajak pedagoglarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash barcha davrlarda muhim ijtimoiy talablardan biri bo'lib kelgan, ammo bugungi sifat o'zgarishlar ro'y berayotgan bir davrda bu masalaning dolzarbligi yanada kuchayib talab ortib bormoqda.

Bo'lajak o'qituvchilar ertangi kun pedagoglari sifatida ta'lim bilan birgalikda tarbiyaviy jarayonlarni ham tashkil etishga mas'ul hisoblanadi. Tarbiya murakkab jarayon hisoblanib uni samarali tashkil etish va olib borishda pedagogdan kompetentlik talab etiladi:

- tarbiya mazmuni va yo'nalishlarini bilish;
- tarbiya qonuniyatlari va tamoyillarini bilish;
- tarbiya paradigmalarini bilish;
- oquvchi yoshlarga akmeologik yondashuvni bilish;
- tarbiya jarayonini tashkil etishning samarali metodlarini bilish;
- tarbiya jarayonini modellashtirish kabi kompetensiyalariga ega bo'lishni talab etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyachilik faoliyatga tayyorlashda talabalarning amaliyot davrida maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish bo'yicha bilim, ko'nikmalarini oshirish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda amaliyotchi talabalarning amaliyot dasturida quyidagi vazifalar belgilab beriladi:

- Umumiy o'rta ta'lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida NIZOM;

- maktab pedagogika kengashi majlisi muhokamasiga kiritilgan yillik ma'naviy-ma'rifiy ishlar mazmuni;

- maktab ichki tartib va odoq-axloq qoidalari;

- maktabning xotin-qizlar qo'mitasi boshlang'ich tashkiloti faoliyati, xususan qizlar o'rtasida ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarini zamonaviy talablarga mos tashkil etish;

- maktab huzuridagi "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorligi Jamoat kengashining tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini oshirish borasidagi faoliyati tahlili va istiqboldagi vazifalari;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar;

- "Ma'naviyat soati"ni tashkil etish;

- "Ma'naviyat va ma'rifat" xonasi bilan tanishish.[2]

Talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda pedagogik ta'sir usullaridan foydalanish aniq tamoyillarga rioya qilishga asoslangan. Bu tamoyillar sirasiga quyidagilar kiritish mumkin:

- pedagogik optimizm;
- o'quvchilarga hurmat;
- o'quvchining ruhiy holatini tushunish;
- o'quvchi tabiatini tashqi xususiyatlari va sabablarini ochish;
- o'quvchining taqdiri bilan qiziqish.[3]

Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullaridan samarali foydalanishning eng muhim sharti o'qituvchining insonparvarlik nuqtai nazaridan yondashishini talab etadi.

Bo'lajak pedagoglarni tarbiyachilik faoliyatga tayyorlashda ularning kommunikativ va nutq qobiliyatlarini o'stirishning ahamiyati katta, chunki ular tarbiyaviy ta'sir etishda muloqotni nutq orqali amalga oshiradilar. Kommunikativlik o'qituvchining pedagogik faoliyatida eng muhim kasbiy qurol hisoblanadi. Kommunikatsiya orqali o'qituvchi o'quvchilarga ijobiy ta'sir o'tkazishi, o'zaro munosabatlarini faol tashkil qilishi, muayyan bir maqsadga muvofiq funksiyasini bajarishi muvaffaqiyatli kechadi. Noto'g'ri pedagogik muloqotdan o'quvchida qo'rquv, o'z kuchiga ishonchsizlik paydo bo'ladi, uning diqqat-e'tibori, ishchanlik harakati susayadi, nutq dinamikasi buziladi, mustaqil va erkin fikrlash qobiliyati pasayadi. Rus pedagog olimi V.D.Suxomlinskiy o'qituvchining "...maktab hovlisida gapirgan har bir so'zi puxta o'ylangan, aql va mulohazalarga boy, ma'lum bir tarbiyaviy maqsadga qaratilgan bo'lishi kerak"[3] deb ta'kidlaydi. O'qituvchining har bir so'zi olimning fikricha, nafaqat o'quvchi qulog'iga aytiladi, balki uning qalbiga ham qaratilgan bo'lishi shart. O'qituvchining shirinsuxanligi, ochiq chehrali bo'lishi, samimiy muomalasi muloqotda ijobiy natijalarga erishish kalitidir.

Demak, talabalar yuqorida keltirilgan bilimlarni o'zlashtirish asnosida kelgusida maktablarda o'quvchi-yoshlar bilan tarbiya ishlarini samarali tashkil etishda tarbiyachilik faoliyatga tayyorlanadilar.

Hammamiz yaxshi tushunamiz, agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Kelajakdagi ma'naviyatli- ma'rifatli yoshlarni tarbiyasi esa etishib kelayotgan yosh pedagog kadrlarimiz qo'lida. Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning maqsadi malakali raqobatbardosh mutaxassislarni yetishtirishga qaratilgan. Bu esa har bir davlatning asosiy vazifasi va "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" kontsepsiyasini amalga oshirish omili bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Жисмоний ва маънавий етук ёшлар – эзгу мақсадларимизга етишда таянчимиз ва суянчимиздир // Халқ сўзи. – 2017. – 1 июль.

2. Umumiy o'rta ta'lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida NIZOM (Xalq ta'limi vazirining 2020-yil 30-iyuldagi 180-son buyrug')

3. Р.Ишмухаммедов, А.Абдуқодиров, А. Пардаев. Тарбияда инновацион технологиялар (таълим муассасалари тарбиячи-ўқитувчилари ва гуруҳ раҳбарлари учун амалий тавсиялар) –Т.: “Истеъдод, 2010.-141б.

ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА ЁШЛАРДА МАФКУРАВИЙ ИММУНИТЕТНИ КУЧАЙТИРИШ ЗАРУРИЯТИ

Юлдашева Матлуба Мунаваровна

Қўқон давлат педагогика институти доценти

Абдуманнонова Шахзода Хуршидjon қизи

Қўқон давлат педагогика институти талабаси

Ҳозирги даврда инсоният ривожланишининг асосий хусусиятларидан бири бу глобаллашув жараёнининг кучайиб боришидир. Бизга маълумки, турли кўриниш ва шакллардаги маънавий таҳдидлар, асосан, ёшларга қаратилмоқда. Албатта, бунинг асосий сабаби ёшларнинг жамиятдаги энг фаол қатлам экани, турли ғоялар, таъсирларга берилувчанлиги билан изоҳланади. Айни пайтда, ёшлар онгини забт этиш ҳар қандай мафкуравий куч учун стратегик аҳамиятга эга. Зеро, мамлакатнинг истиқболи айнан ёшларнинг эҳтиёжи, манфаатлари ва улардан келиб чиқувчи мақсадлари билан белгиланади. Шунинг учун ҳам биринчи Президентимиз И.А.Каримов: “Бундай тажовузкорона ҳаракатлар бизлар учун мутлақо бегона мафкура ва дунёқарашни аввало беғубор ёшларимизнинг қалби ва онгига сингдиришга қаратилгани билан айниқса хатарлидир”²¹², - деб таъкидлайди.

Умумий маънода, глобаллашув бу замонавий илмий техника тараққиёти асосида, техника, технологиялар ҳамда халқлар орасида алоқаларнинг ривожланиши негизида бутун жаҳонда ягона сиёсий, иқтисодий маконнинг шаклланиш жараёнидир.

Маълумки, ҳар қандай жамиятда ёшлар қатлами муҳим ўрин тутди. Шунинг учун ёшлар қатлами фалсафа, тарих, сиёсатшунослик, социология, ахлоқшунослик, эстетика, антропология, тиббиёт, ҳуқуқшунослик, педагогика, демография ва бошқа фанларнинг тадқиқот объекти ҳисобланади. Ҳозирги даврда ёшларнинг дунё миқёсида маънавий-

² Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. - 112 б.

мафкуравий хуружларнинг объектига айланиб қолиши сабабларини билиш учун, энг аввало, уларнинг жамият социал структурасида тутган ўрни, “ёшлар” категориясининг ижтимоий-фалсафий мазмунини аниқлаш муҳим методологик аҳамиятга эга.

Зеро, биринчи Президентимиз Ислон Каримов таъкидлаганидек, “глобаллашув” атамаси бугунги кунда илмий-фалсафий, ҳаётий тушунча сифатида жуда кенг маънони англатишини таъкидлаш лозим. Умумий нуқтаи назардан қараганда, бу жараён мутлақо янгича маъно – мазмундаги хўжалик, ижтимоий-сиёсий, табиий-биологик глобал муҳитнинг шаклланиши ва шу билан бирга, мавжуд миллий ва минтақавий муаммоларнинг жаҳон миқёсидаги муаммоларга айланиб боришини ифода этмоқда”²¹³.

Бу жараён минтақалар, инсон ва жамият фаолиятининг кўпгина соҳаларини қамраб олмоқдаки, онгли равишда унинг сиёсий оқибатлари кейинги ўринга сурилиб, асосан иқтисодий жараён тарзида талқин қилинмоқда. “Айни пайтда ҳаёт ҳақиқати шуни кўрсатадики, - деб ёзади И.А.Каримов, - ҳар қандай тараққиёт маҳсулидан икки хил мақсадда – эзгулик ва ёвузлик йўлида фойдаланиш мумкин. Агарки башарият тарихини, унинг тафаккур ривожини тадрижий равишда кўздан кечирадиган бўлсак, ҳаётда инсонни камолотга, юксак марраларга чорлайдиган эзгу ғоя ва таълимотлар билан ёвуз ва зарарли ғоялар ўртасида азалдан кураш мавжуд бўлиб келганини ва бу кураш бугун ҳам давом этаётганини кўрамиз”².

Глобаллашув жараёни бошқа жиҳатдан инсонга мафкуравий-маънавий таҳдид ўтказишнинг ўткир қуролига айланиб бормоқда, бу таҳдид инсон эркинлигини бўғиш, фикрий мутеликни қўллаб-қувватлаш; турли-туман жозибадор шиорлар орқали унинг руҳиятига мафкуравий, ғоявий ва информацион хуружлар кўринишида дахл қилмоқда, халқларнинг миллий ва диний илдизларига хавф солмоқда, энг хавфлиси, ёт ғоя ва зарарли қараш-ларни ёшлар қалби ва онгига сингдиришга уринмоқда. “Нега деганда, ин-сониятнинг кўп минг йиллик тажрибаси шундан далолат берадики, дунёдаги зўравон ва тажовузкор кучлар қайси бир халқ ёки мамлакатни ўзига тобе қилиб, бўйсундирмоқчи, унинг бойликларини эгалламоқчи бўлса, авваламбор, уни қуролсизлантиришга, яъни энг буюк бойлиги бўлмиш миллий қад-риятлари, тарихи ва маънавиятидан жудо қилишга уринади”³.

Ватанимиз мустақилликка эришганидан кейин ижтимоий-сиёсий ҳаётимизда туб ўзгаришлар рўй берди, халқимиз табиати ва дунёқарашига

³ Ўша асар. -11 б.

ёт бўлган мустабидлик мафкураси барҳам топди. Президентимиз Илом Каримов таъкидлаганидек, ўз умрини ўтаб бўлган эски мафкура ўрнида янги ижтимоий муносабатларни, халқнинг асл мақсад-муддаоларини ифода этувчи илғор ва бунёдкор мафкура шаклланимас экан, жамиятда ғоявий вакуум – бўшлиқ юзага келади. Бундай бўшлиқ илғор, жамият тараққиёти учун зарур ғоялар билан тўлдирилмаса, уни халқ ҳаёти учун ёт ва бегона бўлган мафкуравий таъсирлар эгаллаб олиши мумкин. Шунинг учун баркамол авлодни четдан келадиган ёт ва зарарли ғояларга қарши тура оладиган, мафкуравий иммунитетни кучли ёшлар этиб тарбиялаш бугун ҳар биримизнинг бурчимизга айланмоғи керак.

Бизга маълумки, ғоявий бўшлиқ эски тузумдан янги тузумга ўтиш жараёнида олдин ҳукмронлик қилиб келган мафкура ўтмишга айлангач, тараққиёт талабаларига мос равишда унинг ўрнини босадиган илғор ғоявий тизимнинг ҳали шаклланимаган ҳолатидир. Бундай шароитда турли хил мафкуралар ушбу ҳудудга ўз таъсир доирасини ўтказишга уринади. Табиатда ҳам, жамиятда ҳам вакуум, бўшлиқ бўлиши мумкин бўлмаганидек, мафкура соҳасида ҳам бўшлиқ вужудга келишига асло йўл қўйиб бўлмайди.

Дарҳақиқат, “эътибор бериб қарайдиган бўлсак, жамият ҳаётининг барча соҳаларида савдо-сотиқ муносабатлари устувор бўлмоқда, “емак ва томошалар” шиори остида инсонларда истеъмолчилик руҳияти авж олдирилаяпти, “инсоннинг ҳамёни қаерда бўлса, унинг қалби ҳам ўша ерда” деган ҳалокатли ғоя сингдирилмоқда. Молпарастлик ва худбинликнинг шу тариқа ҳаммабоп қадрият сифатида тиқиштирилиши эса маънавиятни қашшоқлантириб, маданий гегемония ўрнатиш учун қулай замин яратиши табиийдир”²¹⁴.

Айниқса, бутун дунёда, жумладан, информация оламида, глобаллашув жараёни кечаётган ҳозирги пайтда, яъни лўнда қилиб айтганда, жаҳоннинг бир чеккасида содир бўлаётган воқеалар ва ҳаракатларнинг тез тарқалиб кетаётганини ҳисобга олганда, бу масаланинг аҳамияти ва долзарблиги янада ортиб бормоқда,⁵ деган эди И.А.Каримов.

Мустақилликни мустаҳкамлашнинг муҳим шартларидан бири бу ғоявий тарбияни кучайтиришдан иборатдир. Бу борада аҳолида ёт ва зарарли ғояларга қарши курашиш учун мафкуравий иммунитетни шакллантириш зарур. Албатта, мафкуравий иммунитетни шакллантириш кишилар онгига бир хил ғояни зўр бериб тиқиштириш эмас, балки

²¹⁴ Аббосхўжаев О, Умарова Н., Қўчқоров Р. Мафкура полигонларидаги олишувлар. – Тошкент: Akademiya, 2007. – Б. 48-49.

⁵ И.А.Каримов. жамиятимиз мафкураси халқни-халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этсин.-Т.: “Ўзбекистон”. 1998, 7-бет.

одамларга оқ-қорани ажратиш, зарарли ғояларга қарши ҳушёр ва огоҳ бўлиш хусусиятларини тарбиялаш демакдир. Жамият, миллат ўз ғоясида мустаҳкам тура олса, ғоявий таҳдидлардан қўрқмаса, бундай миллатни енгиш мумкин эмас. Аксинча, жамият ичида ғоявий парокандалик, бўлинишлар бўлса душманларга, уларнинг ёт мафкураларига йўл очиб беради. Бундай миллатни енгиш, мустамлака қилиш осон кечади. Шунинг учун барқарорлик ва хавфсизлик жамиятнинг онглигига, англаган тўғри тушунча ва билимларга фаол амал қилишга, фикрий, ғоявий бирлигига, булар эса хавфсизлик маърифатига таянади.

“Иммунитет”-сўзининг маъноси “Ўзбекистон миллий энциклопедиясида қуйидагича берилган: (лотинча-бирор нарсадан халос, озод бўлиш, қутилиш,-организмнинг доимий ички барқарорлигини сақлаш, унинг турли хусусиятлари ва таъсиридан ҳимояланиши, қаршилиқ кўрсатиши, резистентлиги.) “Фалсафа қомусий луғатида”да –мафкуравий иммунитет-шахс, ижтимоий гуруҳ, миллат, жамиятни турли зарарли ғоявий таъсирлардан ҳимоя қилишга хизмат қиладиган ғоявий- назарий қарашлар ва қадриятлар тизими”⁶, дейилади.

Шундай қилиб “Мафкуравий иммунитет - маънавий баркамол, иродаси бақувват, иймони бутун шахсни тарбиялашда, ҳар қандай реакцион, бузғунчи характердаги ғоявий ташаббусларга бардош бера оладиган ёшларни тарбиялашда қўл келади”– деб таъриф берилади фалсафий қомусий луғатида. Иммунитет, ўз навбатида одамни тўғри йўлдан “озиш”дан, турли йўлларга адашиб, кейин пушаймон бўлишлардан, бахтсизликдан, миллатни эса парокандаликдан, парчаланишлардан, синфий ёки маҳаллий бўлинишлардан асраб қолади. Демак, мафкуравий иммунитет – давлат ва миллатнинг маънавий бирлиги, маънавий соғломлигини ҳимоя қилувчи ғоявий қалқон вазифасини бажаради. Шунинг учун ҳам, Президентимиз И.Каримов “Фарзандларимиз юрагида она-Ватанга, бой тарихимизга, ота-боболаримизнинг муқаддас динига соғлом муносабатни қарор топтиришимиз, таъбир жоиз бўлса, уларнинг мафкуравий иммунитетини кучайтиришимиз зарур” лиги ҳақидаги фикрни алоҳида таъкидлаганлар.

Хулоса қилиб айтганда, мафкуравий курашлар кучайган бугунги кунда ёшлар қалбида она-Ватанимизга, бой тарихимизга, миллий қадриятларимизга, миллатнинг ўлмас руҳи бўлган она тилимизга, ота-боболаримиздан мерос муқаддас динга соғлом муносабатни қарор топтиришимиз, уларнинг мафкуравий иммунитетини шакллантиришимиз зарур. Зеро, юртбошимиз айтганларидек, бирор бир касалликни

⁶ Худойбердиев Х. Мафкуравий иммунитет // Фалсафа қомусий луғат. –Т.: Шарқ, 2004, 247-бет

даволашдан олдин инсон организмида аввало унга қарши иммунитет ҳосил қилинади. Биз ҳам ёшларимиз қалби ва онгида зарарли ғояларга қарши мафкуравий иммунитетни шакллантира олсак, турли алдовларга учмайдиган, ўз юрти, Ватани ва халқи учун фидоий инсонларни тарбиялай оламиз.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. - 112 б.
2. И.А.Каримов. жамиятимиз мафкураси халқни-ҳалқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этсин.-Т.: “Ўзбекистон”. 1998, 7-бет.
3. Аббосхўжаев О, Умарова Н., Қўчқоров Р. Мафкура полигонларидаги олишувлар. – Тошкент: Akademiya, 2007. – Б. 48-49.
4. Худойбердиев Х. Мафкуравий иммунитет// Фалсафа қомусий луғат. –Т.: Шарқ, 2004, 247-бет

**NODAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI BOSHQARISHGA
RAQAMLI TEXNOLOGIYANI JORIY QILISHGA OID XORIJIY TAJRIBALAR**

Yulchiboyev Xurshidbek

Biznes va tadbirkorlik Oliy maktabi MBA 2-kurs magistranti

Ta'lim — bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi xisoblanib, ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Shuningdek, “Ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon” hisoblanadi.

Prezidentimiz yoshlar bilimiga, nodavlat ta'lim xizmatlari sifatiga e'tibor berar ekanlar: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va mana'viy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, - deya ta'kidladilar [3, 14-b].

Shu bois Respublikamizda nodavlat ta'lim tizimini zamonaviy talablar darajasiga olib chiqish yo'nalishida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlardan biri nodavlat ta'lim xizmatlarini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish va jaxon ta'lim tizimiga, shu jumladan, mamlakatimiz ta'lim tizimiga ham yangidan-yangi, talab darajasidagi raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga qaratishdan iboratdir.

Yurtimiz xalqaro axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi bo'yicha 2019 yilda 8 - pog'onaga ko'tarilgan bo'lsa-da, hali juda ham orqada. Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin. Buning uchun esa dastlab rivojlangan xorij tajribalarini atroflicha o'rganish va asta- sekinlik bilan mamlakatimiz hayotiga tadbiq qilishimiz lozim.

A.Y.Uvarov o'z "tadqiqotlarida ta'limning raqamli transformatsiyasi mazmuni "sinergetik" yangilanish bilan birga olib borilishi kerak, bu esa ta'lim sifatini tubdan yaxshilashga olib keladi" deb qayd etadi. Uning fikriga qo'shilmaslik mumkin emas, chunki, agar ta'lim tizimi raqamli jamiyat talablari va imkoniyatlariga javob bersa, ta'limning raqamli o'zgarishi jamiyatni raqamli iqtisodiyotga olib keladi.[2, b- 353–355.]

Xorijdagi xususiy maktablarda olingan yuqori sifatli o'rta ta'lim, bolaning shaxsiy kelajagida ham, kasbiy jihatdan ham muvaffaqiyatli kelajagida muhim rol o'ynaydi. Buyuk Britaniyada, AQShda, Kanadada, Shveytsariyada, Irlandiyada va boshqa kuchli akademik an'analarga ega bo'lgan mamlakatlarda o'qish bilim olish, tillarni o'rganish, iste'dodlarni rivojlantirish va dunyodagi asosiy universitetlarga kirish uchun juda ko'p imkoniyatlarni ochib beradi.

Xorijiy tajribalar davlat va nodavlat ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat fuqarolarning sifatli ta'lim olishga bo'lgan huquqini ro'yobga chiqarishga xizmat qilishini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham bir qator rivojlangan xorijiy mamlakatlarda nodavlat ta'lim sektorining umumiy o'rta ta'limdagi ulushi salmoqli bo'lib, Germaniyada 12 foizni, Frantsiyada 17 foizni, AQShda 18 foizni, Buyuk Britaniyada 20 foizni, Ispaniya, Irlandiya va Gollandiyada 30 foizni tashkil etadi.[1, b-5]

Janubiy Koreya ta'lim milliy tizimini raqamlashtirish orqali yuqori o'sish sur'atlariga erishgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Janubiy Koreya ta'lim tizimi raqamli iqtisodiyotga asoslanganligi va ayni paytda tayyorlanayotgan yuqori malakali kadrlar orqali taraqqiyotning yuqori bosqichiga erishgan davlatlardan biri hisoblanadi. Janubiy Koreyada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boshlang'ich, o'rta hamda oliy ta'lim muassasalarida keng joriy etilgan. Mamlakatdagi universitetlarning 83 foizi "E-learning" tizimi bilan qamrab olingan. Bundan tashqari 17 ta kiber universitet mavjud bo'lib, ularda onlayn tartibida 18 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan 40 ming talaba tahsil oladi. Ushbu talabalar bilimni nazorat qilishning dasturiy ta'minoti yaratilgan. EDUNET internet portali ulkan miqdordagi videodarslar, elektron kitoblar, o'quv materiallarining ko'chirmalariga ega. Undan 6,7 mln. Kishi foydalanadi. Har kun portalga 410 ming kishi kirib, ular 27 mln. sahifa darsliklar va boshqa zarur o'quv materiallari bilan tanishadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda o'quvchilarning dunyoqarashlari o'zgarib bormoqda, natijada, ta'lim muassasalari faoliyati ham o'zgarib bormoqda va o'quvchilar hamda professor-o'qituvchilar o'z ishlarini yengillashtirish va samaradorligini oshirish uchun mavjud raqamli o'quv materiallari hamda vositalaridan ko'proq foydalanmoqdalar.

Umumiy savodxonlikka qo'yiladigan talablar, zamonaviy ishchilarning bilim va ko'nikmalari, yangi iqtisodiyot va o'quv muhiti talablari tez sur'atlar bilan o'sib

bormoqda. Nodavlat ta'lim tashkilotlari salmog'i ham kundan-kunga o'sib bormoqda. Nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish quyidagi afzalliklarga ega:

- Nazoratni amalga oshirishning tizimligi va shaffofligini ta'minlash;
- Ta'lim sohasida uchrashi mumkin bo'lgan korrupsion holatlarni oldini olish;
- Qog'ozbozlikni kamaytirish;
- Ilg'or xorij tajribalarini qo'llash imkoniyati;
- O'quvchilar bilimini adekvat tarzda baholash;
- O'quvchilar va ularning ota-onalari bilan bevosita to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot almashish.

Hozirgi ommaviy kommunikatsiya vositalari ildam rivojlanayotgan davr ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish va ta'lim tashkilotlarini boshqarishda undan foydalanishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Нодавлат таълим хизматлари кўрсатиш фаолиятини янада ривожлантириш чоратadbirlari тўғрисида»ги қарорига Шарҳ // <https://lex.uz/acts/3343077>

2. Петрова Н.П., Бондарева Г.А. Цифровизация и цифровые технологии в образовании // Мир науки, культуры, образования. 2019. № 5 (78).

3. Ш.М.Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2016. .

TABIAT BOYLIGI - XALQ XO'JALIGIDA

Yunusaliyeva M.

Namangan Davlat Universiteti talabasi

Xaydarov Eldor

Namangan Davlat Universiteti doktoranti

Xaydarova D.R.

Namangan Davlat Universiteti (PhD)

Bugungi kunda yoshlarga nisbatan davlatimiz rahbari ko'plab miqiyosda shart – sharoitlar, imkoniyatlar yaratib bermoqda . Ayniqsa ayni damda ilm- fan sohasida qonun doirasida belgilab qo'yilgan .

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 79 moddasida “ Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy – ijtimoiy , madaniy , ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi , ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi . Davlat yoshlarning intellektual , ijodiy , jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun ularni ta'lim olishiga , sog'lig'ini saqlashga , uy – joy ishga joylashga , bandlik va dam olishga bo'lga huquqlarini amalga oshirish uchun shart sharoitlar yaratadi . “

Namangan davlat universiteti tabiiy fakultetida o'quv jarayonida ma'ruza, laboratoriya ishlari, amaliy mashg'ulotlar davrida talabalarni ilmiy ish bajarishiga ham sharoit yaratilgan. Masalan tabiiy qizil bo'yoqlarni olish uni qandalatchilikda foydalanish mavzusi o'rtaga tashlangan. Shu bo'yoq koni bu amarant o'simligi gul to'plamlaridir.

GULTOJIHO'ROZDOSHLAR OILASI- AMARANTHACEAE. Bu oila vakillari bir yillik o't, ba'zan chalabuta va daraxt o'simliklardir. Oilaning hozirgi vaqtda 65 ta turkum, 900 ta turi ma'lum bo'lib, ular tropik va subtropik mintaqalarda tarqalgan. Ularning poyasi tik yoki yoyilib er bag'irlab o'sadi. Barglari tekis, bandli, navbatlashib yoki qarama-qarshi joylashgan, yonbargchasiz. Gullari bir jinsli yoki ikki jinsli, boshhoqsimon to'pgul hosil qiladi. Gulqo'rg'oni oddiy, 3-5 bargchali, oqimtir yashil yoki sarig'ish –ba'zan to'q qizil rangli, changchisi gulqo'rg'on bargchalarining soniga teng (3-5). Tugunchasi ustki, poychasiz, 2-3 tumshuqli, bir uyali, bir yoki ko'p urug'kurtakli. Mevasi yong'oq yoki ko'sakcha. Urug'lari sharsimon, yasmiqsimon va yaltiroqdir. Eshak sho'ra oilaning begona o't sifatida keng tarqalgan vakillaridan biri hisoblanadi. Bu o'simlikning tuplari mavsumda 500000-1000000gacha urug' beradi.

Ahamiyati: Oila vakillaridan em-xashak, manzarali o'simlik sifatida xo'jalikda foydalaniladi, Ayrimlarining urug'lari oziq-ovqat tayyorlashda ishlatiladi.

Dorivor o'simliklar inson salomatligini mustahkamlashda bezarar vositadir. Shu bois ham bugun respublikamizda dorivor o'simliklarni yetishtirishga, ular ekiladigan maydonlarni kengaytirishga e'tibor qaratilmoqda. Qishloq xo'jaligidagi yer maydonlariga ekilayotgan dorivor o'simliklar tadbirkorlar tomonidan qayta ishlanib, ham daromad, ham salomatlik vositasiga aylanmoqda.

Garchi nomi ko'pchilikka notanish bo'lsa-da, amarant o'simligining davo xususiyatlari tibbiyotda ma'lum. Asli Amerika, Yevropa, Afrika, Osiyo va Rossiyaning ayrim viloyatlarida o'stiriladigan ushbu o'simlikni respublikamizda ham sinov tariqasida ekilmoqda. Buxoro viloyati Romitan tumani Qalaychorbog' qishlog'ida istiqomat qiluvchi tadbirkor Nargiza Ahmedova ushbu o'simlikning foydalilik jihatlaridan xabar topib, uni 20 sotix yer maydonida yetishtirishga va shu orqali yurtdoshlarimizning salomatliklarini mustahkamlashda o'z hissasini qo'shishni lozim topdi. Sinov tarzida ekilgan amarant bugun hududning tuproq iqlim sharoitiga moslashib, kutilgan natijani bermoqda. Amarantni ekish yurtimizda qimmatbaho dorivor mahsulotlarni arzon narxda o'zimizda yetishtirish, agrar sohani siderat va serhosil yem-xashak ekin turi bilan boyitish, qishloq xo'jaligi va farmatsevtika sohalarida yangi yo'nalishlarni ochish, asosiysi, tuproqning tabiiy unumdorligini oshirish imkoniyatini yaratadi. O'zbekiston florasida ham ushbu o'simlikning bir avlodi va 10 turi o'sadi. Ya'ni o'simlikning manzarali turi sifatida gultojixo'roz (*Celasia* va *Comfrena*) ko'p tarqalgan. Andijon davlat universiteti professori Muminov M. tomonidan uchta yangi navi kashf etildi "O'zbekiston-M", "Marhamat", "Ulug'nor" va ular patent bilan taqdirlandi.

Amarantning bargida 30 foizgacha oqsil modda va 270-350 mg/kg koratin mavjud. Ularning tarkibida riboflovin, vitaminlar, askorbin kislotasi, K, E, D va boshqa vitaminlar bor. Amarant moyi me'da va ichak yaralarini davolash xususiyatiga ega bo'lib, teri kasalliklari, qirqilgan yaralarni bitishini tezlashtirish uchun va nur kasalligi bilan og'rikan bemorlarni davolashda qo'llaniladi. Uning moyi oblepixa moyidan qolishmaydi. Amarant o'simligining bargi, urug'i hamda poyasi shifobaxsh hisoblanib, uni kamqonlik, aterosklerozi, adenoma, gemorroiy hamda yurak-qon tomirlari zararlanishida, jigar va buyrak faoliyati buzilishida dorivor vosita sifatida ishlatish mumkin. Ayniqsa, amarant organizmni yaxlit sog'lomlashtirish, yashartirish va quvvatlantirish maqsadida keng qo'llaniladi. Bundan tashqari, amarant urug'i soch to'kilishi va oqarishiga qarshi samarali hisoblanadi.

O'simlikning yashil massasi ham, mevalari ham juda ko'p vitaminlar va mikroelementlarni, shuningdek, ajoyib xususiyatlarga ega bo'lgan turli xil foydali moddalarni o'z ichiga oladi. O'simlikning bu fazilatlarini uning joylashgan joylarida

bog'liq. Amaranthning ayrim turlarining barglari va mevalari gomeopatiyada keng qo'llaniladi.

Yutuqlarga shubha bilan qaraydiganlar uchun muqobil tibbiyot, to'yib ovqatlanmaslik muammosi o'tkir bo'lgan uchinchi dunyo mamlakatlarida (shuningdek, monoton past ozuqaviy monoratsiya) Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti amaranth o'simlikini foydali va to'yimli qo'shimcha sifatida tavsiya qilishini bilish foydalidir. Hindiston ta'lim vazirligi shuni inobatga olgan holda, uni mamlakatdagi bolalar muassasalarida qo'llash amaliyotini joriy qildi.


Homilador ayollar uchun amarantni iste'mol qilish juda foydali, chunki u foliy kislotasining qimmatli manbai hisoblanadi. Ushbu moddaning etishmasligi homilada asab to'qimalarining (xususan, orqa miya va miya) rivojlanishidagi nuqsonlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Gultojixo'roz guli tarkibidan bo'yoq olish maqsadida unidan ekstraksiya olindi. Ekstraksiyalarning tarkibi shundan iboratki 3 ta idish oldik 1- idishga 10 gr gultojixo'roz guli soldik va unga 200 ml erituvchi (tarkibi 40%li etil spirti , 1 gr limon kislota) . 2- idishga 5 gr gultojixo'roz guli 5 gr rutin hamda 200 ml erituvchi . 3- idishga 8 gr gultojixo'roz guli 2 gr rutin 200 ml erituvchi quyiladi . Ushbu tayyorlangan eritmalarni 1 kun davoida og'zini yopiq xolda olib qo'yib , so'ngra barcha olingan ekstraksiyani filtirlab uni suv hammomida quruq xolga kelgungacha bug'latilindi . ularni kalonkaga qo'yish uchun tayyorlaniladi, (kalonkaga qo'yishning maqsadi olingan moddani begona moddalardan ajratib sof xolga keltirish) sorbent siifatida silikogel moddasi 10 :1 nisbatda ishlatiladi . sorbentni dastavval suv orqali eritib olib uni kalonlaga quyiladi va 30 daqiqa kutiladi undan so'ng amarant solindi bu eng avvalo suv orqali yuvladi so'ng 40 % li spirt orqali yuvildi . Barcha kalonkalar mexanizmi shu doirada olib boriladi faqatgina undagi amarantni massasi o'zgargan bo'ladi . 1- kalonka uchun 1.8 gr, 2-kalonka uchun 2 gr , 3 – kalonka uchun 1.5 gr amarant sarflangan .

Ushbu tayyorlanga ekstraksiyalarni amaliyotda tatbiq qilish maqsadida uni matoda , sabzavotda qo'llanildi . Amarantin,amarantin-rutin , amarantin -rutin-alyuminiy xlorid .




. Amarantin



amarantin-rutin



amarantin-rutin-alyuminiy xlorid .



Amarantin
amarantin-rutin
amarantin -rutin- alyuminiy
xlorid



Sabzavotda olingan natijalar

XULOSA

Amarant o'simligidan qizil bo'yoq, hamda rutin bilan kompozit qiziol bo'yoq olindi

Olingan bo'yoqlar bilan paxta materiallari va sabzavotlar bo'yaldi, bo'yash sifati tekshirildi

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Ольшанская О.М., Артемова А.В. Текстильная химия, 2000, №1, с. 98-106.
2. Чуб В. Для чего нужны антоцианы // Цветоводство. – 2008. №6 – С. 22
Http: www.bibliotekar.ru/slovar
3. Муминов М. Амарант усимлиги асосида товарлар олиш ва уларни кимевий таркиби буйича синфлаш, Доктор (DSc) илмий даражасини бериш буйича такдимнома. Андижон, -2022, 7бет.
4. Терентьева Е. Амарант — растение прошлого и будущего // В мире растений. — 2003. — № 10.
5. Железнов А. В. Амарант — хлеб, зрелище и лекарство // Химия и жизнь. — 2005. — № 6. — С. 56—61.

6. Стрижев А. Амаранты // Наука и жизнь. — 1979. — № 11. — С. 159—160.

The Oxford Companion to Food / Alan Davidson, Tom Jaine. — Oxford University Press, 2014. — ISBN 978-0-19-104072-6.

MUNDARIJA

Abdiyeva Sh. Tenglamalarni funksiya grafigidan foydalanib yechishda geogebra dasturini qo'llash.....	3
Abdunazarova A., Kurbanova F. Several samples for increasing vocabulary....	8
Abdug'ayurova X. Iqtisodiy o'sishning omillari, ko'rsatkichlari va prognozlash funksiyalari.....	11
Abdullayev J. Siyosat, siyosiy jarayon va siyosiy munosabatlar.....	15
Abdullayeva D. Jamiyatda gender ta'lim strategiyalarini amalga oshirish imkoniyatlari.....	18
Abdullayeva M, Turdiyeva G. Jizzax viloyatining ekoturistik salohiyatini oshirish yo'llari (Zomin ekoturistik rayoni misolida).....	22
Abdullaeva N, Azizov M. O'tkir pankreatitning rivojida sitokin tizimining o'rni haqida zamonaviy tushunchalar.....	27
Abdumutalipova Sh. Ingliz tilini o'qitishda multfilmlardan foydalanish.....	31
Abduraimova M, Hakimov O, "Avesto" da huquqiy madaniyat.....	34
Abduraxmonov N. Berdiyev D. Denov tumanida tarqalgan ayrim tuproqlarning gumus bilan ta'minlanishi.....	38
Abdusalomov R, Abduazizov A. Temuriylar davlatininig ilm-fan va madaniyatga qo'shgan hissasi.....	42
Abdusamatova D, Yakubova G. Ingichka hududi ma'danli gorizontlarining xususiyatlari va uran minerallashuvi.....	45
Abdikhamitova S, Kurbanova F. Developing listening skill in primary education.....	49
Azamov Sh. Rivojlantiruvchi ta'lim sohasini loyihalash asoslari.....	52
Ayitbayeva N. Kleptomaniya nima – bolalardagi kleptomaniyani qanday aniqlash va kleptomaniyadan qanday qutulish mumkin?.....	58
Айсина М. Антонимия как лексическое явление в русском языке.....	61
Акбарова D. Bolalardagi qo'rquvni bartaraf etishda ertak terapiyaning ro'li.....	64
Акmalov Н. Referendumning mohiyati va konstitutsiyamizga kiritilayotgan inson huquq va erknliklari, sud-huquq sohasidagi islohotlar.....	67
Акramova G. Globallashuv davrida milliy qadriyatlar targ'iboti va uning ahamiyati.....	70
Aldamurotova A. Orol dengizini qayta tiklash bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar.....	73
Алиев Т. Янги Ўзбекистонда олий таълим тизимини ислоҳ этиш – тараққиёт гаровидир.....	77
Амиров Э, Хакимов Ш. Қизилолмасой маъданли майдони узилмали структуралари ва уларнинг металлогеник аҳамияти.....	80

Арзикулов Ф, Убайдуллаева М. Описание некоторых пространств 2-локальных линейных операторов векторных пространств малых размерностей.....	84
Асанова Г. Роль семьи в социализации и адаптации детей.....	86
Aslanova A. Oral brand indicators.....	88
Асамова У. Ўқув марказлари фаолияти бўйича мутахассис билан суҳбат ва унинг натижалари хусусида	92
Ataxanova R, Kurbanova F. Developing in young learners.....	98
Axmadaliyeva M. Umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitishdagi muammolar.....	101
Ahmedova D, Turdimatova H. Iqlimning o'zgarishi natijasida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar.....	103
Badalbayeva M. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish sohasida davlat tilining qo'llanishi.....	109
Badridinova A. Different scientific views on paremiology.....	112
Баймуратова К. Дифференциал тенгламаларнинг иқтисодиёт масалаларида қўлланилиши.....	114
Baratova D. Interrelation of aphorisms in linguistics.....	117
Baxtiyorov J. Xalq ko'nglining ovchisi (Erkin Vohidov).....	119
Begbo'tayev A. G'azibekov J. Ta'lim tizimini takomillashtirishda inson omilining ro'li.....	122
Bekmuradova G. Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini boshqarishda zamonaviy yondashuvlar.....	125
Bekniyozova Z. Universitet darslarida cilning til va o'qitish metodikasi xususiyatlari.....	127
Bekchanov Z. Hayot va yaratishga iroda: yangi O'zbekiston tajribasining sotsiologumanistik mohiyati.....	131
Bozorboyev E. Ta'lim tizimidagi islohotlar olimlar va yoshlar nigohida.....	134
Бойқўзиева Г. Замонавий жамиятларда хотин-қизларнинг Ижтимоий-сиёсий ҳаётга интеграциялашув жараёнлари.....	138
Buriyev U. Valyuta kursi o'zgarishining mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar raqobatbardoshligiga ta'sirini baholash	142
Буриева Ф. Валютный курс: сущность, виды, факторы его определяющие.....	144
Burhanova M. Farzand ta'lim tarbiyasida ijtimoiy psixolik xususiyatlari.....	149
Во'tayev U. Harbiy xizmatchilar faoliyatida frustrasiyaning ahamiyati.....	152

G'ofurov O. Reforms in the educational system: in the eyes of scientists and young people.....	156
G'ulomova Z. Said Ahmad ijodida inson va jamiyat muammosi.....	161
Doniyorov H. O'zbekistonda nomonetar omillarning infilyatsiyasiga ta'sirini aniqlash.....	164
Do'smuradova Y. Intertekstuallikning dunyo tilshunosligida o'rganilishi.....	166
Ёзиева Ш. Узбекско-египетские взаимоотношения – Мост вечной дружбы и доверия.....	169
Jabbarov K. Buxgalteriya hisobida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	173
Жалилов Б. Мафкуравий стратегия хусусиятлари.....	176
Janbayeva M. Art-terapiyada nevrografiyaning ro'li.....	180
Jienbaev B. “Elektron hukumat” tizimi tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishda xorij tajribasi.....	184
Joldasova K. Informatika fani o'qituvchilarining malakasini oshirishda informal ta'limning ahamiyati.....	188
Jumayeva G. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik metodlar.....	191
Jumamuratova S. Til ta'limida lingvomadaniyatning shakllanishi va o'quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-didaktik asoslari.....	193
Jumaniyazova L, Shukurova Sh. Yangi davr talabiga binoan ingliz tilini o'qitishda yangicha metodlarning ahamiyati.....	196
Juraboeva N. The importnace and role of productive skills in english language learning.....	198
Jo'rabekov A. Turizmدا yangi raqamli texnologiyalar: muzeylarda mobil audiogidlardan foydalanishning ahamiyati.....	201
Ibragimova F. Yadgarova O.I. Maktabgacha yoshdagi bolalar xotirasining o'ziga xos xususiyatlari.....	205
Isaqova Z. Yoshlar tarbiyasida texnologiya faninig o'ziga xos xususiyatlari.....	210
Исмоилов Ш. Электронное обеспечение судебной Деятельности в Республике Узбекистан.....	215
Istamov J, Dusiyorova Ch. Ikki o'lchamli simpleksda parametrğa bo'liq qat'iy musbat kvadratik stoxastik operatorning dinamikasi haqida.....	221
Қаландарова Г. Ёттиқод феноменининг фалсафий аҳамияти ва методологик жиҳатлари.....	223
Kenjayeva N. Gegenbauer ko'phadlari.....	228
Кулибоев А. Давлат тиббиёт ташкилотларида бухгалтерия ҳисобининг норматив-ҳуқуқий асослари.....	229

Kunakova F. Ishlab chiqarish funksiyasi va ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.....	234
Kurbanova F. Umummadaniy xabardorlikning taraqqiyot modeli.....	238
Kalmuratova S., Muxiyatdinov J. Chiziqli bo'lmagan tenglamalarni yechishning dixotomiya usulining tahlili.....	241
Kayumova Sh. Theoretical importance of developing students reading literacy with the help of creative technology.....	244
Qo'ldoshev O, Begbo'tayev A. Ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etish muammolari.....	248
Qurbanbaev O', Djakaeva K. Chiziqli differensial tenglamalar uchun koshi funksiyasi va uning chegaraviy masalalarni yechishda tadbirlari.....	253
Қурбонова З. Аҳоли билан ижтимоий таълим ва тарбиявий ишларни такомиллаштиришда педагогик технологиялардан фойдаланиш.....	256
Qurbonova S, Shukurova Sh. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan ta'lim tizimida foydalanish va chet el o'qitish metodikalarini qo'llash.....	258
Kurbanova F, Malikov D. Integrating physical activities in english classes.....	260
Mamadaliyev A. Jismoniy tarbiya va sport sohasi rahbarlariga xos boshqaruv kompetensiyalari.....	263
Mamarasulov A. Kosmonim so'zlar ishtrok etgan frazeologizmlarning genezisi hamda ilmiy o'rganilishi.....	266
Mamatov B. Samarqand tarixi: yalangto'sh bahodir va registon ansambli.....	271
Mamatova D. Xitoy yirik oshxonalarida ta'm kategoriyasining o'ziga xosligi.....	276
Mamashukurov O. Jamoat tashkilotlarining yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishdagi roli va ahamiyati.....	279
Mardiyeva Sh. Liderlik fenomeni, talabalarda liderlik qobiliyatini o'rganilish holati va talabalarda o'zini-o'zi boshqarish.....	282
Mardiyeva Sh. Talabalar jamoasida liderlik qobiliyatini shakllantirishda, xorij olimlarining amalga oshirgan ilmiy tadqiqot ishlari.....	287
Матёкубова Ш. Инглиз тили дарсларида аутентик материаллардан фойдаланиш.....	292
Masharipova M, Saparova M. Mintaqada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda innovatsiyalarning o'rni.....	294
Mingboyev I, Allayorov S. Gender tushunchasi va uning asosiy mohiyati.....	297
Mirzamurodov O. Bozorga chiqarilgan qimmatbaho qog'ozlarning matematik modeli.....	301
Мосин В. Использование игровых технологий обучения на уроках географии.....	303

Murodov S. Assessment of the impact of the transition to a green economy on economic growth.....	306
Murodova M. Ona tili va o'qish savodxonligi darsligidagi "nutq haqida" she'rini o'tish metodikasi	309
Nazarov D. Sport faoliyatida motiv va motivatsiya muammosini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari.....	313
Namozova M. Taekvondo bo'yicha uzoq muddatli tayyorgarlik tizimining tuzilishi hamda oraliqni his qilishni shakllantirishning muhim jihatlari.....	316
Nematullayeva M, Shukurova Sh. Chet tillarini o'qitishda zamonaviy metod va innovatsion texnologiyalardan foydalanish.....	319
Nizomiddinova D. Kreativlik: tarix, ta'rif va tahlil.....	320
Nishonov S. Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash - jamiyat taraqqiyotining istiqbolli dinamikasi.....	322
Normamatova Sh.N. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasini o'rganish, korreksiya qilish va jamiyatga moslashtirish yo'llari.....	325
Normatova S, Shukurova Sh. Xorijiy tillarni o'qitishda intefaul metodlardan foydalashning ahamiyati.....	330
Нартураева С. Ўзбек композиторлик ижодиётида фортепиано ва йирик шаклдаги асарларда рақс жанрининг мавзуйлик масаласи.....	332
Nuriddinova A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy salohiyatini oshirishda mantiqiy fikrlashning ahamiyati.....	337
Nurillayeva Z, Shukurova Sh. Ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'rganishda innovatsion texnologiyalarning o'rni.....	340
Obbosxonova N.Z. Konchilik sohasida ingliz tilini o'qitish usullari.....	342
Obidova N. Badiiy talqinda psixologik tahlil.....	344
Odiljonova D. Ingliz tilida so'zlarni eslab qolishning samarali usullari.....	348
Odilova M. Qo'qon xonligida qo'shin ta'minoti.....	352
Олимова М. Хотин-қизлар хулқ-атворининг сиёсий фаолиятидаги аҳамияти.....	356
Oripov X. Ommaviy axborot vositalari so'z erkinligining huquqiy va axloqiy ko'zgusi sifatida.....	361
Osimov B. O'zbekiston respublikasi hududida so'nggi yillarda sodir bo'lgan yo'l-transport hodisalari va ularni oldini olish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar.....	363
Otabayev M. Effortless methods of teaching of idiomatic expressions in the esl lessons.....	369
Otakuziyeva S. Barqaror taraqqiyotda ayollar: ilm-fan va sifatli ta'lim.....	371
Отарова Ж.А, Узакбаева Д.Е. Краевая задача для волнового уравнения с дробной производной.....	375

Отарова Ж, Реимова Л. Об одной обратной задаче для смешанного уравнения четвертого порядка.....	379
Primov S. Intellektual mulk huquqi va uning jamiyat bilan bog'liq huquqiy tomonlari.....	382
Po'latova N. Oliy ta'limda optika darslarida zelmeyer nazariyasini tushuntirish orqali talabalarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish.....	387
Равшанов О. Ҳофиз рўзибой машраб ижодида одоб-ахлоқ масаласи.....	391
Ражапова Э. Ёш тадбиркорларнинг удудий иқтисодий муаммолари	394
Рахматулаев Б. Ялпи ҳудудий маҳсулотда хизмат кўрсатиш соҳасининг улушини ошириш имкониятлари.....	397
Рахматуллаев Б. Иқтисодийни модернизациялаш шароитида хизматларни тизимлаштириш ва таснифлаш.....	402
Rahmanova S. Kvadrat tenglamalarni yechish usullari.....	406
Rahmanova Ch, Faxriddinov F . Ba'zi birinchi tartibli bo'lakli-uzluksiz o'zgarma argumentli differensial tenglamani yechish.....	409
Rahmatova M, Sohibova Z. Alisher navoiy ijodida kuz fasli talqini.....	411
Ризаева Л. Мактабгача таълим тизимини ривожлантириш ва унинг асосий йўналишлари.....	414
Risbekova D. Hosilaning fizika faniga tadbirlariga misollar.....	420
Рохаталиева Г. Определение оптимального уровня долларизации в Узбекистане.....	423
Ro'ziyev Sh. Boshqali don ekinlarining un-shudring kasalligi, kasallik belgilari va zararini o'rganishning ahamiyati.....	425
Ro'ziboyev D. Rus oientalizmining shakllanishi va uning o'ziga xosligi.....	428
Рўзиёв О, Кажанова О. Таълим сифатини ошириш – янги ўзбекистон тараққиётининг яққаю ягона тўғри йўлидир!.....	433
Ruziqulov N, Umurzakova N, O'zbekistonning tashqi savdosini rivojlantirish va takomillashtirish yo'llari.....	436
Рузметова Н. Проблемы модернизации системы профессионального образования в узбекистане.....	439
Sadriddinova F. Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at fanining o'qitish metodikasi.....	444
Sayfiddinova J. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning nazariy tahlili.....	448
Саламов Ф. Инвестиция молиявий механизмларни такомиллаштириш сифатида.....	451
Сангинов С. Экологическое образование в Узбекистане: состояние, проблемы и перспективы.....	454
Sangirova N. Oiladagi mojarolar.....	458

Safarov A.A., Safarov A.N., Khasanov Sh.Kh., Umurzakov E.A., Suvanova S.F., Muminov M. Assessment of radon risks at the rural settlements of Uzbekistan.....	462
Safarova F. William Faulkner's role in the American literature.....	464
Sindarova D. Badiiy matnning fonetik -fonologik xususiyatlari (shavkat rahmon she'riyati asosida).....	467
Sindorov D. Yashirin iqtisodiyotni mimic modeli yordamida baholash.....	469
Sobirova A, Shukurova Sh. Xorijiy tillarni o'qitishda pedagogik va psixologik mahurat.....	473
Sindorov D. Yashirin iqtisodiyot va mimic model asosida modellashtirishning nazariy asoslari.....	475
Subkhonova N, Klichev O. Cultural relations of Uzbekistan and Turkmenistan on the pages of "Xalq so'zi" newspaper.....	479
Султанова А. Материнская депривация как фактор суицидального риска у подростков.....	482
Sultanova S. Shaxsda aybdorlik hissining ifodalanishi psixologik fenomen sifatida.....	485
Суюнова З. Аудит основных средств.....	488
Temirxolova B, Negmatulloev Z. Differensial tenglamalarni yechishda Maple paketidan foydalanish.....	491
Tosheva R, Talibjanova A. Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ko'lami.....	496
Тургунов А. Дерматоглифика: история и наука.....	499
Turdiyeva G, Valiyev H. Surxondaryo viloyatida tibbiy-rekratsion turizmini rivojlantirish istiqbollari (Omonxona sanatoriyasi misolida).....	504
Turdiyev M, Farmonova S. Buxoro hududiga yahudiylarning ko'chib kelishi tarixi, urf-odat va an'analar.....	509
Tursunaliyev I. Malaka oshirish tizimining innovatsion modeliga pedagogik tacnif: jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari misolida.....	513
Турсунов Ш., Рахманкулов Ж. Қашқадарё вилоятида "маҳаллабай ишлаш" тизими доирасида амалга оширилган ишлар таҳлили	517
Tursunov Q, To'xtayeva Sh. Boshlang'ich ta'lim matematika darslarining sifatini oshirish haqida.....	521
To'xtayeva M.X. Imom buxoriy aqidaviy qarashlarining ijtimoiy-madaniy va aksiologik xususiyatlari.....	526
Uzoqova M, Abdusamadov Z. Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish.....	530
Ulug'bekova G, Adhamov Sh. Anatomiya va klinik anatomiya fanlarini o'rganishda zamonaviy o'quv texnologiyalarining ahamiyati.....	532

Умрзақов Б. Бўлажак технологик таълими ўқитувчиларида замонавий касбий сифатларни виртуал технологиялар орқали шакллантиришнинг инновацион педагогик ва виртуал омиллари.....	537
Умурзакова.Н.М Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтиришда ҳуқуқий тарғибот тадбирларини ташкил этиш масалалари.....	539
Усманов Ж.Б. Ижтимоий билишда низомий арузий самарқандийнинг фалсафий қарашлари.....	544
O'smanova D. Dars jarayonida loyiha metodidan foydalanish hamda ta'lim samaradorligini oshiruvchi va adabiy-nutqiy kompetensiyalarni shakllantiruvchi vosita sifatida.....	545
Usmanova Yu. Ergasheva O. Brokkoli karamida suyuq suspenziyalı o'g'ir qo'llanilganda vegetatsiya davomida o'zlashtirilgan npk miqdori.....	548
O'tayev A. Ta'lim tizimidagi islohotlar	552
Utanbayeva D. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini pirls xalqaro baholash dasturiga tayyorlash metodikasini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	556
Fayziyev A. Mamlakatimizda oliy ta'limning rivojlanish istiqbollari.....	559
Fayzullayeva D. Ta'lim tizimidagi islohotlar olimlar va yoshlar nigohida.....	564
Farxodov F. Gapparova M. Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy munosbatlar jarayonlarini tashkil etish va boshqarish.....	566
Fattoyev E. Mamlakatda import tariflarini pasaytirishning narxlar darajasiga ta'sirini baholashning gipotetik modelini yaratishning asoslari.....	571
Fozilov Sh, Yo'ldosheva M. Natural sonlar sistemasi uchun peano aksiomalarining kengaytmasi.....	573
Хайдарова Ж. Раҳбар аёлларнинг бошқарув компетенциялари ривожлантириш	578
Хакимов О., Умурзакова N. Maktab ta'limi tizimidagi islohotlar.....	582
Халбаев Ш. Туризм соҳасида туристик корхоналарининг иқтисодий салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлиги тизимини моделлаштиришда иқтисодий ўсишни сифат жиҳатидан баҳолаш кўрсаткичидан фойдаланиш.....	586
Ҳамидова З. Таълимда бошқарув фаолиятини ташкил этишнинг назарий асослари.....	596
Хамраев А. Yong'in xavfsizligini o'qitishda innovatsion usullardan foydalanish.....	601
Хамрақулов Z. Ta'limda jinoyat huquqi fanining ahamiyati.....	603
Хидирова Б. Рақамли иқтисодиёт шароитида банк- молия тизимини трансформация қилиш жараёнида замонавий ахборот-коммуникация технологияларини ўрни.....	607

Хидоят М. Социализация и вопросы высшего образования.....	610
Xodjiyeva F.O, Hamdamova L.O. Akmeologik yondashuv asosida talabalarda ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish.....	615
Xolikova X, Sultonova M. O`smirlik davridagi deviant xulq-atvorni psixologik tashxis qilish.....	617
Xolmuhammedova X. O`quvchi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ahamiyati.....	620
Hoshimov J. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda Xitoy tajribasi.....	622
Xo'jamqulova N. Boshlang'ich sinflar uchun pirls topshiriqlarini tayyorlash va ular ustida ishlash texnikasi.....	625
Kurbanova F.K, Khurozova SH.M. Improving pronunciation skills.....	628
Хусанов Мизроб. Любвиная лирика пушкина.....	632
Xushboqov B.X. Pedagoglarning kreativlik imkoniyatlari va ularning tarkibiy asoslari.....	636
Shamsiddinova, M. Ta'lim tizimidagi islohotlar yoshlar nigohida.....	639
Shamshiyeva V. Jamiyatda inson qadri va ijtimoiy manfaatlarni ro'yobga chiqarishda ijtimoiy siyosatning o'rni.....	644
Шарипов А. Туризм как стратегический сектор экономики Узбекистана.....	647
Шарипов Д. Глобал тинчлик ижодкорларидан бири (зб.бжезинскининг ҳаёт йўли ва геостратегик концепциясининг рационал ва методологик мағзи).....	652
Шерматов М. Ахборот-коммуникация технологиялари судларда жамоатчилик назоратини таъминлашдаги ўрни.....	658
Shermatov F. Harbiy haydovchilarda psixologik shikastlanishning namoyon bo'lishi va uning salbiy oqibatlarini.....	663
Shokirova G. Muhammad yusuf she'riyatida lolaqizg'aldoq obrazi.....	667
Шукуров О. Таълим соҳасидаги ислохотлар – келажак пойдевори.....	669
Эгамбердиева Ф, Усмонбоева М. Талабаларда креатив тафаккурни шакллантириш ва ривожлантириш масалалари.....	671
Elmuradova S. Ta'limdagi o'zgarishlarning madaniy istiqboli.....	676
Ergashev K. Yoshlarni insoniylik ruhida tarbiyalash masalalari.....	679
Эргашева И, Савицкая Т. Методы выделения днк для молекулярно-генетических исследований.....	682
Ergashova M, Amirqulov J. Ko'kpatas ma'danli maydonining geologik tuzilishi va mineral tarkibi.....	684
Esonaliyeva G. Gender tenglikning milliy madaniyat va qadriyatlarga ta'siri.....	687
Xodjiyeva F.O, Esanova. A.N. Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash yo'llari.....	692

Юлдашева М, Абдуманнонова Ш. Глобаллашув жараёнида ёшларда мафкуравий иммунитетни кучайтириш зарурияти.....695
Yulchiboyev X. Nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarishga raqamli texnologiyani joriy qilishga oid xorijiy tajribalar.....699
Yunusaliyeva M, Xaydarov E, Xaydarova D. Tabiat boyligi - xalq xo'jaligid...702

“TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR: OLIMLAR VA YOSHLAR NIGOHIDA”

**mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy
konferensiya to`plami**

2023-yil 13-aprel

Konferensiyaning telegramdagi rasmiy kanali

https://t.me/konferensiya_2023